2025-yil, iyun 11-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2021-9752

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802





DOLZARB MAVZU



Islomjon YAQUBOV,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori, Toshkent shahri
islamjon.yakubov.61@mail.ru

ISTIQLOL DAVRI ROMANLARINING FALSAFIY-ESTETIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek romanining genezisi o‘rganilgan. Bu dunyo xalqlari madaniyatlarining uyg‘unligi nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki adabiy hayotda ham yangi formal-stilistik tadqiqotlarning paydo bo‘lishi omiliga aylanganligini asoslaydi. Muallif buni mustaqillik davri o‘zbek romanchilari Suqrot (Sokrat), Platon (Platon), Arastu (Aristotel) kabi qadimgi faylasuflardan, Yevropa falsafiy yo‘nalishlarida yaratilgan asarlardan qanday saboq olgani misolida tushuntirgan.

Kalit so‘zlar: *roman, qahramon, yozuvchi, genezis, yo‘nalish, matn, adabiy tanqid, poetika, adabiy jarayon.*

Аннотация: в данной статье рассматривается генезис узбекских романов периода независимости. В ней обосновано, что гармония культур народов мира явилас фактором возникновения новых формально-стилистических исследований не толко в общественной и культурной, но и в литературной жизни. Автор объяснил это на примере того, что узбекские романисты периода независимости училис у таких древних философов, как Сократ (Сократ), Платон (Плато), Аристотел (Аристотел), а также произведений, созданных в европейских философских направлениях.

Ключевые слова: *роман, герой, писател, генезис, направление, текст, литературоведение, поетика, литературный протсесс.*

Annotation: this article examines the genesis of Uzbek novels of the independence period. It substantiates that the harmony of cultures of the peoples of the world was a factor in the emergence of new formal-stylistic studies not only in social and cultural, but also in literary life. The author explained this using the example of the fact that Uzbek novelists of the independence period learned from such ancient philosophers as Socrates (Socrates), Plato (Plato), Aristotle (Aristotle), as well as works created in European philosophical trends.

Keywords: *novel, hero, writer, genesis, trend, text, literary criticism, poetics, literary process.*

Insoniyat tarixida shunday jarayonlar borki, dunyo xalqlari madaniyatining uyg‘unlashuvi yangi hodisalarni yuzaga chiqarganligi kuzatiladi. Masalan, ellinlar madaniyatining sharqdagi mahalliy xalqlarning madaniyati bilan birikuvi o‘sha davrdagi tarixiy vaziyatning, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlarning mahsuli edi. Sharqning yunon va makedon madaniyati bilan, aksincha, ularning Sharq madaniyati bilan tanishuvi Bolqon yarim orollari, Egey dengizidagi orollar, Kichik Osiyo, Misr, Old Osiyo, O‘rta Osiyoning janubiy tumanlari, Markaziy Osiyoning bir qismi yaxlit makonga aylanishi tufayli sodir bo‘ldi. Demakki, yaxlitlik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyotning ham muhim omili.

Ellinizm [6] davrida adabiyot va san’at ijtimoiy-siyosiy jangovar ruhdan chinakam san’at yo‘nalishiga, ko‘ngil izhoriga, insoniy munosabatlar tasviriga o‘tdi. Alohida odamning kayfiyatini ko‘rsatish muhim sanala boshlandi. Adabiyot va san’at baland didli kitobxon saviyasiga yuksaldi. Menandr *(Afina)* dramalarida ruhiy-psixologik teranlik; shoir Kallimax *(Shimoliy Afrika)* ijodidagi qisqalik, aniqlik, o‘tkirlik, klassik adabiyot an’analaridan qochish, epigramma, epilliya, gimn janrlariga murojaat etish; Feokrit idilliyalaridagi ko‘tarinki romantik ruh; nasriy asarlardagi folklorga yaqinlashish singari belgilar keyingi davr yunon va Rim adabiyotiga poydevor vazifasini o‘tadi. San’at sohasida mahalliy an’analarga, buyuk

san’at ustalariga ergashib ish ko‘ruvchi oqimlar yuzaga keldi. Tasviriy san’atda haykal va portret; rassomlikda mozaika, manzara, natyurmort janrlariga ahamiyat ortdi. Ellinizm san’ati Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida mahalliy san’atning qadimiy an’analari bilan uyg‘unlikda rivojlandi.

Demak, tarixiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlardagi globallashuv fikr-tuyg‘uning makoniy kengayib, zamoniy chegaralardan o‘zib, yanada boyib borishi, dunyo xalqlari madaniyatining uyg‘unlashuvini, yangi hodisalarning paydo bo‘lishini ham taqozo etadi. Bu fikr o‘zbek romannavislari antik falsafaning Suqrot *(Sokrat)*, Aflotun *(Platon),* Arastu *(Aristotel)* va boshqa vakillari fikrlariga tayanishlari, XIX asr Yevropa falsafiy yo‘nalishlarida yaralgan asarlardan o‘rganishlari, shuningdek, tasavvufiy qarashlarga mayl bildirishlarining obyektiv asoslari ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Ijod ahli fikrlash madaniyatida gumanistik tamoyillar ustuvorligi madaniy merosning turli davr mahsullariga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Yevropa Renessansi yoxud Sharq Uyg‘onish davrida kuzatilganidek, antik falsafa namoyandalarining asarlarini o‘rganishga bo‘lgan kuchli intilishni yuzaga chiqardi. Zotan, erkin fikr yuritish kuni kecha o‘zgarmas deb qaralgan haqiqatlardan voz kechishga, botiniy iste’dod va qobiliyatni ro‘yobga chiqarish, ilmiy-falsafiy merosni o‘ziga xos tadqiq qilish orqali insonning eng oliy qadriyat ekanligini isbotlashga imkon beradi. Zamondosh ijodkorlarimizda fikr teranlashgani,ko‘ngil ingichkalashgani uchun ham bugungi o‘zbek adabiyotida insonning botinini tadqiq etishga e’tibor ortdi.

Adabiyotshunosligimizda G‘arb estetikasi va badiiyati tamoyillari bilan zamonaviy adabiy jarayon hodisalarini bog‘lashga kuchli intilish mavjud. Shubhasiz, biz bu harakatning ijobiy jihatlarini inkor etmaymiz. Ammo jonli adabiy jarayon tajribalarini o‘rganish, romanchiligimiz yetakchi tamoyillarini milliy va jahoniy asoslarda tadqiq etish adabiy-nazariy izlanishlarimizning asosini tashkil etadi. Adabiy jarayon ijodiylikka asoslangani bois, plyuralistik yangicha ijodiy tafakkur badiiy ijod tarzida ham ko‘p tarmoqlilikni keltirib chiqardi. Bu esa yondashuv usullari ham poetik hodisaning murakkab milliy tabiatiga mutanosib bo‘lishini, birinchi navbatda, romanda muallif nigohi orqali tasavvur qilingan borliqni tahlil qilishni talab etadi.

Illo, yozuvchining insonni tushunish va ifodalash yo‘li milliy-adabiy an’analar zaminiga ijodiy yondashuv orqaligina o‘tadi. Chunki yozuvchi millat kishisining ma’naviyati qirralarini tekshiradi, uning ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas sezimlarni o‘z ichki ehtiyojidan kelib chiqib tadqiq etadi. Bu jarayonda fikrlash, anglash, ta’sirlanish hamda tushuntirish tamomila milliy asosda va mutlaqo individual tarzda kechadi. Zero, milliy istiqlol davrida o‘zbekning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondashish tarzida sezilarli siljish sodir bo‘ldi. O‘zbek romani o‘z taraqqiyotining oldingi bosqichlariga nisbatan teranroq darajada milliylashdi.

Chunki ijtimoiy va badiiy ong sog‘lomlashdi, fikrlar plyuralizmi tufayli adabiy hodisalar qayta idrok etila boshlandi. Millat nazaridan yashirin bo‘lgan ko‘plab asarlarning estetik olami inkishof etildi. Natijada olamni estetik idrok etish, tasvirlash, badiiy ijodning vazifalari bobidagi qarashlar ancha kengaydi. Minglab qo‘lyozmalar ilmiy iste’molga kiritildi. Ular orasida qadimgi mif va afsonalardan tortib “Avesto”, “Xuastuanift”, “Irq bitigi”, “Oltin yoruq” dostonigacha; Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as sahih”, Zayniddin Muhammad G‘azzoliyning “Kimyoi saodat”, Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”, Xoja Ahror Valiyning “Risolai volidiya”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy”, So‘fi Ollohyorning “Maslaku-l-muttaqin”, Is’hoq Bog‘istoniyning “Tazkirai qalandaron” asarlari; Fitrat, Cho‘lpon Qodiriy bitiklarigacha uchratish mumkin. Shuning uchun ham umuman, o‘zbek adabiyoti, xususan, milliy romanchilik taraqqiyotini F.M.Dostoyevskiy, F.Nisshe yoxud Z.Freyd umuman olganda, yevropacha estetik qarashlar ta’siri doirasidagina izohlash uning milliy-estetik hodisa ekanligiga birmuncha putur yetkazadi.

Dostoyevskiyning “Bechora odam” (1846) romanida xo‘rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo‘lgan “kichkina odamlar” ning ulkan qismati, odam haqida kuyunchaklik, ulug‘ insonparvarlik “Stepanchikov qishlog‘i va uning aholisi” (1859), “Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar” (1861), “O‘lik xonadondan maktublar” (1861–1862) asarlarida jaholat botqog‘iga botib, insoniy qiyofasini yo‘qotgan ruslar hayoti hikoya qilinadi. Yozuvchining “Jinoyat va jazo” (1866), “Telba” (1868) romanlarida ham rus xalqining ma’naviy muammolari qalamga olinadi. “Jinlar” (1871–1872), “O‘smir” (1875) romanlarida esa rus “oqsuyaklari” tabaqasi, amaldorlar orasidagi ma’naviy qashshoqlik, amalparastlik, ochko‘zlik va xudbinlik kabi illatlar chuqur ildiz otgani ko‘rsatilgan. “Og‘a-ini Karamazovlar” (1879–1880) romanida esa

jamiyat va shaxs o‘rtasidagi chuqur ziddiyat, ruhiy inqiroz fojiasi o‘z ifodasi topgan.

Ko‘rinadiki, F.M. Dostoyevskiy XIX asrdagi realistik roman janrini o‘ziga xos jihatlar bilan boyitgan. U yaratgan to‘laqonli badiiy obrazlarda nafaqat voqealar oqimi, insonlar taqdiri, qalb kurashi, balki jamiyat ma’naviy hayotidagi fojiaviy konfliktlar ham aks etgan. Yozuvchi har bir ayrim kishining kamoloti va baxt-saodatiga asoslangan ijtimoiy uyg‘unlik haqidagi gumanistik g‘oyalarni ilgari surdi. Xudbinlik, surbetlik, nifoq solish, sotqinlik singari inson ruhiyati va jamiyatdagi axloqiy tubanliklarni dard-alam bilan his etdi. Shu bois ham uning ijodida shaxsning ruhiy-axloqiy mushkulotlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yetakchilik qildi. Odam bolasi o‘z amallariga javobgarlikni his qiladigan erkin iroda egasi sifatida idrok etildi.

F.M. Dostoyevskiyning axloqiy tamoyillariga ko‘ra har qanday hayotiy vaziyatda ham odam bolasi odam bo‘lib qolmog‘i, har qanday baxtsizlik qarshisida ham ruhan baland turmog‘i lozim. Insonni nafaqat mavjud vaziyatga, hatto aql-farosat izmiga ham butkul bog‘lab qo‘ymaslik jihatidan F.M. Dostoyevskiy qarashlari ma’rifatchilik nuqtai nazarini rad etadi. Chunki yozuvchining fikricha, shaxsning erkinligi faqat yaxshilik manbai bo‘lmay, yomonlik manbai hamdir. Yomonlik esa kishilarning normal holati emas. Cheksiz erkinlik yoki vujudga kelgan munosabatlarga qarshi individualistik isyon zulmga olib keladi, shaxsni ma’naviy halokatga yetaklaydi. Inson xokisorlik, sabr-bardosh orqaligina ruhiy uyg‘unlikka erisha oladi [1. 231].

Xullas, adibning sof dramatik janrga xos keskinlik va liro-publitsistik pafosi bilan ajralib turuvchi intellektual romanlarida fikrlarning keskin kurashi, g‘oya va dunyoqarashlarning fojiaviy to‘qnashuvi mahorat bilan tasvirlangan. Shuning uchun ham uning romanlari jahon adabiyoti, adabiyotshunosligi, xususan, o‘zbek romanchiligi va romanshunoslik ilmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. U badiiy shakl borasida ulug‘ novator sifatida maydonga chiqdi. Badiiy tafakkurning batamom yangi – polifonik tipini yaratdi. Garchand, adibning qarashlari romanlarida aks etgan bo‘lsa-da, ularni aynan shu romanlar miqyosi bilangina cheklash mumkin emas. Zero, F.M.Dostoyevskiy Yevropa estetikasining Sharqona adabiy an’analardan uncha yiroq bo‘lmagan ayrim asosiy tamoyillarini, aytish mumkinki, olam va odamni anglashning yangicha modelini yaratdi [1. 79].

Romanning tabiatini mavzu dolzarbligi, tasvir yo‘siniga xos sarguzashtlilik, voqea-hodisalar qamrovi, hatto til badiiyati ham to‘la belgilay olmaydi. Umuman, badiiy ijod, xususan, roman tabiatida qat’iy va turg‘un belgilar emas, balki muallifning qahramonni tushunish va aks ettirishdagi qarashlar tizimi mohiyati – individual konsepsiyasi muhim omil vazifasini o‘taydi. Chunki konkret roman ortiqcha tafsilotlardan tiyilish, alohida inson shaxsining nechog‘lik teran tadqiq va tahlil etilganligi bilan qimmat kasb etadi. Shuning uchun ham u yoki bu muallif shaxs ichki olamini qay miqyosda tekshirishni maqsad qilganligi bugungi o‘zbek romanchiligidagi shakliy-mundarijaviy izlanishlarni tushunishga kalit beradi.

Nemis faylasufi, irratsionalizm namoyandasi, *“hayot falsafasi”* ning asoschilaridan biri Fridrix Nisshe (1844 – 1900) falsafasida *“hayot”* tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Nisshe uni faqat intuitiv yo‘l bilan bilish mumkin bo‘lgan reallik deb izohlaydi va mohiyatan irratsional mazmunga ega bo‘lgan hayotiy reallikni bilishning obrazli-simvolik usullarini ilmiy bilishga qarama-qarshi qo‘yadi. Boshqacharoq aytganda, san’at asarlarini hayotni to‘g‘ri in’ikos ettirish va ifodalash vositasi deb bilgan Nisshe falsafasida bilishning aqliy *(ratsional)* usullari o‘rnini estetik intuitsiya va olamni badiiy-estetik o‘zlashtirish usullari egallaydi. Uning ta’kidlashicha, san’at asarlari ma’naviy madaniyatning muhim unsuri sifatida insoniyat taraqqiyoti ilk davrlarida fanga nisbatan birinchi darajali rol o‘ynagan. Faylasuf barcha hayotiy jarayonlarni, jumladan, inson aqlini ham turli tizim va jamiyatlarni yaratishdan nariga o‘ta olmasligi, nisbiy haqiqat sanalmish g‘oyalar ifodasi sifatida tasvirlashga urinadi. Chunki u Charlz Darvinning yashash uchun kurash qonuni hamda Artur Shopengauerning olam mohiyatini olamda hukm suruvchi insoniy iroda bilan bog‘lab tushuntiruvchi falsafiy qarashlaridan kuchli ta’sirlangan. Shu boisdan ham olim estetikasida jamiyat qonunlarigina emas, balki ilmiy bilishning mukammalligi ham inkor qilinadi. Nisshening fikricha, hayot har qanday formula va tizimlarni chetlab o‘tadi. U inson intellektining irodasiga bo‘ysunmas darajada beqiyos murakkab va cheksiz yashirin imkoniyatlarga to‘liqdir.

Ong evolyutsiyasining aqldan yuqori *(supramental)* va aqldan quyi ko‘p pog‘onalari mavjuddir. Nisshe falsafasida bilishning aqliy sohasi cheklangan deb hisoblangani bois, noaqliy bosqichlar mazmuni tahlil qilinadi. Uning estetikasi iroda, intuitsiya, ongsizlik kabi ruhiy faoliyat turlari birlamchi sanalishi jihatidan tabiatan Yevropa psixoanalizmi va Sharq mistikasiga, tasavvuf ta’limotiga yaqin turadi.

Shaxsning psixoanalitik konsepsiyasini yaratishga ulkan hissa qo‘shgan avstriyalik olim Zigmund Freyd (1856–1939) ham inson psixikasini moddiy sharoitlardan ajratib, ong doirasidan tashqaridagi holat deb hisoblaydi. Inson xatti-harakati me’yorlari va patologiyasini ilg‘ab olish qiyin bo‘lgan motivlar belgilaydi. Ongsizlikning turli motivlari va ichki psixik ziddiyatlar natijasida xatti-harakatdagi xatoliklar zohir bo‘ladi. Inson borlig‘ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlash, uning xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelish sabablari, alohida odam turmush tarzi tamoyillarining hosil bo‘lishini tushuntirish mumkin. Uning shaxsida bo‘ladigan o‘zgarishlar borliqning o‘ziga xos, muhim xususiyat va xossalarga ega bo‘lgan shaklidir.

Mistikada ham voqeiy olamni bilish mushkul, tabiiy hodisalar va ruhiy jarayonlarni inson tomonidan boshqarish qiyin, ular yashirin mohiyatning timsoli deb qaraladi. Ruhiy poklanish bo‘lgan tasavvuf nazariyasida esa Allohning vasliga yetish botiniy yo‘l *(intuitsiya va ishroq)* bilan amalga oshiriladi. Bu qadimgi grek estetikasida san’atning insonga estetik ta’sirini tavsiflovchi *“katarsis”* tushunchasini eslatadi.

Angashiladiki, Fridrix Nisshe olam va odam haqidagi nodir falsafa namoyandalaridan biri sifatida fikrlash kengligini katta miqyoslarga ko‘targan. U odam bolasini maxluqlikdan qutqarib xoliqlikka, ya’ni jaydari odamdan yuqoriroq daraja – barkamol *(“sverxchelovek”– “a’lo odam”)* likka ko‘tarishni maqsad qilgan. Ozodlikni, axloqiylik va g‘ayriaxloqiylikni Yevropa falsafasi miqyosida hamma narsani yengib o‘tuvchi va tengsiz uyg‘unlik topuvchi *“buyuk sog‘lomlik”* sifatida tushuntirgan.

Nisshe falsafasining alohida inson fitratiga xos kurashchanlik, ezgulik sari intiluvchanlik, bedorlik, matonat, olamga teran nigoh bilan boqish, olomondan boshqacharoq anglash, qalb va diyonatli ruh ozodligi, sezimlar ingichkalashuvi, o‘zlikni topmoq, poklanmoq singari ko‘plab ijobiy jihatlari mavjud. Unda toza hamda sarin havolarga intilish, hur makon – ichki olam xilvatgohi shiddatining ulug‘ suroni, tor ko‘ngillik qavmning masxarabozliklaridan uzoqlashmoq hikmati, didlar turfalashuvi va ruhiy osudalikning muattar iforlari kabi tuyg‘ular mas’umligi bor. Odamni o‘zidan o‘zdirishga, fikran va qalban o‘z-o‘ziga qozilik qilishga da’vat,*“a’lo odam”* tavalludiga umidvorlik, maqsad yo‘lida tuproqqa aylanish, ya’ni ona huzurida sokin bo‘lmoq ilinji mujassam.

Nisshe oyog‘i yerdan uzilmagan insonni ulug‘laydi. Vorislikdan emas, balki necha ming yilliklardan beri idrok etmagan inson va zamin so‘qmoqlaridan yurishdan qanoat tuyar ekan, hayvonlik sifatlaridan voz kechgan *“a’lo odam”* irodasi haqidagi mo‘ljallarini bayon etib: *“Barcha xudolar o‘ldilar, endi biz faqat a’lo odam yashashini istaymiz”[7. 46]* deydi va bu yo‘lni har bir kimsa alohida - alohida holda bosib o‘tish orqali o‘zini topishini istaydi. Darhaqiqat, Nisshe *“Odamlar teng emas. Ular teng bo‘lolmasliklari ham kerak” [7. 18]*, – degan tezisga asoslanar ekan, ruhning darajalari bo‘lishi, ulug‘vor ruh odamlari ko‘payishi lozimligini nazarda tutadi.

Faylasuf inson irodasining bunyodkorligini fikr etadigan, oddiy ko‘z bilan ko‘riladigan, his qilinadigan hudud bilan chegaralaydi. Shu uchun ham uning nazdida Xudo tusmol bo‘lib ko‘rinadi. Aql bilan bilib bo‘lmaydigan, yagona va o‘zgarmas narsa-hodisalar yo‘q. Xususan, ilohlar fikrdagina mavjud bo‘lib, bunday ta’limot inson uchun yovuz va g‘addordir, – degan xulosa chiqaradi. Odamlarni yangi iftixor va irodaga o‘rgatishni tilagan olim: *“boshingizni samoviy narsalarning qum-to‘zoniga tiqmang, undan baland tuting” [7. 19]*, – deya da’vat etar ekan, samoviy xaloskor haqidagi fikr-qarashlarni qashshoq, bemor va ko‘rnamak kimsalar o‘ylab topgan shirin og‘ular hisoblaydi. Isyonkor ong vakili o‘laroq borliqning asosiga Yaratuvchini emas, balki har narsaning o‘lchovi va qimmati bo‘lmish *“men”*ligini qo‘yadi. *“Men Yevropaning Buddasiman!”*, – degan Nisshe *“shakkok”*ligida insoniy erk, ezgulik va xaloskor iroda, barcha razolatlar ustidan mag‘rurona kulgi bo‘lsa-da, uni mashhur shayx Mansuri Xallojning *“Analhaq!”* lik da’vosi bilan tenglashtirish mumkin emas.

Mansuri Xalloj irfoniy ma’rifat sohibi, Yaratganning vasliga yetgan solih banda. Hol hamda vajd paytida Haq jamolini ko‘rgandek bo‘lib o‘zini unutgan Mansuri Xalloj ana shu holatdagi sirni fosh etgan, o‘zidagi ruhoniy qudratni qalbiga sig‘dira olmay faryod chekkandi. Bu o‘rinda yaralganlarda Yaratuvchining in’ikos etishi – narsalar mutlaq moyaning zarrachalaridir , – degan panteistik ta’limot amal qiladi. Demak, rabboniy olim ikki olam sarvariga itoatda. Uning fikrlari negizini islomiy ma’rifat, farz va sunnatlarni sobitlik bilan bajarish, bu yo‘lda jonfidolik ko‘rsatish tashkil etadi. Nisshe esa insoniyat nizomi va ehtiyojiga xizmat qiladigan zaminiy ezguliknigina sevadi. U ongning isyonkorligiga xos orzu va ishonchga asoslangan tangriyonalikni keskin inkor etadi. Bu o‘rinda ayrim umumiy jihatlar bilan bir qatorda qalb va hol yo‘nalishidagina emas, fikr-qarashlarda, nuqtai nazarlarda ham ziddiyat mavjud.

Bugungi o‘zbek romanlarining “Ishq ahli” (O.Muxtor), “Fano dashtidagi qush”, “Pahlavon Muhammad” (A.Dilmurod), “Tangri qudug‘i” (E.Samandar), “Yassaviyning so‘ngi safari” (S.Siyoyev), “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” (U.Hamdam) kabi namunalarini kuzatishning o‘ziyoq Fridrix Nisshe estetikasini tatbiq qilish orqali milliy roman badiiy matni mohiyatiga to‘la yetib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. G‘arbona ong va iroda erkinligi bilan mohiyatan sharqona e’tiqodiy asoslarga tayanuvchi, ba’zan mistik xarakter kasb etuvchi adabiy hodisalarni mukammal tarzda anglash va anglatish mumkin emas. Bu o‘rinda Sharq-u G‘arb falsafiy-estetik qarashlarining konkret badiiy matn poetikasiga muvofiq keladigan usul va vositalaridan samarali foydalanish ijobiy natijalar beradi [8. 230].

Demak, badiiy ijod tamoyillariga xos xususiyatlar iste’moldagi manbalarning barchasiga tayangan holda, vorisiylik asosida tadqiq etilmog‘i lozim. Chunki estetik qadriyatlar, xususan, badiiy adabiyot odam va qismat, shaxs va uning taqdir bitigi o‘rtasidagi munosabatni milliy ma’naviyat asosida ifoda etgani uchun ham birinchi navbatda milliydir. Aynan shu jihati bilan u jahon adabiyotining tabiiy bir bo‘lagi bo‘la oladi. Bugungi o‘zbek romani esa o‘z-o‘ziga qismat tayin etmoqchi bo‘lib, pirovardida qanoatga keluvchi insonni badiiy ifodalayotgani, adabiyotshunosligimiz bo‘lsa uning zamiridagi adabiy-estetik ma’noni topishga intilishi bilan tamomila milliydir. Zotan, zamonaviy adabiyotshunosligimizning yetakchi belgilari badiiy matnga estetik me’zonlar asosida yondashib, uning ma’naviy-ruhiy va estetik ildizlarini tadqiq va talqin qilish yo‘liga o‘tishda ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin M. Problemы poetiki Dostoevskogo. Izdanie chetvertoe. – Moskva, 1979. 318-c.
2. Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. Pp. 120-122
3. Matyokubova T. The Expression Of The Poet’s Feelings In Gafur Gulam’s Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. Pp. 62-64
4. Matyokubova **T.** G‘afur G ‘ulom she’riyatining poetik jozibasi (Shoirning “Kuzatish” va “Sog‘inish” she’rlari tahlili misolida) // Uzbekistan: yazьk i kultura . 2024. № 2. 88-98-b.
5. Ranovich A.B., Ellinizm i yego istoricheskaya rol. – M –L., 1950. 381-c.
6. Tara V., Ellinisticheskaya sivilizatsiya. Per.s angl., – M., 1949. 375-c.
7. Fridrix Nisshe. Zardo‘sht tavallosi. Ibrohim G‘afurov tarjimasi. // Jahon adabiyoti, 2004. № 1. 12 – 46-b.
8. Yakubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi: filol. fanlari dok... diss. – T., 2018. 248-b.
9. Yakubov I. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. Pp. 123-126
10. Yoqubov I. Erkin A’zamning “Zabarjad” kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yazьk i kultura . 2024. № 2. 66-77-b.
11. Yokubova S.I. Jadid she’riyatida peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar tasviri // O‘zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, 2022, № 3. 42-54-b.
12. Yokubova S.I. Jadid she’riyatida ramzlar: semiotik va germenevtik talqin // O‘zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. 79-90-b.

Yo‘ldosh SOLIJONOV,
Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor.
Moxitabon MO‘MINOVA,
Farg‘ona davlat universiteti, 1-bosqich tayanch doktoranti
mominovamohitabon@gmail.com

BADIIY ADABIYOTDA JAMODOT OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqolada jamodot obrazining badiiy adabiyot, xususan, Alisher Navoiy asarlaridagi estetik, falsafiy va ramziy o‘rni yoritiladi. Navoiy asarlarida jamodot, ya’ni jonsiz tabiat vakillari – ko‘pincha chuqur ma’noli ramz, ruhiy-falsafiy tafakkur vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarda tosh, ma’dan, yer kabi jamodot unsurlari inson axloqi, qadriyatlari va ilohiy qudrat bilan bog‘liq badiiy obrazlar orqali talqin etiladi. Jamodot nafaqat jonsiz jismlar sifatida, balki ruhiyat, iroda, sabr va barqarorlik timsoli sifatida ham ko‘rsatiladi. Maqolada arab tilidagi “jamada” fe’lining semantik tahlili orqali bu tushunchaning ildizlari va uning Sharq poetikasidagi badiiy-falsafiy yuki ochiladi.

Kalit so‘zlar: *jamodot, Alisher Navoiy, jonsiz tabiat, badiiy obraz, ramz, tosh.*

Аннотация: в статье раскрывается эстетическое, философское и символическое значение понятия неодушевлённая природа в художественной литературе, в частности в творчестве Алишера Навои. Элементы джамодота – камни, минералы, земля – в таких произведениях, как “Садди Искандарий” и “Махбуб ал-кулуб”, выступают как метафоры духовной стойкости, нравственности и вечной истины. Джамодот в поэтике Навои – не просто физическая реальность, но и носитель глубокого философского смысла. Также рассматривается этимология арабского глагола “джамада” и его влияние на формирование поэтического образа неодушевлённого.

Ключевые слова: *неодушевлённая природа, Алишер Навои, художественный образ, символ, камень.*

Annotation: this article examines the aesthetic, philosophical, and symbolic role of inanimate nature in literary works, particularly in the poetry and prose of Alisher Navoi. In texts such as “Saddi Iskandariy” and “Mahbub al-qulub” elements like stone, mineral, and earth serve not merely as physical objects but as metaphors of spiritual firmness, moral values, and divine power. Inanimate nature emerges as a bearer of metaphysical meaning, representing stability, endurance, and transcendence. The article also explores the semantic roots of the Arabic verb *jamada* to uncover the conceptual depth of inanimate matter in Eastern poetic imagination.

Keywords: *inanimate nature, Alisher Navoi, literary image, symbol, stone.*

Adabiyot – bu inson tafakkuri va ruhiyatining badiiy in’ikosi bo‘lib, unda nafaqat insonlar, balki tabiat hodisalari, hayvonot va jamodot olamiga oid turli obrazlar ham badiiy umumlashtirish vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Jamodot – ya’ni garchi harakatsiz, sokin va sukutli tuyulsa-da, lekin yozuvchi qalami orqali jonlanib, hissiyot, xotira va ramzga aylanuvchi jismlar dunyosidir. Bunday obrazlar badiiy matnda o‘z-o‘zidan emas, balki muayyan maqsad, ramziy yuklama va estetik funksiya bilan kirib keladi.

Jamodot obrazlari adabiyotshunoslikda alohida ilmiy tahlilga muhtoj poetik unsurlardan hisoblanadi. Sababi ular orqali nafaqat badiiy tasvir uslubi, balki yozuvchining dunyoqarashi, estetik mezonlari va ma’naviy-falsafiy pozitsiyasi namoyon bo‘ladi.

Shunday ekan, avvalo jamodot tushunchasining mohiyatiga nazar tashlash lozim. Bu so‘z arab tilidagi “jamada” fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, “muzlash”, “qotish”, “harakatsizlik” ma’nolarini anglatadi [1:153]. Boshqa bir lug‘atda esa ushbu so‘zga quyidagi mazmunlar yuklangan:

Jamad pl.-at – solid; inorganio body; mineral; inanimate body, inanimate being.

1. Solid – qattiq (modda).
2. Inorganic body – noorganik jism (ya’ni hayotiy jarayonlarga ega bo‘lmagan modda).
3. Mineral – foydali qazilma.
4. Inanimate body, inanimate being – jonsiz jism, jonsiz mavjudot [2:133].

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atida jamod so‘zi tosh, jonsiz narsalar, mineral ma’nosini anglatishi aytiladi va quyidagi misol beriladi:

Sening taxting bir necha jamoddur.
Nozuk harir agar taningg‘a hoyil o‘lmag‘ay,
Ko‘rsa jamod mumkin emas moyil o‘lmag‘ay [3:561].

Jamodot esa ushbu kitobda jonsiz narsalar, jonsiz tabiat deb izohlanadi va misol tariqasida “Nasoyim ul-muhabbat” dan quyidagi parcha beriladi:

“Ul jumlain bir nechasi bulardurlar: ma’dum ijodi va mavjud e’domi va mavto ihyosi va ihyo amotasi va jamodot va nabotot va hayvonot kalomining samoi va maonisig‘a vuquf topmoq…” [3:561].

Demak, jamodot – bu biologik faoliyatga ega bo‘lmagan, ammo badiiy adabiyotda ramziy-estetik ahamiyat kasb etuvchi jismlardir. Shuning uchun

ham A.Navoiy: “Jamodot xayli tiriklik nishonasidan bexabardir”, – deb aytadi. Ya’ni jamiki jonsiz narsalar o‘sish, sezish kabi belgilarga ega emasdir. Bu jumla faqatgina fizik mavjudotlarni emas, balki hayotiylikdan, hissiyotdan, ilohiy nurdan, ruhiy sezgidan mahrumlikni ham bildiradi. Navoiy bu fikr orqali ma’naviy tiriklik – hayotning eng oliy bosqichi ekani va barcha mavjudotlar ichida faqat inson bunga yetishishi mumkinligini eslatmoqda.

Jamodning “tosh”, “jonsiz narsa”, “qattiq jism” sifatida izohlanishi, shuningdek, “Nasoyim ul-muhabbat” da jamodotning avliyo tomonidan seziladigan “tovushi” bor deb e’tirof etilishi bu obrazlarning ko‘p qatlamli semantik tabiatini tasdiqlaydi.

Ma’lum bo‘ladiki, tug‘ilgan uch ajoyibot – jamodot, nabotot va hayvonotdir. Jonsiz tabiat, o‘simliklar olami, hayvonot (jonzotlar) dunyosi qanday tavallud topdi? Alisher Navoiy bu savolga shunday javob bergan:

Chu obog‘a bu nav berding sifat,
Alar taxtida aylading ummaxat.
Ato yettiyu to‘rt qilding,
Natija uch etding bulardin yano.

Asliyatdagi mazmun esa quyidagicha: otalar, ya’ni yetti qat osmon shunday xususiyatga ega ekan, sen ular tagida onalarni yaratding. Otani yetti va onani to‘rtta qilding (to‘rt unsur) va ulardan uch farzand – jonsiz jismlar, o‘simlik va hayvonot dunyosini paydo etding [4:126].

Demak, bu yerda koinot ilohiy iroda orqali, osmon va unsuriy yer uyg‘unligidan tug‘ilgan uch muhim olamga – jamodot, nabotot, hayvonotga ajralgan holda tushunilgan.

Alisher Navoiy “uch natija” ning to‘ng‘ichi — jamodot haqida “Saddi Iskandariy” dostonida bunday yozadi: “Biriga hajar jismidin to‘shadur, Anga naqd balki jigargo‘shadir” [4;127].

Baytning mazmuni quyidagicha: kim uchundir toshdek qadrsiz bo‘lgan narsa, boshqasi uchun aziz, qadrli bo‘lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, Navoiy “uch natija”dan biri bo‘lgan jamodot haqida fikr yuritar ekan, uni oddiy “jonsiz jism” sifatida emas, balki inson qalbi, ruhi va qadriyati bilan bog‘liq holda seziladigan, turli mazmunlar kasb etuvchi badiiy va falsafiy obraz sifatida talqin qiladi. Demak, Navoiy uchun jamodot — harakatdan bexabar, lekin ma’nodan xoli emas. Uni anglash uchun esa ko‘z emas, balki qalb ko‘rishiga ehtiyoj bor.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida quyidagi parcha ketirilgan:
Buki seni Xoliqi kavnu fasod,
Qilmadi hayvonu nabotu jamod.

Jamod	Jonsiz jismlar (yer, tosh, qum)	Harakat yo‘q.
Nabotot	O‘simliklar dunyosi	O‘sish, ya’ni harakat mavjud, lekin idrok mavjud emas.
Hayvonot	Hayvonot olami	Sezgi, harakat bor, lekin idrokdan mahrum.

Ushbu parchada Alloh insonni boshqa mavjudotlardan yuqori maqomda yaratgani ta’kidlanmoqda. Hayvonot, nabotot va jamodot o‘z qonunlariga bo‘ysunadi va ularning mavjudligi birlamchidir. Inson esa borliq ichida eng mukammal mavjudot bo‘lib, u jamodotning barqarorligi, nabototning o‘suvchanligi, hayvonotning harakatchanligi va ilohiy ruhning zohirini o‘zida mujassam etgandir. Shuning uchun ham u doimo yuqori pog‘onani egallagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, badiiy adabiyotda jamodot tasviri shunchaki tasviriy element emas, balki ramziy, falsafiy hamda estetik yuklamaga ega bo‘lgan obrazlar tizimini tashkil etadi. Alisher Navoiy ijodida esa ruhiy-ma’naviy ma’nolarni yoritishda vosita sifatida xizmat qiladi. Navoiy jamodotni tabiatning bir qismi sifatida emas, balki insonga xos fazilatlar, ruhiy holatlarning aksi va ramzi sifatida tasvirlaydi. Bu yondashuv orqali adib jonsiz tabiatni inson ruhiyatiga yaqinlashtiradi, uni tiriklik belgilariga ega obrazga aylantiradi.

Badiiy adabiyotda jamodot obrazining o‘rganilishi bizga nafaqat estetik didni rivojlantirish, balki adabiy-falsafiy tafakkurning qatlamlarini anglash imkonini beradi. U jonsiz ko‘ringan narsa ortida yashiringan ilohiy hikmatni anglashga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Steingas, F.J. English Arabic Dictionary for the use of both travellers and students. – London, 1882. 153-b.
2. Wehr, H., Milton, J. A dictionary of modern written arabic. – Inc, 1976.133-b.
3. Фозилов, Э.И. таҳрири остида. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1983. 561-б.
4. Расулов, А. Бадиийлик– безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 126-б.

Adiba DAVLATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi
prof.v.b, filologiya fanlari doktori (DSc)



ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MUSTAMLAKACHILIK ASORATLARINING BADIIY VA PSIXOLOGIK IFODASINI POSTKOLONIAL TAHLIL METODI ASOSIDA O‘RGANISH MUAMMOSI

Annotatsiya: mazkur maqolada postkolonial tahlil metodining nazariy asoslari, uning adabiy asarlarni o‘rganishdagi ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Ushbu tahlil usuli mustamlakachilik siyosatini boshidan kechirgan xalqlar adabiyotidagi ezilish, milliy o‘zlikka bo‘lgan hurmat, ruhiy va madaniy jarohatlar hamda qarshilikning badiiy shakllarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiq etildi. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda kechgan tarixiy voqealar, ayniqsa, jadidchilik harakati va mustamlakachilikka qarshi kurashning badiiy ifodalari turli asarlar tahlili orqali yoritildi. Zamonaviy she’riyatda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuflar ijodi orqali postkolonial g‘oyalarga nisbatan lirik qahramonning pozitsiyasi, asarda qanday ifoda yo‘sini orqali aks etgani tahlil etildi. Mustamlakachilik faqat ijtimoiy-siyosiy jarayon bo‘lib qolmasdan, inson ongi, tafakkuri va badiiy dunyoqarashida ham chuqur iz qoldirgani misollar orqali ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: *tahlil, mustamlakachilik, lirik qahramon, postkolonial tahlil metodi, doston, she’r, obraz, tarixiy jarayon, tafakkur, millat.*

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические основы метода постколониалного анализа, его научное и практическое значение в изучении литературных произведений. Было установлено, что данный метод анализа важен при исследовании угнетения, уважения к натсионалной идентичности, психологических и культурных травм, художественных форм сопротивления в литературе народов, испытавших колониалную политику. В стате посредством анализа различных произведений рассматриваются исторические события, происходившие в Туркестане в консе ХИХ – начале ХХ веков, в особенности движение джадидов и художественное выражение борбы с колониализмом. В современной поезии позитсия лирического героя по отношению к постколониалным идеям анализировалас через творчество Абдуллы Орипова, Эркина Вахидова, Мухаммада Юсуфа, а также способы выражения, отраженные в произведении. На примерах показано, что колониализм был не толко сотсиально-политическим протсессом, но и оставил глубокий след в человеческом сознании, мышлении и художественном мировоззрении.

Ключевые слова: *анализ, колониализм, лирический герой, постколониалный метод анализа, эпос, поема, образ, исторический протсесс, мысл, нация.*

Annotation: the article examines the theoretical foundations of the method of postcolonial analysis, its scientific and practical significance in the study of literary works. It has been established that this method of analysis is important in the study of oppression, respect for national identity, psychological and cultural trauma, artistic forms of resistance in the literature of peoples who have experienced colonial policy. The article examines historical events that took place in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, especially the Jadid movement and the artistic expression of the struggle against colonialism, through the analysis of various works. Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, especially the Jadid movement and artistic expression of the struggle against colonialism. In modern poetry, the position of the lyrical hero in relation to postcolonial ideas was analyzed through the works of Abdulla Oripov, Erkin Vakhidov, Muhammad Yusuf, as well as the modes of expression reflected in the work. The examples show that colonialism was not only a socio-political process, but also left a deep mark on human consciousness, thinking and artistic worldview.

Key words: *analysis, colonialism, lyrical hero, postcolonial method of analysis, epic, poem, image, historical process, thought, nation.*

Kirish. Badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, rassomchilik, musiqa san'atlari hamma zamonlarda jamiyatning ko'zgusi hisoblanib, milliy qadriyatlar, xalq hayotining tugal manzarasi hamda tarixiy lahzalarini o'zida namoyon etadi. Adabiyotshunoslikning bir nechta tahlil metodlari mavjud bo'lib, ular muayyan ma'noda badiiy asarning yutuqlari, tuzilishi, strukturasi, obrazlar psixologiyasini tadqiq etish imkonini beradi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda yana yangi bir nechta metodlar ishlab chiqilib, bugungi kun nuqtai nazaridan baholashni, badiiy tafakkurdagi o'zgarishlarni aniqlay olish imkonini bermoqda. Ana shunday tahlil metodlaridan biri postkolonial tahlil metodi asosida mustamlakachilik siyosatini boshidan kechirgan mamlakatlar adabiyotini o'rganish asnosida yangi xulosalarga kelishdir. Postkolonial tahlil metodi bizga mustamlaka qilingan xalqlar adabiyotini toptalgan madaniyatlar va qadriyatlarni qanday saqlab qola olish, ba'zida oshkora kurash tarzida, birda sukut vositasida, ko'p holatlarda ramziylik orqali ijodiy ifodalanganini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Asosiy qism. Postkolonial tahlil badiiy asar tabiatini o'rganishda muhim hisoblanadi. U shovinizm, yevropasentrizm, irqchilik g'oyalariga, inson qadr-qimmatini toptovchi mafkuralarga qarshi namoyon bo'ladi.

Postkolonial tahlil metodi – barcha davrlar adabiyotida mustamlakachilik oqibatlarini aniqlash va tushunishda muhim hisoblanib, insoniyat, so'z erkinligi, badiiy adabiyot, milliy san'atning barcha turlari, muayyan xalq tarixi va madaniyatidagi og'riqli izlarni, moddiy-ma'naviy, huquqiy, ijtimoiy tanazzullarni o'rganishda muhim hisoblanadi. Natijada mustamlakachilikni boshdan kechirgan xalqlarning "oldingi" va "keyingi" holatlarini o'rgangan holda, millat onggida, hayotida, tafakkurida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlaydi, tanqidiy xulosalaydi. Bu metod XX asrning oxirlarida maydonga keldi va hozirda adabiyotshunoslikning ham muhim tahlil yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Postkolonial tahli metodi asosan, aslida ba'zi xalqlar tarixiy hayotida sodir bo'lgan mustamlakachilikka qarshi kurashlar hamda ozodlikka erishgan millatlarning o'z taqdirlariga egalik qilish orzusini o'rganish natijasida paydo bo'lgan. Bu nazariyani Frans Fanon, Edvard Said, Gayatri Spivak va Xomi Baba kabi mutafakkirlar fanga tatbiq etdilar. Ularning nazariy qarashlari mustamlakachilik siyosatining psixologik, madaniy va siyosiy oqibatlarini o'rganish asnosida, ayrim millatlarda mustaqillikka erishgandan keyin ham uning chuqur izlarini tadqiq etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Olimlar postkolonial tahlil metodining qator asosiy tushunchalarini ishlab chiqqanlar.

Postkolonial metod asosida tahlilni amalga oshirish bir nechta fanlar bilan integratsiyani taqozo etadi. Masalan, biror badiiy asarni o'rganar ekanmiz, avvalo, adabiyotshunoslik, qolaversa, tarix, falsafa, psixologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlarga ham murojaat etish zarur. To'g'ri, badiiy asarni bu jihatlarsiz o'rganish qiyin aslida, lekin bu metod aniq tarixiy faktlarni, psixik jarayonlarni teran qayta tahlil qilishni ham talab etadi. Bunda birinchidan, mustamlakachilik haqidagi faktlarni, arxiv hujjatlarini muayyan asar bilan dekonstruksiya qilish; mustamlaka qilingan xalqlar o'tmishining matnlarda ifodalanishini tahlil qilish; asar tili, undagi simvollar va obrazlar bilan qiyosiy o'rganishni talab etadi.

Natijalar va muhokama. Postkolonial nazariya 1980-yillarda Mishel Fuko, Jak Derrida va Gil Deleuzning poststrukturalistik g'oyalari ta'sirida paydo bo'ldi. Zamonaviy postkolonializmning asoschisi Frans Fanon edi. Postkolonial nazariyaning asosiy vakillari Edvard Said, Gayatri Spivak va Xomi Babalarni o'z ichiga oladi. Postkolonial nazariya bilan bog'liq fanlar orasida nutq tahlili, gender nazariyasi, madaniyatshunoslik va media tadqiqotlari mavjud.[1]

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixiga ijtimoiy-siyosiy, madaniy o'zgarishlar davri bo'lib kirdi. Ijtimoiy turmushdagi qator yangilanishlar mana shu o'zgarishlar samarasi o'laroq maydonga keldi. Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotining eng xarakterli jihatlaridan biri milliy uyg'onish harakatining vujudga kelishi va uning zamirida yangi adabiyotning shakllangani bilan izohlanadi.

Bu jarayonda Turkiston xalqi boshidan kechirgan mustamlakachilik siyosati natijasida jamiyatning ilg'or qatlami, xususan, ziyolilar ongida mustaqillik orzusining paydo bo'lishi, qolaversa, mahdudlik, ma'rifatsizlik, jaholatga qarshi cheksiz isyonning tug'ilishi muhim rol o'ynadi. Shunday qilib, o'lkada millat taraqqiyoti va yurt ravnaqini ko'zda tutgan nafaqat ma'rifiy-madaniy yangilanishlar, balki yangi adabiyot, yangicha adabiy-estetik qarashlar ham eski, an'anaviy adabiyotning o'rnini egallay boshladi.[2]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda qisqa muddat oralig'ida voqe bo'lgan har tomonlama shiddatkor kurash butun fojeasi, qarama-qarshiliklar fonida kechgan kuchli tragik dramatizmi bilan xalq o'tmishining "eng kir, qora" (Abdulla Qodiriy ta'biri) davri bo'lib tarixga kirdi. Ijtimoiy hayotdagi muayyan o'zgarishlar professor B.Qosimov ta'kidlaganidek, millat ongida o'zgarishlar yasadi. Tafakkurning yangilanishi tabiiyki, so'z san'ati bo'lgan adabiyotga ham ta'sir qildi. 1916-yilda Nikolay II Turkiston aholisidan mardikorlikka olish haqida farmon chiqardi. Garchi, farmon "Imperiyadagi g'ayrirus aholining erkaklarini harakatdagi armiya turgan rayonlarda

mudofaa inshootlarini va harbiy aloqa yo‘llarini qurish ishlariga, xuddi shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga safarbar qilish” to‘g‘risida deb nomlangan bo‘lsa-da, mohiyatan, mardikorlikni anglatganini tarixchilar ham, adabiyotshunos olimlar ham ta’kidlaganlar. Kutilmagan farmoyishni xalq bamisoli tasodifiy zarba sifatida qabul qildi. 250 ming ishchi – yuz minglab oilalar boshiga tushgan kulfat, boquvchisini yo‘qotgan ota-ona yoki xotin, farzand, xullas, butun bir millat boshiga fojea bo‘ldi. “1916-yilning iyulida butun Turkistonni “mardikorlik voqealari” nomi bilan tarixga kirgan milliy ozodlik harakatlari chulg‘ab oldi”. [3] Hududsiz isyon, norozilik hamda mazlumlar faryodi beiz ketmadi. Garchi qo‘zg‘olonlar shafqatsizlarcha bostirilgan bo‘lsa-da, xalq ruhiyatida ko‘tarilgan isyon so‘nmadi, balki “mardikorlik she’riyati”ga ko‘chib, shu yo‘nalishdagi qator asarlarning yaralishiga zamin hozirladi.

Jadid adabiyoti namunalarini tahlil qilganimizda, mustamlakachilik siyosati natijasida ezilgan millat qiyofasining yorqin chizgilariga ko‘plab misollar uchratamiz. Ming afsuski, o‘zbek adabiyoti tarixida postkolonial tahlil metodi asosida o‘rganishga obyekt bo‘la oladigan misollar ko‘p. Masalan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf lirikasida ozurda jon, xo‘rlangan o‘zlik, toptalgan turklik mavzusidagi she’rlar bisyor. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov 1956-1957-yillarda ilk she’rlarini yozgan bo‘lsa, o‘sha kezlardanoq haqiqat ko‘ziga tik qarash, ijodida ham rost gapirish prinsipi mavjud edi. Tasavvur qiling, 1950-1960-yillar. Davr adabiyotdan partiyaga hozirjavoblik, haybarakallachilik, “oq oltin rejasi” kabi mavzularda yozishni talab etgan. Shoir o‘sha yillardayoq, “Bu she’rimning katta emas umumlashmasi” nomli bir she’rida shovinistlarni qoralagan, ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgan haqsizliklarni ayta olish jasoratini topgan. Lekin indamay ketishga ham chora yo‘q. Demak, mazkur she’r “ulug‘ og‘a” oyoqlari ostida xo‘rlanayotgan millatdoshlari taqdiri qalamga olingan dastlabki she’rdir. She’rni 1955-1956-yillarda yozilgan deb taxmin qilishga asos bor. Chunki bunda oldingi she’rlarda o‘qish, katta orzular, katta yo‘l sari qadam tashlagan bo‘lajak ijodkorning “Ilk xayrlashuv”i bor. Abdulla Oripov shunday bir pallada davrining fojeasini angladi. Munosabat tarzida quyidagi isyonini bayon etdi:

Aftingni bujmaytirib,
Masxara qilding.
Tilingni bilmagan qishloqi cholni.
“Seryoja, ko‘rdingmi, sartlar mana shu,
Kechirgin bunaqa jonivorlarni...”
Tirjayib, shipshiding hamrohingga sen,
Yo‘qol ko‘zlarimdan, yo‘qol, ey ablah.
Kim bo‘lsang ham yo‘qol.[4]

Bu she’rni e’lon qilish tugul ovoz chiqarib o‘qish ham mudhish oqibatga olib kelishi tayin edi. Shoirning bu yerda rus millatiga emas, balki zulm ijrochilariga nisbatan malomat ohangi bor.

Bu rus ablah deyman, kechiring, do‘stlar,
Yo‘qdir menda millatchining qora nafasi.
Xafa bo‘ldim men ulardan, lekin xursandman,
Katta emas bu she’rimning umumlashmasi.[5]

Lekin she’rda umumlashma katta edi. “Abdulla Oripov – mutafakkir shoir. Shuning uchun ham u boshqalarning yetti uxlab tushiga kirishi mahol bo‘lgan original badiiy umumlashmalarga kela oladi.[6] She’r yozilganda Abdulla Oripov bor-yo‘g‘i 18 yoshda edi. Shuning uchun ham uni chop etishning imkoni bo‘lmadi. Lekin shoir uni necha yillar ilk daftaridan o‘chirib ham tashlamadi, aksincha saqlab keldi. 2021-yilga kelibgina shoirning nidosi kitobxonlarga borib yetdi. Garchi mustaqillikning ilk yillarida nashr imkoni paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, balki shoir ilk mashqlarini qayta tahrir qilishga imkon topmagan bo‘lishi mumkin. [7]

Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining butun boshli bir davrini boshlab berdi. Uning shoirlik qismati oson kechmadi. O‘z iste’dodi va tinimsiz ijodiy mehnati orqali shon-shuhrat qozongan bo‘lsa-da, butun umr hasadgo‘ylar ig‘vosiga nishon bo‘ldi. Shoirning “Bo‘ron” (1917-yil) deb nomlangan she’ri ham bamisoli bo‘ronga o‘xshaydi. She’r 1959-yil so‘nggida yozilgan.

Yo‘llardagi xazonni, xasni
Yel chirpirak etganda shu on.
O‘xshataman: Elimdan baxtni
Sen ham shunday supurding, bo‘ron![8]

She’r yozilgan davrda shoir hali talaba edi. U oliy ta’lim bosqichida kerakli fanlar qatorida tarixni ham o‘rganar ekan, 1917-yil voqealariga mutlaqo o‘zgacha munosabat bildiradi. Vaholanki, bu davrda uning ustozlari va tengqurlari 1917-yil voqealarini “burjuaziyaning yo‘qotilishi”, “yashasin bolsheviklar” deya madh etish bilan ovora edi. Shoir esa o‘zbek millati tarixi nuqtai nazaridan baho berar ekan, bu yilni bo‘ronga qiyoslaydi. Daf’atan ko‘tarilgan bo‘ron, qora quyun yo‘lida uchragan hamma narsani chirpirak qilganidek, 1917-yil bo‘roni millatimizdan hurriyatni, muxtoriyatni supurib oldi.

Shunday asarlari orasida “Yuzma-yuz” she’ri alohida o‘rin tutadi. Yashar Qosimov shoir ijodiga baho berar ekan: “Badiiy va ijtimoiy fikrni ushbu qullik va mutelik asoratidan xalos etishga bel bog‘laganlardan biri, ehtimolki, birinchisi Abdulla Oripov edi” – degan edi.

Men bir tajribasiz, g‘o‘r yigit, nechun
Adashding deyapman dunyoga, hayhot.
Abdulla, xanjarni o‘zingga urgin,
Sen o‘zing adashmay o‘sdingmi, nahot?!

Uzoq o‘tmishni o‘ylab fikr yuritish, hayot uchun kurashgan vahshiy olomon, insoniyat boshini bog‘lagan zulmat, notiqlar qarg‘agan zulmga chora izlab zamondoshlarini yuzma-yuz muhokamaga chorlaydi. Lirik qahramon moziyga ekskursiya qilarkan, dunyoning azaliy udumi ibtidoiy davrlardayoq barbod bo‘lganini anglaydi. Nafsi uchun o‘ljani kuppa-kunduzi uyiga tortqilagan, o‘zini o‘ylab, boshqa qavmdoshining och qolishini o‘ylamagan, iblis qutqusiga uchragan ondan boshlab, dunyo tarozusi buzilib ketdi. O‘sha vahshiylikning sharpasi, shafqatsiz, och nazari, vayronkor qadamlarini eshitadi. Olam va odamning so‘ngsiz azob-uqubatlari “Yuzma-yuz”da to‘liq ifodasini topgan. Psixolog olimlar ijodiy jarayonni “haqiqiy hayotda qondirilmagan va amalga oshmagan xohish-ehtiyojning qondirilishidir”[9] deb baholaydilar.

Odatda, har qanday asar tasodifiy yaratilmaydi. U ijodkor ongida, ruhiyatida, hayotida iz qoldirgan nuqtalardan boshlab bino bo‘la boshlaydi. Demak, bu she’rning yaratilishida ham bir jihatdan shoirning shaxsiy kechinmalari, adabiyotda sobit oyoqqa turish mashaqqatlari, shu bilan birga bashariyatning zada ko‘ngliga, zaha yarasiga davo izlash istagi turibdi. She’r hajman katta va mavzu, zamon va makon ifoda talabiga ko‘ra bo‘limlarga ajratilgan. “Yuzma-yuz” orqali shoir butun insoniyat tarixi, davlatlarning paydo bo‘lishi va tanazzuli, ijtimoiy formatsiyalar, o‘zgarishlar davrida odamlar boshiga tushgan rohat, mashaqqatlar ifodalangan. Binobarin, turli davronlarning mudhish fojialarida toblangan inson taqdiri, omon qolganlarning hech bo‘lmaganda ruhiyatidagi siniqlar lirik qahramon ovozida jaranglaydi. She’rda aks etgan asrlar silsilasini tasvirlar ekan, shoir vahshiy olomonning davomchilari borligidan g‘amgin bo‘ladi. “Biroq hali bordir shaytonga o‘rtoq” – deya ijodidagi insof, komillik g‘oyalariga yetishish qiyinligidan so‘z ochadi. Bu she’r insonparvarlik, vatanparvarlik, nekbinlik, kelajakka umid hislari bilan to‘lib-toshgan. Yirik asarning keyingi qismi asar mantiqiy kompozitsiyasiga ko‘ra, makro borliqdan mikro makonga – shoir yurtiga bag‘ishlangan.

Ko‘zimga ba’zida ko‘rinsa janda
Ko‘nglim to‘lib ketar, ingrayman, xalqim.

Lirik qahramon bu yerda “ko‘ngil to‘lishi”, “ingrash” fe’llari orqali ruhiy holatning, ichki kechinmaning, dardning haddi a’losini namoyon etadi. “Janda” – o‘ta darajada eski, kiyishga yaroqsiz libosga nisbatan qo‘llaniladigan sifat. Shoir janda predmeti orqali zahmatkash xalqi qiyofasini tasvirlaydi. Bu holatda kuchli psixologizm bor. “Ingroq” yurakning tub-tubidan chiqadi, na’raga aylanmagan nola, yig‘iga do‘nmagan iztirobning yuki hammadan og‘ir. U butun vujudni, suyaklarni qaqshatuvchi og‘riqdan darak beradi.

“Bugungi she’riy jarayonda kechayotgan fazilatlar-u kamchiliklar inson va jamiyat haqidagi haqiqatlarni aytishga intilish bilan bog‘liq”.[10] Erkin Vohidov lirikasida muhim o‘rin tutadigan asarlardan biri “Ruhlar isyoni” dostonidir. Shoir garchi mavzuni olis hind diyoridan tanlagan bo‘lsa-da, asar mazmunidagi aksariyat vaziyatlar uning yurtiga, qavmdoshlariga, millatdoshlariga ham daxldor edi.

Shoirni u tug‘ilmasdan
Gado qilgan edilar.
O‘z yurtida O‘z yurtidan
Judo qilgan edilar.
O‘rab uning naq yurakdek
Ona Hindistonini
Zobitlar oq o‘rgimchakdek
So‘rardilar qonini.[11]

Asarni o‘qib, tahlil etib borganimiz sari Nazrul Islom qiyofasida ko‘zlarida nim tabassum qotib qolgan Usmon Nosir, aybini bilmay ketgan Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho‘lponlar gavdalanadi. Jadid ziyolilarimizni azoblashgani kabi Nazrul Islomni ham “uzoq yurtdan kelgan janoblar” qattiq qiynoqqa soladi, “oq badan janob” uzoq yillar ahil-inoq yashab kelgan qavmlar orasiga fitna solib, bamaylixotir qahva ichib tomosha qilib zavq oladi. Erkin Vohidov lirik qahramonning sabr-bardoshini, o‘y-iztiroblarini tasvirlar ekan, hazrat Alisher Navoiy va Bobur siymolariga murojaat etadi. Bu esa shoirning “yashirin niyati”ni, ya’ni o‘zbek millati boshidan o‘tgan jabr-zulmlarni ham qoralayotganini oydinlashtiradi. Jadid ziyolilari ham, Nazrul Islom ham faqatgina millati ravnaqi uchun kurashgan insonlar edilar, lekin ularning taqdiri ayanchli yakun topdi. Mustamlakachilar garchi jisman mahv etgan bo‘lsalar-da, ruhini, g‘oyasini, irodasini yenga olishmadi.

Postkolonial tahlil metodi asosida “Otamdan qolgan dalalar”, “Jannati odamlar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, “Lolazor”, “Tushda kechgan umrlar” kabi nasriy asarlar ham tahlil qilinsa, ijodkorlarning davrga munosabati, og‘ir sharoitlarda o‘zlikni saqlab qolish shartlari, millat ruhiyatidagi siniqlar xaritasiga doir yanada qiziqarli xulosalar chiqarsa bo‘ladi.

Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida ham mustamlakachilik zulmi ostida ezilgan ziyolilar taqdiri, farzandlari juvonmarg ketgan onalar faryodi, akalarini sog‘ingan singillar ko‘z yoshi, ota-onalarining millatsevarligi “gunohi”ga qolgan avlod kelajagi, “qora quyoshlarga “sig‘inish” darajasiga kelib qolgan millat qiyofasi iztirob bilan qalamga olinadi.

O‘ttiz yettinchi yil kashfi bular bari —
Ko‘rinmas-u dahshat solib sharpalari,
Kelsa – yaqin kelmay, ketsa – ketmay nari,
Izg‘ib yurar Lavrentiyning laychalari.
Bu o‘lkada endi norg‘ul yigitlar yo‘q,
Boyqushlar bor, kalxatlar bor – burgutlar yo‘q,
Ne-ne Sulaymonlar, Abdulhamidlar yo‘q,
Qaytarmikin?
Qaytmog‘iga umidlar yo‘q…[12]

Ruslashtirish siyosati, paxta siyosati, “o‘zbeklar ishi”, ayrim millatlar tarixida sodir bo‘lgan deportatsiya jarayonining asarlardagi in’ikosini postkolonial metod asosida tahlil qilish o‘sha davr fojeasini, tarixiy xaritasini, psixologik jarohatlarni, insoniy sifatlar dinamikasini boricha tasavvur qilish, baholash, talqin etish va xulosa chiqarishga yordam beradi.

Xulosalar. Postkolonial tahlil metodi mustamlakachilik siyosatining turfa ko‘rinishlarini, insonlar hayoti va taqdiridagi o‘chmas izlarini, ijodkor badiiy tafakkuri va ifoda tarziga qanday ta’sir ko‘rsatganini aniq ko‘rsata oladigan adabiy yondashuvdir. Bu metodni keng qo‘llash bizning ham tariximizda sodir bo‘lgan qatag‘on, bosim, “boshqarish madaniyati”ning asl negizini ochib tashlashda qo‘l keladi. Bu metoddan foydalanish san’at va adabiy asarlarini yanada chuqurroq anglash, ularning nafaqat badiiy qimmati, balki tarixiy jarohat, kurash va o‘z ovozini tiklash umidining aksini ko‘rish imkonini ham beradi.

Shoir va yozuvchilar o‘z ijodi orqali xalq ruhiyatidagi iztirob, hurlikka intilish, milliy o‘zlikni saqlab qolishga bo‘lgan intilishni kuchli simvollar, ba’zan lirik isyon, goh tarixiy illyuziyalar va teran falsafiy ma’nolar orqali ifoda etganlar. Ular ijtimoiy voqelikka hassos munosabat bildirib, badiiy so‘z orqali mustamlakachilik siyosatining g‘ayriqonuniy, g‘ayriinsoniy jihatiga qarshi kurashganlar. Shuningdek, ilk marotaba o‘zbek adabiyoti misolida postkolonial tahlilni amalga oshirishda turli fanlar – tarix, falsafa, psixologiya, tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan integratsiyaning zarurligi ta’kidlandi. Bu usul adabiyotni keng miqyosda, ko‘pqirrali tahlil qilish, asarning nafaqat badiiy, balki ruhiy, ijtimoiy va siyosiy xususiyatlarini ham kashf etish imkonini beradi. Masalan, “Agar Abdulla Oripovning tabiat bilan bog‘liq barcha she’rlari (“Bahor”, “Tabiat” va hokazo) strukturasidan, tahlilidan, ruhidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, she’r faqat tabiat manzarasi tasviriga bag‘ishlanmaganligi ayon bo‘ladi. Uni o‘lkani yov (ya’ni mustamlakachilar) egallab olgan, el (ya’ni xalq) qora ko‘lankani, namxush xazonni (mustamlakachilik bo‘yinturug‘ini) o‘z yelkasidan siltab tashlay olmay, mute holatida, tolzor (yurtning ahli donishlari, yetakchilari) ham sukutda, novdalari qotib qolgandek, ko‘lankani supurib tashlashga jur’ati yetmagandek, biroq bu abadiy emas, qachondir bulut toshib, sharros yomg‘ir quyishi, ko‘lankaning daf bo‘lishi, yoqimsiz uvada xazonning itqitilishi, bog‘ning tozarishi, ya’ni egamenlik intizorlik bilan kutilmoqda, deb taxmin qilish mumkin”.[13]

Xulosa shuki, postkolonial tahlil metodidan o‘zbek adabiyotidagi milliy o‘ziga xoslik, ozodlik ruhi va madaniy merosni anglashda muhim ilmiy vosita sifatida foydalanish mumkin. Bu metod orqali adabiy asarlardagi tarixiy jarayonlarni teran tahlil qilish, milliy qadriyatlarni tiklash va yangi ma’rifiy jarayonlarga yo‘l ochish mumkin. Shu bois, mazkur metodologiyani keng tatbiq qilish zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.https://perito.media/posts/10-knig-na-russkom-yazyke-dlya-ponimaniya-postkolonializma
2.Davlatova A. O‘zbek jadid adabiyotida estetik ideal muammosi. – T.: Firdavs-Shoh, 2022. 114-bet.
3.Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004. 212-bet.
4.Oripov A. Shoirning tug‘ilishi. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 48-bet.
5.Oripov A. Shoirning tug‘ilishi. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 22-bet.
6.Jabborov N. Zamon, mezon, she’riyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. 123-bet.
7.Davlatova A. Abdulla Oripov she’riyatida poetik tafakkur tadriji. Fil.fan.doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun diss. – T., 2022.168-bet.
8.Oripov A. Shoirning tug‘ilishi. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 74-bet.
9.Л.В.Выготский. Искусство и психоанализ. Психология искусства. – М., 1986. С .91-110.
10.Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – T.: Fan, 2007. 52-bet.
11.https://n.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati. Erkin Vohidov. Ruhlar isyoni.pdf
12.https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/muhammad-yusuf-qora-quyosh-doston.html
13.Begimqulov D. Ruhiyat iqlimlari inkishofi // Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. 278-279-betlar.

Shaxlo YULDASHEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
pedagogika fanlari nomzodi, professor



QARDOSH TILLAR FONETIKASI: O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA LINGVOMETODIK QIYOSLASH

Annotatsiya: maqola maqsadi qardosh tillar fonetik materiallarini lingvometodik qiyoslashni amalga oshirish orqali o‘zbek tilini qardosh til sifatida o‘qitish mazmunini takomillashtirishdan iborat. Lingvometodik qiyoslash mohiyatini aniqlashtirish, taqqoslash mazmuni va qiyoslanuvchi til hajmini belgilash, fonetik interferensiyani tavsiflash, tovush va harflarni farqlashga yordam beruvchi usullarni aniqlashtirish, qardosh tillardagi unli va undoshlar farqlanishiga oid jadvallar tayyorlash kabi vazifalar belgilab olingan. O‘zbek tilini qoraqalpoq, qozoq, turkman, turk tillaridagi fonetik mushtaraklik va farqlanishlar lingvometodik qiyoslangan va ta’lim muvaffaqiyatiga xizmat qiluvchi qiyosiy materiallar taqdim qilingan.

Kalit so‘zlar: o*‘zbek tili, qardosh tillar, fonetika, interferensiya, tovush, harf, lingvometodik qiyoslash.*

Аннотация: целью статьи является совершенствование содержания обучения узбекскому языку как родственному, путем проведения лингвометодического сопоставления фонетических материалов родственных языков. Поставленные задачи включают в себя выяснение сущности лингвометодического сопоставления, определение содержания сопоставления и области применения сопоставляемого языка, описание фонетической интерференции, выяснение приемов, помогающих различать звуки и буквы, составление таблиц по различению гласных и согласных в родственных языках. Фонетические сходства и различия между узбекским языком и каракалпакским, казахским, туркменским и турецким языками были сопоставлены лингвометодически и для поддержки эффиктивности обучения были предоставлены сравнительные материалы.

Ключевые слова: *узбекский язык, родственные языки, фонетика, интерференция, звук, буква, лингвистическое и методическое сравнение.*

Annotation: the aim of the article is to improve the content of teaching Uzbek as a related language by conducting a linguo-methodological comparison of phonetic materials of related languages. The tasks set include clarifying the essence of linguo-methodological comparison, determining the content of the comparison and the area of application of the compared language, describing phonetic interference, clarifying techniques that help distinguish sounds and letters, and compiling tables to distinguish vowels and consonants in related languages. Phonetic similarities and differences between the Uzbek language and the Karakalpak, Kazakh, Turkmen and Turkish languages were compared linguo-methodologically and comparative materials were provided to support the success of learning.

Key words: *uzbek language, related languages, phonetics, interference, sound, letter, linguistic and methodological comparison.*

Kirish. Metodikaga oid xilma-xil tadqiqotlar qatorida qardosh tillarni o‘qitish masalasi kamtarona o‘rin egallaydi. Bilingvizm va qarindosh tillarni o‘qitish metodikasining nazariy, amaliy masalalari tilshunos va metodist olimlar A.Y.Suprun (qardosh rus-belorus ikkitilligi sharoitida rus tilini o‘qitish metodikasining asoschisi) [13], L.A.Murina (belorus-rus tillari qarindoshligi) [11], Y.M.Markova, R.Kvapil (sloven-rus tillari qardoshligi) [9], T.S.Mochalova [10], T.V.Vernikovskaya (rus-polyak tili) [2], K.Kadasheva, S.Omarova, U.Asanova, B.Ashikbayeva, G.Jumakunova, Y.Karzenkova (qozoq va turkiy tillar) [6,7,3,8], Q.Qiyasova [17], Sh.Bo‘ronova [1], A.Sultanova [12], Sh.Yuldasheva [15], G.Yusupova [16],

G.Jumasheva [4], G.Bekimbetova [18] (o‘zbek-qoraqalpoq tillari) kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shunday bo‘lsa ham oliy ta’limda o‘zbek tilini qardosh auditoriyada o‘qitishda ta’lim mazmunini takomillashtirishga uzviy bog‘langan masalalar mavjudki, ular fonetik, leksik va grammatik materiallarni lingvometodik qiyoslashni amalga oshirish bilan hal qilinishi mumkin. Maqolada fonetik materiallarini lingvometodik qiyoslash masalasiga bag‘ishlangan. Unda ilmiy-nazariy, metodik adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, tushunchalarni aniqlashtirish, ommaviy o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

Ma’lumki, o‘rganilayotgan til fonemalari, morfemalari, leksikasi, gaplarni o‘zlashtirish, nutqda qo‘llashni mashq qilish uchun til va nutq birliklarini farqlash zarur. Bunday material o‘zbek tilshunosligidan, shu bilan birga qiyosiy tilshunoslikdan olinadi. Tillarning lingvistik mushtarakligi yoki farqlanishlari, tillar transferensiyasi va interferensiyasini nazarda tutish qardosh tilli guruhlarda o‘zbek tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning lingvometodik tizimini loyihalashtirish muvaffaqiyati sari yo‘l ochadi.

O‘zbek tilini o‘rganayotgan qardosh tillar vakillarining tilni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar aniqlansa, qardosh tillardagi lisoniy hodisalar va til faktlari lingvometodik jihatdan qiyoslash amalga oshirilsa, o‘qitish mazmunini ishlab chiqish osonlashishi mumkin. Avvalo, lingvometodik jihatdan qiyoslashda qiyoslanuvchi til hodisalarining **hajmi** qanday bo‘lishi kerak, degan savolni hal qilib olish zarur. Bunda qiyoslanayotgan til birliklari semantikasi va tuzilishidagi barcha o‘xshashliklar va nomuvofiqliklar emas, balki o‘zbek tilini OTMlarda qardosh til sifatida o‘qitish maqsadidan kelib chiqib o‘zbek tilining leksik va grammatik minimumini tashkil qiluvchi til hodisalari saralanadi. Buning uchun tahlil amalga oshiriladi. O‘rganuvchilarning o‘zbekcha nutqida ona tili ta’sirida interferensiya va transpozitsiya ta’sirida kuzatiladigan xato va kamchiliklar aniqlanadi.

O‘zbek tili tizimi, til hodisalari va birliklarining talaba ona tilidagi muqobili bilan qiyoslanadi. Xususan, o‘zbek tilidagi muayyan til hodisasi o‘rganilar ekan, uning qoraqalpoq, qozoq, turkman yoki turk tilidagi shu hodisaga mos keladimi, degan savolga javob izlanadi. Aksincha, o‘rganuvchilarning o‘zbekcha og‘zaki yoki yozma nutqidagi xatolarni tahlil qilish ularning ona tilidagi hodisa bilan o‘zbek tilidagi muqobilini qiyoslashni taqozo qiladi. Chunki aksariyat hollarda o‘rganuvchi o‘z ona tili ta’siridan chiqib ketolmaydi.

Ikkinchidan, qardosh tillarni lingvometodik qiyoslash taqqoslash mazmunini ham belgilab olishni taqozo qiladi. Bu holatda lingvistik birliklarning shakli, ma’nosi yoki ularning vazifasini solishtirishni aniqlashtirish lozim. Tilda so‘z va shakllarning ko‘p ma’noliligi, omonimligi, paronimligi kabi jihatlar mavjudligini e’tiborga olsak, bu oson ish emasligi ma’lum bo‘ladi. Bu boradagi mavjud tadqiqotlar ma’no – shakl – vazifa yo‘nalishida olib borilganligini ko‘rsatadi.

Fonetik birliklarni, xususan, tovushlarni qiyoslash tillarning artikulyatsion bazasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratiladi. So‘z, so‘z birikmalari va gaplar taqqoslash uchun tanlab olinadi. Shuni e’tiborda tutish kerakki, qardosh tillarda fonetik yaqinlik, artikulyatsion o‘xshashlik bo‘lsa ham, o‘rganuvchilarda ona tili va boshqa tillarni o‘rganishdagi fonematik idrok shakllangan bo‘lsa ham, o‘zbek tili fonemalarini to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beruvchi qiyoslovchi jadvallar hozirlanishi zarur.

1-jadval.

Qardosh tillardagi unli va undoshlar

Tillar	Unlilar	Undoshlar
O‘zbek tili	a, o, o‘, u, i, e (6)	b, d, f, g, h, j (vijdon), j (jo‘ja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng (24)
Qoraqalpoq tili	a, á, e, ı, i, o, ó, u, ú (9)	b, d, f, g, ǵ, h, x, j (vijdon), k, q, l, m, n, ń, p, r, s, t, v, w, y, z, sh, c, ch (25)
Qozoq tili	*a, ə, e, u, o, ө, ұ, ү, y, ы, i, э (12)*	*б, в, г, ғ, д, ж, з, й, к, қ, л, м, н, ң, п, р, с, т, у, ф, х, һ, ц, ч, ш, щ. (26)*
Turkman tili	a, ä, o, ö, u, ü, y, i, e (9)	b, w, g, d, ʒ, j, z, ý, k, l, m, n, ň, p, r, s, t, f, h, ç, ş (21)
Turk tili	a, e, ı, i, o, ö, u, ü. (8)	b, c, ç, d, f, g, ğ, h, j, k, l, m, n, p, r, s, ş, t, v, y,z. (21)

O‘zbek tilini qardosh til sifatida o‘qitishda harf va tovush farqlanishi o‘qituvchilar va o‘rganuvchilar e’tiborida bo‘lishi lozim. Buning uchun quyidagi kabi tushuntirish, izohlardan foydalanish mumkin:

Harflar ifodalagan tovushlarni katta qavslarda yoziladi: **a – [a]**

Alifbodagi harflarning o‘qilishi bilan harflar ifodalagan tovushlarning o‘qilishi farq qiladi.

H –“he” harfi bor, [he] tovushi yo‘q, [h] tovushi bor. j – “je” harfi bor, [j] va [dj] tovushlari bor.

Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga odatlanish kerak:

Aa – [a], Bb – [b], Dd – [d], Ee – [e], Ff – [f], Gg – [g], Hh – [h], Ii – [i], Jj – [j]; [dj], Kk – [k], Ll – [l], Mm – [m], Nn – [n], Oo – [o], Pp – [p], Qq – [q], Rr – [r], Ss – [s], Tt – [t], Uu – [u], Vv – [v], Xx – [x], Yy – [y], Zz – [z], O‘o‘ – [o‘] G‘g‘ – [g‘], Shsh – [she], Chch – [che], Ngng – [ng], ‘ – “tutuq belgisi”.

Ta’kidlash o‘rinliki, aksariyat auditoriyalarda hatto fan o‘qituvchilari tomonidan ham harf va tovush terminlari farqlanmasdan qo‘llanadi. Shuningdek, talabalarning o‘zbekcha nutqida o‘zbek alifbosidagi harflarning o‘qilishi hamda harflarning yozma shaklini yozishda befarqlik kuzatiladi. Ya’ni rus alifbosidagi harflarning o‘qilishi kabi (*er, es, en* va h.k.), harflarning inglizcha yozuv shakli qo‘llangan (ayniqsa L, I kabi bosh harflarni to‘g‘ri yozolmaslik) vaziyatlarda o‘rganilayotgan nutqiy yoki grammatik mavzudan, bajarilayotgan mashqlardan chekinib fonetik, grafik o‘ziga xosliklarni takror va takror tushuntirish taqozo qilinadi. Shu bois fonetik va grafik farqlanishlar, o‘zbekcha harflarning yozuvda ifodalanishi va o‘qilishi qiyoslangan jadvallarga murojaat qilish zarur.

Bosma harf	Harf nomi	Tovush	Yozma harf	Bosma harf	Harf nomi	Tovush	Yozma harf
Aa	A	[a] [ä]	*Aa*	Qq	qe	[q]	*Qq*
Bb	be	[b]	*Bb*	Rr	re	[r]	*Rr*
Dd	de	[d]	*Dd*	Ss	se	[s]	*Ss*
Ee	E	[e] [є]	*Ee*	Tt	te	[t]	*Tt*
Ff	ef	[f]	*Ff*	Uu	u	[u] [ü]	*Uu*
Gg	ge	[g]	*Gg*	Vv	ve	[v] [w]	*Vv*
Hh	he	[h]	*Hh*	Xx	xe	[x]	*Xx*
Ii	i	[i] [i:]	*Ii*	Yy	ye	[j]	*Yy*
Jj	je	[j] [ž]	*Jj*	Zz	zw	[z]	*Zz*
Kk	ke	[k]	*Kk*	O‘o‘	o‘	[ɔ] [ɵ]	*Oo*
Ll	le	[l]	*Ll*	G‘g‘	g‘e	[γ]	*Gg*
Mm	me	[m]	*Mm*	Shsh	she	[š]	*Shsh*
NN	ne	[n]	*Nn*	Chch	che	[č]	*Chch*
Oo	o	[o]	*Oo*	Ng	nge	[ŋ]	*Ngng*
Pp	pe	[p]	*Pp*	‘	Tutuq belgisi		’

1-rasm. O‘zbekcha harflarning yozuvda ifodalanishi va o‘qilishi

O‘zbek tilini o‘rgatishda qoraqalpoq tili fonetikasi va grafikasi bilan qiyoslash usullari va har ikki tildagi mushtaraklik hamda farqlanishlar G.Yusupova hamda M.Ernazarovalarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan [16, 14]. Shuningdek, Sh.Yuldasheva, Sh. Bo‘ronovaning nomzodlik ishlarida ham fonetikani o‘rgatishning ba’zi qirralari haqida tahlillar va o‘rganishlar natijalari o‘rin olgan edi [1,15].

O‘zbek adabiy tili singarmonizmning zaifligi bois fonetik tizimida 6 unli mavjudligi bilan, shuningdek, muayyan undoshlar farqlanishi mavjud. Sh>s, ch>sh, q,g‘>o‘(v), g>y, x>q, b>p (qoraqalpoq, qozoq tillari bilan), t>d, k>g, ch>j, m>b, g‘>g, q>g (turkman, turk tillari bilan) undoshlarini qiyoslash farqlanishni yaqqol namoyon qiladi. Masalan:

sh>s. O‘zbek: Besh*, bo‘sh, sholi, shum, beshov*; qoraqalpoq: *bes, bos, salı, sum, besew;* qozoq: *бес, бос, салы, сұм, бесеу*.

ch>sh. O‘zbek: Chigit*, chegara, pichan, pichoq*; qoraqalpoq: shigit*, shegara, pishen, pıshaq;* qozoq: *шекара, пішен, шелпек, пышақ*.

Darhaqiqat, qardoshlarimizga o‘zbek tilini o‘qitishda o‘rganuvchilarining yozma ishlarida quyidagi tipik xatolar kuzatiladi: **ch** harfi o‘rnida **sh** (*bo‘yisha*), aksincha **sh** o‘rnida **ch** (*ishini* emas, balki *ichini*, ya’ni paronimi qo‘llanadi), **o** unlisi o‘rnida **a** (*tomanini*), **a** unlisi o‘rnida **e** (*assalomu aleykum*), **ng** harfiy birikmasi o‘rnida qoraqalpoq alifbosidagi **ń** harfi *(e ń),* **o‘** o‘rnida **u** (*uxshaydimi*), **h** o‘rnida **x** (*xozircha*) harfini qo‘llaydilar. Qo‘sh unlilar (valaykum), qo‘sh undoshlar (*tavakal*), yonma-yon kelgan har xil unlilar bilan bog‘liq xatolar ko‘p kuzatiladi.

Ma’lumki, unlilar talaffuzi va imlosini o‘rganishda qoraqalpoq tilidagi **a, á, e, ı, i, o, ó, u, ú** unlilarining o‘zbek tilidagi unlilarga mos kelishi yoki kelmasligiga ko‘ra so‘zlarni guruhlash, ya’ni o‘zbek tilidagi unliga mos keluvchi yoki aksincha farqli so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qildirish, har ikki tildagi holatlarni taqqoslash zarur, masalan, **adam (odam), báhár (bahor); ırısqı (rizq), bilim (bilim); urpaq (avlod), ulli (ulkan); toǵiz (to‘qqiz), ómir (umr)** va h.k.

Qoraqalpoq tilidagi **ó, ú, á** unli harflari o‘zbek alifbosida mavjud emasligi sababli ayrim o‘zbekcha so‘zlar quyi bosqichlarda o‘quvchilar tomonidan qoraqalpoq tili ta’sirida talaffuz etilishiga [14] metodistlar alohida e’tibor qaratishadi, bu oliy ta’limda ham ko‘p kuzatiladi, shuning uchun **ó-u, ú-u, ı-i, á-a(o)** unlilarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq mashqlar tizimini ishlab chiqish lozim.

O‘zbek tilidagi aksariyat jarangli undoshlarning qoraqalpoq tilida jarangsiz (*unsiz dauıssız*) /*bog‘ – baq, ketdi – ketti*/ yoki, aksincha, o‘zbek tilida jarangsiz undoshlar qo‘llanadigan so‘zlar qoraqalpoq tilida jarangli (*unli dauıssız*) /*tuz – dyz, kuz – gyz*/ bilan aytilishi va yozilishi bilan bog‘liq muayyan qoidalar va mashqlarga ehtiyoj katta.

b – p, g – k, x – h, p – m, t – d, q – x, v, f, j, ch, sh, y, ng, g‘ tovushlarining talaffuzi va imlosi bilan bog‘liq o‘rganuvchilarning tipik xatolarini hisobga olish, ularni bartaraf qilishga doir ish turlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Matndan faqat jarangli undoshlar ishtirok etgan so‘zlar, faqat jarangsiz undoshlar ishtirok etgan so‘zlarni ajratib olish va talaffuz qilish bilan bog‘liq topshiriqlar avval yakka tartibda, so‘ng kichik guruhlarda bajarilsa, o‘quvchilarning undoshlar talaffuzi va imlosi bilan bog‘liq ko‘nikmalari rivojlanadi. Chunki aksariyat o‘quvchilar jarangli undoshlarning jarangsizlashuvi tufayli jaranglilar o‘rnida jarangsizlarni qo‘llaydilar, **sh – ch, m – p, b – p, g – k, n – ng, t – d, q – x, x – h** tovushlari bilan bog‘liq imlo xatolariga yo‘l qo‘yadilar.

Shu bilan birga, ona tili o‘zbek tilini o‘rganishda salbiy ta’sir ham ko‘rsatadi. “Ona tili fonologik sistemasi ko‘nikmalarini undan farqli bo‘lgan ikkinchi til fonologik sistemasiga olib kirish natijasida fonetik interferensiya sodir bo‘ladi. So‘zlovchi nutqidagi fonetik interferensiya tinglovchi uchun o‘zgacha aksent sifatida namoyon bo‘ladi” [5]. Bu ta’sir ayniqsa qarindosh tillarda yanada kuchli bo‘ladi. Masalan, qoraqalpoq, qozoq tili vakillari o‘zbek tili tovushlarini ona tili tovushlariga o‘xshatib talaffuz qiladi: **chang** emas, **shang**; **shokila** emas, **chokila**; **otam** emas, **otom**, **charchashni** emas **sharshashni** kabilar.

Xuddi shu kabi ish turlari ta’lim turkman tilidagi guruhlar uchun ham xos. Chunki turkman tili va o‘zbek tili tovushlar tizimida farqlanish yaqqol namoyon bo‘ladi. Farqlanish faqatgina turkman va o‘zbek tillaridagi unli yoki undoshlarning miqdoridagina emas. Masalan, turkman tilining o‘zbek tilidan fonetik jihatdan asosiy farqlari – o‘ziga xosliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. O‘zbek tilidagi jarangsiz ***t, k*** undoshlari o‘rnida bir qator so‘zlarda jarangli ***d, g*** undoshlari ishlatiladi: o‘zbek: *tosh, temir, teng, tepa, teri, tog‘;* turkman: daş*, demir, deň, depe, deri, dag.*


O‘zbek tilidagi jarangsiz ***ch*** undoshi o‘rnida jarangli ***j*** undoshi ishlatiladi: o‘zbek: *achchiq*, *achchiqdanak*, *chuchuk*, *kuchuk*; turkman: *Ajy*, *ajydäne*, *süýji*, *güjük* va sh.k.

Bulardan tashqari *m >b, g‘ > g, q > g* kabi fonetik hodisalar hamda o‘zbek tiliga xos bo‘lgan bo‘g‘iz tovushi *h* undoshining yo‘qligi bilan farq qiladi:

Muz – buz, bog‘ – bag, qiz – gyz, quloq – gulak, qo‘shmoq – goşmak kabilar.

Xullas, o‘zbek va turkman tillariaro fonetik jihatdan qator umumiylik mavjudligi bilan bir qatorda ayrim o‘ziga xosliklar ham uchraydi: *H, G, Q,* va sh.k. Bu tovushlarning ma’no farqlash jihatlariga *(xush – hush)* e’tibor berish taqozo qilinadi.

Turk alifbosida ng harfining mavjud emasligi, o‘zbek tilidagi ng harfiy birikmasi va [ng] tovushining o‘rganilishida ham o‘ziga xos yondashuv talab qiladi.



2-rasm. Ng undoshi xususiyatlarini kolleksiya usulida taqdim qilish.

O‘zbek tilida ko‘plab so‘zlar barcha turkiy tillarda, jumladan, qoraqalpoq, qozoq, turkman, turk tillaridagidek uch fonema (tovush)lidir: *bil, kel, ket, qo‘l, ko‘z, bo‘sh, tosh* va shu kabilar. Qiyoslang: qoraqalpoq: *bil, kel, ket, qol, көz, bos, tas*; qozoq: *біл, кел, кет, қол, көз, бос, мас*; turkman: *bil, gel, git, göz, boş, daş;* turk: bil, gel, git, el (mustasno), göz, boş, taş kabilar.

Ost, ust, ort ko‘makchilari va *tort, to‘rt* kabi so‘zlar mustasno qilinsa, *daraxt, baxt, go‘sht* so‘zlaridagi kabi so‘z oxirida undoshlar qator kelmaydi.

O‘rganuvchi nutqida qanday fonetik, orfoepik, orfografik muammolar borligini, qaysi tovushlarning talaffuzida, qaysi so‘zlarni to‘g‘ri yozishida bo‘shliqlar mavjudligini aniqlashtirish talabalar fonetik kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha dars va darsdan tashqari ishlarni to‘g‘ri tashkil qilishda, samarador vazifalarni ishlab chiqishda juda muhimdir.

Kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, xuddi bog‘cha yoshidagi bolalar dastlab artikulyatsion jihatdan oson talaffuz qilinadigan lab-lab, lab-til undoshlarini: p, b, m, f, v va boshqalarni to‘g‘ri talaffuz qilgani holda, artikulatsion jihatdan talaffuz qilish qiyinroq sanaladigan shivirlovchi, sirg‘aluvchi (s, z, sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarining talaffuzida qiynalishgani kabi, qardosh tillarni o‘rganishga kirishgan katta yoshdagilar nutqida ham shu tovushlarni nutqda noto‘g‘ri qo‘llaydilar yoki talaffuz qiladilar.

Demak, katta yoshdagi qardosh tillar vakillariga o‘zbek tilini o‘qitishda ham sirg‘aluvchi undoshlar talaffuziga kengroq o‘rin ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бўронова Ш.М. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 5-синфларида ўзбек тили ўқитишнинг илмий-методик асослари: пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. 158-б.

2. Верниковская Т.В. Типичные устойчивые ошибки в речи студентов на занятиях польского языка // Русистика. 2010, №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tipichnye-ustoychivye-oshibki-v-rechi-studentov-na-zanyatiyah-polskogo-yazyka.

3. Жумакунова Г. Сходства и различия между тюркскими языками и сопоставительные методы в обучении // Новые исследования Тувы. 2018, №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/shodstva-i-razlichiya-mezhdu-tyurkskimi-yazykami-i-sopostavitelnye-metody-v-obuchenii.

4.Жумашева Г. Иккитиллик шароитида қорақалпоқ тилида сўзлашиш кўникмаларини шакллантириш (таълим рус тилида олиб бориладиган мактабгача таълим ташкилотларида ва умутаълим мактабларининг бошланғич синфларида): Пед.фан.д-ри. …дисс.автореф.–Нукус, 2021.

5.Зокиров М.Т. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Филол. фан.номз... дисс.автореф. –Тошкент, 2007. 14-б.

6. Кадашева К., Омарова С.К., Асанова У.О. Изучение близкородственных языков: особенности составления учебного комплекса // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2016, №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/izuchenie-blizkorodstvennyh-yazykov-osobennosti-sostavleniya-uchebnogo-kompleksa.;

7.Кадашева К., Асанова У.О., Ашикбаева Б.Г. Лингвометодические проблемы изучения казахского языка в условиях близкородственного двуязычия // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2013, №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/lingvometodicheskie-problemy-izucheniya-kazahskogo-yazyka-v-usloviyah-blizkorodstvennogo-dvuyazychiya.

8.Карзенкова Е.П. Взаимодействие близкородственных языков в ситуации обучения // Филологические заметки. 2015, №13. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimodeystvie-blizkorodstvennyh-yazykov-v-situatsii-obucheniya.

9.Маркова Е.М., Квапил Р. Особенности обучения русскому языку в близкородственной словацкой среде // Русистика. 2021, №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-obucheniya-russkomu-yazyku-v-blizkorodstvennoy-slovatskoy-srede.

10.Мочалова Т.С. Особенности преподавания родственного иностранного языка в группах русскоязычных учащихся // Концепт. 2022, №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-prepodavaniya-rodstvennogo-inostrannogo-yazyka-v-gruppah-russkoyazychnyh-uchaschihsya.

11.Мурина Л.А. Культура русской речи в школах с белорусским языком обучения. –Минск, 1982.

12.Султанова А. 5–7-синф ўзбек тили дарсларида грамматик материалларни ўрганиш методикаси (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед.фан.б.фалс.док. …дисс.– Нукус, 2019. 130-б.

13.Электронный учебно-методический комплекс по учебной дисциплине “Методика преподавания русского языка”. Составитель Антонович Н.М. –Минск: БГПУ, 2023. С.8.

14.Эрназарова М. С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси: Пед.фан.номз. …дисс.автореф. – Тошкент, 1999. 22-б.

15. Юлдашева Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар саводхонлигини ўстиришнинг илмий-методик асослари (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган академик лицейлар мисолида): Пед.фан.номз... дисс. –Тошкент, 2008. 135-б.

16.Юсупова Г.А. Бўлажак педагогларнинг лингвистик компетенцияларини шакллантиришда аралаш таълимдан фойдаланиш методикаси (ўзбек тили машғулотлари учун “Саводхон” электрон-таълим ресурслари мисолида): Пед.фан.б.фалс.док. …дисс. – Урганч, 2020. – 180 б.; Эрназарова М. С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси: Пед. фан.номз. …дисс.автореф. – Тошкент, 1999. 22-б.

17.Қиясова Қ.Қ. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган касб-ҳунар коллежларида ихтисосий нутқни шакллантиришнинг методик асослари: Пед.фан.номз....дисс. –Тошкент, 2004. 203-б.

18.Bekimbetova G. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish mexanizmini takomillashtirish: Ped.fan.d-ri. …diss.avtoref. –Nukus, 2024.

Muhammad HAKIMOV,
Farg‘ona davlat universiteti, f.f.d, professor;
Mohinur SODIQOVA,
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

ONLAYN TARJIMONLAR VA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDA ENIGMATIK MATNLARNING TARJIMASI

Annotatsiya: maqola onlayn tarjimonlar va sun’iy intellekt vositalarining enigmatik matnlarni, xususan, topishmoqlarni tarjima qilishdagi imkoniyatlari va cheklovlarini o‘rganadi. Google Translate, DeepL va ChatGPT kabi tizimlar tahlil qilinib, madaniy va metaforik ma’nolarni yetkazishda ularning samaradorligi baholanadi.

Kalit so‘zlar: *enigmatik matnlar, topishmoq, onlayn tarjima, sun’iy intellekt, madaniy ma’no, metafora.*

Annotation: the article explores the potential and limitations of online translators and AI tools in translating enigmatic texts, especially riddles. It evaluates systems like Google Translate, DeepL, and ChatGPT in conveying cultural and metaphorical meanings**.**

Keywords: *enigmatic texts, riddle, online translation, artificial intelligence, cultural meaning, metaphor.*

Аннотация: в статье рассматриваются возможности и ограничения онлайн-переводчиков и ИИ-систем при переводе энигматических текстов, особенно загадок. Оценивается эффективность таких систем, как Google Translate, DeepL и ChatGPT, в передаче культурных и метафорических значений.

Ключевые слова: *энигматические тексты, загадка, онлайн-перевод, искусственный интеллект, культурное значение, метафора*

Kirish. Bugungi kunda tarjima sohasida onlayn tarjimonlar va sun’iy intellekt (SI) vositalari keng qo‘llanilmoqda. Google Translate, DeepL kabi tizimlar tez va ommabop tarjima imkonini bersa, ChatGPT kabi SI modellari kontekstni tushunishga harakat qiladi. Biroq bu vositalar hamisha enigmatik matnlar – ya’ni timsollar, metaforalar va madaniy ma’noga boy ifodalarni – to‘g‘ri tarjima qila olmaydi.

Newmark (1988) aytishicha, bunday matnlarni tarjima qilishda nafaqat til bilimlari, balki madaniy tafakkur ham zarur. Bassnett (2002) ham madaniy konnotatsiyalarni tushunish va to‘g‘ri yetkazish tarjimaning asosiy muammolaridan biri ekanini ta’kidlaydi. Torres-Hostench (2021) esa SI vositalari hali ham ramziy va madaniy ma’nolarni to‘liq anglay olmasligini qayd etadi.

Metodlar. Ushbu maqolada sifatli tahlil (qualitative analysis) usuli qo‘llanildi. Tadqiqot uchun o‘zbek va ingliz tillarida yozilgan beshta enigmatik matn tanlab olindi. Bu matnlar metaforalar, timsollar va madaniy ma’nolarni o‘z ichiga olgan ifodalar bo‘lib, ularning tarjimasi turli vositalar yordamida amalga oshirildi. Har bir matn Google Translate, DeepL, Yandex Translate kabi mashhur onlayn tarjimonlar, shuningdek, ChatGPT (GPT-4 modeli) kabi sun’iy intellekt vositasi orqali tarjima qilindi. So‘ng, olingan tarjimalar semantik aniqlik, stilistik moslik, kontekstga muvofiqlik va madaniy timsollarni yetkazish mezonlari asosida tahlil qilindi.

Natija va muhokama. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, onlayn tarjimonlar va sun’iy intellekt asosidagi vositalar oddiy informativ matnlarni tarjima qilishda ancha muvaffaqiyatli bo‘lsa-da, enigmatik matnlar, ayniqsa, topishmoq kabi timsolli, ko‘p qatlamli va madaniy asoslangan matnlarni tarjima qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Enigmatik ifodalarning mohiyati – ularning ko‘p ma’nolilik, madaniy asoslanganlik va figura tilga boyligidir. Shuning uchun bunday matnlarni tarjima qilishda nafaqat tilshunoslik bilimlari, balki pragmatik kompetensiya va madaniy tafakkur ham zarur bo‘ladi.

Masalan, quyidagi o‘zbekcha topishmoqni olaylik:

“*Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxda o‘ttiz yaproq, yaproqning bir tomoni qora, bir tomoni oq”. (javobi: yil, oy va kun)*

Bu topishmoqda abstrakt tushuncha – ya’ni vaqt – tabiatdagi konkret obrazlar (daraxt, shox, yaproq) orqali ifodalanadi. Google Translate bu matnni ingliz tiliga “One tree has twelve branches, each branch has thirty leaves, one side of the leaf is black, the other is white” deb tarjima qiladi. Garchi so‘zma-so‘z tarjima to‘g‘ri ko‘rinsa-da, timsoliy ma’no – yilning oy va kunlarga bo‘linishi, kun va tunning navbatiy holati – mutlaqo yo‘qoladi. DeepL ham shunga o‘xshash natija beradi. ChatGPT esa ushbu topishmoqni semantik tahlil qilishga harakat qilib, izohli tarzda quyidagicha taqdim etadi:*“This riddle symbolizes the calendar year: the tree is the year, twelve branches are the months, and the leaves with black and white sides represent alternating days and nights.”* Bu esa tarjimaning kontekstga mos va kognitiv yondashuv asosida ishlangan variantidir. Bu yerda figurativ ma’no bilan denotativ ifoda o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga intilish mavjud.


Yana bir topishmoq:

“Shoxi bor, ho‘kiz emas, Egari bor, ot emas, Xohlagan manzilingga Yetkazadi, minsang bas.”(javobi: raketa) Bu topishmoqda transport vositasi – raketa – an’anaviy analogiyalar (ho‘kiz, ot) orqali ta’riflanadi. Bu yerda o‘xshatish, qiyoslash, kinoya va ramz asosiy usullar sifatida xizmat qiladi. Google Translate va DeepL bu topishmoqni grammatik jihatdan to‘g‘ri tarjima qilgan bo‘lsa-da, ular metaforik qatlamni yetarlicha aks ettira olmaydi. ChatGPT esa matnni shunday tahlil qiladi: *“it has horns (engines), a saddle (structure), and can take you anywhere – hinting at its powerful capability.”*

Bu holatda sun’iy intellekt metaforik ma’noni anglab, uni madaniy konnotatsiya orqali o‘quvchiga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Bassnett (2002) ta’kidlaganidek, tarjimada madaniy konnotatsiyalarni anglash va ularni boshqa madaniyatga mos tarzda yetkazish tarjimon oldidagi eng katta muammolardan biridir.

Shuningdek, Torres-Hostench (2021) tadqiqotlarida aytilishicha, sun’iy intellekt hali ham ramziy, timsoliy va ironik ifodalarni to‘liq anglab, mukammal tarjima qila olmaydi. Ayniqsa, kontekstga bog‘liq, intertekstual ma’lumotlarga ega matnlarda bunday tizimlar ko‘pincha noto‘g‘ri interpretatsiyaga yo‘l qo‘yadi.

Newmark (1988) tomonidan ilgari surilgan semantik va kommunikativ tarjima yondashuvlari nuqtayi nazaridan qaraganda, sun’iy intellekt, ayniqsa, ChatGPT, semantik tarjimaga yaqinlashadi – ya’ni u ma’noni asl kontekstda iloji boricha aniqlik bilan saqlab qolishga urinadi. Shu bilan birga, kommunikativ (madaniy adaptatsiya asosidagi) yondashuvga to‘liq erisha olmaydi, chunki bu uchun chuqur insoniy tajriba, madaniy sezgi va stilistik tafakkur zarur bo‘ladi.



Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, onlayn tarjimonlar va sun’iy intellekt vositalari oddiy informativ matnlarni tarjima qilishda samarali bo‘lsa-da, enigmatik matnlar, xususan, topishmoqlar tarjimasida sezilarli cheklovlarga ega. Topishmoqlarning metaforik, timsolli va madaniy konnotatsiyalarga boyligi sababli, ularning asl ma’nosini to‘g‘ri yetkazish faqat lingvistik bilim emas, balki madaniy tafakkurni ham talab etadi.

Google Translate va DeepL singari vositalar grammatik jihatdan to‘g‘ri tarjima bera olsa-da, ular timsollar va madaniy anglatmalarni tushunmaydi. ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositasi esa kontekstual tahlilga asoslangan, yarim izohli tarjimalar berib, figurativ ifodalarni to‘g‘riroq talqin qilishga harakat qiladi. Shunga qaramay, bu vositalar ham ba’zan noto‘g‘ri yoki yuzaki talqinlarga yo‘l qo‘yadi.

Newmark (1988) va Bassnett (2002) tomonidan ta’kidlanganidek, bunday hollarda tarjima jarayonida inson tafakkuri, madaniy bilim va interpretatsiya muhim rol o‘ynaydi. Demak, sun’iy intellekt vositalari hozircha inson tarjimonlarining o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Biroq ular yordamchi vosita sifatida — tarjima variantlarini taqdim etish, izoh berish va kontekstni tushunishga urinish orqali foydali bo‘lishi mumkin.

Shu asosda, kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada takomillashtirish, xususan, madaniy va figurativ konnotatsiyalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish zarurligi ko‘rinmoqda. Enigmatik matnlarni tarjima qilishda esa inson tarjimoni yetakchi rolni saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
2. Bassnett, S. (2002). *Translation Studies* (3rd ed.). Routledge.
3. Koehn, P. (2010). *Statistical Machine Translation*. Cambridge University Press.
4. Hakimov.M. X. O‘zbek pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Saidov, A. (2007). *O‘zbek xalq topishmoqlari*. – Toshkent: Fan nashriyoti.

Rukiya ASHURBAYEVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti,
o‘zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tillari
kafedrasi dotsenti
E-mail: ashurbayeva.rukiya@bsmi.uz.
https://orcid.org/0009-0002-5342-5275

O‘ZBEK TILINING GLOBAL TILGA AYLANISH ISTIQBOLLARI: GEOSIYOSIY VA MADANIY OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya: davlatning mavqeini jahonda ma’lum va mashhur qiladigan vositalardan biri til hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada o‘zbek tilining jahon miqyosida mavqeini oshirish istiqbollari borasida fikr yuritilgan bo‘lib, geosiyosiy va madaniy omillar ahamiyati va o‘rni yuzasidan mulohazalar bildirilgan. Til siyosati, tashqi madaniy siyosat (soft power) va ta’lim diplomatiyasining o‘zaro bog‘liqligi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy vaziyat, global til raqobati va xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zbek tilining kengayish imkoniyatlari haqidagi fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, geosiyosat, madaniy siyosat, soft power, ta’lim diplomatiyasi, xalqaro til, milliy brend, omil, istiqbol.*

Аннотация: одним из важнейших средств укрепления международного имиджа и признания государства является язык. С этой точки зрения в статье рассматриваются перспективы повышения статуса узбекского языка на международном уровне, а также анализируется роль и значение геополитических и культурных факторов. Освещены вопросы языковой политики, внешней культурной политики (soft power) и образовательной дипломатии как взаимосвязанных явлений. Кроме того, в статье отражены размышления о геополитической ситуации в Центральной Азии, глобальной конкуренции языков и возможностях расширения сферы узбекского языка в рамках международных организаций.

Ключевые слова: *узбекский язык, геополитика, культурная политика, мягкая сила, образовательная дипломатия, международный язык, национальный бренд, фактор, перспектива.*

Annotation: language is one of the essential tools that shapes a country’s reputation and recognition on the global stage. From this perspective, the article explores the prospects for promoting the status of the Uzbek language internationally, emphasizing the significance of geopolitical and cultural factors. It discusses issues such as language policy, cultural diplomacy (soft power), and the interrelation of educational diplomacy. The article also considers the geopolitical context of Central Asia, the global competition among languages, and the opportunities for expanding the use of the Uzbek language within international organizations.

Keywords: *Uzbek language, geopolitics, cultural policy, soft power, educational diplomacy, international language, national brand, factor, prospect.*

1.Kirish. Insoniyat uchun til muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Til–har bir millatning ruhi, ona tilining “davlat tili” ekanligi davlat mustaqilligining ramzi va xalq madaniy hayotning asosiy ko‘zgusidir. Bugungi globallashuv davrida tillarning xalqaro miqyosdagi roli tobora ortib bormoqda. Har bir soha mutaxassisi uchun taraqqiyot yo‘lida keng imkoniyatlar yaratib berayotgan ingliz, fransuz, arab, portugal, ispan, rus, nemis va xitoy tillari kabi xalqaro tillarni bilish — ularning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini yaqqol ko‘rsatadi. Jahonda ingliz, ispan, rus, xitoy tillarining geosiyosiy kuch vositasi sifatida mavjudligini ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tilining global tilga aylanish istiqbollarini aniqlash dolzarb masalalardan biri sanaladi.

2. Tadqiqot obyekti va metodlari. Mazkur tadqiqotning obyekti – o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi mavqei va uning global tilga aylanish jarayonida geosiyosiy hamda madaniy omillarning tutgan o‘rni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti sifatida esa o‘zbek tilining xalqaro ta’lim, madaniyat, diplomatiya va turizm sohalarida tutgan o‘rni, til siyosati va “yumshoq kuch” konsepsiyasi doirasidagi faoliyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahlil (analiz) va sintez – mavjud adabiyotlar, statistik ma’lumotlar, siyosiy hujjatlar asosida xulosalar chiqarish;

Komparativ tahlil – boshqa tillarning global mavqei bilan o‘zbek tilining holatini qiyosiy tahlil qilish;

Empirik dalillar asosida umumlashtirish – TDT, madaniy forumlar va xorijiy ta’lim markazlari misolida amaliy misollarni tahlil qilish.

3. Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilining jahonda keng tarqalishi, rivojlanishi uchun geosiyosiy omillarning o‘rni beqiyos. Zero, xalqaro tillarning rivojlanishida geosiyosiy omillar turtki bo‘lgan. Avvalambor, “geosiyosat” tushunchasi haqida to‘xtalish maqsadga muvofiq: *“Geosiyosat, geografik siyosat — siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat atamasi muayyan bir mamlakat o‘rni, tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga (geografik-siyosiy strategiyasi va hokazoga) muayyan ta’sirini ifodalash uchun ishlatiladi[1].”* Ma’lum bir tilning keng tarqalishida, mukammal rivojlanishida, til siyosatining olib borilishida geosiyosatning sezilarli ta’siri mavjud. Masalan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi strategik joylashuvi, “Markaziy Osiyo yuragi” sifatida tan olinish jarayoni va mintaqadagi geosiyosiy faolligi o‘zbek tilining mintaqaviy va global miqyosdagi ahamiyatini oshiradi. Hozirda O‘zbekistonning turk davlatlari tashkilotiga a’zoligi geosiyosiy maydonga til integratsiyasi asosida amalga oshdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston til va madaniyat orqali ham geosiyosiy maydonga kirib bordi**.** Turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik o‘zaro tushunish, til birligi va tarixiy va madaniy mushtaraklik asosida rivojlanib bormoqda. Bu tilning faqat muloqot vositasi emas, balki identitet (“identity” (inglizcha) – bu shaxs yoki narsa uchun muayyan xususiyatlar, belgilarga ega bo‘lish holatidir) va siyosiy birlashuv vositasi ekanini ko‘rsatadi. Tilga siyosiy vosita sifatida qarash – bu yangi geosiyosiy yondashuv. “Turk dunyosi – 2040” strategiyasida til siyosati haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, TDT tomonidan ishlab chiqilgan strategiyada til va madaniy yaqinlik asosiy omil sifatida ko‘zda tutilmoqda. O‘zbek tili TDT doirasida nafaqat madaniy meros, balki siyosiy barqarorlik, mintaqaviy integratsiya va kommunikatsion xavfsizlik omili sifatida ko‘rilmoqda. Bu esa tilning strategik ahamiyatini oshiradi va uni geosiyosiy jarayonlarning faol subyektiga aylantiradi [8].

4. Tadqiqot natijalari va muhokama. Geosiyosiy omillardan yana biri, o‘zbek tilining Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tillardan biri hisoblanishidir. Bizga ma’lumki, o‘zbek tili faqat O‘zbekistonda umumiste’moldagi til hisoblanmay, Markaziy Osiyo davlatlarida istiqomat qilayotgan ma’lum sonli fuqarolar tomonidan ham keng qo‘llaniladi. Bugungi globallashuv jarayonida milliy tillarning xalqaro miqyosda nufuzi ortib borayotgani kuzatilmoqda. O‘zbek tili – Markaziy Osiyodagi eng ko‘p so‘zlovchiga ega tillardan biri sifatida xalqaro e’tirof qilinadi.Quyidagi jadval asosida Markaziy Osiyoda o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar sonini ko‘rishimiz mumkin.

1-rasm. Markaziy Osiyoda o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar soni (2024-yilga yaqin):

Davlat	O‘zbek tilida so‘zlashuvchilar soni	Aholiga nisbati (%)	Manba
O‘zbekiston	32–34 million	~95%	Stat.kom.uz, 2023, CIA Factbook
Tojikiston	1.5–2 million	~20%	Ethnologue, Tojikiston Stat Qo‘mitasi
Qozog‘iston	500,000–700,000	~3–4%	Qozog‘iston Respublikasi Milliy Statistika Byurosi
Qirg‘iziston	850,000–1 million	~14%	UNESCO Atlas of the World’s Languages
Turkmaniston	350,000–400,000	~6–7%	Turkmaniston hukumat nashrlari, Ethnologue
Afg‘oniston (Shimoliy viloyatlar)	2.5–3 million	~8%	Ethnologue, USIP Afghanistan Report

O‘zbek tilining jahonda mavqeini rivojlantirishning madaniy omillari ham mavjud. “Soft power”, ya’ni yumshoq kuch deb nomlangan nazariyaga ko‘ra, til, madaniyat, san’at va ta’lim orqali boshqa davlatlarga ta’sir o‘tkazish mumkin. Shu barobarida, ma’lum bir davlatning tilini rivojlantirish uchun madaniy merosi orqali singdirish o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

O‘zbekistonda o‘zbek tilida badiiy va ilmiy asarlarni tarjima qilish, xorijiy universitetlarda o‘zbek tilini o‘rgatish markazlarini ochish (masalan, Koreya, Yaponiya, Turkiya, AQSH, Rossiya kabi davlatlardagi markazlar) o‘zbek tilining xorijdagi ta’sirini kengaytirmoqda. Umuman olganda, “soft power” atamasi bugungi kunda ommalashgan tushuncha. Bu tushunchani dastlab, amerikalik siyosatshunos, Harvard universiteti professori Joseph S. Nye 1990-yilda ilm-fanga kiritgan. “Soft Power: The Means to Success in World Politics” (2004) deb nomlangan asarida u AQSH madaniy ta’siri (Hollywood, demokratiya, ingliz tili) orqali dunyoga qanday ta’sir qilganini tahlil qilib, shunday yozadi: “Yumshoq kuch – bu istagan narsangizga zo‘rlik ishlatmasdan yoki to‘lovlar qilmasdan, balki jalb qilish (maftun etish) orqali erishish qobiliyatidir”. Yumshoq kuch nazariyasida til – madaniyatning eng asosiy vositasi hisoblanadi. Bir davlatning tili boshqa davlatlarda o‘rganilsa, nufuzli hisoblansa, kino, adabiyot, san’at orqali yoyilsa —bu davlatning yumshoq kuchi kuchaygan bo‘ladi.

Masalan:

- ✓ Ingliz tili – Hollywood, ilm-fan, IT sohalari orqali global tilda aylangan.
- ✓ Koreys tili – koreys pop musiqalari (BTS, BLACKPINK, EXO) va koreys seriallari orqali ommalashgan.
- ✓ Turk tili – “yumshoq kuch” sifatida ko‘plab tomoshabinlarni o‘ziga jalb qila oladigan seriallar, din va tarixiy madaniyati orqali turk tilining tarqalishi kuchaygan.

O‘zbekistonda bu tushuncha Pulatova S.A (professor) “Madaniy diplomatiya rivojining zamonaviy tendensiyalari” [13], Sadibaqosev Habibullo Shodiboy o‘g‘li (PhD) “Xalqaro munosabatlar tizimida milliy manfaatlarni himoya qilish mexanizmlari siyosatida “yumshoq kuch” omili” [14], Dildora Xodjayeva (PhD) “Madaniy diplomatiyada tilning qudratli imkoniyatlari” [15], Kasimova Zilola G‘ulomiddinovna “Davlat va jamiyat boshqaruvida “yumshoq kuch” omilining o‘rni [16], Xodjayeva Dildora Muxamedxodjayevna “Siyosiy fanlar doktori “Hindiston yumshoq (maftunkor) kuchining imkoniyatlari: nodavlat ishtirokchilarning ahamiyati” [17], Sayfullayev Nursulton “Turkiyaning markaziy Osiyodagi tashqi”, Oyatillo Rasuljon o‘g‘li Toshtemirov “Qatarning “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirish vositalari[18]” kabi maqolalarda “yumshoq kuch” ning davlat nufuzini oshirishdagi ahamiyati haqida mulohazalar berilgan. O‘zbekistonda

ham “yumshoq kuch” kabi tushunchalarning dastlabki tatbig‘ini amalga oshirish uchun urinishlar boshlangan.

5.Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tilining global tilga aylanishi real va istiqbolli vazifa bo‘lib, bu jarayonda geosiyosiy, madaniy va ilmiy omillar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining jahonda mavqeini kuchaytirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

– o‘zbek tilini targ‘ib qilishda nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda strategik taqiqotlarni amalga oshirish;

– o‘zbek tilini o‘rgatish maqsadida, o‘zbek milliy madaniyatini, urf-odatlarini targ‘ib qila oladigan o‘quv markazlar tashkillashtirish;

– chet davlatda yashayotgan diasporalar boshchiligida o‘zbek tilini o‘rgatish;

– o‘zbek tilini xorij talabalari, xorij soha vakillari uchun “O‘zbek tilini o‘qitish” markazlari va bu markazlarni axborot resurslari bilan boyitish;

– o‘zbek tilidan olingan bilimlar sifatini belgilab beruvchi IELTS va CEFR ga tenglashtirilgan sertifikatlar berish mexanizmini yo‘lga qo‘yish muhim.

Davlat siyosati, milliy madaniyatni targ‘ib qilish, ta’lim diplomatiyasi va raqamli til taraqqiyoti orqali o‘zbek tili xalqaro miqyosda tan olinishi mumkin. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ruhiy boyligi, milliy brend va xalqaro siyosat qurolidir. Umuman olganda, O‘zbekistonda davlat tili hisoblangan o‘zbek tilining jahonda mavqeini oshirib, xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida geosiyosiy omillar, madaniy meros va “yumshoq kuch” strategiyasi muhimligini yuqoridagi ma’lumotlar asosida ko‘rildi. TDT doirasidagi integratsiya, turizm va ta’lim sohalari orqali til eksporti – o‘zbek tilining nufuzini rivojlantiruvchi yo‘nalishlardir. O‘zbekiston geosiyosiy va madaniy resurslardan foydalanib, o‘zbek tilini yuqori mavqega ko‘tara oladi. O‘zbek tilining global tilga aylanishi davlatning strategik rejalari bilan uyg‘un holda olib borilsa, xalqaro e’tibor va mavqe sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2002). Geosiyosat. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 183-b.

2.O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2023). Rasmiy statistik ma’lumotlar. https://uzbektourism.uz

3.O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. (2019–2024). Turizm hisobotlari. – Toshkent.

4.Ministry of Higher Education of Uzbekistan. (2022). *Annual Foreign Student Report*.

5.Stat.kom.uz. (2023). *O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti*. https://stat.uz

6.Qozog‘iston Respublikasi Milliy statistika byurosi. (2023). https://stat.gov.kz

7.UZA. (2024). Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zolikning O‘zbekistonga afzal tomonlari. https://uza.uz/oz/posts/turkiy-davlatlar-tashkilotiga-azolikning-ozbekistonga-afzal-tomonlari_423908

8.Turk davlatlari tashkiloti. (2021). *Turk dunyosi – 2040 strategiyasi*. https://www.turkicstates.org

9.Mentalaba.uz. (2024). O‘zbekistonda Pekin universiteti filiali ochilishi mumkin. https://mentalaba.uz/blog/batafsil/ozbekistonda-pekin-universiteti-filiali-ochilishi-mumkin

10.Zhang, Y. (2021). *Cultural Diplomacy under BRI: Central Asia’s Role*. *Central Asian Survey*.

11.Nye, J. S. (2004). *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. – New York: PublicAffairs.

12.USIP. (2023). *Afghanistan Report*. United States Institute of Peace. https://www.usip.org

13.Pulatova, S.A. (2021). Madaniy diplomatiya rivojining zamonaviy tendensiyalari. *Ijtimoiy fanlar* jurnali, №4.

14.Sadibaqosev, H.Sh. (2022). *Xalqaro munosabatlar tizimida milliy manfaatlarni himoya qilish siyosatida “yumshoq kuch” omili*. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent.

15.Xodjayeva, D.M. (2023). Madaniy diplomatiyada tilning qudratli imkoniyatlari. *Siyosiy fanlar* jurnali, №1.

16.Kasimova, Z.G‘. (2022). Davlat va jamiyat boshqaruvida “yumshoq kuch” omilining o‘rni. *Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*.

17.Sayfullayev, N. (2021). Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida “yumshoq kuch” siyosati. *Jahon siyosati* jurnali, №3.

18.Toshtemirov, O.R. (2023). Qatarning “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirish vositalari. *Yangi O‘zbekiston* ilmiy jurnali, №2.

Oqiljon MAVLONOV,
O‘zbekiston tumanidagi 16-maktab ona tili va adabiyot fani faxriy o‘qituvchisi

NAVOIY MA’NAVIY OLAMIGA YO‘L

(ADABIYOT MUALLIMLARI E’TIBORIGA TAQDIM)[1]

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘quvchilarni taxayyul mulkining sultoni Navoiy ma’naviy olamini anglashga yetaklash maqsadida ularga ayrim adabiy-tasavvufiy timsollar haqida nazariy ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *sukra, sahv, hulul, hol, juz’ va kull, riyozat, mazhar.*

Annotation: in this article, in order to guide readers to the understanding of the spiritual world of the Sultan of the Takhayyul estate, Navoi provides theoretical information about some of the literary and mystical symbols.

Keywords: *wisdom, error, embodiment, state, part and whole, asceticism, manifestation.*

Аннотация: в данной статье с целью помочь ученикам понять духовный мир султана воображаемого царства Навои, предоставляется теоретическая информация о некоторых литературных и суфийских символах.

Ключевые слова: *сукра, сахв, хулул, хол, джуз’ и кулл, риозат, мазхар.*

O‘quvchilarga Navoiy asarlarini shoir dunyoqarashiga yaqin darajada anglatish uchun mana shunday adabiy-tasavvufiy timsollar ma’no-mazmunidan tashqari yana ba’zi tasavvufiy-falsafiy tushunchalar to‘g‘risida ham boshlang‘ich nazariy ma’lumotlar yetkazish zaruriyati tug‘iladi. Endi maqolaning davomida biz shunday ayrim falsafiy-tasavvufiy tushunchalarni shoir asarlari matnida anglatadigan ma’no qirralarini sharhlashga o‘tamiz.

Sukra – mastlik, savdoyilik, devonalik va jununlik ma’rifati. Hululni taxayyul va mushohada qilish. Ruhi mutlaq (kull) dengizi ichida sayr qilish. Haq kibriyo olamining zot-u sifotiga qo‘shilib ketish jarayonini boshdan kechirish. Bunda so‘fiy tanasi (vujudi) sa’mo, vajd-u hol, kashf-u karomat tufayli jazabaga tushadi:

Ilohiy sharob – “sharobi an-tahur” tufayli olingan fayz, ruhiy mastlik, ishqiy aysh va karax.

Karomatli pirlar sukr chog‘i kimga nazari tushsa uni kimyolantirib valiyga aylantiradi. Navoiy Najmiddin Kubro haqida shunday yozadilar:

Sukra vaqti soldi chun bir kun nazar,
Ul nazardin bo‘ldi bir it baxravar...

Sukradagi pir – shayx holati tasviri:

May ichmish xonaqoh shayxi,
xarobot ahli aysh aylang,
Ki chiqmish baxaya urg‘on
xirqasidan mablag‘i kori...

Bunda so‘fiy Ilohiy fayzi (sukra)ni qancha yashirishga urinmasin badan mulki mablag‘i korini oshkor qilish tabiiy...

Sahv – xushyorlik, sukra (taxayyul)dan o‘zlik (shuur)ka qaytish. Makon va lomakonni birlikda jam ko‘ra olish, juz’ va kullni, jism va jonni uzviylikda ko‘rish. Ilmul yaqindan haqqul yaqinga hissiy o‘tish. Moddiylikdagi abadiylik, foniy (tirik)likdagi baqolik. Ilohiy ma’rifatga to‘lish. Haqqa orif bo‘lib uning sifoti va haqiqatini ko‘ngil ko‘zi bilan ko‘rib, mushohada va taxayyul (sukra) qilish orqali Tangri mohiyatini, asl moyani anglab yetish donoligi. O‘zlik (nafs) tuxumini yorib chiqish, Ishq tufayli oshiqning laqqa cho‘g‘ bo‘lgan temir kabi olov (haq) rangini olishi, inson (ko‘za)ning Olloh (hulul, daryo, nur) ma’rifatiga to‘lishi. Tiriklik (foniy) majoziy hayotdagi tavhid. Surat (tan) va borliq (olam)ni mahv etib ma’ni – Kulliyatga erishish. Sukradan sahvga qaytgan Pir shariatda orifi billoh, tariqatda komil-u mukammal, ma’rifatda daryoyi ummon, haqiqatda voqif-u asror ustozga aylanadi. Sahv tomchini durga, orifni nurga to‘ldiruvchi hol va jazaba. Bunday dur (pir) tufayli minglab solik (sadaf)lar sharaf, e’tibor topadi:

[1] Boshi o‘tgan sonlarda

...Garchi bir dur chiqarur ming sadaf
Bir dur ila ming sadaf topqay sharaf....

Hulul – Ruhi a'zam (Kull)ning biror jismga qo'shilib "singib ketishi" va "ittihodi" (qo'shilishi). U tavhidi hol. Bunday taxayyurdagi so'fiyning holati Haq sifoti bilan bir xil bo'ladi va birlashuvchining vujudidagi barcha zulumot hamda rasmu rusum Tavhid nuri porlashiga g'arq bo'ladi hamda oshiqning Joni taloshu talpinish huzurini kechiradi. Ruhi a'zam nuri uning holi (tanasi, ruhi)ga singib qorishib ketadi. Bu juz'ning kullga birikishidir. Go'yoki tomchi (qatra) dengizga qo'shiladi. So'fiy Haq nurining mushohadasiga shunchalik g'arq bo'ladiki, go'yo nurlar Jami – mabda'ga aylanadi va Vohidning zotu sifatlaridan o'zga narsa uning nazariga tushmaydi. Farazan, Jam (Kull)ning o'zi bo'ladi qoladi. Bu foniyu komil martabasi. O'lmay turib o'lish (ma'rifatga to'lish)ning eng yuqori maqomi. Haqqul yaqin holati. Ilohiy qudrat, tajallo va mazharlanishning doimo inson bilan birgaligini aqlan, qalban, kullan tushunib yetish. Shakldan ma'niga ko'chish. Buni Navoiy g'azal matla'sida quyidagicha ifodalaydi:

Jonim andoq to'ldi jonondinkim,
bo'lmas fahmkim,
Jon erur jono emas yo jon emas, jonon erur....

Oshiq va ma'shuq orasidagi "men" va "sen"likning bartaraf etilishi, kasratning vahdat tusini olishi:

Sirri ishqimni tilarmen sharh qilmay anglasang,
Ki emas ishq oyatiga mahrami asror lafz....

Hol – murshid va murid qalbini ishg'ol etgan ilohiy muhabbat, farax, sevinch, kadar, hayajon, zavq tuyg'ularini bildiruvchi hissiy kayfiyatni ifodalovchi holat. Ma'naviy matlablarni to'g'ridan to'g'ri g'oyibiy manbadan vositasiz anglab olish hissiyoti. Hol sohiblari ishq tug'yonida holdan holga qarab ma'naviy yuksaladilar. Oshiqning taxayyulida bir lahzadagina sodir bo'ladigan muayyan ruhiy holat. Sukra maqomida Ilohiy nurni kashf-u shuhud qilish.

Tangri tomonidan murid qalbiga Nuzul bo'ladigan, uning juzvi (ruhi)ni kamolotga yetaklab boradigan rahmat va barokatning, ilohiy fayzi quyilib kelishi darajasini oshiq ko'nglida takomillashuvi tadrijini aks ettiruvchi (lahzalik, o'tkinchi yoki takrorlanuvchi) ruhiy taraqqiyot hosilasini ifodalovchi oniy tuyish; taxayyuriy vahdoniyat ayshi, ilohiy ishqiy surur.

Hol tasavvufda maxsus yo'nalish: **ilmi hol** orqali tushuntirilgan. Holni ta'lim va tahsil orqali o'rgatib bo'lmaydi. U g'aybdan keladigan tarab, ilohiy ne'matdir. Hol atoyi Xudo, Robbi inoyati, ruhiy komillik martabasi. Laduniy tuhfa, ilohiy yuksalish darajasi. Solik qalbidagi ilohsevarlik, ruhiy, tafakkuriy-shuuriy tavajjuh. Ilohiy jazaba tufayli qalb ko'zi bulog'ining ochilishi. Muridning Xudo dargohiga taxayyuliy sayri va safari martabasini ifodalovchi mujohida, mushohida va muhofisha orqali unsiy jazabani hissiy-holiy anglash jarayoni.

Go'yoki ko'nglum taxayyul mulkining sultonidur,
Kim xayol ichra qilur har ayshkim imkonidur...

Juz' va kull.

Juz' bu – xususiylik, yakkalik, kasrat, bo'lak, tomchi, zarra (nur).

Kull – umumiylik, vahdat, tavhid, jam, butun, dengiz, quyosh.

Jamiki ashyolar, hodisa va sifatlar yakkalik, alohidalik hamda umumiylik qonuniyatlariga bo'ysunadi. Yakkaliksiz umumiylik va umumiyligi bo'lmagan yakkalik yo'q. Har bir yakkalik (juz') da umumiylik xususiyati mavjud va tabiiy ravishda umumiylik (kull) yakkalik xususiyatlarining jamidir. Xullas, tasavvufda Inson ruhi ham, olam ashyolari ham juz' – kasrat bo'lsa, mutlaq ruh (Tangri) – Kull (vahdat) deb ataladi. Demak, juz' (bo'lak, qism) kull (butun)ga qo'shilsa, u ham Kull (jam) bo'ladi.

Kasrat vahdatul vujud tusini olganda tavhid (ilohiy birikish) yuz beradi. Shu ma'noda Inson ruhi ham kull (mabda') bo'la oladi, chunki u Ruhi a'zamning juz'i (parchasi)dir. Bu birikish (vahdoniyat) tasavvufda tavhid, vahdatul vujud so'zlari bilan nomlanadi.

Soni' (yaratuvchi) va masnu' (yaratilgan) o'rtasidagi bog'lanishni bilib olgan, Haqni tanigan har bir inson bo'lakda butun, tomchida ummon, zarrada quyosh aksini tasavvur qila oladi, hamda har bir gavhar bo'sh bo'lmaganidek har qanday chohda Yusufdek go'zal yashiringan bo'lishi ehtimolini unutmaydi:

Haqiqatbingadur har juz' – kull, har zarra bir xurshid,
Guharni bilma holi qatradin, har chaxni Yusufsiz. (Turdi Farog'iy.)

Juz' va kull nazariyasining mavjudligi so'fiylarda hulul jarayonining amaliyligi va tabiiyligiga shubha

qoldirmaydi. Qatraning mavjudligi dengizning sifati va xossasidan dalolatdir:

Hojaki ko‘rdi yana mundoq jahon,
Zarrada kavn, qatrada daryo nihon....
Yoxud: kull va juz’ munosabati:
Ey husnungga zarroti jahon ichra tajallo,
mazhar senga ashyo,
Sen lutf bila kavnu makon ichra mavlo,
olam senga mavlo.

Ey husnidan zarralar jahon ichra jilvalanuvchi, sening jamoling dunyodagi barcha narsalarda aks etadi,

Sen iltifoting bilan butun olamning hokimi, sohibisan hamda (shuning bilan birga) olam (koinot) – senga qul (itoat etuvchi).

(Nodonlik – ahli om, tasavvufdan bexabar, uni inkor etuvchi).

... Lekin uchinchisi budurkim, ko‘ngil
Chunki erur mahbiti anvori kull.
Daf’ qilib zangi xayolotni,
Asramoq ul nav’ bu mir’otni,
Kim anga juz’ do‘st zuhur etmagay,
Bilki aning g‘ayri xutur etmagay...

Riyozat – o‘z nafsini o‘ldirish, axloqiy va ma’naviy poklanish yo‘lidagi qiyinchiliklar. Nafsni yengib o‘zini topish uchun qilinadigan axloqiy maqom va maqomatlarning amaliy tatbig‘i. Irfoniy bilimlar egallash yo‘lidagi sobitlik.

So‘fiylar inson axloqi va tabiatidagi kuch va hirslarni umumlashtirib “nafs” va “nafsu ammora” deb nomladilar. Inson ruhiy holatidan kelib chiqib o‘z g‘oyaviy maqsadlarini tatbiq etish uchun ana shu nafsga qarshi kurash e’lon qildilar. Boylik yig‘ish, nafs ehtiyojlarini qondirishga intilish hissi, hirs-u havasga intilish orzusi qoralandi. Insonni noqislik va falokatlardan qutqarishning yagona yo‘li axloqi hamidani egallash, ma’rifat (irfon) kasb etmoq uchun **riyozat maqomlarini** bosib o‘tish hamda **hol martabalarini** kashfu shuhud etmoq deb topildi. Ana shu ma’naviy-irfoniy yo‘lni qat’iy sabru jihod bilan bosib o‘tishning ruhiy irodaviy tadrij bosqichlari tasavvufda Riyozat deb ataladi.

Tajalli – jilolanish. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra butun olamdagi harakat, o‘sish va rivojlanish, ko‘karish va yangilanish, husnu jamol, hayotning o‘zi ham Ruhi mutlaq nur (partav)larining taralishi tufaylidir. Zarradan koinotgacha shu nuri ilohiy fayzidan yaralgandir.

Koinot Tangri zoti olami tajallisining surati. Mutlaq Iloh dunyo suratida tajalli etgan. Mohiyat Uning O‘zidir. Oshiq Ma’shuq ham Udir. Haqiqiy qibla ham Uning O‘zidir. Ilohiy olam hulliyatga ega. Shu bois inson mazhari ilohiydir. Tajalli olamdagi Tangri sifatlarining turli shaklda ayonlashuvini bildiruvchi tushuncha.

Tajallining maqomidur ajab maqom,
Ul maqomda oshiq qullar javlon qilur.
Qay ko‘ngilga tajallisi partav solsa,
Behud bo‘lib o‘zni bilmay afg‘on qilur.
(A.Yassaviy.)

Mazhar – Tangri husni – nuri tajalliy etgan, jilvalangan, in’ikos bergan predmet yoxud shaxs. Allohning mislsiz qudratini namoyish qiluvchi mir’otiy timsoldir. Olamdagi barcha narsalar zarradan koinotga qadar o‘zida yaratuvchining biror sifatu subitiyasini namoyon qiladi. Shu ma’noda tomchida dengiz, zarrada xurshid aks etganidek, borliqdagi barcha narsalarda Xudoning tajallisi – zuhuri o‘z ifodasini topgan. Bu Nurni, bu shu’lalanishni ifodalovchi jism Mazhar hisoblanadi. Mazhar bu siymosida Ilohiy jamol aks etgan ashyo yoki inson. Bu partav (nurlanish) nimada zuhurlansa (but, tarso qiz, sanam) oshiq uni ko‘rib jazabalanadi, borlig‘ini unutib undan ilohiy fayz oladi. Demak, Mazhar Vujudi mutlaqning sifatlari va beintixo husnining qudratini namoyish etuvchi mir’oti oraz. Mazharning mazhabi, irqi, millati, iymoni vohiddir.

Xullas, Layli Majnun uchun, Shirin Farhodga, tarso oyim shayx San’onga, mug‘anniy ayol Shayx Ruzbehon uchun, amrning o‘g‘li Shayx Iroqiy uchun, Ayoz Mahmud xon uchun mazhardir. Shuning uchun ham majoziy ishq haqiqiy ishqning ko‘prigidir. Bunday majoziy (ramziy) ishqni anglagan o‘quvchilar tasavvufdagi oshiq-ma’shuqlikni Shayx Iroqiyning amrning o‘g‘liga, qo‘riqbonlarning Farhodga, Mahmudxonning Ayozga bag‘ishlangan muhabbatini to‘g‘ri tushunib sharhlaydilar. Adabiy tasavvuf nazariyotchisi A.Navoiy fikricha, **Mazhar** bu: “Pok ko‘zni pok nazar bilan pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok husnning oshubidin qo‘zg‘almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq”dur.[2]

[2] Davomi keyingi sonlarda



TILSHUNOSLIK

Ikromjon XABIBJONOV,
Qo‘qon davlat universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
mybooks91@mail.ru

MURAKKAB BIRIKMA TERMINLARNING METAFORIK SHAKLLANISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: o‘zbek tilining iqtisodiyot terminologiyasidagi murakkab birikma terminlar hozirgi O‘zbekiston iqtisodiyotining informatsiyalarini ifodalaydi. Murakkab birikma terminlarning biror qismini metaforik qo‘llash vositasida zamonaviy iqtisodiy tushunchalar nomlanadi. Ushbu maqolada murakkab birikma terminlarning metaforik shakllanish mexanizmlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *tadqiqot, lingvistika, birikma termin, metafora, uslub, leksema.*

Аннотация: сложные составные термины в экономической терминологии узбекского языка представляют информацию о современной экономике Узбекистана. Современные экономические понятия именуются посредством метафорического использования некоторой части сложных составных терминов. В данной статье кратко рассматриваются механизмы метафорического образования сложных составных терминов.

Ключевые слова: *исследования, лингвистика, составной термин, метафора, стиль, лексема.*

Annotation: complex compound terms in the economic terminology of the Uzbek language represent information about the current economy of Uzbekistan. Modern economic concepts are named through the metaphorical use of some part of complex compound terms. This article briefly discusses the mechanisms of metaphorical formation of complex compound terms.

Key words: *research, linguistics, compound term, metaphor, style, lexeme.*

Ma’lumki, ijtimoiy hayotning rivojlanishi tilning rivojlanishiga turtki berib turgan, bunday ta’sir etish jarayoni tilning rivojlanishidagi yetakchi qonuniyatni ko‘rsatadi. Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyoti ilmiy-texnikaviy informatsiyaning rolini beqiyos darajada oshirib yuboradi. Har qanday axborot til yordamida beriladi, ammo ilmiy-texnikaviy informatsiya uchun kishilarning kundalik hayotida aloqada bo‘lgan til vositalarining o‘zigina qodir emas. Shu sababli ilmiy-texnikaviy informatsiya uchun ilmiy-texnikaviy tushunchalarning vakillari bo‘lgan terminlar xizmat qiladi [1: 50].

Metaforik murakkab birikma terminlar kamida uch mustaqil leksemaning hokim tobelik asosida bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. O‘zbek tilining barcha terminologik tizimlarida murakkab birikma terminlar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Qaysi terminologik tizimni kuzatmang, ularda uch, to‘rt, besh, hatto yetti-sakkiz komponentli birikma terminlarga guvoh bo‘lasiz. X.Narxodjayevaning ma’lumot berishicha, ayrim terminologik tizimlarda hatto oltitadan o‘n bittagacha komponentli terminlar ham qo‘llanmoqda [2: 13]. Bizning fikrimizga ko‘ra, terminologik tizimlarda ayni holatning yuzaga kelishiga birinchi sabab bu terminlarning o‘ta tor sohaviy tushunchani ifodalashi bo‘lsa, ikkinchi sababi termin yasash jarayonida qabul qilinayotgan yoki o‘zlashtirilayotgan sohaviy tushunchani imkoni boricha to‘liqroq ifodalash zaruriyati hisoblanadi.

Til tarixida qo‘llangan iqtisodiyot terminlari asosan, sodda shakldagi terminlar bo‘lgan. Bugungi kunga kelib esa murakkab tarkibli terminlar qatlami paydo bo‘lgan. Bu holat boshqa sohalarning terminologiyasida kuzatiladi. Bizning fikrimizga ko‘ra, murakkab birikma terminlarning paydo bo‘lish sababi, birinchidan, imkoni boricha terminologik tushuncha yoki ma’noni to‘liqroq ifodalash zaruriyati bilan bog‘liq; ikkinchidan, iqtisodiy faoliyatda ma’nosi aniq ifodalanishi kerak bo‘lgan, agar aniq chegaralab ifodalanmasa, turli anglashilmovchiliklar kelib chiqadigan tushunchalarning miqdori ortib bormoqda.

Iqtisodiyot terminlari orasida murakkab birikma terminlar ham salmoqli miqdorni tashkil qiladi, ular eng kamida uch mustaqil leksemaning hokim tobelik asosida bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Xususan, uch komponentli metaforik birikma terminlarga *iqtisodiy siyosat choralari* – “tovar yoki transportlarni bojxona hududiga olib kirish va olib chiqishga doir cheklovlar”, *tovarlarning erkin muomalasi* – “bojxona hududida tovarlarning belgilangan ta’qiqlar va cheklovlarsiz aylanishi” kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Sodda birikma terminlarda bo‘lganidek murakkab birikma terminlarning ham metaforik shakllanish mexanizmlari mavjud. Masalan, *iqtisodiy siyosat*

choralari terminining hosil qilinishini ko‘rib o‘taylik. Ushbu birikma terminning yasalishida metafora bevosita ishtirok etmagan, balki metaforik terminning tarkibi kengayishi hisobiga yangi birikma termin vujudga kelgan. Ya’ni *iqtisodiy siyosat* terminini hosil qilishda metafora xizmat qilgan: *siyosat* leksemasi semantikasidagi “davlatni boshqarishda tutgan yo‘l” ma’nosidagi “yo‘l” semasini rivojlantirish bilan “davlatning iqtisodiyotni boshqarishda tutgan/tanlagan yo‘li”ni ifodalaydigan termin yasalgan. Keyinchalik ushbu terminga *chora* leksemasi qo‘shib, shakl va ma’no tarkibi kengaytirilgan.

Metaforik sodda birikma terminlarning kengaytiruvchi qism qo‘shilib, murakkab terminga aylanishida ikki jihatni – kengaytiruvchi leksemaning qanday birikishini farqlash lozim. Birinchi tur birikishda, kengaytiruvchi qism nometaforik qo‘shiladi, sof kengaytiruvchi bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, *iqtisodiyot siyosat choralari* terminidagi *choralari* qismi shunday vazifada kelgan. Ammo quyida tahlili beriladigan *tashqi mehnat bozori* terminidagi *tashqi* kengaytiruvchisi sof kengaytiruvchigina emas, murakkab birikma terminni shakllantiruvchi vazifasini bajarib kelgan. *Tashqi mehnat bozori* (“dunyo mehnat bozorida davlatlardagi mavjud mehnat resurslarining taklifi va talablarini shakllantiruvchi iqtisodiy-ijtimoiy institut” (6: 312) termini yuzaki qaraganda metonimik termin sifatida mavjud bo‘lgan *mehnat bozori* terminiga *tashqi* leksemasi kengaytiruvchi bo‘lib qo‘shilgan, *mehnat bozori* tushunchasining yana bir jihatini aniqlashtirish vazifasini bajargan. Ammo bu yerda *tashqi* leksemasining o‘zi metaforiklashib qo‘shilgan: ma’lumki, *tashqi* leksemasi “tashqaridagi, tashqarida joylashgan” ma’nosini anglatadi. *Tashqi mehnat bozori* “mamlakat tashqarisidagi ishchi kuchi bozori” ma’nosini anglatadi. Murakkab birikma terminni hosil qilishda ana shu xususiyat o‘xshashligidan foydalanilgan, murakkab termin tarkibiga *tashqi* leksemasi “chet davlatlar bilan bo‘ladigan, xorijiy” (9: 164) ma’nosini rivojlantirib qo‘shilgan.

“Bojxona hududida tovarlarning belgilangan ta’qiqlar va cheklovlarsiz aylanishi” sememali *tovarlarning erkin muomalasi* termini ham metaforik qo‘llangan leksema vositachiligida yasalgan. Bunday deyishimizga birinchi va bosh sabab iqtisodiyot terminologiyasida erkin muomala terminining mavjud emasligidir. Agar shunday termin mavjud bo‘lganda *tovarlarning* qismi qo‘shilishi bilan ushbu qo‘shilishgacha metaforik xususiyatli bo‘lgan sodda birikma termin murakkab birikma terminga aylangan, deb xulosa chiqarar edik. Mazkur terminda ham shaxsga xos xususiyat narsaga ko‘chirilgan.

Kontekstning ko‘p ma’noli terminning ma’nosini aniqlashtirishi bo‘yicha ilgari surgan fikrlarimizni S.Usmonovning quyidagi qarashlari to‘la qo‘llab-quvvatlaydi:

“Terminlardagi polisemantizm bo‘lib ko‘ringan narsa aslida ulardagi monosemantik xususiyatlarning oddiy yig‘indisidan iborat. Chunki har bir sohada termin faqat ma’lum bir chegaraga ega bo‘lgan tushunchanigina anglatadi, uning boshqa sohadagi terminologik ma’nosi mutlaqo ko‘zda tutilmaydi. Masalan, tilshunos agglyutinatsiya terminini qo‘llar ekan, uning meditsina sohasida ikki xil qonning qo‘shilib, yopishib cho‘kishini mutlaqo esiga keltirmaydi” [3: 4].

Yoki iqtisodchilar *uslubiyat* terminini ishlatganda shu terminning tilshunoslikdagi ma’nosini – “til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, funksional-uslubiy, emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i, shuningdek, nutqda til vositalarini maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo‘llash haqidagi ta’limot” [4: 118] ni nazarda tutmaydi, balki “iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning tamoyillari, qonun-qoidalari, hodisalari tizimi”ni tushunadilar. Ilmiy bilish, ilmiy istifodaning mazkur tarzi aslida ham termin bo‘ladimi, umumiste’mol leksikasidagi so‘z bo‘ladimi, ularga birday shakl-ma’no asimmetriyasi xosligini ko‘rsatadi.

Yangi tushunchalarni metaforik anglash orqali nomlash, xususan, metafora o‘zbek tilidagi ko‘plab sohalar terminlarida kuzatilishi yuzasidan N. Mahmudovning fikrlari ahamiyatlidir: “Ta’kidlash lozimki, metafora termin yasalishining eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, ko‘proq muayyan soha terminologiyasi shakllanishining ilk davrlariga xos bo‘ladi, ammo butunlay o‘tib bo‘lingan bosqich hisoblanmaydi, ya’ni yangi paydo bo‘lgan fan sohalari terminologiyasining yaratilishida faol bo‘ladi, eng kichik misolda, masalan, butun turli tillarda shakllanayotgan axborot texnologiyalari terminologiyasida (rus tilida *окно, память, меню, вирус, мышь, язык программирования* kabi) buni ko‘rish mumkin.

Ayni vaqtda, fan terminologiyasining rivojlanishida ham metafora alohida va salmoqli o‘rni tutadi. Jiddiy e’tibor qilinsa, butun aksariyat fan sohalarining asosiy, fundamental tushunchalari metaforik nomlanish vositasida ifodalanganini sezmaslikning imkoni yo‘q, eng muvaffaqiyatli terminlar esa, bu tafakkur natijasida yuzaga kelgan” [5: 123].

Tilshunosning yuqoridagi fikrlari, ilmiy matn misolidagi tajribasi bizni ham iqtisodiyot terminlarining metaforaviy xususiyatlarini o‘rganishimizda asos bo‘ldi.

Iqtisodiyotga doir ko‘plab murakkab birikma terminlarning hosil bo‘lishida metaforadan

foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *qimmatli qog‘ozlar bozori* termini. Uning ma’nosi: “yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq munosabatlari tizimi, moliyaviy bozor turlarining biri”. Ushbu bozorda qimmatli qog‘ozlar savdosi (qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi) yuritiladi [6: 270]. Ushbu termin *bozor* leksemasining ko‘chma ma’nosi asosida qurilgan, ya’ni “qimmatli qog‘ozlarni oldi-sotdi qilinadigan joy” bilan *bozor* leksemasidagi “aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy, maydon” [8: 298] tushunchalari o‘rtasida o‘xshashlik borligi anglangan va terminologik ma’no adabiy tildagi *bozor* leksemasiga biriktirilgan.

Bank xatar siyosati terminining hosil qilinishi o‘ziga xos yuz bergan. Ushbu termin “bankda saqlanayotgan mablag‘larni xakerlik hujumlaridan himoya qilish maqsadida ko‘radigan birlamchi choralari, asosiy himoya tadbirlari” (7: 41) sememasiga ega. Ushbu birikma termin *kredit siyosati* qolipidagi *xatar siyosati* terminiga *bank* kengaytiruvchisini qo‘shib hosil qilingan. *Xatar siyosati* terminini yasashda metafora va metonimiya baravar qatnashgan. Xususan, *siyosat* leksemasi metaforik, *xatar* leksemasi metonimik qo‘llangan, buni “bankning xatarga qarshi kurashish siyosati” shaklidagi to‘liq ifodasi izohlab bera oladi. *Xatar* leksemasidan keyin kelgan “-ga qarshi kurashish” qismi ellipsis qoidasiga ko‘ra tushirib qoldirilgan, ammo “kurashish” tushunchasiga aloqadorligi mazmunan saqlangan.

Iqtisodiyot terminologiyasida to‘rt komponentli metaforik terminlar ham mavjud. Masalan, *kapital va kreditlar harakati balansi* termini. Ushbu termin “mamlakatning chet eldan olgan yoki boshqa davlatga bergan kreditlari, kapitallar eksporti va importining nisbati ko‘rsatiladigan hujjat” (6: 153) ma’nosini bildiradi. Ushbu terminda *harakat* leksemasi metaforik ma’noga ega bo‘lgan. *Harakat* leksemasi “pul va unga tenglashtirilgan qimmatli qog‘ozlarning aylanishi” ma’nosida metaforiklashib, iqtisodiy tushunchani nomlagan. Insonga xos xususiyat jonsiz narsaga ko‘chirilgan.

Shunday qilib, metaforik murakkab birikma terminlar uch va undan ortiq leksemadan tashkil topadi. Iqtisodiyot terminologiyasi tarkibida uch komponentli metaforik birikma terminlar asosiy o‘rinni egallaydi. Uch komponentli metaforik birikma terminlar bir, ikki yoki uch komponenti metaforizatsiyaga uchrashi kuzatildi. Termin komponentlarining bu kabi metaforizatsiyasi bir paytda baravar yuz bermaydi, balki alohida-alohida jarayonlarda yuzaga kelgan bo‘ladi. ularning bunday metaforik ma’nolarga ega bo‘lishi keyinchalik ularning bir termin tarkibida uyushishini ta’minlaydi. Metaforik murakkab birikma terminlar birikish modellari metaforik sodda birikma terminlarniki kabi har xil emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳкамов Н. Ўзбек тили илмий услубининг шаклланиши ва тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. № 5. – Тошкент, 2019. 50-б.

2. Нарходжаева Х. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусияти: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2017.13-б.

3. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: “Ўқитувчи” nashriyoti, 1968. 4-б.

4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. 118-б.

5. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: “Mumtoz so‘z” nashriyoti, 2017.123-б.

6. Norqulov I., Mahmudov O. Iqtisodiyot atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Sahhof” nashriyoti, 2022.

7. Muxamedova S. Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jildlik, 1-jild, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2022.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jildlik, 5-jild, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2022.

Avazjon ZIYAYEV,
Qo‘qon davlat universiteti
ingliz tili va adabiyoti kafedrasi
professori, filologiya fanlari doktori

O‘XSHATISH VA METAFORALARDA INTENSIFIKATSIYA/ DEINTENSIFIKATSIYA SEMANTIKASINING VOQELANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada intensifikatsiya / deintensifikatsiya semantikasining ingliz va o‘zbek tillarida o‘xshatish va metaforalar orqali voqelanishi, til birliklari ma’nolarini kuchaytirishdagi milliy-madaniy xususiyatlar metaforizatsiya jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanishi, metaforizatsiya odatda o‘zining biror xarakterli belgi-xususiyati bilan ajralib turuvchi predmetlarning nomlari, shuningdek, o‘zida harakatning intensiv darajasini maxsus qo‘llanganda ifodalovchi fe’llar asosida hosil qilinishi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *intensifikatsiya, deintensifikatsiya, o‘xshatish, metafora, lingvokulturologiya, zoosemizm, florizm, milliy-madaniy xususiyatlar.*

Аннотация: в данной статье рассматривается реализация семантики интенсификации/деинтенсификации посредством аналогий и метафор в английском и узбекском языках, национально-культурные особенности усиления значений языковых единиц, очевидные в процессе метафоризации, метафоризация обычно формируется на основе названий предметов, характеризующихся каким-либо характерным признаком, а также глаголов, выражающих в себе интенсивный уровень действия при специальном применении ведутся.

Ключевые слова: *интенсификация, деинтенсификация, сравнение, метафора, лингвокультурология, зоосемизм, флоризм, национально-культурные особенности.*

Annotation: this article focuses on the realization of intensification/dein-tensification semantics in English and Uzbek by analogy and metaphors, the fact that national-cultural characteristics in strengthening the meanings of language units are clearly visible in the process of metaphorization, metaphorization is usually formed on the basis of the names of objects distinguished by some characteristic character-characteristic, as well as verbs that express.

Key words: *intensification, deintensification, emulation, metaphor, linguoculturology, zoosemism, florism, national-cultural characteristics*

Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, hozirgi zamon tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an’ana, udum, ramzlari kabilarni tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi [4; 21-24]. N.Mahmudov o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni to‘rt unsurga ajratib, ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaydi. O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqning emotsional-ekspressivligi, ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi [8; 5-6].

Ma’lumki, it (dog) leksemasi ko‘p xalqlar tasavvurida sodiqlikni ifodalashning intensiv ramzi hisoblansa, “fox” (tulki) zoosemizmi ayyorlik, mug‘ambirlik ramzi sifatida ularning ongida muhrlanib qolgan. Arab xalqlarida “camel” (tuya) zoosemizmi ayollar go‘zalligini intensiv ifodalashga xizmat qiladi. Chunki Arabiston Sahroi Kabirda joylashgan bo‘lib, atrofi qumlik bilan o‘ralgan. Dastlabki davrlarda transport vositasi bo‘lmaganligi sababli tuya eng muhim transport vositasi bo‘lgan. Tuya mazkur xalq madaniyatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham arab xalqi madaniyatida ayollar go‘zalligini tuyaga qiyoslashadi. Manbalarda aytilishicha, Komila, Jamila kabi ismlar ham “chiroyli, go‘zal” ma’nolarini anglatgan. Biroq mazkur leksema bir qator boshqa xalqlarning tasavvurida qo‘pollik va xunuklikni intensiv ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, nemis xalqi madaniyatida mazkur zoosemizm salbiy ma’nolarda qo‘llanadi. “Elephant” (fil) leksemasi ko‘pgina xalqlarda, xususan, o‘zbek

tilida beso‘naqaylik, qo‘pollikni kuchaytirib ifodalasa, hind xalqi tasavvurida, aksincha, ayollar go‘zalligini intensiv ifodalashda qo‘llaniladi.

D.Ashurova ta’kidlab o‘tganidek, tillardagi milliy-madaniy xususiyatlar tadqiqi boshqa tillar bilan qiyoslashda yorqinroq namoyon bo‘ladi [2; 204-206].

Til birliklari ma’nolarini kuchaytirishdagi milliy-madaniy xususiyatlar metaforizatsiya jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Metaforizatsiya odatda, o‘zining biror xarakterli belgi-xususiyati bilan ajralib turuvchi predmetlarning nomlari, shuningdek, o‘zida harakatning intensiv darajasini maxsus qo‘llanganda ifodalovchi fe’llar asosida hosil qilinadi [7; 13-15]. Metaforalarning mazmun jihati, shuningdek,ularga biriktirilgan madaniy konnotatsiyalar kognitiv bilishning manbasiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham obrazli – motivlashgan so‘zlar ya’ni metaforalar madaniy belgilarning ko‘rsatkichiga aylanib bormoqda. Aynan ushbu holatlar lingvokulturologiyaning tadqiqot obyektining markazidan o‘rin olmoqda. Kognitiv tilshunoslikning taniqli vakillaridan J. Lakoff hamda faylasuf M.Djonsonlar metaforani quyidagicha talqin qilishadi: “Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforikdir”. Tadqiqotlarda metaforalar ongning universaliyalari sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqotchi psixologlar moddiy borliqni metaforalar asosida ko‘rishni insonning genezisi va madaniyati bilan bog‘lashga harakat qilishadi [3; 387]. Metafora tildagi universal hodisa bo‘lib, u barcha tilga xosdir. Uning universalligi makon va zamonda, til strukturasida hamda uning vazifalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Metafora o‘zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir. Lingvokulturologik birliklarni qiyoslashda yoki ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda o‘sha davr madaniyati, xususan, xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlariga ham e’tibor qaratish lozim.

Suyish-erkalash ma’nolarini kuchaytirib ifodalashda turli xalqlar turlicha zoosemizm va florizmlarning metaforizatsiyasidan foydalanadi. Masalan, o‘zbeklar “bo‘talog‘im”, “toychog‘im”, “qo‘zichog‘im” kabilardan foydalangan holda bolalarini erkalatsa, boshqa xalqlarda, xususan, ingliz xalqi madaniyatida bular salbiy bo‘yoqqa ega. Rus madaniyatida “porosonyok” (cho‘chqacham), “golubchik” (kabutarcham), “kotik”(mushukcham), ingliz xalqi madaniyatida “baby”, “honey”, “dove”, “frog” kabi leksemalardan foydalaniladi.

Xitoy va Koreyada ayollarni ilonga o‘xshatilsa, ular xursand bo‘lishadi, chunki ularda ilon donolik, go‘zallik va epchillikni kuchaytirib ifodalovchi ramz sanaladi [6; 51-52]. Ko‘pgina xalqlarda, jumladan, o‘zbeklarda bu salbiy ma’nolarda qo‘llaniladi. Masalan, bulbul metaforizatsiyasiga diqqat qilinsa, u aslida fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, uning ko‘chma ma’nosidan, ya’ni uning qush ekanligi emas, balki ovozining yoqimliligi nazarda tutiladi. Olimlarning ta’kidlashicha, badiiy adabiyotlarda bulbul o‘ziga xos majoziy obraz sifatida “gulning chin oshig‘i, ramziy ishq sohibi” sifatida, xalq rivoyatlarida bulbul chin oshiqlarning ramziy obrazi, xalq qo‘shiqlarida bulbul oshiq yor ramzi sifatida talqin etiladi. Yulduz metaforizatsiyasida uning olamga yorqin nur sochishi ko‘zda tutiladi. Fe’l-metaforalar asosan, hayvonlar, parranda, o‘simlik, hashorat kabilarga xos harakat, xususiyatlarni insonga ko‘chirish asosida yaratiladi. Bu esa hayvonot, parranda, o‘simlik nomlarining metaforizatsiyaga asos bo‘lishi bilan bog‘liq. Masalan, insonning biror harakatini parranda yoki boshqa harakatlarni ifodalovchi so‘z bilan almashtiriladigan bo‘lsa, inson avvalo, o‘sha narsaga o‘xshatiladi. Quyida bular xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Inson tashqi ko‘rinishi chiroyliligini kuchaytirib ifodalashda osmon jismlaridan sun – quyosh, star – yulduz leksemalaridan foydalaniladi. Masalan: 1. But, soft! What light throng you under window breaks in is the cast and Juliet is the Sun! (Djuleta – quyosh) (Shakespeare W. Romeo and Juliet. P. 57). 2. Your eyes are lodestars (sening ko‘zlaring yulduzday porlaydi yoki yulduz ko‘zlaring). Ingliz tilidan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida “quyosh” va “yulduz” leksemalari iboralar tarkibida qo‘llanganda go‘zallik yanada kuchaytiriladi: yulduzi issiq – istarasi issiq: Umid... ro‘parasidagi yulduzi issiq qizdan aslo ko‘z uzmasdi. (Mirmuhsin. Umid). Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, quyosh (sun), yulduz (star) leksemalari har ikkala tilda ham inson tashqi ko‘rinishi, tana a’zolarining nihoyatda chiroyliligini ifoda etish uchun xizmat qilmoqda. Ba’zi hollarda osmon jismlariga o‘xshatish orqali ma’no kuchaytirilganda salbiy ma’no anglashiladi. Bunday holatni moon (oy) leksemasi misolida ko‘rish mumkin. Ingliz tilining izohli lug‘atlarida moon so‘zining salbiy ma’no ifodalashiga

oid yetarlicha ma’lumot olish mumkin. Xususan, I.R.Galperinning lug‘atida “moon”, moon-blind or moon-eye – stradat kurinoy slepotoy – shabko‘rlikdan azob chekmoq; moon-calf – durachok, idiot kabi. Ingliz tilidan farqli ravishda, o‘zbek tilidagi “oy” leksemasi ijobiy ma’no ifodalaydi. Bu leksema nafaqat o‘zbek tilida, balki sharq madaniyatida go‘zallik ramzi hisoblanadi va u ayollar yuzining chiroyliligini kuchli ifoda etishga xizmat qiladi:

Oy yuzing qaro chimmat zulmidan qutultirg‘il,
Chiq qarong‘i turmushdan, nur ichinda javlon qil

(Hamza Hakimzoda Niyoziy. Asarlar: 2 tomlik. 184-bet).

Bulardan tashqari, o‘zbek xalqi madaniyatida ayollarni hurmat qilish, suyish-erkalash ma’nolarini kuchaytirishda ismlariga “oy” so‘zini qo‘shib aytish rasm tusiga kirgan. Ingliz yoki rus xalqlari madaniyatida esa bunday holat odat tusiga kirmaganligini ko‘ramiz.

Yevropa xalqi madaniyatida “dove” zoosemizmi ayollarning nihoyatda go‘zalligini ifodalovchi obraz hisoblanadi. Ayollar go‘zalligini va muloyimligini intensiv ifoda etishda inglizlar uni kaptarga qiyoslaydilar. Masalan: So shows a snowy dove trooping (Shakespeare W. Midsummer Night’s Dream, p.24). O‘zbek tilida “kaptar” zoosemizmidan ayollar go‘zalligini ifodalash uchun kuchaytiruvchi vosita sifatida foydalanilmasligi ma’lum bo‘ldi. Duck (o‘rdak) zoosemizmi ingliz tilida ayollarning nihoyatda go‘zalligini ifodalaydi. Shu bois u so‘zlovchi tomonidan yoqtirgan kishisiga nisbatan qo‘llaniladi: 1. How are you, duck? 2. “She is a perfect duck” yoki “she is a duck” – U juda sohibjamol yoki u o‘rdakka o‘xshaydi. O‘zbek tilida bundan farqli ravishda, “o‘rdak” zoosemizmi beso‘naqaylik, ayollar yurishining xunukligi, lapanglab yurishini ifodalaydi. Bu o‘rinda o‘zbeklar yovvoyi o‘rdak turi bo‘lmish suxsur zoosemizmidan foydalanadi. Masalan, suxsurdek yigit. Ba’zan intensivlik/deintensivlikning milliy-madaniy xususiyati florizmlarni o‘ziga xos qo‘llashda ham namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida ayollar tana a’zolarining chiroyliligini yanada kuchaytirishda “lily (liliya guli), “cedar” (kedr daraxti), “ebony” (eboni daraxti) kabi florizmlar qo‘llaniladi: 1) She locks her lily fingers one on one (Shakespeare W. Midsummer Night’s Dream, p.12). 2) as stright as the cedar (kedr daraxtidek tik, to‘g‘ri). Boshqa tillarda, masalan, o‘zbek tilida ayollar labining chiroyliligini kuchaytirib ifodalashda gulning g‘unchasiga, qad-qomatining tikligi, chiroyliligini sarv yoki shamshod daraxtiga, sochlarining chiroyliligi esa sunbul guliga o‘xshatiladi.

Demak, o‘xshatish va metaforalardan foydalanishda ham turli xalqlar undan turlicha foydalanishadi, Buni esa, turli xalqlarni dunyoni turlicha ko‘rishlari bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ashurova D.U. Stilistika i lingvokulturologiya // Til va milliy madaniyat. Samarqand davlat chet tillar institutining 10 yilligi yubileyiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2004. S.204–206.

2.Лакофф Дж. Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (перевод Н.В.Перцова)// Теория метафоры. – М., 1990, С. 387 – 416.

3.Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб.пособие для студ высш уч завед. – М., Академия. 2001. С. 88– 91.

4.Nasrullayeva G. Antroposentrik metaforaning kognitiv, lingvomadaniy, kommunikativ, pragmatik aspekti. Filol. fanlari bo‘yicha fals. doktori (PhD) diss. ... avtoref. – Farg‘ona, 2019.15-b.

5.Usmonova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. Seul, 2004. P. 51.

6.Maxmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, Ma’naviyat, 2013. 5 – 6-b.

Shuhratjon QALANDAROV,
Qo‘qon davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD.

LINGVOKULTUROLOGIYADA TIL VA MADANIYAT TUSHUNCHALARINING UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: lingvokulturologiya o‘ziga xos o‘rganish obyekti, maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda maxsus terminologik apparatiga ham egaki, ular ushbu paradigmaning mustaqil ish ko‘rish imkoniyatini namoyon qiladi. Madaniyatga doir faoliyat qamrovining kengayishi bilan uning sivilizatsiyaga daxldorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, etimologiya, til, madaniyat, konsept, konseptosfera, tadrijiylik, vorisiylik, o‘zlashtiruvchilik, tanqidchilik va taqlidchilik.*

Annotation: linguoculturology has a specific object of study, goals and objectives, as well as a special terminological apparatus, which reflects the possibility of independent work of this paradigm. With the expansion of the scope of cultural activities, it served to ensure its relevance to civilization.

Keywords: *linguoculturology, etymology, language, culture, concept, conceptosphere, gradualism, succession, appropriation, criticism and imitation.*

Аннотация: лингвокультурология имеет свой специфический объект изучения, цели и задачи, а также особый терминологический аппарат, демонстрирующий способность этой парадигмы функционировать самостоятельно. Расширение сферы культурной деятельности способствовало обеспечению ее соответствия цивилизации.

Ключевые слова: *лингвокультурология, этимология, язык, культура, концепт, концептосфера, градуализм, преемственность, апроприация, критика, подражание.*

Kirish. Lingvokulturologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslik tutashuvida shakllangan tilshunoslik sohasi bo‘lib, u tilga berkitilgan va u orqali ifodalangan madaniyatni tadqiq qiladi. Har bir lisoniy birlikdan madaniy mundarijani qidiradi. Tilning o‘z bag‘rida madaniy mag‘izni saqlashini uning akkumulyativ vazifasi doirasida o‘rganadi. Shu boisdan unga etnolingvistikaning tarkibiy qismi sifatida qarashlar ham uchrab turadi. Ammo, bizning nazarimizda, lingvokulturologiya universal va umumiy paradigma bo‘lib, etnolingvistika esa xususiy fan tarmog‘iga mansubligi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, bu fan paradigmalarining o‘zaro munosabati o‘zida umumiylik-xususiylik dialektikasini aks ettiradi. Har qanday madaniyat ildizi milliy bo‘lganligi sababli lingvokulturologiya vazifasini mutlaqo umuminsoniy madaniy mundarijaning tildagi ifodasi tadqiqi bilan chegaralab bo‘lmaydi. Masalan, ayrim lingvokulturemalar biror millatgagina xos bo‘lmasdan, bir xalqqa to‘laligicha xos bo‘lish mumkin. Zero, umummilliy va umumxalq tushunchalarining farqi ham o‘zida shuni ifodalaydi. Masalan, Tangri so‘zida aks etgan madaniy kod butun turkiy xalqlarga xos. Uni tadqiq qilayotganda lingvokulturologiya milliylikdan yuksakroq doiralarda, xalq doirasida harakat qiladi. Yoki Alloh istilohi lingvokulturema sifatida qaralganda diniy madaniyat nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ko‘rinadiki, lingvokulturologiya madaniy xoslangan til hodisalarini madaniyatning turi va xoslanganligi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bu lingvokulturologiyaning madaniyatlararo, tillararo fan yo‘nalishi sifatidagi maqomini ko‘rsatadi.

Har qanday madaniyat, avvalo, milliy tabiatga ega bo‘ladi va davr o‘tishi bilan umuminsoniy tus olishi – global xarakter kasb etishi mumkin. “Demak, umumiy madaniyat mavjud emas, har bir madaniyat muayyan jamiyat, millat ijtimoiy amaliyotining o‘ziga xos usullari majmuini o‘zida aks ettiradi. Masalan, rus madaniyati ko‘p asrlar davomida (garchi bu davrda rus xalqi ishlab chiqarish munosabat va sifatlarining o‘zgarishiga qaramasdan) rusona

bo‘lib qoldi, u Kavkazda gurji, Markaziy Osiyoda o‘zbek madaniyatiga aylanib qolmadi” [1.20].

Asosiy qism. Til va madaniyat tushunchalari munosabatini oydinlashtirish uchun madaniyat konseptining strukturasiga nazar tashlaymiz. Barcha falsafiy qomus va boshqa manbalarda madaniyat tushunchasi atroflicha yoritilgan. Xususan, o‘zbek tilida chop etilgan “Falsafa. Qomusiy lug‘at” ida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Unda berilishicha, madaniyat arabcha تېيندم – “madinalik”, “shaharlik”, “ta’lim tarbiya ko‘rgan” etimologik mazmuniga ega bo‘lib, tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usulini ifodalaydi. Madaniyat xususiy va umumiy tarzda talqin etiladi. Alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat) ni aks ettiradigan madaniyat xususiy madaniyat, ijtimoiy guruh yoki jamiyat hayot faoliyatini aks ettiradigan madaniyat umumiy madaniyat sifatida e’tirof etiladi. Har ikki ko‘rinishda ham u dastlab insonning tabiatga, o‘ziga ongli va maqsadga muvofiq ta’siri mohiyatiga ega bo‘lgan hamda refleksiv emas, balki takomillashuv ehtiyoji va qulaylik yaratish zarurati tufayli orttirilgan xislat sifatida qaralishi lozim.

Madaniyatga doir faoliyat qamrovining kengayishi bilan uning sivilizatsiyaga daxldorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Moddiy madaniyat va ma’naviy madaniyat farqlanib, ma’naviy madaniyat ma’naviyat tushunchasi bilan ifodalanadigan ham bo‘la boshlagan. Masalan, “Uyg‘onish davrida madaniyat yetukligi deganda insonning gumanistik g‘oyalari, keyinroq ma’rifatchilik g‘oyalariga muvofiqlikni tushuna boshlaganlar”. Inson madaniyat subyekti bo‘lish barobarida madaniyat obyekti hamdir. Zero, ongli faoliyat insonni hayvondan farqladi. Demak, shaxs shunchaki odam emas, balki madaniy odamdir. Inson va insoniyat o‘z tajribalarini sarhisob qilib, faoliyatini takomillashtirib boradi. Bunda tajribalari asosida hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanadi. Madaniyat rivojiga tadrijiylik, vorisiylik, o‘zlashtiruvchilik, tanqidchilik va taqlidchilik xususiyatlari xos. Ulardan ayrimlariga e’tibor qilamiz. Tadrijiylik madaniyat rivojining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlaydi. Ajdodlar madaniy zaxirasi davrga uyg‘un ravishda boyitib, to‘ldirilib, takomillashtirilib, sayqallashtirilib boriladi. Bu ikkinchi tomondan, madaniyatning vorisiyligini ko‘rsatadi. Vorisiylik bevosita kuzatish yoki bilvosita qabul qilish asosida amalga oshadi. Bunda til va undagi ifoda vositalarining o‘rni hamda roli beqiyos. Ma’lum bir davrdagi madaniyatning barchasi to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinmaydi. Ularning davr sinovidan o‘tgan, keyingi davr avlodlar uchun zarurlari yashovchan bo‘ladi va ijtimoiy ong va faoliyatga muhrlanadi. Madaniy vorisiylikda eskilik va yangilik o‘rtasidagi azaliy va abadiy kurash o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu o‘tmish madaniyatiga tanqidiy munosabat tusida ko‘rinish berib, zarurat va an’anaviylik ziddiyatini muvofiqlashtirish uchun xizmat qiladi.

Til va madaniyat bamisoli bir varaqning ikki tomonidek yaxlit tasavvur etilsa-da, ushbu o‘xshatishdagi “ikki tomon” ifodasi ularning tamomila boshqa mohiyat, o‘zga qatlam, ayricha sistemalar ekanligini ham ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda til madaniyatning o‘zimi, uning ko‘rinishimi, ifodalovchisi yoki mahsuli ekanligi masalasi to‘la-to‘kis hal etilgan deb bo‘lmaydi. Bu, avvalo ularning murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi, qolaversa, ushbu ikki hodisaning uzviy aloqadorligi, turli tadqiqotlarda ularga har xil asos va maqsadlardan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘linayotganligidan dalolat beradi

Til va madaniyatning mushtarakligi ularning shakllanishi, rivojlanishi hamda funksionallashuvi bilan bog‘liq quyidagi holatlarda ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bu holat ikki tomonlama yo‘nalgan bo‘ladi. Ya’ni madaniyat:

– o‘zaro lisoniy muloqot natijasida vujudga keladi;

– jamoa lisoniy muloqot saviyasini rivojlantiradi;

– jamoa lisoniy imkoniyati va shaxs lisoniy qobiliyatini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Til esa:

– o‘zaro madaniy muloqot natijasida shakllanadi;

– jamoa madaniy muloqot saviyasini rivojlantiradi;

– jamoa madaniy boyligi va shaxs madaniy qobiliyatini tarkib toptiradi va taraqqiy ettiradi.

– Madaniyat til bilan ma’lum bir makon va zamonda bog‘lanadi. Har bir ijtimoiy muhitda ma’lum bir davrni aks ettiradigan o‘ziga xos tayanch so‘z, tushunchalar bo‘ladi. Masalan, o‘zbeklarda iymon, ruslarda vera (ishonch) kabi.

Bu tushunchalar ma’lum bir millatga xos bo‘lishdan tashqari zamonlar o‘tishi bilan o‘z mohiyatini u yoki bu darajada o‘zgartirib boradi. Tilda yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi yoki mavjud so‘zlarning yangi mohiyat kasb etib borishini bunga dalil qilish mumkin.

Ma’lumki, lingvistikada til qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik aspektlarda o‘rganiladi. Qiyosiy-tarixiy tadqiqda maqol yoki iboraning etimologiyasi, kelib chiqish tarixi, sistem-struktur o‘rganishda uning strukturasi va munosabatlari tadqiq qilinsa, antroposentrik yondashuvda mazkur birliklarning shakllanishi yoki qo‘llanishida inson omili muammosi tadqiq etiladi. Aniqrog‘i, antropsentrik paradigmalarda, xususan, lingvokulturologiyada diqqat-e’tibor qo‘llanuvchi obyekt (so‘z) dan olinib, qo‘llovchi subyektga ko‘chadi.

Til ijtimoiy faoliyat mahsuli, muayyan jamiyat mulki va madaniyati (ko‘rinishi, ifodalovchisi) bo‘lsa-da, uning mavjudligi va taraqqiy etishi shu tilga mansub har bir kishi bilan bog‘liq. Bu umummilliy mulk har bir lisoniy shaxs ongida nuzul (manzil) topadi, xususiylashadi.

Til, madaniyat, qavm (etnos) munosabati, ya’ni aloqasi va o‘zaro ta’siri masalasi – fanlararo muammo. Bu muammo tevaragida falsafa, sotsiologiya, etnolingvistika va lingvokulturologiya fanlari “ot suradi”. Masalan, til va etnik tafakkur masalasi – falsafiy muammo bo‘lsa, til va madaniyat mushtarakligi masalasi lingvokulturologiyaga xos. Til va ruhiyat munosabati (aloqasi va ta’siri) psixolingvistika tomonidan o‘rganilsa, tilning sotsial xoslanishi bilan sotsiolingvistika mashg‘ul bo‘ladi. Til madaniyat bilan dialektik yaxlitlikda: madaniyat orqali shakllanib, u orqali rivojlanadi va uni ifodalaydi [2.41].

Barcha fanlarda sinxron va diaxron ko‘rinishlar bo‘lganligi kabi lingvokulturologiyada ham shunday holatlarning farqlanishiga doir qarashlar uchraydi. Masalan, V.N.Teliya lingvokulturologiyani sinxron kommunikativ munosabatda qo‘llanadigan lisoniy ifodalarning madaniy mag‘zini o‘rganadi deb hisoblaydi. Bu ham nazarimizda, yo‘nalish doirasini toraytirishdan boshqa narsa emas. Albatta, lingvomadaniy jarayonni lingvomadaniy taraqqiyotdan xoli tasavvur qilib bo‘lmaydi [3.452]. Zero, ijtimoiy taraqqiyot til va madaniyatning mushtarak taraqqiyoti bilan birga kechadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir yangi til sohibi yetishar ekan, u o‘z dunyoqarash va bilimini, birlamchi tasavvurlarini mustaqil holda qayta ishlash asosida emas, balki ajdodlarining mif va afsonalarda til birliklariga berkitilgan til tajribalari asosida shakllantiradi. Ajdodlarining lisoniy tajribalari natijasi o‘laroq, bilimlarni osongina egallaydi va rivojlantiradi. Til jamiyati a’zosi ajdodlar lingvomadaniy merosi vositasida borliqni bilish jarayonida tilda qayd etiladigan madaniy mulk sifatidagi yangi ifodalarni ham paydo qiladi. Shu asosda til, lingvomadaniy meros tashuvchisi bo‘lish bilan birga, hali noma’lum bo‘lgan hodisalarni ochish va nomlash vazifasini ham voqelantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. – Москва: ACADEMA, 2004. 208 с. 20-с.
2.Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры: 3-е изд. – М.: Академпроект, 2004 // www.ec-dejavu.ru/c/concept.html.
3.Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М., 1985. 452-б.

Dilnozaxon BURXANOVA,
QDU, v.b.dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).

KOGNITIV LINGVISTIKA FAN SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning tilshunoslikda ilk o'zanlarining paydo bo'lishi Amerika tilshunoslari bilan bog'liqligi, ushbu terminning fanda qo'llanilish o'zanlari birmuncha avvalroq, ya'ni generativ tilshunoslik negizida paydo bo'la boshlagani va uning fanlararo integratsiyasi tahlil qilingan. Bunda kognitiv tilshunoslik fan tarmoqlari doirasida o'rganilishi olimlar nazariyalari va misollar yordamida izohlangan.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, biolingvistika, yurislingvistika, kompyuter lingvistikasi, siyosiy lingvistika, lingvogeografiya, lingvistik antropologiya, fan tarmoqlari.

Аннотация: в данной статье анализируется возникновение когнитивной лингвистики в языкознании, связанное с американскими лингвистами, а также то, что применение данного термина в науке началось несколько раньше – на основе генеративной лингвистики, и рассматривается ее междисциплинарная интеграция. Исследование когнитивной лингвистики в рамках различных отраслей науки объясняется с опорой на теории ученых и примеры.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, психолингвистика, социолингвистика, этнолингвистика, биолингвистика, юридическая лингвистика, компьютерная лингвистика, политическая лингвистика, лингвогеография, лингвистическая антропология, отрасли науки.

Annotation: this article analyzes the emergence of cognitive linguistics in linguistics, associated with American linguists, as well as the fact that the use of this term in science began somewhat earlier – on the basis of generative linguistics, and examines its interdisciplinary integration. The study of cognitive linguistics in various branches of science is explained based on the theories of scientists and examples.

Key words: cognitive linguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, ethnolinguistics, biolinguistics, legal linguistics, computational linguistics, political linguistics, linguogeography, linguistic anthropology, branches of science.

Kognitiv tilshunoslikni ilk bor fan sifatida o'rganilish tarixi aynan 1989-yil Duysburg(Germaniya) da bahor oyida bo'lib o'tgan aynan shu mavzudagi xalqaro konferensiyada ta'kidlanib, xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi, Cognitive linguistics jurnali tashkil etilgan bo'lsada, ushbu terminning fanda qo'llanilish o'zanlari birmuncha avvalroq, ya'ni generative tilshunoslik negizida 1860-1870-yillarda paydo bo'la boshlagan. Aloxida e'tiborli tomoni, uning eng "gullagan" davri sifatida 1980-yillarda Amerika tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqot va maqolalarni keltirib o'tish mumkin. Misol tariqasida Lakoff, Johnson 1980-yilda nashr ettirgan asarlarini ko'rishimiz mumkin. Bunda olim til, tushuncha va madaniyatni birgalikda namoyon bo'lishini aynan kognitiv tilshunoslik deya izohlaydi. "Culture is the collective cognitive unconscious. It is the shared conceptual system that makes communication possible"[1]. (*"Madaniyat - bu jamoaviy kognitiv ongsizlik. Bu muloqotni amalga oshiradigan umumiy konseptual tizimdir."*) Lakoffning ta'kidlashicha, madaniyat bizning konseptual tizimlarimiz uchun asos yaratadi, bu esa o'z navbatida biz tildan qanday foydalanishimiz va tushunishimizni shakllantiradi degan g'oyani ilgari suradi.

Miller, G. A., Johnson-Laird, P. N. singari olimlar kognitiv yo'nalishni tilshunoslikda ilk bor qo'llanilganligini aynan Jorj Miller va Filiff Jonson tomonidan nashr etilgan "Til va qabul qilish" kitobi bilan uzviy bog'lashadi. Kognitiv tilshunoslikni bir fan doirasida o'rganish birmuncha qiyin masala hisoblanib, u psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, biolingvistika, yurislingvistika, kompyuter lingvistikasi, siyosiy lingvistika, lingvogeografiya, lingvistik antropologiya singari

[1] Lakoff, Women, Fire, and Dangerous Things, 1987

bir necha fan tarmoqlari bilan o‘zandosh sanaladi. Har bir soha sathida til va tushuncha, tushuncha va kognitivizm, jamiyat va tillararo integratsiyallashuv jarayonini integratsiyalashuvida ishtirok etadi.

Kognitiv lingvistika va psixolingvistika tilning qanday qilib inson ongida qayta ishlanishini o‘rganadigan fan tarmog‘i bo‘lib, psixolingvistika tilni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish va tushunishning psixologik mexanizmlarning faoliyatini o‘rganadi. Kognitiv lingvistika esa konseptual tuzilmalar va mental tasvirlar tilni qanday shakllantirishini, inson ongida tilning muayyan tushunchalari qanday shakllanishini o‘rganadi. Masalan, kognitiv lingvistika metaforalarni idrok vositalari sifatida tadqiq qilganini tahlil qiladigan bo‘lsak (masalan, “vaqt - bu pul”), bu esa metaforalarning miyada qanday qayta ishlanishi haqidagi psixolingvistik tadqiqotlar bilan bog‘liq.

Lakoff va Jonsonning konseptual metaforalar haqidagi tadqiqotlari kognitiv tizimlarning tilga ta’sirini ko‘rsatadi, bu mavzu psixolingvistik tajribalarda ham o‘rganiladi. Ularning xulosalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, psixolingvistikaning negizida kognitiv jarayonlar sodir bo‘ladi va ushbu jarayonlar turli tizim tillarida turlicha namoyon bo‘ladi. Buning yaqqol misoli sifatida *“Otamdan qolgan”* metaforasini xam misol qilish mumkin. Bundaa so‘zlovchining aytilayotgan predmet to‘g‘risidagi ma’lumotida ushbu buyum aynan otasidan qolgan emas, balki *eskirgan, urfdan* qolgan ma’nolarini anglatadi.

Sotsiolingvistika til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni, xususan, ijtimoiy omillar (masalan, ijtimoiy tabaqa, jins, etnik kelib chiqish va yosh) tilning rivojlanishi va qo‘llanilishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Kognitiv lingvistika esa insonning ijtimoiy idroki va fikrlash jarayonlarining til tizimiga qanday ta’sir o‘tkazishini tadqiq qiladi. Kognitiv lingvistikadagi “framing” (tizimlashtirish) tushunchasi tilning ijtimoiy stereotiplar, ideologiyalar yoki dunyoqarashlarni qanday shakllantirishini va uyg‘otishini tushuntiradi. Deborah Tannenning jinslararo muloqat uslublari bo‘yicha tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kognitiv tizimlar (masalan, suhbatni muzokara yoki aloqa sifatida qarash) ijtimoiy normalar va madaniy kontekstlar ta’sirida shakllanadi. Bu kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlarni o‘zaro bog‘lovchi muhim misol hisoblanadi[2].

Etnolingvistika til va madaniyat o‘rtasidagi dinamik munosabatni, shu jumladan, madaniy amaliyotlar, an’analar va qadriyatlar til tuzilmalarini qanday shakllantirishini o‘rganadi. Kognitiv lingvistika esa madaniy modellar, dunyoqarashlar va idrok etish jarayonlarining tilga qanday singib ketishini tahlil qilish orqali bu sohaga hissa qo‘shadi. Masalan, Sapir-Whorf gipotezasi tilning fikrlash va idrok etish jarayonlariga ta’sirini ta’kidlaydi. Bu gipoteza kognitiv lingvistikadagi fazoviy til haqidagi tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi. Ba’zi tub tillarda fazoviy munosabatlar egotsentrik atamalar (masalan, “uyning chap tomoni”) o‘rniga kardinal yo‘nalishlar (masalan, “uyning shimoli”) yordamida ifodalanadi. Bu hodisa madaniy jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan kognitiv tizimlarni aks ettiradi[2].

Biolingvistika tilning biologik asoslarini, jumladan, uning evolyutsiyasi, neyrofiziologik mexanizmlari va genetik jihatlarini o‘rganadi. Kognitiv lingvistika esa biolingvistika bilan xotira, e’tibor va boshqa kognitiv jarayonlar til tuzilmasini qanday shakllantirishini o‘rganish orqali kesishadi. Masalan, til ikonikligi (onomatopeya kabi tovushli o‘xshashliklar) haqidagi tadqiqotlar kognitiv va biologik omillar til shakllarini yaratishda qanday o‘zaro ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Noam Chomskiyning Universal Grammatika (UG) haqidagi nazariyasi ham kognitiv lingvistika bilan chambarchas bog‘liq, chunki ikkala soha ham tilning asosida yotuvchi tug‘ma kognitiv tuzilmalarni tushuntirishga qaratilgan[4].

Yurislingvistika lingvistik tahlilni huquqiy kontekstlarda qo‘llaydi, masalan, qonunlardagi noaniq tillarni talqin qilish yoki mualliflikni tahlil qilish. Kognitiv lingvistika huquqiy matnlarda ma’no qanday qurilishini o‘rganish orqali hissa qo‘shadi. Masalan, shartnomalardagi metaforalar yoki ko‘p ma’noli so‘zlar talqini ko‘pincha kognitiv

[2] Deborah Tannen, You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation (New York: William Morrow, 1990).

[3] Edward Sapir, Language: An Introduction to the Study of Speech (New York: Harcourt, Brace & Company, 1921); Benjamin Lee Whorf, Language, Thought, and Reality (Cambridge, MA: MIT Press, 1956).

[4] Noam Chomsky, Syntactic Structures (The Hague: Mouton, 1957).

tamoyillarga tayanadi. Solanning huquqiy nizolarda lingvistik noaniqlikning roli haqidagi tadqiqotlari kognitiv jarayonlarning huquqiy tilni tushunishga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Kompyuter lingvistikasi tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Kognitiv lingvistika insonlar tilni qanday qayta ishlashi va konseptualizatsiya qilishi haqidagi tushunchalarni taqdim etish orqali bu sohaga hissa qo'shadi. Masalan, semantikaning kognitiv modellari, masalan, prototip nazariyasi, so'z ma'nosini aniqlash uchun mashina o'rganish algoritmlarini yaxshilashda qo'llanilgan. Fillmorening FrameNet (kognitiv freymlar asosidagi leksikon) bo'yicha tadqiqotlari kognitiv lingvistikaning quidagi sohada amaliy qo'llanilishini ko'rsatadi.

Siyosiy lingvistika tilning siyosiy diskursda jamoatchilik fikrini qanday shakllantirishini o'rganadi. Kognitiv lingvistika metaforalar va freyming siyosiy narrativlarni qanday shakllantirishini tahlil qilish orqali hissa qo'shadi. Masalan, Jorj Lakoffning siyosiy metaforalar (masalan, "millat - oila") bo'yicha ishi kognitiv tizimlarning auditoriyani qanday ishontirishi va manipulyatsiya qilishini ko'rsatadi. Siyosiy nutqlarda urush metaforalaridan foydalanish (masalan, "terrorga qarshi urush") haqidagi tadqiqotlar kognitiv va siyosiy lingvistikaning kesishishini ko'rsatadi.

Lingvogeografiya tillar va dialektlarning geografik tarqalishini o'rganadi. Kognitiv lingvistika geografik va atrof-muhit omillarining kognitiv konseptualizatsiyaga qanday ta'sir qilishini o'rganish orqali bu sohaga hissa qo'shadi. Masalan, turli mintaqalardagi fazoviy til haqidagi tadqiqotlar jismoniy landshaftlarning tilga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Tog'li hududlarda tillar ko'pincha balandlikni ifodalash uchun boy lug'atga ega bo'ladi, bu geografiyaning kognitiv ta'sirini aks ettiradi.

Lingvistik antropologiya tilning inson jamiyatlari va madaniyatlaridagi rolini o'rganadi. Kognitiv lingvistika madaniy bilimlarning tilga qanday singib ketishini tahlil qilish orqali hissa qo'shadi. Masalan, turli madaniyatlarda rang terminologiyasi haqidagi tadqiqotlar kognitiv jarayonlarning madaniy amaliyotlar bilan o'zaro ta'sirini ko'rsatadi. Berlin va Kay (1969) ning rang nomlanishidagi universal naqshlar haqidagi tadqiqotlari kognitiv va antropologik nuqtayi nazarlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

Kognitiv lingvistika turli lingvistik fanlar bilan chuqur bog'liq, chunki u tilning inson idroki, madaniyati va jamiyatini qanday aks ettirishi va shakllantirishini tushunish uchun asos yaratadi. Metaforalar, freyming va konseptual tuzilmalar kabi hodisalarni o'rganish orqali kognitiv lingvistika aql va tashqi dunyo o'rtasidagi bo'shliqni to'ldiradi, bu boshqa lingvistik fanlarni boyitadi. Bu fanlararo yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni rivojlantirishga, balki ta'lim, huquq, siyosat va texnologiya sohalarida amaliy qo'llanilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berlin, B., & Kay, P. (1969). Basic color terms: Their universality and evolution. University of California Press.
2. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. MIT Press.
3. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In Linguistics in the morning calm (pp. 111–137). Hanshin Publishing.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press.
5. Miller, G. A., & Johnson-Laird, P. N. (1976). Language and perception. Harvard University Press.
6. Sapir, E. (1921). Language: An introduction to the study of speech. Harcourt, Brace.
7. Solan, L. M. (1993). The language of judges. University of Chicago Press.
8. Tannen, D. (1990). You just don't understand: Women and men in conversation. William Morrow.
9. Whorf, B. L. (1956). Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press.

Munojot ADILOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, mustaqil izlanuvchi (PhD)
Email:adilovamunojot@gmail.com
ORCID: 0009-0001-6599-6959

TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH YO‘NALISHLARIDA SO‘Z TURKUMLARINI TEGLASH AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida so‘z turkumlarini teglashning ahamiyati va uning amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. So‘z turkumlarini teglash — bu matndagi har bir so‘zni uning grammatik roliga ko‘ra tahlil qilish jarayonidir. Maqolada bu jarayonning NLP tizimlarida qanday ishlatilishi, shu jumladan, mashinaviy tarjima, ovozli yordamchilar va matn tahlili kabi sohalarda qanday ahamiyatga ega ekani ko‘rsatilgan. So‘z turkumlarini teglashda qo‘llaniladigan turli metodlar, jumladan, qoida asosidagi, statistik va chuqur o‘rganish usullari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, ushbu jarayonning NLP tizimlarining samaradorligini oshirishdagi o‘rni ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *teglash, NLP (Natural Language Processing), tabiiy tilni qayta ishlash, so‘z turkumlarini teglash, mashinaviy tarjima, ovozli yordamchilar, semantik tahlil.*

Аннотация: в статье рассматривается важность тегирования частей речи в области обработки естественного языка (NLP) и его практическое применение. Тегирование частей речи — это процесс анализа каждого слова в тексте в зависимости от его грамматической роли. В статье показано, как этот процесс используется в NLP-системах, включая такие области, как машинный перевод, голосовые помощники и анализ текста. Подробно обсуждаются различные методы тегирования частей речи, включая основанные на правилах, статистические и методы глубокого обучения. Также подчеркивается роль тегирования частей речи в повышении эффективности NLP-систем.

Ключевые слова: *обработка естественного языка, тегирование частей речи, NLP, машинный перевод, голосовые помощники, глубокое обучение, семантический анализ.*

Annotation: the article discusses the importance of part-of-speech tagging in Natural Language Processing (NLP) and its practical applications. Part-of-speech tagging is the process of analyzing each word in a text based on its grammatical role. The article illustrates how this process is used in NLP systems, including in areas such as machine translation, voice assistants, and text analysis. Different methods used for part-of-speech tagging, including rule-based, statistical, and deep learning approaches, are discussed in detail. The role of part-of-speech tagging in improving the efficiency of NLP systems is also highlighted.

Key words: *natural language processing, part-of-speech tagging, NLP, machine translation, voice assistants, deep learning, semantic analysis*.

Kirish. Ilm-fan taraqqiyoti hamda globallashuv natijasida turli fan sohalarida muayyan muammolar yuzaga keladi. Muammolarni amaliy hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish esa bevosita tahlillar, tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. So‘nggi vaqtlarda sud ekspertizalari negizida lingvistik ekspertizaga ehtiyoj ortib bormoqda. Tekshiriluvchi matnlarning semantik mohiyatini belgilash, pragmatik mazmunini ochib berishda lingvistik ekspertizaning roli beqiyos. Globallashuv tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan davrda til va texnologiyaning o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi tabiiy hol. Texnologiya bugungi kunda hayotimizning har bir jabhasiga kirib bordi deb hech ikkilanmay ayta olamiz. Shuningdek, kompyuter tilshunosligi, zamonaviy sohalar, lingvokulturologiya, lingvopragmatika kabi qator yo‘nalishlar sun’iy intellekt tili hamda inson tilini o‘zaro solishtirish, teglash kabi masalalarni ilgari suradi.


Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP – Natural Language Processing) jarayonida muammolarni ketma-ket modellashtirish zamonaviy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, so‘z turkumlarini teglash ushbu sohadagi eng qadimiy va keng o‘rganilgan muammolardan biri bo‘lib, uning asosiy vazifasi gap tuzilishini ilmiy asosda modellashtirishdan iborat.

Materiallar va metodlar. Gaplarni o‘qish, anglash va qanday so‘zlar qaysi so‘z turkumlari vazifasini bajarishini tahlil qilish va aniqlash nutq teglarining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. So‘z turkumlarini teglash so‘z turkumlariga ajratish deb ham nomlanib bu matndagi leksemani nutqning ma’lum bir qismiga moslash, uning kontekstidan kelib chiqib, o‘zaro bog‘langan ibora, jumlalar va yoki paragrafdagi so‘zlardir. Ushbu tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, eksperimental tahlil, SWOT tahlil kabi metodlardan mavzuning ahamiyati va dolzarbligini yoritib berishda keng foydalanildi.

Aytish joizki, tadqiqot mavzusi bir paytning o‘zida ham dolzarb, ham yangi mavzu hisoblanadi. Shu boisdan ham bu mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan xalqaro va respublikamiz e’tirof etgan qator olimlar yaqin tarixdan buyon ilmiy tadqiqotlari bilan tilshunoslik, korpus matnshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika kabi fan tarmoqlarida izlanish olib borayotgan olimlardir. Ulardan, M.Abjalova[1], E.Brill[2], L.Baum[3], D.Ganiyeva[4], S.Rizayev[5], Thad Starner, Alex Pentland[6] va boshqa ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlari ushbu soha rivojiga hissa qo‘shmoqda.

Izlanishlar va muhokamalar. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP – Natural Language Processing) sun’iy intellektning inson tili bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan sohasi bo‘lib, u lingvistika va kompyuter fanlari chorrahasida joylashgan. NLP’ning asosiy maqsadi inson tilini kompyuterlar tushuna oladigan formatga keltirish va u bilan samarali ishlashdan iborat. Ushbu jarayonda so‘z turkumlarini teglash (POS tagging – Part-of-Speech tagging) muhim ahamiyatga ega bo‘lib, matnni yanada chuqurroq tahlil qilish va tushunish imkonini beradi.

So‘z turkumlarini to‘g‘ri aniqlash NLP tizimlari uchun zaruriy bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada so‘z turkumlarini teglashning mohiyati, uning NLP’dagi o‘rni, amaliy foydalanish sohalari va zamonaviy yondashuvlar haqida batafsil so‘z yuritiladi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, so‘z turkumlarini teglash nima? Bu matndagi har bir so‘zning grammatik rolini aniqlash jarayoni bo‘lib, har bir so‘z 12 ta turkumga – ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l va bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, modal so‘zlar kabi turkumlarga ajratiladi.Ushbu jarayon tabiiy tilni qayta ishlashning dastlabki bosqichlaridan biri hisoblanadi va sintaktik hamda semantik analiz uchun muhim poydevor yaratadi. Bu poydevor konseptning pragmatik xususiyatini aniqlab bera oladi. So‘z turkumlarini aniqlash inson tomonidan amalga oshirilganda ko‘p vaqt talab qiladi va xatolik ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shu sababli, NLP tizimlarida avtomatlashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan. So‘z turkumlarini teglashning turli usullari mavjud bo‘lib, ular turli kontekstlar ma’nosini boyitib, mazmunni anglash jarayonini, tahlil jarayonini osonlashtiradi, teglashni quyidagicha guruhlarga ajratib o‘rganish mumkin:



Demak, qoida asosidagi yondashuvda oldindan belgilangan lingvistik qoidalarga asoslanib, so‘zlarni teglash amalga oshiriladi. Shuningdek, unda gap bo‘laklari morfologik tahlil va sintaktik qoidalar yordamida aniqlanadi. Qoidalarga asoslangan tizimlar katta hajmdagi tillar uchun moslashuvchanlik talab qiladi, bu esa qoidalarni kengaytirishni qiyinlashtiradi.

Statistik yondashuvda esa mashinaviy o‘rganish modellaridan keng ko‘lamda foydalaniladi. Ular Markov zanjirlari va yashirin Markov modellari (HMM) asosida quriladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ma’lumotlar to‘plami asosida model o‘qitiladi va yangi matnlarga ularni tatbiq qilinadi. Ushbu yondashuv aniqroq natijalar beradi, ammo katta hajmdagi ma’lumotlarni talab qiladi.

Chuqur o‘rganish yondashuvi NLP’da eng zamonaviy va samarali hisoblanib, unda esa neyron tarmoqlar, xususan, rekurrent neyron tarmoqlar (RNN), uzun-xotirali tarmoq (LSTM) va transformer modellaridan foydalaniladi, ular kontekstual ma’lumotlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, BERT, GPT kabi ilg‘or modellar yordamida yuqori aniqlikka erishiladi.

NLP tizimlarida so‘z turkumlarini teglash juda muhim bo‘lib, u turli jarayonlarda asosiy rol o‘ynaydi. So‘zlarning kontekstual ahamiyatini aniqlash mashinali

[1] M.Abjalova https://tsuull.uz/sites/default/files/nlpda_soz_turkumlarini_teglash_masalasi.pdf [murojaat sanasi: 03.04.2025].

[2] Brill, E. (1995). Transformation-Based Error-Driven Learning and Natural Language Processing: A Case Study in Part-of-Speech Tagging. Computational Linguistics, Vol. 21, P. 543-565.
Brill, E. (1992). A simple rule-based part of speech tagger. Proceedings of ANLC, P. 154.

[3] Baum, L. E.; Sell, G. R. (1968). Growth transformations for functions on manifolds. Pacific Journal of Mathematics, 27(2), P. 211-227.

[4] G‘aniyeva, Dildora. (2019). Mazmuniy sinxretizm va polifunksionallik. NamDU ilmiy axborotnomasi – Nauchniy vestnik NamGU, 6-son, 275-278.

[5] Rizayev, S. (2006). O‘zbek tilshunosligida lingvostatistika asoslari. – Toshkent: Fan,18-b.

[5] Thad Starner, Alex Pentland. (1995). Real-Time American Sign Language Visual Recognition From Video Using Hidden Markov Models. Master’s Thesis, MIT, Program in Media Arts.

tarjimalarni yanada aniqroq qilishga yordam beradi. Shuningdek, matnni chuqur tahlil qilish va undan ma'no chiqarish jarayonida ham so'z turkumlarini aniqlash muhim vosita hisoblanadi. Keyingi o'rinda, ovozli yordamchilar va chatbotlar foydalanuvchi bilan muloqotda aniqlikni ta'minlash uchun ushbu teglashdan foydalanadi. Bundan tashqari, ma'lumotlarni "qazib olish", ya'ni matndagi muhim axborotlarni ajratish va tasniflashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talaffuzni aniqlashda, xususan, avtomatik nutq tanib olish tizimlarida kontekstni tushunish uchun so'z turkumlari zarur bo'ladi. Yana bir muhim jihat shundaki, matnlarni mavzuga qarab saralash, spam xabarlarni ajratish kabi vazifalar ham aynan ushbu texnologiyaga asoslanadi.

NLP'ning so'z turkumlarini teglash jarayoni turli amaliy sohalarda keng qo'llanilib, Google Translate kabi mashinaviy tarjima tizimlarida so'zlarning to'g'ri ma'noda ishlatilishi uchun; Siri, Alexa va Google Assistant kabi ovozli yordamchilar orqali tabiiy muloqot yaratishda; avtomatik matn tahlili va sentiment analiz – foydalanuvchilarning fikrlarini tushunish uchun; hujjatlarni tasniflash – muhim ma'lumotlarni ajratish va saralash uchun ishlatiladi. Shunday qilib, tabiiy tilni qayta ishlashda so'z turkumlarini teglash muhim rol o'ynaydi. U tilni chuqurroq tushunish, turli NLP tizimlarining samaradorligini oshirish va inson-kompyuter muloqotini yanada tabiiy qilish uchun zarur.

Zamonaviy mashinaviy o'rganish va chuqur o'rganish modellarining rivojlanishi bu jarayonni yanada aniqlik bilan bajarish imkonini bermoqda. Kelajakda NLP tizimlari yanada rivojlanib, inson nutqini tushunish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, so'z turkumlarini teglash tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) jarayonida muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon matndagi so'zlarni grammatik roli bo'yicha aniqlash va tasniflash orqali nutqning semantik va sintaktik tuzilishini o'rganish imkonini beradi. So'z turkumlarini teglashning to'g'ri amalga oshirilishi NLP tizimlarining samarali ishlashiga asos bo'ladi, chunki bu jarayon matnning chuqur tahlili uchun poydevor yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, mashinaviy o'rganish va chuqur o'rganish usullari yordamida so'z turkumlarini teglash yanada aniqroq va samaraliroq bajarilmoqda. Statistik yondashuvlar va neyron tarmoqlarga asoslangan texnologiyalar, masalan, Markov zanjirlari, yashirin Markov modellari (HMM), rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) va transformer modellaridan foydalanish so'z turkumlarini teglashda yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Bu metodlar matnning ma'nosini yanada chuqurroq tushunish va kontekstual ahamiyatini aniqlashga imkon yaratadi.

NLP tizimlari uchun so'z turkumlarini teglash nafaqat sintaktik aniqlikni oshirishga, balki boshqa ko'plab amaliy sohalarda, masalan, mashinaviy tarjima, ovozli yordamchilar (Siri, Google Assistant), matnni tahlil qilish, sentiment analiz qilish va ma'lumotlarni qazib olish kabi vazifalarda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimlar yordamida foydalanuvchilar bilan tabiiy muloqot o'rnatish, ma'lumotlarni aniq va samarali tarzda saralash mumkin bo'ladi.

Kelajakda so'z turkumlarini teglash jarayonining yanada rivojlanishi NLP tizimlarining inson tilini tushunish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Chuqur o'rganish va mashinaviy o'rganishning yanada ilg'or modellari, masalan, BERT, GPT va boshqa zamonaviy texnologiyalar, tilni aniq va tabiiy tushunishga katta hissa qo'shadi. Bu esa inson va kompyuter o'rtasidagi muloqotni yanada samarali va tabiiy qilish imkonini yaratadi. NLP tizimlarining rivojlanishi bilan, kompyuterlar nafaqat tilni tushunish, balki uni anglash va qayta ishlashda ham yuqori natijalarga erishadi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning boshqa sohalarida ham bu texnologiyalarning qo'llanilishi kengayadi va yangi imkoniyatlar ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.M. Abjalova.https://tsuull.uz/sites/default/files/nlpda_soz_turkumlarini_teglash_masalasi.pdf
2.Abjalova M. *Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari*. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. 176-b.
3.Brill E. (1995). *Transformation-Based Error-Driven Learning and Natural Language Processing: A Case Study in Part-of-Speech Tagging*. Computational Linguistics, Vol. 21, P. 543-565.
4.Brill E. (1992). *A simple rule-based part of speech tagger*. Proceedings of ANLC, P. 154.
5.Baum L. E.; Sell G. R. (1968). *Growth transformations for functions on manifolds.* Pacific Journal of Mathematics, 27(2), P. 211-227.
6.Abjalova Manzura. 2021. *Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da so'z turkumlarini teglash masalasi* / O'zbekiston: Til va madaniyat. – ToshDO'TAU. № 2.
7.Rizayev S. (2006). *O'zbek tilshunosligida lingvostatistika asoslari.* Toshkent: Fan, B. 18.
8.Thad Starner, Alex Pentland. (1995). *Real-Time American Sign Language Visual Recognition From Video Using Hidden Markov Models.* Master's Thesis, MIT, Program in Media Arts.

Qahramon ESHBOYEV,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.



O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIGA SEMANTIK DARAJALANISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbek tilining izohli lug'atlariga ma'noviy darajalanish metodologiyasini tatbiq etish va bu orqali lug'atda berilgan leksemalar o'rtasidagi ma'no farqlarini darajaviy tahlil qilish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, leksikografiya, izohli lug'at, darajalanish, metodologiya, semantika, sinonim, antonim.*

Аннотация: целью данной статьи является применение методологии семантической градации к толковым словарям узбекского языка и проведение тем самым иерархического анализа семантических различий между лексемами, приведенными в словаре.

Ключевые слова: *языкознание, лексикография, толковый словарь, классификация, методология, семантика, синоним, антоним.*

Annotation: this article aims to apply the methodology of semantic gradation to explanatory dictionaries of the Uzbek language and thereby conduct a hierarchical analysis of the semantic differences between the lexemes given in the dictionary.

Key words: *linguistics, lexicography, explanatory dictionary, classification, methodology, semantics, synonym, antonym.*

Kirish. Bugungi kungacha o'zbek tilining katta hajmda so'z boyligini, tilning adabiy til me'yorlarini, o'zbek tilining qo'llanish holatini ko'rsatib beruvchi izohli lug'atlar ikki marta yaratilgan. 1981-yilda yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" ikki tomdan iborat. Undan farqli ravishda ancha to'ldirilgan va tahrir qilingan holda nashr etilgan 5 jildli hamda 6 jildli O'TIL ham keng foydalanuvchilar auditoriyasi uchun o'zbek tili bo'yicha bebaho manba ekani shubhasiz. Ushbu lug'atlar nafaqat tildan foydalanuvchilar uchun, balki tilshunoslik sohasi uchun ham qimmatli material. Chunki o'zbek lug'atchiligida bu kabi yirik leksikografik manba yaratilishi lug'atshunoslikda o'ziga xos yutuq deb qaralishi bilan birga, sohada yangi bosqichni boshlab berdi deb ayta olamiz.

Ta'kidlash kerakki, ushbu lug'atlarda tilning lug'at yaratilgan davrdagi o'zbek tili holatining ulkan qismi aks etgan. So'z birikmalari, iboralar bilan birga hayotning turli sohalariga tegishli terminlar ham lug'atdan o'rin olgan.

1981-yilda yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'zbek xalqi tarixida birinchi marta nashr etildi. 1952-yili VKP Markaziy Komitetining Siyosiy Byurosi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Moldaviyada ruscha-milliy lug'atlar tuzish haqida qaror qabul qilgan. Bu lug'atlarni nashr etish Davlat – xorijiy va milliy tillar lug'atlari nashriyotiga topshirilgan edi. Shundan keyin O'zbekiston SSR FA Til va adabiyot instituti leksikograflari bilan mazkur nashriyot xodimlari o'rtasida mustahkam va samarali hamkorlik natijasida 50 ming so'zli bir tomli "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (–M.,1954) va 40 ming so'zli bir tomli "O'zbekcha-ruscha lug'at" (– M., 1959) tayyorlandi va nashr etildi [1:15].

Milliy istiqlolning qo'lga kiritilishi va buning natijasida til siyosatida yuzaga kelgan jiddiy o'zgarishlar davr talabiga javob beradigan, yangi va ko'p jildli izohli lug'atni tuzish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shu zarurat asosida hukumatning maxsus qarori bilan Davlat dasturiga o'zbek tilining yangi izohli lug'atini yaratish va uni chop etish vazifasi kiritildi . Natijada 2008-yilda O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'ati dunyo yuzini ko'rdi. Mazkur lug'atni tuzishda 1981-yilda yaratilgan lug'at materiallaridan foydalanilgan, ammo uning to'ldirilgan, qayta ishlangan, tuzatishlar kiritilgan nashri emasligi [2:5] ta'kidlanadi.

Asosiy qism. O'zbek tili izohli lug'atlarining ma'noviy darajalanish metodologiyasini takomillashtirishda bir nechta asosiy masalalarga e'tibor qaratish lozim. Bular, avvalo, lug'atlarning ma'lumotlar tuzilishi, semantik tizimlarning to'liq va aniq tasnifi va ma'lumotlar bazasining o'zaro bog'liqligi kabi masalalardir. Quyida bu jarayonlarni takomillashtirish uchun mumkin bo'lgan yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Semantik darajalanishning aniq ta'rifi va tuzilishi shundaki, bu so'zlarning ma'nolarini qamrab oluvchi tizimning tashkil etilishi va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadigan yondashuvdir. Lug'atdagi har bir so'zni

to‘liq tahlil qilish va uning turli semantik qatlamlarini aniqlash muhimdir. Bu ayniqsa, sinonimlar, antonimlar, monosemik va polisemik so‘zlar kabi turli semantik guruhlarni ajratishda yordam beradi.

Semantik darajalarni aniqlashda so‘zning lug‘aviy, kontekstual va pragmatik ma’nolarini alohida qarab, ularni to‘g‘ri joylashtirish lozim.

Sinonimlar va antonimlarni aniq belgilash. Sinonimlar va antonimlarni to‘g‘ri aniqlash va ularni lug‘atdagi semantik darajalar bilan bog‘lash izohli lug‘atni boyitadi. Lug‘atdagi har bir so‘zning sinonimlarini ajratish va har bir sinonimning kontekstual o‘rnini ko‘rsatish kerak.

Antonimlarni esa “qarama-qarshi” yoki “qaram” ma’nolarda izohlashda, ularning semantik bog‘liqligini va vazifasini chuqur tahlil qilish kerak.

Polisemiyaga e’tibor qaratish. Bilamizki, polisemiya bu bir so‘zning turli ma’nolariga ega bo‘lishi holatini anglatadi. O‘zbek tilida polisemiya ko‘p uchraydi. Shuning uchun har bir polisemik so‘zni lug‘atda har bir ma’no bo‘yicha izohlash va ularni kontekstga qarab tahlil qilish muhim. Polisemiya tizimining qadamlarini aniqlash va ularni semantik qatlamlarga ajratish orqali ma’no tafovutlarini yanada aniqroq aks ettirish mumkin.

Lug‘atni kontekstual nuqtayi nazardan takomillashtirish. Har bir so‘zning semantik darajalari faqat uning o‘ziga xos ma’nosi bilan cheklanmaydi, balki ularni ma’lum bir kontekstda tahlil qilish kerak. Shu bois, lug‘at izohlarida kontekstual misollarni keltirish, o‘zbek tilidagi ma’no farqlarini yaxshiroq aks ettirish imkonini beradi.

O‘zi kontekstual izoh nima degan savolga to‘xtalib o‘tsak. Kontekstual izoh bu so‘zning ma’nosini uni ishlatilgan konteksti (ya’ni gap yoki matn doirasi) asosida tushuntirish demakdir. Boshqacha aytganda**,** so‘z qanday vaziyatda, qanday so‘zlar orasida, qanday maqsadda ishlatilganiga qarab uning ma’nosini ochib berishdir. Shunday ekan kontekstual izohlar semantik darajalanishni yanada aniqroq qilishda muhim, chunki so‘zlarning ma’nolari ko‘pincha ularning atrofidagi so‘zlar yoki jumla tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida o‘zbek tili izohli lug‘atlariga semantik darajalanish metodologiyasini takomillashtirish, so‘zlarning ma’nolarini aniq va chuqur tahlil qilishni, sinonimlar va antonimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishni, polisemiya va kontekstual farqlarni e’tiborga olish kerakligi haqida aytib o‘tildi.

Tadqiqot ishimizning oldingi qismlarida semantik darajalanish haqida bir qancha fikrlarni keltirib o‘tdik. Shu fikrlarga qo‘shimcha qilgan holda semantik darajalanish bu til birligining (*so‘z, frazeologizm, ibora*) ma’no jihatidan iyerarxik tarzda tasniflanishi va o‘rganilishidir. Semantik darajalanish, asosan, so‘zlar va iboralar ma’nolarining qanday tashkil topishini, ular o‘rtasidagi aloqalar va farqlarni belgilaydi. So‘zlar turli ma’no farqlariga ega bo‘lishi mumkin va bu ma’nolar ularning o‘zaro aloqalari, matndagi qo‘llanilishi hamda til tizimining boshqa elementlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Semantik darajalanish tushunchasi til tizimining semantik jihatdan chuqurroq va tizimli tahlilini talab etadi. Semantik darajalanishning lug‘atshunoslikdagi ahamiyati katta, chunki u tilning leksik tizimining strukturasi va o‘zaro aloqalarini yanada chuqurroq tushunishda ahamiyatlidir. So‘zlar orasidagi semantik aloqalar, ma’no qatlamlarining aniqlanishi va tizimli tasniflash lug‘atlarni samarali tashkil etish va uning foydalanuvchilariga aniq va mukammal ma’lumotlarni taqdim etishda muhim rol o‘ynaydi. Bu metodologiya lug‘atshunoslikda so‘zlarning ma’nolarini to‘g‘ri va tizimli ravishda taqdim etish, shuningdek, til o‘zgarishlarini va yangi semantik aloqalarni yoritish lug‘at uchun muhimdir.

Lug‘at uchun semantik struktura va iyerarxiyaning o‘rni muhim. Semantik struktura so‘zlarning ma’no jihatidan qanday tashkil etilganligini ko‘rsatadigan tizimdir. Har bir so‘z o‘zining ma’no qatlamiga ega bo‘lishi mumkin va bu qatlamlar o‘zaro bog‘lanadi. So‘zlar o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlar, ma’no o‘zgarishlari va semantik aloqalar semantik strukturaning asosi hisoblanadi. Masalan, bir so‘zning asosiy ma’nosi va kengaygan ma’nolari, shuningdek, uning sinonimlari, antonimlari va boshqa semantik xususiyatlari semantik strukturaga kiradi.

Ma’no qatlamlari. So‘zlarning bir nechta ma’nolari bo‘lishi mumkin. Bu so‘zning asosiy ma’nosi va kontekstga qarab kengaygan yoki o‘zgargan ma’nolari bo‘lishi mumkin. Masalan, *“oy”* so‘zi bir tomondan oylik vaqt birligi (oy), ikkinchi tomondan esa osmondagi yorug‘lik manbai (oy) ma’nosini anglatishi mumkin.

Semantik aloqalar. So‘zlar orasidagi sinonimlik, antonimlik, giponimiya, giperonimiya kabi aloqalar semantik struktura tarkibiga kiradi. Sinonimlar bir xil ma’no ifodalaydi, antonimlar esa qarama-qarshi ma’nolarni anglatadi. Giponimiya va giperonimiya o‘rtasidagi bog‘lanishlar so‘zlarning o‘zaro ma’no tizimida o‘rin tutadi (*masalan, “hayvon” – “it”, “mushuk”*).

Semantik iyerarxiya – bu so‘zlarning ma’nolarini tashkil etishdagi tartib va tizimni anglatadi. Iyerarxiya so‘zlarning bir-biriga bo‘ysunishi va kattaroq yoki kichikroq ma’no birliklarining o‘zaro aloqalarini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, semantik iyerarxiya so‘zlarning umumiy (giperonim) va maxsus (giponim) ma’nolarini aniqlaydi.

Giperonimiya – bu umumiy tushunchalar (*masalan, “hayvon” – “it”, “mushuk” kabi giponimlarni o‘z ichiga olgan*) orqali ifodalanadi.

Giponimiya – bu ma’no jihatdan maxsus tushunchalarni, ya’ni “hayvon”ning o‘zi bo‘lib, “it”, “mushuk” kabi turli xil aniq turlarni o‘z ichiga oladi.

Semantik qatlamlar va darajalar. Har bir so‘z ma’nosining o‘ziga xos qatlamlari bo‘lishi mumkin, bu qatlamlar bir-biridan yuqori yoki past darajalar sifatida tashkil topadi. So‘zlar orasidagi semantik iyerarxiya tizimining samarali ishlashi, tilni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

Semantik struktura va iyerarxiya lug‘atshunoslikda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular lug‘atni yaratish va uni tizimli tarzda tuzishda asosiy ko‘rsatkichlarni taqdim etadi.

Semantik struktura va iyerarxiya lug‘atshunoslikda til tizimini aniq va tizimli ravishda tashkil etishda, so‘zlarning ma’no qatlamlari va ularning o‘zaro aloqalarini ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv tilshunoslarga lug‘atlarni to‘g‘ri tuzishda yordam beradi, so‘zlarning ma’no o‘zgarishlarini tushunishga yordam beradi va tilni o‘rganishda foydalanuvchilarga aniq va tushunarli ma’lumotlar taqdim etadi. Semantik struktura va iyerarxiyaning samarali qo‘llanishi lug‘atshunoslikda tilning boy va murakkab ma’no tizimini aniqlashga imkon beradi.

Semantik darajalanish metodologiyasi, tilning leksik tizimining chuqurroq va tizimli tahlilini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tili izohli lug‘atlarida semantik darajalanishni takomillashtirish uchun bir qator metodik o‘zgarishlar zarur. Quyida bu o‘zgarishlarning ayrim asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Hozirgi kunda semantik darajalanish ko‘plab lug‘atlarda aniq belgilangan iyerarxiya yoki qatlamlar asosida tuzilgan. Ammo bu tizimlar har doim ham tilning murakkab semantik tuzilishini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli semantik darajalanishni takomillashtirish yo‘lida quyidagi yondashuvlarni kiritish zarur:

Kontekstual yondashuv. So‘zlar va iboralarning kontekstga qarab qanday ma’nolarni ifodalashini tahlil qilish. So‘zlar turli kontekstlarda turlicha ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin va bu farqlarni lug‘atlarda aniq ko‘rsatish kerak.

Kompleks semantik aloqalar. Sinonimlar, antonimlar, giponimlar va boshqa semantik aloqalar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni yaxshilash. Bu so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishlarini yanada chuqurroq va ko‘proq darajalarda tahlil qilishni taqozo etadi.

So‘zlarning ma’no qatlamlari va darajalarining to‘liq tizimli tasnifi zarur. Bugungi kunda ko‘p lug‘atlar so‘zlarning ma’nolarini faqat asosiy va kengaygan ma’nolar sifatida ajratishadi. Semantik darajalanishni takomillashtirish uchun quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirilishi lozim:

Qo‘shimcha semantik qatlamlar. So‘zlarning kontekstual, frazeologik va stilistik qatlamlarini ajratib ko‘rsatish. Masalan, so‘zning pragmatik ma’nolari, tarixiy ma’nolari yoki madaniy jihatlarini alohida qatlam sifatida ko‘rsatish.

Ma’no bo‘limlari. So‘zning ko‘p ma’noliligini yanada chuqurroq tahlil qilish. Har bir ma’no bo‘limining o‘ziga xos xususiyatlari va foydalanish kontekstlarini aniq belgilash.

Polisemiya – bu bir so‘zning bir nechta ma’noga ega bo‘lishi. O‘zbek tili lug‘atlarida polisemiya ko‘pincha noto‘g‘ri yoki yaxshi tizimlashtirilmagan.

Semantik darajalanishni takomillashtirishda polisemiya masalasini quyidagicha yechish mumkin:

Polisemiya qatlamlarini aniq belgilash. Polisemiya bo‘yicha so‘zlarning turli ma’nolarini alohida qatlamlar sifatida ko‘rsatish. Har bir ma’no qatlamining kontekstual va pragmatik aspektlarini ajratish.

Kontekstual tavsiflar. Polisemiya holda so‘zning har bir ma’nosini aniq tasvirlash va bu ma’nolarni kontekstual izohlar bilan bog‘lash. Masalan, “to‘plam” so‘zi “jamlanma” yoki “guruh” kabi turli ma’nolarni anglatishi mumkin.

Semantik darajalanish metodologiyasini takomillashtirishda yuqorida keltirilgan o‘zgarishlar O‘zbek tili izohli lug‘atlarining yanada aniqroq, tizimli va foydalanuvchilarga qulay bo‘lishini ta’minlaydi. Yangi yondashuvlar, texnologiyalardan foydalanish, so‘zlarning dinamikasi va ijtimoiy omillarni hisobga olish semantik tahlilning sifatini oshiradi va lug‘atlarni yanada samarali qilish imkonini yaratadi. Bu o‘zgarishlar lug‘atshunoslikda tilning boy va murakkab ma’no tizimini aniq ko‘rsatishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Semantik darajalanishni takomillashtirishda tilshunoslarning hissasi nihoyatda katta. Ularning ilmiy tadqiqotlari, metodologiyalari, yangi yondashuvlari va texnologiyalarga asoslangan ishlari so‘zlarning ma’nolarini aniq va tizimli tarzda aniqlashga yordam beradi. Tilshunoslar nafaqat ilmiy nazariyalarni ishlab chiqadilar, balki amaliy jihatlarni ham taqdim etadilar, bu esa lug‘atshunoslik, tarjima, til o‘rgatish va boshqa sohalarda muvaffaqiyatli ishlashni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Э.Сабирова. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши. – Тошкент, 2022. 15- бет.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд. 2006. 680-бет; 2-жилд. 2006. 672-бет; 3-жилд. 2007. 688-бет; 4-жилд. 2008. 608-бет; 5-жилд. 2008. 592-бет.

Gavhar SALOMOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adbiyoti kafedrasi dotsenti
f.f.f.d.(PhD), dotsent



QISQARTMA SO‘ZLARNING TIPOLOGIYASI VA KLASSIFIKATSIYASI

Anotatsiya: ushbu maqolada qisqartma so‘zlarning tipologiyasi va klassifikatsiyasi o‘rganiladi. Tadqiqot usullari sifatida leksik va semantik tahlil qo‘llaniladi. Natijalar qisqartmalarni turli kategoriyalarga ajratish va ularning tilshunoslikdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: qisqartma so‘zlar, tipologiya, klassifikatsiya, leksik tahlil, semantik tahlil, tilshunoslik, kommunikatsiya, tilning evolyutsiyasi, madaniy kontekst.

Аннотация: в данной статье изучается типология и классификация аббревиатур. В качестве методов исследования используются лексический и семантический анализ. Результаты показывают разделение аббревиатур на различные категории и их значение в лингвистике.

Ключевые слова: аббревиатуры, типология, классификация, лексический анализ, семантический анализ, лингвистика, коммуникация, эволюция языка, культурный контекст.

Annotation: this article studies the typology and classification of acronyms. Lexical and semantic analysis are used as research methods. The results show the division of acronyms into different categories and their significance in linguistics.

Key words: acronyms, typology, classification, lexical analysis, semantic analysis, linguistics, communication, language evolution, cultural context.

Kirish. Insoniyat tilining taraqqiyoti hamisha ijtimoiy, texnologik va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir davr til tizimida muayyan lingvistik yangiliklar, qisqartmalar, yangicha tuzilmalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda global axborot oqimining keskin ortib borayotganligi, ilm-fan, texnologiya va boshqa sohalarning uzluksiz rivojlanishi sababli tilshunoslikda qisqartma so‘zlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki bu kabi birliklar, bir tomondan, nutqni ixcham, sodda va tejamkor shaklda ifodalash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, semantik zichlik va kommunikativ samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois qisqartma so‘zlar (abbreviatsiyalar) zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, ularning turlari, yasovchiligi, semantik va funksional jihatdan tasniflanishi zamonaviy tilshunoslikda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Qisqartma so‘zlar o‘zining tarixiy ildizlariga ega bo‘lib, qadimiy yozuv madaniyatlaridayoq ilk shakllarda mavjud bo‘lgan. Rimliklarning “SPQR” (Senatus Populusque Romanus), yoki Lotin tilidagi “INRI” (Iesus Nazarenus Rex Iudaeorum) kabi qisqartmalari bu borada ilk tarixiy misollar sifatida e’tirof etilishi mumkin. Ammo XX–XXI asrlar davomida, ayniqsa texnikaviy inqilob va global kommunikatsiya vositalarining keng yoyilishi bilan qisqartma so‘zlar til tizimining asosiy dinamik komponentlariga aylana boshladi. Zamonaviy dunyoda, ayniqsa ingliz tilida, qisqartmalarning har xil ko‘rinishlari nafaqat ilmiy-texnik matnlarda, balki ommaviy axborot vositalari, reklama, brending, davlat boshqaruvi, internet tarmog‘i va hatto ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy muloqotda ham keng qo‘llanmoqda.

Adabiyotlar sharhi (Literature Review). Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘zbek tilida shakllangan qisqartmalarni to‘plash, tartibga solish, ilmiy o‘rganish, ularning lug‘atini tuzish, so‘z birikmasi va birikma nomlarni qisqartirish bo‘yicha ingliz tilshunosligida erishilgan yutuqlardan foydalanib taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda tegishli tashkilotlarga taqdim etishdir.

O‘zbek tilshunosligida qisqartma so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari, morfologik tuzilishi va tipologik farqlari bo‘yicha ilk tadqiqotlar M.Jo‘rayev, S.Sirojiddinov, A.Madvaliyev, X.Mannonov va L.To‘laganova ishlarida ko‘zga tashlanadi. M.Jo‘rayev o‘zining “Zamonaviy o‘zbek adabiy tili” nomli asarida qisqartmalarning ikki asosiy turini ko‘rsatadi: sintaktik qisqartmalar (ya’ni, iboralarni qisqartirish asosida hosil bo‘lganlar) va morfologik qisqartmalar (so‘z yasovchi birliklar asosida yaratilganlar).

S.Sirojiddinov esa qisqartmalarni o‘zbek tilidagi funksional-stilistik qatlam doirasida o‘rganib, ularni rasmiy hujjatlar, siyosiy til, texnik terminologiya va ommaviy nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha farqlaydi.

L.To‘laganova o‘z izlanishlarida qisqartmalarning semantik yaxlitlikni saqlagan holda qanday qilib morfologik soddalashtirish orqali tilda ommalashganini ko‘rsatadi. Uning fikricha, qisqartmalar ko‘pincha terminologik birliklar sifatida nutqqa kirib keladi, ammo asta-sekin umumxalq tilida ham faol leksik qatlamga aylanadi. Masalan, “YHXX”, “SSV”, “TTJ”, “O‘zRFA” kabi qisqartmalar ilgari faqat rasmiy uslubga xos bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularni oddiy og‘zaki nutqda ham uchratish mumkin. Bu esa ularning kommunikativ yuki va ijtimoiy talqini bilan bog‘liq.

Qisqartma so‘zlar masalasi tilshunoslik fanida XX asrning o‘rtalaridan boshlab mustaqil izlanish obyekti sifatida shakllana boshlagan bo‘lsa-da, ularning turli shakllari va kommunikativ roliga oid ilk kuzatuvlar va tavsiflar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turli adabiy til grammatikalarida ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan chekka izohlar shaklida ilgari surilgan. Aytish mumkinki, qisqartmalar (abbreviatsiyalar) masalasi ilk bor lingvistik jihatdan izchil o‘rganilishni boshlagan bosqich, ayniqsa, strukturaviy yondashuv hukmron bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi.

Shu nuqtayi nazardan, R.Jakobson va L.Bloomfield kabi strukturaviy tilshunoslarning ishlarida qisqartmalar tilning iqtisodiy qonuniyatlari bilan bog‘lanishi kontekstida tahlil etiladi. Bloomfield qisqartmalarni nutq iqtisodiyotining mahsuli sifatida baholab, ularni so‘z yasashning alohida vositasi sifatida emas, balki mavjud birliklarni soddalashtirish shakli deb hisoblaydi. Bu g‘oya keyinchalik morfologik yondashuvlar orqali inkor qilinmagan, balki yanada chuqurlashtirilgan.

Ingliz tilshunosligida qisqartmalar haqidagi tahlillar G.Crystal, D.Crystal, J.Lyons, R.Quirk, S.Greenbaum, va J.Downing kabi olimlar tomonidan izchil yoritilgan. Ayniqsa, G. Crystal “The Cambridge Encyclopedia of the English Language” asarida qisqartmalarni zamonaviy ingliz tilining eng muhim leksik o‘zgaruvchanlik indikatorlaridan biri deb baholaydi. U qisqartmalarni turlarga ajratishda fonetiklik darajasi, yozuv shakli, talaffuzga mosligi va kontekstdagi mustaqillik ko‘rsatkichi kabi mezonlarga asoslanadi. Crystal tahlilida ayniqsa akronimlar va klippinglar orasidagi farqlar keng bayon qilinadi, jumladan, **FBI**, **UNESCO**, **laser**, **radar** kabi birliklarning semantik va fonetik integratsiyalashuv darajasi muhim jihat sifatida ta’kidlanadi.

Metodologiya (Methodology). Qisqartma so‘zlarning tipologiyasi va klassifikatsiyasini o‘rganishda qo‘llanilgan metodologik asoslar mazkur tadqiqotning ilmiy aniqligi, mantiqiy mustahkamligi va umumlashtirish kuchini belgilovchi muhim omillardandir. Mazkur tadqiqotda lingvistik hodisa sifatida qisqartmalarni o‘rganishga sistemali yondashuv qo‘llanilib, u fonetik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik aspektlarda tahlil qilindi.

Bunda strukturaviy tilshunoslik, sotsiolingvistika, diskurs tahlili, statistik va korpus lingvistikasi asosiy metodologik tayanchlar sifatida e’tiborga olindi. Shuningdek, tipologik tahlil, tavsifiy usul, taqqoslash, kontekstual tahlil, kontent tahlil, lingvostatistik va funksional-pragmatik metodlar bir-biri bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanildi.

Tadqiqot avvalida qisqartma so‘zlarning umumiy tasnifi va strukturaviy mezonlari aniqlanishi lozim edi. Shu maqsadda tavsifiy-lingvistik usul asosida o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi qisqartma so‘zlar korpusi tuzildi.

Ushbu korpus zamonaviy matn manbalaridan, jumladan, rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari, ilmiy maqolalar, internet forumlari, ijtimoiy tarmoqlar va shaxsiy muloqot nutqidan tanlab olingan 1200 dan ortiq qisqartmani o‘z ichiga oladi. Korpus materiallari mualliflik huquqini buzmasdan, ochiq manbalardan olingan bo‘lib, ularning kelib chiqish konteksti, til uslubi, soha xususiyatlari va kommunikativ maqsadi qayd etilgan.

Fonetik va fonologik tahlil bosqichida qisqartmalar talaffuz qilinadigan (akronim) va faqat grafik shaklda mavjud bo‘lgan birliklarga ajratildi. Ushbu tahlil uchun fonetik transkripsiya usulidan, hamda segmentativ fonologik tahlildan foydalanildi. Masalan, “NASA” va “UNESCO” tipidagi akronimlar talaffuz nuqtai nazaridan mustaqil fonetik birlikka aylangan bo‘lsa, “UN”, “TV” yoki “FBI” qisqartmalari talaffuzda ham harflab aytiladi. Ushbu farqlashlar asosida qisqartmalarni fonetik jihatdan to‘rt turga ajratish mumkin bo‘ldi: to‘liq talaffuzlanuvchi akronimlar, harflab o‘qiladigan qisqartmalar, aralash (aralash talaffuzga ega) qisqartmalar va talaffuz qilinmaydigan grafemik qisqartmalar.

O‘zbek tilidagi qisqartma so‘zlar: ko‘p mezonli klassifikatsiya modeli

I. Strukturaviy-mezonli tipologiya (yasalish usuliga ko‘ra):

Tip	Ta’rif	Misollar
Akronim	So‘z birikmasining har bir so‘zining bosh harflaridan tashkil topgan va butun so‘z sifatida o‘qiladi	SSV, TTJ, NNT
Initialism	Bosh harflardan tuzilgan, harflab o‘qiladi	BMT, O‘zR, IDK
Klipping	Asl so‘zning bir qismini olib tashlab qisqartma hosil qilish	lab ← laboratoriya, info ← informatsiya
Teleskopiya	Ikki yoki undan ortiq so‘z qismlarining birlashuvi	modem, brunch
Grafemik qisqartma	Faqat yozuvda qisqargan, talaffuzi to‘liq saqlangan	r.n. ← ro‘yxatga olingan nomzod
Aralash tip	Yuqoridagi usullarning kombinatsiyasi	t.me, e-learning

II. Fonetik-mezonli tasnif (talaffuziga ko‘ra):

Tip	Tavsif	Misollar
Talaffuz qilinadigan	Akronimlar butun so‘z sifatida talaffuz qilinadi	UNESCO, NATO, radar
Harflab talaffuz qilinadigan	Har bir harf alohida o‘qiladi	TV, DXX, ATM
Yozuvda qisqargan, talaffuzda to‘liq	Yozuvda qisqa, talaffuzda to‘liq bo‘ladi	“rasmiy shaxs” o‘rniga r.sh.
O‘zgaruvchan talaffuzli	Talaffuzi mintaqa yoki foydalanuvchiga bog‘liq	GIF (jif/gif), VPN

III. Semantik-mezonli tasnif (ma’no va vazifasiga ko‘ra):

Kategoriya	Tavsif	Misollar
Terminologik qisqartma	Ilmiy, texnik va rasmiy atamalar	YAIM, JIDU, SSV
Emotsional-diskursiv	Ijtimoiy tarmoq, sleng, hissiy reaktsiya bildiradi	LOL, BRB, OMG
Neutral-leksik	Kunlik nutqda, asosiy ma’no bilan ishlatiladi	ATM, SMS, ID
Sinonimga aylangan	Asl so‘z o‘rnini butunlay egallagan	radar, laser, modem

IV. Stilistik-uslubiy tasnif (qo‘llanilish kontekstiga ko‘ra):


Uslub turi	Tavsif	Misollar
Rasmiy	Davlat hujjatlari, farmonlar, qonunlar	O‘zRPF, O‘zMJ, VMI
Ilmiy	Maqolalar, darsliklar, dissertatsiyalar	YAIM, ADT, EEG
Texnik/axborot	Kompyuter, tibbiyot, texnologiyalar	USB, CPU, HTML
Norasmiy	Og‘zaki nutq, sleng, ijtimoiy tarmoq	BRB, LMAO, LOL

V. Ijtimoiy-madaniy mezon (foydalanuvchiga bog‘liq):

Auditoriya	Foydalanish xususiyati	Misollar
Yoshlar	Ijtimoiy tarmoqlarda, chatda, internetda	OMG, IDK, TMI
Texnik mutaxassislar	Professional texnologik terminlar	CPU, API, VPN
Rasmiy doira vakillari	Davlat tashkilotlari, qonunchilik	O‘zR, PF, SNB
Oddiy foydalanuvchilar	Kundalik foydalaniladigan qisqartmalar	SMS, ATM, SSV

Tadqiqotimizda ham bu holat isbotlandi: yosh auditoriya qisqartmalarni faol qo‘llaydi, texnik va ilmiy sohaga mansub kishilar esa aniq terminologik qisqartmalarga ustuvorlik beradi. Bu xulosalar qisqartmalarning faqat til vositasi emas, balki ijtimoiy ko‘rsatkich sifatidagi rolini ham isbotlaydi.

Psixolingvistik yondashuvdan kelib chiqqan holda qisqartmalarni qabul qilish darajasi, xotirada saqlanish va faollik bilan qo‘llanilishida semantik siqilish, ya’ni bir necha so‘z o‘rniga yagona birlik bilan ma’lumot uzatish imkoniyati muhim omil bo‘lib chiqdi. Bu yondashuvda qisqartmalar kognitiv jihatdan qulay, iqtisodiy va tez eslab qolishga yordam beradigan lingvistik birliklar sifatida baholanadi. Bu holat J.Aitchison va G.Yule tomonidan ko‘p bor til va xotira o‘zaro bog‘liqligida ko‘rsatib berilgan.



1-rasm. Qisqartma turlarining tarqalish nisbatlari

Xulosa (Conclusion). O‘rganilgan qisqartma so‘zlarning tipologiyasi va klassifikatsiyasi masalalari zamonaviy tilshunoslikda muhim va dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, qisqartmalar til tizimining strukturaviy, fonetik, morfologik, semantik va sotsiolingvistik jihatlarini aks ettiruvchi murakkab lingvistik birliklardir. Ular tildagi iqtisodiylik, soddalik va kommunikativ samaradorlik tamoyillariga javob beradi. Qisqartma so‘zlar orqali matn hajmini sezilarli darajada qisqartirish, axborot siqish darajasini oshirish, emotsional va pragmatik yukni ifodalash mumkinligi aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кристал Д. Кембриджская энциклопедия английского языка. – М.: Изд-во Логос, 2001. – 497 с.
2. Матвеева Т. В. Лексикология современного русского языка: Учеб. пособие. – М.: Флинта, 2003. – 320 с.
3. Жўраев М. Замонавий ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 412 б.
4. Arutyunova N. D. Логика и лингвистика: Семантические исследования. – М.: Наука, 1990. – 340 с.
5. Moiseev A. I. Введение в морфологию современного русского языка. – М.: Просвещение, 1987. – 256 с.
6. To‘laganova L. Qisqartmalar semantikasi va ularning rasmiy uslubdagi vazifasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2019. – №2. – B. 46–52.
7. Mitkov R. The Oxford Handbook of Computational Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 783 p.

Asqar ESHMUMINOV,
Termiz davlat universiteti f.f.d., dots.,
Shahnoza TURSUNOVA,
Termiz davlat universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti, "Ingliz tili va adabiyoti"
kafedrasi tayanch doktoranti,

ASSOTSIATIV LUG'ATLARNING LINGVISTIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada assotsiativ lug'atlarning lingvistik asoslari, ularning shakllanish omillari va tilshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida so'zlar o'rtasidagi psixolingvistik bog'liqliklar, semantik maydonlar va madaniy-assotsiativ aloqalar o'rganildi. Eksperimental ma'lumotlar asosida o'zbek tilidagi assotsiatsiyalarning xususiyatlari, yosh va ijtimoiy guruhlar bo'yicha tafovutlari aniqlandi. Maqolada assotsiativ lug'atlarning kognitiv tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlaridagi amaliy ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: *assotsiativ lug'at, psixolingvistika, semantika, assotsiatsiya, leksik birlik, madaniy tafakkur, kognitiv tilshunoslik, semantik maydon, til va ong.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические основы ассоциативных словарей, факторы их формирования и значение в языкознании. В ходе исследования изучались психолингвистические связи между словами, семантические поля и культурно-ассоциативные отношения. На основе экспериментальных данных выявлены особенности ассоциаций в узбекском языке, а также различия в зависимости от возраста и социальных групп. В статье также освещается практическое значение ассоциативных словарей в когнитивном языкознании, переводоведении и процессе обучения языку.

Ключевые слова: *ассоциативный словарь, психолингвистика, семантика, ассоциация, лексическая единица, культурное мышление, когнитивное языкознание, семантическое поле, язык и сознание.*

Annotation: this article analyzes the linguistic foundations of associative dictionaries, the factors influencing their formation, and their significance in linguistics. The study explores psycholinguistic connections between words, semantic fields, and cultural-associative relationships. Based on experimental data, the characteristics of associations in the Uzbek language, as well as differences according to age and social groups, were identified. The article also highlights the practical importance of associative dictionaries in cognitive linguistics, translation studies, and language teaching processes.

Key words: *associative dictionary, psycholinguistics, semantics, association, lexical unit, cultural cognition, cognitive linguistics, semantic field, language and consciousness.*

Kirish. Til inson tafakkuri, ong va jamiyat o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Inson nutqi orqali nafaqat fikr, balki hissiyot, madaniyat, tarixiy xotira va ijtimoiy tajriba ham ifoda etiladi. Shu nuqtayi nazardan, tilshunoslikda so'zlarning semantik mazmuni, ularning ongda qanday obraz va tushunchalar bilan bog'lanishi doimiy o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, zamonaviy lingvistikada inson tafakkurining tildagi in'ikosi va so'zlar o'rtasidagi ichki bog'liqliklarni aniqlashga qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan biri – assotsiativ yondashuv va uning amaliy ko'rinishi bo'lgan assotsiativ lug'atlardir. Assotsiativ lug'atlar – bu inson ongida so'zlar eshitilganda ular bilan bog'lanadigan boshqa so'z, obraz yoki tushunchalarni qayd etuvchi lug'aviy tizimdir. Ular eksperimental tadqiqotlar asosida tuziladi va natijada so'zlarning psixologik, madaniy va semantik konnotatsiyalari aniqlanadi. Masalan, "maktab" so'ziga nisbatan odamlar "o'qituvchi", "dars", "sinfxona", "do'stlar" kabi so'zlarni eslatishlari mumkin. Bu kabi assotsiatsiyalar so'zlar o'rtasidagi tabiiy bog'liqliklar, jamiyat xotirasi va mental tafakkur shakllari haqida muhim ma'lumot beradi.

Assotsiativ lug‘atlarning tuzilishi. Assotsiativ lug‘atlar, odatda, eksperimental asosda tuziladi. So‘rovnoma yoki testlar orqali ishtirokchilarga biror so‘z taqdim etiladi va ular shu so‘z bilan bog‘laydigan boshqa so‘zlarni yozishadi. Misol uchun, “qush” so‘zi bilan bog‘liq assotsiatsiyalar sifatida “qanot”, “uchmoq”, “osmon”, “bahor” kabi so‘zlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu javoblar soni, turi va chastotasi asosida lug‘at tuziladi.

Assotsiativ lug‘atlar bir nechta lingvistik jihatlarni aniqlashga yordam beradi:

1. leksik-semantik bog‘liqliklar: So‘zlar orasidagi ma’no munosabatlari (antonimiya, sinonimiya, umumiylik, xususiylik) aniqlanadi.

2. madaniy jihatlar: Assotsiatsiyalar orqali xalqning urf-odati, qadriyatlari, tarixiy tajribalari aks etadi.

3. til modeli: Inson tafakkuri va til strukturasi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. Masalan, qanday turdagi so‘zlar ko‘proq assotsiyatsiya qilinadi — fe’llar, otlar yoki sifatlar.

4. individ va ijtimoiy tafovutlar: Turli yosh, jins, kasb yoki hudud vakillarining assotsiatsiyalaridagi farqlar lingvistik portret yaratishga yordam beradi.

Assotsiativ lug‘atlar faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ular psixolingvistika, tarjimashunoslik, til o‘qitish, reklama va til madaniyati sohalarida keng qo‘llaniladi. Masalan, til o‘rgatishda so‘zlarni assotsiatsiyalar orqali o‘rgatish ularning tez va samarali yodda saqlanishiga yordam beradi. Assotsiativ lug‘atlar zamonaviy tilshunoslikda inson tafakkuri, til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab aloqalarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ular nafaqat so‘zlar o‘rtasidagi ma’no aloqalarini, balki til egasining psixologik, madaniy va ijtimoiy portretini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun ham bu sohada olib borilayotgan izlanishlar nafaqat lingvistika, balki boshqa fanlar uchun ham qimmatli hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Assotsiativ lug‘atlar va ularning lingvistik asoslari so‘nggi yillarda psixolingvistika, semantika va leksikologiya sohalarida muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Tilshunoslikda esa bu yondashuv XIX–XX asrlarda eksperimental psixologiyaning rivojlanishi bilan alohida e’tibor qozondi. A. A. Leontyev (1977) va A. R. Luriya (1979) kabi olimlar so‘z va obrazlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ongda shakllanadigan assotsiatsiyalar orqali tushuntirganlar.

Assotsiativ lug‘atlar tilshunoslikda faqatgina lug‘aviy ma’lumotlar bazasi emas, balki inson tafakkuri, mentaliteti va madaniyatini tahlil qilish vositasi sifatida talqin etiladi. Bu borada rus tilshunosligida Moskva va Novosibirsk psixolingvistik maktablari muhim o‘rin tutadi (Ufimtseva, 2004; Karaulov, 2000). Karaulovning “Russkiy assotsiativniy slovar’” (2000) nomli fundamental asari assotsiativ lug‘at tuzishning ilmiy metodologiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, lug‘at yaratishda respondentlarning tabiiy javoblariga asoslangan uslubiy yondashuvni taklif qiladi.

Shuningdek, M. Jo‘rayev (2018) o‘zbek tili leksikasida assotsiativ aloqa turlarini tizimlashtirishga uringan. Zamonaviy lingvistika assotsiativ lug‘atlarni kognitiv tilshunoslik, tarjimashunoslik, sotsiolingvistika va til o‘rgatish metodikasida muhim vosita sifatida ko‘radi (Kiss & Armstrong, 2022). Xususan, chet tilini o‘rgatishda assotsiatsiyalarni tez va samarali yodlashga ta’siri alohida o‘rganilmoqda.Tahlil shuni ko‘rsatadiki, assotsiativ lug‘atlar faqatgina til birliklarini saqlovchi emas, balki inson tafakkurining til orqali qanday aks etishini namoyon qiluvchi ilmiy vositadir. G‘arb, rus va o‘zbek tilshunosligidagi turli yondashuvlar ushbu lug‘atlarning ilmiy qiymatini oshiradi. O‘zbek tilida bu yo‘nalishda olib borilayotgan ilk tadqiqotlar sohaning istiqbolli ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — assotsiativ lug‘atlarning lingvistik asoslarini aniqlash, ularning tilshunoslikdagi o‘rnini tahlil qilish va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot quyidagi metodologik asoslar va yondashuvlarga tayangan:

Tadqiqot deskriptiv (tasviriy) va psixolingvistik yondashuv asosida olib borildi. Deskriptiv yondashuv orqali assotsiativ lug‘atlardagi birliklar tahlil qilinib, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlari aniqlangan. Psixolingvistik yondashuv esa inson ongida so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunishga qaratildi. Eksperimentda 18 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan turli kasb egalaridan iborat respondentlar ishtirok etgan. Respondentlar erkak va ayollardan iborat bo‘lib, ularning yoshi, ijtimoiy mavqei va til tajribasi hisobga olingan. Assotsiativ lug‘atlar o‘zbek tilini o‘qitishda, tarjima jarayonlarida va reklama sohasida qo‘llanilishi mumkin. So‘zlar qanday assotsiatsiyalar uyg‘otishini bilish, til o‘rganuvchilarga

yangi leksik birliklarni eslab qolishda yordam beradi. Bu jihat Kiss va Armstrong (2022) tadqiqotlarida ham tasdiqlangan bo‘lib, ular assotsiativ yondashuvni ikkinchi til sifatida o‘rgatishda samarali vosita sifatida baholaganlar. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, assotsiatsiyalar eng ko‘p ot va fe’l so‘z turkumlariga tegishli bo‘lgan birliklar orqali ifodalangan. Bu tilshunoslikdagi psixolingvistik kuzatuvlar bilan hamohang bo‘lib, inson tafakkurida biror narsa yoki harakatga oid tushunchalar birinchi navbatda jonlanadi (Leontyev, 1977). Shu bilan birga, sifatlarga oid assotsiatsiyalar nisbatan kam uchrashi tilning funksional tahlilida ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Ushbu tadqiqot doirasida assotsiativ lug‘atlarning lingvistik asoslari keng qamrovda tahlil qilindi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Assotsiativ lug‘atlar — bu nafaqat so‘zlar o‘rtasidagi ma’no bog‘liqliklarini aks ettiruvchi lug‘aviy tizim, balki inson tafakkuri, psixologiyasi va madaniyatini ifoda etuvchi vositadir. Til birliklarining qanday assotsiatsiyalar uyg‘otishi ularning semantik chuqurligi va konnotativ ma’nolari haqida tasavvur beradi.

2. O‘zbek tilida o‘tkazilgan eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, assotsiatsiyalar asosan, madaniy, ma’naviy va shaxsiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali milliy mentalitet va til egasining dunyoqarashi yuzaga chiqadi.

3. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, turli yosh, jins va ijtimoiy guruh vakillarining assotsiativ javoblarida muayyan farqlar mavjud. Bu esa assotsiativ lug‘atlarni sotsiolingvistik tadqiqotlarda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

4. Assotsiativ lug‘atlar psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, tarjimashunoslik, til o‘rgatish va reklama sohalarida samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Ular yordamida so‘zlar qanday emotsional va semantik fon bilan qabul qilinishi aniqlanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda assotsiativ lug‘atlarning lingvistik asoslari va ularning o‘zbek tilidagi ifodalanish shakllari atroflicha o‘rganildi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, assotsiativ lug‘atlar nafaqat so‘zlar o‘rtasidagi semantik bog‘liqliklarni aks ettiradi, balki inson tafakkuri va madaniy tajribaning til orqali ifodasini ham ifodalaydi. O‘zbek tilida assotsiativ bog‘liqliklar ko‘p jihatdan milliy madaniyat va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi, bu esa lingvistik tadqiqotlarda madaniy komponentni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, yosh va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida assotsiativ javoblarning farqliligi sotsiolingvistik jihatdan katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.Assotsiativ lug‘atlar til o‘rgatishda, tarjimada, kognitiv lingvistikada va reklama sohasida amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa, mazkur sohada chuqur va tizimli tadqiqotlar olib borish zaruratini yanada oshiradi. Umuman olganda, assotsiativ lug‘atlarning lingvistik asoslarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, madaniyatshunoslik va pedagogika sohalarida ham yangi imkoniyatlar ochib beradi. Shu boisdan, kelgusida bu yo‘nalishda keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karaulov, Y. N. *Russkiy assotsiativniy slovar’*. – Moskva: Nauka. (2000).
2. Leontyev, A. A. *Psikhologiya i problema semantiki*. – Moskva: Nauka. (1977).
3. Ufimtseva, N. V. *Psixolingvistika i leksikografiya*. – Moskva. (2004).
4. Qurbonova, R. T. *O‘zbek tilida assotsiativ aloqa turlari va ularning psixosemantik tahlili*. – Toshkent: Fan. (2020).
5. Jo‘rayev, M. *O‘zbek tili leksikasida assotsiatsiyalarning lingvistik xususiyatlari*. – Samarqand. (2018).
6. Babenko, L. G. *Kognitiv tilshunoslik va assotsiatsion tahlil*. – Voronej. (2015).
7. Semenova, O. N. *Semantik tahlilda assotsiatsion yondashuvlar*. – Sankt-Peterburg. (2010).
8. Kiss, T., & Armstrong, C. (2022). *Associative Lexicons and Second Language Acquisition*. Journal of Cognitive Linguistics.



Abdumannon HASANOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
O‘zbek tili tarixi va dialektologiya bo‘limi mudiri,
filologiya fanlari doktori

POLISEMANTIK SO‘ZLARNING YANGI MA’NOLAR BILAN BOYIB BORISHI

Annotatsiya: maqolada polisemantik so‘zlarning yangi ma’nolar bilan boyib borishi va bunga ta’sir etuvchi omillar haqida mulohazalar bildirilgan. Tegishli so‘zlarning semantik taraqqiyotini tahlil qilish orqali bu haqdagi fikrlar dalillangan. Ayrim so‘zlarning yangi ma’nolar kasb etayotganligi ko‘rsatilgan va ularni izohli lug‘atda qayd etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *polisemantik so‘z, ko‘chma ma’no, semantik taraqqiyot, nomsiz tushuncha, semema, me’yoriylik, ommaboplik.*

Аннотация: в статье представлены наблюдения об обогащении многозначных слов новыми значениями и факторах, влияющих на это. Идеи по этому вопросу обосновываются путем анализа семантического развития соответствующих слов. Показано, что некоторые слова приобретают новые значения, и даны предложения по их фиксации в толковом словаре.

Ключевые слова: *многозначное слово, подвижное значение, семантическое развитие, неназванное понятие, семема, нормативность, популярность.*

Annotation: the article presents observations on the enrichment of polysemantic words with new meanings and the factors influencing this. The ideas on this issue are substantiated by analyzing the semantic development of relevant words. It is shown that some words are acquiring new meanings and suggestions are given for recording them in the explanatory dictionary.

Key words: *polysemantic word, mobile meaning, semantic development, unnamed concept, sememe, normativity, popularity.*

So‘zning semantik taraqqiyoti, tabiiyki, nutq jarayonlari bilan, xususan, nutqiy ehtiyoj va imkoniyatlar bilan bog‘liq tarzda yuzaga keladi. Biror so‘zning avval ko‘chma ma’noda tegishli tushunchani ifodalashga safarbar etilishi, uning muayyan kognitiv-lisoniy faoliyat mahsuli sifatida nutq jarayonlarida keng ommalashishiga va shu tarzda (ko‘chma ma’noda) qo‘llash nutqiy odatga aylanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Keyingi bosqichda esa shu so‘zning ancha barqarorlashib yangi tushuncha (ko‘chma ma’no)ni ham ifodalay boshlashi kuzatiladi. Bu tarzdagi semantik taraqqiyot natijasida o‘sha so‘zning bir necha tushuncha (semema)larni ifodalashi, ya’ni ko‘p ma’nolilik yuzaga keladi. Tilshunoslikda avvaldan ma’lum bo‘lgan bu qonuniyatlar turli tadqiqotchilar tomonidan qayta-qayta o‘rganilgan va bu hodisaning lingvistik ahamiyati, til leksikasining barqarorlashtirib turish imkoniyatlari e’tirof etilgan. Binobarin, so‘z nomli tilsimotni tahlil qilishda uning ma’noviy jihatlari o‘rganilar ekan, muayyan davrda til leksikasidagi so‘zlarning qo‘llanish imkoniyatlari, ma’noviy o‘zgarishlarini baholash talab qilinadi. Ayni shu jarayonda yana yuqorida tavsiflangan qonuniyat bilan ish ko‘rishga, uni yana bir bor tahlil qilib ko‘rishga va tasdiqlashga to‘g‘ri keladi.

“Bilishning ongdagi rivoji tushuncha bilan leksik ma’noning (sememaning – A.H.) nomutanosibligini uzluksiz keltirib chiqarib turadi”[1]. Zero, insonning ongli faoliyati natijasida yangidan yangi tushunchalar anglab yetiladi va ularni ham nomlashga ehtiyoj yuzaga

[1] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2010. 37-38-б.

keladi. So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash tilda har bir tushunchani alohida nomlashdek qiyin va mushkul vazifani yengillashtirib turadi[2]. Aks holda inson tafakkuri anglaydigan har bir tushuncha alohida nomga ega bo‘lishga intilishi oqibatida tilda ko‘plab yangi so‘zlar yaratilishiga ehtiyoj tug‘iladi. Bu, bir tomondan, tilni egallovchilar uchun katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, til leksikasining tizimsizlashuviga, beqarorligiga olib keladi. T.A.Degtereva ta’kidlaganidek, “agar kishilik tafakkurida yuzaga keladigan har qanday tushunchani alohida-alohida tovush kompleksi bilan ifodalashga muhtojlik sezilganda tilning lug‘at tarkibi shu qadar ko‘p so‘zlardan iborat bo‘lib qolar ediki, natijada til egalarining tilni egallab olishlari nihoyatda qiyinlashib qolardi, til lug‘at tarkibi shu qadar boyib ketardiki, jamiyat hayotida yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan muomalaviy qiyinchilik tug‘ilardi”[3].

Barchaga ma’lumki, “obyektiv voqelik tilda so‘zning leksik ma’nosi bilan, so‘z birikmasi, gap va matn orqali ham ifodalanishi mumkin”[4]. Lekin konkret tushunchani ifodalashda yaxlit lug‘aviy birlikning qo‘llanilishi nisbatan samarali va ma’qul hisoblanadi. Shu bois so‘zlovchi, odatda, tegishli tushunchani unga o‘xshash yoki aloqador so‘z orqali ifodalashga moyil bo‘ladi. Bu esa so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llashga keng yo‘l ochadi.

Ko‘chma ma’noli so‘zning tilda barqarorlashishi va ommalashishi ham yangi (hali ommalashmagan) lug‘aviy birlikning “hayot yo‘li”ga o‘xshash. Bu so‘z dastlab nutqiy birlik sifatida tegishli kommunikativ vaziyatdagina muayyan tushunchani nomlaydi. Uning qo‘llanish va ma’noviy xususiyatlari boshqa til egalari (masalan, tinglovchilar)ga ma’qul kelsa (yoqsa), ular nutqida ham bu so‘z qo‘llana boshlashi mumkin. Til egalarining odilona lisoniy idroki va tanlovi natijasida bunday so‘zlar tegishli ko‘chma ma’noni ifodalashga xoslangan birlik sifatida o‘z arealini kengaytira boradi, nutqiy odat (me’yor)ga aylanadi.

Tilda mavjud lug‘aviy birliklarning yangi semantik ma’nolar bilan boyib borishi polisemantik so‘zlar uchun ham xos. Bu jarayonni yanada ravshan tasavvur qilish uchun o‘n yoki undan ko‘p sememaga ega bo‘lgan polisemantik so‘zlarning izohli lug‘atning turli nashrlaridagi sememalar soni o‘zgarishlariga diqqat qaratamiz (1-jadvalga qarang):

Jadvaldagi ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, so‘z semalarining miqdori vaqt o‘qiga nisbatan, asosan, o‘suvchi (progressiv) xususiyatga ega. Chunonchi, *bir, birinchi, bormoq, botmoq, boqmoq, buzmoq, bo‘lmoq I, daraja, demoq, dori, dunyo, harakat, hisob, joy I, ish, jon, kesmoq, kirmoq, kuymoq, kuch, kuchli, ko‘rmoq, ko‘tarmoq, nozik I, olmoq, oq I, otmoq, og‘ir, og‘irlashmoq, og‘moq, ochiq, ochmoq, oshmoq, past, pishiq, pishmoq, qaynamoq, qaytmoq, qanot, qaramoq, qochmoq, quruq, qo‘l, qo‘ymoq, qo‘shmoq I, ruh, saqlamoq, sistema, solmoq, suv, so‘ramoq, tomir, tortmoq, urmoq, uchmoq, yurmoq, yuqori, yomon, yonmoq, zanjir, zo‘r, o‘ynamoq, o‘rin, o‘tirmoq, chiqmoq, cho‘kmoq* kabi so‘zlarning O‘TILning 1981-yil nashridagi va 2006-2008-yillarda tuzilgan nashridagi miqdorlarini solishtirish shunday xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Shuningdek, mazkur ikkinchi nashrdagi *bosmoq, kelmoq, tag, turmoq, tutmoq, tushmoq, qora, tashlamoq, tegmoq, termoq, qattiq, qoqmoq, o‘rta* kabi so‘zlarning sememasida kamayuvchi (regressiv)lik xususiyati ham kuzatiladiki, bu holat muayyan davr oralig‘ida tegishli so‘zlar semantik qurshovining torayishi kabi holatlar ham sodir bo‘lishi tabiiyligini dalillaydi. Umuman olganda, 1981 – 2006-2008-yillar oralig‘ida, chorak asr davomida yuz bergan bunday semantik o‘zgarishlar til tarixiy taraqqiyotining tabiiy va tadrijiy o‘zgarishlarini xolis baholashga imkon beradi.

Xuddi yuqoridagi kabi so‘nggi 15 yil mobaynida so‘z semantikasida ro‘y bergan o‘zgarishlar ham o‘suvchi (progressiv)lik xususiyatiga ega ekanligini jadvaldagi keyingi ustunlarni taqqoslash orqali ilg‘ash mumkin. Xususan, 2006-2008 va 2022-yillarda nashr qilingan izohli lug‘atda o‘z tavsifini topgan *bosmoq, bosh, olmoq, qora* kabi so‘zlarda semantik mundarijaning boyishi kuzatiladi. Aksincha, kamayuvchilik (regressiv) holatlari ham mazkur davr leksikasida yuz berganligini alohida qayd etib o‘tish joiz (jadvaldagi *dunyo, oshmoq, og‘ir* so‘zlari sememalarining tegishli miqdorlariga qarang).

O‘TILning har uchala nashrida o‘z semantik xususiyatlari barqarorligini saqlagan so‘zlar ham bor. Jadvaldagi *bermoq, bilmoq, bog‘lamoq, ketmoq, qalqimoq, qolmoq, qotmoq, yer, yetmoq, yo‘l* kabi so‘zlarning o‘z semantik miqdorlari turg‘unligini saqlaganligi shunday fikr yuritishga imkon beradi.

Shuningdek, so‘nggi davrda so‘z semantik taraqqiyoti natijasida so‘z sememalari orasidagi bog‘lanishlarning

[2] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2017. 124-б.

[3] Дегтерева А. Формы проявления семасиологических законов // “Законы семантического развития в языке”. – М., 1961. С. 3-4.

[4] Ҳакимова М. Семасиология. – Т., 2008. 25-26-б.

1-jadval. Polisemantik so‘zlarning semantik taraqqiyoti

t/r	KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR	O‘TIL I (1981)	O‘TIL II (2006-2008)	O‘TIL III (2022)
1	bermoq	10	10	10
2	bilmoq	10	10	10
3	bir	8	10	10
4	birinchi	7	10	10
5	bormoq	12	17	17
6	bosmoq	16	14	26
7	botmoq	6	10	10
8	bosh	15	15	20
9	boqmoq	7	10	10
10	bog‘lamoq	12	12	12
11	buzmoq	10	13	13
12	bo‘lmoq	15	24	24
13	daraja	9	12	12
14	demoq	6	11	11
15	dori	6	10	10
16	dunyo	9	11	8
17	yer	11	11	11
18	yetmoq	11	11	11
19	yomon	6	13	13
20	yonmoq	7	10	10
21	joy I	11	13	13
22	jon	13	14	14
23	zanjir	7	10	10
24	zo‘r	4	11	11
25	ish	13	15	15
26	yo‘l	16	16	16
27	kelmoq	14	13	13
28	kesmoq	7	11	11
29	ketmoq	17	17	17
30	kirmoq	8	11	11
31	kuymoq	10	12	12
32	kuch	9	13	13
33	kuchli	9	10	10
34	ko‘rmoq	14	16	16
35	ko‘tarmoq	16	18	18
36	nozik I	8	13	13
37	olmoq	16	21	22
38	otmoq	11	13	13
39	ochiq	8	12	12
40	ochmoq	12	17	17
41	oshmoq	9	11	10
42	oq I	9	11	11
43	og‘ir	11	17	16
44	og‘irlashmoq	8	10	10
45	og‘moq	6	10	10
46	past	10	13	13
47	pishiq	7	10	10
48	pishmoq I	7	10	10
49	ruh I	7	11	11
50	saqlamoq	5	11	11
51	sistema	6	10	10
52	solmoq	18	29	29
53	suv	7	10	10
54	so‘ramoq	7	11	11
55	tag	12	10	10
56	tomir	9	10	11
57	tortmoq	19	21	21
58	turmoq	15	13	13
59	tutmoq	21	18	18
60	tushmoq	26	24	24
61	urmoq	15	19	19
62	uchmoq	9	13	13
63	chiqmoq	22	47	47
64	cho‘kmoq	8	12	12
65	yurmoq	12	15	15
66	yuqori	8	10	10
67	o‘ynamoq	10	12	12
68	o‘rin	11	14	14
69	o‘rta	13	10	10
70	o‘tirmoq	10	12	12
71	o‘tmoq[5]	31 (I-II)	I-25; II-2	I-25; II-2
72	qaynamoq	8	11	11
73	qaytmoq	8	13	13
74	qalqimoq	10	10	10
75	qanot	9	10	10
76	qaramoq	16	18	18
77	qolmoq	16	16	16
78	qora	17	12	13
79	qotmoq	10	10	10
80	qochmoq	8	11	11
81	quruq	6	13	13
82	qo‘ymoq	30	34	34
83	qo‘l	9	10	10
84	qo‘shmoq I	10	13	13
85	harakat	5	11	13
86	hisob	11	18	18
87	tashlamoq	15	9	9
88	tegmoq	10	9	9
89	termoq	11	9	9
90	yangi[6]	10 (I-II)	I-5; II-1	I-5; II-1
91	qattiq	13	7	7
92	qoqmoq	10	9	9

[5] Bu so‘z O‘TILning keyingi nashrlarida ikkita omonim birlik sifatida tavsiflangan (tahlillarga qarang).

[6] Bu so‘z ham O‘TILning keyingi nashrlarida ikkita omonim birlik sifatida tavsiflangan (tahlillarga qarang).

biroz xiralashuvi tufayli omonimiyaning vujudga kelish holatlari ham yuz berayotganligi keltirilgan jadvaldagi *o‘tmoq, yangi* so‘zlari tahlilida o‘z aksini topgan. Mazkur lug‘aviy birliklar 1981-yilda nashr qilingan izohli lug‘atda bitta so‘z sifatida tavsiflangan bo‘lsa, keyingi nashrlarda ularning muayyan sememalari guruhlanishi va alohidalanishi hisobiga omonim leksemalar sifatida izohlangan (chunonchi, *yangi I* – sifat turkumiga oid birlik sifatida 5 ta; *yangi II* – ravish turkumiga oid birlik sifatida 1 ta sememaga ega bo‘lgan leksema sifatida tavsiflangan).

Jadvaldagi ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, aksariyat so‘zlarning semantik taraqqiyoti yangi tushunchalarni nomlash ehtiyojidan tadrijiy tarzda o‘suvchilik (progressiv) xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning barobarida, mazkur jarayon kishilik jamiyatida paydo bo‘ladigan yangi tushunchalarni nomlash ehtiyojidan tilda paydo bo‘ladigan leksemalar miqdorining keskin oshib ketishini sekinlashtirib turadigan ihota vazifasini ham bajaradi.

Muayyan nomsiz tushuncha nutqda ifodalanishi uchun tegishli so‘z bilan kodlanishi lozim. Mazkur taqozo talabi bilan muayyan tushuncha o‘ziga o‘xshash (yoki bog‘liq) biror tushuncha nomi bilan (ko‘chma ma’no orqali) ifodalanishi ko‘p uchraydigan hodisa. “Bu usulda mavjud so‘z nutqda ma’lum sharoitlarda – konkret birikmalarda shaklan o‘zgarishsiz, mazmunangina o‘zgarib, yangi ma’noda qo‘llanadi. Shunday qilib yangi so‘z vujudga keladi”[7]. Semantik so‘z yasalishining qulayligi muayyan so‘zning ma’noviy xususiyatlarini yaxshi bilish orqali shu so‘z ifodalaydigan tushunchaga o‘xshash boshqa tushunchalarni osonlikcha nomlash imkoniyatiga egaligi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda ayrim so‘zlarning o‘z (bosh) ma’nosi bilan birga ko‘chma ma’nosi ham til egalariga kundek ravshan. Tegishli ko‘chma ma’noli so‘zning ayni qo‘llanish usuli bilan keng ommalashganligini buning asosiy sabablaridan biri deyish mumkin. Xususan, *hamtovoq* so‘zi salbiy bo‘yoq bilan “Ish-faoliyatda birga bo‘luvchi, bir-birini qo‘llovchi; sherik” ma’nosida qo‘llanar ekan, bu so‘zning shu ma’noda qo‘llanishi aksariyat til egalariga oson tushuniladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish kerakki, nutq jarayonlarida *hamtovoq* so‘zining “Bir tovoqda (yoki bir dasturxonda) taom yeyuvchi” tarzidagi o‘z ma’nosida qo‘llanishidan ko‘ra ko‘chma ma’noda qo‘llanishi ko‘proq uchraydi. Bu esa, tabiiyki, uning qanday ko‘chma ma’no ifodalashini til egalariga ta’kidlab, ko‘rsatib turadi. Shu bois bo‘lsa kerak, ayrim kishilardan bunday so‘zlarning ma’nosi so‘ralganda ular bu so‘zning ko‘chma ma’nosini tavsiflab, bosh ma’nosini e’tibordan chetda qoldiradi. Mazkur xususiyatlar tegishli so‘zlar ko‘chma ma’nolarining me’yoriylikka juda yaqin ekanligini tavsiflaydi.

So‘zlarning ma’noviy xususiyatlarini izohlashda uning yuqoridagi kabi me’yoriylikka intilayotgan ma’nolariga ham e’tibor qaratish foydadan holi emas. O‘TILda so‘zlarning faqat o‘z ma’nosi (ma’nolari) emas, ommalash(ayot)gan ko‘chma ma’nosi (ma’nolari) ham qayd etilganki, bu holat juda ma’qul va xolis ekanligini ta’kidlash joiz. Chunki tegishli so‘zlarning ma’noviy taraqqiyotini o‘z vaqtida ilg‘ash va e’tirof etish juda o‘rinli (bizning hisob-kitobimizga ko‘ra, O‘TILda 3362 o‘rinda tegishli so‘zning ko‘chma ma’nolari izohlangan va bu ma’nolar *ko‘chma*. pometasi orqali ajratib ko‘rsatilgan). Aslida ham muayyan so‘zning ko‘chma ma’nosi til egalarining aksariyatiga tanish bo‘lsa, buni qayd (e’tirof) etmaslik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Zero, ular ham muayyan atovchisiz tushunchalarni nomlash ehtiyojidan yangi ma’no(lar)ni ifodalashga safarbar etilgan. Ularning biroz yangi (“yosh”)ligi, alohida sememani ifodalashga xoslanib ulgurmaganligi sezilsa-da, nutq jarayonlarida faol qo‘llanishi (ommalashganligi), til egalarining aksariyatiga tushunarli ekanligi ustuvorroq bo‘ladi.

Til leksikasidagi so‘zlarning semantik taraqqiyoti tegishli birliklarning terminlashishi hisobiga ham o‘sib boradi. Xususan, bugungi kunda IT sohasi bilan bog‘liq *darcha, oyna, xotira, quvvatlamoq* kabi atamalar ana shunday xulosa chiqarishga imkon beradi.

Chunonchi, *darcha* so‘zi “eshik yoki devorga o‘rnatilgan kichkina deraza” ma’nosiga ega. Bu so‘z hozirda IT sohasida ham muayyan tushunchani ifodalashga xizmat qilmoqda. Ya’ni, muayyan dastur ishlayotganda tegishli vazifani bajarish jarayonida kerakli rostlash (sozlash) amallarini bajarishda dastur oynasi ustida ko‘rinadigan kichik oynacha ayni shu so‘z bilan istifoda etiladi. Mazkur so‘zning ma’nosi tegishli tushunchani nomlashga nechog‘lik mos ekanini yuqorida berilgan izohdan ham anglash mumkin. IT sohasi xodimlari va boshqa foydalanuvchilar tomonidan qo‘llanayotgan bu so‘z ham tegishli tushunchaning nomi sifatida adabiy til leksikasida barqarorlashish imkoniyatiga ega.

Xuddi shu birlikka o‘xshash *oyna* so‘zi ham o‘z semantik mundarijasini boyitib, IT sohasidagi “biror kompyuter dasturining ishchi stoli (ko‘rinishi)” ma’nosini ifodalashga xoslashgan. Bu birlik ham IT sohasida faol qo‘llanadigan atama sifatida tegishli leksemaning yangi

[7] Ҳозирги ўзбек адабий тили. I том (Фонетика. Лексикология. Морфология). – Т.: Фан, 1966. 192-б.

sememasi sifatida me'yoriylikka intilmoqda. Bizningcha, u tegishli tushunchaning munosib ifodachisi sifatida O'TILga kiritilishi va tavsiflanishi lozim. Asli forscha bu so'z aynan o'zbek tilida yangi ma'no bilan yukungan va shu bois til ichki imkoniyatining reallashishi sifatida tegishli tushunchani ifodalashga xoslangan.

IT sohasida faol qo'llanadigan birliklardan yana biri *xotira* so'zidir. "Biror kimsa yoki narsa haqidagi yodda, esda saqlanadigan taassurot" sememasi asosida shakllangan "kompyuter yoki boshqa elektron vositalarning axborotni saqlash imkoniyati" ma'nosi bugungi kunda ayni so'z orqali istifoda etilmoqda. Bizningcha, bu so'z tegishli tushunchani ifodalashda yetarli imkoniyatga ega va shu bois ham so'zlashuvda, shuningdek, IT sohasida ancha turg'unlik kasb etgan. Bu esa uni alohida semema sifatida O'TILga kiritilishiga imtiyoz beradi.

Elektronika vositalarining ishlashi uchun ularning muayyan quvvat bilan ta'minlanishi tabiiy zarurat. Shu bois ko'pgina qurilmalarni elektr toki bilan quvvatlash va shu asosdagina ularning beminnat xizmatidan foydalanish mumkin. Mazkur amalni ifodalash uchun qo'llanayotgan *quvvatlamoq* so'zi ham tegishli jarayonni, ya'ni "elektron qurilma batareyasini elektr toki (zaryadi) bilan to'ldirmoq (zaryadlamoq)"ni ifodalashga ixtisoslashmoqda. Bunda *quvvat* **2** "energiya" so'zi bilan aloqadorlik mazkur so'z va u ifodalaydigan tushunchaning o'zaro muvofiqligiga zamin hozirlagan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqoridagi *darcha*, *oyna* kabi so'zlarning boshqa tildan kalkalab olinganligi, ularning "tarjima qilingan" birlik ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi. Yetuk olim A.Hojiyev muayyan kuzatishlarga asoslanib, "… semantik kalkalash yo'li bilan yangi ma'no hosil bo'lishi (yangi ma'no hosil qilinishi) yangi ma'no hosil qilishning eng asosiy yo'li hisoblanadi"[8] degan fikrni bildirgan edi. Bu fikrga qo'shilgan holda yana shuni aytish mumkinki, ko'pgina tillarda muayyan yangi tushunchani nomlash jarayonida amal qiladigan nominatsiya va motivatsiya mexanizmlari ham deyarli universallik xususiyatiga ega, buni mazkur tillarda ayni bir tushunchani nomlashda mazmunan bir xil (ekvivalent bo'lgan) birliklardan foydalanilishi asosida dalillash mumkin (masalan, o'zbek tilida *belbog'* deb ataluvchi tushuncha ingliz tilida *waistband* (*waist* – bel, *band* – bog', tasma) tarzida nomlangan va ular bir-birining kalkasi emas).

Tahlillardan xulosa qilsak, so'zning yangi ma'no(lar) kasb etishi uni boshqa (odatda, nomsiz) tushunchani atashga safarbar etilishi natijasidir. Mazkur holat tegishli so'zni nutq jarayonlarida ko'chma ma'noda qo'llash hisobiga reallashadi. Bu tarzda qo'llanishlar keng ommalashsa, tegishli ma'noning o'sha so'zga semema sifatida "yopishishi" oson kechadi. Polisemantik so'zlarning yangi tushunchalarni nomlashga ancha qulayligi, til egalariga yaxshi tanishligi ularning o'z semantik mundarijasini boyitishida katta ahamiyatga ega. Biroq bu jihatlar ularning yangi sememalar bilan tez va oson boyishiga imtiyoz bermaydi. Til egalarining oqilona lisoniy tanlovi hamda tildagi ehtiyojlar mazkur jarayonni mo'tadillashtirib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
2. Дегтерева А. Формы проявления семасиологических законов // "Законы семантического развития в языке" – М., 1961. С. 3-4.
3. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: "Mumtoz so'z", 2017. 124-б.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т.: "Mumtoz so'z", 2010. 37-38-б.
5. Ҳакимова М. Семасиология. – Т., 2008. 25-26-б.
6. Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III томлик. 3-том (сўз ясалиши ва лексика). – Т.: Фан, 1991. 172-б.
7. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I том (Фонетика. Лексикология. Морфология). – Т.: Фан, 1966. 192-б.

[8] Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III томлик. 3-том (сўз ясалиши ва лексика). – Т.: Фан, 1991. 172-б.

Adibaxon TO‘RAXO‘JAYEVA,
Qo‘qon DPI dotsenti,
filol.fan.nomzodi

O‘ZBEK ORFOGRAFIYASINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ilk bor o‘zbek orfografiyasining rivojlanish bosqichlari o‘zbek yozuvi tarixiga bog‘lab tadrijiy ravishda o‘rganilgan. Unda har bir davr imlosining muhim xususiyatlari ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: *orfografiya, imlo, jarayon, arab yozuvi, kirill yozuvi, lotin yozuvi, imlo qoidalari.*
Аннотация: в этой статье впервые поэтапно изучаются этапы развития узбекской орфографии по отношению к истории узбекской письменности. Это раскрывает важные особенности написания каждого периода.
Ключевые слова: *орфография, орфография, процесс, арабский шрифт, кириллический шрифт, латинский шрифт, правила правописания.*
Annotation: in this article, the stages of development of Uzbek orthography are gradually studied in relation to the history of Uzbek writing for the first time. It reveals the important features of the spelling of each period.
Key words: *orthography, writing, process, Arabic script, Cyrillic script, Latin script, spelling rules.*

Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko‘tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrlarga qoldirishga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq. Demak, yozuv jamiyatning buyuk madaniy kashfiyotlaridan biri bo‘lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta o‘rni va ahamiyati bor.

Yozma nutqning jamiyat taraqqiyotidagi bemisl o‘rni va ahamiyatini kompyuter texnikasi, internet va uyali aloqa kabi global tarmoqlar rivojlangan bizning hozirgi asrimizda ham yaqqol ko‘rish mumkin. Hatto bu vositalarning ish faoliyatida ham yozma nutq asosida ish ko‘rish muhim o‘rin egallaydi. Yozma nutq aloqalarining oson va to‘g‘ri anglashuvini esa imlo qoidalari va me’yorlari belgilaydi. Demak, hozirgi vaqtda hech bir kishilik jamiyatini yozuvsiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, yozuv ham imlo qoidalarisiz mavjud bo‘la olmaydi.

O‘zbek yozuvining XX asr tarixi murakkab jarayonlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu davrda o‘zbek yozuvi bir necha marta tubdan isloh qilindi, bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga ko‘chirildi. Jahon xalqlarining tarixida bunday hodisa kamdan-kam uchraydi. Mavjud manbalar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek yozuvining XX asr tarixi to‘rt davrni o‘z ichiga oladi:

1-davr: arab grafikasiga asoslangan yillar (1900 – 1929);

2-davr: lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929– 1940);

3-davr: rus grafikasiga asoslangan yillar (1940 –1995);

4-davr: ikki yozuvlikka asoslangan yillar (1995-yildan hozirgacha) [1].

Yozuvning almashuvi imlo qoidalarining o‘zgarishiga olib kelishi bilan bog‘liq holda bu davrda o‘zbek imlo qoidalari ham ko‘p marotaba isloh qilindi. Garchi o‘zbek orfografiyasi ham murakkab jarayonlarni boshdan kechirgan bo‘lsa-da, uning tarixi o‘zbek tilshunosligida kam o‘rganilgan Shuning uchun bo‘lsa kerak, ona tili “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” tizimidagi mavjud dastur va darsliklarning barchasida orfografiya alohida bo‘lim sifatida berilgan bo‘lishiga qaramay, uning tarixiga oid ma’lumotlar yoritilmagan. Jumladan, tilshunos olim R. Jomonov “O‘zbek tilining imlo qoidalari, ularning shakllanishidagi bosqichlar, ilmiy-nazariy, tashkiliy hamda mafkuraviy omillar hozirga qadar kam o‘rganilgan. Ayniqsa, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida imlo qoidalarining o‘rni, til tarixi, grammatika va terminologiya bilan uzviy aloqadorligi kabi masalalarga yetarlicha e’tibor berilmagan” [2] deya e’tirof etadi. Xolbuki, o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha yaratilayotgan adabiyotlarning orfografiya bo‘limiga ham, allaqachon, uning tarixi haqidagi ma’lumotlarni kiritish kerak. O‘zbek imlosi tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilk yirik tadqiqot tilshunos olim Faxri Kamolning “O‘zbek orfografiyasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi [3]. Shuningdek, bu muammo tilshunos olimlarimiz A.Nurmonov, S.Ibrohimov, H.Jamolxonov, R.Jomonov, Y.Abdullayevlarning [4] turli ilmiy ishlarida u yoki bu darajada yoritilgan. O‘zbek imlosi tarixini o‘zbek yozuvi tarixi bilan bog‘liq ravishda quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1-davr: arab grafikasiga asoslangan yillardagi imlo islohotlari (1900 –1929);

2-davr: lotin grafikasiga asoslangan yillardagi imlo masalalari (1929 –1940);

3-davr: rus grafikasiga asoslangan yozuvning imlo masalalari (1940 –1995);

4-davr: ikki yozuvlikka asoslangan yillardagi islohotlar (1995-yildan hozirgacha).

1-davrning 1916-yilgacha bo‘lgan bosqichida asosiy e’tibor savod chiqarish, o‘qish-o‘qitish ishlarini tashkil etishga qaratilgan. 1918-yilga kelib til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug‘ullanuvchi “Chig‘atoy gurungi” nomli ilmiy jamiyatning tashkil topishi natijasida alifbo va imlo masalalariga jiddiy e’tibor qaratildi. Buxoroda 1923-yil 9-10-oktabr kunlari O‘rta Osiyo o‘zbeklarining alifbo va imlo masalalariga bag‘ishlangan birinchi konferensiyasi bo‘lib o‘tadi. Konferensiyada yangi alifbo bilan birga imlo qoidalari ham qabul qilinadi [5], bu alifbo va imlo qoidalari Turkiston Maorifi Komissarligi tomonidan 1923-yilning 18-oktyabrida tasdiqlanib, 1929-yilgacha amalda qo‘llanilgan. Demak, o‘zbek orfografiyasi tarixida arab alifbosini isloh qilish bilan bog‘liq holda ***birinchi imlo qoidalari*** qabul qilingan.

1929-yilning 10-avgustida O‘zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi kollegiyasining yig‘ilishi bo‘lib, unda may oyida bo‘lib o‘tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi. Shu bilan o‘zbek orfografiyasi tarixida ***ikkinchi imlo qoidalari*** qabul qilinadi. “Qoidalar” 29 moddadan iborat bo‘lib, ularda singarmonizmli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko‘proq o‘rin beriladi [6]. Yozuvning ayni shu jihati jamoatchilikda e’tiroz tug‘diradi, bu e’tiroz 1933-yilda o‘zbek orfografiyasi qoidalarining yangi loyihasi yaratilishiga olib keladi.

1940-yilning 4-iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi yig‘ilishida “O‘zbek adabiy tilining orfografiyasi” (loyiha) ham ba’zi o‘zgarish va tuzatishlar bilan tasdiqlandi. Shunday qilib, o‘zbek yozuvi tarixining yangi bosqichi–rus grafikasiga asoslangan davri boshlanadi. Ayni vaqtda o‘zbek imlosi tarixida ***uchinchi imlo qoidalari*** qabul qilindi. 1953 –1955-yillarda matbuotda bildirilgan tanqidiy fikrlar va takliflar asosida “O‘zbek orfografiyasi asosiy qoidalari” ning bir necha yangi loyihalari yaratiladi, ulardan so‘nggisi O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumiga topshiriladi.

1956-yilning 4-aprelida “O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari” (qayta ishlangan va takomillashtirilgan varianti) O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi [7]. Mazkur imlo qoidalari 5 ta bo‘lim, 72 ta qoidadan iborat.

1989-yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, Milliy mustaqillikning qo‘lga kiritilishi o‘laroq, o‘zbek yozuvi muammolari bilan bog‘liq yangi davr boshlandi. 1995-yilning 24-avgustida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvining imlo qoidalari ham tasdiqlandi [8]. Bu o‘zbek orfografiyasi tarixida yaratilgan ***to‘rtinchi imlo qoidalari*** hisoblanadi.

Ma’lumki, bizda hozirda ikki yozuvlik jarayoni davom etmoqda. Albatta, bu hol jamiyatning imlo madaniyati hamda jamiyat a’zolarining umumiy imlo saviyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ayniqsa, matbuot nashrlarida, chop etilayotgan adabiyotlarda imlo qoidalari va imlo me’yorlari buzilayotgan holatlarni ko‘plab uchratish mumkin. Buning eng oddiy ko‘rinishi sifatida kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuviga 1995-yil imlo qoidalarining, lotin yozuviga asoslangan alifboga esa 1956-yil qoidalarining tatbiq etilayotganini aytib o‘tish mumkin. Masalan, -u,-yu kabi yuklamalarning har doim chiziqcha bilan yozilishi lotin grafikasi asosidagi o‘zbek yozuviga taalluqli hodisa bo‘lsa-da, rus grafikasi asosida yozilgan matnlarda ham bu qoidaga amal qilinmoqda. Holbuki, 1956-yilgi qoidaga ko‘ra –u,-yu kabi yuklamalar bog‘lovchi vazifasida kelganda so‘zga qo‘shib yoziladi. Bunday nozik jihatlarni to‘g‘ri qo‘llash uchun imlo qoidalarini mukammal bilish yoki ikki yozuvlik jarayoniga tezroq barham berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Talqin, 2005. 116-bet.
2. Jomonov R. “Chig‘atoy gurungi” va imlo masalalari. //O‘zbek tili va adabiyoti. 2000, №1, 23-27-betlar.
3. Фахри Камол. Ўзбек орфографияси. Фил.ф.ном.дис. –T., 1946.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –T., 2000. 328-339-betlar. Ибрагимов С. Узбекский алфавит и вопросы его совершенствования. –М.: Наука, 1973. Jomonov R. “Chig‘atoy gurungi” va imlo masalalari. //O‘zbek tili va adabiyoti. 2000, №1, 23-27-betlar.
5. Jamolxonov X. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi. 1-9-maqolalar. Pedagogika ta’lim; 2000. Abdullayev Y. Hamrohim. –T.: O‘qituvchi, 1996.
6. Abdullayev Y. Sovg‘a. –T.: O‘qituvchi, 1996. Abdullayev Y. Moziy va yangi alifbo. – O‘zbekiston ovozi, 1995.24.
7. Ibragimov S. Ko‘rsatilgan asar. 172-173-betlar.
8. Jamolxonov H. Ko‘rsatilgan asar. 123-bet.
9. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. –T.: Fan 1956. 3-bet.
10. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. –T.: O‘qituvchi, 1995. 1-bet.

Shirin SADIKOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, f.f.n.,
Nozima VALIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

TILSHUNOSLIKDA DISKURS TUSHUNCHASI VA BADIIY DISKURSNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada diskurs tushunchasi va uning kelib chiqishi, o‘zbek va jahon tilshunosligida diskurs tushunchasi xususidagi fikrlar va ularning mazmuni keltirib o‘tilgan. Xususan, badiiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlari, u orqali beriladigan estetik, madaniy va ideologik qatlamlarning til orqali qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Maqolada diskurs va matn tushunchalarining farqlari ham yoritilib, badiiy asarlarning lingvistik talqini misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *diskurs, matn, nutq, diskurs tiplari, struktual, poststruktual, tilshunoslik, matn, kontekst, lingvistik tahlil, ideologiya, estetik qatlam.*

Аннотация: в статье изложены понятие дискурса и его истоки, представления о понятии дискурса в узбекской и мировой лингвистике, их содержание. В частности, анализируются специфические особенности художественного дискурса и то, как передаваемые в нем эстетические, культурные и идеологические пласты выражаются посредством языка. В статье также подчеркиваются различия между понятиями дискурса и текста, а также на примерах анализируется языковая интерпретация произведений искусства.

Ключевые слова: *дискурс, текст, речь, типы дискурса, структурный, постструктурный, лингвистика, текст, контекст, лингвистический анализ, идеология, эстетический слой.*

Annotation: this article presents the concept of discourse and its origin, ideas about the concept of discourse in Uzbek and world linguistics and their content. In particular, the specific features of artistic discourse are analyzed, how the aesthetic, cultural and ideological layers conveyed by it are expressed through language. The article also highlights the differences between the concepts of discourse and text, and analyzes the linguistic interpretation of works of art through examples.

Key words: *discourse, text, speech, types of discourse, structural, poststructural, linguistics, text, context, linguistic analysis, ideology, aesthetic layer.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda “diskurs” tushunchasi asosiy ilmiy kategoriyalardan biri sifatida ko‘riladi. Bu tushuncha faqatgina matn doirasida qolmay, balki uni yaratgan va qabul qilgan shaxslar, ijtimoiy kontekst, kommunikativ vaziyat, madaniy omillarni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, badiiy diskurs esa adabiy asarlarning o‘ziga xos til vositalari, obrazlar, muallif pozitsiyasi va estetik tasvirlar orqali ifodalanadi. Ushbu maqola aynan shunday kompleks hodisani – badiiy diskursni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Diskurs – fanlararo tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Nazariy tilshunoslikdan tashqari, kompyuter tilshunosligi va sun’iy intellekt, psixologiya, falsafa va mantiq, sotsiologiya, antropologiya va etnologiya, adabiyot, semiotika, tarixnavislik, ilohiyot, huquq, pedagogika, tarjima nazariyasi va amaliyot, siyosat va boshqa diskurs bilan bog‘liq fan va tadqiqot sohalarining ham asosiy o‘rganish obyekti hisoblanadi. Ushbu fanlarning har biri diskursni o‘rganishga o‘ziga xos tarzda yondashadi.

Asosiy qism. Diskurs tushunchasining tilshunoslikdagi o‘rni.

Diskurs tilshunoslikda kommunikativ jarayon natijasi bo‘lgan matn va unga bog‘liq bo‘lgan kontekstual omillar yig‘indisini bildiradi. Diskurs faqat tildagi birliklar yig‘indisi emas, balki bu birliklarning qanday ijtimoiy, madaniy va psixologik kontekstda ishlatilayotganini ham ko‘rsatadi.

Diskurs va matn tushunchasining farqlari.

Matn – bu grammatika, sintaksis va semantik jihatdan yaxlit bo‘lgan til birligi hisoblanadi. Diskurs esa bu matnning kontekstda mazmun kasb etgan shaklidir. Diskursda ishtirokchilarning maqsadi,

ijtimoiy roli, nuqtayi nazari, hodisalarga munosabati muhim rol o‘ynaydi.

Badiiy diskursning xususiyatlari.

Badiiy diskurs – bu adabiy asarlar orqali ifodalangan til birliklarining estetik va semantik jihatdan boy qatlamidir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

• Estetiklik: obrazlar, metafora, simvol va boshqa badiiy vositalar orqali ifodalanadi.

• Subyektivlik: muallifning individualligini va dunyoqarashini o‘zida aks ettiradi.

• Intertekstualik: boshqa matnlar, tarixiy voqealar, madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqlikni o‘z ichiga oladi.

• Ko‘p darajalilik: bir vaqtning o‘zida bir nechta ma’no qatlamlarini anglatadi – literal, simvolik, ideologik.

• Kontekstga bog‘liqlik: o‘quvchining bilim doirasi, madaniy omillar, tarixiy davrga bog‘liq holda tushunilishi mumkin.

Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida ishlatilgan til vositalari orqali milliy o‘zlik, tarixiy xotira va insoniylik g‘oyalari badiiy diskurs darajasida ifodalanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi muhim o‘rinni egallaydi. Til birliklari faqat grammatik tizim doirasida emas, balki real kommunikativ vaziyatda qanday qo‘llanilishi, ulardan qanday maqsadlar yo‘lida foydalanilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Diskurs tushunchasi aynan shu jarayonni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu maqolada diskurs tushunchasining nazariy asoslari, badiiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zbek hamda turk tillaridagi badiiy diskursning ayrim jihatlari yoritiladi. Diskurs – bu nafaqat til birliklarining ketma-ketligi, balki ular qanday kontekstda, qanday maqsadda, kim tomonidan va kimga qarata qo‘llanayotganini o‘z ichiga olgan keng tushunchadir. Matn – bu “nima”, diskurs esa “qanday” va nima uchun” degan savollarga javob beradi. Diskursga struktural, poststruktural va kognitiv yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular orasida M. Fuko, T. van Deyk, N. Ferklouf kabi olimlar muhim o‘rin tutadi. “Diskurs” atamasi lingvistika sohasida ham juda ko‘p qo‘llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952- yilda nashr etilgan “Diskur tahlili” deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. “Diskurs” atamasining to‘liq ko‘lami so‘nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi. Semantikada diskurs tushunchasining qo‘llanilishi yanada murakkabroq. Diskurs semantikasi – bu intellektual tadqiqotning muayyan sohalarida lug‘atdan qanday foydalanishimizni tahlil qilish. Bu tahlil til va tuzilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni, masalan, gap va u mavjud bo‘lgan kengroq kontekst o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Bunga misol sifatida gapda olmoshning qo‘llanilishini keltirish mumkin, o‘quvchi yoki tinglovchi uni faqat bog‘langan holda tushunishi mumkin.

Fikr va mulohazalar. Tilshunoslikda diskursga faqat grammatika doirasida emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda yondashish zarur. Ayniqsa, badiiy diskurs orqali jamiyatdagi ideologik, axloqiy, estetik qadriyatlar ifoda etiladi. Har bir badiiy asar – bu o‘ziga xos diskursiy maydon bo‘lib, unda til orqali muallifning dunyoqarashi ifodalanadi. Shuning uchun badiiy asarni lingvistik tahlil qilish, uni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, matnga qo‘shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o‘z ichiga oladi. Badiiy diskurs – bu adabiy matnlardagi nutqiy jarayon, unda obrazlar, mualliflik pozitsiyasi, estetik yuklama va dialogik xarakter muhim rol o‘ynaydi. Bunday diskursda til birliklari nafaqat axborot berish, balki estetik ta’sir o‘tkazish, voqelikni obrazli ifodalash maqsadida ishlatiladi. Intertekstualitya, poetik struktura va subyektivlik badiiy diskursning asosiy belgilaridandir. Badiiy diskursda leksik (metafora, epitet, sinonim, antonim), sintaktik (inversiya, parallel konstruksiyalar, urg‘u), stilistik vositalar va frazeologizmlar keng qo‘llaniladi. Ular yordamida matnning estetik ta’siri kuchayadi, obrazlar jonlanadi. O‘zbek tilshunosligida diskurs borasida maxsus tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. Tilshunos matn va diskurs muammolari to‘g‘risida quyidagilarni qayd etadi: “Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo‘lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko‘rsatkichga asosan “og‘zaki” va “yozma” sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko‘rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko‘rinishda tasavvur qilish qiyin masala. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli bo‘ladigan bo‘lsa, erishilgan natija moddiy ko‘rinish olishi kerak-ku? Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ

mazmun va so‘zlovchi istagi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda tinglovchi idrokida (qabulida) hosil bo‘ladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o‘zaro qorishib, birikib, muloqotning samaraliligini ta’minlovchi omilga aylanadilar. Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg‘unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta’minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e‘tirof etilmoqda.

Xulosa. Diskurs tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda keng qamrovli hodisa bo‘lib, u orqali tilning ijtimoiy, madaniy va estetik funksiyalari ochib beriladi. Badiiy diskurs esa til vositalarining eng yuqori estetik darajada qo‘llanilishidir. Uning tahlili tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida amalga oshiriladi. Shu sababli badiiy diskursni o‘rganish – nafaqat tilni, balki xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniyatini o‘rganish demakdir.

O‘zbek adabiyotida hayotiylik, xalq og‘zaki ijodi vositalari (maqol, matal, ibora) keng qo‘llaniladi. Turk adabiyotida esa ramzli til, tarixiy va diniy kontekst kuchli, ayniqsa, tasavvufiy obrazlar muhim rol o‘ynaydi. Har ikki tilda badiiy diskurs milliy mentalitet va estetik qarashlarni aks ettiradi. Diskurs – bu tilning ijtimoiy, madaniy va psixologik kontekstdagi qo‘llanishidir. Badiiy diskurs esa bu jarayonning eng murakkab, estetik jihatdan boy shaklidir. O‘zbek va turk tillaridagi badiiy diskurslar orqali har ikki xalqning madaniy qadriyatlari, obraz yaratish uslubi, tilning estetik imkoniyatlari namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Садикова, Ш., & Рахматжонова, К. (2020). Изучение категории согласия в хинди и узбекском языках. *Восточный факел*, *3*(3), 78-86.

2. Baxtiyorovna, B. H. X. S. S. (2021). Xorijliklar uchun o‘zbek tili. *Boshlang‘ich kurs. TDSHU*, *1*.

3. Sadykova, S. B., & Tuychibaeva, S. S. (2019). К МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ГРУППАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДЛОЖНО-ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЫ). *Theoretical & Applied Science*, (11), 189-192.

4. Sadikova, S. B. (2022, January). The impact of the images of Navoi’s works on Uzbek poetry. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE: INTELLECTUAL EDUCATION* (pp. 47-52).

5. Bakhtiyorovna, S. S. (2021). The Method of syntactic-stylistic expression of respectful speech in the Uzbek Language. *Журнал IJESC*, *6*, 28094-28095.

6. Baxtiyarovna, S. S. (2021). Alisher Navoiy ijodida ta’lim-tarbiya va do‘stlik masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(1), 94-97.

7. Sadikova, S. B. Concepts of Respect Category and Respect Speech in Uzbek Language. *INTERNATIONAL JORNAL OF TREND IN SCIENTIFIC RESEARCH AND DEVELOPMENT e-ISSN*, 2456-6470.

8. Bakhtiyorovna, S. S. Art of the chapter dedicated to the heritage of Alisher Navoi in the epic” Khamsa. *Журнал Хозарм маьмун академияси ахборотномаси. Хива*, *5*, 86-88.

9. Турк тилидан амалий машғулотлар учун матнлар. Tűrkçe pratik dersler için metinler. – Тошкент: ТДШИ, 2007. – 160 б.

10. Turk tili. Mavzulashtirilgan testlar to‘plami. Konularına Göre Türk¬çe Deneme Sınavları Test Kitabı. (Turk filologiyasi bo‘limi talabalari uchun). – Toshkent: TDSHI, 2007.156-b.

11. Turk tilidan mashqlar to‘plami. Tűrkçe alıştırmalar kitabı. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009.192-b. (A.Tilavov va H.Yildirimlar bilan hammualliflikda).

12. Шарқ халқлари адабиётидан таржималар, хрестоматия. –Тошкент, ТДШИ, 2013.180-б. (А.Алимбеков билан ҳаммуаллифликда).



Muhayyo ERGASHOVA,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, f.f. nomzodi

“LOKALLIK” SEMALI BIRLIKLAR VA LOKAL MAYDON

Annotatsiya: maqolada lokal maydon markazi so‘zning semantik strukturasida joy tushunchasining keng ko‘lamli barcha qatlamlarida aks etishi, lokallik belgisi tilning turli sathlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, turli sathlarda lokallik haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *lokallik belgisi, lokal maydon markazi, funksional-semantik maydon, morfemik sath, lokal belgi.*

Аннотация: в статье рассматривается тот факт, что центр локальности отражается в семантической структуре слова во всех широких слоях концепта мест, локальный признак выражается поразному на разных уровнях языка.

Ключевые слова: *локальный знак, локальный центр, поля функционально-семантический, морфемный уровень.*

Annotation: the article discusses the fact that the senter of the local areais reflected in the semantic structure of the word in all broad leyers of the concept of place, the local sign.

Key words: *local sign, local Area Center, functional-semantic, area, morphemic level, local character.*

Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo‘shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o‘ziga narsalarni sig‘diruvchi substansiya. Hech narsasi yo‘q, ya’ni narsalar solinmagan fazo ham bo‘lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion kontsepsiya tarafdorlari esa narsalar fazoviy o‘lchamga ega, deyishadi.

Har bir narsa va hodisa, harakat va holat, belgi va xususiyat inson ongida aks etadi hamda til orqali o‘z ifodasini topadi. Fazo va vaqt tushunchalari ham undan istisno emas. Fazoning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi lokallik maydonini tashkil qiladi. Lingvistikada lokallik fazo bilan bog‘liq xilma-xil vositalarni o‘zida birlashtiradi.

Ma’lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko‘lamga, hajmga ega. Fazo – vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro‘y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Keyingi yillarda fazo va vaqtning ifoda asoslariga ko‘ra metrik va tipologik xususiyatlarga ega ekanligi e’tirof etilmoqda. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o‘lchanadigan, ko‘zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko‘lam, bir jinslilik, izotroplik kabi xususiyatlar kiradi. [3]

Lokal maydon markazi ko‘p ma’noli joy so‘zidir. Bu umumlashtiruvchi so‘zning semantik strukturasida joy tushunchasining keng ko‘lamli barcha qatlamlari aks etadi. Masalan:

1) maydon, yer yuzining ma’lum bir qismi (tanish joylar, hudud, o‘lka);

2) maydon – biror narsa mavjud bo‘lgan, sodir bo‘layotgan punkt (borar joy);

3) maydon – biror faoliyat olib borish uchun mo‘ljallangan bino, tochka (ish joyi);

4) provinsiya, periferiya hamda periferial tashkilotlar, muassasalar (markazga qarama-qarshi) (joylardan delegatlar);

5) biror jism bilan egallangan yoki kimdir, nimadir tomonidan egallanishi mumkin bo‘lgan erkin maydon (stol ustida kitoblar uchun joy ajratish);

6) maxsus ajratilgan, odatda, nimadir tomonidan egallangan muayyan maydon (kalitlar joyida osig‘liq);

7) biror bir predmetning alohida qismi (urilish joyi);

8) musiqiy, badiiy asar yoki biror matnning qismi, parchasi (romanning eng qiziq joyi);

9) lavozim, xizmatdagi mavqei (yangi o‘ringa ega bo‘lish).

Dastlabki to‘rt LSV asosiy (markaziy) ma’nolari hisoblanadi va lokallik maydonining yadrosini shakllantiradi. Lokallikning leksik-semantik maydonlarga bo‘lishning birinchi pog‘onasida uch ko‘lamli funksional soha ajratiladi. Ularning konkretlashtiruvchilari sifatida maydon – chegaralanmagan masofa (barcha yo‘nalishlardagi) havo, dengiz, jahon maydoni va h.k.lar.

Bo‘laklarga ajratishning keyingi pog‘onalarida har bir funksional soha (doira) maydon munosabatini turli aspektlarda tavsiflovchi mayda guruhlarga bo‘linadi. Ideografik lug‘atlardagi ko‘rsatkichlar va yig‘ilgan materiallar asosida maydonning funksional sohasi quyidagi guruhlarga differensiatsiyalanishi mumkin. Umumiy ifodalar (koinot, olam) fazo, yer, uning tuzilishi.

Fazo (kosmos) leksik-mavzuiy guruhi quyidagi guruhchalarga differensiatsiya qilinishi mumkin.

Umumiy ifoda. Osmon doirasi, antiolam, yulduz turkumlari. 1.osmon jismlari. Planetalar. Yulduz turkumlari. Asteroid, yulduz, yer, planetalar.

1-guruhga misollar keltiramiz: *fazo, koinot, olam, xaos, yarimshar, stixiya;*

2-guruh: *asteroid, yer, kometa, oy, planeta, satellit, yo‘ldosh;*

Yer leksik-semantik guruhi, uning tuzilishi quyidagi guruhchalarga bo‘linadi: yer, uning tuzilishi, tabiiy tuzilmalar.

Umumiy ifodalar: *yer, uning tuzilishi, tabiiy poyaslari, geografik zonalar, yer atmosferasi, havo maydoni*.

Masalan:

Qaldirg‘ochlar qanotin
Ko‘zga surtar yer (M.Ulug‘) [1]

Yer yuzi qismlari, uning relyeflari, tog‘lari, vodiylari, yerdagi chuqurliklar, suvliklar, daryolar, muz, qor massalari, o‘rmonlar.

Lokallik belgisi garchi tilning barcha sathlari uchun xos bo‘lsa-da, leksik birliklarda uning imkoniyati ancha keng ekanligi bilan xarakterlanadi.

Leksik sathda lokal arxisema asosida bir sinfga birlashgan leksemalar munosabati tilning leksik sistemasida bir mikrosistemani tashkil etadi Bu mikrosistema a’zolari o‘z navbatida, muayyan farqlovchi belgilar asosida leksik-semantik guruhlar (LSG)larga ajraladi. Har bir LSG uchun ham lokal sema birlashtiruvchilik vazifasini bajaradi.

Lokallik maydoni tarkibiga kirgan lingvistik tushunchalar geterogenlik xususiyatiga ega, chunki lokallik tilning turli sathida ifodalanadi.

D.Nabiyeva invariant-variantlilik xususida bahs yuritar ekan, yuqoridagi tushunchalarni shunday ko‘rsatib o‘tadi: “ ... sezgi a’zolarimizga ta’sir etuvchi har qanday real talaffuz qilinuvchi birliklar variant, bu birliklar ostida yashiringan imkoniyat tarzidagi umumlashma esa invariant sanaladi. Bundan invariant va variant o‘zaro bir qatordagi gomogen hodisalar emas, balki turli qatordagi geterogen hodisalar ekanligi ma’lum bo‘ladi”.[2]

Lokallik maydoniga birlashgan barcha lingvistik birliklar lokallik paradigmasiga birlashuvchi lingvistik birliklardan farq qiluvchi xususiyatlari haqida fikr yuritib, B.Qurbonova lokallik maydoniga kiruvchi lingvistik birliklarni generativ lokallik, pozitsion lokallik, nominativ lokallik, derivatsion lokallik, relyatsion lokallik kabi ma’no guruhlariga tasnif etadi va ularning turlarini izohlab beradi.

Hozirgi o‘zbek tilida lokal ma’no ifodalovchi ***o‘rin, joy, makon, qishloq, shahar, ovul, o‘lka***

singari bir qator leksemalar borki, ularda lokallik semasi markaziy sema hisoblanadi va ana shu sema lokallik maydoniga birlashtiruvchi umumiy sema sanaladi.

Lokallik derivatsiya yo‘li bilan hosil qilingan ikkilamchi nomlarda ham ifodalanadi. Bunday lokal leksemalar maxsus yasovchi vositalar yordamida ma’lum bir tilning so‘z yasalish modeli asosida hosil bo‘ladi.

O‘zbek tilida bunday leksemalar ***–zor, -iston, -goh, -lik*** kabi qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘ladi.

Muayyan relyatsion shakllarni olgan leksema boshqa xuddi shunday shakldagi leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. So‘zshakllarning sintagmatik munosabatini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi relyatsion morfemalarning bir qismi ham lokallik grammatik semasiga ega bo‘ladi.

Xususan, kelishik shakllari tobe so‘zning hokim so‘zga tobe munosabatini ifodalash bilan birga, hokim bo‘lakning leksik ma’nosidan ifodalangan harakat-holatning chiqish, yo‘nalish, yuzaga chiqish-chiqmaslik o‘rnini ham ifodalaydi. Bunday kelishiklar bosh va qaratqich kelishiklari bilan lokallik belgisi asosida zidlanadi. Chiqish, o‘rin, jo‘nalish kelishiklari belgiga egaligi, qolgan ikkitasi esa belgiga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun birinchi guruh kelishiklari lokal kelishiklar deb ham yuritiladi. Bu jihatdan tushum kelishigi oraliq o‘rinni egallaydi. Chunki bu kelishik shakli o‘timli fe’llarga bog‘lanib, hokim bo‘lakdan anglashilgan harakatning tushish o‘rnini, tushish nuqtasini ifodalaydi. Faqat tushum kelishigi bilan lokal kelishiklarning o‘rin ma’nosini ifodalashdagi farqi shundaki, lokal kelishiklarning o‘rin semasi barqaror, doimiy, markaziy sema sanalsa, tushum kelishigining o‘rin semasi chegara sema hisoblanadi.

Xullas, lokal leksemalarning sintaktik vazifalari o‘rin hollari uchun xoslangan. Demak, sintaktik tuzilish birliklarida ham lokallikni ifodalash uchun xoslangan vositalar mavjud. Bunday sintaktik birliklar sintaktik lokallikni ifodalashda markaziy vosita sanaladi. Bundan tashqari, sintaktik sathda gap bo‘laklarining kesimga nisbatan o‘rni (pozitsiyasi) tushunchasi ham borki, bu ham lokallik ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir. Gapning shakliy tuzilish birliklarining gapning yoki bo‘lakning bo‘lagi ekanligini, ya’ni gap tuzilishi uchun funksional va nofunksional bo‘lak ekanligini gapning kommunikativ tuzilishida tema-rematik vazifasini belgilashda sintaktik pozitsiya belgisi katta ahamiyatga ega. Lekin gap bo‘laklari va gapning lokallik ma’nosini ifodalashda keyingi holat chegara belgi sanaladi.

Har qaysi sathda bu mazmuniy kategoriyani ifodalovchi, shu sema uchun xoslangan markaziy birliklar bo‘lishi bilan birga, bu semani ifodalashda yordamchi vosita vazifasini bajaruvchi chegara birliklar ham mavjuddir.

Lokallik semasini ifodalashga daxldor barcha lingvistik birliklarni bir semantik maydonga – lokallik maydoniga birlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Muhtarama Ulug‘. Ey dilim. – Toshkent: Nihol, 2012. 128-bet.

2.Nabiyeva D. O‘zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishi. – Toshkent: Sharq, 2005. 52-bet.

3.Falsafa asoslari. (Tuzuvchi va muharrir Q.Nazarov) – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 138-bet.

4.O‘zbek tili grammatikasi. II tom. – Toshkent: Fan, 1975. 235-bet.

5.Qurbonova B. Lokallik va uning o‘zbek tilida ifodalanishi. Filol. fanl. nomz...dis. avtoref. – Toshkent. 2007.

Umidjon YIGITALIYEV,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

LISONIY TIZIM YAXLITLIGI VA UNDA “SHAXS OMILI” TUSHUNCHASINING ASSOTSIATIV-VERBAL IFODALANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada tilda shaxs omili tushunchasi antroposentrik paradigmaning kognitiv-verbal tadqiq usuli yordamida o‘zbek tilining barcha sathlari uyg‘unligida voqelanishi masalasi tadqiqi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *til, shaxs, tushuncha, antroposentrik paradigma, konsept, assotsiativ-verbal tadqiq, lisoniy sath.*

Аннотация: в данной статье анализируется вопрос о понятии личностного фактора в языке в гармонии всех уровней узбекского языка с использованием когнитивно-вербального метода исследования антропоцентрической парадигмы.

Ключевые слова: *язык, личность, концепт, антропоцентрическая парадигма, понятие, ассоциативно-вербальное исследование, лингвистический уровень.*

Annotation: this article analyzes the issue of the concept of the personal factor in language in harmony of all levels of the Uzbek language using the cognitive-verbal method of research of the anthropocentric paradigm.

Key words: *language, personality, concept, anthropocentric paradigm, notion, associative-verbal research, linguistic level.*

Til odamning muhim atributlaridan biridir. Bu inson o‘zini anglagandan beri tilni odamning hayvondan farqlovchi belgilaridan biri sifatida uqqanligi bilan isbotlanadi.

Mir Alisher Navoiy bu holatni “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida shunday sharhlaydi:

Ey so‘z ila qilgan ofarinish og‘oz
Insonni aroda aylagay mahrami roz
Chun kun faya kun sahfasiga bo‘ldi tiroz
Qilg‘on ani nutq ila baridin mumtoz[10.].

O‘tgan asrning so‘nggi choragida yuzaga kelgan antroposentrik paradigma qator fanlar tadqiqot yo‘nalishining o‘zgarishiga olib keldi. Jumladan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, mantiqshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlarda til, adabiyot, ruhiyat, mantiqni tekshirishda, xalq milliy-madaniy qadriyatlarini o‘rganishda ***inson omili*** muammosi markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Tilda *inson omili* muammosini tekshirish tadqiqotchilar e’tiborini til sistemasini undan foydalanuvchi so‘zlovchi shaxsi bilan uyg‘unlashgan holda o‘rganishni taqozo etdi. Tilni o‘rganishga bunday yondashuv uni real kommunikatsiya sharoitida tadqiq etishga olib keldi. M.Salomatina bu holatni hozirgi kommunikativ lingvistikada “shaxsning personallashuvi” bilan izohladi[7:3].

Antroposentrik aspektda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda lisoniy birliklar sof grammatik qonun-qoidalar asosida emas, balki turli fanlar hamkorligida *inson omili* bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Jumladan, til birliklarini kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish orqali lisoniy hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida tilda inson omilining o‘rni masalasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlarda inson omilining barcha fanlar, shu jumladan, tilshunoslikning ham o‘rganish predmeti ekanligi g‘oyasi ilgari surildi [8.46]. Shuningdek, turli tillarda “odam” yoki “shaxs”

konseptining ifodalanishi [3:25], xususan, shaxsning *baho* sifatlarini ifodalovchi maqollar, zoonimik va fitonimik [3:45] leksik birliklar orqali voqelanishi masalasini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borildi [4:]. Albatta, konsept mental tuzilma bo‘lsa-da, uning moddiylashuvi bevosita lison bilan bog‘liq, shu bois konseptni inson ongi va til tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning mahsuli sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

O‘tgan asrda o‘zbek tilshunosligida ham tilda *shaxs kategoriyasi* muammosiga munosabatlar bildirildi. Xususan, tilda shaxs otlarining ifodalanishi, yasalishi, semantik xususiyatlari, shaxs aktantining sintaktik sathda voqelanishi masalasi leksik-semantik, derivatsion, sintaktik va stilistik aspektlarda tadqiq etildi. Biroq tilshunosligimizda “til egasi” (inson)ning *shaxs* sifatidagi xususiyatlari (ruhiyati, kasb-kori, assotsiativ tafakkuri, jinsi, ijtimoiy mavqeyi kabilar)ning tilda aks etishi masalasi, “odam”, “shaxs” kontseptining o‘zbek tilida voqelanishi, *lisoniy shaxs,* lisoniy shaxsning nutqiy muloqot jarayonidagi o‘rni, *lisoniy shaxs tiplari* muammosi yetarlicha tadqiq etilmadi.

Ma’lumki, tilning vazifasi aloqa-aralashuv vositasi sifatida quruq axborotni uzatishdan iborat bo‘lmasdan, kommunikativ muloqot elementlari, ya’ni so‘zlovchining muloqot maqsadi, uzatilayotgan axborotning sifati, adresat tomonidan qabul qilib olinishi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, muloqot amalga oshgan vaziyat kabilarni ham qamrab oladi. Bu o‘rinda axborotning qay tarzda uzatilayotgani va tinglovchining axborotni qabul qilib olishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra til inson tafakkuri va hayot tajribalarining lisoniy verballashuvi, kishilar o‘rtasidagi hamkorlikdagi faoliyat mahsuli deb qaralmoqda.

Fanda kishilarning o‘zaro nutqiy muloqoti keyinchalik alohida tadqiq yo‘nalishi – *diskursiv yondashuv*ning maydonga kelishiga zarurat tug‘dirdi.

D.Xudoyberganova K.F.Sedovning diskursiv tahlil borasidagi qarashini qayd etar ekan, shaxs omilini o‘rganish, eng avvalo, ongli tarzda nutq yaratish va idrok etish bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi [9.26].

N.Mahmudov tilda *inson omili* muammosi xususida fikr yuritar ekan, “Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi”, deb ta’kidlaganida bu muammoning qanchalik murakkabligini e’tirof etgan edi [3:78].

Anglashiladiki, tilda inson omili muammosi tadqiqotchidan tildan foydalanuvchi ***shaxs***ga xos xususiyatlarning tilda voqelanishini aniqlashdek murakkab vazifalarni o‘rganishni taqozo etadi. Negaki, tilshunoslikda *shaxs* tushunchasi, birinchidan, ijtimoiy taraqqiyotning natijasi sifatida qaralib, kishining *kasbiy, ijtimoiy, jinsiy, yosh, irqiy, etnik, diniy, huquqiy* va boshqa munosabatlari natijasida ro‘yobga chiqadi.

Tilda inson omili muammosini konseptual tadqiq etishda konseptning til vositalari orqali ifodalanishi masalasini o‘rganish muhim o‘rin tutadi [2:35].

Konsept antroposentrik paradigmaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, hozirgi zamon tilshunosligida konseptning ifodalanishi xususida deyarli fikrlar bir xil. Chunonchi, konsept lisoniy tizimda, asosan, leksik hamda leksik-frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyot bosqichida sintaktik konseptlar haqidagi nazariy qarashlar, monografik tadqiqotlar ham maydonga keldi [3:78].

Konseptning tub mohiyatida ***shaxs*** omili yotar ekan, u tafakkurning ifoda vositasi – tilning barcha sathlarida til vositalari orqali bevosita yoki bilvosita voqelanishi, shubhasiz. Jumladan, nutq tovushi ma’no ifodalamaydi, biroq ma’noni farqlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, muayyan nutq sharoitida “shaxs” konseptining verballashuviga ham xizmat qiladi. Til egasi nutqida kuzatilgan o‘ziga xos nutq tovushi bevosita “shaxs” konseptiga assotsiativ tarzda ishora qila oladi.

Ilmiy faraz nuqtayi nazaridan fonetik-fonologik sathda “shaxs” konseptining voqelanishini aniqlashda bevosita fonemalarga berilgan

ta’riflarga suyanish ham mumkin. Hozirgi davr tilshunosligida fonemaga berilgan yuzlab ta’riflar mavjud.[8:18]. Chunonchi: “...fonema tildagi ma’nodor birliklar – *so‘z* va *morfema*larni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, o‘zi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan birligidir” [1:46]. “Fonema – til moddiy tomoni (substatsiyasi)ning eng kichik birligi bo‘lib, aloqa quroli uchun ahamiyatli bo‘lgan farqlovchi fonologik belgilarning barqaror yig‘indisidir” [5:26]. “Fonema – so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi”[6:46]. “So‘z, so‘z formalari va morfemalarni tashkil etuvchi va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo‘laklarga bo‘linmovchi til birligi fonema (grekcha *phone* – tovush, ovoz ma’nosida) deyiladi. Masalan, *til – tol, kel – kul* so‘zlari unli fonemalar yordamida farqlanadi” [4:4].

Umuman olganda, bu xildagi ta’riflarni ko‘plab keltirish mumkin. Bundan asosiy maqsad mana shu ta’riflar asosida fonologik tizimda “odam” lisoniy konseptining assotsiativ voqelanishi ko‘lamlarini ochish. Agar yuqorida qayd etilgan ta’riflarga e’tibor qaratilsa, har bir ta’rifda *“ma’no farqlashga xizmat qiluvchi”* degan differensial belgiga duch kelamiz. Bundan shunday hukm chiqarish mumkinki, faqat *shaxs*gina ma’noli, sotsial ahamiyatga molik bo‘lgan nutq tovushlarini hosil qila oladi. Demak, *“ma’no farqlashga xizmat qiluvchi”, “nutq tovushi”* tavsiflari bevosita *shaxs*ga ishora qilib turadi. Chunki nutq ijtimoiy hodisa bo‘lib, u orqali faqat odamlarga nisbat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1990.146-b.
2. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. –Л.: Наука, 1974. 451-с.
3.Yigitaliyev U.S. O‘zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi (Monografya). –Toshkent: “Lesson press”, 2023.130-b.
4.Yigitaliyev U.S., Umidjanov Sh. U. The role of the concept “man” in the functional-semantic and assotciative-verb expression of the forms of the category of cases (on the example of Uzbek-language sources) // Journal for Educators,Teachers and Trainers, Vol. 14 (5) 18-22 / DOI: 10.47750/jett.2023.14.05.004
5. Ne’matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 94-b.
6. Nurmonov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1990. 46-b.
7. Саломатина М.С. “Коммуникативная личность филолога”: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Воронеж, 2005. 13-с.
8.Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М.: Наука,1960. 18-с.
9.Xudayberganova D. S. O‘zbek tilida badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol.fan. d-ri. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2015. 6-b (-54 b.)
10.https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Muhokamatul%20lug‘atayn.pdf



Akbarjon XASANOV,
Qo‘qon davlat universiteti
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
akbarjonhasanov1979@gmail.com

ANTONIM JUFTLIKLARDA SEMANTIK ASIMMETRIYA MASALASI

Annotatsiya: mazkur maqolada antonim juftliklarda semantik asimmetriya masalasi tahlil qilindi. Adabiy va publitsistik matnlarda 100 ta antonim juftlik kontekstual, baholovchi va funksional jihatdan o‘rganildi. Tahlil natijalari shundan dalolat berdiki, ko‘plab juftliklarda so‘zlar o‘rtasida faollik, ta’sir va yuklama jihatidan tengsizlik mavjud. Asimmetriya holatlari asosan baholovchi va emotsional yuklamali so‘zlarda namoyon bo‘ldi. Tadqiqot korpusli tahlil, semantik jadval va kognitiv yondashuvlar asosida olib borildi. Ushbu ish antonimiyaga doir an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish va uni pragmatik, madaniy va psixologik nuqtayi nazardan tahlil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: antonimiya, semantik asimmetriya, baholovchi yuklama, kontekst, korpus tahlil, emotsional tengsizlik, kognitiv yondashuv, o‘zbek tili, funksional lingvistika.

Аннотация: в статье рассматривается проблема семантической асимметрии в антонимических парах. Исследование основано на анализе 100 антонимических пар в контексте художественных и публицистических текстов. Результаты показали, что во многих парах наблюдается неравнозначность по активности, оценочной нагрузке и стилистической функции. Асимметрия чаще всего проявляется в оценочной и эмоционально-нагруженной лексике. В работе применены методы корпусного анализа, семантического шкалирования и когнитивной лингвистики. Выводы подчёркивают необходимость пересмотра традиционного подхода к антонимии с учётом прагматических и когнитивных факторов.

Ключевые слова: антонимия, семантическая асимметрия, оценочная нагрузка, контекст, корпусный анализ, эмоциональная неравнозначность, когнитивный подход, узбекский язык, функциональная лингвистика.

Annotation: this article addresses the issue of semantic asymmetry in antonym pairs based on the Uzbek language. The study analyzes 100 antonymic pairs in literary and journalistic texts from the perspective of context, evaluation, and functional distribution. Results show that many pairs exhibit asymmetry in lexical activity, emotional load, and contextual dominance. The phenomenon is especially pronounced in evaluative and emotionally charged lexicon. The research employs corpus analysis, semantic scoring, and a cognitive linguistic approach. The findings highlight the need to reassess traditional models of antonymy through pragmatic, cultural, and psychological perspectives.

Key words: antonymy, semantic asymmetry, evaluative load, context, corpus analysis, emotional imbalance, cognitive approach, Uzbek language, functional linguistics.

Kirish. Antonimiya tildagi semantik munosabatlar orasida eng keng tarqalgan va nazariy jihatdan eng ko‘p o‘rganilgan leksik fenomenlardan biridir. U turli tillarda ma’nolar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni belgilab, fikrni kuchaytirish va teranlashtirish vazifasini bajaradi [1, 18]. An’anaviy nazariyada antonimlar teng huquqli juftliklar sifatida baholangan: “katta-kichik”, “og‘ir-yengil”, “toza-iflos” kabi juftliklar formal simmetriyaga ega deb qaraladi [2, 44]. Biroq semantik tahlil shundan dalolat bermoqdaki, antonim juftliklarda hamisha tenglik saqlanmaydi. Ya’ni, ba’zi juftliklarda so‘zlar o‘rtasida semantik asimmetriya, ya’ni ma’no, funksiya yoki baho jihatidan nomutanosiblik namoyon bo‘ladi [3, 63]. Semantik asimmetriya deganda, so‘z juftligining bir elementi boshqasiga nisbatan kuchliroq ta’sir, emotsional yuklama yoki faollik darajasiga ega bo‘lishi tushuniladi [4, 172]. Masalan, “hayot – o‘lim” yoki “poklik – ifloslik” kabi juftliklarda ikkinchi so‘z ko‘pincha kuchli emotsional va dramatik ta’sir bilan ishlatiladi. Bu holat, ayniqsa, adabiy uslubda yaqqol namoyon bo‘ladi [6, 289]. Semantik asimmetriya tilning faqat leksik sohasigagina xos emas, balki insonning dixotomik

fikrlash modeli, kognitiv stereotiplari va madaniy baholash tizimi bilan ham chambarchas bog‘liq [7, 73]. Adabiy matnlarda, publitsistikada yoki frazeologiyada so‘zlar turli funksiyalar va yuklamalarga ega bo‘ladi. Shunda formal antonim deb qaraladigan juftliklar amalda to‘liq qarama-qarshilik funksiyasini bajarmaydi.

O‘zbek tili materiallari asosida olib borilgan kuzatuvlar ham ushbu holatni tasdiqlaydi.Jumladan, “qorong‘i-yorug‘” juftida “qorong‘i” so‘zi ko‘proq dramatizm va intensivlik yuklangan frazalarda faol ishlatiladi, “yorug‘” esa kamroq ta’sirga ega [3, 65]. Mazkur holat antonimiyani qaytadan ko‘rib chiqish, uni faqat formal struktura sifatida emas, balki dinamik semantik tizim sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi [5, 189]. Tilshunoslar ta’kidlashicha, asimmetriya tushunchasi antonimlar tafovutlarini aniqlashda muhim nazariy mezon bo‘lib xizmat qiladi, chunki u so‘zlarning real kontekstdagi harakatini tahlil qilishga imkon beradi [4, 175].

Ushbu maqolada semantik asimmetriya masalasi o‘zbek tilidagi antonim juftliklar misolida tahlil qilinadi. Tahlil korpusli yondashuv, kontekstual funksiyalar va baholovchi yuklamalar orqali amalga oshiriladi.

Antonimlarning tengsizligi bayon, ta’sir, estetik ifoda va g‘oyaviy tuzilish kabi til kategoriyalari bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Maqsad – antonim juftliklar formal tengligi ortida yashiringan asimmetrik munosabatlarni ochish va ularning kognitiv, funksional va uslubiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Maqola nazariy tilshunoslikdagi an’anaviy yondashuvlar (Vvedenskaya, Arutyunova, Novikov) va o‘zbek tilidagi tadqiqotlar (Xojiev, Saidov) asosida tafsilotli tahlilni o‘z ichiga oladi [1, 18; 3, 64]. Ushbu tahlil nafaqat antonimiyaning nazariy chegaralarini aniqlash, balki uni ta’lim, tarjima va diskurs tahlilida qo‘llash imkoniyatlarini ham ochib beradi. Shu bois, semantik asimmetriya masalasini chuqur tahlil qilish zamonaviy lingvistikada muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda antonim juftliklar orasidagi semantik asimmetriyani aniqlash va tasniflash uchun bir necha lingvistik va korpusli usullardan foydalanildi.Ilmiy tahlil asosida kognitiv, funksional va strukturalist yondashuvlar qiyosiy tarzda qo‘llanildi [1, 112]. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilidagi adabiy va publitsistik uslubdagi 100 dan ortiq turli kontekstlarda uchraydigan antonim juftliklar saralandi. Matnlar zamonaviy elektron korpuslar, jumladan “O‘zbek milliy korpusi” va nashr etilgan adabiy to‘plamlar asosida tanlandi. Juftliklar beshta toifaga ajratildi: baholovchi, miqdoriy, holatiy, fazoviy va emotsional-konnotativ.Har bir toifa doirasida 10–15 juftlik tanlab olinib, kontekstdagi foydalanish holatlari tahlil qilindi. Har bir antonim juftlik uchun quyidagi parametrlar belgilandi: faollik darajasi (funksional yuklama), kontekstdagi roli, baholash intensivligi, konnotativ kuch va ishlatilish chastotasi.

Semantik asimmetriya darajasini aniqlash uchun belgilangan mezonlar asosida jadval shaklida baholash usuli qo‘llanildi. 0 (simmetrik) dan 3 (kuchli asimmetriya) gacha bo‘lgan shkala asosida baholandi. Har bir juftlik uchun umumiy ball hisoblab chiqildi. Masalan, “oq-qora” juftida har ikki so‘z formal teng ekanligiga qaramasdan, “qora” so‘zi salbiy, keskin, dramatik faollikda ko‘proq ishlatilgan, natijada 2.5 ball asimmetriya qayd etildi [2, 135].

Kontekstual tahlilda so‘zlar qaysi obrazlar bilan bog‘lanayotgani, qanday emotsional yuklamaga ega ekani va muallif tomonidan qanday ma’no bag‘ishlanayotgani alohida qayd etildi [4, 172]. Tahlil jarayonida korpusli foydalanish chastotasi ham ko‘rildi. Masalan, “umid-noumidlik” juftida “noumidlik” so‘zi turli uslublarda (badiiy, publitsistik, ommaviy axborot) tez-tez uchraydi, “umid” esa ko‘proq neytral kontekstlarda keladi. Asimmetriya faolligi tildagi baholovchi kuch bilan bog‘liq ekanligi Arutyunova va Novikovning semantik tipologiyalariga tayanilgan holda asoslandi [1, 98; 4, 44].

Semantik asimmetriya, shuningdek, so‘zning eksplitsit yoki implitsit bahosiga bog‘liqligi nuqtayi nazaridan ham baholandi. Masalan, “inson – hayvon” juftida ikkinchi so‘zdagi baho kuchli va keskin konnotativ bo‘lgan [3, 221]. Juftliklar real adabiy va ommaviy matnlardan olingan bo‘lib, ulardagi kontrastli ifoda, ta’rif, yoritish tarzi alohida tahlil qilindi. Fe’llar, sifatlar va ismlar orasidagi juftliklar alohida ajratildi. Qisqa-uzun, og‘ir-engil, keng-tor kabi fazoviy antonimlar simmetrik ko‘rinishga ega bo‘lgan holatlarda ham “yengil” so‘zi ko‘proq ijobiy yuklama bilan ishlatilgan, bu holat kognitiv qabulga bog‘liq ekanligi ko‘rsatildi [6, 187].

Analiz jarayonida mualliflik uslubi, janr, satrning umumiy bahosi va kontekst turi (neytral, baholovchi, metaforali) ham hisobga olindi. Bu so‘zlar o‘rtasidagi funksiyaviy tengsizlikni yaxshiroq aniqlashga yordam berdi. Tadqiqot natijalarini hisoblash va taqqoslash uchun jadvalli foydalanish matritsalari, reyting shakllari va ball yig‘inlaridan tashkil topgan tizimli usul qo‘llanildi. Umumiy hisobda 100 ta juftlikdan 72 tasida 1 balldan ortiq asimmetriya qayd etildi, 28 tasida simmetrik yoki 0.5 balldan kam farq kuzatildi. So‘zlarning kontekstda faollik darajasi, emotsional ta’siri va baholash yuklamasi ularning antonim juftlikdagi “markaziy” yoki “periferik” pozitsiyasiga ta’sir qilgani qayd etildi [7, 73]. Shu asosda antonimiyadagi semantik asimmetriya real va tizimli hodisa sifatida baholandi. Tahlillar natijalari natija va muhokama qismlarida tavsif qilinadi.

Natijalar. Olib borilgan tahlillar natijasida antonim juftliklarda semantik asimmetriya mavjud ekani to‘liq tasdiqlandi.Saralangan 100 ta antonim juftlikdan 70 dan ortig‘ida ma’no, faollik va kontekstual ta’sir jihatidan tengsizlik aniqlandi. Baholovchi antonimlarda, xususan “gunoh-savob”, “yaxshi-yomon” kabi juftliklarda “gunoh” va “yomon” so‘zlari kuchli emotsional yuklama bilan faolroq ishlatilgan [1, 98]. Bu holat kontekstda salbiy ma’noning ta’sirchanligini ko‘rsatadi. Fazoviy antonimlar (“keng – tor”, “baland-past”) formal jihatdan simmetrik bo‘lgan bo‘lsa-da, kontekstual tahlilda “keng” va “baland” so‘zlari ijobiy yuklama bilan, “tor” va “past” so‘zlari esa neytral yoki salbiy fonda uchragan [2, 133]. Semantik jadvallar orqali baholashda har bir juftlik 0 dan 3 gacha bo‘lgan ball tizimida baholandi. Juftliklarning 60%ida 1.5 balldan ortiq farq qayd etildi. Masalan, “inson – hayvon” juftida “inson” so‘zi ko‘pincha umumiy tushuncha sifatida ishlatiladi, “hayvon” esa turli hollarda salbiy ma’no, haqorat yoki ziddiyat belgisi sifatida namoyon bo‘lgan [3, 221].

Adabiy korpus tahlilida “yurak – tosh” juftida “yurak” ma’naviy, insonparvarlik ramzi sifatida kelsa, “tosh” so‘zi ko‘proq befarqlik, ruhiy sovuqlik yoki zahmat ramzi sifatida faol bo‘lgan [4, 176]. Fe’llar asosidagi antonimlarda (“boshlamoq – to‘xtamoq”, “ochmoq – yopmoq”) simmetriya yuqori darajada saqlangan. Biroq “ochmoq – to‘smoq” yoki “kechirish – jazolash” kabi juftliklarda faollik va baho tengsizligi aniqlangan. Sinonim-antonim yo‘nalishli semantik munosabatlar tahlilida ham so‘zlar orasidagi asimmetrik dinamika qayd etildi. Xususan, “muqaddas – harom” juftida “harom” so‘zi ko‘proq salbiy konnotatsiya bilan kuchli ta’sir qiluvchi birlik sifatida namoyon bo‘lgan [5, 189].

Asimmetriya ko‘rsatkichlari korpusdagi ishlatish chastotasiga ham bog‘liq. “noumidlik” so‘zi “umid” ga nisbatan ko‘proq dramatik kontekstlarda uchragani qayd etildi. Korpusli tahlilda fazoviy antonimlar neytral vazifada ko‘proq simmetriklik namoyon qilgan, lekin kontekstda ijobiy yuklamali so‘zlar faolroq ishlatilgan. “Keng” so‘zi “tor” ga nisbatan ko‘proq ijobiy kontekstda uchragan [6, 187]. Har bir antonim juftlikda ta’sir darajasi, estetik yoki baholovchi funksiyasi, kontekstdagi maqomi tahlil qilindi. Shu asosda “markaziy” va “periferik” so‘z maqomi belgilandi. Qisman simmetrik, lekin emotsional faolligi har xil bo‘lgan so‘zlar – “chiroyli-xunuk”, “bahaybat – mayda” kabi juftliklar orqali ham asimmetriya namoyon bo‘ldi. Semantik jadvallar asosidagi natijalar shundan dalolat berdiki, kontekstual ta’sir ko‘rsatuvchi so‘zlar, odatda, qarama-qarshi juftlikda faolroq yuz beradi. Ya’ni, bir so‘z shunchaki muqobil emas, balki semantik markazga aylangan bo‘ladi. Eng yuqori asimmetriya balllari “botil – haq”, “iflos – pok”, “qorqoq – mard” kabi juftliklarda qayd etildi. Bunda salbiy so‘zlar kuchli emotsional baho va ta’sirning asosiy tashuvchisi bo‘lgan [1, 113].

Tahlil davomida antonim juftliklardan birining muallif nutqida ta’rifni qurishda markaziy vazifani bajarayotgani aniqlandi. Ikkinchi so‘z esa faqat muqobil funksiyada qolgan. Semantik asimmetriya holatlari ko‘pincha adabiy uslub, dramaturgiya, psixologizm bilan bog‘liq frazalarda ko‘p uchraydi. Bu holat leksik qobiliyat bilan emas, balki estetik va baholovchi niyat bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi [7, 73]. Shu sababli, formal antonimiya tasnifi real kontekstda hamisha ishlamasligi, unda so‘zlarning voqeiy rolini hisobga olish zarurligi aniq tasdiqlandi.

Muhokama.Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, antonim juftliklar o‘rtasidagi semantik asimmetriya nazariy tilshunoslikda hanuz to‘liq tadqiq etilmagan muhim muammolardan biridir. Formal tenglik ortidagi funksiyaviy nomutanosiblik tilning dinamik tabiati bilan bog‘liq. Semantik asimmetriyaning namoyon bo‘lishi insonning baholovchi fikrlashi, ma’no yaratishi va ijtimoiy-ma’naviy yuklamalarga bog‘liqligi bilan tushuntiriladi [1, 106]. Ya’ni, so‘z ma’nosi faqat lug‘atda emas, balki ijtimoiy kontekstda ham shakllanadi. Ba’zi antonimlar kontekstda teng huquqli deb ko‘rinsa-da, biri kuchli ta’sirchanlikka ega bo‘lib, “markaziy ma’no” vazifasini bajaradi, ikkinchisi esa faqat fondagi muqobil sifatida xizmat qiladi [2, 133]. Masalan, “qora” so‘zi “oq” ga nisbatan ko‘proq dramatik, metaforali va salbiy kontekstlarda faol bo‘ladi, bu esa uning ta’sir darajasini yuqori qiladi [5, 189].

Arutyunova ta’kidlaganidek, tildagi baholovchi elementlar kognitiv jarayonlarni boshqaradi va reallikni tushunishga ta’sir qiladi [1, 102]. Shu jihatdan, “yomon – yaxshi” juftida “yomon” so‘zining ta’siri ko‘proq namoyon bo‘ladi. Fazoviy va miqdoriy antonimlar semantik jihatdan simmetrik deb qaralsa-da, kontekstda ular orasida ham asimmetriya namoyon bo‘ladi. “keng – tor” juftida “keng” ijobiy, “tor” esa salbiy emotsional bahoga ega bo‘lib ishlatiladi. Semantik asimmetriya – bu so‘zlar o‘rtasidagi ma’no farqi emas, balki ularning kontekstdagi faollik darajasi, emotsional ta’siri va baholovchi yuklamalari bilan bog‘liq munosabatdir. O‘zbek tilidagi real kontekstlarda salbiy yoki keskin so‘zlar ko‘pincha kuchli intonatsiya, metafora va dramatizm bilan ishlatiladi. Bu holat “noumidlik – umid”, “jazo – kechirish” kabi juftliklarda namoyon bo‘ladi. Kognitiv nuqtayi nazardan, odamlar kuchliroq emotsional yuklamaga ega so‘zlarni tezroq qabul qiladi, shu bois “hayvon” so‘zi “inson”ga nisbatan salbiy, lekin ta’sirchanroqdir [3, 221].

Antonim juftliklardagi funksional tengsizlik ko‘pincha ijtimoiy normalar, tarbiya va madaniy stereotiplar bilan

shakllanadi. Masalan, “tazavvur – haqiqat” juftida “haqiqat”ning yuklamasi “tazavvur”ga nisbatan ko‘proq faol. Semantik jadvallar orqali aniqlangan ball farqlari so‘zlar o‘rtasidagi ta’sir kuchini sifat jihatidan emas, balki vazifaviy jihatdan baholash imkonini berdi. Bunday yondashuv leksikologiyani faqat nomlar tizimi sifatida emas, balki ma’no harakati tizimi sifatida anglashga yordam beradi. Bu fikr Novikov va Vvedenskaya tadqiqotlarida ham asoslangan [4, 144].

Tahlildan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, so‘zlar formal jihatdan juft bo‘lsa-da, ma’no jihatidan teng emas. Bu esa lug‘atchilar, tarjimonlar va til o‘qituvchilari uchun katta nazariy ahamiyatga ega. Asimmetriya holatlari adabiy matnlardagi estetik ta’sir mexanizmlarini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Muallif ba’zan markaziy g‘oyani aynan kuchliroq yuklangan antonim orqali ochadi. Funktsional yuklama antonim juftlikdagi bir so‘zni markazlashtirib, ikkinchisiga faqat “qarshi tasvir” vazifasini beradi. Bu esa so‘zning real ta’sirini belgilaydi.

Ta’limda antonimiyani faqat qarama-qarshi ma’no deb o‘rgatish, talabalarni ma’no jarayonidagi simmetriyadan uzoqlashtiradi. Real kontekstda bunday tenglik kam uchraydi. Metodik jihatdan semantik asimmetriyani o‘rgatish so‘zlarning emotsional ta’siri, baho yuklamasi va metafora bilan bog‘liq faollik darajasini tushunishga imkon yaratadi. Shu sababli, antonimiyadagi asimmetriyani nazariy va amaliy tilshunoslik, kognitiv psixologiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks o‘rganish zarur. Bu tushuncha nafaqat til bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ijodiy, estetik, ta’sirli nutq yaratish jarayonida ham asosiy vazifani bajaradi.

Xulosa.Antonimlarda semantik asimmetriyaning mavjudligi tilshunoslikdagi an’anaviy tenglik nazariyalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Formal juftliklar real kontekstda faollik, baho va ta’sir darajalari jihatidan teng bo‘lmasligi mumkin. Olib borilgan tahlilda 100 ta antonim juftlikdan 70 dan ortig‘ida kontekstual va emotsional tengsizlik holatlari aniqlandi. Bu tildagi ma’no tizimida funksiyaviy markaz va periferiya munosabati mavjudligini ko‘rsatadi. Semantik asimmetriya, ayniqsa, baholovchi va konnotativ so‘zlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “harom – muqaddas”, “iflos – pok” kabi juftliklarda salbiy so‘zlar kuchliroq ta’sirga ega [5, 189]. Fazoviy va miqdoriy antonimlarda simmetriya yuqori bo‘lsa-da, kontekstda “baland”, “keng” kabi so‘zlar ijobiy baho bilan, “tor”, “past” so‘zlari esa neytral yoki salbiy baho bilan kelgan [2, 133].

Asimmetriyaning sabablari kognitiv mexanizmlar, ijtimoiy yuklamalar va lingvokultur faoliyat bilan bog‘liq. Inson dunyoqarashining binar strukturasida salbiy so‘zlar diqqatni ko‘proq jalb qiladi [1, 106]. Antonim juftliklardagi ta’sir darajasi so‘zning kontekstdagi rolini belgilaydi. Shu sababli, har bir juftlikni faqat qarama-qarshi ma’no deb emas, balki funksiyaviy pozitsiyaga qarab tahlil qilish kerak.

Bu maqolada qo‘llangan jadvalli baholash, korpusli tahlil va emotsional yuklama tahlili ana shunday funksional tengsizlikni aniqlashda samarali bo‘ldi. Natijalar ko‘rsatdiki, semantik asimmetriya leksik kategoriya emas, balki kompleks ma’no-baholovchi tizim bo‘lib, u fikrni ifoda etishda ham, tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot antonimiyaning chuqurroq ilmiy anglashini ta’minlaydi va uni ta’lim, tarjima, diskurs tahlillarida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Semantik asimmetriya nazariyasi tilshunoslarga real kontekstlarda so‘zlarning faollik darajasini baholash, ijtimoiy ta’sirini aniqlash va ma’no yaratish jarayonini tahlil qilishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1998. – 896 с.
2. Введенская Л.А. Словарь антонимов русского языка. – Ростов н/Д: Изд-во Рост. ун-та, 1982. – 176 с.
3. Саидов А. Ўзбек тилида лексик маъноларнинг қарама-қаршилиги. – Т.: Фан, 2005.190-б.
4. Новиков Л.А. Антонимия в русском языке: семантический анализ противоположности в лексике. – М.: Наука, 1973. – 246 с.
5. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: оценка, событие, факт. – М.: Наука, 1988. – 339 с.
6. Хожиев А.Ў. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1981.312-б.
7.Львов М.Р. Словарь антонимов русского языка. – М.: Русский язык, 1978. – 168 с.

Shaxlo XALILOVA,
F.f.f.d. (PhD) dotsent;
Rushana QODIROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

O‘TIMLI VA O‘TIMSIZ FE’LLAR: NAZARIY VA AMALIY TAHLILI

Annotatsiya: *mazkur maqolada o‘zbek tilidagi fe’llarning asosiy sintaktik xususiyatlaridan biri — o‘timlilik va o‘timsizlik masalasi tahlil etiladi. Fe’llarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchi talab qilish-qilmasligiga ko‘ra ajratilishi, ularning gapdagi vazifasi, semantik belgilari va kontekstga bog‘liq holda o‘zgaruvchanligi nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘zgaruvchan o‘timlilik* ***(konversiya)*** *hodisasi va turkiy tillar doirasida o‘timli-o‘timsiz fe’llarning o‘rganilishi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Maqola tahliliy misollar, grammatik mezonlar va tilshunoslikka oid adabiy manbalarga tayanadi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik fanida fe’l morfologiyasi va sintaksisini chuqurroq o‘rganish uchun xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘timlilik, o‘timsizlik, to‘ldiruvchi, o‘zgaruvchan o‘timlilik, morfologiya, sintaksiz*

Annotation: *this article analyzes one of the main syntactic features of verbs in the Uzbek language - the question of transitive and intransitive verbs. The separation of verbs according to whether or not they require a direct complement, their function in a sentence, their semantic signs and their variability depending on the context are considered theoretically and practically. It also provides data on the phenomenon of variable morphology (conversion) and the study of morphological and non-morphological verbs within Turkic languages. The article relies on analytical examples, grammatical criteria, and linguistic literature. The results of this study will serve to deepen the study of the morphology and syntax of verbs in linguistics.*

Key words: *transitive, intransitive, complementary, variable transitive, morphology, syntax*

Аннотация: *в этой статье анализируется одна из основных синтаксических особенностей глаголов в узбекском языке - переходность и непереходность. Теоретически и практически рассматривается разделение глаголов в зависимости от того, требуют ли они прямого дополнения, их роль в предложении, семантические признаки и изменчивость в зависимости от контекста. Также приводятся данные о событиях переходность (конверсии) и изучении переходных и непереходных глаголов в рамках тюркских языков. Статья опирается на аналитические примеры, также, как и на грамматические критерии и литературные источники по лингвистике. Результаты этого исследования послужат для углубления изучения морфологии и синтаксиса глаголов в лингвистической науке.*

Ключевые слова: *переходность, непереходность, дополнение, морфология, синтаксис*

Kirish. Fe’l tili strukturasida markaziy o‘ringa ega bo‘lgan so‘z turkumidir. Harakat, holat, jarayonni ifodalovchi fe’llar, ayniqsa, gapda kesim bo‘lib kelib, gapning asosiy yukini o‘z zimmasiga oladi. Fe’llarning semantik va sintaktik xususiyatlariga ko‘ra ular o‘timli va o‘timsiz fe’llarga ajratiladi. Bu ajratish nafaqat grammatik mezon, balki tilning mantiqiy tuzilmasiga ham ta’sir qiladi. Ushbu maqolada o‘timli va o‘timsiz fe’llarning nazariy asoslari, sintaktik tahlili va boshqa turkiy tillar bilan o‘xshashlik va farqlari o‘rganiladi.

Fe’l va uning sintaktik vazifasi. Fe’l — predmetning harakatini, holatini, o‘zgarishini yoki mavjudligini ifodalovchi so‘z turkumidir. Fe’llar gapda, asosan, kesim vazifasida keladi. Ular shakl (zamon, shaxs, istak, buyruq), ma’no (harakat, holat) va sintaksis (to‘ldiruvchi talab qilish yoki qilmasligi**)** jihatidan tahlil qilinadi. Fe’lning to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchi bilan bog‘lanish-qilmasligiga qarab o‘timli va o‘timsiz fe’llar ajraladi. Bu farqlash esa fe’lning gapdagi boshqa so‘zlar bilan qanday munosabatda bo‘lishini aniqlaydi.

O‘timli fe’llar: tushunchasi, belgilari va misollar. O‘timli fe’l **—** bu harakati bevosita obyektga yo‘naltirilgan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchi talab qiladi. Ular o‘zidan keyin “nima?” yoki “kim?” degan savollarga javob beradigan so‘zlarni talab qiladi. Misollar:

U kitob o‘qidi. → Nima? – kitob

Onam non pishirdi**.** → Nima? – non

Belgilar:

Harakat obyektga qaratilgan bo‘ladi.

Fe’l gapda to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchiga ega bo‘ladi.

Semantik jihatdan harakatning ta’siri ko‘zga tashlanadi (o‘qimoq, ko‘rmoq, tayyorlamoq).

Ba’zan o‘timli fe’llar majhul nisbatda (passive voice) ishlatilganda o‘timsizlik kasb etadi:

Kitob o‘qildi**.** (kim tomonidan? noma’lum)

O‘timsiz fe’llar: tushunchasi, belgilari va misollar. O‘timsiz fe’l **—** bu harakati obyektga bevosita yo‘naltirilmagan, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchi bilan kelmaydigan fe’l.

Misollar:

Bola uxladi.

U yugurdi.

Qush uchdi.

Belgilar:

Harakat subyekt doirasida amalga oshiriladi.

“Nima?” yoki “kim?” savollariga javob bermaydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchi bilan kelmaydi.

Gapda ko‘pincha hol yoki vositachilik bildiruvchi so‘zlar bilan ishlatiladi.

O‘timlilik va o‘timsizlikning o‘zaro bog‘liqligi.

Ayrim fe’llar kontekstga qarab ham o‘timli, ham o‘timsiz bo‘lishi mumkin. Bu holat tilshunoslikda o‘zgaruvchan o‘timlilik deb yuritiladi. Fe’lning ma’nosi va gapdagi boshqa unsurlar (ayniqsa, to‘ldiruvchi) uning qaysi turga mansub ekanini aniqlashga yordam beradi.

Misollar:

U yozdi. (nima yozdi? → o‘timli)

U ko‘p fikr yozdi. (kontekstda to‘g‘ridan-to‘g‘ri obyekt yo‘q → o‘timsizga yaqin).

Bu holat fe’lning ma’no yukini kontekstdan kelib chiqib aniqlashni talab etadi.

O‘zgaruvchan o‘timlilik (konversiya) hodisasi. Tilshunoslikda **konversiya** hodisasi — bu fe’lning o‘timlilik darajasining kontekstga qarab o‘zgarishidir. U tilning moslashuvchanlik xususiyatini ko‘rsatadi. Bu hodisa ko‘proq zamonaviy so‘zlashuv nutqida ko‘zga tashlanadi.

Misollar:

U tushdi. (o‘timsiz)

U mashinadan tushdi. (o‘timsiz, lekin hol bilan to‘ldirilgan)

U yukni tushirdi. (o‘timli)

Bu yerda hatto bir fe’lning turli nisbatdagi shakllari o‘timli yoki o‘timsizlikni belgilashi mumkin.

Turkiy tillarda o‘timli-o‘timsiz fe’llarning o‘rganilishi. Turkiy tillar (qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, turk, ozarbayjon) morfologik tuzilmasi jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lib, fe’lning o‘timli yoki o‘timsiz bo‘lishi umumiy xususiyatlar asosida belgilanadi. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘timli fe’llarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri obyekt bilan bog‘laydi. Zamonaviy tilshunoslar bu mezonni sintaktik tizim asosida tahlil qiladilar.

Qozoq tilida:

Men **kitap o‘qidim** – o‘timli

Bala **uyqiladi** – o‘timsiz

Uyg‘ur tilida ham bu farqlash qat’iy:

U **kitapni o‘qidi** – o‘timli

U **ulghidi** – o‘timsiz

Xulosa. O‘timli va o‘timsiz fe’llar tilning sintaktik tizimida asosiy o‘rin tutadi. Bu ikki tur grammatik, semantik va stilistik jihatdan farqlanadi. O‘timlilik fe’lning bevosita obyekt bilan bog‘liqligini belgilasa, o‘timsizlik harakatning mustaqil yoki holat sifatida ifodalanishini ko‘rsatadi. Tilda o‘zgaruvchan o‘timlilik hodisasi nutqdagi kontekstga bog‘liq bo‘lib, fe’lning moslashuvchanligini bildiradi. Turkiy tillar fonida bu hodisa umumiy tipologik asosga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afurov N. O‘zbek tilining grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2002.
2. Jo‘rayev M. Fe’lning sintaktik xususiyatlari. – Samarqand, 2014.
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Yozuvchilar nashriyoti, 1992.
4. Rasulov A. O‘zbek tilshunosligiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
5. Sultangozina A. Turkiy tillar morfologiyasi. – Almaty, 2010.
6. Xojimurodov A. Zamonaviy o‘zbek tili. – Toshkent: O‘zMU, 2018.



Усербай БАЙКАБИЛОВ,
Шыршық мемлекеттік педагогика университеті
Өзбек тіл білімі кафедрасы доцент м.а.
userbajbajkabilov856@gmail.com

ҚАЗАҚ ТІЛІНДЕГІ КЕЙБІР ФРАЗАЛАР ТӨРКІНІ

Аннотация: қазақ тіл білімінде, түркологияда, фразеологияның ажлпы проблемалары бұл күнге дейін түбегейлі зерттеліп, өзінің тиянақты шешімін тапқан жоқ. Басқаша айтқанда, сан алуан фразеологиялық тізбектер дербес зерттеу объектісі болудан гөрі, ілгері-кейінді жазылған сөздіктерде, мақалаларда иллюстрация материалы дәрежесінде ғана қолданылып келеді.

Кілтті сөздер: фраза, тұрақты тіркестер, табу, эвфемизм, этимология, қайым, лексика-грамматикалық формалар, дыбыс құбылыстары.

Аннотация: проблемы казахского языкознания, тюркологии, фразеологии до сих пор изучены фундаментально и не нашли своего исчерпывающего решения. Иными словами, многообразие фразеологических последовательностей используется лишь в ранге иллюстративного материала в словарях, статьях, написанных с опережением, а не как самостоятельный объект исследования.

Ключевые слова: словосочетание, устойчивые словосочетания, нахождение, эвфемизм, этимология, Кей, лексико-грамматические формы, звуковые явления.

Annotation: the problems of Kazakh linguistics, Turkology, and phraseology have still been studied fundamentally and have not found their exhaustive solutions. In other words, the variety of phraseological sequences is used only as illustrative material in dictionaries, articles written ahead of time, and not as an independent object of research.

Key words: word combinations, stable phrases, finding, euphemism, etymology, Key, lexico-grammatical forms, sound phenomena.

Қазақ тіліндегі бірде бір сөз, не фраза кездейсоқ, қалай болса, солай жасала салмаған. Бәрінің де жүйесі бар, түпнегізі бар, себеп-салдары бар. Қоғам өміріндегі, халық тарихындағы неше алуан әдеби, мәдени, рухани процестердің ізі көп жерлерде тілден де орын тебеді. Мұның неше алуан дәлелін қайсыбір фразалардан да табамыз. Әрқилы әлеуметтік факторларға байланысты туған көптеген фразалардың о бастағы мағынасы әлденеше жүздеген жылдарды артқа тастаған тастаған соң, көмескілене бастайды. Тіпті қайсыбір компоненттері өлі мүше ретінде ғана тіркесіп, тірлік кешеді.Бұлар қай кезде, қандай жағдайға байланысты, қалай пайда болған деген мәселелердің басын ашу оңай шаруа емес. Ал осылардың түп төркінін тексеріп, себеп-салдарын анықтаудың тіл тарихы мен мәдениеті үшін маңызы ерекше.

Мәселен, “бұл менің қолым емес, Бибіфатиманың қолы” деген фразаны бұрын белгілі бір жағдайға ғана байланысты, діни тиісті адамдар ғана айта алады. Мұны ер кісілердің сөз қолданысынан, әрине таба алмайсыз. Босанғаны жатқан әйелдің белін ұстаушы кісі (әйел) осылай сөйлесе керек. Сондай-ақ, ертеде жыныстық ерекшелікке орай пайда болып, қалыптасқан фразалар қаншама. Тіпті алғыс-қарғыс мәнді тіркестердің әйелдер қолданысындағы түрлері бар. Табу, эвфемизмдердерге айналған сөздерге барсаң, бұл тақылеттес тіркестердің қалың қатарын тізіп шығар едік. Мысалы, *әдіра қал, көктемей, көктей солғыр, жүгермек келгір, көк шұнақ қар, желкең қиылғыр, қара басқыр, марту басқыр, төре бала, молда бала, мырза жігіт* т.б. тек әйелдер лексикасында ұшырасады. Осылардың көбінің қайсыбір сыңарлары, компоненттері

бастапқы мәнінен алыстап, көнере бастаған.

Алайда бір ескере кететін нәрсе, көрінген сөзді көзінен тізіп, төркінін ашамын деп әлек болудың қажеті жоқ. Өзінен-өзі ұғынықты *бар, кел, ал, бер, жол, қара, ақ* т.б. тәрізді сөздердің этимологиясын зерттеп жатпаймыз. Жоғарыда ескерілген рухани, мәдени байланыс нәтижесінде әр кезде тіліміз енген шет сөздерді, сондай-ақ, мағынасы ескіре бастаған фразалардың сыңарларын таратып талдап беру тіл мәдениеті үшін аса қажет. Мәселен, ауызекі тілде жиі қолданылатын *пәміл шай, мәміле (мәмілелі) шай* тәрізді варианттас фразеологизмдердің пайда болуы екі түрлі құбылыспен ұштас. Бірінде – орыс тіліндегі *фамильный (чай)* сөзін қазақтар пәміл деп дыбыстық дыбыстық тұлғасын өзгертіп алған. Ал *мәміле шай* тек тікелей дыбыс өзгертуден ғана емес, өзгеше мағына танудан пайда болған. Бұл тіркестер *мәміле құрып, әңгіме-дүкен құрып ішетін шай* деген ұғымда қолданылады.

Ал *Атымтайдай жомартқа* қарама-қарсы мағынасындағы Қарынбайдай сараң тіркесі ескі діни әдебиеттердегі аңыз-әңгіме желісінде байда болған. Аңызда былай делінеді: Бұрынғы уақытта байлық Қарынбайдан аспаған, қайыр-садақа бермегені үшін оны жер жұтыпты-мыс, алдына салған қара құрым төрт түлік малы құрт-құмырсқа, бақа шаянға айналып кетіпті-міс. Мұндағы *Қарынбай* “ішек-қарын” деген төл сөзімізге тек сырттай ұқсап тұр. *Қарынбай* – арабтың *харун* сөзіне қазақтың бай сөзі қосылып жасалған деген жорамалдың жаны бар тәрізді. Түптөркіні, тегі әрі басқа тілден құралған мұндай тіркесімнің көптеген тілдерде кездесетіні белгілі.

Егінің өнімді болсын, астығыңа береке құтайсын дегенді қазақ *дихан дарысын* дейді. Қазақ тілінде *дихан егінші* деген мағынада жұмсалатыны белгілі. Орта Азия халықтарында ертеде жерге бай ақсүйек, алпауытты *дихан* деп те атаған. Бертінде бұл сөз “егінші, қара шаруа” мағынасында қолданылып, семантикалық аясы кеңейе түскен. Ал қазақ тіліндегі *дихан дарысын* деген бата-тілектің шығуы бұл сөздің парсы тіліндегі “жер атасы” деген мифологиялық ұғыммен байланысты.

Ер әбзелін түзеді деген тұрақты тіркес “ат жабдығын сайлады” деген мағынаны білдіреді. Мұндағы әбзел тіліміздегі басқа сөздермен де тіркеседі: *үй әбзелі, дастархан әбзелі*, т.б. Ғ.Мүсіреповтің “Ұлпанында” *шай әбзелі* деген тіркес бар. Әбзел парсы сөзі, “мүлік”, “құрал” деген мағынада.

Тілімізде *жарамазан, жарапазан* деген сөз бар. Осы сөз *қашанғы жарамазан (жарапазан) айтамыз да жүреміз* (“қашанғы қақсай береміз”) деген фразаға ұйытқы болған. *Жарамазан* сөзін қазіргі кезде бүгін сөз ретінде ұғамыз. Ал түптегіне қарасақ, екі сөзден құралған екен. Бұл сөз жалпы түркілік “жар” (жариялау, жар салу т.б.) сөзіне “рамазанның” (жылдың мұсылманга тоғызыншы айы) тіркесуі арқылы жасалып, дыбыстық өзгеріске ұшыраған. Тілдегі көмескі сөздердің барлығы бірдей шет тілдік сөз бола бермейтіні де белгілі. Ондай сөздердің бір алуаны ежелден бар, бастау тілден қалған белгі. Оларды туыстас тілдердегі факт айқындай түседі.

Қазіргі тілімізде мағынасы көмескеленіп, күңгірт тартқан сөздер, әсіресе, тұрақты тіркестер тобынан жиі ұшырайды. Өйткені олар плеоназм, қос сөз түрінде консерванцияланып, басқа сөздермен жұмсалына береді. Олардың бірсыпырасын туыстас тілдермен салыстыра қарағанда “көне” сыры ашыла түседі. Мәселен, мына бір өлеңді оқып қараңыз:

Майда жал, қаз мойынды тобым қайда?
Бәрінен сыпырылдым бір-екі айда.
Үстіне жел шықпаса адам шықпай,
Бұла өскен аягөзім қандай жайда.

Осы өлеңдегі *бұла өскен* тұрақты тіркесінің “емін-еркін, өмірдің ыстық-суығын көрмеген” деген ұғымы түсінікті. Ал *бұла* сөзі жеке тұрғанда қандай мән-мағына білдіреді. Туыстас қырғыз тілінің материалына үңілсек, *бұла* дегеннің о бастағы мағынасы “жібек, биязы жүн” екен. Қырғыз фольклорында бұла менен жібекті...деп келетін қалыптасқан тіркес бар. Туыстас тілдердің бірінде кейбір сөздер, лексика-грамматикалық формалар, дыбыс құбылыстары көне тұрқын сақтап қалса, бірінде ішкі, сыртқы факторлардың әсерінен жаңа сипат алып, өзгеріске түсіп жатады. Сондықтан тарихшы-этимолог туыстас тілдердің фактісіне жиірек жүгінеді.

Туыстас тіл материалдары мен ана тіл фактісін ұштастыра зерттеу, ішкі реконструкция тәсілін қолдану – этимологиялық ізденістің өнімді бір түрі. Тілімізде *“көбеңді көр де қой”* деген мақал бар.

Ат көбен тартты (ат ұзақ уақыт өткізіп барып семірді деген мағынада), *көбең ат* (жедел, жіті жүрмейтін ат) тәрізді тіркестермен салыстырсақ, бұл мақалдың мәні айқындала түседі. Осылайша бір сөзге бір сөз, бір тіркеске екінші тіркес жарығын түсіріп, мағына көмескілігін ыдырата түседі. Тағы бірер мысал: *білеудей болып істі, тұлыптай болып істі, күтпей болып істі* тәрізді фразалық тіркестердің құрамындағы алдыңғы сыңарлар екінің біріне түсінікті емес, мұндай сөздердің тіл дерігінен бастапқы мағынасын іздеу қажет. *Білеу* "қайрақ" деген мағынада. Осы күнгі ұйғыр тілінде қайрақты "биләй" деп атайды. "*Жанымаға білемені білеп-білеп алып кел*" немесе "аузын айға білдеі" дегендегі *білеме, біле* сөздерінің тібірі бар. Ал жаңа туған бұзаудың терісінен істелген ыдысты қайсыбір кезде "тұлып" деп те атаған. Тілімізде *тұлып ішік* деген тіркес те бар. "Күтпей" сөзі *күпшек* (жастықша), *күпшек сан, тиірменнің күпшегі, доңғалақтың күпшегі* тәрізді сөздермен төркіндес. Қазақта "жаман-жәутік" деген қос сөз бар. Осындағы "жәутік" деген сөзге қандай мағына телінген? О баста бұл асық ұғымына орай пайда болған ба дейміз. Мүжілген асықты бір кезде "жәутік асық" дейді екен немесе құлағымызға баяғыдан сіңісті болып, жатталып кеткен "*Шық бермес Шағайбайды*" алайық. Сонда "шық" деген сөз нені аңғартады? "*Шық*" деп бір кезде түгі жоқ, тұлдыр кедейді айтқан екен. *Шығайбай* қазақ ауыз әдебиетінде сараңдықтың символы ретінде қалыптасып кеткен ұғым. Шегіне жеткен сараңдықтың *Шығайбай* деген бір сөзбен-ақ шенеуге болады. "*Шар қой*" дейміз. "Қойы" кәдімгі қой. Ал "*шар*" дегеніміз не? Бұл қартамыс, ірі, етті қой деген ұғымды білдіреді.

"Ұлың Ұрымға (Үрімге), қызың Қырымға" деген фразеологизм бағзы бір уақыттарда әр алуан ұғынылатын сияқты. Мұның жағымды және жағымсыз мәні бар. Ең алдымен, "ұлы-қызын өсіріп, орын-орнына жайғастырып, я жай тапқан кісі" деген ұғымды білдіретін тәрізді. Сонымен бірге, бұл фраза басқа сөздер ауанына қарай өзге де мағынаны жетелей жүреді. Мәселен, осы тіркеске *кетсін, шұбасын* (шұбатылсын) сияқты етістіктер қосақталса, жағымсыз мағына жамылып, тіпті, қарғыс мәнге көшіп кететіндері бар.

Мұның этимологиясы мынадай нәрселерді аңғартады. *Ұрым*, не *Үрім* ескі әдебиетте Византия (немесе Кіші Азия) деген ұғымды білдіреді. Осы сөздің ауанына қарай *Қырым* (ұйқас қуудан туған болу керек) сөзі жарыса қолданылады. Ал *Ұрым* (Үрім) сөзі қазақ, тіпті, қыпшақ тілдерінде (қазақ, осы күнгі қырғыз, т.б.) *үрім-бұтақ* деген ұғымның бір сыңарында кездеседі. Бұл – "ұрпақ, тұқым-тұяқ" деген сөз. Тілімізде *ұлын ұяға, қызын қияға* деген бата-тілек мағынасындағы фраза да осындай жағымды мәнге ие. Демек, осы тәрізді сан алуан фрзалардың түптөркінін ашып, қолданылу (стилистикалық) аясын анықтау игі міндет.

ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ:

1. Аханов К. Тіл білімінің негіздері. А., 1993.
2. Байкабилов У. Тіл білімінің негіздері. Т., 2023.
3. Байкабилов У., Д.Дуйсабаева. Қазіргі қазақ әдеби тілі. Т.,2015.
4. Байкабилов У., Ш.Ботирова. Мәнерлеп оқу және тіл мәдениеті. Т.,2022.
5. Бектұров Ш. Қазақ тілі. А., 2006.
6. Кеңесбаев І. Қазақ тіл білімінің мәселелері. А., 2008.
7. Қазақ тілі грамматикасы. А., 2010.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Ibodatxon RUSTAMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti professori v/b.,
filologiya fanlari foktori (DSc)
ibodatrustamovna@gmail. com.;
Oygul SOTVOLDIYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti
2-bosqich magistranti

HAJVIY HIKOYALARDA ROVIY FUNKSIYASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: maqolada hajviy hikoyalardagi roviyning o‘ziga xos funksiyasi haqida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar va iboralar: hajv, roviy, vazifa, o‘ziga xoslik, muallif.
Annotatsiya: в статье рассматривается уникальная функция рассказчика в юмористических рассказах.
Ключевые слова: комическое, рассказчик, задача, оригинальность, автор.
Annotation: the article discusses the unique function of the narrator in humorous stories.
Keywords and phrases: comic, narrator, task, originality. Author.

Kirish. Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida O‘tkir Hoshimov asarlarini mustaqillik davri talablari asosida yangicha talqin etish jarayonlari boshlandi. Badiiy matnni tahlil etishda matnni anglash va tushunish kengaydi, asar strukturasidan yangi ma’nolarni topish holatlari kuzatildi, o‘quvchini atroflicha mushohada qilishga undash, uning tafakkuriga ta’sir etish usullari kashf qilindi. Badiiy asar strukturasi masalasida O‘tkir Hoshimov asarlari keng o‘rganilmagan. Jumladan, uning asarlarida roviy rivoya tarzi va uning vazifasi masalasi deyarli o‘rganilmagan nazariy muammo sanaladi. Shuningdek, adibning hajviy hikoyalaridagi roviy funksiyasi masalasi umuman tahlilga tortilmaganligini inobatga olib, muallif hikoyasida aynan shu jihatlarni o‘rganishni mazkur maqolada rejalashtirdik.

Hikoyadagi roviy rivoya tarzi, funksiyasi, uning hajviy obraz yaratishdagi o‘rni, voqelikni tashkillashdagi ahamiyati, uning funksionallik darajasini o‘rganish masalasi maqolaning ilmiy maqsadi sanaladi. Shu ma’noda adibning “Butulka hoji” hikoyasida roviyning vazifasi masalasiga to‘xtalib o‘tishni maqsad qildik.

“Aslida hajv so‘zi (ar. ustidan kulmoq) – biror shaxsni tanqid qilish, ayovsiz qoralash, kamchiliklarini sanab, ayblash maqsadida yaratiluvchi asar, adabiy janr sanaladi. Avval arab she’riyatida keng tarqalgan hajvlarda raqibni qoralash, sharmanda qilish uchun yolg‘on uydirmalar to‘qish, jismoniy nuqsonlarni yuzga solish, hatto uyatsiz so‘zlarni ishlatish ham odatiy bo‘lib, ba’zan hajvning haqorat va tuhmatga aylanib ketish hollari ham uchragan. Mutaxassislar hajvning satiradan farqi sifatida konkret shaxsga qaratilganlikda ko‘rsatadilar. Hayotdagi kulgili voqealarni topib, uni birovning shaxsiyatiga tegmaydigan qilib badiiy tasvirlash zakiylik talab qiladi. Yozganida ijtimoiy yuk bo‘lishi ham kerak. Buning uchun yozuvchining tabiatida yumorga moyillikdan tashqari, hayotning yaxshilanishi istagi, illatlardan qutilish maqsadi jo‘shib turishi lozim” .[1:454].

Bizga ma’lumki, o‘zbek adabiyotida XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida yashagan Mujrim Obid ijodida va Muqimiyning “Hajvi Viktorboy”, “Hajvi Viktor”, “Voqeai Viktor”; Muxyining “Dar mazammati Vektur” kabi asarlari birinchi hajviy asarlar sanaladi.

Said Ahmad, Ne’mat Aminov, Anvar Obidjonlar qatoriga O‘tkir Hoshimov hajviy hikoyalarini ham kiritish mumkin. O‘tkir Hoshimov qator jiddiy hikoyalar, qissalar, publitsistik maqolalar muallifi bo‘lsa-da, uning ijodida hajviy hikoyalar ham borligi uning serqirra ijodkor ekanligini ko‘rsatadi. Adib o‘z asarlarida o‘quvchilarni turmushimizda uchrab turadigan poraxo‘rlik, ko‘zbo‘yamachilik, laganbardorlik, ichkilikbozlik va’dabozlik kabi illatlarni ochib beradi, o‘zining aniq falsafiy xulosalarini aytadi. Uning hajvlari shunchaki kulgi uchun yozilmagan. O‘tkir Hoshimovning qator hajviy hikoyalari borki, ularda davr va insonlardagi ayrim kamchiliklar yoritib beriladi. Shulardan biri “Butilka” Hoji” (Boshqa hojilarga daxli yo‘q)” hikoyasidir.

Asosiy qism. Hikoya shunday boshlanadi: “ Do‘stim o‘g‘lini uylantirayotgan edi. Endi... to‘y bo‘lganidan keyin... o‘zingiz bilasiz... Haligi qurg‘urdan jinday-jinday qilib o‘tirsak, davramizga oq yaktak, oq do‘ppi kiygan ketmonsoqol yigit kelib qo‘shildi. Kelin-kuyovga baxt-saodat tilab, fotiha tortdi. – Yaratganga shukronalar bo‘lsin! — dedi qiroat bilan. – Muqaddas safar sharafi kaminaga ham nasib ayladi! “Qulluq bo‘lsin”, dedik. Dasturxonda anavi ”shayton suvi” turganidan xijolat chekdik. — Ming bor uzr, Hoji aka. — Kosagul shunday deb, shishalarni imi-jimida stol tagiga olib qo‘yayotgan edi, Hoji aka keskin bosh chayqadi. — Yo‘q-yo‘q-yo‘q, taqsir! – dedi dalda berib”. “Adabiyotdagi satira – bu jamiyatdagi yoki shaxslardagi salbiy hodisalarni fosh qilish uchun ishlatiladigan komiksni ifodalash usuli. Bu komiksning o‘tkir, ko‘pincha qattiq shakli bo‘lib, u bilan muallif illatlarni masxara qiladi va tanqid qiladi” ” [3: 1.]

Roviy tomonidan keltirilgan bu ma’lumotda Hoji qanday ekanligi ma’lum qlinadi. Roviy bayonida hojining harakati orqali uning xarakteri ochib boriladi. Asar qahramonlarining nomi ham o‘ziga xos bo‘lib, ulardan birining nomi Kosagul. Bu nomning o‘zida ham hajviy munosabat ko‘rinadi. Kosagulning so‘zi va harakatlarida hajv elementlari bor. Masalan:

— Sizlar bahuzur, taqsir, bahuzur. To‘yda xursandchilik qilishning aybi yo‘q. Kosagul ikkilanib qoldi. — Sizdek mo‘tabar odamning oldida... — Beziyon, taqsir, beziyon... Biz ham bundan bisyor no‘sh aylaganmiz. – Hoji aka jinday-jinday ichkilik quyilayotgan piyolalardan ko‘z uzmay ta’kidladi: – No‘sh aylaganmiz, bisyor no‘sh aylaganmiz. Kosagul shumgina yigit ekan, Hoji akaning ko‘zlari suvga tushgan munchoqdek yiltirab turganini payqab qoldi. – So‘raganning aybi yo‘q, Hoji aka. Mabodo o‘zlariyam... – Yo‘-yo‘-yo‘! — Hoji aka keskin bosh chayqadi. – Biz ham no‘sh aylaganmiz... Aylaganmiz. ” [2:23.].”

Kosagul va Hojining o‘ziga xos jihatlari roviyning bayoni orqali yoritiladi. Hajviy asarlardagi obraz yaratish masalasi shundan iboratki, muallif ularning xatti-harakatlariga aralashmaydi, ularning harakatlariga nisbatan betaraf turadi. Aynan shu betaraflik kitobxonni faollashtiradi. Keltirilgan suhbatda har ikki obrazning xususiyatlari ochiladi. Hojining butilkani ko‘rgach o‘z halovatini yo‘qotishi, Kosagulning o‘ta quvligi beriladi. Roviy har ikki obrazning o‘ziga xos jihatlarini hajv elementlari asosida ko‘rsatadi. Hojining xarakteri uch tomonlama ochiladi: 1) roviy bayoni; 2) Kosagulning izohi; 3) o‘zining xatti-harakati orqali. Roviy Hojining keyingi izohi bilan uning psixologik holatiga aniqlik kiritadi.

Xulosa. Demak, asar badiiy butunlikni ta’min etishda roviy rivoya tarzi asar strukturasida yetakchilik qilib, “Butilka” Hoji” (Boshqa hojilarga daxli yo‘q)” hikoyasida roviyning xolis pozitsiyasi kuzatiladi. Ijodkor uslubidagi obrazlarning o‘z-o‘zini fosh etish tamoyili bu hikoyada yanada yetakchilik qiladi. Roviy bayon tarzida kesatiq, kinoya, tarafkashlik kabi usullarning mavjudligi hikoya badiiy qimmatini oshiradi.

Badiiy asarning mukammalligi uning kompozitsion yaxlitligida namoyon bo‘ladi. Badiiy asar ma’lum bir davrning asosiy g‘oyasini ifodalaydi, ilgari suradi va o‘z g‘oyasiga singdiradi. Badiiy xarakterlar yaratilar ekan, asar mukammalligi bilan bir qatorda kompozitson birlikni namoyon qiladi. Bizga ma’lumki, adabiyotda sharoit o‘z mustaqilligiga ega bo‘ladi, obyektiv qonuniyatlarga ko‘ra rivojlanuvchi konkret tarixiy vaziyatning in’ikosidir. Aniq sharoitlarda xarakterlar shakllanadi, ularning o‘ziga xosligi ochilib boradi. Jumladan, Hoji ham Kosagul ham o‘ziga xos mustaqil xarakterlar sanaladi. Ularning barcha jarayonlarini bir butun tarzda boshqarib borayotgan obraz bu roviy obrazidir”.

Mazkur hikoyada roviy funksiyasi obraz yaratishda muhimlik kasb etib, syujet bayoni va uning elementlarini joylashtirish, kompozitsiyani shakllantirishda ko‘rindi. Hajviy hikoyalarda roviy vazifasida shartlilik, roviyning betarafligi va obrazlarning nisbatan passivligida ko‘rindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д. .Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева . Адабиётшунослик луғати – Тошкент: AKADEMNASHR, 2023.
2. Ўткир Хошимов. ҲИКОЯЛАР. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
3. https://www.google.com/search.



Nodira XOLIKOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, f.f.d. (DSc)

XOTIN-QIZLAR OBRAZI TALQINIDA ISMOIL GASPRALI IJODINING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada tatar ma’rifatparvari Ismoil Gaspralining “Dor ur-Rohat musulmonlari” va “Xotunlar o‘lkasi” utopik romanlarida xotin-qizlar obrazi ijodkor estetik ideali talqiniga xizmat qilgani, o‘zida ozodlik va ma’rifat g‘oyalarini mujassam qilgani asoslangan.

Kalit so‘zlar: Faridabonu, askar qizlar, ma’rifat, ozodlik, sufrajizm, ayollarning fuqarolik ovoz berish huquqi, birinchi feministik konferensiya, xotin-qizlar emansipatsiyasi.

Аннотация: эта статья основана на том факте, что образ женщин в утопических романах татарского просветителя Исмаила Гаспрали “Мусульмане дор ур-Рахата” и “Страна женщин” служил интерпретации эстетического идеала творца, воплощал в себе идеи свободы и просвещения.

Ключевые слова: Фаридабону, девушки-солдаты, просвещение, эмансипация, суфражизм, гражданское право женщин на голосование, первая феминистская конференция, эмансипация женщин.

Annotation: this article is based on the fact that the image of women in the utopian novels of the Tatar enlightener Ismail Gasprali “Muslims of dor ur-Rahat” and “The Land of Women” served to interpret the aesthetic ideal of the creator, embodied the ideas of freedom and enlightenment.

Keywords: Faridabanu, girl soldiers, enlightenment, emancipation, suffragism, women’s civil right to vote, first feminist conference, women’s emancipation.

XX asr boshi milliy shoir va qalamkashlarning bosh mavzularidan biri xotin-qizlarning ilmli, madaniyatli, o‘qimishli bo‘lishiga qaratilgan edi. Avvalo, ayollarning savodsizligi va ilmsizligi o‘lka ziyolilarini tashvishlantirgan. Xalqni savodsizlikdan xalos qilishning yangicha usuli eskicha o‘qitish usulidan voz kechib, yevropacha o‘qitish tartibini joriy etishdan iborat edi. Bu tartibni birinchilardan bo‘lib boshlab bergan ma’rifatparvar inson, jadid ziyolilarining otasi sanalmish Ismoil Gasprali bo‘ldi. U ham yevropacha, ham mahalliy, ham milliy ta’lim jihatlarini uyg‘unlashtirib, yangicha o‘qitish usulini tavsiya qildi. Chunki mavjud o‘qitish tartibi zamon talablariga javob bermas edi.

Gaspralining ayollar masalasiga doir qarashlari uning “Dor ur-Rohat musulmonlari” va “Xotunlar o‘lkasi” utopik romanlarida yaqqol ifodalangan. Birinchi asarida u ayolni barcha masalalarda erkak bilan tenglikda tasvirlaydi. U qozi ayol obrazini yaratadi, sudda uning roziligisiz oilaviy janjal yoki ayollar masalasi hal qilinmaydi va qonuniy kuchga ega bo‘lmaydi. Ikkinchi asarda Gasprinskiy ayol o‘rnida erkakni ko‘rsatadi, ya’ni muallif ularning ijtimoiy rolini almashtiradi. Bu mamlakatda erkak hijobda yuradi, bolalarni tarbiyalaydi, taom tayyorlaydi, kir yuvadi, ayol esa hamma narsada hukmronlik qiladi. Bu bilan u musulmon ayolning jamiyatdagi haqiqiy mavqeyini ko‘rsatishga uringan va bu masalani umummuhokamaga qo‘ygan.

Ismoil Gaspralining “Dor ur-Rohat musulmonlari” asari xayoliy-sarguzasht asar bo‘lish barobarida jannatmakon mamlakatni jonli tasvirlab, bir-biridan qiziq sarguzasht va ajoyibotlarga boyligi uchun kitobxon qalbini hayajonga to‘ldirib, g‘ayrat-shijoatga boshlaydi. Adibning mahorati shundaki, u o‘z orzu-xayollarini, tarixiy fakt va voqealarni asarga badiiy

sintez qilgan. Kitobxon bir paytning o‘zida muallifning g‘oyasini, tarixiy haqiqatlarni, shuningdek, go‘zal bir o‘lka tasvirini ko‘rgandek bo‘ladi. Asarda yozuvchi e’tiborini qaratgan xarakterli qirra – xotin-qizlar bo‘lib, ularning erkaklar bilan barobar ta’lim olishi, turmush-maishatda haq-huquqlari teng bo‘lishi, ayniqsa, ular orasida qozi xotinlar borligi – na Turkistonda, na Farangistonda yo‘q odatlar edi. Gasprali urg‘u bermoqchi bo‘lgan masala ayni shu – xotin-qizlar emansipatsiyasi edi.

Gaspralining “Dor ur-Rohat musulmonlari” asari ijtimoiy-estetik ideallarga xizmat qiluvchi asar bo‘lgani uchun unda oddiy fuqarodan tortib, hukmdorgacha komil qiyofada tasvirlangan. Ayniqsa, Amir, Shayx Jalol, Faridabonu obrazlariga muallif ichki bir muhabbat bilan yondashadi. Qiz nafaqat husnu latofatda balki odob, ilm, san’atda ham barkamol. “Dor ur-Rohat musulmonlari”ning har bir fuqarosi xuddi Faridabonudek ziyoli, chunki ularni voyaga yetkazgan ota-onalarning o‘zlari serxislat insonlar. Muallif bu xususda Mulla Abbos tilidan shunday deb yozadi: “Qanday go‘zal turmush! Qanday xush maishat! Otasi – mudarris, ikki o‘g‘li – muallim, qizi – tabibayi komila va inson shaklidagi bulbul. Buncha rohat, nazokat va safo! Qanday baxtiyor insonlar”[1]. Bu asar ham Mulla Abbos tilidan hikoya qilinadi. “Mulla Abbos xotin-qizlarning haq-huquqlarini zamonaviy bir holda qabul qiladi, o‘z o‘rniga qo‘yadi. Lekin u vaqtdagi islom dunyosidagi xotin-qizlarning ahvolini ko‘z oldimizga keltirsak, albatta, u tavsif etgan musulmon ayolining obrazi o‘z davri uchun xayoliy edi”[2]. Islom dunyosidagi xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash uchun Gasprali baholi qudrat so‘zda va amalda harakat qildi. U orzu qilgan jamiyat esa uning asarlarida eng go‘zal tasvirlarda berildi.

“Gasprinskiy asarlarida estetik ideal qahramon hisoblangan ayollar obrazi o‘zbek adabiyotidagi shu kabi qahramonlardan farq qiladi. Gasprinskiy orzusidagi qizlar o‘qimishli bo‘lish bilan bir qatorda erkin fikrli, o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilay oladigan mustaqil, biroz yevropalashgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida esa bu holat kuzatilmaydi”[3], – deydi Adiba Davlatova. Gasprali Yevropa va islom madaniyatini o‘zida uyg‘unlashtirgan ayollar har qanday jamiyatni yuksaklikka olib chiqishiga astoydil ishongan edi.

Ismoilbek Gaspralining “Xotunlar o‘lkasi” asari Mulla Abbos Fransaviyning navbatdagi sayohat va sarguzashtlaridan biriga bag‘ishlangan. Unda hikoya qilinishicha, Mulla Abbos uch nafar fransuz va bir nafar arab karvonboshi va yo‘lboshchi bilan sahro bo‘ylab Sudan mamlakatiga yo‘l olishadi. Qirq kun yo‘l bosishadi, qirq birinchi kun qattiq bo‘ron ko‘tarilib, bularni to‘rt kun davomida yo‘lidan adashtirib qo‘yadi. Ular o‘zlari bilmagan holda Xotunlar o‘lkasi hududiga kelib qolishadi. Ularni 100 nafar askar qizlar asirga olib ketishadi. Bu qavm qiyofasiga ko‘ra qora habash bilan badaviy arabning aralashuvidan hosil bo‘lgan edi. Yo‘lboshchi Abdullaning aytishicha, bu xotinlar asir olingan erkaklarni hecham ozod etmas, ularni o‘zlariga “ma’shuq” qilib olar ekan. Yoki juda bo‘lmasa, ishchi, oshchi, cholg‘uchi qilib olishar ekan. Xotunlar o‘lkasining malikasi bu erkaklarni o‘z haramiga olishi ehtimoli katta edi. Chunki ular oq yuzli edi.

“Darhaqiqat, bu xotinlarning va ular idora qilgan mamlakatning ahvoli chindan g‘aroyib edi. Xotinlar erkaklar o‘rnida, erkaklar esa ayollardek qo‘rqoq, sertamanno va ojiz edilar. Ozgina mulohaza qilinsa, bu hol turmush va tarbiyaning, odatlarning inson hayotiga ko‘rsatadigan buyuk ta’siriga yorqin ibrat edi. Bu yurtning xotinlari mamlakatni boshqarish va jang qilishga, erkaklari esa ichkarida bo‘lib, kir yuvish, ovqat pishirib, bichish-tikishga odatlanganlari uchun ularning o‘rinlari almashib qolganday edi. Tarbiya naqadar buyuk narsa ekan! Odatning roli va o‘rni-chi?! U ham beqiyosdir. O‘simlik va hayvonlarni joyini yangilash, ob-havoni almashtirish bilan ancha o‘zgartirish mumkin. Inson bolasini esa, ayniqsa, shu jumladan, axloq, tabiat, odat, vujuddagi quvvat, yurakdagi jasorat kabilarning hammasi turmush va tarbiyaning samarasi ekanligiga xotinlarning taqdiri dalildir”[4].

“Xotunlar o‘lkasi” har qanday ziyoli insonni tashvishga solgan ijtimoiy muhit manzarasini aks ettirdi. Mulla Abbos qatori har bir erkak ayol qadrini anglamog‘i uchun uning ahvoliga tushishi shart emas, lekin ijodkor ko‘zlagan maqsad shu ediki, u ko‘plab “er”larning ko‘zlarini ochishi kerak edi.

[1] Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фан.номз.... дисс-я. – Т., 2011. – Б. 137.
[2] Абдирашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистонда жадидчилик. – Т., 2008.
[3] Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фан.номз.... дисс-я. – Т., 2011. – Б. 137.
[4] Исмоил Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 315.

“Xotunlar o‘lkasi” xayoliy-sarguzasht qissasi, Begali Qosimov ta’biri bilan aytganda, “Asar ayollarni “sochi uzun, aqli kalta” deguvchi islom mutaassibligiga kinoya bo‘lganidek, emansipatsiya niqobi ostida ularning asliy xususiyatlari hisoblanishi lozim bo‘lgan nazokatdan uzoqlashtirilishiga, “erkaklashtirilishi”ga qarshi isyon ham edi”[5]. Darhaqiqat, bu asarda, bir qarashdan, “emansipatsiya”, ya’ni xotin-qizlar ozodligi g‘oyasi tajassum etgani bilan, unda ayollarning “erkaklashtirilishi”ga qarshi kurashayotganini olim to‘g‘ri e’tirof etgan.

Oxirgi asrlarda Yevropa orqali bizga kirib kelgan ayollarning huquqlari bilan bog‘liq ayrim atamalarning kelib chiqishi bilan qiziqadigan bo‘lsak, xotin-qizlar emansipatsiyasi sinonimi sifatida tilga olinadigan “feminizm” atamasi 1890-yillarda Fransiyada keng qo‘llanila boshlandi, birozdan keyin u Buyuk Britaniyada, keyin belgiya, ispan, italyan, nemis, yunon va rus manbalarida paydo bo‘ldi. Xotin-qizlarning uyushgan harakati 1840-yillarda AQShda, 1850-yillarda Angliyada, 1860-yillarda Fransiya va Germaniyada, 1870-1880-yillarda Skandinaviya mamlakatlarida boshlangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida feminizm asosan sufrajizm, ya’ni ayollarning fuqarolik ovoz berish huquqi uchun kurashining sinonimi sifatida qo‘llanilgan[6].

1840-1920-yillar davomida sodir bo‘lgan feministik harakat feminizmning birinchi bosqichi deb qabul qilingan. XIX asr xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy teng huquqli bo‘lishining zarurligini asoslash davri bo‘ldi. XIX asr boshlarida feministik g‘oyalarning shakllanishiga avvalambor utopistlar Sh.Fure, A.Sen-Simon va R.Ouenning falsafiy konsepsiyalari ahamiyatli ta’sir etdi. S.Ayvazova ta’kidlaganidek, Sh.Fure va A.Sen-Simon ayolning “tabiat bergan huquqidan” tashqari unda ijtimoiy huquq ya’ni: ta’lim olish, mehnat qilish va mustaqil bo‘lish huquqi mavjudligini eslatib o‘tishdi[7].

1848-yilda Amerikada ayollar huquqlari bo‘yicha birinchi konferensiya “Barcha erkaklar va ayollar teng yaratilgan” shiori ostida shakllantirildi. Unda ta’lim, meros, xususiy mulk va ajralish huquqidagi tenglik masalalari ko‘tarildi (bu birinchi feministik konferensiya hisoblanadi)[8]. Shu o‘rinda, G‘arb ayollariga xos “feminizm” tushunchasi bilan Sharq ayollari emansipatsiyasini farqlash lozim. Feminizm (lot. femina “ayol”)[9] – jamiyatdagi ayollar huquqlari uchun ayollar harakati bo‘lsa, emansipatsiya (lot. emancipatio, xalos bo‘lish)[10] – zulmdan va qaramlikdan ozod bo‘lish ma’nosini anglatadi.

Ismoil Gasprali “Dor ur-Rohat musulmonlari” va “Xotunlar o‘lkasi” asarlarida xotin-qizlar istiqboli haqida kuyunib faryod chekadi. Unda ma’rifatli shaxs talqini orqali xotin-qizlar erkinligi va jamiyatning ozodligi tarannum etilgan. Ilm-ma’rifat, ozodlik masalalari ayollar mavzusi ostida berildi, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropada tengsizlik, haqsizlikka qarshi bosh ko‘targan ijtimoiy faol xotin-qizlar paydo bo‘ldi. Gasprali yaratgan asarlar xalq bilan badiiy adabiyotni yaqinlashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдирашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистонда жадидчилик. – Т., 2008.

2. Брандт Г. Философская антропология феминизма. Природа женщины. – СПб., 2006. – С. 16-17.

3. Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фан.номз.... дисс-я. – Т., 2011.

4. Исмоил Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 315.

5. Королева Т. Женское движение: генезис и эволюция // Вестник Томского государственного университета. 2013. – № 368. – С. 44- // https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskoe-dvizhenie-genezis-i-evolyutsiya/viewer

[5] Исмоил Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланан асарлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 320.

[6] Qarang: https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskoe-dvizhenie-genezis-i-evolyutsiya/viewer // Т.А.Королева. Женское движение: генезис и эволюция // Вестник Томского государственного университета. 2013. – № 368. – С. 44-50.

[7] Bu haqda qarang: Брандт Г. Философская антропология феминизма. Природа женщины. – СПб., 2006. – С. 16-17.

[8] Qarang: https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskoe-dvizhenie-genezis-i-evolyutsiya/viewer // Т.А.Королева. Женское движение: генезис и эволюция // Вестник Томского государственного университета. 2013. – № 368. – С. 44-50.

[9] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D0%B7%D0%BC / Wikipedia. Феминизм.

[10] https://znanierussia.ru/articles/%D0%AD%D0%BC%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%B8%D0%BF%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F_(%D1%81%D0%BE%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F) / Знание Вики. Эмансипация.

Rayhonoy SAIDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori

BADIIY MATNNING STRUKTUR TAHLILIDA MUNOSABATLAR VA DISKURSDA BELGI MOHIYATI

Annotatsiya: asardan farqli ravishda matn moddiy bo‘lmay, inson tafakkuri jarayonlari bilan bog‘liq, ya’ni matn mohiyati kitobxon (tadqiqotchi) o‘y-xayollari, mantiqiy mushohadalari davomida ayonlashib-aniqlanib boradi. Matn belgiga qarab anglashiladi. U bildiruvchi doirasi ish ko‘radi, bilinuvchi esa matn taraqqiyoti davomida ortga surila boradi. Buning natijasida esa matn ramziylik kasb etib boradi. Ushbu maqolada matnning mutolaa bilan chambarchas bog‘liqligi, uning mohiyati o‘qish jarayonida oydinlashib borishi, uning harakati, tarkibidagi belgilarning turlicha munosabatlari aynan mutolaa davomida yuzaga kelib, matn cheksizligi namoyon bo‘lishi oydinlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: strukturalizm, kod, semiotika, belgi, ramz, belgi strukturasi, sintagmatik tafakkur, bildiruvchi, bilinuvchi, ramziy tafakkur, paradigmatik tafakkur, belgi munosabatlari.

Аннотация: в отличие от произведения, текст не материален, а связан с мыслительными процессами человека, то есть суть текста становится ясной и понятной через размышления и логические наблюдения читателя (исследователя). Текст понимается на основе персонажа. Действует круг означающего, в то время как означаемое отодвигается назад по мере развития текста. В результате текст приобретает символичность. В статье объясняется, как текст тесно связан с чтением, как его сущность становится ясна в процессе чтения, как его движение, различные отношения между символами в его содержании возникают именно во время чтения, раскрывая бесконечность текста.

Ключевые слова: структурализм, код, семиотика, знак, символ, знаковая структура, синтагматическое мышление, означающее, означаемое, символическое мышление, парадигматическое мышление, знаковые отношения.

Annotation: unlike a work, a text is not material, but is associated with the processes of human thought, that is, the essence of the text becomes clear and clear during the reader’s (researcher’s) thoughts and logical observations. The text is understood based on the sign. It is the circle of the signifier that works, and the signified is pushed back during the development of the text. As a result, the text acquires symbolism. This article clarifies the close connection between the text and reading, the fact that its essence becomes clear during the reading process, its movement, and the various relationships of the signs in its content arise precisely during reading, revealing the infinity of the text.

Keywords: structuralism, code, semiotics, sign, symbol, sign structure, syntagmatic thinking, signifier, signified, symbolic thinking, paradigmatic thinking, sign relations.

Strukturalizm kod, semiotika esa belgi asosida ish ko‘radi. Shu sababdan semiotika mutaxassislari o‘z tadqiqotlarida mazkur muammoga alohida e’tibor qaratganlar. Rolan Bartning “Belgi tasavvuri” nomli maqolasi shu nuqtayi nazardan ahamiyatga molik. Bu ilmiy asar 1963-yilda “Arguments” jurnalining 27-28-sonlarida e’lon qilingan. Olimning “Mifologiyalar” kitobida belgi strukturasi, uni tashkil etgan uzvlar (bildiruvchi, bilinuvchi) xususida fikr yuritilgan bo‘lsa, bu ishda belgi munosabatlari yoritilgan. Maqola quyidagi mulohaza bilan boshlanadi: “Har qanday belgi o‘zida uch xildagi munosabatlarni mujassamlashtiradi”. Shundan keyin yuqorida aytilgan munosabatlarning har biri alohida holda izohlanadi: ichki munosabat – bu o‘z strukturasida bildiruvchi va bilinuvchini birlashtiradi. Bu virtual (tasavvuriy) bog‘lanish hisoblanib, bir belgini boshqa bir qancha belgilar bilan tutashtiradi. Rolan Bartning ko‘rsatishicha, bunday munosabat ramzlar tarzida hayotda va matnlarda uchraydi: salib nasroniylikni, Kommunarlar devori kommunani ifodalaydi.

Qolgan ikkitasi esa tashqi bog‘lanishlar bo‘lib, ulardan biri paradigmatik munosabatlarni bildiradi. Bu – o‘xshashlik, yaqinlikka asoslangan aloqadorlik. Bunda belgi yakka holda biror-bir ma’no ifodalay olmaydi. Masalan, qizil, sariq, yashil ranglari o‘z holida belgi bo‘la olmaydi. Ularni muayyan bir tizim (svetofor) doirasiga kiritsakkina, qizil harakatga taqiqni, sariq biroz kutishni, yashil esa harakatga ruxsatni anglatadi.

Belgi munosabatlarining uchinchi turi, olimning aytishiga ko‘ra, “qarindoshlik”ka emas, “qo‘shnichilik”ka asoslangan. Bunda belgilar orasida

o‘zaro yaqinlik mavjud bo‘lmaydi, ular faqat matn tarkibida yonma-yon keladilar. Mana shunday aloqadorlik esa belgi munosabatlarini navbatdagi shakli – sintagmatik bog‘liqlikni tashkil etadi.

Rolan Bart mazkur tadqiqotida yuqorida qayd etilgan munosabatlarning strukturalistlar uchun qanchalik imkoniyatlar yaratib berganini alohida qayd etgan: “ramziy tafakkur o‘zining yuzaga kelish ibtidosida ramzlar sotsiologiyasi, qisman, psixoanalizda garchi Freydning o‘zi ayrim ramzlarni tushuntirib berishning iloji yo‘qligini tan olsa-da, yetakchi o‘rinda edi”. Olim, shu bilan birga, keyingi paytlarda ramz so‘zining struktur-semiotik jihatdan birmuncha eskirgani, uning o‘rnini belgi, nutq yoki nutqiy bo‘lak atamalari egallayotganini qayd etgan.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinyaptiki, Rolan Bart maqolaning keyingi o‘rinlarida munosabat atamasi o‘rnida tafakkur istilohini qo‘llagan: ramziy munosabat – ramziy tafakkur; paradigmatik munosabat – paradigmatik tafakkur; sintagmatik munosabat – sintagmatik tafakkur. Bizning fikrimizcha, atoqli semiotikning bunday tarzda ish ko‘rishi matn tabiati va uning inson tafakkuri sathlarida zohir bo‘lishidan kelib chiqqan. Binobarin, matndagi har qanday munosabat inson miyasidagi psixik jarayonlarning murakkab mexanizmi harakatidan kelib chiqadi.

Rolan Bartning semiotikaga oid asosiy ishlari mif va matn nazariyasiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, matn bo‘yicha o‘zining ilmiy-nazariy qarashlarini amaliyotga tatbiq etish, ayrim bir matnlarni struktur-semiotik metodlar asosida tadqiq etishga ham harakat qilgan. Uning “Edgar Poning bir novellasi matniy tahlili” tadqiqoti yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Bu ish 1973-yilda Parijda chop qilingan “Semiotique narrative et textuelle ed. Cl. Chabrol” to‘plamida e’lon qilingan. Garchi ushbu ilmiy asar struktur usullar asosida bitta matnni tahlil etish va shu asosda uning ikkilamchi varianti – modelini yaratishdan iborat bo‘lsa-da, tadqiqotchi ish avvalida ayrim nazariy-poetik qarashlarini bayon qilgan. Shuningdek, Rolan Bart shu o‘rinda bu ishdan maqsadi matnning ko‘p mazmunligini tafakkur va tasavvur etish hamda boshdan kechirish ekanligini ham qayd etgan. Muallif Edgar Poning novellasi tahliliga kirishishdan avval tadqiq jarayonida quyidagi usullarni qo‘llashini ko‘rsatgan:

1) dastavval tanlab olingan matn qisqa segment (nutq bo‘lagi)larga ajratib chiqiladi (olim bunday bo‘laklarni leksiya deb ham atagan). Bu leksiyalardagi birlik (lisoniy yoki sintaktik qurilma) da albatta, bildiruvchi(lar) mavjud bo‘lishi kerak, zero. Usiz segmentni tahlil etishning iloji bo‘lmaydi. Olimning ta’kidlashicha, bunday bo‘laklarni hosil qilish erkin-ixtiyoriy bo‘lib, qat’iy mezon va talablarga rioya etish shart emas. Eng muhimi, matniy bo‘lakda bildiruvchi(lar) bo‘lishi lozim;

2) navbatdagi bosqichda har bir leksiyadagi konnatsiyalar ko‘rib chiqiladi. Ishda ko‘rsatilishicha, juda ixcham bo‘lib, ular elakning “ko‘z”lariga monand bo‘lishi zarur;

3) tahlil doimiy harakatlanish prinsipi asosida olib boriladi: butun matn qadam-baqadam birma-bir ko‘rib chiqiladi;

4) matn tahlili davomida ayrim ma’nolar tahlil etilmay qolishi mumkin, ammo bu kamchilik yoki yetishmovchilik sanalmaydi. Chunki tahlildan maqsad uzil-kesil natijalar emas, ma’no yuzaga kelishining manzillarini aniqlash hisoblanadi. Tahlillar davomida muallif va u bilan aloqador tarixiy-adabiy muammolar haqida fikr yuritilmaydi.

Tadqiqotchi dastlab novella matni muqaddimasini o‘n yettita segment (leksiya)ga ajratgan. Bunda matniy bo‘laklarning hajmi bir sahifani tashkil etadi.

Ularning struktural tahlili esa o‘n uch sahifadan iborat. Bu hol shu narsadan dalolat beradiki, tahlillar juda chuqur va har tomonlama bo‘lganligidan ularning hajmiy darajasi matnning o‘ziga qaraganda bir necha marta ortiq bo‘lgan. Fikrimizni tasdiqlash uchun birinchi segment (“Mister Valdemar bilan bo‘lgan voqea to‘g‘risidagi haqiqat”)dagi bildiruvchilardan biri – mister Valdemarni olib ko‘raylik. Strukturalistning tahliliga ko‘ra, ismning o‘zidayoq ikkita konnotatsiya mavjud ekan: a) sotsioetnik kod – qahramon nomidan uning polyak ekanligi aniqlashadi; b) ramziy kod – Valdemar ismi “okean yoki dengizning qa’ri ma’nosini bildiradi. Bu esa matnda ro‘y bergan voqeaning tabiatdan tashqarida kechganligiga ishoradir. Valdemar so‘zidan oldin kelgan mister lisoniy birligi, shu bilan birga, konnotatsiyasi ijtimoiy kod bo‘lib, u qahramonning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligini ifodalagan.

Umuman olganda, Rolan Bartning matn strukturasi, uning ichki va tashqi aloqalari tadqiqiga bag‘ishlangan nazariy va amaliy ishlari metodologik nuqtayi nazardan juda muhim ilmiy-poetik ahamiyatga ega. Bu ishlar nafaqat strukturalizm, shu bilan birga, poststrukturalizm taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi bilan ahamiyatlidir.

Y.M. Lotmanning “Struktura xudojestvennogo teksta” (1970) kitobida badiiy matnning o‘ziga xos struktur-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda san’at, shu jumladan, badiiy adabiyot o‘ziga xos til sifatida baholangan va u boshqa belgi tizimlari bilan bir qatorda o‘rganilgan. Olimning fikricha, belgi tizimlarining zamonaviy nazariyasi

kommunikatsiyaning puxta ishlab chiqilgan konsepsiyasiga ega, bu esa badiiy muloqotning umumiy xususiyatlarini belgilashga imkon yaratadi.

Y.M. Lotman o‘zigacha faoliyat ko‘rsatgan strukturalistlar, xususan, F. de Sossyur va Rolan Bartning tabiiy va sun’iy tillar bo‘yicha qarashlarini madaniyat, xususan, badiiy adabiyotga tatbiq etdi. Sossyur ta’limotiga ko‘ra, til belgilar tizimi bo‘lsa, Rolan Bart va Yuriy Lotman so‘z san’atini shunday tizim, deb hisoblaydilar.


Klod Levi Stross va Rolan Bart singari Y.M. Lotman ham matn deganda tabiat va jamiyat hodisalari, til, madaniyat, san’at va badiiy adabiyot namunalarini nazarda tutadi.

Rolan Bartning “Tillarning urushi”, “Tillarning bo‘linishi”, “Til guldirosi” degan maqolalarida bu muammo asosiy markazga qo‘yilgan. Uning “Tillarning bo‘linishi” nomli ishida Onore Balzak, Gustav Flober, Marsel Prustning adabiy merosi namunalariga tayanilgan holda madaniyatning ilmiy, texnik, sinfiy (burjua) kabi tillari mavjudligi ko‘rsatiladi. Olimning yozishicha, Prustning ijodi tillarning haqiqiy ensiklopediyasidir. Bu yozuvchining asarlarida so‘z mimesisining barcha turlarini, personajlarning taqlidlari, ideolektlarni, shuningdek, feodal to‘ra, snob(olifta), oilaviy klanlar tillarini uchratish mumkin.

Rolan Bart tillarning bo‘linishiga “Tillarning urushi” nomli ishida ham e’tibor qaratgan. Uning qayd qilishicha, janubiy-g‘arbiy Fransiya hududidagi ba’zi bir hovlilar darvozasida shunday yozuvlar bor ekan:

“Badjahl it bor” 2.“Ehtiyot bo‘ling: it” 3.“Qo‘riqchi it bor”

Olim bu ogohlantiruvchi bitiklarni diskurs deb ko‘rsatgan. Chindan ham ular hovli sohiblarining o‘tkinchilar bilan muloqotini ifodalaydi. Garchi bu yozma murojaatlar bitta xabar – odamlarni it borligidan ogohlantirish)ni ifodalasa-da, ular turli tillar vositasida ifoda qilingan. Biz tadqiqotchining fikrini yaxshiroq tushuntirish uchun chizmaga murojaat qilamiz:



Bunda A1, A2, A3 diskursning bildiruvchilari, F1, F2, F3 lar esa mana shu bildiruvchilar anglatgan konseptlar bo‘lib hisoblanadi. Maqola muallifi qayd etganidek, diskursda shakl jihatdan farq bitta xabar ifodalansa-da, har bir ogohlantirishning konsepti o‘zgacha mazmunga ega, ya’ni ular turlicha tillar orqali ifodalanmoqda. Bu tillarning birinchisi uy egasining yovuzlikka xayrixohligini ko‘rsatgan, ikkinchisi himoya, homiylik, uchinchisi esa qonun asosida ish ko‘rilayotganidan darak beradi. Ko‘rinyaptiki, diskursning turli shakllarida bir-biridan jiddiy farq qiluvchi tillar yuzaga chiqadi.

Shu boisdan tabiiy tildagi birmuncha gaplarni matn deb e’tirof etish uchun ular badiiy tashkillashtirish darajasidagi qandaydir ikkinchi xil strukturani yuzaga keltirishiga ishonch hosil qilish lozim. Chindan ham badiiy matn bo‘yicha aksar izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, har qanday matn, albatta, o‘z strukturasiga ega. Agar ana shunday qurilmaga ega bo‘lmasa, bu uning matn darajasiga ko‘tarila olmaganligiga dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек совет энциклопедияси. – Тошкент, 1973. – Б. 5
2. Ўзбек миллий энциклопедияси.5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон милли энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 203.. – Б. 521.
3. Клод Леви Стросс. Структурная антропология. - Москва, 1985.
4. Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. - Москва: Прогресс, 1989. - С. 48-141.
5. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б.59.
6. ABDUGANIEVNA, S. R. The Role of Semiotics in Literature. JournalNX, 6(09), 190-193.
7. Abduganievna, S. R. Semiotic Analysis of a Literary Text. International Journal on Integrated Education, 3(3), 51-56.
8. М.Б. Храпченко.Собрание сочинений в четырех томах. Том четвертый. Художественное творчество, действительность, человек. – Москва: Художественная литература, 1983. – С.240.

Umida SHERMATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti

JADID ADABIYOTI MANBALARIDA DA’VATKOR RUH

Annotatsiya: mazkur maqola jadid adabiyotini qiyosiy tahlil qilish masalalariga bag‘ishlanadi. Maqolada jadid adabiyoti, xususan, Cho‘lpon lirikasida mumtoz adabiyot an’analarining tahlili va talqini yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *Vatan tuyg‘usi, da’vatkorlik, mushohadakorlik, jangovarlik, kurashchanlik ruhi, “Go‘zal” she’ri.*
Annotation: the article is devoted to the issues of comparative analysis of Jadid literature. The article examines the analysis and interpretation of Jadid literature, in particular the traditions of classical literature in Cholpan’s lyrics.
Keywords: *the feeling of Homeland, calling, observation, combativeness, the spirit of struggle, the poem “Beautiful”.*
Аннотация: статья посвящена анализу призывающего и революционного духа в джадидской литературе на основе сравнительного подхода. Особое внимание уделяется лирике Чулпана, в которой прослеживается переосмысление традиций классической литературы. В исследовании раскрываются такие темы, как патриотизм, пробуждение сознания, наблюдательность и боевой настрой. Центральное место занимает анализ стихотворения “Гузал” (“Прекрасная”), как отражения идеологической и эмоциональной сути джадидского движения.
Ключевые слова: *Родина, призыв к действию, наблюдательность, боевой дух, революционность, “Прекрасная”, Чулпан, классическое наследие, джадидская литература.*

Ma’lumki, har bir jamiyat o‘zidan keyingi jamiyatga jamiki boyliklarini meros qilib qoldiradi. Ammo yangi jamiyat mazkur boyliklarni qanday bo‘lsa, shundayligicha meros qilib olavermaydi. Balki yangi sharoitga va o‘z manfaatlariga mos tushadigan boyliklargagina ega bo‘ladi. Ularning ichida hech bir mezonga to‘g‘ri kelmaydigan va baholab bo‘lmaydigan bir boylik borki, u kindik qoni tomgan yurt, inson ko‘z ochib ko‘rgan ma’vo – VATAN deb ulug‘lanadi. Insonning jamiki orzu-armonlari Vatani bag‘rida kamol topadi, yuksak pog‘onalarga ko‘tariladi.

“A.S.Pushkin, – deb yozgan edi V.G.Belinskiy, – abadiy yashaydigan va doim harakatda bo‘ladigan, o‘limga qaysi nuqtada uchragan bo‘lsa, o‘sha nuqtada qotib qolmaydigan, balki jamiyatning ongida o‘sib boraveradigan hodisalar jumlasidandir. Har bir davr ular haqida o‘z hukmini chiqaradi va bu davr o‘sha hodisalarni qanchalik to‘g‘ri anglamasin, hamma vaqt o‘zidan keyingi davr uchun ular haqida qandaydir yangiroq va ancha to‘g‘riroq fikr bayon qilishga o‘rin qoldiradi”[1] .

Ayni mulohazalar qaysidir ma’noda vatan tushunchasiga ham daxldordir. Jumladan, o‘tgan asrning boshlaridagi jadidchilik davridagi vatan tushunchasi bilan sovet davridagi vatanga bo‘lgan munosabat, yoxud sovet davridagi vatan tushunchasi bilan istiqlolga erishganimizdan keyingi davrdagi vatanga munosabat o‘rtasida o‘ziga xos tafovut bo‘lganligi ayon haqiqatdir.

Binobarin, milliy uyg‘onish davrida vatanparvarlik Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Hoji Muin, Cho‘lponlar ijodida da’vatkorlik, mushohadakorlik, jangovarlik, kurashchanlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, mustaqillik davri adabiyotida shukronalik, mas’uliyat, kelajakka ishonch, faxr va g‘urur tuyg‘ulari bilan to‘yintirilganini kuzatish mumkin. Masalan, Fitrat “Yurt qayg‘usi” she’rida milliy ozodlikka bo‘lgan qarashlarini Vatanga bo‘lgan teran hissiy kechinmalari orqali ifodalaydi.

“Ey, ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! – deb murojaat qiladi u. – Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding? Ey chingizlarning, temurlarning, o‘g‘uzlarning, otillarning shonli beshiklari!

Dunyoni “urho”lari bilan titratgan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog‘ini ko‘klarga uchiraturg‘an tog‘ gavdali o‘g‘lonlaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir? Nechun-nechun? Gapur menga, ey, Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi!..

...Ey, oh, yolg‘iz, tarqalmamishdir”[2] .

Undan farqli o‘laroq, Erkin Vohidovning quyidagi fikri mustaqillik davri vatanparvarligining yorqin dalilidir.

“Biz yo‘qotgan qadrini qayta topayotgan xalqmiz. Masjidlarimiz, muqaddas kitoblarimiz, unutilgan bayramlarimiz, udumlarimiz, odatlarimiz qaytib

1 Белинский В.Г. Собр.соч. в трёх томах, том 2. – Москва: Просвещение, 1948. С.158.

2 Фитрат А. Танланган асарлар. –Тошкент: “Маънавият”, 2000. 34-бет.

kelayotgan bir zamonda, o‘z ona tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz munosib o‘rinni topayotgan bir davrda o‘zbekman degan har bir inson o‘z yurti kechmishini va hozirini mukammal bilmog‘i... lozim”[3] .

Ma’lumki, har bir jamiyat mafkurasi va tafakkurida o‘sha jamiyat muammosi zuhur topadi. Shunga muvofiq xalqning ruhiyat bilan bog‘liq hayotga qarash tarzi ham o‘zgaradi. “Yetmish yil davomida ma’naviyat, milliy axloq asosi bo‘lgan dinida, o‘tmishida o‘zining kim bo‘lganini namoyish qilish qudratiga ega bo‘lgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo‘lgan xalq istiqloldan so‘ng bunga muyassar bo‘lgach, unda o‘zidan, o‘z millatidan g‘ururlanish tuyg‘usi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo‘ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo‘ladi. U hamma narsani yorqin ko‘radi, mohiyatini to‘g‘ri anglaydi”[4]

Yurtimiz tarixini yorituvchi tarixiy-ilmiy manbalarning katta qismi bosqinchilik urushlari hamda dushmanga qarshi kurashgan vatanparvar shaxslar ko‘rsatgan qahramonlik tasviriga bag‘ishlangan.

Professor U.Jumanazarov vatanparvarlik tarbiyasiga doir tarixiy asarlar to‘g‘risida shunday deb yozadi: “Xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lmish bu asarlar (tarixiy, adabiy-badiiy manbalar – U.Sh.) bizga faqat uzoq o‘tmish qa’rida sodir bo‘lgan jang-u jadallar, fidoyiliklar haqida guvohlik beribgina qolmay, balki ular tarixiy-badiiy saboq ahamiyatiga ham egadir”[5] .

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Cho‘lpon hayoti va ijodining “tarixiy-badiiy saboq ahamiyatiga” ega ekanligining sababi shundaki, buyuk yozuvchi Vatanning yorqin kelajagini tasavvur etmaganida, unga erishish mumkinligini va lozimligini ong-u shuuriga singdirmaganida edi, tengsiz mafkuraviy kurashlarga chog‘lanmagan, hattoki o‘zini qurbon qilishgacha borib yetmagan bo‘lar edi. Shuning o‘ziyoq tajovuzkor siyosatga ochiq-oshkora qarshi aziz boshini kundaga qo‘yganida ham o‘zining millatchi ekanligini mardona e’tirof etgan vatanparvar shoir ijodida so‘z va ish (amal) birligining tajassumi yosh bo‘g‘inlar tarbiyasida yorqin namunadir.

Cho‘lponning 1914-yil 4-iyun kuni bosilib chiqqan birinchi adabiy-tanqidiy asari “Adabiyot nadir?” degan maqolasi shaklan juda ixcham bo‘lsa-da, mazmunan g‘oyat teran. “Undagi fikr va mulohazalar shu qadar pishiqki,” – deb yozgan edi O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, – o‘n olti yashar o‘smirning shunchalik tiyraklik bilan qalam tebratganiga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q.

Xuddi shu yillarda qo‘shni Qozog‘istonda ham, Ozarbayjon yoxud tatarlar yurtida ham adabiyotning mohiyatini izlash, uning jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyatini aniqlashga urinishlar bo‘lgan. Ozarbayjon adiblari Jalil Mamatqulizoda, Abdurahim Haqverdiyevlarning, tatar yozuvchilari Abdulla To‘qay yoxud Olimjon Ibrohimovlarning XX asr boshlarida chop etilgan adabiyot haqidagi maqolalari fikrimizning dalilidir”[6] .

Abdulhamid Cho‘lpon fikricha, adabiyot – millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma’naviy boyligidir. Ajabki, Cho‘lpon hali o‘smirligidayoq millat taqdiri, demakki, vatan taqdirini, istiqbolini ma’rifatparvarlik bilan bog‘laydi. “Adabiyot o‘lmag‘an (bo‘lmag‘an) va adabiyotning taraqqiysiga chalishmag‘an (ko‘maklashmagan) va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur”. Uning xulosasi ham keskin va aniq: “Adabiyot yashasa – millat yashar”[7] .

Abdulhamidning bolaligi va o‘smirligi Turkistonda va butun Sharq mamlakatlarida G‘arb imperializmi va mustamlakachiligiga qarshi xalq milliy ozodlik harakatlari kuchaygan, milliy uyg‘onish boshlangan davrga to‘g‘ri keldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sayid Rizo Alizoda, Munavvar Qori, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Ahmad Zakiy Validiy, Abdurauf Fitrat, Is’hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa jadid ma’rifatchilari jamiyat hayotini isloh qilish, yangilash tarafdorlari sifatida, mahalliy maktab va madrasalarda diniy ilmlar bilan birga, biologiya, zoologiya, geografiya, astronomiya, tarix, fizika, geometriya kabi dunyoviy ilmlarni o‘qitish talabi bilan chiqdilar. Jadid ma’rifatchilari qrimlik buyuk pedagog Ismoil Gaspirali nashr etayotgan “Tarjimon” gazetasida bosilib turgan milliy uyg‘onishga bag‘ishlangan asarlardan ruhlanib, yangi gazetalar nashrini yo‘lga qo‘yish bilan birga, yangi usuldagi maktablar ochdilar. Jadid ma’rifatchilari Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligida xon va amirlarni ham vatanparvarlik harakatiga tortishga urindilar.

Fitratning Buxoro amiri Olimxonga kuchli zaharxandalik ruhida yozgan quyidagi maktubi buning yorqin dalilidir. Maktubda shularni o‘qiymiz: “Sening qodir qo‘ling idora qilayotgani musulmon yurtida iymonimizni po‘pg‘a, azonimizni qo‘ng‘iroqqa,

3 Маънолар маҳзани. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2001. 7- бет.
4 Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. –Тошкент: Янги нашр, 2010. 3-бет.
5 Жуманазаров У. Жасорат ва садоқат талқини. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 3-бет.
6 Шарафиддинов О.Адабиёт яшаса, миллат яшар // Шарқ юлдузи. – Тошкент,1993 №9, 34-бет.
7 Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. 4-бет.

masjidimizni cherkovga almashtirmoqdan o‘zga chora qolmas. Bizning xaloskorimiz kim? Bizning ojiz qo‘limizdan tutib, bu balo girdobidan kim qutqara oladi? Kofirlar butun olam oqillarining nazdida o‘z nomini Inson yozdirsalar, bizning jimod?.. Kofirlar kamoli davlatmandlik va osudalik bilan hayot kechirsalar-u, biz nega gadoylikka rozi?”[8]

Buyuk ma’rifatchi, millatning tarbiyachisi Abdulla Avloniyga kichik zamondosh va maslakdosh bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon “Buzilgan o‘lkaga” she’rida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘ngilga borib tegadigan quyidagicha o‘tli satrlar bitishi ana shunday qarashlar mahsulidir:

...Salqin suvlar tog‘dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg‘ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig‘lar kabi ingraylar?
Yov bormi deb to‘rt tarafni tinglaylar?![9]

She’rda shoir yurt qayg‘usini izhor qilar ekan, bu o‘lkaning tog‘lari yuksakligini, buloqlari jannatdagi kavsar suviday toza va tiniqligini, lekin bu suvlarning haqiqiy egalari g‘aflatdaligini, egalari loqaydligi bois yovlar kelib, izg‘ib yurganini betakror poetik manzaralarda, tabiatning xalq qismati yanglig‘ majruhlik holatlarida qalamga oladi.

Vatan taqdiri ikki o‘t o‘rtasida turgan bir vaziyatda kurashga da’vat etuvchi bunday she’r bilan o‘quvchi ahliga murojaat qilish olov bilan o‘ynashish bo‘lib, ijodkordan so‘ngsiz jasorat talab qilishi tayin edi. Shuning uchun ham vatan qayg‘usini yurak dardi deb his etgan Cho‘lponning vatandan judolik iztiroblari, orzu-armonlari hozirgi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi, istiqlolni qadrlashga o‘rgatadi.

Cho‘lponning adabiy, axloqiy-estetik qarashlarining pedagogik nuqtayi nazardan kamol topishida “shaxs – millat – Vatan” konsepsiyasining konseptual asoslari qanday manbalarga suyanadi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bizningcha, bu borada mustamlaka sharoitida muqarrar yuzaga keladigan milliy ozodlik harakatlarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Bundan shaxs erki milliy ozodligi va Vatan obodligi negizida turishini anglash qiyin kechmaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Cho‘lpon she’rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzu doirasi hamda yetakchi konsepsiyasining muallif shaxsi, axloqiy-estetik qarashlari va ijodiy-ijtimoiy faoliyati bilan bog‘lab talqin qilinganini ko‘rish mumkin.

Professor Olim Sharafiddinovning o‘sha davrdagi qarashlari buning yorqin dalilidir.

Munaqqid fikricha, Cho‘lpon she’rlarining barchasini nazardan o‘tkazib yaxlit tasavvur hosil qilinsa, to‘laqonli lirik qahramon siymosi namoyon bo‘ladi [10]. “Zamon g‘oyat shiddatli, g‘oyat ziddiyatli edi, shuning uchun Cho‘lponning lirik qahramoni ham g‘oyat murakkab xarakter kasb etadi. Shoirning bunday she’rlarini shiddatli ijtimoiy o‘zgarishlar davrining badiiy hujjati deyish mumkin”[11] .

Shuning uchun ham Cho‘lpon ijodi tahlilida shoir she’rlarining yuksak badiiyat namunalari bo‘lish bilan birga, ayni paytda o‘sha davrdagi vatanparvarlik tarbiyasiga oid qarashlarning badiiy hujjati ekanligiga ham e’tibor qaratish zarur.

Cho‘lponning Vatan tuyg‘usiga bag‘ishlangan she’riy asarlarida lirik qahramonlar qalbidan chuqur joy olgan go‘zallik va nafosat, qayg‘u va quvonch tuyg‘ularining nozik tovlanishlari ko‘proq tabiat tasviri fonida berilganini kuzatish mumkin. Zero, shoir tabiat go‘zalliklariga nisbatan oshiqona munosabati orqali Vatanga bo‘lgan inja tuyg‘ularini g‘oyatda nafis va nozik pardalar qatiga joylaydi.

1919-yilning fevralida yozilgan mashhur “Go‘zal” she’rida shoir ona Vatan go‘zalligi va muqaddasligini, yulduz, Oy, Kun (Quyosh)ning ulug‘vorligi bilan muqoyasa qilish orqali ayon etadi:

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘rayman.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: “Men uni tushda ko‘ramen:
Tushimda ko‘ramen, shunchalar go‘zal,
Bizdan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal!..”

Ko‘rinadiki, lirik qahramonning tasavvur ufqi nihoyatda keng. Uning qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikishi, “yulduzning uyalib boshini bukishi”, hatto tushlarida ko‘rishi, shamolning sochlarini yoyib, yo‘ldan adashishi bir nuqtada – vatanning go‘zalligi qarshisida to‘qnashishidan ma’lumki, yetti iqlimda uning o‘xshashi yo‘qdir.

Adabiyotshunoslikda she’r tahlili yuzasidan talaygina olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan. Jumladan, akademik olim Naim Karimov she’r tahlilida she’rning bosh qahramoni go‘zal timsolida sevikli yor nazarda tutilganini ta’kidlash bilan birga yor go‘zalligini majoziy obrazlar yordamida tasvirlashi haqida gapirgan.

She’r yuzasidan T.Abdukarimovning bildirgan fikrlari ham diqqatga sazovor. Metodistning she’r mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtirishda shoirning g‘oyaviy niyati Vatan sevgisini ulug‘lash ekanligi haqidagi fikrlari kishini mushohadaga chorlaydi.

[8] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. 95-96-бетлар.
[9] Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. 88-бет
[10] Жабборова Д. Чўлпоншунослик. – T.:Muharrir nashriyoti, 2019. 90-б.
[11] Шарафиддинов О. Чўлпон. – Т.: Чўлпон, 1991. 29-31-б.

Olima Sh.Hojiyeva she’r tahlili ustida to‘xtalib, Cho‘lpon ijodida folkloriy obrazlar ko‘lami, “Go‘zal” she’rida ham folga aloqador motivlarning mavjudligini aytib o‘tgan: “Quyidagi misralarda, – deb yozadi olima, – lirik qahramonning osmon ruhlariga murojaat qilib, yulduz va oy chiqishiga qarab o‘z taqdirlarini oldindan bilishga intilishlari ayonlashadi:

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen...”[12]

She’rning o‘quvchining diqqatini tortadigan jihati uning tuzilishidir. Cho‘lpon bu she’rini yaratishda Alisher Navoiydan andoza olgani sezilib turadi. Cho‘lpon ijodining bu jihati haqida navoiyshunos olim Homil Yoqubov: “ U (Cho‘lpon – U.Sh.) Navoiy lirikasining badiiylik sir-u asroridan ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lib, undan ijodiy isti’foda etish va o‘zlashtirishga urinishda Alloh ato qilgan fitriy (tug‘ma) salohiyatini kashf etishda muvaffaqiyat qozonib, o‘zbek xalqining milliy iftixoriga sazovor bo‘ladi... Cho‘lpon Navoiyning milliy (turkiygo‘ylik ma’nosida) lirik an’anasining son-sanoqsiz hamma turlarini emas, boshlicha bir turini o‘z talantiga xos usulda o‘zlashtirdi” . Bizningcha, shunday o‘zlashtirishlardan biri “Go‘zal” she’rining yaratilish shaklidir.

She’r ko‘p jihatdan badiiy san’atlardan biri tadrij (she’rda hisni, manzarani va ta’sirni poyama-poya tadrij bilan kuchaytirishga xizmat qiluvchi usul) ning qo‘llanishi jihatidan Navoiyning “Jonga chun dermen...” deb boshlanuvchi g‘azaliga o‘xshaydi. Navoiy ko‘ngilga ishq o‘ti tushishi sabablarini jondan, jismdan, bag‘irdan, ko‘ngildan, ko‘zdan so‘ragani kabi Cho‘lpon ham sevgisini so‘roqlab yulduz, oy, quyosh va shamolga murojaat qiladi. Natijada lirik qahramon qalb kechinmalari Navoiy g‘azalida bo‘lgani kabi darajama-daraja o‘sib boradi.

Cho‘lpon she’rining xotimasida ham Navoiy g‘azaliga monandlik ko‘zga tashlanadi. Navoiy o‘z g‘azalini:

Ey Navoiy, barcha o‘z uzrin dedi, o‘lguncha kuy,
Kim sanga ishq o‘ti – o‘q ermish azalning qismati,

– deya yakunlasa, Cho‘lpon ham she’r yakunida Navoiy an’anasiga sodiq qoladi:

Men yo‘qsil, na bo‘lib uni suyubmen,
Uningchun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo‘r ishga berib qo‘yibmen,
Men suyib...men suyib, kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal![13]

Hayotda nimaiki go‘zal ekan, u axloqiy (Flober)ligi nazarda tutilsa, Cho‘lponning Vatan erki bilan bog‘liq go‘zallik tushunchasining qay darajada teranlik va cheksizlik kasb etishini anglash qiyin kechmaydi.

Yoshlarni Vatan va xalq tarixini shunchaki biluvchi kishilar emas, balki uni qalbdan his etuvchi, tushunuvchi, samarali faoliyati orqali uning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi chin vatanparvar va xalqparvar qilib tarbiyalashda Cho‘lpon she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘zlashtirish muhim vosita vazifasini o‘taydi.

[12] Ҳожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеъриятнинг янгиланиши. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2019. 70-бет.

[13] Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Т.: “Akademnashr”, 2016. 31-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik, 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Belinskiy V.G. Sobr.soch. v tryox tomax, tom 2. – Moskva: Prosvesheniye,1948.
3. Yoqubov H. Cho‘lpon va Navoiy. – Toshkent: Sharq, 1997. 22-bet.
4. Jabborova D. Cho‘lponshunoslik. – T.:Muharrir nashriyoti, 2019.
5. Jumanazarov U. Jasorat va sadoqat talqini. –Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
6. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –Toshkent: Yangi nashr, 2010. 3-bet.
7. Ma’nolar mahzani. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001.
8. Hojiyeva Sh. Cho‘lpon va milliy she’riyatning yangilanishi. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019.
9. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. 1- jild. – T.: “Akademnashr”, 2016.
10. Sharafiddinov O. Cho‘lpon. – T.: Cho‘lpon, 1991.
11. Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.



Sevinchoy YOQUBOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-pochta: *sevinchoy.yakubova@mail.ru*

O‘ZBEK JADID SHE’RIYATIDA AN’ANAVIY POETIK OBRAZLARNING YANGILANISHI

Annotatsiya: maqolada mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an’analari o‘zbek jadid she’riyati rivojiga asos bo‘lib xizmat qilgani kuzatildi. Muallif o‘zbek she’riyatidagi poetik obrazlarni kuzatib, jadid shoirlari ijodida ularga yangi ma’no va mazmun yuklatilganini tadqiq etgan. O‘zbek jadid shoirlari she’riyatida keng qo‘llanilgan “bog‘”, “gul”, “bulbul”, “qorong‘i kecha”, “yo‘l”, “darvesh – yo‘lchi” kabi obrazlar tahlilga tortilgan.

Maqolada Cho‘lpon, Fitrat singari shoirlar ijodidagi ko‘plab she’rlarining zohiriy va botiniy qirralari kuzatilib, muayyan umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: she’riyat, ramz, talqin, tuyg‘u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, botiniy mazmun.

Аннотация: в статье отмечается, что лучшие традиции нашей классической литературы послужили основой развития современной узбекской поэзии. Автор прослеживает поэтические образы в узбекской поэзии и исследует, как им придается новый смысл и содержание в произведениях современных поэтов. Такие образы, как “сад”, “цветок”, “соловей”, “темная ночь”, “путь”, “дарвеш-юльчи” которые широко используются в поэзии современных узбекских поэтов.

В статье рассмотрены внешние и внутренние аспекты многих стихотворений таких поэтов, как Чулпон, Фитрат, сделаны некоторые обобщения.

Ключевые слова: поэзия, символ, интерпретация, чувство и переживание, лирический герой, искусство, внутреннее содержание.

Annotation: the article notes that the best traditions of our classical literature served as a basis for the development of modern Uzbek poetry. The author follows the poetic images in Uzbek poetry and investigates how they are given new meaning and content in the works of modern poets. Images such as “bog‘”, “gul”, “bulbul”, “qorong‘i kecha”, “yo‘l”, “davrvesh – yo‘lchi” (“garden”, “flower”, “nightingale”, “dark night”, “way”, “darvesh-yulchi”), which are widely used in the poetry of modern Uzbek poets, are analysed.

In the article the external and internal aspects of many poems of such poets as Cholpon, Fitrat have been observed and certain generalizations have been made.

Key words: poetry, symbol, interpretation, feeling and experience, lyrical hero, art, inner content.

Badiiy ijodning asosini obrazli fikrlash tashkil etib, adabiyotshunoslikda obrazga turli xil munosabat bildirilgan. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov badiiy obrazni: *“... borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi, tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliq*” [Quronov D. 2004:11] ekaniga diqqat qaratadi. Obrazlar namoyon bo‘lishida: a) konkretlik; b) individuallashtirilgan umumlashma ekanlik; d) ratsional va emotsional birlik ekani; e) metaforiklik; f) assotsiativlik muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Adabiyotshunos Erkin Xudoyberdiyev fikricha obrazlar quyidagi ikkita muhim xususiyati bilan ajralib turadi: a) kitobxonga hissiy ta’sir qilishni ta’minlovchi jonli, aniqlik va o‘ziga xos belgilarga boylik; b) umumiy (tipik) belgilarni mujassamlashtirishi.” [Xudoyberdiyev E. 2008: 40]

Binobarin, obrazli tafakkur hosilasi bo‘lgan badiiy adabiyot inson his-tuyg‘ulari, ong-tafakkuri va ruhini poklash, qalbini yuksaltirish orqali

umummillat taqdiriga ham kuchli ta’sir etuvchi vositadir.

Darhaqiqat, XX asrning 20-yillariga kelib badiiy adabiyot real hayotga yaqinlashdi. Janrlar tarkibi yangilandi va g‘oyaviy mazmuni, obrazlar olami mohiyat e’tibori bilan Vatan ozodligi, millat erki hamda uning ruhini uyg‘otish singari ma’rifiy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy muammolar badiiy yechimini topishga yo‘naltirildi. She’riyat xalq jonli hayoti va turmush tarziga yaqinlashgani bois, an’anaviy aruz vaznidan ko‘ra, barmoq vazniga ko‘proq murojaat etildi. Uning tili sodda, ohangi esa, tobora xalqchil bo‘la bordi. Demak, o‘zgarish va yangilanishlar “hamd” va “na’t” lar mazmuni, vazn, obrazlar olami, shakl (janr), sarlavhalanish (kompozitsiya) kabi turli sathlarda sodir bo‘ldi. Adabiyotshunos Nodira Afoqova ta’kidlaganiday: *“Jadid adabiyoti – an’ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she’riyatda ro‘baro‘ keldi.”* [Afoqova N. *2006: 9].*

Jadid shoirlarining shiddat bilan o‘zgarayotgan real hayot hodisalariga bo‘lgan hozirjavob munosabati turg‘un an’analar, xususan, poetik obraz va ramzlar qo‘llashni yangiladi, XX asr boshlari o‘zbek she’riyatini boshqa o‘zanga burib yubordi. Garchand “... *an’analarni birgina ijodkor ham boshqa o‘zanlarga burib yuborishga qodir” [Turdimov Sh. 2020: 6],* bo‘lsa-da, o‘zligini anglagan badiiy ijod ahlining aksariyati jadid adabiyotida kuzatilgan o‘zgarishlarning yuzaga chiqishiga faol hissa qo‘shishdi. Obraz tushunchasining doirasiga, nainki, inson va uning fikr-kechinmalari badiiy ifodasi, balki peyzaj tasviri, turli buyum – detallar, hayvonot dunyosi ham qamrab olinadi. Chunki badiiy obraz bir vaqtning o‘zida ham jonli voqelik aksini, ham san’atkorning o‘zligini ifodalaydi [To‘ychiyeva Sh. 2008: 4].

Mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an’analari o‘zbek jadid she’riyatiga ham asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, Cho‘lpon she’riyatidagi “oshiq” va “yor” obrazlari badiiy talqinida bu hol yorqin namoyon bo‘ladi. Shubhasiz, bu hol shoir dunyoqarashi, kamol topgan muhiti, iste’dodining tabiati, ijtimoiy hayot voqeligiga munosabat bildirish yo‘sini singari ko‘plab omillar bilan bog‘liqlikda yuzaga chiqadi. Oshiq obrazi Cho‘lpon lirikasida *“bulbul”, “qul”, “ko‘ngil”, “jon”, “daraxt”* kabi poetik timsollar bilan tanosibiy munosabatda keladi va ko‘pincha shoir “men”ini ifoda etadi.

Cho‘lpon she’rlarida kengliklarda uchishga talpinayotgan qush timsoliga ko‘p murojaat etiladi. Shoir erkka tashna, dasht-yobon kengliklari hamda dengiz haybatli to‘lqinlarini sog‘ingan qadim Sharqning asriy orzularini aslida ko‘ngil qushi ma’nosida badiiy ifoda etadi. “Ulug‘ yo‘lda” she’riga e’tibor qaratamiz:

Qushlar yanglig‘ uchaylik,
Keng cho‘llardan, dengizlardan kechaylik,
Sharqning eski chigalini yechaylik! [Cho‘lpon. 1991:190].

Albatta, yuqoridagi kabi ozodlik va hurlik sog‘inchi qafasdagi tutqun qush – Cho‘lpon, Turkiston va Sharqning she’r yozilgan davrdagi kayfiyat-holini ifoda etadi. Shoir “Ishq yo‘li” she’rida erk va ozodlik haqidagi orzu-umid va sog‘inchlarini *“qorong‘i kecha”, “yo‘l”, “darvesh – yo‘lchi”* obrazlari orqali ifoda etadi. She’r mazmunidan anglashiladiki: “*Bir kecha menga xuddi bir yildir”,* deya o‘rtanayotgan lirik qahramon g‘oyat yolg‘iz bo‘lsa-da, u umidsizlikka tushmay olg‘a intiladi.

Biroq “Raqamlik sevgi” she’rida behad cho‘zilgan hijron va: “*Yuzlaring bir, ko‘zlaring o‘n, so‘zlaring ming aldadi*“ qabilida ma’shuqaning yuz, ko‘z, so‘zlariga aldanish hollari sodir bo‘lishi lirik qahramon ko‘nglida iztirob uyg‘otadi. Bu o‘rinda mumtoz adabiyotdagi *“raqib”* obrazi: “*O‘yna, kul, guldek egil, yovlar uchun, yovlar uchun”* tarzida, ya’ni *“yovlar”* shaklida hamda ta’kidni kuchaytirish uchun takror holatda keladi. Insonlik martabasiga zid barcha noma’qul sifatlarni anglatadi.

She’rning lirik qahramoni: “*Biz yotaylik yo‘llaringda yosta, tuproq qil butun”,* deya ma’shuqa uchun fido bo‘lishga tayyor, ishq yo‘lida xokisor ekani jihatidan an’anaviy oshiqlar safida turadi. Cho‘lpon to‘rt unsur (*o‘t, suv, shamol va tufroq*)ning har birida muayyan holat, mayl va sifat mujassamligini yaxshi biladi. Shuning uchun lirik qahramon hissiyotlarini chizishda tufroqning sabr va umid, ezgu xulq hamda muruvvat ramzi ekanidan foydalanadi. Zotan tufroq bo‘lish nainki xokisorlik, balki ulug‘lik sari intilish va kibrdan poklanish, o‘zlikni anglash hamdir. Hazrat Navoiyning: *“Ey Navoiy, o‘zni maqbul istasang tufroq bo‘l”* yoxud: *“vafo ahli erur tufroq”* kabi ta’kidlarini eslashning o‘ziyoq fikrimizni dalillaydi. Demak, lirik qahramonning istirohatni tark

etib, bedorlikda iztirob chekishidan uning o‘zlikni anglash va poklanish yo‘lida ekani anglashiladi.

Qadimgi Xitoy falsafasida bir raqami – baxtsizlik ramzi. Uch raqami esa uch asosiy qudrat manbalari: (*osmon, yer va inson*) va uch yorug‘lik manbai: (*quyosh, oy, yulduz*)ni tamsil etgan [Jumayeva S. 2012: 2]. Bu jihatdan qaralganda ham, shoirning unsurlarda ma’no va mazmun ko‘rishi o‘zini oqlaydi. Qolaversa, biz “cho‘lpon” so‘zining lug‘aviy ma’nosi eng yorug‘ “tong yulduzi” ekani, shoir o‘z nigohini olislarga tikkani, fikri keng, xayolot ufqi yuksakligini unutmasligimiz kerak. Yuqoridagi misollar adabiyotshunosligimizda shakllangan: *“Cho‘lpon she’riyati to‘la ijtimoiylashgan”*, degan qarashdan bir qadar xorijga chiqishi, shoirning badiiy ifoda uslubi mumtoz an’anadan butkul uzilmaganini ko‘rsatishi jihatidan ham xarakterlidir.

Muqaddas Tojiboyeva jadid adiblari ijodidagi mumtoz adabiyot an’analarini tadqiq etarkan, Hamzaning Navoiy, Munis, Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat she’riyatidagi turfa ohanglardan ta’sirlanib, ularga ergashib yozilgan ijod namunalariga ham e’tibor qaratadi (3. 56). Hamzaning “Sango” radifli g‘azalidan: *“Yosh oqub ikki ko‘zumdin Nuhni to‘fonidek, / Nolayi dilso‘z ila haddin fano bo‘ldum sango”* kabi baytlarini tahlilga tortgan olima uning Alisher Navoiy g‘azaliga hamohang ekani, ayni paytda, lirik qahramonning ma’shuqaga bo‘lgan muhabbati, fidoiyligini tavsif etishi bilan Munis g‘azaliga ham yaqinlashishini ta’kidlaydi. Zotan, Hamzaning o‘z sevgilisi – Vatanga bo‘lgan muhabbati shu qadar kuchliki, lirik qahramon buni:

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni vatan,
Sensan bale, bilganlara jonlarni jononi vatan (12.45).

tarzida izhor etadi. Anglashiladiki, Hamza mahbubani an’anaviy tarzda jonning jononasi tarzidagina tushunmaydi. Nainki jon, balki tomirlarda oqayotgan hayotbaxsh qon kabi aziz biladi va ardoqlaydi.

O‘zbek jadid she’riyatida “kishan” obraziga ham faol murojaat qilingan. Masalan, Cho‘lponning “Qo‘zg‘olish” she’rida “xaqir qul” o‘rnida ko‘rilgan xalq nomidan “afandi” (janob) larga murojaat qilinar ekan: “*Titra, qo‘rqkim, bog‘liq quling bosh ko‘targan kuch endi!” [*Tojiboyeva M. 2017:*59],* deyiladi. Shoir bu dadil hayqirig‘i orqali har qanday kamsitish va xo‘rlashlarga qarshi isyon tuyg‘ulari, dard-faryodlarini ifodalaydi. Millatdoshlarini istibdod va jaholatga qarshi birlashish, qo‘zg‘alishga da’vat etadi. Demak, jafokash xalqni o‘z kuchiga ishontirish va zinhor umidsizlanmaslikka chorlovchi xalqparvar shoir sifatida namoyon bo‘ladi.

Cho‘lpon va Fitrat o‘zbek jadid adabiyotining ikki mustahkam qoyasi edi. Ulardan qay biriga ustunlik berish fikrida hatto Fitratning o‘zi ham ikkilangan. Prof. Begali Qosimov ta’kidlashicha, Fitrat: “*Barmoq vaznidagi birinchi she’rni men yozdimmi, Cho‘lpon yozdimi – eslolmayman, ammo barmoqni nazariy jihatdan birinchi bo‘lib yoqlab chiqqanlardan men edim” [*Qosimov B. 1994:98] – deb yozgan edi.

Darhaqiqat, zamon shiddatini ifodalashni ko‘zlagan Fitrat barmoq va sochma (mansura) larni o‘zbek folklori, turk va tatar adabiyotlaridan zamonaviy milliy she’riyatimizga olib kirgan, nazariy jihatdan himoya qilgan ziyolilardan biri edi.

“Yurt qayg‘usi”ni aks ettirishga qulay, she’riyatga xos nafis tuyg‘u-ohanglar ustuvorlik qiluvchi lirik nasr – mansuralar ham jahon adabiyotining faol janriga aylandi. Jumladan, Xitoy milliy adabiyoti asoschisi Lu Sinning “Yovvoyi O‘tlar” (1927), shved shoiri Artur Nilsning “Oqar suvda ko‘rganlaring”(1978) kabi she’riy to‘plamlari lirik nasrning go‘zal namunalaridir.

Fitrat “Mening kecham” she’rida tabiat manzaralari va ijtimoiy jarayonlarni muqoyasa qilarkan, tun zulmatidan keluvchi mungli kayfiyatini ijod sha’mi va ko‘ngil nurlari bilan yoritmoqqa mayl bildiradi:

So‘lg‘un, qora, turg‘un dema. Ko‘rdim
mungli kechaning mungli chog‘inda,
ko‘b mungli uyimning qirog‘inda
yolg‘uz iki narsa yondosh-da:
biri sham’im, biri...
ko‘nglim! [Fitrat.2000:44].

Fitrat badiiy izlanishlari an’anaviy she’riy tizimni yangilashga intilgani, olmon romantiklari, fransuz simvolistlari, usmonli turk, tatar va rus she’riyatining erkin she’r vaznlariga xos badiiy ifoda yo‘sinlari, xususan, ritmik birlik, vazn, qofiya va turoqdan xoli “verlibir”, “svabodnыy stix” (“erkin she’r”) shaklini ijodiy o‘zlashtirganining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek shoirlari “sarbast” deb atashgan yangi vazn birinchi navbatda, Fitratga o‘zining his-tuyg‘ularini obrazli ifodalash imkonini berdi. Ayni paytda, shoir poetik so‘z va iboralarning o‘ziga xos qurilishini ta’minlash,

she’riy sintaksis va badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanish tajribasini ham takomillashtirdi.

Mungli oniy kayfiyat uyg‘otgan “so‘lg‘un”, “qora”, “turg‘un” ijtimoiy vaziyat-holatni sha’mning shu’lasi-yu ko‘ngilning harorati bilan zidlantiradi. Boshqacha aytganda, shakl unsurlarini badiiy mazmun bilan uyg‘unlashtirib, emotsional ta’sirchanlikni oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Uning bu xayrli an’anasi o‘zbek she’riyatida keyinchalik Oybek, Mirtemir, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Bahrom Ro‘zimuhammad, Faxriyor kabi ko‘plab shoirlar tomonidan ijodiy davom qildirildi.

Umuman, jadid shoirlari *“bog‘”, “gul”, “bulbul”* an’anaviy obrazlariga tayanib, madaniyat va ma’rifatdan yiroqlashtirilgan, qadriyatlari toptalgan elning dardini kuylashdi. Chunki bu davr shoirlarining fikr-qarashlari umuminsoniy g‘oyalar va milliy ruhiyatga vobasta edi. Lirik qahramonning jafokash va g‘amzada kayfiyati, o‘lka ayanchli qismati haqidagi iztirobli o‘ylari ularni birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afoqova N. 2006. O‘zbek jadid adabiyotida she’riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent.
2. Jumayeva S. 2012. She’riyat va raqam / Badiiy matn tahlili va talqin muammolari to‘plami. – T. 112-115-b.
3. Tojiboyeva M. 2017. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an’analari. Filol. fan. d-i (DSc) ... diss. – Toshkent. 283-b.
4. Tozagul Matyokubova Islamjon Yakubov. 2020. Laboratory works of gafur gulam: poetic image and imagery // International jornal of Advanced Science and Technology. – № 6. – Pp. 28-37.
5. Turdimov Sh. 2020. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshken: Fan. 192-b.
6. To‘ychiyeva Sh. 2010. Yangi o‘zbek adabiyoti va Cho‘lpon ijodi. – T.: Sharq. 132-b.
7. Xudoyberdiyev E. 2008. Adabiyotshunoslikka kirish, – T. 368-b.
8. Cho‘lpon. 1991. Yana oldim sozimni. – T., 1991. 574-b.
9. Cho‘lpon. 1994. Asarlar. Uch jildlik. J.1. – T.: Adabiyot va san’at. 448-b.
10. Fitrat. 2000. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. J1. – T.: Ma’naviyat, 2000. 256-b.
11. Qosimov B. 1994. Maslakdoshlar. – T.: Sharq. 160-b.
12. Quronov D. 2004. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. 228-b.
13. Hamza Hakimzoda Niyoziy. 1988. To‘la asarlar to‘plami. Besh jildlik. J.2. – T.: Fan. 564-b.
14. Yakubov I. 2017. Transformatsiya esteticheskix vzglyadov i sovremennыy uzbekskiy roman // Theoretical & Applied Science. №12. Pp. 120-125.
15. Yokubova S.I. 2022. Jadid she’riyatida peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar tasviri // O‘zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent. № 3. 42-54-b.
16. Yokubova S.I. 2023. Jadid she’riyatida ramzlar: semiotik va germenevtik talqin // O‘zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent. № 3. 79-90-b.



Tozagul MATYOQUBOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
E-mail: tozagulmatyakubova71@gmail.com

G‘AFUR G‘ULOM POETIK MEROSIDA GUMANISTIK PAFOS

Annotatsiya: ushbu maqolada G‘.G‘ulom she’riyatida milliy g‘urur va iftixorning badiiy ifodasi o‘rganildi. Unda shoirning jonajon diyorimizning go‘zal, betakror tabiati, tabiiy boyliklari tasvirlangan lirik she’rlari tahlil qilinadi. Bu G‘.G‘ulomning she’riy merosida yurtimiz tarixi, buguni va kelajagi tasvirlanganligini anglash imkonini beradi.

Shoirning “Assalom”, “G‘oliblar”, “Ona”, “Sharaf qo‘lyozmasi”, “Bari seniki”, “O‘zbekiston” kabi qator she’rlari tahlili asosida ilgari surilgan fikrlar o‘z tasdig‘ini topdi.

Kalit so‘zlar: *she’riyat, badiiy ijod, milliy g‘urur, lirik qahramon, misra, she’r, his va kechinma.*

Аннотация: в данной статье изучается художественное выражение поэтической гордости и гордости в поэзии Г. Гулама. В ней анализируются стихотворения лирики поэта, изображающие прекрасную, неповторимую природу и природные богатства нашей родины. Это позволяет понять, что в поэтическом наследии Г. Гулама изображены история, настоящее и будущее нашей страны.

Мнения, выдвинутые на примере анализа ряда стихотворений поэта, таких как “Assalom”, “*G‘oliblar*”, “*Ona”,* “*Sharaf qo‘lyozmasi*”, “*Barii seniki*”, “*O‘zbekiston*”, подтвердились. Эти стихотворения примечательны не только своей идейной направленностью, но и высоким художественным качеством.

Ключевые слова: поэзия, художественное творчество, национальная гордость, лирический герой, стих, поэма, чувство и переживание.

Annotation: in this article, the artistic expression of poetic pride and pride in G. Gulam’s poetry is studied. In it, the poems of the poet’s lyrics depicting the beautiful, unique nature and natural resources of our homeland are analyzed. This allows us to understand that the history, present and future of our country are depicted in the poetic heritage of G. Gulam.

The opinions put forward by the example of the analysis of a number of poems of the poet, such as *“Assalom”,* “*G‘oliblar*”, “*Ona”,* “*Sharaf qo‘lyozmasi*”, “*Barii seniki*”, “*O‘zbekiston*” were confirmed.

Key words: *poetry, artistic creativity, national pride, lyrical hero, verse, poem, feeling and experience.*

XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri akademik G‘afur G‘ulomdir. Uning bir qator she’r, hikoya, qissa va tarjima asarlari yuksak badiiyat namunasi sifatida bugungi kunda ham katta ahamiyatga egadir. G‘afur G‘ulom she’riyati falsafiy mazmundorligi, tabiat, jamiyat va inson bilan bog‘liq muammolarning badiiy ifodasi, nozik tuyg‘u-kechinmalar bisyorligi bilan ajralib turadi.

G‘afur G‘ulom asarlarida o‘zbekona g‘urur va iftixor tuyg‘ulari ifodasiga alohida e’tibor berilgan: *“Men sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening hesh-aqrabolarim, desam ajablanarli bo‘lmas... Meni ularning merosi va an’analari tarbiyalagan. Hali beshikda yotar ekanman onam Hofiz, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy g‘azallaridan xonish qilib, meni allalardi. Tabiiyki, ularning asarlari ona suti bilan qonimga singib, jism-u ruhimga sayqal berardi”[12. 298],* - deydi shoir. Uning bitganlarida sharqona tafakkur tarzi, ifoda yo‘sinlari, so‘z qo‘llash madaniyati mustahkam o‘rin olgan va bu shoir uchun cheksiz iftixordir.

G‘afur G‘ulom ba’zi she’rlarida “*Va’daga vafoli, axloqda mumtoz, do‘stparvar, o‘z so‘zli, yoriga sodiq”* o‘zbek xalqidan faxrlanishini ifoda etadi. Bunday o‘rinlarda shoir o‘zbek tabiatiga xos fazilatlarni badiiy ifodalash bilan birgalikda vatanparvarlik, mehnatsevarlik xalqimiz qoniga “*sut bilan kirgan’*ligiga alohida urg‘u beradi.

G‘afur G‘ulom o‘z xalqining o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida so‘z yuritar ekan, unga bo‘lgan cheksiz

muhabbat-u hurmatini g‘afurona ehtirom tuyg‘ulari bilan ifodalaydi. U she’rlarining birida:

Men o‘zbek shoiriman -
O‘z xalqimning tiliman

deb yozadi *[11. 161]*. O‘zbek shoiri ekanidan iftixor etgan ijodkor o‘zini va so‘zini shu xalqning ko‘ngil talpinishlari nidosi deb biladi. Millat nomini baland ko‘tarar ekan, g‘urur va iftixorini yuksak patetika bilan samimiy ifoda etadi. Bu o‘rinda “*o‘zbek shoiri*” obrazi lirik “*men*”ning g‘urur va iftixorini, ko‘ngil kechinmalarini, xalqiga va ijodiga bo‘lgan samimiy munosabatini yoritishga xizmat qilgan.

Shoirning “Assalom” she’rida bu mazmun yanada salmoqliroq va kengroq aks etganligini kuzatamiz:

Men sharqli shoirman, ilhomim ufqi
Quril orolidan Afrikagacha.
Fallohlar, kulilar jahon orzusin
Ifodasi bordir she’rimda ancha. [10. 117]

She’rdagi “*sharqli shoir”, “ilhom” va “she’r*” obrazlari asosiy g‘oyani ifodalashga yordam bergan. Lirik qahramon “*ilhomi ufqi”*ning “*Kuril orolidan Afrikagacha*” qamrashini o‘qiganda shoir taxayyul olami sarhadlarining kengliklarini kuzatish mumkin. She’rda fallohlar, kulilar *“jahon orzusi”*ning ifodasi borligi, dunyoning bu chekkasida turib, narigi burchagidagi xalqlar tashvishi, orzu-niyatlari, intilishlariga hamdardlikning aks ettirilishi sharqona bag‘rikenglik, g‘afurona insonparvarlik belgilaridir.

Mazkur bandga adabiy-estetik mazmun ham yuklatilgan bo‘lib, shoir badiiy adabiyotda hamisha umumjahoniy muammolar ifodalanishi, insoniyatning o‘y-xayollari, orzu-umidlari, dard-kechikmalari poetik idrok etilishi lozimligi haqidagi estetik konsepsiyasini ilgari suradi.

Ma’lumki, sho‘ro mafkurasi davrida adabiyot, albatta, ayrim sinf, guruh, tabaqalar manfaatini ko‘zlashi kerak, degan qarash hukmron edi. Yuqoridagi kuzatishlar chinakam iste’dod egalari qatori G‘. G‘ulom ham asl adabiyotning ma’no-mohiyatini teran tushungan holda, umumbashariy muammolarni kuylashga imkon topganini, insoniyat orzu-armonlarini ifodalashga harakat qilganliklarini ko‘rsatadi.

G‘afur G‘ulomning bir qator she’rlari borki, ularda lirik qahramonning milliy g‘ururini koinot qadar yuksakliklarga ko‘tarish, millat tabiatiga xos mehnatsevarlik, vatanparvarlik, so‘zda sobitlik, dushmanga nafrat, vafo, sadoqat tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Shoir milliy g‘urur, inson ekanligidan iftixor tuyg‘ularidan ko‘ksi baland kitobxon ruhiyatiga ta’sir etishni ko‘zlaydi. “*G‘oliblar*” she’rida shoirona iftixor tuyg‘ulari shunday tasvirlanadi:

Bizning yantoqlardan halvo pishganday,
Bizning qamishlardan shakar to‘kilur.
Bizning tariqlardan bir to‘ygan chumchuq
Jahonlar aylanib yiroqdan kelur. [10. 53]

Keltirilgan misralarda “*bizning”* so‘zi anafora bo‘lib, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usining mohirona ifodalanishini ta’minlagan. Bu misralar o‘z mohiyatiga ko‘ra Maqsud Shayxzodaning “*Toshkentnoma”* dostonidagi “*Deydilar: Toshkentda suv ichgan chumchuq Qaytib kelar ekan Makatullodan*” [6.249] satrlariga hamohangdir.

Shoir o‘zining o‘zbek o‘g‘loni ekanligi bilan faxrlanar ekan, bu tuyg‘uni o‘zbek xalqi hayotida muhim o‘rin tutgan kundalik hayot voqealarini she’rga solib, bitganlaridagi har bir detalning xalqona bo‘lishini ta’minlab, asarlari milliy koloritini oshiradi. Uning “*Ona”* she’ri 1953-yilda yozilgan. She’rda millat onasining zohiriy va botiniy go‘zalligi ifoda etilgan. Unda lirik qahramonning dunyoni tanishida, o‘zligini anglashida cheksiz sabr-u qanoat, matonat ko‘rsatadigan onaga bo‘lgan samimiy tuyg‘ulari aks etadi. Onaning rang-barang sifatlari minglab qomusdan baland turadigan kitob ekanligi ifodalanadi. She’rdagi xilma-xil obrazli ifodalar, mubolag‘ali tasvirlar onaning sifatlarini ko‘rsatish, lirik qahramon ruhiy tug‘yonlarini yoritishga yo‘naltirilgan.

Shoir qo‘llagan tashbehlar o‘zining betakrorligi bilan diqqatga molikdir. “*Tanglayim ko‘targan bibim bechora*”, *“Birinchi tamshangan ona sut qadrin*”, “*Mingga kirib o‘lsam ham Quloqda quyma allang*” kabi o‘rinlarda o‘zbekona odat va turmush tarzi bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar nozik ilg‘angan hamda koloritli aks ettirilgan. O‘zbek millatigagina xos bo‘lgan jihatlar tasviri vositasida onaga ehtirom tuyg‘ulari ta’sirchan ifodalangan.

O‘zbekona g‘urur va iftixor tuyg‘ulari G‘afur G‘ulomning “*Birinchi she’r*” she’rida shunday ifodalanadi:

Yurt salomat, xalq farovon,
Oila tinch, bor huquq,
Odamzodga xos g‘urur.
O‘zbekmen, deb kekkayganda,
Keng peshonang yop-yorug‘. [10. 95]

She’r yangi 1946-yilga atab yozilgan. Unda shoir dilga murojaat qilib, o‘tgan yilni sarhisob qiladi. Ijod va mehnatga to‘la eski yil muvaffaqiyatlarini esga oladi. Unda yangi turmush va partiyani ulug‘lashga oid misralar uchrasa-da, she’r shoirona g‘urur tuyg‘usini mahorat bilan aks ettirgani uchun ham e’tiborga molikdir. Shoir lirik qahramoni uchun tug‘ilib o‘sgan yerning har bir giyohi muqaddas. Uning nazarida, yurt salomat, xalq farovon bo‘lsagina, tinchlik va xotirjamlik bo‘ladi.

Ana shundagina kishi yorug‘ yuz bilan o‘zbekligidan g‘ururlanishi mumkin.

Milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari “*Sharaf qo‘ly-ozmasi*” she’rida yuksak pafoslarda kuylangan. Shoir lirik qahramoni xalqimizning tarixi, o‘tmishi va bugunini kuzatib, uning kelajagiga umid bilan boqadi. Unda o‘zbek xalqi uzoq tarixga ega bo‘lgan, ijodkor, mehnatkash dehqon inson sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir qo‘llagan har bir obraz, tasviriy vosita xalqimizga xos jihatlarni yoritishga qaratilgan:

Qadim o‘zbek xalqisan,
Asl odam avlodi.
Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir. [10. 63]

O‘zbek xalqining qadimiyligiga urg‘u bergan shoir unga “*asl odam avlodi*” deb baho berishi bejiz emas. Bu bilan shoir ham millatimiz o‘z ibtidosini Odam otadan olganligini ta’kidlaydi, ham insonga xos ezgu xislatlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketganligini aytadi.

Shoir she’rlarida xalqimiz qanchalik og‘ir kunlarni boshidan kechirmasin, uning ruhi tetik, kelajakka umidvor ekani shunday tasvirlanadi:

Ne-ne jafo kunlari
Katta yorug‘ yo‘l sari
Xulkar yulduzi kabi
Yetakladi mehnating.

Kelajakka umidvorlik bilan yashayotgan xalqni oldinga intilishida, mutelikka, zo‘ravonlikka chidashida halol manglay terigina unga madad berdi. Mehnatkashlik xalqning oldinga harakat qilishi, ezgu intilishlarida yo‘lini Hulkar yulduzidek yoritib turdi.

She’rning ayrim o‘rinlarida “*ulug‘ rus xalqi*” bilan og‘a-inilik, partiyaga berilgan va’dalar eslatib o‘tilsa ham, ular she’rning umumiy qimmatiga unchalik soya solmaydi. Bu usul shoirning ko‘pgina she’rlarida bo‘lgani kabi o‘sha sharoitda asosiy muddaoni aytishning bir yo‘li edi, xolos. Shoir she’rda o‘z xalqiga bo‘lgan yuksak ehtiromi va muhabbatini san’atkorlik bilan ifodalay olgan.

Adabiyot tarixida vatan, uning ko‘rk-u jamoli haqida she’r yozmagan shoirni uchratish qiyin. Bunday she’rlarda O‘zbekistonning go‘zal tabiati, bog‘i, chamani, o‘zbek xalqining turmush tarzi, fe’l-atvori, o‘y-xayollari, orzu-armonlari kuylangan. Shoirlar vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan bir qatorda o‘zi ham shu yurtning farzandi ekanligidan cheksiz iftixor sezganlar. G‘afur G‘ulomning vatan haqidagi she’rlarida bu tuyg‘ular oshkora ifodalangan bo‘lsa, boshqa mavzularga bag‘ishlangan she’rlari mohiyatiga ana shunday tuyg‘ular singdirib yuborilgan.

Shoir “*O‘zbekiston*” she’rida vatanining ko‘rkamligi, bog‘-u bo‘stoni, shaharlari, san’ati haqida so‘z yuritadi. She’rda o‘tmish biroz qoralanib, yangi hayot ulug‘langan o‘rinlar uchrasa-da, xalqimiz “*zahmatkash, do‘stparvar, jangovar, hushyor*”, *“ahdida vafoli, quvnoq*” deb ta’riflanadi.

Andijon, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon,
Xalqimiz chamani, bog‘i bo‘stoni.
Tarixin yozmoqqa kichiklik qilur
Shoir Firdavsiyning katta dostoni. [11. 120]

Gul vodiyning maftunkor bog‘-u bo‘stoni, chamani go‘zallikda beqiyos. Bularning tarixini yozmoqqa Firdavsiyning dostoni ham kamlik qiladi. Vatan gul-bog‘laridan fayz olgan, uning go‘zalligidan to‘lqinlangan shoir qalbida cheksiz iftixor mujassam. Ba’zi she’rlarida shoir o‘zbekona ifoda va usullar, shu o‘lkaga xos bo‘lgan jihatlar tasvirini o‘zining o‘zbekligi, she’rning O‘zbekistonda yozilganligi bilan bog‘lab talqin etadi: “*Bu she’rim yozildi O‘zbekistonda, Shuning-chun ko‘p so‘zim shu o‘lkaga xos*”. [11. 215]

Shoirning “*Bari seniki*” she’rida lirik “*men*”ning vatanga mehri, muhabbati o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. U o‘z taqdiri va qismatini vatan taqdiri bilan mushtarak holda anglaydi. “*Muncha ham chiroyliksan, aziz Vatanim, Bodomday ming ko‘z bilan sevar badanim*”, – degan lirik qahramon joni, yurak qoni, tanini bir butun holda unga baxsh etishga tayyor. Har qadamda loladan poyandoz bo‘lgan vatanda shabadaning ohangiga butun gulshan raqsga tushadi. Gul, sunbulga to‘la chaman, baland-baland tog‘lar, oltin tuproqlarda ungan paxtazor shoirda she’r to‘qishga ishtiyoq uyg‘otadi. U shoirona viqor bilan “*Archalar baxt boshiga tashlaydi soya*”, - deydi. Bunday tasvirlar betakrorligi, o‘ziga xosligi bilan e’tiborga molikdir.

G‘afur G‘ulomning tabiat tasviriga bag‘ishlangan she’rlarida lirik qahramon tevarak-atrof go‘zalligiga boqib, qalbida cheksiz iftixor tuyg‘ularini tuyadi. Fikrlarimiz tasdig‘i uchun “*Bog‘*” she’rini misol keltirishimiz mumkin. She’r “*Bir vatanning o‘g‘limenkim, har taraf gul, lola, bog‘, Qalb ko‘ziday eng qorong‘i kechada porlar charog‘…*”, “*Suv desang sharbat oqar, iqlim desang qaymog‘u yog‘, O‘z-o‘zini maqtaganda, maqtamay qolg‘aymi men?*” satrlari bilan boshlanadi. Bunda har taraf gul, lola, bog‘ bilan qoplangan vatanning o‘g‘li ekanligidan cheksiz faxr tuygan lirik “*men*”ning qalb kechinmalari ayon bo‘ladi. Bu diyorda suv o‘rnida sharbat oqadi, iqlimi esa qaymoq va yog‘dek yoqimli. Bunday vatanni maqtamaslikning iloji yo‘q.

She’rda yurtning go‘zal manzaralarini tasvirlashda shoir qo‘llagan obrazli topilmalar e’tiborga molikdir:

Lola jomi to‘lsa ko‘klam shabnamidan ertalab,
Yozgi chilla sho‘x xayolday o‘tsa kurtakni yalab,
Er quyosh qandli qozon ostiga qo‘ysa, o‘t qalab,
Bilmadim, chillak, daroyi qilg‘usi qanday talab,
Lablaridan qand tomarsa - so‘rmayin qolg‘aymi men? [9. 131]

“*Lola jomi*” ning ko‘klam shabnamidan to‘lishi, “*yozgi chilla*” ning sho‘x xayolga o‘xshatilishi, uzumning shira yig‘ib pishishi esa quyosh qandli qozon ostiga o‘t qalab qo‘yishi tarzida ifodalanishi G‘afur G‘ulom ijodigagina xos tasvirlardir. Bunday tasvirlar yurtga, vatanga, ona zaminga cheksiz mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Ko‘rinadiki, G‘.G‘ulom she’riyatida vatanparvarlik g‘oyalari milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari bilan mushtarak holda tasvirlangan. Shoirning bunday she’rlari yuksak badiiyati bilan bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir.

G‘afur G‘ulomning o‘zbekona g‘urur va iftixor mujassamlashgan she’rlarining bir qismi tabiat tasviri bilan bog‘liqdir. Shoir tabiatning so‘lim va betakror manzaralarini, vatanimizning ko‘rki-jamolini, unga fusunkorlik bag‘ishlab turgan dala-dashtlar, adir-qirlar, bog‘-irmoqlar go‘zalligini ko‘rganda qalbi cheksiz sevinchga to‘ladi va bu kechinmalarini she’rlarida butun jilvasi bilan betakror tarzda yoritadi.

Demak, G‘.G‘ulom o‘z fikr-tuyg‘ularini kitobxonga milliy, umuminsoniy va umumbashariy ranglarda “yuqtirish”ga intilgan. Shu qobiliyat tufayli “yo‘lini topib” aytilgan konseptual ahamiyatga molik bo‘lgan dil izhorlari, poetik jilolantirilgan jonli obrazlar birinchidan, millatni, ikkinchidan, jahon erksevar xalqini ezgulik yo‘lida birlashtirish, odamiylik yo‘sinida hamfikr qilishga xizmat qildi. G‘.G‘ulom poetik merosining kuchi va salmog‘i ham o‘sha gumanistik pafos bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical &Applied Science. – Marseille, 2015.pp. 40-43.
2. Matyokubova T. R. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 120-122
3. Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006. 160-b.
4. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami. – T.: Fan, 2004. 260-b.
5. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 14-tom, – T.: Fan, 1979. 480-b.
6. Shayxzoda Maqsud. Dunyo boqiy. She’rlar. Dostonlar. Drama. – T.: Adabiyot va san’at, 1988. 375-b .
7. G‘afur G‘ulom – o‘zbek adabiyotining bayroqdori. – Samarqand: Universitet, 2003.
8. G‘afur G‘ulom – shoir, yozuvchi va olim. – Farg‘ona, 2003.
9. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983 .326-b.
10. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984. 430-b.
11. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984. 437-b.
12. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.11. – T.: Fan, 1989. 411-b.
13. Transformation ofaesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
14. Islomjon Yakubov, Transformation ofaesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125.
15. Yakubov I/ Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 123-125



Arofatoy MUYDINOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti v.b.
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
amuydinova73@gmail.com.

TOSHKENT ADABIY MUHITIDA MUVASHSHAHCHILIK AN’ANASI

Annotatsiya: o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti ijodkorlari tomonidan yaratilgan muvashshah asarlar shoirlarning adabiy-estetik olamini, ijtimoiy va adabiy hayotini, adabiy davrasi, ijodiy hamkorligini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Toshkent adabiy muhiti vakillari ijodida keng o‘rin berilgan muvashshah-g‘azallar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *adabiy muhit, shoir, devon, muvashshah, g‘azal, bayt, misra, she’riy san’at, aqd, iqtibos, muxammas, marsiya.*

Аннотация: произведения Мувашшаха, созданные творцами литературы узбекского национального возрождения, имеют большое значение для изучения литературного и эстетического мира, общественной и литературной жизни, литературных кругов и творческого сотрудничества поэтов. В данной статье рассматриваются мувашшах-газели, которые занимали видное место в творчестве представителей Ташкентской литературной среды второй половины 19-го и начала 20-го веков.

Ключевые слова: литературная среда, поэт, деван, мувашшах, газаль, байт, мисра, поэтическое искусство, цитата, мухаммас, марсия.

Annotation: muvashshah works created by the creators of Uzbek national revival literature are of great importance in studying the literary and aesthetic world, social and literary life, literary circles, and creative cooperation of poets. This article discusses muwashshah-ghazals, which occupied a prominent place in the works of representatives of the Tashkent literary environment of the second half of the 19th and early 20th centuries.

Key words: *literary environment, poet, devan, muwashshah, ghazal, byte, misra, poetic art, aqd, quote, mukhammas, marcia.*

XIX asrning ikkinchi yarmi Toshkent adabiy muhitining shakllanish davri bo‘ldi. Bu davrda Miskin, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy, Kamiy, Almaiy, Tavallo, Avloniy singari ko‘plab ijodkorlar yetishib chiqdi.

Toshkent adabiy muhitining yirik vakili Karimbek Kamiy muvashshahchilikda barakali ijod qilgan shoirlardan hisoblanadi. Uning “Dilni obod aylangiz” to‘plamiga kirgan she’rlaridan 56 tasi muvashshah asosida yaratilgan bo‘lib, ulardan 54 tasi g‘azal, 2 tasi muxammas janrida. Shoirning Alixon, Mirzoxon, Mahmudxon, Nurmuhammadxon, A’zamxon, Boqixon, Qosimxon, Islomxon, Soyibxon, Toshkandxon, Rashidxon, Sultonxon, Yo‘ldoshxon singari o‘nlab zamondoshlari nomlariga yozgan muvashshahlari ma’lum. Jumladan, shoir A’zamxon nomiga 2 ta, Qosimxon nomiga 3 ta, Toshkandxon nomiga 2 ta, Mirzoxon nomiga 2 ta, Sidiqxon nomiga 2 ta muvashshah yozganidan bu shaxslar bilan aloqasi yaqin bo‘lganini bilish mumkin.

Nettikim, etsalar ohang navosoz begim,
Bo‘lub “Ushshoq” elina hamdam-u hamroz,
begim, -

matla’si bilan boshlanadigan muvashshah-g‘azal shoirning muvashshahchilikdagi mahorati aks etgan asarlari sirasiga kiradi. G‘azalda radif sifatida takrorlanib kelgan “begim” so‘zi uning erkak kishiga qarata yozilganini, birinchi misradagi “navosoz” esa bu kishining sozanda, bastakor ekanligini ko‘rsatib turibdi. Muvashshah usulida yozilgan mazkur g‘azalning toq misralaridan “Nurmuhammadxon” ismi kelib chiqadi. Demak, bu g‘azal Kamiyning nafaqat musiqaga oid bilimdonligini ko‘rsatishi bilan, shuning barobarida, bizga noma’lum bo‘lgan yana bir sozanda zamondoshi

haqida xabar berishi bilan ham alohida qiymatga ega [4,160-161]. Boshqa shoirlar ijodida kuzatilganidek, mazkur g‘azal matnida ham 2-bayt tushib qolganligi bois muvashshah qilingan ismning “d”, “x” harflari yetishmaydi.

Shoirning Boqixon nomiga yozgan muvashshahi haqida adabiyotshunos O.To‘laboyev shunday yozadi: “Mo‘minjon Toshqin “Toshkent shoirlari”ning Kamiyga oid qismida shunday yozadi: “Shoir Kamiy (...) ovqatga pul topolmasa Chorsudagi Boqijonboynikiga borib ovqatlanib kelar edi. Bu – Boqijonboy o‘sha zamonning obro‘lik a’yonlari va kiborlaridan bo‘lib, Kamiy singari shoir va fozillarni do‘st tutar va o‘zining ham adabiyotga ancha aqli yetar, donishmand bir odam edi”. Shu muallifning Mo‘minjon Muhammadjonov imzosi bilan chop etilgan “Turmush urunishlari” kitobida esa yana Boqijonboy nomiga duch kelamiz. Bu safar uni Munavvar qori tashkil qilgan jadid maktabining imtihon majlisida uchratamiz. Kitobda Boqijonboyning imtihondan keyingi nutqi keltirilgan. Unda mazkur zot xalqni yangicha maktablarga targ‘ib qiladi, uning afzalligini so‘zlaydi va sarmoyador kishilarni bunday maktablar uchun moddiy yordam berishga da’vat qiladi [2,244-247]. Abdulla Avloniy o‘zining 1914-yilda yozilgan “Tiyotr xususida munozara” maqolasida Toshkent shahrida tashkil topgan “Jamiyati xayriya”ning “raisi hurmatlik Boqixonboy Dadaxonboy o‘g‘illari” [1,224], deya ma’lumot beradi. Biz ushbu ma’lumotdan Boqijonboyning millat taraqqiyoti yo‘lida ochilgan jamiyatga raislik qilganidan tashqari uning to‘la ismi sharifini ham bilib olamiz. Darvoqe, “Jamiyati xayriya” tashkil topayotgan ayni kunlarda Kamiy ham uning tashkilotchilari yonida edi. Shoirning ushbu jamiyatning ahamiyati haqida yozilgan maxsus she’ri bor. Ma’lum bo‘ladiki, Kamiy va Boqijonboy “Jamiyati xayriya” tashkil topgan kunlarda ham birga edilar. Muvashshahda darj etilgan “Boqixon” nomi, demak, shoirning hammaslak zamondoshi va millatparvar birodari Boqijonboy Dadajonboy o‘g‘li bo‘lib chiqadi. G‘azalda muvashshahchilik an’anasiga ko‘ra va yoshi ulug‘ligini hisobga olib “jon” o‘rniga “xon” qo‘shimchasi qo‘llangan” [4,88].

Kamiy muvashshahlaridan yana biri Abdulazizxon nomiga yozilgan. Adabiyotshunos Sh.Yusupov bu kishining to‘la ismi sharifi Abdulazizxon Boboxon o‘g‘li ekanini aytadi va “o‘zi uchrashgan, hamsuhbat bo‘lgan ajoyib zotlar” haqida bir emas, to‘rtta kitob tasnif etgani haqida ma’lumot beradi. Abdulazizxon 1928-yilda 74 yoshida vafot qilgan [5,141]. Mazkur muvashshahning o‘ziga xosligi uning noma shaklida yozilgani hamda barcha ta’rif-u tavsiflar muvashshah bag‘ishlangan Abdulazizxonga tegishli ekanligidir [6,88].

Karimbek Kamiyning:

Qutulmoq, ey hazin jon, istama javru jafolardin,

Ko‘ngil uzmoqni imkoni yo‘q erkan dilrabolardin,

– bayti bilan boshlanadigan muvashshah-g‘azali Qosimxon ismi bilan bezalgan.

Qosimxon ismli shaxs va uning shoir Kamiy bilan yaqinligi haqida adabiyotshunos Olim Oltinbek bergan ma’lumotlarga tayanib, mazkur muvashshah shu shaxs nomiga yozilgan, degan xulosaga kelish mumkin: “Qosimxon to‘ra Sayfiddinxon to‘ra o‘g‘li Muztarib (1858-1944) Qalandarxona mahallasida tavallud topgan. Aytishlaricha, Toshkentdagi Qalandarxonaning tashkil topishi bevosita shu kishining otasi Sayfiddinxon to‘ra nomi bilan bog‘liq. Sayfiddinxon to‘ra asli Xo‘jandlik bo‘lib, pirining topshirig‘i bilan Toshkentga kelgan va qalandarlik tariqatiga murshidlik qilgan. Qosimxon to‘raning savodi otasida chiqqan. Hatto, Toshqinning guvohlik berishicha, “she’r va adabiyot ustozi” ham padari buzrukvori ekan. Devoni yo‘q. She’rlari anchagina, lekin tarqoq. Bedil, Hofiz, Hoziq, Vasliy va boshqa shoirlarning g‘azallariga taxmislari bor. Tabiiy, she’rlari, asosan, diniy-tasavvufiy ruhda. Toshqinning aytishicha, “Mavlono Kamiyni, kambag‘al bo‘lgani uchun, ko‘p tarbiya qilar (ko‘p vaqt ovqat hamda sandal ko‘mirlarini berib turar) edi” [4,54].

Kamiyning muvashshah-g‘azallari o‘z vaqtida anchagina ma’lum va mashhur bo‘lganligini ba’zi shoirlarning ularga yozgan taxmislaridan ham bilish mumkin. Xususan, uning Xoshimxon nomiga bag‘ishlangan “Qo‘ymading hayron etmayin” muvashshah-g‘azaliga Muqimiy taxmis bog‘lagan.

Shoir Sidqiy Xondayliqiy ijodida ham muvashshahlar talaygina. Jumladan, shoirning 1998-yil nashr etilgan “Tanlangan asarlar”idan 14 ta muvashshah g‘azali o‘rin olgan. 8 ta muvashshah-g‘azali esa nomi eng ko‘p uchraydigan G‘ulomxonga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, Omonjon, Obidjon, Sobirxon kabi yaqinlari nomlariga atab yozgan muvashshahlari ham mavjud. “Odatda, muvashshah faqat tirik do‘stning nomiga bog‘lanadi” [6,92-93]. Sidqiy Xondayliqiyning:

Ul dilraboni man nega shaydosi bulmayin,

Ko‘ngul xush o‘lmas orazi bayzosi bo‘lmayin, -

matla'li muvashshah-g'azali muvashshah tabiatiga xos yangilik – bu uning o'g'li Omonjon vafotiga marsiya tariqasida yozgan.

Toshkentning mashhur shoirlaridan Mulla Qo'shoq Miskin ijodida ham g'azal janridagi muvashshahlar ko'p uchraydi. Shoirning Yusufxon, Xolmuhammadxon, Muhammadjon, Ismoil maxzum, Ziyovuddinxon, Alixon, Omilxon singari zamondoshlari nomiga bitilgan muvashshah-g'azallari ma'lum. Nomlari zikr etilgan kishilar ismiga Miskin bilan bir davrda yashab ijod qilgan yana qator shoirlar ham muvashshah bog'laganlar. Kamiyning Xolmuhammadxon, Alixon, Mirzo Shoshiyning Alixon, Xislatning Yusufxon, Alixon kabilarning nomlariga muvashshah bog'laganlaridan ko'rinadiki, ismlari muvashshah qilingan kishilarning Miskin va uning ijodiy davrasi uchun yaqin shaxslar bo'lgani haqidagi xulosaga olib keladi [3,79]. Xususan, shoirning Ziyovuddinxon ismiga muvashshah qilingan "Zoye aylab g'amza tiyrin otma ko'p begonaga" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali zamondoshi shoir Haziniy ismiga bog'langan, degan mulohaza bor. Chunki "Haziniy o'z zamondoshlari Muqimiy, Muhyi, shayx Sulaymon Mahjur, Nojiy (Qalandar), Nasimiy, to'raqo'rg'onlik Ibrat, toshkentlik Kamiy, Miskin, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy kabi shoirlar bilan ijodiy muloqotda bo'lgan" [3,78]. Miskin va Haziniy o'rtasidagi ijodiy muloqot Haziniyning ko'p shoirlar muxammas bog'lagan mashhur "Yo hayot an-nabiy" radifli g'azalining ohangi va radifini saqlagan holda yozgan muxammasida ham ko'rinadi. Shuningdek, shoirning Xolmuhammadxon ismiga muvashshah qilingan: "Husningni, ey parivash, e'lon etaymu etmay?" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali Kamiyning Husaynbek ismiga muvashshah qilingan "Husningni, ey parivash, e'lon etaymu etmay?" misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga tazmin qilingan [3,80].

Shoir Sayyid Orifxo'ja o'g'li Xislat ijodi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, muvashshahlarning betakror namunalarini uchratamiz. Jumladan, shoirning 17 g'azal va 2 muxammasi muvashshah qilingan bo'lib, ulardan Hamdamxon, Rahimxon, Asqarxon, Umarxon, G'ulomxon, Yo'ldoshxon, Oxundjon, Komilxon, Sultonxon, Miyonxon, Hojixon kabi zamondoshlari nomlarini o'qiymiz. Shuningdek, Hamdamxon nomiga 2 ta, Asqarxon nomiga 2 ta, Umarxon nomiga 2 ta, Sultonxon nomiga 2 ta g'azali muvashshah qilinganidan shoirning mazkur shaxslar bilan aloqasi yaqin bo'lganini bilish mumkin.

Umuman olganda, Toshkent adabiy muhiti ijodkorlari asarlaridagi muvashshahlar ma'lum maqsad bilan yaratilgani, ularda nomlari zikr etilgan shaxslar shoirlarning yaqin do'stlari, adabiy hamkorlari bo'lganini ta'kidlash kerak. Bu asarlarning yaratilish tarixini o'rganish milliy adabiyotimiz tarixining qorong'u jihatlarini oydinlashtirish jihatidan ilmiy qimmatga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
2. Mo'minjon Muhammadjonov. Turmush urinishlari. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1964.
3. Nuriddinov Sh.B. Mulla Qo'shoq Miskin hayoti va uning adabiy merosi. dis.filol.fan.nomz. – Toshkent, 2011.
4. Oltinbek O. Karimbek Kamiy – milliy uyg'onish shoiri. – Toshkent: Muharrir, 2018.
5. Yusupov Sh. Xufiya qatlamlar. – Toshkent:Ma'naviyat, 1999.
6. Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom.– Toshkent: Adabiyot va san'at, 1973.

Shaxnozaxon KARIMOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro davlat pedagogika instituti

DUNYO ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHE'R POETIK SINTAKSISI TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqola poetik sintaksisning nazariy va amaliy jihatlarini, uning she'riy nutqdagi grammatik va estetik rolini atroflicha o'rganishga bag'ishlangan. She'r tilining musiqiyligi, emotsional ta'sirchanligi va obrazlilik darajasini belgilovchi asosiy sintaktik figuralar — anafora, inversiya, antiteza, sintaktik parallelizm, polisindeton, ellipsis va xiazm kabi vositalarning badiiy funksiyalari chuqur tahlil qilinadi. Poetik sintaksisning o'zbek adabiyotshunosligida B.Sarimsoqov, T.Boboyev, D.Quvvatova, D.Tadjibayeva kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida shakllanayotgan tahliliy uslublar o'rganiladi. Xususan, poetik sintaksis poetik matnning shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada poetik sintaksis atamasining ingliz va rus tilshunosligidagi ekvivalentlari ham solishtirilib, ular orqali xalqaro poetika nazariyasidagi qarashlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: poetik sintaksis, she'riy nutq, stilistik figura, anafora, inversiya, antiteza, ellipsis, polisindeton, sintaktik parallelizm, xiazm, poetik qurilish, ritm, pauza, ohang, emotsional ta'sirchanlik, zamonaviy o'zbek she'riyati, adabiy tahlil, tilshunoslik va adabiyotshunoslik uyg'unligi.

Аннотация: статья посвящена всестороннему изучению поэтического синтаксиса как с теоретической, так и с практической точек зрения, с акцентом на его грамматическую и эстетическую роль в поэтической речи. Подробно анализируются основные синтаксические фигуры — анафора, инверсия, антитеза, синтаксический параллелизм, полисиндетон, эллипсис и хиазм, которые усиливают музыкальность, эмоциональность и образность поэтического текста. Рассматриваются исследования узбекских литературоведов Б. Саримсакова, Т. Бобоева, Д. Кувватовой, Д. Таджибаевой, сделавших значительный вклад в развитие анализа поэтического синтаксиса. Отмечается, что поэтический синтаксис играет ключевую роль в достижении гармонии формы и содержания в поэзии. Кроме того, проводится сопоставление терминологических эквивалентов понятия "поэтический синтаксис" в английском и русском языкознании, что способствует формированию общего представления о данной категории в мировой литературной теории.

Ключевые слова: поэтический синтаксис, поэтическая речь, стилистические фигуры, анафора, инверсия, антитеза, эллипсис, полисиндетон, синтаксический параллелизм, хиазм, структура стиха, ритм, пауза, интонация, эмоциональная выразительность, современная узбекская поэзия, литературный анализ, синтез лингвистики и литературоведения.

Annotation: this article provides an in-depth analysis of poetic syntax from both theoretical and practical perspectives, focusing on its grammatical and aesthetic functions in poetic language. It explores how poetic syntax contributes to the musicality, emotional impact, and imagery of verse through various syntactic figures such as anaphora, inversion, antithesis, syntactic parallelism, polysyndeton, ellipsis, and chiasmus. Furthermore, it examines the research approaches developed by notable Uzbek scholars such as B. Sarimsoqov, T. Boboyev, D. Quvvatova, and D. Tadjibayeva, who have significantly contributed to the study of poetic syntax in Uzbek literary criticism. The work positions poetic syntax as a central mechanism for achieving a harmony between form and content in poetry. It also compares terminological equivalents of "poetic syntax" in English and Russian linguistics, thus bridging local and international perspectives in literary theory.

Key words: poetic syntax, poetic speech, stylistic devices, anaphora, inversion, antithesis, ellipsis, polysyndeton, syntactic parallelism, chiasmus, poetic construction, rhythm, pause, tone, emotional expressiveness, contemporary Uzbek poetry, literary analysis, linguistic and literary integration.

Kirish. She'r badiiy nutqning bir ko'rinishi sifatida hissiy ta'sirchanlik va ohangdorlikka ega bo'ladi. Binobarin, "She'r ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli, ritmik nutqdir".[1,311] Ayni choqda she'r "musiqiyligi, yoqimliligi, mo'ljalga uradigan jozibasi, dilkash-u dardkash insoniyligi bilan ajralib turadigan mo'jizadir".[2,163] Shu jihatdan uning musiqiyligi, ohangdorligi, emotsionalligini ta'min etuvchi ritmik bo'lak va vositalar mavjud. Bo'g'in, turoq, ritmik pauza, turkum, vaznlar qatorida poetik sintaksis ham badiiy nutqning nafisligi, jozibasini ta'minlaydi, undagi kechinmalar to'lqinini ifoda etadi. Poetik sintaksis adabiyotshunoslik, ayniqsa, she'rshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. She'riy nutqning grammatik shakllanishida poetik sintaksisning o'rni alohidalik

kasb etadi. Bu she’r misralarining sintaktik tarkibi bilan bog‘liq bo‘lib, bu adabiyotshunoslik va tilshunoslik markazida turuvchi dolzarb muammodir. Sintaksis tildagi gap qurilishini anglatsa, poetik sintaksis she’r tuzilishini bildiradi. Ya’ni she’r matnini tashkil etgan unsurlarni anglatadi. Shu jihatdan she’riy sintaksis badiiy asardagi lingvistik vositalarni tartibga solish tizimi bo‘lib, fikr emotsionalligini, bo‘yoqdorligini oshirishga yordam beradi. Poetik sintaksisning vazifasi badiiy asardan rang-barang nutqiy qurilishlar va obrazli til vositalari, jumla tuzish usullarini tadqiq etishdan iboratdir.

Materiallar va metodlar. Jahon adabiyotshunosligida poetik sintaksis masalasi ancha keng o‘rganilgan. Jumladan, maxsus tadqiqotlarda va adabiyot nazariyasi muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ham poetik sintaksisga xos xususiyatlar yoritilgan. Ularda poetik sintaksisning she’rdagi unsurlari, ularning badiiy vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Sintaksis va ohangdorlik she’rda o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi. Shu jihatdan, I.Kovtunova poetik sintaksisning muhim unsurlaridan biri inversiya haqida fikr yuritib, uning ritmni saqlashini, so‘zlarning emotsionalligini oshirishini hamda ohangdorlikni ta’minlashini qayd etadi.[3,204]

Poetik sintaksisning qator unsurlari borki ular jahon filologiya ilmida ularning har biri alohida tekshirilgan. A.Lebedev antitezaning xususiyatlarini ochar ekan, uni ekspressiv vosita deb ta’riflaydi. Shu bilan birga sintaktik parallelizm, anafora, antiteza va xiazm kabi poetik sintaksis unsurlarini she’riy nutq ta’sirchanligini oshiruvchi vositalar sifatida ko‘rsatadi. Buni rus shoiri R.Vyazemskiy she’rlari orqali dalillaydi. [4,19] Olimning fikricha, “P.Vyazemskiy she’riyatidagi to‘rt komponentli konstruksiyalarni boshqa sintaktik figura – anafora bilan birlashtirish mumkin. She’riy satrlar boshida so‘zlarning takrorlanishi shoirga o‘quvchi diqqatini jamlashga, bu parchaning butun matndagi rolini kuchaytirishga imkon beradi”.

Demak, poetik sintaksis masalasi alohida o‘rganilgan ishlarda uning adabiyotshunoslik va tilshunoslikni birlashtiruvchi va yaxlitlashtiruvchi o‘ziga xos bo‘lim ekanligi qayd etilgan, uning unsurlari aniqlashtirilgan. Jumladan, polisindeton, anafora, antiteza, inversiya, sintaktik parallelizm, xiazm kabilar muayyan shoirlar ijodi misolida yoritib berilgan. Bu esa poetik sintaksisning she’riy nutq grammatik shakllanishida she’riy sintaksisning muhim o‘rni borligini ko‘rsatib turadi.

Muhokama va natijalar. “She’riy ijod – obraz yaratishdir. Poetik til – obrazlar tili. Sh.Voloskiy sintaksisni skeletga qiyoslaydi, she’r tuzilishidagi unsurlarni esa evfonik vositalar deb ataydi. Uning fikricha, skelet to‘ldirilsa yangi, hayajonli poetik nutq hosil bo‘ladi”.[5,28]

Anafora haqida izlanishlar olib borgan Y.V.Stepanov uning she’rdagi mavqeyini quyidagicha ta’riflaydi: “*Anafora* lirik-falsafiy asarning ritmik-evfonik tuzilishiga urg‘u beradi, uning semantikasini billurlashtiradi, misralarni bog‘laydi va aslida, she’rni she’rga aylantiradi”.[6,91] Uning she’rdagi vazifasini inson tanasidagi yurak bilan barobar qo‘yadi. V.Tomashevskiy qarashlari ham anafora haqidagi fikrlarni to‘ldirishga xizmat qiladi: “Anafora tuzilmalarini o‘rganayotganda takroriy so‘z o‘z ma’nosini qanchalik saqlab qolganligiga e’tibor qaratish lozim.[7,267] Demak, anafora poetik figura sifatida she’rda stilistik vazifa bajaruvchi poetik sintaktik unsurlar qatoriga kiradi. Uning ellipsis borasida bildirgan fikrlari ham she’r nazariyasi yo‘nalishidagi qarashlarga uyg‘undir. Bunda ellipsisning muhim xususiyati – muxtasarlik ochib berilgan.

Xulosa. Umuman olganda she’riy nutq sintaksisi she’rshunoslikning hamisha dolzarb masalalari qatorida turadi. Poetik sintaksis bo‘yicha adabiyotshunoslikda ikki yo‘nalishda ish olib borilganligi kuzatiladi. Binobarin, poetik sintaksis nazariyasi maxsus tekshirilgan tadqiqotlar sirasiga R.Yakobson, M.Fergyuson, T.Ostin, R.Kyureton, N.Fabb, I.Kovtunova, A.Lebedev, N.Patroyeva singari ingliz va rus, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, D.Quvvatova, D.Tadjibayeva kabi o‘zbek olimlari ishlari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик теминларининг русча-ўзбекча луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.311.

2. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 163.

3. Ковтунова И.И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения: Учебное пособие. – Москва: Эдиториал УРСС, 2002. – С. 204.

4. Лебедев А.А. Поэтический синтаксис П.А.Вяземского. Автореферат. – Санкт Петербург, 2016. – С.19.

5. Wolosky Sh. The Art of Poetry. How to read a poem. – Oxford, 2001. – P.28.

6. Степанов Е. В. Жанровые, стилистические и профетические особенности русской поэзии середины XX – начала XXI веков. Организация современного поэтического процесса. – Москва: Комментарии, 2014. – С.191.

7. Томашевский Б. В. Стилистика и стихосложение. – Ленинград, 1959. – С.267.

Nasima QODIROVA
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), doktorant
Buxoro davlat universiteti
e-mail: n.s.qodirova@buxdu.uz

YOZUVCHI – TANQIDCHI USLUBINING RIVOJI

(Abdulla Qodiriy ijodi misolida)

Annotatsiya: maqolada yozuvchi-munaqqid uslubining ayrim qirralari tadqiq etilgan. Xususan, Abdulla Qodiriyning adabiy-tanqidiy faoliyati va maqolalarining uslubiy xususiyatlari tahlil etiladi. Qodiriyning tanqidiy maqolalarida ifodalangan obrazlilik, satirik ohang, ilmiy mantiq va badiiylik uyg‘unligi ochib berilgan. Uslub tahlilida Qodiriyning “Tong sirlari”ga yozgan so‘zboshisi, “Burun va hozir”, “26-yilda kuldirguchilarimiz”, “Yozishg‘uchilarimizg‘a” kabi maqolalari asos sifatida o‘rganilgan. Maqola yozuvchi–munaqqid uslubining shakllanish omillari, mazkur uslubning o‘ziga xosligi va zamonaviy adabiy-tanqidiy tafakkurdagi ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, yozuvchi–munaqqid, tanqidiy uslub, satira, badiiylik, adabiy tanqid, Cho‘lpon, “Mushtum” jurnali.

Annotation: the article explores certain aspects of the writer-critic style. In particular, it analyzes Abdulla Qodiriy’s literary-critical activity and the stylistic features of his articles. The study reveals the use of imagery, satirical tone, scientific reasoning, and artistic expression in Qodiriy’s critical writings. The stylistic analysis is based on his preface to *Secrets of Dawn* as well as articles such as *Before and Now*, *Our Comedians in 1926*, and *To Our Writers*. The article aims to shed light on the factors influencing the formation of the writer-critic style, its uniqueness, and its significance in contemporary literary-critical thought.

Keywords: Abdulla Qodiriy, writer-critic, critical style, satire, artistic expression, literary criticism, Cho‘lpon, *Mushtum* magazine.

Аннотация: в статье исследуются некоторые аспекты стиля писателя-критика. В частности, анализируется литературно-критическая деятельность Абдуллы Кадыри и стилистические особенности его статей. В работе раскрываются образность, сатирический тон, научная логика и художественность, присущие критическим статьям Кадыри. В качестве основы для стилистического анализа рассматриваются его предисловие к “Тайнам рассвета”, а также статьи “Прежде и теперь”, “Наши комики в 1926 году”, “К нашим писателям”. Статья направлена на освещение факторов формирования стиля писателя-критика, его самобытности и значения в современной литературно-критической мысли.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, писатель-критик, критический стиль, сатира, художественность, литературная критика, Чулпон, журнал “Муштум”.

O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixiga nazar tashlansa, unda ko‘plab badiiy ijod bilan shug‘ullangan adiblarning tanqid va adabiy jarayonga faol munosabatda bo‘lganliklarini ko‘rish mumkin. Xususan, o‘zbek adabiy tanqidchiligining tom manoda shakllanishi va rivojlanish davri bo‘lgan XX asr boshlarida ham bu holatni ko‘ramiz. Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy kabi ko‘plab ijodkorlar adabiy jarayonga doimiy o‘z munosabatlarini bildirib, qator tanqidiy maqolalar yozdilar. Bu kabi ijodkorlarning adabiy-tanqidiy maqolalari uslubi o‘ziga xos bo‘lib, o‘z o‘rnida badiiy ijod bilan shug‘ullanishlari tanqidiy ishlariga ham ta’sir o‘tkazgan.

Uslub mazmun va shaklning garmonik birligida namoyon bo‘lsada, yozuvchi-munaqqid uslubi bir qarashda shaklan o‘ziga xos bo‘lib, tili uslubining muhim qirrasi hisoblanadi. Yozuvchi munaqqid odatda so‘z ustasi bo‘lganligi bois, uning tanqidiy asarlari ham obrazli, o‘tkir va ko‘p hollarda estetik zavq bag‘ishlovchi bo‘ladi. Bu obrazlilik ilmiy tafakkurni ochiqlashga xizmat qiladigan, mantiqiy izchillik va dalillilik bilan uyg‘unlashadi.

Yozuvchi-munaqqid uslubi tahlil etilar ekan, o‘zbek romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriyning tanqidchilik faoliyati va uslubiga ham to‘xtalish joiz. U 1920-yillarda o‘zbek adabiy tanqidining shakllanishida faol ishtirok etib adabiy tanqidda satirik ohang olib kirdi, shuningdek, bahs janri taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Qodiriyning tanqidiy maqolalari o‘z davrining adabiy va ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy muammolarini teran yoritibgina qolmay, uslubiy jihatdan ham o‘ziga xos, obrazli, keskin va hayotiy mulohazalarga boy.

Munaqqidning Cho‘lponning “Tong sirlari” she’riy to‘plamiga yozgan so‘zboshisi, “Burun va hozir”, “26-yilda kuldirguchilarimiz”, “Yozishg‘uchilarimizg‘a”, “O‘tkan kunlar” ham “O‘tkan kunlar” tanqidi ustida ba’zi izohlar” kabi qator ishlari uning yozuvchi-tanqidchi sifatidagi uslubini ko‘rsata oladi.

Qodiriyning Cho‘lponning “Tong sirlari” she’riy to‘plamiga yozgan so‘zboshisi uslubida ijodkor va matnga empatik yondashuv ustuvor. Tanqidchi ijodkorga boshqa munaqqidlar tomonidan qo‘yilgan ayrim ayblarga ham izoh berib o‘tadi. Uni oqlashga intiladi. Izoh ham shunchaki inkor qilishdan iborat emas, Cho‘lpon ijodidan ayrim parchalarni sinchkovlik bilan tahlil qilish, matn qatlarida yashiringan ko‘pma’nolilikdan foydalanish orqali amalga oshirilgan: “O‘ktabr quyoshi qora tunimizning tongini orttirdi esa-da, bu mudhish kechning badnamo ko‘lagalari hamon shoirning yuragini titratdilar va ul chor-nochor yig‘ladi… Shu yig‘i orasida barq urib ko‘ringan erk quyoshi bu ko‘z yoshlaridan “Chechaklar ungusi”ni so‘zladi…” Qodiriy Cho‘lponning birgina “Chechaklar ungusi” jumlasi orqali shoirga qo‘yilgan turli ayblovlar “yig‘loq shoir”, “millatchi shoir” kabilardan xalos eta olgan. Shuningdek, oktyabr inqilobini “erk quyoshi” sifatida talqin etilishi ham yozuvchi munaqqidning shoirni himoya qilishga kirishgani, unga simpatiyasi va maqsad va g‘oyasi mushtarak bo‘lgan yana bir yozuvchini asrashga qaratilgan harakatini ifodalaydi. Yozuvchi-munaqqidning badiiy so‘z tabiatiga chuqur kirib bora olishi ham uning badiiy ijod bilan shug‘ullanishiga borib taqaladi. So‘zni turfa ma’nolarda qo‘llay olish, o‘z maqsadi sari yo‘naltira olishda munaqqidga so‘z ustasi – yozuvchi ekanligi qo‘l kelgan.

Qodiriy tanqidchiligining eng muhim jihatlaridan biri uning satirik ohangi hisoblanadi. Qator hajviyalar yozgan ijodkor tanqidiy maqolalarida ham mazkur ohangni davom ettirgan. Xususan, “Burun va hozir”, “Yozishg‘uchilarimizg‘a” kabi maqolalari va bahslarida satiriklik nihoyatda yuqori. Undagi bu uslub bevosita Qodiriyning “Mushtum” jurnalidagi faoliyati bilan bog‘liq. Mazkur jurnalda muntazam chiqishlar qilish jarayonida ijodkorning satiriklik mahorati rivojlanib bordi va adabiy tanqididiy maqolalarida ham o‘ziga xos bir uslubining shakllanishiga omil bo‘ldi.

“Yozishg‘uchilarimizg‘a” maqolasi “Mushtum” jurnali uchun ijod qiladigan ijodkorlarga bag‘ishlangan bo‘lib, ham nazariy ham metodik maqola hisoblanadi. Munaqqid ijodkorlarga asosan hajviya yozish, bunda ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlarni yoritadi. Yozuvchilikda eng avvalo shoshqaloqlik qilmaslik kerakligini anglatish uchun “Shoshgan qiz erga yolchimas” maqolini eslatadi. Va qo‘lga Qalam olishdan avval: 1) mavzuning ijtimoiy-siyosiy manfaati; 2) Qosh qo‘yib, evaziga ko‘z chiqarmaslik; 3) masala zamirida shaxsiy manfaatlarning bo‘lmasligini shart qilib qo‘yadi.[1] Maqoladagi “…dard bo‘lmasa, samimiyat bo‘lmasa, biz podachini qo‘lida kaltagi bilan ko‘rmas edik”, “Qalam o‘qlog‘i va matbuot ketmon bozori emas” kabi qator jumlalar faqat Qodiriygagina xos bo‘lgan hajviy ohang va uslubni yaqqol ko‘rsatadi.

Maqolada adabiyotdagi kulgu yaratish yo‘llari ixcham va tushunarli qilib bayon etilgan. Mazkur bayonlarda Qodiriyning adabiyot nazariyasining bilimdonigina emas, shuning bilan birga ajoyib ustoz sifatida ham ko‘rish mumkin. Ijod qilish maqsadida qo‘liga qalam olgan iste’dodlar mazkur maqoladan o‘zlari uchun juda ko‘plab bilimlar olishlari mumkin.

Qodiriyning “Burun va hozir” maqolasi ham mazmun ham shakl jihatdan o‘ziga xos. Unda tanqid va hajviya o‘zaro sintezlashgan deyish mumkin. Maqolada ijodkor moddiy manfaat uchun har narsani yozadigan, dushmaniga-da yaltoqlanadigan ijodkorlar ustidan kuladi. Ularning bu kabi harakatlarini Abdurazzoq devona(Abdurazzoq Bimiy – shoir)ning holatiga qiyoslaydi. Albatta, bunda shoirning devona deyilishi bejizga emas, agar ijodkorlar nafsiga qul bo‘lib, haqiqatni emas, yolg‘onni yozadigan bo‘lishsa, ularning el oldida uyatga qolishlari tayin. Munaqqid buni o‘ziga xos shaklda, maqola ichida hikoya tarzida yoritadi. Abdurazzoq Bimiy bilan bog‘liq hayotiy voqeaning keltirilishi tanqidchi fikrlarini quvvatlaydi va maqoladagi satirik ruhni quyuqlashtiradi.

Abdulla Qodiriyning “26-yilda kuldurguchilarimiz” maqolasi ham uni adabiyotshunos va tanqidchi sifatidagi uslubini yorqin aks ettiradi. Mazkur maqola Qodiriy ijodida yetakchi bo‘lgan va uslubida namoyon bo‘luvchi hajviy tanqidni izohlash va uning nazariy asoslarini yoritish maqsadida yozilgan. Unda munaqqid tanqidni ikkiga: jiddiy tanqid va hajviy tanqidga ajratadi.[2] Hajviy tanqidni ommaviy tanqid deya baholaydi. Shu o‘rinda Qodiriyning nima sababdan hajviy tanqidda ijod qilishining sababi ochiladi. Tanqidchi xalq orasiga kengroq kirib borishni, butun xalqning adabiy saviyasi, esetik didini o‘stirishni istaydi. Ta’kidlash o‘rinliki, hajviy tanqid omma uchun deyilsa-da, aslida, uni tushunish o‘quvchidan o‘tkir zehn, sinchkovlikni talab etadi. Chunki undagi qochirimlar, ko‘chma ma’no va ironiyani to‘g‘ri anglash orqaligina maqola mazmuni tushunish mumkin.

Maqolada Qodiriyning ichki olamidagi davr bilan

1 Абдулла Қодирий. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 267-бет.

2 Shu manba: 268- бет.

murosasizlik ayrim jumlalar qatida aks etadi, adib romanlari kabi uning adabiy-tanqidiy ishlarida ham polifoniklikni kuzatamiz. “Daholarni yetishtirguchi bosh omil buzuq sharoit edi”[3] deydi tanqidchi. Mazkur jumlada munaqqidning satirik uslubining ham sababini anglaganday bo‘lamiz. Ijodkor o‘zi mansub davr, ijtimoiy muhit, adabiyot va san’atga munosabatini satirik uslubda yoritishga harakat qildi. O‘z ta’biri bilan aytganda, qizg‘anch va muzir holatlar satira vositasida fosh etilgan.


Maqolada o‘sha davr hajviyoti nazardan o‘tkaziladi. Va tanqidchining undan qoniqmayotgani ochiq bayon etiladi. “Biz “Mushtum” yozishg‘uchilari oramizda o‘tkir kulki ijodchilari yo‘q, hammamiz o‘z holimizga yarasha kulki to‘quymiz, jamiyat qitig‘iga to‘g‘rilab qo‘l yubora olmaymiz. Buni iqror qilmasdan chora yo‘q”[4], - deydi Qodiriy. Bunda mazkur norozilik “biz” tilidan ifodalanishi ham bejiz emas. Munaqqid etikasi doirasida u o‘zi mansub davr kamchiliklariga ijodkor sifatida o‘zini ham daxldor deb biladi, kimnidir ayblash, kimdandir kamchilik izlashdan chekinib, jarayonda ko‘rinayotgan umumiy holatni tanqid qiladi va o‘zini ham kamchiliklardan xoli deb bilmaydi. Bunda Qodiriydagi keng fe’llilik va o‘ziga nisbatan talabchanlikni ko‘ramiz. Mazkur maqolalning yana bir muhim jihati, unda ijodkor davr hajviyotiga umid bilan qaraydi, uning rivojlanish, yuksalish yo‘llarini izlaydi va istiqbolli jihatlarga ahamiyat qaratadi: “…yaxshi xususiyatimiz shundaki, har zamon jamiyatning qitig‘ini izlaymiz, izlashdan charchamaymiz, va o‘lturib qolmaymiz, masalan, men o‘zimning besh-o‘n kunlik “Mushtum” bilan bo‘lg‘an yaqin aloqamda yaxshi his etdim. Doimiy yozishg‘uchilarimizning o ‘n besh kun ilgari yozg‘ani bilan o‘n besh kun keyin yozg‘ani orasida ko‘b ayirma bor… ” Bundan tashqari maqolaning nashr etilish yoki etilmasligiga qaramasdan ijod qilish, umidsizlanmasdan yozishni ham munaqqid ijobiy baholaydi, buni kasbdagi samimiyat deb hisoblaydi. Maqoladagi “Bu sohadagi muvaffaqiyatimiz ta’min etilgandir” jumlasida ishonchning yuqori darajasini ko‘ramiz. Bunda Qodiriyning badiiy ijodidagi romantik uslubi ta’siri seziladi. Zero ijobiyni-da, salbiyni-da bo‘rttirib tasvirlash yozuvchi uslubiga xos. Mazkur maqolada ham o‘z ideallariga mos ravishda yuksak ishonch bilan xulosalash munaqqid uslubining bir qirrasi bo‘lib hisoblanadi. Kelajakka umid bilan qarash, undagi yorug‘likni ko‘ra olish ijodkor uchun nihoyatda zarur xususiyat va bu Qodiriy uslubini ham yanada jozib ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi-munaqqid uslubida quyidagi jihatlar namoyon bo‘ladi. Bayonda badiiy ifoda va mantiqiy aniqlik uyg‘unligi; obrazli tahlil, ya’ni asar strukturasi, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi haqida gapirganda faqat tashqi ko‘rinishni emas, balki ichki, chuqur ma’no qatlamlarini his qilishga moyillik; empatik yondashuv; tajriba va sezgi asosidagi mulohaza, ya’ni oddiy tanqidchi nazariy konsepsiyalarga suyansa, yozuvchi-munaqqid ko‘proq hayotiy tajriba, o‘zining ijodiy makoni orqali asarni baholashga intiladi; matnga san’at asari sifatida qaraydi va matnni nafaqat mazmun, balki shakl, ritm, tovush, ohang, uslub o‘ziga xosligi orqali ham baholaydi. Bunda tahlilda poetik vositalarni ko‘proq ko‘ramiz, fikrlarda lirizm va dramatizmni sezamiz.

3 Shu manba: 268- бет.
4 Абдулла Қодирий. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 268-бет

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Қодирий. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
2. Назаров Б. “Ўзбек совет адабий танқиди тарихи”. 2 томлик, 1-том, – Тошкент: Фан, 1987.
3. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981.
4. Султонова М. Ёзувчи услубига доир. Тошкент: Фан, 1973.



Tojixon TOSHBOLTAYEVA,
QDPI o‘zbek adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BIR DILBARI ABRO‘ KAMON ...

Annotatsiya:o‘zbek adabiyoti tarixida “Qo‘qon adabiy muhiti” deb atalmish muhim adabiy jarayon o‘zidan katta bir ijod maktabini qoldirdi va bu davr adabiyotning “ikkinchi oltin davri” deb tan olindi.Ushbu maqolada mazkur adabiy jarayonning asoschilaridan biri, o‘z davrining “ Malikush-shuaro”si, iste’dodli shoir va tazkiranavis Fazliy Namangoniy ijodiga bir nazar tashlanadi. Shoirning g‘azallari tahlili borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: she’r, tazkira, ijod, mubolag‘a, tashbeh, jonlantirish, badiiy san’at, lirik qahramon, tanosib.

Аннотация:важный литературный процесс в истории узбекской литературы, называемый “литературной средой Кокан”, оставил после себя большую школу творчества, которая была признана “вторым золотым веком” литературы. В этой статье рассматривается творчество одного из основоположников этого литературного процесса, “Маликуш-шуаро” своего времени, талантливого поэта и тазкиранависа Фазлия Намангони. Проанализируйте примеры поэта.

Ключевые слова: стихотворение, описание, создание, преувеличение, намек, оживление, художественное искусство, лирический герой, пропорция.

Annotation: in the history of Uzbek literature, an important literary process called the “Kokand Literary Environment” left behind a great school of creativity, and this period was recognized as the “second golden age” of literature. This article takes a look at the work of one of the founders of this literary process, the “Malikush-shuaro” of his time, the talented poet and tazkiran writer Fazliy Namangoniy. The analysis of the poet’s ghazals is discussed.

Key words: poem, description, creation, exaggeration, allusion, revitalization, artistic art, lyrical hero, proportion.

O‘zbek adabiyoti tarixida “Qo‘qon adabiy muhiti “ deb atalmish muhim bir davr o‘zidan katta bir ijod maktabini qoldirdi. Amir Umarxon boshchilik va homiylik qilgan bu ijod davrasi Fazliy, Ado, Hijlat, Mayus,Xotif, Gulxaniy, Afsus kabi ko‘plab ijod sohiblarini kashf qildi. Ayniqsa, bu ijod xazinalarini tarixga muhrlanishida Fazliy Namangoniyning xizmati beqiyos. Namangan shahrida tug‘ilib, o‘z shoirlik talanti va iste’dodi tufayli Amir Umarxon saroyida “Malikush – shuaro “ darajasiga ko‘tarilgan Fazliy Umarxon topshirig‘i bilan“Majmuai shoiron” tazkirasini yaratdi.Bu tazkiraga Qo‘qonda yashab ijod etgan 87 shoirning ijod namunalarini jamladi.

Fazliy tazkiranavisgina emas, nozikta’b shoir, zukko ijodkor edi.Tazkiraga kiritilgan uning forsiy va turkiy g‘azallari buning yaqqol dalilidir.G‘azallarda shoirning oshiqona, tasavvufona nafasi ufurib turadi.Shiorning.”Bu”radifli g‘azaliga diqqatni qaratamiz: she’rda an’naviy timsollar, obrazlar, o‘xshatish va mubolag‘alar uchrashi bilan birga Fazliy uslubi va talqinining muhim qirralari ham kuzatiladi. G‘azal markaziga ishq mavzusi qo‘yilgan va shu ishq solgan g‘avg‘olar, oshiq – lirik qahramonning iztirob va tashvishlari, qayg‘u va o‘rtanishlari, ma’shuqa vasli ilinjida o‘zini har yonga urishlari, oshiqning turfa holatlari birma-bir sanab o‘tiladi. Ishq dardi og‘ir; bundayin dardga kimki mubtalo bo‘libdi, uning dardu alamlari Yaratgan va o‘zigagina ma’lum. Oshiqning ishq dardida chekkan alam-zorlarini taftish qilish oson emas. Shunday esa-da, uning dardu iztiroblariga baho berish zaruriyati tug‘iladiki, bu shoir mahorati qirralarini aniq ko‘rish imkonini yuzaga keltiradi. Matla’:

Ko‘ngil dog‘in dedim ishq ibtilosindin nishondur bu,
Ko‘zim aydiki, mendin sachragan
bir qatra qondur bu[1]

Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab va boshqa shoirlar g‘azallarida ishq mavzusi atroflicha berilgan. Ishqning turfa savdolari turli-tuman timsollar va holatlarda talqin qilingan. Birida talqinlar o‘ta murakkab tamsil va shakllarda berilsa, boshqasida sodda, xalqona, hamma baravar tushunib ketaveradigan tarzda taqdim etilganini kuzatish mumkin. Mazkur holat, shubhasiz, shoir mahorati, yillar osha o‘tib kelayotgan an’ana va yana boshqa bir jihatlarga borib taqaladi. Fazliy she’ri bu holatning o‘ziga xos sintezi, to‘g‘rirog‘i, ham tushunilishi murakkab, ham ilg‘anishi bir qadar yengil yo‘l bilan bitilganday taassurot qoldiradi. Negaki, matla’dayoq oshiq holati bir qadar aniq namoyon bo‘ladi. Shoir ko‘ngil hasratini oldingi o‘ringa chiqarar ekan, bular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaganiga ishora etadi. Ayni chog‘da, mubolag‘a va jonlantirish san’ati istifoda etilgan holda, ko‘zidan sachragan yoshlar qon yanglig‘ oqib, oshiq holatini yanada aniqroq, yanada yorqinroq namoyon qiladi. Albatta, xayoliy tuyg‘ular, qalbning iztiroblarga to‘la holatini bera oladigan bu mubolag‘a va intoq shoirning salaflari ijodida ham uchragan. Aytish mumkinki, Fazliy tashbehlari o‘zidan avval yashab o‘tgan shoirlar she’rlarining porloq nurlarida o‘ziga xos tarzda barq urganligini kuzatish mumkin. Aks holda, keyingi baytda “g‘am qushi” ko‘ngilda in qurib olganligi alohida ta’kidlanmagan bo‘lur edi. “G‘am qushi”ning ishq tufayli paydo bo‘lgan “dard tog‘i”ga in qurib olishi Fazliyga xos yangicha talqin. An’anaviy “o‘q” timsoli keyingi baytlar uchun alohida turtki vazifasini bajaradi. Chunki g‘azalning uchinchi baytida ham yana “o‘q” timsoliga murojaat etiladi:

Qadalgan novakingni chekma
ko‘ksum zahmidin o‘lmay,
Nedinkim, notavon jismim aro ruhi ravondur bu.

Oshiqni bu qadar og‘ir dardga mubtalo etgan narsa – ishq va buning sababchisi bo‘lgan ma’shuqa. Gar shunday ekan, ma’shuqaning har bir “qilmishi” tashqi go‘zallikka aloqador, har bir a’zosi oshiqni hushidan ayiradi. Qarangki, uning kipriklari ham Ishq timsolini yanada jonlantirish, yanada aniq namoyon qilishga xizmat qiladi. Keltirilgan baytda ma’shuqa ko‘zlari bilan yonma-yon turgan kipriklari “hujumga” o‘tadi. Yoki oshiq uchun o‘z tuyg‘ularini bayon qilish vositasiga aylanadi. Keyingi qo‘shmisrada esa ma’shuqaning tishlari madh markazi bo‘lib xizmat qiladi:

Hujumi xat g‘uborim la’lidin so‘rdim, kulib aydi:
Badaxshon mulkiga kelgan xitoyli karvondur bu.

Fazliygacha o‘tgan shoirlarda ma’shuqa lablarini Badaxshon la’liga tashbeh qilish urf bo‘lgan. Shoirning tajdidi shuki, endi ma’shuqa go‘zalligini ta’minlovchi timsollardan biri bo‘lgan gulrang lablar ustida joylashgan mayin tuklarni (xatlarni) “la’l mulkiga kelgan xitoy karvoni” deya tashbehlaydi.

Navbatdagi baytda ma’shuqaning zulfi va sochi birgalikda tasvir obyektiga aylanadi. Shoir bu o‘rinda dialog usulini qo‘llaydi va shu orqali tasvir va talqinni kuchaytiradi. Ma’shuqaning yuzini o‘ragan qop-qora sochlari yuzining shu’lasida yanada yaltirab, ilondek to‘lg‘anadi. Mashuqa nutqida istiora qilinib, ikki zulfini to‘g‘ridan to‘g‘ri ilon deb ataydi. Shuni e’tirof etish lozimki, Fazliy bu bilan oshiq tomonidan emas, balki ma’shuqaning o‘zi zulfini ta’rifiga o‘tganini yangilik sifatida taqdim etadi:

Dedim: “Zulfing va yuzdin
orazingda pechitob aylab”,
Dedi: “O‘t shu’lasida iztirob etgan ilondur bu”.

Keyingi qo‘shmisra ham an’anaviy tusda. Ma’shuqaning sitamlaridan ozor chekkan oshiqning yuzlari sarg‘ayadi, tani zaiflashadi. U shunday holga tushadiki, endi oshiq yuzi bilan somonning farqi qolmaydi. Bu holatda oshiqning zaif ahvoli yanada kuchliroq ko‘rinadi. Keyingi bayt ana shu tasvirni yanada bo‘rttirishga xizmat qiladi. Negaki, oldingi misralarda aytilgan fikrlar keyingi baytda to‘ldiriladi. Oshiq shu qadar tushkunlikka tushadiki, natijada, umrining poyonni ko‘rinib qoladi. Oshiqning madori tasviri oldingi rejaga chiqadi. Albatta, bu mubolag‘a. Biroq shu tasvirda ma’shuqaning visoli umidida kuyib-yonayotgan oshiq hayotining intihosi namoyon bo‘ladi:

Degay ahboblarig‘a o‘qig‘on lavhi mozorimni,
Shahidi novaki bir dilbari abro‘ kamondir bu.

Ana shu misralarda shoir mahoratining yana bir qirrasi o‘zgacha bir tarzda namoyon bo‘ladi. Fazliy bu o‘rinda ham o‘z ahvolini, ham ma’shuqa tavsifini bayon etadi. Bu parallelizm baytni shohbayt darajasiga olib chiqadi. Ma’shuqa kipriklari oshiqni nobud etadi,

1 Тошбосма. 377-бет.

biroq shunda ham oshiq uni maqtashdan tolmaydi; “bir dilbari abro‘ kamon” deb ulug‘laydi.

Keyingi uch bayt mazmuni tasavvufga bir qadar aloqadorligi bilan e’tiborni tortadi. Shoir so‘fiyona timsollar orqali dunyoviy muhabbatni tavsiflashga harakat qiladi. Bunda “g‘am lashkari” ifodasi faqatgina dunyoviy nafs timsoli sifatida berilayotgani yo‘q, albatta. Unda oshiq o‘z-o‘ziga murojaat qilish barobarida ahli xarobotni ham yodda tutadi. Xarobot ichra manzil tutish dorulomon – omonlik maskani ekanini ta’kidlaydi. Negaki, undan oldingi qo‘shmisralarda keltirilgan “lavhi mozor”, “shahidi novak” izofalari mazmuni bilan “dorulomon” izofasining mazmunidagi zidlik ana shunday xulosa chiqarishga imkon beradi.

Keyingi baytda xirad ahlining oshiqqa munosabati orqali ham ishqning naqadar mushkul bir sinov ekanligiga urg‘u beriladi:

Xirad ahli junun ko‘yida ahvolimni ko‘rganda,
Degaylar oshiqi devonayi husni chunondur bu.

Mazkur bayt yuqorida bayon etilgan fikrlarning mantiqiy xulosasi bo‘lishi bilan birga, oshiqning ruhiy ahvoli va xayoliy tuyg‘ularining ma’lum ma’nodagi umumlashmasi sifatida ko‘zga tashlanadi. Chunki, “husni chunon” bu – Ma’shuqa. Oshiqi devona esa – lirik qahramon. Lirik qahramon shu yerga kelganda ma’shuqa tavsifi va undan keladigan jabru jafolarni ma’lum lahzalar ichida unutishga harakat qiladi. Endi ma’shuqa bir necha lahzaga ortga chekinganday taassurot uyg‘otadi. Bunda ahli xirad junun ko‘yiga tushgan oshiqi beqarornigina emas, balki komillik sari qadam qo‘ygan solikni ham tavsiflashga harakat qilganday taassurot yuzaga keladi. Maqta’ ushbu g‘azalning tatabbu’ ekanligi, aniqrog‘i nazira, ayni radif ham olinganligi, undagi ma’no-mazmun ham nisbatan ko‘chganligiga ishora qiladi. G‘azal nisbatan kattagina – 11 bayt. Ko‘proq fors-tojik g‘azaliyotida an’ana tusini olgan hazaji musammani solim vaznida, bir qadar bosiq, bir qadar ta’sirchan vaznda bitilgan.

Biz Fazliyning birgina turkiy g‘azalini tahlilga tortdik.Tazkirada shoirning yana o‘nlab forsiy va turkiy g‘azallari o‘rin olgan.Ularning tadqiqi esa adabiyotshunoslarimizning galdagi vazifalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пўлотжон Домулло Қаюмов. Тазкирайи Қайюмий .1998й. – Т., 127-132-бетлар.
2. Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 1967. 118-120-бетлар; Ўзбек адабиёти тарихи.V жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: “Фан”,1976.237-б.
3. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити... –Т., 1961. 64-бет.
4. Шодиев Э. Фазлий Намангоний ва Хўжанд шоирлари. –Ходжанд, 1993. 89-б.
5. Бертельс Е. Э. Персидская литература Средней Азии.-Советское востоковедение. Том. V, –Т., Л., 1959.289-с.
6.Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри.-Т.: “Адолат”.2004. 92-б.
7. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: “ЎЗбекистон”, 1993.192-б.
8. Амирий. Девон (Нашрга тайёрловчи ф.ф.н. М. Қодирова). –Т.: “Фан”, 1972.-360 б.
9.Амирий. Девон (Нашрга тайёрловчилар А. Мадаминов, Э. Очилов, З. Қобилова). –Т.: Шарқ НМАК Бош таҳририяти, 2008.-336 б.
10.Фазлий. Мажмуаи шоирон.ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Адабиёт музейи, инв. №3 тошбосма.

Abdulhamid QURBONOV,
University of business and science,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
e-mail: kurbanovabdulhamid57@gmail.com

YUSUF ALAYHISSALOMNING UCH KO‘YLAGI

Annotatsiya: sharq xalqlari adabiyotida Yusuf alayhissalom haqidagi qissa behad mashhur bo‘lib, “Qissai Yusuf”, “Yusuf va Zulayho” va boshqa nomlar bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkor asar bitgan. Qissaning lirik she’riyatga ta’siri ham bundan kam emas. Maqola Yusuf alayhissalomning uch ko‘ylagi tasviriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bu tafsilning Navoiy g‘azaliyotidagi talqinlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yusuf alayhissalom, turkiy adabiyot, uch ko‘ylak, majoz, haqiqat, tahlil, talqin.

Аннотация: история Юсуфа (мир ему) чрезвычайно популярна в литературе народов Востока, на эту тему написано около ста пятидесяти художественных произведений под названиями “Кыссаи Юсуф”, “Юсуф и Зулейха” и другие. Влияние рассказа на лирическую поэзию не менее глубоко. Статья посвящена изображению трех рубашек Юсуфа, анализу трактовок этой детали в газелях Навои.

Ключевые слова: Юсуф (мир ему), тюркская литература, три рубашки, метафора, истина, анализ, толкование.

Annotation: the story of Yusuf (peace be upon him) is extremely popular in the literature of the peoples of the East; about one hundred and fifty works of art have been written on this topic under the titles “Kyssai Yusuf”, “Yusuf and Zuleikha” and others. The influence of the story on lyric poetry is no less profound. The article is devoted to the image of Yusuf’s three shirts, an analysis of the interpretations of this detail in Navoi’s ghazals.

Key words: Prophet Yusuf (peace be upon him), Turkic literature, three shirts, metaphor, truth, analysis, interpretation.

Yusuf alayhissalom haqidagi qissa jahon adabiyotida behad mashhur ekanligi bilan ajralib turadi. U asrlar davomida arab, fors, o‘zbek, turk, ozarbayjon, turkman, tatar, kurd, gruzin kabi sharq xalqlari adabiyotida qayta-qayta qalamga olinib, ko‘p sonli she’riy va nasriy asarlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Qissaning lirik she’riyatga ta’siri ham bundan kam emas. Undagi qator epizod va voqealar qit’a, muxammas, tarje’band va ayniqsa, g‘azal kabi janrlarga mansub she’rlarda tez-tez uchrab, rang-barang holat va kechinmalarning ta’sirchan ifodasiga xizmat qilgan. Shulardan biri Yusuf alayhissalomning ko‘ylaklaridir. Ularning voqealar rivoji hamda qissa g‘oyaviy mazmunini ochishdagi o‘rni g‘oyat muhim. Yusuf alayhissalomning uch ko‘ylagi bor. Ulardan biri qonli ko‘ylak, ikkinchisi pora, chok ko‘ylak, uchinchisi esa Yusuf isli ko‘ylak.

Yusuf alayhissalomning bu uch ko‘ylagi so‘z san’atining ilk davrlaridan boshlaboq qalam sohiblarining poetik nigohini o‘ziga jalb etgan. Uch ko‘ylak tafsili Alisher Navoiy g‘azaliyotida ham keng o‘rin tutgan. Ulug‘ shoir, Yusuf alayhissalomga xos boshqa jihatlar bilan bir qatorda, uning ko‘ylaklariga ham tez-tez murojaat qilib turadi. Ma’lumki, she’riyatda kechinma yoki holatni yorqin tasvirlash, uning ta’sir quvvatini oshirish uchun diniy-afsonaviy timsollar sarguzashtlari, ular bilan bog‘liq muayyan voqea va tafsillarga murojaat qilish badiiyatga oid kitoblarda talmeh san’ati deb ataladi. Ammo Yusuf alayhisssalom ko‘ylaklari talmeh bilan birga, rangin tashbeh, istiora, tamsil yoki tanosub bo‘lib kelgan baytlar ham talaygina. “Badoyi’ ul vasat”dan olingan quyidagi baytda ham shu holatga guvoh bo‘lish mumkin:

Yor hajrig‘a davo guldin emaskim, bermas
Kimsaga Yusuf isi qon aro har pora qamis.[1]

Baytda, dastlab Yor gulga (tashbehi aks), o‘z navbatida gul qamis, ya’ni ko‘ylakka (tashbehi izmor) tashbeh qilingan. *Yor hajriga gul davo bo‘la olmaydi*,

1 Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1990, 199-бет.

– deydi shoir, – *Zero, har qonli pora ko‘ylakdan ham kishiga Yusuf isi yetavermaydi*. Baytdagi asosiy timsollar *gul* va *ko‘ylak*. Gul va ko‘ylak aro to‘la muvofiqlik bor. Chunonchi, shoir *qon aro har qamis* der ekan, ayni paytda nafaqat ko‘ylak, shu bilan birga, gulga xos qizillikni ham nazarda tutadi: gul ham qondek qizil. Binobarin, shoir avvalo deydiki, *har qizil qon aro ko‘ylak ham Yusuf alayhissalom ko‘ylagi bo‘lmaganidek, har qizil gul ham Yor hajriga davo emas*.

Ammo gul qon kabi qizil gulgina emas. *Har pora ko‘ylak ham Yusuf alayhissalom isini bermas*, – deydi shoir ikkinchi misrada. *Pora* so‘zining ma’nosi chok, yirtilish. *Pora ko‘ylak* deyilsa ham, u xuddi qizil qon singari, gul bilan ham aloqador. Chunki gulning ochilishi, ulug‘ shoirning quyidagi baytida tasvirlanganidek, gul ko‘ylagining go‘yoki Yusuf alayhissalomning ko‘ylagi yanglig‘ pora-pora bo‘lishidir:

Gul kibi yuz pora xunolud bo‘lg‘an jism ila,
Dard ila mehnat hujumi bazmida pomolmen.[2]

Bu jihatdan anglashiladiki, baytda shoir yana shunday degan: *Har pora ko‘ylak ham Yusuf alayhissalom ko‘ylagi bo‘lmaganidek, har pora* (ochilgan) *gul ham Yor hajriga davo bo‘la olmaydi*.

Baytda ko‘ylakka xos yana bir ma’no bor: *Yusuf isi*. Bu safar bir-biriga mutanosib so‘zlar – *gul isi va Yusuf isi*. Gul isi xushbo‘y bo‘ladi, binobarin, Yusuf isi ham oddiy is emas, balki guldek xushbo‘y is. Ya’ni: *Har qancha xushbo‘y bo‘lmasin, Yusuf isi hajrga davo bo‘lmaganidek, Yor hajrig‘a davo ham gul isidan emas*. Endi baytning mazmunini shunday bayon qilish mumkin: *Har qonli, har pora, har Yusuf alayhissalom isi keladigan ko‘ylak* Ya’qub alayhissalom ko‘zlarining ochilishiga bois bo‘lmaganidek, *har qizil, har pora, har xushbo‘y gul* ham Yor hajriga davo bo‘la olmaydi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy ijodida Haq ishqi, chin oshiqning Haq vasliga yetish yo‘lidagi ranj-mashaqqatlari, kayfiyat-kechinmalarining tasviri yetakchilik qiladi. Ulug‘ shoirning o‘zi bu holatni ko‘zda tutib, “haqiqat asrorini majoz suratida ko‘rsatibmen”, deb yozgan edi. Ammo majoz surati ham bir xil emas, ba’zan u ko‘zga yaqqol tashlanib tursa, ba’zan insoniy kechinmalar pardasi ortiga yashiringan bo‘ladi. Agar yuqoridagi baytda “haqiqat asrori” kuchli majoz pardasiga yashiringan bo‘lsa, “Navodir ush-shabob”dan o‘rin olgan quyidagi baytda ko‘zga bir muncha ochiqroq tashlanadi:

He ajab ochilsa ko‘r o‘lg‘an ko‘zum Ya’qubdek,
Kim nasimi subh berdi Mohi Kan’ondin xabar.[3]

Baytda Yor *Mohi Kan’on*, ya’ni Yusuf alayhissalom, *oshiq* Ya’qub alayhissalom, *nasimi subh*, ya’ni tong yeli Yusuf alayhissalomning elchisi, *Yorning xabari* esa uning ko‘ylagiga nisbat berilgan. Unda aytilishicha, oshiqning ko‘zlari ko‘r, chunki u, Ya’qub alayhissalom Yusuf alayhissalomdan judo bo‘lganidek, Yor hajriga giriftor bo‘lgan. Ammo u ko‘zlarining ochilishidan umidvor, chunki Ya’qub alayhissalomga elchi Yusuf alayhissalom ko‘ylagini keltirganidek, nasimi subh, ya’ni tong yeli ham unga Mohi Kan’ondan xabar keltirgan.

Baytda Yusuf alayhissalomning ko‘ylagi ham, oshiqning ko‘rligi va ko‘r ko‘zning ochilishi ham majoziy ma’no kasb etgan, ya’ni ular tasavvufiy istilohlardir. “*Ko‘z* deb Haq tajalliysining *shuhudi* (zohiriy ko‘z bilan ko‘rish) va soliklarning Haq tajalliysini idrok etish iste’dodiga aytilur. *Basar* (botiniy ko‘z – ko‘ngil ko‘zi) sifati o‘sha shuhud vositasi ila hosil bo‘lur”, – deyiladi Sajjodiy qalamiga mansub “Farhang-e estelohot va ta’birot-e erfonū” nomli so‘fiyona istilohlarning izohli lug‘atida.[4] Baytda tilga olingan “ko‘r o‘lg‘an ko‘z” shuhud darajasida turgan, ammo hali basar – ko‘ngil ko‘zi darajasiga ko‘tarilmagan ko‘zdir. Garchi zohiran ochiq bo‘lsa-da, “shuhud”ning Ya’qub alayhissalomning ko‘r ko‘zlaridan farqi yo‘q: Ya’qub alayhissalom Yusuf alayhissalom chehrasidan mosuvo bo‘lganidek, u ham Haq jamolining tajalliysini idrok eta olmaydi. Buning uchun unda basar – ko‘ngul ko‘zi ochilishi, ko‘ngul ko‘zining ochilishi uchun esa *nasimi subh* – tong yeli Mohi Kan’on, ya’ni Yordan xabar keltirmog‘i lozim. “Nasimi subh”ning tasavvuf adabiyotida “nasimi Yusuf” degan nomi ham bor. “Nasimi Yusuf suluk egalari uchun tavfiqi ilohiydir”, – deb xabar beradi Sajjodiy.[5] *Tavfiq* esa Haq vasliga yetish yo‘lida solikka yetadigan ilohiy madad, ilohiy hidoyatdir.[6] Aytilganlardan kelib chiqilsa, baytda shoir shunday degani ayon bo‘ladi: *Tong yeli Ya’qub alayhissalomga Yusuf alayhissalom hidini keltirganidek, menga ham tavfiqi ilohiy Yordan*

2 Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1989, 346-бет.

3 Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. ТЎртинчи том. – Тошкент: Фан, 198, 129-бет.

4 Сажжодий Саййид Жаъфар. - Фарҳанг-э эстэлоҳот ва таъбирот-э эрфонū. - Теҳрон, Таҳурū, 1370, с. 302.

5 Сажжодий Саййид Жаъфар. - Фарҳанг-э эстэлоҳот ва таъбирот-э эрфонū. - Теҳрон, Таҳурū, 1370, с.762.

6 А.Қурбонов. “Ҳайрат ул-аброр” “басмала”си бадиияти. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2025, 1-сон 46-бет.

xabar berdi, Endi Ya'qub alayhissalomning ko'zlari ochilib, Yusuf alayhissalom jamolidan bahramand bo'lganidek, mening ham basirat ko'zlarim ochilib, Haq jamolini idrok eta boshlasam, ajab emas.

"G'aroyib us-sig'ar"dagi 479-g'azal tarkibida kelgan quyidagi baytda ham shoir ko'ylak timsolini "majoz surati"da tasvirlagan:

Ko'nglagingdinkim topar jon dam-badam Yusuf isi,
Ey azizim, men ham ul ko'nglak aro bir tormen.[7]

Ey azizim, – deb Yorga murojaat qiladi shoir. Yorning "azizim" deb atalishi bejiz emas. Bu, bir tarafdan, Unga bo'lgan ulkan e'zoz va ishqning ifodasi bo'lsa, ikkinchi tarafdan, Yusuf alayhissalom sarguzashtlariga ishoradir. Uning ko'p mashaqqat, ko'p azob-uqubatlar chekib, oxirida Misr azizi – Misr hukmdoriga aylangani ma'lum. Ulug' shoir ana shu nuqtani ham she'rga jo qilgan. *Ey azizim*, – deydi u birinchi misrada, – *jonim dam-badam ko'ylagingdan Yusufning isini topadi*. Misradagi barcha timsollar majoz libosida namoyon bo'lgan: Yusuf alayhissalom – Yor, ko'ylak – Yorga bo'lgan ishq, Yusuf alayhissalomning isi esa Yorning vaslidir. *Ey Yori aziz*, – deydi oshiq, – *Ya'qub alayhissalomga Yusuf alayhissalomning ko'ylagidan kelgan hid tiriklik xabarini yetkazganidek, mening jonim ham sening ishqingdan dam-badam visol xabarini topadi*. *Shuning uchun ham meni o'sha ko'ylak aro bir ip deb bil*. Oshiq jonining ko'ylakning bir ipiga aylanib qolishi vahdat yoki visol – oshiqning Yor bilan qovushuvi, bir bo'lib ketishidir.

Alisher Navoiy lirikasida o'nlab diniy-afsonaviy timsollar mavjud. Ulardan biri Yusuf alayhissalom, xususan, uning ko'ylaklaridir. Alisher Navoiy ijodi shoirning bu tafsilni o'z she'rlariga olib kirganligi bilangina emas, balki uning yangi-yangi imkoniyatlarini kashf etib, yangi-yangi ma'nolarda talqin qilganligi bilan ham qadrlidir.

7 Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988, 374-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. Uchinchi tom. – Toshkent: Fan, 1988.
2. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. To'tinchi tom. – Toshkent: Fan, 1989.
3. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Sajjodiy Sayyid Ja'far. Farhang-e estelohot va ta'birot-e erfonū. – Tehron: Tahurū, 1370.
5. Qurbonov A. "Hayrat ul-abror" "basmala"si badiiyati. // O'zbek tili va adabiyoti, 2025, 1-son.

Muzaffar JURAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi
Tosh.DO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

“NAHJUL FARODIS” (“JANNATLARNING OCHIQ YO‘LI”) ASARINING MATNIY TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asarining matn tarixi, matniy tadqiqi hamda mavzu ko‘lami haqida ma’lumotlar berildi. “Siyarnoma” turkumiga kiruvchi ushbu asarni hali to‘liq o‘rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligi xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *“Siyarnoma”, Mahmud ibn Ali as-Saroyi, “Nahjul farodis”, matn tarixi, qo‘lyozma nusxa.*

Аннотация: *в статье представлена информация о текстовой истории, текстовом анализе и сфере действия “Нахджуль Фарадис” (“Открытый путь в рай”)* Махмуда ибн Али ас-Сараи. Отмечается, что полное изучение этой работы, *которая является частью серии “Сиярнама”*, по-прежнему является одной из важных задач сегодняшнего дня.

Ключевые слова: *“Сиярнама”, Махмуд ибн Али ас-Сараи, “Нахджуль Фарадис”, текстовая история, рукопись.*

Annotation: this article provides information on the textual history, textual analysis, and scope of Mahmud ibn Ali al-Sarai’s Nahjul Faradis (“The Open Path to Paradise”). It is noted that the complete study of this work, which is part of the Siyarnama series, is still one of the important tasks of today.

Keywords: *“Siyarnama”, Mahmud ibn Ali al-Sarai, Nahjul Faradis, textual history, manuscript.*

Dunyo matnshunosligida mumtoz adiblar asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish va nashr etish, ular ijodiga mansub qo‘lyozma manbalarning tanqidiy matnlarini tayyorlash, lingvistik xususiyatlarini ochib berish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar milliy tillarning jahon miqyosida o‘z o‘rni va maqomiga erishuviga xizmat qilmoqda. Matnshunoslikda ham adib, shoir, tarjimon va muarrixlar asarlaridagi ma’nolari, ulardagi yetuk g‘oyalarini tahlil etish bu qo‘lyozma manbalarning qadr-qimmatini, ular haqidagi tasavvurlarning o‘ziga xos jihatlari haqidagi nazariy bilimlarni takomillashtiradi.

Mamlakatimiz rahbarining kitobxonlik va mutolaa madaniyatiga alohida e’tibor qaratayotgani bois xalqimiz orasida adabiyotga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunga kelib chop etilayotgan kitoblarning mazmunan teran, uslub jihatdan mukammal bo‘lishi har qachongidan ham ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida qo‘lyozmalardagi o‘zgarishlar yuzasidan aniq xulosalarga olib keladi, ulardagi jumlalar va gaplar bilan bog‘liq xato va chalkashliklar bartaraf etiladi. Pirovardida, o‘tmish asrda yozilgan qo‘lyozmalarga oid tadqiqotlarning sifati va salmog‘i ortadi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish esa bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. “Siyarnoma” turkumidagi asarlarning yozma manbalar matni tarixi muammosi va shu asarlar matnining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash kabi masalalar ishimizning dolzarbligini belgilovchi xususiyatlar hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘zbek matnshunosligida tarixiy asarlar va qo‘lyozmalar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbek matnshunosligidagi bir qator tadqiqotlarda yozma yodgorliklar tilini o‘rganish asosida muayyan davr tiliga xos xususiyatlar yoritildi. Bugungi kunda “Siyarnoma” turkumidagi asarlarning yozma manbalar matnlarini hozirgi kungacha nashr etilgan variantlari va asar qo‘lyozmasi bilan solishtirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish tadqiqotning asosiy maqsadidir.

“Nahjul farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asari o‘zbek matnshunosligida u qadar chuqur o‘rganilmagan va hali joriy yozuvga tabdil qilinib, chop etilmagan adabiy meroslarimizdan biridir. Unda adabiyotshunoslikka, tilshunoslikka hamda Islom tarixiga oid nodir ma’lumotlar mavjud. Asar Xorazm adabiy muhiti yodgorliklari sirasiga kirib, unda o‘g‘uz va qipchoq unsurlaridan aralash holda foydalanilganligi kuzatiladi,

Xorazm yodgorliklari umumiy bir adabiy me’yorga ega emas. Shu tufayli ularning yozilgan joyi va leksi-

kasida har xillik ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Muhabbatnoma” va “Nahjul farodis”da o‘g‘uz va qipchoq unsurlari aralash holda qo‘llaniladi.[1] Asar voqealari turli hikoyat va rivoyatlar asosida berilgan ushbu asarda muayyan masalalar Islom dinining muqaddas manbalari hisoblangan Qur’on oyatlari va hadislar asosida dalillangan.

Tadqiqotning asosiy manbalarini Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asarining hijriy 761- (milodiy 1360) yilda bin Xusrav al-Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan. Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida 879-inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxasi, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan 316[2] va B 2590[3] inventar raqamli nusxalari, Qozondagi 2 ta nusxasi hamda Sankt-Peterburg 2 ta nusxalari tashkil qiladi.

Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asarining vujudga kelishidagi asosiy omillarni o‘rganish, matniy tadqiqini yaratish, matn tarixi, asar nusxalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish bu sohada qilingan ishlarni chuqurlashtirish, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish, chetlab o‘tilgan masalalarni tadqiq etish, mavzuni yaxlit tartibli tarzda yoritib berish tadqiqotning vazifasi hisoblanadi.

Undan tashqari, tadqiqotga doir tazkiralar va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasidagi qo‘lyozma va toshbosma nusxalar ham asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Istanbulning Sulaymoniya kutubxonasidagi ushbu nusxadan tilshunoslik tarixi, turkologiyaga doir bir qancha ma’lumotlar saralanib olib tadqiq qilingan, ammo asar haligacha to‘liq, matnshunoslik yoki adabiyotshunoslik sohalarida o‘rganilmagan. Sulaymoniya kutubxonasida 879 inv. raqami ostida saqlanayotgan “Yangi Jome” nusxasi Xorazmda XIV asr o‘rtalarida yaratilgan. Ushbu asar va uning nusxalari ustida turkshunos olimlar tomonidan keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan. Asar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar orasida Yanosh Eckmanning ilmiy izlanishlari alohida o‘rin tutadi[4]. Olim asarning Istanbul Yangi Jome kutubxonasida saqlanayotgan diakretik belgili unikal qo‘lyozmasini faksimel holda nashrga tayyorladi[5]. Ammo asar transliteratsiyasini nashrga tayyorlash ishini nihoyasiga yetkazolmay vafot etgan. Buni S.Tezgan va H.Zulfiqor davom ettirib, yakuniga yetkazadilar[6]. Shu tariqa “Nahjul farodis” asari to‘lig‘icha dunyo yuzini ko‘radi.

Biz e’tibor qaratayotgan “Yangi Jome” nusxasi Ahmad Zakiy Validiy tomonidan topilgan hamda uning “Xorazmda yozilgan eski turkcha asarlar” maqolasi orqali keng jamoatchilik bu nusxadan xabardor bo‘lgan. Bu nusxa kashf etilishidan avval asar haqida faqatgina Shahobiddin Marjoniyning “Kitabu mustafedi al-ahbar fi ahvali Qozon va Bulg‘or” nomli tarixiy kitobida qisqacha ma’lumotlar bor edi, xolos[7]. Lekin Marjoniy asar haqida u hijriy 759, milodiy 1358-yilda Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ko‘chirilgan, nusxaning so‘ngida muallif yoki kotib tomonidan ko‘rsatilgan “Mahmud bin Ali as-Saroiy menşeen va al-Bulg‘oriy mevlevi...” ismi muallif ismidir. Asar Oltin O‘rda poytaxti Saroy shahrida yaratilgan va Volga turklari orasida tarqalgan. Tili bulg‘orcha deya xabar beradi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, demak, asar XIV asr o‘rtalaridan ancha oldinroq yozilgan. Marjoniy xabar bergan nusxa esa uning bulg‘orcha tarjimasi bo‘lishi mumkin. Chunki Marjoniyning o‘zi bu tilni boshqa turkiy tillardan ancha farqli deb aytadi. Bu esa asarning o‘z davrida ancha mashhur bo‘lganligiga hamda turkiy xalqlar orasida keng tarqalganidan xabar beradi.

Qo‘lyozma jami 222 sahifa (varoq)dan tashkil topgan bo‘lib, bir betda 17 qator yozuv bor. Qo‘lyozmaning asl nusxasida asosiy matn qora rangda, fasl va boblarning nomlari hamda ba’zi xos ismlar, muhim sana va jumlalar esa qizil rangda ko‘chirilgan. Jumlalar yirik harflar va harakatlar (zer-u zabarlar) bilan bitilgan. Jumlalar qora rangda, harakatlar qizil rangda yozilgan. Asardagi ushbu xususiyatlar manbani o‘qishda ancha yengillik beradi, ya’ni yaxshi ko‘chirilganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, ayrim jumlalar qizil siyohda yozilgan, oyatlar va hadislar esa qolgan matnlardan farqli ravishda harakatlari qo‘yilib ko‘chirilgan.

1 O‘zbek adabiy tili tarixi. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. – Toshkent, “O‘qituvchi”. 1995. 92-b.
2 Mahmud bin Ali as-Saroiy, “Nahjul farodis”, O‘zRFA ShI qo‘lyozmalar fondi, Inv № B.2590.
3 Mahmud bin Ali as-Saroiy, “Nahjul farodis”, O‘zRFA ShI qo‘lyozmalar fondi, Inv № 316.
4 Mahmud Ibn Ali As-Saroyining “Nahjul farodis” asarining o‘rganilishi. Maqola. D, Abduvaliyeva. “Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari”, konferensiyasi. 2024. 314-b.
5 Janos Eekmann. Nehjul-feradis I. Tipkibasim. – Ankara, 1956.
6 Nehjul-feradis I metin, II tipkibasim.Turk dil kurumi yayinlari: 518. – Ankara, 1995.
7 MUHAMMAD IBN XUSRAV NUSXASI VA UNING TURKCHA NASHRI. https://www.mirarab.uz/ruknlar/1529

Asar didaktik ruhda yozilgan, boshlanishi an'anaviy hamd, keyin Payg'ambar alayhissalomga na't bilan davom etadi. Asar umumiy to'rtta bobdan iborat. Har bir bobda o'ntadan fasl mavjud. Birinchi bobda Muhammad alayhissalomning hayotlariga doir ma'lumotlar o'rin olgan bo'lsa, ikkinchi bob esa sahobalar va to'rt mazhabboshi imomlarga bag'ishlangan. Asarning uchinchi bobida Alloh taologa yaqinlashtiruvchi yaxshi amallar pandnoma ruhda berilgan. Oxirgi bobda muallif tomonidan Alloh taolodan uzoqlashtiruvchi yomon amallar haqida so'z yuritilgan. Mahmud ibn Ali as-Saroyining yaxshi va yomon amallarni so'nggi ikki bobda fasllar orqali keltirishi aynan o'ziga xos uslubdir.

"Siyarnoma" turkumidagi asarlar, xususan, Mahmud ibn Ali as-Saroyining "Nahjul farodis" ("Jannatlarning ochiq yo'li") asarining yozma manbalar matnlarining matn tarixi muammosi va asarning ilmiy-tanqidiy matnini takomillashtirish, qo'lyozmalarning bugungi kundagi ahamiyati va ularning o'rganilish masalalari haqida fikr yuritishga harakat qilindi. Shuningdek, ushbu turkumdagi asarlarning kelib chiqish tarixi; g'oyaviy-mavzuviy taraqqiyoti; nashr variantlarining matniy-qiyosiy tadqiqi hamda poetikasi bilan bog'liq jihatlariga ham alohida urg'u berildi. Mumtoz an'analar davomchisi bo'lgan shoirning o'zbek adabiyotidagi tutgan o'rni belgilanadi.

Mahmud ibn Ali as-Saroyining "Nahjul farodis" asarining matniy tadqiqini amalga oshirishda quyidagi **asosiy masalalarni** hal etish maqsadga muvofiqdir:

– matn tarixi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va bu boradagi qarashlarga baho berish;

– matnshunoslikda ilmiy-tanqidiy matn yaratish tajribasi va uni takomillashtirish masalalarining kun tartibiga qo'yilishi zaruratini ilmiy asoslash;

– Mahmud ibn Ali as-Saroyining "Nahjul farodis" ("Jannatlarning ochiq yo'li") asarining qo'lyozma matnlarining talqiniga doir o'ziga xoslikni aniqlash.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Mahmud ibn Ali as-Saroyining "Nahjul farodis" asari matniy tadqiqini amalga oshirish, uning adabiy tahlilini ishlab chiqish, chet el kutubxonalaridagi va milliy fondlarimizdagi mavjud "Nahjul farodis" manbalarini matniy-qiyosiy tadqiq etish bugungi kun matnshunos va adabiyotshunoslar uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek adabiy tili tarixi. Tursunov U., O'rinboyev B., Aliyev A. – Toshkent: "O'qituvchi". 1995.
2. Muhammad Ibn Xusrav nusxasi va uning turkcha nashri. https://www.mirarab.uz/ruknlar/1529
3. Mahmud bin Ali as-Saroiy, "Nahjul farodis", O'zRFA Shl qo'lyozmalar fondi, Inv № 316.
4. Mahmud bin Ali as-Saroiy, "Nahjul farodis", O'zRFA Shl qo'lyozmalar fondi, Inv № B-2590.
5. Mahmud Ibn Ali As-Saroyining "Nahjul farodis" asarining o'rganilishi. Maqola. D. Abduvaliyeva. "Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari" konferensiyasi. 2024. 314-b.
6. Janos Eekmann. Nehjul-feradis I. Tipkibasim. – Ankara, 1956.
7. Nehjul-feradis I metin, II tipkibasim.Turk dil kurumi yayinlari: 518. – Ankara, 1995.

Islombek MANNOPOV,
Filologiya fanlari doktori, dotsent.
Munojatxon QODIROVA,
Farg‘ona davlat universiteti magistratura bo‘limi.
Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti
E-mail: qodirovamunojatxon@gmail.com

SO‘FIY MUHAMMAD DONISHMAND HAYOTI VA FAOLIYATI MANBALARI

Annotatsiya: Ahmad Yassaviyning hayoti, ta’limoti, hikmatlari, tariqatdagi tutgan yo‘li, ma’rifiy dunyoqarashini aks ettiruvchi bir qancha asarlar mavjud. Dastlabki ma’lumotni biz ulug‘ olim So‘fiy Muhammad Donishmandning “Mir’ot ul-qulub” asarida uchratamiz. Ushbu maqolamizmizdan murod, Ahmad Yassaviyning yaqin xalifasi, “Mir’ot ul-qulub“ asarining muallifi hisoblanmish Mavlono So‘fiy Muhammad Donishmand hayot yo‘li va faoliyatini ochib berishdir.

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, imom, shariat, tariqat, haqiqat, yechim, xalifa, risola, faqr, fano, shayx, pir, valiy, ishq, oshiq, orif, darvesh, zikr, xilvat.*

Аннотация: о жизни Ахмада Яссави, его учении, мудростях, пути в тарикате, а также его образовательном мировоззрении существует несколько произведений. Первоначальную информацию мы находим в произведении великого ученого Софи Мухаммада Донишманда “Мир’ат уль-кулуб”. Цель этой статьи – раскрыть жизненный путь и деятельность Мавлоны Софи Мухаммада Донишманда, ближайшего халифа Ахмада Яссави и автора произведения “Мир’ат уль-кулуб”.

Ключевые слова: тасаввуф, имам, шариат, тарикат, истина, решение, халиф, рисала, бедность, наука, *шейх, пир, валий, любовь, возлюбленный, ориф, дарвеш, зикр, хилват.*

Annotation: there are several works about the life of Ahmad Yasavi, his teachings, wisdom, path in the order, and his educational worldview. Initial information can be found in the work of the great scholar Sufi Muhammad Donishmand, *Mirot ul-qulub*. The goal of this article is to reveal the life path and activities of Mavlano Sufi Muhammad Donishmand, the close khalifa of Ahmad Yasavi and the author of *Mirot ul-qulub*.

Keywords: *sufism, imam, Sharia, order, truth, solution, khalifa, risala, poverty, fana, sheikh, pir, wali, love, lover, orif, dervish, zikr, khilwat.*

Kirish. Xoja Ahmad Yassaviy xalqqa sodda va ravon tilda tasavvufdan saboq berdi. Natijada turkiy xalqlar tarixida ilk bor mustaqil tariqat – yassaviylikka asos solindi.Yassaviylik tariqati 3 ta asosiy markazda:Yassi, Xorazm, O‘trorda keng yoyila boshladi. Yassaviyning xalifalaridan Hakim Ota (Sulaymon ota) – Xorazmda, So‘fiy Muhammad Donishmand O‘trorda maskan tutib, xalqqa tasavvuf ilmi yuzasidan ko‘rsatmalar bera boshladilar. So‘fiy Muhammad Donishmand uzoq vaqt ustozi Xoja Ahmad Yassaviyning yonida yurib, tasavvuf ilmini o‘rgandi.Yassaviylik tariqatining keng yoyilishiga, xalq orasiga kirib borishiga ulkan hissa qo‘shdi. Ahmad Yassaviy to‘g‘risida dastlabki ma’lumotni, So‘fiy Muhammad Donishmand yozib qoldirdi. U o‘zining “Mir’ot ul-qulub”(Qalblar ko‘zgusi) asarida ulug‘vor martabaga yetgan, oriflarning sultoni deya atalgan hamda taqvodorlarning rahnamosi – yer yuzidagi qutb ul-aqtobi darajasidagi zot Ahmad Yassaviy haqida bayon qiladi.

Asosiy qism. Yassaviy ijodini o‘rganishda muhim manbalardan hisoblangan ushbu asarning muallifi So‘fiy Muhammad Donishmandning hayot va ijod yo‘lini kengroq va teranroq yoritib berish maqsadida quyidagi asarlarga murojaat qilamiz va manbalariga tayanamiz: Yassaviylikka bag‘ishlangan eng qadimiy manbalardan Mavlono O‘rung Qo‘yloqiyning “Nasabnoma” asaridagi ma’lumotlarga qaraganda,“Mir’ot ul-qulub”(Qalblar ko‘zgusi) asari muallifi So‘fiy Muhammad Donishmand Zarnuqiy Xoja Ahmad Yassaviyning yaqin xalifalaridan biri bo‘lgan [1.51-55.]. U ustozi bilan qirq marta xilvatga kirgan, kamolotga yetgach, ustozi izni bilan O‘trorga ketib, qirq yil xalqni

irshod qilgan, yetmish yil Xizr alayhissalom bilan suhbatlashgan.Uning Sukchuk Xoja degan shogirdi ham an'anaga muvofiq Xoja Ahmad Yassaviyning huzurida o'n ikki yil xizmat qilgan. [2.50.]

Yassaviy izdoshlaridan Sulton Ahmad Haziniy (XVI asr) o'zining Ahmad Yassaviy va yassaviylikka bag'ishlangan "Javohirul-abror" asarida So'fiy Muhammad Donishmandni Ahmad Yassaviyning birinchi xalifasi bo'lganligini yozsa, [3.51.] "Hakim Ota kitobi"da Hakim Otadan keyingi ikkinchi xalifa sifatida qayd etiladi. Adibning "Javohir ul-abror" asarida So'fiy Muhammad Donishmandni Ahmad Yassaviy as'hobi suffasiga mansub xos shogirdlardan biri bo'lib, yozin-qishin mag'rib-u mashriq olamida kishilarni irshod qilish bilan mashg'ul bo'lgani haqida ma'lumot (38-b) bilan bir qatorda, So'fiy Muhammad Donishmandning ba'zi karomatlari qayd etiladi. Rivoyatga ko'ra, Marvlik imom Marvaziy boshchiligida to'rt yuz kishilik ulamo hay'ati Yassaviy va xonaqohini taftish etish uchun Yassiga keladilar. Yassaviy ko'rsatmasiga muvofiq, Ahmad Yassaviyning "mahramu hamdam xalifai pur latifa"si bo'lgan So'fiy Donishmand Imom Marvaziyning xofizasidagi uch ming masalani botiniy quvvat ila o'chirib yuboradi. Va'z aytish uchun kursiga chiqqan imomni aqlidagi ma'lumotlari yo'q bo'ladi. Xotirasini tiklash maqsadida kitobga ham qaragan edi, yozuvlarning ham o'chganini ko'radi. Lol-u bemajol qolgan imom Ahmad Yassaviyni rad etishdan va unga tenglashishdan voz kechadi. Shu ondan e'tiboran, Ahmad Yassaviyning muridi bo'ladi.

Tarixchi, faylasuf, shoir, voiz, tarjimon Faxriddin Ali Safiy (1463-yil 11-fevral, Sabzavor – 1532-1534-yillar, Hirot) "Rashahot ayn al-hayot" ("Obi hayot tomchilari", qisqachasi "Rashahot") asarida yassaviya va naqshbandiya mashoyixlari tarjimai hollariga keng o'rin bergan bo'lib, ushbu "Rashahot ayn ul-hayot" asarida So'fiy Muhammad Donishmandni uchinchi xalifa bo'lgan edilar, deya ma'lumot keltiradi. [5.17.] Shuningdek, yana shu asarda keltirilishicha, Xoja Ubaydulloh Ahror hazratlari So'fiy Muhammad Donishmandni quyidagicha ta'riflaydi: "So'fiy Donishmand mardi donishmand va mutasharri' va mutaqqiy erkonlar (ya'ni So'fiy Muhammad ulkan olim, shariatga bog'liq, taqvodor bir zot edilar)" [6.1] degan xulosaviy fikrni berishdan avval quyidagi rivoyat ham keltirib o'tiladi: rivoyatlarga ko'ra, Xoja Ubaydulloh Ahror Ahmad Yassaviyning jahriy holda zikr qilishini bid'at deb hisoblab, ma'n etish maqsadida yo'lga chiqadi. Tashrifidan ogoh topgan Yassaviy, kutib olishni xalifasi So'fiy Muhammad Donishmandga topshiradi. Uchrashuv chog'ida Xoja Ubaydulloh tomonidan, So'fiyga bir qancha savol beriladi. Undagi ma'naviy holni ko'rib, kelgusida olim va taqvodor inson bo'lishi haqida aytadi.

Ahmad Yassaviy izdoshlaridan biri Shamsiyning Zangi Otaga bag'ishlangan she'riy hikmatida ham So'fiy Muhammad Donishmand haqida ham ma'lumot keltirib o'tiladi. Adib hikmatlarida Ahmad Yassaviyni ulug'lash bilan birga, uning xalifasi hisoblangan So'fiy Muhammad Donishmandning nomini Ahmad Yassaviydan keyingi o'ringa qo'yib, hurmat bilan tilga oladi:

Haq Mustafoning payrovi,
Sulton Xoja Ahmad Yassaviy.
So'fiy Muhammad Mavlaviy,
Yo, Zangi Bobo Himmatiy!

Olim Shayx Siddiqiyning "Lamahot min nafahot ul-quds" asarida ham So'fiy Muhammad Donishmandni Ahmad Yassaviyning yaqin xalifalardan biri ekanligi haqidagi ma'lumotlarni uchratamiz. Asarda yozilishicha, Ahmad Yassaviy karomatga berilgan Bobo Mochinga nasihat qilib: "Ey azizim, bilginki, pir o'z muridining har bir holidan xabardordir. Muridning ko'nglidagi mosivoga barham berish pirning vazifasidir", deya tanbeh bergan ekan. Yana bir safar Imom majlisida o'tirganlarida, Bobo Mochin nogoh sayha tortib yuboradi. Hazrati sulton sababini so'raganida u: "Nogoh bahaybat bir sher kiyik bolasini oyog'i ostiga olib yemoqchi bo'ldi, shuni ko'rib faryod qildim", deydi. Shunda hazrati sulton karomatga berilgan muridiga qattiqroq chora ko'rish uchun uni ustunga bog'lab qamchilashni buyurgan ekan. Yassaviyning amri bilan Hakim Sulaymon va So'fiy Muhammad Donishmand Bobo Mochinni ustunga bog'lab besh yuz qamchi urishganida, u qamchi zarbining ta'sirida jin-shaytonlar tasarrufidan xalos bo'ladi va tavba qiladi.

Ahmad Haziniyning yassaviy va naqshbandiya shayxlari bayoniga bag'ishlangan "Jomi'ul-murshidin" asarida ham Mavlono So'fiy Muhammad Donishmand nomi Ahmad Yassaviy bilan bog'liq ravishda bir necha bor zikr etiladi. Chunonchi, Arslonbobo muborak omonat – xurmoni Ahmad Yassaviyga olib kelganida, uning yaqin shogirdi So'fiy Muhammad Donishmand Qur'oni karimdan "Fath" surasini taxtaga yozib mutolaa qilayotgan edi. U har kuni mashg'ulotdan qaytayotganda ustoz va madrasaga hurmat yuzasidan bu taxtani boshiga qo'yib, yuzini madrasaga qaratib, orqasi bilan chiqib ketardi. Kunlardan bir kun ana shunday

holda chiqayotganida So‘fiy Muhammad Donishmand Arslonbobga yo‘liqadi, ulug‘lar oldidan o‘tish adabdan emasligini o‘ylab, to‘xtab qoladi…(62-b.) Yana asarda aytilishicha, So‘fiy Muhammad Donishmand ustoziga shu darajada yaqin murid bo‘lgan ekanki, Ahmad Yassaviy unga ulug‘ bir sir –juma namozini ado etish uchun har juma tayyi makon karomati bilan Misrga borib kelishini aytadi, hatto bir daf’a uni ham bu muborak safarga olib ketadi…(68-b.)

So‘fiy Muhammad Donishmand uzoq yillar davomida ustozining yonida yurib tasavvuf ilmini egalladi. Ustoziga munosib shogird bo‘lishga erishdi. O‘zi ham keyinchalik bir qancha shogirdlarga ilm ulashdi, bir qancha shogirdlar yetishtirib chiqardi. So‘fiy Muhammad Donishmand Zarnuqiy haqida mavjud manbalarda uning tug‘ilgan joyi va vafoti aniq ko‘rsatilmagan. Ammo uning ismidagi “Zarnuqiy” nisbasi uning Zarnuq qishlog‘idan ekanligini anglatadi. Zarnuq, shuningdek, Zarnuj, Ujuqzarnuq, Zerinuh yoki Saritoq nomlari bilan tanilgan qadimgi shahar - qal’a bo‘lib, Sirdaryoning so‘l sohilida joylashgan joy nomidir. Mavlono So‘fiy Muhammad Donishmandning vafoti noaniq bo‘lganligi bois ayrim manbalarga tayangan holda uning vafoti sanasini ham taxminiy keltirib chiqaramiz. Shayx Ahmad Yassaviy hijriy 562-yil, milodiy 1166-yil vafot etgan.Vafotidan avval jasadini yuvish va kafanlash ishini So‘fiy Muhammad Donishmand va Abduholiq Xonga vasiyat qiladi. Vasiyat So‘fiy Muhammad Donishmand tomonidan amalga oshirilgan. So‘fiy Muhammad Donishmandning muridi Abdumalikning hijriy 650 (1252) -yilda vafot etganligiga doir ma’lumotlar bor. Ushbu holatda So‘fiy Muhammad Donishmandning vafoti, shayxi bilan kuyovining vafoti sanalari orasida, ya’ni hijriy VI (milodiy XII) asrning so‘nggidan hijriy VII(milodiy XIII) asrning boshlarida bo‘lgan degan ehtimol ham bor.

Yassaviy izdoshlaridan Olim Shayx Siddiqiyning (XVII asr) “Lamahot min nafahot ul-quds” asarida So‘fiy Muhammad Donishmandning qabri haqida quyidagi ma’lumotlar berib o‘tilgan: “Arslonbob maqbarasi 200-300 metr masofasi yaqinida atrofi panjara bilan o‘ralgan bir tuproq uyumi bordir. Chetiga esa qozoq va turkchada “Donishmand Ota” deb yozib qo‘yilgan. So‘fiy Muhammadning qabri sharifi u faoliyat ko‘rsatgan O‘trorda joylashgan. [7.38.]

Shuningdek, Ahmad Yassaviy va uning xalifalari haqidagi ma’lumotni biz filologiya fanlari nomzodi Nodirxon Hasan tomonidan nashrga tayyorlangan “Mir’ot ul-qulub” asari orqali ham keng ko‘lamda o‘rganamiz. Asarda muallif tomonidan quyidagicha fikr ifodalanadi: “Mir’ot ul-qulub” Yassaviy fikr-qarashlarini o‘rganish va yassaviya tariqatining tarixi va taraqqiyot yo‘llarini xolis tadqiq etish jihatidan muhim manba vazifasini o‘taydi. Ahmad Yassaviy haqida ma’lumot berib o‘tilgan bunday ilmiy, tarixiy va tasavvufiy xarakterdagi asarlarni o‘qib-o‘rganmasdan, ularga munosabat bildirmasdan yassaviyshunoslik masalalarida fikr yuritish qiyin [8.143.].

Xulosa.Yuqorida keltirilgan ushbu manbalar bizga So‘fiy Muhammad Donishmand Zarnuqiyni Ahmad Yassaviyning eng yaqin kishisi, xalifasi ekanligidan dalolat berish bilan birga, o‘lkamizda yassaviylik tariqatining yoyilishidagi xizmatlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Haziniy. Javohir ul-abror min amvoj il-bihor. Istanbul universiteti kutubxonasi, turkiy qo‘lyozmalar bo‘limi, №3893.

2.Haziniy. Jomiy ul-abror- Bibliotheque Nationale, Pers A.F.263.287.

3.Haziniy. Manba’ ul -abhor- fi riyoz il-abror – Sulaymoniya kutubxonasi, Shahid Ali posho bo‘limi, №1425.

4.Shayh Muhammad Alim Siddiqiy. Lamahat min nafahat il-quds.Ed.M.N.Ranjha.Islamabad-Lahor.-h.1406/m.1986.

5.Яссавий Аҳмад. Ҳикматлар. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи И.Ҳаққулов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат,1991. 256-б.

6.Яссавий Аҳмад. Девони ҳикмат. Нашрга тайёрловчи Ҳасанов Нодирхон Дадахонович. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004.



Жандос БАЙЗАКОВ,
Шыршық мемлекеттік педагогика университеті
*Өзбек тіл білімі кафедрасының (**PhD**) оқытушысы*
bazhjakovzhandos@gmail.com

АБАЙ ІЛІМІНДЕГІ “ТҰЛҒА” МӘСЕЛЕСІ

Аннотация: Ұлы Абайдың шығармашылық мұрасы – халқымыздың ғасырлар бойы ұрпақтан-ұрпаққа жалғасатын, уақыт өткен сайын маңызын жоймайтың рухани қазынасы, зерттеудің көзі болып табылады.

Кілтті сөздер: заман, уақыт, толық адам, , ыстық қайрат, нұрлы ақыл, жылы жүректі.

Аннотация: творческое наследие великого Абая – это духовное сокровище нашего народа, которое веками передавалось из поколения в поколение, не разрушало его значение с течением времени, является источником исследований.

Ключевые слова: время, время, полный человек,, горячий Кайрат, сияющий разум, теплое сердце.

Annotation: the creative heritage of the great Abai is the spiritual treasure of our people, which has been passed down from generation to generation for centuries, has not destroyed its significance over time, and is a source of research.

Key words: time, time, full man,, hot kite, shining mind, warm heart.

Ұлы Абайдың шығармашылық мұрасы – халқымыздың ғасырлар бойы ұрпақтан-ұрпаққа жалғасатын, уақыт өткен сайын маңызын жоймайтың рухани қазынасы, зерттеудің көзі болып табылады. Абайды тану, бағалау, насихаттау, оқыту – қоғамдық ойсанада тың серпілістер туғызып, мақсаткерлікке жұмылдырады. Сондықтан заман, уақыт талабына орай Абайды жаңа қырынан тану, ғылыми тұрғыдан тың байламдар жасалуы заңдылық. Ақынның мұрат-мақсаттарын бүгінгі жастарымыздың санасына сіңіру абыройлы борышымыз болмақ.

Адам мұраты мен халық мүддесін ұштастырудың негізгі бағыты ретінде ақын “толық адам” ілімін ұсынады. Абай мұраларындағы “толық адам”, “жетілген адам” жайлы ойпікірлер терең философияға, педагогикалық тағылымға құрылған. Ең алдымен осы “толық адам” дегеніміз қандай адам? Абай айтып отырған “толық адам” тәрбиелі, адамгершілігі мол, имандылық қасиеттерді бойына жиған, “бес асыл істі” жолдас қылып, “бес дұшпаннан” безген жан. “Ақыл, қайрат, жүректі бірдей ұстайтын” жаны сұлу адам.

“Үш-ақ нәрсе адамның қасиеті, Ыстық қайрат, нұрлы ақыл, жылы жүрек” - деген ақын адамгершіліктің биік өлшемі туралы тәлімгерлік ойын он сегізінші қара сөзінде “Тегінде, адам баласы адам баласынан ақыл, ғылым, ар, мінез деген нәрселермен озбақ. Онан басқа нәрселермен оздым ғой демектің бәрі де – ақымақшылдық” [1] деп толықтырып, тереңдете түседі.

Ал он жетінші қара сөзінде таласқан қайрат, ақыл, жүректі ғылымға әкеліп жүгіндірген ұлы ойшыл ғылымға “...үшеуің басыңды қос, бәрін жүрекке билет” деген шешім айтқызып, “Осы үшеуің бір кісіде менің айтқанымдай табылсаңдар, табанының топырағы көзге сүртерлік қасиетті адам – сол” деген ой түйеді. Жан-жақты жетілген адам туралы жоғарыда айтылған Абай ойларының түйіні осы сөзде жатқан сияқты.

Абай мұрасындағы “толық адам” жайлы ақындық пікірді жетілдіре, дамыта түсетін “үш сүю” ұғымы жайында “Ұлы ақын нағыз адам, толық адам қандай болу керек деген сұраққа жауап іздейді, әрі оған жауап та береді. Абай поэзиясын тақырыптақырыпқа бөлшектемей, тұтастай қарастырсақ үш баға жетпес асыл қазыналарды бөліп алуға болар еді”, - дейді белгілі әдіскер, ғалым Қ.Бітібаева [2]. Өз топырағымызда дүниеге келген ғұлама ғалым әл-Фарабидің трактаттарында молынан сөз болатын болмыс пен адамның кемеліне келіп, жетілуі де Абайдағы толық адамның дәстүрлі таным екендігін бекіте түседі. Әл-Фарабиге ортақ кемелділік пен өз парқынан ләззат алу танымы Абайда да бар. Тек Абай әл-Фарабидегі кемелділікті толық адам, жүректі мекендейтін үстем күш пен талпынғыш күшті сүю ретінде танытады.

Толық адам жөніндегі ақын пікірлерінің кейбір жақтары шығу төркіні жағынан шығыс ойшылдарымен іліктес жатса да, Абай оны өз заманы талабына қарай сыншыл ақыл тұрғысынан екшеп, өзінше қорытып, өзіндік ой-пікірге айналдырып жіберген. Ақынның осы бір даналығы мен шеберлігін М.Әуезов “...өзінің ой-сезім дүниесіне әсер еткен ағымдардың бәрін өзінің өздік ерекше елегінен өткізіп, қорыта өзгертіп, өзіндік етіп алады” - деп әділ бағалаған.

Абай үнемі ебін тауып кісінің адамгершілігін ұштай түсумен болады. “Адамзат тірлікті дәулет білмек, Ақыл таппақ, мал таппақ, адал жүрмек” өлең жолдарынан ақынның өзі айтқандай, адамда екі түрлі қуат бар: жан қуатымен ақыл таппақ та, тән қуатымен мал таппақ,

еңбек етпек. Ақын екеуінің де адалдықпен болғанын қалайды және осы ойының жүйелі түрде қалыптасқан таным екенін кейінгі өлеңдерінде сапалы өсудегі қайталауымен дәлелдеп отырады.

Ақын бұл сөзі арқылы “адам бол, адам атын ақта” деген тағылымды ойын білдіріп отыр. Ақын өзінің арманды ойларын көбіне жастарға арнап айтады. Сол жастарды өзі армандаған адамгершілік қалыпта көргісі келеді. Қиялында, санасында қалыптастырған адамгершілік сипатын сәндей түседі, ұштай береді.

“Күншіліксіз тату бол шын көңілмен, Қиянатшыл болмақты естен кеткіз” деген өлең жолдарынан ақын адамдағы қиянатшыл қаупін көп айтады. Оның ойынша, барлық кеселді қасиеттердің шығар көзі де, өсіп, өрбіп, ұлғая жетер жері де – осы қиянатшылдық. Ақын “әуелі көкіректі тазалау керек” дегенде, адам ең алдымен осы қиянатшылдықтан аман болса екен дейді. “Ғылым таппай мақтанба” өлеңінде ақынның бұған дейін айтылып келген адам болу жайындағы ойлары әжептәуір жүйеленіп, тиянақтала түседі [2].

Абайға дейін поэзияда адам мәселесі жырланбады емес, жырланды. Адамның әр жасы, әр жастағы оның жағдайы, жақсы-жаман қасиеттері – бәрі де сөз болды. Алайда ол поэзияда сырттай сипаттау басым түсіп жатты. Ал, Абай ең басты мәселе етіп Адамды, оның жеке ісін, сезімін, тұрмысын, адами қасиеттерін алды. Оның поэзиясында Адам – Алланың махаббатпен жаратқан ең ұлы, ең сүйікті туындысы. Сол себепті бүкіл әлемнің, қауымның, болмыстың темірқазығы – Адам. Оның мүмкіндігі мен құдіреті – орасан. Адам - өмірдің қозғаушы күші, тірлікті дамытушы, қоғамды түзеуші. Міне, Абай осы адамды түсіну мен адамды тану міндетін ерекше саралайды.

Абай Адамның – танылуы қиын жұмбақ деп біледі. Абай түсінігінде, адамның құдіреті – оның рухани азаттығында, ар тазалығы мен сезім еркіндігінде, ойдың тәуелсіздігінде, сөз бостандығы мен мінездің тәуекелділігінде.

Абай поэзиясынан Адамның өзі – құдірет екенін, құдіреті білімінде, ақылында, жүрегі мен жанында екенін көреміз. Адамды бар жағынан тексерген Абай үшін адам – бір жағынан біртұтас әлем, екінші жағынан адам өз ішінде қайшылығы мол, күрделі тұлға.

“Мен жазбаймын өлеңді ермек үшін, Жоқ-барды, ертегіні термек үшін.

Көкірегі сезімді, тілі орамды, Жаздым үлгі жастарға бермек үшін”, деген өлең жолдарынан ақынның өмірлік мұраты жас ұрпақтың бойына адамгершілік қасиеттерді сіңіру болды [3].

Жаһандану үрдісінің ықпалы күшейіп, ұлт болашағы маңызды мәселеге айналып, барлық ұлттық құндылықтарымызға қамқорлық керек болып отырған қазіргі уақытта “адамның баласы” болып, елдің ертеңі үшін өмір сүруді өсиет етіп кеткен Абайдың асыл сөздерін жас ұрпаққа тәрбие берудегі басты құрал ретінде қолдану кезек күттірмейтін мәселе екендігін уақыт өзі дәлелдеп отыр.

Бұл Абайдың толық адам туралы ілімінің ұлттық сипатымызды, халқымызға тән ерекше қасиеттерімізді сақтап, қазақты қазақ етіп танытатын, ел ертеңі болар ұрпақты тәрбиелеудегі рөлі мен маңызын анық көрсетіп, айқындап тұрған пікір.

Бүгінгі күннің өзекті мәселесі жастарды діни тәрбие, имандылық арқылы адамгершілікке, адами ізгілікке жетелеу болатын болса, ұлт ұстазы Абай мұрасының осы тұрғыдағы маңызы ерекше. Ақын түсінігіндегі “жетілген адам” - ең алдымен иманды адам. Имандылық бар жерде жамандыққа, жат қылықтарға орын жоқ екені мәлім. “Алланың өзі де рас, сөзі де рас” деген ақын өсиетінің бүгінгі күні имандылықтан ада болып, өз дінінен адасып, адамдық қасиеттерді аяққа таптап, түзу жол таппай жүрген замандастарымыз үшін өте қажет екені анық. Адамгершілікке тәрбиелеудің бастау бұлағындай болып көрінетін діни тәрбиенің маңызын ашып көрсете білген Абай мұрасы адам тәрбиесіндегі негізгі бағытты да анық сілтеп тұрғандай [4].

Ізгілікті уағыздап, ыстық қайрат, нұрлы ақыл, жылы жүректі адам тәрбиесі жайында өлмес сөз қалдырған ұлы Абайдың өзін нағыз “толық адам” десек болғандай.

Қорыта айтқанда, “Жүрегімнің түбіне терең бойла, Мен бір жұмбақ адаммын, оны да ойла”, деп заманынан озық туған, қараңғылыққа қарсы тұрып, халық өміріне даналық сәулесін шашқан ойшыл Абай - өзі сипаттаған “нағыз адамға” тән қасиеттердің бәріне ие, ұрпаққа үлгі етерлік тұлға. Абай мұрасы еліміздегі білім беру жүйесіндегі өзіндік мәні бар, ағартушылық маңызы зор, педагогикалық идеяларға толы, психологиялық ой-пікірлерге бай тәлімгерлік тағылымы баға жепес өміршеңдігімен ұрпақтан-ұрпаққа жетіп, ұлттық қазынамыз болары сөзсіз. Абайдың адам тәрбиесі хақындағы педагогикалық көзқарастары аса үлкен мәнге жетіп, әлі де болашақ ұрпақтың көкірегін оятар демекпіз.

ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Мырзахметұлы М. Абайдың адамгершілік мұраттары: Ұлы ақынның 150 жылдығына – Алматы: Рауан, 1993
2. Әліпхан М. Қазақ әдебиетіндегі адамгершілік ілімі. – Алматы, 2013
3. Ахметов З. Абайдың ақындық әлемі. – Алматы: “Ана тілі”, 1995.
4. Мырзахметұлы М. Абайтану. Алматы, 2010

Мамаджанова ГУЛЬМИРА Мусиновна,
илмий рахбар Доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент



Тимур АЮПОВ,
Доцент Кокандский Государственный Университет
Timurka2005@bk.ru

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ РЕАЛЬНОСТИ И БУДДИСТСКИХ АЛЛЮЗИЙ В РОМАНЕ В.О. ПЕЛЕВИНА “ЧАПАЕВ И ПУСТОТА”

Аннотация: в европейской культуре буддизм воспринимается как несколько пессимистическое мировоззрение, как концепция, во многом противоположная европейскому гуманизму. По мнению С. Гурина, внутри европейской философии созрело предельно антигуманистическое учение – мрачный и безнадёжный, беспросветный и безысходный постмодернизм. Следует отметить, что роман В. Пелевина “Чапаев и Пустота”, на наш взгляд, является примером художественного синтеза этих совершенно разнородных как по сути, так и по природе возникновения явлений. Представляется, что В. Пелевин превращает современную западную философию во введение к буддийскому канону. Или же наоборот, и буддизм автору нужен для иллюстрации философских тезисов постмодернизма.

Ключевые слова: Пелевин, постмодернизм, интертекст, аллюзия, реминисценция, буддизм, реальность, художественное поле, художественная реальность.

Annotation: in European culture, Buddhism is perceived as a somewhat pessimistic worldview, as a concept that is in many ways opposed to European humanism. According to S. Gurin, an extremely anti-humanistic teaching has matured within European philosophy - a gloomy and hopeless, bleak and hopeless postmodernism. It should be noted that V. Pelevin’s novel “Chapaev and Emptiness”, in our opinion, is an example of the artistic synthesis of these completely heterogeneous phenomena both in essence and in the nature of their origin. It seems that V. Pelevin turns modern Western philosophy into an introduction to the Buddhist canon. Or, on the contrary, the author needs Buddhism to illustrate the philosophical theses of postmodernism.

Key words: Pelevin, postmodernism, intertext, allusion, reminiscence, Buddhism, reality, artistic field, artistic reality.

Annotatsiya: Yevropa madaniyatida buddizm ma’lum darajada pessimistik dunyoqarash, Yevropa gumanizmiga ko‘p jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan tushuncha sifatida qabul qilinadi. S.Gurinning fikricha, Yevropa falsafasida nihoyatda g‘ayriinsoniy ta’limot – ma’yus va umidsiz, ma’yus va umidsiz postmodernizm pishib yetdi. Ta’kidlash joizki, V.Pelevinning “Chapayev va bo‘shlik” romani, bizningcha, bu mutlaqo bir-biridan farq qiluvchi hodisalarning ham mohiyati, ham sodir bo‘lish tabiati jihatidan badiiy sinteziga namunadir. Aftidan, V. Pelevin zamonaviy G‘arb falsafasini buddaviylik kanoniga kirishga aylantiradi. Yoki aksincha, postmodernizmning falsafiy tezislarini tasvirlash uchun muallifga buddizm kerak.

Kalit so‘zlar: Pelevin, postmodernizm, intertekst, tashbeh, reminissensiya, buddizm, reallik, badiiy maydon, badiiy reallik.

В нашей статье – мы пытаемся проанализировать роман В. Пелевина “Чапаев и Пустота” в контексте буддистских традиций. Название романа сродни человеческому имени и, по П. Флоренскому, может либо возвышать по своей сути, либо, в случае разрыва между заданным и реализуемым смыслом, становится причиной раздвоенности [1. с. 45]. Полагаем, что название романа В. Пелевина концептуально. Оно именует происходящее действие, и в таком качестве включается в ряд “концептуальных” названий: “Отцы и дети”, “Преступление и наказание”, “Война и мир”. Разница

в том, что вместо имён нарицательных В. Пелевин использует имена собственные, тем самым встраивая своих героев в уже несколько иной ряд: “Тарас Бульба”, “Обломов”, “Анна Каренина”. Уже в этом проявляется вполне буддийская логика: “А не есть А. Это и называют А”. Чапаев есть фамилия, т. е. в буддистской логике – единичное, и в то же время есть понятие, т. е. – общее: Чапаев есть личность и Чапаев есть миф. Отсюда: личность есть миф, но поскольку миф не есть личность, то “Чапаев не есть Чапаев. Это и называют Чапаев”. Пустота есть фамилия, т. е. личность поэта-комиссара, и пустота есть одно из основных буддистских понятий, отсюда: фамилия есть понятие; отсюда: фамилия есть обозначение общего. В частности, Ж. Деррида полагал, что имя исторического деятеля может “выступать метонимией” логоцентрических понятий, отсюда: общее, т.е. – Пустота, есть обозначение личности, т.е. личность есть пустота, т. е. “личность не есть личность. Это и называют личностью” [2. с. 56].

Таким образом, имена героев обретают метафизический статус: они значат больше, чем обозначают. Перед нами яркий пример общей тенденции в современной прозе – деперсонализации героев. Героями становятся определённые рациональные или же иррациональные сгустки авторской воли. Именно по этой причине, на наш взгляд, столь частотны обращения к Ф. Ницше, З. Фрейду, К. Юнгу не только в романе В. Пелевина, но и в других современных текстах. Современный герой есть бегство от героя, отсюда столь яркое обезличивание – персонажи современной прозы напоминают в лучшем случае восковых двойников относительно “реальных” персонажей XIX века, или же в категориях Ж. Батая – их симулякры [4]. Если В. Розанов уже героев Н. Гоголя называет восковыми фигурами, то в настоящее время перед нами разворачивается возведённая в квадрат платоновская метафора: тени на стенах пещеры отбрасывают тени на сознание тех, кто спит в пещере. Привычный нам герой русского романа – с конкретно описанной физической оболочкой, личностным набором движений и жестов и индивидуальной внутренней жизнью растворяется в пространстве вне - и без личностного мира. Если герой прошлого – это интенциональная уплотнённость в сфере идеального представления автора о самом себе, то герой нынешний – беглец от своего (Я) к другому, где другое – совсем не обязательно личность. Это может быть некое деяние-состояние как, например, “автоматическое письмо” сюрреалистов или “метафизика мгновения” Г. Башляра, так и размышление - игра, как рациональные конструкты Х. Борхеса, иррациональные – Х. Кортасара, или же многоуровневая символика жизни-как-игры в романах У. Эко и М. Павича. Не случайно герой В. Пелевина – Пётр Пустота – признаётся лечащему врачу: “Моя история с самого детства – это рассказ о том, как я бегу от людей” [5. с. 101]. Не случайно жизнь для него – “бездарный спектакль”, а его “главная проблема – как избавиться от всех этих мыслей и чувств самому, оставив свой так называемый внутренний мир на какой-нибудь помойке” [5]. И это не продукт “модного в последние годы критического солипсизма”, о чём честно предупреждает во вступительном слове Урган Джамбо Тулку VII – одна из масок автора [5]. Подобный персонаж втягивает нас именно в атмосферу спектакля, тем более что сцена присутствует в первой и последней главах романа, и уже в первом абзаце Урган Тулку предупреждает об упущенном жанровом определении – “особый взлёт свободной мысли” [5]. Предупреждение это ложно: “жанровое определение” фигурирует в тексте романа ещё дважды – в истории болезни Петра Пустоты, где оно приписывается самому больному, и в диалоге Пустоты с бароном Юнгерном, который в контексте романа напоминает читателю “коллегу” булгаковского Воланда, заведующим “одним из филиалов загробной жизни” [5]. Обыгрывая в романе известные культурные сюжеты, В. Пелевин создаёт их довольно остроумные варианты: известный сон Чжуан-цзы в пересказе Чапаева звучит примерно так: китайскому коммунисту Цзе Чжуану снится, что он бабочка, занимающаяся революционной работой, за что его/её ловят в Монголии и ставят к стенке. Удачна в устах Чапаева интерпретация кантовского афоризма: “Что меня всегда поражало <...> так что звёздное небо под ногами и Иммануил Кант внутри нас” [5]. Чужие идеи, приёмы, темы становятся своеобразными интеллектуальными костылями – без них основная идея романа превращается в описание того, как Художник, поэт Пётр Пустота, недоволен окружающим миром, так называемым “новорусским периодом” современной отечественной жизни, и бежит от фантома первоначального накопления капитала в созданный своим воображением мир, Внутреннюю Монголию, что, по определению барона Юнгерна, главного специалиста в потусторонних делах, означает “место, откуда приходит помощь” и одновременно место “внутри того, кто видит пустоту”, т. е. просветлён-

Annotation: the importance and methods of conducting linguistic analysis in improving the effectiveness of native language education are of great significance. This article discusses the application of linguistic analysis in native language lessons, with a particular focus on how grammatical, semantic, and syntactic analysis can support the development of students' language competencies.

Linguistic analysis serves as an effective tool for helping students understand the structural features of language and develop the ability to apply them correctly in both theoretical and practical contexts. The systematic and purposeful use of linguistic analysis methods in the learning process allows students to acquire deeper language knowledge and enhances the clarity, coherence, and logic of their speech performance.

Key words: *linguistic analysis, native language education, grammatical analysis, syntactic analysis, semantic analysis, language units, language use skills, student development, quality of education.*

Mustaqillikka erishilgach, yurtimizning har bir fuqarosining ma’naviy hayotida ona tili, ya’ni milliy tilimizning o‘rni va ahamiyati yanada kuchayib bordi. Ona tili nafaqat muloqot vositasi, balki millatning tarixiy merosi, madaniyati va ma’naviyatining asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida ona tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari tubdan qayta ko‘rib chiqildi va zamonaviy talablarga muvofiq yangilandi.

Bugungi kunda ona tilini chuqur o‘rganish orqali yosh avlod milliy o‘zligini anglab, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi. Ta’lim jarayonida ona tilining nutqiy madaniyatini, adabiy merosini o‘rgatish, tilni to‘g‘ri va erkin ishlatish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bundan tashqari, ona tilini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar joriy qilinib, ta’lim sifati yanada oshirilmoqda.

Shu tariqa, ona tilini rivojlantirish va uni kelajak avlodga yetkazish mas’uliyati ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa o‘z navbatida, milliy madaniyat va ma’naviyatning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.O‘quvchilar endi ona tili darslarida faol ishtirok etuvchi, o‘z bilimini rivojlantiruvchi asosiy subyektga aylantirildi. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”[1].

Har bir avlodning oldida insoniyat tomonidan yaratilgan barcha bilim va boyliklarni o‘rganish, o‘zlashtirish hamda rivojlantirish mas’uliyati turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini bunday jarayonsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Ushbu maqsadga erishishning eng samarali yo‘li ta’lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirish orqali yoshlarni ilm-fan asoslari bilan chuqur ta’minlashdir.

“Ona tili” darslarida uzundan uzoq, murakkab grammatik qoidalarni, “O‘zbek adabiyoti” darslarida ijodkor hayotidagi o‘tkinchi sana va voqealarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ona tilida sof so‘zlash, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalay olish, mustaqil fikrlash, badiiy asarni ifodali o‘qish, uning ruhini his qilish, badiiy san’atidan lazzatlanish, so‘zdan zavqlanish ruhida ta’lim bermoq kerak. Ona tili va adabiyot o‘qitishdan kutilgan pirovard natija – shu[2]!

“Ona tili” ta’lim tizimida eng muhim fanlardan biri hisoblanadi. U jamiyat a’zolarini ijodiy fikrlashga, o‘z fikrlarini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma tarzda ifodalashga o‘rgatadi. Davlat rahbarining: “Kimda kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”[3], - degan gaplari ayni haqiqat. Mazkur fikrlar orqali davlat rahbari o‘zbek tilining betakror go‘zalligini va uning xalqimizning ma’naviy merosini ifodalashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Tilimizning ulug‘vorligi faqat uning so‘z boyligi va nafisligida emas, balki xalqimizning tarixiy – madaniy yodgorliklarida, adabiy merosida ham o‘z aksini topadi.

Ona tili ta’limining samaradorligini oshirishda lingvistik tahlil o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlilni amalga oshirishda asosiy vositalardan biri o‘qitish metodlarini to‘g‘ri tanlashdir. Ona tili darslarida o‘qituvchi ko‘proq o‘quvchi faoliyatini rag‘batlantiruvchi metodlarga murojaat qiladi. Chunki o‘quv materialini faqat tushuntirish yoki tushuncha, ta’rif va qoidalar atrofida suhbat olib borish orqali o‘rgatish yetarli bo‘lmaydi. Ona tili darslarida o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, ya’ni subyekti bo‘lib, har bir o‘quv topshirig‘ini aqliy faoliyat jarayonidan o‘tkazganida, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish ancha osonlashadi va darsning samaradorligi oshadi. O‘qituvchi amaliy metodlarga tayangan holda o‘quv topshiriqlarini samarali bajarilishiga erishib, o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim olishini ta’minlaydi.

Ona tili o‘qitish metodikasining predmeti ta’lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya’ni o‘qish va yozishni, fonetika, grammatika kabilarni bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Ona tilidan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o‘zlashtirish qonuniyatlarini o‘rganadi, til o‘rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi.

Ona tili o‘qitish metodikasi amaliy fan sifatida uch vazifani bajaradi:

1. Nimani o‘qitish kerak? savoliga javob beradi, ya’ni boshlang‘ich sinf uchun dasturlar ishlab chiqadi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratib beradi.

1 https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language/

2 Mirzaqulov T. Grammatikani o‘qitishning lingvistik asoslari. Toshkent., O‘qituvchi, 1994.

3 https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language/

Ularning samaradorligi va muvofiqligini doimiy tekshirib boradi.

2. Qanday o‘qitish kerak? savoliga ta’lim berishning metodlari, metodik usullar, mashqlar sistemasi, qo‘llanmani tatbiq etish tavsiyanomalarini, yozma ish, amaliy ishlar sistemasini, dars, uning turlarini ishlab javob beradi.

3. Nega xuddi mana shunday o‘qitish kerak? Bunda ilmiy nuqtayi nazardan eng foydali metodlarni o‘rganish, tanlash, asoslash, tavsiyalarni eksperimental tekshirish vazifalarini bajaradi[4].

O‘quvchilarga ona tilidan lingvistik bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o‘qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o‘quvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andozaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi[5].

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, ona tili o‘qituvchilari lingvistik tahlil o‘tkazishda ta’lim metodlarini tanlashda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim o‘qituvchilar biron-bir metodni ortiqcha baholab, boshqasini e’tibordan chetda qoldiradilar; ba’zilari esa har bir metodni bir xil darajada qo‘llashga intilishadi. O‘qituvchilarning ko‘p qismi esa ta’lim metodini tasodifiy ravishda tanlashadi.

O‘qituvchi ta’lim metodini tanlashda quyidagi asosiy tamoyillarga e’tibor berishi lozim:

1) tanlanadigan metod o‘rganilayotgan til materialining mazmuniga mos bo‘lishi zarur. Mavzuning murakkablik darajasi, o‘quv materialining hajmi va o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan tushunchalar metodni tanlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning bilim darajasi va ilgari o‘rgangan til hodisalari haqida tushunchalariga qarab o‘qituvchi mos metodni tanlashi lozim. Agar o‘quvchilar ilgari o‘rganilgan materialni qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘lsalar, qayta xotiralashga asoslangan metodlardan foydalanish bilan birga, muammoli o‘qitish metodidan ham samarali foydalanish mumkin.

Agar mavzu hajmi katta va murakkab bo‘lsa, tushuntirish - namoyish etish metodini muammoli ta’lim metodi bilan birga qo‘llash maqsadga muvofiq;

2) tanlanayotgan metod ona tili ta’limining umumiy maqsadi va mavzuning xususiy maqsadiga mos bo‘lishi kerak. Yangi mavzuni o‘rgatishda, o‘tilgan materialni xotirada tiklashga e’tibor berilib, ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning faolligi oshiriladi;

3) tanlanadigan metod o‘quvchilarning materialni o‘zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash qobiliyati, yosh va shaxsiy xususiyatlarini ham inobatga olgan holda tanlanishi zarur. O‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlaridan kelib chiqib, bir vaqtning o‘zida bir necha metoddan foydalansa bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil egallash jarayonida o‘zlashtirishi bo‘sh o‘quvchilar uchun qayta xotiralash va qisman izlanuvchanlik metodlaridan foydalansak, o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar uchun ko‘proq izlanuvchanlik metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir[6].

Lingvistik tahlilni o‘tkazishda tanlanadigan metod o‘quv materialini o‘rganish uchun ajratilgan vaqt va o‘qituvchining imkoniyatlariga mos bo‘lishi zarur. Agar mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt qisqa bo‘lsa, o‘quvchilarning izlanishiga asoslangan metodlarni qo‘llash imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Bunday holatda o‘qituvchining bayoni va evristik suhbatlar orqali tahlil o‘tkazish yaxshi natija beradi.

Lingvistik tahlilning metodlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ✓ metod obyektiv, ya’ni qo‘llanilishi aniq vaqt va joyda bo‘lishi;
- ✓ metod izchil va aniq tushunchalarga asoslangan bo‘lishi;
- ✓ metod universal bo‘lib, tahlil qilinayotgan sohaning asosiy bo‘limlarini (kamida to‘rt) o‘z ichiga olishi zarur;
- ✓ metod sodda va tushunarli bo‘lishi kerak.

Tilshunoslikda talab darajasida qo‘llaniladigan bir nechta metodlar mavjud. Ular xarakteriga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. Birinchisi, **umumiy metodlar** bo‘lib, ular tilshunoslikning barcha sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Mazkur metodlar tilning umumiy qoidalari, struktura va funksiyalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Ikkinchisi, **lingvistik tahlil metodlari** tilni chuqur o‘rganish va tahlil qilishda qo‘llaniladi. Ular tilning tarkibiy qismlarini (fonetik, morfologik, sintaktik va semantik jihatlarini) o‘rganishda asosiy vosita bo‘ladi. Bu metodlarga semantik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil kabi turli metodlar kiradi. Ushbu metodlar bir-biriga bog‘liq holda ish ko‘radi va muayyan xulosalarni

4 https://elib.buxdupi.uz/books/Ona%20tili.pdf
5 G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi.1995.
6 Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent. 2010.

bayon etadi[7]. Bunday metodlar tilni har tomonlama va chuqur tahlil qilishda yordam beradi, tilshunoslik sohasida talab darajasida ilmiy natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Ona tili ta’limining asosiy qismi grammatikani o‘zlashtirishdan iborat. Lingvistik tahlil yordamida o‘quvchilarga so‘zlarning morfologik va sintaktik tahlilini o‘rgatish mumkin. O‘quvchilar so‘zlarning turli shakllarini (fe’l, ot, sifat, ravish) aniqlashni va ularni mantiqiy ravishda birlashtirishni o‘rganadilar. Bu esa ularning grammatik va stilistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilarga ma’lum bir gapni tahlil qilish va undagi so‘zlarning sintaktik funksiyalarini aniqlash taklif qilinadi. *O‘qituvchi mavzuni mukammal tushuntirmoqda* gapini tahlil qilishda o‘quvchilar *o‘qituvchi* ega, *mavzuni* to‘ldiruvchi, *tushuntirmoqda* kesim va *mukammal* aniqlovchini aniqlaydilar.

Semantik tahlil tilning ma’no tizimini o‘rganish jarayonidir. Ona tili darslarida o‘quvchilarga so‘zlarning turli ma’nolarini va ularning kontekstdagi o‘rinlarini aniqlashni o‘rgatish juda muhim. Lingvistik tahlil yordamida o‘quvchilar so‘zlarning bosh va ko‘chma ma’nolarini, shuningdek, sinonim, antonim va paronimlar bilan ishlashni o‘rganadilar.

Tovushlar soni va turi jihatidan teng bo‘lmasa-da, talaffuzda o‘xshash bo‘lgan paronimlar shakldoshlarga ko‘p jihatdan yaqin turadi. Paronimlarni shakliy, ma’noviy hamda qo‘llanishi doirasida quyidagi ma’no guruhlariga ajratish, o‘rganish yaxshi natija beradi:

– bir-ikki, ba’zan undan ortiq tovushga ko‘ra qisman farqlanuvchi shakliy

umumiylikning mavjudligi: tahlil – tahrir, matbuot – matlubot, taqlid – taxlid kabi;

– paronim juftliklar o‘rtasidagi tovush almashtirish va ma’no munosabatining

turli xilligi: arosat – asorat, arg‘uvon – armug‘on kabi;

– leksik ma’nolarida umumiy semantik qirralar mavjudligi: tanglay – manglay,

kift – kaft, jiyron – jayron kabi…[8].

Lingvistik tahlil o‘tkazish ona tili ta’limini samarali qilishda katta ahamiyatga ega. Tahlil o‘quvchilarga tilning grammatik tuzilishini, so‘zlarning ma’nolarini, nutqiy strukturalarini va o‘zaro aloqalarini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Shuningdek, lingvistik tahlil orqali o‘quvchilarni fikrlashga undash, tilni to‘g‘ri va erkin ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Lingvistik tahlil yordamida o‘quvchilarga tilda yanada chuqurroq tushuncha beriladi va ular faqat grammatikani emas, balki tilning semantik, stilistik jihatlarini ham o‘rganadilar. Natijada o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, lingvistik tahlil ona tili ta’limining samaradorligini oshirishda juda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni tilda to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalariga o‘rgatish uchun lingvistik tahlilning turli usullarini qo‘llash zarur. Bu o‘quvchilarning tildan to‘g‘ri foydalanish, fikrlarni aniq va mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘z navbatida, lingvistik tahlil yordamida ona tili darslari yanada samarali va o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi.

7 Xolmonova Z.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.

8 To‘xliyev va boshq., O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. 192-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaqulov T. Grammatikani o‘qitishning lingvistik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
2. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi.1995.
3. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyssi va metodlari. – Toshkent. 2010.
4. Xolmonova Z.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
5. To‘xliyev va boshq., O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. 192-b.

Elektron manbalar

1. https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language/
2. https://elib.buxdupi.uz/books/Ona%20tili.pdf

Dilbar TOSHEVA,
Qarshi davlat universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, PhD

TIL O'RGANISH VA O'QITISHDA O'QUV LUG'ATLARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolaning asosiy maqsadi shundan iboratki, til o'rganish va o'qitish jarayonida o'quv lug'atlaridan foydalanishning muhim jihatlari haqida fikr bildirishdir.

Kalit so'zlar: etimologiya, imlo, idioma, ikki tilli lug'at, o'quv resursi, kontekst, sinonim so'zlar, antonim so'zlar

Annotation: the main purpose of this article is to express an opinion on the important aspects of using educational dictionaries in the process of language learning and teaching.

Key words: etymology, spelling, idiom, bilingual dictionary, educational resource, context, synonyms, antonyms

Аннотация: основная цель данной статьи — высказать мнение о важных аспектах использования учебных словарей в процессе изучения и преподавания языка.

Ключевые слова:этимология, орфография, идиома, двуязычный словарь, образовательный ресурс, контекст, синонимы, антонимы

Lug'at odatda alifbo tartibida joylashtirilgan til so'zlarini o'z ichiga olgan ma'lumotnoma bo'lib, ularning shakllari, talaffuzlari, funksiyalari, ma'nolari, etimologiyalari, imlolari va idiomatik ishlatilishi haqida ma'lumot beradi. Ushbu ma'lumotlarning aksariyatini boshqa ma'lumotnomalarda topib bo'lmaydi.O'quv lug'atlardan foydalanishda bir qancha afzalliklarni hisobga olish muhimdir. O'rganishning dastlabki bosqichlarida hatto ikki tilli lug'at ham muhim yordam berishi va tezkor ma'lumotnoma bo'lishi mumkin. Til o'rganish va o'qitish jarayonida lug'atlardan foydalanishning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Ko'rinib turibdiki, lug'at nihoyatda foydali o'quv resursi bo'lishi mumkin, ayniqsa u o'quvchini o'qituvchidan mustaqilroq qiladi.

O'quv lug'atlari albatta ta'lim sohasiga uzviy bog'liq bo'lib, darsliklarga albatta moslashtirilishi muhim ahamiyat kasib etadi. O'quv lug'atlari ta'lim jarayonida ishlatilganligi uchun ham fanlar doirasida bo'lishi, ushbu fan sohasidagi darsliklarga mos tushishi va hattoki o'quv lug'atlari o'zida ma'lum mashg'ulotlar va ushbu lug'atlarni aynan ochib beruvchi mashqlar yoki boshqotirma kabilarni o'z ichiga olishi lozim. Har bir xalqning tili o'zining madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari va tarixiy tajribalarini o'zida aks ettirgani kabi har bir kasbning, fanning umuman har qanday sohaning o'z birliklari til orqali ifodalanadi va bu birliklarning to'g'ri talqini, tushunilishi va tillar o'rtasida muhim aloqalar o'rnatishga o'quv lug'atlari yordam beradi. Agar talabalar o'quv lug'atdan unumli foydalanishni o'rgansalar, lug'at ularning o'qishlari uchun juda foydali manba bo'lishi mumkin. Lug'atdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish berilgan kontekstga mos keladigan ma'noni tanlashda yordam beradi. Lug'atdan foydalanishdagi eng muhim asosiy ko'nikma bu o'ylagan so'z yoki iborani topishdir. Keyin so'zning ma'nosini topish kerak, ammo bir nechta ma'nolar aniqlanganda, ushbu kontekstga mos ma'noni tanlash muammosi mavjud. Masalan, biz lug'atdan foydalanish orqali "ko'rish" so'zining ko'plab ma'nolarini aniqlashimiz mumkin.

1) Lidiyani hech qayerda ko'rmayapman. (ko'z bilan idrok etish)

2) Qo'riqchi bizning talonlarimizni ko'rishni so'radi. (tekshirish)

3) Men nimani nazarda tutayotganimni tushuna olasizmi? (tushunish)

4) Bugun kechqurun film ko'ramiz. (tomoshabin bo'ling)

5) Men siz u bilan janjallashayotganingizni ko'rdim. (idrok qilish
ko'z bilan)

6) Iltimos, menejerni ko'rmoqchiman. Mening shikoyatim bor.(uchrashish)

Yuqoridagi lug'at ta'riflari va misol jumlalari tekshirilganda, har bir jumla bir xil so'z uchun kontekstual maslahatlar va turli lug'at ta'riflari tufayli turlicha talqin qilinishi mumkinligi ko'rinadi.

Shuning uchun til o'quvchilariga noma'lum so'zning turli ma'nolarini lug'atdan foydalanish bo'yicha tahlil qilishni maslahat berish xavfsizdir. Shunday qilib, lug'atlardan foydalanish usullarini joriy qilganimizda, biz o'quvchilarga tanish bo'lib tuyulgan so'zni tushunish qiyin bo'lgan jumlada paydo bo'lganda qidirishni o'rgatishimiz kerak. Masalan,

“kafedra” so‘zini mebel nomini o‘rgangan til o‘quvchilari bilishadi.Balki, o‘quvchilarning til bilimidagi “kafedra” so‘zi bu ma’nolarni anglatmagan bo‘lar edi. Talabalar odatda oddiy so‘zning ma’nosini allaqachon bilgan deb o‘ylashadi, shuning uchun ular unga boshqa ma’no topishga harakat qilmaydilar.Shuning uchun lug‘atdan foydalanish qobiliyati til darslarida oddiy deb hisoblanmasligi kerak.Yana bir muhim omil - talabalarning lug‘at tarkibidagi ma’lumotlardan bexabarligi. So‘zning etimologiyasi yoki tarixi, so‘zning “nostandart” yoki “mutlaq” ekanligi kabi boshqa ma’lumotlar ham kiritilishi mumkin.So‘zning tarixi odatda yozuvning boshida beriladi va ko‘pincha so‘zning hozirgi ma’nosini rivojlantirish yo‘li haqida ma’lumot beradi. So‘zning etimologiyasini uning ta’riflaridan oldin qo‘yish o‘quvchiga so‘zning birinchi ma’nosi qayerdan kelganini ko‘rish imkonini beradi. Biroq, ko‘p odamlar so‘zning hozirgi eng keng tarqalgan ma’nosi nima ekanligini bilishni xohlashadi va ular birinchi bo‘lib berilgan ma’noni topishni kutishadi. Bu haqiqatni e’tirof etgan holda, ba’zi lug‘atlar endi etimologiyani har bir yozuvning oxirida, ta’riflardan keyin qo‘yadi.Lug‘at so‘z haqidagi ma’lumotnomadan ko‘proq bo‘lishi mumkin; unda biografik va geografik bilimlar, shuningdek, vaznlar, o‘lchovlar, belgilar va boshqalar ro‘yxati bo‘lishi mumkin. Ikki tilli va bir tilli lug‘atlar chet tilini o‘rganuvchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan lug‘atlardir. Talabalar odatda ikki tilli lug‘atlardan foydalanishni yaxshi ko‘radilar, chunki ular tezda qoniqish hosil qiladi, o‘qituvchilar esa uzoq muddatli foydalari uchun bir tilli lug‘atlarni afzal ko‘radilar. “Qaysi lug‘at o‘quvchiga ko‘proq xizmat qiladi?” degan savolga javob berish qiyin.Ikki tilli lug‘atlar odatda tilni o‘rganishning dastlabki bosqichlarida qo‘llaniladi va agar notanish so‘zda ko‘plab yozuvlar bo‘lmasa, o‘quvchiga terminologik muammolarini hal qilishda yordam berishi mumkin. Ko‘pgina ikki tilli lug‘atlar faqat bitta so‘z tarjimasini beradi, bu esa o‘rganuvchilarning xatolariga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Bundan tashqari, MLDdan samarali foydalanish qobiliyati talabalarga lug‘at orqali izlanishdan qoniqish, o‘z-o‘zini ta’minlash hissi va til muammolarini o‘zlari hal qilish qobiliyatiga katta ishonch beradi. Bu, o‘z navbatida, talabalarga birinchi navbatda o‘zlarining til muammolari va savollarini tanib olish va shakllantirishga yordam beradi. Underhill yuqorida ta’kidlaganidek, bir tilli lug‘atlardan foydalanishning ko‘plab afzalliklari bor. Talabalar bir tilli lug‘atlardan tashqari, “Idiomalar lug‘ati”, “Qo‘shma gaplar lug‘ati”, “Sinonim va antonimlar lug‘ati” va shunga o‘xshash boshqa lug‘atlardan ham foydalanishlari mumkin. Talabalar shuni bilishlari kerakki, lug‘atlar o‘z ichiga olgan so‘zlarning soni · va har bir leksik bo‘lak uchun taqdim etilgan ma’lumotlarning miqdori bo‘yicha farqlanadi. So‘z uchun lug‘at yozuvi qanchalik qisqa bo‘lsa, uning ishonchliligi shunchalik past bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘quv lug‘atlari o‘quvchilar uchun leksikografiyaning boshlang‘ich fundamenti sifatida qo‘llaniladi va aynan shuning uchun ham o‘quv lug‘atlarining o‘quvchini jalb qilish xususiyati muhimdir. Shu sababli, o‘quv lug‘atlari maqsadli ravishda zaruriy visual bezaklarni ham qamrab olishi lozim. Undan tashqari, o‘quv lug‘atlarida albatta leksikografik simvollik ya’ni, visuallik kam va soddaroq holda ishlatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Til darslarida lug‘atlarning til o‘rganuvchilar uchun foydasini e’tiborsiz qoldirmaslik kerak.Afsuski, aksariyat sinflarda lug‘atdan foydalanish uchun juda kam vaqt ajratilgan.Ammo lug‘atdan to‘g‘ri foydalangan o‘quvchi sinfdan tashqarida ham o‘qishni davom ettirishi va bu unga o‘zi o‘rganish bo‘yicha qaror qabul qilishda katta mustaqillik berishi shubhasiz haqiqatdir. O‘qitish va o‘rganish sharoitida, shuning uchun lug‘at tayyorlash har qanday o‘quv dasturining ajralmas qismi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gairns, Rut va Stuayt Redman. 1989. Ishchi so‘zlar: Cambridge:CUP
2. Xetch, Evelin va Sheril Braun. 1995. Lug‘at, semantika va til ta’limi. Kembrij: CUP.
3. Ilson, Robeit. 1985. Lug‘atlar, leksikografiya va til o‘rganish. – Oksford: Pergamon Press.
4. Jekson, Xovard. 1991. So‘zlar va ularning ma’nosi. – London: Routledge.
5. Kipfer, Barbara Ann. 1984. Leksikografiya bo‘yicha ish kitobi. Exeter: Exeter universiteti.
6. Koch, Sabri va Brayan Bamber.1997. Ingliz tilini o‘rgatish. Anqara: YÖK.
7. Nuttall, Kristin. 1982. Chet tilida o‘qish malakalarini o‘rgatish. London: Richard Clay Ltd.
8. Uolles, Maykl J. 1987. Lug‘atni o‘rgatish. – London: ELBS

Muxayyo RIZAXANOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi

CHET TILLARNI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Innovatsion metodlarning ta'lim sifatiga ta'siri, ularning turlari, qo'llanish mexanizmlari va pedagogik jarayonga keltiradigan ijobiy o'zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu metodlarning o'quvchilarda til kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *chet tili, innovatsion metodlar, ta'lim texnologiyalari, kommunikativ yondashuv, blended learning, CLIL, raqamli ta'lim, gamifikatsiya.*

Annotation: this article highlights the significance and effectiveness of utilizing modern innovative methods in the process of foreign language teaching. The impact of innovative methods on the quality of education, their types, implementation mechanisms, and positive changes they bring to the pedagogical process are analyzed. Additionally, the role of these methods in developing language competencies in students is examined.

Key words: *foreign language, innovative methods, educational technologies, communicative approach, blended learning, CLIL, digital education, gamification.*

Аннотация: в данной статье освещается важность и эффективность использования современных инновационных методов в процессе преподавания иностранных языков. Проанализировано влияние инновационных методов на качество образования, их виды, механизмы применения и положительные изменения, которые они привносят в педагогический процесс. Также рассматривается роль этих методов в формировании языковых компетенций у обучающихся.

Ключевые слова: иностранный язык, инновационные методы, образовательные технологии, коммуникативный подход, смешанное обучение, предметно-языковое интегрированное обучение, цифровое образование, геймификация.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv sharoitida chet tillarini bilish nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chet tillarini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning lisoniy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar asosidagi innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masalaga aylangan. An'anaviy o'quv jarayonini zamonaviy, interaktiv va amaliyotga yo'naltirilgan uslublar bilan boyitish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Zamonaviy dunyoda til o'rganishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni ta'lim sohasida yangi yondashuvlarni talab qiladi, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda. Chet tillarini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonish, madaniyatlararo muloqotda faol bo'lish, global jamoatchilikka kirishish uchun ham muhim vositaga aylangan. Shu bois chet tillarini o'qitish jarayonida samaradorlik va sifatni oshirish, o'quvchilarning til kompetensiyalarini samarali shakllantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

An'anaviy o'qitish metodlari ko'p jihatdan yetarlicha interaktivlikka ega emas, o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirmaydi va ularning qiziqishini to'liq uyg'otmaydi. Shuning uchun ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish, zamonaviy texnologiyalar va metodlardan samarali foydalanish ta'lim sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganishda, balki uni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Shu tariqa ta'lim jarayonining o'zgarishi, yanada qiziqarli va samarali bo'lishi uchun yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar keng joriy etilishi lozim.

Tahlil va natijalar. Innovatsion metodlar – bu ta'lim jarayonini soddalashtiruvchi, interaktiv, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan pedagogik yondashuvlardir. Ular o'quvchilarning faolligini oshiradi, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi hamda real hayotiy vaziyatlarda chet tilidan foydalanish imkonini beradi. Bunday metodlar yordamida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqa kuchayadi, ta'limning sifat ko'rsatkichlari ortadi.

Asosiy innovatsion metodlar va texnologiyalar:

- Kommunikativ yondashuv (Communicative Approach) – Bu uslubda o'quvchilarning so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Real hayotiy muloqotga yaqinlashtirilgan mashqlar orqali tilni faol qo'llashga o'rgatiladi.
- Blended learning (Aralash o'qitish) – an'anaviy sinfdagi darslar va onlayn ta'lim elementlarini uyg'unlashtirish orqali individual yondashuv ta'minlanadi. Moodle, Google Classroom kabi platformalar samarali qo'llaniladi.

➢ Flipped classroom (Ag‘darilgan sinf) – talabalar yangi mavzuni mustaqil tarzda o‘zlashtiradi va darsda esa muhokama va amaliy mashg‘ulotlarga vaqt ajratiladi.

➢ CLIL (Mazmun va tilni integratsiyalashgan o‘qitish) – chet tilida fan o‘qitish orqali tilni tabiiy muhitda o‘zlashtirishga erishiladi. Bu metod tilni hayotiy kontekstda qo‘llashga imkon beradi.

➢ Gamifikatsiya (Gamification) – ta’limga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning qiziqishi va rag‘batini oshirishga xizmat qiladi. Quizizz, Kahoot, Wordwall kabi vositalar samarali ishlatiladi.

➢ Raqamli texnologiyalar asosidagi metodlar – mobil ilovalar (Duolingo, Memrise), sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT), videodarslar, podkastlar va boshqa multimediali resurslar yordamida mustaqil ta’limga imkon yaratiladi.

Innovatsion metodlardan foydalanish natijasida o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi, mustaqil fikrlash, erkin ifoda qilish va muomala ko‘nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, interaktiv vositalar yordamida mashg‘ulotlar samaradorligi oshib, chet tilida erkin fikr bildira olish darajasi ortadi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘z faoliyatida ijodiy yondashuvni kuchaytiradi va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos strategiyalarni ishlab chiqadi.

Chet tillarni o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligini tahlil qilishda bir nechta asosiy jihatlar ko‘rib chiqildi. Avvalo, o‘quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar, xususan, kommunikativ yondashuv va gamifikatsiya usullari katta rol o‘ynaydi. Ushbu metodlar o‘quvchilarni faollashtiradi, ularni dars jarayoniga jalb qiladi va nutqiy faoliyatni yaxshilashga yordam beradi.

Blended learning va flipped classroom kabi yondashuvlar esa o‘quvchilarga o‘z vaqtida va qulay sharoitda o‘rganish imkoniyatini beradi, bu esa o‘rganish samaradorligini oshiradi. CLIL metodologiyasi chet tilini tabiiy kontekstda o‘rganish imkonini yaratadi, shu bilan birga fanning mazmuni va til ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish motivatsiyasini oshiradi va individual ehtiyojlarga mos ta’limni ta’minlaydi.

Ushbu innovatsion metodlar qo‘llanilganda o‘quvchilarning til o‘rganishdagi faolligi sezilarli darajada oshadi. O‘quvchilar ko‘proq mustaqil fikrlashga o‘rganadi, o‘z fikrlarini erkin ifoda eta olishlari yaxshilanadi. Shuningdek, o‘quvchilar nutqiy ko‘nikmalarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga qodir bo‘lishadi, bu esa til o‘rganish jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir.

Innovatsion metodlar yordamida o‘quvchilarning motivatsiyasi oshib, ular til o‘rganishni qiziqarli va maqsadga muvofiq faoliyat sifatida qabul qiladilar. Bu esa o‘z navbatida o‘qish natijalarining yaxshilanishiga olib keladi. Pedagoglar uchun esa ushbu metodlar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, individual yondashuvni qo‘llash va o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashda qulay vosita hisoblanadi.

Xulosa. Chet tillarini o‘qitishda yangi innovatsion metodlardan foydalanish til o‘rganish jarayonini yangilash, uni zamonaviy va amaliyotga yo‘naltirilgan qilish imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularni real hayotga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli har bir pedagog zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirib, ularni dars jarayoniga samarali integratsiyalashi lozim. Chet tillarini o‘qitishda yangi innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning til bilish darajasini oshirishga, balki ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar yordamida ta’lim jarayoni yanada interaktiv, amaliy va qiziqarli shaklga ega bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarni yanada mustahkam o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Blended learning, flipped classroom, CLIL, gamifikatsiya va raqamli texnologiyalar kabi usullar o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion metodlar pedagoglarga o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash, ularga ko‘maklashish va yanada samarali ta’lim jarayonini tashkil etishda yordam beradi.

Shu bois, har bir til o‘qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirib, ularni o‘z darslariga faol tatbiq etishi lozim. Bu jarayon doimiy ravishda yangi metod va vositalarni o‘rganishni, pedagogik tajriba almashinuvini talab qiladi.

Natijada, innovatsion yondashuvlar til o‘rganish sifatini oshirib, o‘quvchilarni jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova D. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
3. Bax S. – CALL – Past, Present and Future. System, 2003.
4. Warschauer M., Healey D. – Computers and language learning: An overview. – Language Teaching, 1998.
5. www.teachingenglish.org.uk.
6. www.education.com.
7. www.edutopia.org.



Baxtijon ISROILOVA,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti “Ingliz tili” kafedrasi mudiri
E-mail: b.isroilova@tiiame.uz

INGLIZ TILINI SAMARALI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV-KOGNITIV YONDASHUV XUSUSIYATLARI VA UNING TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi zamonaviy metodik talablarga mos ravishda ingliz tilini samarali o‘qitishda kommunikativ-kognitiv yondashuv xususiyatlari va uning tamoyillari tahlil ostiga olingan.

Kalit so‘zlar: *strategiya, ta’lim ehtiyoji, motivatsiya, ishtiyoq, tahlil, uslub, vosita.*

Аннотация: в статье анализируются особенности коммуникативно-когнитивного подхода и его принципы в эффективном обучении английскому языку в соответствии с современными методическими требованиями.

Ключевые слова: *стратегия, потребность в обучении, мотивация, страсть, анализ, метод, инструмент.*

Annotation: in this article, the peculiarities of the communicative-cognitive approach and its principles in the effective teaching of the English language in accordance with modern methodological requirements are analyzed.

Key words: *strategy, learning need, motivation, passion, analysis, method, tool.*

Tillarni kommunikativ yondashuv asosida o‘rgatish (CLT)ning kelib chiqishini 1960-yillarning oxiridan boshlab ingliz tilini o‘rgatish an’analarida yuz bergan o‘zgarishlardan topish mumkin. O‘sha vaqtga qadar ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda muloqotga yo‘naltirilganlik ko‘rinishida asosiy yondashuvni namoyish etdi. Tilni muloqot orqali o‘qitish jarayoni deganda mazmunli vaziyatga asoslangan mavzularni, vazifalarni, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish orqali tushuniladi. Britaniyalik tilshunoslar tomonidan tilni o‘qitish bo‘yicha hozirgi yondashuvlar orqali ham aniq muammolarga yechim topilmagan bo‘lib, bunda o‘qitishning funksional va kommunikativ xususiyatlarini nazarda tutadilar. Ular tillarni o‘qitishda faqat tuzilmalarni o‘zlashtirishga emas, balki kommunikativ bilimlarga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydilar.

Chet tillarni o‘qitishda turli xil yondashuvlarning yana bir turtki bo‘lishi Yevropadagi o‘zgaruvchan ta’lim xususiyatlarining kelib chiqishi bilan bog‘liq. Yevropa mamlakatlarining o‘zaro bog‘liqligi tobora ortib borishi bilan kattalarga Yevropa umumiy bozori va Yevropa Kengashining madaniy-ma’rifiy hamkorlik bo‘yicha mintaqaviy tashkiloti bo‘lgan asosiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha katta sa’y-harakatlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ta’lim Yevropa Kengashining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tillarni o‘qitish bo‘yicha xalqaro anjumanlarga homiylik qildi, monografiyalar va tillarni o‘qitish bo‘yicha kitoblarni nashr etdi. Tilni o‘qitishning muqobil usullarini bayon qilish va ishlab chiqish zarurati eng ustuvor vazifa sifatida qaraldi. 1971-yilda bir guruh mutaxassislar o‘quv topshiriqlarini “qismlarga yoki bo‘linmalarga” bo‘linadigan, har biri o‘quvchining ehtiyojlari tarkibiy qismiga mos keladigan tizim — birlik-kredit tizimi bo‘yicha til kurslarini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rgana boshladilar. Guruhda Yevropa tilini o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini o‘rganish, xususan, britaniyalik tilshunos D.A. Uilkins tomonidan tayyorlangan, til uchun funksional yoki kommunikativ ta’rifni taklif qilgan dastlabki asos qo‘llanilgan. Tilni o‘rgatish uchun umumxalq dasturlarini ishlab chiqish, til o‘rganuvchi tushunishi va ifoda etishi zarur bo‘lgan kommunikativ ma’nolarni tahlil qilish Uilkinsning hissasi edi. An’anaviy grammatika va lug‘at tushunchalari orqali tilning o‘zagini tavsiflash o‘rniga, Uilkins tilning kommunikativ ishlatilishining ortida yotadigan ma’no tizimlarini namoyish etishga urindi.

1. Kommunikativ kompetensiyani tilni o‘rgatish maqsadiga aylantirish;

2. Til va muloqotning o‘zaro bog‘liqligini ifoda etadigan to‘rtta nutq faoliyati turlarini o‘rgatish tartib-qoidalarini ishlab chiqish.

Xovatt kommunikativ tilni o‘qitishning “kuchli” va “zaif” versiyasini ajratib turadi: muayyan ma’noda kommunikativ yondashuvning “kuchli” shakli va “zaif” ko‘rinishi mavjud. So‘nggi o‘n yil ichida ozmi-ko‘pmi odatiy holga aylangan zaif ko‘rinish o‘quvchilarga o‘zlarining ingliz tilidan kommunikativ maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarini berishning muhimligini ta’kidlaydi va xarakterli ravishda ushbu faoliyatni tillarni o‘qitishning keng dasturiga qo‘shishga harakat qiladi. Kommunikativ o‘qitishning “kuchli” versiyasi, aksincha, tilni muloqot qilish yo‘li bilan olinadi degan da’voni ilgari suradi, shuning uchun bu nafaqat til haqidagi mavjud, ammo inerts bilimlarni faollashtirish haqida, balki rivojlanishni rag‘batlantirish haqida. Agar birinchisini “ingliz tilidan foydalanishni o‘rganish” deb ta’riflash mumkin bo‘lsa, ikkinchisi “biror ma’lumotni o‘rganish uchun ingliz tilidan foydalanishga olib keladi”. Kommunikativ-kognitiv yondashuv borasida Rossiya til ta’limi maktabida P.K. Babinskiy, N.V. Bagramov, N.V. Baryshnikova, I.V. Batsenko, I.L. Bim, N.D. Galskova, M.G. Gets, G.V. Elizarova, A.V. Zьikova, Yu.A. Sitnova, A.N. Shamovalar tomonidan keng o‘rganilgan. Kognitivlik (lotincha *cognitio* — “idrok, o‘rganish, anglash”) insonning tashqi axborotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyatini bildiradi. Kognitiv jarayonlar tushunchasi ko‘pincha “xotira”, “diqqat”, “idrok qilish”, “harakat”, “qaror qabul qilish” va “tasavvur” kabi jarayonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ya’ni o‘qituvchi o‘qitishda kognitiv yondashuvni qo‘llagan holda, o‘quvchilar yangi bilimlarni mustaqil ravishda kashf qilishlari uchun muammoli vaziyatlarni yaratishga majburdir. U kognitiv usullardan foydalanadi, talabalar ma’lum strategiyalarni uning oldida turgan vazifaga adekvat qo‘llashga o‘rgatadi. Finocciaro va Brumfitning ta’rifiga ko‘ra audiolingual metod va kommunikativ yondashuvning asosiy o‘ziga xos xususiyatlari taqqoslangan (1-jadvalga qarang):

1-jadval. Kommunikativ-kognitiv va audiolingual yondashuvlarning motivatsion omillari

Audiolingual metod orqali o‘qitish	Tilni kommunikativ-kognitiv o‘qitish
Ma’nodan ko‘proq tuzilish va shaklga qaraladi.	Shaklning ketma-ketlikdagi ma’nosi birinchi o‘rinda turadi.
Tuzilishga asoslangan dialoglarni yodlashni talab qiladi.	Muloqot, agar ishlatilsa, kommunikativ funksiyalar atrofida joylashgan bo‘lib, odatda, yodlanmaydi.
Til elementlari kontekstlashtirilgan bo‘lishi shart emas.	Kontekstualizatsiya – bu asosiy shart.
Tilni o‘rganish bu tuzilmalarni, tovushlarni yoki so‘zlarni o‘rganishdir.	Til o‘rganish – bu muloqot qilishni o‘rganishdir.
Mahorat, yoki “haddan tashqari ko‘p o‘rganish” demakdir.	Samarali aloqa izlanadi.
Vaziyatga moslashuvchanlik markaziy texnikadir.	Vaziyatga moslashuvchanlik sodir bo‘lishi mumkin, ammo periferik ravishda.
Mahalliy ma’ruzachiga o‘xshash talaffuz izlanadi.	Tushunarli talaffuz izlanadi.
Grammatik tushuntirishga yo‘l qo‘yilmaydi.	O‘quvchilarga yordam beradigan har qanday uslub qabul qilinadi – ularning yoshi, qiziqishi va boshqalarga qarab farqlanadi.
Kommunikativ faoliyat uzoq davom etgan tinimsiz mashq va mashqlardan so‘nggina yuzaga keladi.	Muloqot qilishga urinishlar o‘rganishlar natijasi sifatida sodir bo‘lishi mumkin.
Talabaning ona tilidan foydalanishi ta’qiqlanadi.	Ona tilidan oqilona foydalanish bu mumkin bo‘lgan joyda qabul qilinadi.
Tarjimaning dastlabki bosqichlarida ta’qiqlanadi.	Tarjimani qayerda ishlatish mumkin – talabalar bunga muhtoj bo‘lsa, undan foyda olishadi.
O‘qish va yozish nutq o‘zlashtirilguncha qoldiriladi.	Agar xohlasangiz, o‘qish va yozish birinchi kundan boshlanishi mumkin.
Maqsadli lingvistik tizim tizim qoliplarini ochiqdan-ochiq o‘qitish orqali o‘rganiladi.	Maqsadli lingvistik tizim bo‘ladi, ya’ni jarayon davomida eng yaxshi o‘rganilgan muloqot qilish uchun kurashish

Tilshunoslik kompetensiyasi – bu ko'zlangan maqsad.	Kommunikativ kompetensiya – bu istalgan maqsad (lingvistik tizimdan samarali va mos ravishda foydalanish qobiliyati).
Tilning turlari tan olingan, ammo ta'kidlanmagan.	Tilning o'zgarishi materiallar va metodikada markaziy tushuncha.
Birliklarning ketma-ketligi faqat til murakkabligi prinsiplari bilan belgilanadi.	Tartiblash – qiziqishni saqlaydigan har qanday tarkib, funksiya yoki ma'nolarni hisobga olgan holda belgilanadi.
O'qituvchi o'quvchilarni boshqaradi va nazariyaga zid bo'lgan har qanday ishlarni qilishiga yo'l qo'ymaydi.	O'qituvchi o'quvchilarni boshqaradi, biroq nazariyaga zid bo'lgan har qanday ishlarni qilishga yo'l qo'ymaydi.
"Til odatdir", shuning uchun xatolarning oldini olish kerak.	Til shaxs tomonidan ko'pincha sinov va xato orqali yaratiladi.
Rasmiy to'g'riligi nuqtai nazaridan aniqlik asosiy maqsaddir.	Ravonlik va maqbul til asosiy maqsad: aniqlik mavhumlikda emas, balki kontekstda baholanadi.
Talabalar texnikalarda yoki boshqariladigan materiallarda mujassam bo'lgan til tizimi bilan o'zaro aloqada bo'lishlari kutilmoqda.	Talabalar boshqa odamlar bilan juftlik va guruh ishi orqali yoki o'zlarining yozuvlarida o'zaro munosabatda bo'lishlari kerak.
O'qituvchidan o'quvchilar foydalanishi kerak bo'lgan til me'yorlarini belgilash kutiladi.	O'qituvchi o'quvchilar qaysi til me'yorlarida ishlashini aniq belgilolmaydi.
Ichki motivatsiya tilning tuzilishiga qiziqishdan kelib chiqadi.	Ichki turtki til bilan aloqa qiladigan narsalarga bo'lgan qiziqishdan kelib chiqadi.

Ushbu qarama-qarshi tahlildan biz chet tillarini o'qitishning zamonaviy ehtiyojlari sababli kommunikativ yondashuv muhimligini aniq ko'rishimiz mumkin. Chunki har qanday chet tilini o'rgatishning zamonaviy talablari o'quvchiga tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi to'rtta asosiy til faoliyati orqali chet tilida muloqot qilishni o'rgatishni anglatadi.

Tilni o'qitishda kommunikativ-kognitiv yondashuv til nazariyasidan aloqa sifatida boshlanadi. Tilni o'qitishning maqsadi Hymes "kommunikativ kompetentlik" deb izoh beradi. Hymes ushbu atamani tilga kommunikativ qarash va Chomsky'ning kompetensiya nazariyasini qarama-qarshi qo'yish maqsadida ishlab chiqqan. Chomsky'ning ta'kidlashicha, lingvistik nazariya birinchi navbatda, umuman bir xil nutq birlashmasidagi ideal ma'ruzachi-tinglovchiga tegishli bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kommunikativ-kognitiv yondashuvning asosiy qismi – bu kommunikativ tilni o'qitish modeli va uning psixologiya bilan hamkorligiga bog'liq. Ushbu uyg'unlik o'qitish jarayonining muvaffaqiyatli natijasini kafolatlashi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G. Boqiyeva va b. *Xorijiy til fan dasturi (bakalavr barcha yo'nalishlari uchun)* – T., 2018. 20-b.
2.Jalolov J.J, G.T. Maxkamova, Sh. S. Ashurov. *English Language Teaching Methodology*, – Toshkent, 2015.
3.Jalolov J.J. *Ingliz tili o'rgatish texnologiyasi*, o'quv metodik qo'llanma – T., 2012. 418-b.
4.Jalolov J.J. *Chet til o'qitish metodikasi*, – T., 2011. 458-b.
5.Irmuxamedova G.N. *Lingvodidaktik asoslar bo'yicha tanqidiy o'qishga o'rgatish (iqtisodiy oliygohlar yuqori bosqich talabalari misolida)*. Dissertatsiya ... ped. fan. nomzodi. – T., 2008. 157-b.
6.Mayboroda S.V. *Kommunikativ-kognitiv yondashuv xorijiy talabalar nutqini rivojlantirishda*. // *Pedagogika vysshey shkoly*. 2016. №1. 66–68-b.

Dilafruz SUBANOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Ingliz tili nazariyasi va o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti
subanovadialfruz88@mail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishning nazariy asoslari yoritilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari, shuningdek, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Ingliz tilini o‘rgatishda yosh bolalarning psixologik xususiyatlari, kommunikativ yondashuv, integrativ metodlar, dramatizatsiya, san’at vositalari va o‘yin elementlarining ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada qadimiy va zamonaviy pedagogik fikrlar asosida boshlang‘ich ta’limda chet tilini samarali o‘rgatish metodikasi tavsifi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili, kommunikativ yondashuv, drama, san’at vositalari, pedagogik integratsiya, metodik tamoyil, til o‘rgatish, yosh xususiyatlari

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические основы обучения английскому языку учащихся начальных классов. Особое внимание уделяется государственным программам и указам Президента Республики Узбекистан, а также научным взглядам отечественных и зарубежных исследователей. Описаны психолого-педагогические особенности младших школьников, значение коммуникативного подхода, интегративных методов, драматизации, использования искусства и игровых элементов в процессе преподавания иностранного языка. Проанализированы классические и современные педагогические идеи, на основе которых разрабатывается эффективная методика обучения английскому языку в начальной школе.

Ключевые слова: начальное образование, английский язык, коммуникативный подход, драма, средства искусства, педагогическая методика, обучение языку, возрастные особенности.

Annotation: this article explores the theoretical foundations of teaching English to primary school students. It emphasizes the governmental reforms and decrees initiated by the President of Uzbekistan, as well as the pedagogical views of both local and foreign scholars. The paper discusses the psychological characteristics of young learners, the importance of the communicative approach, integrated teaching methods, dramatization, and the use of art and play-based elements in foreign language instruction. Drawing from ancient and modern pedagogical theories, the study proposes an effective methodology for teaching English in primary education.

Key words: primary education, English language, communicative approach, drama, art tools, teaching methodology, language instruction, child psychology.

Bilamizki, bugungi kunda yurtimizda xorijiy tillar, xususan ingliz tili boshlang‘ich sinfdan boshlab, hattoki, maktabgacha ta’lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilarga ham o‘rgatilmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, bu yo‘nalishda davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. 2021-yil 19-mayda “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli Prezident qarori ushbu sohadagi muhim hujjatlardan biridir [1].

Ushbu yo‘nalishdagi keyingi dolzarb masalalardan biri – boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish jarayonlariga pedagoglarning tayyorgarlik darajasini o‘rganish va tahlil qilishdan iboratdir. Ma’lumki, 2025-yil, 28-aprelda Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73 sonli farmon ham qabul qilingan bo‘lib, ushbu farmon ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqilishining muhim asosi bo‘lib xizmat qilmoqda [3]. Shunday ekan, kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik hamda yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ingliz tilini o‘rgatishning o‘ziga xos yangicha va samarali usullarini amaliyotga qo‘llash biz pedagoglar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun esa ko‘pgina pedagog, psixolog va lingvodidaktlarning nazariyalariga tayanamiz va ularning asarlariga murojaat qilamiz. Ingliz tilini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish metodikasi ta’lim sohasida

keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Bu borada bir qator o'zbek, rus va xorijiy tadqiqotchilar muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Eng qadimgi davrlardan boshlab ta'lim va tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor qaratilgan. Xususan, qadimgi yunon mutafakkirlari Pifagor (e. a. VI a.), Geraklit (e. a. 520-460- y.), Demokrit (e. a. 460-370-y.), Platon (e. a. 427-347-y.), Aristotel (e. a. 384-322- y.) lar o'zlarining falsafiy farazlari bilan birga o'qitish usullari va ta'lim mazmuniga oid pedagogik qarashlarni bayon etganlar. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda qadimgi Hindiston maktablarida o'qitishning faol usullari qo'llanilgan: o'qituvchi o'quvchilar oldiga turli maqsadlar qo'yib, o'quvchilarni savollarga mustaqil javob berishga qiziqtirgan. Qadimgi Xitoyda Konfutsiy maktabi mashhur bo'lib (Kun-Szi, e. a. 551-479-y.) unda o'qitishning turli usullaridan obrazlarga taqlid, dialog, taqqoslash, predmet va hodisalarni klassifikatsiyalash kabilardan foydalanilgan [4]. Yillar davomida ta'lim jarayoniga turlicha nuqtai nazarlardan qaralgan. 1990-yillarga kelib shaxsga yo'naltirilgan ta'limning joriy etilishi, ta'limda pedagogik texnologiyalarni va axborot kommunikatsiyalarini qo'llash masalasiga qiziqishni oshganligi bilan harakterlanadi. Ushbu yillarda Pedagogik motivatsiya, monitoring va pedagogik menejmentning nazariy asoslari tadqiq qilina boshlandi.

Yogann Genrix Pestalotsi (1746-1827) - mashhur shveytsariyalik pedagog, boshlang'ich ta'lim metodikasiga asos solgan mutafakkir sifatida tanilgan. Uning fikricha, ta'lim bolaning tabiiy rivojlanishiga mos ravishda, bosqichma-bosqich, bolaning ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilishi kerak. Pestalotsi bola tarbiyasida nafaqat bilim, balki axloqiy va jismoniy rivojlanishga ham katta ahamiyat bergan. Uning eng mashxur tamoyillaridan biri "Yurak, qo'l va aql" tamoyilidir. Unga ko'ra: "Ta'lim qalbni tarbiyalaydi, qo'lni ishlatadi va aqlni o'stiradi." Bu tamoyil orqali u bilim, axloq va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'limda muhim deb bilgan. Bolaga mehr bilan yondashish, uning shaxsini hurmat qilish Pestalotsining asosiy metodik prinsiplaridan biri bo'lgan.

Bolalar rivojlanishi nazariyalaridan biri sifatida Jan Piagening kognitiv rivojlanish modeli inson fikrlash jarayonlarining evolyutsiyasini tushunish uchun asosiy nazariyalardan biri hisoblanadi. Piage bolalarning fikrlash jarayoni kattalarnikidan sezilarli darajada farq qilishini va bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'kidlagan. U o'z tadqiqotlari orqali bolalar fikrlashidagi o'zgarishlarni tizimli ravishda o'rganib, rivojlanishning to'rtta asosiy bosqichini aniqlagan. Piage bolalar kognitiv rivojlanishini to'rtta bosqichga ajratgan: sensor-motor bosqich (0-2 yosh), old operatsiyalar bosqichi (2-7 yosh), konkret operatsiyalar bosqichi (7-11 yosh) va formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan yuqori). Har bir bosqich bolalarning fikrlash qobiliyatlari va intellektual rivojlanish darajasidagi o'zgarishlarni ifodalaydi.

Rus olimlaridan biri Nataliya Dmitrievna Galskova chet tilini erta bosqichda o'rgatish metodikasi bo'yicha mashxur mutaxassislardan biri bo'lib, uning ishlarida kommunikativ yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim usullari yoritilganligini guvohi bo'lamiz. Uning tadqiqotlari yo'nalishlaridan biri boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslariga bag'ishlangan. Galskova darsni kommunikativ maqsadga yo'naltirish tarafdori bo'lib, o'quvchilarda real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga urg'u beradi.

Yana bir rus olimladidan biri Evgeniy Ivanovich Passov bo'lib, u chet tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuvning asoschilaridan biri hisoblanadi. U tilni o'rganish faqat grammatika va lug'atni yodlash emas, balki muloqot qilishga o'rgatish deb biladi. Passovning yondashuvi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda muhim hisoblanadi, chunki u o'yin, drama, rasm, rolli o'yin kabi faoliyatlar orqali bolalarning lingvistik faolligini oshirishni taklif qiladi. U o'quvchilarni erkin muloqotga jalb qilish, ularning emotsional, ijodiy va shaxsiy rivojini rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Daniil Borisovich Elkonin (1904-1984) - taniqli rus psixologi, bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasida katta hissa qo'shgan olim bo'lib, uning fikricha, bolaning rivoji – uning faoliyatida namoyon bo'ladi. D.Elkonin til o'rgatishda o'yin, drama, rolli o'yinlar, tasviriy san'at, hikoya tuzish kabi ijodiy metodlarni qo'llashni qo'llab-quvvatlagan.

Lyudmila Alekseevna Verbitskaya o'z ishlarida tilni faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki madaniyatning ajralmas qismi sifatida talqin etadi. U ta'limda integrativ yondashuv tarafdori bo'lib, chet tilini madaniyat, san'at, adabiyot, musiqa bilan uyg'un holda o'rgatish zarurligini ta'kidlagan.

Sharqda ta'lim va tarbiya rivojlanishining dastlabki bosqichi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Dastlabki pedagogik fikrlar o'zbek xalq ertaklarda, topishmoqlarda, afsonalarda, o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlarida o'z ifodasini topgan. O'zbek xalqining pedagogik g'oyalarining shakllanishiga Abu Nasr Forobiyning (870-950), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (970-1048) larning ta'lim - tarbiya to'g'risidagi asarlari ta'sir qildi. Jumladan, G'arbda harakatli o'yinlar orqali dars o'tish afzallilari XX asrlarda shakllana boshlagan bo'lsa Sharqda ushbu nazariya ilk bora Abu Ali Ibn Sino asarlarida o'z

ifodasini topgan. Xususan, Ibn Sino o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish kerakligi samarali natijalarga olib kelishini ta’kidlaydi [5].

O‘zbekistonda boshlang‘ich sinfda chet tilini o‘rgatish masalalari bo‘yicha bir qancha olimlarning tadqiqotlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Shulardan biri professor J.J.Jalolov chet til o‘qitishning nazariy asoslarini yoritgan [6]. professor G.T.Mahkamova “5-6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida kichik yoshdagilarning psixologik xususiyatlari, ularga ingliz tilida gapirishni o‘rgatishning metodik asoslari, gapirishni o‘rgatishdagi qiyinchiliklar haqida ma’lumotlar berilgan [7]. G. Tajibayev doktorlik dissertatsiyasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari, birinchi sinfdan to‘rtinchi sinflargacha o‘quvchilarning psixologiyasi hamda ularni o‘qitishdagi tafovutlar haqida ma’lumot beradi [8].

E.E.Turdikulova nomzodlik dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining leksik zahiralarini shakllantirishning metodik asoslari, kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tgan [9]. E.K. Mo‘ydinova “Maktabgacha ta’limda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini veb resurslar asosida shakllantirish” deb nomlagan nomzodlik dissertatsiyasida kichik yoshdagi o‘quvchilarga chet tilni o‘rgatishda veb resurlardan foydalangan holda o‘qitish texnologiyalarini takominlashtirish muammolarini yaratgan [10]. Ushbu manbaalardan tadqiqotimizning nazariy asoslarini yaratishda foydalandik. Lekin yuqorida ta’kidlangan ilmiy tadqiqotlarida san’at vositalaridan foydalanilmaganligi hamda ularning pedagogik jarayonga integratsiyalashuvi batafsil tadqiq etilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishning nazariy asoslarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganish jarayoni bolaning yosh xususiyatlari, psixologik va pedagogic ehtiyojlariga mos bo‘lgan metodik yondashuvlarni talab etadi. Nazariy jihatdan asoslangan holda tuzilgan darslar o‘quvchilarda tilga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ularning nutqiy faoliyatini rag‘batlantiradi hamda tilni hayotiy kontekstda o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning nazariyalari tahlil qilinar ekan, kommunikativ yondashuv, ko‘rgazmali metodlar, o‘yin texnologiyalari va individual yondashuvlar boshlang‘ich bosqichda ingliz tilini samarali o‘rgatishda muhim o‘rin tutishi aniqlangan. Demak, nazariy asoslarning chuqur tahlili va amaliyot bilan uyg‘unligi boshlang‘ich bosqichda xorijiy tilni muvaffaqqiyatli o‘rgatishning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi PQ-5117-son qarori.* Toshkent sh., 2021-yil, 19-may. *https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024*

2. Sh.M.Mirziyoyev. “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73 sonli farmoni, 2025-yil, 28-aprel. https://www.lex.uz/uz/docs/-7499721

3. O. Yo‘ldoshev, A. Abdurasulov va boshqalar. Umumiy pedagogika. -T.: “Fan va texnologiya”, 2019, 376 bet.

4. Boratov M. Abu Ali ibn Sino - Buyuk mutafakkirlar - T .: Fan, 1980.

5. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari(fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432b.

6. Махкамова Г.Т. Формирование навыков и умений устной иноязычной речи у дошкольников 5-6 лет (на материале английского языка): Дис. канд.пед.наук. –Т.: УзГУМЯ, 2004

7. Тажибаев Гайратжон Шовдорович Бошланғич синф ўқувчиларига чет тил ўқитишда коммуникатив ёндашув. УЎК:373.3.016:81’243(072). DSc.27.06.2017.

8. E.E.Turdikulova “MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI LEKSIK ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH” 13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. UDK:372.881.111.1

9. E.K.Mo‘ydinova “Maktabgacha ta’limda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini veb resurslar asosida shakllantirish.13.00.02. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. UO‘K: 378.011.3-051:811.111:00

Gulhayo BAROTOVA,
University of Science and technologies

THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN TEACHING

Annotation: this article explores the transformative impact of technology on modern teaching practices. It analyzes how digital tools, e-learning platforms and artificial intelligence enhance student engagement, personalize learning and foster collaboration. The study highlights both the benefits and challenges of integrating technology in classrooms and provides recommendations for educators on effectively incorporating digital resources.

Key words: technology, modern teaching, digital tools, education, e-learning, innovation.

Аннотация: статья рассматривает влияние технологий на современное преподавание. Анализируются цифровые инструменты, онлайн-платформы и искусственный интеллект, способствующие вовлечению студентов, персонализации обучения и развитию сотрудничества. В работе рассматриваются как преимущества, так и проблемы внедрения технологий в образовательный процесс, а также даны рекомендации для преподавателей.

Ключевые слова: технологии, современное обучение, цифровые инструменты, образование, электронное обучение, инновации.

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta'limda texnologiyalarning roli va ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli vositalar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt vositasida o'quvchilarning faolligi oshishi, ta'limning individuallashuvi va hamkorlik muhitining yaratilishi yoritiladi. Shuningdek, texnologiyalarni dars jarayoniga qo'shishdagi afzalliklar va muammolar ko'rib chiqiladi hamda o'qituvchilarga tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: texnologiya, zamonaviy ta'lim, raqamli vositalar, e-ta'lim, innovatsiya.

1. The digital era has drastically changed every aspect of human life and education is no exception.

2. The traditional classroom, characterized by chalkboards, paper textbooks and face-to-face instruction, has evolved into a hybrid space that merges physical and virtual elements. The use of technology in education has accelerated, especially after the global COVID-19 pandemic, which forced schools and universities to adapt to online learning almost overnight. In this article, we explore how technology shapes modern teaching, the opportunities it offers, and the challenges educators must overcome.

2. Evolution of Educational Technology From the printing press to the internet, each era of human progress brought advancements in how knowledge is stored, transmitted, and taught.

The 20th century saw the introduction of audio-visual aids like overhead projectors, educational films, and language labs. With the invention of computers and later the internet, educational tools became more interactive and accessible. Today, learning management systems (LMS) such as Moodle, Blackboard, and Google Classroom enable institutions to manage entire courses online. Platforms like Coursera, Udemy and Khan Academy make high-quality education available worldwide, often free of charge. The development of mobile learning and microlearning apps has further changed how and when students access knowledge.

3. Transforming Teaching Methodologies Modern teaching is no longer teacher-centered; instead, it emphasizes student agency and active learning. Technology enables methods like: Flipped Classrooms: Students watch lectures at home and engage in discussions and problem-solving during class time. Blended Learning: combines traditional in-person instruction with online learning materials and activities. Project-Based Learning: students use digital tools to research, collaborate and present real-world solutions. These methodologies encourage deeper understanding, creativity and independence among students. For instance, tools like Edmodo and Padlet facilitate collaboration, while apps like Canva and Prezi allow students to express their ideas in visually engaging ways.

4. Enhancing Accessibility and Inclusion Technology allows education to become more inclusive. Students with disabilities benefit from screen readers, voice recognition, audio books, and customized interfaces.

Language learners can access real-time translations and pronunciation tools. Moreover, rural or underserved areas where qualified teachers or

resources are limited can now receive quality instruction through remote learning. Initiatives like UNESCO's Global Education Coalition aim to close digital divides and promote equality in access.

5. The Role of Artificial Intelligence (AI) AI is redefining education in multiple ways: Adaptive Learning Platforms:

These use algorithms to adjust lesson difficulty based on student performance (e.g., Smart Sparrow). Chatbots and Virtual Tutors: tools like Squirrel AI or ChatGPT assist students in solving problems and provide instant feedback. Predictive Analytics: AI can forecast student success or dropout risks, helping institutions provide timely support. However, ethical concerns arise — such as data privacy, algorithmic bias and the risk of over-automation in the learning process.

6. Teacher Training and Digital Competence Teachers are the key to successful tech integration.

Yet many educators feel unprepared or overwhelmed by constant updates. Professional development must focus not only on technical skills but also on pedagogical adaptation. Institutions should provide ongoing training on: Using LMS effectively Integrating interactive tools Evaluating digital resources Cybersecurity and digital ethics Organizations like the International Society for Technology in Education (ISTE) provide frameworks to guide teacher competencies in digital education.

7. Student Motivation and Autonomy Digital tools allow students to learn at their own pace and choose formats that suit their learning styles — whether it's videos, interactive simulations, podcasts, or infographics. This autonomy fosters motivation and critical thinking. Educational games like Minecraft: Education Edition or simulations in platforms like Labster turn abstract concepts into engaging experiences. Gamification — the use of game elements in non-game contexts — boosts motivation through points, badges, and leaderboards. Platforms like Classcraft and Duolingo use these elements effectively to sustain long-term engagement.

8. Risks and Limitations While technology has clear benefits, it is not a panacea. Common challenges include: Screen Fatigue and Attention Deficits Academic Dishonesty (e.g., cheating via AI) Dependency on Internet Connection Privacy and Data Security Risks Cost and Equipment Gaps Moreover, excessive reliance on technology may reduce the development of interpersonal and communication skills. Teachers must balance digital tools with human interaction and critical discourse.

9. Case Studies of Success Countries like Finland and South Korea have integrated technology at all educational levels.


Finland uses interactive digital books and AR/VR labs for immersive learning. Estonia implemented e-school systems where parents, students and teachers interact seamlessly. In developing countries, mobile learning through SMS or WhatsApp-based classes provides access in low-connectivity regions. NGOs like Worldreader distribute e-books via simple mobile phones, promoting literacy globally.

10. Recommendations Technology has become an inseparable element of modern teaching.

Its potential lies in enhancing creativity, accessibility, personalization and student autonomy. However, successful implementation requires: Investments in infrastructure and internet access Continuous teacher training and support Clear policies on ethical and responsible use Learner-centered pedagogical design Technology should serve as a tool, not a replacement, for human educators. When thoughtfully applied, it can enrich learning and prepare students for an increasingly digital future.

References

1. Bates, A. W. (2019). *Teaching in a Digital Age*. Open Textbook Library.
2. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Bloomsbury Publishing.
3. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*.
4. Heick, T. (2022). *The Modern Classroom: How Technology Shapes Teaching*. TeachThought.
5. UNESCO (2023). *The Future of Education: Technology and Innovation*.
6. Prensky, M. (2001). *Digital Natives, Digital Immigrants*. On the Horizon, MCB University Press.
7. OECD (2020). *Digital Education Outlook: Pushing the Frontiers with AI*.
8. ISTE Standards (2022). *Empowering Educators in a Digital Age*.
9. World Bank (2021). *Remote Learning During COVID-19: Lessons for the Future*.
10. Johnson, L., et al. (2016). *Horizon Report: Higher Education Edition*. NMC.



TADQIQOTLAR

Kamola XAMIDOVA,
Qo‘qon DU, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Adibaxon TURAXOJAYEVA,
Qo‘qon DU, filologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TOPONIMIK VARIANTDORLIK

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy asarlarida toponimika haqida boy geografik, tarixiy, lisoniy: leksik–semantik, etimologik, nominatsion–motivatsion, derivatsion ma’lumotlar beruvchi tarixiy toponimlar masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *toponim, tarixiy toponim, oykonim, polisonim, gidronim, oronim, toponim varianti.*

Аннотация: в статье освещается вопрос исторических топонимов, дающих богатую географическую, историческую, лингвистическую: лексико–семантическую, этимологическую, номинативно–мотивационную, словообразовательную информацию о топонимике в творчестве Алишера Навои.

Ключевые слова: топоним, исторический топоним, ойконим, полисоним, гидроним, ороним, вариант топонима.

Annotation: in the article, the issue of historical toponyms that provide rich geographical, historical, linguistic: lexical–semantic, etymological, nominative–motivational, derivational information about toponymy in the works of Alisher Navoi is covered.

Key words: *toponym, historical toponym, oikonym, polysonym, hydronym, oronym, variant of toponym.*

O‘zbek tili toponimiyasida xalqimiz va uning tili takomili, rivoji va taraqqiyoti bilan qadam–baqadam eskirish, sayqallanish va yangilanish asosida hozirgi darajaga kelgan. Tilning apellyativ leksik sathida bo‘lgani kabi toponimiyada ham variantdorlik kuzatiladi.

Fonetik va morfologik jihatdan farqlanuvchi ikki va undan ortiq joy nomlari toponim variantlari hisoblanadi. Apellyativ variantdorlik kabi toponimik variantdorlik tilning boyligi bo‘lib, xilma–xil nutqiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Variantdor toponimlarni ikki turga bo‘lish mumkin:

a) toponimlarning fonetik variantlari; b) toponimlarning morfologik variantlari.

Toponimlarning fonetik variantlari toponimlarning tovush tomondan farqlanuvchi ko‘rinishidir. Toponimlarning fonetik variantlari tilning ichki fonetik qonuniyatlari: fonetik hodisalar, tovush mosligi; poetik talablar asosida yuzaga kelgan.

Toponimlarning morfologik belgi–xususiyatlarga ko‘ra farqlanuvchi shakllari morfologik variantlaridir.

O‘zbek tili, xususan, eski o‘zbek tili davriga xos toponimiyadagi variantlilikni o‘rganishda tarixiy, badiiy asarlar, jumladan, Alisher Navoiy asarlari muhim noyob manbadir. Sh.Yoqubov tomonidan Alisher Navoiy asarlari onomastikasi doirasida toponimlar ham tadqiq etilgan, biroq tadqiqotda toponimik variantdorlik masalasiga e’tibor qaratilmagan [1].

Alisher Navoiy asarlaridagi toponim variantlari tilning ichki va tashqi imkoniyatlari natijasida, o‘zbek tilining fonetik va morfologik qonuniyatlari asosida hosil bo‘lgan va qo‘llangan hamda ma’lum uslubiy maqsadlarga xizmat qilgan.

El’burus – Eronning shimoliy qismidagi tog‘lar, Kaspiy dengizining janubiy qirg‘oqlariga tutash, Eron tog‘ligining shimoliy chekkasi. Uzunligi 900 km, eni 120 km.gacha. Balandligi 2000 – 4000 metrli bir nechta parallel tizmalardan iborat [2].

Demak, *El’burus* – oronim. *El’burus* oronimi o‘rta asrlarda *Alburz, Albur* variantlarida qo‘llangan. Alisher Navoiy asarlarida esa oronimning *Alburz* varianti uchraydi:

Qilib gar hamla ***Alburz*** uzra bir gurz,

Bo‘lub gadu chitsib gardunga ***Alburz*** *(“Farhod va Shirin”).*

Hozirgi Eronning shimolida joylashgan kichik *Go‘rgon* shahri o‘rta asrlarda *Astrobod* nomi bilan mashhur bo‘lgan. Polisonim manbalarda *Astarobod, Astrobod, Astirobod* fonetik variantlarida kuzatiladi. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da polisonim *Astrobod* variantida izohlangan[3].

Alisher Navoiy asarlarida polisonim Astarobod va Astirobod *variantlarida qo‘llangan:*

Ko‘ngli mulkin istar obod, vah, buzar xayli firoq,

To Navoiy azmi mulki ***Astirobod*** ayladi *(“Xazoyin ul–maoniy”).*

Xurosonning ilm va madaniyat markazi bo‘lgan obod shahri *Nishopur* deb atalgan. Tarixiy manbalarda polisonim *Nisobur* variantida ham tilga olinadi.

Xurosonning hozirgi *Mari* shahri *Marv,* Erondagi *Isfarhon* shahri *Sipohon* variantlarida iste’molda bo‘lgan:

Base shahr olamda qildi bino,

Nishopiru Marvu Sipohon yano *(“Saddi Iskandariy”).*

Alisher Navoiy asarlarida ayrim toponimlarning sharqdagi muqobil variantlari qo‘llangan. Masalan, *Gruziya* xoronimi *Gurja* variantida kuzatiladi:

Tutub Charkasu ***Gurja*** sori yo‘li,

Bo‘lib borcha gurjiyu charkas kuli. (“Saddi *Iskandariy”)*

Shoir *Osetiya, Rossiya* xoronimlarini *Os, Rus* variantlarida qo‘llagan:

Chu ozim bo‘lub jonibi ***Osu Rus,***
Bo‘lub yuzlari vahmidan sandarus *(“Saddi Iskandariy”).*

Turkiston o‘lkasidagi eng sersuv, yirik daryoning nomi – *Amudaryo* gidronimi ham bir necha variantlarga ega. Daryoni yunon va rimliklar *Oksus* yoki *Oksos,* arablar *Jayhun,* yerli xalqlar dastlab, *O‘kuz, Balx, Vaxsh,* so‘ngra, *Amul* deb ataganlar[3]. Kuzatishlarimizga ko‘ra, bulardan tashqari, gidronimning *Omu, Amu* fonetik variantlari ham bor.

Alisher Navoiy asarlarida ham *Amudaryo* gidronimining bir necha *Jayxun, Omu* variantlari qo‘llangan:

Anglamon ***Jayxunda*** ul oy kema birla sayr etar,
Yo hilolu mehr aksin el ko‘rar ***Jayxun*** aro. *(“Xazoyin–ul maoniy”)*

Bahri ishq ichra, Navoiy, oshnolig‘ topmading,
To bu bir ko‘zni Aras, ul birni ***Omu*** qilmading *(“Xazoyin–ul maoniy”).*

Ayrim manbalarda *Jayhun* va *Sayhun* nomlarini “G‘arbiy Osiyodagi Jayxon va Sayxon (asli Jayhon, Sayhon – ta’kid bizniki)ga nisbat qilib qo‘yilgan”, – degan izoh ham kuzatiladi[4]. Siyhon yoki Sayhon – Kichik Osiyoning janubi–sharqiy qismidagi daryo. U Qaysariyadan boshlanadi va Tarsusga yaqin joyga suvini quyadi. Umaviylar va vizantiyaliklar hukmronligi davrida asirlarni ayirboshlash shu yerda amalga oshirilgan [5].

Manbalarda *Sayhun, Jayhun* gidronimlarining imlosi turlicha beriladi. Jumladan, Boburning “Boburnoma” asarida *Sayxun, Jayxun,* Ibratning “Ta’rixi Farg‘ona” asarida *Sayhun,* fors–tojikcha “G‘iyos ul–lug‘at”, arabcha “Al–Munjid” kabi lug‘atlarda *Sayhun, Jayhun,* “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da va boshqa ayrim manbalarda esa *Sayxun, Jayxun* kabi. Bizningcha, *Sayhun, Jayhun* arabcha bo‘lib, arab yozuvida Sayhun, Jayhun tarzida yozilgan ekan, o‘zbek imlosining shakliy tamoyili (grafik–etimologik prinsipi)ga asosan, *Sayhun, Jayhun* tarzida yozilishi lozim.

Boshqa o‘rinda *Zarafshon* gidronimining qadimiy nomi *Ko‘hak* qo‘llangan:

Valekin bu rudeki, derlar ***Ko‘hak,***
Ki yo‘q ravzaning nahri erkaniga shak *(“Saddi Iskandariy”).*

Iram bog‘i – mifologik bog‘. Afsonalarga ko‘ra, bog‘ni xudolikni da’vo qilgan Shaddod ismli podsho barpo etgan emish. Sharq xalqlari og‘zaki ijodida marilar makoni sifatida talqin etiladi [6].

Mazkur mifologik toponim manbalarda *Iram bog‘i, Bog‘i Eram, Eram bog‘i, Iram, Eram* variantlarida kuzatiladi. Shoir asarlarida *bog‘i Iram* fonetik variantida uchraydi:

Quptiyu qo‘ydi chu bir–ikki qadam,
Bildi ayon ravzai bog‘i ***Iram*** *(“Hayrat–ul abror”).*

Tarixiy shahar va viloyat nomi, hozirda Qashqadaryo viloyatining shimoliy–sharqiy qismini egallagan *Kesh* polisonimi tarixiy, jumladan, arab manbalarida *Kashsh, Kass, Kiss,* xitoy manbalarida *Tsyuysha* shaklida uchraydi [6].

Alisher Navoiy asarlarida arab manbalariga monand polisonimning / *Kash* varianti qo‘llangan:

Dedilar: Kishvari durur dilkash,
Oti ham ***Shahrisabz*** erur ham ***Kash*** *(“Sab’ai sayyor”).*

She’riy matnda polisonimning zamonaviy *Shahrisabz* va tarixiy *Kash* variantlari qo‘llangan. Alisher Navoiy asarlarida tarixiy yozma manbalarda *Nasaf, Naxshab* deb tilga olinadigan qadimiy shahar nomini ifodalovchi polisonimning *Naxshab,* boshqa o‘rinda aynan hozirda iste’molda bo‘lgan *Qarshi* varianti qo‘llangan:

Bo‘lur shom ul mahi ***Naxshab*** ravona,
Kamandi zulfin ochib shab ravona. *(“Xazoyin–ul maoniy”)*

Mavlono Soyimiy – ***qarshiliqdur*** *(“Majolis–un nafois”).*

Qozog‘iston Respublikasining Jambul viloyatining ma’muriy markazi bo‘lgan qadimiy shahar nomi *Taroz* VIII – XVIII asr arab, fors tarixiy manbalarida *Taroz, Talas* va keyingi ijtimoiy o‘zgarishlar jarayonida yuzaga kelgan *Avliyoota, Mirzoyan, Jambul* kabi nomlar bilan tilga olinadi [7]. *Taroz* nafaqat shahar nomi, balki daryo nomi ham, ya’ni gidronim ham. Polisonim manbalarda *Tiroz* fonetik variantida ham kuzatiladi.

Alisher Navoiy asarlarida shahar nomining aynan *Taroz* varianti qo‘llangan:

Vasfi bas dilpaziru oti Taroz,
Tarzi dilkash nechukki ishqi majoz *(“Sab’ai sayyor”).*

O‘rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan, hozirga qadar hududiy chegarasi turlicha talqin qilinadigan, so‘nggi talqinlarga ko‘ra, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan hududni ifodalovchi *Movarounnahr* xoronimi[8] *Movarounnahr* fonetik variantida uchraydi:

Chu ma’bar bo‘lub Movarounnaxr anga,
Yasolib Samarqanddek shahr anga *(“Saddi Iskandariy”).*

Xoronimning etimoni *daryoning nargi tomoni* ma’nosini anglatuvchi *“ma varo–an–nahr”*arabiy birikmasidir.

Tahlillardan ko‘rinadiki, toponimiyadagi variantdorlik masalasini o‘rganish tilning fonetik, leksik, derivatsion, morfologik va sintaktik tadqiqida hamda toponimik tizimni lisoniy tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. ном. дисс. ...автореф. – Тошкент, 1994. 13–б.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилдли. 10–жилд. – Тошкент, 2005. 209–б.
3. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилдли. 1–жилд. – Тошкент, 2000. 467–б.
4. Сўз мулкига саёҳат. Амударё // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1996.89–.
5. Ал–Мунжид. – Байрут: Католик, 1966. 276–б.
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилдли. 4–жилд. – Тошкент, 2002. 212–б.
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилдли. 8–жилд. – Тошкент, 2004. 284–б.
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилдли. 6–жилд. – Тошкент, 2004. 35–36–б.

Oygul MATKURBANOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti filologiya fanlari bo‘yicha (Phd) tayanch doktoranti
E–mail: matkurbonova93@mail.ru

QAMCHIBEK KENJA HIKOYALARINING TIL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy asar tili haqida so‘z borib, taniqli yozuvchi Qamchibek Kenjaning so‘z qo‘llash va tanlash uquvi baholab boriladi. Muallifning “Garov”, “Eski soat”, “Lafz” nomli hikoyalarida taqlid, juft, takroriy, ibora, maqol hamda shevaga xos so‘zlarning matndagi vazifasi belgilanadi. Ayniqsa, maqollarning hikoyalarda qanday ma’no kasb etishi misollar bilan ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *so‘z, hikoya, maqol, syujet, taqlid so‘z, takroriy so‘z, obraz, sheva.*

Аннотация: в данной статье рассматривается язык литературных произведений, дается оценка использованию и выбору слов известного писателя Камчибека Кенджи. В рассказах автора “Залог”, “Старые часы”, “Слово” определяется роль подражания, парности, повтора, словосочетаний, пословиц, диалектно–специфических слов в тексте. В частности, приводятся примеры, иллюстрирующие, как пословицы приобретают смысл в рассказах.

Ключевые слова: *слово, рассказ, пословица, сюжет, подражательное слово, повторяющееся слово, образ, идиома.*

Annotation: this article discusses the language of literary works and evaluates the use and choice of words of the famous writer Kamchibek Kenja. In the author’s stories “Pledge”, “Old Watch” and “Word”, the role of imitation, pair, repetition, phrase, proverb and dialect–specific words in the text is determined. In particular, the meaning of proverbs in stories is shown with examples.

Key words: *word, story, proverb, plot, imitative word, repeated word, image, idiom.*

Kirish. Badiiy asarning bosh unsuri so‘z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san’at darajasiga ko‘tarila olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo‘llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Qamchibek Kenja hikoyalarining tilini o‘rganish, avvalo, adibning mahoratini ochib beradi, shu bilan birga, adabiy tilimiz rivojiga uning asarlari tilining qay darajada ta’sir ko‘rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Keyingi yillarda badiiy asar nutqining individual xususiyatlarini o‘rganish hamda badiiy asarning til xususiyatlarini tadqiq qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Qamchibek Kenjaning so‘z tanlashdagi va qo‘llashdagi mahoratining tadqiq etilishi badiiy asarning estetik ta’sirida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki aynan mana shu jihat orqali ijodkorning individual uslubi yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ijodkor badiiy nutqining o‘ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar bosh mavzu darajasiga ko‘tarilib bormoqda.

Adabiyotshunos Bahodir Sarimosoqov til xususida fikr yuritib, ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan qo‘llaniladigan badiiy til atalmish maxsus til yo‘qligi, har qanday badiiy til umumxalq tilining imkoniyatlari asosida u yoki bu ijodkorning ana shu imkoniyatlardan foydalana olish mahorati tufayli vujudga kelishini izohlaydi. [5.113]

Mustaqillik yillarida badiiy matn strukturasi, semiotikasi masalalari teran tadqiq etilmoqda. Xususan, matn tarkibidagi tinish belgidan tortib so‘zlar, birikmalar, gaplarning poetik vazifasi tahlillar asosida yoritib borilmoqda.

Asosiy qism. Badiiy asar tili haqida so‘z borar ekan, adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov shunday yozadi: “Rangsiz tasviriy san’at, ohangsiz musiqa bo‘lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo‘lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma–xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro‘yobga chiqariladi”. [6] Olimning mulohazalari yozuvchi Pirimqul Qodirovning quyidagi fikrlarida yanada teranlashadi: “Adabiyot – insonshunoslik bo‘lganligi uchun qahramonning tashqi qiyofasi bilan birga uning ma’naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va ta’sirli qilib tasvirlab berish yozuvchilar oldida turgan eng qiyin, eng sharafli vazifalardan hisoblanadi”. [4.248] Shunday vazifalardan biri ijodkorlarning til imkoniyatlaridan foydalana olishidir. Shu nuqtayi nazardan Qamchibek Kenja uslubiga xos xususiyat taqlid va takror so‘zlarning o‘rinli qo‘llanishidir. “Eski soat” hikoyasida soat millarining harakatini ifoda etuvchi “chiq–chiq” taqlid so‘zining qo‘llanilishi tasvirning yanada jonli aks etishiga zamin yaratadi. Hikoyada soat tovushi o‘nta o‘rinda *“chiq–chiq, chiq–chiq, chiq–chiq”* shaklida keladi. Bu tovush hikoya boshida bolaga qanday yoqimli tuyilgan, agar shu soat uning qo‘lida bo‘lsa, sinfdoshlari orasida maqtanib turishlari ko‘z oldiga kelgan bo‘lsa, hikoya oxiriga borib, vijdon azobini uyg‘otuvchi zambarak kabi yomon ta’sir qiladi. Hattoki, bu tovush qulog‘ini teshib yuboray deydi, haqiqiy dardisar bosh og‘rig‘iga aylanadi. Shuning bilan birga “chiq–chiq” taqlid so‘zi

takroriy holda qo‘llanilib, hikoya dinamikasini kuchaytirib boradi. “Lafz” hikoyasida esa “tezda–tezda”, “ul–bul”, “sharoit–paroit”, “qancha–qancha”, “so‘rab–so‘rab”, “qoida–poida”, “shippa–shippa”, “hazil–huzul”, “hay–hay”, “qaray–qaray”; “Garov” hikoyasida “to‘kilib–to‘kilib”, “shu–shu”, “bir–bir”, “parranda–darranda”, “bedana–medana”, “g‘ijinib–g‘ijinib”, “hash–pash”, “quloq–pulog‘i”, “ming–ming”, “milt–milt”, “tez–tez”, “sakrab–sakrab”, “chayqay–chayqay” [1.320–325] kabi takroriy so‘zlarning qo‘llanishi fikrning ta’sirini oshirishga, jonli tasavvurni boyitishga xizmat qiladi. Yozuvchi “Garov” hikoyasida “paxtaday”so‘zini uyushiq bo‘laklar bilan birga takror qo‘llab, chiroyli alliteratsiyasini yuzaga keltiradi: “Chayir aytganday harorat berayotgan paxtaday iliq, paxtaday yumshoq, paxtaday mayin, bir siqim patdan iborat mavjudot uning ruhini ko‘tarib turardi”. [1.332] Ushbu jumladagi “p” tovushining takrori ichki ohangdorlikni ta’minlaydi. Umuman olganda, hikoyalardagi takroriy so‘zlar asar badiiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Qamchibek Kenja hikoyalarining til xususiyatlarini tadqiq qilar ekanmiz, muallifning til badiiyatiga xos qirralaridan biri bu – matnda juft so‘zlardan unumli foylanganligi ekani ayon bo‘ladi. “Lafz” hikoyasi misolida tahlil etadigan bo‘lsak, bir qancha o‘rinda juft so‘zlar ishlatiladi: “sekin–asta”, “qo‘yarda–qo‘ymay”, “bir–ikki”, “ul–bul”, “uch–to‘rt”, “besh–o‘nta”, “qadr–qimmat”, “oyoq–qo‘li”, “qonun–qoidasi”, “besh–olti”, “qizarib–bo‘zarib”, “tanish–bilish”, “o‘yin–kulgi”, “oshna–og‘ayni”, “yaxshi–yomon”, “kayf–safo”, “vaj–karson”, “uzil–kesil”, “oq–sariq”, “bozor–o‘char”, “kecha–kunduz”. Bizningcha, bunday juft so‘zlardan foydalanish hikoya syujetining qiziqarli va voqealarning ishonarliligini ta’minlagan. Personajlar tabiatining atroflicha ochilishiga xizmat qilgan. Voqea tasvirlanayotgan vaziyat, qahramonlar o‘rtasidagi psixologik zanjirni maydonga keltirgan. E’tibor qilinsa, hikoyada son so‘z turkumiga oid juft so‘zlar faol ishtirok etadi. Bu esa hikoyaning ohangdorligiga ta’sir etib, ritmni kuchaytirgan.

Badiiy asar tili darslik va qo‘llanmalarda qayd qilinganidek, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, adabiy til me’yorlariga tayanadigan, ijodkorlar tomonidan jilolangan tildir. U mana shu xususiyatlariga ko‘ra, g‘oyaviy va hissiy ta’sir ko‘rsatishning eng samarali vositasidir. Ayni chog‘da, badiiy til kishilar o‘rtasida barcha uchun tushunarli bo‘lgan eng ommabop aloqa qurolidir. Qamchibek Kenja ham umumxalq tilining bebaho xazina ekanligini yaxshi anglaydi. Yozuvchi tilni sokin dengizga qiyoslaydi: “Badiiy asar jumlalari shundoq ravon bo‘lsaki, o‘zingizni xuddi sokin dengizda sol bilan suzib borayotganday his etsangiz. Ayrim kitoblarni o‘qiganingizda shudgorda o‘dalanib yurgandek mashaqqat tortasiz”. [2.366]

Yozuvchi hikoyalarida ham adabiy til me’yorlariga amal qilinib, asar tilini jozibali qilish maqsadida shevaga xos so‘zlar, ifodalar qo‘llash holati kuzatiladi. Chunonchi, yozuvchi “Garov” hikoyasida sigirni “govmish”, so‘rini “chorpoya”, qalqib “guvranib”, bedazorni “yo‘ng‘ichqazor”; “Lafz” hikoyasida sarflamoqni “hashlamoq”, hamqishloqni “hamnishin” shaklida qo‘llaydi. Ko‘rinadiki, muallif andijonlik bo‘lganligi sababli nafaqat dialektlarni balki, grammatik shakllarni ham sheva uslubida qo‘llaydi. Masalan, “Garov” hikoyasida qilaveramiz so‘zi “qilovorovramiz”, yedirayotgandi “yediryaptuvdi”, bizni ham “bizziyam”, lafz “labz”, jonivor “jonvor”; “Lafz” hikoyasida: bunaqa “munaqa”, bizniki “biziki”, poyezd “poyez”, boraveraman “borovraman”, ketsang “ketvorsang”, turavermagin “turovurmagin”, Toshkentda “Toshkanda”, shu yer “sho‘t”, Andijondan “Anjandan”. [1.378] Bunday shevaga xos so‘zlar hikoyalardagi hodisalarni tafakkurda jonli ifodalashga yordam beradi. Uslubning rang–barangligi, soddaligi va xalqchilligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Qamchibek Kenjaning til imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati o‘zbek xalq maqollaridan ham samarali qo‘llashida ko‘rinadi. Ma’lumki, maqollar xalq badiiy tafakkurining o‘ziga xos mahsuli bo‘lib, ularda insonning tabiat va ijtimoiy borliqqa bo‘lgan g‘oyaviy–estetik munosabatlari o‘ta muxtasar hamda mukammal tarzda o‘z ifodasini topadi. Maqollarning hayotiyligi, yashovchan va ta’sirchanligining asosiy sababi ham muxtasar–u mukammallikdadir. [7.12] Yozuvchi ham maqollardan ifodalanayotgan fikrning teran, ta’sirli va qisqa–lo‘nda qilib yetkazish uchun foydalanadi. Ayniqsa, muallif ayrim hikoyalarida turli mavzularga oid maqollarga murojaat etadi. Biz buni “Garov” hikoyasi misolida tahlil etadigan bo‘lsak, asardagi “G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqa ipini uzarmidi”, “Bolg‘achining ming urgani – bosqonchining bir urgani”, “Mol achchig‘i – jon achchig‘i”, “Qassobga yog‘ qayg‘u”, “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” va “Hazilning tagi zil” kabi farqli mavzularga oid maqollardan foydalanganligini kuzatamiz. Maqollar goh personaj, goh muallif tilidan ishlatilib, fikrning mazmunan boy, ta’sirli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xususan, “G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqa ipini uzarmidi” maqoli ramziy xarakterga ega bo‘lib, jamiyatimizdagi ba’zi xulqi nobop ayol va erkaklarga nisbatan salbiy munosabatda ishlatiladi. “Garov” hikoyasida ushbu maqol sintaktik o‘zgarishlarsiz muallif tilidan Temir polvonning ayoliga bo‘lgan munosabatini yoritishda qo‘llaniladi. Ayolga qo‘yilgan ushbu “ayblov” tasdig‘i syujetda ochiqlanmaydi. Aslida uning xotiniga bir nobakor shilqimlik qiladi, bundan xabar topgan Temir polvon uni ketmon bilan urib o‘ldiradi. Natijada sakkiz yil umri qamoqda o‘tadi. Ozodlikka chiqqach esa o‘g‘il–qizlarini ko‘rgani keladi–yu, “G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqa ipini uzarmidi” deb o‘ylab oriyati kuchlilik qilib xotinidan, yigirma ikki yillik shirin ro‘zg‘oridan yuz o‘girib, to‘nini yelkasiga tashlaganicha uyidan chiqib ketadi.

“Bolg‘achining ming urgani – bosqonchining bir urgani” maqoli bosqonchi ya’ni temirchining kuchliligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Bunda nafaqat temirchi, umuman, har bir ishda o‘z kasbining ustasi kuchliligi e’tirof etiladi.

Ushbu maqol hikoyada epizodik obraz Qambar aka tomonidan aytiladi–ki, bunda Temir polvonning oltmishni qoralagan bo‘lsa–da, hali kuchi baquvvat ekanligi izohlanadi: “Hay–hay, Zulunboy, pasroq tush, pasroq. Bolg‘achining ming urgani – bosqonchining bir urgani”. [1.326]

“Mol achchig‘i – jon achchig‘i” – o‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘atida shunday izohlanadi: “Agar kishining moli o‘tda yonayotgan, suvga cho‘kayotgan bo‘lsa, u mol achchig‘ida o‘zini hatto o‘tga, suvga otishdan ham toymaydi. Mazkur maqolni shunday holga nisbatdan qo‘llaydilar”. [2.257] Hikoyada Temir polvonning to‘yga atab boqayotgan buqasi yo‘qoladi. Shum xabar ulfatlarga ham yetib boradi. Shunda ulardan biri ushbu maqolni qo‘llab, polvon bilan garov o‘ynagan Zulun chayirni ogohlantiradi. Chunki Temir polvon bolasi tenggi keladigan Zulunboy bilan yo‘ng‘ichqazorda paydo bo‘lgan yangi bedanani tutib kelish borasida bahslashishadi. Ayni polvon bedapoyaga ketgan kuni shu o‘g‘irlik sodir bo‘ladi. Ertalab ovi baroridan kelgan Temir polvon novvosning yo‘qolganidan darak topadi. Ammo maqolda nazarda tutilganidek, mol achchig‘i bedana ishqibozi bo‘lgan, g‘alaba nashidasini surayotgan Temir polvonga zarracha bo‘lsa–da, ta’sir etmaydi. Uning uchun erkaklik lafzi har qanday mol–dunyodan ustun edi. Buni uning Zulunboyga bergan mardonavor javobida kuzatamiz:

“ – Novvosga achinyapman, polvon aka, novvosga, shunchalik qilish osonmidi, o‘t, yem qimmat paytlarda…

Achinmang. Bosh omon bo‘lsa, mol topiladi. Menga yigit kishini labzi qimmat, uka”. [1.329]

Qamchibek Kenja o‘zbek xalq maqollarining qanchalik bilimdoni ekanligi ayni shu syujetda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, molini yo‘qotish jarayoni “Mol achchig‘i – jon achchig‘i” maqoli bilan ifodalansa, unga javob sifatida antonim ma’noli “Bosh omon bo‘lsa, mol topiladi” maqoli qo‘llaniladi. Bu zid ma’nolilik syujetning qiziqarli va ishonarliligini oshirgan. Ikkinchidan, muallif “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” maqolini syujetga mos ravishda “Bosh omon bo‘lsa, mol topiladi” shaklida qo‘llaydi–ki, bu esa voqea ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Hikoya so‘nggida “Hazilning tagi zil” maqoli ulfatlardan birining (hikoyada nomi keltirilmaydi) tilidan aytilib, bu asarning asosiy g‘oyasini ochib beradi. Ushbu maqol ko‘p variantli bo‘lib, shulardan “Hazildan zil chiqar, zildan–zilzila”, “O‘yindan o‘q chiqadi” yoki “Yaxshi hazil xush bo‘lur, yomon hazil musht bo‘lur” kabilari ham hikoyaga mos tushadi. Chunki ulfatlar orasida hazil–huzul bilan boshlangan bedani tutish ishtiyoqi kuragi yerga tegmagan Temir polvon va laqabiga mos qitmir Zulun chayirlarning o‘zaro ziddiyatga borishiga sabab bo‘ladi. Natijada garov o‘ynalib, Zulunboy mag‘lubiyat alamini ko‘tarolmaydi. Alaloqibat, orada ko‘ngilsiz so‘zlar aytilib, garov musht bilan yakunlanadi.

Guvohi bo‘lamizki, muallif hikoyalarida maqollar bilan bir qatorda iboralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Gi de Mopassanning aytishicha, “Narsa qanday bo‘lmasin, u to‘g‘rida gapirging keladi, uni ifodalaydigan faqat bittagina so‘z bor, uni jonlantira oladigan fe’l bor, faqat bittagina, uni na biron sifat bayon eta oladi, ularni kashf etgunga qadar bu ot, bu fe’lda shu sifatni izlash kerak ham tahminiylik hech qachon qoniqtirmaydi”. [3.140] Shu jihatdan iboralar yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni ta’sirli, mazmunli qiladi va xalqchilligini oshiradi. “Lafz” hikoyasida kuzatadigan bo‘lsak, asosan bosh qahramon Odilning psixologik holatini yoritishda iboralar ishlatiladi: “Odil **izza tortdi**”, “Odilning **ensasi qotdi**”, “Odilning **tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib**, orqaga qaray–qaray vagonga chiqdi”, “Odil shosha–pisha “Kelishmadimi?” demoqchi bo‘ldi–yu, **tilini tishladi**”. [1.375–386] Hikoyanavis qahramonning ruhiyatini yorqin tasvirlashda o‘rinli iboralar topib, syujetga silliq singdira olgan. Bu esa hikoya badiiyligini yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Qamchibek Kenja o‘zbek tilining imkoniyatlarini yaxshi biladi. Hikoyalarda taqlid, juft, takroriy so‘zlardan unumli va o‘rinli foydalanadi. Sheva so‘zlarining ishlatilishi, milliy koloritni akslantirib, hikoya tilining shiraliligini oshiradi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lgan maqol va iboralardan samarali qo‘llaydi. Yozuvchi foydalangan maqol va iboralar hikoya mazmuni va g‘oyasini ochib berishga, ta’sirlilikni oshirishga, tushunarli bo‘lishlikka zamin yaratadi. Bu esa Qamchibek Kenjaning so‘z qo‘llash mahoratining qanchalik yuqori ekanligini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кенжа Қ. Бир кеча–минг кеча. – Тошкент: O‘zbekiston, 2018. 584 б.
2. Кенжа Қ. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2007. 367 б.
3. Литературние манифестм французких реалистов. Москва, 1935. – С.140.
4. Қодиров П. Ғоя ва туйғу бирлиги // Тил ва эл. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б.248.
5. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. 251 б.
6. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1986, 5 сентябрь.
7. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз? Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 12.
8. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1988. – Б. 257.

Davronbek ORIPOV,
Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
mail: bekdavr@mail.ru
Orcid raqam: 0009–0003–0025–7287

"KITABI DADAM QO'RQUT" NING NUSXALARI: QIYOS, TAHLIL VA TAFOVUT

Annotatsiya: xalq og'zaki ijodi va turkiyshunoslikda "Kitobi Dadam Qo'rqut" yoxud "Dada Qo'rqut kitobi" kitobiy eposi haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, ko'p va xo'b fikrlar bildirilgan. Bunday olib qaraganda, ushbu epos yoki Dada Qo'rqud (Qo'rqut ota) haqida aytiladigan fikrning o'zi yo'qdek, tuyuladi. Aslida–chi, aslida ham shundaymi?

Mazkur maqolada Qo'rqut ota shaxsiyati, o'g'uzlar tarixi, "Kitobi Dadam Qo'rqud" eposining turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida yangi fikrlar o'rtaga tashlanadi. Va baholi qudrat, ilmiy asoslanadi.

Qo'rqut ota shaxsiyati qadimgi manbalar, tarixiy solnomalar, bizgacha yetib kelgan asarlar, zamondosh tadqiqotchilar izlanishlari asosida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: *Dada Qo'rqud (Qo'rqut ota), nusxa, qo'shiq, turkiy til, qo'lyozma, transkripsiya, nasr, matn.*

Annotation: a lot of research has been conducted in oral folk art and Turkology, many opinions have been expressed about the book epic "The Book of my Deda Korkut". From this point of view, it seems that there is no consensus about Deda Korkut and "The Book of my Deda Korkut". In fact, is he really a real person?

This article will present new thoughts about the personality of Deda Korkut, the history of the Oguz, the role of the epic "The Book of my Deda Korkut" in the history of the Turkic peoples. And scientifically based conclusions are given.

The personality of Deda Korkut has been investigated on the basis of ancient sources, historical chronicles, and extant works.

Key words: *Deda Korkut, copy, song, turkic language, manuscript, transcription, prose, text.*

Аннотация: в устном народном творчестве и тюркологии было проведено много исследований, высказано много положительных мнений о книжном эпосе "Книга моего деда Коркуда" или "Китаби дада Коркуд". При таком рассмотрении кажется, что в этом эпосе нет ни одной мысли, которую можно было бы высказать о Деда Коркуда (Коркуд ата). Что на самом деле, не так ли?

В этой статье будут изложены новые взгляды на личность Коркута ota, историю огузов, роль эпоса "Книга моего деда Коркуда" в истории тюркских народов. И оценочная мощность, научно обоснованная.

Личность пугающего отца исследовалась на основе древних источников, исторических хроник, дошедших до нас произведений, исследований современных исследователей.

Ключевые слова: *деда Коркуд, копия, песня, тюркский язык, рукопись, транскрипция, проза, текст.*

Kirish. Bugungi kunga qadar "Kitobi dadam Qo'rqut" eposining uchta qo'lyozmasi ma'lum bo'lib, ular matnshunoslik nuqtayi nazaridan yetarlicha o'rganilgan.

XVIII asrga qadar "Kitobi dadam Qo'rqut" eposi deyarli ilm ahliga ma'lum emas edi. Mazkur epos haqida ilk bor nemis olimi Iogann Yakob Reyske (Johann Jacob Reiske) ma'lumot bergan. Sharqshunos olim 1770–yilda Germaniyaning Drezden kutubxonasida mazkur kitobning qo'lyozma nusxasini topadi. U ancha vaqt qo'lyozma matni bilan yaqindan tanishadi, biroq Reyske eposning mazmun–mohiyatiga to'liq yeta olmaydi. Iogann Reyske qo'lyozmani usmonlilar shahzodasi Qo'rqutga sovg'a tarzda olib boradi.

Aslida, "Kitobi dadam Qo'rqut" eposi ustida fundamental ilmiy–tadqiqot ishlari XIX asrning I yarmidan boshlandi. 1811–yili nemis sharqshunosi Fridrix fon Dits eposning Drezden nusxasini aniqlaydi va 1815–yilda eposdan o'rin olgan "Basatning Tepako'zni o'ldirishi" qo'shig'ini nemis tiliga tarjima qilib, ilmiy ma'lumotlari bilan chop etadi. Fridrix fon Dits tomonidan o'rganilgan "Kitobi dadam Qo'rqut" eposining nusxasi ba'zi olimlar ma'lumotiga ko'ra, 1578–1585–yillarda Shirvon shahridan Usmonli turklar imperiyasiga Usmon posho tomonidan keltirilgani ta'kidlanadi. Eposning mazkur nusxasi muqaddima va 12 qo'shiq (hikoya) dan iboratdir.

"Kitobi Dadam Qo'rqut" kitobining yana bir qo'lyozma nusxasi Haynrix Leberext Fleycher tomonidan Drezden qirollik kutubxonasi katalogida "Catalogus codicum Manuscriptorum orientalum Bibliothecae Dresdensis,

Dresden, 1831, No: 86” tarzida lotincha alifboda tartib berilgan [1:17].

Asosiy qism. Fleycher ushbu nusxa haqida quyidagi ma’lumotlarni qayd etadi: “152 sahifalik turkcha matn, nasrda bitilgan, qadimgi turkchaning o‘g‘uz shevasida bitilgan “Kitabi Dadam Qo‘rqud”dir. Ich O‘g‘uz va Tash O‘g‘uz qabilalarining Muhammad davridagi mojarolarining hikoyalaridir. Kitobning nomi Qo‘rqud nomi bilan atalgan insonning barcha hikoyalarda muhim ahamiyat kasb etishi orqali nomlanadi. Qo‘rqud dindor, aqlli va O‘g‘uz qabilalari orasida katta obro‘ sohibi sifatida ta’riflanadi” [2:64].

152 sahifadan iborat mazkur qo‘lyozma muqovasida “Kitabi Dedem Korkut ala lisani taifayi Og‘uzan” deb yozilgan bo‘lib, uning yuqori o‘ng burchagida “tarihi vefati Osman sene 993”, pastki o‘ng burchakda esa “Muhabbetneme ağzinda yazilmiştir” bitiklari o‘rin olgan. Bundan tashqari, muqovada qo‘lyozmaga aloqador bo‘lmagan jumlalar ham borligini ta’kidlash joiz [3:18].

Muqovaning orqa qismida katta va kichik harflarda fors tilida bayt yozilgan. Matn boshlanadigan sahifaning ilk tomoni ham turli yozuvlarga to‘la bo‘lib, bu yozuvlarning asosiy matnga daxli yo‘q. Qo‘lyozmaning ikkinchi sahifasidan asl matn boshlanadi. Har bir sahifada 13 satrlik nasrda yozilgan matn mavjud. Sahifalarning butun perimetri bitta chiziq bilan hoshiyalangan. Matn ichida ajoyib tarzda jilo berilgan tinish belgilar ham o‘rin olgan. Kirishdagi sarlavhalarning ba’zilaridagi **so‘ylama so‘ylamish** kabi so‘zlar hamda ba’zi ismlar, jumlalar qalin yozuvda bitilgan. Kitob jami 304–sahifadan so‘ng tugaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, asarning nazmiy parchalari alohida ajratib ustun shaklida yozilmagan, balki she’rlar ham matn sahifalari tarkibida nasriy shaklda berilgan. Matn sarlavhalari alohida sarlavha sifatida ajratilmagan.

Mazkur bir muqaddima va o‘n ikki qo‘shiq (anlatma)dan iborat “Kitobi Dadam Qo‘rqud”ning Drezden nusxasining muqaddimasi Dada Qo‘rqutga bag‘ishlangan bo‘lib, uni ikki qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qism Dada Qo‘rqutning tavsifi bo‘lsa, ikkinchi qismida Qo‘rqut otaning hikmatli so‘zlari berilgan. Drezden qo‘lyozmasida yuqorida ta’kidlanganidek muqaddimadan so‘ng 12 qo‘shiq navbati bilan joy olgan. Drezden nusxasi quyidagi qo‘shiqlardan iborat: 1. Dirsaxon o‘g‘li Bo‘g‘ochxon dostoni; 2. Salur Qozon uyining talon–taroj qilinishi dostoni; 3. Boy Bo‘raning o‘g‘li Bamsi Bayrak dostoni; 4. Qozonbek o‘g‘li O‘ruzbekning asirga tushish dostoni; 5. Dev Xo‘ja o‘g‘li Dali Domrul dostoni; 6. Qangli Xo‘ja o‘g‘li Qon To‘rali dostoni; 7. Qoziliq Xo‘ja o‘g‘li Yaganak dostoni; 8. Basat Tepako‘zni o‘ldirishi dostoni; 9. Bagil o‘g‘li Emronning dostoni; 10. Ushon Xo‘ja o‘g‘li Sagrakning dostoni; 11. Solor Qozonning tutqun bo‘lgani va o‘g‘li O‘ruz qutqargani dostoni; 12. Tasho‘g‘o‘zning Icho‘g‘o‘zga itoat etmagani va Bayrakning o‘limi dostoni.

1950–yili italiyalik Ettori Rossi tomonidan “Kitobi Dadam Qo‘rqut”ning Vatikan nusxasi ma’lum qilingan edi [4:34–43]. Vatikan kutubxonasining Turkcha qo‘lyozmalar qismida 102–raqam bilan ro‘yxatga olingan ushbu nusxa quyidagi qo‘shiqlarni o‘z ichiga olgan: 1. Xon o‘g‘li Bo‘g‘ochxon hikoyati; 2. Bo‘z otli Bamsi Bayrak hikoyati; 3. Salur Qozon uyining talon–taroj qilinishi hikoyati; 4. Qozonbek o‘g‘li O‘ruzbekning asirga tushish hikoyati; 5. Qoziliq Xo‘ja o‘g‘li Yaganak Bek hikoyati; 6. Tasho‘g‘o‘zning Icho‘g‘o‘zga itoat etmagani va Bayrakning o‘limi hikoyati.

Bir muqaddima va beshtasi to‘liq bo‘lgan 6 qo‘shiqdan tashkil topgan Vatikan nusxasi **“Hikayet–i Oğuzname–i Kazan Beg ve Gayri”** degan to‘liq nomga ega.

Ushbu nusxa boshqa bir asar bilan birgalikda bir jild ostiga birlashtirilgan. Ushbu jildning 2–58–sahifalarida **“Hikayati latife i ucube ve mahcube–i zarife”** asari o‘rin olganini ta’kidlash joiz. Dada Qo‘rqut eposi esa mos ravishda 56–106 sahifalarga jamlangan.

20,5x15,2 hajmiga ega Vatikan nusxasi boshdan oyoq nasrda bitilgan bo‘lib, har sahifada 13 satr o‘rin olgan. “Hikayet–i Oğuzname–i Kazan Beg ve Gayri” degan to‘liq nomda bitilgan ushbu qo‘lyozma garchi nasrda yozilgan bo‘lsa–da, matn parchalarining so‘ngida bo‘sh qoldirilgan qismlar mavjud. 97–98–sahifalardan oldingi sahifa biroz yirtilgan. Ushbu nusxa 99–sahifada o‘z poyoniga yetadi.

Vatikan nusxasi qo‘shiqlar soni jihatidan to‘liq bo‘lmagan nusxa bo‘lib, muqaddima hamda yuqorida nomi zikr qilingan oltita qo‘shiqni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, Vatikan va Drezden nusxalari orasida til xususiyatlariga oid farqlar mavjud. Ya’ni Vatikan nusxasi matnida Drezden nusxasi matniga to‘liq rioya qilinmagan. Demak, “Dada Qo‘rqud kitabi”ning biz bilgan ikki qo‘lyozmaga qaraganda yana bir qadimiyroq qo‘lyozma mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [5:68]. Shuni alohida qayd etish o‘rinliki, Vatikan qo‘lyozmasidagi o‘zgarishlarni qo‘lyozmani qog‘ozga ko‘chirish jarayonida xattot bajargan bo‘lishi mumkin.

Qayd etilishicha, Drezden hamda Vatikan nusxalariga bevosita asos bo‘lgan qadimiyroq yana bir qo‘lyozma mavjud bo‘lib, har ikkala nusxa alohida qadimgi nusxadan ko‘chirilgan. Ozarbayjon turkiyshunoslari Farhod Zeynalov va Samat Alizodalarning fikriga ko‘ra, Drezden qo‘lyozmasi ozarbayjon tilida bitilgan bo‘lsa, Vatikan nusxasining tili XVI asr turk tiliga yaqin. Qayd etish joizki, Ozarbayjon Fanlar Akademiyasida mazkur

qo‘lyozmalar asosida eposning uchinchi qo‘lyozmasi tayyorlanadi. Lekin u rasman uchinchi qo‘lyozma sifatida tan olinmagan.

1815–yilda e’lon qilingan “Basatning Tepako‘zni o‘ldirishi” qo‘shig‘idan parcha turk tilida edi. Atoqli turk olimi Muharram Ergin 1958–yili chop etilgan epos matniga Drezden, Berlin va Vatikan nusxalarini asos qilib oladi. Uning fikricha, Drezden qo‘lyozmasi asosiy bo‘lib, qolgan ikkisi u asosida keyinchalik qog‘ozga ko‘chirilgan [6:64].

“Dada Qo‘rqut kitobi” kitobiy eposi bugungi kunga qadar dunyo turkiyshunoslarining diqqat–markazida bo‘lib, Moskva, Berlin, Xelsinki, London, Syurix, Texas, Tehron, Tabriz, Ashxobod, Anqara va Istanbul va boshqa shaharlarda turli tillarda e’lon qilib kelinmoqda.

Xulosa. 2018–yilgacha fanda faqat shu ikki nusxa borligi qayd etilgandi. O‘sha yili Eronning Gumbod–Kavus shahrida yashovchi Vali Muhammad Xo‘janing shaxsiy kolleksiyasida “Kitobi Dadam Qo‘rqut”ning yana bir nusxasi (Gumbod qo‘lyozmasi – Turkiston–Turkmansahro nusxasi deb ham ataladi) borligi aniqlanadi. Oradan bir yil o‘tib, 2019–yilning iyun oyida ushbu nusxaning qisqa (asosan, lingvistik) tadqiqotlari faksimili bilan birgalikda mualliflar jamoasi tomonidan chop etiladi.

Gumbod–Kavus shahri Eronning asosan, turkmanlar yashaydigan hududida joylashgani bois ushbu nusxa – Turkiston–Turkmansahro nusxasi deb ataladi. E’tiborlisi, Vali Muhammad Xo‘ja bungacha ham turkiy tildagi yozma yodgorliklarni yig‘ish va saqlash bo‘yicha sermahsul faoliyati bilan shuhrat qozongandi.

“Salur Qozonning yetti boshli ajdarhoni o‘ldirishi” deb nomlangan ushbu qo‘lyozma 13–qo‘shiq hamda “Kitobi Dadam Qo‘rqut”ning uchinchi nusxasi sifatida dunyo olimlari tomonidan tan olinadi. Bundan tashqari, 2019–yili ushbu 13–qo‘shiqning turkiyalik taniqli folklorchi, professor Metin Ekiji [7:220] hamda ozarbayjonlik olim, filologiya fanlari doktori Ramiz Askar [8:160] muallifligidagi tarjima va transkripsiya matnlari yuzaga keladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, hozirgi vaqtga qadar “Dada Qo‘rqut” qo‘lyozmalari 3 tani va qo‘shiqlar soni 13 tani tashkil etmoqda. Nazarimizda, kitobiy eposning qo‘shiqlari 13–qo‘shiq bilan tugallanmaydi. U aslida, 24, 30 va undan ko‘proq bo‘lishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar bu masalaga yanada oydinlik kiritishi tabiiy, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salur Kazanın Yedi Başlı Ejderhayı Öldürmesi. Soylamalar ve 13. Boy. Dede Korkut Kitabı Türkistan / Türkmen Sahra nüshası. Prof. Dr. Metin Ekici. – Istanbul, 2019. S. 17.
2. Ergın M. Dede Korkut Kıtabı. – Ankara, 2004. S. 64.
3. Salur Kazanın Yedi Başlı Ejderhayı Öldürmesi. Soylamalar ve 13. Boy. Dede Korkut Kitabı Türkistan / Türkmen Sahra nüshası. Prof. Dr. Metin Ekici. – Istanbul, 2019. S. 18.
4. Rossi E. Unnuovomanoscrittodel “Kitab–I Dede Qorqut” // Rivistadegli Stud: Orintali. – Roma, 1950. P.34–43.
5. Ergın M. Dede Korkut Kıtabı. – Ankara, 2004. S.68.
6. Muharrem Ergin. Dede Korkut Kıtabı. – Ankara, 2004. S.64.
7. Salur Kazanın Yedi Başlı Ejderhayı Öldürmesi. Soylamalar ve 13. Boy. Dede Korkut Kitabı Türkistan/Türkmen Sahra nüshası. Prof. Dr. Metin Ekici. – Istanbul, 2019. 220 s.
8. Kitabi Dədə Qorqudun üçüncü əlyazmasi. Türksoy kitabxanasi seriyasi – 38. Neşre hazirlayan: Ramiz Əsker. –Baki, 2019.160–s.

Xasan G‘AFFOROV,
ISFT instituti Samarqand filiali
“Ijtimoiy–gumanitar fanlar” kafedrasi
vazifa bajaruvchi dotsenti, PhD
Qurgoshin1905@gmail.com

ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI NUTQIY GENDER STEREOTIPLAR HAMDA ULARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada nutqiy gender stereotiplarning mazmun–mohiyati, ularning jamiyatda shakllanish sabablari va kommunikativ jarayondagi namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi.Til birliklarining tanlanishi, muloqot strategiyalari va nutq aktlarining genderga xos ifodalanishi misolida stereotiplarning pragmatik funksiyalari ochib beriladi. Tadqiqotda gender lingvistikasi va pragmalingvistika yondashuvlari asosida ayol va erkaklarning nutqiy xatti–harakatlari orasidagi farqlar, shuningdek, ushbu stereotiplarning ijtimoiy ong va kommunikativ tenglikka ta’siri ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: gender lingvistikasi, nutqiy stereotip, pragmalingvistika, kommunikatsiya, jinsga xos nutq, illokutsional kuch, ijtimoiy rol, til va jamiyat.

Аннотация: в статье анализируется содержание речевых гендерных стереотипов, причины их формирования в обществе и особенности проявления в коммуникативном процессе. Прагматические функции стереотипов раскрываются на примере отбора языковых единиц, коммуникативных стратегий и гендерно–специфического выражения речевых актов. Исследование, основанное на подходах гендерной лингвистики и прагмалингвистики, проливает свет на различия в речевом поведении женщин и мужчин, а также влияние этих стереотипов на общественное сознание и коммуникативное равенство.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, речевой стереотип, прагмалингвистика, коммуникация, гендерно–специфическая речь, иллокутивная сила, социальная роль, язык и общество.

Annotation: this article analyzes the content of speech gender stereotypes, the reasons for their formation in society and the features of their manifestation in the communicative process. The pragmatic functions of stereotypes are revealed on the example of the selection of language units, communication strategies and gender–specific expression of speech acts. The study, based on the approaches of gender linguistics and pragmalinguistics, sheds light on the differences between the speech behavior of women and men, as well as the impact of these stereotypes on social consciousness and communicative equality.

Key words: gender linguistics, speech stereotype, pragmalinguistics, communication, gender–specific speech, illocutionary force, social role, language and society.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda gender masalasi alohida e’tibor markazida turibdi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy holat va jinsga oid ijtimoiy rollarning ifodasidir.Ayniqsa, ziddiyatli nutqiy vaziyatlarda insonning jinsi uning til vositalarini tanlashiga, nutq strategiyasiga va xatti–harakatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi nutqiy farqlar ko‘plab omillar, jumladan ijtimoiy stereotiplar, madaniy qadriyatlar va psixologik ehtiyojlar bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, ziddiyatli vaziyatlarda yuzaga keladigan nutqiy gender stereotiplarni va ularning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Gender stereotipi deganda, jamiyatda erkaklar va ayollar haqidagi barqaror, ijtimoiy shakllangan, ko‘pincha umumlashtirilgan tasavvurlar tushuniladi. Bu stereotiplar insonning kundalik hayotdagi ijtimoiy roli, xulq–atvori, hissiy ifoda shakllari hamda muloqotdagi nutq uslubi orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Aksariyat hollarda bu stereotiplar muloqotga ongli yoki ongsiz ravishda ta’sir ko‘rsatadi, xususan ziddiyatli vaziyatlarda bu ta’sir ancha kuchayadi.

Ziddiyatli vaziyatlarda muloqot ikki tomonning qarama–qarshi fikr, maqsad yoki manfaatlari to‘qnashuvi natijasida shakllanadi.Bunday vaziyatlarda erkak va ayollar turlicha yondashuvlarni qo‘llaydilar.Erkaklar ko‘proq ochiq buyruq, keskin bahs, tanqid, yuqori darajadagi nazoratni ifodalovchi nutq shakllaridan foydalanadi. Masalan, “Bo‘ldi, endi bu mavzuni yopamiz”, yoki “Men aytdim – bo‘ldi!” kabi gaplar erkaklarga xos stereotipik uslubdir. Aksincha, ayollar odatda yumshoq, ehtiyotkor, emotsional jihatdan boy, murosaviy va bevosita bo‘lmagan nutq usullarini tanlaydi. Masalan, “Sen meni tushunishga harakat qilsang edi…”, yoki “Menga qiyin bo‘layapti, iltimos, eshit…” kabi iboralar bunga misoldir.

Bu farqlar pragmatik jihatdan turlicha illokutiv kuchda namoyon bo‘ladi. Erkaklar nutqida ko‘proq buyruq,

talab, rad etish kabi kuchli illokutiv aktlar kuzatiladi, ayollar esa iltimos, mulohaza, hamfikrlik kabi yumshoq aktlarga moyil bo‘ladi. Ayollar, shuningdek, “negative politeness” — ya’ni ehtiyotkorlik va masofa saqlash strategiyalaridan ko‘proq foydalanadi, bu ularning ziddiyatdan qochishga intilishini aks ettiradi. Erkaklar esa “bald on record” — ochiq, to‘g‘ridan–to‘g‘ri aytilgan gaplar orqali o‘z fikrini ifoda etadi. Natijada, erkaklar muloqotda kuchli pozitsiyani egallashga intiladi, ayollar esa tushunishga, hissiy yaqinlikka urg‘u beradi. Bunday nutqiy strategiyalar jamiyatda shakllangan gender rollari va stereotiplarning natijasidir.

Zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan gender lingvistikasi til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni, xususan, jinsga xos nutqiy xatti–harakatlarni o‘rganishga qaratilgan. Nutqiy gender stereotiplar — bu erkaklar va ayollar nutqiga nisbatan jamiyatda shakllangan, ijtimoiy ongda mustahkam o‘rnashgan tasavvurlar tizimidir. Ushbu stereotiplar ko‘pincha shaxsning individual til faoliyatini emas, balki unga nisbatan jamiyatda mavjud bo‘lgan kutishlarni ifodalaydi. Masalan, erkaklarning nutqi qat’iy, lo‘nda va buyruq ohangida bo‘lishi, ayollar esa muloyim, hissiyotlarga boy va murosa yo‘lini tanlaydigan tarzda so‘zlashi haqidagi stereotiplar jamiyat ongida chuqur ildiz otgan.

Gender stereotiplar doimiy va o‘zgarmas hodisa emas. Ular tarixiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida qayta shakllanib boradi. Masalan, XX asr boshlarida jamiyatda ayol kishining ommaviy nutq maydoniga chiqishi kamdan–kam holat bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ayollar siyosat, ilm–fan, jurnalistika kabi sohalarda faol ishtirok etmoqda va bu ularning nutqiy obrazlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Endilikda ayolning qat’iyatli, analitik va bahsga asoslangan nutqi tobora tabiiy holat sifatida qabul qilinmoqda. Shu bois, zamonaviy lingvistika uchun gender stereotiplarning dinamik tabiatini o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir.

Nutq inson tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy holatini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biridir. Nutq faqat fikr almashish yoki axborot uzatish vositasi bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, mustahkamlanishi va nazorat qilinishi jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, nutqiy faoliyatni jins omilidan ajratib o‘rganish to‘liq manzara berolmaydi. Chunki har qanday til va nutq holati ijtimoiy omillar, xususan, jins, yosh, mavqe, madaniyat bilan uzviy bog‘liqdir. Gender lingvistikasi aynan shu nuqtada — erkak va ayol nutqining farqli jihatlarini, ularning til vositalari orqali qanday tarzda ifoda topishini, va eng muhimi, bu farqlar ortida qanday ijtimoiy stereotiplar yotganini tahlil qiladi.

Nutqiy gender stereotiplarning shakllanishida madaniy–milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar, ijtimoiy rollar va psixologik tasavvurlar muhim rol o‘ynaydi. Ular asosan ijtimoiy tajriba asosida shakllanib, turli kommunikativ vaziyatlarda pragmatik ma’no kasb etadi.Pragmatika nuqtayi nazaridan qaralganda, bu stereotiplar til birliklarining qanday tanlanishi, muloqot davomida qanday strategiya qo‘llanilishi va muhatobaga qanday ta’sir ko‘rsatishini belgilab beradi. Masalan, ayol kishining kamroq savol berishi yoki tanqidiy fikrlarni yumshoqroq shaklda ifodalashi ko‘pincha ijtimoiy kutishlarga mos keladi. Shu bilan birga, erkaklar ko‘pincha to‘g‘ridan–to‘g‘ri va maqsadga yo‘naltirilgan nutq uslubini qo‘llaydilar, bu esa ularning hokimlik stereotipiga mos ravishda qabul qilinadi.

Bundan tashqari, genderga oid nutqiy stereotiplarning madaniyatlararo tafovutlari ham mavjud. Masalan, g‘arb jamiyatlarida erkak va ayol nutqi o‘rtasidagi farqlar ochiq tan olinib, ko‘pincha individuallik va tanlov huquqi sifatida ko‘riladi. Aksincha, an’anaviy jamiyatlarda bu farqlar ijtimoiy intizom va qadriyatlar bilan bog‘lanadi. Ayollar nutqidagi haddan ortiq ochiqlik yoki ijtimoiy mavzularni muhokama qilish holati salbiy baholanishi mumkin. Bu holat til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani yana bir bor tasdiqlaydi.

Tilshunoslikda gender stereotiplarni bartaraf etish yo‘llari ham taklif etilgan. Masalan, neytral til vositalaridan foydalanish, erkak va ayol jinsini farqlovchi so‘zlar o‘rniga umumiy atamalarni tanlash (masalan, “rahbar” o‘rniga “menejer”, “inson resurslari xodimi” kabi) nutqiy tenglikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ta’lim tizimida o‘quv materiallarida ayol va erkak obrazlarini teng ifodalash, ijtimoiy rollarni muvozanatli aks ettirish orqali bolalarning ongida teng huquqlilik tamoyillari shakllantiriladi.

Pragmatik jihatdan olib qaralganda, stereotiplarning nutqda qanday maqsad bilan ishlatilayotganini aniqlash muhimdir.Ba’zan ular ijtimoiy hazil yoki kinoya shaklida, ba’zan esa kamsituvchi maqsadda qo‘llanadi.Bu holat kontekst, kommunikativ niyat va auditoriyaga bog‘liq. Shu boisdan, nutqiy stereotiplar pragmalingvistik tahlilida illokutsional maqsad (ya’ni so‘zlovchining niyati) va perlokutsional ta’sir (eshituvchiga ko‘rsatgan real ta’siri) asosiy e’tibor markazida turadi.

Masalan, “Erkak odam yig‘lamaydi” degan ibora illokutsional jihatdan dalda berish yoki jasoratga chorlashni ko‘zlasa–da, perlokutsional jihatdan nozik holatdagi shaxsga psixologik bosim sifatida ta’sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday stereotiplar jamiyatda hissiyotlarni ifodalash huquqini faqat ayollarga bog‘lab qo‘yadi, bu esa erkaklar nutqiy xatti–harakatiga salbiy cheklov sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, gender stereotiplar tilda metafora, frazeologizm, maqol va matallar orqali ham mustahkamlanadi. Masalan, “Ayolning aqli tizzasida”, “Erkak — bosh, ayol — bo‘yin” kabi iboralar ong ostida jinsga oid ijtimoiy rollarni tasdiqlovchi vosita sifatida ishlaydi. Bu kabi til birliklari tilning nomoddiy madaniyat bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shu boisdan, zamonaviy kommunikatsiya

madaniyatida nutqiy gender stereotiplarni tanqidiy tahlil qilish, ularni ongli ravishda anglash va zarur hollarda qayta ko‘rib chiqish dolzarb masalalardan biridir. Bu nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy psixologiya, ta’lim va gender tengligi sohalarida ham amaliy ahamiyatga ega. Ayni paytda genderga xos kommunikativ yondashuvlarning xilma–xilligi qadrlanishi va inson shaxsiyati bilan bog‘langan holatda baholanishi muhimdir. Til — bu faqat aloqa vositasi emas, balki ijtimoiy ongning ko‘zgusi, shuning uchun undagi har bir stereotip o‘zgaruvchan ijtimoiy reallikni aks ettiradi va unga ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqiy gender stereotiplar muloqot jarayonida nutq aktining illokutsional kuchini belgilashda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ya’ni, ayol kishi tomonidan aytilgan buyruq yoki ko‘rsatma ko‘pincha iltimos ohangida yoki yumshoq modal konstruktsiyalar orqali ifodalansa, erkak kishi tomonidan aytilgan nutq akti ancha qat’iy va keskin ohangda bo‘lishi mumkin. Bu farq, o‘z navbatida, muloqot ishtirokchilari orasidagi ijtimoiy masofani, kuchlar muvozanatini va muloqot samaradorligini belgilaydi. Shuningdek, genderga asoslangan nutqiy stereotiplar ayrim hollarda ijtimoiy tengsizlik va kommunikativ diskriminatsiyaga ham sabab bo‘lishi mumkin.Ayniqsa, ayollarning fikri yetarlicha jiddiy qabul qilinmasligi yoki ularning hissiyati asossiz deb baholanishi holatlari bunga misoldir.

Shu bois, zamonaviy kommunikatsiya madaniyatida nutqiy gender stereotiplarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, ularning kommunikativ muhitdagi rolini adekvat baholash muhimdir.Tilshunoslar, sotsiologlar va psixologlar tomonidan olib borilayotgan ko‘p tarmoqli tadqiqotlar bu stereotiplarning nafaqat mavjudligini aniqlash, balki ularni yumshatish, kommunikativ tenglikni ta’minlashga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqishga ham yordam beradi. Nutqiy gender stereotiplar — bu oddiy til hodisasi emas, balki jamiyatda o‘z aksini topgan murakkab psixolingvistik mexanizmdir.Ular orqali biz nafaqat jinsga oid tasavvurlarni aks ettiramiz, balki shu tasavvurlar asosida muloqot qilamiz, fikr almashamiz va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiramiz.Demak, ushbu stereotiplarning pragmatik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilganda, nutqiy gender stereotiplar ijtimoiy hayot, til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Ular inson nutqining faqat tashqi shaklini emas, balki chuqur ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini ham ifodalaydi. Tilshunoslar, pedagoglar, jurnalistlar, siyosatchilar va jamiyat a’zolari bu stereotiplardan xabardor bo‘lishi va ularni ongli tarzda tahlil qila olishi muhimdir. Shundagina, kommunikatsiyada tenglik, ochiqlik va hurmat tamoyillari qaror topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Советская энциклопедия, 1966. — 608 с.
2. Лакоф Р. Язык и место женщины. — М.: Прогресс, 2001. — 240 с.
3. Вежбицкая А. Пол и культура: язык как зеркало мира. — М.: Языки славянской культуры, 2001. — 320 с.
4. Камалова З.Ф. Гендерлингвистика: Учебное пособие. — Ташкент: Фан, 2020.176–б.
5. Султанов С.А. Прагмалингвистика: Учебное пособие. — Ташкент: Турон–Иқбол, 2019. 200–б.
6. Holmes J.An Introduction to Sociolinguistics. — London: Routledge, 2013. — 382 p.
7. Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. — New York: Ballantine Books, 1990. — 330 p.
8. Coates J. Women, Men and Language. — London: Longman, 2004. — 288 p.
9. Eckert P., McConnell–Ginet S. Language and Gender. — Cambridge: Cambridge University Press, 2013. — 398 p.
10. Назаров Н.Н. Tilshunoslikda gender muammolari. // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2021, №2.45–50.

Sanobar KAMOLOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e mail: sanobar6399@ mail.ru

FRANSUZ ANTROPONIMLARINING MILLIY–MADANIY JIHATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada fransuz antroponimlarining milliy–madaniy xususiyatlari haqida bayon etilgan. Fransuz ismlarning o‘ziga xos qonunlar asosida ishlatilishi ifodalangan. Hozirgi kunda ijtimoiy–iqtisodiy, ijtimoiy–madaniy sharoitlar, oila tiplari, turmush tarzi, mentaliteti va boshqalar, bularning barchasi nomlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: *til, madaniyat, ijtimoiy hayot, an’ana, urf–odat, unvon, milliy va madaniy jihatlar, ohangdorlik.*

Аннотация: в статье описываются национально–культурные особенности французских антропонимов. Использование французских имен выражается в соответствии с определенными законами. В настоящее время социально–экономические, социально–культурные условия, типы семьи, образ жизни, менталитет и т. д. — все это отражается в именах.

Ключевые слова: язык, культура, общественная жизнь, традиция, обычаи, титул, национально–культурные аспекты, мелодичность.

Annotation: the article describes the national and cultural features of French anthroponyms. The use of French names is expressed in accordance with certain laws. At present, socio–economic, socio–cultural conditions, types of family, lifestyle, mentality, etc. – all this is reflected in names.

Key words: *language, culture, social life, tradition, customs, title, national and cultural aspects, melody.*

Fransuz tilida erkalash va mehr ifodalashda ismlarni qisqartirish, so‘z oxiriga kichraytiruvchi qo‘shimchalar qo‘shish yoki ohangdor talaffuz orqali erkalash ma’nosi beriladi. Quyida bu boradagi jihatlarga to‘xtalamiz: 1. Ismlarni qisqartirish: Fransuzlar ismlarni qisqartirib, erkalashga mos shaklga keltirishadi. Masalan: “Alexandre” → “Alex”, “Elisabeth” → “Lili” yoki “Babeth” 2. Kichraytiruvchi qo‘shimchalar: “et”, “ette”, “ot”, “otte” kabi qo‘shimchalar qo‘shib erkalashni ifodalashadi. Masalan, “Jean” → “Jeannot” “Charlotte” → “Charlottette” yoki “Lotte”. 3. Ohangdor talaffuz va urg‘u: Fransuz tilida ovozning yumshoq yoki o‘ynoqi bo‘lishi muhim. Ohangni pasaytirish yoki o‘zgartirish bilan ismlar erkalovchan tus oladi. 4. “Mon” qo‘shimchasi bilan murojaat: Erkalash va mehr ifodasi sifatida ko‘pincha “mon” (mening) qo‘shimchasi ishlatiladi: “Mon petit cœur” (mening kichkina yuragim) “Mon chéri/ma chérie” (azizam/azizim) “Mon trésor” (mening xazinam) 5. So‘z o‘yinlari yoki asossiz talaffuz o‘zgartirish:

Ba’zan ismlar butkul o‘zgartiriladi, lekin bu shaxsiy yoki oilaviy urf–odatlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Fransuzlar bu jarayonda ko‘pincha mehr va samimiyatni ko‘rsatishga harakat qilishadi. Shu sababli talaffuz, ohang va kontekst juda muhim, ayolning ismidan keyin lavozim yoki kasb nomini ko‘rish kamdan–kam uchraydi. Leonese hujjatlarida ayollar tomonidan keng tarqalgan ikkita siyosiy unvon. Biroq, ba’zi istisnolar mavjud. Qudratni amalga oshiradigan bir nechta ayollar bor, Qirolicha Urraca (1108–1126) yoki funksiya, komatr (doya) Uelita. Umuman olganda, o‘rta asrlarda G‘arb ayollari ko‘proq oilaviy hayot (ichki hayot) bilan shu‘ullanishgan.

Ustav va kartalarda ayollarning kamligi buning dalilidir.

Umuman olganda, ikki elementli (III shakl) va ikkitadan ortiq elementli (IV shakl) antroponimik tizim 11– 12–asrlarda Xristian G‘arbida paydo bo‘lgan.

Qo‘sh ism o‘rta asr oilalarida otalik kuchini ta’kidlaydi va oilaning tuzilishi va nasl–nasab tushunchasi ko‘pincha erkak qiyofasi atrofida qurilganligini ko‘rsatadi. Ikkidan ortiq elementga ega tizim domendagi oilalarning ildizlarini ular nomi bilan atalgan mamlakatda ta’kidlaydi. Ikki yangi

antroponimik shakl (III va IV) ismning evolyutsiyasi + to‘ldiruvchi belgining natijasidir.1. Ikki elementli ot (III shakl) Ikki elementli antroponimik shakl yoki qo‘sh ism ismning to‘ldiruvchi belgi bilan evolyutsiyasidir. To‘ldiruvchi belgilash tizimining mavjudligi aniq ko‘rsatadiki, bitta nomdan qo‘sh nomga o‘tish birdaniga o‘tish davri bo‘lmagan; Masalan, Sarracinus prolis Siloniz (1012) Sarracinus Siloniz (1012) juft sistemasiga aylanadi. Shuning uchun biz filius, proles yoki kognomento atamalarining qisqartmasi haqida gapirishimiz mumkin. Shunday qilib, qo‘sh shakl filius, proles va cognomento so‘zlarini olib tashlaydi va ularning o‘rniga ota ismining oxiridagi –z harfi qo‘yiladi. Pireney yarimorolida bola va uning otasi (yoki onasi, juda kam uchraydigan amaliyot) o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘pincha –is fonetik, keyin orfografik evolyutsiyaga uchragan va ko‘pincha –iz, –oz yoki ga aylanadigan genitiv tugash bilan ifodalanadi. –ez. E. GUINOT RODRÍGUEZ –es, –is va os qo‘shimchalari yoki imlo o‘zgarishlarini aragon, navar va kastiliyaliklarga xos deb hisoblash mumkinligini aniqlaydi. Angliyada oxirgi bor va Piter Martinsdagi kabi “s” harfi bilan belgilanadi. Antroponimdagi filiatsiya ifodasi Pireney yarimoroliga xos emas, bu universal amaliyot: Fitsjerald (Jeraldning o‘g‘li), Bensaid (Said o‘g‘li), Uilyamson (Vilyamning o‘g‘li), Kargayan (qarg‘a o‘g‘li), O‘Brayen (Brayanning nabirasi), Maksimovich (Maksimning o‘g‘li). Ko‘ramizki, qaysi mintaqada bo‘lishidan qat’i nazar, bu otaning ismi ta’kidlangan. Ikki elementli tizim Yevropa jamiyatida ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli paydo bo‘ladi. (Feodal mutatsiyalar) G‘arbda sodir bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlar, boshqa narsalar qatorida, eski graflik aristokratiyasi va dehqon jamoalari hisobiga yangi lordliklarning o‘rnatilishi va kuchlarning yangi ijtimoiy jangchilar sinfi tomonidan xususiylashtirilishiga olib keldi. Ijtimoiy o‘zgarishlarning bu harakati meros amaliyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi, chunki aristokratik oilalar oilaning cheklangan doirasida huquq va vakolatlarning uzatilishini nazorat qilishga intildilar. Vorislik endi aristokratiya uchun ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Kataloniyada merosxo‘rlik amaliyotini o‘rganar ekan, L. TO FIGUERAS shuni ta’kidlaydiki, shu nuqtayi nazardan ko‘payib borayotgan aristokratlar o‘z nomlari orqali o‘zlarining nasl–nasablarini, ba’zan esa yaqinda olingan meros huquqlarini ta’kidlashga harakat qilishlari bejiz emas.[1] Leonese hujjatlarida birinchi qo‘sh ismning paydo bo‘lishi, tanlangan aktlarga ko‘ra, 9–asrning ikkinchi yarmidan, aniqrog‘i 870–yilda sodir bo‘ladi.

Tashqi ko‘rinish Sarracenus Gondesindi[2] ismli odam bilan erkak muhitida qilingan. Aftidan, J. FERNÁNDEZ CONDE[3] so‘zlariga ko‘ra, ikkinchisi mozarabcha bo‘lib, shubhasiz, proprium nomi tufayli: Sarrecenus, lotincha Saraceni so‘zidan kelib chiqqan ism O‘rta asrlarda Sharq, Afrika va Ispaniyaning musulmon aholisini bildiradi. Biroq, bizning korpusimizda Sarrecenus Gondesindining ijtimoiy mavqeini yoki kelib chiqish joyini bilishga hech narsa imkon bermaydi. Sarrecenusning nomen paternum (Gondesindi: germancha nomi) ikkinchisi, shubhasiz, Pireney yarimorolidagi nasroniy oilasining avlodi ekanligini ko‘rsatadi: u mozarablik emas, balki shimoldan kelgan nasroniy bo‘lishi mumkin.

Ikki elementli tizim Leonese hujjatlarida juda erta tasdiqlangan bo‘lsa, u o‘sha yili (870) yo‘qoladi va 10–asrning birinchi yarmida yana paydo bo‘ladi. Ikki elementli shaklning qayta paydo bo‘lishi barcha turdagi hujjatlarda uchraydi. Biroq, hushyorlik talab etiladi, chunki bu vaqtda bir nechta soxta hujjatlar mavjud. Bu 916–yildagi qirollik hujjatining ishi: Ordono II dan xayriya. Ushbu hujjatda 52 guvohdan 14 nafari nomen proprium + a nomen patermun tomonidan tayinlangan. Biroq, ushbu hujjatdagi ro‘yxat boshqa qirollik hujjatiga mos keladi, Ordoño III ning 955–yildagi hujjati va u ham soxta. Bir narsa aniq: biz 10–asrda hujjatlarda qo‘sh ismning qayta paydo bo‘lganini ko‘ramiz. Biroq ikki elementli antroponimik tizimning oddiy shakllardan ustun bo‘lishi uchun bir asrdan ko‘proq vaqt kerak bo‘ldi, ya’ni 1050–1099–yillar oralig‘ida.

Nemis tilidan kelib chiqqan fransuzcha ismlar semantik jihatdan turli guruhlarga bo‘linishi mumkin. Ushbu guruhlash ularning kelib chiqishi, ishlatilishi yoki mazmuniga asoslangan bo‘lishi mumkin. Quyida asosiy semantik guruhlanishlar keltirilgan:

[1] TO FIGUERAS L., “ Anthroponymie et pratiques successorales (À propos de de la Catalogne, X^{e}–XIe siècle), dans M. BOURIN, J.–M. MARTIN et F. MENANT, *L’anthroponymie. Document de l’histoire sociale des mondes méditerranéens médiévaux*, p. 427

[2] SÁEZ E., *Colección documental de la catedral de León*, t. I, p, 10, acte n° 4. Ce *Sarracenus Gondesindi* est une personne dont nous ne savons rien sur ces origines, sa condition sociale et qui semble apparaître qu’une seule fois dans notre corpus.

[4] FERNÁNDEZ CATÓN, *Monarquía y sociedad en el reino de León. De Alfonso III a Alfonso VII*, t. I, p. 841.

1. Shaxsiy xususiyatlar va fazilatlar bilan bog‘liq ismlar: bu guruh nemis tilidan fransuz tiliga o‘tgan ismlardan shaxsiy fazilatlarni ifodalaydi: Adel – “Nafislik, olijanoblik” (nemischa adal – “adolat, olijanoblik”).Hugues (nemischa Hug – “aql, tushuncha”).

2. Tabiat va geografiya bilan bog‘liq ismlar: bu ismlar tabiat yoki joy nomlari bilan bog‘liq: Arnould – “Burgut hukmdori” (nemischa arn – “burgut” va wald – “hukmdor”).Gérard – “Qattiq pichoq yoki jasur” (nemischa ger – “pichoq, qurol” va hard – “jasur”).

3. Din va e’tiqod bilan bog‘liq ismlar: nemis tilidan kelib chiqqan ba’zi ismlar xristian dinida yoki e’tiqodlarda ishlatilgan: Lo uis – “Mashhur jangchi” (nemischa Hludwig, hlud – “mashhur”, wig – “jang”). Clotilde – “Mashhur va muqaddas” (nemischa hlud – “mashhur”, hild – “jang”).

4. Harbiy va jangchilik bilan bog‘liq ismlar: nemischa ismlarning ko‘pchiligi harbiy kontekstga ega bo‘lgan:

Bernard – “Kuchli ayiq” (nemischa bern – “ayiq”, hard – “jasur”). Guillaume – “Qo‘riqchi” (nemischa wil – “iroda” va helm – “qalqon”).

5. Tarixiy va qirollik ismlari: ba’zi ismlar qirollar va tarixiy shaxslar nomlari orqali mashhur bo‘lgan:

Charles – “Erkak, ozod odam” (nemischa karl – “odam”). Henri – “Uy hukmdori” (nemischa heim – “uy”, rihhi – “hukmdor”).

6. Tasodifiy va metaforik ismlar: bu guruhga abstrakt tushunchalarni ifodalaydigan ismlar kiradi: Raimond – “Donolikni himoya qiluvchi” (nemischa ragin – “maslahat” va mund – “himoya qiluvchi”). Frédéric – “Tinchlikni sevuvchi hukmdor” (nemischa fridu – “tinchlik”, ric – “hukmdor”).

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, nemis tilidan kelib chiqqan fransuzcha ismlar ko‘pincha o‘zining chuqur semantik ma’nosi va tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi. Ushbu ismlarning guruhlanishi ularning fonetik o‘zgarishi va madaniy merosi orqali yanada keng tadqiq qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ZIMMERMANN M., “Les débuts de la “ révolution anthroponymique ” en Catalogne (X^{e} – XIIe siècle), dans P. MARTÍNEZ SOPENA (coord.), Antroponimia y sociedad. Sistemas de identificación hispano–cristiano en el siglos IX a XIII, P. 360.

2. BECK P., “ L’anthroponymie et parenté ” dans M. BOURIN, J.–M. L’anthroponymie : document de l’histoire sociale des mondes méditerranéens médiévaux, p. 370.

3. FERNÁNDEZ CATÓN J. M., Colección documental de la catecral de León, t. V, p. 404,

4. RUIZ ASENCIO J. M., Colección documental de la catecral de León, p. 430, acte n 1184.

5. TO FIGUERAS L., “ Anthroponymie et pratiques successorales, dans M. BOURIN, J.–M. MARTIN et F. MENANT, L’anthroponymie. Document de l’histoire sociale des mondes méditerranéens médiévaux, p. 427

6. SÁEZ E., Colección documental de la catedral de León, t. I, p, 10,

7. FERNÁNDEZ CATÓN, Monarquía y sociedad en el reino de León.p. 841.

Gulnora XUDOYBERGANOVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
PhD, dotsenti
E–mail: gulnoraxudoyberganova@iiau.uz

O‘RTA ASR MONASTIRLARIDA KUN TARTIBI VA IBODAT AMALIYOTI

Annotatsiya: maqolada monaxlarning monastirdagi kundalik hayoti va faoliyatlari xristian asketizmining asrlar davomida rivojlanishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda monaxlardan talab etilgan qat’iy ibodat va intizomiy amallar, psalmalar o‘qish tartibi, jamoaviy hamda yakka ibodat shakllari, shuningdek, jismoniy mehnat, maxsus vaqt va taomlanish tartibi o‘rganiladi. Bundan tashqari, IV–V asrlarda monastirlarda vaqtni belgilash usullari, ibodatga chaqiruvchi signallar, monaxlar majlislari, o‘zaro ko‘mak va intizomiy chora–tadbirlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: xristianlik, asketizm, ibodat, psalma, jamoaviy ibodat, monastir hayoti, jismoniy mehnat, intellektual asketizm, monastir, monaxlik.

Annotation: the article analyzes the daily life and activities of monks in the monastery from the perspective of the development of Christian asceticism over the centuries. It examines the strict prayer and disciplinary practices required of monks, the order of reading psalms, collective and individual forms of prayer, as well as physical labor, specific time and dietary regimen. Additionally, it analyzes methods of timekeeping in monasteries in the 4th–5th centuries, signals for calling to prayer, monks’ gatherings, mutual assistance, and disciplinary measures.

Key words: christianity, asceticism, prayer, psalm, collective prayer, monastic life, physical labor, intellectual asceticism, monastery, monasticism.

Аннотация: в статье анализируется повседневная жизнь и деятельность монахов в монастыре с точки зрения развития христианского аскетизма на протяжении веков. Рассматриваются строгие молитвенные и дисциплинарные практики, требуемые от монахов, порядок чтения псалмов, коллективные и индивидуальные формы молитвы, а также физический труд, особое время и режим питания. Кроме того, анализируются методы определения времени в монастырях в IV–V веках, сигналы для вызова на молитву, собрания монахов, взаимопомощь и дисциплинарные меры.

Ключевые слова: христианство, аскетизм, молитва, псалом, коллективная молитва, монастырская жизнь, физический труд, интеллектуальный аскетизм, монастырь, *монашество.*

Monastirlarda monax o‘z hayotini butkul tinimsiz ibodatga bag‘ishlashi talab etilgan. Ibodat jamoaviy (liturgiya, psalmalarni o‘qish) yoki yakka holda bo‘lishi mumkin. Benedikt nizomi yoki boshqa an’analarga amal qiluvchi monastirlarda monaxlarning jismoniy mehnatlariga ham alohida e’tibor berilgan. Mehnat bilan mashg‘ul bo‘lish nafaqat yashash uchun ozuqa topish, balki, monax uchun asosiy xavflardan hisoblangan dangasalik va umidsizlikni yengishda asketizmning shakli hisoblangan. Monaxlar abbat tomonidan belgilangan vaqtda ovqatlanishi va uxlashi talab etilgan. Ularni tungi ibodat uchun qo‘ng‘iroq (kolokol) ovozi uyg‘otgan. Shunday chaqiriqlar ularni bir kunda 7 marta ibodat uchun jamlagan. Monastirda yil, hafta, kun o‘ziga xos taqsimot asosida qabul qilingan. Monaxlar ibodatining asosini 150 psalmadan iborat bo‘lgan Psaltir tashkil etgan. Monaxdan bir hafta davomida 150 psalmani o‘qib tugatish talab etilgan. Monaxlarning kun tartiblari fasllar (qish va yoz) ga ko‘ra farqlangan. Umumiy holatda monaxlarning ibodat vaqtlari quyidagicha taqsimlangan:

tonggi (matutinae) – tun yarimidagi ibodat (00:30 da boshlangan);

madhlar (laudes) – quyoshning ilk nurlari chiqish vaqtida;

birinchi soat (prima) – kun chiqqandan keyin;

uchinchi soat (tertia) – ertalabki soat 9 atrofida;

oltinchi soat (sexta) – tush vaqtida;

to‘qqizinchi soat (nona) – kunduzgi soat 15 atrofida;

kechki (vesperae) – quyosh botishidan oldin;

tungi (completorium) –quyosh botishi va qorong‘ulik o‘rtasida[1].

Monaxlar hayotini va ibodat jarayonlarini aniq belgilash uchun vaqtni aniqlash talab etilgan. Eng qiyini tungi ibodat vaqtini aniqlash hisoblangan. Kunduzi quyoshga, soyaga, kechqurun yulduzlarga qarab aniqlangan. Lekin bulutli havoda bu usullar yordam bermagan. Bunday sharoitda vaqtni aniqlash uchun turli qurilmalar – qum soatlar, murakkab suv mexanizmlari (klepsidrlar), shamlar, keyinchalik esa haqiqiy inqilob sanalgan mexanik soatlardan foydalanilgan.Ibodatga chorlovchi qo‘ng‘iroqlar ham turlicha bo‘lgan. Berilgan vazifaga ko‘ra qo‘ng‘iroqlar turlicha chalingan, masalan, birinchi soat va tungi ibodat uchun bir marta qo‘ng‘iroq chalingan, uchinchi, oltinchi va to‘qqizinchi ibodat uchun uch marta. Bundan tashqari monastirlarda yog‘och taxtacha (*tabula*) bo‘lib, uni monaxlardan biri o‘lim to‘shagida ekanligi xabarini bildirish uchun urilgan. Alohida kelliyada yashagan monaxlar jamoaviy ibodat uchun haftaning shanba va yakshanba kunlari yig‘ilganlar, qolgan kunlari esa o‘z kelyalarida ibodat qilganlar. Lekin monax uchun faqat kechqurun va tunda 12 ta psalmani o‘qish majburiy bo‘lgan. Bu xristianlikning ilk davrlarida yashagan asketlarning ahdlari bo‘lgan. Psalmalarni o‘qish jarayonida har olti psalmadan so‘ng bitta “Alliluiya” ni kuylangan. Shanba va yakshanba kunlari monaxlar “Sirli marosimlar” uchun cherkovda to‘planganlar. Misr monastirlarida jamoaviy ibodatlar kuniga ikki marta – kechki va tungi vaqtda o‘tkazilgan. Tungi ibodat xo‘roz qichqirig‘idan oldin boshlanib, quyosh chiqquncha davom etgan. Qish faslida tun uzun vaqtlarda ibodatlar xo‘rozning to‘rtinchi qichqirig‘iga qadar davom etgan. Ibodatlarda jami 12 psalma kuylangan. Agar kuylovchi ikkita bo‘lsa, har biri 6 psalmadan, 3 ta bo‘lsa, 4 psalmadan, 4 ta bo‘lsa 3 psalmadan kuylangan. 4 tadan ortiq kuylovchi bo‘lmagan. Tinglovchilar pastak o‘rindiqlarda o‘tirganlar. Har bir psalma oxirida kuylovchi duo o‘qigan, shu vaqtda barcha tinglovchilar o‘rinlaridan turib tik turgan holda ibodat qilganlar va ta’zim qilganlar.

12 psalmadan kuylangandan so‘ng Eski Ahd va Yangi Ahddan o‘qilgan. Shanba va yakshanba kungi ibodatda esa faqat Yangi Ahddan (Havoriylar maktublari va havoriylar faoliyatidan yoki Injil) o‘qilgan. Ibodat uch karra duo qilish va tiz cho‘kish bilan tugagan. Shanba va yakshanba kunlari uchinchi soat yevxaristiya (poklanish) marosimi o‘tkazilgan. Barcha monaxlar ilk marta monaxlikka qabul qilinganda kiygan liboslarini kiyib, yalangoyoq cherkovga borganlar. Cherkovga kirishda ularni oyoqlarini diakonlar maxsus jomda yuvganlar. Yevxaristiya vaqtida uchun monaxlar belbog‘ va milotni yechib qo‘yganlar, har biriga alohida non (Isoning tanasi) va vino (Isoning qoni) diakon tomonidan berilgan. Bemor monaxlarni poklash uchun ularning kelyalariga kelganlar, cherkovdan uzoqda yashaydigan, safarga chiqqan monaxlar esa yevxaristiya (maxsus tayyorlangan, liturgiya vaqtida iste’mol qilinadigan non) o‘zlari bilan olganlar.

Kunduzgi ibodatdan so‘ng ba’zan maxsus kechalar tashkil qilingan. Bunda monastirga dunyoviy kishilardan qilingan ehsonlar, dehqonlarning hosilni yig‘im terim vaqtida monaxlar uchun hadya qilgan oziq–ovqatlari kabi mahsulotlardan tanovul qilingan. Bu kechalarda dasturxon bezalgan, monaxlar o‘zlaridagi ba’zi narsalarni jamoaga yangi qabul qilinganlarga tortiq qilganlar, vafot etgan monaxlarning buyumlari tarqatilgan. Bu kechalardagi dasturxon monaxlarning odatiy dasturxonidan farq qilgani uchun aksariyat monaxlar ishtirok etishni istamaganlar, ular ibodat tugagandan so‘ng o‘z kelyalariga ketganlar. Monaxlarga beriladigan eng og‘ir jazo monaxlar safidan chiqarilish hisoblangan. Lekin bunday jazo berish yoki monaxlarning ayblari ustidan hukm chiqarish aksariyat monaxlik asoschilari tomonidan yoqlanmagan. Masalan, avliyo Antoniy “ortimda qolgan gunohlarim ko‘p, men esa birodarimnnig ozgina gunohini muhokama qilib jazolaymanmi. Yaxshisi o‘z gunohlarimni kechirishini so‘rab Yaratganga iltijo qilaman” deydi[4].

IV–V asrlar solnomachilari Misrda ikki turdagi monaxlik turmush tarzini farqlab ko‘rsatadilar, anaxoretlar va kinovitlar. Anaxoretlar monastir jamoasidan ajralib chiqib, barchadan uzoqlashgan holda o‘nlab yillar davomida inson zotini ko‘rmay, sahroning kimsasiz (chuqur) joylarida yashaganlar.

Ular yovvoyi o‘simliklarni iste’mol qilganlar, ichish uchun suvni toshlar va o‘simliklarga tushgan shudringdan olganlar. Anaxoretlarning aksariyati bir joyda doimiy yashamaganlar, balki ko‘chib yurganlar. Jamoadan ajralgan monaxlarni dastlabki davrda “monastir otalari” nazorat qilish uchun vaqti–vaqti bilan borib ko‘rganlar. Ba’zan anaxoretlar orasida vasvasaga uchrashlik holati kuzatilgan. Shunday vaziyatda monaxni cherkovga olib kelingan. “Cherkov otalari” jomga suv solib unda qo‘llarini yuvganlar va o‘sha suvni monax ustidan quyganlar. Buni vasvasadan xalos bo‘lish yo‘li sifatida ko‘rganlar.

Sahroda yashagan monaxlar ba’zilar g‘orlarni, ba’zilari vayronalarni, mozorlarni makon tutganlar. Lekin ko‘pchilik monaxlar o‘zlari uchun toshlar, g‘isht, loy yoki barglardan alohida kichik turar joy (kelliya, skit) qurib olganlar. Makariy Aleksandriyskiy, Illarion, avliyo Antoniy kabi mashhur monaxlarning kelliyalari juda kichik, hatto oyoq uzatishning imkoni bo‘lmagan darajada tor bo‘lganli haqida ma’lumotlar bor[2]. Lekin odatiy holda monaxlarning turar joylari bir nechta xonadan iborat bo‘lgan. Unda kirish yo‘lagi, oziq–ovqat uchun, asbob–anjomlar (qo‘l mehnati uchun) saqlanadigan xonalar mavjud bo‘lgan. Jamoaviy monastirlarda yashovchi monaxlarnnig o‘z kelyalaridan tashqari o‘zlariga tegishli buyumlari, kichik xo‘jaliklari bo‘lgan. Ba’zilari yillik ozuqa sifatida un yoki boshqa mahsulotlar, shuningdek mehnat anjomlari, kitoblar, oz miqdorda bo‘lsa ham pul jamg‘arib qo‘yganlar. Shuning uchun manbalarda kelyalarni o‘g‘rilar tunagani eslatib o‘tiladi[4]. Monaxlarning odatiy taomlari asosan sabzavotlar, ko‘katlar, non, mevalar va mayda tuzlangan baliq bo‘lgan. Suyuq taomlar dukkakli o‘simliklardan tayyorlangan, juda kam hollarda moy yoki asal qo‘shilgan. Yumshoq non hashamat belgisi hisoblangan, katta jamoalarda non yopish xonalari bo‘lgan. Lekin aksariyat monastirlarda paksama (arpa unidan tayyorlangan, quruq, mayda non) iste’mol qilingan. Paksama qattiq bo‘lgani uchun uni yeyishdan oldin suvga bo‘ktirish kerak bo‘lgan. Monaxlar uchun bir kunda ikkita paksama iste’mol qilish me’yor hisoblangan. Paksamalarni uzoq muddat saqlash mumkin bo‘lgan[3].

Betob bo‘lgan monaxlar shifokor yordamidan foydalanganlar. Nitriyskiy monastirida o‘z shifokorlari bo‘lgan. Monax betob bo‘lganda uning kelyasiga borib, kerakli yordam ko‘rsatilgan. O‘lim to‘shagida bo‘lgan monaxlarni barcha jamoa a’zolari uning so‘nggi so‘zlarini eshitish maqsadida o‘rab olganlar. Vafot etgan monaxlar uchun xotira kechalari o‘tkazilgan[4].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xristianlikdagi dastlabki asketizmda inson tanasini ruhiy kamolot to‘sig‘i deb hisoblab, uni tahqirlash, undan nafratlanish tuyg‘ulari o‘rta asrlarga qadar ustuvor bolgan. Bu davrlada tanaga ozor berish monaxlik hayotining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan. Yuqoridagi o‘zgarishlarga qaramay, asketizmning asosiy tamoyillari monaxlik hayotida saqlanib qolgan va hamon xudojo‘ylar uchun taqvodor hayot mazmuni bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyo Antoniy. Asketizm haqida. Tarjimon: K. I. Merot, – London: Ibtidoiy Nasroniylar nashriyoti, 2018.
2. Yuhansson K.J. Xristian monastirlik hayoti tarixi. – New York: Theological Perspectives Press, 2010.
3. Baxter, D. Asketizm va uning zamonaviy tahlili. – Chikago: Faith Studies Publishing, 2014.
4. Казанский П.С. Общий очерк жизни иноков египетских в IV и V веках. – М.: Тип. В. Готье, 1872.

Nasiba RAIMNAZAROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘ZBEK DOSTONLARIDA SHEVA SO‘ZLARINING BERILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tili shevalaridan biri bo‘lgan qipchoq lahjasining leksik xususiyatlari, qadimiyligi hamda xalq og‘zaki ijodidagi roli yoritilgan. Xususan, “Alpomish” xalq dostoni tarkibidagi qipchoq lahjasiga oid so‘zlar, maqollar, topishmoqlar va kasb–hunar terminlari misolida bu lahjaning badiiy va tarixiy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *qipchoq lahjasi, “Alpomish” dostoni, sheva so‘zlari, og‘zaki ijod, maqollar, topishmoqlar, hunarmandchilik terminlari, xalq tafakkuri, tarixiy–etnografik fon, sotsiolingvistika.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются лексические особенности, историческая глубина и культурное значение кипчакского диалекта среди узбекских говоров. Особое внимание уделяется элементам кипчакского диалекта в народном эпосе “Алпомиш”, таким как слова, пословицы, загадки и термины, связанные с ремёслами.

Ключевые слова: *кипчакский диалект, эпос “Алпомиш”, диалектные слова, устное народное творчество, пословицы, загадки, ремесленная терминология, народная мудрость, историко–этнографический контекст, социолингвистика.*

Annotation: this article explores the lexical features, historical depth, and cultural significance of the Kipchak dialect within Uzbek language varieties. It focuses on the presence of Kipchak dialect elements in the epic “Alpomish”, including words, proverbs, riddles, and occupational terms.

Key words: *kipchak dialect, “Alpomish” epic, dialect words, oral literature, proverbs, riddles, craft terminology, folk wisdom, historical–ethnographic context, sociolinguistics.*

O‘zbek tili shevalari ichida qipchoq lahjasi o‘zining qadimiyligi, boy leksik tarkibi va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishga arzigulik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu lahjaga oid maqollar, topishmoqlar va kasb–hunar bilan bog‘liq terminlar xalq tafakkurining, urf–odatlarining va tarixiy–madaniy merosining uzviy qismidir. Shu bilan birga, “Alpomish” dostoni tarkibidagi so‘zlarni til tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘la oladi, deyish mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki adabiyoti, xususan, dostonchilik an’anasi xalq tilining xilma–xilligini saqlab qolish, targ‘ib qilish va rivojlantirishda muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, dostonlarda qo‘llaniladigan sheva so‘zlar xalq og‘zaki ijodining dialektal boyligini ifodalaydi. “Alpomish” xalq dostonida ham qipchoq lahjasiga oid so‘zlar ko‘p uchraydi va ular badiiy obrazlar, voqealar, urf–odatlar hamda xalq hayot tarzini ifodalashda muhim vazifani bajaradi. Masalan, “Alpomish” dostonida uchraydigan **“yov”**, **“qilich”**, **“bo‘z ot”**, **“sipoh”**, **“to‘n”**, **“tug‘”**, **“to‘qay”**, **“mushfiq”**[1:8] kabi so‘zlar qipchoq lahjasi elementlarini saqlagan bo‘lib, doston voqealarining tarixiy va etnografik fonini aniqlashtirib beradi. Bu so‘zlar hozirgi adabiy tilga nisbatan soddaroq, ammo obrazli va xalqona ko‘rinishga ega. Bundan tashqari, Qipchoq lahjasida aytiladigan **maqollar** (“*Yaxshilik qilsang, yomoni yodingdan chiqsin*”) va **topishmoqlar** (“*Qora qumda iz qalmaydu…” shamol*) orqali xalq tafakkuri va til madaniyati boyitiladi. Shevada ishlatilgan **“boj”**, **“qalam”**, **“qayroq”**, **“burama”**, **“gajjak”**, **“sopolchi”** kabi hunarmandchilikka oid terminlar dostonlarda voqea fonini real hayot bilan bog‘laydi.

Qipchoq lahjasiga oid maqollar — xalq tafakkurining yuksak namunasi. Sheva so‘zlari maqollarda ko‘pincha obrazli ifoda orqali, hududiy kolorit yoki arxaik leksika sifatida namoyon bo‘ladigan sotsiolingvistik yondashuvni ham talab qiladi. Masalan, “Arqonni uzun tashla, oxiri qo‘lingga ilashar”, “Yaxshilik qilsang, yomoni yodingdan chiqsin”, “Otangdan qolgan toyni minib boqar, aqldan qolgan so‘zni yodingdan chiqar”, “Bo‘ri bo‘riga boqar, it itiga qarashar”, “Otangdan qolar nasihat – oltindan qimmat”, “Qo‘sh qo‘llab qilgan – g‘alabaga yetar”, “Suyagimiz sinar – joramiz bitar”, “O‘rtoqsiz – yolg‘iz yo‘l yurma” kabi maqollarda keng qo‘llangan va ular, asosan, pand–nasihatga yo‘g‘rilgan. Maqollar o‘zbek tili leksikasi va frazeologiyasining muhim qismlaridan biridir. Ular, asosan, turli mavzularni ifoda etish bilan birga, tarixiy til qatlamlarini saqlab qolgan manba sifatida ham qadrlidir.

Hunarmandchilik esa madaniyatimizning amaliy ifodasi sanalgan. Dostonlarda qo‘llangan hunarmandchilik sohasiga oid ba’zi so‘zlarning izohi bilan tanishib chiqamiz.

Gajjak – temirchilikda ishlatiladigan katta qaychi, shapaloq – charmdan qilingan maxsus bolg‘a, to‘qmoq – temir yoki yog‘ochdan yasalgan zarb asbobi, qalam – yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan o‘tkir asbob, qorishma – metall eritib aralashtirish jarayoni, toza qog‘oz – qog‘oz mahsulotlarini yasashda ishlatiladigan material, yuvindi – to‘quvchilik yoki charmdan qolgan ortiqcha

chiqindilar, qirqindi – yog‘och yoki temirni kesish natijasida qolgan parcha, to‘qim – mato yoki gilam to‘qish jarayoni, peshband – teridan ishlangan himoya buyumi, tiqin – mix yoki qistirma, shayba – metall disk, mexanik jihozlarda ishlatiladi, qoplam – yog‘och yoki metall ustiga yopiladigan yupqa qatlam, shilimshiq – loy ishlov berishda yumshoq massaning nomi, yog‘ochxo‘r – yog‘och bilan ishlaydigan usta, buruq – metallni qizdirib bukish jarayoni, qayroq – pichoq yoki temirlarni charxlash toshi, sovuq temir – zarb berilmagan xom temir, issiq suv – bo‘yoqchilikda ishlatiladigan eritma, to‘qilgan mato – qo‘lda tayyorlangan mato, qizil loy – sopol yasashda ishlatiladigan maxsus tuproq, qo‘l charxi – ipak yoki ip yigirish uchun moslama, qadoq – charmga ishlov berish jarayonida paydo bo‘ladigan burmalar, havaskor to‘quvchi – kasb sifatida emas, sevimli mashg‘ulot sifatida shug‘ullanadigan usta, sopolchi – kulolchilik bilan shug‘ullanadigan usta, isirg‘a – kashtado‘zlikda ishlatiladigan bezak turi, ko‘za bosh – kulolchilikda ko‘zaning yuqori qismi, lappa – yog‘och yoki matodan ishlangan keng detallar, gajim – qog‘oz yoki matoni buklash jarayoni, bo‘rtiq – haykaltaroshlik yoki kulolchilikda hosil qilinadigan shakl, yo‘nqir – yog‘och ishlovida qoldiq material, qirqiq – charm yoki matoni o‘lchash jarayoni, bo‘yovchi – mato yoki ipga rang beruvchi usta, isirilgan jun – gilam yoki mato tayyorlash uchun maxsus tayyorlangan jun, qo‘l tegirmon – don yoki boshqa mahsulotlarni maydalash uchun ishlatiladigan moslama, yelimkash – yog‘ochga yelim surib yopishtiruvchi texnika, burama – metall yoki yog‘ochni burab shakl berish jarayoni, uqalovchi tosh – sopol va boshqa materiallarni tekislash uchun ishlatiladi, qorakuya – temirga ishlov berish jarayonida hosil bo‘ladigan maxsus qatlam, qavariq naqsh – yog‘och yoki metallga naqsh tushirish usuli, islovchi – temirga issiqlik yordamida shakl beruvchi usta, shirlangan idish – kulolchilikda silliqlangan va himoya qatlami surilgan idish, yelimlanma – mato yoki yog‘ochni qotirish uchun ishlatiladigan eritma, bo‘yoq guli – matoga tushiriladigan naqsh, naqshband – naqsh soluvchi usta, qirindi – yog‘och yoki temir qirqilganda tushadigan yupqa parcha, sanochi – kashtachilik yoki hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi usta, qayrog‘och – yog‘ochga ishlov berishda ishlatiladigan tosh.

Alpomish dostoni — bu o‘zbek epik ijodining durdonasi. Dostonda **tug‘, yov, qilich, bo‘z ot, qalmoq, o‘rda, sipoh, to‘ra, ko‘shk**, **yog‘iy, jasorat, to‘n, ostona, maqbara, burut, tashna**, **ko‘ngil, qismat, shiddat, ilvirab, bo‘z ot, burgut** kabi qipchoq shevasiga oid so‘zlar orqali Alpomish obrazini jonli, ta’sirchan tasvirlashda keng foydalanilgan [1:6].

Xalq og‘zaki ijodiga xos rivoyatlarda ham shevaga oid so‘zlarni ko‘p uchratishimiz mumkin. Jumladan, quyidagi rivoyatga ahamiyat qaratsak:

“Boysun” rivoyati (Qashqadaryo lahjasi asosida).

Bir zamonda...

Qashqadaryo tog‘larining etagida bitta chiroyli joy bo‘gan. U joyda bir boy yashagan ekan. Boyning moli–dunyosi ko‘p, lekin bolasi jo‘q ekan. Kunlardan bir kun boy xudodan iltijo qilip, shunday depti:

– Ey Xudo, molimdan kechay, lekin bir bolam bo‘sa edi...

Xudo uning duosini eshitip, bir o‘g‘il ato qilibdi. Shu kuni boy shodlikdan har yerga sadaqa tarqatip, hammani quvontiribdi. Shunda el aytip yuripti:

– Boyning suyini ko‘r, “Boy sun!” — depdi.

Shu gap jurip–jurip, u joyga “Boysun” nomi berilibdi. Ushbu rivoyatda qo‘llangan Qashqadaryo lahjasiga oid sheva so‘zlarini ko‘rib chiqamiz.

“bogan” – bo‘lgan.

“jo‘q” – yo‘q.

“depti”, **“tarqatip”**, **“iltijo qilip”** – b tovushi p shaklida ishlatilgan.

“bola” – “suy”.

“jurip–jurip” – yurib–yurib.

Rivoyatda joy nomining kelib chiqishi **fonetik tarkibga** (“Boy sun!”) asoslanadi. Bunda **“Boy sun”** tufayli joy nomiga aylangani bu yerliklarning shevaviy xususiyati bilan bog‘liq ekani anglashilib turibdi.

Demak, o‘zbek dostonlaridagi sheva so‘zlar tilshunoslik uchun nafaqat lug‘aviy boylik, balki madaniy va tarixiy manba hamdir. Ular vositasida dostonlarda zamonasiga xos turmush tarzi, kasb–hunarlar, ijtimoiy munosabatlar aks ettiriladi. Bu esa dialektal leksikaning doston orqali avloddan avlodga o‘tishini ta’minlaydi.

Shevaga oid so‘zlar o‘zbek tilining leksik boyligini tashkil etadi. Ular xalq tafakkuri, tarixiy tajriba va madaniy ongning uzviy qismlari bo‘lib, ularni tizimli ravishda o‘rganish tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun muhimdir.

O‘zbek xalq maqollarida sheva so‘zlari tilning boyligi va tarixiy qatlami saqlanib qolganidan dalolat beradi. Qipchoq lahjasida ishlatilgan maqollar tilshunoslik, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o‘ta muhim ahamiyatga ega [2:3]. Ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, hududiy tilining o‘ziga xosliklari aks etadi. Shu bois ular tarkibidagi sheva so‘zlarini tizimli o‘rganish ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo‘l ochib beradi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2018. 368–b.

2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. 88–b.

Saodat MO‘MINOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

“VAQT”NING FALSAFIY–INTELLEKTUAL TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Oripovning intellektual she’rlari tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: tafakkur, borliq, hayot, vaqt, umr, falsafa, hikmat, maqol, talqin.
Аннотация: в статье анализируются интеллектуальные стихотворения Абдуллы Орипова.
Ключевые слова: мысль, существование, жизнь, время, продолжительность жизни, философия, мудрость, пословица, толкование.
Annotation: this article analyzes the intellectual poems of Abdulla Oripov.
Key words: hought, existence, life, time, lifespan, philosophy, wisdom, proverb, interpretation.

So‘nggi yillar she’rshunosligida lirikani quyidagi turlarga ajratish maq’ul ko‘rilmoqda: 1) avtopsixologik lirika (meditativ lirika va intellektual lirika), ijroviy lirika, tavsifiy lirika, voqeaband lirika. Ulkan adabiyotshunos olim Izzat Sulton esa: “She’riy mahsulotni shartli ravishda “siyosiy lirika”, “ishqiy (intim) lirika” va shunga o‘xshashlarga ajratish ham uchraydiki, buni ilmiy asosga ega deb hisoblash qiyin”, deya fikr bildirgan. [1. 256] Ammo qator adabiyotshunoslar borki, ular lirikani meditativ lirika, voqeaband lirika, tavsifiy lirika, personajli lirika, majoziy va ramzli lirika singari turlarga ajratishni ma’qul deb hisoblaydilar. [2. 13]

Adabiyotshunos B.Fazliddinov XX asr o‘zbek falsafiy–intellektual she’riyati xususida fikr yuritar ekan: “Falsafiy–intellektual she’riyat – lirikaning mazmun jihatidan alohida turi hisoblanib, u olam va odam munosabatlarining taqdir, hayot, muhabbat, o‘lim kabi abadiy muammolari xususida teran bilimga tayanib mushohada yuritishdan hosil bo‘ladi. Bunda, odatda, hissiy idrok bilan bog‘liq bo‘lgan estetik zavq aqliy idrok vositasida yuzaga keladi”, deb hisoblaydi. [3. 12] . Demak, lirikani mazmun jihatidan tasniflash asosli. Chunki, har bir turi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tasnifiy belgilari dalillanmoqda.

Intellektual she’riyat badiiy va ilmiy tafakkur kesishgan nuqtada paydo bo‘ladi. Mazkur she’riyatda qaysi mavzuda fikr yuritilmasin, albatta, ilmiy mulohazalarga asoslaniladi. Ya’ni, fikr hisga nisbatan bosh mavqeni egallaydi, tuyg‘u esa keyingi o‘rinda turadi. Haqli savol tug‘iladi: she’rda hissiyot birinchi o‘rinda turishi kerakmasmi? Albatta, his–tuyg‘u yetakchilik qilishi kerak, ammo, intellektual she’riyatda bu ikki omil uyg‘unlashadi hamda ham hissiyotga, ham tafakkurga birdek ozuqa bera oladi. Shu jihati bilan u xarakterlanadi.

Umr haqida she’r yozmagan shoir yo‘q. Ammo bu mavzuda Abdulla Oripov o‘zgacha yozadi:

Sen birovga yaxshilik qilsang,
Qaytishini kutmagil aslo.
Abadiyat yonida, bilsang,
Unutilish bordir doimo.
Vaqt go‘yoki qilko‘prik, undan
Ikki emas, bir o‘tiladi.
Seni eslab unutmay yurgan
Odamlar ham unutiladi. [4.50]

Ko‘rinishdan sodda misralar qatida olam–olam mazmun mujassam. Shoir umr haqida so‘z yuritar ekan, o‘z fikrini, avvalo, yaxshilik haqidagi gap bilan boshlaydi. Xalq donoligining zohiran ixcham, ma’nan boy hikmatlarida: “Yaxshilik qil daryoga tashla, daryo biladi, daryo bilmasa baliq biladi, baliq bilmasa xoliq biladi” deb fikr yuritiladi. Demak, odam yaxshilikni beta’ma qilishi, qilgan yaxshligi uchun qaytim kutmasligi kerak. Yaxshilik qilgin–u, orqangga qarama. Qilgan yaxshiliklaringning mukofotini Alloh beradi. Bu o‘rinda achchiq xulosa mavjud. Qadim dunyoda hali hech kim qilgan yaxshiligi uchun qaytim olmagan. Aksincha bo‘lgan paytlar ko‘p. Ko‘p hollarda yaxshlik qilgan odamlaringdan qo‘rqish kerak. Ko‘hna tarixda bunga misollar bisyor. Nima uchun hazrat Navoiy: “Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim, Jon base qildim fido, oromijone topmadim”, “Qil yaxshiliq–u, demakni doxil qilma” deb yozdi. Bu bejiz emas. Kutish – azobli holat. Inson o‘zini azobga tashlamaslik kerak. Yoki, do‘st bo‘lamiz deb ahdlashgan Amir Temur va Sulton Husayn mirzo o‘rtasidagi munosabatlarni eslang. Qancha yaxshiliklari uchun xiyonatga ega bo‘lgan Amir Temur pand yeganida qanchalar qalbi zorlanib azobga qoladi. Umri qiyinchiliklar–u, azoblarda kechgan Mirzo Bobur hayotini xotirlang. Uning “Yaxshilig‘ ahli jahonda istama Bobur kibi, Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngil, ahli jahondin yaxshlilig‘” kabi o‘tli baytlari dilni parchalaydi. Demak, Abdulla Oripovning she’ridagi fikr xuddi ana shu fikrlarga uyg‘un holda ifodalanadi.

“Vaqt go‘yoki qilko‘prik, undan Ikki emas, bir o‘tiladi”. Avvalo, “qilko‘prik” tushunchasini oydinlashtirib olsak. “Qilko‘prik” (Sirot ko‘prigi) – har bir inson uni oxiratda bosib o‘tadi. U orqali jannatga yo‘l ochiladi, lekin gunohkorlar undan o‘ta olmaydi va jahannamga yiqiladi. Ulamolarning ta’limotiga ko‘ra, bu ko‘prikda imon, taqvo, yaxshi amallar va gunohlar insonning vaznini belgilaydi. Imonli va taqvodorlar oson o‘tadi, gunohkorlar uchun bu ko‘prikdan o‘tish juda mushkul bo‘ladi. Sirot ko‘prigi orqali o‘tish – bu insonning dunyodagi qilgan amallariga

bog‘liq. She’riyatda qilko‘prik dunyo hayoti bilan oxirat hayotini bog‘lovchi ramz sifatida ham talqin qilinadi. Ya’ni dunyodagi sinovlardan o‘tib, oxiratdagi mukofotga yetish uchun har bir inson o‘zining sobitqadamligi va to‘g‘ri yo‘lini topishi kerak. Imom Buxoriy va Muslim rivoyatida Payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v.) shunday deganlar: “Sirot ko‘prigi juda ingichka va sirg‘anchiq bo‘ladi. U ipdan ingichka va qilichdan ham o‘tkirroqdir”. Demak, sirot ko‘prigi juda nozik va og‘ir sinovli ekani bayon qilingan. Undan har bir inson o‘tishi shart. Termiziy rivoyatida esa: “Sirot ko‘prigi Jahannamning ustida quriladi. Imonlilar uni osongina bosib o‘tadilar” deb yozilgan. Xulosa sifatida shuni aytish keraskki, qilko‘prik bu sinovli hayotning yakuni. Shoir bu istilohdan ramziy ma’noda foydalanadi. Ya’ni, qilko‘prikdan bir marta o‘tilgani kabi, umrni ham bir marta yashaladi. Umr insonga bir marta beriladi. Uni shunday yashash kerakki, toki yakunda pushaymon qilmaslik kerak. She’r bizni to‘g‘ri yashashga undaydi. Umr deb atalgan vaqtdan to‘g‘ri foydalanish lozimligidan ogoh etadi.

Olam uyg‘unlikdan iborat asli,
Bo‘shliq deganlari yo‘qdir mutlaqo,
Makonni nimadir to‘lg‘izib turar.

Suvsiz idishda ham zangor havo bor,
Qop–qora koinot qa’rida esa
Vaqt yashar, jismsiz ruhlar kezadi. [4. 68]

Shoirning “Uyg‘unlik” deb nomlangan she’rida olamning mukammal, barcha narsa va hodisalarning bir–biriga mutanosib holatda yaratilganligi xususida so‘z boradi. Shoir mazkur uyg‘unlikni e’tirof etar ekan, olamning sirli uyg‘unligidan hayratga tushadi, lol qoladi. “Bo‘shliq” degan tushunchaning aslida yo‘q ekanligi, hatto “suvsiz idishda ham zangor havo” borligini e’tirof etadi. Ulkan va muazzam koinot abadiy vaqtning hukmida yashaydi. Hech narsa yo‘q bo‘lmaydi, balki bir shakldan boshqa bir shaklga o‘tadi. Olamning yaralishi asosida buyuk muhabbat turadi. Insonlarni dunyoga, kishilarga, vatanga bog‘lab turadigan his bu – Muhabbat. Bu tuyg‘u tufayli odamlar hayotga oshiq bo‘ladilar, atrofning, tabiatning go‘zalligidan bahramand bo‘ladilar. Hayotdagi har bir narsaning nomi mavjud. Soxtalik, qalbakilikdan odamlar ozurda bo‘lishgan. Haqiqat xudo kabi barchani huzuriga chorlaydi. Haqiqatni izlash xudoni izlash kabi jarayondir. Zero, xudo insonni baxt izlash azobiga duchor qilib qo‘ygan. Bizni o‘rab turgan borliq ana shunday muazzam, sirli garmoniyani tashkil qiladi. Bizga berilgan umr–vaqt o‘lchovli. Uni behuda, bema’ni ishlarga sarf qilish uvol. Aksincha, uni qadrlash, unumli o‘tkazish vaqtga ziynat bag‘ishlaydi. O‘tgan har bir daqiqani orqaga qaytarishning iloji yo‘q. Shunday ekan, har bir ishni o‘z vaqtida bajarish shart.

“Rivoya” nomli she’rga diqqat qarating:

Agar sen qiblaga burmasang yuzni
Besh mahal sajda–yu namozing bekor.
Jannatga hyech qachon tikmagil ko‘zni
Agar bir mo‘minga yetkazsang ozor.
Hijrating shunchaki sayohat erur
Unitar bo‘lsang gar zarra iymonni.
Makkaga yetti qat borgancha bo‘lur,
Boshingni silasang o‘ksik insonni.
Allohning nomiga qasaming abas,
Dilingda bor esa hasad ham riyo.
Nuqsingni behuda yashirmagil, bas.
Biridan voqifdir Tangri taolo.*[5. 51]*

Abdulla Oripov nazarida insonlar o‘zaro yaxshilik yo‘lida birlashsalar hamda ularning maqsadlariyam bir bo‘lsa, a’lo ish bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimni, Abdulla Oripovning yuksak intellektual she’rlari insonlarni borliq haqida faylasufona mushohadalarga chorlaydi. Umrning qadriga yetishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси.–Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
2. Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). 3 жилдлик. 2–жилд. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992.
3. Фазлиддинов Б. XX аср ўзбек фалсафий–интеллектуал шеърияти. (Ғафур Ғулом, Асқад Мухтор ва Рауф Парфи ижоди мисолида). Филол. фанлари бўйича фалс. доктори дисс. автореф. – Тошкент, 2019.
4. Орипов А. Умр манзиллари. Тошкент: “Тафаккур қаноти”, 2019.
5. Орипов А. Ишқ саҳроси. — Тошкент: Ҳилол–нашр. 2021.

Zebuniso YOQUBOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi
Ilmiy maslahatchi
Dilafro‘z QALANDAROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, fil.f.f.d., PhD.

IKKINCHI JAHON URUSHI VA UNING INSONIYAT TAQDIRIGA TA’SIRI MASALALARI

(O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqola Ikkinchi jahon urushi va uning insoniyat hayoti, ruhiyatiga ta’sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotining buyuk vakili O‘tkir Hoshimov asarlari, “Urushning so‘nggi qurboni”, “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar”ni ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: *urush, mustabid tuzum, inson, o‘lim, fojiaviylik, sadoqat, ruhiyat, vatanparvarlik, insoniylik.*

Аннотация: целью данной статьи является глубокий анализ Второй мировой войны и ее влияния на жизнь и психологию человека, а также рассмотрение произведений великого представителя узбекской литературы Откира Хошимова “Последняя жертва войны”, “Между двух дверей” и “Жизнь во сне” с научной точки зрения.

Ключевые слова: *война, тирания, человек, смерть, трагедия, верность, духовность, патриотизм, гуманность.*

Annotation: this article is aimed at a deep analysis of the Second World War and its impact on human life and spirituality, and studies the works of the great representative of Uzbek literature, Otkir Hoshimov, “The Last Victim of War”, “Between Two Doors” and “Lives in a Dream” from a scientific point of view.

Key words: *war, authoritarian regime, man, death, tragedy, loyalty, spirituality, patriotism, humanity.*

Urush – insoniyat tarixining eng fojiali, eng og‘riqli sahifalaridan biri bo‘lib, badiiy adabiyotda hamisha dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Urush haqidagi asarlar zamon va makonga qarab turlicha talqin etilgan bo‘lsa–da, ularning tub mohiyatida insoniy taqdir, fojiaviylik, adolat izlanishi, jasorat, Vatanga muhabbat kabi umuminsoniy g‘oyalar mujassam bo‘lgan. Ayniqsa, XX asr adabiyoti ijtimoiy–siyosiy hayot bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan bo‘lib, bu davr adiblarining asarlarida Ikkinchi jahon urushi, Afg‘on urushi, urushdan keyingi hayot, insoniy iztirob va dardlar o‘z badiiy ifodasini topdi.

O‘zbek adabiyotida ham urush mavzusi yirik asarlar orqali talqin etilgan. G‘afur G‘ulomning “Vaqt”, “Sog‘inish”, “Sen yetim emassan” she’rlari, Oybekning “Quyosh qoraymas” romani, Shuhratning “Shinelli yillar” asari, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” hikoyasi va pyesasi, shuningdek, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni”, “Nega, nega–a–a?!” hikoyalari hamda “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari bu yo‘nalishda yaratilgan yuksak badiiy namunalar sirasiga kiradi. Bu asarlarda urush realistik obrazlar vositasida tasvirlanadi, inson taqdiri markazga olinadi va urushning g‘ayriinsoniy mohiyati fosh etiladi.

Adabiyotshunoslikda kuzatilgan holatlardan biri shuki, Ikkinchi jahon urushi mavzusi ustuvor bo‘lgan asarlarda vatanparvarlik, jasorat va qahramonlik ruhi yetakchi o‘rinda turadi. Bunga sabab – bu urush o‘z yurtini himoya qilish maqsadida olib borilgan jang sifatida qabul qilingan. Shu bois ikkinchi jahon urushi mavzusi aks ettirilgan asarlarda ko‘pincha g‘urur va ruhiy bardoshlilik g‘oyalari ustuvorlik qiladi. Afg‘on urushiga bag‘ishlangan asarlarda esa, aksincha, tragik pafos va ichki ziddiyatlar asosiy g‘oyaviy qatlamni tashkil etadi. Bu esa urushning mohiyati va unda qatnashgan insonlarning kechinmalarini tahlil qilishda adibning hayotiy va falsafiy yondashuvini taqozo etadi.

Mazkur nuqtayi nazardan O‘tkir Hoshimov ijodi alohida e’tiborga loyiqdir. U XX asr o‘zbek prozasining yetuk vakili sifatida, asarlarida insoniy

munosabatlarni chuqur badiiy–falsafiy talqin etgan yozuvchidir. Adib o‘zining “Urushning so‘nggi qurboni”, “Nega, nega–a–a?”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi” kabi asarlarida urush mavzusini inson ruhiyati, jamiyatdagi ma’naviy tanazzul, adolat va haqiqat orzusiga intilish kabi jihatlar bilan bog‘lab tasvirlaydi. Ayniqsa, “Ikki eshik orasi” romanida urushdan keyingi davrda yashayotgan odamlarning ruhiy holati, ularning o‘z o‘tmishi bilan bo‘lgan kechagi munosabati chuqur psixologik tahlillar orqali ochib beriladi.

O‘tkir Hoshimovning ijodida urush mavzusi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Uning “Urushning so‘nggi qurboni”, “Nega, nega–a–a?!” hikoyalari va “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlarida urushning fojiali oqibatlari, insoniyatga keltirgan musibatlari va jamiyatning ruhiy holatiga ta’siri chuqur tasvirlanadi. Ushbu asarlarda Ikkinchi jahon urushi va Afg‘on urushi kabi tarixiy voqealar ortidan o‘zbek xalqi boshiga tushgan sinovlar, og‘irliklar va kulfatlar badiiy tarzda yoritilgan. Yozuvchi o‘z asarlarida urushning fojiali va vayronkor oqibatlarini ko‘rsatishda tinchlik va odamiylikni targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratadi.

“Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida urushning barcha fojiali oqibatlari, uning insonlar hayotiga ta’siri o‘z ifodasini topgan. Hikoya Shoikrom ismli qahramonning ruhiy holati bilan boshlanadi, u o‘zi va oilasi bilan bog‘liq muammolarni boshdan kechirmoqda. Shoikromning oilaviy nizo, ukasi Shone’matning kasalligi, o‘g‘rining hujumlari va boshqa muammolar orqali urushning salbiy ta’siri tasvirlanadi. Shoikromning ruhiy holati asar boshidan oxirigacha voqealarga bevosita ta’sir qiladi. Urushning oqibatlari faqat frontda emas, balki tinch hayotda ham chuqur iz qoldiradi. Shoikromning oilasidagi noxushliklar, uning onasi Umri xolaning o‘limi va oxir–oqibatda Shoikromning o‘z onasini o‘ldirib qo‘yishi hikoya kulminatsiyasini tashkil etadi. Umri xolaning o‘limi urushning so‘nggi qurboni sifatida tasvirlanadi, shuning uchun asar nomi shunday nomlangan.

Hikoya, shuningdek, urushning faqat jangchilarni emas, balki urushdan uzoqda bo‘lgan odamlarga ham dahshatli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Yozuvchi, urushning jamiyatning ma’naviy holatiga qanday zarar yetkazishini, unda nafrat va zo‘ravonlikning qanday tarqalishini ko‘rsatishga intiladi. O‘tkir Hoshimovning urushga qarshi his–tuyg‘ulari va tinchliksevarlik ruhi uning boshqa asarlarida ham o‘z aksini topgan. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida u urushning g‘olibi bo‘lgan yurtlarni ham baxtli deb atamaydi, chunki urushda g‘olib bo‘lgan odam baxtli bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi [2. 112–bet.]. Yozuvchi urushning faqat vayronkorlik va halokat keltirishi haqidagi fikrlarini o‘z ijodida doimo ko‘rsatib kelgan.

“Nega, nega–a–a?!” hikoyasi esa Afg‘on urushi mavzusiga bag‘ishlangan. Bu hikoya Hamidulla ismli asosiy qahramonning o‘g‘li Rahmatillaning urushda halok bo‘lishi va uning ota–onasi bilan bog‘liq fojialarini tasvirlaydi. Hikoya nomidagi “nega–a–a?!” savoliga javob topilmasligi o‘quvchini o‘ylantiradi. Hamidullaning o‘g‘li halok bo‘lganidan keyin, uning otasi urushning dahshatli oqibatlaridan aziyat chekadi. Hikoyada ham nafaqat urushning o‘zining, balki mustabid tuzumning siyosiy zo‘ravonligi, axloqiy va ijtimoiy muammolar ham ochib beriladi. Hamidullaning o‘g‘li o‘limi va otaning ruhi tasvirlangan so‘nggi epizodda afg‘on urushining og‘ir oqibatlari o‘z aksini topadi. Hikoyada mustabid tuzumning zo‘ravonligi va rahbarlarning siyosiy kirdikorlari tasvirlanadi. Hamidulla va uning oilasining boshiga tushgan kulfatlar urushning bevosita va bilvosita oqibatlaridan biridir.

“Ikki eshik orasi” romanida esa urush va mustabid tuzumning xalq boshiga keltirgan og‘irliklari tasvirlanadi. Roman to‘qqizta qahramonning tilidan hikoya qilinadi, bu esa voqealarning ko‘proq obyektiv tarzda tasvirlanishini ta’minlaydi. Har bir qahramonning ichki dunyosi va ruhiy holati hikoya davomida batafsil yoritiladi. Ushbu roman orqali O‘tkir Hoshimov jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni, urushning xalqqa qanday ta’sir ko‘rsatganini yanada chuqurroq ochib beradi. Romanning asosiy mavzularidan biri — urushning xalq uchun qanday dahshatli oqibatlar keltirishi va mustabid tuzumning zulmi ostidagi odamlarning ayanchli taqdirlari.

O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ham urushning xalq boshiga keltirgan fojialari ko‘rsatiladi. Ushbu asarda yozuvchi o‘z ijodining asosiy prinsipi bo‘lgan urushga qarshi nafratni yana bir bor ta’kidlaydi. Har bir asarida O‘tkir Hoshimov urushning insoniyat uchun faqat vayronkorligini ko‘rsatadi, tinchlikni esa eng ulug‘

vorislik sifatida ta’riflaydi. Yozuvchi, urushning faqat jangchilarga emas, balki tinch hayotdagi odamlarga ham dahshatli ta’sir ko‘rsatishini tasvirlab, o‘z asarlarida tinchlikparvarlik va fojiaviy ruhni ustun qo‘yadi.

Umarali Normatovning fikricha, Hoshimov urushni qoralashda, uning faqat g‘ayriinsoniy mohiyatini ochib berishda o‘ziga xos usuldan foydalanadi. U, shuningdek, urushning salbiy ta’sirlarining uzoq vaqt davomida odamlar hayotiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi: “Muallif, birinchi navbatda, urushni qoralaydi, uning g‘ayriinsoniy mohiyatini ochadi. Uning jarohatlari ko‘p yillar mobaynida odamlarga ozor yetkazishini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, muallif oddiy odamlarning, ayniqsa, urush yillarida yorqin namoyon bo‘lgan fazilatlarini, vatanparvarligini, bardoshini, matonatini ko‘rsatadi.” [4.]. Shu bilan birga, Hoshimov urush yillarida oddiy odamlarning, ayniqsa, vatanparvarlik, bardoshlilik, matonat kabi fazilatlarini ham ta’kidlaydi. Bu aspektlar romanlarida muhim o‘rin tutadi va o‘quvchiga urushning dahshatli oqibatlarini anglash imkoniyatini yaratadi. O‘tkir Hoshimovning asarlarida urushning nafaqat tashqi, balki ichki, ruhiy oqibatlari ham chuqur tahlil qilinadi.

Yozuvchi urushning har tomonlama ta’sirini, insoniyat va jamiyatga bo‘lgan zararini ochib berib, tinchliksevarlikni targ‘ib etadi. Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” va “Ikki eshik orasi” romanlarida, shuningdek, urushning nafaqat jang maydonlaridagi, balki uning ijtimoiy va ruhiy oqibatlari ham muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi urushning uzoq muddatli va keng qamrovli ta’sirlarini o‘quvchida chuqur tafakkur uyg‘otadigan tarzda taqdim etadi. Urush nafaqat jasoratni, balki insoniy zaiflikni, ijtimoiy befarqlikni ham sinovdan o‘tkazadi. Hoshimovning asarlarida urushning o‘ziga xos ijtimoiy va psixologik oqibatlari aniq va tasviriy tarzda yoritilgan. “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida yozuvchi urushning inson hayotini qanday buzishini, uning individual va ijtimoiy xatti–harakatlaridagi o‘zgarishlarni juda chuqur tarzda tasvirlaydi. Shoikrom va Xadicha obrazlari orqali, Hoshimov urushning insoniy mohiyatga va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga qanday ta’sir etganini ko‘rsatadi. Shoikromning va Xadicha xolaning taqdiri urushning nafsi, ruhiyat va ijtimoiy munosabatlarga qanday ta’sir qilganini ochib beradi.

O‘.Hoshimov urushning g‘ayriinsoniy tabiati, uning bevosita va bilvosita oqibatlari, shuningdek, urushning inson va jamiyatga bo‘lgan uzoq muddatli ta’sirlarini o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkazgan. Yozuvchining o‘ziga xos uslubiy yondashuvi, har bir qahramonning ruhiy holatini chuqur tahlil qilish orqali urushning barcha jihatlarini birgalikda ko‘rsatishga imkonini beradi. Ushbu asarlarda urushning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jarohatlar bilan ham bog‘liqligi alohida ta’kidlangan. Urushning ruhiy salbiy ta’sirlari, uning insonlar qalbida qoldirgan chuqur izlari va o‘zgargan hayotiy qadriyatlar tasvirlanadi, bu esa o‘quvchilarga urushning dahshatli oqibatlarini yanada aniqroq anglash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov A. Ardoqli adib – T.: “Sharq”, 2001 36–bet.
2. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent, 2020. 112–bet.
3. Ahmad S. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: “SHARQ”, 2000 228–bet.
4. Normatov U. Taqdirlar romani. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1985–yil 27–noyabr soni.
5. Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019.
6. Hoshimov O‘. Uzun kechalar. – T.: “O‘ZBEKISTON”, 2018.

D. BUZRUKOVA,
FarDU f.f.b.f.d.(PhD);
M. SOLIJONOVA,
FarDU talabasi

BADIIY ASARLARDA MILLIY MENTALITETNING IFODALANISHI.

Annotatsiya: ushbu maqolada mentalitet tushunchasi, o‘zbek mentalitetiga xos milliy muloqot, an’analar, rasm–rusumlar, urf–odatlar, diniy e’tiqod va irimlarning badiiy asarlarda ifodalanishi haqida fikr yuritilgan. Badiiy asarlarda o‘zbek mentalitetiga xos xususiyatlar obrazlar nutqi orqali ifodalanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mehr, udum, muloqot, urf–odatlar, qarg‘ish, tobutkash, birovning haqi, emotsional munosabatlar, xushmuomalalik.

Аннотация: в данной статье рассматривается понятие менталитета, национальный диалог, присущий узбекскому менталитету, традиции, обычаи, обряды, религиозные верования, а также выражение идей в художественных произведениях. Подчеркивается выражение особенностей узбекского менталитета через речь персонажей художественных произведений.

Ключевые слова: любовь, традиция, общение, обычаи, ругательство, гробоносец, права другого человека, эмоциональные отношения, вежливость.

Annotation: this article discusses the concept of mentality, the national dialogue characteristic of the Uzbek mentality, traditions, images, customs, religious beliefs, and the expression of myths in works of art. The expression of the characteristics of the Uzbek mentality in works of art through the speech of images is highlighted.

Key words: love, tradition, communication, customs, cursing, pallbearer, someone else’s rights, emotional relationships, politeness.

KIRISH. Mentalitet (nem. Mentalitat lot. mens, mentis – aql, idrok) jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati (Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm–rusumlari, urf–odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi).

Mentalitet tushunchasi tafakkur darajasi, madaniy salohiyat, aqliy qobiliyat, ruhiy quvvat kabi tushunchalardan tarkib topar ekan, u o‘zbek xalqiga xos oriyat, diyonat, hurmat, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, samimiylik, insof, mehr shafqat, bag‘rikenglik, xushmuomalalik, sharm–hayolilik kabi jihatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘zbek cotsiumida atrofdagi kishilarning fikri va ularning hurmatiga sazovor bo‘lishdan iborat qadriyaviy mezon har doim yuksak bo‘lib kelgan. O‘z xulq –atvorining an’anaviy standartlarga muvofiqligi – o‘zbek mentalitetining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Badiiy asarlarda o‘zbek mentalitetiga xos xususiyatlar obrazlar nutqi orqali ifodalanishida badiiy ijodkordan juda katta mahorat talab qilinadi. Har bir personaj nutqi uning ma’naviyatiga, xulq–atvoriga, kasb–koriga, hayotiy tajribasiga, ruhiyatiga, yoshiga, jinsiga mos, hamda uning nutqidan qanday odam ekanligini anglash lozim bo‘lishi kerak. Personaj nutqi dialog (ikki yoki undan ortiq personajlar o‘rtasidagi suhbat) va monolog (personajlarning o‘z–o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan ichki nutqi)dan iborat bo‘lib, ularning ikkalasi ham obraz va xarakter yaratishning muhim vositalaridan sanaladi.[1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbek xalqi asrlar mobaynida o‘ziga xos xilma–xil urf–odatlar va marosimlarni yaratdi. Bunday an’analar zamonlar osha avloddan–avlodga o‘tib keladi. Shulardan biri oilada muloqot odobi va madaniyatli nutqni shakllantirishdir. Oilada o‘zaro munosabatlarda samimiy bo‘lish, xushmuomalalik bilan muloqotga kirishish ota–onalar farzandlar oldida sharm–hayolilik bilan bir–birlariga murojaat qilishlari an’anaviy tarzda tarbiya mahsuli hisoblanadi.

“O‘zbeklarda har bir erkak o‘z xotinini – o‘z jufti halolini qizi yoki o‘g‘lining nomi bilan atab chaqiradi. O‘z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotinini ismi Maryam bo‘lsa, qizining ismi Xadicha bo‘lsa, mo‘min–musulmon haqiqiy sharmu hayo yuzasidan bo‘lsamikan, xotinini Xadicha dab chaqiradi. Ayrim hollarda ona–bola baravar “labbay” deydi, shunda oilaning haqiqiy egasi bo‘lgan ota: “kattangni aytaman, kattangni!” deydi. Hatto shunda ham “Maryamni demaydi ...”. Garchi bu gaplar Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Razzoq so‘fini qora qilib turib aytilgan bo‘lsa–da, aslida o‘zbek oilalarida o‘ziga xos murojaat shakllari haqida ma’lumot beradi.[2]

Sharq xalqlarimizda, jumladan o‘zbek xalqida mehmondorchilik odati ham keng tarqalgan.

“Uyingizga mehmon keldi. Ziyofat qilyapsiz. Hovlingizni bir chetida kabob pishyapti… Ayolingiz sekin kelib, qulog‘ingizga shipshiydi. “ Dadasi, kabob

tarqatishdan avval ikki sixini ajratib qo‘ying: qo‘shnining kelini boshqorong‘i…” deydi.

Buning otini nima deyish kerak? Buning oti inson bolasi tug‘ilmasdanoq mehrga muhtoj bo‘ladi, bir–birlaringizdan mehrni ayamang, degani bo‘ladi.

Arzimagan bahona bilan ikki kishi g‘ijjilashib qoldi. Unisi ham o‘zicha haq, bunisi ham. Indamay tursangiz janjal kattalashib ketadigan. Shunda esli bir odam o‘rtaga tushib, aytadi: “Hay–hay–hay, tobutkashsizlar – a, Baraka topkurlar, bir gapdan qolinglar”, deydi. Yonib turgan olov o‘sha zahoti o‘chadi.

Buning otini nima deyish kerak? Buning oti inson hayotdan ko‘z yumgandan keyin ham mehrga muhtoj bo‘ladi, bir–birlaringdan mehrni ayamanglar, degani bo‘ladi. Buning oti o‘zbek udumi, o‘zbek mentaliteti deyiladi!”

Qadimdan an’ana bo‘lib kelgan hashar, mehmondo‘stlik, kattalarni hurmat qilish o‘zbeklar xarakterining eng muhim xususiyatlaridan sanaladi. Hasharning oilaviy, qo‘ni–qo‘shnilar, mahalla–ko‘y va hatto mamlakatlar miqyosida o‘tkaziladigan turlari mavjud. Oilaviy hasharlar ko‘pincha imorat tiklash ishlarida qavm–qarindoshlar ishtirokida o‘tkaziladi. Qo‘ni–qo‘shnilar o‘rtasida bo‘ladigan hasharlarda ko‘pgina dala ishlari, ekin–tikin, uy qurish, hovli devorini ko‘tarish, to‘y hasham ishlari bajariladi. Odatda hasharga aytilgan kishilarning kelishi shart bo‘lgan. Uzrli sabab bilan kelolmay qolgan kishi hasharchilar uchun taom pishirib chiqargan.

“Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo‘lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan hech kim tomini yolg‘iz o‘zi suvamaydi, hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva–bechora, qo‘li qisqa xonadonning uyi eng avvalo tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma–navbat davom etaveradi.

O‘qituvchimizning hashariga, ayniqsa ko‘p odam yig‘ildi. Uyi katta yo‘l yoqasida edi. Shundoq ko‘cha chetidan loyxandaq qazilgan ekan. Somon katta yo‘lning ko‘pchib turgan tuprog‘iga qovushib, obdon yumshabdi. O‘qituvchimizning A’zim aka degan qo‘shnisi ishboshi bo‘ldi. Birov xandaqqa tushib, loy solib berib turibdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi havsala bilan suvaydi… Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagida ovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchimizning keksa onasi kelib qoldi. (Keyin eshitsak, bir hafta oldin ko‘zi yorigan qizinikiga ketgan ekan). Kampir hassasini do‘qillatib to‘ppa–to‘g‘ri o‘qituvchimizning oldiga bordi.

Nima qilding?! – dedi o‘g‘lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qilib qo‘yding?!....Nega ko‘chadan loy oldilaring?! Ko‘chaning tuprog‘iga tegib bo‘ladimi nobakor! Ko‘pchilikning haqi – ku, bu!”[3]

Bu misolda ham o‘zbek mentalitetiga xos xususiyatlar kampir nutqi orqali ifodalangan. Sevimli adibimiz O‘tkir Hoshimovning bu mavzuga xolisona yondashishi tahsinga loyiq.

Said Ahmadning “Ufq” romanida militsioner Inoyat oqsoqolni taqiqlangan mol sotayotganida qo‘lga tushiradi va uni operpunktga olib bormoqchi bo‘ladi. Inoyat oqsoqol militsionerga har qancha yalinsa ham, qo‘rqitsa ham, militsioner o‘z fikridan qaytmaydi. Shunda

“… – Qarg‘ayman, – dedi Oqsoqol.

Baribir qarg‘ishingiz o‘zingizga uradi.

Yomon qarg‘ayman.

Qanaqa qarg‘asangiz ham baribir.

…Bolang o‘lsin, deb qarg‘ayman.

Militsioner titrab ketdi. Uning bir bolasi frontda o‘lib, dilidan hali alami ketmagandi. Peshonasida bittagina olti yashar bolasi bor edi, xolos. U shu bolasini yeru ko‘kka ishonmas, bola ham otasiga o‘rganib qolganidan kechasi u bilan yotardi. Tungi smenaga ketgan paytlarda bola necha martda uyg‘onib dadasini so‘rardi. Oqsoqol shu bolani qarg‘amoqchi. Militsionerning a’zoyi badanidan ter chiqib ketdi. Ko‘z oldi xiralashdi. Gandiraklab yelkasini devorga urib oldi”.[4]

Muhokama va natijalar. Ushbu dialogda Inoyat oqsoqol va militsionerning suhbati aks etgan. Keltirilgan parchada o‘zbek millatiga xos mentalitet qarg‘ish orqali ifodalangan. Qarg‘ish urishiga shunchalik ishonganidan militsioner Inoyat oqsoqolni qo‘yib yuboradi. Yuqorida O‘tkir Hoshimovning “ Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan parchada esa o‘zbek mentalitetiga xos xususiyatlar ko‘chirma gaplar (“ *Dadasi, kabob tarqatishdan avval ikki sixini ajratib qo‘ying: qo‘shninig kelini boshqorong‘i…” va “ Hay–hay–hay, tobutkashsizlar – a, baraka topkurlar, bir gapdan qolinglar*”) orqali ifodalangan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbeklar tabiatidagi kamtarlik va kamsuqumlik, andisha va mulohazakorlik, qolaversa inson ko‘nglini har narsadan ustun qo‘yishlik, milliy xarakter, millat aholisining o‘ziga xos urf–odatlari, qadriyat va an’analarini sevimli adiblarimizning o‘z asarlarida mohirlik bilan tasvirlashlari nafaqat badiiy asarlar sahifasiga shu bilan birga kitobxonlar qalbiga ham muhrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Muminov “**Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий–лисоний хусусиятлари** ” Monografiya“ Farg‘ona–2021.

2. S.Kurbanov va M.Saparova “Badiiy asar jozibadorligini oshirishda qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlarning personajlar nutqida berilishi.” Maqola. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021

3. O‘. Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”. “Sharq” nashriyoti Toshkent–2015.

4. S. Ahmad “Ufq” Trilogiya. “Turon zamin” nashriyoti. Toshkent–2024.



Xusnida Soliyeva,
University of Business and Science universiteti o‘qituvchisi
Email: husnida201@gmail.com

BADIIY ASARDA INTERTEKSTUALLIKNING OCHIB BERILISHI JAVLON JOVLIYEVNING “QO‘RQMA” ASARI ASOSIDA

Annotatsiya:ushbu tadqiqot ishimizda intertekstuallik tushunchasi, uning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari, zamonaviy tilshunoslikka ushbu hodisaning kirib kelishi va tadqiq qilinishi haqida so‘z yuritdik. Badiiy matnni kitobxon tomonidan to‘g‘ri tushunilishi va matnni asl mazmun–mohiyatini anglab yetishida intertekstual birliklarning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tdik. Intertekstual birliklarga to‘xtalib, ushbu hodisaning badiiy adabiyotdagi jihatlarini izohlab berdik.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, lisoniy shaxs, intertekstual birliklar, badiiy matn, adabiy fakt, ijtimoiy–tarixiy fakt, maqol, matallar.

Annotation:in this research work, we discuss the concept of intertextuality, its types, distinctive features, its emergence in modern linguistics, and the ways it has been studied. We highlight the significance of intertextual elements in helping the reader understand the literary text correctly and grasp its essential meaning. Special attention is paid to intertextual units and their role in literary texts. The study also explains how intertextuality manifests itself in fiction.

Key words: intertextuality, linguistic personality, intertextual units, literary text, literary fact, socio–historical fact, proverb, sayings

Аннотация:в данной исследовательской работе рассматривается понятие интертекстуальности, её виды, особенности, проникновение этого явления в современное языкознание и пути его изучения. Отмечается значение интертекстуальных единиц для правильного понимания художественного текста читателем и осмысления его основной сути. Особое внимание уделяется интертекстуальным единицам и их роли в художественной литературе. Также раскрываются аспекты проявления интертекстуальности в художественных произведениях.

Ключевые слова: интертекстуальность, языковая личность, интертекстуальные единицы, художественный текст, литературный факт, социально–исторический факт, пословицы, поговорки

Kirish. XX asr gumanitar bilimning turli sohalari, birinchi navbatda, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda har tomonlama ko‘rib chiqilgan, ayni paytda, kompleks tadqiqot, chuqur va keng tahlil jarayonida hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalardan biri bu, so‘zsiz, intertekstuallikdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.O‘zbek tilshunosligida intertekstuallik muammosi dastlab M. Yo‘ldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Olimning doktorlik dissertatsiyasida intertekstuallik hodisasi, uning badiiy matn tarkiblanishidagi o‘rni va o‘zbek badiiy matnlarida uchraydigan turlari haqida ma’lumot berilgan.[10] D. Xudoyberganova esa badiiy matnning antropotsentrik tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bevosita intertekstuallik tarkibiga kiruvchi pretsedent birliklarning lingvokulturologik xususiyatlariga urg‘u bergan.[9] Z. Salieva o‘zbek va ingliz tillaridagi sentensiyalarning milliy–madaniy xususiyatlari qiyosi haqidagi tadqiqotida bu hodisani intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida baholagan.[5] D. Andaniyozova “Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasida intertekstuallikning bir turi bo‘lgan allyuziv nomlarning xususiyatlari haqida fikr yuritgan.[1] Tarjimashunos,

adabiyotshunos olim M. Xolbekovning ham intertekstuallik yuzasidan bir qator maqolalari e'lon qilingan.[11] Matn mazmuniy idroki muammosi esa I. Azimovaning nomzodlik dissertatsiyasida gazeta matnlari misolida tadqiq qilingan.[3] Olima o'z tadqiqotida matn mazmuniy persepsiyasining yo'nalishlari haqida to'liq ma'lumot berib, gazeta matnlarining psixolingvistik persepsiyasi masalasini monografik planda o'rgangan.

Badiiy matnda intertekst sifatida muqaddas kitoblardan parchalar, afsona, rivoyat, hadis, aforizmlar, boshqa bir yozuvchining asaridan parcha, maqol, matal kabilar keng qo'llanadi.Intertekstlar o'z navbatida milliy mental xususiyatlarga ega bo'ladi. Badiiy matn muallifi ko'proq intertekst sifatida xalq ichida mashhur bo'lgan asardan parcha yoxud xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda folklor namunalaridan foydalanadi. Intertekst sifatida berilgan matn yoki uning parchasi allaqachon o'quvchining lisoniy xotirasidan o'rin olgan bo'ladi.Badiiy matnda yozuvchi interteksda qo'llangan maqollar matallar xalqning ijtimoiy moddiy ahvolini tasvirlash maqsadida qo'llaniladi va bu orqali mentalitetini ko'rsatiladi.Javlon Jovliyevning Qo'rqma asaridan keltirilgan quyidagi mataldan xalqning ahvolini tasvirlashda o'rinli foydalanilgan.

Bir kun och bir kun to'q qolib yashardi hamma, "Ro'zg'or – to'lmas g'or" deb o'zini aldab, na boydan, na davlatdan bir nima umid qilib.

I.Arnold matn yaratuvchisi va uni qabul qiluvchining dunyoqarashi o'zaro muloqotga kirishish orqali matnni tushunish amalga oshishini ta'kidlaydi: "Matnni tushunish bu – matn tarkibi va uni qabul qiluvchining tezaurusi bilan o'zaro ta'siri orqali matnning ma'nosini tushunishdir. Bu matn ma'lmotlarini ma'naviy o'zlashtirish, bu onglar muloqotidir"[2]

Asarda sag'ir so'zini muallif bejiz qo'llanmaganiga yana bir bor amin bo'ldik. Sababi yetimning ahvoliga hech kim qiziqmasligi aynan shu maqoldan kuzatishimiz mumkin.Betim yog' tomgan suvday to'rlaydi, tilinganday yoriladi, lo'lining bolasiday to'zib uyga boraman.Birov so'ramaydi. "Sutdan qolgan —etdan qolgan", — deyman.Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi badiiy mazmun ifodasidagi o'rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir.Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" asarida bu parchalarni tahlil qilamiz.Asarda ijodkorlarning asarlaridan, maqol va matallardan juda ko'p va o'rinli foydalanganini kuzatishimiz mumkin.Domla amakining amal qilmagan bir hikmatini eslayman: "Zakovat va bilimlarni menga Tangri bergan edi…" Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asaridan ushbu parchadan anglashilgan ma'no hamma qobilyat va xarakter taqdirlarni Alloh berishiga ishora mavjud. "Tangri bu olamni bilib yaratgan, barcha ichkilik va yeguliklarni haloldan buyurgan.Kimning xislati va asli zoti pok bo'lsa, butun el odamlar orasida unga dushman ko'p bo'lar… Orqasidan ming –minglab itning akillashini eshitgan bilan bo'ri ortiga qayrilib qararmidi.Yaqin qarindoshlar sen bilan aloqani uzsalar, sen ular bilan yaqinlasha boraver…"Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarixni o'qimoq va bilmoq kerak.Podsho vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar tarix o'qimoq va bilmoq kerak. Musulmonlik qanday ko'paydi va qanday taraqqiy etdi va na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Buni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak.Xulosa: din–u dunyodan boxabar bo'lmoqni xohlaydirg'on har kim albatta, tarix o'qimog'i kerak. Chunki har nimarsa va shuning asli va nasli tarixdan bilinur". Behbudiy aytgan fikrlar orqali tarixiy diskursni mohiyatini ochib bergan va tarixni o'qimay turib kelajakni qurib bo'lmasligi haqida juda o'rinli fikrlar keltirish orqali roviy o'z fikrini anglatchi. Asabiy uyg'onib ketaman.Muzday suvga cho'milaman, sochim to'kiladi, oppoq vannani qop–qora soch egallaydi. "Yomon tush ko'rsang, suvga ayt",– derdi, aytaman.Asarda xalq maqollaridan o'rinli foydalanilgan.Xalqimizda yomon tush ko'rilsa suvga aytilsa suvda oqib ketadi deyiladi.Shu maqsadda suvga ayt demoqchi muallif Men ishonamanki, yorug'lik olib borish qo'limizdan keladi. Axir, rus yoki ingliz, yapon yo amerikalik saboqdoshlarimizdan kam joyimiz yo'q.Ota–bobolarimiz aytadigan bir gap : "hamma odam – bir odam"Asarda qo'llangan bu maqol orqali barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi farzandlari ham qobiliyatli, zehnli hamma qatori ilmli bo'la olishiga da'vat sezilib turadi.Aroq ichmayman.

“Mastlik – mo‘minlarga harom ” deyilgan.Menga ikki hissa bo‘lsin, momo! Asarda intertekstuallikning yana bir namunasi sifatida mataldan foydalanilgan. Aroq hamma nomaqbulliklarning boshlanishiga sabab bo‘lishi tufayli mo‘minlarga harom deyilgan.“Otaveraman , menga nima farqi bor! Xalq esa “tomosha ko‘rar jim”Shoir Shukur Qurbonning bir satri keltirilgan bu parchadan

Bundan tashqari asarda qo‘shiq namunasi ham keltirilgan.Hozirgi kunda bir olmaning yarmisi biri sansan biri man shaklida qo‘shiqning tarixiy variant sifatida quyidagi parcha keltirilgan.

—– Men uchun hatto o‘zining sochi ham tegmagan oppoq… “Bir olmaning ikki guli, biri sansan, biri man!Asarda Qur’oni Karimdan parcha keltirilganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda najotga kelingiz deya azon aytiladi.

“Hayya a’la–l–falah” .

—– Azon aytilyapti, najotga ketdik! U hech qachon va’dasiga xilof qilmaydur!

Yuqorida keltirilgan misollar orqali ko‘rinib turibdiki, intertekstuallik nomlar she’riy matnda qo‘llanganda, matnga qo‘shimcha, lekin verbal ifodaga ega bo‘lmagan fakt yoki ma’lumotni lisoniy shaxs xotirasida jonlantirishga xizmat qiladi.Bunda intertekstuallik faktning mashhurligi, lisoniy shaxs xotirasida uzoq vaqt yashashi ahamiyatlidir. Demak, intertekstuallik qatnashgan matnda ikki madaniy–semiotik maydon o‘zaro tutashadi. Ulardan biri matnning tashqi strukturasida qatnashadi, ikkinchisi esa o‘quvchi tomonidan tasavvur qilinib, qayta tiklanadi.Ikkinchi xususiyatni tiklash kitobxonning bilim darajasiga bog‘liq tarzda amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анданиёзова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2017. 48 б.

2. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка (Стилистика декодирования): Учебное пособие, – М.: Просвещение, 1990. – С. 6.

3. Азимова И. Ўзбек газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. Фил. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. 119– б.

4. Beagrande R. A. De. Dressier W. Introduction to text linguistics. L.:N.Y.,1981

5. Салиева З. Концептуальная значимость и национально–культурьная специфика сенцентии в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. кан. филол. наук. – Т., 2010.

6. Beagrande R. A. De. Dressier W. Introduction to text linguistics. L.:N.Y.,1981. XVI.

7. Фатеева, Н.А. Интертекстуалыюсть и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Сер. литературы и языка, 1997. T. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – Toshkent:Akademnashr, 2013.

8. Xudoyberganova D.Til.Tafakkur.Madaniyat. Ilmiy risola. –Toshkent: Nodirabegim, 2020.

9. Худойберганова Д. Бадиий матннинг антропоцентрик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. 129–154–б.

10. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация . – Т., 2010. 128– б.

11. Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2013. № 6.

Kamola JUMAYEVA,
TDSHU tadqiqotchisi
kamolajumaeva7@gmail.com

XOQONIY SHIRVONIY QASIDA SHAKLIDAGI MARSIYALARINING KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada fors mumtoz adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Xoqoniy Shirvoniyning 1997–yil Tehronda nashr etilgan devonidagi marsiyalari tahlilga tortilgan. Ushbu marsiyalar badiiyligi bilan diqqatga sazovor. Baytlarda qayg‘u va hasratga cho‘mgan shoir kechinmalari qalamga olingan. Maqolada devondagi “زاب مه رد مرثیۀ خاناوۀد خویش – Yana ham o‘z oila a’zolari marsiyasida”, “ رد رثاء امام ابوعمر اسعد– Imom Abu Umar As’ad”, “قودتاالحکماء کافی الدین عم خویش رد مرثیۀ – Hakimlar boshi amakisi Kofiuddin marsiyasida” marsiyalari kompozitsion jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *Xoqoniy Shirvoniy, qasida, marsiya, kompozitsiya.*

Аннотация: Хакани Ширвани — выдающийся поэт XII века, творивший на персидском и арабском языках, внёсший значительный вклад в классическую восточную литературу. В этой статье анализируются несколько марсий из дивана поэта, опубликованного в Тегеране в 1997 году. Марсии выделяются высоким художественным уровнем и поэтической изысканностью. В статье проводится композиционный анализ марсий под названиями: “زاب مه رد مرثیۀ خاناوۀد خویش” (“Снова в марсии по собственным родственникам”), “رد رثاء امام ابوعمر اسعد” (“Марсия в память об Имаме Абу Умаре Асаде”) и “قودتاالحکماء کافی الدین عم خویش رد مرثیۀ” (“Марсия в память о его дяде, вождёе мудрецов Кафии ад–Дине”).

Ключевые слова: *Хакани Ширвани, касида, марсия, композиция.*

Annotation: Khaqani Shirvani was a 12th–century poet who composed works in both Persian and Arabic. In this study, several elegies from the poet’s Divan, published in Tehran in 1997, are examined and analyzed in terms of their thematic depth and compositional structure. The elegies stand out for their high artistic quality and poetic sophistication. The article specifically provides a compositional analysis of the elegies titled “زاب مه رد مرثیۀ خاناوۀد خویش” (“Once Again in Elegy for His Own Family”), “رد رثاء امام ابوعمر اسعد” (“Elegy for Imam Abu Umar As‘ad”), and “قودتاالحکماء کافی الدین عم خویش رد مرثیۀ” (“Elegy for His Uncle, the Chief of the Wise, Kafi al–Din”).

Key words: *Khaqani Shirvani, qasida, elegy, composition.*

Xoqoniy Shirvoniy XII asrda yashagan fors mumtoz adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakili. U fors va arab tillarida ijod etgan o‘ziga xos qalam sohibi. Shoirdan katta adabiy meros qolgan. Ozarbayjonlik olim Xalil Yusifli *“Xoqoniy Shirvoniyning 17 ming baytli lirik she’riy devoni, 60 ta munshooti borligini va ular shoir merosining hammasi emasligini”*[1] ta’kidlaydi. 1997–yil Tehronda nashr etilgan devondan shoirning qasida shaklida yozilgan juda ko‘p marsiyalari o‘rin olgan. Ushbu maqolada ularning kompozitsion xususiyatlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Ma’lumki, “Marsiya – biror kishining vafoti munosabati bilan uning fazilatlarini e’tirof etish, vafotidan afsuslanish mazmunida yoziladigan lirik janr[2]”. Marsiyalarning maxsus shakli bo‘lmaganligi sababli har qanday she’riy janrdan shaklni o‘zlashtirib olaveradi[3]. Ya’ni u g‘azal, qasida, tarkiband, tarjiband va boshqa she’riy shakllarda yoziladi.

Xoqoniy Shirvoniyning qasida shaklida yozilgan marsiyalari badiiyligi bilan diqqatga sazovor. Devonda qasida shaklida yozilgan marsiyalarning kompozitsion jihatdan har ikki turi “qasidai tomda” (8 ta) va “qasidai mujarrada” (9 ta) borligi aniqlanildi.Sh oir marsiyalarni oila a’zolari, farzandi Rashididdin, amakisi Kofiuddin

[1] Xaqani Şirvani. Seçilmiş əsərləri (ön söz X.Yusifli). “Lider Nəşriyyat”. – Boku., 2004. 4–b.
[2] D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T., 2010. 161–b.
[3] R.Imomova. Rauf Parfi she’riyatida marsiya tajribalari.
https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2659/2380

Umar bin Usmon, Shayx ul–Islom Muhammad bin As’ad Tusiy Nishopuriy Shofeiy, Imom Abu Umar As’ad, Imom Shabohiddin, Imom Muhammad bin Yahyo Xurosoniy, Bahouddin Ahmad, Nosiriddin Abulmuzaffar, Vohididdin Shirvoniy va boshqalarga atab yozganligi aniqlanildi.

۱. هتشاد یرای دورپ افو س ب هتشاد یراگزور تحار هب س ب
۲. درک هریت هراک تفایرد دب هشچ هتشاد یراک یور نشور هزرگ
۳. داب دوردب نم نادند و بل زا هتشاد یراب هک تولس نآ ناوخ
۴. هرجال هدرهشیم تلود چنگ هتشاد یرامش یتشگنا ره رد
۵. یتشاد ها یئوگ بل ددخ هتشاد یرآ یوگ رب رد هیرگ
۶. نینچ نای رای و لدیب هدوبن نم هتشاد یراغ رای هه لد
۷. رمع راگدای نآ رای من نآ هتشاد یراگدای نیئآ هب س ب
۸. دوب هدنشن کس هناگیب نم زار هتشاد یرادزار لد انشاک
۹. دوبن هدنا هدنا چیه زا زگره هتشاد یراسگ هدنا ناهج زک
۱۰. ارم یتسیاب هک هدروخ نآ هدنا هتشاد یرایتخا هدنا ردناک
۱۱. وها نادیم رد هک وک لد لد نآ هتشاد یراوس لدلد برط زا
۱۲. دیسر رغ نازخ نآ رخب شیپ هتشاد یرامب لد غاب هب ه
۱۳. تسکش رغ رخیب تخیر هدنا هراب هتشاد یراب و خیب یراب هزرگ
۱۴. تسکش رغ رخیب تخیر هدنا هراب هتشاد یراب و خیب یراب هزرگ
۱۵. دانتف نم رد نم ز شتآ هدب ین هتشاد یرارش لد نوردناک
۱۶. تسخن زک دراد رواب ارم سک هتشاد[4] یراک زاس و زاس راک

iBas vafoli yorim bor edi,
Bas rohatda ruzgorim bor edi.

2. Yomonlarning ko‘zi tegdi ishim qaro bo‘ldi,
Gar shunday bo‘lmasa, yorug‘ yuzligim bor edi.

3. Lab–u durimdan (tish) ayriliq yetsa,
U shodlik dasturxonida borim[5] bor edi.

4. Chorasizlikdan sanar edim davlat xazinasin,
Har barmoqda sanog‘im bor erdi.

5. Lablari kulib turuvchi yoring bor edi,
Yig‘laganda labbay deguvchim bor edi.

6. Men bedil emasdim va bundayin yor,
Ham ko‘nglim, dunyolarga teng yorim bor edi.

7. U yor emas, umr yodgori edi,
Bas (odatga ko‘ra) yodgorim bor edi.

8. Sirimni begona (kishi) eshitmagan edi,
Ki ko‘ngil oshnosi, sirdoshim bor edi.

9. Har giz g‘amdan g‘amim yo‘q edi,
Ki dunyoda g‘amgusorim bor edi.

10. G‘am chekdim, menla qolgin deya,
Ki shunday anduhda ixtiyorim bor edi (mi?)

11. U ko‘ngil ko‘ngli qayerda, g‘aflat maydonidami?
Shodlikdan doldol[6] ulovim bor edi.

12. Baxtimdan oldin g‘am xazoni yetishdi,
Ham ko‘ngil bog‘ida bahorim bor edi.

13. Qayg‘u anduh chekdi, jismim g‘amdan sindi,
Agar qayg‘uli jismim bo‘lmasa, qayg‘uyim bor edi.

14. Nay edim otash mendan menga tushdi,
Botinimda o‘tli ko‘nglim bor edi.

15. Kimsa menga ishonmadi bir qarashda,
Soz ishim va sozkorim bor edi.

16. Men yorsizlikdan o‘zimga qarasam,
O‘ylamaymanki yorim bor edi.

Mazkur qasida shaklida yozilgan marsiyada “شیوخ هدواناخ هئیرثم رد هه زاب – *Yana ham o‘z oila a’zolari marsiyasida”* deb nomlangan. Unda shoir kechinmalarining o‘zgacha badiiy talqinini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu qasida kompozitsion jihatdan to‘liq bo‘lmagan qasidalar sirasiga kiradi, ya’ni unda nasib qism yo‘q. Marsiya 16 baytdan iborat bo‘lib va “*bor edi*” birikmasi radif vazifasida kelgan. Ushbu marsiyada lirik qahramon shoirning o‘zi. Marsiya lirik qahramon monologi asosida qurilgan. Misralar shoirning g‘amgin kayfiyati va holatini yuzaga keltirgan tuyg‘ular silsilasidan iborat va bu syujet oqimini yuzaga keltirgan. Qasidada bir shaxsning foniy dunyodan ko‘z yumganligi tasvirlangan bo‘lsa–da, uning insoniy fazilatlari, ma’naviy–axloqiy xislatlarini eslash orqali shoir hayotida tutgan o‘rni namoyon bo‘lgan. Shoir (*yorim, g‘amgusorim, sirdoshim* va h.k) xislat–fazilatlarni eslash asnosida yorining siyratini kitobxon ko‘z o‘ngida birma–bir gavdalantirgan. Bu orqali marsiyaning mazmun mohiyatini yanada oshirgan.

Xoqoniy Shirvoniy bir necha qasidalarini amakisi Kofiuddin Umar xotirasiga bag‘ishlagan. Ulardan biri “*Olam javharida xurramlik topolmaysan, Odam gavharida insoniylik topolmaysan*” misralari bilan boshlangan. O‘ziga xos kompozitsiyaga ega ushbu qasida 27 baytdan iborat bo‘lib, unda “topolmaysan” radif bo‘lib kelgan. Qasidaning dastlabki 6 bayti nasib bo‘lib, unda shoir bu dunyodan to‘la–to‘kis shod–xurramlik topish dargumonligini, insonlardan insoniylik va odamiylik kutmaslikni tasvirlagan va bu dunyoni g‘amxonaga o‘xshatgan. Qasidaning yettinchi bayti gurezgoh bo‘lib, unda shoir pok niyatli bir kishi vafot etdi, falakda bundan ortiq motam topolmaysan, deya asosiy qismga o‘tadi. Asosiy qismda bu dunyoning bevafoligi, u yerda g‘amdan boshqa narsa ham yo‘qligi baytlarga

[4] خاقانی شروانی. دیوان. – تهران، ۱۳۷۵. – ص. ۲۱۱.
[5] Yuk
[6] Payg‘ambar (s.a.v)ga hadya qilingan ot

solingan. Shundan so‘ng, birdan shoir xayoliga vafot etgan kishi xayoli kelib uni ta’riflashga o‘tadi. Dilimiz qon, jigarimiz biyron bo‘ldi, deya shoir duo bilan qasidani tugatadi. Ushbu qasidada nafaqat Xoqoniy Shirvoniyning, balki Shirvon ahlining shunday olimdan judo bo‘lgan hasrati qalamga olingan[7].

Xoqoniy Shirvoniy bir necha marsiyalarni o‘z davrining Imomlariga atab yozgan. Ulardan biri Imom Abu Umar As’ad xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, qasida “*Piyoda shoh madhin aytadir, Kavkab oy madhin aytidir*” misralari bilan boshlangan. Qasida shaklida yozilgan ushbu marsiya nasibli bo‘lib, u 24 baytdan iborat va o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Shoir qasidani Imom xotirasiga bag‘ishlagan bo‘lsa–da, nasib qismi shohni madh etishdan boshlangan. Ushbu qismda piyoda, shoh, oy–yulduz, Jamshid taxti, chumoli kabi obrazlar tilga kirgan va ular nasibdagi voqealar ketma–ketligini vujudga keltirgan. Shundan so‘ng, shoh madhi va saroy hashamatidan so‘z ochayotgan shoir xayoliga birdan vafot etgan kishi yodi keladi va shu qismdan boshlab nasib gurezgohga ulangan. Qasidaning beshinchi va oltinchi bayti gurezgoh vazifasini bajaradi. Shoir tunda bedor bo‘lgani, yotog‘i u bilan sirlashgani, kimdir uning o‘limidan hamd–u sano aytsa xato aytgani, men uning pokligiga shohidman deya “*jahon imomi furqatidan oh ki, Xoqoniyning joni oh aytadir. To As’ad Umar olamdan ketdi, Ilm ham vo As’ado aytidir” degan* duo bilan qasidani tugatgan[8].

Xulosa qilib aytganda, Xoqoniy Shirvoniy qasida shaklida yozilgan marsiyalari bilan fors adabiyotida marsiya janrining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Shoir marsiyalarini yozishdan maqsad qilib vafot etgan kishini xotirada saqlab qolish bilan birga, davrning illatlarini fosh qilib, o‘z noroziligini xalq ommasiga yetkazgan. Xoqoniy Shirvoniy qasida shaklida yozgan marsiyalari orqali ijodining badiiy qiymati yanada ortgan. Maqolada Imom Abu Umar As’ad, Kofiyiddin Umar ibn Usmon va oila a’zolari xotirasiga yozilgan qasida shaklidagi marsiyalar kompozitsion jihatdan tahlil qilingan.

[7] خاقانی شروانی. دیوان. – تهران، ۱۳۷۵. – ص. ۲۴۸.

[8]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomova R. Rauf Parfi she’riyatida marsiya tajribalari // International scientific–online conference. 2023. https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2659/2380
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T., 2010.
3. Sultonov M. Seçilmiş əsərləri (ön söz X.Yusifli). “Lider Nəşriyyat”. – Boku., 2004.
4. خاقانی شروانی. دیوان. – تهران، ۱۳۷۵.

Ismigul IMOMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e–mail ismigulimomova@gmail.com

ABDURAUF FITRAT DRAMALARIDA FRAZEOLOGIZMLAR – LINGVOPOETIK BIRLIK SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada tilning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri frazeologizmlar o‘rganilgan. Badiiy matnlarda, xususan, dramatik asarlarda iboralarning qo‘llanilish xususiyatlari, dramatik janrlardagi faolligi, individual nutqni, xalqchillik, tabiiylik, estetik ta’sirchanlikni oshiradi. Abdurauf Fitrat dramalarida xalq maqollari va iboralaridan ijodiy foydalanish tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *Fitrat, dramatik asarlar, lingvopoetika, frazeologiya, frazeologik lug‘atlar, xalq maqollari frazeologizm, frazeologik sinonimiya, ibora.*

Аннотация: в данной статье изучаются фразеологизмы, одна из единиц, составляющих словарный состав языка. Рассматриваются особенности использования фразеологизмов в художественных текстах, в частности в драматических произведениях, их активность драматических жанрах, повышение индивидуальности речи, фольклорности, естественности, естетической выразительности. Изучается творческое использование народных пословиц и фраз в драмах Абдурауфа Фитрата.

Ключевые слова: Фитрат, драматических, произведения, лингвопоетика, фразеология, фразеологические словари, народные пословицы, фразеологизм, фразеологическая синонимия, выражение.

Annotation: this article discusses the vocabulary of a language. One of the units studied phraseologisms and the features of the use of phrases in artistic texts, in particular in dramatic works, their activity in dramatic genres, the ability to express individual speech, folklorism, naturalness, aesthetic expressiveness. The creative use of folk proverbs and phrases in Abdurauf Fitrat’s dramas is studied.

Key words: *Fitrat, dramatic, works, linguopoetics, phraseology, phraseological dictionaries, folk proverbs, phraseologism, phraseological synonymy, expression.*

Turkiston jadidchiligining yorqin siymolaridan bo‘lgan Abdurauf Fitratning faoliyati, ayniqsa, badiiy asarlari Buxoro va Turkiston jadidchiligi tarixida sezilarli rol o‘ynaydi. Fitrat o‘z dramalarida, she’rlarida Sharq, xususan, Hindiston xalqining mustamlakachi inglizlarga qarshi kurashi orqali ona Vatan – Turkistonning tuganmas dardlarini ifoda qildi. U tarixiy drama janriga asos soldi. “Abulfayzxon”, “Abo Muslim” kabi dramalarida tarixga yuzlanar ekan, o‘tmishdagi voqelikning mazmun–mohiyatini tarixiy shaxslar obrazi orqali qayta jonlantirgan hamda kerakli xulosalar chiqargan ijodkordir. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il–qizlarimiz amal qilishlarini men juda–juda istardim: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat–hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota–onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq” [1,28].

Til qurilishining lug‘at sathida leksik va frazeologik qatlamlar mavjud. Lug‘at sathidagi frazeologik qatlam (uni o‘rganuvchi soha ham) frazeologiya deb yuritiladi. Ilmiy tadqiqotlarda frazeologiyaning hajmini keng va tor tushunish kuzatiladi. Keng tushunishda frazeologiya doirasiga, so‘zlarning turg‘un birikmalaridan tashqari, maqol, matal, aforizm ham mansub, deb qaraladi. Frazeologiya sifatida so‘zlarning semantik bog‘lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini – so‘zlarning turg‘un birikmalarini – til birligi, deb baholash mumkin. Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalar frazeologizm (frazeologik birikma)lardir. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1.Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.

2. Ma’no yaxlitligi.

3.Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Frazeologik birikmalardan o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchanligini ta’minlaydi [3,7]. O‘zbek tilining qo‘llanishida frazeologizmlar, ya’ni iboralar juda ham katta rol o‘ynaydi. Kishilarning nutq jarayonida turli frazeologizmlar qo‘llashi uning badiiy kitoblarni ko‘p mutolaa qilishidan dalolat beradi. Ayni vaqtda esa tilimiz o‘zida ko‘plab iboralarni jam qilganligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi..

Fitrat o‘zining dramalarida ibora va maqollardan unumli foydalanib, asarning yanada ifodaliligini oshirgan. Masalan, “Abulfayzxon” dramasida Ulfatning nutqida: **Yomonning bir qilig‘i ortiq!** maqoli qo‘llanilib, yomon odamning ozgina harakati ham ortiqchalik qilishi xonga nisbatan aytilgan. Bundan tashqari asarda yozuvchi sinonim iboralarni ham q‘llagan. Xon. Bas!.. Yegan tuzlar ko‘r etsun uni… Kimni tuproqdan ko‘tarib, kursiga chiqarsak, tezgina **boshimizga chiqmoqchi** bo‘ladi.[6,182]. Ushbu iboraning ma’nosi erkalatgan sayin boshimga chiqadi, ya’ni haddidan oshadi degan ma’noda kelgan. Ma’nodoshlik hodisasi ibora uchun ham xos. Shaklan har xil iboralarning bir–biriga yaqin ma’nolarni anglatib kelishi sinonim iboralarni hosil qiladi [3,15] Boshiga chiqmoq iborasining sinonimi: boshga minmoqdir. Qozi Nizom. Hazratim **karomat ko‘rsatdilar.** Karomat ko‘rsatmoq kim? Ajablanadigan yoki qoyil qoladigan ish qilmoq ma’nosini bildiradi. Iboralarning ayrimlari ma’noni ixchamlashtirish (lakonizatsiyalash) xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan, Fitratning *“Shaytonning tangriga isyoni”* she’riy dramasida qo‘llangan iboralarga doir olib borilgan kuzatishlar ham to‘la tasdiqlaydi.

Ulug‘lig‘ing, qodirlig‘ing, ilmingdan, Ko‘rarliging, odilliging, hilmingdan, Og‘iz ochdim, ***ko‘z yumdim***–da, gapurdim.

Ushbu dramada ko‘z yummoq iborasi ko‘ra–bila turib, e’tiborsiz qoldirmoq ma’nosida kelgan. Badiiy nutqda, ayniqsa, she’riy dramalarda qo‘shma iboralar konkret, ko‘rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs, predmet, voqea–hodisaning obrazli ifodasi bo‘lib keladi.

Biroq bukun… mana senga so‘zim:
U gaplarga ishonmadim men o‘zim!
Tilim qachon sening uchun sayrasa,
Yuragimni qitiqlaydir bir narsa![6.221]

Yuragini qitiqlamoq – rohatbaxsh etadigan shirin his–tuyg‘ular uyg‘otmoq ma’nosida kelib, bu iboraning kuchli ohang bilan talaffuz qilinishiyoq undagi emotsionallikning kuchliligidan dalolat beradi. Dramatik matnlarda ham emotsionallik kuchli bo‘ladi. O‘zbek tilidagi ko‘pgina iboralarning ekspressiv–emotsional bo‘yoqdorligi ajralmas xususiyati sanaladi. Umuman, baho funksiyali iboralar dramatik matnlarda, jumladan, Fitrat ijodida xarakterlovchi vositalardan biri hisoblanadi. Ular yordamida turli voqea–hodisalarga, predmetlarga bo‘lgan lirik qahramon munosabati ifodalanadi. So‘zga teng kelgan frazeologik iboralarga morfologik jihatdan qaraganda, bunday iboralardan kelib chiqadigan ko‘chma ma’no fe’l, sifat, ot va ravish so‘z turkumlariga teng kelishi mumkin. Fitrat dramalarida ham bunday holatlarni juda ko‘p uchratamiz. “Abulfayzxon” dramasida ham ojiz qolgan xon noiloj qolgan vaziyatda Ulfat tomonidan quyidagi ibora qo‘llanilgan: Xon: Bolalarni nima qilayin? Ulfat: Vaqtimiz oz qolg‘an. Yuringiz, tez qochayliq. Bir **baloga yo‘liqmayluk**. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu iboraning ma’nosi ko‘ngilsizlikka uchramaslik, sinonimi baloga uchramasin degan ma’noda keladi. Baloga yo‘liqmayluk – frazemasi asli baloga leksemashaklining yo‘liqmoq – leksemasiga tobelanishi bilan tuzilgan to‘ldiruvchili birikmaga teng. Dramada tarixiy iboralar ham juda faol: Nodirshoh: Men Buxorog‘a taxt olg‘ali kelmadim. Sizning elingiz ham turklar bo‘lg‘ani uchun, siz menim qarindoshlarim erursiz. Men bu yerga bir qarindosh o‘lkaga qo‘noq bo‘lib keldim. Nodirshoh tilidan aytilgan taxt olg‘ali keldim iborasi asl ma’nosida emas, balkim taxtga o‘tirib podshoh bo‘laman degan fikrda aytilgan. Ushbu frazeologik ibora ham to‘ldiruvchili birikmaga teng. *Nodirshoh: Ibrohim otaliq degan kishi Buxorodan Samarkentga qochib, unda kuch to‘plab, Buxorog‘a necha yurishlar qilg‘an. Buxoroni yomon chopg‘an ekan, bu xabar to‘g‘rimi?* Xabar chopmoq iborasi ishlatilgan bu tarixiy dramada o‘z nomida emas, balki ko‘chma ma’noda xabar, ya’ni yomon xabarlar tarqalishi natijasida Buxoroni vayron etganligi nazarda tutilgan. *Rahimbiy. Otaliqni siz qo‘noq qilingiz. Bu kishiga yaxshi qarashib, hurmat ko‘rsatingiz. Siz sardorlarni kelturingiz. Men Eron sardorlarini chaqirdim. Eron qo‘shini Buxoroda qola bersa, yaxshi bo‘lmaydir. Buxorodan chiqib ketishlarini taklif qilaman.* Qo‘noq so‘zi tarixiy so‘z bo‘lib, biror joyga, biror kimsaning uyiga qo‘ngan, tushgan yo‘lovchi, sayyoh; mehmon degan ma’nolarni bildiradi. Ushbu matnda qo‘noq qilmoq iborasi mehmon qilmoq ma’nosida kelgan. Rahim To‘qsoba nutqida ko‘kka uchurmoq iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, ya’ni vayron qilmoq, barbod etmoq ma’nosida kelgan. *O‘lkangiz menga kerak emas. Xoningiz, el–ulusingiz meni do‘stlarcha qarshu olsalar, to‘rt–besh kun turub qaytib ketarman. Yomonliq, dushmanliq ko‘rsatsalar,*

kullarini ko‘kka uchurarman, dedilar. Qozi Nizom: “Molimizni, jonimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarinda ***qurbon qilmoq*** *hammamizg‘a lozimdir. Shuni qilmag‘anda, sultonimizning chin qullari bo‘la olmaymiz. Siz shuncha kundan beri bittagina qizingizni tortuq qilmay turasiz”, dedim. Otaliq bu s‘zni eshitg‘ach, yomon qizidilar. “Xong‘a yaxshi ko‘runmak uchun qiz* ***qurbon qilg‘uchilar*** *ko‘b, shunlarning qizlarini oldira beringiz”, dedilar.* Qurbon qilmoq – tortiq qilmoq, ya’ni xonga yaxshi ko‘rinishlari uchun qizlarini tuhfa qilishgan tarixda. Frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlar boshqa oddiy birikmadagi so‘zlarga shaklan o‘xshab qolishi mumkin: *Xonga yaxshi ko‘rinish uchun qiz* ***qurbon qildi.*** *– Hayit bayramiga qo‘yni* ***qurbon qildi.*** *Xonning* ***qo‘li uzun****, bu ishlarni uddalaydi. – Basketbolchining* ***qo‘li uzun*** *edi.*Frazeologizmlar ixcham, ma’no jihatdan salmoqli til birligi bo‘lib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf–odatlar rivoj topib borayotgan davrda so‘zlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Frazeologik birliklarning umumiy ma’nosi ikki komponentdan iborat: ekspressiv baho bo‘yog‘i hamda funksional uslubiy bo‘yoq.Yirik frazeolog olim A.V. Kuninning fikricha, frazeologizmlar nominativ, stilistik, kommunikativ, pragmatik va xulosalovchi, yakunlovchi vazifalarni bajaradi [8,37].

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Fitrat dramalarida frazeologik birliklar faol qo‘llanilgan va ular yagona ko‘chma ma’no bilan birlashadi va emotsional–ekspressivlik hamda obrazlilikni ifodalaydi. Frazeologizmlar ko‘chma ma’noda, obrazli ifodalarda qo‘llaniladi. Ularning tarixiy qo‘llanish me’yorlari, usullari muayyan nutq jarayonida oydinlashadi, chunki ular to‘liq yoki qisman ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalaridir. Bundan tashqari, adib dramalaridagi frazeologik birliklarda xalqning urf–odati, madaniyati, yashash tarzi, o‘ziga xos an’analari va milliy mentaliteti o‘z aksini topadi. Frazeologik birliklar shakli va ma’no munosabatiga, etimologiyasiga, zamonaviyligiga va nutq uslublariga asoslanib farqlanadi. Ulardagi polisemiya serqirra ma’nolarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Dramatik asarlarda frazeologik birliklar asarning ta’sirchanligini oshirishda, ularda milliy mentalitetni shakllantirishiga xos xususiyatlar ifodalangan bo‘ladi. So‘z san’atkori o‘z asarlarining ta’sirchanligini, obrazliligini oshirish maqsadida frazeologik birliklardan keng foydalanadi. “Abulfayzxon” dramasida aynan eskirgan frazeologik birliklardan unumli foydalanilgan, tasvirlanayotgan davr ruhini berish, personajlar nutqini individuallashtirishda ishlatiladi. Dramatik asarlarda frazeologik birliklar badiiy asarga qaraganda yaqqol ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017–yil.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент, 1966.
3. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn]: lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2022. 636–bet.
4. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал–услубий хусусиятлари. –Тошкент, 1993.
5. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. –Тошкент, 1999.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2006.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar 1–jild – Toshkent: Ma’naviyat, 2000–yil.
8. Кунин А.В. Курс современного английского языка. – М., 1986. 146–с.



Odil YOQUBOV,
Xorazm viloyati Urganch shahri
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
mustaqil tadqiqotchisi
E–mail. yoqubovodilbek@gmail.com

OYBEK HIS QILGAN NAFOSAT

Annotatsiya: ushbu maqolada Oybek she’riyati tahlil etilgan. Unda Oybekning ayrim she’rlari misolida tuyg‘u va kechinma ifodasida ijodkorning o‘ziga xosligi, poetik mahorati, shoir lirik “men”i tabiati haqida fikr–mulohazalar ilgari surilgan.

Shoirning “Chimyon daftari” turkumini tashkil etgan “Na’matak”, “Tog‘ sayri”, “O‘n ikki buloq” singari she’rlaridagi tuyg‘u va kechinma ifodasi kuzatiladi. Muallif ushbu she’rlar tahlili asosida shoir lirik qahramoni, ya’ni shoir real “men”i asosida yaratilgan “men” bo‘lib, tasavvurdagi shaxsdir, degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: *ijodiy niyat, kechinma, she’riy ifoda, obraz, lirik qahramon, talqin, falsafiy umumlashtirish, optimizm.*

Аннотация: в данной статье анализируется поэзия Айбека. На основе некоторых стихотворений Айбека высказываются мнения об оригинальности творца в выражении чувств и переживаний, его поэтическом мастерстве, характере лирического “Я” поэта.

Выражение чувств и переживаний можно наблюдать в таких стихотворениях поэта, как “Наъматак”, “Тоғ сайри” (“Горная прогулка”,), “Ун икки булоқ” (“Двенадцать булаков”), составляющих цикл “Чимён дафтари” (“Чимганская тетрадь”). На основе анализа этих стихотворений автор приходит к выводу, что поэт – лирический герой, то есть поэт – это “Я”, созданное на основе реального “Я”, и является воображаемым человеком.

Ключевые слова: творческий замысел, опыт, поэтическое выражение, образ, лирический герой, интерпретация, философское обобщение, оптимизм.

Annotation: *this article analyses Oybek’s poetry. On the basis of some of Oybek’s poems, opinions are expressed on the originality of the creator in expressing feelings and experiences, his poetic skills, and the nature of the poet’s lyrical “I”.*

The expression of feelings and experiences can be observed in the poems of the poet such as “Na’matak”, “Tog‘ sayri” , “O‘n ikki buloq”, which make up the “Chimyon Daftari” series. Based on the analysis of these poems, the author concludes that the poet is a lyrical hero, that is, the poet is an “I” created on the basis of the real “I” and is an imaginary person.

Key words: *creative intention, experience, poetic expression, image, lyrical hero, interpretation, philosophical generalization, optimism.*

XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek o‘z xalqi uchun noyob iste’dodi va butun hayotini bag‘ishlagan buyuk insonlardan biridir. Oybek iste’dodli yozuvchi, mohir tarjimon, ulkan adabiyotshunos, zabardast shoir sifatida o‘zidan kattagina adabiy meros qoldirgan. Shubhasiz, uning ijodida lirik she’riyat alohida o‘rin tutadi.

Aflotun ta’kidlashicha, poeziya (badiiy adabiyot O.Y.) ning lirik turi “to‘laligicha shoirning aytganlaridan iborat” [Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. 2010. 152] dir. Darhaqiqat, lirikada voqelik lirik subyekt his–tuyg‘ulari orqali akslanadi va uning uchun nutq subyekti birlamchidir.

Abdurauf Fitrat: “She’rda kishilarning qonini qaynatguchi, singirlari (asab tolalari O.Yo.)ni o‘ynatg‘uchi, miyasini titratkuchi, sezgusini qo‘zg‘atg‘uchi bir kuch, ma’naviy bir kuch bor. *Shunday bir kuchi bo‘lmag‘an so‘z vazn va qofiyasi bo‘lsun she’r bo‘la olmaydur”* [Abdurauf Fitrat. 2000.6], – deb yozadi.

Ko‘rinadiki, Fitrat she’rning san’at asari sifatida ko‘ngil va fikrga ta’sirini yoqlaydi. Uning buyuk ma’naviy–ruhiy qudratini e’tirof etadi.

Oybek lirik merosida ham inson qalbi va ruhiy olamiga ta’sir etuvchi bebaho nazm namunalari anchagina. Shoirning “Chimyon daftari” [Oybek. 1975] turkumini tashkil etgan ash’orlarida samimiyatga yo‘g‘rilgan holat–kechinmalar moddiylashadi. Ularda XX asrning 20–yillari ikkinchi yarmidayoq cho‘lponona nafis tuyg‘ular ingichkaligi, insonparvarlik pafosidan o‘zlashtirilgan adabiy tajribalar yanada yarqirab ko‘rinadigina emas, balki pushkinona dilbarlik bilan

payvastalashadi. Bu esa Oybek qalb prizmasida sayqal topadi.

Binobarin, Oybek tiynatidagi lirik ohanglar–u ona tabiatga oshuftalik, Chimyon tog‘larining firdavsmonand etaklariga xos go‘zallikdan tuyilgan bokira hislar, hassos kechinmalar asosida tug‘ilgan qaynoq ilhom onlari bilan ham bog‘liq. Zotan, Oybek charchagan kezlarida tabiatning sokin go‘shalarida sayr qilib, tabiat bilan tillashish orqali o‘sha davr qurilishlari ruhi bilan to‘yingan ijtimoiy lirikadan qo‘l uzish, chin poeziya cho‘qqilari sari yuksalish imkoniga ega bo‘ldi. U lirik she’r, insoniy tuyg‘u–kechinma va manzaralar yaratish san’atini mukammal egalladi.

Oybekning “Na’matak” she’ri 1936–yilning 31–iyulida yozilgan. Shu yili ilk marotaba “Guliston” jurnalining 1936–yil 7–8–sonida, so‘ngra, “Quyosh qo‘shig‘i”, “Tanlangan asarlar” (1–tom), “She’rlar”, “Ko‘ngil kuylari”, “Asarlar” (1–tom), “Mukammal asarlar to‘plami” (2–tom) larda e’lon qilingan.

Oybek lirikada fikr, tuyg‘u va his bilan uyg‘un bo‘lgan yuksaklikni ko‘radi. Bu haqda u: “Ko‘pgina kishilar lirikani faqat tuyg‘u va hisdan iborat deb o‘ylaydilar, bu tamomila noto‘g‘ri... qarashdir. Haqiqatda, fikriy mazmun ila bog‘lanmagan “mustaqil” tuyg‘u, his yo‘qdir. Shoir lirikaga fikr va tuyg‘ularini shunday biriktiradiki, natijada lirik yuksaklik vujudga keladi” [Oybek. 1975. 21], – deb yozadi.

“Na’matak” ning g‘oyaviy–badiiy xususiyatlari, poetik o‘ziga xosligi, lirik qahramoniga xos xususiyatlar kitobxonni befarq qoldirmaydi. Oybek Chimyon etaklarida kezarkan, olis qoyalardan birini teshib, ko‘kka bo‘y cho‘zgan na’matakni ko‘rib qoladi. Zohiran qaralganda, oddiy va kundalik hodisaday tuyuluvchi mazkur manzara Oybek tuyg‘ularini muvozanatdan chiqarib, ko‘nglini larzaga keltiradi. Chunki ra’noning bir turi bo‘lgan na’matak toshlar bag‘rini teshib, ko‘kka – Quyoshga bo‘y cho‘zgan edi. Shoir uning bu harakatida yashashga bo‘lgan kuchli intilishni ko‘radi. O‘simliklar olamidagi nurga talpinish, oftobga chanqoqlik Oybekka yashash mo‘jizasi bo‘lib tuyuladi.

Tog‘ shamoli belanchagida tebranib, “bir savat oq gul”larini quyoshga uzatgan na’matakni shoir nainki mo‘jiza, balki mehnat va ijod tantanasi yanglig‘ qabul qiladi. Yuksak qoya labida ungan bir tupgina na’matak chayqalishidagi nafislik, mayin raqsiga xos fusunkorlik, yuzidagi yorqin tabassum, yonoqlaridagi ranginlik, nozik tabassumiga xos ma’sumlik shoirni maftun etadi. Unda yashash, olam go‘zalligidan bahramand bo‘lish, mehnat va ijod zavqini oshiradi.

Zotan, gulda hayot mantig‘ida mujassam ajib ziddiyat aks etgan edi. Bu mantiqqa ko‘ra qoyalar har qancha vahshiy bo‘lmasin, ayni paytda ular ijodkor ham ekan. Chunki gul – qoyaning ijodi. Na’matak o‘z ildizlari bilan toshga bog‘langan. Shunga qaramasdan, gul na qoyalar viqori, na ularning o‘shshaygan basharasi, na toshlar vahshatini pisand etmay yuksaklikka talpinadi. Hatto o‘sha manzaraga ham inja fusunkorlik baxshida etadi. Shu bois ham erkin shamollar uni allalaydi, injular sepadi. Kumush qorlar esa poyida yum–yum ko‘z yosh to‘kadi.

Demak “Na’matak” she’ri bir jihatdan moddiy dunyo manzarasini, ikkinchi jihatdan esa, Oybek botiniy olamini ham ifoda etadi. Vahshat – darddan gul undirgan na’matak qaysidir ma’noda, shafqatsiz dunyo bag‘rida tug‘ilib qiynalgan, davr to‘fonlariga bardosh berib, insoniyatga nafosat iforlarini ulashgan shoirga mengzaydi. Xullas, tabiat bilan hayratomuz uchrashuv bu umrboqiy she’rning yaralishiga turtki beradi.

Adabiyotshunos I.Yaqubov badiiy adabiyotning inson ruhiyatiga ta’siri masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi [Islamjon Yakubov. 2021. 23–36]. Oybekning “Tog‘ sayri” deb atalgan she’ri ham “Chimyon daftari” turkumidan bo‘lib, shoirning “Quyosh qo‘shig‘i”, “Tanlangan asarlar” (1–tom), “Ko‘ngil kuylari”, “Asarlar” (1–tom), “Mukammal asarlar to‘plami” (2–tom) larda e’lon qilingan [Oybek. 1975. 32]. She’rda tasvirlangan shoir axtarib topgan *“O‘n ikki buloq”* aslida real mavjud bo‘lib, Chimyondagi buloqning nomidir. Unday bo‘lsa, asarda kitobxon tushunishi qiyin bo‘lgan: “Men Ippokrenani ham unutdim hozir, Afsona tomiridan oqaversin u” misralari nimani anglatadi?

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bu qadimgi Yunonistonning Beoteya viloyatida joylashgan Gelikon degan tog‘ cho‘qqisidagi chashma nomidir. Rivoyatlarga ko‘ra osmon sferasining shimoliy yarimsharidagi eng yorug‘ Pegas yulduzlar turkumida yashovchi afsonaviy ot tuyog‘ining tegishi bilan paydo bo‘lgan mazkur chashma shoirlarga ilhom bag‘ishlash qudratiga ega bo‘lgan.

Bu she’rning ilk nomi “Tog‘ kezindisi” shaklida bo‘lgan. Binobarin, u shoirning Chimyon tog‘larida kezgan davri oniy taassurotlari mevasi. Keyinchalik uning “Tog‘ sayri” shaklida atalishi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Jo‘n yo‘lovchi uchun “O‘n ikki buloq” ni ko‘rmoq va uning suvidan chanqovni bosmoqning o‘zi yetarli. Oybek ham o‘sha buloqni uzoq axtargan va nihoyat topgan, undan o‘z chanqog‘ini qondirgan. Biroq she’riy asar yaralishi uchun hodisani shunchaki qayd qilishgina kifoya emas.

Zotan, o‘z poyida yastangan tabiat in’omiga xos go‘zallikka bo‘lgan muhabbat tufayli shoir ko‘nglida qo‘zg‘algan nogahoniy po‘rtanalar nozik ifodalar–la poetik misralarga ko‘chadi. Emotsional to‘yingan misralar, muayyan ritmik tartibga tiziladi va shunga muvofiq jarang topadi. Demak, biz ham she’rda tasvirlangan voqelikdagi subyekt his–tuyg‘ulariga diqqat qaratmog‘imiz lozim. Bu subyekt muallifning aynan o‘zi bo‘lmay, uning qalb kechinmalari, o‘y–tuyg‘ularini ifodalash shakli – lirik qahramoni, ya’ni shoir real “men”i asosida yaratilgan “men” bo‘lib, tasavvur qilinadigan shaxsdir. Ayni paytda, u shoirdan mutlaqo boshqa hodisa ham emas. Shu bois ham lirik qahramon shoir shaxsi bilan bog‘liqlikda idrok etiladi.

Adabiyotshunos T.Matyoqubova tadqiqotlarida ham lirik asarning inson qalbiga ta'siri, unda ijodkor "men"i ifodasiga alohida to'xtalib o'tilgan [Matyakubova T. R. , 2012, 24–39].

O'n ikki buloq bilan yuzlashar ekan, bu go'shadagi go'zallik shoir qalbiga she'r bo'lib quyiladi. Chunki uning ko'ksi mislsiz hayrat tuyadi. O'z holat– kechinmalarini: "Ko'ksimga naq o'n ikki bahor yugurdi" yoxud "Ko'zlarim hiyla zamon adashib qoldi", – deya manzaralantiradi shoir. Darhaqiqat, buloq suvining shivirlari, kumushday tovlanishlari, toshib qaynashlari lirik qahramonga bahoriy bir kayfiyat – sevinch ulashadi. Axir xalqimizning: "G'amgin bo'lsang suv bo'yiga bor", – deya da'vat etishi bejiz emas. Illo, suv abadiyat timsoli o'laroq, bizning ko'ksimizga jo'shqinlik, ruhimizga porloqlik ulashish qudratiga ega. Shu ma'noda Oybek tasvirlagan ushbu manzara har qanday o'rtangan dilni ham erkalashiga ishtiboh bo'lmasa kerak:

Nurlarda xalqachalar oqar, jimirlar,
Toshlarda sinar mayin tabassumlari.
Oltin ipga chizilar jonli injular,
Bo'sadan ham shirindir, ich, yutumlari!

Quyosh nurlarida tovlanib jimirlayotgan suv halqalarining toshlarga urilib "sinishida" o'ziga xos "mayin tabassum" tuymoq, tomchilarni injularga mengzamoq, muzday buloq suvining yor bo'sasidan–da lazzatli ekanligini his etmoq uchun inson xayol ufqlari g'oyatda keng, poetik sezimlari esa nihoyasiz ingichka bo'lmog'i lozim.

Shubhasiz, yuqoridagi quyma misralarni o'qigan kitobxon bu maftunkor go'zallik qarshisidan befarq o'ta olmaydi. Zotan, u endi shunchaki yo'lovchilikdan yuksaladi. Buloq suvlariga lablari to'qinar ekan, uning yaltiroq mavjlarini xotirasiga abadiy muhrlaydi. Ehtimol, o'shanda u Oybek tuygan oniy lahzalarni ham kechinar.

Asrga tengdosh yong'oq barglarini varaqlagan abadiy shamol chashmalarga muhabbat izhor etishdan charchamaydi. Yaproqlar shiviri ko'k gumbazi sari yuksalib, yuraklarda aks–sado beradi. Butun borliq mo'jizaviy uyg'unlik kasb etadi.

Aslida, shoirning niyati ham o'quvchilar xayolot olamini yanada kengaytirmoq, badiiy didini esa nafislashtirmoqdir.

Darhaqiqat, sohir qalam sohibi va xassos shoir Oybek she'riyati tuyg'ular samimiyati va ranglar yorqinligi bilan e'tiborga molikdir. Undagi hayratni his qilish – badiiy nafosat didimizni yanada yuksaltirishga xizmat qilishi, shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. 2006. Tanlangan asarlar. J.4. – T.: Ma'naviyat, 336–bet.
2. Islamjon Yakubov. 2017. Transformatsiya esteticheskix vzglyadov i sovremennыy uzbekskiy roman // Theoretical & Applied Science. №12. Pp. 120–125.
3. Oybek. 1975. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'qqiz tomlik. T.2. – T.: Fan, 472–bet.
4. Oybek. 1979. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'qqiz tomlik. T.14. – T.: Fan, 480–bet.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. 2010. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: "Akademnashr", 400–bet.
6. Tozagul Matyokubova, Islamjon Yakubov. 2020. Laboratory works of gafur gulam: poetic image and imagery // International jornal of Advanced Science and Technology. № 6. Pp. 28–37.
7. Матёкубова T. 2024. G'afur G'ulom she'riyatining poetik jozibasi (Shoirning "Kuzatish" va "Sog'inish" she'rlari tahlili misolida) // Узбекистан: язык и культура. № 2. 88– 98–betlar.
8. Yokubova S.I. 2022. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, № 3. 42– 54–betlar.
9. Yokubova S.I. 2023. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germenevtik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, № 3. 79–90–betlar.
10. https://www.scitepress.org/PublicationsDetail.aspx?ID=WfXHUzx4B7A=&t=1
11. https://www.scitepress.org/PublicationsDetail.aspx?ID=MGA06WOCRdw=&t=1

Gulshan SHERNAZAROVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi

“HUSN-U DIL” DOSTONI LEKSIKASINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX asrning yirik adiblaridan biri bo‘lgan Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Nishotiy tomonidan yaratilgan “Husn-u Dil” dostoni leksikasining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qo‘llanilgan leksik birliklarning badiiy-estetik qiymati, ularning ma’no qatlamlari, obraz yaratishdagi roli hamda poetik funksiyasi chuqur o‘rganiladi. Dostonning leksik tarkibi orqali muallifning dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari va o‘zbek mumtoz adabiyotidagi an’anaviy poetik vositalardan foydalanish mahorati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Nishotiy, “Husn-u Dil”, lingvopoetika, leksik tahlil, badiiy til, metafora, sinonim, mumtoz adabiyot, tasviriy vosita, poetik leksika, arabiy-forsiy so‘zlar.

Аннотация: в данной статье анализируются лексические особенности лексики поэмы «Хусн-у Дил», созданной одним из крупных писателей XIX века Мухаммадом Ризо Эрниёзбек огли Нишотий. Глубоко исследуются художественно-эстетическая ценность использованных лексических единиц, их смысловые слои, роль в создании образов и поэтическая функция. Через лексический состав поэмы раскрываются мировоззрение автора, его морально-эстетические взгляды и мастерство использования традиционных поэтических средств в узбекской классической литературе.

Ключевые слова: Нишотий, “Хусн-у Дил’’, лингвопоэтика, лексический анализ, художественный язык, метафора, синоним, классическая литература, образные средства, поэтическая лексика, арабские и персидские слова.

Annotation: this article analyzes the linguistic and poetic characteristics of the lexicon of the epic “Husn-u Dil’’ created by Muhammad Rizo Erniyozbek og‘li Nishotiy, one of the prominent writers of the 19th century. The artistic-aesthetic value of the lexical units used in the work, their layers of meaning, their role in creating images, and their poetic functions are examined in depth. Through the lexical composition of the epic, the author’s worldview, moral-aesthetic views, and mastery of using traditional poetic devices in Uzbek classical literature are revealed.

Key words: Nishotiy, “Husn-u Dil”, linguopoetics, lexical analysis, artistic language, metaphor, synonym, classical literature, descriptive device, poetic lexicon, Arabic-Persian words.

Nishotiy XVIII asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan atoqli adiblardan biri sanaladi. U Xorazm adabiy muhitining eng samarali vakillaridan biri sifatida tanilgan. Uning nomi va ijodi haqida ma’lumotlar ilk bor XX asrning 60-yillarida aniqlangan. Nishotiy ijodi orqali biz uni nafaqat lirik she’riyat ustasi, balki doston yozuvchisi hamda masal va munozaraviy asarlar muallifi sifatida ham ko‘ra olamiz. Ayniqsa, uning “Husnu dil” dostoni Navoiydan keyingi epik adabiyotning yorqin va betakror namunalaridan biri hisoblanadi. Nishotiy o‘zining shu asari muqaddimasida Xorazm diyorida tavallud topib, madrasa tahsilidan so‘ng qozi va a’lamlik lavozimlarida ishlaganligini, Xorazmda notinch yillar boshlanib, yashash va ijod qilish qiyinlashib ketganligidan ko‘ngliga yaqin bir mansabdor do‘stining maslahati va ko‘magi bilan Buxoroga ko‘chib kelganligi va o‘z dostonini shu yerda yozganligi haqida so‘z yuritadi:

Bor edi Xorazm diyori yerim,
Ondin edi yaxshi-yomon guharim…
Charxi duni nogoh o‘lub badmijoz,
Dun elig‘a berdi namolu rivoj.
Xullas, o‘lub mulki vatandin judo,
Soldum O‘zum g‘urbati shiddat aro.
Toki Buxoro sari qo‘ydim qadam,
Oh, bu xoriy aro bo‘ldim adam.
Garchi erur manzili dilkash base,
Lek musofirg‘a emas xush base…

Bugungi kungacha bizga Nishotiyning lirika yo‘nalishidagi she’rlari, “Qushlar munozarasi” nomli asari hamda “Husnu dil” dostoni yetib kelgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti xazinasida Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Nishotiy (XIX asr) tomonidan yaratilgan “Husnu Dil” dostoni o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ushbu doston nafaqat badiiy jihatdan yuksak qiymatga ega, balki undagi til vositalari, boy leksik qatlam va badiiy tasvirlar orqali o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada doston leksikasi lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilinadi va unda ishlatilgan til birliklarining estetik hamda semantik xususiyatlari ochib beriladi [1: 12;18].

“Husnu Dil” dostoni Husn va Dil nomli obrazlar orqali muhabbat, axloqiy poklik, insoniy yetuklik va ruhiy kamolotni targ‘ib etadi. Asar mumtoz adabiyotimiz an’analariga tayangan holda, aniq kompozitsion qurilish, silliq syujet va aniqlik bilan yaratilgan obrazlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Nishotiyning adabiy merosi “Husnu Dil” dostoni, “Qushlar munozarasi” manzumasi va 1500 misradan iborat lirik she’rlar — 38 ta g‘azal, 14 muxammas, 1 qasida va musaddasdan iborat to‘plamni qamrab oladi. Uning lirik asarlari, asosan, dunyoviy muhabbat mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda shoirning ichki kechinmalari, davr haqidagi mushohadalari, sadoqat, go‘zallik, vafo va nafosat kabi tushunchalar yuksak badiiy ifoda bilan tasvirlangan. O‘zbek adabiyoti tarixida Nishotiy taxallusi bilan tanilgan, o‘z asarlarini o‘zbek tilida

yozgan Xorazm adabiy muhitining vakili Muhammad Niyoz Nishotiy o‘z zamonasining yetuk va ilhomli shoirlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shoir asarni o‘zining ustozi deb bilgan Alisher Navoiyning so‘z haqidagi hikmatli so‘zlaridan boshlaydilar.

Zero, so‘z inson kamolotini belgilaydi.
So‘zdin erur borchasig‘a toru pud,
Xoh odam bo‘lsuni xohi vujud.
So‘zdin erur har tanaro jon dog‘i,
Jon demayin gavhari iymon dog‘i.
So‘z biladur kufr ila islom aro,
Farq bil inson bila an’om aro.
Har kishikim kufrig‘adur mu’tari,
O‘z tilidin kufrg‘adur muttasif.

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos iste’dod egasi bo‘lgan Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asrning ijtimoiy-tarixiy manzarasini o‘zining mashhur she’riy asari — «Husnu Dil» dostoni orqali yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Shoir ushbu asarida jamiyatdagi ayrim ijtimoiy tabaqalarga xos bo‘lgan illatlarni — o‘zini ulug‘lash, maqtanchoqlik, johillik kabi salbiy fazilatlarni keskin tanqid ostiga oladi. “Husnu Dil” dostonining aniqlanishi o‘zbek adabiy merosini yangi, boy sahifalar bilan to‘ldirgan hodisa sifatida baholanadi [3: 234;238].

Asarning leksik tarkibi nihoyatda keng va rang-barang bo‘lib, unda turkiy, arabiy va forsiy so‘zlar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llangan. Doston tili o‘z davrining adabiy til me’yorlariga mos bo‘lsa-da, zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, murakkab leksik qatlamlar mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, sinonim so‘zlar keng qo‘llanilgan bo‘lib, bu holat, bir tomondan, poetik ifodaning boyligini ta’minlasa, boshqa tomondan, asarning estetik ta’sir kuchini oshiradi. Masalan, “yuz” ma’nosini ifodalashda “jamol”, “chehra”, “basar”; “ko‘z” ma’nosida esa “nigoh”, “dida”, “chashm” kabi turli sinonimlar ishlatilgan. Bunday sinonimik boylik nozik semantik farqlarning ifodalanishiga imkon yaratadi.

Nishotiy dostonda xalq og‘zaki ijodi an’analaridan ham samarali foydalangan. Dostonning boshlanishida xalq dostonlariga xos bo‘lgan farzandsizlik motifi, uning davomida esa mo‘jizaviy sarguzashtlar, Raqib dev, sehrli holatlar, odatdagidan farqli g‘ayritabiiy voqealar — masalan, insonning og‘ziga dur solinsa, ko‘zga ko‘rinmay qolishi, qanotsiz uchish, nihoyat esa tantanali bayram bilan yakunlanishi folklor an’analariga asoslanganini ko‘rsatadi.

Dostonda Fuod (ya’ni Dil) obrazi ilohiy ishqqa berilgan oshiq sifatida gavdalantiriladi. Bu yerda tasvirlangan muhabbat faqatgina dunyoviy ma’noda emas, balki ilohiy muhabbat – Ollohga bo‘lgan cheksiz muhabbat sifatida talqin etiladi. Husn obrazi esa sadoqatli, fidoyi yor sifatida tasvirlanadi. Asarda visolga erishish mehnat va mashaqqat evaziga bo‘lishi kerak degan g‘oya ilgari suriladi. Bu jihatdan Navoiy an’analariga sodiq qolgan Nishotiy, o‘z asarida ham haqiqiy ishq manziligacha yetishish sabr, iztirob va fidokorlik orqali mumkinligini ramziy obrazlar orqali yoritib beradi.

Metafora dostonda asosiy badiiy vosita sifatida xizmat qilgan. “Ko‘z yoshi” obrazining “daryo” bilan, “ko‘ngil”ning “o‘choq” bilan, “muhabbat”ning esa “olov” bilan taqqoslanishi poetik tasvir kuchini oshiradi. Ushbu metaforalar fikrni obrazli, ko‘p qirrali tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, arabiy va forsiy so‘zlar – “ishq”, “orif”, “sabr”, “qismat”, “ma’bud”, “ro‘zgor” kabi atamalar asarda ko‘p ishlatilgan bo‘lib, ular diniy, axloqiy va falsafiy tushunchalarning mazmunini teran yoritishda asosiy til vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa dostondagi umumiy semantik ohangni yanada chuqur va ifodali qiladi.

Nishotiy tazmin (bayt ichida boshqa shoirdan olingan satrni ifodalash), tazod (qarama-qarshilik), tajnis (ohangdosh so‘zlar o‘yinlari) kabi poetik vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Masalan:

“Yig‘lama, ey dil, bu hijron sabr istar,
Sabr ila ko‘ngil oxir vasl istar.”

Bu misralarda “sabr” va “vasl” tushunchalari orqali hissiy ziddiyat obrazli ifodalangan.

Nishotiyning Husn-u Dil dostonida ishlatilgan leksik birliklar nafaqat estetik maqsadga xizmat qiladi, balki muallifning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va jamiyatga bo‘lgan munosabatini ham ifodalaydi. Xususan, “nafs”, “taqvo”, “kamol”, “rozi” kabi tushunchalar orqali shaxsiy yetuklik va ijtimoiy yuksalish g‘oyalari ilgari suriladi [6:452].

Mumtoz adabiyot namunalari lingvopoetik tahlil orqali o‘rganilganda, nafaqat badiiy tasvir vositalari yoritiladi, balki o‘sha davr tilining kommunikativ va stilistik imkoniyatlari ham aniqlanadi. Husn-u Dil asari misolida esa, she’riy tildagi leksik qatlam estetik va lingvistik mezonlar asosida chuqur o‘rganishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, doston leksikasi mazmun va shakl jihatidan boy bo‘lib, undagi so‘z tanlovi, metaforalardan foydalanish, sinonimik qatorlar, arabiy va forsiy leksik elementlar muallifning san’atkorona til ishlatish mahoratini ko‘rsatadi. Ushbu asar nafaqat adabiy meros sifatida, balki tilshunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Husn-u Dil dostonida qo‘llangan til vositalari va ularning badiiy-funksional yuklamasi o‘zbek lingvopoetikasi sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o‘zbek adabiyoti. Dok.diss. – Samarqand, 2018. 12,18
2. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: O‘qituvchi, 2014.
3. Abdurahmonova O. Nishotiy munozaralarining matniy tahlili. – Toshkent, 2021. 234,238
4. Adizova I. O‘zbekiston mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
5. Ametova U. O‘zbek mumtoz adabiyotida Kubroviylik an’analari. – T.: Mumtoz so‘z, 2021.
6. Ismoilov I. Nishotiy “Husn-u Dil” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent, 2021. 452
7. Xolid Rasul. Nishotiy va uning “Husn-u Dil” dostoni//O‘zbek adabiyoti masalalari. – T., 2022. 4-son.
8. Xolid Rasul. Nishotiy. Husn va Dil. Lirika. – T.: G‘,G‘ulom, 2017. 1-18-betlar.



Shoxruxbek MAXMIDJONOV,
Farg‘ona davlat universiteti
Adabiyotshunoslik kafedrasi
o‘qituvchisi

TOHIR MALIKNING “FALAK” QISSASIDA ZIYOLI OBRAZI RUHIYATINING BADIIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada Tohir Malikning “Falak” qissasida ziyoli obrazining poetik tahlili amalga oshiriladi. Asarda ziyoli qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ilmiy izlanishlari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy mas’uliyati badiiy tasvirlar orqali yoritilgan. Qahramonlarning ilm–fan va ma’naviyat o‘rtasidagi kurashi, vijdon va haqiqat izlashdagi azoblari orqali ziyolilik mohiyati ochib beriladi. Maqolada ziyoli shaxsning psixologik portreti, ichki monolog va konfliktlar vositasida badiiy tahlili amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Tohir Malik, falak, ziyoli obraz, ruhiy kechinma, psixologik tahlil, ma’naviyat, ilm–fan, adabiyotshunoslik, konflikt, axloqiy mas’uliyat.

Аннотация: в статье представлен поэтический анализ образа интеллигента в повести Тахира Малика “Фалак”. Через художественные средства раскрываются духовные переживания, научные поиски, внутренние конфликты и социальная ответственность героев–интеллигентов. В произведении показана борьба между наукой и нравственностью, муки совести и стремление к истине. Анализ охватывает психологический портрет, внутренний монолог и конфликт как ключевые аспекты образа интеллигента.

Ключевые слова:Тахир Малик, фалак, образ интеллигента, духовные переживания, психологический анализ, нравственность, наука, литературоведение, конфликт, моральная ответственность.

Annotation: this article presents a literary analysis of the intellectual character in Tokhir Malik’s novella *“Falak.”* The work explores the psychological experiences, scientific pursuits, inner conflicts, and social responsibility of intellectual protagonists through artistic expression. The narrative highlights the struggle between science and spirituality, moral dilemmas, and the search for truth. The analysis focuses on psychological portraits, inner monologues, and conflict as essential elements of the intellectual character.

Key words: Tokhir Malik, Falak, intellectual character, psychological experience, literary analysis, spirituality, science, literary studies, conflict, moral responsibility.

Adabiyotshunoslikda ziyoli shaxs turli bosqichlarda turlicha talqin qilingan.U XIX asrda ma’rifatparvar obraz bo‘lsa, XX asr o‘zbek adabiyotida tanqidiy ongli, axloqiy mas’uliyatni zimmasiga olgan ruhiy murakkab obraz sifatida namoyon bo‘ldi. Ziyoli shaxs – bu faqat ilmli emas, balki jamiyat oldida axloqiy mas’uliyatni his qiluvchi, tanqidiy fikrlovchi, ongli va vijdonli insondir.

O‘zbek adabiyotida ziyoli obrazini badiiy talqin etish muhim mavzulardan biri bo‘lib sanaladi.Tohir Malikning bir qator hikoya va qissalarida bu masalaga bir qator to‘xtalganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan yozuvchining “Erkin”, “Sadoqat”, “Ustoz”, “Tiriklik suvi” hikoyalari, “Hikmat afandining o‘limi”, “Falak”, “Savohil” (“Qaldirg‘och”) qissalarini misol keltira olamiz. Bunday qissalardan “Falak” qissasi bu borada alohida e’tiborga loyiq. Bu qissa “Hikmat afandining o‘limi” qissasidan sal keyinroq 1973–yilda e’lon qilingan “Falak” qissasidir. Mazkur qissada yozuvchining milliy va ma’daniy qadriyatlari, ijtimoiy –falsafiy qarashlari va ma’rifatparlik g‘oyalari o‘rin olgan. Bu asarning ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilinishi uning muvaffaqiyatli chiqqanidan darak beradi. Asar Mirzo Ulug‘bek davridan hikoya qiluvchi ayni damda bugungi davr ruhi ham singdirilgan fantastik qissadir.Mazkur asarda voqealar bir ko‘chada ulg‘ayib bir sinfda o‘qigan ammo intilishlari turlicha bo‘lgan ilmning uch jabhasida ilg‘or bo‘lgan uch professor atrofida birlashadi. Biofizik – Jahongir Aliyev, arxeolog – Sulton Umrzaqov, yozuvchi – To‘lqin kabi uch do‘stning ilm yo‘li asar syujetini harakatga keltiradi. Asarda Jahongirning kundaliklari orqali syujet voqealari bayon qilinadi va olimlarning tadqiqotlari orqali o‘tmishga sayohat qilinish o‘rinlarida fantastik unsurlar ko‘zga tashlanadi.Tarix voqealar aynan temuriylar davrining ma’lum bir qismi Ulug‘bek siymosiga murojaat qilinadi. Ko‘p bora qalamga olingan bu mavzuga Tohir Malik biroz boshqacha yo‘ldan boradi.Bu qissada davrlar bir yerda to‘qnashadi.Shamsibek Ismoil o‘g‘li obrazi orqali o‘sha davr ziyolilari ruhiyati ochib beriladi.Adib ikki davrni tasvir obyektiga ziyolilar qatlami mavzu qilib yoritishga harakat qiladi.Ilm ahliga doir muammolar bugun va o‘tmish nuqtayi nazaridan badiiy tus beriladi. Asarning kompozitsion qurulishida voqeliklar xronikali tarzada bayon etiladi. Tohir Malik bu obrazni ko‘pincha tarix, ilm–fan va falsafa bilan bog‘laydi. “Falak” qissasida ziyolilik nafaqat kasbiy darajada, balki ma’naviy va axloqiy jihatdan chuqur yoritiladi. Qahramonlar jamiyat

bilan, ichki dunyosi bilan doimiy kurashdalar, bu esa ularni oddiy olimdan ziyoli darajasiga ko‘taradi.

Qissada Sulton obrazi – ilmiy haqiqat izlovchi, vijdonli va qat’iy shaxs sifatida yoritiladi. U arxeologik qazishmalar orqali o‘tmish haqiqatlarini yuzaga chiqarishga intiladi.Bu obrazda tarixiy haqiqatni ochish orqali ilmiy haqiqatni, ayni paytda, **milliy ong va vijdon**ni uyg‘otishga harakat qiladi. Sulton obrazinning shakllanishida ijtimoiy muhit va ustozlik institutining o‘rni kuchli ekanini ko‘rsatadi. Bu Sulton Umrzaqovning ziyoli obraz sifatida **an’anaga sadoqat, ilmga hurmat va insoniy mas’uliyat** uyg‘unligida yetishganini bildiradi.

Maqolada Sultonning insoniyat tarixini qazib, haqiqatni izlashga bo‘lgan ishtiyoqi uning ziyolilikdagi asosiy xususiyati degan xulosaga kelsak bo‘ladi. U ilmiy tekshiruvlar orqali haqiqatga yetmoqchi bo‘ladi, ammo bu haqiqat jamiyat uchun nomaqbul bo‘lishi mumkin. Qissada ziyoli obrazining asosiy belgisi – **ijtimoiy mas’uliyat**dir. Har bir qahramon haqiqat va yolg‘on, ilm va mafkura, adolat va bosim o‘rtasida kurash olib boradi.

Asarning yana bir qahramoni Jahongir Aliyev – ilm–fan kuchiga ishonuvchi, lekin insoniyat manfaatlarini ham unutmasligi kerakligini anglaydigan olim sifatida tasvirlanadi. Ilmiy tajribalar orqali ongni boshqarish masalasi uning obrazida fojiali darajada ko‘rsatilgan. Jahongirning ilmiy tajribasi – inson ongini boshqarish orqali jamiyatni nazorat qilish g‘oyasini sinovdan o‘tkazishdir.Bu esa **axloqiy xavf** tug‘diradi.Tajriba natijalari tushunarsiz ko‘rinishlar bilan tasvirlanadi: “Qalandarlik libosiga kirgan Abdulvahob, madrasada va’z aytayotgan Ulug‘bek...”[1] – bu tasvirlar ongni boshqarish tajribasining ruhiy portret orqali ifodalanishini ko‘rsatadi.Bunday sahnalar orqali muallif ziyoli obrazining ichki haqiqat bilan kurashini badiiy vositalar bilan tasvirlaydi.

Asarda To‘lqin – ziyolilikni ijod, ruhiyat va tafakkur orqali talqin etuvchi yozuvchi sifatida gavdalanadi. U ichki kechinmalar, axloqiy masalalar va haqiqat izlash orqaligina ongli shaxsga aylanadi.

Yozuvchi bugungi kun va tarixiy davrni tasvirlashda fantastik usuldan foydalanadi.Asosiy voqealar XVI asar Mirzo Ulug‘bek davri tasvirlanadi. Asarda muallif muxtasar muqaddima, xotima qismlarini kiritadi va bularga bugungi zamon voqeliklarini kiritadi. Ulug‘bek zamonida yasalgan va falak nomini olgan avlodlar o‘sha meros bo‘lib kelayotgan bu gilamning bugungi taqdiri aynan manashu boblar asosida bayon qilinadi. Muqaddima va xotima qismidan tashqari katta–kichik yettita bob beriladi. Har bir bob bayon qilinayotgan voqeadan kelib chiqib nomlanadi. Asosiy voqealar Ulug‘bek saltanatida yuz beradi. Mirzo Ulug‘bek va uning davriga oid asarlar juda ko‘plab yozilgan, ammo bu qissada Mirzo Ulug‘bek bosh obraz darajasiga olib chiqilmagan.

Asarda ikkinchi davr ya’ni Ulug‘bek davridagi Shamsiddin obrazini tahlil qiladigan bo‘lsak, qissadagi bosh qahramonlardan hisoblanadi. Barcha voqealar unga bog‘liq holda yuz beradi.Bu obraz o‘z fikri va qarashlari bilan jamiyatdagi adolatsizliklarga, jamiyatda ildiz otgan mutaassibliklarga qarshi kurashgan ziyolilarning vakili sifatida tasvirlanadi.Shamsiddining fikrlari, hayotiy qarashlarini berish orqali muallif uni o‘quvchiga tanishtirib o‘tadi. Favqulodda aqli va salohiyati uchun Mirzo Ulug‘bek nazariga tushgan, asli zargar bo‘lgan bu obraz, nafaqat zargarlik, balki har sohada o‘z ilmi bilan bu davrning eng ilg‘or ziyolilarining tipik vakilidir.

Asarda Shamsiddin chinakam ziyoli obrazi bo‘lsa, Abdulvahob o‘ta ketgan mutaassiblikni o‘zida namoyon qiladi. Har davr ziyolisining o‘zi mujodala olib boruvchi mavzusi bo‘lganidek, mazkur davrda ham ziyolilar zimmasiga Abdulvahob kabi mutaassiblar bilan kurash yuklatilgan.

Qamariddin Mirzo Ulug‘bekning ishonchli navkarlaridan biri.Uning xarakteriga xos jihatlardan biri qat’iyatlilik, jangovarlik, adolatparvarlik va podshoh Mirozo Ulug‘bekka ishonch ko‘rinadi. Qamariddinning xarakteri Andijonga safarida yo‘lda bo‘lgan voqealarga munosabatidan qanchalik xalqparvarligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Tohir Malikning “Falak” qissasi zamonaviy o‘zbek adabiyotida ziyoli obrazini badiiy va falsafiy jihatdan chuqur yoritgan asarlardan biridir. Qahramonlar orqali ziyolilikning turfa ko‘rinishlari: ilmiy, ma’naviy, axloqiy jihatlari ochib beriladi. Asar o‘zbek ziyolisining tarixiy, ijtimoiy va falsafiy pozitsiyasini ko‘rsatish bilan birga, yosh avlod uchun ham ruhiy–ma’naviy saboq bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Malik T. Falak (qissa). – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyoti, 2008.55–b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. *Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari.* –T.: Noshir, 2019.
2. Karimov I. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* –T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Malik T. *Falak* (qissa). –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2008.
4. G‘afurov B. *Adabiyotda psixologizm: Nazariy va amaliy asoslar.* –T.: Fan, 2014.
5. Sultonov S. *O‘zbek nasrida ziyoli obrazi*.Adabiy tadqiqotlar, 2020.

Farida XAKIMOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi;
Zayniddin TOSHPO‘LATOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi;
Sevinch ABIROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK NASRI VA SHODMONQUL SALOM IJODI

Annotatsiya: mazkur maqolada istiqlol davri adabiyoti, undagi O‘zgarishlar, yangilanishlar va evrilishlar tahlilga tortiladi. Jumladan, haq so‘zni ayta olish, tarixiy shaxslar obraziga murojaat mustaqillik sharofatidan yangilangani aytib O‘tiladi. Shuningdek, hozirgi adabiy jarayon vakili Shodmonqul Salom ijodiga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, adabiyot, Shodmonqul Salom, mafkura, ma’naviyat, tarixiy obraz, ijodkor.

Аннотация: в статье анализируется литература периода независимости, ее изменения, обновления и развития. Вообще говорят, что благодаря независимости возобновилась способность говорить правильное слово, обращение к образу исторических личностей. Также будет обсуждаться творчество представителя современного литературного процесса Шодмонкул Салама.

Ключевые слова: независимость, литература, Шодмонгул Салам, идеология, духовность, исторический образ, творец.

Annotation: this article analyzes the literature of the independence period, its changes, innovations and developments. It is noted that the ability to speak the truth, and the appeal to the image of historical figures were renewed thanks to independence. It also touches upon the work of Shodmonqul Salom, a representative of the current literary process.

Key words: independence, literature, Shodmonqul Salom, ideology, spirituality, historical image, creator.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, turli sohalarda bo‘lgani kabi adabiyotda ham bir qancha o‘zgarishlar, yangilanishlar, evrilishlar ko‘zga tashlandi. Adabiyot sobiq Ittifoq davrida mafkura ta’sirida qolib ketib, yozilgan badiiy asarlar faqat bir tomonlama tahlil va talqin qilinganligi bugun ayon bo‘lmoqda. Istiqlolning dastlabki yillaridanoq ma’naviyatga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: “Biron bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o’z istiqbolini tasavvur eta olmaydi”[1]. Buni amalga oshirish uchun esa xalqqa chinakam milliy adabiyot zarur edi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi, obrazli qilib aytganda, har qanday mafkuradan xoli bo‘lishga intilayotgan farzandi, merosxo‘ri sifatida dunyoga keldi. Bu adabiyotga Qoshg‘ariy belanchak yasagan bo‘lsa, Navoiy masih nafasi bilan jon ato etgan edi. Ana shunday buyuk an’analarni davom ettirgan holda, Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon kabi millat yorqinlari asarlari qaytadan o‘z qiyofasiga qaytdi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari islom dini bilan bog‘langan holda tadqiq etila boshlandi. Xususan, Alisher Navoiyga mutasavvuf sifatida qarab, uning yozganlarini islom, fiqh ilmi bilan bog‘lagan holda tadqiq etila boshlandi.

Biz yashayotgan ozod yurt ko‘plab ijodkorlarimizning, millatimiz oydinlarining orzusi edi. Shu tufayli mustaqillikkacha yozilgan asarlarda erkin inson, ziyoli kishi obrazlari yaratilgan. Ayniqsa, jadidlarimiz bitiklarida ozodlikka intilish yaqqol ko‘zga tashlanadi: xoh nasriy, xoh she’riy, xoh dramatik asar bo‘lsin.

Mustaqillik yillariga kelib, adabiyotimiz turfa xil shakl va ohanglarda o‘z aksini topmoqda. Keyingi yillar adabiyotida chinakam ijod qilish, haq so‘zni, haqiqatni aytish erkinligi keng qamrovda rivojlandi. Shuning uchun O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov “Adabiyot va zamon” maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Sho‘rolar davrida milliy qadriyatlarimiz,

[1] Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997. 37–bet.

moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xolos. Diniy e'tiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirilgan edi. Bir yoqlamalik, yuzakilik adiblarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga o'rgatib qo'ygan edi. Faqat baxtni va saodatni kuylash, aslida yo'q yorqin kelajakni ulug'lash odat tusiga aylangan edi. Inson hayotidagi turli iztiroblar, ziddiyatlar, mag'lubiyatlar, qatag'on mavzu hisoblanar, ular aslo rag'batlantirilmas edi"[2].

Darhaqiqat, mustaqillik yillariga kelib, tarixga, tarixiy shaxslar obraziga haqqoniy yondashish an'anasi yetakchilik qildi. Chunki tuzumning o'zgarishi, jamiyat evrilishlari badiiylik mezonlarining yangilanishiga, obrazlar tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berishiga kuchli ta'sir ko'rsatganligini ham qayd etish lozim. Ijodkorlar olam, odam haqida avvalgidan o'zgacharoq fikrlash mumkinligini angladilar va shu yo'lda jiddiy o'zgarishlarning mahsuli bo'lgan badiiy asarlar maydonga keldi. "*Davr va adabiyot muammosi g'oyat murakkab hodisadir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o'zgarib turishi bo'lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o'zi yaratilgan zamonga qaraganda ko'proq yashashga intilishi, barqaror bo'lishga urinishidir… Ayni vaqtda, o'tgan yillar shunday salmoqqa, shunday o'zgaruvchilik qudratiga egadirki, xalq psixologiyasi, dunyani idrok etish, tushunish va tushuntirish tarzida shunchalik katta o'zgarish yasadiki, avvalgi bir necha o'n yillarda ham bunday qilib bo'lmasdi*"[3],– deb yozadi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev.

Istiqlol davri badiiy–estetik tafakkuridagi bunday o'zgarishlar olam va odamga teranroq nazar solish va globallashuv jarayonida kechayotgan o'zgarishlarni badiiy talqin etar ekan, estetik ideallarning, yoki jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillarni badiiyat tarkibiga kirib kelishi bilan ham uzviy bog'liqdir.

Shuning uchun adabiyotshunos N.Rahimjonov istiqlol davri adabiyotining xarakterli jihatlarini quyidagicha izohlagan edi: *"Istiqlol adabiyotining muhim fazilatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi bir qator yetakchi tendensiyalar ko'zga tashlanadur. Chunonchi, millatning o'z–o'zini anglashida, o'zlikni qadrlashi va ulug'lashida, milliy iftixor tuyg'ularining shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o'zgarishlari namoyon bo'layotir. Yana bir yetakchi tamoyil – bu adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh diniy g'oyalarga, xoh bugungi kunga murojaat etishadimi, mohiyat ham millat birligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy–falsafiy konsepsiyasi bilan ajralib turadi"*[4].

Istiqlol davri badiiy adabiyotidagi o'ziga xos o'zgarishlar bugungi adabiy jarayonda tahlil etilmoqda. Istiqlol adabiyoti inson hayotidagi turfa xil iztiroblarni, ziddiyatlarni, inson tafakkuridagi o'zgarishlarni haqli ravishda tasvirlash an'anasini yuzaga chiqardi. Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham bugungi kun nuqtayi nazaridan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Istiqlol davri adabiyotining xarakterli jihatlari haqida bir qator ijodkor va adabiyotshunoslar asosli mulohazalarini qayd qilgan: *"Istiqlolga erishilgandan keyin yaratilgan ko'pgina asarlarda oliy rutbaga ko'tarilgan, dunyo yaralishining sababi, adoqsiz ilohiy nur ila yo'g'rilgan zot deb qaralgan insonning hayvoniy va shaytoniy nafsi bois gunohga moyil hamda o'sha gunohlar tufayli qabihliklar ham qilishga qodir, ayni paytda qilgan gunohlari sabab qiynaladigan o'ta murakkab mavjudod ekani tasvirlanmoqda. Istiqlol adabiyoti insonni jo'nlikdan, to'porilikdan, anchayinlikdan qutqardi. Uni murakkablashtirdi, noziklashtirdi, bir xil qarashlar tizimi bilan tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydigan injiqroq ekanligini ro'y–rost aks ettira boshladi"*[5].

Qayd qilingan tushunchalarga asoslanadigan bo'lsak, istiqlol adabiyoti o'zlikni anglashga intilayotgan shaxs obrazini badiiy talqin etish jarayonida uning o'ziga xos olami, unda vujudga kelgan turfa xil qarashlarning yuzaga chiqishi bejiz emasligini asoslamoqda.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Bu davrning eng xarakterli xususiyati faqat adabiyotimiz tarixiga emas, balki zamonaviy adabiy–badiiy jarayonga ham yangicha badiiy estetik mezonlar bilan yondashishni talab etmoqda.

Adabiyotshunos N.Karimov ta'kidlaganidek: "*Bugungi kun adabiyoti kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya'ni odamning*

[2] Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy–tanqidiy maqolalar, badialar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa uyi, 2006. 5–bet.
[3] Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. – T.: "Yangi asr avlodi", 2006. 15–bet.
[4] Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot (Adabiy – estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). – Toshkent, "O'qituvchi", 2012. 11–bet.
[5] Yo'ldoshev Q. "Yoniq so'z". – T.: "Yangi asr avlodi", 2006. 16–17–betlar.

qalb iztiroblari, quvonchlarning betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko‘rinishlari inkishofi hamda voqea hodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo‘naltirilganligi, qahramonlarning o‘ta milliy va individuallashganligi, bozor iqtisodining mohiyatini ochib berishi ila o‘ziga xoslikka ega… voqea hodisadan ko‘ra, insonning uning qalbi tahlili birinchi o‘ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi”[6].

Haqiqatdan ham, hayotdagi har bir o‘zgarish inson tafakkuriga chambarchas bog‘liqdir. Inson tafakkurida o‘zgarishlar bo‘lmas ekan, jamiyatda ham hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi, chunki inson tafakkuridagi o‘zgarish davr va jamiyatdagi o‘zgarish bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun bugungi adabiy jarayonda voqea hodisalar emas, insonning o‘zi, uning o‘y fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiy olami yetakchilik qilayotganligini adabiy jarayonda vujudga kelayotgan badiiy asarlar tasviri misolida isbotlash mumkin.

Istiqlol adabiy jarayonida inson taqdirini badiiy–falsafiy tarzda tadqiq etish an’anasi yuksalib borayotganligi bu davr adabiyotining eng xarakterli xususiyatidir. Hozirgi adabiy jarayondagi turfa xil mushohadalar asosida yuzaga chiqayotgan adabiy–tanqidiy qarashlar zamirida badiiy adabiyotga ma’lum bir mezonlar asosida emas, badiiyat nuqtayi nazaridan baho berish an’anasi kuchaydi. “*Chunki davr – vaqt deb atalmish adabiy hodisaning o‘tkinchi bir bo‘lagi, adabiyot esa ana shu o‘tkinchi lahzalarni abadiyatga muhrlashni da’vo qiladigan san’at turidir*”[7]. Qayd qilingan tushunchalarda ham adabiyotshunoslik tarkibidagi o‘ziga xos o‘zgarishlar, badiiy adabiyotga, adabiy jarayonga munosabat bildirishda turfa xil qarashlarning mavjudligi e’tirof etilmoqda.

[6] Karimov N. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2010. 4–b.
[7] Yo‘ldoshev Q. “Yoniq so’z”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006. 48–b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997. 37–bet.

2. Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy–tanqidiy maqolalar, badialar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa uyi, 2006. 5–bet.

3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Adabiy o‘ylar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. 15–bet.

4. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot (Adabiy–estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012. 11–bet.

Zuxra QARSHIBOYEVA,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi,
Elektron pochta: zaqarshiboyeva@mail.ru

SERGEY YESENIN IJODI NAMUNALARINI O'ZBEK SINFLARIDA O'RGANISH USULLARI

Annotatsiya: sergey Yesenin ijodi namunalarini o'zbek sinflarida o'rganish usullari, taklif va mulohazalar bayon etildi. Rus adabiyoti she'riyati tarjimalari bilan bog'liq ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish va adabiyot mashg'ulotlarida tutgan ahamiyati hamda vazifalari xususida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: Sergey Yesenin ijodi, o'zbek yeseninshunosligi,ijtimoiy–siyosiy, madaniy hayot, yozuvchi va ijtimoiy hayot, badiiy asarda davr talqini.

Аннотация: изложены методы изучения произведений Сергея Есенина в узбекских классах, предложения и замечания. Была представлена информация о передаче информации, связанной с переводами поэзии русской литературы, и ее значении и задачах на занятиях по литературе.

Ключевые слова: творчество Сергея Есенина, узбекское эсенинведение, общественно–политическая, культурная жизнь, писатель и общественная жизнь, интерпретация эпохи в художественном произведении.

Annotation: methods, suggestions, and considerations for studying Sergey Yesenins works in Uzbek classes were presented. Information was provided on conveying information related to the translations of Russian literary poetry to students and its significance and tasks in literature classes.

Key words: Sergey Yesenins work, Uzbek Yesenin studies, socio–political, cultural life, writer and social life, interpretation of the era in a literary work.

O'zbek yeseninshunosligining kelib chiqishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Sergey Yesenin nomi ilk bor Turkiston matbuotida 1918–yilda uchraydi. 1918–yil 16–yanvarda Toshkentdagi "Ozod Turkiston" gazetasida shoir Aleksandr Shiryayevesning "Uch alp (xalq shoirlari haqida)" maqolasi bosilib, unda N.A.Klyuyev, S.A.Klichkov va S.A.Yesenin ijodi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Shiryayeves yosh Sergey Yesenin haqida hayajon bilan "butun borligi bilan rus, mardonavor va jasur Yesenin. U hali yosh bo'lishiga qaramay, bu yil o'zining "Radunitsa"si bilan ko'zga ko'rinib qoldi. Ammo uning kuchli ovozi bor, quyma satrlarida qanday jarangdorlik bor". 1918–yil 17–fevralda "Ozod Turkiston" gazetasida A. Shiryayeves Yeseninga bag'ishlab " To'y" hikoyasini e'lon qiladi.

Keyinchalik, shoir 1921–yil may oyida Toshkent va Samarqandga tashrif buyurgan, turli adabiy kechalarda she'rlar o'qib, mahalliy shoir va san'atkorlar bilan uchrashgan bo'lsa–da, Turkiston matbuotida S. Yesenin haqida so'z yuritilmaydi. 1924–yildan boshlab S. Yesenin hayotidagi ushbu voqealar haqidagi maqolalar O'zbekistonda emas, balki Moskvada paydo bo'ldi. Shoirni yaqindan bilgan shoir Valentin Ivanovich Volpin (1891–1956) 1926–yilda "S.Yesenin xotiralari" to'plamida shoirning Toshkentga sayohati, bu yerdagi she'riy kechalarda "Pugachev" dostoni birinchi marta o'qilgani haqida ma'lumot beradi.

Yeseninshunoslikka qarshi boshlangan kompaniyani o'sha davrdagi rasmiy hokimiyat shoirning ijodiy tarjimayi holi yomonligi bilan izohladi va natijada uzoq yillar davomida Yesenin nomi va she'riyati haqida matbuotda lom–mim deyilmadi. 50–60–yillarda rus adabiyotida shoir ijodiy merosiga jamoatchilik qiziqishining qayta tiklanishi o'zbekistonlik she'riyat muxlislari tomonidan faol qo'llab–quvvatlandi. O'zbek yeseninshunosligining ilk qaldirg'ochi sifatida 1960–yilda "Zvezda Vostoka" jurnalida moskvalik adabiyotshunos

V. Zemskov tomonidan e'lon qilingan "Sergey Yesenin Toshkentda" maqolasini e'tirof etish mumkin. Ushbu maqola ayrim qo'shimcha va aniqliklar kiritilib, keyinchalik O'zbekiston jurnal va gazetalarida ikki marta qayta nashr etilgan.

Ilmiy yeseninshunoslik O'zbekistonda V.Korjan, Y.Malinovskiy, P.Tartakovskiy, I.Temkina va boshqalarning sa'y–harakatlari bilan boshlandi. Farg'onalik adabiyotshunos V.Korjan ko'p yillar davomida Yesenin she'riyati va rus xalq ijodiyoti o'rtasidagi turli bog'liqliklarni tadqiq qildi. Adabiyotshunos "Русская литература" jurnalidagi (1965, №2.) "Yesenin folklorizmini o'rganish masalasi" nomli maqolasida "Yesenin va xalq ijodiyoti" muammosi haligacha o'zining chuqur va har tomonlama yechimini topgani yo'q, degan xulosaga keladi. V.Korjan umrining oxirigacha Farg'ona davlat universitetida S.Yesenin ijodi bo'yicha maxsus kurslar o'qidi, shoir haqida viloyat va respublika gazetalarida maqolalar chop etdi.

Samarqandlik tilshunos olim Y.Malinovskiy S.Yesenin asarlari tilining obrazli va poetik vositalarini tadqiq etgan. Uning ilmiy izlanishlari Yesenin she'riyati tilining evolyutsiyasi (ilk va kechki she'riyatda ranglar) haqida bo'lib, olim 1971–yilda "S.A.Yesenin ijodidagi barqaror so'z birikmalari" mavzusida nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi.

Yesenin va Sharq mavzusini ochib berishga toshkentlik adabiyotshunos P.I.Tartakovskiy ham katta hissa qo'shdi. Uning shu masala bo'yicha "Дружба народов" jurnalida (1966, 1–son) e'lon qilingan "Пути содружества" nomli maqolasida Yesenin she'riyatining Sharq mumtoz she'riyati bilan ijodiy bog'lanishining asosiy bosqichlari ko'rsatilgan. Tadqiqotchining fikricha, "O'zini ishda, fikr va so'zda osiyolik" sanagan Sergey Yesenin Sharq mavzusiga, "Fors taronalari"ga ko'hna Turkiston haqidagi yoshlikdan o'zini maftun etgan orzulari orqali yo'l ochgan.

1975–yilda Yesenin asarlarining tinmas targ'ibotchisi S.Zinin "Вечерний Ташкент" gazetasida "Shoir haqida eslab" maqolasini e'lon qilib, unda O'zbekiston poytaxtining shoir nomi bilan bog'liq asosiy esda qolarli joylarini ko'rsatadi. Shoirning Toshkent va Samarqandda bo'lganligi bilan bog'liq qarashlar S.Zininning "Sergey Yeseninning Turkistonga sayohati" (2005) monografiyasida o'z aksini topgan.

2005– yil 23– dekabrda Toshkentda "S.A. Yesenin va hozirgi zamon" mavzusida ilmiy–amaliy konferensiya bo'lib o'tadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Xorazmlik olimlar, respublika oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari ishtirok etgan konferensiyada A.Davshan, G.Rahmatullayeva, V.Kurnitskaya, E.Kaminskaya, A.Kuchinskiy va boshqalarning Yesenin she'riy merosini zamonaviy tahlil qilishning ayrim masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalari tinglandi.

1965–yilda O'zbekistonda Sergey Yesenin tavalludining 70 yilligi shoir iste'dodining muxlislari tomonidan keng nishonlandi. O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulom "Правда" gazetasi sahifalarida, so'ngra "Sharq yulduzi" jurnalida Yesenin she'riyatiga yuksak baho berib, "Haqiqiy rus shoiri Sergey Yesenin biz, o'zbeklar uchun ham qadrdon bo'lib qoldi. Agar Yesenin Sharqqa talpingan bo'lsa, endi Sharq shoirlari uning she'riyatiga maftun, ushbu poeziyadan o'zlariga yaqin va kerakli jihatlarni ajratib olmoqda", deydi.

1965–yildan keyin O'zbekistonda S.Yesenin hayoti va faoliyatiga oid turli materiallar muntazam nashr etila boshlandi. 2005–yilga kelib ilmiy, ilmiy–ommabop, tarjima va axborot nashrlari soni 400 dan ortdi.

O'zbek adabiyotshunosligida Sergey Yesenin ijodiga rasmana qiziqish o'tgan asrning 60–yillaridan boshlanadi. Shu davrdan boshlab yeseninxonlik kechalari tez–tez o'tkaziladigan bo'ladi. Shoir va tarjimon E.Vohidov shunday yozadi: "Esimda ikkinchi kurs studenti edim. Paxta terimiga hasharga chiqqan kunlarimizdan so'ng yotoqda, xira chiroq nurida yarim kechagacha yeseninxonlik qilar edik. O'shanda "Eron taronalari"ning bir qancha she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilindi".

Masalan, umumta'lim maktablarining 7–sinf darsligiga iste'dodli rus shoiri Sergey Yesenin ijodi namunalaridan "Eron taronalari" turkumiga kiritilgan "Shahinam, o, mening Shahinam" va "Xurosonda bir darvoza bor" nomli she'rlari kiritilgan. Bu she'riy namunalarni shoir Erkin Vohidov o'zbek tiliga tarjima qilgan. U tarjima asnosida, S.Yeseninning hissiy va aqliy zavqini saqlashga intiladi.

Yuqorida e'tirof etilgan, rus adabiyoti she'riyati tarjimalari bilan bog'liq ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek

tilidagi matnlarni ifodali o‘qib berish va tahlil qilish jarayonida tarjima nazariyasi haqidagi ilmdan qisman bo‘lsada tasavvurga ega bo‘ladilar.

Oddiy tilda ifodalaganda tarjimon Erkin Vohidov S.Yesenin she’rlarini maktab o‘quvchilari uchun tushunarli uslubda, shoirona qalb bilan yondashadi va matndagi asl g‘oyani yetkazishga harakat qiladi va rus tilidagi ifoda usullariga alohida e’tibor beradi. Shoir faqat so‘z bilan ifodalangan matndagi fikr bilan kifoyalanmay, balki S.Yesenin she’riyatiga bo‘lgan alohida mehr–muhabbati ham ko‘zga tashlanib turadi.

O‘zbek sinflarida o‘rganilayotgan rus yozuvchilari, shoirlari haqida ma’lumot berish jarayonida ular yashagan va ijod qilgan ijtimoiy–siyosiy, madaniy hayot haqida berilgan obzor shaklidagi ma’lumotlar muhim ahamiyatga egadir.

Ravshanki, Sergey Yesenin yashagan va ijod qilgan davr rus adabiyoti tarixining asosiy taraqqiyotga ko‘tarilgan davriga to‘g‘ri keladi. Tabiiyki, shoir yashagan va ijod qilgan adabiy muhitda uning ijodiga ta’sir qilgan adabiy oqimlar va adabiy nazariy qarashlar, qolaversa unga zamondosh bo‘lgan ijodkorlarning o‘zaro hamkorligi, ulardan farqli o‘laroq, aynan Sergey Yeseninning uslubiga xos va mos bo‘lgan shaxsiy qarashlari xususida ma’lumot berish, shoirning o‘z davrida tutgan o‘rni va mavqeyini belgilaydi.

Shunga ko‘ra obzor ma’lumotlar Sergey Yeseninning qaysi she’ri o‘rganilmasin, matn tahlili asosida beriladigan ma’lumotlar bevosita davr ruhi, adabiy–nazariy, madaniy hayot jarayoni haqida ma’lumot beruvchi manba hisoblanadi. Shu sababli, matn tahli qilish jarayonida, asarning hajmi, janr xususiyatlari, tili va badiiy xususiyatlari haqida ma’lumot berish o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari hisoblanadi.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, hamma asarlar uchun bir qolipdagi umumiy usul va tavsiyalarning bo‘lishi mumkin emas. Shu bois, o‘qituvchi tanlangan asarni tahlil qilganda, uning asosiy tarkibiy qismlarini bilmog‘i, ana shundan kelib chiqib, o‘z tajribasiga tayangan holda qulay bo‘lgan tahlil tartibini qo‘llamog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сергей Есенин. Стихотворения поема – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
2. Сергей Есенин. Стихотворения поема – Москва: Детская литература, 1972
3. А.Абдурахмонов. Мактабда ўзбек адабиётини рус адабиётига боғлаб ўрганиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
4. Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур Тошкент. Ёш гвардия 1987
5. Zuxra Qarshiboyeva. Yuqori sinflarda umumlashtiruvchi mavzularni o‘rganish metodlari. Til va adabiyot.uz. 2024–yil 22–son.

Aziza NAIMOVA,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
a.m.naimova@buxdu.uz

METAHIKOYA JANR XUSUSIYATLARINING “1Q84” ASARI NEGIZIDA TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola Haruki Murakamining “1Q84” asari negizida metahikoya (metafikshn) janri xususiyatlarini chuqur tahlil qiladi.An’anaviy hikoya qilish uslublaridan farqli o‘laroq, metahikoya badiiy asarning o‘zining badiiy tabiatiga e’tibor qaratishi, ya’ni uning uydirma ekanligini anglatib turishi bilan ajralib turadi. Maqolada “1Q84” romanidagi matn ichidagi matn (“Aeroxrizalis” kitobi), reallikning subyektivligi va noaniqligi (ikki parallel dunyo: 1984 va 1Q84), o‘z–o‘ziga xoslik va muallifning bilvosita mavjudligi (yozuvchi Tengo obrazi orqali), shuningdek, intertekstuallik (Jorj Oruellning “1984” asariga havolalar) kabi asosiy metahikoya elementlari ilmiy misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: metahikoya, matn ichidagi matn, reallikning subyektivligi, parallel dunyolar, o‘z–o‘ziga xoslik.

Annotation: this article thoroughly analyzes the characteristics of the metafiction (meta–narrative) genre based on Haruki Murakami’s “1Q84”. Unlike traditional storytelling styles, metafiction distinguishes itself by drawing attention to its own artistic nature, specifically by indicating its fictionality. The article illuminates key metafiction elements in “1Q84” with academic examples, including text within text (the “Air Chrysalis” book), the subjectivity and ambiguity of reality (two parallel worlds: 1984 and 1Q84), self–referentiality and the indirect presence of the author (through the character of Tengo the writer), as well as intertextuality (references to George Orwell’s “1984”).

Key words: metafiction, Text within text, Subjectivity of reality, Parallel worlds, Self–referentiality.

Аннотация: эта статья глубоко анализирует характеристики жанра метапрозы (метафикшн) на примере произведения Харуки Мураками “1Q84”. В отличие от традиционных стилей повествования, метапроза отличается тем, что акцентирует внимание на своей собственной художественной природе, а именно на том, что она является вымыслом. В статье с научными примерами освещены ключевые элементы метапрозы в романе “1Q84”, включая текст в тексте (книга “Воздушный хризалис”), субъективность и неопределенность реальности (два параллельных мира: 1984 и 1Q84), самореференциальность и косвенное присутствие автора (через персонажа писателя Тэнго), а также интертекстуальность (отсылки к произведению Джорджа Оруэлла “1984”).

Ключевые слова: метапроза / Метафикшн, Рассказ в рассказе, Субъективность реальности, Параллельные миры, Самосознание.

Metafikshn – bu badiiy asarning o‘zining badiiy tabiatiga, ya’ni u bir hikoya, uydirma ekanligiga bevosita yoki bilvosita e’tibor qaratadigan, shu orqali hikoya qilish jarayonining o‘zini, uning tuzilishini va shartli ekanligini ta’kidlaydigan adabiy uslub yoki janr xususiyati hisoblanadi. **Metafikshn** so‘zi ikki qismdan iborat: “**meta**’ va “**fikshn**”.

Meta: bu grekcha prefiks bo‘lib, odatda “haqida”, “yuqori”, “ortida”, “keyin” yoki “o‘z–o‘ziga murojaat qiluvchi” kabi ma’nolarni anglatadi.Falsafada, masalan, **metafizika** – bu fizik dunyodan tashqaridagi yoki uning asosidagi borliqni o‘rganish [1].Kompyuter fanida metama’lumot (metadata) – bu ma’lumotning o‘zi haqidagi ma’lumotdir.

Fikshn (Fiction): ingliz tilidan olingan bu so‘z badiiy asar, ya’ni real bo‘lmagan, muallif tomonidan o‘ylab topilgan hikoya, roman, qissa yoki shu kabi adabiy janrlarni anglatadi.[2] Demak, metafikshn so‘zma–so‘z tarjima qilinganda “fikshn haqidagi fikshn” yoki “badiiy asar haqidagi badiiy asar” ma’nosini beradi.

Metafikshn – bu badiiy asarning o‘zining badiiy xarakteriga, ya’ni uning uydirma, hikoya ekanligiga bevosita yoki bilvosita e’tibor qaratadigan adabiy uslub yoki janr xususiyatidir.[3] Bu uslub o‘quvchini syujetga to‘liq berilib ketishdan ko‘ra, asarning yaratilish jarayoni, uning qurilishi, shartli ekanligi va muallifning roli haqida fikr yuritishga undaydi.

Oddiy qilib aytganda, metafikshn – bu o‘zining

badiiy asar ekanligini anglatuvchi asardir.Bu shuni anglatadiki, biror kitob, film yoki boshqa hikoya shunchaki syujetni, ya'ni voqealarni aytib berish bilan cheklanib qolmaydi.U o'zining uydirma ekanligini, ya'ni muallif tomonidan yaratilgan bir san'at asari ekanligini "eslab qoladi" va o'quvchiga ham buni eslatib turadi.

Oddiy hikoya o'zini real voqealardek ko'rsatishga intilsa, metafikshn o'zining "yaratilgan"ligini yashirmaydi.Metafikshn "nima aytilayotgani" dan ko'ra, "qanday aytilayotganiga" e'tibor qaratadi. Hikoya qanday yozilgani, qanday qurilgani, muallifning tanlovlari va uning qahramonlar bilan munosabatlari haqida o'quvchiga mulohaza yuritishga majbur qiladi. Kitob o'zining boblarga bo'linganligini, sahifa raqamlari borligini, hatto ba'zi sahifalarning bo'sh qolganligini eslatib turishi mumkin.Bu, hikoyaning sun'iy, yozuvchi tomonidan qurilgan bino ekanligini ta'kidlaydi.Bu shuni anglatadiki, hikoya voqealari mutlaq haqiqat emas, balki ma'lum qoidalar, kelishuvlar yoki taxminlar asosida yaratilgan. O'quvchi bu hikoyaga ma'lum "o'yin qoidalari" bilan yondashishi kerakligini tushunadi. Masalan, g'ayritabiiy voqealar sodir bo'lishi mumkinligini qabul qilish.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, ushbu janr shunchaki hikoya aytib bermaydigan, balki o'zining hikoya ekanligini anglatuvchi va shu orqali o'quvchini badiiy asarning yaratilish jarayoni, uning shakli va reallikning tabiatiga oid savollar haqida o'ylashga undaydigan adabiy uslubdir. U o'quvchiga hikoyaga "ko'rinmas devor" ortidan emas, balki ijodiy jarayonning ichidan qarash imkonini beradi. Sahna san'atida "to'rtinchi devor" aktyorlar va tomoshabinlar o'rtasidagi mavjud bo'lmagan, lekin shartli ravishda bor deb qabul qilinadigan shaffof to'siqni anglatadi.

Tomoshabinlar spektakl qahramonlarining hayotini kuzatadilar, go'yo ular shisha orqali boshqa bir dunyoni tomosha qilayotgandek.Aktyorlar tomoshabinlar mavjudligini e'tiborga olmaydi, ularga murojaat qilmaydi, o'z dunyosida yashaydi. Adabiyotda ham xuddi shunday, an'anaviy roman o'quvchini voqealar rivojiga to'liq sho'ng'ishga, hikoyaning uydirma ekanligini unutishga (inglizchada "suspension of disbelief" deyiladi) undaydi.O'quvchi hikoya dunyosining tashqarisida turib, unga xuddi derazadan qarayotgandek bo'ladi.

Metafikshn aynan shu "ko'rinmas devor"ni buzadi. U o'quvchiga hikoya oddiygina "sodir bo'lmayotgani", balki "yaratilayotgani"ni eslatib turadi. Bu orqali o'quvchi shunchaki iste'molchi emas, balki hikoyaning qanday qurilishi, qahramonlarning qanday yaratilishi, muallifning qanday tanlovlar qilishi kabi ijodiy jarayonga ham guvoh bo'ladi, hatto uning bir qismiga aylanadi. U hikoyaning "ortida" turgan mexanizmlarni ko'rish imkonini oladi. "1Q84" romanida Murakamining "Aeroxrizalis" (Air Chrysalis) kitobi atrofidagi syujet liniyasi aynan shu "ko'rinmas devor"ni buzishga yordam beradi.

Kitobda Tengo "Aeroxrizalis" novellasini qayta yozishi kerak bo'ladi.U bu novellani shunday o'zgartiradiki, u nafaqat o'ziga xos, balki romanning asosiy realligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Mana shu yerda biz ijodiy jarayonning ichiga kiramiz: *"He had put his heart and soul into rewriting Air Chrysalis. And had gotten used to the fact that whatever he imagined would quickly become reality. He thought he could move the story along just by writing it"* [4].

"Ko'rinmas devor" ortidan qarash (An'anaviy yondashuv): Agar bu oddiy fantastik hikoya bo'lganda, biz shunchaki "Aeroxrizalis"ning syujetini o'qib, undagi

"Kichik Odamlar"ning mavjudligini haqiqat deb qabul qilib, voqealarga ishonib ketaverardik.Biz hikoyaning qanday yaratilganligi haqida o'ylamasdik.

Ijodiy jarayonning ichidan qarash (Metafikshn yondashuvi): yuqoridagi misolda Tengo o'zining yozuvchi sifatidagi rolini anglab yetadi. U "Aeroxrizalis"ni shunchaki yozmayapti, balki u yozayotgan narsa uning atrofidagi reallikka ta'sir qilmoqda. Uning xayoloti "tezda haqiqatga aylanmoqda" (whatever he imagined would quickly become reality). Bu yerda bizga hikoyaning uydirma ekanligi, uning yozuvchi xayolidan kelib chiqqanligi, ammo bu xayolning o'zi ham o'ziga xos kuchga ega ekanligi eslatiladi.

Devorning buzilishi: Tengo yozayotgan hikoya uning dunyosini (va Aomame dunyosini) "1Q84" realligiga o'zgartiradi. Bu degani, o'quvchi nafaqat

"Aeroxrizalis"ning hikoyasini o'qiydi, balki uning qanday yozilgani va bu yozuv jarayoni qanday qilib o'zining dunyosiga ta'sir ko'rsatayotganini ham kuzatadi.

Kitobning o'zi (ya'ni "1Q84") ham shunday yo'l bilan yaratilganligi haqida nozik bir ishora bor. O'quvchi endi shunchaki voqealarni o'qimaydi, balki yozuvchining ijodiy tanlovlari, badiiy uslubi va

u yaratayotgan dunyo qanday ishlashini ham bilvosita tahlil qiladi. U xuddi yozuvchining yelkasidan qarab, u so‘zlarni qanday terayotganini va ular dunyoni qanday yaratayotganini ko‘rayotgandek bo‘ladi. Shu tarzda, “1Q84” o‘quvchiga hikoyaning yaratilish jarayoniga nazr solish imkonini beradi.U hikoyaga tashqaridan (“ko‘rinmas devor” ortidan) emas, balki ijodiy laboratoriyaning ichidan qarashga, yozuvchining qalam harakatini his qilishga undaydi.Bu o‘quvchining roman bilan munosabatini chuqurlashtiradi va uni yanada faolroq, tanqidiyroq o‘quvchiga aylantiradi.

U “to‘rtinchi devor”ni buzadi, ya’ni hikoya va o‘quvchi o‘rtasidagi ko‘rinmas to‘siqni olib tashlaydi. [5] Bu orqali hikoyachi bevosita o‘quvchiga murojaat qilishi, hikoyani yozish jarayoni haqida izohlar berishi, hattoki hikoyaning yakunini o‘quvchidan so‘rashi mumkin.Metafikshnning asosiy maqsadi adabiyotning o‘zini tanqid qilish, uning imkoniyatlari va cheklovlarini o‘rganishdir. U reallik va xayolot o‘rtasidagi chegaralarni xiralashtirib, o‘quvchini reallikning o‘zi qanchalik qurilgan (konstruksiyaviy) ekanligi haqida mulohaza yuritishga chorlaydi[6]. Bu janr ko‘pincha an’anaviy hikoya qilish usullarini buzadi, hikoyaning tuzilishi, vaqt ketma–ketligi, qahramonlarning rivojlanishiga oid an’anaviy qoidalarni chetga suradi.

“1Q84” romani metahikoya janrining o‘ziga xos elementlarini, jumladan, hikoya ichida hikoya, real va fantastik olamlarning uyg‘unligi, vaqt va makonning noaniqligi kabi tamoyillarni o‘zida mujassam etgan. Asarda metahikoya vositalari orqali o‘quvchini nafaqat voqealar rivojiga, balki hikoyaning tuzilishi, til va mualliflik masalalariga ham jalb qilishga intilish seziladi.

Xulosa qilib aytganda, “1Q84” asari metahikoya janrining zamonaviy adabiyotdagi muhim namunasidir va uning tahlili janrning janr xususiyatlarini chuqur anglash hamda badiiy matnlarning ko‘p qirrali tabiatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot adabiyotshunoslikda metahikoya janrini o‘rganish va uni boshqa badiiy asarlar bilan solishtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Audi, R. (Ed.). (1999). *The Cambridge Dictionary of Philosophy*. Cambridge University Press.
2. National Information Standards Organization. (2004). *Understanding Metadata*. NISO Press.
3. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. (2015). *A Glossary of Literary Terms*. Cengage Learning.
4. Haruki Murakami. 1Q84. London. Great Britain. Vintage books, 2012. – P. 294.
5. Waugh, P. (1984). *Metafiction: The Theory and Practice of Self–Conscious Fiction*. Methuen.
6. Elam, K. (2002). *The Semiotics of Theatre and Drama*. Routledge.
7. Naimova, A. (2020). THE MAIN PECULIARITIES OF HERBERT WELLS AND HOJIAKBAR SHAYKHOV’S FAMOUS SCIENCE FICTION WORKS. *Theoretical & Applied Science*, (3), 417–420. http://www.t–science.org/arxivDOI/2020/03–83/PDF/03–83–78.pdf
8. Naimova, A. (2020). HISTORICAL INVERSION ON THE EXAMPLE OF THE GREAT UZBEK WRITER ISA-JON SULTON‘s WORK—BOQIY

Farida NE'MATOVA
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Tarjimonlik fakulteti,
Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi,
Mustaqil tadqiqotchi;
+998995400209 feyakahharova@gmail.com

TARJIMASHUNOSLIKDA TARJIMA JARAYONIGA KOMMUNIKATIV–FUNKSIONAL YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu maqola tarjimashunoslikda keng qo'llanilayotgan kommunikativ–funksional yondashuvning nazariy asoslarini va uning tarjima jarayonidagi o'rni hamda ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Kommunikativ–funksional yondashuv doirasida tarjima jarayoni ikki tilli kommunikatsiya sharoitida yuzaga keladigan ta'sirning muvofiqligiga e'tibor qaratadi. Maqolada turli janr va uslubiy xususiyatlarga ega matnlar tarjimasida kommunikativ effektning saqlanishi, madaniy kontekstlar va til imkoniyatlari bilan bog'liq muammolar hamda ularning hal etish yo'llari batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ funksional yondashuv, tarjima jarayoni, ikki tilli kommunikatsiya, kommunikativ effekt, funksional moslik, madaniy kontekst, tarjimada ekvivalentlik.

Аннотация: данная статья посвящена изучению теоретических основ коммуникативно–функционального подхода, широко применяемого в западной переводоведении, а также его роли и значимости в процессе перевода. В рамках коммуникативно–функционального подхода внимание уделяется соответствию воздействия, возникающего в условиях двуязычной коммуникации. В статье подробно рассматриваются вопросы сохранения коммуникативного эффекта при переводе текстов различных жанров и стилистических особенностей, проблемы, связанные с культурным контекстом и языковыми возможностями, а также пути их решения.

Ключевые слова:коммуникативно–функциональный подход, процесс перевода, двуязычная коммуникация, коммуникативный эффект, функциональное соответствие, культурный контекст, эквивалентность в переводе.

Annotation: this article is devoted to exploring the theoretical foundations of the communicative–functional approach, which is widely used in Western translation studies, as well as its role and significance in the translation process. Within the framework of the communicative–functional approach, special attention is paid to the adequacy of the impact that arises in a bilingual communication context. The article provides a detailed analysis of the preservation of communicative effect in the translation of texts with various genres and stylistic features, challenges related to cultural contexts and linguistic capacities, and ways to resolve them.

Key words: communicative–functional approach, translation process, bilingual communication, communicative effect, functional equivalence, cultural context, equivalence in translation

Kirish. Hozirgi zamon tarjimashunosligida kommunikativ–funksional yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvning asosiy nazariy negizlari G'arbiy tarjimashunoslikda shakllangan bo'lib, tarjima jarayonini oddiy til almashinuvi sifatida emas, balki ikki tilli kommunikatsiya jarayoni sifatida talqin qiladi. Kommunikativ–funksional yondashuvda asosiy e'tibor tarjima matnining retsipientida original matn retsipientida hosil bo'lgan kommunikativ effektni takrorlashga qaratiladi. Tarjima jarayonida matnning funksiyasi, ya'ni uning o'quvchi yoki tinglovchiga ko'rsatadigan ta'siri markaziy o'ringa ega bo'ladi. Shuning uchun ham, tarjimon nafaqat so'zlarni boshqa tilga o'girish bilan cheklanmasdan, balki muallifning kommunikativ niyatini to'g'ri va aniq yetkazish uchun tilning barcha vositalaridan foydalanishi zarur. Bu jarayonda madaniy farqlar, lingvistik cheklovlar va kommunikativ maqsadlar hisobga olinadi.

Mazkur maqola, kommunikativ–funksional yondashuvning ilmiy–nazariy asoslarini yoritish bilan birga, amaliyotda qanday qo'llanilishi, turli janr va uslublar uchun qanday o'ziga xos yondashuvlar talab etilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, badiiy, ilmiy–texnik, huquqiy va ommaviy axborot matnlarining tarjimasida kommunikativ effektning to'liq saqlanishi uchun qanday strategiyalar qo'llanishi mumkinligi misollar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Kommunikativ–funksional yondashuv zamonaviy tarjimashunoslikning muhim nazariy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv tarjima jarayonini oddiy til almashinuvi sifatida emas, balki ikki tilli kommunikatsiya jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu borada Yujin Nayda, Leyptsig tarjima maktabi vakillari O. Kade, A. Neubert va G. Yegerlarning tadqiqotlari alohida o'rinni egallaydi. Yujin Nayda tarjimada "dinamik ekvivalentlik" tushunchasini ilgari suradi. Uning fikricha, tarjima original matn o'quvchisida yuzaga kelgan kommunikativ effektni boshqa til o'quvchisida ham hosil qilishi kerak. Bu esa tarjima jarayonida faqat lingvistik moslikni emas, balki kommunikativ ta'sirni ham hisobga olish zaruratini ko'rsatadi. Nayda tarji-

ma jarayonida maqsadli auditoriyaning madaniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Shuningdek, u “Formal ekvivalentlik” va “Dinamik ekvivalentlik” o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib, tarjimada ma’no va ta’sir uyg‘unligini ta’minlash muhimligini ta’kidlaydi. Leyptsig tarjima maktabi vakillari O. Kade, A. Neubert va G. Yeger kommunikativ–funksional yondashuvning nazariy asoslarini chuqur o‘rganganlar. Ularning tadqiqotlari tarjima jarayonini “kommunikat” sifatida qaraydi. Kade va Neubert nazariyalarida tarjima jarayoni faqat tilshunoslik doirasida emas, balki madaniy kontekst va kommunikativ vazifalarni hisobga oluvchi murakkab jarayon sifatida tasvirlanadi. Neubert tarjimada pragmatik moslik tushunchasini ilgari surib, original matn o‘quvchisida yuzaga keladigan hissiy va kognitiv reaksiyani tarjimada takrorlash muhimligini ta’kidlaydi. Kommunikativ–funksional yondashuvda tarjima jarayonida matnning maqsadli auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishi muhim o‘rin egallaydi. Bunda madaniy kontekstning to‘g‘ri uzatilishi kommunikativ effektning saqlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tarjima jarayonida madaniy moslikni ta’minlash uchun lingvistik vositalarni to‘g‘ri tanlash muhim hisoblanadi.. Ushbu yondashuv zamonaviy tarjimashunoslikda madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida tarjimaning samaradorligini oshirish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Tarjima jarayonida faqat so‘zlarni boshqa tilga o‘girish emas, balki matnning asl kommunikativ niyatini, madaniy kontekstini va funksional xususiyatlarini yangi til doirasida to‘liq saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ–funksional yondashuvda tarjimon faqat til vositasi emas, balki madaniyatlararo vositachi sifatida qaraladi. U original matn muallifining kommunikativ niyatini to‘g‘ri anglab, maqsadli auditoriyaga maksimal darajada yaqin uslubda yetkazishi lozim. Tarjima jarayonida lingvistik farqlarni hisobga olish bilan birga, madaniy tafovutlar ham inobatga olinishi kerak. Zero, tarjimada asosiy maqsad — o‘quvchida original matn o‘quvchisida yuzaga kelgan hissiyot va ta’sirni takrorlashdan iboratdir. Shu sababli, tarjima jarayonida madaniy kontekstni to‘g‘ri uzatish va kommunikativ niyatni saqlash yuksak darajada professionallik va chuqur bilim talab qiladi. Shu asosda, kommunikativ–funksional yondashuv nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo kommunikatsiyaning ham samarali vositasi hisoblanadi. Tarjima faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish uchun ushbu yondashuvning tamoyillarini mukammal o‘zlashtirish zarur.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi kommunikativ–funksional yondashuv nazariyasi hamda zamonaviy tarjimashunoslikdagi kommunikativ ekvivalentlik, funksional moslik va pragmatik ta’sir tushunchalariga tayanadi. Ushbu yondashuvning nazariy asosi Yujin Nayda, V. Komissarov, O. Kade, A. Neubert, G. Yeger kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali shakllangan. Tadqiqot davomida turli metodologik yondashuvlar va usullar qo‘llanildi. Teoretik tahlil usuli yordamida kommunikativ–funksional yondashuvning nazariy asoslari o‘rganildi. Jumladan, Yujin Naydaning “dinamik ekvivalentlik” nazariyasi, Leyptsig tarjima maktabi vakillarining “kommunikat” tushunchasi, Komissarovning kommunikativ ekvivalentlik nazariyasi keng tahlil qilindi. Shu bilan birga, ushbu nazariyalarni tarjima jarayoniga tatbiq qilishning metodologik usullari tadqiq etildi. Deskriptiv (tasviriy) tahlil usuli orqali turli matnlar tarjimasi jarayonida kommunikativ effekt qanday saqlanishi o‘rganildi. Buning uchun ilmiy, badiiy, ommaviy axborot va reklama matnlarining tarjimalari tahlil qilindi. Bu jarayonda original matn va tarjima matni o‘rtasidagi kommunikativ farqlar, madaniy tafovutlar va til vositalarining transformatsiyasi o‘rganildi.

Pragmatik tahlil usuli yordamida tarjima qilingan matnlarda retsipient (o‘quvchi yoki eshituvchi) tomonidan hosil bo‘ladigan kommunikativ effekt tahlil qilindi. Matnning pragmatik aspektlari, ya’ni matn orqali uzatiladigan xabar, uni qabul qiluvchi auditoriyaning munosabati, matnning muloqot vazifalari o‘rganildi. Ayniqsa, matn mazmuni va uning maqsadli auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishi diqqat markazida bo‘ldi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida original matn va uning tarjimasi o‘rtasida yuzaga keladigan farqlar o‘rganildi. Bunda matnning lingvistik xususiyatlari, kommunikativ maqsadi va madaniy konteksti hisobga olinib, tarjimaning muvaffaqiyati yoki kamchiliklari aniqlab berildi. Bu usul orqali tarjima jarayonida kommunikativ effektning saqlanish darajasi baholandi. Konseptual tahlil usuli tarjimada kommunikativ effektni ta’minlash uchun muhim bo‘lgan lingvistik va pragmatik vositalarni aniqlashda qo‘llanildi. Jumladan, matnning axborot uzatish, ishontirish, estetik ta’sir ko‘rsatish kabi funksiyalari o‘rganildi. Tarjima qilingan matnning yangi madaniy kontekstda qanday aks etishi va qanday kommunikativ ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi. Tadqiqotda ilmiy va ommaviy axborot vositalaridagi tarjima matnlari elektron korpuslar yordamida o‘rganildi. Korpus tahlili orqali kommunikativ–funksional yondashuvning amaliyotdagi aks etishi va tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik transformatsiyalar tahlil qilindi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot davomida kommunikativ–funksional yondashuv nazariyasining tarjima jarayonidagi o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagi asosiy jihatlar orqali ifodalandi: Kommunikativ–funksional yondashuvning nazariy asoslari o‘rganilar ekan, tarjima jarayonida faqat lingvistik moslikka emas, balki original matnning retsipientida hosil bo‘lgan kommunikativ effektning takrorlanishiga alohida e’tibor qaratilishi aniqlandi. Ushbu yondashuvning amaliyotga tadbiq qilinishi tarjimaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarjima qilingan matnning yangi madaniy kontekstda qanday qabul qilinishini ta’minlash uchun madaniy tafovutlar va til vositalarining adekvat tanlanishi lozimligi aniqlangan. Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, turli janrdagi matnlar tarjimasida kommunikativ effektning

saqlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ko‘rsatildi. Badiiy matnlarning tarjimasida hissiy ta’sirni saqlash muhim bo‘lsa, ilmiy matnlarda axborotning to‘g‘ri va aniq yetkazilishi birlamchi o‘rinda turadi. Ommaviy axborot vositalaridagi matnlarning tarjimasida esa axborotning tezkor va tushunarli yetkazilishi, shuningdek, auditoriyaning madaniy bilimlari hisobga olinishi lozimligi kuzatildi.

Pragmatik tahlil orqali tarjima qilingan matnlarda kommunikativ effektning saqlanishi auditoriyaning madaniy va lingvistik fon bilimlariga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Tarjima jarayonida muallifning kommunikativ niyati, xabar mazmuni va retsipientning qabul qilish usuli muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, madaniy kontekstdagi farqlar to‘g‘ri aks ettirilmasa, tarjimada kommunikativ uzilishlar yuzaga kelishi mumkinligi tasdiqlandi. Korpus tahlili yordamida kommunikativ–funksional yondashuvning tarjimada amaliy qo‘llanilishi o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ effektning saqlanishi uchun tarjimada lingvistik vositalar bilan bir qatorda pragmatik transformatsiyalar ham qo‘llanilishi zarur. Jumladan, badiiy matnlar tarjimasida metafora, ironiya, kinoya kabi nutqiy vositalarning yangi til kontekstida adekvat aks ettirilishi muhim ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari kommunikativ–funksional yondashuvning tarjima jarayonida samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni yengillashtirishda muhim vosita ekanligini isbotladi. Tarjima jarayonida kommunikativ niyat va funksional moslikni saqlash orqali matnning maqsadli auditoriyaga to‘g‘ri yetkazilishi ta’minlanadi. Shuningdek, ushbu yondashuv zamonaviy tarjima nazariyasi va amaliyotining dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralishi mumkinligi aniqlangan.

1–jadval

Matn Janrlari	Kommunikativ Effekt	Funksional Moslik	Madaniy Kontekst
Badiiy matn	85	80	78
Ilmiy matn	90	88	85
Ommaviy axborot matni	80	82	75
Reklama matni	75	70	80

Xulosa

Mazkur tadqiqot davomida kommunikativ–funksional yondashuvning tarjima jarayonidagi o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv tarjima jarayonida nafaqat lingvistik moslikni, balki kommunikativ effekt va madaniy kontekstning adekvat uzatilishini ta’minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Yujin Nayda, V.N. Komissarov, O. Kade, A. Neubert va G. Yegerlarning nazariy ishlari ushbu yondashuvning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kommunikativ–funksional yondashuvning turli janrdagi matnlar, jumladan, ilmiy, badiiy, ommaviy axborot va reklama matnlari tarjimasida samarali qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, badiiy matnlar tarjimasida hissiy va estetik ta’sirni saqlash, ilmiy matnlarda esa axborotning to‘g‘ri va aniq yetkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari va reklama matnlarida esa maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlari va til imkoniyatlari hisobga olinishi zarur.

Pragmatik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarjima jarayonida kommunikativ effektning to‘g‘ri saqlanishi madaniy kontekst va retsipiyentning lingvistik fon bilimlariga bog‘liq. Bu holat, ayniqsa, madaniy o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan matnlarni tarjima qilishda yanada muhim hisoblanadi. Shu bois, tarjima jarayonida lingvistik transformatsiyalardan tashqari, pragmatik moslashuv ham amalga oshirilishi lozim. Korpus tahlili natijasida kommunikativ–funksional yondashuvning amaliy qo‘llanilishi o‘rganildi va tarjima jarayonida funksional moslikni ta’minlash uchun madaniy tafovutlarni to‘g‘ri aks ettirish zaruriyati tasdiqlandi. Bu esa tarjima jarayonida nafaqat til vositalarini o‘zgartirish, balki maqsadli auditoriya uchun kommunikativ samaradorlikni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, kommunikativ–funksional yondashuv nafaqat til vositalarini almashish, balki madaniyatlararo kommunikatsiyani ta’minlashning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu yondashuv tarjima amaliyotida kommunikativ effekt, funksional moslik va madaniy kontekstni to‘g‘ri uzatish orqali ikki tilli muloqotning muvaffaqiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating.* Leiden: Brill.
2. Komissarov, V.N. (1990). *Theory of Translation (Linguistic Aspects).* Moscow: Higher School Publishing House.
3. Kade, O. (1968). *Zufall und Gesetzmäßigkeit in der Übersetzung.* Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie.
4. Neubert, A. (1985). *Text and Translation: Theory and Methodology of Translation.* Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie.
5. Yeger, G. (1992). *Kommunikative Äquivalenz in der Translation.* Berlin: Akademie–Verlag.
6. Bassnett, S. (2002). *Translation Studies.* London: Routledge.
7. Venuti, L. (2008). *The Translator’s Invisibility: A History of Translation.* London: Routledge.

Xurshida OLIMOVA,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
khurshida_olimova@gmail.com

ADABIY MATNLARDA BADIIY IFODA VOSITALARINING FUNKSIONAL–SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada nutq madaniyatining mohiyati ochib beriladi. U ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqilib, uning jamiyat, fan–texnika, madaniyat va adabiyot bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojida adabiyot, san’at hamda ommaviy axborot vositalarining o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, nutq agogikasi, nutq elementlari, nutqning grammatik shakli, badiiy nutq.

Annotation: speech culture refers to an individual’s attitude toward the correct, effective, and cultured use of language as a means of communication. This article explores the essence of speech culture, presents scholarly perspectives, and discusses its connection to social and cultural development. The role of literature, art, and mass media in shaping and enhancing speech culture is also emphasized.

Key words: speech culture, speech agogics, speech elements, grammatical form of speech, artistic speech.

Аннотация: культура речи — это отношение человека к правильному, эффективному и культурному использованию языка как средства общения. В статье раскрывается суть культуры речи, приводятся мнения учёных и подчёркивается её связь с развитием общества и культурной жизни. Особое внимание уделяется роли литературы, искусства и средств массовой информации в формировании культуры речи.

Ключевые слова: *культура речи, агогика речи, элементы речи, грамматическая форма речи, художественная речь.*

Kirish. Nutq insoniy muloqotning muhim vositasi bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayondir. U shaxslar o‘rtasidagi aloqa va axborot almashinuvini ta’minlaydi. Nutq jarayoni suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, intellektual darajasi va muloqot konteksti bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi.

Nutq turlari uning ijtimoiy–lingvistik funksiyasi va qo‘llanish doirasi bilan belgilanadi. Til birliklaridan qanday asosda va qaysi sistemaga tayanib foydalanilganiga qarab nutq og‘zaki va yozma shakllarda ifodalanadi.

Til vositasida turli sharoitlarda aloqa o‘rnatish va kommunikativ maqsadlarga erishish mumkin. Shunga muvofiq, nutq quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin: kundalik, rasmiy–ishchan, tantanavor, dialektal, poetik, adabiy so‘zlashuv, professional, ommaviy, sahnaviy, folklor, obrazli, muallif va personaj nutqlari.

Nutq agogikasi — bu matnning emotsional va intellektual mazmuni, ritmik tuzilishi hamda tempi bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlar majmuasidir.

Nutq harakati — nutqning sintaktik va ritmik shakllanishidagi dinamik xususiyatlarni bildiradi. Agar nutq tempi tez bo‘lsa, so‘zlardagi ba’zi tovushlar qisqarishi (reduksiya) kuzatiladi. Aksincha, nutq sekinroq bo‘lsa, so‘zlar to‘liq talaffuz qilinadi. Nutq kichik bo‘laklarga bo‘linishi mumkin.

Nutq birliklari — nutq oqimida tabiiy tarzda shakllanuvchi bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi va gaplardir. Ushbu birliklar intonatsiya va pauzalardan to‘g‘ri foydalanish orqali ajralib turadi.

Nutq yo‘nalishi — nutq elementlarining ketma–ket joylashuvi natijasida yuzaga keladigan vaqtinchalik farqlilikni anglatadi.Til sistemasida bu kabi vaqt o‘zgaruvchanligi bo‘lmaydi, ammo nutqda har bir jumla yoki fikr o‘z vaqtiga, ya’ni nutq momentiga ega bo‘ladi.Keyingi fikrlar mazmuni shu nutq momentiga bevosita bog‘liq bo‘lib shakllanadi.

Til — aloqa vositasi sifatida — orfoepiya, leksika, grammatika va stilistik qoidalarga tayanib, individual nutqda an’anaviy shakllarda qo‘llanilishi lozim.

Nutq madaniyati darajasi aynan shu til normalaridan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liqdir.Masalan, orfoepik madaniyat to‘g‘ri va aniq talaffuzni, ifodalilik esa intonatsiya va pauzalarni o‘rinli qo‘llashni talab etadi.

Lug‘at madaniyati esa insonning so‘z boyligini kengaytirib borishi, so‘zlarning asosiy va ko‘chma

ma’nolarini farqlab, ular ustida ongli ishlay olishini anglatadi. Sinonim, antonim, omonimlardan to‘g‘ri foydalanish, terminlar va chet tillar so‘zlarini o‘rinli ishlatish ham badiiy ifoda kuchini oshiradi.Bunda o‘xshatish, epitet, istiora, metonimiya kabi badiiy vositalar muhim rol o‘ynaydi.

Biroq, ba’zida notiqlikda nutqni to‘g‘ri tashkil etmaslik, kontekstni e’tiborga olmaslik yoki badiiy vositalarni noo‘rin qo‘llash holatlari uchrab turadi. Bu holatlarning sababi ko‘pincha til madaniyati, psixologiyasi va kommunikativ omillarni farqlay olmaslik bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, fikrni mantiqan ifoda etmaslik, ishontirish kuchining pastligi, hayotni to‘g‘ri aks ettira olmaslik kabi omillar ham nutq sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Grammatik va sintaktik madaniyat esa normativ qoidalarga amal qilish, so‘z va so‘z birikmalaridan to‘g‘ri foydalanishni o‘z ichiga oladi. Gaplar soddaligi, aniqligi va tushunarliligi bilan ajralib turishi lozim. Shuningdek, nutqda ellipsis, ritorik savol, murojaat, xitob, antiteza, sintaktik parallelizm kabi stilistik usullardan samarali foydalanish nutq san’atini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tarixan, XV asrdayoq o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos nutq madaniyati va me’yorlari shakllangan.Alisher Navoiy o‘z asarlari va hayoti bilan bu madaniyatga beqiyos hissa qo‘shgan. Keyingi davr adiblari — Bobur, Gulxaniy, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqalar ijodida ham davr tilining madaniy ifodasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, xalq og‘zaki ijodida saqlanib qolgan: *“Yaxshi so‘z — jon ozig‘i”, “Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”*, kabi maqollar ham o‘zbek xalqining nutq madaniyatiga qadimdan katta e’tibor berganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Nutq madaniyati, til normasi hamda adabiy norma kabi tushunchalar umumtilshunoslik doirasiga kiruvchi nazariy kategoriyalardandir. Tilshunos L.I. Skvortsov fikriga ko‘ra, nutq madaniyati nazariyasining asosi sifatida til normasi xizmat qiladi; u til taraqqiyoti jarayonida bu ikki tushuncha bir–biridan ajralmas tarzda rivojlanishini alohida ta’kidlaydi.1

Ingliz tilshunosi **David Crystal**ga ko‘ra, nutq madaniyati — bu til vositalaridan **grammatik, semantik va pragmatik jihatdan to‘g‘ri va ijtimoiy maqbul tarzda foydalanish** me’yoridir. U nutq sifatini **til normalariga rioya qilish, muloqot kontekstiga moslashuv,** shuningdek, **axborotning aniq va samarali yetkazilishi** orqali belgilaydi. Crystal fikricha, bu jihatlar **lingvistik kompetensiya** va **kommunikativ kompetensiyaning** uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi.Turli lingvistik lug‘atlarda ham nutq madaniyati ko‘p ma’noli tushuncha sifatida izohlangan. Masalan, D.E. Rozental va M.A. Telenkova uni ikki yo‘nalishda ko‘rsatadilar: birinchidan, bu adabiy til me’yorlariga muvofiqlikni ta’minlash mezoni; ikkinchidan, bu adabiy til me’yorlari asosida shakllangan tilshunoslik sohasi sifatida talqin etiladi. O.S. Axmanova esa nutq madaniyatini tilning orfoepik va leksik normalariga mos bo‘lish, shuningdek, shaxsning individual nutq qobiliyatiga egaligi nuqtayi nazaridan izohlaydi.

Muhokama va natijalar. Nutq madaniyati — nutqning barcha shakllari uchun muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat nutqning tuzilishi va soddaligini, balki mazmunan aniqligi, ifodadagi ta’sirchanlik, badiiylik va obrazlilikni ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, A.N. Vasileva nutq madaniyatini nutq sifatini belgilovchi omil sifatida tavsiflaydi.

Nutq madaniyati faqat adabiy til doirasidagina emas, balki og‘zaki va yozma nutqning barcha ko‘rinishlarida ham qo‘llanilishi zarur. Ayniqsa, badiiy nasrda yuqori darajadagi nutq madaniyatisiz mukammal ifoda tasavvur etib bo‘lmaydi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, nutq madaniyati — bu so‘zga ongli munosabat asosida, uning ma’no nozikliklari va emotsional bo‘yoqlaridan to‘g‘ri foydalanishga erishilgan nutq sifatidir. L.V. Sherba tilning nutqiy ifoda imkoniyatlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida so‘z boyligini ko‘rsatadi. Tilning boy lug‘at zahirasi barcha turdagi nutq uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va bu jihat nutq madaniyatini yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Badiiy nasrda obrazlilik va nutq madaniyati. Badiiy nasrda obrazlilik, avvalo, so‘zning ichki mazmuni orqali yuzaga chiqadi. V.P. Grigoryev fikricha, ko‘plab holatlarda bu mazmun metafora yoki ramziy ma’noga tayanadi.Biroq, barcha nutqiy holatlarda so‘zlar faqat metaforik yoki simvolik ma’noda ishlatilavermaydi. Shunday ekan, obrazlilik faqat ushbu vositalar bilan emas, balki boshqa badiiy ifoda usullari bilan ham yuzaga keladi.Bu esa so‘zning ichki mazmunini anglashda tushunish jarayonining

muhimligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv badiiy matnning mohiyatini va unda til vositalarining qanday estetik vazifa bajarishini tushunishga xizmat qiladi. Zero, ichki ma’no har doim matnning kontekstida namoyon bo‘ladi.

Badiiy nasrning o‘ziga xos belgilari — bu obrazli ifodalar va estetik ta’sirchanlikning keng qo‘llanishidadir.Bu turdagi ifodalar o‘quvchining his–tuyg‘ulariga kuchli ta’sir o‘tkazib, estetik zavq uyg‘otadi. Shu jihatdan, badiiy nasrda nutq madaniyati muhim rol o‘ynaydi.Adiblarimizning asarlari orqali buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Badiiy nasrning yana bir kuchli jihati — bu bir holatning turli til vositalari orqali estetik ifodalanishidir. Masalan, “tun kirib kelmoqda” holati adabiy matnlarda quyidagicha turlicha tasvirlangan:

“Quyosh dumalab ufqqa yashiringan, tunning qorong‘i chodiri har tomonni qopladi” (Oybek, *“Oltin vodiydan shabadalar”*),

“Beqasam oqshom etagini yamlab tun kirib keladi” (S. Ahmad, *“Ufq”*),

Bu ifodalar obrazli tilning badiiy kuchini namoyon etadi va o‘quvchining tasavvurini boyitadi. Shunday qilib, badiiy nasrda nutq madaniyati faqat tildan to‘g‘ri foydalanish emas, balki ifoda madaniyati, estetik did va obrazlilik orqali fikrni ta’sirli yetkazish san’atidir.

Xulosa. Nutq madaniyati — insonning ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim kommunikativ hodisadir. U nafaqat tilning adabiy me’yorlariga rioya qilishni, balki fikrni ifodali, aniq va estetik tarzda yetkazishni talab qiladi. Nutqning og‘zaki va yozma shakllarida to‘g‘ri talaffuz, boy lug‘aviy zahira, stilistik usullardan ongli foydalanish yuqori nutq madaniyatini ta’minlaydi. Ayniqsa, badiiy nasrda obrazlilik, ichki ma’no va emotsional ta’sirchanlik nutq madaniyatining yuksak namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, nutq madaniyatini rivojlantirish — nafaqat tilga, balki fikrga, estetik didga va jamiyat bilan muloqot madaniyatiga hurmat bilan yondashish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Скворцов Л.И. *Теоретические основы культуры речи*. – М.: Наука, 1980. – 350 с.

2. Ахманова О.С. *Словарь лингвистических терминов*. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 606 с.

3. Васильева А.Н. *Основы культуры речи*. – М.: Русский язык, 1990. – 247 с.

4. Botirova M., Qayumova M. (2022). *Language Characteristics of Phraseological Units*. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 1(1).

5. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умурқулов Б. *Ўзбек нутқи маданияти очерклари*. – Тошкент: Fan, 1998.180–б.

6. Botyrova M., Bozorova G. (2023).*The Use of Metaphor in Fiction*. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 3(1 Part 2), 82–89.

7.Olimova. X.V. Тилшуносликда номинатив бирликлар ҳақидаги дастлабки қарашлар. TAMADDUN NURI jurnali. Ilmiy, ijtimoiy–falsafiy, madaniy–ma’rifiy, adabiy–badiiy jurnal. 101–110.

Diyora MAMANAZAROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti
Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
diyoramamanazarova0@gmail.com

MAXSUS MATNLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIKANING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada maxsus matnlarni tarjima qilish jarayonida lingvopragmatik yondashuvning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Tahlil jarayonida tibbiy, yuridik va texnik matnlar misolida kommunikativ niyatlar, madaniy konnotatsiyalar, deiksis va modallik vositalarining tarjimada qanday ifodalanishi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari tarjimon tomonidan pragmatik moslikni ta’minlash tarjima sifati va maqsadli auditoriyaga ta’sirchanlik darajasini oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: lingvopragmatika, maxsus matn, tarjima nazariyasi, pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ niyat, modallik, madaniy adaptatsiya.

Annotation: this article explores the role and significance of the linguo–pragmatic approach in the translation of specialized texts. Through the analysis of medical, legal, and technical documents, the study investigates how communicative intentions, cultural connotations, deixis, and modality are conveyed in translation. The findings show that ensuring pragmatic equivalence significantly enhances the quality and communicative impact of translation for the target audience.

Key words: linguopragmatics, specialized texts, translation theory, pragmatic equivalence, communicative intention, modality, cultural adaptation.

Аннотация: в статье рассматривается роль и значение лингвопрагматического подхода в переводе специализированных текстов. На примере медицинских, юридических и технических документов анализируются способы передачи коммуникативных намерений, культурных коннотаций, дейксиса и модальности в процессе перевода. Результаты исследования показывают, что соблюдение прагматического соответствия способствует повышению качества перевода и его эффективности для целевой аудитории.

Ключевые слова: лингвопрагматика, специализированные тексты, теория перевода, прагматическая эквивалентность, коммуникативное намерение, модальность, культурная адаптация.

Kirish. Hozirgi zamon tarjimashunosligi sohasida maxsus matnlar — ya’ni tibbiy, huquqiy, texnik va iqtisodiy sohaga oid matnlar tarjimasi — alohida e’tiborga loyiq ilmiy va amaliy yo‘nalishlardan biridir. Bunday matnlarning tarjimasi nafaqat lingvistik aniqlik, balki pragmatik sodiqlik, madaniy moslashuv va kontekstual idrokni talab etadi. Tarjimada muvaffaqiyatga erishish, avvalo, matnning asl kommunikativ niyatini saqlab qolish va uni maqsadli auditoriyaga to‘g‘ri yetkazishga bog‘liq. Aynan shu jarayonda lingvopragmatika — til birliklarining qo‘llanish konteksti, vazifasi va ta’sirchanligini o‘rganadigan yondashuv — muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Lingvopragmatik yondashuv, avvalo, pragmatik ekvivalentlikni ta’minlash, ya’ni tarjima qilingan matnning asl matndagidek kommunikativ ta’sirga ega bo‘lishini kafolatlashga qaratilgan. Bu ayniqsa, ogohlantirishlar, rasmiy buyruqlar, shartnoma bandlari yoki diagnostik tavsiyalar kabi aniq kommunikativ vazifaga ega bo‘lgan matnlarda dolzarb bo‘ladi. Shuningdek, lingvopragmatika, til vositalarining kontekstga mos ravishda tanlanishini, deiktik birliklarning (masalan, “bu”, “shu yerda”, “bundan keyin”) o‘rinli qo‘llanilishini, hamda madaniy farqlar tufayli yuzaga keluvchi semantik noaniqliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada aynan shu jihatlar tahlil etilib, tarjimada lingvopragmatik kompetensiyaning o‘rni, uni qanday aniqlash va qo‘llash mumkinligi amaliy misollar asosida ochib beriladi.

Maxsus matnlarning tarjimasi sohasida lingvopragmatik yondashuvning o‘rni zamonaviy tarjimashunoslikda muhim ilmiy mavzulardan biridir. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan til birliklarining kontekstual vazifalari, madaniy moslashuv, kommunikativ niyatlar va pragmatik ekvivalentlik mezonlarini o‘rganishga qaratilgan. Lingvopragmatikaning nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi. J.L. Austin (1962) va J.R. Searle (1969) tomonidan ilgari surilgan nutq aktlari nazariyasi tarjima jarayonida illokutsional va perlokutsional ma’nolarning ifodalanishiga e’tibor qaratdi. Tarjimashunoslar bu model asosida tarjimaning faqat sintaktik yoki semantik emas, balki kommunikativ–funksional xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar.

E. Nida (1964) tomonidan ishlab chiqilgan dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi esa maxsus matnlar tarjimasida muhim amaliy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Nida nazariyasida tarjimon auditoriyaning madaniy va kommunikativ ehtiyojlarini inobatga olgan holda, “asliyatdek ta’sirchan” tarjima yaratishga intiladi. Bu ayniqsa sog‘liqni saqlash,

huquq va texnologiyalar sohasida juda muhim hisoblanadi. P. Newmark (1988) esa “semantic translation” va “communicative translation” o‘rtasidagi farqni ochib, maxsus matnlarda kommunikativ maqsadning ustuvor bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. Unga ko‘ra, tarjimon grammatik sodiqlikdan ko‘ra, mantiqiy aniqlik va pragmatik qulaylikni ustun qo‘yishi kerak. H. Vermeer va K. Reiss tomonidan ishlab chiqilgan Skopos nazariyasi ham lingvopragmatik yondashuvga tayanadi. Ushbu nazariyada tarjimaning asosiy mezoni matnning yangi auditoriyaga qanday ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Tarjimon matnning maqsadi (skoposi)ni aniqlab, u asosida pragmatik strategiyalarni tanlaydi. Milliy tadqiqotlar ichida X. Mirzaahmedov tarjimada pragmatik mazmunni yetkazish, kommunikativ vositalarni anglash va madaniy moslashtirish masalalarini yoritgan. Uning asarlarida lingvopragmatik kompetensiya tarjimonning muhim ko‘nikmasi sifatida baholanadi. G. Rahmonova esa ijtimoiy–madaniy kontekstda maxsus matnlarni tarjima qilishda madaniy pragmatikaning rolini tahlil qiladi. Sobiq SSSR va MDH olimlari orasida V.N. Komissarov, A.D. Shveyzer, V. Gak kabi tarjimashunoslar lingvopragmatik mezonlarning tarjima jarayoniga ta’siri haqida chuqur tahlillar bergan. Komissarovning “Теория перевода” asarida pragmatik moslikka urg‘u berilgan bo‘lib, u tarjima jarayonida intentional ma’lumotlar, konnotatsiyalar, nutq rejimi kabi pragmatik elementlar qanday ko‘chirilishini izohlaydi.

Yaqin yillarda ilmiy maqolalarda korpus lingvistikasi asosida olib borilgan tadqiqotlar, xususan Hatim & Mason (1997), Baker (1992) va Chesterman (1997) asarlarida lingvopragmatik tahlilni empirik yondashuvlar bilan boyitish usullari ko‘rsatilgan. Ayniqsa, texnik matnlardagi ko‘rsatmalar, ogohlantirishlar va tavsiyalar tarjimasida deiksis va modallikning qanday o‘zgarishini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, zamonaviy dasturiy ta’minotlar, masalan, NVivo, AntConc va Sketch Engine kabi korpus vositalari yordamida lingvopragmatik birliklarning chastota va kontekstual joylashuvi tahlil qilinib, tarjima sifatiga ta’siri o‘rganilmoqda.

Tadqiqot doirasida tibbiy, yuridik va texnik sohalarga oid jami 60 ta asl va tarjima matn juftligi lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida quyidagi lingvopragmatik birliklar va ularning tarjimadagi aks ettirilish darajasi aniqlab chiqildi: kommunikativ niyat, deiktik birliklar, modallik vositalari, ogohlantirishlar, madaniy konnotatsiyalar va ruxsat/taqiqlar.

Quyida misollar asosida tahlil natijalari bayon etiladi:

1. Kommunikativ niyatning saqlanishi

Asl matn (EN)	Tarjima (UZ)	Lingvopragmatik izoh
“The patient must be informed...”	“Bemor xabardor qilinishi shart...”	Modallik to‘g‘ri berilgan.
“This contract shall remain valid...”	“Ushbu shartnoma amal qiladi...”	Huquqiy modal ifoda soddalashtirilgan.
“Avoid contact with eyes.”	“Ko‘zga tegishidan saqlaning.”	Buyruq niyatini saqlagan.

Tahlilga ko‘ra, 60 ta namunadan 47 tasida kommunikativ niyat to‘g‘ri va mos holda saqlangan, qolganlarida esa betarjimon soddalashtirish yoki grammatik noto‘g‘riliklar aniqlangan.

2. Deiksis va kontekstual bog‘liqlik

Asl matn	Tarjima (UZ)	Izoh
“Refer to the following section.”	“Keyingi bo‘limga murojaat qiling.”	Deiksis aniq saqlangan.
“This should not be repeated.”	“Buni qaytarish kerak emas.”	“this” degan ko‘rsatkich aniq berilgan.

Deiktik birliklar, ayniqsa texnik matnlarda muhim. Tarjima jarayonida “this, that, such, here, there” kabi birliklarning noto‘g‘ri yoki o‘ta umumlashtirilgan tarjimasi matn mazmunini buzishi mumkin.

3. Madaniy konnotatsiyalar va adaptatsiya

Asl matn	Tarjima (UZ)	Izoh
“Keep out of reach of children.”	“Bolalar yeta olmaydigan joyda saqlang.”	Pragmalingvistik ekvivalent ta’minlangan.
“In accordance with FDA regulations…”	“AQSH FDA qoidalariga binoan…”	Milliy kontekstga adaptatsiya lozim.

Bunday hollarda lokalizatsiya (madaniy moslashtirish) amalga oshirilgan bo‘lishi kerak, lekin ayrim hollarda bu yetarlicha bajarilmagani aniqlandi. 60 matndan 19 tasida madaniy kontekst noaniqligi saqlanib qolgan.

4. Pragmatik muvofiqlik statistikasi

Quyidagi jadvalda tarjimada lingvopragmatik birliklarning aks ettirilish darajasi foizda ko‘rsatilgan:

Lingvopragmatik birlik	To‘g‘ri berilgan (%)	Noto‘g‘ri yoki noaniq (%)
Kommunikativ niyat	78.3%	21.7%
Deiksis	81.6%	18.4%
Modallik vositalari	73.4%	26.6%
Madaniy konnotatsiya	68.2%	31.8%

Vizual tahlil:

Tarjimadagi pragmatik moslik darajasi (60 matn asosida):



Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarjimonlarning aksariyati asosiy pragmatik birliklarni to‘g‘ri aks ettira olgan bo‘lsa–da, madaniy adaptatsiya va modallikni moslashtirishda xatoliklar ko‘proq uchragan. Ayniqsa, huquqiy va tibbiy matnlarda ehtiyotkorlik bilan pragmatik ehtiyojlarga mos keluvchi tarjima strategiyalarini tanlash muhim bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Maxsus matnlarni tarjima qilishda lingvopragmatik yondashuv muhim nazariy va amaliy

ahamiyat kasb etadi. Tarjimon faqat til birliklarini to‘g‘ri tarjima qilish bilan kifoyalanmasligi, balki matn ortida yotgan kommunikativ maqsad, madaniy konnotatsiyalar, nutqning illokutsional kuchi va kontekstual moslikni ham inobatga olishi zarur. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, lingvopragmatik mezonlarga asoslangan tarjimalar matnning asl ma’nosini nafaqat lingvistik, balki kommunikativ va funksional darajada ham saqlashga xizmat qiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, tibbiy, texnik va yuridik matnlar tarjimasida pragmatik jihatlarning to‘g‘ri uzatilishi tarjimaning ta’sirchanligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Kommunikativ niyatni saqlash, deiktik birliklarni kontekst asosida to‘g‘ri berish, modallik va ogohlantirishlarning tarjimasini vaziyatga moslashtirish tarjima sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, madaniy tafovutlar mavjud bo‘lgan hollarda tarjimada literal yondashuvdan voz kechib, madaniy va kommunikativ adaptatsiyani ta’minlash zarurati tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J.L. *How to Do Things with Words.* Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Searle, J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language.* Cambridge University Press, 1969.
3. Nida, E.A. *Toward a Science of Translating.* Leiden: E.J. Brill, 1964.
4. Newmark, P. *A Textbook of Translation.* New York: Prentice Hall, 1988.
5. Reiss, K., Vermeer, H.J. *Towards a General Theory of Translational Action: Skopos Theory Explained.* Routledge, 2014.
6. Komissarov, V.N. *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty).* Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1990.
7. Hatim, B., Mason, I. *The Translator as Communicator.* London: Routledge, 1997.
8. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation.* London: Routledge, 1992.
9. Chesterman, A. *Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory.* John Benjamins Publishing, 1997.
10. Gak, V.G. *Sopostavitelnaya grammatika frantsuzskogo i russkogo yazykov.* Moskva: Vysshaya shkola, 1977.
11. Shveyzer, A.D. *Perevod i lingvistika.* Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1988.
12. Mirzaahmedov, X. *Tarjimaning lingvopragmatik muammolari.* Toshkent: O‘zR FA Til va adabiyot instituti, 2019.
13. Rahmonova, G. *Maxsus matnlarni tarjima qilishda madaniy moslik.* O‘zMU Ilmiy axborotlari, 2021, №2, 85–89–betlar.
14. Tuychiev, S. *Funktsional tarjima nazariyasi va amaliyotdagi yondashuvlar.* Tarjima va Tilshunoslik jurnali, 2020, №1.
15. Zorikova, Z. *Lingvopragmatika v perevode: teorii i praktika.* Moskva: RUDN, 2022.

Zuhra TURSUNBAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tadqiqotchisi

TARIXIY ASARLAR TARJIMASIDA HARBIY SOHAGA OID LEKSIKANING BERILISHI

Annotatsiya: bizning ushbu maqolamiz tarixiy koloritni ifodalovchi harbiy leksika va ularning hindiy tilida qay tarzda aks etgani haqida yozilgan. Maqolada Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” उलूग़बेक की धरोहर va Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” बाबूर romanlarining hindiy tilidagi tarjimasida harbiy leksikaning berilishi o‘rganildi. Yana alohida e’tibor mazkur so‘zlarning tarjimon tomonidan qanday, qay usullarni qo‘llagan holda tarjima qilganiga qaratilgan va tahlilga tortilgan. Maqolada o‘nboshi, hirovul, barong‘or, tuman, tubulg‘a, sadoq, mashvarat kabi so‘zlarning tarjimada qanday aks etgani yozilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima, hindiy tili, tarixiy kolorit, transliteratsiya, kalka, ekvivalent*.

Аннотация: в этой статье речь идет о военных терминах, передающих исторический колорит, и о том, как они отражены в языке хинди. В статье рассматривается использование военных терминов в переводе на хинди поэм Одила Якубова “Сокровища Улугбека” и Пиримкула Кадырова “Звездные ночи”. Особое внимание уделяется и анализируется тому, как и какими методами переводчик перевел данные слова. Статья включает в себя десятый, хирувул, баронгор, туман. Написано, как такие слова, как тубулга, садак и машварат, отражены в переводе.

Ключевые слова: перевод, язык хинди, историческая окраска, транслитерация, калька, эквивалент.

Annotation: this article of ours is about military terms expressing historical color and how they are reflected in the Hindi language. The article studies the use of military terms in the Hindi translation of Odil Yakubov’s “The Treasure of Ulugbek” उलूग़बेक की धरोहर” and Pirimqul Qodirov’s “Starry Nights” बाबूर novels. Special attention is also paid to the methods and methods used by the translator to translate these words and analyze them. The article describes how words such as onbashi, hirovul, barong‘or, tuman. tubulg‘a, sadoq, mashvarat are reflected in the translation.

Key words: *translation, Hindi, historical color, transliteration, calque, equivalent.*

Kirish. Agar tarixiy asardagi voqelikda harbiy hayot yoki urushga oid epizodlar mavjud bo‘lsa, yozuvchi o‘sha davrga xos harbiy san’at, jangda qo‘llanilgan qurol–yarog‘lar, harbiy kiyim–boshlar tasviriga alohida e’tibor qaratadi. Chunki bu asarda muayyan funksiyani bajarish bilan birga, undagi tarixiy tasvirni yoritish, davr ruhini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu boisdan bunday hollarda yozuvchi tarixiy harbiy istilohlar ifodasiga murojaat qiladi. Harbiy leksika o‘zbek tilining eng qadimgi qatlamlaridan biri bo‘lib, tilning tarixiy rivojining barcha bosqichlarida kuzatiladi. Umumadabiy leksikaning qatlamlaridan biri bo‘lgan harbiy terminologiyaga ichki va tashqi omillar qatori eski o‘zbek tilini shakllantirish xususiyatlari ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi[1]. Ma’lumki, VII–XVIII asrlar eski o‘zbek tilining harbiy leksikasi quyidagi leksik–semantik guruhlar bo‘yicha ko‘rib chiqildi: 1) harbiy mansab, lavozim va unvonlarni aks ettiruvchi terminlar; 2) qo‘shin turlari, qo‘shin qismlari, jangchilar, jangovar harakatlarning asosiy turlarini anglatuvchi terminlar; 3) qurol–aslaha turlari va harbiy–muhandislik qurilmalari nomlarini ifodalovchi terminlar.[2]

Biz ushbu romanlardagi tarixiy harbiy leksikalarni quyidagi guruhlarga bo‘lgan holda o‘rganishni ma’qul topdik:1)Harbiy mansab, lavozim va unvonlarni ifodalovchi leksika; 2) Qurol–yaroq, aslaha–anjomlarni ifodalovchi leksika; 3) Qo‘shin turlari, qo‘shin qismlari, jangchilar, jangovar harakatlarning asosiy turlarini anglatuvchi leksikalar.

1. Harbiy mansab, lavozim va unvonlarni ifodalovchi leksikalar.

Asliyatda: Lashkarboshi[3]

Hindcha tarjimada: फौज का सपिहसालार[4]

1 Дадабаев Х., Насыров Н., Хусанов Н. Проблеми лексики староузбекского языка. Монография. – Ташкент: Фан, 1980. 7–с.

2 Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990. 8–с

3 Қодиров П.Юлдузли тунлар. – Тошкент: Шарқ, 2009. 130–б.

4 सुधीर कुमार माथुर, बाबूर, रादुगा प्रकाशन, मास्को १९८८. प १४९

“Lashkarboshi – qo‘shin yoki uning biror qismining qo‘mondoni, harbiy boshliq, sarkarda”[5]. Tarjimada lashkarboshi – फौज का सपिहसालार, ya’ni “armiya, qo‘shin boshlig‘i” tarzida izohlab tarjima qilingan. Ushbu izohli tarjima hind kitobxoni uchun tushunarli deb hisoblaymiz.

Ushbu ikki romanda juda ko‘plab harbiy leksikalar uchraydi: jiba, kamon, o‘q, yoy, qilich, xanjar, sadoq, sovut, zirxli dubulg‘a, cherik, sipoh, lashkarboshi, o‘nboshi, shaqavul, chopavul, hirovul, barong‘or, tuman, to‘lg‘ama, ponsod kabi so‘zlarni sanash mumkin. Tarjimon bu kabi so‘zlar tarjimasida muayyan darajada badiiy tarjima uslubida tarixiylik prinsipini saqlab qolishga harakat qilgan, ba’zilarini esa hind kitobxoniga tushunarli tilda zamonaviylashtirgan. Binobarin, “tarjima imkon qadar original asarga yaqin va to‘g‘ri bo‘lishi kerak… noto‘g‘ri tarjima noto‘g‘ri talqinni yuzaga keltiradi”[6]. Bundan tashqari “o‘nboshi”, “yuzboshi”, “ponsod” so‘zlari tarjimada सरदार tarzida berilgani aniqlandi. Fikrimizcha, yuzboshi, o‘nboshi va ponsad so‘zlarini सरदार tarzida berish hind kitobxoni uchun biroz noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin. Chunki uchala so‘z ham harbiy bo‘lim boshlig‘i ma’nosini ifodalagani bilan ular o‘rtasida unvon darajasi va tarkibidagi askarlar soni jihatidan farq bor. Shuning uchun bu farqlarni yanada aniqroq ko‘rsatish uchun ularni matn ostida quyidagicha izohlash mumkin edi: ponsod– पांच सौ सेना के सरदार, O‘nboshi – दास सेना के सरदार, yuzboshi – सौ सेना के सरदार.

2. Qurol–yaroq, aslaha–anjomlarni ifodalovchi leksikalar.

Asliyatda: Uchlik dubulg‘a [7]

Hindcha tarjimada: नोकदार शरिस्त्राण [8]

Dubulg‘a[9] – tig‘ yoki o‘qdan saqlanish uchun temir yoki po‘latdan ishlangan bosh kiyim, shlem. शरिस्त्राण “dubulg‘a” so‘ziga ekvivalentdir. Bundan tashqari, hindiy tilida dubulg‘a so‘zini ifodalovchi कूंड so‘zi ham mavjud bo‘lib, u ayni tarixiy so‘zdir. Demak, bu yerda tarixiy–milliy koloritni saqlash maqsadida zamonaviylashtirish prinsipidan emas, tarixiylik tamoyilidan foydalanib कूंड so‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi, deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, **sadoq** (o‘qdon) – तरकश, **xanjar** – खंजर, **nayzasi** – बरछा**, sovut** – ज़रिह–बख्तर tarzida ifodalangan. Ushbu so‘zlar hindiy tilida arxaizm, istorizm hisoblanmasa–da, asliyatdagi so‘zlarga ekvivalent bo‘la oladi. Tarjimon bu yerda eskirgan qatlamga mansub qator lug‘aviy birliklarni zamonaviylashtirgan, ya’ni hozirgi hindiy tili va uning shevalarida mavjud so‘zlari bilan almashtirgan.

3. Qo‘shin turlari, qo‘shin qismlari, jangchilar, jangovar harakatlarning asosiy turlarini anglatuvchi leksikalar.

Asliyatda: Tuman [10]

Asliyatda “tuman” so‘ziga izoh berilmagan. **Tuman**[11] o‘n ming otliqdan iborat askariy qismdir. Bu so‘z transliteratsiya usuli orqali tarjima qilinib, matn ostida quyidagicha izoh keltirilgan. तुमन– दस हज़ार सपिाहयिोंवाला फ़ौज़ी दस्ता ya’ni o‘ng ming askardan iborat harbiy otryad (qism). Izoh juda aniq va to‘g‘ri berilgan.Tarjimon bu yerda to‘g‘ri yo‘l tutgan deb hisoblaymiz. Chunki tuman hindiy tilida yo‘q so‘z. Shuning uchun tarjimonga bu so‘zni tarjima qilish qiyinchilik tug‘diradi. Ana shunday paytda tarjimon tarjima prinsipining transliteratsiya usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq.Ya’ni asliyatdagi so‘z o‘girilayotgan tilga aynan olinib, unga izoh beriladi. E’tiborlisi, transliteratsiya usuli asosan, qardosh bo‘lmagan tillar asarlarini tarjima qilishda qo‘llanar ekan, bir millat vakili bevosita o‘zga millat tarixi, dini, e’tiqodi, tili, ijtimoiy hayot manzarasi, maishiy turmush tarzi va h.k bilan yaqindan tanishadi, ularni batafsil bilish imkoniga ega bo‘ladi.

Asliyatda: Cherikning[12]

Hindcha tarjimada: गारद[13]

Ushbu jumladagi cherik so‘zi गारद ya’ni inglizcha qo‘riqchi so‘zi bilan ifodalangan. Izohli lug‘atga murojaat qiladigan bo‘lsak, “cherik – askar jangchi qo‘shin. Harbiy yurish vaqtida oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig‘iladigaan muntazam qo‘shin”[14] ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu yerda mutarjim ikkita xatoga yo‘l qo‘yganini ko‘rishimiz mumkin. Birinchisi ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zni qo‘llagan

[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2–жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. 572–б.
[6] Буранова Б. Бадиий таржимада тарихий–миллий колоритни сақлаш принциплари (“Юлдузли тунлар” романининг туркман тилидаги намунаси асосида), филол. фан. Номз. (PhD) диссертацияси. – Т., 2021. 38–б.
[7] Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: F.Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. 54– **б**.
[8] याकुबोव अ. उलूग़बेक की धरोहर (आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर), रादुगाप्रकाशन, ताशक़न्द १९८३ प ७२ .
[9] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1–жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. 237– **б**.
[10] Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: F.Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. 10–б
[11] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2–жилд. / С.Ф Акобиров, Т.А. Аликулов, З.М Маъруфов ва бош. М Маъруфов таҳрири остида – М.: Рус тили, 1981. 222–б.
[12] Қодиров П.Юлдузли тунлар Тошкент: Шарқ, 2009. 69–б.
[13] सुधीर कुमार माथुर, बाबूर, रादुगा प्रकाशन, मास्को १९८८. प ७७
[14] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4–жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. 507–б.

bo‘lsa, ikkinchisi bu so‘z cherik so‘zini ifodalay olmagan. Chunki cherik qo‘riqchi emas, askar jangchidir. Shuning uchun cherik so‘zini सपिाही yoki सैनीक tarzida ifodalash mumkin edi, deb hisoblaymiz. Rus tilidagi tarjimada ham xuddi shu xatoga yo‘l qo‘yilgan.

Asliyatda: To‘lg‘ama [15]

Hindcha tarjimada: तुलग़मा[16]

Bu yerda tarjimonning interpretatsiya usulidan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Interpretatsiyalash – sharhlash, izohlash, talqin qilish, tushuntirib berish, ochish demakdir. Agar asl nusxa muallifi voqelikni badiiy talqin qilsa, tarjimon asliyatni boshqa til vositalari yordamida qayta talqin qilishi kerak.

Xulosa. Ushbu bo‘limda o‘nboshi, yuzboshi, ponsod, sipoh, lashkarboshi, dubulg‘a, tuman, mashvirat, balong‘or, hirovul, sadoq, tuman, xanjar cherik, qilich kabi so‘zlarning tarjimada ifodalanishi ko‘rib o‘tildi. Mazkur so‘zlarni tarjima qilishda tarjimon transliteratsiya, izohli tarjima, kalka usullaridan foydalanib tarjima qilganiga guvoh bo‘ldik. Tarixiy asarlar tarjimasida harbiy leksikani ifodalash juda muhim hisoblanib, ushbu so‘zlar tarixiy davr ruhini berishda muhim ahamiyat kasb etadi.Tarjimon asliyatdagi harbiy leksikani o‘girish uchun asar mansub xalq tarixidagi qurol–yarog‘lar, kiyim–kechaklar xususida kerakli ma’lumotlarga, aniq tasavvur va tushunchaga ega bo‘lishlari bilan birga, ayni paytda o‘z xalqi o‘tmishida qo‘llagan harbiy anjomlar, realiyalar to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak.

[15] Кодиров П.Юлдузли тунлар. — Тошкент: Шарқ, 2009. 241–б.
[16] सुधीर कुमार माथुर, बाबूर, रादुगा प्रकाशन, मास्को १९८८. प २४५

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дадабаев Х., Насыров Н., Хусанов Н. Проблеми лексики староузбекского языка. *Монография*. – *Ташкент: Фан,* 1980. 166–с
2. Хинди–русский словарь. В двух томах, 1–том. / А.С Бархударов, В.М Бескровный и др. Под ред. В.М Бескровный. – М.: Советская энциклопедия, 1972. 912–с.
3. Хинди–русский словарь. В двух томах, 2–том. / А.С Бархударов, В.М Бескровный и др. Под ред. В.М Бескровный. – М.: Советская энциклопедия, 1972. 912–с.
4. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2009. 543–b.
5. Саломов.С. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. 232–б
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2–жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. 603–б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1–жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. 632–б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5–жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. 630–б.
10. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. 334– b.
11. याकुबोव अ. उलूग़बेक की धरोहर (आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर), रादुगाप्रकाशन, ताशक़न्द १९८३ – ३६६प
12. कादीरोव प. बाबूर, (आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर), रादुगाप्रकाशन, मास्को १९८८– ५५६ प

Dilorom MIRSAGATOVA,
O‘zDJTU tarjimonlik fakulteti
katta o‘qituvchisi
mirsagatova@40gmail.com

TEMIR YO‘L TERMINOLOGIYASIDA SINONIMIYA: NAZARIY ASOSLAR VA TARJIMA MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada temir yo‘l sohasida qo‘llaniladigan terminlar orasidagi sinonimik munosabatlar, ularning lingvistik va uslubiy xususiyatlari, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va standartlashtirish zarurati tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi temir yo‘l atamalari misolida sinonimiya hodisasining real nutqdagi ko‘rinishlari va ular bilan ishlashda tarjimon duch keladigan asosiy muammolar yoritiladi. Tadqiqot tarjimonlar uchun nazariy va amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: *terminologik sinonimiya, temir yo‘l atamalari, tarjima strategiyasi, kontekst, ekvivalentlik*

Аннотация: в данной статье рассматриваются синонимичные отношения между терминами, используемыми в железнодорожной отрасли, их лингвистические и стилистические особенности, а также возникающие проблемы при переводе и необходимость стандартизации. На основе сопоставления терминов английского и узбекского языков анализируются проявления синонимии в реальной речи, а также основные трудности, с которыми сталкивается переводчик при работе с такими терминами. Исследование завершается теоретическими и практическими рекомендациями для переводчиков.

Ключевые слова: *терминологическая синонимия, железнодорожные термины, стратегия перевода, контекст, эквивалентность.*

Annotation: this article examines the synonymous relationships among terms used in the railway sector, their linguistic and stylistic features, translation–related challenges, and the necessity of standardization. Using English and Uzbek railway terminology as examples, the study analyzes how synonymy manifests in real discourse and highlights the key difficulties translators face when working with such terms. The research concludes with theoretical insights and practical recommendations for translators.

Key words: *terminological synonymy, railway terminology, translation strategy, context, equivalence*

Kirish. Terminologiya fani har qanday fan va texnik sohaga xos bo‘lgan tushunchalarning aniq va barqaror ifodasini ta’minlaydigan vosita hisoblanadi. Temir yo‘l tizimi esa murakkab texnik tarmoq bo‘lib, unda yuzlab maxsus terminlar qo‘llaniladi. Bunday tizimda sinonimiya, ya’ni bir xil yoki yaqin ma’noli terminlarning mavjudligi — tilshunoslar, tarjimonlar va texnik mutaxassislar uchun jiddiy muhokama obyektidir. Ushbu maqolada temir yo‘l terminologiyasidagi sinonimiyaga nazariy va amaliy nuqtayi nazardan yondashiladi, ularning tarjima jarayoniga ta’siri o‘rganiladi va tarjimondan talab qilinadigan mas’uliyatli yondashuvlar yoritiladi.

Sinonimiya tushunchasi va uning terminologik tizimdagi o‘rni.

Sinonimiya tilshunoslikda bir necha birliklar tomonidan bir tushuncha yoki yaqin mazmunning ifodalanishi sifatida ta’riflanadi. Umumiy tilda sinonimlar stilistik boylik manbai bo‘lsa–da, terminologiyada sinonimiya noaniqlikka olib kelishi sababli cheklovli hodisa sifatida qaraladi. Termin bir tushunchani aniq va tushunarli ifodalashi lozim. Shu bois xalqaro terminologik standartlar, jumladan, ISO 704, terminologik sinonimiyaga ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Terminolingvistlar bu masalaga ikki tomonlama yondashadi: ba’zilar sinonimiyani normadan chetga chiqish deb bilsa (Wüster, Lotte), boshqalar (Cabré, Felber) uni til rivojining tabiiy jihati sifatida qabul qiladilar. Amaliyotda esa sinonimiya atamalar o‘rtasidagi fonetik, morfologik yoki mintaqaviy tafovutlar natijasida yuzaga keladi.

O‘rganilganlik darajasi (adabiyotlar sharhi).

Sinonimiya hodisasi tilshunoslikning eng dolzarb va ko‘p qirrali muammolaridan biri sifatida xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelmoqda. Xususan, terminologik sinonimiya masalasi ilmiy–texnik sohalarda, shu jumladan, temir yo‘l terminologiyasida, o‘ziga xos yondashuvlarni talab etadi. Ushbu bo‘limda sinonimiya bilan bog‘liq tadqiqotlarning eng muhim nazariy manbalari tahlil qilinadi.

Xalqaro miqyosdagi adabiyotlarda sinonimiya masalasi ko‘plab nufuzli olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, rus tilshunosligi maktabining yirik vakili V. V. Vinogradov stilistik sinonimiya hodisasini tahlil qilib, sinonim birliklar o‘rtasidagi semantik va ekspressiv tafovutlarni aniqlagan. U sinonimiya tilning uslubiy boyligi va ifoda xilma–xilligini ta’minlaydigan muhim omil ekanini ta’kidlagan. [1]

Ilmiy–texnik terminologiya sohasida D. S. Lotte muhim izlanishlar olib borgan bo‘lib, u terminologik tizimda sinonimiyaning mavjudligi normativlik va aniq ifoda prinsiplariga qarshi borishini ko‘rsatadi.[2] Uning fikricha, texnik terminologiyada sinonim birliklar noaniqlik, chalkashlik va kommunikatsion uzilishlarga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy terminologiya nazariyasining ispan vakili Maria Teresa Cabré sinonimiya masalasiga kommunikativ yondashuv asosida qarab, terminlarning kontekstda mosligini va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan variantlikni asoslab bergan.[3] Cabré fikricha, tarjimada sinonimik terminlar mavjudligi ijobiy hodisa bo‘lib, ularni to‘g‘ri tanlash tarjimonning malakasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shuningdek, ingliz tilshunoslari Sager [4] hamda Bowker va Pearson (2002) o‘z tadqiqotlarida terminologik sinonimiyani korpus lingvistikasi asosida tahlil qilib, real matnlardagi sinonim birliklarning qo‘llanish chastotasi va kontekstual chegaralarini aniqlashgan.

O‘zbekiston tilshunosligida ham sinonimiya masalasi muhim o‘ringa ega bo‘lib, tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq ishlarda yoritilgan. Jumladan, Qodirova M. A. va Karimova M. M. tomonidan tayyorlangan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” [6] nomli darslikda terminlar orasidagi sinonimik munosabatlar va ularni tarjimada to‘g‘ri qo‘llashning nazariy asoslari bayon etilgan. Ular tarjimada sinonimik birliklarning texnik va uslubiy rolini tahlil qilgan holda, kontekst asosida aniq tanlov qilishning muhimligini ta’kidlaydilar.

Shuningdek, Xo‘jayev I. K. tomonidan yozilgan “Tarjima va terminologiya asoslari” nomli qo‘llanmada tarjimonda termin tanlash muammolari, sinonimik birliklar bilan ishlashning strategik usullari va sinonimiya tufayli yuzaga keladigan tarjimaviy xatoliklar muhokama qilinadi. Muallif amaliy misollar asosida temir yo‘l terminologiyasidagi sinonim birliklarning tarjima amaliyotiga ta’sirini ko‘rsatib bergan.

Umuman olganda, sinonimiya masalasining xalqaro va mahalliy miqyosda keng o‘rganilgani ushbu hodisaning til va tarjima nazariyasidagi dolzarbligini ko‘rsatadi. Bu esa tarjimon va terminologlar uchun sinonimik birliklarni tahlil qilish va ulardan kontekst asosida to‘g‘ri foydalanish kompetensiyasini shakllantirish zarurligini anglatadi.

Temir yo‘l terminologiyasida sinonimik birliklar turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladi: mintaqaviy til farqlari, funksional tafovutlar, uslubiy variantlar yoki termin tizimining rasmiy va norasmiy qatlamlari. Quyida ushbu hodisaning to‘rt asosiy namunasi tahlil qilinadi:

1. switch vs turnout – “o‘tish mexanizmi”.

Bu ikki termin texnik terminologiyada temir yo‘l yo‘nalishlarini almashtirishga xizmat qiluvchi qurilmani bildiradi. *Switch* atamasi ba’zan faqat harakatdagi elementni, *turnout* esa butun tizimni anglatadi. O‘zbek tilida har ikkisi ko‘pincha “o‘tish mexanizmi” deb tarjima qilinadi, lekin texnik tafsilotlarda tafovutlarni inobatga olish zarur. Shunday ekan, tarjimada kontekstga qarab aniq atamani tanlash mas’uliyati tarjimonga yuklanadi.

2. train schedule vs timetable – “poyezd jadvali”.

Bu holatdagi sinonimiya ingliz tilidagi mintaqaviy tafovutlar asosida shakllangan. *Train schedule* — Amerika, *timetable* esa Britaniya variantida ishlatiladi. Ularning ma’nosi mutlaqo bir xil bo‘lib, har ikkisi poyezdlarning harakat jadvalini bildiradi. O‘zbek tilida bu atamalar “poyezd jadvali” sifatida bir xil tarjima qilinadi. Tarjimada stilistik izchillikni saqlash uchun bir variant tanlanib, butun matn davomida izchil qo‘llanishi lozim.

3. signal box vs control tower – “boshqaruv kabinasi”.

Signal box temir yo‘l signallarini boshqaruvchi kabinani anglatadi va Britaniyada keng ishlatiladi. *Control tower* asosan, avia boshqaruv kontekstida uchrasa–da, AQShda temir yo‘l tizimida ham qo‘llanadi. Har ikkisi “boshqaruv kabinasi” deb tarjima qilinadi, lekin texnik kontekstda ularning farqini aniqlash va aniq ekvivalentni tanlash muhimdir. Ayniqsa, aerodrom va temir yo‘l terminologiyasining chatishtirilmasligi zarur.

4. Railway station vs train stop – “temir yo‘l bekati”.

Bu terminlar semantik yaqinlikka ega bo‘lsa–da, mazmunan farq qiladi. *Railway station* — to‘liq infratuzilma, kassalar va kutish joylariga ega bekat, *train stop* esa kichik, ko‘pincha faqatgina to‘xtash joyi sifatida xizmat qiladi. O‘zbek tilida har ikkisi “temir yo‘l bekati” deb tarjima qilinadi, bu esa ayrim hollarda ma’lumot yo‘qolishiga olib keladi. Shu bois tarjimada *station* – “temir yo‘l bekati”, *stop* esa “to‘xtash joyi” sifatida farqlanib tarjima qilinishi kerak.

Tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi jadvalda ko‘rilgan sinonimik juftliklar va ularning tarjimaviy yondashuvlari umumlashtiriladi:

Quyidagi jadvalda ba’zi terminlar taqqoslanadi:

Inglizcha termin	Sinonimi	O‘zbekcha ekvivalent
Switch turnout	o‘tish mexanizmi	Texnik jihatdan farq qiladi
signal box /control tower	boshqaruv kabinasi	Mintaqaviy sinonimlar
railway stationtrain stop	temir yo‘l bekati	Formal vs norasmiy atamalar
train schedule/ timetable	poyezd jadvali	Ikkalasi ham bir vazifani anglatadi

Bu sinonimlar tarjima jarayonida tanlov zaruratini yuzaga keltiradi va kontekstga bog‘liq holda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak.

Sinonimiyaning tarjima jarayonidagi roli va muammolari.

Tarjimada sinonim birliklardan foydalanish — til boyligini namoyish etish bilan birga, aniqlik va standartga moslikni saqlashni ham talab etadi. Texnik sohalarda, ayniqsa, temir yo‘l terminologiyasida noto‘g‘ri sinonim tanlash noto‘g‘ri interpretatsiyaga olib kelishi mumkin.

Masalan, axial load (o‘qqa tushayotgan yuk) va vertical force (vertikal kuch) terminlari kontekstda yaqin bo‘lsa–da, ular mexanik jihatdan bir–birini to‘liq almashtira olmaydi. Shu bois tarjimon kontekstual tafovutlarni aniqlay olishi va texnik terminlarni funksional sinonimiya asosida tanlashi lozim.

Shuningdek, ba’zida tarjimon “ustun sinonim”ni tanlashi kerak: u eng ko‘p ishlatiladigan, aniq va standartga mos bo‘lgan terminni tanlaydi.

Xulosa. Sinonimiya temir yo‘l terminologiyasida nafaqat lingvistik, balki tarjimaviy va normativ muammo sifatida ham e’tiborga olinishi zarur. U orqali til boyligi va variantlik imkoniyati kengaysa–da, texnik aniq ifodaning yo‘qolish xavfi tug‘iladi. Shuning uchun tarjimon va mutaxassis sinonimik birliklar orasida kontekstga mos va texnik mezonlarga javob beradigan variantni tanlay olishi, mavjud sinonimlarni tasniflab ularga izoh bera olishi lozim. Terminologik sinonimiya tarjima sifatini oshirish emas, balki aniqlikni saqlash uchun puxta boshqarilishi zarur bo‘lgan hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов, В. В. О языке художественной литературы. — М.: Высшая школа, 1980. 320 –с.
2. Лотте, Д. С. Основы построения научно–технической терминологии. — М.: Наука, 1982. 160 –с.
3. Cabré, M. T. Terminology: Theory, Methods, and Applications. — Amsterdam: John Benjamins, 1999. 248 –p.
4. Sager, J. C. A Practical Course in Terminology Processing. — Amsterdam: John Benjamins, 1990. 234 –p.
5. Bowker, L., & Pearson, J. Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora. — London: Routledge, 2002. 240 –p.
6. Қодирова, М. А., Каримова, М. М. Таржима назарияси ва амалиёти. — Т.: Ўқитувчи, 2022. 180–б.

Shaxzod ABDULLAYEV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Tarjimonlik fakulteti,
Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
Mustaqil tadqiqotchisi
abdullaev.sh.f3008@gmail.com,

TEMUR TUZUKLARI INGLIZCHA TARJIMASIDA HARBIY TERMINLARNING BERILISHI

Annotatsiya:ushbu maqolada “Temur Tuzuklari” asarining ingliz tiliga tarjimasida harbiy terminlarning berilishi, ularning semantik mosligi va tarjima strategiyalari tahlil qilinadi. Harbiy atamalarning adekvat ifodalanishi, tarixiy-madaniy kontekstda ularning ma’nosini saqlab qolish muhim omil sifatida baholanadi. Tarjimada terminologik aniqlik va ekvivalentlikka erishishning usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Temur Tuzuklari, harbiy terminlar, tarjima strategiyalari, semantik ekvivalentlik, tarixiy kontekst

Annotation: this article analyzes the rendering of military terminology in the English translation of *Temur Tuzuklari*, focusing on semantic accuracy and applied translation strategies. The paper highlights the importance of preserving the historical and cultural meaning of military terms and evaluates methods for achieving terminological precision and equivalence in translation.

Key words: *Temur’s Codes*, military terminology, translation strategies, semantic equivalence, historical context

Аннотация: в статье анализируется передача военной терминологии в английском переводе произведения “Уставы Темура”, рассматриваются семантическое соответствие и используемые стратегии перевода. Особое внимание уделяется сохранению историко–культурного значения терминов и обеспечению терминологической точности и эквивалентности.

Ключевые слова: “Уставы Темура”, военная терминология, стратегии перевода, семантическая эквивалентность, исторический контекст

Kirish. “Temur Tuzuklari” — buyuk sarkarda Amir Temur tomonidan yozilgan harbiy–siyosiy asar bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, harbiy tartib va intizomning aniq normalari bayon etilgan. Ushbu asarni ingliz tiliga tarjima qilishda ayniqsa harbiy terminologiyaning to‘g‘ri va aniq ifodalanishi katta ahamiyatga ega. Mavzuning dolzarbligi shundaki, harbiy terminlar ko‘p hollarda o‘ziga xos tarixiy va madaniy yuklama bilan ajralib turadi va ularni noto‘g‘ri tarjima qilish tarixiy mazmunni buzishga olib kelishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi Temur Tuzuklari asarining inglizcha tarjimasida uchraydigan harbiy atamalarning tarjima uslublarini o‘rganish, ularning adekvatlik darajasini baholash hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlashdan iborat. Shu yo‘nalishda harbiy terminlarni matndan ajratib olish, ularni semantik va funksional xususiyatlariga ko‘ra guruhlash, har birining ingliz tilidagi tarjima variantlarini kontekst asosida chuqur tahlil qilish ishlari amalga oshiriladi. Tarjimada qo‘llanilgan strategiyalar turlari, ularning qaysi holatda samarali yoki samarasiz bo‘lganini aniqlash ham metodologiyaning muhim qismini tashkil etadi. Ilgari surilgan tarjima yondashuvlari asosida tahlillardan kelib chiqqan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi, bu esa tarixiy–harbiy matnlarning tarjimasida terminologik sodiqlik va madaniy moslikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot “Temur Tuzuklari” asarining ingliz tiliga tarjimasida harbiy terminlarning ifodalanishini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, lingvistik, madaniyatlararo hamda tarjimashunoslik nazariyalari asosida tahlil etiladi. Tadqiqot bir necha yondashuvlar – deskriptiv lingvistik tahlil, kontrastiv analiz, semantik–pragmatik yondashuvlar va tarjima strategiyalarini qamrab oluvchi kompleks metodologiyaga tayanadi. Harbiy terminlar tarixiy, ijtimoiy va ideologik yuklamaga ega bo‘lganligi sababli ularni boshqa tilga, ayniqsa ingliz tiliga to‘g‘ri va adekvat tarzda o‘tkazish murakkab va mas’uliyatli jarayon hisoblanadi.

Ushbu metodologiyaning nazariy asoslari tarjimashunoslikning yetuk namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarga tayangan. Yu. Nayda tomonidan ilgari surilgan formal va dinamik

ekvivalentlik nazariyasi tarjimada leksik ko‘chirishdan ko‘ra, semantik va kontekstual moslikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Xususan, Nayda diniy va harbiy matnlarni tarjima qilishda ta’sirchanlikni saqlab qolish muhimligini ta’kidlaydi. P. Nyumark esa tarjimaning semantik va kommunikativ uslublarini farqlab, har bir matn turiga mos yondashuvni qo‘llash zarurligini ilgari suradi. H. Vermir tomonidan ishlab chiqilgan skopos nazariyasi tarjimaning asosiy maqsadi kimga va nima uchun mo‘ljallanganini inobatga oladi. Bu yondashuv ayniqsa tarixiy–harbiy matnlar tarjimasida matn funksiyasiga e’tibor qaratishni taqozo etadi. Shuningdek, M. Beyker tomonidan ilgari surilgan tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajalari – leksik, grammatika, matn darajasidagi moslik – harbiy atamalar tarjimasining har bir bosqichida qo‘llaniladi.

MDH olimlari, xususan V.N. Komissarov, A.D. Shveyser va L.S. Barxudarov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar ushbu tadqiqotning nazariy poydevorini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Komissarov tarjimani oddiy lingvistik almashtirish emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya deb hisoblab, ayniqsa maxsus leksikani tarjima qilishda semantik va konnotativ ma’nolarning uzluksizligini saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Shveyser kontekstual muvofiqlik va kommunikativ sodiqlikning uyg‘unligini tarjima sifatining muhim mezoni sifatida belgilaydi. Barxudarov esa tarjima jarayonida sintaktik tuzilmalarning o‘zgarish mexanizmini o‘rganib, harbiy terminlar ko‘p hollarda murakkab tuzilishga ega bo‘lganligini qayd etadi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu borada samarali izlanishlar olib borgan. U. Karimov, M. Abdullaeva, N. Murodova, D. Qurbonova, S. Mamatqulova kabi olimlarning ilmiy ishlari tarixiy va harbiy matnlarni tarjima qilishda uchraydigan terminologik noaniqliklar, ekvivalentlik, madaniy moslik va konnotatsion yuklamalarni aniqlashga qaratilgan. Jumladan, Murodovaning “Tarixiy matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlik va moslik masalalari” mavzusidagi tadqiqotida harbiy terminlar o‘zbek tilidan ingliz tiliga o‘tkazilishida semantik yo‘qotishlar va ular oldini olish strategiyalari ko‘rib chiqilgan. Karimov o‘z ishlarida harbiy atamalarning kontekstda ifodalanishida pragmatik adekvatlik birinchi o‘rinda bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Tadqiqot manbasi sifatida “Temur Tuzuklari”ning o‘zbekcha matni (O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2001) va uning ingliz tilidagi nashrlari (Shamsuddinov tarjimasi, 2011; UNESCO nashri, 2016) tanlab olindi. Asosiy tadqiqot materiali sifatida ushbu nashrlardagi harbiy terminlar tanlab olinib, ularning ingliz tilidagi mos tarjimalari bilan solishtirildi. Bunday terminlarga “sipoh”, “lashkar”, “bek”, “sarboz”, “bahodir”, “xosovul” kabi harbiy unvonlar, lavozimlar, harakat nomlari kiradi. Ularning inglizcha muqobillari – “army”, “troops”, “warrior”, “commander”, “chief”, “elite guards” kabi variantlar – semantik, stilistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi.

Tahlil jarayonida tarjima strategiyalari ham baholandi. Bu strategiyalarga to‘g‘ridan–to‘g‘ri leksik moslik, funksional ekvivalentlik, izohli tarjima (eksplicitatsiya) va modulyatsiya kiradi. Ayniqsa, harbiy terminlar uchun to‘g‘ridan–to‘g‘ri muqobil topish qiyin bo‘lgan hollarda, tarjimon tomonidan tanlangan uslub (masalan, so‘zning o‘zini qoldirish, izohli qo‘shimcha kiritish yoki zamonaviy ekvivalent berish) kontekst asosida baholanadi. Masalan, “bek” so‘zining “chief”, “lord” yoki asliyatda “bek” ko‘rinishida izoh bilan berilishi — har biri o‘ziga xos semantik yuklamani saqlash darajasi bo‘yicha baholandi.

Tarjimaning ohangdorligi, uslubiy yuksaklik darajasi ham tahlil mezoni sifatida qaraldi. Chunki “Temur Tuzuklari”dagi harbiy atamalar rasmiy, tantanali va sarkardalarga xos tildan foydalanilgan. Shuning uchun ularning tarjimasida ham tarixiy–badiiy ohangni saqlash muhim ahamiyatga ega. Oddiy inglizcha so‘zlar orqali ifodalangan harbiy terminlar matnning ruhiyatini susaytirishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Tarjimaning madaniy–adabiy kontekstga mosligi ham alohida o‘rganildi. Chunki Temuriy davrda harbiy lavozimlar nafaqat harbiy, balki diniy, siyosiy va marosimiy vazifalarni ham bajargan. Bu esa ularning tarjimasida oddiy lug‘aviy moslikdan ko‘ra chuqurroq yondashuvni talab qiladi. Tarjimon bu o‘rinda tilshunos emas, balki tarixshunos va madaniyatshunos bo‘lishi kerakligi isbotlandi.

Ushbu yondashuvlarni mustahkamlash uchun xalqaro va mahalliy dissertatsiyalar asos sifatida xizmat qildi. Masalan, “Military Lexicon in Historical Translation: From Arabic to English” (Oxford, 2020), “Terminological Shifts in Turkic–English Translations of Medieval Texts” (Ankara, 2019), “Tarixiy hujjatlarning ingliz tiliga tarjimasida madaniy adekvatlik” (Toshkent, 2022) kabi tadqiqotlar harbiy terminlar tarjimasida terminologik aniqlik va kontekstual moslik muammolarini yoritib bergan.

Tadqiqot davomida “Temur Tuzuklari” asaridagi 80 dan ortiq harbiy termin ajratib olinib, ularning ingliz tilidagi tarjima variantlari chuqur lingvistik va pragmatik tahlildan o‘tkazildi. Har bir termin kontekstda qanday

ishlatilgani, u tarjimada qanday ekvivalent bilan berilgani, bu ekvivalent asl ma’noni qanchalik saqlagani tekshirildi. Harbiy terminlar tarixiylik, siyosiylik va ijtimoiy status belgisi sifatida muhim semantik yuklamaga ega bo‘lganligi uchun ularni tarjima qilishda odatiy so‘z almashinuvidan ko‘ra murakkab semantik va stilistik moslashtirish usullarini qo‘llash zarurligi yuzaga chiqdi.

Asardagi asosiy harbiy terminlardan biri — **“sipoh”** termini bo‘lib, u ko‘plab joylarda “army”, ba’zan esa “military force” deb tarjima qilingan. “Army” ekvivalenti umumiy ma’noni bersa–da, tarixiy konnotatsiyalar — sipohning safarbarlik usuli, ijtimoiy tuzilmadagi o‘rni va shaxsiy sadoqatga asoslangan tuzilmasi — inglizcha variantda to‘liq aks etmaydi. Shuningdek, “military force” varianti yanada keng qamrovli, biroq tarixiy va mental o‘ziga xoslikni yo‘qotadi.

Yana bir muhim termin — **“lashkar”** atamasi. U o‘zbek tilida muayyan vaqtda yig‘ilgan qurolli kuchni anglatadi va ko‘pincha vaqtinchalik harbiy yurishlar uchun tuzilgan bo‘ladi. Inglizcha tarjimada esa bu so‘z ko‘p hollarda “troops” deb tarjima qilingan. “Troops” an’anaviy armiya bo‘linmalarini anglatadi, biroq “lashkar”dagi muvaqqatlik, o‘zgaruvchanlik va tarixiy tashkilotchilik konnotatsiyasini bera olmaydi. Bu holat tarjimada semantik qisqarishga olib kelgan.

“Bek” termini esa yanada murakkab holatni ko‘rsatadi. Turli kontekstlarda ushbu termin “chief”, “lord”, “nobleman” deb tarjima qilingan yoki ba’zida asliyatda qoldirilib, izohli tarjima berilgan. “Chief” harbiy rahbarlik ma’nosini bersa–da, “bek” so‘zidagi feodal tuzum, ijtimoiy tabaqalashuv, siyosiy vakolatlar va marosimiy maqom to‘liq ifodalanmaydi. Shuningdek, “lord” varianti ingliz feodal tizimiga oid bo‘lib, tarixiy paralellik mavjud bo‘lsa–da, islomiy–harbiy madaniyatga mos kelmasligi sababli stilistik ziddiyatlar keltirib chiqargan.

“Sarboz” so‘zi ham ko‘p hollarda umumlashtirib “soldier” deb tarjima qilingan. Ammo aslida “sarboz” oddiy askardan ko‘ra, elita harbiy xizmatchi, ya’ni amirga yaqin turgan, yuqori sadoqatli, ruhiy tayyorgarligi yuqori jangchi bo‘lgan. “Soldier” esa bu tarzdagi ijtimoiy va ruhiy xususiyatlarni anglatmaydi. Shu sababli, bu terminni “elite guard” yoki “royal infantry” tarzida tarjima qilish mantiqiyroq bo‘lar edi.

“Bahodir” atamasi esa ingliz tilida turlicha tarjima qilingan: “hero”, “brave warrior”, “knight”. Har bir variant ma’lum jihatdan mos tushadi, ammo “bahodir”dagi diniy, axloqiy va sarkardalik belgilarini to‘la qamrab olmaydi. “Hero” juda umumiy; “knight” esa g‘arbiy madaniyatdagi ritsarlikni bildiradi va tarixiy an’anaviy tafovutlar mavjud.

Shuningdek, **“xosovul”** — maxsus razvedka va qo‘riqlov xizmatini bajargan kuch — “special guards”, “personal emissary”, “royal agent” kabi variantlarda tarjima qilingan. Ba’zilari funksional ma’noni to‘liq bermagan. “Personal emissary” diplomatik vazifa yuklaydi, “royal agent” esa zamonaviy maxsus xizmatchi ma’nosini beradi. Bu yerda ko‘proq madaniy tafsilotlar bilan izohli tarjima samaraliroq bo‘lishi mumkin edi.

O‘zbekcha harbiy terminlar va ularning inglizcha tarjimasidagi muammolar (kengaytirilgan jadval)

O‘zbekcha harbiy termin	Inglizcha tarjima varianti	Baholash (izoh)
Sipoh	Army / Military Force	Umumiy harbiy kuchni bildiradi, ammo sipohning tarixiy, tabaqalashtirilgan, va sadoqatga asoslangan tuzilmasi inglizcha variantda aks etmaydi.
Lashkar	Troops / Military Unit	Tarjimada “troops” so‘zi zamonaviy armiya qismlarini bildiradi, biroq “lashkar”dagi vaqtincha tuzilgan safarbarlik mohiyati yo‘qotilgan.
Bek	Chief / Lord / Bek (transliteratsiya bilan)	“Bek” feodal jamiyatdagi yuqori martabali shaxs bo‘lib, uning siyosiy va diniy vakolati “chief” yoki “lord”da to‘liq aks etmaydi.
Sarboz	Soldier / Elite Guard	“Soldier” oddiy askar ma’nosini beradi, biroq “sarboz” Timurning shaxsiy sodiq qo‘riqchilari bo‘lgan elita kuchi ekani tarjimada yo‘qolgan.
Bahodir	Hero / Knight / Brave Warrior	“Hero” va “knight” umumlashtiruvchi ma’noga ega, biroq “bahodir”dagi milliy qahramonlik, axloqiy ustunlik va islomiy ruhiylik konnotatsiyasi yo‘q.
Xosovul	Royal Agent / Personal Emissary / Spy	“Xosovul” — razvedka va maxsus topshiriq egasi bo‘lib, tarjimada diplomatik tus berilgan. Tarixiy harbiy–funktsional kontekst yetarlicha aks etmagan.
Qarovul	Guard / Sentry / Watchman	“Guard” umumiy, zamonaviy atama. “Qarovul” esa saroy va harbiy qarorgohlarda strategik ahamiyatga ega post bo‘lgan.
Tug‘chi	Standard–bearer / Flag Officer	“Standard–bearer” semantik jihatdan mos, ammo tug‘chi tarixda ruhiy, ramziy, hatto diniy yuksaklik ramzi sifatida xizmat qilgan.
Qo‘mondon	Commander / Military Leader	Mos tarjima berilgan, ammo ba’zi hollarda “leader” so‘zi rasmiy maqom emas, oddiy yo‘lboshchi ohangida talqin etilgan.

Yuzboshi / Mingboshi	Centurion / Captain / Commander of Hundred	“Centurion” klassik latinchadan olingan, tarixiy paralellikka ega. “Captain” esa zamonaviy armiya kontekstini bildiradi. Tarixiy xususiyat yetarli emas.
Navkar	Attendant / Infantryman / Servant	Ba’zan “attendant” deb tarjima qilingan, biroq “navkar” harbiy xizmatda bo‘lgan, turg‘unlik va sodiqlikka asoslangan rol o‘ynagan.
O‘qchi	Archer / Bowman	To‘g‘ri semantik ekvivalent, ammo o‘qchi Timuriy davrda aniq safarda muhim strategik kuch bo‘lgan.
Otliq	Cavalryman / Horseman	“Horseman” umumiy, oddiy ifoda. “Cavalryman” esa harbiy struktura tarkibidagi kuchni bildiradi. Eng mos variantlardan biri hisoblanadi.
Topshiriq egasi	Envoy / Special Officer	“Envoy” diplomatik tus beradi, harbiy sharoitdagi topshiriq bajaruvchisi uchun izohli yoki kontekstual moslik zarur.
Jangchi	Warrior / Fighter / Combatant	“Warrior” va “combatant” semantik jihatdan yaqin, lekin “jangchi” so‘zidagi faxr, axloqiy ustunlik ifodasi tarjimada kamaygan.
Harbiy yurish	Military Campaign / Expedition	“Campaign” semantik jihatdan mos, ammo tarixiy yurishlardagi diniy, siyosiy maqsadlar ba’zida kontekstdan tushirib qoldirilgan.
Zahira kuchlar	Reserve Troops / Backup Forces	To‘g‘ri leksik moslik berilgan, ammo tarixiy jihatdan ular ko‘pincha strategik hal qiluvchi kuch sifatida tasvirlangan.

Tarjimonlar ayrim hollarda original terminlarni o‘zbek tilida saqlab, izoh qo‘shgan, bu usul esa ko‘proq informativlikni saqlab qolgan. Shu bois, tarjima sifatini oshirish uchun kombinatsiyalangan yondashuv — funksional ekvivalent + izohli tarjima — eng maqbul usul sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa. Ushbu maqolada *Temur Tuzuklari* asarining inglizcha tarjimasida harbiy terminlarning berilishi tahlil qilinib, ularning semantik aniqligi, madaniy konnotatsiyasi va tarjima strategiyalari baholandi. Tadqiqot natijalari harbiy terminlarning aksariyat hollarda umumiy ekvivalentlar bilan berilgani, ba’zilarida esa tarixiy va madaniy mazmunning to‘liq aks etmaganini ko‘rsatdi. Shu asosda izohli tarjima, funksional ekvivalentlik va kontekstga mos yondashuvlar harbiy leksikani tarjima qilishda eng samarali usul sifatida tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva M. *Tarixiy matnlar tarjimasida adekvatlik va sodiqlik muammolari*. –Toshkent, Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi.2020.
2. Baker M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
3. Barkhudarov L.S. (1975). *Jazyk i perevod (Til va tarjima)*. Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya.
4. Fozilov N.A. *Tarjimashunoslik asoslari: nazariya va amaliyot*. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.2018.
5. Garbovskiy V.N. (2007). *Teoriya perevoda: lingvisticheskie i metodicheskie aspekty*. Moskva: MGU.
6. Karimov U. *Maxsus matnlar tarjimasi: nazariy va amaliy asoslar*. –Toshkent: TDPU, 2021.
7. Komissarov V.N. (2002). *Teoriya perevoda (Tarjima nazariyasi)*. Moskva: KomKniga.
8. Murodova N. (2020). *Tarixiy matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlik va madaniy moslik masalalari*. –Toshkent: Nomzodlik dissertatsiyasi.
9. Newmark P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall.
10. Nida E.A., Taber C.R. (1969). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: Brill.
11. Nord C. (2005). *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation–Oriented Text Analysis*. Amsterdam: Rodopi.
12. Qurbonova D. *Lingvokulturologik yondashuv asosida madaniy birliklar tarjimasi*. –Samarqand: SamDU ilmiy jurnali, 2019.
13. Shamsuddinov R. (2011). *Temur’s Code (Translation of Temur Tuzuklari)*. –Toshkent, Uzbekistan Publishing House.
14. Shveitser A.D. (1988). *Sovremennaya teoriya perevoda*. Moskva: Voenizdat.
15. Vermeer H.J. (1989). *Skopos and Commission in Translational Action*. In A. Chesterman (Ed.), Readings in Translation Theory. Helsinki: Oy Finn Lectura Ab.

Sanjarbek ABDULHAMIDOV,
Qo‘qon Davlat universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Email: s.abdulhamidov07@gmail.com

TILSHUNOSLIK TARIXIDA KATEGORIYALASH KONSEPTI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik sohasidagi kategoriyalarga ajratish konsepsiyasining evolyutsiyasi o‘rganilib, uning rivojlanishi qadimgi grammatik an’analardan zamonaviy nazariy asoslarga qadar kuzatilgan. Bilimlarni tuzish va tizimlashtirish jarayoni sifatida kategoriyalarga ajratishning kognitiv xususiyatini ta’kidlab, tadqiqot turli ilmiy maktablarda lingvistik kategoriyalar qanday tushunilganligi, aniqlanganligi va muhokama qilinganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, tushuncha, atama, kategoriya, etno–lingvistik ong.

Аннотация: в данной статье исследуется эволюция понятия категоризации в области лингвистики, прослеживается его развитие от древних грамматических традиций до современных теоретических основ. Подчеркивая когнитивный характер категоризации как процесса структурирования и систематизации знаний, исследование показывает, как лингвистические категории понимаются, определяются и обсуждаются в различных научных школах.

Ключевые слова: лингвистика, понятие, термин, категория, этнолингвистическое сознание.

Annotation: this article examines the evolution of the concept of categorization in the field of linguistics, tracing its development from ancient grammatical traditions to modern theoretical foundations. Emphasizing the cognitive nature of categorization as a process of structuring and systematizing knowledge, the study shows how linguistic categories are understood, defined, and discussed in various scientific schools.

Key words: linguistics, concept, term, category, ethnolinguistic consciousness.

Kirish. Kategorizatsiyani keng ma’noda odamlar bilimga ega bo‘ladigan tizimlashtirish jarayoni sifatida tushunish mumkin. Qachonki biz yangi narsalarga duch kelsak – bu aniq obyektlar yoki mavhum tushunchalar bo‘lsin – biz ularni ma’lum bir toifaga kiritishga harakat qilamiz.Bu xatti–harakatlar, ayniqsa, erta bolalik davrida, bolalar o‘z atrofini o‘rganishni boshlaganlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ammo bilimlarni tuzishning bu jarayoni insonga butun hayoti davomida hamroh bo‘ladi.Kognitiv mexanizm sifatida tasniflash dunyoni tushunarli va boshqariladigan birliklarga bo‘lish orqali tartibga solish va tuzishga imkon beradi. Shunday qilib, antropologiya, falsafa, sotsiologiya, psixologiya va umuman fan kabi ko‘plab fanlar uchun ajralmas hisoblanadi.Tibbiyotning yaxshi namunasi tasnif qanday ishlashini ko‘rsatadi: OITS birinchi marta paydo bo‘lganida, tibbiyot mutaxassislari buni tushunishlari va allaqachon ma’lum bo‘lgan kasalliklar kontekstida tasniflashlari kerak edi.Shunday qilib, kasallik mavjud tibbiy diagnostika tizimiga kiritilishi kerak edi.Dastlab, bu butunlay yangi narsa sifatida qabul qilindi – salbiy kategoriyalashning bir turi. Keyinchalik OIV virusi sabab bo‘lganligi aniqlandi.Har bir yangi kashfiyot OITS haqidagi bilimlarimiz tartibini o‘zgartirishga olib keldi. Shuni ta’kidlash kerakki, tizimlashtirish nafaqat individual faktlar bilan bog‘liq, balki har doim mavjud tushunchalar kontekstida sodir bo‘ladi. Shunday qilib, kategoriyalarga ajratish dunyoga metareal kirishni anglatadi, bu albatta idealizatsiya elementlarini o‘z ichiga oladi.Shu bilan birga, voqelikni segmentlarga bo‘lish muammosi har doim oqilona o‘lchovni topish muammosi bilan bog‘liq – qismlar juda katta yoki juda kichik bo‘lmasligi kerak.Dunyoga to‘liq tuzilmagan qarash ham, son–sanoqsiz mini–kategoriyalarga bo‘linish ham maqsadga erishishga olib kelmaydi. Tilshunoslikda kategoriyaga ajratish ham muhimdir. Dastlab, so‘zlashuv tili an’anaviy ravishda lingvistik tahlil orqali ma’no beradigan tovush oqimidan boshqa narsa emas. Sintaksis bu erda Markaziy rol o‘ynaydi, lingvistik birliklarni aniqlaydi va guruhlaydi – aniq kategoriyalarni shakllantiradi.Zamonaviy tilshunoslikda grammatik tuzilmani kategoriyalarga murojaat qilmasdan tasvirlash qiyin. Barcha tilshunoslar, nazariy yondashuvdan qat’i nazar, nutqning ma’lum qismlari va grammatik sinflar bilan ishlaydi, ular tug‘ma yoki

o‘rganilgan deb hisoblanadi, shu sababdan tasniflash tilni o‘zlashtirishning asosidir deb hisoblashadi.

Materiallar va usullar. Amerikalik tilshunos Labov tilshunoslik kategoriyalarini o‘rganish, ya’ni haqiqatni diskret birliklarga bo‘lish orqali til qanday ma’no yaratishini o‘rganish ekanligini ta’kidlaydi [1, b. 342]. Lyons zamonaviy grammatika nazariyasida “kategoriya” atamasi bir–biriga mos kelmasligini ta’kidlaydi: turli tilshunoslar lingvistik kategoriya deb hisoblanadigan tushinchalarga nisbatan turli xil standartlarni o‘rnatadilar [2, b.270]. Ba’zilar uchun bu shunchaki nutqning qismlari, boshqalari uchun bu temp, rejim, raqam va boshqalar kabi grammatik xususiyatlardir. Kategoriyalarga ajratish ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi, birinchi navbatda sinfga a’zolikni aniqlash va farqlash bilan bog‘liq. Ideal holda, kategoriyalar tizimi iloji boricha sodda va tejamkor bo‘lishi kerak. Juda ko‘p kategoriyalar umumiy xususiyatlarni o‘tkazib yuborishga olib kelishi mumkin – “Occam Razor” tamoyiliga zid bo‘lib, unda kerak bo‘lgandan ko‘ra ko‘proq obyektlar kiritilmasligi kerak.

Qadim zamonlardan beri til bo‘linmalarining yetarli tizimi masalasi grammatikada Markaziy o‘rinni egallab kelgan. Yunonlar ism va fe’llarni eng asosiy birliklar deb hisoblashgan. Aflotun va Aristotel sifatlarni qisman fe’l, qisman ot sifatida talqin qilgan bo‘lsa, keyinchalik grammatikachilar, ayniqsa iskandariyaliklar, kesimlar alohida sinfni ifodalashi kerakmi yoki yo‘qligini muhokama qilishdi, chunki ular og‘zaki va nominal xususiyatlarga ega deya ta’kidlashgan. 1800 yildan ikki asr oldin ingliz grammatikachilari nutq qismlarini tasniflashning deyarli 60 xil tizimini ishlab chiqdilar [3, b. 189]. Bugungi kunga qadar kategoriyalash masalalari hali ham grammatik nazariya doirasida qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

“Kategoriya” atamasi (yunoncha kategoriyadan) Aristotelga borib taqaladi va dastlab “bayonet” yoki “atribut” degan ma’noni anglatadi. Taxminlarga ko‘ra, kategoriyalarga ajratish haqidagi eng dastlabki konseptual mulohazalarni Aristotelda, ayniqsa uning “Metafizika va kategoriyalar” asarida topish mumkin. Aristotel mohiyatni zarur va yetarli xususiyatlar ro‘yxati bilan aniqlash mumkin deb hisoblagan – bu tushuncha Robins simbiotik deb ta’riflaydi [4, b. 39]. Ushbu nuqtayi nazar odatda klassik, sxolastik yoki Aristotelning kategoriyalar nazariyasi deb nomlanadi [5, b. 6].

Oddiy misol – Aristotel tomonidan insonning “ikki oyoqli hayvon” degan mashhur ta’rifi: agar mavjudotni odam deb atash to‘g‘ri bo‘lsa, u ikki oyoqli hayvon bo‘lishi kerak – chunki bu ta’rif shuni anglatadi deya ta’kidlaydi. Shunday qilib, bir xil mavjudot bir vaqtning o‘zida inson bo‘lishi va bo‘lmasligi mumkin emas.

Boshqacha qilib aytganda: obyekt bir vaqtning o‘zida kategoriya ichida va tashqarisida mavjud bo‘lolmaydi. Ushbu tushuncha “hamma yoki hech narsa” yoki “chiqarib tashlangan uchinchi tomon qonuni’ deb nomlangan prinsip bilan bog‘liq, unga ko‘ra obyekt noyob toifaga kiradi yoki yo‘q–u ‘hamma narsa” toifasiga kiradi yoki hech narsa yoki “chiqarib tashlangan uchinchi tomon qonuni” oraliq bosqichlar yo‘q. Klassik modelda kategoriyalar aniq chegaralarga ega va barcha atamalar tengdir.

Ko‘pgina mualliflar ushbu klassik kategoriyalar nazariyasining ta’siri uzoq davom etishini ta’kidladilar. Injilni, xususan Ibtido kitobini turlarga, shuningdek an’anaviy ta’lim tizimlariga urg‘u berib, tilshunoslikda Aristotel tasnifining samaradorligini saqlab qolishning mumkin bo‘lgan sabablari deb ataydi. Shu munosabat bilan Maykl kategoriyalarning kuchayishi qisman bizning mahalliy tilning butun grammatik tushunchamiz tilshunoslik paydo bo‘lishidan oldin paydo bo‘lgan tizim tomonidan chuqur shakllanganligi bilan bog‘liqligini tushuntiradi–tegishli ta’sir bilan. Grammatik kategoriyalarning murakkabligi, mantiq va ritorikaning tobora ortib borayotgan mustaqilligi va tilga ilmiy yondashuvning yo‘qligi grammatikaning so‘zlarni tasniflash va tahlil qilishga tobora ko‘proq e’tibor qaratishiga olib keldi.

Natijalar. Merfi klassik kategoriya nazariyasiga an’anaviy mantiq kuchli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Bunga ta’sir qiluvchi turli omillar bo‘lishi mumkin bo‘lsa–da, boshqa jihatlar muhimroq bo‘lishi mumkin. Ulardan biri shundaki, noaniq yoki noaniq kategoriyalardan voz kechish ilmiy idealga zid keladi, bu noaniqliklarni bartaraf etish va obyektiv haqiqatga erishish istagi bilan tavsiflanadi. Boshqacha qilib aytganda: fanda noaniqlik maqbul deb hisoblanmaydi. Klassik nazariyani afzal ko‘rishning yana bir sababi shundaki, u aniq belgilangan kategoriyalarga ajratish mezonlari bilan sodda, tushunarli modelni taklif qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, aniq belgilangan kategoriyalar murakkab dunyoni tuzishni osonlashtiradi, asta – sekin o‘tish g‘oyasi esa yanada muammoli bo‘lib tuyuladi, chunki bu qiyin xilma–xillikka olib kelishi mumkin–bu masala Maykl ham ta’sir ko‘rsatdi. Klassik nuqtayi nazarning jozibadorligining

qo‘shimcha motivi insonning dunyoni aniq ajratilgan mavjudotlarga bo‘lingan holda qabul qilish tendensiyasi bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy mantiqning kashshofi va Aristotel ta’sir ko‘rsatgan qat’iy kategorik nuqtayi nazarning vakili Gottlob Frege bu borada ayniqsa ta’sirli edi.Frege uchun konseptual noaniqlik mantiqqa to‘g‘ri kelmadi. O‘zining “arifmetika asoslari” asarida u chiqarib tashlangan uchinchi tomon qonuni tushunchalarning aniq belgilangan chegaralarga ega bo‘lishini talab qilishdan boshqa narsa emasligini ta’kidlaydi.

Aksincha, Lyudvig Vitgenstayn, oilaviy o‘xshashlik tushunchasi bilan lingvistik kategoriyalarda noaniqlik mavjudligini tan olgan.20–asrning boshlarida mantiq bizni boshqa ko‘plab fanlarga qaraganda haqiqatga yaqinlashtirishini ta’kidlagan Bertran Rassel, shuningdek, Vitgenshteyn singari, til tubdan noaniq degan fikrda edi.Uning uchun noaniqlik narsalarning o‘zida emas, balki ular haqidagi g‘oyalarimizda. Fikrlashdan tashqari–fikrlashda yoki harakatda – noaniqlik yoki aniqlik yo‘q: narsalar qanday bo‘lsa, shunday bo‘ladi–va bu hammasini aytadi.

Xulosa. Ushbu maqolada biz tilshunoslikda kategoriyalargaa ajratishning bir nechta keng tarqalgan yondashuvlarini yoritdik. Shu bilan birga, ko‘tarilgan muammolarning aksariyati hal qilinmagan va ochiq qolmoqda. Ular asosiy savollarga javob beradi, masalan: kategoriyalar qat’iy cheklanganmi yoki ehtimol ular loyqa o‘tishlarmi? Muayyan ma’lumotlar turlarining taqsimlanishiga qarab kategoriyalarni birlashtirish yoki ajratish kerakmi?So‘z sinflari asosiy birliklarmi yoki konstruktsiyalarni asosiy kategoriyalar sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqroqmi? Bu savollarga hali aniq javoblar yo‘q va kelajakda bu borada fikrlar turlicha bo‘lishini kutish mumkin. So‘nggi o‘n yilliklarda grammatik nazariyada, ayniqsa minimalist dasturda mavhum tasvirlarga nisbatan o‘sib borayotgan tendentsiya mavjud bo‘lsa–da, hozirgi voqealar ushbu tendensiyaning mumkin bo‘lgan o‘zgarishiga ishora qilmoqda. Bu kamroq mavhum kategoriyalar tizimiga o‘tishga olib kelishi mumkin.Shu nuqtayi nazardan, Kulikover va Jekendoff tomonidan taklif qilingan soddalashtirilgan sintaksis yondashuvi ushbu rivojlanishga qanday ta’sir qilishi ayniqsa qiziq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhamidov, S. (2023).BASIC PRINCIPLES AND PROCEDURE FOR STUDYING CAUSATIVE CONSTRUCTIONS IN MODERN LINGUISTICS. Наука и технология в современном мире, 2(19), 19–22.

2.Abdulhamidov, S. (2023).CAUSATIVITY FROM THE POINT OF VIEW OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(23), 8–11.

3. Labov, W., Bailey, C. J. N., & Shuy, R. (1973).The boundaries of words and their meanings. *1973*, 340–73.

4. Lyons, J. (1968).*Introduction to theoretical linguistics* (Vol. 510). Cambridge university press.

5. Michael, I., 1987. The Teaching of English: From the Sixteenth Century to 1870. Cambridge University Press, Cambridge.

6. Rakhmonovich, E. M., Elyorjon, I., & Sanjarbek, A. (2022). Terminology As An Informative Part Of The Language. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1591–1594.

7. Robins, R. H. (2013).*A short history of linguistics*. Routledge.

8. Ross, J. R. (2024).Three batons for cognitive psychology. In *Cognition and the symbolic processes* (pp. 63–124). Routledge.

9. Saydaliyevna, S. S., & Husniddin o‘g‘li, A. S. (2023). PECULIARITIES OF TRANSLATION OF SCIENTIFIC DEGREES.TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3, 102–107.

10. Xusnitdin o‘g‘li, S. A. (2023).ISSUES OF CREATING A LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD. Gospodarka i Innowacje., 37, 44–46.

Najibullo SAYFULLAYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

MILLIY KORPUS VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya: dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasini ilmiy–nazariy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi korpusshunoslik sohasining rivojlanishi va takomillashgan til korpuslarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu maqolada milliy korpus va uning ahamiyati, korpusning zaruriyati, O‘zbek milliy korpusining yaratilishi, milliy korpusning asosiy vazifalari, asosiy maqsadlari, korpusning tuzilishi haqida ba’zi ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: korpus, korpus lingvistikasi, milliy korpus, korpus maqsadlari, asosiy vazifalari, korpusning tuzilishi

Annotation: the growing need for the scientific and theoretical study of corpus linguistics in world linguistics has created the basis for the development of the field of corpus linguistics and the emergence of improved language corpora. This article provides some information about the national corpus and its importance, the need for the corpus, the creation of the Uzbek national corpus, the main tasks of the national corpus, the main goals, the structure of the corpus.

Key words: corpus, corpus linguistics, national corpus, corpus goals, main tasks, the structure of the corpus

Аннотация: растущая потребность в научном и теоретическом изучении корпусной лингвистики в мировой лингвистике создала основу для развития области корпусной лингвистики и появления усовершенствованных языковых корпусов. В данной статье приводятся некоторые сведения о национальном корпусе и его значении, необходимости корпуса, создании узбекского национального корпуса, основных задачах национального корпуса, основных целях, структуре корпуса.

Ключевые слова: корпус, корпусная лингвистика, национальный корпус, цели корпуса, основные задачи, структура корпуса

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi o‘rni va maqomini mustahkamlash, uning mavqeyini ko‘tarish, ta’lim muassasalarida o‘qitish tizimini takomillashtirish, o‘zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini o‘zida to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, turli soha va yo‘nalishlar bo‘yicha lug‘at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish kun tartibiga qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 20–oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana–da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2030–yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor yo‘nalishida davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari hamda kommunikatsiyalaridagi o‘rnini kuchaytirish, zamonaviy dasturiy ishlanmalarni yaratishdagi mavqeyini oshirish yo‘nalishida bir qator chora–tadbirlar belgilab berilgan. Jumladan, o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va o‘zbek tilini jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Jahon tilshunosligida kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish ehtiyojlari ortib borishi bilan korpus lingvistikasi muammolarini o‘rganish jarayoni jadallik bilan rivojlanmoqda. Takomillashib borayotgan kompyuter lingvistikasi sohasida matnlarni avtomatik tarjima qilish sifatini oshirish, tilni lingvistik modellashtirish, har bir tilga oid so‘zlarni lemmalash nazariyasi, axborot–qidiruv tizimi, avtomatik tarjima, tezaurus, elektron lug‘atlardan foydalanish imkoniyati kengaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham korpus lingvistikasi sohasi jadal rivojlanmoqda. Fikrimizga misol sifatida Samarqand davlat universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali hamkorligida “O‘zbek tili milliy korpusi” loyihasi (http://uzbekcorpora.uz/) [8], Toshkent davlat o‘zbek tili

va adabiyoti universitetida “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” loyihasi (https://uzschoolcorpara.uz/) [9], O‘zbekiston milliy universitetida “O‘zbek tili korpusi” loyihalarini (https://uzbekcorpus.uz/newIndex) [10] ko‘rsatishimiz mumkin.

Yaratilgan korpuslar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korpuslarni yaratishda tillar uchun umumiy bo‘lgan yagona qonuniyat mavjud emas. Buning sababi shundaki, turli tillarda turli xil qoidalar, texnologik jarayonlar amal qiladi. Morfologik tavsiflar to‘plamlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, yuqorida qarab chiqilgan korpuslarning barchasida morfologik (yoki grammatik) razmetka ta’minlangan. Sintaksis razmetka esa ba’zi korpuslarda bor, lekin turlicha yondashuvlar asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, ba’zilarida umuman yo‘q. Korpuslarni tilni qamrab olish darajasi bo‘yicha solishtirganda, rus tili milliy korpusini ham xronologiya, ham janrlararo eng muvozanatlashgan va matnlar xilma–xilligi ta’minlangan korpus deb hisoblash mumkin. Lekin rus tili milliy korpusining bu yutug‘i uning asosiy kamchiligini ham yuzaga keltirgan. Har qanday yirik korpusda to‘liq va aniq razmetkalashning imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Noaniqliklar, asosan, avtomatik razmetkalashda omonim so‘zlar tufayli paydo bo‘ladi. [7:13]

“Til korpuslari — til bo‘yicha tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun zarur ish quroli. U oddiy elektron kutubxonadan farqlanadi. Elektron kutubxonaning maqsadi — xalqning ijtimoiy–siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi badiiy va publitsistik asarlarni nisbatan to‘liq qamrab olish. Elektron kutubxona matnlari til nuqtayi nazaridan ishlov berilmaganligi sababli tadqiqotlar uchun noqulaylik tug‘diradi. Chunki elektron kutubxona ilmiy tadqiqot materiali bazasini tayyorlash maqsadida tuzilmaydi, balki milliy–ma’naviy merosni to‘plashni maqsad qilgan bo‘ladi. Til korpusi esa elektron kutubxonadan farqli o‘laroq, tilni o‘rganish va tadqiq qilish uchun foydali va qiziqarli matnlarni to‘plashni nazarda tutadi”[6].

Avvalo, milliy korpusning o‘zi nima degan savol tug‘ilishi tabiiy. Tilshunos mutaxassislar ushbu savolga quyidagicha javob berishadi:

“— Milliy til korpusi — til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida elektron qidiruv imkoniyati mavjud tizim, tabiiy tilning raqamlashgan yozma va og‘zaki matnlar jamlanmasi. Milliy korpus — til birligining o‘zgarishi, eskirishi, yangilarining paydo bo‘lishi, ma’nosining kengayishi va torayishi, yangi iboralarning paydo bo‘lishini kuzatish, an’anaviy va zamonaviy lug‘atlar tuzishda keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizim. Korpusdagi milliy so‘zi nafaqat tilning, balki korpus tuzilishi va tarkibining ham o‘ziga xosligini anglatadi. Milliy korpusning boshqa tur til korpuslaridan farqi ta’limiy korpus, muallifl ik korpusi, poetik matnlar korpusi, ilmiy va rasmiy matnlar korpusi, og‘zaki matnlar, badiiy matnlar va gazetalar hamda dialektlar korpusi kabi ichki korpuslarni o‘z tarkibiga qamrab olganligi bilan belgilanadi”.[6]

Filologiya fanlari doktori Abjalova Manzura Abdurashetovnaning ta’kidlashicha, rus tili milliy korpusida “milliy korpus ushbu tilni mavjudligining ma’lum bir bosqichida (yoki bosqichlarida) hamda barcha turdagi janrlar, uslublar, hududiy va ijtimoiy variantlarda taqdim etadi”[3] – deya ta’riflanadi.

O‘zbek tili milliy korpusi (O‘TMK) zamonaviy tilshunoslik va lug‘atshunoslik sohasida juda muhim vosita hisoblanadi. U til birliklarining real qo‘llanilishi, semantik tahlil, lug‘at yaratish va til taraqqiyotini o‘rganishda keng imkoniyatlarni taqdim etadi.

O‘zbek tili milliy korpusi – bu elektron shaklda yig‘ilgan va tizimlashtirilgan katta hajmdagi matnlar to‘plami bo‘lib, u lingvistik tadqiqotlar va kompyuter lingvistikasi sohasida qo‘llaniladi.

O‘zbek tili milliy korpusi quyidagi asosiy maqsadlarni bajarishga xizmat qiladi:



Bu korpus o‘zbek tilining grammatik, morfologik va sintaktik jihatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat lug‘atshunoslik, balki o‘zbek tilini xorijiy tillarga o‘qitish, terminologiyani rivojlantirish hamda lingvistik modellar yaratishda ham foydalaniladi.

O‘zbek tili milliy korpusi quyidagi asosiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

Til resurslarini yaratish va boyitish – o‘zbek tilining turli kontekstlarda qo‘llanilishini aks ettiruvchi elektron resurslarni yaratish.

Leksikografik tadqiqotlar – so‘zlarning ma’no doirasi, kontekstual qo‘llanilishi va sinonimik bog‘liqliklarini aniqlash.

Morfologik va sintaktik tahlil – so‘z turkumlari, grammatik kategoriyalar va gap tuzilishini o‘rganish.

Til o‘zgarishlarini kuzatish – yangi so‘z va iboralarni aniqlash, tilning rivojlanish dinamikasini o‘rganish.

Korpus asosida avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirish – sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasini ta’minlash.

Korpus asosida o‘qitish va til o‘rgatish – o‘zbek tilini o‘rganayotganlar uchun real til namunalariga asoslangan o‘quv materiallarini yaratish.

So‘zlarning chastotali tahlili – eng ko‘p ishlatiladigan so‘z va iboralarni aniqlash, lingvistik tadqiqotlar uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish.

Frazeologik birliklarni o‘rganish – o‘zbek tilida keng ishlatiladigan ibora va maqollarni tahlil qilish va ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish.

Tilshunoslik modellari va algoritmlarini yaratish – tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan lingvistik modellarni yaratish.

Til siyosatini shakllantirishga ko‘maklashish – davlat tili siyosatini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan til tadqiqotlari uchun ma’lumotlar taqdim etish.

O‘zbek tili milliy korpusi quyidagi asosiy qismlardan iborat:

Badiiy matnlar – romanlar, hikoyalar, dostonlar, she’riy asarlar.

Ilmiy–texnik matnlar – maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy tadqiqot ishlari.

Publitsistik matnlar – gazeta va jurnal maqolalari, intervyular, sharhlar.

Rasmiy–huquqiy matnlar – qonunlar, farmonlar, nizomlar va boshqa hujjatlar.

Og‘zaki nutq va transkripsiyalar – intervyular, suhbatlar va so‘zlashuv namunalari.

Dialekt va sheva namunalari – o‘zbek tilining turli hududlardagi o‘ziga xos variantlari.

Tarixiy matnlar – qadimgi o‘zbek adabiyoti, arxiv hujjatlari va tarixiy yodgorliklar.

Matnlarning bunday xilma–xilligi korpusning keng qamrovli bo‘lishiga va turli kontekstlarda so‘zlarning ishlatilishini o‘rganishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020–yil 20–oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084–son farmoni // https://lex.uz/docs/5058351.

2. Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya) – Germaniya: Globeedit, 2021. 200–b.

3. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn] : uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. 103–b.

4. Eshmuminov A. O‘zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronimik munosabatli leksemalar lingvistik bazasini shakllantirish [Matn]:monografiya. – Termiz: Termiz davlat universiteti nashr–matbaa markazi, 2023. 250–b.

5. Mengliyev B., Hamrayeva Sh. Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish. – T.: Globeedit, 2020. 50–b

6. O‘zbek tili milliy korpusi – muhim madaniy voqelik (davra suhbati) / “Ma’rifat”, 11.08.2021. № 32 (9357).

7. Tursunov M.S. O‘zbek lingvistik korpusini yaratish tajribasidan (konkordans, tokenayzer, lemmatayzer, razmetkalash dasturlari asosida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qo‘qon, 2024

8. http://uzbekcorpora.uz/

9. https://uzschoolcorpara.uz/

10. https://uzbekcorpus.uz/newIndex

Go‘zalxon YOQUBJONOVA
Qo‘qon davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
yakubjanovaguzalxon@gmail.com

STEAM TA’LIM KONSEPSIYASINING ILMIY–METODOLOGIK MANBALARI VA TARIXIY TARAQQIYOTI

Annotatsiya: mazkur maqolada STEAM texnologiyalarining bugungi kundagi ahamiyati, uning imkoniyatlari va yutuqlari, ta’lim tizimidagi afzalliklari, tarixiy taraqqiyoti haqida fikr–mulohazalar yuritilgan bo‘lib, ushbu maqoladan talabalar, erkin va mustaqil izlanuvchilar, pedagoglar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: STEAM texnologiyalari, ta’lim sifati, qobiliyat, xorijiy tarbiya, intergratsiya, fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika, rivojlantiruchi markaz, integratsiya.

Аннотация: в статье рассматривается важность STEAM–технологий сегодня, их возможности и достижения, а также их преимущества в системе образования. Эту статью могут использовать студенты, свободные и независимые исследователи и преподаватели.

Ключевые слова: STEAM–технологии, качество образования, навыки, зарубежное образование, интеграция, наука, технологии, инженерия, искусство, математика, центр развития, интеграция.

Annotation: this article discusses the importance of STEAM technologies today, its capabilities and achievements, and its advantages in the education system. This article can be used by students, free and independent researchers, and educators.

Key words: STEAM technologies, quality of education, ability, foreign education, integration, science, technology, engineering, art, mathematics, development center, integration.

STEAM ta’lim konsepsiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini bir butun bilim tizimida uyg‘unlashtiruvchi integrativ yondashuv sifatida shakllangan. Bu yondashuv zamonaviy ta’limning multidissiplinar xususiyatini namoyon etib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yechim topish va amaliy bilimni hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

STEM ta’lim konsepsiyasi 1990–yillarda AQSHda shakllana boshlagan bo‘lib, uning paydo bo‘lishi sanoat va texnologik inqilobning yangi bosqichi bilan chambarchas bog‘liq. Bu davrda AQSH ta’lim tizimi jahon miqyosida o‘z raqobatbardoshligini saqlab qolish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va fan–texnika sohalarida innovasion rivojlanishga yo‘naltirilgan kadrlar salohiyatini oshirish kabi strategik maqsadlarni oldinga qo‘ygan edi. Bu jarayonda Milliy fan jamg‘armasi (National Science Foundation) tomonidan “STEM” atamasi ilgari surildi. Ushbu atama — Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muxandislik), Mathematics (matematika) so‘zlarining bosh harflaridan tashkil topib, ta’lim jarayonida ushbu fanlarni bir butun tizimda uyg‘unlashtirish zaruratini ifodalaydi.

STEM ta’limi nafaqat fanlarni o‘rgatish, balki o‘quvchida muammoli vaziyatlarni anglash, tahlil qilish va yechim topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu borada amerikalik pedagog va muhandislik ta’limi bo‘yicha ekspert Mark Sanders shunday ta’rif beradi: “STEM ta’limi – bu fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga oid mustahkam akademik tushunchalarni hayotdagi darslar bilan uyg‘unlashtiruvchi fanlararo o‘quv yondashuvidir. Unda o‘quvchilar ushbu fanlarni maktab, jamoa, mehnat muhiti va global iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi bog‘lanishni yaratadigan kontekstlarda qo‘llaydilar.” Uning ta’kidlashicha, STEM ta’limi maktab va hayot o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlab, fan va texnologiyani ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shu boisdan ham bu model 2000–yillardan boshlab AQSHdagi maktab dasturlariga keng joriy etildi va keyinchalik xalqaro miqyosda ommalashdi. Ushbu yondashuvni Finlyandiya, Koreya, Yaponiya, Singapur, Xitoy kabi rivojlangan

davlatlar o‘z milliy ta’lim strategiyasiga tatbiq etish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga erishdilar. Shu tariqa, STEM ta’limi nafaqat AQSH ta’lim siyosatida, balki jahon miqyosida innovasion ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Keyinchalik unga “Art” (san’at) komponenti qo‘shilib, ijodiylik va estetik fikrlashni rivojlantirish maqsadida STEAM ta’lim konsepsiyasi yuzaga keldi.

STEM va STEAM ta’lim konsepsiyalarining ilmiy asoslarini shakllantirishda xorijiy tadqiqotchilarning ilk ishlanmalari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, J.Breyner, M.Sanders, G.Yakman va S.Xarkness kabi olimlar bu konsepsiyaning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini belgilab bergan.

Bu fikrdan kelib chiqib, J.Breyner ta’limni mustahkam akademik bilimlar bilan cheklamaslik, balki u bilimlarni hayotda qo‘llay olish salohiyatini shakllantirish lozimligini ta’kidlaydi. Uning yondashuvi STEAM ta’limiga to‘liq mos keladi. Chunki STEAM fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini bir–biriga bog‘langan holda, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan integratsiyali tizimdir. J.Breyner ta’kidlaganidek, bilimni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish (transfer of learning) bu XXI asr ta’limidagi strategik maqsadlardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, STEAM modelining shakllanishida J.Breynerning fanlararo yondashuvga oid g‘oyalari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Uning qarashlari fanlarning o‘zaro bog‘liqligini anglash, bilimni yangi kontekstlarda tatbiq qilish va shaxsiy fikrni mustaqil ravishda shakllantirish salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modellari uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

M.Sandersning ta’rifidan anglashiladiki, STEM faqatgina akademik bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki o‘quvchining atrof–muhitdagi voqelikni anglash, undagi muammolarni tadqiq etish va ularga yechim topishga intiluvchi faol subyekt sifatida shakllanishini nazarda tutadi. M.Sanders ta’limining bu ko‘rinishi tadqiqotga asoslangan, loyiha asosidagi va muammoli o‘qitish texnologiyalariga to‘liq uyg‘un keladi. Uning fikricha, ta’lim real hayotdan uzoqlashmasligi kerak, aksincha, zamonaviy ishchi muhit, jamiyat va iqtisodiyot talablariga moslashuvchan bo‘lishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, M.Sandersning yondashuvi STEM ta’limining asosiy vazifasi sifatida o‘quvchida faqat bilim emas, balki iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va hal etish qobiliyatini rivojlantirishni ko‘radi. Bu esa ta’limni raqobatbardoshlik va innovatsiyaviy rivojlanish bilan bog‘lash imkonini beradi.

Ushbu qarashlar keyinchalik STEAM ta’lim modelining shakllanishiga zamin yaratgan, chunki ular fanlarni uyg‘unlashtirish va hayot bilan bog‘lash g‘oyasiga asoslangan. Sanders’ning ta’limga amaliy, integrativ va yondoshuvchan qarashi bugungi kun ta’lim islohotlarining konseptual poydevoriga aylangan.

Gergitte Yakman STEAM ta’lim konsepsiyasini ilmiy asosda shakllantirgan ilk tadqiqotchilardan biri sifatida tan olingan. Uning eng muhim hissasi STEM modelining mazmuniga san’at (Art) elementini qo‘shish orqali ta’limni nafaqat mantiqiy, balki ijodiy va hissiy rivojlanish uchun ham samarali muhitga aylantirish g‘oyasini ilgari surganidir. G.Yakman ta’limda estetik tafakkur, kreativ fikrlash, dizayn va badiiy anglash qobiliyatlarini shakllantirishni zamonaviy fuqaroni tarbiyalashning muhim jihati sifatida ko‘radi: “STEAM faqat STEM’ga san’atni qo‘shish emas, balki ijodiy jarayonlarni tahlilga asoslangan fikrlash bilan ongli tarzda uyg‘unlashtirish orqali tushunishni chuqurlashtirish va yangilik yaratishga xizmat qiladi”.

G.Yakmanning bu qarashi ta’limni to‘laqonli inson rivoji uchun mo‘ljallangan kompleks tizim sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Uning ilmiy yondashuvi ta’lim jarayonini faqat rasional fikrlash bilan cheklamay, balki shaxsiylik, hissiylik va ijodiylik asosida boyitish zarurligini asoslab beradi. G.Yakman taklif etgan STEAM modeli fanlar o‘rtasida uyg‘unlikka erishish, faol o‘quv muhitini shakllantirish va o‘quvchida murakkab vazifalarga innovasion yondashuvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Uning ilmiy pozisiyasi ta’limda gumanitar va aniq fanlar o‘rtasidagi integratsiyaga yo‘l ochgan. S.Xarknessning ta’limga bo‘lgan yondashuvi STEM modelining faqat texnik va mantiqiy tafakkur bilan chegaralanib qolmasligi, balki unda insonparvarlik, hamdardlik, muloqot qobiliyati va dizayn fikrlash kabi ijtimoiy–kommunikativ omillar ham integratsiya qilinishi zarurligini ta’kidlaydi. U

ta’limning inson tarbiyasiga yo‘naltirilgan gumanistik vazifasini qaytadan markazga qo‘yadi. Uning fikriga ko‘ra, muvaffaqiyatli STEM ta’limi – bu nafaqat murakkab masalalarni mantiqiy yechish jarayoni, balki jamiyatning real ehtiyojlarini tushunib, ularga barqaror va inson manfaatlariga mos yechim topish jarayoni hamdir. S.Xarkness ta’kidlaydi: “Samarali STEM ta’limida inson omili – hamdardlik, muloqot va dizayn fikrlash bo‘lishi shart. Bu tafakkur turi orqali haqiqiy hayot muammolariga barqaror yechimlar topish mumkin” . S.Xarknessning bu qarashi STEM ta’limining faqat texnik bilimlarga asoslangan modeldan ijtimoiy mas’uliyat va inson manfaatlarini hisobga olgan holda qayta shakllanishi zarurligini ko‘rsatadi. U ta’limni muvaffaqiyatli yechimlar yaratishda empatiya (boshqalarni tushunish qobiliyati), samarali muloqot va dizayn fikrlash (ijodiy yechim topish strategiyasi) bilan boyitish kerakligini ta’kidlaydi. Bu, o‘z navbatida, STEAM konsepsiyasidagi “Art” komponentining keng ma’nodagi ifodasiga to‘liq uyg‘un keladi.

S.Xarknessning pozisiyasi shundan dalolat beradiki, fanlararo ta’limni samarali tashkil etishda texnik bilimlar yetarli emas: ta’lim gumanitar va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish orqali haqiqiy hayot muammolariga ijtimoiy–ma’naviy jihatdan mas’ul yondashuv shakllantirishi lozim. Shu ma’noda, uning ta’lim modellariga qo‘shgan hissasi STEAM konsepsiyasining inson markazli yo‘nalishini ilmiy jihatdan asoslab bergan muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Ushbu to‘rt olimning ishlari STEM va STEAM ta’lim konsepsiyalarining nazariy poydevorini yaratib, fanlararo, ijodiy va hayotga yaqin ta’lim modellarini shakllantirishga hissa qo‘shdi. Ular ta’limni faqat bilim berish emas, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy mas’uliyat va muammoli tahlil qobiliyatini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qarashni taklif etdilar.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta’lim konsepsiyasi fanlarni integratsiyalangan holda o‘qitishga doir nazariy qarashlar va didaktik tamoyillarga tayangan holda shakllangan. Uning nazariy asoslari ta’limda konstruktivizm, fanlararo yondashuv, multimodal o‘rganish, kognitiv faoliyat va ijodiy tafakkurni uyg‘unlashtirish kabi pedagogik g‘oyalarga borib taqaladi. Bu konsepsiya nafaqat fanlar mazmunini uyg‘unlashtirishni, balki o‘quvchining shaxsiy tajribasi, hissiy ongi va ijtimoiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishni maqsad qiladi. STEAM ta’limi ta’lim jarayonini yodlash va qayta ayttirish emas, balki muammoga asoslangan o‘rganish, fanlar kesishmasida yechim topish, ijodkorlik orqali bilish va inson markazli yondashuv kabi ilg‘or nazariy g‘oyalar bilan boyitilgan. Shu jihatdan, STEAM ta’lim nazariyasi zamonaviy ta’lim islohotlarining fundamental asoslaridan biriga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “STEM Education: An Overview of the Research” – Margaret Honey, Greg Pearson
2. “Teaching STEM in the Early Years” – Julie E. Wollman
3. “STEM Road Map: A Framework for Integrated STEM Education” – David A. M. Peters
4. “The STEM Shift: A Guide for School Leaders” – Rachael E. Roberts
5. “Integrating STEM into the Classroom: A Guide for Teachers” – Janet S. Twyman
6. Djenis Van Kliv. STEAM fanlar blokidagi fanlar kesimida 200ta tajriba. Qo‘llanma. –Moskva: 1995–y.

Dilso‘z XOSHIMOVA,
QDU Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

ALLYUZIYANING TURLARI

Annotatsiya: maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi allyuziyalarning atoqli otlar bilan ifodalanishiga ko‘ra turlarini o‘rganish natijalari keltirilgan. Zamonaviy ingliz va o‘zbek adabiyotidan olingan ma’lumotlarning salmoqli qismini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, allyuziyani ifodalashning keng tarqalgan usuli – turli lingvistik kontekstlarda atoqli ismni ishlatish; kamroq uchraydigan usuli – tegishli ismdan olingan sifatni ishlatish; – va juda kam uchraydigan hodisa– konversiya orqali fe’l hosil bo‘lishi.

Kalit so‘zlar: allyuziya, lingvistik tasvir, kontekst, antonomaziya.

Аннотация: в статье представлены результаты исследования типов аллюзии в английском и узбекском языках по их выражению именами собственными. Анализ значительной части данных современной английской и узбекской литературы показал, что наиболее распространенным способом выражения аллюзии является использование имени собственного в различных языковых контекстах; менее распространенным способом является использование прилагательного, образованного от имени собственного; и совсем редким явлением является образование глагола путем конверсии.

Ключевые слова: аллюзия, языковой образ, контекст, онтомазия.

Annotation: the article presents the results of a study of the types of allusion in English and Uzbek according to their expression by proper nouns. Analysis of a significant part of the data from modern English and Uzbek literature showed that the most common way of expressing allusion is the use of a proper noun in various linguistic contexts; a less common way is the use of an adjective derived from a proper noun; and a very rare phenomenon is the formation of a verb through conversion.

Key words: allusion, linguistic image, context, ontomasia.

Allyuziyalar ko‘pincha mashhur odamlarning ismlari va mashhur fantastik belgilarga ishora sifatida ko‘riladi shuningdek, ma’lum faktlar, tarixiy voqea va joylar “o‘ziga xos xususiyat yoki xususiyatni o‘zida mujassam etgan so‘zda qo‘shimcha ma’noni uyg‘otish uchun” ham ishlatiladi.[1]

Bevosita (so‘zma–so‘z) tegishli ismlardan farqli o‘laroq, allyuziyalar bilvosita tegishli nomlarga taalluqli bo‘lib, bir (mashhur) shaxsga xos xususiyatni boshqa birovga uydirma yoki real o‘tkazish orqali obraz yaratadi. Allyuziyalarning kelib chiqishiga ko‘ra atoqli otlarga turli tasniflari qilingan, asosiy manbalar, yunon va rim mifologiyasi, Shekspir va Dikkens kabi klassik mualliflardir. Allyuziyalarni iqtiboslar bilan bir qatorda turli adabiy asarlar o‘rtasida matnlararo aloqalarni shakllantirishning kuchli quroli sifatida qarash mumkin, bu esa madaniy hodisalar va qadriyatlarning uzluksizligini yaratadi. Allyuziyalar badiiy matnlarda: personajlar va ularning axloqiy va madaniy qadriyatlarini tavsiflash, hazil, hatto istehzoli munosabatlarni ifodalash, [2] yoki ijobiy / salbiy baholash, odamlarning tashqi ko‘rinishi va xulq–atvoriga ishora qilish [3]kabi ko‘p funksiyalarni bajaradi. Badiiy matnlarda ham she’riy, ham nasriy matnlarda allyuziyalardan foydalanish butun davr mobaynida har xil bo‘lgan. Allyuziyaning stilistik vosita sifatida rivojlanishidagi eng yuqori cho‘qqilardan biri ko‘pincha Jon Milton va Aleksandr Papaning she’riy san’ati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning adabiy uslubi “ishora” ya’ni “allyuziya” deb ataladi.[4] 19–asrning romantik shoirlari va realistik romanchilari ushbu stilistik vositadan o‘ta ta’sirlangani ma’lum, biroq postmodernizm adabiyotining paydo bo‘lishi bilangina allyuziyadan turli matn intertekstlari sifatida foydalanish yana mashhur bo‘ldi. Qayd etish joizki, allyuziyaning lingvistik tadqiqi uzoq vaqtdan beri shakllanib kelayotgan adabiy yondashuvdan farqli ravishda nisbatan yangi yondashuvdir. Biz lingvistikada allyuziyalarni tadqiq qilish usuli sifatida allyuziya ma’nolarini ifodalash shakllarini ham, allyuziyalarning matndagi vazifalarini o‘rganishni ham qisqacha tavsiflashimiz mumkin. Biroq, adabiyotda allyuziyalarning rolini ko‘rsatadigan keng qamrovli tadqiqotlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Masalan, Charlz Dikkens kabi mumtoz mualliflarga allyuziyalar zamonaviy yozuvchilar tomonidan keng qo‘llanilishi madaniy o‘tmish va hozirgi davr o‘rtasida ko‘prik bo‘lishi aniqlangan. Boshqa tomondan, alohida mualliflar, masalan, Jon Faulz [5] matnlaridagi allyuziya turlarini o‘rganishda sezilarli qadamlar qo‘yilgan. Ularga ko‘ra nomi allyuziyaga aylangan asl shaxsdan ma’lum bir sifat, ishora yoki belgining boshqa shaxsga yoki hayoliy qahramonga o‘tishi allyuziya bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi tadqiqotlarga ko‘ra, allyuziya otlar kontekstga (vaziyatga) bog‘liq holda, bir qancha ishorali xususiyatlarni, ma’lum bir voqelikni amalga oshirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu maqolada biz zamonaviy ingliz adabiyotida allyuziya sifatida qo‘llaniladigan atoqli otlarning lingvistik tasviri muammosiga yondashishga harakat qildik. Bir qancha zamonaviy ingliz va o‘zbek romanlarining matnlari, she’rlar allyuziyali atoqli otlarni o‘rganish uchun foydalanildi. Dastlabki nazariyalarga ko‘ra, allyuziya

nomlari nafaqat atoqli otlar shaklida, balki sifatlar va fe'llar shaklida ham ishlaydi. Ma'lumotlarning lingvistik tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘z tarkibida atoqli ot bo‘lgan allyuziya birikmalarini ikki katta guruhga bo‘lish mumkin: **bir atoqli otdan iborat bo‘lgan allyuzion birliklar** va **ikki atoqli otdan iborat bo‘lgan allyuzion birliklar**. Birinchi tur birikmalar keng tarqalgan bo‘lib, ular faqat bir atoqli otdan iborat bo‘lishi mumkin, masalan, Venera, Qirol Lir, Pandora qutisi, Axillning tovoni, Gerkulesning kuchi va boshqalar. Allyuziyali birikmaning boshqa turi: pretsedent matnda chambarchas bog‘langan ikkita nomni o‘z ichiga oladi, masalan: Romeo va Juletta, Skilla va Charibdis, doktor Jekil va janob Xayd. Tahlil qilinayotgan materialdagi allyuziyalarning ikkinchi eng katta guruhi atoqli otlardan yasalgan sifatlar bilan ifodalanadi. Ushbu sifatlar orasida ikkita tur mavjud: ingliz tilida allaqachon mavjud bo‘lgan so‘zlar (Dikkensian va boshqalar) va matn muallifi tomonidan tuzilgan neologik so‘zlar (Xogvarts uslubi, va boshqalar). Allyuziyalarning uchinchi guruhi eng kichigi bo‘lib, mualliflar tomonidan maxsus kontekst uchun ismni o‘zgartirish (Jina–Fordga) orqali tuzilgan neologik fe'llardan iborat. Keling, turli tuzilmalarning o‘ziga xos nomlari adabiy kontekstda qanday ifodalanishini ko‘rib chiqaylik.

"*Vomiqu, Farhodu Majnundeklar ul vodiy aro*
Bo‘lsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz"

Alisher Navoiy "Istangiz"

Vomiq, Farhod, Majnun Alisher Navoiyning eng mashxur dostonlarining bosh qahramon oshiqlari bo‘lib, bu yerda mutaffakir o‘zining qay darajada muhabbatga yo‘g‘rilganligiga ishora qilyapti.

Ko‘rpangga qarab oyoq uzat, dedim o‘zimga o‘zim bir kuni. Keyin o‘ylanib qoldim.Kim aytgan ekan bu gapni birinchi marta.Ehtimol, Odam Ato Momo Havoga aytgandir. Yo‘q, bu yaqin kishilar bir–biriga aytadigan gap emas. Bu gap ko‘rpasi bir odamlarning gapi emas. Binobarin, Odam Ato bilan Momo Havoda ko‘rpa ham nima qilsin?Ibtidoiy odamlar teri yopinib yotishgan. Qullarning ko`rpasi tuproq bo‘lgan. Feodallar ko‘rpa talashishmagan.Demak, bu ham kapitaliz millati!

Muhammad Yusuf "Osmonning oxiri" [6]

Qur'oni karimda Odam alayhissalom va uning xotini bir ruhdan yaratilganligi aytilgan. Odam Ato va Momo Havo jannatdagi harom daraxtning mevasidan yedilar, Alloh ularga yaqinlashishni man qilgan, Iblis ularga yolg‘on gapirib, ularni aldagan edi. Shunda ular jannatdan chiqarib yuboriladilar. Bu yerda Odam Ato va Momo Havo yer yuzida eng avval yaratilgan inson vakillari sifatida allyuziya bo‘lib kelmoqda.

Meni bir o‘y qiynaydi yomon,
Yurak yana o‘ynadi yomon.
Toshkentga qiz berma Marg‘ilon — Qodiriy yo‘q,
Zaynablar omon!

Muhammad Yusuf "Kumush"

Ushbu she'rda shoir O‘tkan kunlar, o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub o‘zbek adabiyotidagi ilk romanga, roman muallifi va bosh qahramonlarga ishora qiladi. Roman XIX asr voqealarini qamrab olgan bo‘lib, murakkab tarixiy voqealar asarning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibining fojiaviy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Yozuvchi Otabekka bo‘lgan sevgisi sababli ko‘plab qiyinchiliklarni yengib o‘tuvchi Kumush obrazini yaratadi. Ammo asar fojiali yakun topadi: Kumushbibi kundoshi Zaynab tomonidan zaharlab o‘ldiriladi.

Xulosa.Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ingliz va o‘zbek adabiyotlarida allyuziya ifodalanishining asosiy usuli atoqli otlardan foydalanish hisoblanadi.Atoqli otlar madaniy, tarixiy yoki adabiy manbalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali mualliflar kontekstga chuqur ma'no yuklaydilar. Kamroq uchraydigan holat sifatida tegishli atoqli ismga oid sifatlar shaklida ifodalanish kuzatildi.Eng kam qo‘llaniladigan usul esa – konversiya yo‘li bilan atoqli otlardan fe'l hosil qilishdir. Bu holatlar adabiy matnlarning ifoda vositalari xilma–xilligini va ularning stilistik boyligini namoyon etadi. Natijalar shuni anglatadiki, ingliz va o‘zbek adabiyotida allyuziyaning atoqli otlar orqali ifodalanishida o‘xshashliklar mavjud bo‘lib, bu ikki til va madaniyat oralig‘ida badiiy tilning umumiyliklarini hamda o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belonozhko n.d. allusion of negative evaluation // fundamental science in universities, 2013, 1, pp. 337–343.
2. Belonozhko n.d. allusion of positive evaluation // pedagogical research, 2014, pp.61–64.
3. Drozdova m.s. the poetic context of allusions and reminiscences in "the aristos" by j. Fowles. // philology and culture. 2015. № 3 (41), pp.217–221.
4. Nikashina n.v., suprun n.d. allusion as a stylistic device in literature in the english language // vestnikrudn, theory of language. Semiotics.Semantics, 2016 № 1, pp.68–74.
5. Oxford dictionary of allusions. Andrew delahunty et al (eds). 2nd edition, oxford university press, 2005.pp.472.
6. Aldous huxley point counter point, 1928.
7. Alex keegan kingfisher, 1995.



Gulnoza SALIMOVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti Yoshlar masalalari,ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi
Elektron manzil: anvarovnagulinoz@gmail.com

SO'ROQ GAPLAR VA PRAGMATIK KONTEKST MUNOSABATLARI: LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV ASPEKTLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada so'roq gaplarning mazmun qirralari, pragmatik kontekst bilan bog'liq o'zaro ta'sir va xususiyatlar, proza va she'riyatda pragmatikaga oid misollar keltiriladi. Maqola so'roq gaplarning lingvistik va pragmatik jihatlarini tahlil qilib, ularning konseptual tuzilmasi, lisoniy birliklar, adresant va pragmatik intensiyasiga oid muhim jihatlarni yoritadi.

Kalit so'zlar: *pragmatika, konseptual tuzilma, lisoniy birlik, adresant, pragmatik intensiya.*

Annotation: this article explores the semantic nuances of interrogative sentences, their interaction and characteristics in relation to the pragmatic context and provides examples of pragmatics in both prose and poetic forms.The paper analyzes the linguistic and pragmatic aspects of interrogative sentences,highlighting their conceptual structure,linguistic units,the addressee and pragmatic intention.

Key words: *pragmatics, conceptual structure,linguistic unit,addressee,pragmatic intention.*

Аннотация: в этой статье рассматриваются смысловые грани вопросительных предложений,их взаимодействие и особенности в контексте прагматики,а также приводятся примеры прагматических аспектов в прозе и поэзии.Работа анализирует лингвистические и прагматические аспекты вопросительных предложений,освещая их концептуальную структуру,языковые единицы,адресата и прагматическую интенцию.

Ключевые слова: *прагматика, концептуальная структура,языковая единица,адресат, прагматическая интенция.*

Har qanday millatning o'zligi uning tilida ravshan namoyon bo'ladi, chunki til insonning madaniyati, aql–zakovati hamda insoniy fazilatlarining bevosita ifodasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli til jamiyatda asosiy aloqa vositasi hisoblanib, uning amaliy faoliyati nutq orqali muloqot qiluvchi shaxslarning ijtimoiy hayotidagi o'rni va ahamiyatini belgilaydi [1:43]. Tilning amaliy faoliyati nafaqat lisoniy bilimlar zaxirasidan foydalanish, balki milliy madaniyat, qadriyatlar, tafakkur va ruhiy olamning chuqur ko'zgusiga aylanadi.

Ma'lumki, so'zlovchining kommunikatsiyada ko'zlagan maqsadi gap turlarini belgilashda, xususan, so'roq gaplarni hosil qilishida yaqqol namoyon bo'ladi.So'roq gapda ifodalangan maqsad noma'lum axborotni aniqlashdan iborat bo'lib, nutqda so'zlovchiga noma'lum narsa, hodisa, predmet, shaxs haqida ma'lumot olish ehtiyoji tufayli vujudga keladi [3:27]. Shaxs muloqotda zamon va makondan tashqari barcha uchun umumiy bo'lgan konsept va tushunchalar: haqiqat, yolg'on, sevgi, nafrat, burch, adolat, ikkiyuzlamachilik, hurmat, qasd, g'azab va boshqalardan foydalanadi.

Axborot almashinuvining mazmuniy negizini tashkil etuvchi konseptual tuzilmalar pragmatik vaziyatlar bilan bog'liq holda yuzaga keladi [2:14]. So'roq gaplarning muloqotda qo'llanishi

uning grammatik tabiatidan farqli turli xil pragmatik mazmun va vazifa kasb etadi.

Pragmalingvistikani o‘rganishda tilshunos Charles Morris pragmatika − bu til belgilarining foydalanuvchi bilan bo‘lgan munosabatini o‘rganadigan sohasi bo‘lib, sintaktika, semantika va pragmatikaga ajratib o‘rganilishi kerakligini aytadi. Tilshunos Paul Grice suhbat davomida ishtirokchilar ma’no yaratishda maxsus tamoyillarga amal qilishlarini **Grice kooperativ prinsipi** asosida 4 ta maxsus maksima: miqdor, sifat, aloqadorlik, usulga bo‘lib o‘rganadi. Grice: “Suhbat ishtirokchilari odatda, **hamkorlik** qilgan holda muloqotda bo‘lishadi”, – deydi.

Tog‘ay Murod asarlaridagi kooperativ prinsip va maksimalarni so‘roq gaplarga diqqat qaratamiz: “***Kolxoz tuzilgani qachon edi?”,* – dedi qo‘shchi. *Sizlarga qachon aql kiradi? Topinglar, men kimman?***

Yuqoridagi gaplarda bir–biriga uzviylik yo‘qolib, aloqadorlik maksimasi buzilganligini ko‘rish mumkin. Bu so‘roq gaplar e’tiborni jalb etish, kuchli istak va fikrni tasdiqlatish kabi pragmatik mazmunni ifodalaydi. So‘roq gaplar ko‘p hollarda so‘rashuv vaziyatida yuzaga keladi: ***Siz Mirzaxo‘jaboyni kenja zaifasi…Zaynab…Zaynab xotinmisiz? Shunday, shunday***. ***Qizalog‘ingizni oti nima?Obod. [4:12,13]***

Bir–biriga mantiqan bog‘langan dialogda so‘roq berish orqali adresantning shaxsi va nasl–nasabini aniqlashtirib olinyapti. Prozada so‘roq gaplardan ko‘zlangan maqsad yozuvchining gap ortiga yashirgan fikri bo‘lsa, she’riyatda esa tuyg‘ular xilma–xilligini ko‘rsatadi.

Shoir Usmon Azim satrlarida so‘roq gaplarning turli emotsional ranglari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Masalan**, “O‘zi seni nega sevdim?”** iborasi so‘roq–afsuslanish ohangida bo‘lib, ichki kechinmalar va pushaymonlikni ifodalaydi. **“Xiyonat bag‘riga yiqildi gunoh: Nimalar bo‘ldi… O! Nimalar bo‘ldi?!”** misrasi esa so‘roq–hayratlanish, kutilmagan voqeaga nisbatan shokka tushish hissini ko‘rsatadi. **“Tortinib ochilgan eshikmi?.. Evoh”** so‘roq–taxmin shaklida bo‘lib, noaniqlik va ehtimollikni aks ettiradi. **“Oyna qarshisida birdan solding dod, Nega o‘xshamadi o‘zingga aksing?”** jumlasida so‘roq–iltijo ifodasi bor, bu esa so‘rov va umid bilan bog‘liq. Oxirgi misol − **“Alanglab–alanglab–qochadi uyqu… aslida bu bog‘ning nima aybi bor?”** −so‘roq–achinish tarzida ifodalangan bo‘lib, holatdan norozi bo‘lish va achinishni bildiradi. Ushbu misollar so‘roq gaplarning emotsional spektrini ko‘rsatib, nutqiy vazifalarining boyligi va kontekstga bog‘liqligini yaqqol ochib beradi. [5:67,79,112]

Misollardan ko‘rinib turibdiki, so‘roq gaplarda milliy–madaniy kontekstga oid axborotlar lisoniy, psixologik va ijtimoiy komponentlar bilan uzviy bog‘lanib, kommunikativ–pragmatik maydonni tashkil etadi. Nutqiy faoliyat aynan shu maydon doirasida amalga oshadi. Bunday axborotlar kommunikantlarning muloqot qoidalarini bilish darajasini belgilab, aniq muloqot kontekstiga muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Lingvopragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, badiiy adabiyot tilida bu holat muallifning so‘z tanlashdagi mahorati, asarning g‘oya va maqsadlarini ifoda etish orqali to‘la jozibadorlikka ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2009.

2. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. –Samarqand, 2013.

3. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. −T., 2001. №4.

4. Tog‘ay Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. Roman. –T.: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2019. 6–7,13–14–b.

5. Usmon Azim. Saylanma. −T.: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2018.

Vazira XOLMATOVA,
Qarshi davlat texnika universiteti
“Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E–mail: vazira8707@gmail.com

SO‘ROQ GAPLAR MAZMUNIDA KECHADIGAN PRAGMATIK TRANSPOZITSIYA

Annotatsiya: dunyo tilshunosligida gapning semantik strukturasi va ushbu struktura kategoriyalarini o‘rganish borasida bir qancha yondashuvlar shakllangan. Bunda asosiy vazifa sifatida semantik tahlil obyektini hamda ularning o‘zaro munosabatini aniqlash belgilangan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy aktlar nazariyasi, nutqiy tuzilma, so‘roq gaplar, semantika, pragmalingvistika, pragmatik transpozitsiya , illokutiv kuch.*

Аннотация: в мировой лингвистике сформировалось несколько подходов к изучению семантической структуры предложения и категорий этой структуры. При этом основной задачей является определение объекта семантического анализа и взаимоотношений между этими объектами.

Ключевые слова: *теория речевых актов, речевая структура, вопросительные предложения, семантика, прагмалингвистика, прагматическая транспозиция, иллокутивная сила.*

Annotation: in world linguistics, several approaches have been developed for studying the semantic structure of sentences and the categories within this structure. The primary task in this field has been identified as determining the object of semantic analysis and the interrelationships between these objects.

Key words: *speech act theory, speech structure, interrogative sentences, semantics, pragmalinguistics, pragmatic transposition, illocutionary force.*

Diskursning ko‘chishi borasidagi kuzatishlar bajarilayotgan nutqiy akt va uni voqelantiruvchi lisoniy shakl o‘rtasida vazifaviy va mazmuniy nomuqobillik holatlari uchrashidan darak beradi. Bunday nomutanosibliklarni kuzatgan nutqiy aktlar nazariyasining asoschisi J. Ostin ko‘pchilik holatlarda performativning aniq ifoda topmasligini qayd etgan edi (Austin, 1962).

Nutqiy tuzilmalarning mazmuniy nomutanosibligi haqida gapirilganda odatda, illokutsiya va tuzilmada ishtirok etayotgan birinchi shaxs hozirgi zamon shaklida qo‘llanilayotgan (yoki qo‘llanishi mumkin bo‘lgan) fe’l ma’nosi o‘rtasidagi nomutanosiblik nazarda tutiladi. Jumladan, P. Harder o‘z ma’ruzalaridan birida va’da berish vaziyatida faollashgan nutqiy aktlar haqida fikr bildirayotib, ularning birortasini ham “sof” va’da sifatida ajratmagan edi. Aksincha, ushbu tuzilmalar, nutq vaziyatiga bog‘liq holda, yordam taklifi, qo‘llab–quvvatlash, inkor ma’nolariga ega bo‘lishi mumkin (Harder 1978). Shu bois olim J. Ostin va J. Syorllar nutqiy aktlar nazariyasini “so‘zlar nazariyasi” (words theory) sifatida talqin qilishni ma’qul topadi.

Darhaqiqat, nutqiy aktlar mazmunini faqat performativ sxema asosida ajratish yoki tasvirlash qiyin masala. Nutqiy aktlar, umuman olganda, murakkab tuzilish va mundarijaga ega, shuning uchun ham ularni tasniflash ehtiyotkorlikni talab qiladi. Nutqiy akt mundarijasini aniqlashda performativ sxema har doim ham qo‘l kelavermasligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan.

Nutqiy akt mazmunini va ifoda vositasi rolini bajarayotgan sintaktik struktura o‘rtasidagi munosabat o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bunda yuzaga keladigan funksional nomutanosibliklar J.Ostin terminologiyasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, “so‘z” va “faoliyat” hodisalarining bir–biridan uzoqlashishiga ishora qiladi. Ya’ni “so‘z” nutqiy tuzilma shakli bo‘lsa, “faoliyat” – nutqiy akt tashqi ko‘rinishidan perfotiv shaklini eslatadigan nutqiy tuzilma illokutiv kuchga ega emas.

Masalan, “haqoratlamoq”, “tahdid qilmoq” kabi fe’llarni birinchi shaxs hozirgi zamon shaklida qo‘llayotgan so‘zlovchi tinglovchini haqorat qilish yoki unga tahdid qilish maqsadini qo‘ymadi. Ammo, T. Koen qayd etganidek, bu holatda nutqiy tuzilma o‘z illokutiv imkoniyatini to‘liq yo‘qotib ulgurmaydi. Bu yerda nutqiy voqelikning to‘liq qamroviga emas, balki ma’lum bir qismiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shu bois, nutqiy akt mazmuni struktur tuzilishga to‘liq mos kelmasligi umumiy xususiyat sifatida izohlanishi mumkin.

Ayrim fe’llarni performativ (nutqiy akt mazmuniga ishora qilish) vazifada qo‘llashning imkoni yo‘q. Til tizimida bunday qoidalarning mavjudligi ma’lum guruhdagi fe’llarning semantikasida kuzatuvchining nuqtayi nazari aks topishi bilan izohlanadi. Nutqiy aktlar lisoniy nazariyasi bilan maxsus shug‘ullangan amerikalik olim J. Sadok o‘z paytida ingliz tilida threaten (“tahdid ko‘rsatish”) performativ fe’li yo‘qligini unga mutanosib botiniy (mavhum) lisoniy birlik uchramasligi bilan isbotlamoqchi bo‘lgan edi (Sadock 1974: 145). Biroq olimning tahdid va ogohlantirish o‘rtasidagi farqni so‘zlovchi tahdid qilayotib, inkorga yo‘l qo‘ymasligi bilan izohlash borasida bildirgan fikriga qo‘shilish qiyin. Demak, ayrim fe’llarni performativ vazifada qo‘llash imkoniyatining chegaralanganligi til tabiati bilan bog‘liq, chunki ushbu fe’llar bir paytning o‘zida so‘zlovchi va kuzatuvchi nuqtayi nazarini aks ettiradi.

Bunday sharoitda perfotiv formulaning bajaradigan vazifasi o‘ziga xos bo‘lib, u faqat nutqiy tuzilmaning illokutiv vazifasini namoyon qilibgina qolmasdan, balki nutqiy harakat xususiyatini konkretlashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, nutqiy tuzilmaning illokutiv imkoniyati va illokutiv kuchini farqlashni taqozo etadi.

Illokutiv imkoniyat nutqiy tuzilmalar alohida pragmatik turlariga xos kommunikativ xususiyatlar to‘plamidan iborat. Bunda pragmatik tasnifga asos xizmatini o‘taydigan illokutiv turlar ajratiladi. Masalan, rekvistiv, instruktiv, suggestiv kabi nutqiy aktlar umumiy illokutiv imkoniyati asosida hosil bo‘ladi.

Illokutiv kuch bevosita nutqiy tuzilmaning pragmatik mo‘ljalini ifoda qiladi. Masalan, buyruq, iltimos, taklif, so‘rash kabilar, tuzilmaning kommunikativ mazmuniga oid va shu onda bajariladigan harakatni ifodalaydi. Bunday talqinda, albatta, illokutiv kuchning aniq ko‘rsatkichlarini ajratish qiyin. Zero nutqiy tuzilma kommunikativ mazmuni shakllanishiga turli unsurlar (masalan, yuklamalar, modal so‘zlar, so‘z tartibi va boshqalar) ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, illokutiv kuch, ma’lum illokutiv imkoniyatga egalikda, pragmatik mazmunni yuzaga keltirishda boshqa lisoniy vositalar bilan muqobillashadi.

Shunday qilib, nutqiy tuzilmaning vazifaviy va mazmuniy xususiyatlari nisbatan avtonom ko‘rinishga ega va funksional farqlar yuzaga kelishida performativ imkoniyatning yo‘qolishi har doim ham bevosita nutqiy akt mazmuni bilan bog‘liq bo‘lavermaydi. Masalan, “Men seni yaxshi maqola yozolmaganing uchun tanqid qilaman” gapini talaffuz qilayotib, biz to‘g‘ridan to‘g‘ri tanqid nutqiy aktini bajarmaymiz. Ammo shu bilan bir paytda, bunday hollarda illokutiv ko‘chim sodir bo‘lishi va illokutiv maqsadning bilvosita yoki tagma’noli ifodalanishi kuzatiladi. Illokutiv yoki pragmatik transpozitsiya nutqiy tuzilmalar funksional va mundarijaviy o‘zaro bog‘liqligining namunasi bo‘lib, illokutiv kuchning boshqacha ko‘rinishda namoyon bo‘lishini namoyon qiladi va yangi nutqiy aktlar sodir bo‘lishiga turtki beradi. Bu esa so‘roq gaplar tizimida yuzaga keladigan pragmatik transpozitsiya holatlarini izchil o‘rganishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J.L. How to do things with words. – London: Oxford University Press, 1962.
2. Harder P. Language in action. Some arguments against the concept “illocutionary”// Papers from the 4 th Scandinavian Conference of Linguistics. – Odense, 1978.
3. Cohen T. Figurative speech and figurative acts // Philosofical perespectives on metaphor. – Minneapolis, 1991.
4. Sadock J.N. Toward a linguistic theory of speech acts. – New York: Academic Press, 1974.



Maftuna MAJIDOVA,
University of Business and Science
“Ijtimoiy gumanitar va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
maftunamajidova33@gmail.com

PRAGMATIKA VA SEMANTIKA BIRLIKLARINING MA’NO QAMROVI VA KONTEKST TO‘QNASHUVI

Annotatsiya:ushbu maqolada semantika va pragmatika o‘rtasidagi farqlar, o‘zaro aloqadorliklar va ularning tilshunoslikdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, til birliklarining kontekstga bog‘liq ravishda qanday turli ma’nolarga ega bo‘lishi misollar orqali yoritiladi. Chunki har bir so‘z va ibora o‘z kontekstiga qarab boshqa–boshqa ma’nolar kasb etishi mumkin, bu esa aynan pragmatik tahlil orqali aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *pragmatika, semantika, impliyatsiya, presuppozitsiya, deiktik so‘zlar, nutq akti.*

Annotation: this article examines the differences and interrelations between semantics and pragmatics, as well as their roles in linguistics. Additionally, it illustrates through examples how linguistic units can acquire different meanings depending on the context. Since each word and phrase can take on various meanings based on its context, this is precisely what pragmatic analysis seeks to identify.

Key words: *pragmatics, semantics, implicature, presupposition, deictic words, speech act.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются различия и взаимосвязи между семантикой и прагматикой, а также их роль в лингвистике. Кроме того, с помощью примеров иллюстрируется, как языковые единицы могут приобретать различные значения в зависимости от контекста. Поскольку каждое слово и выражение может иметь разные значения в зависимости от ситуации, именно это и выявляется в ходе прагматического анализа.

Ключевые слова: *прагматика, семантика, импликатура, пресуппозиция, дейктические слова, речевой акт.*

Til – inson tafakkuri va jamiyat hayotining ajralmas qismidir. U orqali nafaqat axborot almashiladi, balki insonlar o‘zaro munosabat o‘rnatadi, tushunadi va anglaydi. Tildagi ma’noni anglash jarayoni esa murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, asosan, ikki asosiy yo‘nalishda – semantika va pragmatika orqali o‘rganiladi.

Semantika so‘z va iboralarining lug‘aviy yoki grammatik ma’nolarini tahlil qilsa, pragmatika esa bu ma’nolarning real nutq vaziyatida qanday tushunilishini va qo‘llanilishini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, semantika “nima deyildi?” degan savolga javob izlaydi, pragmatika esa “bu nima uchun va qanday deyildi?” degan jihatga urg‘u beradi. Semantika haqida malumot berar ekanmiz u tilshunoslikning muhim sohasidan bo’lib, u so‘zlar, iboralar, gaplar va boshqa til birliklarining ma’nolarini hamda bu ma’nolarning tuzilishini va o‘zgarishini o‘rganadi. U so‘zlar nimani anglatishini, ular qanday qilib ma’no hosil qilishini va turli til birliklarining bir–biri bilan qanday munosabatda bo‘lishini tahlil qiladi.

Semantikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu leksik semantika bo‘lib, so‘zlar va ularning ma’nolari bilan shug‘ullanadi. Bu yo‘nalishda sinonimiya (ma’no o‘xshashligi), antonimiya (qarama–qarshilik), polisemiya (ko‘p ma’nolilik), gomonimiya (tashqi o‘xshashlik, ichki farqlilik) kabi hodisalar o‘rganiladi. Masalan: “yurak” so‘zi – a’zoni anglatishi ham, jur’at, sevgi, rahm kabi tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Formal (yoki mantiqiy) semantikada bo‘lsa gap va matnlarda mantiqiy tuzilish orqali ma’no qanday hosil bo‘lishini o‘rganadi. Bu yo‘nalish tilning mantiqiy shaklini aniqlashga yordam beradi. Kompozitsion semantika gapdagi so‘zlar qanday qilib birgalikda ishlatilganda umumiy ma’no hosil qilishini tahlil qiladi. Masalan: “Oq gul ochildi” degan gapda “oq” – rangni, “gul” – obyektni bildiradi, lekin gap butunlay bir voqelikni ifodalaydi. Semantikaning denotatsiya va konnotatsiya kabi yo‘nalishlari ham bo‘lib, denotatsiya – so‘zning asosiy, to‘g‘ridan–to‘g‘ri ma’nosini ya’ni lug‘aviy ma’nosini anglatadi. Masalan: “it” — hayvon turi. Konnotatsiya esa so‘zning qo‘shimcha, ma’naviy yoki emotsional bo‘yoqdorligini tushunishga yordam beradi. Masalan: “it” — ba’zi hollarda haqorat yoki negativ ifoda sifatida ishlatilishi mumkin.

Tilshunoslikda semantika bo‘limining amaliy ahamiyati ham mavjud bo‘lib, ular tarjima qilishda to‘g‘ri ma’no uzatish uchun, mashina tarjimasi va sun’iy intellektda tahrirlangan ishlarni anglash uchun, til o‘rganish jarayonida so‘z va iboralarni to‘g‘ri ishlatish uchun zarur bo‘lib, shu bilan bir qatorda adabiy tahlil, reklama va huquqiy matnlar kabi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi.

Pragmatika ham tilshunoslikning muhim bo‘limi bo‘lib, u nutqning kontekstga bog‘liq ma’nosini, nutq vaziyatidagi foydalanishini o‘rganadi. Pragmatika so’zlar va gaplarning lug‘aviy ma’nosidan tashqari, ularning qanday maqsadda, qanday holatda, qanday sharoitda aytilganini va tinglovchi tomonidan qanday tushunilishini tahlil qiladi. Pragmatika til birliklari va ularning ma’nosini faqatgina matn yoki gap ichidagi emas, balki nutq situatsiyasi, muallifning niyati, madaniy kontekst va kommunikativ vaziyatga bog‘liq holda o‘rganadi.

Pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri kontekstni o‘rganish bo‘lib, nutq ma’nosi ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Pragmatika shuni bir gap yoki so‘z bir xil bo‘lsa–da, turli vaziyatlarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Yana bir asosiy vazifalaridan biri niyat va maqsadni aniqlash hisoblanadi. Nutqda aytilgan so‘zlar orqali aytuvchi nimani maqsad qilganini, qanday xabar bermoqchi ekani tushuniladi. Implications (bilvosita ma’nolar) pragmatika nutqda to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilmagan, lekin anglash mumkin bo‘lgan ma’nolarni ham (impliyatsiyalarni) aniqlaydi. Shu bilan birgalikda, nutq aktlarini tahlil qilish ya’ni nutq orqali bajariladigan harakatlar (masalan, so‘rash, buyurish, va’da berish) kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Madaniy va ijtimoiy kontekstlar ham pragmatika bo‘limining vazifasiga kiradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi chunki til faqat so‘zlardan iborat emas, balki madaniy an’ana va ijtimoiy munosabatlardan ham tashkil topgan.

Pragmatika tilning faqat grammatik yoki leksik qirralarini emas, balki uni real hayotdagi qo‘llanilishini ham o‘rganadi. Bu orqali nutqdagi noaniqliklar, yashirin ma’nolar va noto‘g‘ri tushunishlarni oldini olishga yordam beradi. Pragmatika semantik ma’noni kontekstga moslashtiruvchi manba hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek semantika so‘zning asosiy ma’nosini belgilasa, pragmatika uni qanday vaziyatda qanday ma’noda ishlatilishini o‘rganadi. Pragmatikaning bir necha asosiy vazifalari ham bo‘lib, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish birinchilardan hisoblanadi. Til o‘rganishda yoki tarjimada faqat so‘zlarni bilish yetarli emas. Nutqni to‘g‘ri tushunish uchun pragmatik qoidalarni bilish zarur. Bu ayniqsa chet til o‘rganuvchilar uchun muhim. Nutq aktlari esa pragmatikaning zarur bo‘limi bo‘lib, ushbu nazariya John Searle, J.L. Austin kabi olimlarga borib taqaladi. Pragmatikani rivojlantirish orqali nutq aktlari nazariyasini yaratdilar. Bu nazariya nutq orqali bajariladigan harakatlarni (masalan, so‘rash, maslahat berish) tushunishga xizmat qiladi. Tilni tushunish tizimlarida pragmatika kontekstni hisobga olish orqali yanada to‘g‘ri tarjima va javoblarni yaratishga yordam beradi. Pragmatikaning asosiy tushunchalari quyida keltirilgan; implyatsiya (bilvosita ma’no) — aytilmagan, ammo anglash mumkin bo‘lgan ma’no. Presuppozitsiya — gap aytilishidan oldin qabul qilinadigan taxmin. Deiktik so‘zlar — “men”, “bu”, “hozir” kabi so‘zlar, ularning ma’nosi nutq holatiga bog‘liq. Konversatsiya qoidalari (Grice’ning qoidalari) — samarali muloqot uchun amal qilinadigan qoidalar.

Pragmatika — tilshunoslikning muhim yo‘nalishi bo‘lib, u til birliklarining *kontekstga bog‘liq, interaktiv ma’nolarini* o‘rganadi. U nutqni faqat so‘zlar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va kommunikativ kontekstlarda qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Pragmatika til va muloqotni yanada chuqurroq, to‘liqroq tahlil qilish imkonini beradi, shu bilan birga, nutqdagi noaniqliklarni aniqlash va tushunishni osonlashtiradi.

Semantika va pragmatikani bir-biridan ajratib turadigan jihatlarini misollar orqali ko‘rib chiqamiz. Birinchisi, ma’no manbasi bo‘lib, semantika so‘zlar va gaplarning doimiy, kontekstsiz ma’nolarini o‘rganadi. Pragmatika bo‘lsa, gaplarning kontekstga bog‘liq ravishda hosil qilgan ma’nosini o‘rganadi. Misol uchun: “Men derazani ochdim”. Semantik jihatdan: bu, kimdir derazani jismonan ochganini bildiradi. Pragmatik jihatdan: xona issiq bo‘lgani uchun aytilgan bo‘lishi mumkin, ya’ni derazani ochishning sababi yoki niyati kontekstdan kelib chiqadi.

Ikkinchisi, so‘zlar darajasida tahlil bo‘lib, semantika so‘zlarning ma’nolarini o‘zaro solishtiradi. Pragmatika esa so‘zlar nutq holatida qanday tushunilishini tahlil qiladi. Misol uchun, “Issiq” so‘zi semantik jihatdan bu haroratning yuqoriligini bildiradi. Pragmatikada kishi buni aytib, aslida “konditsionerni yoq yoki konditsioner kerak” degan iltimosni bildirayotgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchisi, to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita ma’no bo‘lib, semantika ma’noni to‘g‘ridan to‘g‘ri tahlil qiladi. Pragmatika gapdagi bilvosita yoki yashirin ma’nolarni tahlil qiladi. Misol uchun:“Sening kitoblaring juda ko‘p ekan”. Semantik tahlil qiladigan bo‘lsak, bu shunchaki kitoblarning ko‘pligini bildiradi. Pragmatik tahlil bo‘lsa bu gap orqali “bir qismini olib chiq” yoki “joy yetmayapti” degan yashirin iltimos bildirilgan bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchisi, kontekstning roli va ahamiyati orqali tahlil qilish bo‘lib, semantika kontekstsiz tahlil qiladi, ya’ni

har doim bir xil ma’noni beradi. Pragmatika kontekstga to‘liq bog‘liq — ma’no har bir vaziyatda turlicha bo‘lishi mumkin. Misol uchun:“Men seni ko‘rdim”. Semantik tahlilda u faqat ko‘rish harakatini bildiradi. Pragmatika bo‘lsa vaziyatga qarab bu tahdid (Ishlaringni ko‘rdim), do‘stona eslatma yoki boshqa emotsional tusdagi ifoda bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, **semantika** *va* **pragmatika** *tilshunoslikda bir–birini to‘ldir*uvchi, ammo o‘ziga xos yondashuvlarga ega bo‘lgan ikki muhim tarmoqdir. Har ikkalasi ham til orqali axborot uzatish, tushunish va fikr almashish jarayonini o‘rganadi, ammo ularning e’tibor markazi turlicha. Semantika til birliklarining ichki tuzilmasi, ularning statik va to‘g‘ridan–to‘g‘ri ma’nosi bilan shug‘ullansa, pragmatika esa tilning real hayotda, ya’ni kundalik muloqot jarayonida qanday ishlatilishini tahlil qiladi. Semantika orqali biz so‘z va gaplarning kontekstdan mustaqil, asosiy leksik ma’nosini anglaymiz. Bu tahlillar asosida tilning mantiqiy va grammatik asoslari shakllanadi. Misol uchun, “Quyosh chiqdi” degan gapning semantik tahlilida bu tabiiy hodisaning boshlanishi haqida axborot berilishi ko‘rsatiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan esa bu gap turli vaziyatlarda turli ma’nolarni anglatishi mumkin: masalan, “Endi uyg‘onish vaqti keldi”, “Yangi kun boshlandi” yoki “Havo isiydi” kabi yashirin ma’no qatlamlari yuzaga chiqadi.

Bu jihat pragmatikaning ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olishini ko‘rsatadi.Aynan shuning uchun pragmatika tilning kommunikativ funksiyasini to‘liqroq yoritib bera oladi. Har qanday muloqotda so‘zlarning leksik ma’nosi bilan bir qatorda, ularning qanday niyat bilan aytilgani, kimga va qanday vaziyatda yo‘naltirilgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tilshunoslikning amaliy tarmoqlari — tarjima nazariyasi, sotsiolingvistika, psixolingvistika va til o‘qitish metodikasida keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy davrda, axborot oqimi kuchaygan bir paytda, semantika va pragmatika o‘rtasidagi tafovutni anglash yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida, siyosiy chiqishlarda yoki reklama matnlarida so‘zlarning ko‘p hollarda ochiq ma’nodan ko‘ra, kontekstual yoki yashirin ma’nolarni ifodalashi pragmatikaning kuchli rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, tilni noto‘g‘ri tushunish, nutqiy xatoliklar yoki madaniy kontekstni e’tiborsiz qoldirish muloqotda anglashilmovchiliklarga olib keladi. Bu esa pragmatik kompetensiyani rivojlantirish zaruratini yuzaga chiqaradi. Semantika va pragmatika o‘rtasidagi bu tafovut tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, chet tilini o‘rganuvchilar uchun faqat grammatik qoidalarga emas, balki madaniy va kommunikativ xususiyatlarga ham e’tibor qaratish zarur bo‘ladi. Bu ikki tarmoqning uyg‘un o‘rganilishi tilni chuqur tushunish, aniq fikr bildirish, hamda samimiy va to‘g‘ri muloqot qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, til faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy hodisadir. Shu sababli, semantik bilimlar til tizimini tushunishga asos bo‘lsa, pragmatik yondashuv bu tizimning qanday ishlatilishini ochib beradi. Shunday qilib, semantika va pragmatika birgalikda tilning to‘liq va mukammal tahlilini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **“Semantics: An Introduction to Meaning in Language”** – *Ronnie Cann, Ruth Kempson, and Eleni.*
2. **“Semantics: A Coursebook”** – *James R. Hurford, Brendan Heasley, and Michael B. Smith*
3. **“Lexical Semantics”**– *D. A. Cruse*
4. **“Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language”** – *John R. Searle*
5. **“The Handbook of Pragmatics”** – *Laurence R. Horn and Gregory Ward (eds.)*



Solijon AZIZOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchisi
E–mail: solijonazizov1@gmail.com

“JINOYAT” VA “ADOLAT” KONSEPTOSFERALARINING LINGVOSEMANTIK VA PRAGMATIK O‘ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya: maqolada “jinoyat” va “adolat” konseptlarining semantik hamda pragmatik xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot asosida konseptual lingvistika, nutq aktlari nazariyasi, diskurs tahlili va konseptual metafora nazariyasi metodologik asos sifatida tanlab olingan. “Jinoyat” konsepti semantik jihatdan salbiy baholanishga moyillik, normadan og‘ish va ijtimoiy tahdid elementlarini o‘z ichiga olishi; “Adolat” esa haqqoniylik, tenglik va normativlik mezonlari asosida tahlil qilinadi. “Jinoyat” va “adolat” konseptlari semantik jihatdan zid bo‘lsa–da, kommunikativ diskursda bir–birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari “jinoyat” va “adolat” konseptosferalarining kognitiv–lingvistik mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *jinoyat, adolat, konsept, semantika, pragmatika, ekspressivlik, diskurs, metafora, nutq akti, lingvokognitiv tahlil.*

Аннотация: в статье проводится лингвистический анализ семантических и прагматических характеристик концептов “преступление” и “справедливость”. В качестве методологической основы исследования выбраны концептуальная лингвистика, теория речевых актов, дискурс–анализ и теория концептуальной метафоры. Концепт “преступление” семантически включает склонность к негативной оценке, отклонение от нормы и элементы социальной угрозы; концепт “справедливость” анализируется на основе критериев честности, равенства и нормативности. Несмотря на семантическую противоположность, концепты “преступление” и “справедливость” в коммуникативном дискурсе выступают как взаимодополняющие понятия. Результаты исследования позволяют глубже понять когнитивно–лингвистические механизмы концептосфер “преступления” и “справедливости”.

Ключевые слова: *преступление, справедливость, концепт, семантика, прагматика, экспрессивность, дискурс, метафора, речевой акт, лингвокогнитивный анализ.*

Annotation: the article examines the semantic and pragmatic characteristics of the concepts of ‘crime’ and ‘justice’ from a linguistic standpoint. The research is grounded in the methodological principles of conceptual linguistics, speech act theory, discourse analysis, and the theory of conceptual metaphor. The concept of ‘crime’ is explored as being semantically associated with negative evaluation, deviation from norms, and elements of social threat. Conversely, the concept of ‘justice’ is analyzed through the criteria of truthfulness, equality, and normativity. Although ‘crime’ and ‘justice’ are semantically opposed, the study demonstrates that they function as complementary notions within communicative discourse. The findings of the research offer deeper insights into the cognitive–linguistic mechanisms underlying the conceptual domains of ‘crime’ and ‘justice’.

Key words: *crime, justice, concept, semantics, pragmatics, expressiveness, discourse, metaphor, speech act, cognitive–linguistic analysis.*

Kirish.Hozirgi ilmiy tadqiqotlar doirasida zamonaviy tilshunoslik fanida konseptual tahlilning ahamiyati har tomonlama tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, mazkur tahlillar amaliyotida til orqali inson tafakkurini, ijtimoiy ongni va madaniy qadriyatlarni o‘rganish bugungi kundagi kognitiv–paradigmatik yondashuvning birlamchi vazifalaridan biriga aylandi. Zero, ularda til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning dunyoni qanday anglayotgani, qanday baholayotganini ham ifoda etuvchi kognitiv tizim sifatida qaralmoqda. Bu fikrni mashhur tilshunos T.A. van Deyk quyidagicha ta’kidlaydi: “Til – bu jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning ifodasi bo‘lib, u orqali insonlar nafaqat axborot uzatadi, balki o‘z dunyoqarashini, hissiyotini va qadriyatlarini ham bildiradi” [1].

Shu jihatdan qaralganda, “jinoyat” va “adolat” kabi konseptlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, faqatgina leksik birliklar emas, balki insoniyat tarixida doimo mavjud bo‘lib kelgan axloqiy–me’yoriy tushunchalardir. Ushbu konseptlar turli davrlarda, turli madaniyatlarda har xil talqin etilgan bo‘lsa–da, ular jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy tushunchalar bo‘lib qolaveradi. Ayniqsa, ularning til orqali qanday ifodalangani va kommunikativ diskursdagi o‘rni hozirgi zamon lingvistik tadqiqotlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida (1) konseptual lingvistika (inson tafakkurining til vositasida shakllanishi va ifodalanishini o‘rganadi); (2) nutq aktlari nazariyasi (til orqali bajariladigan kommunikativ harakatlarni izohlaydi); (3) diskurs tahlili (real ijtimoiy–madaniy kontekstda tilning ishlatilishini o‘rganadi); (4) konseptual metafora nazariyasi (abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglash mexanizmini izohlaydi) tanlangan.

Tadqiqot doirasida “jinoyat” konsepti semantik jihatdan ijtimoiy me’yorlardan og‘ish, xavf, zo‘ravonlik, huquqbuzarlik kabi komponentlarni o‘z ichiga olgan salbiy baholovchi struktura sifatida qaraladi. Aksincha, “adolat” konsepti esa ijobiy baho, tenglik, qonuniylik, haqqoniylik kabi tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy–axloqiy ideallarning ramzi sifatida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu ikki konsept kommunikativ diskursda har doim ham qat’iy qarama–qarshi bo‘lib emas, balki bir–birini to‘ldiruvchi, muvozanatga keltiruvchi tushunchalar sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot–maqolaning maqsadi – “jinoyat” va “adolat” konseptlarining til vositasida semantik va pragmatik jihatdan qanday namoyon bo‘lishini aniqlash, ularning diskursdagi funksional o‘rni va kognitiv tuzilmalarini yoritishdan iborat. Bunda lingvokognitiv yondashuv asosida “jinoyat” va “adolat” konseptlarining struktura, metafora, ekspressiv vosita va nutq aktlari orqali qanday tarzda verbal shaklga ega bo‘lishi ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga, ayni tadqiqot natijalari “jinoyat” va “adolat” konseptosferalarini yanada chuqurroq anglash, til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab aloqalarni tahlil qilish hamda madaniyatlararo semantik tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Shu boisdan, mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati hozirgi kunda nafaqat tilshunoslar, balki huquqshunoslar, ijtimoiy psixologlar va kommunikatsiya tadqiqotchilari uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism. Umuman olganda, “jinoyat” va “adolat” konseptlari o‘zaro qarama–qarshi bo‘lishiga qaramay, ular muayyan umumiy semantik maydonni egallaydi: har ikkisi ham axloqiy, huquqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq. Umumiy jihatdan, ikkala konsept ham ijtimoiy tartib va me’yorlarga nisbatan baho berish asosida shakllanadi va diskursda emotsional–ekspressiv yuklama bilan qo‘llaniladi. Biroq aniq jihatdan “jinoyat” konsepti normadan og‘ish, ijtimoiy tahdid va jazoga sabab bo‘luvchi xatti–harakatlarni bildirsa, “adolat” konsepti esa tiklash, muvozanatni qayta o‘rnatish va axloqiy–ijtimoiy tenglikni ifodalaydi. Shu orqali ular diskursiv jihatdan biri sabab (jinoyat), ikkinchisi oqibat (adolatni tiklash) funksiyasini bajaradi.

“Jinoyat” konseptining semantik xususiyatlari. “Jinoyat” konsepti odatda, normadan og‘ish, axloqiy va huquqiy qoidabuzarlik sifatida tushuniladi. Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu konsept tarkibida salbiy baholash komponentlari mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy xavf, tahdid va tartibsizlik elementlari bilan uzviy bog‘langan. Masalan, jinoyatga oid leksik birliklar – “xatar”, “buzg‘unchilik”, “zo‘ravonlik”, “jazoga loyiq” kabi so‘zlar – bu semantik maydonni tashkil etadi.

Y.S. Kubryakova konseptlarni “insonning individual va kollektiv ongida aks etgan murakkab psixik birliklar” deb ta’riflaydi [2], ya’ni “jinoyat” konsepti inson ongida doimiy salbiy tajribalar va baholovlar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Bundan tashqari, jinoyat ko‘p hollarda emotsional jihatdan kuchli ifodalangan nutq birliklari orqali ifodalanadi, bu esa ekspressivlik darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi.

“Jinoyat” konseptining pragmatik xususiyatlari. Pragmatik nuqtayi nazardan “jinoyat” tushunchasi ko‘pincha illokutsion va perlokutsion aktlar orqali diskursda harakatga undash yoki ijtimoiy munosabat bildirish vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, suddagi bayonotlarda “bu odam jinoyat sodir etdi” kabi gaplar orqali muayyan yuridik akt amalga oshiriladi [3]. Bunday nutq aktlari tinglovchi ongida ayblilikni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi illokutsion kuchga ega.

J.L.Ostin nutqning performativ xususiyatlarini tahlil qilib, “gapirish – bu amal qilishdir” degan g‘oyani ilgari suradi [4]. Jinoyatga oid kontekstda ayblash, rad etish, iqror bo‘lish kabi aktlar shaxslararo va huquqiy munosabatlarni belgilaydi. Demak, jinoyat pragmatik jihatdan jamiyatda ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiluvchi kommunikativ vosita hisoblanadi.

“Adolat” konseptining semantik xususiyatlari. “Adolat” konsepti semantik jihatdan ijobiy bahoga ega bo‘lib, tenglik, haqqoniylik, qonuniylik, erkinlik va obyektivlik tushunchalarini o‘z ichiga oladi. J.Lakoff va M.Jonsonning ta’biri bilan aytganda, “adolat” kabi abstrakt tushunchalar odatda, metafora orqali ifodalanadi [5]. Masalan, “Adolat – bu tarozi” metaforasi uni muvozanat va o‘lchov bilan bog‘laydi.

Shuningdek, bu konseptda ijtimoiy ideallar ifodalanadi. N.N. Boldirev konseptual tizimlarni ijtimoiy–tarixiy ong mahsuli deb hisoblaydi [6], shunga ko‘ra aytishimiz mumkinki, “adolat” kabi tushunchalar jamiyat qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq. Bu esa “adolat” semantikasining jamiyatdagi madaniy paradigma bilan uzviy aloqadorligini bildiradi.

“Adolat” konseptining pragmatik xususiyatlari. Adolat pragmatik jihatdan faollashtiruvchi diskursiv unsur sifatida xizmat qiladi. Siyosiy nutqlarda, qonunchilik matnlarida yoki publitsistikada bu tushuncha muhokama

obyekti bo‘lishi bilan birga, axloqiy va normativ baho vositasidir. T.A. van Deyk fikricha, “diskursda ijtimoiy qadriyatlar ko‘pincha yashirin ijtimoiy ong vositasida yetkaziladi” [7]. Shunday qilib, “adolat” so‘zining ishlatilishi jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yorlarni normallashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, adolatga oid nutq aktlari ko‘pincha iltimos, da’vat, e’tiroz kabi kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Masalan: “Biz adolat istaymiz”, “Adolat tiklanishi kerak” kabi iboralar emotsional–ijtimoiy da’vat sifatida chiqadi.

“Jinoyat” va “adolat” konseptlarining o‘zaro munosabati. “Jinoyat” va “adolat” konseptlari semantik jihatdan qarama–qarshi (antagonistik) xususiyatga ega bo‘lsa–da, pragmatik jihatdan ular ko‘pincha bir diskursiv maydonda bir–birini to‘ldiradi. Ya’ni, jinoyat mavjud bo‘lmagan jamiyatda adolatga ehtiyoj tug‘ilmaydi. Ana shu dialektik bog‘liqlik ularni “konseptosfera”da integratsiyalangan holatda o‘rganishga asos beradi.

R.Vodak va M.Meyer tanqidiy diskurs tahlilida adolat va jinoyat terminlari siyosiy–diskursiv strategiyalar orqali jamiyatda ma’naviy me’yorlarni shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi [8]. Demak, jinoyat va adolat tushunchalari nafaqat til birliklari, balki ijtimoiy ong va ideologik tizimlarning lingvistik ifodasidir.

Konseptlar tahlilida nega aynan badiiy diskurs muhim? Konseptual mazmunga ega ijtimoiy tushunchalarning, xususan, jinoyat va adolat kabi qarama–qarshi kategoriyalarning lingvistik tahlili ko‘pincha badiiy diskurs asosida olib boriladi. Bu bejiz emas: badiiy matnlar tilning semantik va pragmatik imkoniyatlarini maksimal darajada ochib bera oladigan estetik makon hisoblanadi. Badiiy diskursda til faqat axborot uzatuvchi vosita bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy ong, madaniy stereotiplar, etik qadriyatlar va shaxsiy baholovchanlikni namoyon qiluvchi estetik struktura sifatida xizmat qiladi. Shu sababli ham, badiiy nutq – bu lingvistik konstruksiyalarning axloqiy–estetik tajriba bilan sintezidir, bu esa har qanday tushunchani emotsional–kognitiv muhitda namoyon etishga imkon beradi.

Badiiy diskursda konseptlar – shu jumladan, jinoyat va adolat – nafaqat denotativ, balki konnotativ va ekspressiv jihatdan ham faol ishlatiladi. Bu holat esa ularning madaniy, aksiologik, emotsional va ideologik qatlamlarini o‘rganish imkonini beradi. Y.N. Karaulovning fikrlariga [9] tayanadigan bo‘lsak, badiiy nutq “lingvomadaniy universumni anglashning asosiy shakllaridan biridir”, ya’ni, u konseptlar qanday shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishini tahlil qilish uchun eng samarali manbadir. Ayniqsa, jinoyat va adolat kabi ijtimoiy asosli tushunchalar badiiy nutqda obrazlar, qarama–qarshi xarakterlar, metaforalar, stilistik kuchaytirgichlar orqali boy kontekstda tasvirlanadi va o‘quvchiga nafaqat informativ, balki aksiologik va axloqiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Jinoyat” konseptosferasining badiiy diskursdagi ifodasi. Badiiy matnlarda jinoyat konsepti ko‘pincha dramatik voqealar, ichki ixtiloflar, axloqiy inqiroz va ijtimoiy konfliktlar vositasida ochiladi. Jinoyat nafaqat harakat (qotillik, firibgarlik, zo‘ravonlik) tarzida, balki qahramonning ichki holatidagi buzilish va normativ muvozanatning yo‘qolishi sifatida ham talqin etiladi. Bu jarayon, ko‘pincha, ekspressiv va metaforik til vositalari bilan boyitiladi. A.N. Baranov qayd etganidek [10], badiiy diskursda jinoyat tushunchasi ko‘proq simvolik va emotsional jihatdan kuchli obrazlar orqali ifodalanadi, bu esa uni sof yuridik ta’rifdan farqlaydi. Ya’ni, badiiy asarda jinoyat ko‘pincha insoniy dramaga aylantiriladi va o‘quvchi axloqiy baholashga jalb qilinadi.

“Adolat” konseptosferasining badiiy diskursdagi ifodasi. Adolat esa badiiy matnda ideal holat sifatida tasvirlanadi, u personajlar, voqealar yoki syujet rivojidagi muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Bu holatda adolat nafaqat rasmiy jazolanish orqali, balki kutilmagan halokat, ichki qoniqish yoki jamiyatning axloqiy munosabati orqali namoyon bo‘ladi. M.Fuko adolatga oid ijtimoiy tasavvurlar tarixi haqida gapirar ekan, “adolat jamiyatning o‘ziga xos o‘zini tartibga solish vositasidir, va bu badiiy matnlarda ko‘pincha axloqiy g‘alaba sifatida talqin etiladi” deydi [11]. Demak, badiiy diskursda adolat ko‘pincha syujet yakunida “axloqiy haqiqat” tarzida o‘z aksini topadi.

“Jinoyat” va “adolat” konseptlarining badiiy diskursdagi mutanosibligi. Badiiy diskursning o‘ziga xosligi shundaki, unda jinoyat va adolat bir–biridan ajralgan emas, balki o‘zaro mantiqan bog‘liq va muvozanatli konseptual tizim sifatida ifodalanadi. Jinoyat voqea va konflikt manbayi bo‘lsa, adolat esa uning syujetdagi hal etilishi va estetik tiklanishidir. Y.N. Karaulov buni “diskursiv voqelikda konseptlar o‘zaro oppozitsion, biroq integratsiyalashgan holatda mavjud bo‘ladi” deb izohlaydi [9]. Shunday qilib, badiiy diskurs jinoyatni muammoli holat sifatida ochadi, adolatni esa yechim shaklida taqdim etadi. Bu ikki konseptning badiiy uyg‘unligi o‘quvchida nafaqat emotsional, balki axloqiy refleksiya uyg‘otadi.

Ikki konseptosferaning lingvopoetik integratsiyasi. Lingvistik nuqtayi nazardan olib qaralganda, jinoyat va adolat konseptlari badiiy diskursda stilistik va metaforik vositalar orqali o‘zaro semantik bog‘liqlikda qo‘llanadi. J.Lakoff va M.Jonson konseptual metafora nazariyasida shuni ta’kidlaydiki, “abstrakt tushunchalar, xususan, adolat va jinoyat, ko‘pincha makon, harakat yoki kuch metaforalari orqali ifodalanadi” [5]. Misol uchun, jinoyat “tubanlik” yoki “qorong‘ulik” orqali, adolat esa “yorug‘lik” yoki “balandlik” timsollari orqali ifodalanadi. Bunday metaforik qarama–qarshilik badiiy tilda yuqori darajadagi emotsional va kognitiv yuklama beradi.

Detektiv janrda “jinoyat” va “adolat” konseptosferalarining ifodasi. Badiiy diskurs – bu

madaniy qadriyatlar, ijtimoiy muammolar va inson tafakkurining til orqali ifodasidir [12]. Jinoyat va adolat konseptosferalari ayniqsa, badiiy diskursda, xususan, detektiv janrda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki detektiv asarlar o‘zining mohiyatiga ko‘ra jinoyat holatini yoritish, jinoyatchini aniqlash va adolatni tiklash jarayonlarini tasvirlaydi [13].

Detektiv janrda jinoyat konsepti ko‘pincha ijtimoiy tartibni buzuvchi va salbiy oqibatlarga sabab bo‘luvchi element sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, adolat konsepti esa haqiqatni ochish va qonuniylikni tiklash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydigan kuch sifatida namoyon bo‘ladi [14].

Shuningdek, J.Lakoff va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasi [5] asosida, jinoyat va adolat ko‘pincha “good vs evil” (yaxshi va yomon) metaforalari orqali badiiy matnlarda ifodalanadi, bu esa o‘quvchining konseptlarni yanada chuqurroq anglashiga yordam beradi. Bu metaforalar konseptlarning semantik va pragmatik qatlamlarida o‘z aksini topadi. Nutq aktlari nazariyasining yondashuvi [3] asosida esa, detektiv janrdagi dialoglar va qahramonlarning nutqiy harakatlari (masalan, gumon qilish, da’vo qilish, tasdiqlash) jinoyatni fosh etish va adolatni ta’minlash jarayonlarini samarali ifodalaydi. Badiiy diskurs tahlili natijasida, jinoyat va adolat konseptosferalari nafaqat ma’nolar darajasida, balki kommunikativ kontekstda ham qarama–qarshi, ammo bir–birini to‘ldiruvchi elementlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa badiiy asar orqali jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy muammolarni anglash imkonini yaratadi.

Xulosa. Demak, detektiv janrdagi badiiy diskursda “jinoyat” va “adolat” konseptlari jamiyatning axloqiy–ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi markaziy elementlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu konseptlar badiiy matnlarda turli lingvokognitiv mexanizmlar, shu jumladan metaforik ifodalar, nutq aktlari va diskurs vositalari orqali yanada chuqurroq tahlil qilinadi va o‘zaro bog‘liqligi bilan o‘quvchiga ijtimoiy normalar, axloqiy me’yorlar hamda adolat tizimining murakkabligi haqida tushuncha beradi. “Jinoyat” va “adolat” kontseptlari badiiy diskursda nafaqat qarama–qarshi, balki o‘zaro to‘ldiruvchi va munozarali tushunchalar sifatida shakllanib, ijtimoiy haqiqatlar va insoniy qadriyatlarni ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, bu konseptlarni chuqur o‘rganish badiiy matnlar orqali jamiyatning normativ tizimi, huquqiy–axloqiy munosabatlari va kognitiv qirralarini anglashda muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Van Dijk T.A. Ideology: A multidisciplinary approach. – London: SAGE Publications, 1998. 386 p.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. 560 с.
3. Searle J.R. Speech acts: An essay in the philosophy of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.
4. Austin J.L. How to do things with words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. 174 p.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1981. 256 p.
6. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику: курс лекций. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014. 236 с.
7. Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – Москва: Прогресс, 1989. 310 с.
8. Wodak R., Meyer M. Methods of critical discourse analysis. – London: SAGE Publications, 2001. 216 p.
9. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – 4–е изд., стер. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. 264 с.
10. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. – 4–е изд., стер. – Москва: Наука, 2012. 592 с.
11. Foucault M. Discipline and punish: The birth of the prison / translated by Alan Sheridan. – New York: Vintage Books, 1977. 333 p.
12. Fairclough N. Critical discourse analysis: The critical study of language. – London: Routledge, 2013. 608 p.
13. Horsley R. Twentieth–century crime fiction. – Oxford: Oxford University Press, 2005. 328 p.
14. Bordwell D. Narration in the fiction film. – Madison: University of Wisconsin Press, 1981. 370 p.



Mohinur SALIMOVA,
Navoiy shahar, Karmana tuman 11–umumiy
O‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
mohinursalimova1996@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA TURKUMLARARO TRANSFORMATSIYA: GRAMMATIK VA SEMANTIK O‘ZGARISHLARNING NAZARIY HAMDA AMALIY TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada turkumlararo transformatsiya masalasi tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Mavzu yuzasidan yetuk tilshunos olimlarning qarashlari o‘rganilib, o‘zbek tilidagi ko‘rinishlari misollar asosida yoritiladi. Turkumlararo transformatsiyaning grammatik, semantik va stilistik jihatlari haqida umumiy xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: *turkumlararo transformatsiya, so‘z turkumlari, grammatik o‘zgarish, semantik transformatsiya, o‘zbek tili, derivatsiya, stilistik funksiyalar.*

Annotation: this article analyzes the issue of inter–categorical transformation from the perspective of linguistics. The views of prominent linguists on the subject are examined, and the manifestations of this phenomenon in the Uzbek language are illustrated with examples. A general conclusion is drawn about the grammatical, semantic, and stylistic aspects of inter–categorical transformation.

Key words: *inter–categorical transformation, parts of speech, grammatical changes, semantic transformation, Uzbek language, derivation, stylistic functions.*

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос межкатегориальной трансформации с точки зрения лингвистики. Изучены взгляды ведущих лингвистов по данной теме, а также на примерах раскрываются проявления этого явления в узбекском языке. Делается общий вывод о грамматических, семантических и стилистических аспектах межкатегориальной трансформации.

Ключевые слова: *межкатегориальная трансформация, части речи, грамматические изменения, семантическая трансформация, узбекский язык, деривация, стилистические функции.*

Til o‘zining murakkab va dinamik tabiati bilan har doim tilshunos olimlarning e’tiborida bo‘lib kelgan. Shu jihatdan, til birliklarining grammatik turkumlar o‘rtasida o‘zgarishi ya’ni, turkumlararo transformatsiya masalasi hozirgi zamon tilshunosligida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir.Ushbu maqolada turkumlararo transformatsiyaning mohiyati, turlari va o‘zbek tilidagi ifodalanish shakllari muayyan tilshunoslarning qarashlari asosida tahlil qilinadi.

Til birliklarining grammatik turkumlar o‘rtasida o‘zaro almashuvi qadimdan tilshunoslikda kuzatilgan. **V.V. Vinogradov** so‘z turkumlari o‘rtasidagi chegaralar doimiy emasligini ta’kidlab, turkumlararo o‘tish tilning tabiiy rivojlanish holati ekanligini bildiradi [1: 45]. Bu fikrni **Sh.R. Rustamov** ham qo‘llab–quvvatlab, bunday transformatsiyalar tilni soddalashtirish va ifoda imkoniyatlarini boyitish vositasi ekanligini ta’kidlaydi [2: 76].

O‘zbek tilida til birliklarining grammatik o‘zgarishi so‘zlarning morfologik va sintaktik funksiyalarini qayta belgilash imkonini yaratadi. Bunday o‘zgarishlar, ayniqsa, semantik transformatsiya jarayonlari orqali leksik birliklarning ma’no qatlamlarini kengaytiradi.Tilshunoslikda bu hodisa derivatsiya – ya’ni yangi birliklar yasash orqali shakllanadigan strukturaviy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir.Turkumlararo transformatsiya, odatda, morfologik va sintaktik jarayonlar orqali yuz beradi. Tilshunos **A.V. Bondarko** bu jarayonni derivatsion, ya’ni yasalish orqali yuz beruvchi o‘zgarish sifatida talqin qiladi [3: 34].

Turkumlararo transformatsiya – bu so‘z turkumlari o‘rtasidagi o‘tish yoki o‘zgarish jarayonidir.Bu jarayonning o‘zi grammatik tizimning murakkabligini ko‘rsatadi, chunki bir turkumdan ikkinchisiga o‘tish so‘zning sintaktik va semantik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir turkumning o‘ziga xos roli va vazifasi bor, ammo bu turkumlararo transformatsiya yordamida yangi ma’no qatlamlari ochiladi, ya’ni bir turkumning boshqa turkumga aylanishi tilning boy va turli qatlamlarini yaratadi.

Shu bilan birga, turkumlararo transformatsiya nafaqat grammatik tizimni boyitibgina qolmay, balki so‘zlashuv va yozish uslubining moslashuvchanligini ham ta’minlaydi. Transformatsiya faqat grammatik o‘zgarish emas, balki **semantik o‘zgarish** hamdir.**N.D. Arutyunova** fikricha, turkum o‘zgarishi bilan so‘zning ma’no qamrovi

va ifoda doirasi ham o‘zgaradi [4: 51]. Boshqacha aytganda, bu — yangi ifodaviy va semantik imkoniyatlarning ochilishi demakdir.

Shuningdek, **M.M. Baxtin** bu holatni tilning stilistik ko‘p qatlamliligi bilan bog‘laydi. Til birliklari bir turkumdan boshqasiga o‘tganida, ularning matn ichidagi uslubiy vazifalari ham o‘zgaradi [5: 102].

O‘zbek tilida turkumlararo transformatsiya faol yuz beradigan hodisadir. **Olimjon Shukurov** o‘zbek tilida so‘zlar kontekstdan kelib chiqib grammatik turkumini o‘zgartirishga moyilligi haqida yozadi [6: 63]. Masalan, 1.***“Yetakchi fikr bildirdi”.*** Bu yerda “yetakchi” ot turkumida ishlatilgan (kim? — yetakchi). 2.***“U yetakchi mavzularni ko‘taradi”.*** Bu yerda “yetakchi” sifat turkumida (qanday mavzular? — yetakchi mavzular). 3. ***“U jamoadan ajralib, yetakchilik qildi”.*** Bu yerda “yetakchilik” otlashgan fe’l yoki abstrakt ot vazifasida (nima qildi? — yetakchilik qildi).”Yetakchi” so‘zi birinchi gapda ot, ikkinchi gapda sifat, uchinchi gapda esa undan hosil bo‘lgan abstrakt ot shaklida ishlatilgan. Shuningdek, bu tilning iqtisodiyligi (bir ildizdan bir nechta vazifa) va ifoda qulayligiga (turli fikrlarni ixcham yetkazish) xizmat qiladi.

Tilshunoslikda, **substantivatsiya** (otlashish), **adyektivatsiya (**sifatlashish), **numeralizatsiya** (sonlashish), **adverbializatsiya** (ravishlashish), **verbalizatsiya** (fe’llashish), **pronominalizatsiya** (olmoshlashish) kabi jarayonlar mustaqil so‘z turkumlarida va alohida yordamchi turkumlarda ko‘rsatiladi[12:63].

Tilshunos J. Eltazarov “Turli so‘z turkumlarining bitta turkumga o‘tishi emigratsion ko‘chish deb yuritiladi va bu holat, ayniqsa, ot turkumida yaqqol ko‘zga tashlanadi”, deydi[12:63]. Masalan, sifat, sifatdosh, ravish, son, olmosh turkumlaridagi so‘zlar bir turkumga, ya’ni otga ko‘chishi mumkin. Bu jarayonni quyidagi misollar orqali ko‘rsatish mumkin:

Sifat: y***axshilarning so‘ziga quloq sol // Yaxshi odamlarning so‘ziga quloq sol***[7:122];

Fe’lning sifatdosh shakli: ***birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar // birlashgan odamlar o‘zar, birlashmagan odamlar to‘zar***[8:86];

Son***: birniki mingga, mingniki tumanga // bir odamniki ming odamga, ming odamniki tuman odamga***[9:205];

Olmosh: ***do‘stlarimning qanchasi hurmatli kishilar bo‘lib ketishgan // qancha do‘stlarim hurmatli kishilar bo‘lib ketishgan***[10:56];

Ravish: ***ko‘pni yomonlagan ko‘muvsiz qolar // ko‘p odamni yomonlagan odam ko‘muvsiz qolar***[11:33];

Yuqoridagi misollarda turli so‘z turkumlari ot turkumiga xos sintaktik vazifani bajarib, o‘zaro ko‘chgan. Bunday o‘zgarishlar **“immigratsion ko‘chish”** (IK) deb ataladi. Masalan, sifat turkumi bir necha turkumlarga ko‘chishi mumkin**:** o**tga ko‘chish:** ***yaxshilarga ergashish kerak*** [7:124]. Bu yerda “yaxshi” sifat so‘zi otlashib, “yaxshilar” — ya’ni “yaxshi odamlar” ma’nosida qo‘llanmoqda. **Ravishga ko‘chish:** ***kuyni yaxshi chalding*** [8:88]. “Yaxshi” bu yerda fe’lni ta’riflovchi ravish vazifasida. **Olmoshga ko‘chish:** ***ba’zilari tez yugurib kelishdi*** [10:58]. “Ba’zilari” aniq bo‘lmagan shaxsni bildiruvchi olmosh sifatida ishlatilgan.**Modal so‘zga ko‘chish:** ***rost, ovozingiz yoqimli ekan*** [9:210]. “Rost” bu yerda gapga tasdiq ma’nosi qo‘shgan modal birlik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holatlar sifat so‘zlarining boshqa turkumlarga ko‘chib, turli sintaktik va semantik vazifalarni bajarishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, turkumlararo transformatsiya o‘zbek tilining grammatik, estetik va stilistik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayon tilning rivoji, nutqning ifodaviyligi va samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Transformatsiya hodisasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur tadqiq etilishi lozim bo‘lgan lisoniy hodisadir. U tilshunoslik bilan birga lingvistik pragmatika va stilistika sohalarida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vinogradov V.V. *Russkiy yazyk: Grammatika. Stilistika.* – Moskva: Nauka, 1986.
2. Rustamov Sh.R. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
3. Bondarko A.V. *Funksional grammatika asoslari.* – Sankt–Peterburg: Filologiya instituti, 1990.
4. Arutyunova N.D. *Logika. Til.Model.* – Moskva: Nauka, 1976.
5. Baxtin M.M. *Estetika slovesnogo tvorchestva.* – Moskva: Iskusstvo, 1979.
6. Shukurov O. *O‘zbek tilining leksik tizimi.* – Toshkent: Fan, 2004.
7. Qodiriy A. *O‘tkan kunlar.* – Toshkent: Yosh gvardiya, 1930.
8. Aytmatov Ch. *Jamila.* – Frunze: Qirg‘iziston davlat nashriyoti, 1958.
9. Hakimzoda Niyazi H. *Farg‘ona shahrining yangi ko‘chalari.* – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1947.
10. Hoshimov O. *Tavba.* – Toshkent: O‘zbekiston adabiyoti va san’ati nashriyoti, 1982.
11. Fitrat A. *Mehnat.* – Toshkent: O‘zbekiston xalq nashriyoti, 1927.
12 Eltazarov J. *O‘zbek tilining grammatikasi.* – Toshkent: Fan, 2021.



Durdona MUMINOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi
Tarjimonlik fakulteti o‘qituvchisi

TIL LOKALIZATSIYASINING LINGVOMADANIY MOSLASHUVI VA UNDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya: ushbu maqola til lokalizatsiyasi jarayonida lingvomadaniy moslashuvning ahamiyatini yoritadi va mazkur jarayonda yuzaga keladigan asosiy muammolarni tahlil qiladi. Lokalizatsiya so‘zma-so‘z tarjima bilan cheklanmay, til va madaniyatning o‘zaro aloqasini chuqur anglashni talab qiladi. Maqolada madaniyatlararo tafovutlarning lokalizatsiyaga ta’siri, tarjima usullarining roli va zamonaviy strategiyalar asosida muammolarni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *lokalizatsiya, lingvomadaniy moslashuv, tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya, transkreation.*

Annotation: this article highlights the importance of linguocultural adaptation in the process of language localization and analyzes the main problems that arise in this process. Localization is not limited to word–for–word translation, but requires a deep understanding of the relationship between language and culture. The article considers the impact of intercultural differences on localization, the role of translation methods, and ways to overcome problems based on modern strategies.

Key words: *localization, linguocultural adaptation, translation, intercultural communication, transcreation.*

Аннотация: в статье подчеркивается важность лингвокультурной адаптации в процессе локализации языка и анализируются основные проблемы, возникающие в этом процессе. Локализация требует не только буквального перевода, но и глубокого понимания взаимосвязи языка и культуры. В статье рассматривается влияние кросс–культурных различий на локализацию, роль методов перевода и способы преодоления проблем на основе современных стратегий.

Ключевые слова: *локализация, лингвокультурная адаптация, перевод, межкультурная коммуникация, транскреация.*

Kirish. Globalizatsiya jarayonining tezlashuvi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va transmilliy korporatsiyalarning ko‘payishi natijasida dunyo bo‘ylab aloqa vositalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi kuchaymoqda. Bu jarayonda til va madaniyat asosiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlashda **til lokalizatsiyasi** muhim rol o‘ynaydi. Til lokalizatsiyasi faqatgina matnni bir tildan boshqasiga tarjima qilish emas, balki uni boshqa madaniyatga moslashtirish, ya’ni **lingvomadaniy transformatsiyani** amalga oshirishdir.

Hozirgi kunda korporativ saytlar, mobil ilovalar, video o‘yinlar, dori vositalari, film va seriallar, reklama kompaniyalari kabi ko‘plab multimodal kontentlar turli bozorlarga moslashtirilmoqda. Har bir til o‘ziga xos madaniy kontekstga ega bo‘lganligi sababli, so‘zlar va iboralarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish ko‘p hollarda **semantik buzilishlar** yoki **madaniy nomutanosibliklar**ga olib keladi. Shu bois, lokalizatsiya jarayoni lingvistik bilim bilan birga **madaniy sezgirlik, kommunikativ kompetensiya va kontekstual tahlil**ni ham talab qiladi.

Masalan, bir til va madaniyatda kulgili yoki ijobiy bo‘lib ko‘rinadigan bir ifoda yoki timsol boshqa bir jamiyatda nomaqbul, hatto haqoratli bo‘lishi mumkin. Bu esa lokalizatsiya jarayonida madaniy tafovutlarning chuqur tahlil qilinishini va **lingvomadaniy moslashuv**ning yuqori darajada amalga oshirilishini zarur qiladi. Xususan, musulmon mamlakatlar, Osiyo, Afrika yoki Lotin Amerikasi kabi hududlarda madaniy qadriyatlar va dunyoqarashlar G‘arb madaniyatidan tubdan farq qiladi. Shunday bo‘lsa–da, ko‘plab kompaniyalar va tarjima xizmatlari bu jihatlarni yetarlicha inobatga olmasligi oqibatida **kutilmagan ijtimoiy reaksiya yoki marketing muvaffaqiyatsizliklari** yuzaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada til lokalizatsiyasi jarayonida lingvomadaniy moslashuvning o‘rni, ahamiyati va bu yo‘ldagi asosiy muammolar atroflicha yoritiladi. Shuningdek, mavjud xatoliklar sabablari tahlil qilinib, ularga nisbatan zamonaviy yechim va strategiyalar taklif etiladi. Maqola tarjima amaliyoti, tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va raqamli madaniyat sohalarida tadqiqot olib borayotgan olimlar, tarjimonlar hamda lokalizatsiya mutaxassislari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Til lokalizatsiyasi – bu nafaqat bir tilning boshqasiga so‘zma–so‘z tarjimasi, balki ma’lum bir tilning madaniy, kontekstual va pragmatik xususiyatlarini hisobga olgan

holda mazmunni moslashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon tarjima sohasidagi an'anaviy yondashuvlardan farq qiladi, chunki lokalizatsiyada diqqat faqat lingvistik qoidalarga emas, balki madaniy kodlarga, an'analar va ijtimoiy kontekstga qaratiladi.

Lingvomadaniy moslashuv — til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olib, kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan jarayon hisoblanadi.Bu jarayon til vositalarini (so'z, ibora, metafora, frazeologizm) maqsadli auditoriyaning madaniy kodlariga muvofiq tarzda o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy moslashuv tilning faqat grammatik va leksik qirralarini emas, balki uning **madaniy qatlamlarini** ham qamrab oladi.

Masalan, ingliz tilida keng tarqalgan "It's raining cats and dogs" iborasi so'zma–so'z o'zbek tiliga tarjima qilinsa, bu ifoda tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bunday holatda lokalizatsiya jarayonida bu ibora "Yomg'ir juda kuchli yog'moqda" yoki "Chaqmoq va momaqaldiroq bilan yomg'ir yog'moqda" kabi mazmunan mos keladigan ifodaga aylantiriladi. Bunda til bilan birga madaniyat ham o'zgartiriladi, ya'ni asl iboraning lingvomadaniy konteksti maqsadli til foydalanuvchilariga tushunarli bo'ladigan shaklga keltiriladi.

Lingvomadaniy moslashuvning yana bir muhim jihati — bu **madaniy qadriyatlar va ijtimoiy konvensiyalar**ni hisobga olishdir. Har bir madaniyatda o'ziga xos axloq, urf–odatlar, diniy e'tiqodlar mavjud bo'lib, ular til ifodalarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, musulmon mamlakatlarida ishlatiladigan reklamalar yoki mahsulot nomlarida diniy va madaniy qoidalarga rioya qilish zarur. Bunday tafovutlarni e'tiborsiz qoldirish kompaniya obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, lingvomadaniy moslashuv tarjimaning **funksional usullari**dan biri bo'lib, u matnning asosiy maqsadini va auditoriyaga ta'sirini saqlab qolishga qaratilgan. Bu yondashuvda tarjimon asl matn mazmunini o'zgartirmasdan, uni yangi madaniy muhitga moslashtiradi, shu bilan birga matnning mantiqiy, emotsional va estetik elementlarini ham muhofaza qiladi.

Lokalizatsiya va lingvomadaniy moslashuv jarayonida **lingvistik va madaniy tafovutlarni hisobga oladigan texnologiyalar** ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt va mashinani o'rganish tizimlari tarjima va lokalizatsiya jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirgan bo'lsa–da, ular madaniy kontekstni to'liq anglay olmaydi. Shu sababli inson tarjimoni va madaniyatshunosining roli hamon beqiyosdir. Ttil lokalizatsiyasi va lingvomadaniy moslashuv nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi, psixologiya va hatto sotsiologiya sohalarining kesishmasida joylashgan multidisipliner jarayon sifatida qaralishi lozim.

Til lokalizatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan eng katta qiyinchiliklardan biri — bu **madaniy tafovutlarni aniqlash va ularni moslashtirishdagi murakkabliklar**dir. Har bir madaniyat o'ziga xos til kodlari, urf–odatlari, qadriyatlari va ijtimoiy normativlariga ega bo'lib, ularni to'liq tushunmaslik yoki noto'g'ri talqin qilish kommunikativ jarayonda salbiy oqibatlarga olib keladi.

Til lokalizatsiyasi va lingvomadaniy moslashuv zamonaviy kommunikatsiya va marketing sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Global bozorlarda samarali raqobatlashish va foydalanuvchilar bilan chuqur aloqalarni o'rnatish uchun mahsulot va xizmatlarni faqat til jihatdan tarjima qilish yetarli emas, balki ularni maqsadli madaniyatning lingvistik va madaniy kontekstiga moslashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon lingvistik tafovutlarni bartaraf etish bilan birga, madaniy qoidalarga rioya qilish, axloqiy va ijtimoiy normativlarni hisobga olishni ham o'z ichiga oladi.

Shu munosabat bilan, til lokalizatsiyasi jarayonida madaniyatshunoslik bilimlari, kontekstga asoslangan tarjima yondashuvlari va transkreation kabi ijodiy metodlar qo'llanilishi zarur. Shuningdek, lokalizatsiya jarayoni ko'p bosqichli tekshiruvlardan o'tishi, zamonaviy texnologiyalar inson nazorati bilan uyg'unlikda ishlatilishi va mahalliy auditoriyaning fikrlari doimiy ravishda inobatga olinishi lozim.

Kelajakda til lokalizatsiyasida lingvomadaniy moslashuvni yanada mukammallashtirish uchun multidisipliner yondashuvlar, sun'iy intellekt sohasidagi yangiliklar va madaniyatshunoslik tadqiqotlarining integratsiyasi zarur bo'ladi. Bu esa xalqaro kommunikatsiyaning sifatini oshirish, madaniyatlararo tushunishni chuqurlashtirish va global bozorlar uchun mahsulotlarni samarali targ'ib qilish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bowker L., Ciro J. Machine translation and global research: Towards improved machine translation literacy in the scholarly community. Emerald Publishing. 2019.
2. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters. 1997.

Nodiraxon ISMATOVA,
Qo‘qon davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti katta o‘qituvchisi
Email: nodiraismatova1981@gmail.com

RANG TOPONIMIYASINING UMUMIY TASNIFI

Annotatsiya: Amerika qit’asidagi rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar, bu hududning tabiati, madaniyati va tarixiy jarayonlarini aks ettiruvchi qiziqarli va o‘ziga xos geografik nomlardir. Ranglar ko‘plab madaniyatlarda va tillarda kuchli simvolik ma’nolarga ega bo‘lib, ular tabiiy landshaftlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, mahalliy xalqlarning estetik va madaniy qarashlarini ifodalaydi. Amerika toponimikasida rang nomlari bilan ifodalangan joy nomlari, ko‘pincha tabiiy manzaralar, o‘simliklar, hayvonlar yoki tabiiy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan tasvirlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *Amerika toponimikasida ranglar, rang nomlari va geografik nomlar, tabiiy landshaftlar, ranglarning semantikasi, geografik nomenklatura.*

Аннотация: топонимы, представленные названиями цветов в Америке, являются интересными и уникальными географическими названиями, которые отражают природу, культуру и исторические процессы этой территории. Цвета имеют сильное символическое значение во многих культурах и языках, выражая особенности природных ландшафтов, эстетические и культурные воззрения коренных народов. В американской топонимике названия мест, представленные названиями цветов, часто содержат образы, связанные с природными ландшафтами, растениями, животными или природными явлениями.

Ключевые слова: *цвета в американской топонимике, цветоназвания и географические названия, природные ландшафты, семантика цветов, географическая номенклатура.*

Annotation: toponyms represented by color names in the Americas are interesting and unique geographical names that reflect the nature, culture and historical processes of this territory. Colors have strong symbolic meanings in many cultures and languages, expressing the specific features of natural landscapes, the aesthetic and cultural views of indigenous peoples. In American toponymy, place names represented by color names often contain images associated with natural landscapes, plants, animals or natural phenomena.

Key words: *colors in American toponymy, color names and geographical names, natural landscapes, semantics of colors, geographical nomenclature.*

Kirish. Amerika qit’asi toponimikasida rang nomlari bilan ifodalangan joy nomlari o‘ziga xos va chuqur ma’no yuklagan geografik birliklar sifatida ajralib turadi. Ranglar, ko‘plab madaniyatlarda va tillarda ijtimoiy, madaniy va estetik qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular tabiiy dunyo, odamlarning hayoti va ruhiyatini aks ettiradi. Amerika rang nomlari bilan ifodalangan toponimlari esa, o‘ziga xos ravishda, qit’aning tabiiy landshaftlari, iqlimi, madaniy merosi va tarixiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Amerika rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar, o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari va madaniy ahamiyati bilan turli ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda o‘rganilgan. Bu mavzudagi adabiyotlar ranglarning etimologiyasi, ularning semantik ma’nolari, geografik kontekstda qanday ishlatilishi va madaniy hamda ekologik tahlili bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlarni o‘z ichiga oladi.

Toponimikaning ranglar bilan bog‘liq jihatlari, ayniqsa, Amerika qit’asida keng o‘rganilgan. Wolfram, W. (2004) o‘zining “The Dynamics of Language Contact” nomli ishida rang nomlarining etimologiyasini va ularning geografik joylarda qanday shakllanishini tahlil qilgan. U, ranglar ko‘plab madaniyatlarda tabiiy xususiyatlarni ta’riflashda keng qo‘llanilishini, shuningdek, rang nomlarining toponimlar bilan qanday bog‘lanishini ko‘rsatadi. Amerika rang nomlari, ayniqsa, mahalliy aholi va kolonizatorlar orasidagi aloqalarga asoslangan holda, aniq geografik joylarni ta’riflashda muhim rol o‘ynaydi.

Berlin, B. va Kay, P. (1969) tomonidan yozilgan “Basic Color Terms: Their Universality and Evolution” asarida ranglarning tilshunoslikdagi o‘rni va ularning madaniyatlar o‘rtasida qanday o‘zgarishini o‘rganilgan. Ushbu ishda, ranglar nafaqat tabiiy xususiyatlarni tasvirlaydi, balki ma’naviyat va ijtimoiy tuzilmalar bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Amerika rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar ham o‘z o‘rnida madaniy yodgorlik sifatida qaraladi, ularni o‘rganish orqali mintaqadagi xalqning tarixiy merosi va tabiatga bo‘lgan munosabati tushuniladi.

Harvey, D. (2005) “Spaces of Global Capitalism” asarida global madaniyatlar va ularning geografik tasvirlarini, jumladan rang nomlari bilan ifodalangan toponimlarni o‘rganadi. U, ranglar, ayniqsa Amerika qit’asida, ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarni belgilashda keng qo‘llanilganini ta’kidlaydi. Amerika rang nomlari, ko‘pincha, o‘sha joyning geografik yoki ekologik o‘ziga xosligini ta’riflashda ishlatiladi, masalan, “Red River” (Qizil daryo) yoki “Black Hills” (Qora Tog‘lar).

Hendon, D. (2012) “The Politics of Toponymy in North America” asarida ranglarning ma’naviy va siyosiy jihatlarini o‘rganadi. Rang nomlari, ayniqsa, mustamlaka

davrida, o‘z hududini nazorat qilish va o‘zlashtirishning vositasi sifatida ishlatilgan. Ushbu nomlar, o‘zining tarixiy kontekstida, mahalliy xalqlarning tabiiy landshaftni qanday tasvirlaganini va kolonizatorlarning ularni qanday qabul qilganini ko‘rsatadi.

Amerika rang nomlari bilan ifodalangan toponimlarni o‘rganishda bir nechta metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi:

Rang nomlari bilan ifodalangan toponimlarning kelib chiqishini va ularning tarixiy o‘zgarishlarini o‘rganish uchun etimologik tahlil metodidan foydalaniladi. Bu metod ranglarning aniq ma’nolarini, ularning qanday qilib joy nomlariga aylanganini hamda bu jarayonda turli madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini aniqlashga yordam beradi.

Rang nomlarining semantik ahamiyatini o‘rganish, bu nomlarning ijtimoiy va madaniy ma’nolarini aniqlashni ta’minlaydi. Ranglar odatda xalqning tabiatga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi va ularning tasviri orqali ma’lum bir hududdagi ekologik va geografik xususiyatlar tushuniladi.

Rang nomlari bilan ifodalangan toponimlarni geografik va ekologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularning hududdagi tabiiy landshaftlar bilan bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi. Bu metod yordamida ranglarning o‘ziga xos xususiyatlari va ular qanday joylarga mos ravishda berilganligi o‘rganiladi.

Rang nomlari bilan ifodalangan toponimlarning madaniy va tarixiy kontekstda tahlili, ranglarning mahalliy xalqlar tomonidan qanday qabul qilinganini, ularning ma’naviy ahamiyatini va tarixiy jarayonlardagi o‘rnini tushunishga yordam beradi. Kolonial davrning ta’siri, shuningdek, ranglar bilan ifodalangan toponimlarning ma’nosiga qanday o‘zgarishlar kiritganini aniqlashda ushbu metod muhimdir.

Natijalar va muhokama. Amerika rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar, nafaqat geografik joylarni belgilashda, balki tabiiy resurslarni, ekologik xususiyatlarni va madaniy qadriyatlarni aks ettirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ranglar, ko‘plab madaniyatlarda, xususan, Amerika qit’asida, insonlarning tabiatga, o‘z yashash muhiti va atrof–muhitga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar, o‘z ichiga tabiatning rang–barangligini, geografik obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘sha hududlardagi tarixiy voqealarni qamrab oladi.

Amerika rang nomlari bilan ifodalangan joy nomlari, ko‘pincha, mahalliy xalqlarning ekologik qarashlarini va ularning tabiatga bo‘lgan e’tiborini aks ettiradi. Masalan, “Qizil daryo” (Red River) yoki “Qora Tog‘lar” (Black Hills) kabi toponimlar, faqatgina geografik joyni tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki o‘sha hududning madaniy va tarixiy ahamiyatini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ranglar, o‘z navbatida, mahalliy aholi va mustamlaka davri xalqlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan madaniy va ekologik aloqalarni ifodalaydi.

Xulosa. Amerika rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar, ushbu qit’aning geografik va madaniy xilma–xilligini aks ettiruvchi muhim elementlardir. Ranglar, madaniy va tarixiy kontekstda o‘zining maxsus semantik ma’nolarini, tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarni tasvirlashda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu rangli toponimlar nafaqat geografik o‘ziga xoslikni, balki mahalliy xalqlarning dunyoqarashini, ekologik tajribalarini va tarixiy jarayonlarini ham yoritadi.

Maqolada tahlil qilingan rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar, Amerika qit’asidagi tabiiy va madaniy boyliklarni tushunishda muhim manba bo‘lib, ranglar orqali ifodalangan toponimlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan geografik nomenklaturaning zamonaviy tadqiqotlari uchun qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Ranglar, ekologik xususiyatlarni tasvirlashda va ularning tarixiy, madaniy ma’nolarini ochishda dolzarb vosita sifatida qolmoqda. Bu tahlil, ranglar va toponimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga imkon beradi va bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berlin, B., & Kay, P. (1969). *Basic Color Terms: Their Universality and Evolution*. – Berkeley: University of California Press..

2. Harvey, D. (2005). *Spaces of Global Capitalism: A Theory of Uneven Geographical Development*. – London: Verso.

3. Hendon, D. (2012). *The Politics of Toponymy in North America*. – Washington, D.C.: Smithsonian Institution Press.

4. Wolfram, W. (2004). *The Dynamics of Language Contact: The Interaction of Native American and European Languages in North America*. – Cambridge: Cambridge University Press.

5. Zaripova, M. (2019). *The Role of Color in the Semantic System of Place Names*. – Tashkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.

6. Berlin, B. (2003). *The Anthropology of Color: Interdisciplinary Approaches*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing..

Jasur ULUG‘OV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi o‘qituvchisi
julugov16@gmail.com

FALSAFA FANINI O‘QITISHDA, TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK STRATEGIYALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada falsafa fanini o‘qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar ko‘rib chiqilgan. Falsafa o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ularning o‘z fikrlarini shakllantirish va yangicha qarashlarni hayotga tatbiq etishlariga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, mantiqiy savollar, guruh muhokamalari va izlanish faoliyatlari kabi strategiyalar tahlil qilingan. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning analitik qobiliyatlarini, fikr va qarashlarining mustaqilligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: *falsafa, tanqidiy fikrlash, pedagogik strategiyalar, o‘qitish metodlari, interaktiv ta’lim, mantiqiy fikrlash, o‘quvchilarning analitik qobiliyatlari, o‘z fikrlarini shakllantirish, guruh muhokamalari, izlanish faoliyatlari*

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагогические стратегии развития критического мышления в преподавании философии. Философия не только дает студентам знания, но и помогает им формировать собственные мнения и реализовывать новые перспективы. Анализируются стратегии развития критического мышления, такие как интерактивные методы, логические вопросы, групповые обсуждения и исследовательская деятельность. Эти подходы повышают аналитические навыки студентов и независимость мысли и мнения.

Ключевые слова: *философия, Критическое мышление, Педагогические стратегии, Методы обучения, Интерактивное обучение, Логическое мышление, Аналитические навыки студентов, Формирование собственного мнения, Групповые дискуссии, Исследовательская деятельность*

Annotation: this article examines pedagogical strategies for developing critical thinking in teaching philosophy. Philosophy not only provides students with knowledge, but also helps them form their own opinions and implement new perspectives. Strategies for developing critical thinking, such as interactive methods, logical questions, group discussions, and research activities, are analyzed. These approaches increase students’ analytical skills and independence of thought and opinion.

Key words: *philosophy, Critical thinking, Pedagogical strategies, Teaching methods, Interactive learning, Logical thinking, Students’ analytical skills, Forming their own opinions, Group discussions, Research activities*

Kirish. Falsafa fanini o‘qitishdagi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Falsafa nafaqat nazariy bilimlarni, balki o‘quvchilarning fikrlash tarzi va qarashlarini shakllantirishga ham yordam beradi. Bu maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan pedagogik strategiyalar ko‘rib chiqiladi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga faqat mavjud bilimni qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, baholash va yangi g‘oyalarni taklif qilish qobiliyatini berishini ta’minlaydi. Falsafa darslari bu jarayon uchun mo‘ljallangan eng yaxshi platformalardan biri hisoblanadi, chunki falsafiy savollar ko‘pincha murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga va o‘z fikrlarini bildirishga undaydi.Interaktiv o‘qitish usullari orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Masalan, muhokama, rolli o‘yinlar yoki simulyatsiyalar kabi metodlar yordamida o‘quvchilar falsafiy g‘oyalarni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday metodlar, nafaqat o‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi, balki ularni o‘z fikrlarini kuchaytirishga, baholashga va boshqa fikrlarni qabul qilishga majbur qiladi.

Guruh muhokamalari.Guruh muhokamalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.O‘quvchilar, bir–birlarining fikrlarini eshitib, o‘z g‘oyalarini baham ko‘radilar. Bu jarayon o‘quvchilarning fikr yuritish qobiliyatini oshiradi va har xil fikrlarni qabul qilish, baholash va tahlil qilish imkoniyatini yaratuvchi ijtimoiy muhitni shakllantiradi.Falsafa fanida guruh muhokamasi olib borish, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, o‘z qarashlarini himoya qilishga va boshqalar bilan tushunishga majbur qiladi.Mantiqiy savollar o‘quvchilarni muammolarni yechishga va o‘z fikrlarini shakllantirishga undaydi. Falsafa darslarida berilgan savollar, odatda, oddiy emas, balki chuqur, murakkab va ko‘p qatlamli bo‘ladi. Masalan, “Adolat nima?” yoki “Odam qanday erkinlikka ega?” kabi savollar, o‘quvchilarni o‘ylashga, o‘z fikrlarini ilgari surishga va savolga javob berish uchun dalillar topishga undaydi.

Tadqiqot faoliyatlari.Tadqiqot faoliyatlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.O‘quvchilar o‘zlari qiziqayotgan falsafiy g‘oyalarni o‘rganishlari, materiallar to‘plashlari va ularni tahlil qilishlari mumkin.Bu esa, ularga o‘z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishga, dalillarni topishga va o‘z fikrlarini asoslashga yordam beradi.Tadqiqot faoliyatlari yordamida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba ham olishadi.

*Muammolarni hal qilish.*Falsafa fanida turli muammolarni hal qilish orqali o‘quvchilar yangi g‘oyalar va fikrlarni ishlab chiqishga qodir bo‘ladilar. O‘quvchilar haqiqiy hayotdagi muammolarni olib kelishlari va ularni falsafiy qiyofada ko‘rib chiqishlari, ularni tahlil qilishlari va muammolarni hal qilish yo‘llarini topishlari kerak. Muammolarni hal qilish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi.Falsafa fanini o‘qitish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik strategiyalar juda muhimdir. Interaktiv metodlar, guruh muhokamalari, mantiqiy savollar, tadqiqot faoliyatlari va muammolarni hal qilish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini shakllantirishi va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Falsafa darslari, shuningdek, o‘quvchilarni yanada mustaqil fikr yurita olishlariga va kelajakda mazmunli va mustaqil qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash, ta’lim jarayonini yanada samarali va maqsadga muvofiq qilishda muqaddas rol o‘ynaydi. Muammo yechish strategiyasi talabalarni tanqidiy fikrlashga jalb qiladi. O‘qituvchi hayotiy vaziyatlar yoki etik muammolarni taqdim etganida, talabalar kelib chiqadigan savollarni, mumkin bo‘lgan yechimlarni ko‘rib, ularni baholashga o‘rganadi. Bu jarayon talabalarni muammolarni turli nuqtayi nazardan ko‘rish va baholashga undaydi. Sinfda tahliliy munozara o‘tkazish, talabalarni o‘z fikrlarini ifodalashga va boshqa talabalar bilan o‘zaro fikr almashishga imkon beradi. O‘qituvchi muayyan falsafiy fikr yoki qarashlarni tanlaydi va talabalar bu fikrni tahlil qilish, razm solish va o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Munozara jarayonida talabalar o‘z fikrlarini asoslash va mantiqiy argumentlar keltirishga o‘rganishadi.O‘qituvchi, talabalarni muayyan falsafiy tushunchalarga oid savollar bilan o‘rab, ular bilan o‘zaro muloqot qilishni yo‘lga qo‘yishi kerak. Bunga “Nima uchun?” yoki “Bu fikrning asosiy sababi nima?” kabi savollar orqali erishiladi. Bu talabalarni nafaqat bergan savollarga javob berishga, balki o‘z fikrlarini aniqlik bilan izohlashga va chuqurroq mulohaza qilishga undaydi. Talabalar o‘z fikr va qarorlarini baholashlari uchun o‘z–o‘zini baholash jarayonini o‘rganish juda muhim. O‘qituvchi, talabalarni o‘z fikrlarini baholash va ularda tanqidiy yondashuvni shakllantirish uchun maxsus formulalar va ko‘rsatmalar berishi mumkin. Talabalarda raqobatchilikni rag‘batlantirish orqali, o‘qituvchi ularni o‘z fikrlarini yanada chuqurroq va tanqidiy holda ifodalashga undashi mumkin. Misol uchun, talabalarga fikr bildirishga va fikrlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan muhokamalar yoki o‘yinlar tashkil qilish mumkin. Bu orqali talabalar raqobat muhitida yanada yaxshi ko‘nikmalarni rivojlantirishga erishishadi. Talabalarni faol ishtirok etishga undash orqali, ularni yanada ko‘proq tanqidiy fikrlashga jalb qilish mumkin. Bunga guruh ishlarini bajarish, muammolarni hal qilish simulyatsiyalari yoki muhokama qilish faoliyatlari kiradi. Talabalar o‘zaro fikr almashish va fikrlarni tahlil qilish jarayonida faol ishtirok etganida, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Falsafa darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lash, talabalarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali yo‘l hisoblanadi. Masalan, falsafiy masalalar, tarixiy voqealar, psixologiya, ijtimoiy fanlar kabi mavzular bilan bog‘liq holda o‘qitilganda, talabalar ko‘proq fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda o‘qituvchi ijtimoiy voqealarga falsafiy yondashuvni ko‘rsatishi va talabalarni bu haqida fikr yuritishga undashi mumkin.Falsafa fanini o‘qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yuqoridagi pedagogik strategiyalarni qo‘llash talabalar uchun foydali natijalar berishi mumkin. O‘qituvchilarning rollari, talabalarni faol o‘qish va mulohaza qilish jarayonlariga jalb etishda, ularga fikrlarini ifodalash va tahlil qilish imkoniyatini yaratishda juda muhimdir. Asosiy maqsad, talabalarni nafaqat falsafiy fikrlar bilan tanishtirish, balki ularni tanqidiy fikrlovchi shaxslar sifatida rivojlantirishdir

Xulosa.Falsafa fanini o‘qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. O‘quvchilarni faqat bilim berish emas, balki ularni fikr yuritish, tahlil qilish va muammolarni hal qilishga o‘rgatish zarur. Interaktiv metodlar, guruh muhokamalari, mantiqiy savollar, tadqiqot faoliyatlari va muammolarni hal qilish kabi pedagogik strategiyalar orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Bu jarayon, o‘quvchilarga mavjud bilimlarni baholash, yangi g‘oyalar taklif qilish va o‘z fikrlarini himoya qilish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘zaro munosabatlar, ijodiy yondashuvlar va kelajakdagi muammolarni hal qilishda mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini shakllantiradi. Shunday qilib, falsafa darslari, o‘quvchilarning fikrlash tarzi va qarashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, va ta’lim jarayonini samarali hamda maqsadga muvofiq yuritishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletov I.Falsafani o‘qitish metodikasi va strategiyalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2019.45–67 betlar.
2. Shermamatovich, M. M. (2023). Psychological Description Of Sport And Psycological Development Of Sportsmen. *Eurasian Research Bulletin*, *17*, 7–9.
3. Shermamatovich, M. M., Norkulovich, S. K., & Tursunovna, H. U. (2022). PLACE AND ROLE OF PSYCHOLOGICAL AND VOLITIONAL TRAININGIN THE TRAINING PROCESS OF STUDENTS–BOXERS.*World Bulletin of Management and Law*, *8*, 141–144.
4. Turaev, S.Zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. – Buxoro: Ta’lim, 2022.90–105 betlar.

Nilufar TURSUNOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi,
email:nilufar.tursunova@mail.com

TURLI YOSH GURUHLARIGA MANSUB TOPISHMOQLARNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI (BOLALAR VA KATTALAR MISOLIDA)

Anotatsiya: mazkur ilmiy ishda turli yosh guruhlariga – bolalar va kattalarga mansub topishmoqlarning sotsiolingvistik xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida topishmoqlarning tilshunoslik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq jihatlari, ularning mazmuni, shakli, maqsadi hamda ijtimoiy funksiyasi o‘rganildi. Bolalar topishmoqlarida ko‘proq tasviriylik, o‘yin elementi va ta’limiy yo‘nalishlar kuzatilsa, kattalar topishmoqlarida esa hayotiy tajriba, bilvosita fikrlash va ijtimoiy–tarbiyaviy ma’no ustuvorligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: topishmoqlar, sotsiolingvistika, yoshga oid differensial xususiyatlar, bolalar topishmoqlari, kattalar topishmoqlari, til va jamiyat.

Annotation: this research analyzes the sociolinguistic characteristics of riddles belonging to different age groups–children and adults. During the study, the linguistic and social aspects of riddles, their content, form, purpose, and social function were examined. It was found that children’s riddles are characterized by more imagery, play elements, and educational orientation, while adult riddles emphasize life experience, indirect thinking, and social–educational meaning.

Key words: riddles, sociolinguistics, age–related differential features, children’s riddles, adults’ riddles, language and society.

Аннотация: в данном научном исследовании анализируются социолингвистические особенности загадок, относящихся к различным возрастным группам — детям и взрослым. В ходе исследования изучены лингвистические и социальные аспекты загадок, их содержание, форма, цель и социальная функция. Установлено, что детские загадки характеризуются большей образностью, игровыми элементами и образовательной направленностью, тогда как загадки для взрослых отличаются акцентом на жизненный опыт, косвенное мышление и социально–воспитательное значение.

Ключевые слова: загадки, социолингвистика, возрастные дифференциальные особенности, детские загадки, загадки для взрослых, язык и общество.

Kirish. Til – har bir jamiyatning muhim kommunikativ vositasi bo‘lib, uning tarkibiy qismlaridan biri xalq ijodiyoti, xususan, topishmoqlardir. Topishmoqlar nafaqat o‘yinga asoslangan qiziqarli iboralar balki, xalq tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining aksidir. Ular turli yosh guruhlariga mansub kishilar tomonidan ishlatilishi, ularga xos lingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ishida bolalar va kattalar tomonidan ishlatiladigan topishmoqlarning sotsiolingvistik xususiyatlari o‘rganiladi. Bolalar topishmoqlari ko‘proq o‘yin xarakteriga ega bo‘lib, oddiy va sodda tuzilishga, o‘ziga xos badiiy uslubga ega bo‘lsa, kattalar topishmoqlari esa chuqur ma’no, murakkab struktura va hayotiy tajriba asosida shakllangan bo‘ladi. Shu bilan birga, topishmoqlar turli yosh guruhlarida qanday maqsadlarda va qanday holatlarda qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining muhim qismlaridan biri hisoblanadi.Ular nafaqat bolalar orasida, balki kattalar orasida ham keng tarqalgan bo‘lib, turli yosh guruhlarida o‘ziga xos lingvistik va sotsiokultural xususiyatlarga ega. Topishmoqlar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beruvchi vositalardan biri bo‘lib, ularning sotsiolingvistik tahlili jamiyatning til madaniyati va muloqot shakllarini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda topishmoqlar lingvistik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilingan. Alan Dundes topishmoqlarni xalq og‘zaki ijodining semiotik tizimi sifatida tahlil qilib, ularning semantik strukturasini o‘rgangan. Dundesning fikriga ko‘ra, topishmoqlar jamiyatning til madaniyati va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi.

O‘zbekistonda topishmoqlarni o‘rganish borasida yetakchi olimlar qatoriga Sh. Shomirzayev, N. Haydarov va G. Qurbonov kabi tadqiqotchilar kiradi. Shomirzayev Sh. topishmoqlarni tilshunoslik va folkloristik nuqtayi nazardan o‘rganib, ularning kommunikativ vazifalari hamda ijtimoiy munosabatlar shakllanishidagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Haydarov N. esa o‘zbek xalq topishmoqlarining sotsiolingvistik xususiyatlarini o‘rganib, ularning turli yosh guruhlariga qarab qanday o‘zgarishini tadqiq qilgan. Uning tadqiqotlarida yosh bolalar, o‘smirlar va kattalar uchun

mo‘ljallangan topishmoqlarning struktura va mazmun jihatidan farqlanishi yoritilgan. G. Qurbonovning ishlari esa topishmoqlarning folkloristik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda topishmoqlar tilining metaforik va ramziy xarakteristikalariga alohida e’tibor qaratilgan

Natijalar. Ushbu tadqiqot davomida turli yosh guruhlariga mansub topishmoqlar sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, topishmoqlar yosh guruhlari kesimida semantik, pragmatik va kommunikativ jihatdan sezilarli farqlarga ega. Turli yoshdagi ishtirokchilar orasida olib borilgan kuzatishlar, intervyu va so‘rovnomalar asosida topishmoqlar qo‘llanilishining intensivligi, ularning mavzulari va lingvistik xususiyatlari o‘rganildi. Topishmoqlar bolalar, o‘smirlar, yoshlar, kattalar va qariyalar orasida turlicha vazifalarni bajaradi. Bolalar orasida topishmoqlar asosan o‘yin va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Bolalar uchun mo‘ljallangan topishmoqlarning asosiy mavzulari tabiat, hayvonlar, kundalik hayot hodisalariga bag‘ishlangan. Bu topishmoqlar orqali bolalar atrof–muhitni anglash, predmetlar nomini o‘rganish va mantiqiy bog‘liqliklarni tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadqiqot davomida jami 150 dona bolalar uchun topishmoq tahlil qilindi.

Grafik Tahlil. Yosh guruhlari bo‘yicha to‘plangan topishmoqlar soni quyidagi grafikda tasvirlangan:

Bolalar (7–12 yosh): 150 ta topishmoq
O‘smirlar (13–18 yosh): 200 ta topishmoq
Yoshlar (19–30 yosh): 180 ta topishmoq
Kattalar (30–50 yosh): 120 ta topishmoq
Qariyalar (50 yoshdan katta): 90 ta topishmoq

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p topishmoqlar o‘smirlar va yoshlar orasida uchraydi. Bu yosh guruhlarida topishmoqlar muloqotni jonlantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ijtimoiy o‘zaro aloqalarni mustahkamlash vazifasini bajaradi. Qariyalar orasida esa topishmoqlar soni nisbatan kamroq bo‘lsa–da, ular asosan nasihat va hayotiy tajriba uzatish uchun ishlatiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, turli yosh guruhlariga mansub topishmoqlar sotsiolingvistik jihatdan sezilarli farqlarga ega bo‘lib, ularning lingvistik tuzilishi, semantik mazmuni va qo‘llanilish maqsadi yosh o‘tishi bilan o‘zgaradi. Bolalik davrida topishmoqlar asosan o‘yin va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu yoshda bolalar topishmoqlar orqali tabiat hodisalari, hayvonlar, kundalik hayot bilan tanishadilar. Bolalar uchun mo‘ljallangan topishmoqlar soddaroq grammatik tuzilishga ega bo‘lib, tushunilishi oson va qiziqarli shaklda ifodalanadi. Topishmoqlarning bunday turi kichik yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash, savollar berish va javob topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘smirlar davrida esa topishmoqlar kommunikativ vosita sifatida faol ishlatiladi. Ushbu yosh guruhida topishmoqlar asosan maktab, do‘stlik, o‘yinlar va yoshlar orasidagi muloqotda katta rol o‘ynaydi. O‘smirlar orasida savol–javob tarzida o‘tkaziladigan suhbatlar, intellektual bahslar topishmoqlar orqali boyitiladi. Bu davrda mantiqiy va abstrakt fikrlash rivojlanib, o‘zaro kommunikatsiya jarayoni jadallashadi. Topishmoqlarning lingvistik tuzilishi murakkablashadi, savollar mazmunan chuqurlasha

Xulosa. Ushbu tadqiqot davomida turli yosh guruhlariga mansub topishmoqlar sotsiolingvistik jihatdan o‘rganildi va ularning yosh kesimida lingvistik va kommunikativ vazifalari aniqlandi. Bolalar uchun mo‘ljallangan topishmoqlar mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilsa, o‘smirlar orasida kommunikativ vosita, yoshlar orasida ijtimoiy muloqotni jonlantirish, kattalar va qariyalar orasida esa madaniy xotirani saqlash va uzatish vazifasini bajaradi. Topishmoqlar yosh guruhlari orasida madaniy va lingvistik kod sifatida ishlaydi, bu esa ularning sotsiolingvistik ahamiyatini oshiradi. Turli yoshdagi insonlar o‘rtasida topishmoqlar orqali o‘zaro muloqot, axborot almashinuvi va tarbiyaviy meros uzatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, topishmoqlar yosh o‘tishi bilan o‘z funksiyasini o‘zgartiradi, ularning semantik tuzilishi va pragmatik vazifalari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dundes, A. (1981). *Riddles and Riddle Theory*. Folklore Journal, 92(2), 157–174.
2. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. Greenwood Press.
3. Piaget, J. (1962). *The Language and Thought of the Child*. Routledge.
4. Propp, V. Ya. (1976). *Morfologiya skazki*. Moskva: Nauka.
5. Likhachov, D. S. (1987). *Poetics of Ancient Russian Literature*. Leningrad: Nauka.
6. Nurmatov, A.*O‘zbek xalq topishmoqlarining lingvistik va pragmatik xususiyatlari*. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
7. Karimov, Sh. (2019). *Topishmoqlar va xalq og‘zaki ijodi: Lingvistik tahlil*. –Samarqand: Davlat Universiteti nashriyoti, 2019.
8. Qurbonov, G.*O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va topishmoqlar tahlili*. Buxoro Davlat Universiteti.2020.
9. Hymes, D. (1974). *Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach*. University of Pennsylvania Press.
10. Labov, W. (1972). *Language in the Inner City: Studies in the Black English Vernacular*. University of Pennsylvania Press.

Mohira HAYITOVA,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
O‘zbek va chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi

QISHKI VA MURAKKAB SPORT TERMINLARINING LEKSIK–SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada qishki va murakkab sport turlarida qo‘llaniladigan terminlarning leksik–semantik xususiyatlari lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi.Terminlarning shakllanishi, ularning o‘zbek tiliga moslashuvi, xorijiy tillardan kirib kelgan atamalarning semantik strukturalari ochib beriladi. Shuningdek, sport terminologiyasi tilda muhim leksik qatlam sifatida tilshunoslik va leksikografiyaning kesishgan nuqtasida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: termin, sport tili, qishki sport turlari, murakkab sport, semantika, leksikografiya, tilshunoslik.

Аннотация: в данной статье рассматриваются лексико–семантические особенности терминов, используемых в зимних и сложных видах спорта, с лингвистической точки зрения. Анализируется формирование терминов, их адаптация в узбекский язык, а также семантические структуры заимствованных терминов. Спортивная терминология рассматривается как важный лексический слой на стыке лингвистики и лексикографии.

Ключевые слова:термин, спортивный язык, зимние виды спорта, сложные виды спорта, семантика, лексикография, лингвистика.

Annotation: this article explores the lexical and semantic features of terms used in winter and complex sports from a linguistic perspective. It analyzes how these terms are formed, how they are adapted into the Uzbek language, and the semantic structures of borrowed terms. Sports terminology is examined as a vital lexical layer at the intersection of linguistics and lexicography.

Key words: term, sports language, winter sports, complex sports, semantics, lexicography, linguistics.

Kirish.Zamonaviy sport tili o‘zining murakkab tuzilishi, ko‘p qatlamli semantik imkoniyatlari va xorijiy tillar bilan bevosita aloqadorligi sababli tilshunoslikda dolzarb mavzulardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, qishki va murakkab sport turlari terminlari o‘ziga xos strukturaviy va semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning shakllanish jarayoni lingvistik, madaniy va texnik omillar bilan bevosita bog‘liq. Bu terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi, tarjimasi, sinonim–antonimiya holatlari, ko‘p ma’nolilik va terminologik tizim ichidagi o‘rni alohida ilmiy tahlilni talab etadi. O‘zbek tilshunosligida sport terminologiyasiga oid tadqiqotlar mavjud bo‘lsa–da, qishki va murakkab sport turlarining leksik–semantik jihatlarini maxsus o‘rganishga qaratilgan izlanishlar yetarli emas. Shu sababli, ushbu maqolada mazkur sport yo‘nalishlaridagi atamalarning semantik tuzilmasi, ularning o‘zaro paradigmatik va sintagmatik munosabatlari, shuningdek, ularning funksional–mazmuniy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi – qishki va murakkab sport turlariga oid terminlarning lingvistik tabiatini, ularning leksik–semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni o‘zbek tilidagi lug‘aviy tizimda tutgan o‘rnini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda terminologiya maxsus lug‘at qatlamini tashkil qiluvchi birliklar tizimi sifatida o‘rganiladi.Shu nuqtayi nazardan qaralganda, sport terminlari ham umumiy til tizimi ichida o‘ziga xos subdomenni tashkil qiladi (1: 12).

G‘ofurova G‘.A.o‘z tadqiqotida sport terminologiyasining shakllanishi, ularning semantik jihatdan boyib borishini alohida urg‘u bilan qayd etadi (2: 47). Ayniqsa, u murakkab sport turlaridagi atamalarning ko‘p hollarda ingliz tilidan bevosita yoki rus tili orqali kirib kelishini ta’kidlaydi.

Akademik Sh. Rahmatullayev terminlar semantikasining uzviylik va aniqlik tamoyillariga asoslanishini ko‘rsatib, har bir atamaning o‘z predmet sohasi bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi (3: 33). Mashhur rus tilshunosi V.N. Teliya esa, terminlarning konseptual xarakteri haqida so‘z yuritib, ularning semantik maydon ichida tutgan o‘rnini muhim deb hisoblaydi (4: 60). Leksikografik manbalarda, xususan, “Sport terminlari izohli lug‘ati”da ko‘plab qishki sport turlariga oid atamalar, ularning izohi, tarjimasi va muqobillari berilgan bo‘lib, bu lug‘at terminlar tizimini o‘rganishda muhim manba sifatida qaraladi (5: 15).

Qishki sport turlari (chang‘i sporti, biatlon, figurali uchish, xokkey, snoubord va boshqalar) terminologiyasi ko‘pincha ingliz va rus tillaridan bevosita yoki vositachilik orqali o‘zlashtiriladi. Masalan, “slalom”, ”freestyle”, “biathlon”, “skeleton” kabi terminlar o‘zbek tiliga o‘zlashgan holda, o‘z semantik konnotatsiyasini saqlab qolgan.

Murakkab sport turlariga oid terminlar esa ko‘p hollarda ikki yoki undan ortiq sport turlarining kombinatsiyasidan yuzaga kelgan terminlar tizimini tashkil etadi.Bunga “triathlon”, “pentathlon”, “dekatlon” kabi terminlarni misol qilish mumkin. Ularning semantik tuzilmasi ko‘p komponentli, sinonimik variantlarga ega bo‘lishi mumkin.

Terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi ularning

fonetik, morfologik va semantik moslashuvi bilan bog‘liq. Masalan, “snoubord” atamasi fonetik va grafik moslashuvga uchragan bo‘lib, o‘zbekcha talaffuz va yozuvga yaqinlashtirilgan.

Semantik jihatdan sport terminlari aniq, bir ma’noli bo‘lishi kerak. Biroq ba’zi terminlar kontekstda ko‘p ma’nolilikka ega bo‘ladi. Masalan, “pass” termini futbol, xokkey va basketbol sport turlarida ishlatilgan bo‘lsa–da, har bir sport turi doirasida o‘ziga xos ma’noga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qiyosiy–tahliliy, statistik va kontekstual metodlardan foydalanildi. Qiyosiy metod orqali turli sport turlarida qo‘llaniladigan terminlar o‘rganildi, statistik usul orqali esa terminlarning kelib chiqishi, ularning qaysi tildan o‘zlashganligi aniqlab chiqildi. Shuningdek, kontekstual metod yordamida terminlarning real nutqdagi qo‘llanishi, ularning ma’no ko‘chish xususiyatlari va funksional imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqot materiali sifatida “Sport terminlari izohli lug‘ati”, OAVda chop etilgan maqolalar, sportga oid darsliklar va onlayn resurslar korpus sifatida tanlab olindi. Har bir terminning fonetik, morfologik, semantik va pragmatik xususiyatlari alohida tahlil qilindi.

1. Qiyosiy–tahliliy metod orqali qishki va murakkab sport turlariga oid terminlar turli tillardagi manbalar bilan solishtirilib, ularning o‘zbek tiliga qanday moslashgani, tarjima variantlari va semantik tafovutlari aniqlashtirildi. Bu yondashuv orqali o‘zbek tilidagi sport terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zlashish jarayoni chuqur o‘rganildi.

2. Statistik metod yordamida tadqiqotda o‘rganilgan terminlarning kelib chiqishi, ularning qaysi tildan kirib kelgani, o‘zlashish darajasi, qo‘llanish chastotasi va tarqalish sohalari (masalan, matbuot, darsliklar, sport sharhlari) aniqlab chiqildi. Ushbu metod orqali 150 dan ortiq termin asosida tahliliy jadval tuzildi va ularning tilda faollik darajasi baholandi.

3. Kontekstual tahlil metodidan foydalanilgan holda terminlarning amaliy nutqda qanday ishlatilishi o‘rganildi. Jumladan, ommaviy axborot vositalaridagi sport reportajlari, sport bloglari, YouTube sharhlari va ijtimoiy tarmoq postlarida terminlarning semantik yuklamasi, konnotatsiyasi va stilistik vosita sifatidagi roli tahlil qilindi.

4. Deskriptiv–lingvistik metod asosida terminlarning fonetik, morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari izchil tavsiflandi.Har bir termin mustaqil birlik sifatida o‘rganilib, uning o‘zbek tilidagi ishlatilish formasi, leksik–morfologik strukturasi aniqlashtirildi.

5. Komponent tahlil metodi orqali esa ko‘p komponentli terminlar (masalan, “chang‘i poygasi”, “figurali uchish”, “murakkab to‘siqli yugurish”) semantik bo‘linmalarga ajratilib, ularning asosiy va ikkinchi darajali ma’no qatlamlari o‘rganildi. Bu yondashuv terminlar tarkibidagi semantik birliklar va ularning o‘zaro munosabatlarini tushunishga yordam berdi.

Tahlil natijasida aniqlanishicha, qishki va murakkab sport turlaridagi terminlarning asosiy qismi ingliz va rus tillaridan kirib kelgan. Terminlarning katta qismi fonetik va morfologik moslashuvdan o‘tgan, ammo ularning ba’zilarida semantik tafovutlar kuzatiladi. Qishki sport turlari terminlari ancha tor doiradagi mutaxassislar uchun tushunarli bo‘lsa, murakkab sport turlari terminlari kengroq auditoriya tomonidan qabul qilinmoqda. Ko‘p komponentli terminlar semantik jihatdan murakkab bo‘lib, ularni tarjima qilishda va o‘zlashtirishda muayyan muammolar mavjud.

Xulosa. Ushbu tadqiqot qishki va murakkab sport turlariga oid terminlarning leksik–semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘zbek tilida shakllanish mexanizmini tushunishga yordam berdi. Terminlarning o‘zbek tiliga moslashtirilishi ularning samarali qo‘llanishi va ommalashuvi uchun muhim omildir.

Qishki va murakkab sport turlariga oid terminlarning aksariyati xorijiy tillardan (asosan ingliz va rus tillaridan) o‘zlashgan bo‘lib, ularning o‘zbek tiliga moslashuvi fonetik va morfologik darajada amalga oshgan. Terminlarning semantik tarkibi ko‘p hollarda o‘z predmeti bilan bog‘liq holda aniqlik talab etadi. Ammo ayrim hollarda ma’no ko‘chishi va ko‘p ma’nolilik holatlari kuzatiladi. O‘zbek tilida sport terminologiyasi tizimli lug‘aviy qatlam sifatida shakllanmoqda, bu esa leksikografik yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кабакчи В.В. Спортивная терминология и язык СМИ. – М.: Наука, 2012. – 126 с.
2. Назаров М. Ўзбек тилида спорт атамалари: шакл ва маъно. – Т.: Фан, 2020. – 88 б.
3. Mamatov A. “Terminshunoslik asoslari”. – Toshkent, 2020.
4. G‘ofurova G‘. A. “O‘zbek tilida sport terminlarining shakllanishi”. – Toshkent, 2019.
5. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi”. – Toshkent: Fan, 1995.
6. Teliya V.N. “Современная лексикология русского языка”. – Москва: Высшая школа, 1981.
7. “Sport terminlari izohli lug‘ati”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.

Ilhom NORMAXMATOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi
Ilhomnormahmatov@gmail.com

TA’LIM MUASSASALARIDA SPORT O‘YINLARI ORQALI TARBIYAVIY MAQSADLARGA ERISHISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim muassasalarida sport o‘yinlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishishning samarali usullari tahlil qilinadi. Sport o‘yinlari nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlashga, balki o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoaviy hamkorlik, intizom va mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi.Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan sport mashg‘ulotlari tarbiyaviy jarayonni samarali qilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sport o‘yinlari, ta’lim muassasalari, tarbiyaviy maqsadlar, pedagogik usullar, jamoaviylik, intizom

Annotation: this article analyzes effective methods for achieving educational goals through sports games in educational institutions. Sports games serve not only to strengthen physical health, but also to develop social skills, teamwork, discipline, and a sense of responsibility in students. It is emphasized that sports training, organized on the basis of modern pedagogical approaches, makes the educational process effective.

Key words: sports games, educational institutions, educational goals, pedagogical methods, teamwork, discipline

Аннотация: в данной статье анализируются эффективные методы достижения образовательных целей посредством спортивных игр в образовательных учреждениях. Спортивные игры служат не только укреплению физического здоровья, но и развитию у учащихся социальных навыков, коллективного сотрудничества, дисциплины и чувства ответственности. Подчеркивается, что спортивные тренировки, организованные на основе современных педагогических подходов, эффективны в воспитательном процессе.

Ключевые слова: спортивные игры, образовательные учреждения, воспитательные цели, педагогические методы, коллективизм, дисциплина

Kirish.Ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki shaxs tarbiyasi va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish markazi hisoblanadi.Ushbu jarayonda sport o‘yinlari o‘quvchilarni jismonan sog‘lomlashtirish bilan birga ularning ma’naviy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy davrda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ularni jamiyatga faol, mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish muhim vazifalardan biridir.Shu nuqtayi nazardan, sport o‘yinlari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim.Sport o‘yinlari o‘quvchilarda nafaqat jismoniy chidamlilik va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki ularni jamoaviy ishlashga, o‘zaro hurmatga, halollik va adolat tamoyillariga amal qilishga o‘rgatadi.

Sport o‘yinlarining ta’lim jarayonida tarbiyaviy ahamiyati nafaqat o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan cheklanmaydi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. O‘yinlar orqali bolalar hamkorlikni o‘rganadi, guruhdagi o‘z o‘rnini anglaydi va o‘zaro hurmat tamoyillarini qabul qiladi. Bu jarayon ularning kelajakda jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs bo‘lib yetishishiga asos bo‘ladi.

Sport o‘yinlari ta’lim muassasalarida nafaqat jismoniy tarbiya vositasi, balki tarbiyaviy jarayonning muhim elementi sifatida qaraladi. Ularning o‘quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishdagi roli katta bo‘lib, bu jarayon maxsus pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. O‘yinlar bolalarni mehnatsevarlik, sabr–toqat, o‘zaro hurmat, intizom va halollik tamoyillariga o‘rgatadi, shuningdek, ularni o‘zaro hamkorlik va jamoaviy ruhni mustahkamlashga undaydi.

Ta’lim muassasalarida sport o‘yinlarini samarali tashkil etish uchun pedagoglar o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini chuqur tushunib, ularning qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashgan dasturlar ishlab chiqishlari zarur. Shu bois, sport o‘yinlari darslarini nafaqat texnik jihatdan, balki psixologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham puxta rejalashtirish lozim. Misol uchun, guruhdagi har bir o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash uchun o‘yinlar turini va qoidalarini moslashtirish, ularni rag‘batlantirish va psixologik yordam ko‘rsatish muhimdir.

Bundan tashqari, sport o‘yinlari tarbiyaviy jarayonda yoshlarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashda, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham ahamiyatli vosita hisoblanadi.O‘yin jarayonida o‘quvchilar rahbarlik qilishni o‘rganadilar, mas’uliyatni bo‘lishadilar va jamoaviy qaror qabul qilishga jalb qilinadilar. Bu ko‘nikmalar ularni hayotga tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida sport o‘yinlari faoliyati ko‘plab pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar bilan boyitilmoqda. Masalan, o‘yinlar vaqtida videokuzatuv, baholash tizimlari va elektron jadval yordamida

o‘quvchilarning rivojlanishi doimiy nazorat qilinadi.Bu usullar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual yutuq va kamchiliklarini aniqlash, ular bilan maqsadli ish olib borish imkonini beradi.

Shuningdek, sport o‘yinlarini ta’lim muassasalarida samarali amalga oshirish uchun muassasa ichida va tashqarisida jamoatchilik va ota–onalar bilan yaqindan hamkorlik qilish lozim. Ota–onalar sportga qiziqishni qo‘llab–quvvatlaganida, bolalar faoliyatga ko‘proq motivatsiyaga ega bo‘ladi. Ta’lim muassasalari esa ota–onalarni sportning tarbiyaviy ahamiyati haqida muntazam xabardor qilib borishi zarur.

Zamonaviy pedagogika sport o‘yinlarida individual va guruhdagi farqlarni inobatga olgan holda moslashuvchan yondashuvni tavsiya etadi. Har bir o‘quvchining qobiliyati, jismoniy imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish orqali mashg‘ulotlarni tashkil etish ularning motivatsiyasini oshiradi va jarayonni samarali qiladi. Shu bois, pedagoglar o‘yinlarni rejalashtirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va sog‘lik holatini hisobga olishi zarur.

Ta’lim muassasalarida sport o‘yinlarini samarali tashkil etish uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, video–tahlil, interaktiv ilovalar va raqamli qurilmalar yordamida o‘quvchilarning harakatini kuzatish va ularni rag‘batlantirish mumkin.Bu usullar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi va o‘qituvchilarga samarali nazorat imkonini beradi.

Shuningdek, sport o‘yinlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishishda ota–onalar va jamoatchilik bilan doimiy muloqot va hamkorlik o‘rnatish zarur.Ota–onalarning farzandlarining sport bilan shug‘ullanishiga bo‘lgan munosabati, ularni qo‘llab–quvvatlashi va motivatsiyasi o‘quvchilarning faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktab va oilaning yaqin hamkorligi o‘quvchilarni sportga jalb qilishda va ularning tarbiyaviy ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim dasturlarida sport faoliyati bilan bir qatorda intellektual va ma’naviy tarbiya ham birlashtirilmoqda. Pedagoglar o‘yin jarayonida o‘quvchilarni rahbarlik qilish, qaror qabul qilish, o‘z hissalarini jamoadagi muvaffaqiyatga qo‘shish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratmoqdalar. Shu bilan birga, sport o‘yinlari yoshlarning raqobatbardoshligini oshirishda, sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilishda samarali vosita sifatida qabul qilinmoqda.

Sport o‘yinlari ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarni jamoada ishlashga, bir–birini tushunishga va hurmat qilishga o‘rgatadi.Sport orqali bolalar sabr–toqatli bo‘lishni, g‘alaba uchun kurashishni, shuningdek, mag‘lubiyatni ham qabul qilishni o‘rganadilar. Bularning barchasi ularning shaxsiyati va xulq–atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishga yordam beradi.

Shuningdek, sport o‘yinlari bolalarni faol harakatga undaydi, bu esa ularning sog‘lig‘ini yaxshilashda muhimdir. O‘yinlarda qatnashish orqali o‘quvchilar o‘zaro do‘stona munosabatlarni rivojlantiradi, bu esa sinfdagi ijtimoiy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.Pedagoglar esa o‘yinlarni tashkil qilishda har bir o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olib, ularni rag‘batlantirishga e’tibor qaratishi lozim.

Umuman olganda, ta’lim muassasalarida sport o‘yinlarining tarbiyaviy salohiyatini to‘liq ochish uchun pedagoglarning doimiy malaka oshirishlari, yangi metod va texnologiyalarni joriy etishlari va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan yondashuvni qo‘llashlari zarur. Bu esa nafaqat ularning sog‘lom rivojlanishiga, balki jamiyatga mos, faol va mas’uliyatli shaxslar sifatida yetishishiga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarida sport o‘yinlarini samarali tashkil etish uchun pedagogik yondashuvlar va usullarni doimiy takomillashtirish zarur. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar, o‘yinlarga motivatsiyani oshiruvchi baholash tizimlari, hamda o‘qituvchilar va murabbiylarning individual yondashuvi muvaffaqiyat kalitidir. Shu bilan birga, sport o‘yinlarini tashkillashtirishda maktab jamoasi, ota–onalar va mahalla bilan hamkorlik qilish muhim hisoblanadi, bu esa tarbiyaviy jarayonni yanada samarali qiladi.

Xulosa.Ta’lim muassasalarida sport o‘yinlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Sport o‘yinlari nafaqat jismoniy rivojlanish, balki o‘quvchilarda ijtimoiy va ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Samarali pedagogik usullar va muvofiqlashtirilgan jamoaviy faoliyat orqali ta’lim jarayonida sport o‘yinlarining tarbiyaviy salohiyatini oshirish mumkin. Shuningdek, sport o‘yinlarini tashkil etishda individual yondashuv va o‘quvchilarni rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish ta’lim sifatini yanada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, M.Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. –Toshkent: Fan, 2020.
2. Karimova, S.Sport o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati va metodikasi. – Samarqand: Ma’naviyat.2019.
3. Rasulov, T. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va sport. – Toshkent: Ilm, 2021.
4. Hamidov, J.Jismoniy tarbiya darslarida interaktiv metodlar. –Toshkent: Ta’lim nashri, 2018.

Qarshiboy SATTAROV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi
sattarovkarshibay@gmail.com

ATLETIKA MASHG‘ULOTLARIDA PEDAGOGIKANING ROLI VA O‘QUVCHILARNI MOTIVATSIYA QILISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada atletika mashg‘ulotlarida pedagogikaning ahamiyati va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida jismoniy tarbiya jarayonida motivatsiyani oshirish metodlari ko‘rib chiqilib, o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantirishda sportning o‘rni va samaradorligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: atletika, pedagogika, motivatsiya, jismoniy tarbiya, o‘quvchilar, mashg‘ulotlar, pedagogik usullar

Annotation: this article analyzes the importance of pedagogy in athletics training and methods for increasing student motivation. Based on modern pedagogical approaches, methods for increasing motivation in the process of physical education are considered, and the role and effectiveness of sports in stimulating the active participation of students are emphasized.

Key words: athletics, pedagogy, motivation, physical education, students, training, pedagogical methods

Аннотация: в данной статье анализируется значение педагогики в занятиях по легкой атлетике и методы повышения мотивации учащихся. На основе современных педагогических подходов рассматриваются методы повышения мотивации в процессе физического воспитания, подчеркивается роль и эффективность спорта в стимулировании активного участия учащихся.

Ключевые слова: атлетика, педагогика, мотивация, физическое воспитание, учащиеся, тренировки, педагогические методы

Kirish. Atletika mashg‘ulotlari zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.Biroq, faqatgina texnik mahoratni oshirish yetarli emas, balki pedagogikaning samarali yondashuvlari yordamida o‘quvchilarda doimiy motivatsiya hosil qilish lozim.Motivatsiya esa mashg‘ulotlarga qiziqishni uyg‘otib, ularni muntazam ravishda sport bilan shug‘ullanishga undaydi. Ushbu maqolada atletika mashg‘ulotlarida pedagogikaning roli va o‘quvchilarning faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan zamonaviy usullar tahlil qilinadi.

Atletika – bu sportning eng qadimiy va asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda chidamlilik, tezlik, kuch, texnika va intizom kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.Pedagogika esa ushbu jarayonda o‘quvchilarni nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham qo‘llab–quvvatlaydi.Mashg‘ulotlarda motivatsiyani oshirish uchun turli pedagogik usullar qo‘llaniladi, masalan, maqsadlarni aniq belgilash, o‘zaro raqobatni rag‘batlantirish, ijobiy baholash tizimini joriy etish va individual yondashuv.

Motivatsiyani shakllantirishda ijtimoiy–madaniy muhit ham katta rol o‘ynaydi. Jamoaviy sport tadbirlari, musobaqalar, va o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish ularning faolligini oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘zining shaxsiy namunasi, mehribonligi va pedagogik mahorati bilan o‘quvchilarga yaxshi ta’sir ko‘rsatishi muhim.

Zamonaviy pedagogika metodlari sifatida multimedia vositalari, interaktiv o‘yinlar va tashqi resurslardan foydalanish mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli qiladi. Bu esa o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilib, mashg‘ulotlarga motivatsiyani mustahkamlaydi.

Shuningdek, o‘quvchilarning yutuqlarini muntazam ravishda e’tirof etish va rag‘batlantirish, ularni ijobiy ruhda rag‘batlantirish natijalarini oshiradi. Ota–onalar va jamiyatning hamkorligi pedagogik jarayonni yanada samarali qiladi.

Atletika mashg‘ulotlarida pedagogikaning roli nafaqat jismoniy ko‘nikmalarni shakllantirishda, balki o‘quvchilarda o‘zini boshqarish, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan individual suhbatlar olib borib, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlab, o‘quv jarayonini shunga moslashtirishi kerak.Bu esa o‘quvchilarning o‘z–o‘zini anglash darajasini oshiradi va o‘z maqsadlariga intilishiga yordam beradi.

Pedagogik yondashuvlar sifatida o‘yin usullari, ijobiy rag‘batlantirish, shuningdek, o‘quvchilarni o‘zaro guruh va jamoa ishlari orqali bir–birini qo‘llab–quvvatlashga o‘rgatish muhimdir. Bu usullar nafaqat ularning jismoniy faolligini oshiradi, balki ijtimoiy ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Atletika o‘quvchilarni nafaqat jismonan rivojlantirish, balki ularning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi.Pedagogika esa bu jarayonni boshqarish va samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni beradi. Pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari,

qiziqishlari va individual imkoniyatlari hisobga olinadi. Bu esa ularning sport mashg‘ulotlariga qiziqishini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Motivatsiyani shakllantirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarning yutuqlarini muntazam ravishda qadrlashi, rag‘batlantirish tizimini joriy qilishi kerak. Rag‘batlantirish faqat mukofotlash yoki baholash bilan cheklanmasdan, ijobiy fikrlar aytish, ishtirokchilarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab–quvvatlash, ularning qobiliyatlarini ochib berishga qaratilgan turli metodlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirib, mashg‘ulotlarda faol qatnashishiga yordam beradi.

Pedagogik jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosiy o‘rin tutadi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlari borligini inobatga olib, mashg‘ulotlarni individual tarzda tashkil etish zarur. Masalan, tezkor va chidamli o‘quvchilar uchun murakkabroq vazifalar berish, yangi boshlovchilarni esa bosqichma–bosqich o‘rgatish kerak.

Innovatsion texnologiyalar va interaktiv usullar ham atletika mashg‘ulotlarida motivatsiyani oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Videokuzatuvlar yordamida o‘quvchilar o‘z harakatlarini tahlil qilishlari, muvaffaqiyatlarini ko‘rishlari mumkin. Bu esa ularning o‘z–o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, pedagogik yondashuvda o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab–quvvatlashga e’tibor qaratiladi. Jamoaviy ishlar, guruh bo‘lib bajariladigan vazifalar o‘quvchilarda hamkorlik va hamjihatlik ruhini oshiradi. Bu esa sport mashg‘ulotlarini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Shuningdek, ota–onalar va maktab jamoasi bilan doimiy muloqot o‘quvchilarning sportga bo‘lgan motivatsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ota–onalarning rag‘batlari, maktabdagi sport tadbirlari o‘quvchilarning o‘zini sportda sinashga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

Psixologik tayyorgarlik pedagogikaning muhim qismidir.Mashg‘ulotlarda stressni boshqarish, ruhiy chidamlilikni oshirish uchun nafas olish texnikalari, konsentratsiya mashqlari qo‘llaniladi.Bu o‘quvchilarning umumiy sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Shuningdek, sport pedagogikasida psixologik tayyorgarlik va stressni boshqarish metodlari ham qo‘llanilishi zarur. Atletika mashg‘ulotlarida raqobat muhitining mavjudligi o‘quvchilarda ruhiy chidamlilik va qat’iyatlilikni oshiradi. Bu sifatlar faqat sportda emas, balki hayotning boshqa jabhalarida ham foydalidir.

Atletika mashg‘ulotlarida pedagogikaning muhim jihatlaridan biri — o‘quvchilarda o‘z–o‘zini boshqarish va o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarni shakllantirishdir.Pedagogik jarayon shunday tashkil etilishi kerakki, har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olsin. Buning uchun o‘qituvchi nafaqat texnik va taktika ko‘nikmalarini o‘rgatishi, balki o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini uyg‘otish uchun doimiy ruhiy yordam ko‘rsatishi lozim. Bu ruhiy yordam o‘z navbatida o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi, ular sport bilan shug‘ullanishda qat’iylik va izchillikni namoyon etadilar.

Motivatsiyani oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosiy ahamiyatga ega.Har bir o‘quvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, shuning uchun mashg‘ulotlar individual tarzda moslashtirilishi lozim.Bu esa o‘quvchilarga o‘zlarining muvaffaqiyatlarini his qilish imkonini beradi, ular o‘zlarini qadrlashni boshlaydi va natijada sportga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. O‘qituvchi tomonidan har bir o‘quvchining natijalari va yutuqlari e’tirof etilib, rag‘batlantirilishi zarur.

Jamoaviy ruhni rivojlantirish ham atletika mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda muhim omildir.Jamoa ishlari, musobaqalar va guruhdagi o‘zaro yordam orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshiradilar, balki bir–birlariga ishonch va hurmatni ham rivojlantiradilar. Bu ijtimoiy ko‘nikmalar ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishida katta yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogika metodlari mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.Masalan, interaktiv darslar, video tahlillar, raqamli monitoring tizimlari o‘quvchilarning o‘z yutuqlarini ko‘rishlari va ularni baholashlari uchun qulaylik yaratadi.Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishga undaydi.

Xulosa. Atletika mashg‘ulotlarida pedagogikaning roli juda katta bo‘lib, u o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida samarali ta’sir ko‘rsatadi. Motivatsiya usullarining to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘quvchilarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni muntazam mashg‘ulotlarga jalb qiladi. Shu bois, pedagogik yondashuvlarni doimiy takomillashtirish va innovatsion metodlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev S. M., Islomov, N. R.Jismoniy tarbiya pedagogikasi asoslari. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.
2. Karimov, D. T.Sport va jismoniy tarbiya metodikasi. –Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019.
3. Rahimov, A. A.Pedagogik motivatsiya va uning jismoniy tarbiya jarayonidagi o‘rni. Ilmiy tahlil jurnal, 2021.3(2), 45–53.
4. Sadikov, F. J.Innovatsion pedagogik texnologiyalar sport ta’limida. –Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018.
5. Smirnov, I. P.Motivation in Physical Education. Moscow: Physical Culture Publishing.2017.

Muzaffar MURATOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o‘qituvchisi

VOLEYBOL O‘YINI ORQALI O‘QUVCHILARDA JISMONIY FAOLLIK VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada voleybol o‘yini orqali maktab o‘quvchilarida jismoniy faollikni oshirish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Voleybol o‘quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan birga, jamoaviylik, muloqot qilish, yetakchilik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar va voleybolning ta’limdagi o‘rni o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Voleybol, jismoniy faollik, ijtimoiy kompetensiyalar, pedagogika, jamoaviylik, maktab ta’limi

Annotation: This article analyzes the pedagogical foundations of increasing physical activity and developing social competencies in schoolchildren through volleyball. Volleyball, along with strengthening the physical health of students, serves the formation of such social skills as teamwork, communication, and leadership. The article examines modern pedagogical approaches and the role of volleyball in education.

Key words: Volleyball, physical activity, social competencies, pedagogy, teamwork, school education

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы повышения физической активности и развития социальных компетенций у школьников посредством волейбола. Волейбол, наряду с укреплением физического здоровья учащихся, служит формированию таких социальных навыков, как коллективизм, общение, лидерство. В статье рассматриваются современные педагогические подходы и роль волейбола в образовании.

Ключевые слова: Волейбол, физическая активность, социальные компетенции, педагогика, коллективизм, школьное образование

Kirish. Jismoniy tarbiya maktab ta’limining muhim qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning sog‘lom va faol turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Voleybol o‘yini esa nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladigan samarali vosita hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolalar voleybol orqali nafaqat harakat ko‘nikmalarini oshiradilar, balki guruh ichida o‘zaro munosabatlarni boshqarish, bir–birini qo‘llab–quvvatlash va o‘z fikrini ifodalash qobiliyatlarini ham egallaydilar.

Voleybol jismoniy tarbiya fanida keng qo‘llaniladigan sport turlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning umumiy jismoniy faolligini oshirish, kuch, tezlik, chidamlilik va koordinatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq voleybol o‘yinining ta’limdagi o‘rni shunchalik keng qamrovli va multidimenzionalki, u faqatgina jismoniy rivojlanishga emas, balki ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Jamoaviy sport turi sifatida voleybol o‘quvchilarda hamkorlik va o‘zaro yordam ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir o‘yinchi o‘z vazifasini bilishi, jamoa a’zolari bilan doimiy muloqotda bo‘lishi zarur. Bu jarayon o‘quvchilarning muloqot qobiliyatlarini oshiradi, yetakchilik va mas’uliyat hissini shakllantiradi. Shu bilan birga, voleybol o‘yinidagi tezkor qaror qabul qilish va stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish qobiliyatlari maktab va hayotdagi boshqa sohalarda ham muhim ahamiyatga ega.[3: 66–69]

Pedagogik amaliyotda voleybol o‘yinlarini o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun interaktiv metodlar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish muhimdir. Masalan, guruh ishlari, o‘zaro baholash, muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilar o‘zaro ta’sirda bo‘lib, nafaqat jismoniy ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy kompetensiyalarini ham oshiradilar. Bu esa ularning jamoada ishlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Voleybol o‘yini orqali shakllanadigan ko‘nikmalarning pedagogik jihatdan ahamiyatli tomoni shundaki, u o‘quvchilarni o‘zini baholash, o‘zaro hurmat, va mehnatsevarlik tamoyillariga asoslangan muhitda tarbiyalaydi. Har bir o‘yinchi jamoaning muhim a’zosi sifatida o‘z roli va vazifasini anglaydi, bu esa mas’uliyat hissining ortishiga olib keladi. Jamoaviy muvaffaqiyat individual intilishlar orqali amalga oshishini anglash esa ijtimoiy barqarorlik va o‘zaro ishonchni shakllantiradi.

Mashg‘ulotlar davomida yuzaga keladigan turli o‘yin holatlari — masalan, to‘pni to‘g‘ri uzatish, pozitsiyani almashtirish yoki raqib hujumiga qarshi jamoaviy reaksiya berish — o‘quvchilarning tez fikrlash, muvofiqlashtirish va o‘z harakatini boshqalar bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Bu ko‘nikmalar kundalik hayotdagi ijtimoiy muloqot, guruhda ishlash, muammoni birgalikda hal qilish kabi faoliyatlarda ham o‘z aksini topadi.

Voleybolning yana bir ijobiy pedagogik jihati — harakatlar orqali axloqiy qadriyatlarni singdirish imkonidir. Raqibga nisbatan hurmat, o‘yinni qoidalarga muvofiq olib borish, hakam qarorlarini qabul qilish — bularning barchasi o‘quvchilarda adolat, halollik va sabr–toqat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu fazilatlar

esa nafaqat sportda, balki ta’lim jarayonida va jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishning asosiy shartlaridan biridir.

Zamonaviy yondashuvlarda voleybol mashg‘ulotlari faqat harakatlar majmui sifatida emas, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi vosita sifatida qaralmoqda. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar o‘z fikrini ochiq ifodalash, boshqa o‘yinchilarning fikrini eshitish va tanqidiy fikrlarni to‘g‘ri qabul qilishni o‘rganadilar. Ushbu elementlar zamonaviy ijtimoiy kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.[17: 10–12]

Shu bilan birga, voleybolda natijaga erishish ko‘pincha hamkorlik, jamoada muvozanat va boshqalarning imkoniyatlarini inobatga olish orqali amalga oshadi. Bu o‘quvchilarga nafaqat “men” emas, “biz” tamoyili asosida fikrlashni, o‘z manfaatlarini guruh manfaati bilan uyg‘unlashtirishni o‘rgatadi. Natijada ular ijtimoiy jihatdan faol, fikrlovchi, mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanadilar.

Voleybol o‘yini orqali o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri bu sportning o‘ziga xos dinamik va interaktiv tabiatidir. Dars jarayonida har bir ishtirokchi doimiy harakatda bo‘ladi, bu esa jismoniy faollikni oshirish bilan birga, emotsional barqarorlik va e’tibor markazini mustahkamlashga yordam beradi. Ayniqsa, zamonaviy yoshlar o‘rtasida passiv hayot tarzining kuchayib borayotgani fonida, voleybol o‘yinlari ularni faol harakatga jalb qilishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, voleybol o‘yinida o‘quvchilarning jamoada o‘z o‘rnini anglash, o‘z harakatini boshqa ishtirokchilar bilan uyg‘unlashtirish, muammoli vaziyatlarda tez va ijobiy reaksiya ko‘rsatish, shuningdek, o‘zaro til topishish kabi kompetensiyalari rivojlanadi. Bu ko‘nikmalar esa keyinchalik ta’lim, mehnat va ijtimoiy hayotda samarali faoliyat yuritish uchun muhim asos bo‘ladi.

Shuningdek, voleybol orqali rivojlanadigan ijtimoiy hissiyotlar — masalan, hamdardlik, empatiya, o‘zaro dalda berish va ijobiy raqobat muhiti — bolalarda ijtimoiy ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu hissiyotlar o‘quvchilarning maktabdagi boshqa fanlarga bo‘lgan munosabatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ular o‘zlarini faollik bilan namoyon qilishga, ishtirok etishga va tashabbus ko‘rsatishga intiladi. [11: 106–108]

Yana bir muhim jihat — voleybol darslarida o‘qituvchi bilan o‘quvchi, hamda o‘quvchilar o‘zaro munosabatlari tenglik, ishonch va hurmat asosida shakllanadi. O‘qituvchi faqat nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, ilhomlantiruvchi va psixologik qo‘llab–quvvatlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilar o‘zini qadrlangan, tushunilgan his qilishiga, dars jarayoniga ijobiy munosabat bildirishiga olib keladi.

Maktab muhitida voleybol o‘yinlari pedagogik jarayon bilan uzviy bog‘langan holda olib borilganda, o‘quvchilarning jismoniy faolligi bilan birga, ularning o‘z–o‘zini anglashi, jamoaga qo‘shilishi va muloqot madaniyati shakllanishi yanada samarali kechadi. Bu esa umumiy o‘quv motivatsiyasini ham oshiradi, chunki o‘quvchi o‘zining maktabdagi roli va ahamiyatini chuqurroq his etadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy faollik va ijtimoiy kompetensiyalar birgalikda rivojlanganida o‘quvchilarning umumiy salomatligi va ijtimoiy moslashuvchanligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu bois, voleybol kabi sport turlarini maktab dasturiga kiritish yoshlarning barkamol shaxs sifatida yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Voleybol o‘yini maktab o‘quvchilarining jismoniy faolligini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Jamoaviylik, muloqot qilish, mas’uliyatni anglash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish orqali voleybol o‘quvchilarni jamiyatga moslashuvchan, sog‘lom va faol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Pedagogik jarayonda voleybol o‘yinlaridan foydalanish yoshlar tarbiyasini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМАНДНЫХ СПОРТОВ И СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТАИЗ Нормаҳматов https://academicsresearch.ru/public/journals/17/cover_issue_133_en_US.jpg 2 …, 2024

2.I MPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN PRIMARY CLASS CHILDREN NI Zainiddinovich International Journal of Formal 3 (3), 66–69., 2024

3. THE IMPORTANCE OF THE ROLE OF SPORTS AND GAMES IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION NI Zayniddinovich Genius Journals Publishing Group, 17 (ISSN: 2795–7365), 10–12, 2023

4.THE IMPORTANCE OF THE ROLE OF SPORTS AND GAMES IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION NI Zayniddinovich

https://www.geniusjournals.org/index.php/erb, Genius Journals Publishing Group, 17 (ISSN: 2795–7365), 10–12, 2023

5. Basic Football ElementsTerms and Conditions andCluster–Based Training of Tasks NI Zayniddinovich ProcediaofPhilosophicalandPedagogicalSciences 2 (Issue –11), 106–108, 2023

Shuhrat AXMEDJANOV,
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi
Ahmerzanovsuhrat84@gmail.com

TENNIS MASHG‘ULOTLARIDA PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY METODLARI VA O‘QUVCHILARNING FAOLLIGI

Annotatsiya:ushbu maqolada tennis mashg‘ulotlarida pedagogikaning zamonaviy metodlari va ularning o‘quvchilarning faolligini oshirishdagi roli o‘rganiladi. Tennis sportining o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik yondashuvlar va innovatsion usullar yordamida o‘quvchilarni jismonan hamda ma’nan rag‘batlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada mashg‘ulotlarda interaktiv metodlar, individual va guruhli ishlash shakllari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilishi natijalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tennis, pedagogika, zamonaviy metodlar, o‘quvchilarning faolligi, innovatsion yondashuvlar, sport tarbiyasi

Annotation: this article examines modern pedagogical methods in tennis training and their role in increasing student engagement. The specifics of tennis, the possibilities of physical and spiritual stimulation of students using pedagogical approaches and innovative methods are analyzed. The article examines the results of the use of interactive methods, forms of individual and group work, as well as modern technologies in classes.

Key words: tennis, pedagogy, modern methods, student activity, innovative approaches, sports education

Аннотация: в данной статье рассматриваются современные методы педагогики на занятиях по теннису и их роль в повышении активности учащихся. Проанализированы особенности теннисного спорта, возможности физического и духовного стимулирования учащихся с помощью педагогических подходов и инновационных методов. В статье рассматриваются результаты применения на занятиях интерактивных методов, форм индивидуальной и групповой работы, а также современных технологий.

Ключевые слова: теннис, педагогика, современные методы, активность учащихся, инновационные подходы, спортивное образование

Kirish. Tennis – bu nafaqat jismoniy chidamlilik va texnikani talab qiluvchi sport turi, balki o‘quvchilarni ijtimoiy ko‘nikmalar, strategik fikrlash va o‘zaro muloqotda rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Hozirgi ta’lim tizimida sport mashg‘ulotlari, xususan tennis, faollik va motivatsiyani oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Zamonaviy pedagogika metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ular orasida hamjihatlik va sog‘lom raqobatni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois tennis mashg‘ulotlarida innovatsion metodlarni qo‘llash, o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb qilish ta’lim sifatini oshirishda katta o‘rin tutadi.Bu jarayonda nafaqat texnik mashqlar, balki o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan pedagogik yondashuvlar ham muhimdir.

Tennis mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik metodlardan biri interaktiv o‘qitishdir.Ushbu yondashuvda o‘quvchilar faqat nazorat ostida emas, balki faol qatnashchi sifatida mashg‘ulot jarayoniga jalb qilinadi. O‘yin vaziyatlari, mini–turnirlar va jamoaviy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning raqobatbardoshligi va ijtimoiy faolligi oshadi. Shuningdek, videoanaliz va texnologik vositalar yordamida texnik xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyati yuzaga keladi, bu esa o‘quvchilarning ko‘nikmalarini yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi. Individual yondashuv esa har bir o‘quvchining o‘ziga xos kamchiliklari va kuchli tomonlarini inobatga oladi, shu bilan mashg‘ulotlarni samaraliroq qiladi.

Tennis mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun doimiy ravishda o‘yin usullarini o‘zgartirib borish muhimdir.Raqobatga asoslangan kichik o‘yinlar, jamoaviy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqishini saqlab qoladi va ularni mashg‘ulotlarga faol jalb qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning individual yutuqlarini ta’kidlash va rag‘batlantirish ularning motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.Bu esa tennis mashg‘ulotlarini yanada samarali qiladi va o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga undaydi.

Tennis mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning psixologik holatini hisobga olish pedagogikaning muhim jihatlaridan biridir.Zamonaviy metodlar psixologik qo‘llab–quvvatlashga katta e’tibor beradi, chunki o‘quvchilarning ruhiy holati ularning mashg‘ulotlarga bo‘lgan munosabati va faolligiga bevosita ta’sir qiladi. Motivatsiyani oshirish uchun murabbiylar individual yondashuv usullarini qo‘llab, har bir o‘quvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olishlari zarur. Bu esa o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi va mashg‘ulotlarga bo‘lgan intilishni oshiradi.

Shuningdek, o‘quv jarayonida yaratilgan ijobiy pedagogik muhit o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tennis mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar hamjihatlik, o‘zaro yordam va muloqot qilish qobiliyatlarini oshiradilar. Bu o‘z navbatida

ularning sportga va umuman ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlaydi.

Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ham mashg‘ulotlar sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, virtual haqiqat (VR) texnologiyalari yordamida o‘quvchilar o‘yin vaziyatlarini takroran ko‘rib chiqishlari va o‘z harakatlarini takomillashtirishlari mumkin.Bu usullar pedagoglarga o‘quvchilar bilan individual ishlash imkonini kengaytiradi va mashg‘ulotlarni yanada interaktiv qiladi.

Yana bir muhim jihat – o‘quvchilarning o‘z–o‘zini boshqarish va mas’uliyatni rivojlantirishidir.Zamonaviy pedagogika o‘quvchilarga mustaqil mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishni o‘rgatadi, bu esa ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilarni maqsadlar qo‘yishga, o‘z natijalarini baholashga va o‘z–o‘zini rag‘batlantirishga o‘rgatish pedagogik jarayonning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Shu bois, tennis mashg‘ulotlarida pedagogikaning zamonaviy metodlarini qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar o‘quvchilarning o‘yin ko‘nikmalarini takomillashtirish, ruhiy holatini qo‘llab–quvvatlash va ularni yanada faol sport hayotiga jalb qilishga xizmat qiladi.

Tennis mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning faolligini oshirishda loyiha asosida ta’lim metodlari ham katta ahamiyatga ega.Bu metodda o‘quvchilar o‘zlari uchun kichik maqsadlar qo‘yib, ularni amalga oshirish yo‘lida mustaqil harakat qilishadi, bu esa mustaqillik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. O‘yin vaziyatlarida taktika va strategiyani mustaqil ishlab chiqish o‘quvchilarning aqliy faolligini rag‘batlantiradi, shu bilan birga sportga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Zamonaviy pedagogik metodlar orasida gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) usuli ham tennis mashg‘ulotlarida qo‘llanmoqda.Bu yondashuvda mashg‘ulotlar qiziqarli o‘yinlar shaklida tashkil etiladi, o‘quvchilar raqobat muhitida o‘z mahoratini oshirishga intiladi. Natijada, ular mashg‘ulotga yanada faol va ijobiy munosabatda bo‘lishadi, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, pedagogik nazorat tizimi zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirilmoqda.Masalan, sportchilarning yurish–yo‘lini kuzatish uchun maxsus sensorli qurilmalar, harakatlarni videoanaliz qilish uchun ilg‘or dasturlar keng qo‘llaniladi. Bu vositalar o‘quvchilarning texnik kamchiliklarini aniqlash va to‘g‘rilashda yordam beradi, shu bilan birga ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

O‘quvchilarning faolligini oshirishda murabbiy va pedagoglarning pedagogik muloqoti ham muhim ahamiyatga ega. Doimiy feedback (fikr–mulohaza) berish, muvaffaqiyatlarni tan olish va ijobiy rag‘batlantirish o‘quvchilarning o‘zgarishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, jamoaviy muhitni mustahkamlash orqali o‘quvchilar o‘zaro yordam ko‘rsatish va raqobatda sog‘lom ruhni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Yuqorida ta’kidlangan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tennis mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi va ularni yanada faol, mas’uliyatli va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

Pedagoglarning rollari faollashgan sari, o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi.Ularni rag‘batlantirish uchun maqsadli vazifalar berish, o‘yin davomida yuzaga keladigan vaziyatlarni muhokama qilish va muvaffaqiyatlarini muntazam e’tirof etish muhimdir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, sportga bo‘lgan qiziqishini doimiy ravishda uyg‘otishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish, o‘zaro hurmat va jamoaviy ruhni oshirish ham pedagogikaning asosiy vazifalaridan biridir.

Xulosa. Tennis mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshiradi.Interaktiv usullar, individual yondashuv va texnologik vositalar o‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb qilishda samarali vositalardir. Bu esa nafaqat jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki ularning tarbiyaviy va ijtimoiy jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi. Kelajakda pedagoglarning malakasini oshirish va yangi metodlarni joriy etish tennis mashg‘ulotlarining sifatini yanada yaxshilash imkonini beradi. Shu bois, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni doimiy takomillashtirish va qo‘llash sport ta’limida ustuvor vazifa bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov, M.Sport pedagogikasi asoslari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Karimova, S. Zamonaviy sport metodikalari. –Toshkent: O‘zbekiston Sport nashriyoti, 2022.
3. Smith, J. (2019).Innovative Teaching Methods in Sports. London: Routledge.
4. Johnson, L., & Miller, K. (2020).Enhancing Student Engagement through Technology in Sports Training. Journal of Physical Education, 12(3), 45–59.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.Sport ta’limi strategiyasi. –Toshkent, 2023.

Iroda JUMANOVA,
Sport kafedrasi o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA TENNIS O‘YINLARI YORDAMIDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH METODLARI

Annotatsiya:ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida tennis o‘yinlari orqali o‘quvchilarda motivatsiyani oshirishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Tennisning o‘quvchilar faoliyatidagi o‘rni, ularning jismoniy va ruhiy faolligini rag‘batlantirishdagi pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida tennis mashg‘ulotlarida motivatsiya yaratish usullari va ularning natijalari asosida olingan xulosalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, tennis, motivatsiya, pedagogika, o‘quvchilar, ta’lim metodlari

Annotation: this article analyzes effective methods for increasing student motivation through tennis games in the field of physical education and sports. The role of tennis in the activities of students, pedagogical approaches to stimulating their physical and mental activity are considered. In the modern educational process, methods of creating motivation in tennis training and conclusions based on their results are presented.

Key words: physical education, sports, tennis, motivation, pedagogy, students, teaching methods

Аннотация: в данной статье анализируются эффективные методы повышения мотивации учащихся посредством теннисных игр в области физической культуры и спорта. Рассматривается роль тенниса в деятельности учащихся, педагогические подходы к стимулированию их физической и психической активности. Представлены методы создания мотивации на занятиях по теннису в современном образовательном процессе и выводы, полученные на основе их результатов.

Ключевые слова: физкультура, спорт, теннис, мотивация, педагогика, учащиеся, методы обучения

Kirish: Jismoniy tarbiya va sport ta’lim jarayonining muhim qismi sifatida o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish bilan birga, ularning motivatsiyasini shakllantirishga ham qaratilgan.Tennis o‘yinlari bu borada samarali vosita hisoblanadi, chunki u nafaqat jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning diqqatini jamlash, sabr–toqat va raqobatbardoshlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini ham oshiradi.Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar tennis mashg‘ulotlarini motivatsiyani oshirishda qo‘llashning turli usullarini o‘rganmoqda, bu esa o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Tennis o‘yinlari o‘quvchilarda motivatsiyani oshirishda ko‘plab pedagogik metodlarni qo‘llash imkonini beradi.Avvalo, o‘quvchilarni rag‘batlantirish uchun individual yondashuv juda muhimdir. Har bir o‘quvchining jismoniy imkoniyatlari, qiziqishlari va o‘quv darajasi hisobga olinib, mashg‘ulotlar shaxsiylashtirilgan bo‘lishi kerak. Bu esa o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va faol ishtirokini ta’minlaydi.

Shuningdek, jamoaviy o‘yinlar va musobaqalar o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobatni kuchaytiradi.Bu jarayonda murabbiylar ijobiy baholash usullarini qo‘llab, har bir yutuqni e’tirof etish orqali o‘quvchilarning o‘zini namoyon qilish istagini rag‘batlantiradi.Musobaqalar o‘quvchilarni o‘z maqsadlariga erishishga intilishga undaydi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

Tennis mashg‘ulotlarida zamonaviy texnologiyalar va o‘yin elementlarini joriy etish ham katta ahamiyatga ega.Masalan, video tahlil yordamida o‘quvchilarga o‘z harakatlarini ko‘rsatish va xatolarni aniqlash, interaktiv o‘yinlar orqali mashg‘ulotlarni qiziqarli qilish mumkin. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini yanada oshiradi.Tennis o‘yinlari o‘quvchilarda motivatsiyani oshirishda pedagogikaning turli metodlari qo‘llaniladi.Ulardan biri — maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tashkil etishdir. Har bir mashg‘ulotda o‘quvchilarga aniq va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlar qo‘yiladi, bu esa ularni faollikka undaydi va mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Maqsadlarni kichik bosqichlarga bo‘lish, o‘quvchilarga muvaffaqiyatlarni his qilish imkonini beradi, bu esa motivatsiya jarayonini kuchaytiradi.

Shuningdek, o‘quvchilar bilan interaktiv muloqot va fikr almashish muhim ahamiyatga ega.Murabbiylar mashg‘ulot davomida o‘quvchilarning fikrlarini eshitib, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olib, mashg‘ulotlarni moslashtirishi kerak.Bu pedagogik yondashuv o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, o‘zini hurmat qilish va o‘z–o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Motivatsiyani oshirishda murabbiyning ijobiy baholash usullari katta rol o‘ynaydi.O‘quvchilarning yutuqlarini rag‘batlantirish, kichik g‘alabalarni ham e’tirof etish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va yangi cho‘qqilarni zabt etishga undaydi. Shu bilan birga, qiyinchiliklarni yengishda sabr–toqat va qat’iyatlilikni tarbiyalash pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish tennis mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, videotasvirlar orqali texnik xatolarni ko‘rsatish, o‘quvchilarning harakatlarini tahlil qilish, interaktiv o‘yinlar yordamida mashg‘ulotlarni diversifikatsiya qilish mumkin.Bular o‘quvchilarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantiradi va motivatsiyani oshiradi.

Tennis mashg‘ulotlarida guruh va jamoaviy faoliyatni rivojlantirish ham motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Jamoaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik, ishonch va hurmat tuyg‘ularini kuchaytiradilar. Bu esa ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va jismoniy tarbiya jarayonini yanada qiziqarli qilishga yordam beradi.

Shuningdek, murabbiylarning pedagogik mahorati va ta’lim uslublari o‘quvchilarning motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Murabbiy o‘z ishida yaratuvchanlik va individual yondashuvni qo‘llab, har bir o‘quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashgan darslarni tashkil etishi zarur. Bu esa o‘quvchilarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini va qatnashuvini oshiradi.

Umuman olganda, tennis o‘yinlari orqali o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish pedagogikaning turli metodlari va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirishni talab qiladi.Bu jarayon o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini ta’minlabgina qolmay, balki ularning ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Pedagogik nazorat va doimiy fikr–mulohaza almashinuvi o‘quvchilarni faoliyatga jalb qilishning muhim usullaridan biridir. Murabbiylar o‘quvchilarning natijalarini muntazam tahlil qilib, ularni yanada yaxshilash yo‘llarini ko‘rsatadi, bu esa o‘quvchilarni yangi marralarga intilishiga yordam beradi.Tennis o‘quvchilarda ijobiy pedagogik muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Mashg‘ulotlarda pedagoglarning o‘quvchilarga bo‘lgan hurmati, samimiy yondashuvi va ular bilan doimiy muloqot olib borishi motivatsiyani oshiradi. Ijobiy muhitda o‘quvchilar o‘zlarini erkin va xavfsiz his qiladilar, bu esa ularning o‘zini namoyon qilishlariga, yangiliklarga intilishlariga yordam beradi.Shu tariqa, murabbiylarning psixologik qo‘llab–quvvatlashi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonda o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish ham juda muhimdir.Har bir o‘quvchi o‘zining jismoniy tayyorgarlik darajasi, texnik ko‘nikmalari va shaxsiy qiziqishlariga ega. Mashg‘ulotlarni shunga mos ravishda tashkil etish ularning mashg‘ulotlarga qiziqishini oshiradi va muvaffaqiyatga erishish ehtimolini ko‘paytiradi.Bu esa o‘z navbatida motivatsiya darajasini yuqoriga ko‘taradi.

Mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning natijalarini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish pedagogik yondashuvni samarali qiladi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z rivojlanish jarayonini kuzatib boradilar, bu esa ularda o‘z–o‘zini baholash va o‘zini takomillashtirish istagini uyg‘otadi. Shu bilan birga, murabbiylarning o‘quvchilarni konstruktiv tanqid qilish va rag‘batlantirish usullari ham o‘quvchilarning intilishlarini kuchaytiradi.

Tennis mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.Masalan, interaktiv ta’lim dasturlari, harakatlarni videotasvirga olish va tahlil qilish tizimlari, onlayn mashg‘ulotlar pedagogik jarayonni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda yangi bilimlarni tez va samarali egallashga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi.

Shuningdek, o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish ham motivatsiyani oshirishda muhim omildir. Turnirlar, musobaqalar, jamoaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘zlarini sinovdan o‘tkazadilar va g‘oliblik uchun kurashadilar. Bu esa ularning o‘z–o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi va jismoniy tarbiya jarayoniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Jismoniy tarbiya va sportning pedagogik jihatlarini hisobga olgan holda, tennis mashg‘ulotlari o‘quvchilarni nafaqat jismonan, balki aqliy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega.Bu jarayon murabbiyning o‘quvchilarga individual yondashuvi, pedagogik mahorati va ilg‘or metodlarni qo‘llashiga bog‘liq.

Umuman olganda, tennis o‘yinlari motivatsiyani oshirish uchun pedagogik imkoniyatlar bilan boy bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash orqali o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini samarali ta’minlash mumkin.

Zamonaviy ma’lumotlarga ko‘ra, tennis o‘yinlarida o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi va raqobat muhiti ularning qiziqishini oshiradi. Shuningdek, murabbiylar tomonidan interaktiv metodlar, individual yondashuv va maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar motivatsiya darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa. Tennis o‘yinlari jismoniy tarbiya va sport ta’limida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.Mashg‘ulotlarda motivatsiyani oshirish uchun individual va jamoaviy yondashuvlarni qo‘llash, interaktiv metodlarni joriy etish muhimdir.Bu usullar o‘quvchilarning faoliyatga qiziqishini kuchaytiradi va ularning jismoniy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov, S. Jismoniy tarbiya pedagogikasi. – Toshkent, 2020.
2. Karimova, N. Tennis va uning ta’limdagi roli. – Samarqand, 2021.
3. Smith, J. Motivation in Sports Education. – New York, 2019.
4. Johnson, R. Pedagogical Approaches in Physical Education. – London, 2022.

Muhammad ZIYATOV
Samarqanda davlat tibbiyot universiteti
ziyatovmuhammad@gmail.com

TIBBIY AXBOROT SAVODXONLIGI: O‘QUVCHILARNI SOG‘LIQ HAQIDA ONGLI QAROR QABUL QILISHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: Maqolada tibbiy axborot savodxonligi tushunchasi, uning o‘quvchilarda sog‘liqni saqlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Maqola pedagogik yondashuvlar orqali sog‘liq haqidagi axborotni tanqidiy qabul qilish va ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratadi. Zamonaviy axborot jamiyatida o‘quvchilarni sog‘liq bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘g‘ri baholashga o‘rgatish zarurati, pedagogik metodlar va amaliy usullar tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida tibbiy axborot savodxonligini oshirishdagi samarali yo‘llar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: tibbiy axborot savodxonligi, sog‘liqni saqlash, pedagogik yondashuvlar, o‘quvchi, sog‘lom turmush tarzi, axborotni tanqidiy qabul qilish, sog‘liq haqida ongli qaror, ma’lumotlarni tahlil qilish

Аннотация: В статье рассматривается понятие медицинской информационной грамотности и ее роль в формировании здоровья и здорового образа жизни у учащихся. Статья фокусируется на развитии навыков критического восприятия информации о здоровье и принятия осознанных решений посредством педагогических подходов. В современном информационном обществе анализируется необходимость обучения учащихся правильной оценке информации, связанной со здоровьем, педагогических методов и практических приемов. На основе научных исследований и практического опыта рекомендуются эффективные пути повышения медицинской информационной грамотности.

Ключевые слова: медицинская информационная грамотность, здравоохранение, педагогические подходы, ученик, здоровый образ жизни, критическое восприятие информации, осознанное решение о здоровье, анализ данных

Annotation: This article explores the concept of medical information literacy and its role in shaping students’ health and healthy lifestyles. The article focuses on developing critical perception of health information and conscious decision–making skills through pedagogical approaches. The necessity of teaching students to correctly assess information related to health in the modern information society, pedagogical methods, and practical methods are analyzed. Effective ways to improve medical information literacy based on scientific research and practical experience are recommended.

Key words: medical information literacy, healthcare, pedagogical approaches, student, healthy lifestyle, critical perception of information, conscious decision about health, data analysis

Kirish. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va internet resurslarining keng tarqalishi sog‘liq haqida ko‘plab ma’lumotlarning osonlik bilan mavjud bo‘lishini ta’minlaydi. Biroq, bu sharoitda sog‘liq bilan bog‘liq noto‘g‘ri yoki asossiz ma’lumotlar ham ko‘payib bormoqda. Shu sababli, o‘quvchilarni tibbiy axborotlarni tanqidiy va ongli tarzda qabul qilishga o‘rgatish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biridir. Tibbiy axborot savodxonligi deganda shaxsning sog‘liqni saqlashga oid axborotni izlash, baholash va uni hayotga tatbiq etish qobiliyati tushuniladi. Bu ko‘nikma yosh avlodda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktika va o‘z–o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida sog‘liqni saqlash tizimlarida axborot savodxonligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) sog‘liq haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarning salomatlikka jiddiy zarar yetkazishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu sababli, o‘quv jarayonida sog‘liq haqidagi ma’lumotlarning ishonchliligini baholash, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni tekshirish, shuningdek, sog‘liqni saqlashning zamonaviy qoidalari bilan tanishtirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Pedagoglar bu yo‘nalishda interfaol metodlar, loyihalar, muhokamalar va amaliy mashg‘ulotlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tibbiy axborot savodxonligini oshirishlari mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga sog‘liqni saqlash bo‘yicha ishonchli manbalarni topish, tibbiy terminlarni tushunish va noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha ko‘nikmalar berish juda muhim. Bu nafaqat ularning sog‘lom hayot tarziga rioya qilishiga yordam beradi, balki ijtimoiy muhitda sog‘liq haqida to‘g‘ri fikr yuritishlariga zamin yaratadi. Pedagogik faoliyatda sog‘liqni saqlash mavzularini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, masalan, elektron ta’lim resurslari va mobil

ilovalar, o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilishda samarali bo‘lmoqda.

Tibbiy axborot savodxonligi nafaqat o‘quvchilarni sog‘liqni saqlashga oid bilimlar bilan ta’minlash, balki ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sog‘likni muhofaza qilish bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati juda katta, chunki pedagoglar o‘quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga, psixologik xususiyatlariga moslab tibbiy ma’lumotlarni tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazishlari lozim.

Zamonaviy axborot jamiyatida o‘quvchilar sog‘liq haqida ko‘plab turli manbalardan ma’lumot olishadi, jumladan internet, ijtimoiy tarmoqlar, televizion dasturlar va boshqalar. Bu esa ko‘pincha noto‘g‘ri, asossiz yoki hatto zararli ma’lumotlar tarqalishiga olib keladi. Shu bois, o‘quvchilarni tibbiy axborotni tanqidiy fikrlash asosida baholashga o‘rgatish pedagogik vazifa sifatida ko‘riladi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga ma’lumotlarning ishonchliligi, manbalarning obro‘si, ilmiy asoslar va faktlarni aniqlashga yordam beradi.

Tibbiy axborot savodxonligi o‘quvchilarning faqatgina nazariy bilimlarini oshirmaydi, balki ularni hayotda mustaqil va ongli sog‘liqni saqlash qarorlarini qabul qilishga, shuningdek, atrofdagi odamlarni ham sog‘lom turmush tarziga chaqirishga undaydi. Bu esa jamiyatda sog‘lom hayot madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda o‘qituvchilar o‘zlari ham doimiy ravishda sog‘liqni saqlash va pedagogika sohasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lishlari, zamonaviy tibbiy va pedagogik adabiyotlarni o‘rganishlari zarur. Bu o‘quvchilarga to‘g‘ri va ilmiy asoslangan ma’lumotlarni yetkazishda asosiy shartlardan biridir. Shuningdek, ota–onalarni ham ushbu jarayonga jalb qilish, ularning sog‘liq haqida ma’lumotlar bilan tanishligini oshirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi fikrlarni amalga oshirish uchun ta’lim muassasalarida tibbiy axborot savodxonligi bo‘yicha maxsus dasturlar, seminarlar, treninglar tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash mutaxassislari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarga yanada sifatli ta’lim berish imkoniyati yaratiladi.

Natijada, tibbiy axborot savodxonligi o‘quvchilarda sog‘liq haqida ongli qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish bilan birga, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishda, profilaktik choralarni o‘z vaqtida qo‘llashda muhim vositaga aylanadi. Bu esa jamiyat sog‘lig‘ini yaxshilashga, kasalliklarning oldini olishga, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Pedagoglar bu jarayonda turli interfaol metodlarni qo‘llashlari mumkin. Misol uchun, guruhli muhokamalar orqali o‘quvchilarni sog‘liqni saqlash mavzularida fikr almashishga jalb qilish, loyihalar yordamida sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borishga rag‘batlantirish, multimediya resurslari orqali vizual ta’lim materiallarini namoyish etish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, simulyatsiyalar va rolli o‘yinlar o‘quvchilarning real hayotdagi sog‘liq bilan bog‘liq vaziyatlarga tayyorligini oshirishda samarali hisoblanadi.

Shuningdek, sog‘liq haqida ongli qaror qabul qilish faqat tibbiy bilimga emas, balki psixologik tayyorgarlikka ham bog‘liqdir. O‘quvchilarning o‘z salomatligi uchun mas’uliyatni anglashlari, qarorlarini mustaqil ravishda asoslashlari uchun pedagogik sharoit yaratish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchilar ham doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirib borishi, zamonaviy tendensiyalarni o‘rganib, ta’lim jarayoniga tatbiq etishi talab etiladi.

Xulosa

Tibbiy axborot savodxonligini rivojlantirish o‘quvchilarda sog‘liq haqida ongli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarni sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq axborotni to‘g‘ri tanlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatish ta’limning samaradorligini oshiradi. Pedagoglarning tibbiy va pedagogik bilimlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llashi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash sohasida noto‘g‘ri axborotlarning oldini olish va sog‘lom jamiyat barpo etishda yosh avlodning axborot savodxonligini oshirishning ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli, ta’lim muassasalari sog‘liqni saqlash haqidagi axborotlarni o‘z vaqtida va sifatli o‘zlashtirishni ta’minlashga ustuvor vazifa sifatida qarashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. (2022). Sog‘liqni saqlashda axborot savodxonligi va uning ahamiyati. Geneva: WHO Publications.

2. Akhmedova, M. A. (2020). Pedagogik jarayonda sog‘liqni saqlash madaniyatini shakllantirish. Pedagogika ilmiy jurnali, 3(12), 45–52.

3. Karimov, S. J. (2021). O‘quvchilarda tibbiy axborot savodxonligini oshirish usullari. O‘zbekiston pedagogik axborotlar, 7(4), 25–30.

4. Rasulov, D. R. (2019). Sog‘lom turmush tarzi va pedagogika: integratsion yondashuv. Ta’lim va sog‘liq, 1(5), 14–20.

5. Xolmatov, I. N. (2023). Zamonaviy ta’limda sog‘liqni saqlashning pedagogik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

Muratbek YUSUPOV,
Til va adabiyot ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi (rus tili), UBS,
yumurat65@mail.ru
Farangisbonu UMAROVA,
Rus filologiyasi 2–kurs talabasi, UBS,
farangizu105@gmail.com

HOZIRGI RUS TILI KELISHIKLARI TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

Annotatsiya: mazkur maqola zamonaviy rus tilining kelishik tizimini, uning tarixiy rivojlanishini hisobga olgan holda o'rganishga bag'ishlangan; unda praslavyan tilidan to hozirgi holatga qadar kelishiklarning shakllanishi va o'zgarish bosqichlari ko'rib chiqiladi, shuningdek, zamonaviy kelishiklarning ko'p ma'noliligi sabablari, tizimda qo'llanmay qo'yilgan kelishiklarning ular bilan qo'shilib ketgani bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *usul, metodologiya, kelishik, kelishik tizimi, hozirgi rus tili, qadimgi rus tili, staroslavyan tili.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению падежной системы современного русского языка с учётом её исторического развития; рассматриваются основные этапы становления и трансформации падежных форм от праславянского языка до современного состояния, также речь идёт о причинах многозначности современных падежей в связи со слиянием исчезнувших падежей с ними.

Ключевые слова: метод, методология, падеж, падежная система, современный русский язык, древнерусский язык, старославянский язык.

Annotation: this work is devoted to the study of the case system of the modern Russian language, taking into account its historical development; it examines the main stages of the formation and transformation of case forms from Proto–Slavic to their current state, and also discusses the reasons for the polysemy of modern cases in connection with the merging of extinct cases with them.

Key words: *method, methodology, case, case system, modern Russian language, Old Russian language, Old Church Slavonic.*

Kirish. Rus tilini o'rganishda asosiy qiyinchilik – bu grammatika, jumladan, kelishik tizimi, ularning ma'nolari va sintaktik birliklarda boshqa so'zlar bilan qo'shilishi. Rus tilini o'rganayotganlar uchun kelishiklarning ko'p ma'noliligini tushunish qiyin. Bularning barchasi tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti rus tilining morfologik tizimi, predmeti – uning kelishiklar tizimi.

Tadqiqotimizning maqsadi rus kelishiklarining ko'p ma'noliligi sabablarini aniqlashdir.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun biz quyidagi vazifalarni hal qilishimiz kerak:

– proslavyan, qadimgi slavyan va qadimgi rus tillarining kelishik tizimini o'rganish;

– zamonaviy rus tilida mavjud bo'lmagan kelishiklarni aniqlash;

– yo'qolgan kelishiklarning ma'nolarini o'rganish;

– yo'qolgan qadimgi kelishiklar zamonaviy rus tilining qaysi kelishiklari bilan birlashganligini aniqlash.

Adabiyot va metodologiya. Kelishiklarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi turli mamlakatlarning mashhur tilshunoslari tadqiqotlarining mavzusi bo'ldi: M. Deichbein, B.A. Ilyin, E. Kurilovich, X. Brinkmann, G. Glinz, I. Erben va boshqalar.

R. Yakobson kelishiklar tizimini ot paradigmasiga birlashtiruvchi qarama–qarshiliklarning munosabatiga asoslanib, birlik sifatida ko'rib chiqish kerak, deb hisoblagan [5]. A.V. Bondarkoning qayd etishicha, morfologik kategoriyalar har doim sintaksisga ma'lum munosabatda bo'ladi, u yoki bu gap tarkibiga kiradi: har bir morfologik kategoriya ma'lum bir sintaktik yo'nalishga, sintaktik istiqbolga ega [1].

Rus va xorijiy olimlarning nazariy qarashlariga asoslanib, biz ishni morfologik kategoriya sifatida ko'rib chiqamiz. Asosiy tadqiqot usullari tarixiy–qiyosiy va tavsifiydir.

Natijalar. O'zining zamonaviy shaklini qabul qilishdan oldin rus kelishiklari uzoq rivojlanish tarixi davomida turli xil o'zgarishlarga duch keldi. Zamonaviy rus tilida biz boshlang'ich maktabda o'rganadigan "именительный", "родительный", "дательный", "винительный", "творительный" va "предложный" kelishiklardir. "Иван родил девчонку, велел тащить пелёнку" – mashhur ibora, bu ko'pchilikka ruscha kelishiklarning tartibini eslab qolishga yordam beradi.

Biroq, rus tilida ham "unutilgan" kelishiklar mavjud (qadimgi rus tili tizimi 14 ta kelishikni o'z ichiga olgan). Ushbu maqolada biz rus tilidagi kelishiklarning shakllanish yo'llarini va nomlarining paydo bo'lishini ko'rib chiqamiz.

"Именительный падеж" qo'llanganda, ko'makchilarni talab qilmaydigan yagona bevosita kelishikdir. "Именительный падеж" atamasi ilk bor

filolog Meletius Smotritskiy tomonidan “Grammatika” asarida taklif qilingan: u “прямой падеж” nomini oddiygina qadimgi yunon tilidan tarjima qilgan. Tarjimadagi прямой падеж “имеющий, называющий имя” degan ma’noni anglatadi, ya’ni nominativ ismni, unvonni nomlaydigan kelishikdir.

“Родительный падеж**”** dastlab “родный” deb nomlangan. Grammatikada u o‘z nomini XIV asrda oldi, bu “полученный с рождения” (yaralganida olgan) degan ma’noni anglatadi. Qadimgi yunon, sanskrit, lotin, xet va boshqa ilk tillarda родительный падеж murakkab va muhim vazifalarni bajargan. Rus tili kelib chiqqan proslavyan tilida u allaqachon faol ishlatilgan – bu taxminan miloddan avvalgi 1–ming yillik. Zamonaviy rus tilida “родительный падеж”ning asosiy vazifasi, kelib chiqishini ko‘rsatish va obyektni o‘xshashlar sinfiga ko‘ra tasniflashdir.

“Дательный падеж**”** qadimgi slavyan tilidan, o‘z navbatida, yunon tilidan olingan bo‘lib, “дать” fe’li bilan bog‘liqligini aniq ko‘rsatadi. Demak, “дательный падеж”ning asosiy vazifasi adresatni yoki harakat yo‘naltirilgan predmetning nomini bildirishdir.

“Винительный падеж**”** nomini birinchi rus grammatikachilaridan biri Lavrentiy Zizaniy XVI–asrda kiritgan: yunon tilidan “причинный” (sababli) deb tarjima qilgan. Bundan tashqari, ishning nomi qadimgi rus va qadimgi slavyan tillarida semantikasi “причина” degan ma’noni anglatuvchi “вина” (ayb) so‘zi asosida berilgan. Zamonaviy rus tilida “винительный падеж” ish–harakat yo‘naltirilgan obyektni bildiradi.

“Творительный падеж**”** atamasi, “винительный падеж” kabi, rus grammatikasiga 1596–yilda Lavrentiy Zizaniy tomonidan kiritilgan. Bu kelishikning nomi “творить” (yaratmoq) fe’li bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, biror–bir jonli yoki jonsiz predmet bilan birgalikda yoki vosita yordamida biror harakatni amalga oshirishni bildiradi. Zamonaviy rus tilida u ko‘pincha harakat fe’llari bilan birgalikda qo‘llaniladi, bu esa ba’zi vositalardan foydalanishni anglatadi.

“Предложный падеж**”** – “местный va сказательный падеж” larning birikmasidan hosil bo‘lgan. Ushbu birlashish, ko‘rsatilgan kelishiklarning shakllari har doim faqat “предложный падеж” bilan ishlatilganligi bilan bog‘liq, buni Mixail Vasilyevich Lomonosov “Rossiya grammatikasi” da ta’kidlagan.

Hozirgi rus tilida talaba va o‘quvchilar faqat 6 ta kelishikni o‘rganadilar va ularning tarixi bilan kam qiziqadilar, vaholanki, rus tili tarixida yana 8 kelishik bo‘lgan. Ular quyidagilardir: звательный падеж, местный падеж, количественно–отделительный падеж, лишительный падеж. ждательный падеж, превратительный падеж, исходный падеж, счётный падеж.

Ular haqida keyingi maqolalarimizda fikr yuritamiz.

Xulosa. Proslavyan, qadimgi slavyan va qadimgi rus tillarining kelishik tizimini o‘rganib chiqib, biz til rivojlanishining turli bosqichlarida kelishiklar soni va ma’nosi ichki va tashqi lingvistik omillar ta’sirida doimiy ravishda o‘zgarib turishini aniqladik.

Biz yo‘qolgan kelishiklarning ma’nolarini aniqladik.

Biz kelishik tizimining rivojlanishi bilan hozirgi yo‘q bo‘lib ketgan qadimgi rus kelishiklari zamonaviy rus morfologiyasida mavjud bo‘lgan kelishiklar bilan birlashtirilganligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бондарко А.В. Теория морфологических категорий. Л., 1976 (2–е изд. – М., 2005 под загл. “Теория морфологических категорий и аспектологические исследования”).
2. Глины // Большая российская энциклопедия. Том 7. – М., 2007. С. 240– 241.
3. Иванов В.В. Историческая грамматика русского языка. – М.: Просвещение. pdf
4. Пушкин А.С. “Сказка о рыбаке и рыбке” https://www.culture.ru/poems/4450/skazka–o–rybake–i–rybke
5. Якобсон Р.О. Некоторые вопросы лингвистической семантики. Доклад на учёном совете Института русского языка АН СССР. // Незабытые голоса России: Звучат голоса отечественных филологов. Вып. I. – М.: Языки славянских культур, 2009. С. 189 – 196.
6. Яцимирский А. И., Эрбен, Карл–Яромир // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). СПб., 1890– 1907.
7. Brinkman H. C. Heat effects in capillary flow I // Applied scientific research. A., Mechanics, heat, chemical engineering, mathematical methods. – The Hague: Nijhoff, 1951. T. 2. C. 120–124. doi:10.1007/BF00411976.
8. Jerzy Kurylowicz // Annuaire prosopographique: la France savante / под ред. B. Delmas, P. Матис, 2009.

Nargiza XAMIDOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman–german tillari tarjimashunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: nargiza7480@gmail.com

NUTQDAGI XUSHMUOMALALIK VOSITALARI: FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARI DOIRASIDA QIYOSIY YONDASHUV

Annotatsiya: mazkur maqola fransuz hamda o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan xushmuomalalik ifodalarining lingvistik tabiatini qiyosiy nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada ikki xil tipologik guruhga mansub tillardagi xushmuomalalik strategiyalarining strukturaviy–semantik xususiyatlari, ularning pragmatik funksiyalari va madaniy–etnografik kontekstdagi namoyon bo‘lish yo‘llari chuqur tahlil qilingan, shuningdek, fransuz va o‘zbek tillarining xushmuomalalik tizimlaridagi leksik–grammatik vositalar, stilistik imkoniyatlar hamda diskursiv strategiyalarning qiyosiy tadqiqi amalga oshirilgan. Bundan tashqari maqolada fransuz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik bildiruvchi leksik, grammatik va stilistik vositalar, ularning kontekstual qo‘llanilishi hamda madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *xushmuomalalik vositalari, qiyosiy tilshunoslik, fransuz tili, o‘zbek tili, nutqiy strategiyalar, pragmatika, madaniyatlararo muloqot, til kontakti, xushmuomalalik nazariyasi, lingvokulturologiya, nutq aktlari, ijtimoiy pragmatika, til o‘rganish, tarjima nazariyasi, madaniy xususiyatlar.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению лингвистической природы выражений вежливости, используемых во французском и узбекском языках, с сравнительной точки зрения. В статье глубоко анализируются структурно–семантические особенности стратегий вежливости в языках, принадлежащих к двум различным типологическим группам, их прагматические функции и способы проявления в культурно–этнографическом контексте, а также проводится сравнительное исследование лексико–грамматических средств, стилистических возможностей и дискурсивных стратегий систем вежливости французского и узбекского языков. Кроме того, в статье анализируются лексические, грамматические и стилистические средства выражения вежливости во французском и узбекском языках, их контекстуальное употребление и роль в межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: средства вежливости, сопоставительное языкознание, французский язык, узбекский язык, речевые стратегии, прагматика, межкультурная коммуникация, языковые контакты, теория вежливости, лингвокультурология*, речевые акты, социальная прагматика, изучение языков, теория перевода, культурные особенности.*

Annotation: this article is devoted to studying the linguistic nature of politeness expressions used in French and Uzbek languages from a comparative perspective. The article provides an in–depth analysis of the structural–semantic features of politeness strategies in languages belonging to two different typological groups, their pragmatic functions and ways of manifestation in cultural–ethnographic context, as well as conducts a comparative study of lexical–grammatical means, stylistic possibilities and discursive strategies of politeness systems in French and Uzbek languages. Furthermore, the article analyzes lexical, grammatical and stylistic means of expressing politeness in French and Uzbek languages, their contextual usage and role in intercultural communication.

Key words: *politeness devices, comparative linguistics, French language, Uzbek language, speech strategies, pragmatics, intercultural communication, language contact, politeness theory, linguoculturology, speech acts, social pragmatics, language learning, translation theory, cultural features.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik hodisasi til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ochib beruvchi muhim tadqiqot yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Xushmuomalalik kategoriyasining universalligi va milliy–madaniy xususiyatlarga ega ekanligi turli xil tillarda qo‘llaniladigan nutqiy strategiyalarning qiyosiy o‘rganilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Fransuz va o‘zbek tillarining tipologik farqliligi, ularning turli til oilalariga mansubligi hamda so‘zlovchi jamiyatlarning madaniy–tarixiy rivojlanish yo‘llarining o‘ziga xosligi ushbu tillardagi xushmuomalalik vositalarining qiyosiy tahlilini alohida qiziq va dolzarb qiladi.

So‘nggi yillarda lingvistik tadqiqotlar doirasida xushmuomalalik fenomeni alohida e’tibor markaziga aylangan. Ushbu hodisa tilshunoslikning sotsiopragmatik, lingvokulturologik va kommunikativ aspektlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, milliy til tizimlarida muomalaga oid ifoda vositalarining madaniy qadriyatlar bilan qanday uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Har bir jamiyatda xushmuomalalik mezonlari alohida shakllangan bo‘lib, ular tildagi kommunikativ vositalar orqali ifodalanadi. Xushmuomalalik nazariyasining asoschisi P. Braun va S. Levinson (1987) bo‘lib, ular xushmuomalalikni ***“yuz saqlash”*** strategiyalari orqali izohlaydilar. Shu bilan

birga, ularning konsepsiyasi garchi universal deb e'tirof etilsa–da, turli madaniyatlarda bu strategiyalar turlicha namoyon bo'lishi aniqlangan [Brown & Levinson, 1987]. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqot sharoitida bu farqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransuz tilshunosligida C.Kerbrat–Orechchioni tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xushmuomalalik ijtimoiy hamkorlik vositasi sifatida qaraladi. U shunday yozadi: *"Xushmuomalalik faqat muomala odobi emas, balki interaktiv strategiyadir"* [Kerbrat–Orecchioni, 2005, 112–b.].

O'zbek tilshunosligida bu masala H. Dadaboyev (2010), B. Yo'ldoshev (2012), N. Karimov (2015)lar tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida o'zbek tilidagi xushmuomalalikning milliy qadriyatlarga bog'liqligi, ijtimoiy iyerarxiya va muomala etiketi orqali ifodalanishi yoritilgan.

Mazkur maqola materiali sifatida fransuz va o'zbek tillaridagi badiiy adabiyotlar, publitsistik matnlar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar hamda og'zaki nutq namunalaridan foydalanildi. Tahlilda *qiyosiy–lingvopragmatik metod, kontekstual tahlil, diskursiv yondashuv* va *sotsiokulturologik izoh*lar qo'llanildi.

Ushbu maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

Xushmuomalalik vositalarining pragmatik jihatlarini tahlil qilishda Karimov (2015) ning quyidagi xulosasi muhimdir: "Pragmatik kontekst xushmuomalalik vositalarining tanlovi va ishlatilishida hal qiluvchi omil hisoblanadi" (p. 203).

Fransuz tilida pragmatik kontekst asosan:

Rasmiy/norasmiy muloqot farqi.

Yosh va ijtimoiy holat farqi.

Tanish/notanish odamlar o'rtasidagi farq.

O'zbek tilida pragmatik omillar:

Katta–kichik hurmat–ehtirom tizimi.

Mehmon–uy egasi munosabatlari.

Diniy–madaniy qadriyatlar ta'siri.

Ushbu tadqiqot natijalari bir necha sohada amaliy qiymatga ega:

Til o'qitish: Chet til o'qitishda madaniyatlararo kompetensiya rivojlantirish.

Tarjima: Xushmuomalalik vositalarini to'g'ri tarjima qilish.

Madaniyatlararo muloqot: samarali kommunikatsiya strategiyalari yaratish

Berthier (2013) ta'kidlaganidek, "zamonaviy dunyoda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi professional muvaffaqiyatning kalit omilidir" (p. 145).

Fransuz tilida xushmuomalalik vositalari yuqori darajada kodifikatsiyalashgan va muomala holatlariga qarab qat'iy ajratilgan. Murojaatdagi ***"vous"*** va ***"tu"*** kontrasti nafaqat grammatik tafovut, balki ijtimoiy masofaning ifodachisi hisoblanadi [Delaporte, 2008, 234–b.].

Eng ko'p qo'llaniladigan xushmuomalalik formulalari quyidagilardir:

Salomlashuv: *Bonjour*, *Bonsoir*, *Salut.*

Xayrlashuv: *Au revoir*, *Bonne journée*, *À bientôt.*

Iltimos yoki uzr: *S'il vous plaît*, *Je vous en prie*, *Excusez–moi.*

Minnatdorchilik: *Merci beaucoup*, *Merci infiniment.*

Pragmatik kontekstdagi farqlar quyidagilardan iborat: aloqa rasmiyati, ijtimoiy status, yoshi, tanishlik darajasi va muloqot vaziyatining rasmiy–norasmiyligi.

O'zbek tilida xushmuomalalik ko'proq ijtimoiy hurmat munosabatlariga asoslanadi. Bu tizim asosan, quyidagilar orqali ifodalanadi:

Salomlashuv: *"Assalomu alaykum", "Yaxshimisiz?", "Qadamingiz muborak".*

Xayrlashuv: *"Xayr", "Salomat bo'ling", "Yo'lingiz ochiq bo'lsin".*

Iltimos yoki uzr: *"Marhamat", "Kechirasiz", "Uzr".*

Minnatdorchilik: *"Rahmat", "Sizga katta rahmat".*

O'zbek tilidagi xushmuomalalik vositalarining tanlovi va qo'llanilishi katta–kichik hurmat tizimi, diniy–madaniy qadriyatlar, oilaviy–milliy an'analar bilan chambarchas bog'liq [Yo'ldoshev, 2012; Karimov, 2015].

QIYOSIY TAHLIL

Mezoni	Fransuz tili	O'zbek tili
Til oilasi	Roman–german	Turk tillari
Murojaat shakllari	"tu/vous" differensiyasi	Hurmatli formalar, "siz/sen"
Salomlashish	Yevropa madaniyatiga xos formulalar	Diniy–milliy an'analarga asoslangan
Pragmatik kontekstga munosabat	Rasmiy/norasmiy tafovut ustuvor	Yoshi, mansabi, ijtimoiy maqom ustuvor
Tarjima muammolari	Formal/funksional o'xshashlik chegaralangan	Til va madaniyatga mos ekvivalentlar qiyin topiladi

AMALIY QIYMATI

Tadqiqot natijalari quyidagi sohalarda qo'llanilishi mumkin:

Til o'qitish – madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarjima – xushmuomalalik vositalarini adolatli va ekvivalent tarjima qilishga yordam beradi.

Madaniyatlararo kommunikatsiya – xalqaro muloqotda nutqiy noqulayliklarning oldini olish imkonini yaratadi [Berthier, 2013, 145–b.].

Xulosa. Fransuz va o'zbek tillaridagi xushmuomalalik vositalari har ikki jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Xushmuomalalik universal strategiyalarga tayanadi, biroq ularning real nutqdagi

ifodasi madaniyatlararo farqlarga egadir. Qiyosiy tahlil orqali bu farqlarni chuqurroq anglash, til o‘rganishda ham, tarjimada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fransuz va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik va ularning qiyosiy tahlili, umumiy kommunikativ qadriyatlari bilan birga, o‘ziga xos milliy–madaniy tafovutlarini ham namoyon qildi. Bu esa nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturologik yondashuvlarning ham dolzarbligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari esa tilshunoslik, tarjima, til o‘rgatish va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalariga amaliy hissa qo‘shadi.

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: fransuz va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik vositalari har ikki tilning madaniy–tarixiy xususiyatlarini aks ettiradi; universal xushmuomalalik strategiyalari bilan bir qatorda, milliy o‘ziga xos xususiyatlar kuzatiladi; pragmatik kontekst xushmuomalalik vositalarining tanlovi va qo‘llanilishida muhim rol o‘ynaydi; qiyosiy tahlil har ikki tilning xushmuomalalik tizimlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berthier, A. (2013). *Communication interculturelle et politesse linguistique*. – Lyon: Presses Universitaires de Lyon.
2. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. – Cambridge: Cambridge University Press.
3. Dadaboyev, H. (2010). *O‘zbek tilining xushmuomalalik vositalari*. – Toshkent: O‘qituvchi.
4. Delaporte, C. (2008). *Les formes de politesse dans la langue française*. – Paris: Editions du Seuil.
5. Karimov, N. (2015). *Pragmalingvistika asoslari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Kerbrat–Orecchioni, C. (2005). *Le discours en interaction*. – Paris: Armand Colin.
7. Larina, T.V. (2009). *Kategoriya vezhlivosti i stil’ kommunikatsii*. – Moskva: Yazyki slavyanskikh kul’tur.
8. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Qiyosiy tilshunoslik asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
9. Yo‘ldoshev, B. (2012). *O‘zbek xalq og‘zaki ijodida xushmuomalalik an’analari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti.

Shaxobiddin ABDULLAYEV,
Iqtisodiy va pedagogika universiteti
NTM Samarqand kampusi
pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING ZAMONAVIY O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI LEKSIK O‘ZGARISHLARGA TA’SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli kommunikatsiya vositalarining zamonaviy o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik o‘zgarishlarga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardagi yangi leksik birliklar, qisqartmalar va slenglarning paydo bo‘lishi hamda ularning til rivojiga ta’siri o‘rganildi. Natijalar yangi kommunikatsiya vositalarining tilning jonli va dinamik shakllarini yaratishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi.Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan yangi so‘zlar, qisqartmalar va slenglarning til rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari tilning jonli va dinamik shakllarini yaratishda raqamli kommunikatsiya vositalarining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, til me’yorlarining buzilish xavfi ham ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: raqamli kommunikatsiya, leksik o‘zgarish, ijtimoiy tarmoqlar, o‘zbek tili, ingliz tili.

Аннотация: в данной статье анализируется влияние цифровых средств коммуникации на лексические изменения в современном узбекском и английском языках. В исследовании изучалось появление новых лексических единиц, сокращений и сленга в социальных сетях и их влияние на развитие языка. Результаты показали, что новые средства коммуникации играют важную роль в создании живых и динамичных форм языка. Исследование анализирует, как новые слова, аббревиатуры и сленг, появляющиеся в социальных сетях, влияют на развитие языка. Результаты исследования показали, что цифровые средства коммуникации играют важную роль в создании живых и динамических форм языка. В то же время был отмечен риск нарушения языковых норм.

Ключевые слова: цифровая коммуникация, лексическое изменение, социальные сети, узбекский язык, английский язык

Annotation: this article analyzes the impact of digital communication tools on lexical changes in modern Uzbek and English. The study examined the emergence of new lexical units, abbreviations, and slang in social networks and their impact on language development. The results showed that new means of communication play an important role in the creation of living and dynamic forms of language. The study analyzes how new words, abbreviations, and slang appearing on social media influence language development. The research results showed that digital means of communication play an important role in creating living and dynamic forms of language. At the same time, the risk of violating language norms was noted.

Key words: digital communication, lexical change, social media, Uzbek language, English language

Kirish.Zamonaviy raqamli kommunikatsiya vositalari, jumladan ijtimoiy tarmoqlar, tezkor va samarali muloqot uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayon tilshunoslik sohasida yangi tadqiqot mavzusi bo‘lib, tilning leksik tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berishini ta’kidlaydi. Ingliz va o‘zbek tillarida yangi leksik birliklar, qisqartmalar va slenglarning paydo bo‘lishi til rivojining dinamik jarayonlari sifatida ko‘rilmoqda.Shu bois, ushbu maqolada raqamli kommunikatsiya vositalarining zamonaviy o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik o‘zgarishlarga ta’siri tahlil qilinadi.

Bu jarayon tilshunoslik sohasida yangi tadqiqot yo‘nalishini ochib berdi, chunki til o‘zgarishining sabablari va natijalarini tushunish kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.Ayniqsa, o‘zbek tili raqamli kommunikatsiyaga nisbatan kamroq o‘rganilgan til bo‘lib, uning zamonaviy rivojlanishini tahlil qilish zarur.

Shu sababli ushbu maqolada raqamli kommunikatsiya vositalarining zamonaviy o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik o‘zgarishlarga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot tilning jonli shakllarini aniqlash va bu jarayonning ijtimoiy va madaniy kontekstini yoritishga qaratilgan.

Metodlar.Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Nazariy qism uchun tilshunoslik va kommunikatsiya sohasidagi so‘nggi ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Amaliy qismda Facebook, Instagram, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlardan olingan o‘zbek va ingliz tilidagi postlar va kommentariyalar namunasi lingvistik tahlil uchun ishlatildi. Ushbu matnlarda yangi leksik birliklar va qisqartmalar aniqlanib, ularning tilga ta’siri baholandi. Shuningdek, so‘rovnomalar yordamida foydalanuvchilarning fikrlari yig‘ildi.

Birinchi bosqichda nazariy manbalar tahlili amalga oshirildi. So‘nggi besh yil ichida chop etilgan ilmiy maqolalar, kitoblar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (jum-

ladan UNESCO, EU Language Watch), va internetdagi tilshunoslik bloglari asosiy manba sifatida tanlab olindi. Ushbu manbalardan olingan ma'lumotlar zamonaviy til o'zgarishining global va lokal tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi.

Ikkinchi bosqichda amaliy lingvistik tahlil o'tkazildi. Buning uchun Facebook, Instagram, Telegram, Twitter (X) kabi mashhur platformalardagi 2023–2024–yillarga oid ingliz va o'zbek tilidagi 500 dan ortiq matn namunasi tahlil qilindi. Ushbu matnlardan eng ko'p uchraydigan yangi so'zlar, qisqartmalar, emojilarning lingvistik funksiyalari, ularning kontekstdagi o'rni va tez–tez ishlatilish chastotasi o'rganildi. Matnlar maxsus tahlil mezonlariga asosan — rasmiylik darajasi, stilistik xususiyatlar, va ijtimoiy muhitga mosligi bo'yicha tasniflandi.

Uchinchi bosqichda onlayn so'rovnoma va yarim-strukturali intervyular orqali foydalanuvchilarning subyektiv qarashlari yig'ildi.So'rovnoma 150 nafar respondent orasida (75 nafari ingliz tilida, 75 nafari o'zbek tilida faol foydalanuvchilar) o'tkazildi.Respondentlardan raqamli platformalarda qanday so'zlarni tez–tez ishlatishlari, yangi leksik birliklarga munosabatlari va bu o'zgarishlarning ijobiy/salbiy tomonlari haqida fikr so'raldi.

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli kommunikatsiya vositalarida yangi leksik birliklar va qisqartmalar tez sur'atlarda paydo bo'lmoqda. Ingliz tilida texnologiya va internet jargoniga oid so'zlar keng tarqalmoqda. O'zbek tilida esa yoshlar orasida inglizcha so'zlar va slengning ko'payishi kuzatilmoqda.Bu jarayon tilning rasmiy va norasmiy shakllarida farqli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlil qilingan matnlar va so'rovnoma javoblari asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Yangi leksik birliklarning ko'payishi:

O'zbek tilida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar (masalan, "like", "story", "post", "bloger", "follower") faol ishlatilayotgani kuzatildi. Ingliz tilida esa "DM", "unfriend", "reel", "screenshot", "ghosting" kabi yangi atamalar keng qo'llanmoqda.Har ikki tilda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq terminlar matnlarda yuqori chastotada uchraydi.

Qisqartmalar va slenglar:

Ijtimoiy tarmoqlarda yozma muloqotni tezlashtirish maqsadida qisqartmalar (ingliz tilida "LOL", "BTW", "OMG"; o'zbek tilida esa "QK" – "qiziq", "SHZ" – "shunaqa") keng tarqalgan.Bu qisqartmalar yozishmalarda kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Emoji va grafik elementlar ta'siri:

So'zlarning o'rnini bosuvchi emoji va belgilarning muntazam ishlatilishi tilning emotsional ifoda vositalariga yangi yo'nalish bergan. O'zbek tilida bu tendensiya ingliz tiliga qaraganda yangi, ammo tez rivojlanmoqda.

Foydalanuvchi munosabati:

So'rovnoma qatnashchilarining 68% ingliz tilida yangi raqamli so'zlar va iboralarni til boyligi deb baholagan bo'lsa, o'zbek tilida bu ko'rsatkich 52% bo'ldi. Respondentlarning aksariyati bunday o'zgarishlar tilni moslashuvchan va zamonaviy qilayotganini tan oldi. Shu bilan birga, 34% o'zbek respondentlari til me'yorlari zaiflashayotganidan xavotirda ekanliklarini bildirgan.

Stilistik farqlar:

Ingliz tilida yangi leksika asosan norasmiy muloqotda paydo bo'lgan bo'lsa–da, u endi jurnalistika, reklama va madaniy sohalarga ham kirib kelgan. O'zbek tilida esa bu jarayon asosan yoshlar muloqoti bilan cheklanmoqda, biroq internet–ommaviy axborot vositalarida ham asta–sekin o'z aksini topmoqda.

Munozara.Olingan natijalar ijtimoiy tarmoqlarning til rivojida ikki tomonlama ta'sirini ko'rsatadi: bir tomondan, tilga yangi kommunikatsiya vositalari va leksik birliklar kiritilmoqda, bu tilning jonli va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Boshqa tomondan, ba'zi o'zgarishlar til me'yorlarini buzishi va til madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.Shu bois, tilshunoslar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar bunday jarayonlarni diqqat bilan kuzatib, tilni asrash va rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishlari lozim.

Xulosa.Raqamli kommunikatsiya vositalari zamonaviy o'zbek va ingliz tillarida leksik o'zgarishlarni tezlashtirmoqda.Ushbu jarayon tilning dinamik rivojlanishiga imkon yaratadi, biroq til me'yorlarining buzilishiga olib kelishi mumkinligi sababli tilni saqlash va rivojlantirish uchun muvozanatli yondashuv zarur. Kelgusida bu sohada yanada chuqur tadqiqotlar olib borish va til siyosatini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. (2019).Language and the Internet.Cambridge University Press.
2. Karimov, A.Raqamli kommunikatsiyaning o'zbek tiliga ta'siri.Tilshunoslik jurnali, 5(2), 2023.45–58.
3. Abdullayeva, M. (2021).Zamonaviy o'zbek tilida leksik o'zgarishlar. O'zbek tili va adabiyoti, 3(1), 22–34.
4. Smith, J. (2022). Digital communication and English language change. Journal of Modern Linguistics, 10(4), 112–130.
5. UNESCO. (2024).Digital media and language preservation.UNESCO Publishing.

Nodira RASULOVA
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Koreys tili o‘qituvchisi

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMIYA, OMONIMIYA, ANTONIMIYA

Annotatsiya: mazkur maqolada koreys va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning sinonim, omonim va antonim xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologik sinonimiya turlari, omonimlik sababli yuzaga keladigan stilistik effektlar va antonim frazeologizmlarning funksional yuki tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Har ikki tilning frazeologik sistemasi madaniy, tarixiy va tilshunoslik jihatdan taqqoslab o‘rganiladi. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Natijada, o‘zbek va koreys tillarida frazeologik sinonimiya, omonimiya va antonomiyaning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, sinonimiya, omonimiya, antonimiya, koreys tili, o‘zbek tili, semantika, madaniyat.

Annotation: this article analyzes the features of synonymy, homonymy, and antonymy of phraseological units in Korean and Uzbek languages. The types of phraseological synonymy, stylistic effects caused by homonymy, and the functional load of antonymous phraseological expressions are studied from a linguistic perspective. The phraseological systems of both languages are comparatively examined in terms of cultural, historical, and linguistic aspects. The semantic properties of phraseological units are discussed using concrete examples. As a result, similarities and differences in phraseological synonymy, homonymy, and antonymy between Uzbek and Korean languages are identified.

Key words: phraseological units, synonymy, homonymy, antonymy, Korean language, Uzbek language, semantics, culture

Аннотация: в данной статье анализируются особенности синонимии, омонимии и антонимии фразеологических единиц в корейском и узбекском языках. Рассматриваются типы фразеологической синонимии, стилистические эффекты, возникающие вследствие омонимии, а также функциональная нагрузка антонимичных фразеологизмов с лингвистической точки зрения. Фразеологические системы обоих языков изучаются в сравнительном аспекте — с учетом культурных, исторических и языковых факторов. Семантические особенности фразеологических единиц рассматриваются на примерах. В результате выявляются сходства и различия фразеологической синонимии, омонимии и антонимии в узбекском и корейском языках.

Ключевые слова: фразеологические единицы, синонимия, омонимия, антонимия, корейский язык, узбекский язык, семантика, культура

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi o’laroq XX asrning boshlarida rus tilshunosligidan ajralib chiqqan. Mazkur yo‘nalishning shakllanishida A.A.Potebnya, A.Shaxmatovlar hissasi katta bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida dastavval Sh.Rahmatullayev, U.Tursunov, I.Qo‘chqortoyev, G‘.Salomov; mustaqillik yillarida esa A. Mamatov, Sh.Usmonova, M.Xoliqova, K.Bozorboyev kabi qator olimlarning izlanishlari orqali ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Frazemalar o‘rtasidagi shakliy bir xillik va semantik xilma–xillik natijasida yuzaga keladigan frazeologik polisemiya va omonimiya hodisasi esa tilshunosligimizda alohida tadqiqini kutayotgan mavzulardan biridir. Xususan, bu ikki hodisani korpus lingvistikasida farqlash va bartaraf etish ham nihoyatda dolzarb. Bittadan ortiq ma’noni anglata olish yoki xilma–xil ma’nolarning aynan bir shaklda mujassam bo‘lishi tilshunoslikning barcha sathlariga, jumladan, frazemalarga ham xos xususiyatdir. Ammo ko‘p ma’noli iboralarda ham xuddi leksik polisemiyada bo‘lgani kabi o‘z(bosh) va ko‘chma (hosila) ma’nolar farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma’no to‘g`ri ma’noga, hosila ma’no esa ko‘chimga teng; frazeologik polisemiyada esa bundan farqli o‘laroq o‘z ma’no bo‘lmaydi, chunki har qanday frazeologik birlik ma’no ko‘chimi orqali yuzaga keladi.

Tilning obrazlilik va ifodaviylik imkoniyatlarini kengaytirishda frazeologizmlarning o‘rni beqiyosdir. Frazeologik birliklar xalqning dunyoqarashi, urf–odati, tarixiy tajribasi va mentalitetini o‘zida aks ettiradi. Har bir tilda frazeologik birliklar sinonim, omonim va antonim tarzida namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada koreys va o‘zbek tillaridagi frazeologik sinonimiya, omonimiya hamda antonomiya hodisalari lingvistik tahlil asosida o‘rganiladi. Tahlil jarayonida ikki tilning frazeologik tizimlari taqqoslanadi, madaniy va semantik jihatlari yoritiladi.

Frazeologik sinonimiya. Tilda har bir narsa o‘z nomiga ega, jumladan har bir narsa–buyum, har bir harakat, xususiyat, boringki narsa–buyum orasidagi munosabat ham. Ularning nomlari esa biror so‘z yoki so‘z birikmasi ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Shuning bilan birga har bir tilda ushbu so‘zlarning to‘liq yoki qisman mazmuniy mos keluvchi ekvivalentlari mavjud. Bunda boshqa chet tilidan o‘zlashgan so‘zlar va ularning ma’nolari alohida ahamiyatga molikdir. Mavjud tushunchaning boshqacha nomi so‘z ma’nosining o‘zgarishi natijasidan ham kelib chiqishi mumkin. O‘zbek tilida “boshi osmonga yetmoq”, “quvonchdan uchmoq”, “ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilmoq” kabi iboralar bir–birining frazeologik sinonimlari hisoblanadi. Koreys tilida bunga mos ravishda “기쁨에 넘치다” (quvonchga to‘lib ketmoq), “하늘을 날다” (osmonda uchmoq) kabi iboralar mavjud.

“Frazeologik sinonimiya har ikki tilda obrazlilikni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Sinonimik iboralar kontekstdan kelib chiqib tanlanadi va uslubiy rang–baranglikni ta’minlaydi.

Frazemalarning ayni bir ma’noni anglatishi asosida guruhlanishi frazeologik sinonimiya deyiladi”, — deydi tilshunos olimlardan Tursunov, Muxtorov va Rahmatullayevlar. Aniqroq qilib aytganda frazeologik sinonimiya — frazeologik birliklarning o‘zaro ma’nodosh (sinonim) bo‘lib kelishidir. Frazeologik sinonimiya tushunchasi haqida ko‘pchilik olimlar o‘z fikrlarini bildirib uning lug‘aviy sinonimiyaning bir turi hisoblanishini ta’kidlab o‘tadilar, jumladan, Zibutsayte E.I. o‘z ilmiy ishida frazeologik sinonimiyani “Frazeologik sinonimlar — bu aniq bir muloqot aktida bir tushunchali mazmun bilan qo‘llana oladigan tildagi bir xil yoki ma’no jihatdan yaqin har xil frazeologik birliklardir” deb ta’riflaydi.

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar — ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalardir. Ular shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki, ma’no va muayyan leksik grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llaniladi, ya’ni frazeologizmlar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas, masalan: arpasini xom o‘rmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig‘may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq va boshqalar. Frazeologik omonimlar bir xil shaklda ifodalanib, turli ma’nolarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ko‘zi ochilmoq” iborasi:

haqiqatni anglash (majoziy);

ko‘r bo‘lgan odamning ko‘zi tiklanishi (to‘g‘r literal ma’no).

Koreys tilida “눈이 뜨이다” (ko‘zi ochilmoq) iborasi ham shu ikki ma’noda ishlatiladi. Frazeologik omonimiyadan badiiy asarlarda ko‘p ma’no yaratish va so‘z o‘yini maqsadida foydalaniladi.

Frazeologik antonomiya. Frazeologizmlar yoki frazeologik iboralar kundalik muloqotda muhim rol o‘ynaydi va fikrlarga o‘ziga xos rang–baranglik beradi. Shu nuqtayi nazardan, milliy tillarda barqaror so‘z birikmalar o‘ziga xos leksik–semantik xususiyatlariga ega ekanligi bilan ma’lumdir. Xalq so‘zi ijodining hayratlanarli namunalari, hikmatlari va iboralari aks ettgan. Turkiy tillar ham frazeologik birliklarga boy bo‘lib, til lug‘atining alohida qatlami sifatida tanilgan. Darhaqiqat, frazeologik birliklar tildagi obrazliligi va chuqur mazmuni bilan ajralib turadi. Xalq tilida qadimdan qo’llanilgan frazeologizmlar o‘ziga xos ifodali bo‘yoqlari, chuqur mazmuni va ta’sirchanligi bilan ifodalangan bo‘lib, fikrda aniqlik va ifodaviylikni ta’minlaydi. Shunga ko‘ra, frazeologik birliklar personajlar kechinmalarini tasvirlashning leksik–semantik, stilistik vositalaridan biri sifatida badiiy asarlarda keng qo‘llaniladi. Qarama–qarshi ma’noli frazeologik birliklarning qo‘llanishi tilda kuzatiladigan keng tarqalgan hodisadir. Antonimik frazeologik birliklar madaniy qadriyatlar va dunyoqarashni aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular ma’lum til madaniyatining o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi va boshqa tillar o‘rtasidagi madaniy farqlar va o‘xshashliklarni o‘rganishda foydalanish mumkin. Antonimik munosabatlar faqat qandaydir xususiyatga ko‘ra sifat, miqdor, vaqt, fazoviy va bir–birini istisno qiluvchi tushunchalar kabi obyektiv voqelikning bir toifasiga mansub taqqoslanadigan so‘zlar o‘rtasida o‘rnatiladi. Frazeologiyada antonimik munosabatlarning rivojlanishi voqelikni barcha qarama–qarshi murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligi bilan idrok etishimizni aks ettiradi. Demak, qarama–qarshi frazeologik birliklar nafaqat bir–biriga qarama–qarshi, balki, bir–biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni ham bildiradi. Antonimik frazeologizmlar insonning dunyoni idrok etish va talqin qilishning xilma–xilligini aks ettiruvchi keng qamrovli munosabatlarni ifodalaydi. Antonimiya hodisasi tilshunoslik taraqqiyotining har bir yangi bosqichida tadqiqotchilar e’tiborini tobora ko‘proq o‘ziga tortib kelgan va hozirda ham u doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish va qo‘shimcha rivojlanishni talab etadi.

O‘zbek tilidagi “qulog‘iga quyib qo‘ymoq” (yodlab olish) iborasining antonimi sifatida “bir qulog‘idan kirib, ikkinchisidan chiqmoq” (unutmoq) iborasi keltiriladi. Koreys tilida esa “귀담아 듣다” (diqqat bilan tinglamoq)

va “흘려듣다” (beparvo eshitmoq) iboralari antonim frazeologizmlardir.

Frazeologik antonomiya har ikki tilga xos hodisa bo‘lib, o‘zaro zid ma’noli iboralar orqali tilning semantik diapazonini kengaytiradi.

Natijalar. Frazeologik sinonimiya har ikki til uchun xos bo‘lib, kontekst asosida tanlanadi.

Frazeologik omonimiya ko‘proq ko‘pma’nolilik va stilistik o‘ziga xoslik yaratishda ishtirok etadi.

Frazeologik antonimlar esa kontrastli obrazlar orqali til ifodaviyligini kuchaytiradi.

Koreys va o‘zbek tillarida frazeologik hodisalar ko‘pincha o‘xshash madaniy asoslarga tayanadi, biroq ifoda shakllarida farqlar mavjud.

Xulosa. Koreys va o‘zbek tillarida frazeologik birliklar tilning obrazlilik imkoniyatlarini boyitadi. Sinonim, omonim va antonim frazeologizmlar tilshunoslik jihatidan ahamiyatli bo‘lib, ularni tahlil qilish ikki til orasidagi semantik va madaniy o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashda muhim vositadir. Kelajakda ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish orqali tillararo tarjima, lingvomadaniy kompetensiya va frazeologik lug‘atlarni boyitish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, —Toshkent: 1978.
2. Rahmatullaev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, — Toshkent: 1966.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati, — Toshkent: 2002.
4. Анипкина Л.Н. Оценочные высказывания в прагматическом аспекте // Филологические науки. — М.: 2000. – №2. – С.58–65.
5. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. — Л.: ЛГУ, 1981. 324с.
6. Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс.... канд. фил. наук. — Краснодар: КГУ, 1995. 23с.
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. — М. 1972. 466с.

Emina ACHILOVA,
ChDPU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

ADABIYOT TA’LIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING O‘RNI

Annotatsiya: maqolada xalqaro baholash tadqiqotlarini adabiy ta’limga tatbiq etish shartlari, xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlarini tushunish va anglash masalalari haqida so‘z yuritiladi. PISA, PIRLS, TIMSS va EQAR kabi xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifatini aniqlash, davlatlar o‘rtasida solishtirma tahlil qilish va ta’lim mazmunini global mezonlarga moslashtirish haqida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash tadqiqotlari, PISA, o‘qish savodxonligi. PIRLS, TIMSS va EQAR, tahlil qilish. baholash, shaxsiy munosabat, ijtimoiy anglash.

Аннотация: в данной статье рассматриваются условия применения международных оценочных исследований в литературном образовании, вопросы понимания и осмысления задач международных оценочных исследований. Обсуждались международные программы оценки, такие как PISA, PIRLS, TIMSS и EQAR, для определения качества образования, сравнительного анализа между странами и адаптации содержания образования к глобальным критериям.

Ключевые слова: международные оценочные исследования, Пиза, грамотность чтения. ПИРЛС, ТИМСС и седло, анализ. оценка, личностное отношение, социальная осведомленность.

Annotation: this article examines the conditions for the application of international evaluative research in literary education, issues of understanding and comprehending the tasks of international evaluative research. International assessment programs such as PISA, PIRLS, TIMSS, and EQAR were discussed to determine the quality of education, compare countries, and adapt educational content to global criteria.

Key words: international assessment studies, Pisa, reading literacy. PEARLS, TIMSS and Sedlo, analysis assessment, personal attitude, social awareness

So‘nggi o‘n yilliklarda ta’lim sifatini baholashda xalqaro baholash dasturlari global mezon sifatida keng ahamiyat kasb etmoqda. PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va EQAR (European Quality Assurance Register) kabi dasturlar turli davlatlardagi o‘quvchilarning funksional savodxonlik, o‘qish, tahlil qilish, fandagi mulohazali yondashuv va ijtimoiy faollik darajalarini aniqlashga qaratilgan. Bu dasturlar ta’lim natijalarini faqat akademik bilimlar asosida emas, balki real hayotga tatbiq etish qobiliyati orqali baholashni maqsad qiladi. Shu bois, ular nafaqat ta’lim tizimining samaradorligini aniqlash, balki o‘quv mazmuni, pedagogik yondashuv va metodik vositalarni qayta ko‘rib chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Xususan, adabiyot fanini transformatsiya qilishda ham ushbu dasturlar muhim mezon va manba sifatida xizmat qilmoqda.

PISA, PIRLS, TIMSS va EQAR kabi xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifatini aniqlash, davlatlar o‘rtasida solishtirma tahlil qilish va ta’lim mazmunini global mezonlarga moslashtirishda muhim o‘rin tutadi. Bu dasturlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari faqat an’anaviy akademik darajada emas, balki hayotiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishdagi qobiliyati, axborotni tanlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, ijtimoiy munosabatlarda muloqot qila olish salohiyati orqali baholanadi. Ushbu yondashuv ta’lim tizimini funksional va kompetensiyaviy asosda yangilashga yo‘naltirilgan.

PISA (Programme for International Student Assessment) — OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan o‘tkaziladigan test bo‘lib, 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va eng muhimi — o‘qish savodxonligi bo‘yicha hayotiy bilimlarini aniqlashga qaratilgan. Unda asosiy e’tibor matnni tushunish, tahlil qilish, shaxsiy munosabat bildirish va umumlashtirish qobiliyatiga qaratilgan. Adabiyot fani bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan PISAning “Reading Literacy” bo‘limi nafaqat o‘qish texnikasi, balki mulohazali o‘qish va interpretatsiya qobiliyatini baholaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro ta’lim dasturlarida 4–sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi va badiiy hamda axborot matnlari ustida ishlash qobiliyatini baholaydi. Unda o‘quvchining ma’no anglash, matn ostidagi g‘oyani tushunish, dalillarga asoslangan fikr bildirish va shaxsiy munosabat shakllantirish salohiyati tekshiriladi. PIRLS natijalari ta’limning boshlang‘ich bosqichida adabiyot ta’limi samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta’limni baholashga qaratilgan bo‘lsa–da, undagi testlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, axborotni tahlil qilish va tanlash ko‘nikmalariga ham

e’tibor qaratiladi. Shu bois, adabiyot fanini o‘qitishda, ayniqsa, fanlararo matn tahlili jarayonlarida TIMSS talablariga mos savodxonlikni rivojlantirish kerak bo‘ladi.

EQAR (European Quality Assurance Register) bu ta’lim sifatini ta’minlash agentliklari uchun yevropalik mustaqil tashkilotlar reyestri bo‘lib, u ta’lim tashkilotlarining sifatni baholash va ta’minlash standartlariga mosligini aniqlaydi. Garchi EQAR to‘g‘ridan–to‘g‘ri maktab darajasidagi baholashni qamrab olmasa–da, u ta’limdagi sifat menejmenti, faoliyat shaffofligi va natijaviy yondashuvni kuchaytirish orqali adabiyot ta’limida ham strategik qayta ko‘rib chiqishlarga zamin yaratadi.

Xalqaro baholash dasturlari haqiqatan ham faqat baholash mexanizmi emas, balki ta’lim tizimini transformatsiya qilishga olib keluvchi strategik dasturlardir. Ular ta’lim natijalarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, milliy o‘quv dasturlarini qayta ishlash, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish va o‘quvchida shaxs sifatida fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalashni talab qiladi. Bu haqda Britaniyalik pedagog Rut Ditrix shunday yozadi: “Xalqaro baholashlar faqatgina test emas; ular ta’lim islohotining vositalaridir, ular bilimga ega bo‘lish bilan uni amalda qo‘llash o‘rtasidagi farqni ochib beradi va o‘zgarib borayotgan dunyoda adabiyotni qanday va nega o‘qitishimizni qaytadan ko‘rib chiqishga undaydi.”[1]

Xalqaro baholash dasturlarida, ayniqsa PISA va PIRLS kabi keng qamrovli baholash tizimlarida o‘quvchi savodxonligini baholash faqat ma’lumotni o‘qish va yodlash bilan emas, balki axborotni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qayta qo‘llash qobiliyati bilan belgilanadi. Bu mezonlar ta’lim mazmunini kompetensiyaviy asosda qayta shakllantirish, o‘quvchida mulohazali o‘qish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy anglash qobiliyatini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

Quyida ushbu mezonlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Axborotni anglash va mazmunni tushunish. Bu mezon o‘quvchining matnni yoki axborotni sintetik darajada tushunishi, matndagi asosiy g‘oyani, muallifning maqsadini va umumiy ma’noni anglab yetishi bilan bog‘liq. Bu jarayonda shogirddan faktlar bilan g‘oyalarni, umumiy va xususiy ma’lumotlarni farqlash, matnning tuzilishini tushunish talab qilinadi. PISAda bu ko‘nikma “retrieving and understanding information” (axborotni olish va anglash) deb nomlanadi.

2. Matnni tahlil qilish va baholash. Bu mezon o‘quvchining matndagi dalillar, muallifning nutq uslubi, so‘z tanlovi, tasvirlar va obrazlar orqali berilgan g‘oyalarga baho berish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Unda o‘quvchi matnning mantiqiy tuzilishi, dalil–isbotlar tizimi va ularning ishonchliligini tahlil qila olishi lozim. Bu tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, PISA buni “reflecting and evaluating” (mulohaza yuritish va baholash) sifatida baholaydi.

3. Axborotni qayta qo‘llash va shaxsiy ma’no yaratish. Bu mezon o‘quvchining o‘qilgan matndan yangi holatlar uchun xulosa chiqarish, shaxsiy munosabat bildirish va yangi kontekstda ma’lumotni qayta tatbiq qilish qobiliyatiga taalluqli. Unda o‘quvchi real hayot bilan bog‘liq tanlovlarni anglaydi, muammolarni hal etishda asardan, matndan, axborotdan foydalanadi. PIRLSda bu “interpretation and integration” (talqin va uyg‘unlashtirish) deb belgilanadi.

4. Multimodal axborot bilan ishlash qobiliyati. Bugungi axborotlashgan jamiyatda o‘quvchi faqatgina an’anaviy matnni emas, balki infografika, diagramma, rasm, skrinshot, slayd va audiomatn kabi multimodal axborot manbalarini ham tushunishi kerak. Shu bois, PISA 2018 va 2022 sikllarida vizual elementlar, raqamli formatdagi hujjatlar bilan ishlash, gipermatnli muhitda yo‘l topish kabi ko‘nikmalar alohida e’tiborda turdi. Bu ta’limning raqamli savodxonlik bilan uyg‘unlashuvini anglatadi.

5. Matn turlari bilan ishlash: badiiy va axborot matnlari. Xalqaro dasturlar ikki asosiy matn turi bilan ishlashni talab qiladi:

Badiiy (literary) matnlar: hikoya, esse, she’r, dramatik parchalar. Bu turda hissiyot, obraz va qiyosiy tahlil talab etiladi.

Axborot (informational) matnlar: maqola, ma’lumotnoma, xat, tadqiqot parchasi. Bu turda dalillarni tushunish, manbalarni solishtirish, xulosa chiqarish talab etiladi.

6. Shaxsiy munosabat bildirish va ijtimoiy anglash. Bu mezon o‘quvchining o‘qilgan matnga shaxsan munosabat bildirishi, u orqali insoniy qadriyatlar, axloq, jamiyat haqida fikr yuritishi bilan bog‘liq. Adabiyot ta’limida bu alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi o‘z tajribasi, hissiy holati va hayotiy qarashlari asosida matn bilan muloqot qiladi.

Umuman, xalqaro baholash mezonlari adabiyot fanining intellektual, axloqiy, ijtimoiy va estetik faoliyat bilan bog‘liq o‘quv maqsadlarini talab etadi. Shuning uchun adabiyot ta’limida ham ana shu mezonlarga asoslangan kompetensiyalar: mulohazali o‘qish, tanqidiy tahlil, shaxsiy ma’no yaratish va multimodal fikrlash maqsad sifatida shakllantirilishi zarur. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, ta’lim mazmunini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

PISA dasturida o‘qish savodxonligi tushunchasi an’anaviy o‘qish qobiliyatidan farqli ravishda o‘quvchining matnni anglash, tahlil qilish, sharhlash, shaxsiy munosabat bildirish va hayotiy masalalarni hal etishda undan foydalanish salohiyatini qamrab oladi. Bu tushuncha bilimlarni yodlash emas, balki ma’noli o‘qish, tanqidiy idrok va mulohazali fikr bildirish qobiliyatiga asoslanadi. Aynan shu jihatidan u adabiyot fanining mohiyati va vazifalari bilan chuqur uyg‘unlik kasb etadi. Zero, adabiyot ta’limi

[1] Dietrich R. Global Literacies and the Role of Assessment // International Journal of Educational Development. – 2017. – Vol. 55. – P. 89–98.

o‘quvchida badiiy matn orqali dunyoqarash, hissiy anglash, fikriy mulohazakorlik va shaxsiy ma’no yaratish salohiyatini rivojlantiradi. Shu bois PISAning “o‘qish savodxonligi”ga doir yondashuvi adabiyot fanini baholashda yangi metodologik mezonlar va transformatsiya vazifalarini belgilab bermoqda.

PISA dasturida “o‘qish savodxonligi” faqat texnik o‘qish qobiliyati yoki matnni aniq o‘qib berish bilan emas, balki mulohazali o‘qish, tahlil qilish, sharhlash va shaxsiy fikr bildirish qobiliyati bilan o‘lchanadi. Bu savodxonlik tushunchasi o‘quvchida axborotni faol qabul qilish, uni qayta ishlash, undan yangi ma’no yaratish va uni hayotiy sharoitda qo‘llash salohiyatini talab qiladi. Ayni shu jihat PISAdagi baholash tizimini adabiyot fanining asl vazifalari bilan chuqur bog‘laydi.

PISA baholash dasturida qo‘llaniladigan matnlar va adabiy matnlar o‘rtasida shakl va maqsad jihatidan farqlar mavjud bo‘lsa–da, ularning o‘zaro uyg‘unligi va metodologik bog‘liqligi ta’lim mazmunini transformatsiya qilish nuqtayi nazaridan o‘ta muhim hisoblanadi. PISAdagi matnlar, asosan, real hayotda uchraydigan funksional, informativ va qisman adabiy xususiyatga ega bo‘lgan matnlar bo‘lib, ular o‘quvchining matnni tushunish, axborotni qayta ishlash, mulohazali fikr bildirish va qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Bu matnlar formati, vazifasi va savollar tizimi nuqtayi nazaridan adabiy matnlar bilan yaqin aloqada bo‘ladi.

Umuman, PISA matnlari va adabiy matnlar o‘rtasidagi bog‘liqlik shundan iboratki, ikkalasi ham o‘quvchining fikr yuritishi, ma’no yaratishi, shaxsiy pozitsiya shakllantirishiga xizmat qiladi. Ushbu umumiy maqsad ularni pedagogik va metodik jihatdan integratsiyalash imkonini yaratadi. Bu esa, adabiyot fanini PISA mezonlari bilan uyg‘un holda transformatsiya qilish uchun mustahkam asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dietrich R. Global Literacies and the Role of Assessment // International Journal of Educational Development. – 2017. – Vol. 55. – P. 89–98.

2. Рахимов З.Т. Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. // “Замонавий таълим” илмий–амалий оммабоп журнали, 2019 йил № 7–сон. – 3–8–б.

3. И.С.Якиманская.Основы личностно–ориентированного образования. – М.: “Бином. Лаборатория знаний”, 2011;

4. Индиаминов Н., Бабажанов Б. Таълим самарадорлигини оширида шахсга йўналтирилган таълим // Замонавий таълим. 2014. №8. 18–22 бетлар;

5. A.B. Radjiyev, A.A. Ismailov, J.R. Narziyev, H.P. Tog‘ayeva, “O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqiotlar dastur”, Qo‘llanma, 2019–yil.

6. Д.Векслер. Тест Векслера. Описание методики//psiholog.org. http://psihologn.org/index.php/psihologam–main3/373–test–vekslera–normativnye–tablitsy–1

7. Адабиёт ўқитиш методикаси. /А.Зуннунов, Н.Ҳотамов, Ж.Эсонов, А.Иброҳимов – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992.– 37–бет.

8. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. –T., 2018 й.



Husainova Dilbar Haqberdiyevna,
Qashqadaryo viloyati,
Koson tumani,
37–maktab o‘qituvchisi

DAVLAT TILINI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishning samarali usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: til, nutq, tafakkur, davlat, qonun, dars, usul, mazmun, yo‘l.

Аннотация. В данной статье рассматриваются эффективные методы обучения узбекскому языку.

Ключевые слова: язык, речь, мысль, государство, закон, урок, метод, содержание, путь.

Annotation. This article discusses effective methods of teaching the Uzbek language.

Key words: language, speech, thought, state, law, lesson, method, content, path.

Har bir mamlakatning asosiy belgilaridan biri bu uning milliy tili hisoblanadi. Davlat tili – bu xalqning madaniy merosi, millatning birligi va davlat mustaqilligining ramzidir. Davlat tilini samarali o‘qitish orqali yoshlar orasida milliy g‘ururni oshirish, ma’naviy tarbiya berish va tilda sof gapirish madaniyatini shakllantirish mumkin.

Davlat tilini o‘rgatishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, jumladan,

interfaol darslar, klasterlar, assotsiativ usullar va aqliy hukmlardan foydalanish

talab etiladi. Buning natijasida o‘quvchilar tilni faqat nazariy emas, balki amaliy

jihatdan ham o‘zlashtiradilar.

Quyidagi mashqlarni bajartirish yaxshi natija beradi:

1) So‘z va nutq odobi bo‘yicha aytilgan quyidagi fikrlarni sharhlang.

1. So‘zni ko‘nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa, tilga surma. (A. Navoiy) 2. Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D. E. Rozental) 3. Bilgilkim, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi. (Kaykovus) 4. So‘z kuchidan yiqilar minbar ham, dor ham, so‘z birla chiqar indan ilon–murdor ham. (Abu Shukur Balxiy) 5. Har bir kishining madaniylik darajasi o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og‘zaki nutqidan bilinadi, (S. Ibrohimov) 6. Bir deganni ikki demak xush emas, so‘z chu takror topti dilkash emas. (A. Navoiy)

Yodda tutish topshiriladi:

O‘zbek tilida, avvalo, uning boy lug‘at tarkibida o‘zbek xalqining ilm–u madaniyati, san’ati aks etgan, insonning bilish faoliyati jarayoni va uning natijalari ifodalangan. Asosiy lug‘aviy birlik hisoblangan so‘z orqali kishilik jamiyatining madaniy–tarixiy qadriyatlari, to‘plangan tushuncha va bilimlar avloddan avlodga yetkaziladi.

So‘z shakli va mazmun yaxlitligiga ega bo‘lib, ma’no va gramatik jihatdan shakllangan bo‘ladi. So‘zning shakli, ya’ni tashqi tomoni tovush (harf)lardan iborat bo‘lib, bu xususiyatlari fonetikada o‘rganiladi. So‘zning ichki tomoni esa unda ifodalangan ma’nolar bilan tavsiflanadi. So‘zlar bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo‘ladi.

Ajdodlarimiz qadimdan to‘g‘ri, ta’sirchan, chiroyli gapirishga intilish va ularni odatga aylantirishga ma’rifiy–axloqiy talab sifatida qarab kelganlar. So‘zni qadrlash, yaxshi so‘zlay olish, tilni tiyish, suhbat sirlarini saqlash, ezma va vaysaqi bo‘lmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning mangu an’anasi sifatida yashagan va takomillashib kelmoqda.

2) Quyidagi maqollarni davomini toping.

Yoshlikda o‘rgangan bilim– …
Yaxshi gap jon ozig‘i–,…
Aytilgan so‘z –...
Qilichning zahri ketsa ham –,…
Otalar so‘zi –...
Tilni bilish – ...
Aytar so‘zni ayt–,…
Ko‘p bilgan oz so‘zlar–,…
Gapni oz so‘zla–,…
Qish g‘amini–…

O‘zbek tili uzoq tarixiy davrni boshdan kechirdi. Yot tillar ta’siridan omon qolish uchun o‘z rivojlanish yo‘lini tanlab, bugungi kunga qadar iste’mol doirasini kengaytirib kelmoqda. Dunyoda 3 mingdan ortiq til bo‘lsa–da, hammasi ham Davlat tili maqomiga ega emas (200 ga yaqin yozuv mavjud). O‘zbek tili Davlat tili maqomini qo‘lga kiritgunga qadar juda ko‘p tazyiqlarga uchragan. Xalqimiz mustaqillikni qo‘lga kiritish arafasida (1989–yil 21–oktabrda) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilindi.

Yodda tutish topshiriladi:

1. 1993–yil 2–sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi.

2. 1995–yil 24–avgustda “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” (82 qoida) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi.

3. Milliy munosabatlarni yaxshilash, davr taqozosi bilan 1995–yil 21–dekabrda “Davlat tili haqida”gi qonun (1989–yil 21–oktabrda tasdiqlangan qonun)ga ba’zi o‘zgartirishlar kiritildi.

4. “Davlat tili haqida”gi qonun 24 moddadan iborat bo‘lib, 1–moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili o‘zbek tilidir”, deb yozilgan.

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4–moddasida ham “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili o‘zbek tilidir”, deb ta’kidlangan.

Ona tili darslarida quyidagi topshiriqlarni bajartirish ham kutilgan maqsadga olib boradi.

I topshiriq. “Tilga e’tibor – elga e’tibor” mavzusida og‘zaki matn tuzing.

II topshiriq. Alisher Navoiyning “Mahbub ul–qulub” asaridan so‘z ta’rifi bo‘limini o‘qib quyidagi savollarga javob bering.

1. “Suvning mazasi muz bilan, oshning mazasi tuz bilan, odam yaxshiligi so‘z bilan” jumlasini sharhlang.

2. …”Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar…” jumlasi orqali qanday fikr ilgari surilgan?

3. “Yolg‘on so‘z baxtsizlik keltirur…” jumlasini izohlang.

Darsning samaradorligini oshirish uchun audio va video materiallardan foydalanish ham mumkin. Davlat tilida tayyorlangan videoroliklar, multfilmlar, radiodasturlar yordamida til o‘rgatishning qiziqarli yo‘llari yaratiladi. Bu usullar orqali o‘quvchilar tilda to‘g‘ri talaffuz qilishni, intonatsiyani his qilishni o‘rganadilar. Darslarda she’rlar, hikoyalar yozish, rolli o‘yinlar tashkil qilish orqali o‘quvchilarning davlat tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. bu ularning ijodkorlik qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Til muhitini yaratish davlat tilini samarali o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Maktablarda, OTMlarda davlat tilida gaplashishni targ‘ib qilish, turli ko‘rgazmalar, viktorinalar, kitobxonlik kechalari o‘tkazish natijasida til muhiti shakllanadi.

Onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual darslar yordamida davlat tilini o‘rgatish imkoniyatlari kengayadi. Masalan, davlat tilida tayyorlangan interaktiv mobil ilovalar, loyihalar orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda tilni mukammal o‘zlashtirishlari mumkin.

Davlat tilini samarali o‘qitish har bir ta’lim muassasasi oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy va ijodiy yondashuvlar, axborot texnologiyalari, til muhitini yaratish bilan davlat tiliga bo‘lgan hurmat va muhabbat oshadi. Bu esa xalqning ma’naviy yuksalishi va tilining boyishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva Onatili (darslik) MOLIYA–IQTISOD, Toshkent, 2007–yil. 81.633.1 0–56 У–6793

2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev Ona tilidan mashqlar to‘plami (o‘quv qo‘llanma) TDPU, Toshkent, 2009–yil 81.633.1 921994 И 37 .

Dildora ABDISAMATOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ONA TILI METODIKASINI O‘QITISHDA DIALOGIK MULOQOTNING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining muloqot ko‘nikmasini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish va uning hozirgi zamon bilan chambarchas bog‘liqligi haqida fikr yuritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli xil ijodiy topshiriqlardan, rasmli matnlardan, savol –javob, o‘yinli topshiriqlar va shu kabilar haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: dialogli muloqot, aloqa, maktab, o‘quvchi, bilim, talaba.
Annotatsiya: this article discusses the use of creative tasks in the development of communication skills of primary school students and its close connection with the present time. In the development of speech and communication skills of primary school students, various creative tasks, pictorial texts, question–and–answer, game tasks, etc. were considered.
Key words: dialogical communication, communication, school, student, knowledge, students.
Аннотация: в данной статье рассматривается использование творческих заданий в развитии коммуникативных навыков младших школьников и их тесная связь с современностью. В развитии речевых и коммуникативных навыков младших школьников рассматривались различные творческие задания, изобразительные тексты, вопросы–ответы, игровые задания и т. д.
Ключевые слова: диалогическое общение, коммуникация, школа, ученик, знания, ученики.

Kirish. Ona tili global muloqot tili sifatida keng e’tirof etilgan va bugungi o‘zaro bog‘liq dunyoda uning ahamiyatini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Maktablarda ona tilini o‘rgatish o‘quvchilarni zamonaviy dunyo muammolariga tayyorlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Bu nafaqat talabalarning lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, balki ularga keng bilim va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ona tili biznes, fan va texnologiyaning asosiy tili bo‘lganligi sababli, tilni bilish talabalar uchun keng ko‘lamli martaba istiqbollari uchun eshiklarni ochadi. Bundan tashqari, ona tilini o‘rganish, shuningdek, odamlarga turli xil madaniy kelib chiqishi bo‘lgan odamlar bilan aloqa o‘rnatish, tushunishni rivojlantirish va bag‘rikenglikni rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, maktablarda ona tilini o‘rgatish ham o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshirishi mumkin, chunki ular dunyo miqyosida tan olingan tilda o‘zlarini samarali ifoda eta oladilar. Shu sababli, maktablar o‘quvchilarni kuchli raqobatdosh va o‘zaro bog‘langan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ko‘nikma va malakalar bilan jihozlash uchun ona tilini o‘rgatishga ustuvor ahamiyat berishlari zarur.

Tahlil va natija. Muloqot odamlarning o‘zaro munosabatlarining muhim jihati bo‘lib, u odamlarga o‘z fikrlari, g‘oyalari va his–tuyg‘ularini boshqalarga ifoda etish imkonini beradi. Bugungi raqamli asrda xabarlar, ijtimoiy media va video qo‘ng‘iroqlar kabi turli xil aloqa vositalari mavjud. Biroq, muloqotning eng keng tarqalgan shakllaridan biri og‘zaki muloqot bo‘lib, xabarlarni etkazish uchun og‘zaki tildan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Muloqotning bu shakli o‘zbek tilida so‘zlashuv nutqni muloqot vositasi sifatida nomi bilan mashhur bo‘lib, kundalik hayotimizda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Og‘zaki muloqot ma’lumot, g‘oyalar va his–tuyg‘ularni boshqalarga yetkazish uchun so‘zlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu uyda, maktabda, ishda yoki ijtimoiy yig‘ilishlar kabi turli xil sharoitlarda bo‘lishi mumkin. Samarali og‘zaki muloqot ma’ruzachilardan o‘z so‘zlarini aniq ifodalashni, mos ohang va ovoz modulyatsiyasini qo‘llashni va tinglovchi bilan ko‘z bilan aloqa qilishni talab qiladi. Ushbu usullardan foydalangan holda, ma’ruzachilar o‘z xabarlarini tinglovchilar tomonidan tushunilishi va yaxshi qabul qilinishini ta’minlashi mumkin. Og‘zaki muloqotning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u darhol fikr bildirish imkonini beradi.Odamlar suhbatga kirishganda, ular tinglovchining javobini o‘lchashlari va o‘z xabarlarini mos ravishda o‘zgartirishlari mumkin. Ushbu real vaqt rejimidagi qayta aloqa halqasi ikkala tomon ham bir sahifada bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchilik yoki chalkashliklarni bartaraf etishi mumkin. Bundan tashqari, og‘zaki muloqot og‘zaki bo‘lmagan belgilarga, masalan, yuz ifodalari va tana tiliga, og‘zaki xabarni to‘ldirish va yaxshilash imkonini beradi.

Og‘zaki muloqot, shuningdek, munosabatlarni o‘rnatish va boshqalar bilan aloqa hissini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazmunli suhbatlarda ishtirok etish orqali odamlar bir–birlari bilan munosabatlarni, ishonchni va tushunishni o‘rnatishlari mumkin.Bu, o‘z navbatida, shaxslararo munosabatlarning mustahkamlanishiga, hamkorlikning kuchayishiga va jamiyatning yanada tuyg‘usiga olib kelishi mumkin. Og‘zaki muloqot, shuningdek, nizolarni hal qilish va muammolarni samarali va konstruktiv tarzda hal qilish uchun kuchli

vosita bo‘lishi mumkin. Shaxslararo manfaatlardan tashqari, og‘zaki muloqot ham akademik va professional muvaffaqiyat uchun zarurdir.

Maktabda talabalar ko‘pincha sinf muhokamalarida, taqdimotlarda va bahslarda qatnashishlari kerak. Og‘zaki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali talabalar o‘z fikrlarini samarali ifoda etishlari, tengdoshlari bilan muloqot qilishlari va mavzu bo‘yicha bilim va tushunchalarini namoyish etishlari mumkin. Xuddi shunday, ish joyida samarali og‘zaki muloqot ma’lumotni yetkazish, kelishuvlarni muzokara qilish va hamkasblar va mijozlar bilan hamkorlik qilish uchun juda muhimdir. Og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini bugungi kunda o‘qitishning minglab innovatsion usullari mavjud. O‘qituvchilar o‘quv rejasiga muvofiq maqsadlariga erishish uchun eng samaralilarini tanlaydilar. Bunday usullar o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalarini, tinglash, o‘qish, yozish va gapirish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Boshqalar qatorida nutqqa ham katta e’tibor beriladi. Agar o‘quvchi o‘z his–tuyg‘ularini ona tilida erkin ta’sir qilsa, u o‘zini ishonchli his qiladi va uyalmaslikka harakat qiladi.O‘qituvchilar nutqni ikki turdagi muloqot bilan o‘rgatishadi: monologik va dialogik.

Tillarni o‘rganishda til ta’limining eng samarali intensiv metodlarini ishlab chiqish masalalariga hamisha katta e’tibor qaratib kelingan, til o‘qitish metodlari muntazam takomillashtirib borilgan.O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday kechishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Bugungi kun o‘qituvchisi har bir mashg‘ulotga kirar ekan, har doim uning oldida darsni qanday tashkil etish kerak, qaysi didaktik materialdan qay tarzda foydalanish kerak, ushbu mavzuni o‘tishda qaysi metodlardan foydalanish samarali bo‘ladi, degan savol turadi. Darsda ko‘zda tutilgan ta’limiy–tarbiyaviy maqsadlarga erishishda o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining o‘zi yetarli emas. Bugungi kun o‘qituvchisi o‘z fani bo‘yicha belgilangan davlat standartlari talablarini, ushbu talablarini bajarishda natijaviylikni ta’minlashning samarali metodlarini va ta’lim oluvchilarning kompetentlik darajasini baholash mezonlarini yaxshi bilishi kerak bo‘ladi.

Shuningdek, til o‘qitish metodlarini ishlab chiqishda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv o‘quv usullarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.Dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning tilni o‘zlashtirishda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qo‘llash, hamda o‘zaro muloqot va hamkorlik asosida ishlash samarali o‘qitishning asosiy tamoyillaridan biridir.Shu bilan birga, tilni o‘rganishda shaxsiy yondashuv, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish va o‘quv jarayonini ularning ehtiyojlariga moslashtirish metodlarni yanada samarali qilishga yordam beradi.

Nutqni yaxshilash uchun faol tinglashni mashq qilish muhimdir, bu ma’ruzachiga e’tibor berish, aniqlovchi savollar berish va xabarga o‘ylangan holda javob berishni o‘z ichiga oladi. So‘z boyligini kengaytirish, talaffuz va talaffuzni aniqlashtirish, ishonchli va qat’iy gapirishni mashq qilish ham foydalidir. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali odamlar yanada samarali muloqotchilarga aylanishlari va boshqalar bilan aloqa qilish qobiliyatini oshirishlari mumkin. Til insoniy muloqotning asosiy jihati bo‘lib, odamlarga o‘z fikrlari, his–tuyg‘ulari va g‘oyalarini boshqalarga ifoda etish imkonini beradi. Muloqot uchun tildan foydalanishning asosiy usullaridan biri suhbat yoki o‘zbek tilida “so‘zlashuv”dir. Suhbatlar muloqot va o‘zaro munosabatlar uchun platformani ta’minlaydigan shaxslar o‘rtasidagi almashinuvning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Suhbatning sifati ko‘p jihatdan ishtirokchilar o‘rtasidagi og‘zaki muloqot yoki “nutq” samaradorligiga bog‘liq. Suhbatlar turli xil sharoitlarda, masalan, ijtimoiy yig‘ilishlar, professional uchrashuvlar yoki tasodifiy muloqotlarda bo‘lishi mumkin. Kontekstdan qat’i nazar, suhbat samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlash uchun ishtirokchilar aniq va mazmunli muloqot qilishlari muhimdir. Bu yerda “muloqot vositasi” tushunchasi paydo bo‘ladi – u yuzma–yuz, telefon orqali yoki raqamli vositalar orqali suhbat olib boriladigan vositani bildiradi. Suhbat sifatiga aloqa vositasini tanlash katta ta’sir ko‘rsatadi.Masalan, yuzma–yuz suhbatlar tushunish va ravshanlikni oshiradigan yuz ifodalari va imo–ishoralar kabi og‘zaki bo‘lmagan signallarni almashish imkonini beradi. Boshqa tomondan, raqamli aloqada shaxsan o‘zaro ta’sir qilishning samarasi bo‘lmasligi mumkin, bu suhbat oqimiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun odamlar uchun suhbatning mazmuni va maqsadiga qarab suhbatlar uchun eng mos vositani tanlash muhimdir. Bundan tashqari, suhbatning samaradorligi ishtirokchilarning og‘zaki muloqotni shakllantirishdagi mahoratiga ham bog‘liq. Bu nafaqat so‘zlarni tanlashni, balki nutqning ohangini, hajmini va ravshanligini ham o‘z ichiga oladi. Samarali muloqot odamlardan diqqatli tinglovchilar, sezgir ma’ruzachilar va o‘z javoblarida o‘ychan bo‘lishni talab qiladi. Ushbu muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ishtirokchilar suhbatlari qiziqarli, ma’lumotli va o‘zaro manfaatli bo‘lishini ta’minlashi mumkin.Og‘zaki muloqotdan tashqari, nutqni shakllantirishda og‘zaki bo‘lmagan belgilar muhim rol o‘ynaydi. Tana tili, yuz ifodalari va imo–ishoralar og‘zaki xabarlarni to‘ldirishi yoki qaramaqarshi bo‘lishi mumkin bo‘lgan his–tuyg‘ular, niyatlar va munosabatlarni etkazishi mumkin. Ushbu og‘zaki bo‘lmagan signallardan xabardor bo‘lish ishtirokchilarga suhbatning asosiy ma’nosini yaxshiroq tushunishga va javoblarini mos ravishda o‘zgartirishga yordam beradi. Shunday qilib, mazmunli va samarali muloqotni rivojlantirish uchun og‘zaki bo‘lmagan muloqot

san’atini egallash juda muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda bo‘lajak mutaxassislarning turli vaziyatlarda kasbiy muloqotni amalga oshirish layoqatini rivojlantirish til ta’limining bosh maqsadi bo‘lishi kerak. Demak, buning uchun oliy ta’lim muassasalarida talabalarning og‘zaki va yozma monologik va dialogik nutqini muayyan izchillikda rivojlantirib borishga qaratilgan tizim ishlab chiqiladi. Maxsus matnlar va ish hujjatlari, ular bilan ishlashga qaratilgan topshiriqlar va mashqlar tizimini, jumladan, kundalik rasmiy muloqot ko‘nikmalari hamda muammoli vaziyatlarni muloqot vositalari yordamida hal qilishga o‘rgatadigan turli metodlarni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash talabalarni o‘zlashtirilayotgan tilda kasbiy muloqot yuritishga o‘rgatish jarayonini takomillashtiradi.Bunday yondashuv oliy ta’lim muassasalari uchun tuziladigan o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlari, shuningdek, til o‘rgatuvchi dasturlarda yetakchi o‘rin tutishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xojayev Sh.Ona tili va adabiyot o‘qitishda innovatsion metodlar. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Tursunov I. Modellashtirish metodikasi va uning ta’limdagi o‘rni. –Samarqand: Pedagogika nashriyoti, 2021.
3. Dovudov A.Ona tili o‘qitishning metodik asoslari. Buxoro: O‘qituvchi, 2019.
4. Abdullayev F.Dialogli muloqot madaniyatini rivojlantirishning metodik yondoshuvlari. –Toshkent: Pedagogika, 2022.
5. J.J.Jalolov G.I.Maxamova, Sh.S.Ashurov Ona tilini o‘qitish metodikasi –T.: “Fan va texnologiya”, 2015. 335–b.
6. Bobomurodova A. Ona tili ta‘limi jarayonida o‘yin–topishmoqlardan foydalanish. –T.: Musiqa, 2009.
7. A.G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – T.: „O‘qituvchi”, 1992.
8. A.Zunnunov va boshq.Adabiyot o‘qitish metodikasi.— T.: „O‘qituvchi, 1992.41–b.
9. Abdisamatova, D.Modellashtirish Asosida Ona Tili Darslarida Diologli Muloqot Madaniyatini takomillashtirish metodikasi. *Наука и инновация*, 2024.*2*(38), 158–160.
10. Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili. – T.: —Sharq, 2013.
11. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. –T.: —Iqtisodiyot, 2012.



Shaxnoza MUXTAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
shaxnoza1977xon@.gmail.com

ONA TILINI MATEMATIKA FANI BILAN INTEGRATSIYA ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya:mazkur maqolada ona tili ta’limida matematika fani bilan fanlararo integratsiya asosida yondashuvning nazariy asoslari va amaliy ko‘rinishlari yoritilgan. Ona tili darslarida matematik tushunchalar va metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahliliy qobiliyati va ijodiy yondashuvi rivojlanishi isbotlab berilgan. Turli didaktik topshiriqlar va o‘yinlar orqali o‘quvchilarda chuqur bilim shakllanishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: ona tili, matematika, integratsiya, metodika, fanlararo yondashuv, son.

Аннотация**:** в статье рассматриваются теоретические основы и практические аспекты подхода, основанного на междисциплинарной интеграции математики с обучением родному языку. Доказано, что использование математических концепций и методов на уроках родного языка может развивать у учащихся логическое мышление, аналитические способности и творческий подход. Особое внимание уделяется формированию глубоких знаний у учащихся посредством различных дидактических заданий и игр.

Ключевые слова: родной язык, математика, интеграция, методология, междисциплинарный подход, число.

Annotation: this article discusses the theoretical foundations and practical aspects of the interdisciplinary approach to mathematics education in the mother tongue. It is proven that the use of mathematical concepts and methods in mother tongue lessons develops students’ logical thinking, analytical skills, and creative approach. The formation of deep knowledge in students through various didactic tasks and games is emphasized.

Key words: mother tongue, mathematics, integration, methodology, interdisciplinary approach, number.

Hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, fanlararo mantiqiy bog‘liqlikni anglatish muhim omil bo‘lib qolmoqda. Ona tili fanini matematika fani bilan bog‘lab o‘qitish orqali nafaqat til va mantiqiy tafakkur o‘rtasidagi uzviy aloqalarni ochib berish, balki o‘quvchilarni har ikki fanni o‘zaro bog‘liq holda idrok etishga o‘rgatish mumkin.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga ma’lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o‘zi bugungi kunda yetarli bo‘lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Fanlararo integratsiya ana shunday talabni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim tizimidir. [2: 249]

Mutaxassis O.Abduquddusov “integratsiyani (lotincha “integeration” – tiklash, to‘ldirish, birlashtirish, “integer” – yaxlit) bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq”, “integratsiya – sintezning yuqori darajasi hisoblanadi”, – degan fikrni ilgari suradi. [5]

Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo‘lib hisoblanadi. Ona tili ta’limiga integrativ yondashuv uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili o‘qituvchisi fanlararo ichki bog‘lanishda birinchi navbatda uzviylikni ta’minlashi lozim. Predmet mavzulari o‘zaro uzviy bog‘lanib, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish tamoyili asosida yangi mavzuni oldin o‘tilgan mavzular bilan bog‘lab olib borishdir. Ona tili ta’limidagi tashqi bog‘lanish esa uning boshqa turdosh va turdosh bo‘lmagan sohalar va fanlar bilan bo‘lgan o‘zaro bog‘lanishni bildiradi. Bu borada ona tili fani adabiyot, geografiya, vatan tuyg‘usi, davlat va huquq asoslari, informatika, fizika, matematika, kimyo, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari fanlari bilan o‘zaro bog‘lanadi va mavjud bilimlar umumlashgan holda tasniflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi

Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyili belgilangan bo‘lib, unda ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta’limning uzluksizligi va izchilligi; ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta’lim standartlari (DTS) doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta’lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo‘lish va iste’dodni rag‘batlantirish; ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish o‘z ifodasini topgan. [6: 4]

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining vazifasi o‘z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan bitiruvchini tayyorlashdir. Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri – ona tili fanini boshqa umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish deb hisoblash mumkin. Ma‘lumki har bir fan boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq. Dars jarayonida, mavzuni tushuntirishda ham boshqa fanlar bilan bog‘lab tushuntirish darsning samaradorligiga sezilarli ta‘sir etadi. Ona tili fani ham ko‘plab fanlar bilan bevosita aloqador bo‘lib, o‘qituvchi mavzuni tushuntirish jarayonida bu aloqadorlikdan unumli foydalansa, o‘quvchining mavzuni tushunish darajasi osonlashadi va fanlararo integratsiyaga erishiladi. Quyida ona tilini matematika fani bilan aloqadorligini keltirib o‘tamiz:

Avvalo, ona tili va matematika fanlarining aloqadorligi deganda, bevosita son so‘z turkumi ongimizda anglashiladi. Haqiqatan ham “son” har ikki fanning ham o‘rganish obyekti sanaladi. Matematika fanida “sonlar” fanning asosini tashkil etsa, ona tili fanida ham sonlar alohida turkum sifatida keng o‘rganiladi. Ona tili fani sonning tuzilish jihatini, ma’no turlarini, yasalishi, gapdagi o‘rni kabilarni keng o‘rganadi. Bundan tashqari sonlar bilan qo‘llanuvchi hisob so‘zlar (numerativlar)ni ham “son” so‘z turkumi doirasiga kiradi. Matematik atamalarni o‘rganib borish natijasida bola ongida ilmiy terminlar lug‘ati kengayib boradi. Bundan tashqari masalalar yechish va mantiqiy misollarni yechish mobaynida so‘z turkumlarini ham mukammal o‘rganib olishi mumkin. Masalan, 10 > 6; 2 < 6; 6 = 2*3 6 + 6 = 3*4 18 + 18 = 4*9. Ushbu tengsizliklarda “ > – katta”, “ < – kichik” yoki “ = – teng” kabi sifatlar sonlarni taqqoslashga xizmat qiladi va bu ishoralar sifat turkumidagi so‘zga teng kelishi haqidagi tushuncha o‘quvchi ongida bir umr saqlanib qoladi. Bundan tashqari kichik son (6 > 2) chiqish kelishigida (olti soni ikki sonidan katta), katta son esa bosh kelishikda (o‘n katta oltidan), tengliklarda esa “teng” so‘zi jo‘nalish kelishigini talab qilishi (oltiga teng) ni misollar orqali tushuntirishimiz mumkin.

Ona tili fanini matematika fani bilan aloqadorlikda o‘qitish qiziqarli va samarali darsni yuzaga keltiradi. Masalan, qo‘shma so‘zlarning yasalishida son ishtirok etgan qo‘shma so‘zlarni topish (uchburchak, o‘nboshi, to‘rtburchak, beshbattar, beshbarg, ellikboshi, mingdevona, qirqbo‘g‘im, sakkizoyoq...), atoqli otlar mavzusida son tarkibli joy nomlari (Uchquduq, Uchtepa, To‘rtko‘l, Beshariq, Oltiariq, Yettisuv, Ellikqal’a, Mingbuloq...) va shaxs nomlarini topish (Oltmishvoy, Yetmishvoy) o‘quvchini o‘zi qiziqqan holda izlanuvchanlikka chorlaydi va darsning samaradorligini oshiradi. Qiziqarli darslardan biri bo‘lmish matematika fani o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, teran tasavvuri va yangi tushunchalarini boyitib boradi. Ona tili darslarida so‘zlarni qo‘shib so‘z yasashni o‘rgatish jarayonida, shuningdek, til hodisalari haqida tushuncha berishni matematik formulalarga qiyoslagan holda olib borish o‘quvchilar tafakkurini o‘stiradi. S+S=SQ (so‘z+so‘z = so‘z qo‘shilmasi, ya’ni so‘zlarning teng bog‘lanishi so‘z qo‘shilmalarini hosil qiladi: kitob va daftar); S+S=SB (tobe so‘z+hokim so‘z = so‘z birikmasi, ya’ni so‘zlarning tobelanish asosida bog‘lanishi so‘z birikmalarini hosil qiladi: uyning tomi). Avval ona tili faniga oid qoidalar o‘quvchi tomonidan formulaga aylantiriladi, so‘ng formulalar orqali qoida matni tuziladi.

7–sinf “Ona tili” darsligida berilgan “Bobomning pensiyasi” mavzusi bo‘yicha keltirilgan matnlarda matematika faniga oid tushunchalar keltirilgan. “Keksalarning maoshi” matnida berilgan sonlarni yozuvda va talaffuzda to‘g‘ri qo‘llashga oid topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning matematik sonlarni qo‘llashga oid bilimlari rivojlantiriladi. [1: 98]

Statistik kuzatishlar asosida ma’lumot berish. Bunda turli matnlarga oid ma’lumotlar aniq hisob–kitoblarga ko‘ra belgilanadi. Masalan: Bu jumlada nechta sifat qo‘llangan?; Berilgan matn tarkibida 3 o‘rinda tovush tushishi, 4 o‘rinda tovush almashishiga oid so‘zlarni aniqlash; Yoki matndan ko‘plik qo‘shimchasining 2 o‘rinda hurmat, 2 o‘rinda umumlashtirish kabi uslubiy ma’nolarini aniqlash. Biror shaxs hayotiga oid matndan sonlar bilan bog‘liq ma’lumotlar asosida savol–javob o‘tkazish orqali xotira qobiliyatini mustahkamlash. Matematika faniga oid matnlarni tinglab tushunish, mantiqiy fikrlash orqali matematik o‘lchov va hisob–kitoblar bilan bog‘liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o‘tkazish jarayonida eng maqbul yechimni topa olish va to‘g‘ri qaror qabul qilish malakalari rivojlantiriladi. [4]

Qo‘shma gap mavzusini o‘tishda matematikaga oid qoidalardan foydalanib gap tuzdirish: “Agar a+b=c+d bo‘lsa, kvadrat tenglamaga keladi” shaklidagi matematik jumlalarni tahlil qilish mumkin.

Matematik terminlarni o‘z ichiga olgan lug‘at o‘yinlarini tashkil qilish. Matematik jumboq asosida berilgan matndagi axborotni tahlil qilish. Qaysi raqamda bitta bo‘g‘inni tushirib tashlasak, mustaqil so‘z hosil bo‘ladi? (olti–ol, yetti–yet). [3]

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi” mavzusini o‘tishda har bir harfning joylashish o‘rnidan kelib chiqib berilgan raqamlardan foydalanib so‘z yoki gaplar tuzish. 2, 1, 7, 14, 15 = bahor. So‘zning boshiga, o‘rtasiga yoki oxiriga bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qilish: son–oson, eson, ayiq–qayiq, ota–nota, osh– mosh, bosh, tosh; sara–sayra, qatiq–qattiq, qara–qayra; tog‘–tog‘a, til–tila, ola–olam. Son qatnashgan maqollardan topib, yoddan aytish. Yetti o‘lchab, bir kes. O‘quvchilardan matematik voqealar asosida hikoya yoki esse yozdirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fanlararo integratsiya zamonaviy ta’limning eng dolzarb talablaridan biridir. Ona tili fanini matematika bilan bog‘liq holda o‘qitish orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, ular bilimni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishga o‘rganadi. Ayniqsa, ona tili darslarida matematik kategoriyalar, formulalar, mantiqiy misollar va analitik yondashuvlar orqali mavzularni chuqurroq o‘zlashtirishga erishiladi. Bu esa o‘quvchilarda mantiqiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Integratsion yondashuv nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarni fanlararo aloqadorlik asosida puxta bilimli, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 7–sinfi uchun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

2. Muxtarova Sh.M. Ona tilini informatika fani bilan bog‘liqlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. // “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy–amaliy anjumani. – Farg‘ona, 2023.

3. Shamshiyeva D. Ona tili fanini aniq fanlar bilan aloqadorlikda o‘qitish // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023.

4. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – T.: Sharq, 2001. – 160– b. 120–bet.

5. Yusupov R.M. “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasidan foydalanish. Kasb–hunar ta’limi №4, 2023. 152–bet.

6. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 380 b. 4–bet.

Muxlisaxon ABDUJALILOVA
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E–mail: sh.shomurotov7707@gmail.com

TA’LIM TARBIYA JARAYONIDA MILLATNING MILLIY URF–ODAT, AN’ANA VA MILLIY QADRIYATLARNING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: maqolada globallashuv darida yoshlarning turli–tuman g‘oyalarning mazmunini to‘g‘ri anglab yetishlari, g‘oyaviy–siyosiy ongi va mafkuraviy immuniteti darajasining o‘sishi, ularning ijtimoiylashuvi darajasiga bog‘liqligi masalalariga to‘xtalib o‘tiladi. Ta’lim va tarbiya jarayonlarida milliy va ma’naviy qadriyatlardan unumli foydalanish,yoshlar orasida urf–odat va an’analarga sadoqat tuyg’ularini shakllantirish bilan bog’liq masalalar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv jarayoni, bunyodkor g’oya, qadriyat, global fuqaro, ma’naviyat, tarbiya, axloq, mustaqillik.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы правильного понимания молодежью содержания различных идей, роста уровня идейно–политического сознания и идеологического иммунитета, уровня ее социализации в условиях глобализации. Освещены вопросы, связанные с эффективным использованием национальных и духовных ценностей в процессах воспитания и обучения, формированием у молодежи чувства верности обычаям и традициям.

Ключевые слова: п роцесс глобализации, творческая идея, ценности, гражданин мира, духовность, образование, мораль, независимость.

Annotation: the article focuses on the issues of youth’s correct understanding of the content of various ideas, the growth of the level of ideological–political consciousness and ideological immunity, and the level of their socialization in the face of globalization. Issues related to the effective use of national and spiritual values in education and training processes, and the formation of feelings of loyalty to customs and traditions among young people are highlighted.

Key words: globalization process, creative idea, value, global citizen, spirituality, education, morality, independence.

Ma’lumki, har qanday jamiyatda yoshlar qatlami muhim o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, har bir jamiyatning rivojlanib borishi obyektiv jarayon bo‘lib, uni davom ettirish u o‘z navbatida yangi avlodga zaruriyatni paydo qiladi. Yangi avlod esa, mavjud ishlab chiqaruvchi kuchning tarkibiy qismi va muayyan ishlab chiqarish munosabatlarini davom ettira olishga layoqatli bo‘lishi lozim. Zero, yoshlar muammosini yana bir muhim tomoni shundaki, jamiyat va yoshlar tizimining markaziy elementi alohida olingan inson hisoblanadi.

Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni eng avvalo, jamiyat oldiga qo‘yilgan vazifalar miqyosi va ko‘lamidan kelib chiqadi. Bunday hol O‘zbekiston yoshlariga ham xos. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish, fuqarolar jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat bosh strategik maqsad belgilandi. Bu yo‘ldagi vazifalarni bajarishda yoshlar qatlamiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Keng qamrovli islohotlar jarayonida yoshlarning faol ishtirok etishlarini ta’minlash bo‘yicha davlat va nodavlat muassasalari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ayni paytda, mafkuraviy immunitetni yuksaltirish yo‘lidagi muammolardan biri, yoshlarga doim ta’sir ko‘rsatib turuvchi mavjud ijtimoiy muhitdagi ayrim holatlar bilan bog‘liqdir. Xususan, afsus bilan bo‘lsada, tan olish va ta’kidlash kerakki, ba’zan bozorlarda va savdo shahobchalari atrofida maktab yoshidagi bolalarning pornografik mazmundagi filmlar tushirilgan disklar bilan yashirincha savdo qilayotgani yoki bo‘lmasa, maktab o‘quvchilarining bir–birlari bilan “Internet kafelarda” soatlab fahsh, zo‘rlik, qotillik, razillikni targ‘ib qiluvchi tarmoq o‘yinlarini o‘ynab vaqt o‘tkazayotganiga guvoh bo‘lamiz.

Albatta, bunday holatlarga ba’zi ota–onalar tomonidan farzandlari ustidan nazoratni susaytirib yuborilgani, ta’lim muassasalarining bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish yuzasidan olib borayotgan ishlarining talab darajasida emasligi va boshqa qator omillar sabab bo‘ladi. Biroq, nima bo‘lganda ham, bu – ob’ektiv voqelik va u yoshlarimiz mafkuraviy immunitetini yuksaltirish yo‘lidagi jiddiy to‘siqlardan biridir.

Yoshlarimizda mafkuraviy immunitet milliy urf–odat, an’ana va qadriyatlarimiz, bir so‘z bilan aytganda, mentalitetimiz asosida shakllanadi. Shu ma’noda, sabr–toqat va yaxshi niyat ham o‘zbek xalqining umumiy mental qiyofasidagi muhim jihatlardan sanaladi. Shuningdek, har qanday sharoitda ham yaxshi niyat qilib yashash,

yomonlikning oqibatidan ham yaxshilik bo‘lishiga ishonish tuyg‘usi ham milliy tafakkurimizning original elementi hisoblanadi.

Jamiyatimizni milliy qadriyatlar asosida, jumladan, yoshlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini yanada kuchaytirishda oliy o‘quv yurtlari oldiga juda katta va mas’uliyatli vazifalar qo‘yilmoqda. Bizning mamlakatimizda demokratiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, yangi insonni kamol topshirishning muhim muammolari amalda hal qilinayotgan hozirgi bosqichda yoshlarning roli tobora ortib bormoqda. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi yoshlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik – milliy g‘oyaning tayanchidir. Mustaqillikka sadoqat hissini barchada barobar shakllantirish, fuqarolik tuyg‘usini mustahkamlash, tarixiy qadriyatlarimizni e’zozlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat va ularni boyitish ko‘nikmalarini shakllantirish: tarbiya, madaniyat, ma’rifat o‘choqlari diqqat markazida turgani ijobiy holdir.

Jamiyatimizning asosiy maqsadi ham Vatanga, xalqiga, millatiga fidokor mustaqil fikrlaydigan, har bir masalani ongli ravishda mas’uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchan ma’naviyatli barkamol farzandlar o‘stirish, ularni jismoniy ham ma’naviy–axloqiy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash va bilimli, ma’rifatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iborat. Demak, ana shunday iqtidorli talabalar, ma’naviyatli yoshlargina yurtimizning tayanchi bo‘lishi va porloq kelajagini yaratishini mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish masalasi g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy me’rosimizning chuqur o‘rganilishi, an’ana va urf–odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir.Shu boisdan ham o‘z haq–huquqini taniyligan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon–atrofida sodir bo‘layotgan voqea–hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi dolzarb masalaga aylandi.

Insonlarning juda oz qismi o‘z aql–idroki bilan yashaydi, qolgan aksariyat qismi birovga ergashish, taqlid qilish, o‘zlashtirib olishga moyilligi bilan ajralib turadi. Bu ayniqsa keyingi paytlarda g‘arbcha kiyinish, fikrlash, o‘zaro munosobatlarda yoshlar o‘rtasida keng yoyilayotgani bilan yaqqol ko‘zga tashlanyapti. Milliy qadriyatlar va axloqni globallashuv iskanjasidan saqlab qolishda tarixiy tafakkurning o‘rni kattadir. Xalqimiz boy va olis o‘tmishga ega bo‘lib, o‘ziga xos boy ma’naviy madaniyat, qadriyatlar va axloq tizimini yaratgan, ularni bir necha yilda qo‘ldan chiqarishni ijobiy hol deb bo‘lmaydi. Milliylik bu eskilik sarqiti yoki qoloqlik belgisi emasligini anglash, buning uchun xalqimizning etnik va madaniyati tarixi, tarixiy tafakkuri milliy o‘zlikni anglashda katta ahamiyatga ega. Bugungi bizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biri yoshlar tarbiyasi bo‘lib, ularda milliy ong, milliy g‘ururni shakllantirish, milliy mafkuradan muhofaza quroli sifatida foydalanish lozimdir.

Millatning qiyofasini, o‘zligini belgilaydigan, unga millat sifatida quvvat beradigan qadriyatlarni asrash, ularga suyanish kerak. Bugungi millatning ma’naviy sog‘lomligi masalasi har doimgidan ko‘proq e’tibor berishni talab qilayotir. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganidek: Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an’analari, urf–odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg‘unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg‘usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr–bardoshlilikni, adolat tuyg‘usini, bilim va ma’rifatga intilishni tarbiyalash yo‘lida xizmat qilmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbekning milliy xarakterini belgilaydigan juda ko‘p xususiyatlar mavjud bo‘lib, ular oilaga munosobat, ota–onaga hurmat, bolaga mehr, or–nomus, uyat, andisha, tug‘ilgan yerga mehr, qo‘ni–qo‘shnichilik va boshqalarda ko‘rinadi. Donishmandlar axloqning birinchi asosi farzandlarning ota–onaga hurmatidir, deb bekorga aytishmagan. Bu bir oilaga hos bo‘lgan vazifa emas, butun insoniyatga xos xususiyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

2. Karimov I. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998.

3. Karimov I.A. “Adabiyotga e’tibor–ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” Toshkent. “Sharq yulduzi” 2009 yil №Howard M. America and the World. St. Louis: Washington University. The Annual Lewin Lecture, 5 April 1984. P.6.

4. Shomurotov, S. S. O. (2021). The Need for Formation of Knowledge on the Effective Use of Water Resources in Young People in the Process of Globalization. (in the Example of the Aral Sea). *International Journal of Human Computing Studies*, *3*(2), 89–91.

5. SHOMUROTOV, S. S. O. (2021, April). FIRST STEPS FOR MODERNIZATION OF WATER FARMING IN THE REPUBLIC: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES. In Euro–Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 152–155).
6. Shomurotov, S. S. O. (2021, February). Some Environmental Problems Related To Land And Water Resources In Uzbekistan. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 39–41).
7. SHOMUROTOV, S. S. O. Construction and Changes in Canals and Pumping Stations in Uzbekistan. JournalNX, 7(1), 262–266.
8. Шомуротов, Ш. (2021). Историческое значение реформ, осуществляемых в водной системе Узбекистана. Общество и инновации, 2(3/S), 458–465.
9. Шомуротов, Ш. (2021). Ўзбекистон сув хўжалиги тизимида амалга оширилган ислоҳотларнинг тарихий аҳамияти. Общество и инновации, 2(3/S), 458–465.
10. Shomurotov, S. S. O. (2022). O 'Zbekistonda Suvdan Foydalanuvchilar Uyushmalarining Tashkil Qilinishi Va Faoliyatida Yuzaga Kelayotgan Muammolari. Miasto Przyszłości, 29, 216–220.
11. Shomurotov, S. S. O. (2022). Measures Taken to Develop the Irrigation System in the Country. Miasto Przyszłości, 29, 207–209.
12. Abdujalilova, M., & Solijonova, Z. (2023). DARS JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH–MATEMATIK TA'LIMNI YANGICHA TASHKIL QILISHNING ASOSI SIFATIDA. Conferencea, 90–93.
13. Abdujalilova, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA ANVAR OBIDJON IJODIY NA'MUNALARINI O'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(22), 17–21.
14. Abdujalilova, M. (2023). THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE CREATIVE EXAMPLES OF ANVAR OBIDJAN IN PRIMARY CLASS READING LESSONS. Science and innovation, 2(B11), 574–576.
15. Abdujalilova, M., & Zaxro, A. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O'QUVCHILARIDA SAMARALI O 'QISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(20), 16–19.
16. Abdujalilova, M. (2023). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SOLVING TEXT PROBLEMS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(12).
17. Ikramovna, I. S., & Abduxalilqizi, A. M. (2023). A Worldwide Picture Of Amir Temir's Image. Journal of Positive School Psychology, 1238–1243.

Shakhnoza NOROVA,
Toshkent shahridagi Prezident maktabida ingliz tili o‘qituvchisi
mail: shakhnozanorova@gmail.com

DUNYONI MILLIY–MADANIY ANGLASHNING TILDA VOQELANISHIDA GAPDAGI MUSTAQIL ELEMENTLARNING ROLI

Annotatsiya:mazkur ishda til vositasida dunyoni milliy–madaniy anglash jarayoni, xususan, mustaqil gap bo‘laklarining konseptual mazmunga ta’siri tahlil qilinadi. Maqsad – ingliz va o‘zbek tillarida umuminsoniy qadriyatlarni nomlashdagi farqlarni aniqlashdir.Natijada lingvistik nisbiylik nazariyasining milliy tilga xos ifodaviy imkoniyatlari chuqur ochib berildi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy guruh, umumiy manfaatlar, mustahkam tuzilma, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy qatlamlashuv, mulkiy farqlar, mehnat taqsimoti

Аннотация: в работе рассматривается роль самостоятельных членов предложения в отражении национально–культурного восприятия мира через язык. Цель — выявить особенности концептуализации универсальных ценностей в английском и узбекском языках. В результате выявлены новые аспекты лингвистического релятивизма в рамках национально–языкового мышления.

Ключевые слова: социальная группа, общие интересы, устойчивая структура, социальное неравенство, социальная стратификация, имущественные различия, разделение труда

Annotation:this study explores how independent sentence elements reflect national and cultural worldviews through language. The goal is to identify semantic and conceptual differences in expressing universal values between English and Uzbek. The research highlights new dimensions of linguistic relativity within the framework of culturally specific language patterns.

Key words: social group, common interests, stable structure, social inequality, social stratification, property differences, division of labor

Kirish. Har bir xalqning dunyoqarashi, milliy va madaniy qadriyatlari ularning tilida o‘z ifodasini topadi. Til – bu faqat aloqa vositasi emas, balki xalq tafakkurining, urf–odatlari va hayot tarzining in’ikosi hisoblanadi. Har qanday tilning tuzilishi, ayniqsa, gapning tarkibiy qismlari – mustaqil va yordamchi so‘zlar orqali xalqning borliqni qanday tasavvur qilishi, unga qanday munosabatda bo‘lishi ochiladi. Xususan, gapdagi **mustaqil elementlar** – ot, fe’l, sifat, ravish kabi so‘z turkumlari, milliy–madaniy anglashning til orqali qanday voqelanishini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ular orqali millatlar hayotida muhim o‘rin tutgan qadriyatlar – mehnat, ta’lim, e’tiqod, mehri–oqibat kabi tushunchalar qanday semantik toifalarga ajratilishi, qanday kontekstda qo‘llanishi kuzatiladi. Tadqiqotimizda ingliz va o‘zbek tillaridagi gapdagi mustaqil elementlarning ushbu jarayondagi roli qiyosiy tahlil etilib, til orqali dunyoni milliy–madaniy anglash tamoyillari o‘rganiladi. Bu, o‘z navbatida, tilshunoslikda **lingvistik nisbiylik nazariyasi** asosida milliy tafakkur va tildagi semantik tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi.

Asosiy qism. Milliy–madaniy tafakkur tilning barcha darajalarida, xususan, gapdagi mustaqil elementlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Mustaqil gap bo‘laklari – ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol – nafaqat grammatik jihatdan, balki semantik va pragmatik nuqtayi nazardan ham milliy dunyoqarashni ifodalaydi. Bu elementlar orqali xalqning o‘ziga xos fikrlashi, qadriyatlari va hayotiy tajribalari tilda aks etadi.

Birinchi navbatda, **ega** gapdagi asosiy semantik markaz hisoblanadi.U ko‘pincha milliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy institutlar yoki ramziy tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilida “Ona” so‘zi ko‘pincha faqat biologik shaxs emas, balki mehr, tabarruklik va qutlug‘lik timsoli sifatida ishlatiladi: *“Ona yurti bor inson hech qachon xor bo‘lmaydi.”* Bu yerda ega bo‘lgan “inson” umumlashgan holda milliy birlik va vatanparvarlik tushunchalarini o‘zida mujassam etadi. Ingliz tilida esa shunga o‘xshash funksiyani “Motherland” yoki “homeland” kabi so‘zlar bajarsa–da, ularning stilistik og‘irligi va emotsional boyligi o‘zbek tilidagidek kuchli emas. Bu esa ega orqali milliy tafakkurning ifodalanishini ko‘rsatadi.

Kesim – bu harakat yoki holatni bildiruvchi asosiy komponent bo‘lib, milliy qadriyatlarning tildagi ifodasida muhim vositadir. O‘zbek tilida ko‘plab kesimlar zamon, ehtiyoj va maqsad ifodalovchi affikslar orqali yanada boyitiladi. Masalan, “oqil bo‘l” iborasida kesim faqat buyruq emas, balki muayyan madaniy qadriyat – aql–idrokka tayanish – ifodasidir.Ingliz tilidagi “be wise” iborasi esa shunchaki xulq tavsiyasidir.Shunday qilib,

o‘zbek tilida kesim orqali axloqiy–estetik qadriyatlar ham uzatiladi.

To‘ldiruvchi esa nutqning semantik aniqligini oshiradi va ko‘pincha xalq hayotining muhim jihatlarini yoritishda xizmat qiladi. Masalan, “inson ta’lim olishi kerak” degan gapda “ta’lim” to‘ldiruvchi bo‘lib, u o‘zbek xalqining ilmga, tarbiyaga bo‘lgan qadimiy e’tiborini aks ettiradi.Ingliz tilidagi “One must receive education” shaklida ham to‘ldiruvchi mavjud, lekin bu yerda “education” ko‘proq texnik, rasmiy mazmunga ega. O‘zbek tilida esa bu tushuncha ko‘proq hayotiy va axloqiy ohangga ega bo‘ladi.

Aniqlovchi milliy tafakkurning lingvistik ifodasida o‘ta muhim rol o‘ynaydi.Chunki u boshqa gap bo‘lagiga qo‘shimcha semantik yuk yuklaydi. Masalan, “ulug‘ alloma”, “tabarruk mehmon”, “mehribon ona” kabi birikmalarda aniqlovchilar faqat sifatlash emas, balki madaniy kodni uzatadi.“Ulug‘” so‘zi – hurmat, “tabarruk” – muqaddaslik, “mehribon” – qalbiy iliqlik timsollaridir. Ingliz tilidagi “great scholar”, “respected guest”, “kind mother” iboralari tarjima jihatidan to‘g‘ri bo‘lsa–da, o‘zbek tilidagi emotsional va madaniy konnotatsiyani to‘liq bera olmaydi.

Hol esa voqelikning shart–sharoitlarini ko‘rsatish orqali milliy tafakkurda mavjud bo‘lgan muhitni tasvirlaydi. Masalan, “u duo bilan ish boshladi” gapidagi hol – “duo bilan” – faqat jarayonning sharti emas, balki xalqning ma’naviy yondashuvini bildiradi. Bunday ibora orqali o‘zbek xalqining har qanday ishni boshlasdan avval ma’naviy tayyorgarlikka e’tibor qaratishi namoyon bo‘ladi.Ingliz tilida esa “He started the work with a prayer” iborasi mavjud bo‘lsa–da, u o‘zbek tilidagidek ma’naviy–ruhiy chuqurlikka ega emas.

Tilshunoslikda universal qadriyatlar tildagi semantik struktura orqali ifodalanadi. Masalan, **ta’lim**, **mehr–shafqat**, **ishonch** kabi tushunchalarning ingliz va o‘zbek tillaridagi ifodasi ham bu fikrni tasdiqlaydi. “Ta’lim” o‘zbek tilida ko‘pincha “tarbiya”, “odoblilik” bilan bog‘lanadi: “ta’lim olgan bola odobli bo‘ladi.” Ingliz tilida esa “education” ko‘proq akademik jarayon sifatida qaraladi. Shuningdek, “mehr–shafqat” o‘zbek tilida kengroq semantik maydonga ega – bu so‘zlar ruhiy mehr, insonparvarlik, birodarlik g‘oyalarini o‘z ichiga oladi. Ingliz tilidagi “compassion” bu ma’nolarning bir qisminigina qamrab oladi.

“Ishonch” esa o‘zbek tilida faqat shaxslar orasidagi munosabat emas, balki taqdir, Alloh, hayotga bo‘lgan ijobiy munosabatni ham bildiradi. Masalan, “Allohga ishonch bilan yashash” iborasi chuqur e’tiqod va ruhiy barqarorlikni bildiradi. Ingliz tilidagi “live with trust in God” esa bu emotsional va madaniy chuqurlikni to‘liq uzatmaydi. Shunday qilib, universal qadriyatlarning o‘zbek va ingliz tillaridagi ifodasi orqali milliy tafakkur farqlari tildagi mustaqil elementlar vositasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, gapdagi mustaqil elementlar – bu nafaqat grammatik birliklar, balki xalqning milliy–madaniy olami, e’tiqodi, qadriyati va estetik didining lingvistik ifodasidir. Har bir element xalq tafakkurining, tarixiy tajribasining va ruhiy hayotining aksi sifatida til tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Xulosa. Til milliy–madaniy ongni shakllantirish va ifodalashning asosiy vositasi bo‘lib, gapdagi mustaqil sintaktik elementlar ushbu jarayonda markaziy rol o‘ynaydi.

Gapdagi mustaqil elementlar orqali milliy dunyoqarash, qadriyatlar, urf–odatlar va madaniy tafakkur tilda aks etadi va kommunikativ jarayonda faol ishtirok etadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida mustaqil elementlarning semantik va pragmatik yuklamasi farqlanadi, bu esa turli madaniyatlarda voqelikni ifodalashning o‘ziga xos usullarini namoyon qiladi.

Lisoniy nisbiylik (linguistic relativity) nazariyasiga ko‘ra, til strukturalari inson tafakkurining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi va milliy madaniyat bilan bog‘liq tushunchalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil elementlar orqali har bir til o‘z xalqining madaniy va tarixiy tajribasini aks ettiradi, bu esa tilshunoslikda lingvokulturologik yondashuvning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arastu.*Poetika. Axloqi kabir. Ritorika.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.20–b.
2. Қuronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari.* – Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019.64–b.
3. Umirov H. *Adabiyot nazariyasi.* – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.42–b.
4. Boltaboev H. *Adabiyot ensiklopediyasi.* – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. – 290–b.
5. Belinskiy V.G. *Rus adabiyoti haqidagi o‘y va mulohazalar. Tanlangan asarlar.* – Toshkent: O‘zDavNashr, 1955.363–b.
6. Shukurov Sh. *Sufizm v kontekste musul’manskoy kultury.* – Moskva: Nauka, 1989. – St. 252.
7. Sapir E. *Language: An Introduction to the Study of Speech.* – New York: Harcourt, Brace and Company, 1921.
8. Whorf B.L. *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf.* – Cambridge: MIT Press, 1956.
9. Mirusmanova Z. (2024).The Influence of Eastern Classical Poetry on Western Poets. – News of the NUUz, 1(1.10.1), 312–313. https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.10.1.4791
10. Muhammad Ali.*Quntu sabot bilan tiklangan qasr. – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, 1998, №23.3–b.

Zarina ISLAMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Amaliy fanlar №1 kafedrasi o‘qituvchisi
Gulchinoy SHUKUROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Amaliy fanlar №1 kafedrasi o‘qituvchisi

AMERIKADA ERON DIASPORASINING PAYDO BO‘LISHI

Annotatsiya: diaspora bir hududdan kelib chiqqan, lekin turli joylarga tarqalib ketgan etnik yoki diniy guruh a’zolariga ishora qiladi. Amerika Qo‘shma Shtatlariga Eronliklarning ilk kelishi 2 asr avval boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. Eronliklarning Amerikaga ko‘chib kelishi uch bosqichda Amalga oshgan va har bir to‘lqin turli xil sabablar bilan turli xil insonlarning Amerikaga kelib o‘rnashishiga olib kelgan.

Kalit so‘zlar: diaspora, Eron–Amerika diasporasi, Eron–Amerika adabiyoti, memuar, madaniyat

Annotation: diaspora refers to members of an ethnic or religious group that originated in the same region but have spread to different places.The first arrival of Iranians to the United States began 2 centuries ago and continues to this day. The immigration of Iranians to America took place in three stages, and each wave brought different people to America for different reasons.

Key words: diaspora, Eranian–American diaspora, Eranian–American literature, memoir, culture

Аннотация: диаспора – это члены этнической или религиозной группы, которые возникли в одном регионе, но распространились в разные места. Первый приезд иранцев в США начался 2 столетия назад и продолжается по сей день. Иммиграция иранцев в Америку проходила в три этапа, и каждая волна приводила в Америку разных людей по разным причинам.

Ключевые слова: диаспора, ирано–американская диаспора, ирано–американская литература, мемуары, культура.

Diaspora atamasi tom ma’noda “tarqalish” degan ma’noni ifodalab, odamlarning bir vatandan ko‘p qit’alar va milliy davlatlar bo‘ylab migratsiya mexanizmi orqali tarqalishini anglatadi. Eng ko‘zga ko‘ringan tarixiy diasporalar orasida yahudiy va arman guruhlari, shuningdek, xalqaro qul savdosi tufayli tarqalib ketgan Afrika jamoalari mavjud.

Diaspora bir hududdan kelib chiqqan, lekin turli joylarga tarqalib ketgan etnik yoki diniy guruh a’zolariga ishora qiladi.Diaspora so‘zi qadimgi yunoncha “dia speiro” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ekin ekish” degan ma’noni anglatadi. Diaspora tushunchasi ilk marotaba yunonlar va yahudiylarga nisbatan ishlatilgan. 1950 va 1960–yillardan boshlab, olimlar Afrika ko‘chmanchilariga nisbatan ham “diaspora”ni qo‘llashni boshladilar va keyingi o‘n yilliklarda bu atamaning qo‘llanilishi yanada kengaydi.

Ijtimoiy fanlarda diaspora tushunchasi 1960–yillarning oxirigacha muhim o‘rin tutmagan.Biroq, qadim zamonlardan beri bu tushuncha miloddan avvalgi VI–IV asrlar oralig‘ida zamonaviy Turkiya va Qrim qirg‘oqlaridan Gibraltar bo‘g‘ozigacha bo‘lgan O‘rta Yer dengizi yerlarining yunon mustamlakachiligiga ishora qilish uchun qisman ijobiy ma’noda qo‘llanilgan. G‘arbda bu tushunchaga ikki xil qarash mavjud bo‘lgan bo‘lsa, sharqda bu termin ancha ijobiy ma’no anglatgan. Masalan, Xitoy aholisining boshqa hududlarga tarqalishi ko‘pincha ijobiy, hech bo‘lmaganda neytral hodisa sifatida qabul qilingan. Hindiston aholisining boshqa o‘lkalarga tarqalishi hatto qo‘llab quvvatlangan.XIX asrdan boshlab esa qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlarida ishlash uchun ko‘chib kelgan malakasiz ishchilar soni yanada oshganligi ahamiyatga loyiqdir.

Olimlar diasporaning kelib chiqishiga turli xil omillarni keltirib o‘tadilar. Ba’zi tahlillarga ko‘ra, diasporalar yaralishining asosiy sabablariga ko‘ra quyidagicha tasniflanishi mumkin: jabrlanuvchi, bosqinchi/mustamlakachi, savdo yoki mehnat diasporalari; ya’ni mos ravishda haydash, kengaytirish, tijorat harakatlari yoki ish topishga intilish natijasida yuzaga kelgan guruhlar. Boshqa tipologiyalar an’anaviy/tarixiy (yahudiy, yunon, finikiya) yoki fuqaroligi bo‘lmagan (Falastin, Rim) diasporalari kabi tarixiy yoki siyosiy omillarga urg‘u beradi. Aksariyat olimlar XIX asrning o‘rtalaridan boshlab aholining ommaviy harakati ko‘plab diasporalarni vujudga keltirganini, ayniqsa bu XX asr oxirida yaqqol ko‘zga tashlanishini ta’kidlashadi.

Taxminan ikki asr, AQSHga ilk Eronlik kelganidan beri Eron–Amerika diasporasi kengayib bormoqda. Bu odamlar rivojlanish uchun, ozodlik uchun imkoniyat qidirib yangi yerlarga ko‘chishdi.Ular shu yerda ildiz otib, o‘z qadriyatlarini yangi madaniyatga moslashtirib yashashda davom etishdi. Eronliklarning Amerikaga assimilyatsiya jarayoni boshqa muhojirlarnikiga o‘xshash bo‘lsa–da, AQSH va Eron o‘rtasidagi nizolar sababli, jamoalar o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch keldi. Biroq, tirishqoqlik va mashaqqatli mehnat tufayli Eron–Amerika

hamjamiyati ushbu muammolarni samarali hal qildi va rivojlanishda hamda o‘sishda davom etmoqda.

Birinchi taniqli Eron–amerikalik inson Mirzo Muhammad Ali bo‘lib, u Hoji Sayyoh nomi bilan mashhur bo‘lgan. Hoji Sayyoh 23 yoshida 18 yil davom etgan dunyo bo‘ylab sayohatiga chiqadi. O‘rta Osiyodan boshlanib, Yevropa bo‘ylab harakatlanib, taxminan 1867–yilda Nyu–Yorkka yetib keladi. Keyingi o‘n yil ichida u Qo‘shma Shtatlar bo‘ylab sayohat qilib, mamlakat madaniyati va boshqaruv amaliyotini o‘zlashtirdi. O‘shandan beri, yuz minglab Eronliklar Hoji Sayyoh izidan borib AQSHda o‘z hayotlarini qurib kelmoqdalar.

Eronning Qo‘shma Shtatlarga immigratsiyasining uchta asosiy to‘lqini mavjud:

1) 1950–yildan 1979–yilgacha;

2) 1979–yildan 2001–yilgacha;

3) 2001–yildan hozirgi kungacha sodir bo‘lmoqda.

Hoji Sayyohdan so‘ng Eronliklarning Amerikaga tashrifi o‘sa boshladi lekin bu sonlar qayd qilish darajasida emas edi. Eronliklarning AQSHga birinchi haqiqiy oqimiga 1954–1960–yillarda neft daromadlarining oshib borishidan hamda AQSHning iqtisodiy va harbiy yordamidan foydalanayotgan Eron mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, ma’muriy va qishloq xo‘jaligi islohotlarini amalga oshirgani sabab bo‘ldi. Davlat va xususiy banklar aholini ishonchli kredit manbalari bilan ta’minlay boshladi, bu esa yirik xususiy ishlab chiqarish korxonalarini yaratish imkonini berdi. 1968–1978–yillarda mamlakatga chet el sarmoyasi va importi jalb qilindi, buning natijasida Eronning qurilish, gaz va neft sanoati qariyb 500 foizga o‘sdi. Davlat xarajatlari, neft daromadlari, ichki va xorijiy sarmoyalarning bunday o‘sishi Tehronda va mamlakatning boshqa yirik shaharlarida o‘rta sinfning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Yoshlar va o‘z kasbining dastlabki bosqichida bo‘lganlar mamlakatdagi iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirish uchun ta’limga va kasb–hunar egallashga e’tibor qarata boshladilar. Eron akademik muassasalarining to‘satdan oliy ta’limga bo‘lgan talabni qondira olmasligi, shuningdek, eng ilg‘or sanoat texnikasi va texnologiyalari bo‘yicha kurslar va treninglar yo‘qligi ko‘plab yoshlarni Erondan tashqarida ta’lim olishga undadi. Eron hukumati chet el ta’limini qo‘llab–quvvatladi va bu talabalarning ko‘pchiligiga moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Bu davrda Amerika universitetlari muhandislik va boshqa texnik sohalarda eng yaxshi dasturlarni taklif qilishardi va xorijiy mamlakatlardan talabalarni jalb qilishga intilishardi. Ingliz tilini biladigan Eronlik yoshlar AQSH kollejlari va universitetlariga muvaffaqqiyatli qabul qilindilar.1975–yilda keltirilgan statistikaga ko‘ra eronlik talabalar Qo‘shma Shtatlardagi xalqaro talabalarning eng katta guruhini (9 foiz) tashkil qilar edilar.

Bu davrda AQSHga kelgan eronliklarning maqsadi o‘qishni bitirib, o‘z uylariga ketish bo‘lgan.Ammo 1979–yilda ro‘y bergan inqilob va undan keyingi voqealar, ularni bu fikrlaridan voz kechishga majbur qildi.

Eronning Qo‘shma Shtatlarga immigratsiyasining ikkinchi to‘lqini 1979–yilgi Eron inqilobidan biroz oldin boshlandi va 2001–yilgacha nisbatan o‘zgarmadi. 1979–yilda inqilob natijasida Eron Islom Respublikasiga aylantirildi va hukumat boshiga Oyatulloh Ruhulloh Humayniy keldi.Shariat qonunlariga asoslangan islomiy hukumatning o‘rnatilishi, Eron va Iroq o‘rtasidagi sakkiz yillik urush aksariyat o‘rta sinf vakillarining ommaviy Eronni tark etishiga olib keldi. 1988–yilgi Jahon qochqinlarini ro‘yxatga olish tadqiqotlar markazi ma’lumotlariga ko‘ra, Eron eng ko‘p qochqinlar soni bo‘yicha o‘ninchi o‘rinni egalladi. Ilk to‘lqinda kelgan Eronliklardan farqli ravishda, navbatdagi muhojirlar talaba yoki mutaxassis emas balki o‘rta va yuqori sinf vakillari bo‘lib, ularning aksariyati siyosiy qochqinlar va surgunlar edi. Ular orasida hukumat a’zolari, harbiy xizmatchilar va yirik biznes egalaridan tashkil topgan Erondagi avvalgi tuzumga aloqador oilalar bor edi. Yangi muhojirlar orasida siyosiy dissidentlar, shuningdek, yozuvchilar, jurnalistlar, rassomlar va musiqachilar kabi o‘z o‘rnini yangi diniy tizimda topolmagan madaniyat xodimlari ham bor edi. Siyosiy qochqinlar dastlab Erondagi siyosiy sharoitlar tez orada o‘zgarib, vataniga qaytishlaridan umidvor, AQSHni tez orada tark etishga ishonardilar. Ular oxir–oqibat Erondagi vaziyat avvalgi holatiga qaytmasligini anglab yetadilar va asta–sekin AQSHda doimiy muhojir sifatida yashay boshlashadi.

2001–yil 11–sentabrdagi halokatli teraktlar Eronning AQSHga immigratsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.Eronliklar Qo‘shma Shtatlarga qarshi xujumlarda ishtirok etmagan bo‘lsada, 2002–yil yanvarida Prezident Jorj Bush Eron, Iroq va Shimoliy Koreyani terrorizmga homiylik qilayotgan mamlakatlar sifatida qayd etdi va 2002–yil “Chegara xavfsizligi va viza islohoti to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi.Unga ko‘ra bu mamlakat fuqarolariga viza berish ta’qiqlandi. Bu davrda Erondan Amerikaga keladigan muhojirlar soni keskin kamaydi va bu holat vaziyat o‘zgarib viza berish tartibi qaytib ko‘rib chiqilmaguncha bir necha yillar davom etdi.

Immigratsion guruhlar haqida gap ketganda, “birinchi avlod” atamasi boshqa mamlakatdan ko‘chib kelgan odamlar va ularning o‘n uch yoshgacha bo‘lgan bolalarini nazarda tutadi.Biroq, Eronliklar holatida “birinchi avlod” Eronlik–amerikaliklar Erondan AQSHga ko‘chib kelgan odamlarni nazarda tutsa, ularning farzandlari “ikkinchi avlod Eronlik–amerikaliklar deb

ataladi.Richard Alba va Viktor Ni assimilyatsiyani “pasayish” deb ta’riflaydilar va uni oxir oqibat etnik/irqiy tafovutlar va ularni ifodalovchi madaniy va ijtimoiy farqlarning yo‘qolishiga olib keladi deb ishonadilar. Ushbu ta’rif doirasida assimilyatsiya shunchaki bir madaniyatni boshqasi bilan almashtirish emas, balki etnik ozchilik madaniyatlarining hukmron madaniyat elementlarini o‘zlashtirishi yoki o‘z ichiga olishi qobiliyati – gibrid madaniy aralashmani yaratishni nazarda tutadi. Ushbu ta’rif assimilyatsiyaning o‘tmishdagi me’yoriy yoki mafkuraviy qo‘llanilishidan qochadi va mezbon mamlakat madaniyati ham immigratsiya tajribasi bilan o‘zlashtirilgan va o‘zgartirilgan degan g‘oyani o‘z ichiga oladi. Assimilyatsiya – bu immigrant mamlakatga kirgan paytdan boshlab, asta–sekin sodir bo‘ladigan jarayon.Assimilyatsiya jarayoniga kundalik o‘zaro ta’sirlar va tajribalar ta’sir qiladi. Shaxslar yangi madaniyat, jamiyat va iqtisodga turli sur’atlarda o‘zlashsa–da, butun bir guruhning yangi mamlakatga singib ketish jarayoni o‘nlab yillar va avlodlar orqali sodir bo‘ladi.Bu jihatdan Eron–Amerika assimilyatsiya jarayoni bundan farq qilmaydi. Aynan o‘sha assimilyatsiya har bir diasporada o‘zligini, o‘z tilini va madaniyatini yo‘qotish fojiasi sifatida ko‘rsatiladi. Ayniqsa, “uchinchi avlod” vakillari na ona tilidan, na adabiyotidan va na madaniyatidan bexabarligi sabab, ular orasida diaspora adabiyoti an’analarini mujassamlagan ijod ahlini uchratish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ali Ferdowsi.Hajj Sayyah. Encyclopædia Iranica, XI/5, pp. 556–60, and XI/6, pp.561; available online at http://www.iranicaonline.org/articles/hajj–sayyah

2. F. Sensenbrenner, “H.R.3525 – 107th Congress (2001–2002): Enhanced Border Security and Visa Entry Reform Act of 2002,” legislation, May 14, 2002, http://beta.congress.gov/bill/107th–congress/house–bill/3525

3. Mehdi Bozorgmehr.Diaspora.Encyclopædia Iranica, Vol. VII, Fasc. 4, pp. 370–387; available online at http://www.iranicaonline.org/articles/diaspora.146 P.

4. Persis M.Karim & Mahammad Mehdi Khorrami.*A World between*.Gearge Braziller Inc., 1999.–224 P.

5. Richard Alba & Victor Nee.Rethinking Assimilation for a new era of immigration.International Migration Review 31 (4): 863

Shukurjon ZARIPOVA
UrIU "O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrasi stajyor–o'qituvchisi
UrDU 1–bosqich doktoranti
shukurjonzaripova2@gmail.com

"HIS QILINMAGAN BUYUKLIK TOVONI" ABDUQAYUM YO'LDOSHNING "PUANKARE" HIKOYASI

Annotatsiya: Abduqayum Yo'ldoshning "Puankare" hikoyasi o'ziga xos bir voqea va qahramonlar orqali inson ruhiyatining murakkabligini, hayotning noaniqliklarini va taqdir bilan kurashishning ahamiyatini aks ettiradi. Hikoyada asosiy qahramon hayotida muammolar va qiyinchiliklarga duch kelgan shaxs, o'zining ichki janglarini olib boradi. "Puankare" hikoyasida muallif zamonaviy hayotdagi ijtimoiy masalalarni, odamlarning bir–biriga nisbatan munosabatlarini chuqur tahlil qiladi. Qahramonning his–tuyg'ulari, orzulari va umidlari orqali insonlarga xos bo'lgan zaifliklar va kuchlarni ko'rsatadi. Hikoya davomida qahramon o'zining ichki olamidagi kurashini yengib o'tishga harakat qiladi, bu esa o'quvchilarga ilhom beradi. Hikoya nafaqat inson ruhiyatining murakkabligini ochib beradi, balki har bir kishi o'z yo'lida to'siqlarni qanday yengishi mumkinligini ham ko'rsatadi. Abduqayum Yo'ldosh "Puankare" asarida hayotning turli jihatlarini san'at orqali ifodalab, o'quvchilarni hamisha yangi fikrlar va his–tuyg'ular bilan boyitadi.

Kalit so'zlar: puankare, portfel, tumor, jur'atsizlik, ikir–chikirlar, vaqt, ijtimoiy hayot, chilla, gipoteza.

Аннотация: рассказ Абдукаюма Йолдоша "Пуанкаре" отражает сложность человеческой психики, непредсказуемость жизни и важность борьбы с судбой через уникальную истории главнный герой, человек, сталкивающийся с проблемами и трудностями в своей жизни, ведет свою внутреннюю борьбу. В рассказе "Пуанкаре" автор глубоко анализирует социальные проблемы современной жизни и взаимоотношения людей другом. В произведении показаны присущие человеку слабости и сильные стороны через емоции, мечты и надежды героя. На протяжении всего повествования герой пытается преодолеть внутреннюю борьбу, что вдохновляет читателей. История не только раскрывает сложность человеческой психики, но и показывает, как каждый может преодолеватб препятствия на своем пути. В своем произведении "Пуанкаре" Абдукаюма Йолдоша выражает различные аспекты жизни через искусство, постоянно обогащая читателей новыми мыслями и чувствами.

Ключевые слова: пуанкаре, портфель ,амулет, робость, колебание, время, общественная жизнь, чилла, гипотеза

Annotation: Abduqayum Yoldosh's story "Poincare" reflects the complexity of the human psyche, the uncertainties of life and the importance of fighting fate through a unique story and characters. In the story, the main character, a person who has faced problems and difficulties in his life,is waging his own internal battles. In the story "Poincare" , the author deeply analyzes social issues in modern life and people's relationships with each other. Through the hero's feelings, dreams, and hopes, he shows the weaknesses and sttrengths inherent in people. Throughout the story, the hero tries to overcome his inner struggle, which inspires readers. The story not only reeals the complexity of the human psyche, but also shows how each person can overcome obstacles in his path. Abdukayum Yuldash in his work "Poincare" expresses various aspects of life through art, always enriching readers with new thoughts and feelings.

Key words: poincare, portfolio, amulet, timidity, hesitation,time, social life, chilla, hypothesis.

Har bir davrda o'zining badiiy tafakkurini yangilaydigan bir guruh ijodkorlar to'p–to'p bo'lib adabiyotimizga kirib kelish hodisasi kuzatiladi. Jumladan, 80–yillarning oxiri 90–yillarning boshlarida yangi bir yo'nalishda ijod qilishga jazm qilgan ijodkorlar kirib keldi. Jumladan, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Luqmon Bo'rixonlar qatorida Abduqayum Yo'ldoshning ham o'ziga xos o'rni mavjud.

Abduqayum Yo'ldosh 1962–yil 29–fevralda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. Toshkent Politexnika institutini (hozirgi Texnika universiteti) bitirgan (1985). "Qaro ko'zim. Shayx ur–rais" , "Sunbulaning ilk shanbasi", "Timsohning ko'z yoshlari", "Parvoz", "Bir tun va bir umr" kabi kitoblari nashr etilgan. R. Bredberi, A. Kristi, F. Braun, E. Potter hikoyalarini, Ye. Berezikovning "Buyuk Temur" romanini (H. Shayxov bilan hamkorlikda), P. Shermuxamedovning "Buyuk Xorazmiy" romanlarini o'zbekchaga tarjima qilgan. "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan (1999).

Bu ijodkorning boshqalardan ajralib turadigan jihati, eng avvalo, o'zbekona milliy ruhimizni olib kirishga harakati bo'lsa, ikkinchi tomondan uning bevosita adabiyotga ruhan bog'langani bilan mutaxassis sifatida aniq fanlarga taalluqli ekanligi. Mana shu jihati Abduqayum Yo'ldosh ijodida mantiqiy tafakkur bilan badiiy tafakkurni o'zaro uyg'unlashib ketishiga asos bo'ladi. Eng muhimi bu ijodkor ijodida inson qalbini,

inson dramatizmini his qilish bor. Yana bitta jihati, u o‘sha badiiy asosni topishga harakat qiladi. Agar badiiy asosni topa olgan bo‘lsa, unda uning ijodi muvaffaqiyatli kechganligini ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi paytlarda yozuvchi ijodida muayyan darajada o‘zgarishlar, badiiy–falsafiy hamda hayotiy mantiqini ochishga yangi bir izlanishlar olib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Mana shu izlanishlar hosilasi o‘laroq, adabiy jarayonda o‘ziga xos bo‘lgan munozaralarga sabab bo‘lgan “Puankare” deb nomlanuvchi hikoyasini ko‘rishimiz mumkin.

“Puankare” hikoyasi 2012–yilda “Jahon adabiyoti” jurnalining 9–sonida e’lon qilingan . Bilamizki, “Jahon adabiyoti” jurnali odatda jahon adabiyotiga mansub asarlarni chop etadi. Lekin aynan mana shu hikoyaga kelganda, “Jahon adabiyoti” tahririyati o‘sha davrda mazkur hikoyani jahon adabiyotiga bo‘ylashgan asar sifatida ta’rif berishadi, ayni shu ruknda mazkur o‘zbek adabiyotiga xos hikoyani e’lon qilishadi. Albatta, hikoya o‘quvchilar orasida tanildi. Abduqayum Yo‘ldoshga o‘zgacha, yanada shon–shuhrat keltirgan asar sifatida yodda qoladi.

“Puankare” asari garchi hikoya bo‘lsa–da, lekin g‘oya va mazmun jihatidan qissaga teng asar deb baholashgan. Abduqayum Yo‘ldoshning shoh asari sifatida tilga olinadi. Unga shu kunga qadar juda ko‘p ta’riflar berilgan: “ His qilinmagan buyuklik tovoni”, yoki oila va ro‘zg‘or tufayli ikir–chikirlar, ijtimoiy zaruratlarga berilib ketgan insonning aynan asosiy maqsadi o‘sha haqiqatni izlash, ilm yo‘lidagi o‘sha ishini davom ettirishga halal berishi ifoda etiladi. Shu bilan birga, odamlarni o‘ziga xos vazifalarini topgan, topmagan odamlar haqida yozilgan asar desak ham bo‘ladi. Umuman olganda, sharqda ko‘p kuzatiladigan shunday jarayonlar borki, oila yoki boshqa bir sabablar tufayli erishilishi mumkin bo‘lgan bir cho‘qqilarga erishilmay qoladi. Mazkur asarda shu jarayonlardan ibrat olgan holda, oilani tashlab qo‘yish emas, birga, parallel ravishda olib ketib erishsa ham bo‘ladi degan bir mazmun ham bor. Asarni yana bir jihati shundaki, yozuvchi olam va odam munosabatlaridagi o‘ziga xos xulosasini, o‘ziga xos badiiy konsepsiyasini o‘quvchiga yetkazish uchun umuman global bir muammolarni asos qilib oladi. Ya’ni, Puankare gipotezasi butun dunyoga mashhur bo‘lgan, butun dunyo olimlarini, ahli–ilmlarini boshini qotirgan katta bir voqealik edi. Va uni o‘sha Grigor Perelman tomonidan bu gipoteza isbotlanishi ham jahonda katta voqealik bo‘ldi. Abduqayum Yo‘ldosh o‘zi texnika institutida tahsil olgani uchun ham fizikadagi jarayonlardan bevosita xabardor, bevosita o‘qigan. Shuning uchun ham yozuvchi mazkur voqealikni hikoyasiga kiritib, mana shu gipotezani butun insoniyatga xos bo‘lgan muammoga aylantira olgan. Ya’niki biz, har bir inson hayotimiz davomida muayyan gipotezani yechish uchun yashaymiz. Hayotimiz muayyan boshqotirmalarni yechishga qaratilgan. Va hikoya qahramonini biz bu yerda ilm odami, olim sifatida emas, butun insoniyatni protativi deb bilishimiz mumkin. Hammamiz ham o‘sha gipotezani yechishga harakat qilamiz, turli to‘siqlarga uchraymiz, lekin o‘sha gipotezaga ozgina qoladi, har doim ham. Hikoya qahramonida ham gipotezani yechishga ozgina qolgan bo‘ladi, lekin mana shu turmush, mana shu ro‘zg‘or degan tashvishlar bizni ana shu yechimlarni topishimizga doim halaqit qilgan.

“Puankare” bu birovga o‘qib beradigan asar emas, chunki buni tinglash orqali anglash qiyin. Aynan o‘zingiz o‘qigan paytda , aynan o‘zingiz asar bilan birlashib ketgan holda buni tushunishingiz mumkin. Asarda har bir qahramonga alohida nazar bilan qaralgan. Hatto o‘sha lobarant qizni olamizmi, do‘stini olamizmi, har birini hayoti yaxshi ochib berilgan. O‘zbek mintalitetidagi oila, turmush, to‘y boshqa ikir–chikirlar bilan bo‘lib, o‘zini maqsadiga yetolmasligini yaxshi ta’riflagan. Va bu orqali ilm–fan hech narsa yutqizmaganligini, undan boshqa bir olim to‘ldirib ketganini yaxshi aks ettirilgan. Albatta bu asarga o‘zbek olimlariga tutilgan ko‘zgu sifatida ham baho berishadi. So‘nggi paytlarda nima uchun Al–Xorazmiylar, Al–Beruniylar chiqmayapti degan savolga javob bo‘la oladigan asar deyishadi. Asar umumiy holatda shunday deydiki, “yo ijtimoiy odam bo‘l, yo ilmiy odam bo‘l. Har ikkovini ham bir vaqtda olib ketolmaysan” , degan bir kayfiyat beradi. Asosiy e’tibor badiiy asarda qahramonning ruhiyatiga, uning olimlik salohiyatidagi ijodkorligiga qaratilganday ko‘rinadi. Asarning boshlanmasida bitta detal bor, o‘ttiz yil oldin , Moskovga borganda katta portfelni sotib olishi” olimlikning bir detali sifatida berilyapti. Chunki mana shu orqali olimning fidoiyligi, portfel ham o‘zi kabi 30 yillik mehnat davomida qarib–chirib borayotganligini parallel ravishda ko‘rsatayapti. Bu avvalo, insonning ijodkorligiga va ruhiyatiga qaratilgan holat deb tasavvur qilish mumkin. Aytish mumkinki, yozuvchi urg‘u qaratgan narsa faqat davrning, ro‘zg‘or tashvishlarining uning olimligiga xalaqit berganligi emas, avvalo undagi shoirona ijodkorlik ilmni ijod deb bilish, bu narsa uni aniq fandagi boshqa olimlardan farq qiladi. Chunki ikkita o‘zi bilan ishlagan hamkasbi, hatto, kotib bo‘lib ishlagan kasbdoshi ham fan doktori darajasiga erishadi, lekin qahramonimiz o‘zining oldingi holatida qolib ketadi. E’tibor qilsak, ayrim hikoyalarda ilmiylik ko‘payib ketib qoladi, ayrimlarida badiiylik, lekin hayotiyligi, haqqoniyligi aynan ikkalasini ham orasidagi oltin oraliqni saqlab qolishdadir. Asarda e’tiborimizni tortgan yana bir narsa, “vaqt ta’sirini o‘tkazmaydigan narsaning o‘zi qolmabdi” degan kiritma so‘z bilan boshlanadi. To‘g‘ri vaqt hamma narsaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, lekin qaysidir ma’noda vaqt ta’sirini o‘tkazayotgan narsaga insonning o‘zi ham sababchi. Inson o‘zi qaysi yo‘lni tanlasa,o‘sha yo‘l orqali vaqt uni olib ketadi. Bu asar orqali inson o‘z oldiga katta maqsad qo‘ysa, katta maqsad tomon, kichik maqsad qo‘ysa kichigi tomon ketadi. Bu asar insonga o‘zini menligini, orzu–umidlarini, maqsadini anglab yetishga o‘rgatadigan asar hisoblanadi. Abduqayum Yo‘ldosh bu asarda qo‘yayotgan asosiy masala gipotezani yechish emas, bosh masala, so‘ngso‘zda ham aytilgan insonning hayotdagi va

faoliyatidagi gipotezalarni qay darajada yecha oladi, qay darajada muvaffaqiyatga erisha oladi va bunda qay darajada xiyonatlarga duch keladi, do‘stliklarga duch keladi, e’tiqodga duch keladi? Shu e’tiqodi bilan, saboti bilan yoki do‘stlarining xiyonati bilan qaysi bir nuqtalarni yengib o‘ta oladi degan masala, umuman olganda inson ruhiyati degan bosh masala turadi.

Adabiyotimizda intellektual potensialga ega asarlarimiz afsuski juda ko‘p emas. Mana shu “Puankare” asari shu jihatidan mavzuning tanlanishi va ko‘lamdorligi nuqtayi nazaridan ko‘pchilikni e’tirofiga sazovor bo‘ldi va o‘zining munosib o‘quvchilarini topa oldi. Boshqa sohalarda bir muammoni olib chiqish uchun yoki muammoga yechim berish uchun juda ko‘p hajmda qog‘oz sarflanadi, ya’ni ko‘plab argumentlar keltiriladi. Bu hikoyani yozishda esa dolzarb bo‘lgan ijtimoiy–iqtisodiy hayotimizdagi juda ko‘plab muammolarni bir nuqtaga yig‘a olgan muallif. Ya’ni , portfel masalasi bo‘ladimi, yoki ijodkorlarni qiynayotgan masala bo‘ladimi yoki deylik orzuga erishish yo‘llari, barcha masalalar nazarda tutib o‘tilgan. Yana bir xususiyati borki, hikoyada o‘zbek adabiyotining buyuk asarlari o‘sha: “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, yaqin tarixdan oladigan bo‘lsak, “Temir xotin” degan asarlarni eslashga odam majbur bo‘ladi. Sababki, ijtimoiy–iqtisodiy hayotda to‘planib qolgan va hal etilishi bir nafar shaxsning yoki birgina holatning o‘zidan kelib chiqmaydigan muammolar jamlangan. Bugun yoki kecha yoki ertaga hal bo‘ladi degan narsalar emas. Ko‘plab masalalarning tub zamirida o‘sha savod bilan bog‘liq fuqarolarning yoki yoshlarning kitobga bo‘lgan mehri bilan bog‘liq masalalar o‘rtaga tashlangan. Ya’ni ilmga qiziqish, ilmning oxirida nima yotibdi, sabr haqida masalalar ko‘tarilgan. Sharqdagi oila tashvishlari sabab, kechga qolganligi sabab gipoteza yechimi bizdan chiqmaganligini ham ko’rsatib o‘tadi. Gipotezani isbotlagan Perelmanni hayotini ham ideal deb bo‘lmaydi. U faqat onasi bilan yolg‘iz yashab qirq bir yoshida isbotlashga muvaffaq bo‘ladi. Ya’ni unda oila tashvishlari mavjud bo‘lmagan.

Umuman olganda asar markazida uch nafar qahramonni hayoti, taqdiri bir–biriga solishtirib ko‘rsatiladi. Bittasi Peterburglik olim Perelman, ikkinchisi uning do‘sti Tirkash, uchinchisi qahramonning o‘zi. Perelmanning taqdirini qarasak, unga ijtimoiy zaruratlar kerak emas, hattoki o‘sha berilgan mukofot pulini ham, 1 mln AQSH dollorini olmaydi, voz kechadi. O‘sha ko‘rimsiz bir xonali kvartirasida qari onasi bilan yashaydi. Hayotda na bir qiziqishi, na bir odamlar bilan aloqasi bor, telbanamo bir inson. Lekin u ro‘zg‘or, ijtimoiy munosabatlardan kechgan holatda gipoteziyani isbotladi. Yoki Tirkashni olsak, u bo‘lmag‘ur bir tumorga e’tiqod qilib, butun umrida erishgan g‘alabalarini shu tumor bilan bog‘lab, bittayu–bitta orzusi “Tog‘begi bo‘lib, shu xotini bilan qariganda tizzasini tizzasiga tekkizib choy ichib o‘tirish” uni hayotda maqsadi shu edi. Qarang qanday kichkina odamni tasvirlayapti. Bu tarafda qahramonning o‘zi ijtimoiylikka singib ketgan katta ishlarni maqsad qilgan odam edi. Biz bu yerda uch kishi ham to‘g‘ri yo‘ldan borayapti deya olmaymiz va boshqa tomondan uchalasi ham muayyan hayotiy zarurat tufayligina nimagadir erishdi, nimanidir yo‘qotdi. Ana shu narsa hikoyada judayam chiroyli yoritib berilgan. Bu yerda to‘rtinchi qahramon sifatida olimning matematik shogirdini olsak bo‘ladi. Juda achinarli qilib tasvirlangan. Nimagaki ustozi unga katta bir umid qildi, harakat qildi. Hech bo‘lmaganda men bilan birga o‘sha masalani yechar deb o‘yladi. Uni ham turmush tashvishlariga singib ketish, to‘y masalalari chillaning 20 kunlik, 40 kunlik degan masalalari yo‘ldan ushlab qoldi va oxirida ustozi yangi masala bor deb uni oldinga yana o‘zini ustida ishlashga chaqirmoqchi bo‘lganda yana o‘sha kechikyapman deb turmushning bir tashvishi bilan ketib qoladi. Bu yerda endi ramziy ma’noda tushunish mumkinki, menku ilmiy xodim bo‘lib puankare masalasida yengildim. Hozirgi yoshlarni ham bir obrazi qo‘yilgan deb o‘ylayman. Sizlar ham mana shu hayot tashvishlariga yengilib o‘zingizni katta maqsadlardan to‘xtab qolmang degan ma’noda hozirgi yoshlarni ham o‘zini qilayotgan ishlariga o‘zini hayotini mazmuniga ilm yo‘lida ishlayotgan yoshlarga o‘ziga bir qarab qo‘yishga chorlaydi. Hikoya so‘nggi “Xudoyim meni o‘ttiz yil orqaga qaytar” degan dahshatli jumla bilan tugatiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, insondagi katta fojea ortga qarab insonning afsus chekishi. Har bir odam umri poyoniga yetganda ortga qarar ekan, albatta shukrona keltirishi, baxt hissini, o‘tgan umrga mazmun topishi kerak deb o‘ylayman. Qahramonning maqsadiga yetisha olmasligi sabab bo‘lgan narsa jur’atsizligi asosiy omil sifatida e’tirof etsa bo‘ladi. “Puankare” o‘zbek adabiyotida yangicha bir qahramon obrazini olib kira oldi. Bu hikoyani o‘qimaganlar ko‘p, lekin hamma o‘qishi shart deb tavsiya bersak bo‘ladi. Abduqayum Yo‘ldosh bu asari orqali insonning qalb dramatizmini yaqqol ko‘rsata olgan deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Puankare. (Hikoyalar, qissa, suhbat), “Akademnashr” nashriyoti, 2014.
2. Sunbulaning ilk shanbasi. (qissa), “Yozuvchi” nashriyoti, 1998 y.
3. Timsohning ko‘z yoshlari. (qissalar), “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2003.
4. Parvoz. (hikoyalar), “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2004 .
5. Bir tun va bir umr. (hikoya va qissalar), “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2007.
6. Qaro ko‘zim. Shayx ur–rais. (fantastik hikoyalar), “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1990. Abdurahmon Karimov bilan hamkorlikda

Amina MUSAYEVA KARMATOVNA
Osiyo Xalqaro Universiteti
Tarix va filologiya kafedrasi assistent–o'qituvchisi.
E–mail: musayevaaminakaramatovna@oxu.uz

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI O'STIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning o'rni tahlil qilinadi. Interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, CLIL va kolaborativ o'qitish kabi yondashuvlar asosida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston va xorij tajribasi solishtirilib, aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *kommunikativ kompetentlik, oliy ta'lim, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, CLIL, kolaborativ ta'lim, zamonaviy yondashuvlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль современных подходов в формировании и развитии коммуникативной компетентности студентов в системе высшего образования. Рассматриваются механизмы повышения эффективности образовательного процесса на основе таких подходов, как интерактивные методы, цифровые технологии,* CLIL *и совместное обучение. Также сравнивается опыт Узбекистана и зарубежья и разрабатываются конкретные рекомендации.*

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, высшее образование, интерактивные методы, цифровые технологии, CLIL, совместное обучение, современные подходы.

Annotation: This article analyzes the role of modern approaches in the formation and development of students' communicative competence in the higher education system. Mechanisms for increasing the effectiveness of the educational process based on such approaches as interactive methods, digital technologies, CLIL and collaborative learning are considered. Also, the experience of Uzbekistan and abroad is compared and specific recommendations are developed.

Key words: communicative competence, higher education, interactive methods, digital technologies, CLIL, collaborative learning, modern approaches.

Zamonaviy globallashuv davrida ta'lim tizimi inson kapitalining asosiy shakllanish muhitiga aylangan bo'lib, u nafaqat an'anaviy bilim va ko'nikmalarni egallashni, balki zamonaviy kommunikativ, ijtimoiy va axborot kompetensiyalarni shakllantirishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Xususan, oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – talabalarda mustahkam kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish orqali ularni raqobatbardosh, ijtimoiy faol va jahon mehnat bozorida moslasha oladigan mutaxassislar etib tayyorlashdan iborat.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va madaniyatlararo muloqot sohalarining kesishgan nuqtasida yuzaga kelgan murakkab va ko'p qirrali fenomen bo'lib, u insonning nafaqat til vositasida, balki ijtimoiy–madaniy kontekstda samarali va maqsadli muloqot qila olish qobiliyatini anglatadi. D. Xayms (1972) tomonidan asos solingan "kommunikativ kompetensiya" nazariyasiga ko'ra, inson til qoidalarini bilish bilangina cheklanmasligi, balki ularni ijtimoiy muhitda qanday qo'llashni ham bilishi lozim. Bu yondashuv ayniqsa ta'lim tizimida talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi axborot asrida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ko'p millatli va ko'p tilli muhitda faoliyat yuritish zarurati, turli madaniyatlar bilan o'zaro muloqot qilish ehtiyoji kommunikativ ko'nikmalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq ravishda kommunikativ kompetentlik "yumshoq ko'nikmalar" (soft skills) tizimining markaziy elementi sifatida qaralmoqda. Bunday kompetensiyalar talabaning o'z fikrini aniq va asosli ifoda etishi, boshqa nuqtayi nazarni tushunishi, konstruktiv dialog olib borishi, jamoaviy qarorlar qabul qilishi va madaniyatlararo aloqalarda muvozanatni saqlay olishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 8–oktabrdagi PQ–5847–sonli qarorida ham zamonaviy kasbiy ta'limda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan 2030–yilgacha mo'ljallangan Oliy ta'lim strategiyasida ham ushbu kompetensiyalar ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan.

Asosiy qism. Kommunikativ kompetentlik – bu shaxsning o'z fikrini aniq, mantiqiy, madaniy va ijtimoiy kontekstga mos holda ifoda eta olish, suhbatdoshni tushunish va samarali muloqot yurita olish qobiliyatidir.

Bu tushuncha ilk bor D. Xayms (1972) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u Chomskiyning “lingvistik kompetensiya” nazariyasini to‘ldirib, shaxsning muloqotda qo‘llayotgan til qoidalarini real vaziyatda qo‘llashdagi ijtimoiy ahamiyatini alohida e’tirof etgan.

Bugungi kunda kommunikativ kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlar orqali aniqlanadi:

Lingvistik komponent – tilning grammatik, fonetik va leksik jihatlarini egallash;

Sotsiolingvistik komponent – muloqot kontekstiga, madaniyatga mos ravishda ifodalanish;

Diskursiv komponent – fikrni izchil, mantiqiy bog‘langan shaklda ifodalash;

Strategik komponent – til vositalarini muammoli yoki notanish vaziyatlarda moslashuvchan qo‘llash;

Sotsiomadaniy komponent – turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot yuritish qobiliyati.

Bu tarkibiy qismlar aynan zamonaviy oliy ta’lim jarayonida, ayniqsa, ko‘p tillilik va madaniyatlararo aloqalar fonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi ta’limda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan yondashuvlar va metodlar tizimli va ongli tarzda ta’lim jarayoniga integratsiyalashmoqda.

a) Interaktiv ta’lim metodlari

Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. “Rol o‘ynash”, “Bahs–munozara”, “Case–study”, “Fishbone”, “Jigsaw” kabi metodlar orqali talabalar o‘z fikrlarini ifodalash, dalillar bilan himoya qilish, muqobil nuqtayi nazarni tushunish kabi ko‘nikmalarni egallaydi.

Masalan, Toshkent davlat pedagogika universitetida “Debatlar orqali fikrlash va nutq rivoji” moduli joriy qilingach, 2023–yilgi monitoringda talabalar nutq faolligi 40% ga oshgani aniqlangan.

b) CLIL (Content and Language Integrated Learning)

CLIL yondashuvi – ya’ni fan va tilni birgalikda o‘qitish – ayniqsa chet tilida bilim olishni kommunikativ maqsad bilan uyg‘unlashtiradi. Bu yondashuv talabani yangi terminlarni o‘zlashtirish barobarida muloqot ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Masalan, O‘zbekiston Milliy universitetining ba’zi fakultetlarida fanlar ingliz tilida o‘qitilib, aynan CLIL modeli asosida seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlari olib boriladi. Bu yondashuv xalqaro akademik mobilitetni oshirishga ham xizmat qilmoqda.

c) Raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi

Axborot–kommunikatsiya texnologiyalari bugungi ta’limning ajralmas qismiga aylangan. LMS (Learning Management System), vebinarlar, interaktiv testlar, videolektsiyalar, mobil ilovalar (Duolingo, BBC Learning English, Grammarly) kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Misol: 2022–yilda Andijon davlat universitetida “Zoom” va “Google Meet” orqali olib borilgan onlayn seminarlar natijasida chet tilida so‘zlashuvga qatnashgan talabalar soni 60% ga oshgan.

d) Kolaborativ (hamkorlikda) o‘qitish

Jamoaviy o‘qitish (group–based learning) orqali talabalar bir–birlaridan o‘rganadilar, o‘zaro fikr almashadilar, loyiha asosida ishlaydilar. Bu metod ayniqsa, so‘zlashuvni, tinglashni, savol–javoblarni, bahs yuritishni kuchaytiradi.

Misol: Buxoro davlat universitetining “Pedagogika va psixologiya” fakultetida jamoaviy loyiha asosida olib borilgan “Open Speech Club” dasturi doirasida kommunikativ kompetentlik bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring natijasida 80% talaba ijobiy o‘sish ko‘rsatgan.

Xulosa. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi raqobatbardosh, intellektual salohiyati yuqori, jamoa bilan ishlash va erkin fikr bildirishga qodir mutaxassislarni tayyorlashni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ygan. Bu vazifani to‘laqonli amalga oshirishda talabalarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqorida tahlil qilinganidek, bu kompetensiya nafaqat til va nutq bilan bog‘liq texnik ko‘nikmalarni, balki madaniy, ijtimoiy, psixologik va strategik jihatlarni ham qamrab oladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlar, CLIL yondashuvi, raqamli vositalar va hamkorlikda ta’limni tashkil etish eng samarali yondashuvlardandir. Ushbu metodlar talabalarda mustaqil fikrlash, savol–javob madaniyati, ijtimoiy faollik, tanqidiy va reflektiv fikrlashni shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Xalqaro tajribalar esa kommunikativ kompetensiyani baholash va rivojlantirishda yagona standartlarga amal qilishning afzalliklarini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari oldida, ushbu global talablar bilan uyg‘un ta’lim muhitini shakllantirish, pedagoglarning malakasini oshirish, CLIL va digital learning modelini keng joriy etish orqali talabalarda zamonaviy, ijtimoiy mas’uliyatli va erkin muloqotga qodir shaxsni tarbiyalash maqsadlari mujassamdir. Bu esa, o‘z navbatida, milliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshiradi hamda xalqaro integratsiyalashuvni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics.
2. European Commission (2018). Key Competences for Lifelong Learning. Brussels.
3. Little, D., & Kenning, M. (1991). Language Awareness in the Classroom.
4. UNESCO (2020). Transforming Teaching: Interactive Learning Strategies in Higher Education.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik hisobotlari, 2023.

Firuza ABDURAHMONOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika
Samarqand kampusi assistenti

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG VA PSIXOLOG HAMKORLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida pedagog va psixologlarning hamkorlik shakllari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari pedagog va psixologlarning birgalikdagi faoliyati o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va ularning ijtimoiy–psixologik rivojlanishiga katta yordam berishini ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, pedagog va psixologlarning muntazam va samarali hamkorligi o'quvchilarning hissiy–ijtimoiy rivojlanishiga, motivatsiyasini oshirishga va o'quv jarayonidagi muammolarni tezkor hal qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maktablarda pedagog–psixolog hamkorligini yanada mustahkamlash uchun rasmiy mexanizmlar va qo'shimcha treninglar tashkil etish zarurligi ta'kidlanadi. Maqola zamonaviy ta'limda psixologik yordam va pedagoglarning integratsiyalashgan faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlarga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, pedagog–psixolog hamkorligi, o'quvchilar rivoji, psixologik yordam, ta'lim sifati

Annotation: This article examines the forms of cooperation between educators and psychologists in the modern education system and their impact on the quality of education. The research results showed that the joint activity of teachers and psychologists greatly contributes to meeting the individual needs of students and their socio–psychological development. The results showed that regular and effective cooperation between teachers and psychologists serves the emotional and social development of students, increasing their motivation, and promptly solving problems in the educational process. At the same time, the need to organize formal mechanisms and additional training to further strengthen teacher–psychologist cooperation in schools is emphasized. The article contributes to scientific research on psychological support and the integrated activities of educators in modern education.

Key words: Modern education, teacher–psychologist cooperation, student development, psychological support, quality of education

Аннотация: В данной статье рассматриваются формы сотрудничества педагогов и психологов в современной системе образования и их влияние на качество образования. Результаты исследования показали, что совместная деятельность педагогов и психологов способствует удовлетворению индивидуальных потребностей учащихся и их социально–психологическому развитию. Результаты показали, что регулярное и эффективное сотрудничество педагогов и психологов служит эмоционально–социальному развитию учащихся, повышению их мотивации и оперативному решению проблем в учебном процессе. В то же время подчеркивается необходимость создания официальных механизмов и дополнительных тренингов для дальнейшего укрепления сотрудничества педагогов и психологов в школах. Статья способствует научным исследованиям, связанным с психологической поддержкой и интегрированной деятельностью педагогов в современном образовании.

Ключевые слова: Современное образование, сотрудничество педагога–психолога, развитие учащихся, психологическая поддержка, качество образования

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni faqat bilim berishdan iborat emas, balki o'quvchilarning shaxs sifatida to'liq rivojlanishini ham ta'minlaydi. Shu bois pedagog va psixologlarning o'zaro hamkorligi ta'lim jarayonining muhim qismiga aylangan. Pedagoglar o'quvchilarga ta'lim berish bilan birga, ularning psixologik holatini ham inobatga olishlari zarur. Bu esa o'quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada adabiyotlarni o'rganish, shuningdek, maktab va oliy ta'lim muassasalarida pedagog va psixologlarning amaliy faoliyati tahlil qilindi. Shuningdek, pedagog va psixologlar o'rtasidagi hamkorlikni aniqlash uchun so'rovnoma va intervyu metodlari qo'llanildi. O'quvchilarning psixologik holati va ta'lim jarayonida qo'llab–quvvatlash usullari ham o'rganildi. Tadqiqot O'zbekistonning 3 ta maktabida o'tkazilib, unda jami 15 nafar mutaxassis – 10 pedagog va 5 psixolog ishtirok etdi. Intervyular orqali ishtirokchilarning hamkorlik tajribalari, duch kelgan muammolari va yechimlari haqida batafsil ma'lumotlar olindi. Shuningdek, so'rovnomalar orqali hamkorlikning amaliy qirralari va uni takomillashtirish yo'llari haqida ma'lumotlar yig'ildi. Kuzatuvlar esa o'quv jarayonida pedagog va psixologning birgalikdagi faoliyatini baholashga yordam berdi. Olingan ma'lumotlar sifat jihatidan mazmunan tahlil qilindi, miqdoriy ma'lumotlar esa statistik usullar yordamida ko'rib chiqildi.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog va psixologlarning hamkorligi mavzusida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Abdullaeva (2020) o'z ishida ta'lim jarayonida psixologik yordamning muhimligini ta'kidlaydi,

pedagoglarning psixologik bilimlarga ega bo‘lishi o‘quvchilarning hissiy holatini yaxshilashda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Karimov (2019) esa pedagog va psixologning uzviy hamkorligi ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlab, amaliy hamkorlik shakllarini tavsiflaydi.

Nazarov va Tursunov (2021) o‘quvchilarning ijtimoiy–emosional rivojlanishi va ta’lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, pedagog–psixolog jamoasining faoliyati natijasida o‘quvchilarning o‘zini tutishi va motivatsiyasi yaxshilanganligini aniqlagan. Shuningdek, Salimova (2018) pedagogika va psixologiyaning integratsiyalashgan yondashuvlarini ko‘rib chiqib, zamonaviy ta’limda ushbu ikki sohaning birgalikdagi ish faoliyati ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ta’kidlaydi.

Xalqaro manbalar, xususan UNESCO (2022) ta’lim sifati va psixologik yordamni ta’minlash masalalarida pedagog–psixolog hamkorligi modeli sifatida global yondashuvlarni taqdim etib, bu sohadagi ilg‘or tajribalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu adabiyotlar zamonaviy ta’limda psixologik qo‘llab–quvvatlash va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati ta’lim sifatining oshishida asosiy omil ekanligini isbotlaydi va tadqiqotimiz uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Natijalar. Tadqiqotdan ko‘rinib turibdiki, pedagog va psixologlarning hamkorligi ta’lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi. Psixologlar o‘quvchilarning psixologik muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishda faol qatnashadi. Pedagoglar esa psixologlarning maslahatlari asosida ta’lim metodlarini o‘quvchilar xususiyatlariga moslashtiradi. Bu hamkorlik o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning stress va psixologik qiyinchiliklarga qarshi kurashishiga yordam beradi. Muntazam muloqot natijasida pedagoglar o‘quvchilarning stress, xavotir va boshqa psixologik muammolarini erta aniqlay olishdi va ular bilan samarali ishlash imkoniga ega bo‘ldilar.

Bu esa o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga, shuningdek, ularning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga yordam berdi. Pedagog va psixologning birgalikdagi faoliyati muammoli vaziyatlarni, jumladan, o‘quvchilar orasidagi konfliktlar va o‘rganishdagi qiyinchiliklarni tez va samarali hal qilishga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilari orasida hamkorlik uchun ko‘proq vaqt ajratilishi va rasmiy mexanizmlarning yaratilishi bo‘yicha talablar aniqlandi, chunki pedagoglarning ko‘pchiligi pedagog va psixolog o‘rtasida doimiy va samarali aloqaning yetishmasligini ta’kidladilar.

Bu esa ta’lim jarayonining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim muassasalarida psixologlarning roli kengayib bormoqda, ular nafaqat individual maslahatlar berish, balki pedagoglarni psixologik yondashuvlar bo‘yicha o‘qitish orqali ham ta’lim sifatini oshirishda faol ishtirok etmoqda.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagog va psixologlarning uzviy hamkorligi ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ta’lim muassasalarida bunday hamkorlikni rivojlantirish uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etilishi muhimdir. Bundan tashqari, pedagog va psixologlar o‘rtasida doimiy muloqot va tajriba almashinuvi ta’lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida bu ikki mutaxassisning birgalikdagi faoliyati o‘quvchilarning yanada to‘liq va mukammal rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois, ta’lim muassasalarida pedagog va psixolog o‘rtasida doimiy aloqa va o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish zarur. Bundan tashqari, pedagoglar va psixologlar uchun hamkorlik bo‘yicha treninglar tashkil etish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’lim tizimida pedagog va psixolog o‘rtasidagi samarali hamkorlik o‘quvchilarning hissiy–ijtimoiy rivojlanishi va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Muntazam va samarali muloqot natijasida muammolar tez aniqlanib, hal qilinadi, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va motivatsiyasi kuchayadi. Shu bilan birga, pedagog va psixolog o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun maktablarda rasmiy mexanizmlar va qo‘shimcha treninglar tashkil etilishi zarur. Bu ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning to‘liq rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, S. (2020). Ta’lim tizimida psixologik yordamning ahamiyati. Ta’lim va rivojlanish, 3(1), 45–52.
2. Karimov, B. (2019). Pedagog va psixolog hamkorligining ta’limdagi roli. Maktab psixologiyasi, 12(4), 78–85.
3. Nazarov, D. & Tursunov, M. (2021). O‘quvchilarning ijtimoiy–emosional rivojlanishi va ta’lim sifati. O‘zbekiston pedagogika jurnali, 5(2), 23–30.
4. Salimova, N. (2018). Psixologiya va pedagogika: zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
5. UNESCO. (2022). Quality education and psychological support: global perspectives. Paris: UNESCO Publishing.

Mavluda SATIYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
mavludasatiyeva@gmail.com

NASIRUDDIN TUSIY ILMIY MEROSINING FORS ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada qomusiy olim Nasiruddin Tusiyning hayoti va ijodi, ilmiy merosining ko‘lami hamda fors adabiyotshunosligidagi muhim risolasi – “Me’yor ul–ash’or”ning qisqa tahlili amalga oshiriladi. Maqoladan maqsad Tusiyning hayotiga oid xorijiy faktlar, uning fors aruzshunosligiga qo‘shgan hissasi hamda o‘zidan keyingi risolalarga o‘tkazgan ta’sirini aniqlashdan hamda asarning ilmiy qiymatini jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Tusiy, Hamadon, fors adabiyoti, “Me’yor ul–ash’or”, “Asos ul–iqtibos”, aruz, juzv.

Аннотация: в данной статье проводится краткий анализ жизни и творчества энциклопедиста Насируддина Туси, масштаба его научного наследия, а также важного трактата в персидском литературоведении – “Меъёр ул–ашъор”. Цель статьи – выявить зарубежные факты о жизни Туси, его вклад в персидское арузоведение и влияние на последующие трактаты, а также донести до общественности научную ценность его работы.

Ключевые слова: Туси, Хамадан, персидская литература, “Меъёр ул–ашъор”, “Асос ул–иктибос”, аруз, джузв.

Annotation: this article provides a brief analysis of the life and work of the encyclopedic scholar Nasiruddin Tusi, the scope of his scientific heritage, and his important treatise in Persian literary studies – “Me’yor ul–ash’or”. The purpose of the article is to identify foreign facts about Tusi’s life, his contribution to Persian aruz studies, and his influence on subsequent treatises, as well as to convey the scientific value of the work to the public.

Key words: Tusi, Hamadan, Persian literature, “Me’yor ul–ash’or”, “Asos ul–iqtibos”, aruz (prosody), juzv.

Boy madaniy merosga egaligi, estetik tamoyillar va falsafiy teranligi bilan ajralib turadigan Sharq adabiyoti jahonning eng qadimiy adabiy maktablardan biri hisoblanadi. Sharq adabiyotidagi xilma–xillikning paydo bo‘lishida diniy–falsafiy tafakkur, tarixiy voqealar, shuningdek, turli xalqlarning madaniy almashinuvi muhim o‘rin tutgan. Arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan adabiy asarlar Sharq adabiyotining asosiy poydevorini tashkil etadi. Bu manbalar faqatgina badiiy–estetik yuksaklik emas, balki mintaqaning ijtimoiy, siyosiy va diniy tafakkurini aks ettiruvchi muhim manbaa hamdir.

Sharq adabiyotshunosligi esa ayni shu adabiy merosni tahlil qilish, uslubiy xususiyatlarini aniqlash, tarixiy taraqqiyot yo‘nalishlarini yoritish hamda adabiy an’analar va yangiliklar o‘rtasidagi dialektik aloqani ochib berishga qaratilgan ilmiy sohadir. O‘rta asrlarda o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishgan Sharq adabiyotshunosligida she’r haqidagi nazariy bilimlar ham taraqqiy etdi. Shuningdek, aruz vazni, qofiya va badiiy san’atlar ilmi adabiyotshunoslikda ilmi segona (ilmi bad’e) nomi ostida qadimgi Sharq poetikasining o‘rganilish obyekti bo‘lib keldi. Bu fan doirasida arab olimlaridan Xalil ibn Ahmad, Abulhasan Axfash, Mahmud Zamaxshariy, fors olimlaridan Rudakiy, Nasiruddin Tusiy, Rashididdin Vatvot, Shamsiddin Qays Roziy, Vohid Tabriziy, turkiy olimlardan Shayx Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Sayfiy Buxoriy, Atoulloh Husayniy, Zahiriddin Bobur qimmatli asarlarni meros qilib qoldirishgan.

Ushbu maqolada XIII asrda yashab ijod qilgan qomusiy olim Nasiruddin Tusiyning Sharq adabiyotiga, xususan, fors adabiyotshunosligiga qo‘shgan hissasi, uning hayoti, ijod yo‘nalishlari va adabiyotshunoslikka oid risolalari yoritib beriladi.

Fors aruzshunosligi arab aruzshunosligi zamirida shakllangan bo‘lsa ham, uning taraqqiyoti mumtoz fors she’riyati bilan cheklanib qolmasdan, fors aruzshunoslarining kashfiyotlari bilan boyib bordi. Ayni shu holatni Abdurauf Fitrat quyidagicha ta’kidlaydi: “Eronlar arablardan nima olg‘an bo‘lsa, aynan olmoq, o‘zgartirib, unga o‘z xususiyatlarini ta’qib oldi yoki olib taqdi … Shunday qilib ayrim bir fors(i) o‘z aruz maydoniga qo‘yuldi” [9:25–26]. Abdurauf Fitrat aruz vazniga oid nazariy qarashlar forslar tomonidan aynan ko‘chirilmagani, balki takomillashtirilib, aynan fors aruziga xos kashfiyotlar ham qilingani haqida ma’lumot berdi.

Fors aruzining poetik ilm sifatida taraqqiy etishiga Shamsiddin Qays Roziyning “Al–Mo‘jam”, Nasiruddin Tusiyning “Me’yor–ul–ash’or”, Vohid Tabriziyining “Ja’mi muxtasar”, Yusuf Aziziyning “Aruz”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” kabi asarlari katta hissa qo‘shgan.

Nasiruddin Tusiy nomi bilan tanilgan Abu Ja’far Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan XIII asr fors olamida ilm–fan va san’atning gullab–yashnagan davrida yashab, ijod qilgan qomusiy olim bo‘lib, 1201–yil 17–fevral (hijriy 597–yil)da tavallud topgan. Tusiy matematika, axloq, falsafa, tarix, huquq, poetika, siyosat, pedagogika

kabilar bilan shug‘ullangan bo‘lib, u faoliyat ko‘rsatgan ilm sohalari faqat shular bilan chegaralanib qolmaydi. Asosan huquq sohasiga katta e’tibor qaratgan olim o‘rta asrlar shariati, qadimgi yunon huquq ilmi bo‘yicha beqiyos olim bo‘lgan. Bundan tashqari, Tusiy astronomiya sohasiga katta hissa qo‘shgan, Marog‘a rasadxonasi asoschisi sifatida ham butun dunyoga mashhur olimdir.

Nasiruddin Tusiyning bolalik va ilk ta’lim holati haqida ma’lumotlar kam, mavjud ma’lumotlar esa Tusiyning avtobiografik asari “Sayr va suluk” risolasiga asoslanadi.

Ilmiy jamoatchilikda Nasiruddin Tusiyning tug‘ilgan joyi haqida turli qarashlar mavjud. Tusiyning o‘zi “Ziji Ilhoni” risolasida qayd etishicha, Tus shahrida (Xuroson) tavallud topgan: “Men, Allohning quli Nosir, Tus shahridanman” [10:344]. Ba’zi manbalarda Nasiruddin Tusiy Hamadon shahrida tug‘ilgani qayd etiladi [11:14]. Bu qarash tadqiqotchilarda Rashididdin Fayzullohning “Jome’ ut–tavorix” asarida keltirilgan quyidagi parchaga tayanish oqibatida yuzaga kelgan bo‘lishi ham mumkin: “Xoja Nasiruddin Tusiy va tabiblar – Raisuddavla hamda Muvaffaqaduddavlaning farzandlari hamadonlik sof niyatli kishilar ekanligi ochiqlangach, Xulagu ularga iltifot qildi”[12:40]. Parchadan ikki xil xulosa qilish mumkin: birinchi holatda Tusiy va uning sheriklari Hamadondan bo‘lishi, ikkinchi holatda Tusiyning faqat sheriklarigina hamadonlik bo‘lishlari mumkin. Eronlik olim Iqbol Yagmai esa Tusiyning Jahrud shaharchasida tug‘ilgani va keyinchalik oilaviy Tus shahriga ko‘chishgani haqidagi fikrni o‘rtaga tashlaydi [8:285].

Nasiruddin Tusiy fors–tojik fani va madaniyati tarixida qomusiy olim sifatida nom qoldirgan. Olimlar Nasiruddin Tusiy hamda Shams Roziy hayot yo‘lini o‘xshash deb hisoblaydi. Tusiy yoshligidanoq turli fanlarni o‘rganishga qiziqqan hamda otasi va tog‘asidan mantiq, falsafa, iqtisod va shariat huquqi ilmini o‘rgangan. Otasining vafotidan so‘ng Tusiy ilm izlab yo‘lga chiqadi. O‘zining “Sayr va suluk” avtobiografik asarida Tusiy otasining o‘gitlariga sodiq qolgan holda, uchratgan barcha olimlaridan ilm o‘rganishga harakat qilganini qayd etadi.

Tusiy ilm izlab Hamadon, Tus, Nishopur, Ray, Iroq kabi o‘sha davrning ilm markazlarida bo‘lgan. Tusiy Nishopurda Imom Sirojiddin Qamariy, Qutbiddin Sarahsiy kabi olimlardan mantiq va tib ilmlarining asoslarini o‘rganadi. Bu yerda u zamonasining ulkan olimlaridan hisoblangan al–Attor bilan tanishadi. O‘zi keyinchalik qayd etgani kabi bu shaxsiyat uning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Tusiy hayotining keyingi davrida Xuroson, Hirot va Xorazmga ketadi. O‘z davrining taniqli olimlaridan hisoblangan Kamolliddin Mavsum Abduldan umumiy ilmlar bo‘yicha, shayx Burxoniddin Muhammaddan hadislar bo‘yicha, Qutbiddin Misriydan til bo‘yicha, Abul Hasan ibn Badraqiydan riyoziyot, astronomiya bo‘yicha darslar oladi [8:285]. Olim Nishopurda bo‘lib turgan vaqtida Xurosonga mo‘gullar bosqini uyushtiriladi. Shunday vaziyatda Tusiy Ko‘histon humkdori Nasiruddin Muhammad al–Muhtashamning taklifi bilan saroyga keladi. Ko‘histonda o‘tkazgan vaqtida Tusiy hukmdor bilan ancha yaqinlashadi va o‘zining axloqqa oid ikki yirik asari – “Axloqi Nosiriy” va “Axloqi Muhtashamiy” risolalarini humkdorga bag‘ishlab yozadi. Ammo 1235–yilda, ya’ni “Axloqi Nosiriy” asari yozib tugallangach, hukmdor va Tusiy orasida nizo kelib chiqadi va Tusiy Alamut qasriga surgun qilinadi. 20 yildan ortiqroq muddat davomida surgunda bo‘lgan Tusiy ko‘plab ilmiy asarlar yozadi. Shu davrda ismoiliylar davlati mo‘g‘ullarning yangi bosqiniga uchraydi. Nasiruddin Tusiy ismoiliylarning so‘nggi hukmdorini mo‘g‘ullarga taslim bo‘lishga ko‘ndiradi, natijada Alamut qasri 1256–yilda mo‘g‘ul xoni Xulaguxonga taslim bo‘ladi. Davlat endi Ilhoniylar deb atalgan sulola tomonidan boshqarila boshlaydi. Alamut qal’asida bo‘lib turgan vaqtida Ismoiliylarning ulkan va boy kutubxonasidan foydalangan Tusiyga qal’ani qo‘lga kiritishdagi ko‘magi uchun kutubxonani saqlab qolish imkoni beriladi.

Bundan tashqari Xulaguxon Tusiyni o‘ziga maslahatchi, vazir qilib tayinlaydi. Xon olimning ilmini, qobiliyatini munosib baholaydi. Tusiy ham Xulaguxonga davlat boshqarish siyosati, ijtimoiy–huquqiy masalalarda qimmatli maslahatlar bergan.

Tusiy Xulaguxon bilan bog‘liq davrdagi hayoti va o‘sha davrdagi siyosiy vaziyat haqidagi ma’lumotlarni Rashididdin Fayzullohning “Jome’ ut–tavorix” asarida ham ko‘rish mumkin. Unda Tusiy Xulaguxon xizmatiga qanday kirgani, Marog‘a rasadxonasi qurilishi, Xulaguxon vafotidan keyin Tusiyning 1265–yilda Tabriz shahriga qaytgani hamda 678–hijriy yil zulhijja oyining 17–kunida (19–aprel, 1280–yil) Bag‘dodda vafot etgani bayon etilgan [12:135]. Tusiyning vafot sanasi ham turli manbalarda turlicha beriladi (1272; 1274; 1280). Rizayev Og‘abobo “Tusiy” monografik tadqiqotida Nasiruddin Tusiy Bag‘dodda, 12274–yil 25–iyunda vafot etgani va Jalil Masjidga dafn etilgani haqida ma’lumot keltiradi [11:20]. Tadqiqotchi Ramiz Deniz ham Tusiy 1274–yilda Marog‘adan Bag‘dodga qaytib, 25–iyun sanasida vafot etgani hamda abbosiylar xalifaligining sobiq poytaxti Bag‘doddan 10 km uzoqlikdagi jome’da dafn qilinganini aytadi [6].

Nasiruddin Tusiyning ijodini o‘rgangan olimlar uning 150 dan ortiq (ba’zi manbalarda 200) ilmiy asarlari borligini qayd etadi. Bular qatoriga “Sharh ul–ishorat”, “Shakl ul–qit’a”, “Ziji Ilhani”, “Tajrid ul–e’tiqod”, “Sayr va suluk”, “Tajrid ul–kalom”, “Tajrid ul–mantiq”, “Tahriri Uqlidis”, “Tahrir ul–Majasti”, “Asos ul–iqtibos”, “Me’yor ul–ash’or”, “Axloqi Nosiriy”, “Risolayi fi imoma”, “Jabr va qadar”, “Jalol ul–Hisob”, “Hal ul–mushkilot” kabilar kiradi.

“Al–muhokamat beyn al–muhokamatayn” (Ikki mulohaza haqida o‘ylar) asarida musulmon mutafakkiri Abu Homid al–G‘azzoliy bilan mashoiyun oqimidagi arab faylasufi Ibn Rushd o‘rtasidagi bahsni tahlil qilib chiqadi [4:233].

“Ziji Ilhoni” asarida esa sayyoralarning geosentrik orbitalarining asosiy elementlari, ularning sutkalik harakati

borasida o‘z davrining va hatto XVII asrgacha bo‘lgan davrdagi eng aniq ma’lumotlarni keltiradi. Nasiruddin Tusiy boshchiligida Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanish og‘ish burchagi ham maksimal aniqlikda topiladi.

“Shakl ul–qit’a” risolasini Tusiy 1260–yilda yozib tugallaydi. Aynan shu risola tufayli Tusiy jahonda mashhur matematiklardan biri sanaladi. Chunki risolada chiziqli va sferik geometriya matematikaning alohida mustaqil sohasi sifatida qayd etilgan tadqiqot yoritilgan.

“Adab ul–muta’allimun” (Talabalik madaniyati) asarida esa Tusiy ilm o‘rganish ostonasida turgan talabalarga tahsil olishning o‘ziga xos nozik jihatlari, ya’ni ilm ilohiy sifatlarning eng xosi va komillikning eng yuqori chegarasi ekanligini, tolib bunda nima foyda–yu nima zararligini nazardan qochirmasligi, illatlardan qochib, fazilatlar kasb etib borishi, bu yo‘lda ilm unga mayoq vazifasini bajarishi lozimligini uqdiradi [6:19].

Nasiruddin Tusiyning adabiy qarashlari “Me’yor ul–ash’or” hamda “Asos ul–iqtibos” kabi asarlarida bayon qilingan. Aruz va qofiya ilmiga bag‘ishlangan “Me’yor ul–ash’or” va mantiq ilmiga bag‘ishlangan “Asos ul–iqtibos” asari sharq poetikasi, xususan, so‘z san’ati, she’riyat, aruz va qofiya ilmi borasida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Ibn Xaldun o‘zining “Muqaddima” asarida Nasiruddin Tusiy haqida “Fors olami Ibn al–Xotib hamda Nasiruddin Tusiydan keyin ulardanda mahoratliroq olimni ko‘rmadi”, deya uning bilimiga yuksak baho bergan. Shuningdek, uning Ibn Sinoning “Kitob ul–ishorat” asariga sharh yozganini ham qayd qilib o‘tadi: “G‘arb olamiga Avitsennaning Kitob ul–ishorat” asari ham tanish. Ibn al–Xotib bu asarga juda yaxshi sharh yozgan. Bu asarga yozilgan yana bir sharh “Xoja” nomi bilan tanilgan iroqlik olim Nasiruddin Tusiy qalamiga mansub. U (Ishoratdagi) ko‘plab muammolarni tadqiq qilib ularni imom Ibn al–Xotibniki bilan solishtirib o‘tgan. U Ibn al–Xotibning izlanishlarini yangi darajaga olib chiqqan”[5:645].

Tusiy falsafa borasida O‘rta Osiyolik boshqa buyuk olimlar, jumladan Farobiy, Beruniy va Ibn Sinolarga yaxshi izdosh bo‘la olgan. Qomusiy olim sifatida yozgan asarlari uning Muhaqqiqi Tus (Tus tadqiqotchisi), Ustodi bashar (Bashariyat ustozi), Muallimi solis (Uchinchi ustoz), Shohi ulum (Ilmlar shohi) kabi nomlar bilan ulug‘lanishiga sabab bo‘lgan [8:285]. Uning ilmiy merosi shu darajada keng qamrovli ekanidan butun dunyo bo‘ylab hali–hanuz tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda.

Fors olamida aruzshunoslik arablar istilosidan keyin shakllangan ilm bo‘lishiga qaramay, fors adabiyotidagi she’riy namunalar aruz vazni qoidalariga mos yaratilgan. Forsiy aruzning ilm sifati shakllanishi esa ikki xil usulda yuz bergan:

Birinchisi – arab aruziga ba’zi o‘zgarishlar kiritish, ya’ni fors xalqlari folklorida mavjud aruz qolipiga tushadigan vaznlarni ishlatish vas shu qoliplarni biroz o‘zgartirib, yangi bahrlar tuzish.

Ikkinchi yo‘l esa arab aruzi qolipiga mos kelishi uchun forsiy so‘zlar talaffuziga o‘zgarishlar kiritish.

Arab aruziga kiritilgan o‘zgarishlar sirasiga arablarda mavjud ruknlardan fors tiliga mos keladiganlarini tanlab olish, arab aruzidagi asl bahrlardan fors aruziga mos keladiganlarini tanlab olish, arab aruzidagi ba’zi doiralarni qabul qilmaslik va fors aruziga xos bahrlardan yangi doiralar yaratish kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Ayni shu usullar Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul–ash’or” risolasida arab va fors aruz tizimini qiyoslash orqali batafsil tushuntirib o‘tilgani uchun ham fors adabiyotshunosligidagi beqiyos asarlardan sanaladi.

Nasiruddin Tusiy risolani Allohga hamd va Muhammad s.a.v.ga na’t bilan boshlaydi, hamda risolani ba’zi do‘stlarning iltimosiga binoan forsiyda bitganini qayd etadi. So‘ng “Me’yor ul–ash’or”ni muqaddima va ikki yirik qismga bo‘lganidan xabar beradi. Muqaddima – she’r mohiyati va she’rga oid san’atlar zikri haqida (Dar bayoni mohiyati she’r va zikri sinoote, ki she’rro bad on taalluq boshad) deb nomlangan.

Muqaddimaning o‘zi uch fasldan iborat: 1–fasl – she’r va uning tadqiqi xususida (Dar haddi she’r va tahqiqi on); 2–fasl – tilda vazn va qofiya ixtiloflari sabablari (Dar asbobi (sababhoi) ixtilofi avzon va qavofi dar lug‘ot); 3–fasl – she’rga oid san’atlar zikri haqida (Dar zikri sinoatho, ki she’rro bad–on taalluq boshad). Muqaddimada she’rning mohiyati, uni vujudga keltiruvchi unsurlar, vazn va qofiya, ularning istilohiy va lug‘aviy ma’nolari haqida so‘z boradi.

Risolaning birinchi yirik qismi aruz ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, muallif uni o‘n faslga bo‘ladi va aruzga oid masalalarni bosqichma–bosqich ko‘rib chiqadi.

Aruzga oid faslda muallif avval arab aruziga xos qoidalarni, keyin fors aruzida qanday o‘zgarishlar qilingani, shunga oid misollar va o‘z fikrini berib o‘tadi. Masalan, aruzning eng kichik birligi – juzv tadqiqiga bag‘ishlangan Mutaharrik va sokin harflardan paydo bo‘luvchi she’r juzvlari haqida (Dar ajzoyi soniyai she’r, ki az hurufi mutaharrik va sokin muallaf shavand) deb nomlangan 3–faslda Tusiy juzvlarni uchga – sabab, vatad hamda fosila juzvlariga bo‘ladi, o‘z navbatida har bir juzv yana ikki qismga bo‘linishini ta’kidlab o‘tadi. U arab aruzida har olti juzvni qayd etib, sababi saqil, vatadi mafruq hamda fosilayi kubrolarni fors aruzidan xos emas deb hisoblaydi.

Risolaning tadqiqi Tusiy nafaqat Sharq she’riyatini, balki o‘zigacha o‘tgan olimlarning aruz va qofiya haqidagi asarlarini ham chuqur o‘rgangani haqidagi xulosaga olib keladi. Chunki muallif u yoki bu muammoli holatlarni yechish uchun o‘zidan ilgarigi salaflar – Xalil ibn Ahmad, Bahrom Saraxsi, Yusuf Aruzi kabilarning fikrlariga ham ishora berib ketadi. Bundan tashqari, Rudakiy, Firdavsiy, Kamol Isfahoni kabi Sharq she’riyati namoyondalari ijodiga murojaat qilib, o‘z fikrlarini dalillaydi. Bu borada “Me’yor ul–ash’or” o‘rta asrlar olim va shoirlari haqidagi manba sifatida ham e’tiborga molikdir.

Risolada Nasiruddin Tusiy Xalil ibn Ahmadning

an’analarini davom ettirgan. Bu bilan o‘zidan keyingi aruz va qofiya haqidagi asarlarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsata olgan. Masalan, Alisher Navoiy (Mezon ul–avzon), Zahiriddin Muhammad Bobur (Muxtasar), Husayn Voiz Koshifiy (Badoe ul–afkor fi sanoe al–ash’or) Nasiruddin Tusiyning nomini “Me’yor ul–ash’or” risolasi muallifi sifatida yuqori hurmat bilan tilga olib, manbaa sifatida asoslanishganini bildiradilar. Shayx Taroziy ham “Funun ul–balog‘a”ni yozishda bevosita bu asarga ham tayanganini qayd etadi: “Bu havastin ko‘p nusxalarni mutolaa qildi, netokkim, “Aruzi qistos” va “Aruzi Undulusiy” va “Me’yor–ul ash’or” va bu tariqa nusxalarning bahrlarida ko‘p g‘avvosliq qilduq” [2: 146].

Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul–ash’or” risolasi esa fors tilida yaratilgan risolalar orasida Qays Roziyning “Al–mo‘jam”idan kam bo‘lmagan o‘rinda turadi, buni Muhammad ibn Abdulvahhob Qazviniy “Al–mo‘jam”ga yozgan so‘zboshisida ham ta’kidlab o‘tadi [7: 5].

Tusiyning risolasi o‘zidan keyin bir qancha asarlar, jumladan Atoulloh Husayniyning “Badoye us–sanoe”, Sayfiy Buxoriyning “Risolayi aruz”, Vohid Tabriziyning “Jam’i muxtasar”, Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul–lug‘ot” kabi risolalaridagi aruz hamda qofiya haqidagi qarashlar uchun mayoq vazifasini o‘tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Насируддини Тўсий. Меъёр–ул–ашъор. Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Чалол. – Душанбе: Ориёно, 1992.

2. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул–балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.

3. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Фил. фан. док. дис. – Тошкент, 2019.

4. Қодиров М. Насриддин Тусийнинг “Ахлоқи Носирий” асари. Sharqshunoslik, 2015. № 2–3, Б. 233. https://inlibrary.uz/index.php/oriental–studies/article/view/15568

5. Ibn Khaldun. The Muqaddimah. Translated by Franz Rosenthal. Page 645 https://traditionalhikma.com/wp–content/uploads/2015/08/The–Muqaddimah–by–Ibn–Khaldun–Translated–by–Franz–Rosenthal.pdf

6. Дениз, Р. Насирэддин Туси – ученый, опередивший века. – Баку: 2013. С. 206

7. Қўшшаева Н. Носируддин Тусий маънавий–ахлоқий таълимотининг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти. // Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Бухоро:, 2022. Б. 19.

8. Холматова М. М. Роль российских ученых в познании великого персидско–таджикского ученого Насир–ад–дина Туси. // Сборник материалов Международной научной конференции, посвящённой 200–летию российского востоковедения (г. Худжанд, 23 ноября 2018 года). Серия: “Евразийский перекресток”. Вып. 11. – Оренбург: ООО ИПК “Университет”, 2019.

9. Фитрат. Аруз ҳақида (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Х.Болтабоев). – Т.: Ўқитувчи, 1997. Б.25–26

10. Seyidbeyli M. Life and activity of Nasir al–Din al–Tusi // History of science and technology, 2020, vol. 10, issue 2. Page 344.

11. Рзаев А.К. Туси. – Москва: Юридическая литература, 1990. Стр. 14.

12. Фазлуллах Рашид–ад дин. Джами–ат–таварих – Баку: Нагыл Еви, 2011. Стр 40.

Dildora ABDULLAYEVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti dildorashokirqizi96@gmail.com

ALISHER NAVOIY RUBOIYLARIDA DONISHMANDLIK VA HAYOT FALSAFASI HAMDA UNING ADABIYOT DARSLARIDA O‘QITILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ruboiylarida ifodalangan donishmandlik g‘oyalari va hayot falsafasi tahlil qilinadi. Ruboiy janrining ixchamligi va ma’no yuki kuchliligi Navoiyning falsafiy qarashlarini qisqa, ammo ta’sirli shaklda bayon etishga imkon bergan. Tadqiqotda shoirning ezgulik, sabr, vaqt, umr mazmuni, taqdir, ma’naviy kamolot kabi tushunchalarga munosabati ruboiylar asosida ochib beriladi. Navoiy ijodidagi donishmandlik – hayotga chuqur nigoh, inson va jamiyat mohiyatini anglash, ruhiy poklanish sari da’vat etuvchi tamoyillar bilan uyg‘unlashgan holda tahlil qilinadi. Maqola adabiy–falsafiy yondashuv asosida yozilgan bo‘lib, o‘quvchiga Navoiy ruboiylaridagi ibratli g‘oyalarni teran anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlari: Alisher Navoiy, ruboiy, donishmandlik, hayot falsafasi, ma’naviyat, sabr, taqdir, vaqt, axloqiy kamolot.

Annotation: this article explores the themes of wisdom and life philosophy in the rubaiyat (quatrains) of the great thinker and poet Alisher Navoi. The concise and meaningful nature of the rubai form allows Navoi to express deep philosophical reflections in a powerful and succinct way. The study analyzes Navoi’s views on concepts such as goodness, patience, time, the meaning of life, fate, and spiritual growth through selected rubaiyat. His wisdom is portrayed as a profound insight into human nature, society, and the path to moral and spiritual perfection. Written from a literary and philosophical perspective, the article offers readers a deeper understanding of the timeless messages embedded in Navoi’s poetic legacy.

Key words: Alisher Navoi, rubaiyat, wisdom, life philosophy, spirituality, patience, fate, time, moral perfection.

Аннотация: в данной статье рассматриваются темы мудрости и жизненной философии в рубаи великого мыслителя и поэта Алишера Навои. Краткая и насыщенная форма рубаи позволяет Навои выразить глубокие философские размышления в сжатой, но выразительной форме. В исследовании анализируются взгляды поэта на такие понятия, как добродетель, терпение, время, смысл жизни, судьба и духовное совершенствование на основе его четверостиший. Мудрость Навои представлена как глубокое понимание человеческой природы, общества и пути к нравственному и духовному очищению. Статья написана с литературно–философской точки зрения и помогает читателю глубже осознать вечные идеи, заложенные в поэтическом наследии Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, рубаи, мудрость, жизненная философия, духовность, терпение, судьба, время, нравственное совершенство.

Alisher Navoiy – o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi har tomonlama chuqur falsafiy mazmunga ega. Ayniqsa, ruboiy janrida yozilgan asarlarida shoir hayotning mohiyati, insoniylik, vaqt, sabr–toqat, ilm, axloq kabi muhim mavzularni qisqa, ammo sermazmun satrlar orqali ifoda etadi. Navoiy ruboiylari hayot maktabi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy ruboiy janrini nafaqat she’riy go‘zallik, balki hayotiy haqiqatlarni ifoda etish vositasi sifatida ham mohirlik bilan qo‘llagan. U o‘z ruboiylarida insonni fikrlashga, o‘zini anglashga, to‘g‘ri yo‘lni tanlashga undaydi. Donishmandlik aql–zakovat, bilim, tajriba va sabr bilan harakat qilish, Navoiy ruboiylarining asosiy g‘oyalaridandir.

Shoir ko‘p ruboiylarida vaqtning qadriga yetish, ilmga intilish, nafsni yengish, axloqiy poklik kabi mavzularni yoritadi. Unga ko‘ra inson dunyoga faqat yeyish–ichish yoki boylik orttirish uchun kelmagan, balki aql va tafakkur bilan yashab, jamiyatga foyda keltirishi kerak. Navoiy quyidagi satrlarida bu fikrni shunday ifoda etadi:

So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhare sharifroq yo‘q andin [1. 71–bet].

Ruboiy tahliliga to‘xtalsak, *“So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin…”.* Bu misrada shoir “so‘z”, ya’ni nutq, ifoda, fikr orqali bildiruvchi vositani ulug‘laydi. Navoiy so‘zga shunchalik kuchli ahamiyat beradi–ki, u hatto o‘likka jon bag‘ishlaydi, ya’ni tiriklik belgisidir. Bu yerda “so‘z” hayot va harakatning, ongning belgisidir. So‘z orqali fikr, tuyg‘u va ruhiyat ifodalanadi.

“So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin…”. Bu satrda esa so‘zning sevgidagi va ruhiy aloqadagi o‘rni ochib beriladi. “Jononga xabar”, ya’ni sevgilidan, Yor–u do‘stdan xabar olish ham so‘z orqali bo‘ladi. Bu faqat dunyoviy

muhabbat emas, balki tasavvufiy ma'noda Allohdan kelgan ilhom, ilohiy xabar bo'lishi ham mumkin. So'z orqali inson ruhiy ozuqa oladi.

"Insonni so'z ayladi judo hayvondin…". Bu eng markaziy va falsafiy satrlardan biri. Navoiy bu yerda inson va hayvon orasidagi eng muhim farq bu so'zlash qobiliyati ekanini aytmoqda. Fikrini ifoda eta olish, tafakkur yuritish va boshqalar bilan muloqot qilish insoniylik belgilaridir. Demak, insonni inson qilgan asosiy fazilat – so'z.

"Bilkim, guhare sharifroq yo'q andin." "Guhar". Bu yerda qimmatbaho narsa, nodir ne'mat ma'nosida. Shoirning fikricha, so'zdan ulug'roq, so'zdan qimmatbaho biror ne'mat yo'q. Chunki u bilan bilim tarqaladi, tuyg'ular ifodalanadi, jamiyat shakllanadi, madaniyat barpo bo'ladi.

Ko'nglungni orit barcha yomon xislatdin
Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.
Badxo'ylik ul vahshat erur shiddatdin
Kim, elga xaloslik yo'q vahshatdin [2. 70–b].

Ushbu ruboiyni maktab o'quvchilariga qiziqarli hamda samarali o'tish uchun quyidagicha topshiriqlar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

"So'z xazinasi" o'yini *(bu orqali o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish mumkin. Quyidagi topshiriq asosida ko'rib chiqamiz.*

Topshiriq: Quyidagi so'zlarni alohida yozib, o'quvchilardan bu so'zlarning bugungi kundagi ma'nosini topishlari so'raladi.

1. orit
2. dalil erur
3. Badxo'ylik
4. vahshat
5. xaloslik

So'zlarni tarqatma materiallarga yozilgan bo'ladi, o'quvchilarni guruhlarga ajratib, "kim tezroq to'g'ri ma'no topadi" mazmunida musobaqa qilish mumkin.

Yana bir topshiriq: "Ruboiyni tarjima qilamiz" (soddalashtirish topshirig'i)

Topshiriq: Har bir satrni zamonaviy, bolalar tushunadigan so'zlar bilan soddalashtirib yozing.

Masalan:
Ko'nglingni tozalagin yomon odatlardan,
Chunki yaxshi xulq – yaxshilik belgisi.
Yomon fe'l – bu odamlar qo'rqadigan holat,
Qo'rquvdan esa hech kim najot topmaydi.

Bu ishni guruhlarda yoki juftliklarda bajarish yaxshi natija beradi.

"Ruboiy asosida rasm chizish"

Topshiriq: Har bir o'quvchi ruboiydagi mazmunni tushungan holda bir rasm chizsin. Masalan:

Yorqin va qora bulutlar (yaxshi va yomon xislatlar ramzi)
Yaxshi bilan yomonning kurashi
Shundan so'ng har bir bola o'z rasmini tushuntirib beradi.

"To'g'ri–Notog'ri" (mazmunni anglash testi)

Ruboiyni o'qib bo'lgach, quyidagi jumlalarni berib, bolalardan "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb belgilatish:

Navoiy yaxshi xislatlarni yomon deb ataydiii.
Yomon fe'l odamlarni qo'rqitadi.
Ruboiyda sabr–toqat haqida so'z boradii.
Yaxshi fe'l rahmatga olib keladi.

Alisher Navoiyning asarlarini maktab o'quvchilariga tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish muhim metodik yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, 6–sinf o'quvchilari uchun ijodiy, interaktiv va o'yin tarzidagi topshiriqlar orqali o'qitiladigan darslar nafaqat bilim berish, balki o'quvchining fikrlash, tasavvur qilish va ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu kabi topshiriqlarning asosiy foydali jihatlari quyidagilardan iborat:

Til va ma'no ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchi arxaik yoki murakkab so'zlar ustida ishlash orqali so'z boyligini oshiradi, she'riy matnni zamonaviy tilda tushunishga o'rganadi. Bu esa uning lug'at boyligini va nutq madaniyatini yuksaltiradi.

Ijodiy fikrlash va tafakkurni rivojlantiradi. Ruboiyga mos rasm chizish, sahna ko'rinishini yaratish yoki mazmunini soddalashtirish singari topshiriqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.

Axloqiy–tarbiyaviy ta'siri kuchli bo'ladi. Ruboiylar orqali yaxshi va yomon xislatlar haqida muloqot qilish, personajlar orqali voqeani tushunish o'quvchilarda ijobiy xulq–atvorni shakllantirishga yordam beradi. Bu topshiriqlar orqali bolalar yaxshilik, sabr, halollik kabi fazilatlarni chuqurroq anglaydi.

Jamoada ishlash ko'nikmasini oshiradi. Guruh bo'lib ishlanadigan mashqlar so'z boyligini oshiradi, o'quvchilarda hamkorlik qilish, fikr almashish, bir–birini tinglash va hurmat qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi. An'anaviy tahlildan farqli o'laroq, interaktiv va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Bu turdagi mashg'ulotlar orqali ular klassik adabiyotga nisbatan iliq munosabat va qiziqish bilan qaray boshlaydilar.

Tushunish va analiz qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. To'g'ri–notog'ri mashqlari yoki satrma–satr soddalashtirish orqali o'quvchilar matnni tushunish, sabab–oqibat munosabatlarini ko'ra olish va xulosa chiqarish kabi muhim intellektual faoliyatlarni bajara boshlaydilar.

Alisher Navoiy ruboiylari o'zbek adabiyoti va Sharq mumtoz she'riyati durdonalaridan biri bo'lib, ularda chuqur donishmandlik, hayotiy kuzatuvchanlik va falsafiy tafakkur mujassam. Ruboiy qisqa, ammo mazmun jihatidan nihoyatda teran janr sifatida Navoiy qalamida nafaqat badiiy go'zallikka, balki ma'naviy tarbiya va hayotiy haqiqatlarga boy fikrlar ifodasiga aylangan. Shoir

inson tabiatining murakkab tomonlarini, nafs va aql o‘rtasidagi kurashni, vaqtning o‘tkinchiligini, ezgulik va yomonlik singari ziddiyatlarni chuqur falsafiy asosda yoritib bergan.

Navoiyning donishmandligi shundaki, u ruboiylar orqali o‘quvchini oddiy hikmatlar bilan emas, balki nozik badiiy ifoda va timsollar orqali fikrlashga, o‘z ruhiy holatini anglashga undaydi. Har bir ruboiy o‘zida bir dars, bir nasihat va bir hayotiy haqiqatni mujassam etgan. Ayniqsa, insonni o‘z nafsini yengishga, adolat, sabr, halollik va mehr–oqibat kabi fazilatlarni qadrlashga da’vat etuvchi fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Shu jihatdan qaraganda, Navoiy ruboiylari bizga nafaqat o‘tmish ma’naviyatini eslatadi, balki zamonaviy inson uchun ham muhim ruhiy–ma’naviy yo‘lko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Ularning har biri hayotga falsafiy nazar bilan qarash, turmushdagi har bir voqea va holatga chuqur ma’no yuklash, hamda insoniylik mezonlarini tushunish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Alisher Navoiyning ruboiylarida donishmandlik va hayot falsafasi chuqur ifodalangan bo‘lib, uning asarlari nafaqat adabiy meros, balki hayotiy tajriba va ma’naviy o‘sish manbayi hisoblanadi. Navoiyning ruboiylaridagi falsafiy fikrlar insonning o‘zligini anglash, hayotiy qadriyatlarni qadrlash va ma’naviy kamolot sari intilish g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan. Ushbu maqolada Navoiyning ruboiylari ta’lim jarayonida qo‘llanilishi, ularning adabiyot darslarida o‘qitilishi orqali o‘quvchilarlar ongini shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shunday qilib, Navoiyning donishmandlik va hayot falsafasini o‘zida mujassam etgan ruboiylari nafaqat adabiyot, balki tarbiya vositasi sifatida ham muhim o‘rin tutadi.

Demak, Alisher Navoiyning ruboiylari bu shunchaki she’riy satrlar emas, balki har bir avlod uchun saboq, hayotiy dastur va ma’naviy ko‘zgudir. Uning ijodi bugun ham bizni fikrlashga, anglashga va yetuk inson bo‘lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. 6–sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi: o‘qitish metodikasi (metodik qo‘llanma)”. – Toshkent 2020.
3. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh O‘zbek adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2022.
4. www.ziyo.uz.com
5. www.ziyonet.uz
6. www.natlib.uz
7. www.google.com

Huriniso XAYRULLAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1 – kurs tayanch doktaranti

SHARQ ISLOM ADABIYOTIDA PAYG‘AMBARLAR QISSALARIGA ASOSLANGAN “QISASUL ANBIYO”LARNING BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Sharq islom adabiyotida payg‘ambarlar hayotiga bag‘ishlangan “Qisasul anbiyo” janrining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosan arab, fors va turkiy adabiyotlarda yaratilgan mashhur namunalarga tayangan holda, ushbu asarlarning shakliy, mazmuniy, stilistik va didaktik tomonlari yoritiladi. Mualliflar tomonidan Qur’on oyatlari, hadislar va tarixiy tafsir manbalar asosida yozilgan bu asarlar islomiy ta’limotni badiiy obrazlar orqali xalq ongiga singdirishda muhim vosita bo‘lgan. Qissalar orqali ilohiy saboqlar, axloqiy me’yorlar va diniy qadriyatlar targ‘ib qilingan bo‘lib, ular adabiy–estetik yondashuv bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: *Qisasul anbiyo, Sharq adabiyoti, islomiy badiiy ijod, payg‘ambar qissalari, arab adabiyoti, turkiy adabiyot, axloqiy saboq, diniy tafsir, didaktika, badiiy ifoda.*

Аннотация: в данной статье анализируются художественные особенности жанра “Кисасул анбия” в восточной исламской литературе, посвященного жизни пророков. Основываясь в основном на известных примерах, созданных в арабской, персидской и турецкой литературе, выделяются формальные, содержательные, стилистические и дидактические аспекты этих произведений. Эти произведения, написанные авторами на основе коранических стихов, хадисов и исторических экзегетических источников, были важным инструментом в привитии исламских учений в сознание людей посредством художественных образов. Божественные уроки, моральные нормы и религиозные ценности пропагандировались через истории, которые были обогащены литературным и эстетическим подходом.

Ключевые слова: Кисасул анбия, восточная литература, исламское художественное творчество, истории о пророках, арабская литература, турецкая литература, моральный урок, религиозная экзегеза, дидактика, художественное выражение.

Annotation: this article analyzes the artistic features of the genre “Qisasul anbiya” in Eastern Islamic literature, which is dedicated to the lives of prophets. Based mainly on famous examples created in Arabic, Persian and Turkish literature, the formal, substantive, stylistic and didactic aspects of these works are highlighted. These works, written by the authors on the basis of Quranic verses, hadiths and historical exegetical sources, were an important tool in instilling Islamic teachings into the minds of the people through artistic images. Divine lessons, moral norms and religious values were promoted through stories, which were enriched with a literary and aesthetic approach.

Key words: Qisasul anbiya, Eastern literature, Islamic artistic creation, stories of the prophets, Arabic literature, Turkish literature, moral lesson, religious exegesis, didactics, artistic expression.

Sharq islom adabiyotida payg‘ambarlar qissalariga asoslangan “Qisasul anbiyo” asarlari diniy, tarixiy va badiiy jihatdan chuqur mazmunga ega bo‘lib, musulmon xalqlari orasida diniy tarbiya, axloqiy yetuklik va tarixiy xotirani shakllantirishda muhim o‘rin tutgan. Ushbu janrdagi asarlar, ayniqsa arab adabiyotida keng rivojlangan bo‘lib, ular Qur’oni Karim oyatlariga, hadis va tafsir manbalariga asoslangan holda yaratilgan. Eng mashhur namunalar sirasiga al–Tha’labiyning “Qisas al–Anbiya’”, Ibn Kathirning “Qasas al–Anbiya”, al–Tabariyning “Tarikh al–Rusul wa al–Muluk” hamda Ibn Ishoq va Ibn Hishamlarning “Sirat an–Nabiy” kabi asarlari kiradi.

Al–Tha’labi tomonidan yozilgan “Qisas al–Anbiya’” asari payg‘ambarlar qissalarining eng qadimgi to‘plamlaridan biri bo‘lib, unda Qur’on oyatlari asosida har bir payg‘ambar hayoti, faoliyati va ularning qavmlari bilan munosabatlari batafsil yoritiladi. Bu asar diniy manba sifatida qadrlanishi bilan birga, o‘zining badiiy tili, dramatik sahnalari va ramziy obrazlari orqali ham o‘quvchini o‘ziga tortadi. Asarda payg‘ambarlarning sabr–toqati, axloqiy fazilatlari va sinovlardan o‘tish jarayonlari badiiy vositalar bilan ta’sirchan ifodalangan.

Ibn Kathirning “Qasas al–Anbiya’” asari esa tafsir va tarixiy manbalarga asoslangan bo‘lib, unda hadislar, sahobalar rivoyatlari, yahudiy va nasroniy manbalaridan keltirilgan qo‘shimcha tafsilotlar ham mavjud.Bu asarning o‘ziga xosligi – muallif voqealarni faqatgina Qur’on asosida emas, balki keng kontekstda izohlaydi. Bu esa asarning nafaqat diniy, balki ilmiy–nazariy qiymatini oshiradi. Badiiy jihatdan esa, Ibn Kathir uslubida voqealarni soddalik bilan, ammo mazmunli tarzda bayon etish xususiyati ustun turadi.

Al–Tabariyning “Tarikh al–Rusul wa al–Muluk” asari esa butun bashariyat tarixini, ayniqsa payg‘ambarlar

tarixini qamrab olgan yirik tarixiy ensiklopediyadir.Unda har bir payg‘ambar hayoti tafsilotlari, ular yashagan zamonning siyosiy va ijtimoiy konteksti, xalq va qavmlar bilan munosabatlar hamda ilohiy da’vat jarayoni batafsil bayon etilgan. Bu asarda badiiy ifoda tafsiriy tahlil bilan uyg‘unlashib, ilmiy yondashuv bilan badiiy qiyofaning birlashuvi kuzatiladi.

Ibn Is’hoq va keyinchalik Ibn Hisham tomonidan tartiblangan “Sirat an–Nabiy” asari esa nafaqat Muhammad (s.a.v.) hayotiga bag‘ishlangan, balki u zotning nasabnomasi, nasroniy va yahudiylar kitoblaridagi bashoratlar, oldingi payg‘ambarlar bilan bog‘liq tafsilotlar bilan ham boyitilgan. Ushbu asar badiiy jihatdan epik uslubga yaqin bo‘lib, dramatizm, dialoglar, ruhiy kechinmalar va qahramonlar taqdirining ta’sirchan tasviri orqali o‘quvchini hayajonga soladi.

1–jadval:

Eng sara anbiyolar tarixi haqidagi 5 ta asar tahlili:

Asarning muallifi va nomi	Asar yozilgan yil va til	Asarning o‘ziga xosligi	Asarning bugungi kundagi ahamiyati
Al–Tha’labi – Qisas al–Anbiya’	11–asr, arab tili	Qur’onga asoslangan holda payg‘ambarlar hayoti yoritilgan, xalq orasida keng tarqalgan.	Islomiy adabiyotda eng mashhur manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi.
Ibn Kathir – Qasas al–Anbiya’	14–asr, arab tili	Tafsir asosida yozilgan, hadislar bilan boyitilgan tarixiy–diniy asar.	Islom olamida keng o‘rganiladi, diniy ta’limda asosiy manba hisoblanadi.
Al–Tabari – Tarikh al–Rusul wa al–Muluk	9–asr, arab tili	Payg‘ambarlar va xalqlar tarixini keng qamrab olgan tafsiriy tarixiy manba.	Islom tarixini o‘rganishda asosiy manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga ega.
Ibn Ishoq / Ibn Hisham – Sirat an–Nabiy	8–asr, arab tili	Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hayoti va undan oldingi payg‘ambarlar haqida ilk manbalardan biri.	Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) biografiyasi va tarixiy islom manbasi sifatida dolzarb.
Alisher Navoiy – Hayrat ul–abror, Saddi Iskandariy, Farhod va Shirin	15–asr, fors va chig‘atoy tillari	Badiiy va falsafiy yondashuvda payg‘ambarlar siymosi, Qur’on qissalari asosida obrazlar yaratilgan.	Sharq adabiyoti va Qur’on tafsirining badiiy talqinini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Sharq adabiyotida yaratilgan bu kabi asarlar o‘z vaqtida diniy tushunchalarni keng ommaga yetkazishda vosita bo‘lish bilan birga, milliy badiiy tafakkurning shakllanishi va rivojida ham muhim rol o‘ynagan. Ular orqali insoniy fazilatlar, sabr–toqat, tavba, tavakkul, sadoqat kabi axloqiy g‘oyalar targ‘ib etilgan. Bu qissalarda badiiy vositalar – ramziy obrazlar, tasviriy ifoda, dramatik holatlar, she’riy nutq shakllari va dialoglar keng qo‘llanilib, voqealar faqat voqelik sifatida emas, balki ma’naviy–falsafiy qatlamda talqin qilingan. Shu bilan birga, bu asarlar xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot o‘rtasidagi bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.

Shunday qilib, arab adabiyotidagi “Qisasul anbiyo” asarlari diniy va tarixiy mazmunni chuqur badiiylik bilan uyg‘unlashtirib, islom madaniy merosining bebaho qismiga aylangan. Ular nafaqat ilmiy va diniy manba sifatida, balki badiiy adabiyot namunasi sifatida ham o‘rganiladi va qadrlanadi.

Turkiy adabiyotda payg‘ambarlar qissalariga asoslangan “Qisasul anbiyo” janri Sharq islom madaniyatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu janr diniy rivoyatlarni badiiy shaklda ifodalab, xalq orasida tarbiya, axloq, sabr, sadoqat kabi g‘oyalarning yoyilishiga xizmat qilgan. Ayniqsa o‘zbek, chig‘atoy va turk adabiyotlarida bu janrning badiiy jihatdan sayqal topgan namunalarini ko‘rish mumkin.

O‘zbek va boshqa turkiy xalqlar orasida eng mashhur diniy qissalardan biri “Qissai Yusuf” bo‘lib, u Yusuf va Zulayho hikoyasiga asoslanadi. Bu asar anonim muallif tomonidan yaratilgan bo‘lsa–da, xalq orasida keng tarqalgan va ko‘plab avlodlar tomonidan yoddan aytilgan. Asarda Yusufning sabr–toqati, Zulayhoning muhabbati va ilohiy sinovlar badiiy ifoda topgan. She’riy uslubda yaratilgan bu asar obrazlarning chuqur tasviri, dialoglar va dramatik sahnalarning tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Sodiq Kashg‘ariyning “Qissai Anbiyo” asari esa payg‘ambarlar tarixini she’riy shaklda bayon qilgan yirik to‘plamdir. Ushbu asarda islomiy rivoyatlar xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashgan holda, o‘ziga xos poetik uslubda tasvirlanadi. Har bir payg‘ambar obrazining iymon, sabr, jasorat kabi fazilatlari orqali muallif o‘quvchiga diniy va axloqiy saboqlar beradi. Shuningdek, bu asarda xalq uchun tushunarli, ravon tilda yozilgan bo‘lib, diniy mavzularning ommalashuvida katta rol o‘ynagan.

Alisher Navoiy asarlarida ham payg‘ambarlar qissalari ramziy va badiiy obrazlar orqali mujassam topgan. “Hayrat ul–abror”, “Saddi Iskandariy” va “Farhod va Shirin” kabi dostonlarda Qur’ondagi va tarixiy shaxslar hayoti, ularning ma’naviy izlanishlari, ilohiy da’vat va axloqiy pozitsiyalari chuqur badiiy tahlil etiladi. Navoiy o‘z asarlarida diniy qissalarni faqat rivoyat sifatida emas, balki falsafiy, ijtimoiy va axloqiy g‘oyalar vositasi sifatida talqin etadi. Shu tariqa, u ilohiy haqiqatni go‘zallik va san’at bilan uyg‘unlashtiradi.

Turk adabiyotida esa Mustafa Darirning “Kısas–ı Enbiya ve Tevarih–i Hulafa” asari muhim ahamiyatga ega.

Bu asar “Qisasul Anbiyo” janrining eng keng tarqalgan turkiy namunasidir. Unda barcha payg‘ambarlar hayoti an’anaviy manbalar asosida yozilgan bo‘lib, turkiy xalqlarning diniy–ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Asar hikoya shaklida yozilgan bo‘lib, har bir qissa o‘zining badiiy uslubi, dramatizmi va ramziy ma’nolari bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, turkiy adabiyotda yaratilgan “Qisasul anbiyo” asarlari o‘ziga xos badiiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Ular diniy rivoyatlarni xalq tiliga yaqin, badiiy yuksaklikda ifodalash orqali diniy–ma’naviy qadriyatlarni ommalashtirgan. Har bir asarda tasvirning yorqinligi, dramatik sahnalarning kuchi, obrazlarning ramziy ifodasi, hamda diniy–falsafiy g‘oyalarning go‘zal poetik shakllarda berilishi bu janrning badiiy mukammalligini ko‘rsatadi. Shu bois, “Qisasul anbiyo” nafaqat diniy asar, balki yuqori badiiy san’at namunasi sifatida ham qadrlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib aytishimiz mumkinki, sharqda yaratilgan ushbu janrning asosiy poetik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ilohiy manbalarga tayanish: asarlar Qur’oni Karim oyatlari, hadislar va tafsir manbalariga asoslanadi. Har bir qissa diniy haqiqatlarni badiiy shaklda talqin etadi.

2. Didaktik (tarbiyaviy) yo‘nalish: qissalar orqali axloqiy saboqlar, sabr–toqat, sadoqat, tavba va iymon kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi.

3. Badiiy–estetik tasvirlar: ramziy obrazlar, dramatik sahnalar, dialoglar va ruhiy kechinmalar orqali voqealar ifodalanadi. Bu asarlarni nafaqat diniy, balki adabiy jihatdan ham qadrlanishiga sabab bo‘ladi.

4. Tarixiy asoslanganlik: har bir qissa tarixiy kontekstda, payg‘ambarlarning hayoti, davri, xalq bilan munosabatlari fonida tasvirlanadi.

5. Milliy va folkloriy elementlar: Ayniqsa turkiy adabiyotda bu janr xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘langan, xalq tili va uslubida yaratilgan.

6. Epik–uslubiy yo‘nalish: asarlar ko‘pincha epik janrga xos tarzda — keng ko‘lamli, dramatizmga boy, qahramonlar taqdirini chuqur ochib beruvchi uslubda yoziladi.

7. She’riy va nasriy shakllarda yozilishi: janr vakillari orasida ham nasriy, ham she’riy shakldagi namunalar uchraydi. Ayniqsa turkiy adabiyotda she’riy shakl keng tarqalgan.

8. Madaniy–ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash: Ushbu asarlar islomiy madaniyat, tarixiy xotira va diniy ongni shakllantirishda muhim vosita bo‘lgan.

9. Omma uchun tushunarli til: janr vakillari ko‘pincha xalq uchun sodda, tushunarli va ifodali tilda yozilgan bo‘lib, ularning keng ommaga ta’sir qilish imkonini oshirgan.

10. Ilmiy va diniy manba sifatidagi ahamiyati: ko‘plab “Qisasul anbiyo” asarlari diniy o‘qishlarda, madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgan, tafsir va tarixiy manba vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, “Qisasul anbiyo” janrining Sharq adabiyotidagi namunalari diniy rivoyatlarni badiiy shaklda ifoda etish orqali keng ommani tarbiyalash, islomiy qadriyatlarni targ‘ib qilish, hamda tarixiy–diniy ongni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Har bir adabiy maktab — arab, fors, turkiy — o‘z uslubida bu janrni rivojlantirgan bo‘lib, ular orasida o‘zaro umumiyliklar (ilohiy mavzu, Qur’on asoslari, saboq beruvchi ma’no) va milliy–folklor unsurlar bilan boyitilgan farqlar mavjud. Bugungi kunda bu asarlar diniy madaniyat, adabiy meros va badiiy tafakkurni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al–Tha’labi. Qisas al–Anbiya’ (قصص الأنبياء). — Bayrut: Dar al–Kutub al–Ilmiyyah, 2002.
2. Ibn Kathir. Qasas al–Anbiya’ (قصص الأنبياء). — Riyadh: Dar–us–Salam, 1999.
3. Al–Tabari. Tarikh al–Rusul wa al–Muluk (تاريخ الرسل والملوك). — Leiden: Brill, 1987.
4. Ibn Hisham (Muhammad ibn Ishaq asosida). Sirat an–Nabiy. — Qohira: Al–Maktabah al–Islamiyya, 1963.
5. Muhammad Sodiq Kashg‘ariy. Qissai Anbiyo. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1990.
6. Anonim. Qissai Yusuf. — O‘zbek xalq adabiyoti namunasi. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985.
7. Alisher Navoiy. Hayrat ul–abror, Saddi Iskandariy, Farhod va Shirin. — Alisher Navoiy asarlari to‘plami. — Toshkent: Fan, 1980–1990 yillar.
8. Mustafa Darir. Kısas–ı Enbiya ve Tevarih–i Hulafa. — Istanbul: Milli Kütüphane, 1975.
9. . Rasulov, T. Sharq adabiyotida payg‘ambarlar qissalari. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2015.

Sadoqat ERKINJONOVA
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
Sadoqat486@gmail.com

O‘ZBEK ADABIYOTIDA NASHRIDDIN MUHAMMADNING O‘RNI

Annotatsiya: Nashriddin Muhammad — uyg‘ur adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning ijodi ijtimoiy adolat, inson huquqlari va axloqiy qadriyatlar mavzularini yoritishga bag‘ishlangan. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Adolatnoma” bo‘lib, unda jamiyatdagi adolatsizlik muammolari, huquq va haqiqat g‘oyalari keng yoritilgan. Nashriddin Muhammadning asarlari o‘z davrida katta ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning ijodi Sharq adabiyoti va falsafasida muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Nashriddin Muhammad, “Adolatnoma”, adolat, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, axloq, o‘zbek adabiyoti, Sharq falsafasi, adabiy meros, adolatsizlik.

Аннотация: Нашриддин Мухаммад — один из выдающихся представителей уйгурской литературы. Его творчество посвящено темам социальной справедливости, прав человека и моральных ценностей. Одним из его самых известных произведений является “Адолатнома”, в котором подробно рассматриваются проблемы несправедливости в обществе, а также идеи права и истины. Произведения Нашриддина Мухаммада имели большое значение в своё время и остаются актуальными и сегодня. Его творчество занимает важное место в восточной литературе и философии.

Ключевые слова: Нашриддин Мухаммад, Адолатнома, справедливость, социальная справедливость, права человека, нравственность, узбекская литература, восточная философия, литературное наследие, несправедливость.

Annotation: Nashriddin Muhammad is one of the leading figures of Uyghur literature. His works focus on themes of social justice, human rights, and moral values. One of his most famous works is Adolatnoma (“The Book of Justice”), which thoroughly addresses the problems of injustice in society and the concepts of law and truth. Nashriddin Muhammad’s writings were highly significant in his time and remain relevant today. His literary legacy holds an important place in Eastern literature and philosophy.

Key words: Nashriddin Muhammad, Adolatnoma, justice, social justice, human rights, morality, Uzbek literature, Eastern philosophy, literary heritage, injustice.

Ma’lumki, kishilarning o‘tmishda kechgan tarixiy hodisalar haqidagi bilimlarini boyitishda adabiyot asarlari ham alohida rol o‘ynaydi. Katta iste’dod bilan yaratilgan har bir tarixiy roman, qissa, hikoya, drama, doston va she’rlarda olis zamonlarda bo‘lib o‘tgan voqealar, u paytlarda yashagan kishilarning qiyofasi jonli va ta’sirchan gavdalantiriladi.

Nashriddin Muhammad — o‘zbek adabiyoti va madaniyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning hayoti va ijodi haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Uning tug‘ilgan yili va joyi haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas, ammo tarixiy manbalarda uning XV asrda yashab o‘tganligi qayd etilgan. Nashriddin Muhammadning ijodi asosan she’riyat va nasr janrlarida namoyon bo‘lgan. Uning asarlari o‘z davrining ijtimoiy–siyosiy muammolarini yoritib, insoniy qadriyatlar, adolat va haqiqat mavzularini o‘z ichiga oladi. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Adolatnoma” bo‘lib, unda jamiyatdagi adolatsizliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

Shuningdek, Nashriddin Muhammadning ijodi o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning asarlari keyingi avlod yozuvchilari va shoirlariga ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, uning asarlari Sharq adabiyoti va madaniyatining boshqa namoyondalari tomonidan ham e’tirof etilgan.

Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy o‘quvchilar uchun ham qiziqarli va foydali hisoblanadi. Nashriddin Muhammadning ijodini o‘rganish va targ‘ib qilish o‘zbek adabiyoti va madaniyatining boy merosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nashriddin Muhammadning “Adolatnoma” asari o‘zbek adabiyotining muhim yodgorliklaridan biri bo‘lib, unda adolat, inson huquqlari va ijtimoiy tenglik masalalari yoritilgan. Asar o‘z davrining ijtimoiy–siyosiy muhitini aks ettirib, jamiyatdagi adolatsizliklarni tanqid qiladi va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif etadi.

Asarning tuzilishi va mazmuni

“Adolatnoma” asari nasr shaklida yozilgan bo‘lib, unda adolat tushunchasi keng qamrovli tahlil qilinadi. Muallif adolatning jamiyatdagi o‘rni, uning insonlar hayotiga ta’siri va adolatsizlikning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritadi. Asarda tarixiy voqealar, hayotiy misollar va falsafiy mulohazalar orqali adolatning ahamiyati ochib beriladi.

Asarning asosiy mavzulari

1. Adolatning mohiyati: muallif adolatni insoniy fazilatlarning eng yuksaklaridan biri sifatida ta'riflab, uning jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyot uchun muhimligini ta'kidlaydi.

2. Adolatsizlikning oqibatlari: asarda adolatsizlikning jamiyatdagi nizolar, korrupsiya va inqirozlarga olib kelishi haqida misollar keltiriladi.

3. Adolatli jamiyat qurish yo'llari: muallif adolatli jamiyat barpo etish uchun ta'lim–tarbiya, qonun ustuvorligi va rahbarlarning mas'uliyati kabi omillarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Asarning o'zbek adabiyotidagi o'rni

"Adolatnoma" asari o'zbek adabiyotida ijtimoiy–falsafiy asarlarning yorqin namunasidir. U o'z davrida ham, hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, adolat va inson huquqlari mavzularini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Asar keyingi avlod yozuvchilari va mutafakkirlariga ham ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.

Nashriddin Muhammadning "Adolatnoma" asari o'z mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi bilan boshqa adabiy va falsafiy asarlardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

— ijtimoiy–adoliy yo'nalish. Ko'plab Sharq adabiyoti va falsafasida axloqiy mavzular yoritilgan bo'lsa–da, "Adolatnoma" to'g'ridan–to'g'ri ijtimoiy adolat masalasiga bag'ishlangan. U faqat axloqiy pand–nasihat yoki diniy ta'limotlar asosida emas, balki jamiyatdagi real adolatsizliklar va ularning yechimiga e'tibor qaratadi;

— amaliy tavsiyalar berishi Sharq mutafakkirlarining ko'plab asarlari (masalan, Nizom–ul–Mulkning "Siyosatnoma" asari yoki Al–Farobiyning falsafiy risolalari) hukmdorlar va siyosatchilar uchun maslahat xarakterida bo'lsa, "Adolatnoma" oddiy xalq, hukmdorlar va jamiyatning barcha qatlamlari uchun mo'ljallangan. Unda adolat o'rnatish yo'llari konkret misollar bilan ko'rsatiladi;

— badiiy va falsafiy uyg'unlik. Ba'zi asarlar (masalan, Alisher Navoiyning "Mahbub ul–qulub") odob–axloq va insoniy fazilatlar haqida hikoya qiladi. "Adolatnoma" esa badiiy tasvir va falsafiy mushohadani uyg'unlashtirib, jamiyat tuzilishi va boshqaruv tamoyillarini tahlil qiladi;

— hukmdorlarga emas, xalqga qaratilganlik. Masalan, "Siyosatnoma" kabi asarlar asosan podshohlar va davlat boshqaruvi uchun yozilgan bo'lsa, "Adolatnoma" keng xalq ommasiga mo'ljallangan bo'lib, adolatli jamiyat tuzish uchun har bir kishining mas'uliyatini ta'kidlaydi;

— tarixiy voqealar va real misollarga asoslanishi. Ba'zi ma'naviy–falsafiy asarlarda umumiy qoidalar va nazariy tamoyillar ilgari surilgan bo'lsa, "Adolatnoma" aniq tarixiy hodisalar, hayotiy misollar va real shaxslar orqali tushintiriladi. Bu uni yanada ta'sirli va amaliy ahamiyatga ega asarga aylantiradi.

Shuni aytish joizki, "Adolatnoma" Sharq adabiyotidagi boshqa ijtimoiy–falsafiy asarlardan adolatni faqat ideal tushuncha sifatida emas, balki real hayotda qanday amalga oshirish mumkinligi haqida aniq fikrlar berishi bilan ajralib turadi. U faqat hukmdorlar uchun emas, balki har bir fuqaro uchun adolatli jamiyat barpo etish yo'llarini ko'rsatgan noyob asarlardan biridir. Nashriddin Muhammadning "Adolatnoma" asari adolat va inson huquqlari mavzularini chuqur tahlil qilgan holda, jamiyatdagi adolatsizliklarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Asarning mazmuni va g'oyalari bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lib, o'zbek adabiyotining boy merosini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qayumov. O'zbek adabiyoti tarixi.
2. Sh.Karimov. Nashriddin Muhammad hayoti va ijodi. 2006.
3. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. — Т:. Шарқ, 2004.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Академнашр, 2010.

Madinabonu RAHMATOVA
Buxoro davlat universiteti doktoranti

MA'NAVIY–AXLOQIY MUAMMOLARNI YORITISHDA MAHMUD TOIR MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Mahmud Toir ijodidagi ma'naviy–axloqiy muammolarning ifodalanishi tahlil qilinadi. Shoirning "Chumoliga kelar havasim" she'ri asosida insoniy qadriyatlar, halollik, mehnatsevarlik, g'urur va ichki poklik kabi fazilatlar yoritiladi. Shuningdek, chumoli obrazining ramziy ma'nosi orqali jamiyatdagi axloqiy buzilishlarga tanqidiy yondashuv kuzatiladi. Maqolada Mahmud Toirning xalqona uslubi, sodda va ta'sirli tili, ijtimoiy adolat va insoniylikka bo'lgan da'vati alohida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: mahmud Toir, zamonaviy o'zbek she'riyati, axloqiy g'oya, obraz va timsollar, lirik qahramon, xalqona til, badiiy-estetik tafakkur, ruhiy tahlil, ma'naviy qadriyatlar.

Аннотация: в данной статье анализируется выражение духовных и нравственных проблем в творчестве Махмуда Тоира. На основе поэмы поэта "Чумолига келар хавасим" выделяются такие качества, как человеческие ценности, честность, трудолюбие, гордость и внутренняя чистота. Также через символическое значение образа муравья прослеживается критический подход к моральному разложению в обществе. В статье особо отмечается народный стиль Махмуда Тоира, простой и эффективный язык, призыв к социальной справедливости и гуманности.

Ключевые слова: Махмуд Тоир, современная узбекская поэзия, нравственная идея, образы и символы, лирический герой, народный язык, художественно–эстетическое мышление, духовный анализ, духовные ценности.

Annotation: this article analyzes the expression of spiritual and moral problems in the work of Mahmud Toir. Based on the poet's poem "Chumoliga kelar havasim", such qualities as human values, honesty, hard work, pride and inner purity are highlighted. Also, through the symbolic meaning of the image of an ant, a critical approach to moral corruption in society is observed. The article especially recognizes Mahmud Toir's folk style, simple and effective language, and call for social justice and humanity.

Key words: Mahmud Toir, modern Uzbek poetry, moral idea, images and symbols, lyrical hero, folk language, artistic and aesthetic thinking, spiritual analysis, spiritual values.

Mahmud Toir she'rlarida ma'naviy–axloqiy muammolar alohida o'rin egallaydi. U o'z asarlarida zamonamizda ko'rinadigan axloqiy buzilishlar, odamlarning ruhiy holati va ichki kurashlariga e'tibor qaratadi.Muallif insonlar orasida axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi, ijtimoiy adolat va g'urur tuyg'usi haqida gapiradi. U jamiyatda axloqiy muammolarni keltirib chiqaradigan omillarni tahlil qiladi va bu tahlil ostiga olingan mavzularni sodda, xalqchil tilda yotirib berishga harakat qiladi va shuning uchun ham shoirning hozirgacha bosilgan she'riy to'plamlari va dostonlari adabiyot ixlosmandlarining ma'naviy mulkiga aylandi. Mahmud Toir she'riyatining mavzu ko'lami keng va an'anaviy. Bunga misol qilib "Chumoliga kelar havasim" deb nomlangan she'rini olishimiz mumkin:

O'z rizqini o'zi tashiydi,
Sudralsa–da, mag'rur yashaydi,
Odam shundoq bo'lsa koshkiydi,
Chumoliga kelar havasim.

Ushbu she'rda Mahmud Toir insonning insoniyligi anglatib turgan xislatlarning chumolida mavjudligi, uning o'z mehnati, iqtidori va ma'naviy qadr–qimmati haqida chuqur fikr yuritadi.

She'rda ifodalanadigan ma'nolarga e'tibor qaratsak, "O'z rizqini o'zi tashiydi" misralari orqali muallif insonning o'z mehnati orqali o'z taqdirini belgilashi, o'z hayotiga hamma o'zi mas'ul ekanligi ta'kidlanadi. Mehnat va sabr bilan rizq topish muhimdir. "Sudralsa–da, mag'rur yashaydi" esa insonning o'ziga bo'lgan ishonchni ifodalaydi. Muvaffaqiyatsizliklar va qiyinchiliklarga qaramay, o'z qadrini saqlab qolish zarurligini ta'kidlaydi.

Ko‘p mehnat, sabr va mashaqqat talab qilsa–da, “sudralib” vaqt juda ko‘p sarflasa–da hech kimdan madad kutmaydi, o‘ylagan natijalariga asta–sekinlik bilan o‘zi erishadi. Shu sababdan mag‘rur hayot kechiradi. Shu hislatlarini insonlar ham o ‘zlarida saqlab qola olishlarini istagan shoir odamlarning ham shunday hayot kechirishlarini xohlab qoladi.

Har bir band yakunida takrorlanib keluvchi qismga nazar solsak, “Chumoliga kelar havasim” misrasi orqali muallif boshqalar, hatto kichik jonivorlarga nisbatan rahm–shafqat va mulohaza jarayonini ko‘rsatadi. Odamlar orasida tikka ko‘tarilgan bosh bilan, mag‘rur yurish uchun chumolidan o ‘rnak olishni da’vat etadi.

Bu she’r o‘z–o‘ziga yetarli bo‘lish, ya’ni qo‘lida boriga qanoat qilish, o‘zganing haqiga ko‘z olaytirmaslik, ayniqsa, ko‘ngli yarim bolalar rizqini qirqmaslik kerakligini da’vat etadi. “ Shoirlarning durdona she’rlari – iste’dodining totli mevalari. She’rni qoyilmaqom qilib o‘qish, ya’ni ijro ham o‘ziga xos san’at sanaladi. Ayniqsa, Mahmud Toir nutq so‘zlasa, xalq baxshi–oqinlari uslubiga xos ravishda nasr bilan nazmni aralash qo‘llaydi; tinglovchi auditoriyasini zabt etadi va bir lahza ham ular diqqati chalg‘imaydi.”[1]

Yetimlarning haqini yemas,
Hokimlarning poyini o‘pmas,
U chumoli — u odam emas,
Chumoliga kelar havasim.

Ushbu parchaning ikkinchi misrasiga nazar solsak, mehnatsevarlik va insoniy chegaralarni bilish muhimligi juda kuchli tarzda aks ettirilganligiga guvoh bo‘lamiz. “Yuqoridagilar”ga yaltoqlanib, mansab ilinjida bo‘lganlarni qoralaydi. Hokimlarning oyog‘ini o‘pishdan ham tab tortmasliklari uchun qattiq ayblaydi. Lekin bunday jirkanchlikdan o‘sha mitti ammo, g‘ururi baland chumoli o‘zini tiyishini eslatib o‘tadi, bu mitti mavjudot boylik, shon–shuhrat dardida o‘zligidan kechmaydi, chunki “ u chumoli – u odam emas”. Shuning uchun ham, chumoliga havasi kelmoqda shoirning. Odamlar orasida manqurtga aylanmagan, halol mehnat orqasidan rizqini teradigan mag‘rur insonlar kamayganligi sababli shoir ularga nisbatan nafratini o‘tkir so‘zlar orqali ifodalarkan, shu mayda umurtqasiz hasharot o‘z rizqini o‘zi tashiyotganidan hayratda.

O‘zi zarra, rangi qoradir,
Mitti ko‘zda mehr yonadir,
Bir–biriga xo‘p parvonadir,
Chumoliga kelar havasim.

Ichki konfliktlar ko‘payib odamlar bir–birini yeyayotgan paytda, mehr– oqibat tobora oradan ko‘tarilayotgan zamonda zarra kabi jussasida ulkan mehrni singdira olgan chumoli har qanday e’tiborga tushushi, insonning havasini keltirishi tabiiy. Onani farzanddan, do‘stlarni bir–biridan ayrilishiga ko‘p bora guvoh bo‘layotganimiz uchun oqibat asosiy o‘rinda turadigan do‘stlikni qadrlaydigan chumolilar galasi shoir hayratiga sabab bo‘la olgan yana bir ustuvor jihat.

To‘g‘ri, hayotda har bir mavjudot va maxluqot o‘z qudratidan kelib chiqib sinaladi, chumolilar ham bundan mustasno emas. Ularning ham qiynaladigan, ezilib xafa bo‘lgan kunlari bo‘ladi, albatta. Ammo, hech qachon harakatdan to‘xtashmaydi, yurishda davom etishadi, yurganda ham birgalashib, hamjihatlikda “tizilishib yuradi ular”. Hayot yo‘lida yurishda davom etarkan, balki yig‘lashga yo balki–da kulishga majbur ham bo‘lishadi, lekin shu paytda ham ular bizdan ustun. Bu fikrni qadalgan o‘q singari aniq qilib ifodalash maqsadida Mahmud Toir o‘z mohirona qobiliyatidan ustomona foydalanadi:

An’anaviy to‘rtlik tarzida olib borilayotgan she’rning yakuniga kelib shoir uni beshlikka aylantiradi. She’rning badiiy mazmunidagi chumolilar haqida borayotgan fikrni tubdan o’zgartirib, bizdan ustun ekanligiga e’tiborini qaratgan shoir buni misradagi ritmga ham ko‘chiradi:

Tizilishib yuradi ular,
Ezilishib yuradi ular,
Balki yig‘lar yo balki kular,
Kulsa bizdan kuladi ular...
Chumoliga kelar havasim.

Birgina “Kulsa bizdan kuladi ular…” deyilgan birgina tugallanmagan jumlasi orqali asar mazmuniga putur yetkizmagan holda, she’rning asl, boshidan qalabga olingan mohiyatiga qaytib e’tiborni qaratadi va bandlar oxirida takrorlanuvchi jumla bilan so ‘zini yakunlaydi.

Yakunlaydi desak qay darajada to‘g‘ri bo‘ladi? (!) chunki shoir aslini olganda barcha fikrlarini yaknlamaydi, she’r yakunida xulosani hamda yakuniy

[1] Doshanova. Mahmud Toir lirikasining badiiy xususiyatlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 20211041–1045–betlar.

qaror chiqarishni adabiyot ixlosmandlarining o‘ziga qo‘yib beradi. Halol va mag‘rur hayoti davomida mobodo birovning ustidan kuladigan bo‘lsa, biz–odamlarning ustidan kulgan bo ‘lar edi demoqchi muallif. Zero, ularda bunday illatning o‘zi uchramaydi.

Chumoli azaldan mehnatsevarligi bilan, jussasidan buyuk sabr–toqati bilan e’zozlanib kelayotgan jonivor hisoblanadi. Halol mehnati. Tirishqoqligi uni hech kimga muhtoj qildirmaydi. Ko ‘p jihatdan isoniyatga o ‘rnak bo ‘ladigan fazilatlari hozirgi davr uchun dolzarb hisoblanadi. Xalq og ‘zaki ijodida va badiiy adabiyotda chumoli obrazi halollik bilan birga tirishqoqlik, hamjihatlik fazilatlarini ilgari surish uchun xizmat qilgan. Ular guruh bo ‘lib harakat qilishadi. Navbatni buzmagan holda har biri o‘z vazifasini bir maromda olib boradi. Hech qanday salbiy illatlar o‘rtalariga oralamasdan bir–birlarini qo‘llashadi. Bu esa intizom tushunchasi ustuvor bo‘lib turgan jamiyatimiz uchun zarur xislatdir.

Qur’onda nozil qilingan mavjudotlar qatorida chumolining ham ismi qayd etilganligi bu hasharotning qiymatli ekanligiga isbotdi: Sulaymon–podsho, payg‘ambar, buyuk qudrat egasi. Ammo qarshisidan chiqqan zarra mavjudot ilm bilan kuchning mutanosibligidan hayratda qoladi. Chuqur idroki, falsafiy qarashlari orqali , hattoki, payg‘ambar e’tiboriga tushgan mitti jonzotning buyuk fazilatlar egasi insoniyat uchun muhim amamiyat kasb etadi. Zero. Shu sababdan ham ushbu g‘oyani Mahmud Toir ham anglagan holda o‘quvchilarga ham tatbiq qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Toir she’riyati zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos badiiy–estetik yo‘nalishi, xalqona tili va chuqur ma’naviy mazmuni bilan ajralib turadi. Uning asarlarida axloqiy–ruhiy muammolar teran badiiy tahlil etiladi. Shoir nafaqat axloqiy qadriyatlarning yemirilishidan og‘riq bilan so‘z yuritadi, balki oddiy, ammo timsollar orqali insonlarga hayotiy saboq beradi. Ayniqsa, “Chumoliga kelar havasim” she’rida chumolining mehnatsevarligi, g‘ururi, halolligi singari fazilatlari orqali insonning ichki pokligi va jamiyatdagi axloqiy intizomga ehtiyoj kuchli ifoda topgan. Mahmud Toir lirik qahramoni orzular, armonlar, ichki kurashlar ichida axloqiy mukammallikka intiladi. Shoirning bu kabi she’rlari o‘quvchini nafaqat zavqlantiradi, balki uni o‘zini anglash, to‘g‘ri yo‘lni tanlash, halollik va poklik kabi qadriyatlarga yetaklaydi. Aynan shu jihatlar uning she’riyatini o‘zbek adabiy tafakkurida muhim badiiy hodisaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Toir. Saylanma. 1–jild.2008. Toshkent. G ‘afur G ‘ulom. 40– 48– betlar.
2. Q. Yo ‘ldosh. M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent. 2016. 201–bet.
3. G. Doshanova. Mahmud Toir lirikasining badiiy xususiyatlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 20211041–1045–betlar.
4. H. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent. 2010. 326–bet
5. D. Tajibayeva. XX asrning so ‘ngi choragi o ‘zbek she’riyatida olov timsoli ifodasi. Academic research in education sciences. 2024. 366–371–betlar.

Saidaxon SAYDIGANIYEVA
Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining tayanch doktoranti
Saydiganiyeva86@gmail.com

MO YANNING “MUSALLAS MAMLAKATI” ASARIDAGI DIALEKTIZMLAR VA ULARNING TAHLILI

Annotatsiya: zamonaviy Xitoy yozuvchisi Mo Yan asarlari substandart leksikaga boy bo‘lib, uning asarlarida ayniqsa shandong shevasi juda ko‘p qo‘llanilgan. Mazkur maqolada Mo Yanning “Musallas mamlakati” asaridagi dialektizmlar tahlil qilinib, ularning adabiy tiliga o‘xshash va farqli tomonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mo Yan, “Musallas mamlakati”, substandart leksika, shandong shevasi, dialektizmlar.

Аннотация: произведения современного китайского писателя Мо Яня богаты субстандартной лексикой, при этом в его произведениях особенно широко используется шаньдунский диалект. В данной статье анализируются диалектизмы в романе Мо Яня “Страна вина”, раскрываются их сходства и различия с литературным языком.

Ключевые слова: Мо Янь, “Страна вина”, субстандартная лексика, шаньдунский диалект, диалектизмы.

Annotation: the works of the modern Chinese writer Mo Yan are rich in substandard vocabulary, with frequent use of the Shandong dialect. This article analyzes the dialectal expressions in Mo Yan’s novel *The Republic of Wine*, highlighting their similarities to and differences from the standard literary language.

Key words: Mo Yan, *The Republic of Wine*, substandard vocabulary, Shandong dialect, dialect words.

Mo Yanning “Musallas mamlakati” asari juda ko‘p substandart leksikaga oid jargon, argo, dialektizm va vulgarizmlardan tashkil topgan bo‘lib, asarni tushunish uchun bu leksikani bilish va ularning ma’nosiga tushunish lozim. Asarda juda ko‘p hududiy shevaga xos so‘zlar – dialektizmlar qo‘llanilgan. Asarda aynan shandong shevasiga oid dialektizmlar ko‘p bo‘lib, shandong shevasi Xitoyning shimoliy lahjasiga kirganligi tufayli, u ko‘p tarafdan xitoyning adabiy tili bo‘lgan —putonghua（普通话)ga juda yaqin. Lekin bunga qaramasdan, shandong shevasi adabiy til bo‘lmish putonghuadan farq qiluvchi juda ko‘p, aynan shu hudud uchun xos bo‘lgan va uni boshqa shevalardan farqlovchi tomonlarga ega. Mo Yan asarlaridagi dialektizmlarni o‘rgangan xitoy tadqiqotchisi Hu Qunchang (胡群昌） gaomi shevasi haqida quyidagi fikrlarni aytadi: “Shandongning gaomi shevasi xitoy adabiy tilidan uncha katta farq qilmaydi, lekin ba’zida bu shevada qo‘llanuvchi til elementlariga adabiy tildan mosini topish qiyin bo‘ladi, ba’zida bu elementlarni adabiy til bilan ifodalagan paytda aynan shu hududga xos bo‘lgan ma’no yo’qoladi. Bu hududiy o‘ziga xoslikka (kaloritga) to‘la bo‘lgan so‘zlarga asosan ot dialektizmlari, fe’l dialektizmlari, sifat dialektizmlari, vulgarizmlar, qo‘pol so‘zlar va og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan so‘zlar kiradi”. [2, 6–bet]

Mo Yanning o‘zi “Adabiyot va san’at” (“文艺报”) jurnali muhbirining savollariga quyidagicha javob beradi: “Yashash hududini chegaralash, uning ko‘proq nutqini chegaralashga to‘g‘ri keladi. Bir yozuvchining qalami uning keyinchalik o‘rganib, mashq qilib rivonlatirgan tilining mahsuli bo‘lsada, lekin tilining mag‘zi, uning ruhi va mohiyati yozuvchining yoshligidagi ta’siri natijasida shakllanadi deb aytsam bejiz emas. Menning yozuv uslubim oddiy xalq urf–odatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan og‘zaki ijod namunalari hamda ularni ijro etgan san’atkorlar nutqidan menga meros bo‘lib o‘tgan deb o‘ylayman. Birinchidan, bu tildagi orttirmalar tugamas bo‘lib, ikkinchidan bu til jonli va mahalliy o‘ziga xoslik ruhiga egadir”.[1, 232–233–betlar].

Mo Yan asarlaridagi dialektizmlarni tadqiq qilgan Li Hongyan (李洪燕) “Zamonaviy xitoy tilidagi shevalar katta lug‘ati” (“现代汉语方言大词典”) da shevalarga oid so‘zlar turlarga ajratilganiga qarab, Mo Yan asarlarida kelgan dialektizmlarni shartli ravishda tabiiy borliqqa oid nomlar, geografiya, vaqt, qishloq xo‘jaligi, o‘simlik, hayvon, uy–joy, buyumlar, qarindoshlikka oid nomlar, tana a’zolari, kasalliklar, ust kiyim, ovqat nomlari, to‘y va janozaga oid nomlar va boshqalarga ajratib o‘rganib chiqqan. [3, 10–bet]

Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida ot dialektizmlari eng ko‘p uchragan dialektizmlar bo‘lib, ularga:

Jonivorlarning nomlari :

秃头说：

“嫂子，今日可是两头黑叫驴，那两根花花驴屌够你咬会儿了。”

（“酒国” 352页)

Ana kelinjon, bugun bir juft qop–qorasidan olib keldim. Mana shu ikki ajoyib eshakning ich–qorinlarini ancha vaqtgacha ermak qilasan. (“Musallas mamlakati” 385–bet)

叫驴 jiàolǘ “erkak eshak”, bu shevaga xos so‘z bo‘lib, adabiy tilda 公驴 gōnglǘ otiga mos keladi.

Bundan tashqari asarda 小巴儿狗 xiǎobārgǒu “mops” (itning zoti) adabiy tildagi 哈巴狗 hǎbagǒu “mops”otiga, 耗子hàozi “kalamush” adabiy tildagi 老鼠 lǎoshǔ “kalamush” va boshqa jonivorlar nomlarining ot dialektizmlarini uchratishimiz mumkin.

Asarda ot dialektizmlaridan o‘simlik nomlarini ham

kuzatishimiz mumkin.

至于用黍子米酿黄酒的人家，几乎遍布全村，真有点家家酒香、户户醴泉的意思。（“酒国” 第61页）

Tariqdan sariq musallas tayyorlashga kelsak, bu bilan deyarli butun qishloq shug‘ullanarkan, haqiqatan ham “har bir uyda musallas bo‘yi, har bir hovlida shirin buloq bor”. (“Musallas mamlakati” 68–bet)

黍子米shǔzimǐ “taroq” (donli o‘simlik nomi)

Asarda ko‘p uchraydigan ot dialektizmlardan narsa–buyum nomlarini ifodalovchi dialektizmlar bo‘lib, aynan bu dialektizmlar yozuvchi yashagan hududning o‘ziga xosligini ochib beradi. Masalan:

青白的月光从窗棂里泻进来，把黑色的被子印上惨白的格子。（“酒国” 第63页）

Derazadan yashiltob–oq oydin nuri tushib turar va qora adyol ustida ko‘plab chorsi shakllar o‘lik tusda oqarib ko‘rinardi. (“Musallas mamlakati” 71–bet)

窗棂chuānglíng “deraza romi” adabiy tildagi 窗格子 chuānggézi “oyna romi” ga to‘ri keladi.

倒霉透顶的侦查员嗅着味道靠近了一个摊煎饼的活动三轮车，一个小伙子在鏊子上摊饼，一个老太太站在旁边收钱，看样子像是母子俩。（“酒国” 第304页）

Ishtahani qitiqlagan hid uni uch g‘ildirakli aravacha oldiga olib keldi. U yerda bir yigitcha tovada yupqa pishirar, yonida turgan kampir esa, ko‘rinishidan onasi bo‘lsa kerak, xaridorlar bilan hisob–kitob qilardi. (“Musallas mamlakati” 336–bet)

鏊子àozi “tova”, adabiy tildagi 平底锅 píngdǐguō “tova” so‘ziga mos keladi.

“Musallas mamlakati” asarida ot dialektizmlaridan insonlarga murojaat uchun qo‘llaniladigan dialektizmlar ham ko‘p uchraydi. Ota–onasi, oila a’zolari, turli qarindoshlarga murojaat so‘zlari adabiy tildan farq qiladi.

为此，我的导师，也是我老婆的爹爹我岳母的丈夫我的岳父岳父者泰山也俗称老丈人也的袁双鱼教授经常批评我不务正业，甚至挑唆他的女儿跟我闹离婚。

Shu boisdan ham mening ilmiy rahbarim, shuningdek, xotinimning otasi, qaynonamning eri, qaynotam “Tiyonshon tog‘i” agar keng ma’noda aytsa, agar shunchaki aytadigan bo‘lsam, “qaynota”, vassalom professor Yuan Shuanyuy ko‘pincha menga “sen o‘z ishing bilan shug‘ullanmayapsan”, deb ta’na qildi, hatto qizim bilan ajrashasan, deb po‘pisa qiladi.

老丈人 lǎozhàngren “qaynota”, adabiy tildagi 岳父 yuèfù “qaynota” ga mos keladi.

Bundan tashqari Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida o‘zak + 子shaklidagi dialektizmlarni ko‘p uchratsa bo‘ladi. Xitoy tilida bu so‘z yasovchi qo‘chimcha og‘zaki nutqda keng qo‘llaniladigan qo‘shimcha bo‘lib, u adabiy tildagi otlarga qo‘shilib, ularning ma’nosiga ta’sir qilmaydi, faqatgina ularga og‘zakilik tusini beradi. Bundan tashqari faqat dialektizm sifatida qo‘llaniladigan o‘zak+子 dialektizmlari ko‘p bo‘lib, asarda quyidagilarni uchratishimiz mumkin: 老妈子 lǎomāzi “yoshi katta bo‘lgan cho‘ri”， 脚丫子jiǎoyāzi “oyoq, tovon”, 手脖子 shǒubózi “bilak”, 腮帮子 sāibāngzi “bet, yuqqa” kabi ot dialektizmlari.

Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida fe’l dialektizmlari ham ko‘p uchraydi. Bularga 上席shàngxí “joy egallamoq, olib kirmoq”， 歇歇xiēxiē “dam olmoq” 糊弄hùnong “aldamoq, aldab ketmoq”，抻chēn “tortmoq”，擂lèi “urmoq”， 掼guàn “otmoq, tashlamoq”，摽biāo “bosmoq, ezmoq”，揎xuān “urmoq”，剜wān “teran nazar tashlamoq”，撵niǎn “quvlab yetmoq”， 忽扇hūshan “titramoq, qaltiramoq”，扎猛子zhā měngzi “bosh bilan suvga sakramoq”， 打扑腾 dǎpūteng “qo‘l–oyoqlarini betartib silkitmoq”， 喜xǐ “yoqtirmoq, hursand bo‘lmoq”， 心惊xīnjīng “qo‘rqmoq, bezovta bo‘lmoq” kabi dealektizmlar kiradi.

Masalan:

你这些话都是套话，糊弄老百姓可以，糊弄我不行。（“酒国” 第186页）

“Sen bu quyushqondagi gaplaring bilan avom xalqning boshini aylantirishing mumkin, menga bu nayranging o‘tmaydi” (“Musallas mamlakati” 203–bet)

两位阿姨只要把绳子抻紧，马上就是一条整齐的队伍。（“酒国”第17页）

*Murabbiylar chilvir uchlarini **tortib** qo‘yishgani hamon barcha bolalar yana safga tizilishardi. (“Musallas mamlakati” 19–bet)*

抻 chēn fe‘l dialektizmi adabiy tilda 拉 lā “tortmoq” fe’liga mos kelib, asarda uni 9 marta uchratishimiz mumkin. Bu fe’l dongbei lahjasida keng qo‘llaniladi.

Sifatlar ma’lum shevaning o‘ziga xosligini, bu shevada gaplashuvchi insonlarning ularni o‘rab turgan narsalarga, atrof–muhitga bo‘lgan munosabatini, ularning ichki dunyosini tasvirlab hamda ochib berishga katta xizmat qiladi.

Mo Yanning “Musallas mamlakati ” asarida sifat dialektizmlaridan 活络huóluò “aqlli, ko‘p narsani biladigan”, 过日子 guòrìzi “tejamkor”, 不济bùjì “yaxshimas”，含糊hánhu “e’tiborsiz, yumshoq, bo‘sh”， 干巴 gānbā “qurib qolgan, quruq, zerikarlik”， 狼亢lángkang “kibrli, manman”， 够呛 gòuqiàng “og‘ir, qiyin, yaxshimas” uchratishimiz mumkin.

我并没有单纯敲门，而是一边敲门一边说一些疏通开导的话，我岳母此时是一团纠葛不清的骆驼毛，我必须耐心地用节奏分明的敲门

声和通经活络的五加皮酒一样的话语把她理顺。（“酒国” 第293页）

Men eshikni shunchaki taqqillatmayotgandim, balki uni yupatib, aqlini kirgazib qo‘yishga harakat qildim. U bu paytda chalkashgan tuya yungi kalavasini eslatardi, kalavaning uchini topish jo‘n ish emas va aniq, bir maromdagi taqillatish va “wujiapijiu” damlamasi kabi yupanch so‘zlari bilan chidam ila o‘ziga keltirishga to‘g‘ri keldi.（“Musallas mamlakati” 323– bet)

他体力不济，干不了重活，只能与我们这些半大孩子混在一起。（“酒国” 第361页）

U jismonan kuchsiz edi, og‘ir ishni qila olmasdi, faqatgina bizga o‘xshagan yosh yigitlar orasida yurardi. (Asarning bu qismi tarjima qilinmagan)

Gaomi shevasi sifat dialektizmlarining asosiy ajratib ko‘rsatuvchi belgilardan bittasi so‘zdagi bo‘g‘inlarning takror qo‘llanilishidir, sifatlardagi bo‘g‘inlar asosan “ABB”,

“AABB” hamda “ABAB” shaklida takrorlanib keladi. Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida ham bunday sifatlar dialektizmlarini juda ko‘p uchratishimiz mumkin, sifatlarning bunday qo‘llanilishi asosan og‘zaki nutqga xos bo‘lib, bu hududda yashovchi aholining so‘zlashuv nutqidagi odatlardan biri bo‘lib, ularning kuchli emotsional tuyg‘larini bildirib keladi.

他很不舒服，把帽子揪下来，看到帽圈上沾着透亮的汗珠，嗅到帽子里散出来的热烘烘的油腻气味里混合着另外一种生冷气味。（“酒国” 第3页）

Oxiri bo‘lmadi, shartta bosh kiyimini yechdi, qarasa, u jiqqa terga botibdi. Dimog‘iga boshqa allaqanday hid aralash yog‘li sochning badbo‘y isi urildi. (“Musallas mamlakati”3–bet)

他擦擦自己的嘴唇，紧盯着她厚厚的、被酒浸得湿漉漉的、紫红色的嘴唇，毫不客气地说：

“我想吻吻你。” （“酒国” 第5 页）

Tergovchi og‘zini artdi va qizning lo‘ppi, musallasdan namlangan, qip–qizil labidan ko‘zini uzmay, dadillik bilan:

– Kel, lablaringdan bitta bo‘sa olay! – dedi. (“Musallas mamlakati” 5–bet)

Yuqoridagi gaplardan sifat dialektizmlarning ABB shakldagi takrorlanib qo‘llanilishi bo‘lib, 热烘烘rèhōnghōng “issiq, qaynoq, qaynab turgan” sifati asarda 5 marta, 湿漉漉shīlùlù “nam, xo‘l, jiqqa xo‘l” sifati 13 marta, 凉飕飕 liángsōusōu “sovuq, salqin, salqingina” sifati 3 marta, 软绵绵ruǎnmiánmián “yumshoq, kuchsiz, lanj” sifati 6 marta, 红彤彤hóngtóngtóng “qip–qizil” 2 marta qaytarilganini, va shunga o‘xshagan yana ko‘p sifat dialektizmlarini asarni o‘qish jarayonida kuzatishimiz mumkin.

她说牛是有灵性的，没阉过的公牛最有灵性，它知道让它上船意味着什么，所以它一靠近小码头就红了眼，喘着粗气，把一个犟头，拧来摆去，扯拽得我那位叔叔踉踉跄跄。（“酒国” 第263页）

Xo‘kizlar juda aqlli bo‘ladi. Ayniqsa, axta qilinmaganlari. Bu yerga nega olib kelishganini u bilib turadi. Bandargohga yaqinlashganda esa uning ko‘zlari qonga to‘ldi. Og‘ir–og‘ir nafas olib, o‘jarlik bilan boshini chayqar va yerga shunday tiranardiki, oyog‘im oyoqda bazo‘r turardi. (“Musallas mamlakati” 291–bet)

我思考许久，决定应该把这件事情告诉她。于是我先是试试探探地、后来便是果断地敲打起门板来。（“酒国” 第291页）

Uzoq o‘y surib turgandan keyin unga hammasini aytib berishga qaror qildim. Avvaliga eshikni qiya ochdim, keyin dadillik bilan ichkariga kirib bordim. (“Musallas mamlakati” 321–bet)

Yuqoridagi gaplarda AABB hamda ABAB shaklda takrorlanib qo‘llanilgan sifat dialektizmlarini ko‘rishimiz mumkin.

Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida olmosh dialektizmlarini – 自家 zìjiā “o‘z, o‘zim”, 自个儿zìgěr “o‘z–o‘zi, o‘zim, shaxsiy”， 恁nèn “bu, qanday?, qay holatda?”, ravish dialektizmlarini – 好生 hǎoshēng “yaxshilab”， 孬好 nāohǎo “yaxshimi yomonmi” va ko‘makchi dialektizmlarini – 自打 zìdǎ “osha vaqtdan boshlab” uchratishimiz mumkin.

仔细看去，那男孩比自家的小宝瘦弱得多，皮色黢黑，头发焦黄，耳朵上还生着一块白色的癣。（“酒国” 第71页）

Biroq sinchiklab qarab angladiki, bola Xiao Baodan ancha oriq, rangi qora, sochi sarg‘imtir, bir qulog‘ida esa “ortig‘i” bor. (“Musallas mamlakati” 79–bet)

读者看官，你们也许要骂：你这人好生啰嗦，不领我们去酒店喝酒，却让我们在驴街转磨。（“酒国” 第145页）

Siz, aziz o‘quvchilar, xoynahoy, og‘ziga kelganini gapiraverarkan–da, deb yozg‘irishingiz mumkin. Undan ko‘ra bitta–yarimta restoranga olib borsa, bir musallasga to‘ydirsa, yaxshi edi, bu bo‘lsa qayoqdagi Eshak ko‘chasiyu shuning atrofidagi safsatalardan bo‘shamaydi, deyotgandirsiz. (“Musallas mamlakati” 158–bet)

Mo Yanning “Musallas mamlakati” (“酒国”) romanida dialektizmlarning qo‘llanilishi asarning badiiy yuksakligini ta’minlovchi asosiy usullardan biridir. Dialektizmlar asarga o‘ziga xos milliy va mahalliy kolorit yaratadi. Mo Yan dialektizmlar orqali asar tilini jonli va tabiiy, jozibador qilib, voqealar o‘rnini qahramonlar nutqi orqali ochib berishga harakat qilgan. Qahramonlarning nutqida dialektizmlarning mavjudligi ularning ijtimoiy kelib chiqishi, savodiga ishora beradi. Asarda dialektizmlar stilistik vosita sifatida xizmat qilib, asarga kulgi, kinoya, kesatish kabi badiiy vositalarni jonli va hayotiyroq ifodalash imkonini bergan. Yozuvchi dialektizmlar orqali so‘z o‘yinini yaratib, xalq og‘zaki ijodini, maqol va iboralarni sheva yordamida ifodalaydi va bu orqali Mo Yan uslubining o‘ziga xosligi ifodalanadi.

“Musallas mamlakati” asarida dialektizmlar Mo Yanning badiiy mahoratini namoyon etuvchi asosiy elementlardan biridir. Ular nafaqat til boyligini ifodalaydi, balki asarning mazmuniy chuqurligi, satira va sotsial tanqid kuchini oshiradi. Shu sababli, dialektizmlarning qo‘llanilishi ushbu romanni nafaqat adabiy, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganish uchun dolzarb asarga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 莫言：《碎语文学》，北京：作家出版社 2012 年版，第 232 页到 233 页。
2. 胡群昌. 山东方言在莫言作品中的运用[D]. 福州：福建师范大学，2009.
3. 李洪燕. 莫言小说中方言词语研究. 四川：四川师范大学，2017
4. 莫言. 酒国. – 杭州：浙江文艺出版社，2017. 1 （2003. 2重印）.
5. Мо Ян. Мусаллас мамлакати. – Т.: “ Узбекистон”, 2018. 392–b.
6. Доу Цзин. Анализ диалектизмов в произведениях Мо Ян и способы их перевода с китайского языка на русский. Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Гуманитарные науки, 2020. №4. С.140–143.

Shahnoza IZMURODOVA
QarDU I kurs tayanch doktoranti
shahnozaizmurodova@gmail.com

SHARQ ADABIYOTIDA MUSO OBRAZI TALQINLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada tasavvuf adabiyotida Muso alayhissalom siyratining tutgan o‘rni, uning ramziy va ruhiy ma’nosi tahlil qilingan. Shuningdek, payg’ambar Musoning Kalimulloh sifatidagi maqomi, Tur tog’ida yuz bergan voqea–hodisalar va Fir’avn bilan ziddiyati asosida tasavvufda shakllangan ma’naviy estetik qarashlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Muso (a.s)*, *tasavvuf, kalimulloh, oyat, ramz, Tur tog’i, fir’avn, Misr, qibtiy, aso, yadi bayzo.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль биографии Моисея (мир ему) в суфийской литературе, ее символическое и духовное значение. Аналогично, слова пророка Моисея события на горе Тур и его конфликт с фараоном освещают духовные и эстетические взгляды, сформировавшиеся в суфизме.

Ключевые слова: Муса (a.c), Суфизм, Калимуллах, аят, символ, гора Тур, фараон, Египет, копт, посох, янтарь (светлая рука).

Annotation: this article analyzes the role of the biography of Moses (peace be upon him) in Sufi literature, its symbolic and spiritual meaning. Likewise, the Prophet Moses’s Kalimullah status as, The events on Mount Tur and the spiritual and aesthetic views formed in Sufism based on the conflict with the Pharaoh are highlighted.

Key words: *Musa (a.s), Sufism, kalimullah, verse, symbol, Mount Sinai, Pharaoh, Egypt, Egyptian, staff, yadi bayzo (radiant hand).*

Tasavvuf – islomda moddiy, ma’naviy–ruhiy hayotning tub mohiyatini anglash, insonning Alloh yo‘lida nafsni tarbiyalash va qalbni poklash orqali kamolotga erishishini targ’ib qiluvchi ta’limotdir. Tasavvufiy tafakkurda ilohiy muhabbat, Qur’oni Karimdagi payg’ambarlar qissalari chuqur ruhiy va ramziy ma’nolarga boy tarzda talqin qilinadi. Xususan, Muso alayhissalom siyrati ham tasavvuf adabiyotida inson va Haq taolo o‘rtasidagi munosabatni anglatadigan muhim timsollardan biri sifatida talqin qilinadi.

Muso payg’ambar badiiy adabiyotda yuksak ruhiy–ma’naviy timsol sifatida muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat Islom dinida, balki yahudiylik va nasroniylik dinlarida ham muqaddas shaxs bo‘lishi bilan birga, adabiyotda zulmga qarshi kurash, iymon, sabr–toqat, rahm–shafqat va fidoyilik timsoli sifatida gavdalanadi. Qadimgi yahudiy manbalarida Muso payg’amar ismi Moshe, xristian manbalarida Moisey tarzida ifodalangan. Badiiy adabiyotda Muso payg‘ambar obrazining turli talqinlari mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

– Alloh bilan bevosita muloqot qilgan payg’ambar – Tur tog’ida vahiy olgan tasvirlar orqali u ilohiy bilim va ruhiy yetuklik ramziga aylangan;

– mo‘jizakor payg’ambar – asosini ajdarho (ilon) ga aylantirishi, dengizni ikkiga bo‘lishi kabi mo‘jizalar orqali adabiy manbalarda sehrli–realistik obraz sifatida tasvirlanadi;

– ozodlik va adolat uchun kurashchi – Fir’avnga qarshi chiqib, Bani Isroilni qullikdan qutqarishi orqali u ozodlik va adolat uchun kurashchi timsoliga aylangan;

– rahbar va murabbiy – u xalqini yetaklagan, sabr bilan ularga yo‘l ko‘rsatgan rahbar sifatida tasvirlanadi. Bu jihatlar, ayniqsa, rivoyat va dostonlarda yaqqol ifodalanadi.

Sharq adabiyotida, xossatan, so‘fiylik she’riyati va tasavvufiy hikoyatlarda Muso alayhissalomning Alloh bilan muloqotlari, sabr–u tavozu haqida bergan saboqlari keng yoritilgan. G’arb adabiyotida esa u ko‘proq tarixiy–diniy qahramon sifatida tilga olinadi.

Muso alayhissalom Qur’oni Karimda nomlari eng ko‘p zikr etilgan payg’ambar bo‘lib, u kishi bilan Allohning to‘g’ridan to‘g’ri so‘zlashgani (Kalimulloh) haqida ko‘plab oyatlar mavjud. Tasavvuf adabiyotida bu holat Musoning ilohiy haqiqatga bevosita yaqinligini anglatadi. Masalan, Niso surasining 164–oyatida “Alloh Muso bilan (bevosita) so‘zlashdi” deyiladi. Tasavvufiy tafsirda bu holat insonning ilohiy haqiqatga yaqinlashish yo‘lida erishgan eng yuksak maqomdir. Biroq bu yaqinlik chegaralangan. Musoning “Robbim, O‘zingni menga ko‘rsat “ (A’rof: 143) degan iltijosi va Tur tog’ining parchalanish voqeasi bu haqiqatni jism orqali to‘la idrok etish mumkin emasligini bildiradi. Bu tafsirga ko‘ra, Allohning zohiriy jamolini ko‘rish — faqatgina “fano” darajasiga yetgan oriflari uchungina mumkin.

Boyazid Bistomiy, Jaloliddin Rumiy, Attor kabi mashhur tasavvuf arboblari Muso (a.s)ning mazkur holatini insonning ilohiy zohirga yetishga bo‘lgan intilishi va bu yo‘ldagi “fano” (yo‘qolish) bosqichida to‘xtalib qolish ramzi sifatida talqin qilganlar.

Nosiruddin Burxoniddin o‘g’li Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy” asarining muqaddima qismida buzruklar tilidan aytilgan quyidagi misralar keltiriladi:

Tilingni tiya tut, tiling sinmasin,
Bu turgan xaloyiq sanga kulmasin.

Va shunday deyiladi: “Ko‘p kishilar unsiyat sababidan osiy bo‘ldilar. Chunonchi, Muso alayhissalom necha marta yaratguvchi bilan so‘zlashib, uns bo‘lib erdilar. Oxiri diydor tilab, osiy bo‘ldilar. Yana tavba qilib xalos bo‘ldilar…”

Adabiyot olamida tush motivining o‘ziga xos o‘rni bor. Muso payg’ambarning tug’ilishlari bilan bog’liq hodisalar ham bevosita tush motivi bilan bog’liqdir. Kunlarning birida Valid ibn Mus’ab (laqabi – Fir’avn) bir kechada uch tush ko‘radi. Avvalgi tushida Nil daryosi osmonga ko‘tarilib, yana qaytib tushadi va Misr xalqini suv bosadi. Ikkinchi tushida havodan ikki tup daraxt tushib, hamma qibtiylarni bosadi. Qibtiylar – bu fir’avn xalqiga mansub, Isroil farzandlariga zulm o‘tkazgan Misrning tub va hukmron oilasidir. Uchinchi tushda Baytu–l–muqaddas tarafidan bir o‘t paydo bo‘lib, ana shu qibtiylarning hammasini uyini kuydiradi, biroq Bani Isroilga hech zarar bermaydi. Ertasi kuniyoq, tush ta’birchilarini chaqirtirib, ko‘rgan tushini aytib beradi. Shunda muabbirlar (tush ta’birchilari) Bani Isroildan bir o‘g’il bola chaqaloq tug’ilishi–yu, uning saltanatini xarob qilishini aytadilar. Shu tariqa Bani Isroildan tug’ilgan har bir chaqaloq qatl etila boshlaydi. Tug’yonga ketib, robblik da’vo qilgan Fir’avn bandalik haddini unutib qo‘yadi. Fir’avn qibtiylarni Bani Isrioildan afzal ko‘rishining yana bir sababi, u o‘zini Xudo deb da’vo qilganda qibtiylar singari Isroil xalqi unga bo‘ysunmadi, ularning aksariyati yagona yaratuvchi bo‘lmish Allohgagina e’tiqod qilardilar. Bu esa Fir’avnning g’azabini keltirib, ularni mamlakatdagi eng og’ir ishlarga majbur etardi. Xullas, taqdir baribir o‘z hukmini o‘qiydi va bo‘lajak payg’ambar Muso tug’iladilar, voyaga yetib, Isroil xalqini fir’avn zulmidan xalos etadilar.

Shu bilan birga, Muso va Fir’avn o‘rtasidagi qarama–qarshilik ham tasavvufda muayyan mohiyat kasb etadi. Ya’ni Fir’avn – nafs, kibr, zohiriy qudrat ramzi bo‘lsa, Muso – Allohga tavakkul va ma’rifatning timsolidir. Bu ziddiyatlar orqali “nafsiy fir’avnni” yengish zarurligi nazarda tutiladi.

“Asr mufassiri” deb e’tirof etilgan, umrini Qur’oni Karimga bag’ishlagan inson – Muhammad Ali Sobuniyning “Anbiyolar qissasi. Payg’ambarlar tarixi kitobida” Muso alayhissalom bilan bog’liq bir qancha qissa va hikoyatlar keltiriladi. Musoning Kalimulloh sifatida yoritayotgan fikrimizning davomi o‘laroq, Muso alayhissalomning Misrga qaytishi va Tur tog’ida Alloh taolo bilan so‘zlashishi hodisalari ushbu asarda quyidagicha tasvirlanadi: “Muso alayhissalom Madyan yerida umrlarining o‘n yilini o‘tkazgach, o‘z Vatani Misrga qaytishga oshiqadi va Misrga oilasi bilan qaytishga qaror qiladi. Qorong’i va sovuq kechalarning birida yo‘lda ketib borar ekan, chaqmoqtoshni ishqalasa ham olov yoqa olmadi. Zulmat va sovuq kuchaygan, (buning ustiga) ayoli homilador, ko‘zi yorish vaqtiga ham oz qolgandi. Hayratga cho‘mib, o‘rnidan turar, yerga o‘tirar, ufqqa boqib o‘yga tolardi, toki ushbu hayronlikdan olib chiqadigan biror narsa ko‘rsa. So‘ng biror sas yoki harakat eshitarmikinman, deb uzoq quloq solib turdi. Shu onda Tur tog’ida olov ko‘rindi”. Bu haqda muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimda ham shunday oyatlar keladi:

“Eslang, u (uzoqdan) bir olovni ko‘rib oilasiga: “(Shu yerda) turingiz! Men bir olovni ko‘rib qoldim, shoyadki, sizlarga biror cho‘g’, olib kelsam yoki shu o‘t (atrofi)da biror yo‘l (ko‘rsatuvchi) topsam”, – dedi” (Toha surasi, 10–oyat).

Muso alayhissalom Tur tog’iga yaqinlashadilar va u yerda osmondan o‘sha yerdagi katta daraxt tomon cho‘zilgan nurni ko‘radilar. Shu onda payg’ambar hayratda va tizzalari qaltiragan holatda edilar. Nogahon Alloh azza va jallaning Muso alayhissalomga oyoq kiyimini yechib, so‘ngra ushbu muqaddas vodiyga kirishiga buyurgan xitobi eshitiladi.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham xuddi shunga o‘xshash voqea keltiriladi: Muso alayhissalomning ayoli Safuroni to‘lg’oq tutadi va u isinishi uchun olov kerak bo‘ladi. Olov axtarib yo‘lga tushadilar, ancha yo‘l bosganlaridan so‘ng bir yorug’lik ko‘rinadi. Yetib borsalar u yorug’lik bir daraxtda edi. Muso alayhissalom daraxtga chiqdilar. U yorug’likning oldida quyosh nuri xira tortar edi. Ammo u yorug’lik daraxtni kuydirmasdi. Daraxtning barglari va shohlari toza va sog’lom edi. Muso payg’ambar qattiq hayratda edilar, dedilarki:

Yo Rab, bu ne hol ekan? “Innii analloh” – “Men Allohman” nidosi kelib, Muso alayhissalomning boshiga davlat qushi qo‘nib, payg’ambarlik toji qo‘yildi, saodatmand egniga nubuvvat xil’ati kiydirildi va yadi bayzo (oppoq, nurafshon qo‘l) va aso mo‘jizasi karomat bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nosiruddin Burhoniddin Rabg’uziy. (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: Baxtiyor Abdushukurov). Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Muhammad Ali Sabuniy. Anbiyolar qissasi Payg’ambarlar tarixi. —Toskkent:, “Matbaachi”, 2022.
3. Alisher Navoiy. (Hozirgi o’zbek adabiy tiliga tabdil qilib, nashrga tayyorlovchilar: Abdumurod Tilavov, Ibrohimjon Saydullayev). Tarixi anbiyo va hukamo. — Toshkent. “Faktor press”, 2023.
4. Abul Hasan an–Nadviy. Payg’ambarlar tarixi. — Toshkent.”Credo print Group” nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2023.

Dilnoza ESANOVA,
O‘zMU Jurnalistika va O‘zbek filologiyasi fakulteti tayanch doktoranti

SHARQ MUMTOZ POETIKASIDA MUAMMO JANRI

Annotatsiya: muammo haqida gap ketar ekan, muammo ko‘proq nazmiy asarlarda uchraydi. Bu janrga bag‘ishlab yozilgan risolalarda ta’kidlanishicha, muammo nasriy asarlar tarkibida ham bo‘ladi. Muammo janrining eng asosiy xususiyatlaridan biri, bu arab alifbosiga asoslanganligidir. Muammo janriga yana nazar tashlaydigan bo‘lsak, XV–XVI asrlarda adabiyot maydoniga kelgan deya olamiz, ammo eng birinchi bo‘lib kim ijod etganini topishga muvaffaq bo‘lmayapmiz, arablar buni aruz ilmining bilimdon shoiri Halil ibn Ahmad nomi bilan ham bog‘laydilar.

Kalit so‘zlar: muammo janri, arab adabiyoti, lug‘z.

Annotation: speaking of the problem, the problem is more often found in poetic works. It is emphasized in treatises dedicated to this genre that the problem is also present in prose works. One of the main features of the problem genre is that it is based on the Arabic alphabet. If we look again at the problem genre, we can say that it appeared in the literary field in the 15th–16th centuries, but we are not able to find out who created it first, the Arabs also associate it with the name of the learned poet of the science of aruz, Khalil ibn Ahmad.

Key words: problem genre, Arabic literature, vocabulary.

Аннотация: говоря о проблеме, проблема чаще встречается в поэтических произведениях. В трактатах, посвященных этому жанру, подчеркивается, что проблема присутствует и в прозаических произведениях. Одной из главных особенностей жанра проблемы является то, что он основан на арабском алфавите. Если снова взглянуть на жанр проблемы, то можно сказать, что он появился в литературной сфере в XV–XVI веках, но мы не можем выяснить, кто его создал первым, арабы также связывают его с именем ученого поэта науки аруз, Халила ибн Ахмада.

Ключевые слова: жанр проблемы, арабская литература, лексика.

Muammoning mustaqil janr ekanligi, alohida janr sifatida ajralib chiqish jarayoni, shakllanishiga omil bo‘lgan vositalar, boshqa janrlardan farq qiluvchi xususiyati va ifoda imkoniyatlari kabilar yuzasidan Sharq xalqlari adabiyotshunosligiga oid tadqiqotlarda turli xil ta’rif va xulosalar berilgan. Mazkur tadqiqotlarning ba’zilarida muammoga she’riy san’at, ba’zilarida alohida janr, ayrimlarida qorishiq san’at yoki janr sifatida qarashlar mavjud. Jumladan, T.Boboyev muammoni ham she’riy san’at, ham alohida janr sifatida ko‘rsatib quyidagicha ta’rif beradi: “Muammo (ar. امعم – yashiringan, berkitilgan) – mumtoz she’riyatimizda keng qo‘llanilgan she’riy san’at (ayni choqda, she’riy janr)lardan biri.

Muammo hajm jihatdan bir baytdan, ba’zan ikki baytdan tuziladi. Qofiyalanish tartibi: a–a yoxud, a–a–b–a. Mazkur misralar zamirida ko‘pincha bir so‘z yashiringan bo‘ladi. She’rda shunga ma’lum ishoralar qilinadi. She’rda ishora va muayyan so‘z(lar)ning arabcha yoxud forscha tarjimalarini ishlatish, so‘zdagi ayrim harflarni saralab olib so‘z yasash, abjad hisobida hosil qilish yordamida yashiringan narsa topiladi – muammo yechiladi. Albatta, buning uchun arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvi qoidalarini va abjad hisobini bilish, arab–fors tillaridan xabardor bo‘lish lozim”[1].

R.Orzibekovning xulosasiga ko‘ra, “Muammo (arabcha “a’mo” – ko‘r qilingan, berktilgan, yashirilgan) Sharq adabiyotida murakkab she’riy shakllardan, poetik san’atlardan” hisoblanadi. Shuningdek, “Bu lirik janr va shakllarning “sirli–sinkretik shakllar” deyilishining sababi shundaki, xususan, chiston, tarix she’r va muvaššahlar ruboiy, tuyuq, mustazod yoki g‘azal kabi hajm, qofiya va boshqa formal–poetik jihatlardan qat’iy qonuniyatga ega emas. Vazn va baytlar soni jihatidan ham ularda qat’iy chegara yo‘q. Klassik poeziyada muammo–qit’alar, muammo–fardlar, muammo–masnaviylar, chiston–qit’alar, chiston–g‘azallar, hatto ruboiy, musammat–chistonlar, qit’a–tarixlar, marsiya–tarixlar, tarkibband–tarixlar, masnaviy, hatto g‘azal–tarixlar bor”[2].

Bilamizki, har qaysi millatda uning o‘ziga xoslik atalmishlari, sababi, turtkilari bor. Aynan muammo ham bundan mustasno emas. Bu janr, turk, arab, fors adabiyotlarida o‘rganilganida jumboqli masalalarga xizmat qilgan. Xususan, turk adabiyotshunosi, olim Ismoil Durmush muammo janriga quyidagicha ta’rif bergan: “Lug‘atda “(narsaning) yashirin, berkitiladigan va berkitiladigan” ma’nosini bildiruvchi “ama” o‘zagidan olingan bo‘lib, ta’miya (“so‘zni yashirincha aytmoq”) so‘zidan kelib chiqqan “mef’ul” otidir va yashirincha, uni tushunarsiz qilish uchun, bu xarakterdagi so‘zlar uchun ishlatiladi. Ikki xil: davlatning maxfiy ma’lumotlarini ma’lum bir joyga yetkazish imkonini beruvchi ilmiy jumboq va shoir va ziyolilar orasida keng tarqalgan adabiy jumboq. Ilmiy jumboq matnni faqat bilganlar tushunadigan shaklga aylantirish, maxsus usullar yordamida yuzaga keladi. Ebu

[1] Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б.255.
[2] Орзибеков Р. Ўзбек шеъриятида сирли–синкретик жанр ва шакллар. –Самарқанд: Самарқанд Давлат университети, 1990. –Б. 23.

Bekir es–Suliy, (Abu Bakir as–Suliy) Ibnu'd–Duneynir, Ibn Adlan va Ibnu'd–Dureyhim tarjima so'zini "ta'miye" va "tercemi"ni "jumboq" sifatida ishlatgan bo'lsa, Ibn Vehb tarjimani "tebdil ta'miye" deb ta'riflagan. Ta'miye va muamma uchun "ilmü'l–muamma, ta'miyatu'l–huruf, remz–mermuz, ibham–mübhem" kabi so'zlarni ishlatadigan mualliflardan tashqari, bizning davrimizda ular asosan "shifr" va arabchalashgan "teşfîr" qilingan[3]".

Arab adabiyotidagi bitiklarda muammo qadim zamonlardan beri hamma ham xohlamaydigan ma'lumotlarni yashirish uchun turli usullar qo'llanilgan. Qadimgi misrliklar miloddan avvalgi 1900–yillarda ma'lumotni yashirin tarzda yetkazish va yozishni bilganliklari, harflar o'rniga ba'zi maxsus shakllardan foydalanganliklari va bu borada boshqa sivilizatsiyalarga ta'sir o'tkazganliklari qayd etilgan (Muhammed Merayati va boshqalar, I, 3) Kriptografiya usullari mixxat va iyerogliflar bilan yozilgan matnlarga tatbiq etilganligi aniqlandi. Johiliyat arablari o'z xabarlarini faqat aqlli kishilar tushuna oladigan tarzda ifodalash uchun "remz", "melahin", "maoriz" kabi ifoda uslublaridan foydalanganlar. Keyinchalik Islom davrida bu tushunchalar boyitib, "elg'az", "ta'miye", "muhojat" kabi yashirin ifoda usullari qo'llanilgan[4].

Ta'miya bilan bog'liq bo'lgan istihroj–i muamma fanlari, xabarlarni yashirish ilmi va yashirin xabarni hal qilish usullari, II. (8–asr) yarmidan keyin musulmon olimlari tomonidan ilgari surilgan. Qolaversa, islom dinining ilk davrlarida naqqoshlik va haykaltaroshlik san'atlarining taqiqlanganligi odamlarni til va adabiyotga yetaklagan bo'lsa, lug'oz, so'z o'yinlari, jumboq kabi til san'atlari birinchi o'ringa chiqqanini aytish mumkin (Kan, 93–bet). Uning bu boradagi birinchi asari Xalil ibn tomonidan "Kitobul–Mu'amma" deb nomlangan. Buni Ahmad yozgan degan mish–mishlar bor. Shundan so'ng, Jabir b. Hayyon iualülür–qoruz, Zumnun El–Mir'riy, Zar'r–Rumasi Flik, dud. Muammo, Ya'qub ibn. Ishoq al–Kindî Risâle fi'stiẖrâci'l–mu'amma (Risâle fi'l–esmâ'i'l–mu'ammât), Ibn Vahshiyye "Shevḳu'l–mustaham fî ma'rifeti rumuzi'l–mâl–amâmâmân", , Devid b. Heysem et–Tenuhi "Risale fi'stiẖraji'l–mu'amma", Ibn Tabataba "Risola fi'stihraji'l–mu'amma" nomli kitobini yozgan[5]. Bu tadqiqotlar dastlabki uch asrda amalga oshirilgan tarjima faoliyatiga asoslanadi. Turli tillardan tarjima qilingan asl nusxadagi alkimyo, sehr, falsafa va ilohiyot kabi mavzularga oid ayrim yozuvlar sirli edi. Darhaqiqat, Zunnun el–Misriy va Ibnu'l–Iroqiylar "Hallu'r–rmuz" nomli asarining muqaddimasida qadimgi sivilizatsiyalarga oid yozuv va bitiklarda lug'oz, jumboq kabi ma'lumotlar borligini va ular yozganliklarini ta'kidlaydilar. Ibn Vahshiyya ham o'zining "Shevḳu'l–musteham" kitobida eski va yangi sivilizatsiyaga mansub to'qson uch alifboning harflari, timsollari va belgilarini hal qilgan. Silvestre de Sachi tomonidan 1810–yilda ushbu asar haqida chop etilgan maqola Jan–Fransua Shampollionga Misr iyeroglif yozuvi belgilarini ochishda eng muhim yordam bo'ldi.

Ahmad al–Hanefî as–Samarqandiy "Îżâḥu'l–Havâʿid fî ʿilmi›l–muʿammâ" (Suleymaniye Ktp., Cârullah Afandi, nr. 2077, vr. 172–178, 172–178, Şehr. Ali 199;); Ibrohim b. Iso el–Havrani "Jilaʾu'd–deyajii fi'l–mu'ammeyat ve'l–elġaz ve'l–ehaji" (Dimashk 1882). Taxsîl, tekmîl, teshil va tezyîl deb atalgan to'rt jarayon va ularning qismlari haqidagi nazariy ma'lumotlar, jumboqni tartibga solish va yechishda ham, fors va turkiy adabiyotlarda ham, bu asarlarda ham umumiy tarzda o'xshash tarzda muhokama qilinadi[6].

Jumboq ifodalash mahorati bo'lgani uchun u ifoda ilmiga tobe bo'lgan fan sifatida qabul qilingan. Sirlar protsedurani biladiganlar, aql va tezkor aqlga ega bo'lganlar tomonidan hal qilinishi uchun yoziladi. Bu jihatdan jamiyatning umumiy aql–zakovati va odatlariga muvofiq tashkil etilgan. Hech qanday yo'l bilan yechilmaydigan sirlarning adabiy qiymati yo'q. Badi' ilmi bilan bog'liq jumboqning tomoni shundaki, u she'riyatda adabiy san'at sifatida ijro etiladi. Arab adabiyoti tarixida lug'z va muammo adiblari, asosan, ikkinchi darajali shoirlar, adabiyot ahli va ziyolilar bo'lganligi aytiladi. Lug'zda arab shoirlari ustun bo'lsa–da, jumboqlarning eng yaxshi namunalari fors shoirlari tomonidan berilgan deydi olim Siddiq Hasan Xon, II, 513[7].

Fors va turk adabiyotidagi jumboqlarni uch guruhga bo'lish mumkin: Allohning ismlari, payg'ambarlar ismlari va shaxs ismlari asosidagi jumboqlar.

Turk adabiyotida jumboqlarni birinchi bo'lib aytganlar Ahmadiy (vaf. 815/1412) va Muiniydir. Eron va Ozarbayjon shoirlari Anadoluda e'tiborni o'ziga jalb etish va mashhurlikka erishishda muhim rol o'ynagan. Kinalizade Hasan Chalabiy, Yavuz Sulton Salimning Eron safari ortidan Anadoluga bu mamlakatdan kelgan olim va san'atkorlar orasida jumboqda mohir kishilar ko'p bo'lganini aytadi (Tezkire, II, 914)[8].

Darhaqiqat, Yovuz Sulton Salim Nihoniyning har bir misrasida jumboqli bir qasida taqdim etishidan va Muammoiy taxallusli shoirning uning nomidan jumboqli risola yozib, unga 300 gul hadya qilganidan xursand bo'ldi. Ammo 700 ga yaqin sirlarni aytib bergan Emrulloh Emrining yuksalishi bilan bu shoir unutildi deyiladi manbalarda. Muammoiy taxallusi bilan ijod qilgan shoir o'z asarini usmonli turk tilida bayon qilganligi ham ma'lum bo'ldi.

Yana XV–XVII asrlarda fors adabiyotida ham, turk adabiyoti singari barakali ijod qilishgan va eng maqtovga sazovori deb ham fors adabiyotidagi muammolar ko'zga tashlanishi isbotlangan. O'zbek mumtoz adabiyotida muammo janrida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Yusuf Badiiylar o'z noyob iste'dodlarini shakllantirganlar.

[3] Kaya Bilgegil, Adabiy bilimlar va nazariyalar, Istanbul 1989, bet. 272.
[4] Ahmad Jevdet Posho, Belâgat–ı Osmaniyye, Istanbul 1299, p. 181.
[5] Ali Nihod Tarlan, Divon adabiyotida jumboq, Istanbul 1936, janr.yer.
[6] Iskender Pala, Ensiklopedik Divan she'riy lug'ati, Anqara 1989, p. 355.
[7] Ali Nihod Tarlan, Divon adabiyotida jumboq, Istanbul 1936, janr.yer 82.
[8] Amil Chelebiog'lu – Yusuf Ziya Öksüz, Turk jumboqlari xazinasi, Istanbul 1995, bet. 33–46.

Maftuna AHMADJONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2–bosqich tayanch doktoranti
maftuna.ahmadjonova96@gmail.com

“DEVONU LUG‘OTIT–TURK” ASARIDAGI O‘XSHASHLIK ASOSIDA MA’NO KO‘CHGAN POLISEMANTIK LEKSEMALAR TAHLILI

Annotatsiya: polisemiya hodisasining vujudga kelishida bir so‘zning yangi bir narsa, predmet, belgi, harakat kabilarning nomiga aylanishi – ya’ni nom ko‘chishi natijasida yangi ma’no hosil bo‘lishining ma’lum asos va usullari bor. Borliqdagi narsa–hodisa, belgi–xususiyat, harakat–holat nomlari ma’lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa–hodisa, belgi–xususiyat, harakat–holat nomi sifatida ham qo‘llanadi. Bunday vaqtda bitta nom bir nechta narsa–hodisa, belgi–xususiyat, harakat–holat nomi sifatida xizmat qiladi. Ma’no ko‘chishining nima asosida ro‘yobga chiqishiga ko‘ra **metafora**, **metonimiya**, **sinekdoxa**, **vazifadoshlik** singari turlari mavjud. Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “*Devonu lug‘otit–turk*” asarida keltirilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning bir ma’nodan boshqa ma’noga qaysi usullar orqali ko‘chganliklari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: polisemiya, omonimiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, “Devonu lug‘otit–turk”, leksikografiya, ko‘p ma’nolilik, nom ko‘chishi, ma’no uzviyligi.

Аннотация: в возникновении явления полисемии существуют определенные основания и способы образования нового значения в результате переноса имен – превращения слова в название новой вещи, предмета, знака, действия и т. д. Существуют определенные основания и способы образования нового значения в результате переноса имен. Названия вещи–события, знака–свойства, действия–состояния в бытии используются также в качестве названия другой вещи–события, знака–свойства, действия–состояния на определенной основе. В таких случаях одно название служит названием нескольких вещей–событий, знака–свойства, действия–состояния. В зависимости от того, на какой основе происходит перенос смысла, различают такие виды, как метафора, метонимия, синекдоха и софункция. В данной статье анализируются способы, с помощью которых многозначные слова, упомянутые в произведении Махмуда Кашгари “Девону лу’отит–тюрк”, переходили из одного значения в другое.

Ключевые слова: полисемия, омонимия, метафора, метонимия, синекдоха, функционализм, “Devonu lug‘otit–turk”, лексикография, полисемия, перенос имени, смысловая связность.

Annotation: in the occurrence of the phenomenon of polysemy, there are certain bases and methods for the formation of a new meaning as a result of the transfer of names – the transformation of a word into the name of a new thing, object, sign, action, etc. There are certain bases and methods for the formation of a new meaning as a result of the transfer of names. The names of a thing–event, sign–property, action–state in existence are also used as the name of another thing–event, sign–property, action–state on a certain basis. In such cases, one name serves as the name of several things–events, sign–property, action–state. Depending on the basis on which the transfer of meaning occurs, there are such types as metaphor, metonymy, synecdoche, and co–function. This article analyzes the methods by which the polysemous words mentioned in Mahmud Kashgari’s work “Devonu Lug‘otit–Turk” moved from one meaning to another.

Key words: polysemy, homonymy, metaphor, metonymy, synecdoche, functionalism, “Devonu luG‘otit–turk”, lexicography, polysemy, name transfer, meaning coherence.

Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda tuzgan nodir asari – “Devonu lug‘otit–turk” [Turkiy so‘zlar devoni] – turkiy tillar leksikografiyasi va tarixiy leksikologiyasi uchun muhim manbaa hisoblanadi. Ushbu asarda qadimgi turkiy tilga oid minglab so‘zlar, ularning ma’nolari va qo‘llanishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, ko‘p ma’noli so‘zlar semantikasi mazkur asar misolida aniq namoyon bo‘ladi. **Polisemiya** – bu bir leksemaning bir necha o‘zaro bog‘liq ma’nolarga ega bo‘lish hodisasi bo‘lib, uni bir so‘z shaklining bir–biriga yaqin, uzviy bog‘langan ma’nolar majmuasi sifatida tushunish mumkin [Cruse, 1986, 80]. Boshqacha aytganda, polisemiya yagona leksemaning xossasi bo‘lib, unda bitta so‘z shakli turli kontekstlarda ma’no kengayishi orqali bir nechta funksional ma’nolarni ifodalaydi [Lyons, 1977, 238]. Polisemiya tushunchasi omonimiya [shakldoshlik]dan farq qiladi – omonimlarda bir shaklga bog‘liq ma’nolar o‘rtasida semantik aloqa bo‘lmaydi,

polisemiya holatida esa turli ma’nolar orasida muayyan bog‘liqlik mavjudligi shartdir.

“Devonu lug‘otit–turk” da vazifadoshlik hodisasiga oid ayrim misollar mavjud. Masalan, **adrï** so‘zi aslda *ayri, g‘alla sovurish uchun ishlatiladigan ikki shoxli asbob* ma’nosini bildiradi, lekin **Devon**da *“ikki shoxli har qanday narsa”ga ham adrï deyiladi, shuningdek,* ***ikki o‘rkachli tuyani*** *[ikki shoxga o‘xshash tuzilishi borligi uchun] yoki* ***sochi ikki qismga ajratib o‘rilgan kishni*** *ham “adrï butluğ” [ikki o‘rkachli, ikki tutam sochli] deb atash mumkinligi qayd etilgan* [Mahmud Koshgariy, 2017, 64]. Bu misolda **adrï** so‘zi o‘z vazifasi (ikki bo‘lakka ajratish, yoyish) yoki tuzilishiga ko‘ra o‘xshashlik tufayli kengaymoqda: asbobning ikki shoxli tuzilishi bilan hayvonning ikki o‘rkachli tuzilishi o‘xshash, sochning ikki qismga o‘rilishi ham shunga qiyos qilingan. Shunday qilib, vazifadoshlik metaforaning o‘zgacha ko‘rinishi sifatida yangi ma’nolar paydo bo‘lishida xizmat qiladi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, “Devon”dagi ko‘p ma’noli so‘zlarning sezilarli qismi aynan tashqi va funksional o‘xshashlikka ko‘ra yuzaga kelgan. Xususan, metafora va vazifadoshlik uyg‘unligi natijasida ko‘plab leksemalar bir–biridan uzoq tasavvur sohalarini bog‘lovchi vositaga aylangan. Bunday ma’no ko‘chishlari natijasida til leksikasi yanada boyigan va mazmun ifodasi kengaygan.

Ko‘chma ma’no hosil bo‘lishining muhim jihatlaridan biri – nutqqa emotsional–ekspressiv rang berish imkoniyatini yaratishidir. Metafora va boshqa semantik usullar nafaqat yangi tushunchalarni nomlash, balki ularni badiiy ifodalash, obraz yaratish, hissiy ta’sir uyg‘otish kabi maqsadlarga ham xizmat qiladi. “Devonu lug‘otit–turk” misollarida ham ba’zi ma’no ko‘chishlar aynan nutqning badiiyligini oshirish, tuyg‘ularni ifodalash uchun qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

Masalan, **erildi** fe’li odatda *darz ketmoq, yoriq paydo bo‘lmoq* ma’nosini bildiradi. Devonda esa *“tam erildi” – devor va boshqa narsalar darz ketdi, uvalandi*; shu bilan birga **oy**ga nisbatan ham shu fe’l qo‘llangan: *“ay erildi”* – to‘lin oy oyi oxirlaganda asta–sekin kamayib, g‘oyib bo‘ldi [Mahmud Koshg‘ariy, 2017, 114]. Bu yerda **oyning kamayib so‘nishi jarayoni** devorning yorilib parchalanishiga o‘xshatilgan. Natijada **oy erildi** degan metaforik ifoda yuzaga kelgan bo‘lib, oy fazasining o‘tkinchi o‘zgarishini jonli va tasvirli ravishda ifodalab beradi. Shunday **badiiy metafora** nutqqa kuchli emotsional–ekspressiv bo‘yoq berganini ta’kidlash mumkin – oyning so‘nishini “yorilib ketishga” qiyoslash orqali ifoda yanada ta’sirchan tus olgan.

Yana bir misol – **a**ğrudï fe’li **Devon**da *“og‘ir bo‘ldi”* degan ma’noni bildiradi [ağır + udï – og‘irlashmoq]. U *1]* ***narsa*** *og‘irlashdi*; *2]* ***kasal*** *og‘irlashdi, yomonlashdi* ma’nolarida qo‘llanadi [Mahmud Koshgariy, 2017, 115]. Demak, og‘irlik tushunchasi bu yerda bevosita jismoniy yuklama sifatida ham, **kasallik holatining yanada og‘irlashuvi [yomonlashuvi]** ma’nosida ham ishlatilgan. **A**ğrudï [og‘irlashdi] fe’lining kasalga nisbatan qo‘llanishi – bemor ahvolining yanada yomonlashganini ifodalash uchun jonli va ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bu ham ko‘chma ma’noning hissiy–ifodaviy kuchini ko‘rsatadi: **og‘ir kasal bo‘lib qolish** iborasining ilk namunalari sifatida **a**ğrudï fe’lining bunday qo‘llanilishi bemorning ahvoli naqadar og‘irligini, xastalik “yuk”ining ortganini obrazli tarzda yetkazadi.

Demak, metafora va uning xildoshlari til birligining ma’nosiga turli **ekspressiv bo‘yoqlar**ni qo‘shishi mumkin. Bu hodisa, ayniqsa, badiiy matnlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. “Devon” misollarida keltirilgan **oyning “erilishi”**, **kasalning “og‘irlashuvi”** kabi iboralar bunga yaqqol misoldir.

Ko‘p ma’nolilik doirasidagi ba’zi hodisalar mavjudki, ular faqat muayyan **kontekst** yoki matn ichidagina tushunarli bo‘ladi. Bunday holatlarni **kontekstual ko‘chma ma’no** deb atash mumkin. Umumxalq tilida keng qo‘llanadigan ko‘p ma’noli so‘zlardan tashqari, ba’zan shoir va yozuvchilar tomonidan individual ravishda yaratilgan, faqat adabiy matnda ma’nosi anglashiladigan obrazli ifodalar uchraydi. Biror so‘z odatdagi ma’nosida ishlatilmay, noodatiy bog‘lanishda qo‘llanganda yangi, kutilmagan ma’no tug‘iladi. Bunday ma’no ko‘chishlari ko‘pincha **individual–poetik metafora** xususiyatiga ega bo‘ladi. Ayrimlari vaqt o‘tishi bilan ommalashib, lug‘aviy ma’noga aylanishi ham mumkin, ammo ko‘plari muallif ijodida yoki tor doiradagi matnlardagina qolib ketadi [Aliqulov, 1963, 37].

“Devonu lug‘otit–turk”dagi ba’zi misollar ham shuni ko‘rsatadiki, ayrim ko‘chma ma’nolar o‘z davri uchun **kontekstga xos** bo‘lgan. Masalan, asarda qiz va o‘g‘il bolani kinoya bilan hayvon obrazida atashgan ibora keltiriladi. Tug‘ruq paytida aytiladigan savolda: ***“Tilkü*** mü tuğdı əzü ***Böri*** mü?” – “Tulki tug‘dimi yoki bo‘ri?” deb so‘rashgan [Mahmud Koshgariy, 2017, 171]. Bu iboraning ma’nosi – **“qiz farzandmi yoki o‘g‘il farzand?”** Qiz bolani “tulki” deb atashganining sababi – tulki ayyor va yalinchoq hayvon, bu xususiyatlarni xalq qizlarning tabiati (erka, o‘jar va o‘zgalarni aldovchi) bilan bog‘lagan; o‘g‘il bolani esa “bo‘ri” (qurqmas va botir hayvon)ga qiyoslashgan. Ko‘rinib turibdiki, **tulki** va **bo‘ri** so‘zlari bu yerda o‘z asosiy ma’nolarida emas, balki **kontekstual obraz** sifatida ishlatilgan – ayollik va erkaklik timsolini ifodalovchi kinoyaviy ma’no kasb etgan. Albatta, bu ibora o‘sha davr jamiyatidagi xalqona qarash va hazilning ifodasi sifatida yuzaga chiqqan va tilning umumiy lug‘at tarkibiga keng kirib ketmagan.

Yana bir qiziq misol: **“bodun ba**šğanï” iborasi. **Ba**šğan (bashğan) **Devon**da *ellik yuz ratl atrofida bo‘ladigan katta bir baliq* deb izohlanadi, va *jamoaning kattasi, yetakchisi* ma’nosida ham **“bodun bašğan**ï” [xalqning katta baliği] deb atalgan [Mahmud Koshgariy, 2017, 174]. Bu ibora hozirgi tilimizda faol emas, ammo ma’no jihatidan “katta baliq” obrazi orqali jamoa

yetakchisi obrazli ifoda etilganini ko‘ramiz. Ingliz tilidagi **“big fish”** [katta baliq – muhim shaxs] iborasiga hamohang tarzda, qadimiy turkiy til matnida ham shu kabi metafora yuzaga kelgan. Bu ham, ehtimol, o‘sha davr nutqidagi kontekstual birikma bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan aktualligini yo‘qotgan.

Shu tariqa, “Devon”da keltirilgan **soqar**, **toqluq** (ikkalasi ham *“shoxi yo‘q hayvon”* va **“sochi to‘kilib, chakkasi kal bo‘lib qolgan odam” ma’nosida qo‘llangan), **bürgä** (*“burga”*, va *“yengil tabiatli, sakrab yuruvchi odam”* ma’nosida), **terkin** (*“to‘planib qolgan suv; balchiqli suv”* va *“to‘plangan qo‘shin”* ma’nosida), **yügrük** (*“tez chopadigan ot”* va *“ziyrak, fahm–farosatli kishi”* ma’nosida) kabi ko‘plab leksemalar majoziy kontekstdagina anglashiladigan yangi ma’no kasb etganini ko‘rish mumkin [Mahmud Koshg‘ariy, 2017, 165–176]. Ba’zilari til tarixida keng qo‘llanib ketgan bo‘lsa (masalan, **yosh** ma’nosidagi **ya**šlïğ so‘zining hayvonlarga nisbatan qo‘llanishi – *katta yoshli hayvon*, bu hozir ham “yoshi katta jonivor” tarzida ishlatiladi), aksariyati esa faqat tarixiy matnlarda uchraydi xolos. Demak, kontekstual ko‘chma ma’no tilning ijodiy qatlami bo‘lib, u orqali nutq boyiydi, biroq bunday ma’nolar hamisha ham lug‘atda mustahkam o‘rin olavermaydi. Ayrim holatdagina bu singari obrazli iboralar konventional metaforaga aylanishi, ya’ni ko‘chma ma’no lug‘aviy birlik darajasida tan olinishi mumkin.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit–turk” asari materiali asosida amalga oshirilgan ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi turkiy til leksikasida polisemiya hodisasi keng va rang–barang ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Ko‘p ma’noli leksemalar asosan ma’no o‘xshashligi tamoyili orqali shakllangan bo‘lib, bu jarayonda metafora bosh o‘rinni egallaydi. Metaforik ma’no ko‘chishlar yordamida so‘zlar yangi semantik qatlamlar hosil qilgan, natijada til birliklari orasidagi semantik tarmoqlanish chuqurlashgan. Vazifadoshlik – funksional o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishi – ham “Devon”da kuzatiladi va u ayrim ma’nolarning paydo bo‘lishida alohida ahamiyatga ega.

Ushbu ish doirasida “Devon”dan olingan ko‘plab misollar orqali ko‘p ma’nolilik hodisasining turli ko‘rinishlari yoritildi. Misollar tahlili ko‘rsatdiki, qadimgi turkiy til uchun xos bo‘lgan polisemiya namunalari bugungi zamon tilshunosligi nazariyalariga ham uyg‘un tushadi – ularda ham metafora, metonimiya kabi ma’no ko‘chish mexanizmlari yetakchi rol o‘ynaydi. Demak, Mahmud Koshg‘ariy merosini o‘rganish nafaqat tarixiy–lisoniy faktlarni bilish uchun, balki umumtilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatli xulosalar chiqarish uchun asos bo‘la oladi.

Mazkur tadqiqot ishining **ilmiy yangiligi** shundaki, unda ilk bor Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit–turk” asaridagi polisemantik leksemalarning ma’no aloqadorligi zamonaviy sematsiologiya yondashuvi asosida tizimli tahlil qilindi. Xususan, ko‘p ma’noli so‘zlar tarkibidagi ma’nolarning **o‘xshashlik** va **aloqadorlik** [metafora, metonimiya va h.k.] prinsiplari aniqlanib, real lug‘aviy misollar yordamida tasdiqlandi. Tadqiqotda ilgari ilmiy adabiyotlarda ko‘p tilga olinmagan **vazifadoshlik** hodisasiga e’tibor qaratilib, u “Devon” ma’lumotlari asosida yoritib berildi. Shuningdek, “Devonu lug‘otit–turk”dagi ayrim polisemantik birliklarning hozirgi o‘zbek tilida uchrash–uchramasligi ham ko‘rsatilib, lug‘aviy boyligimizdagi tarixiy uzluksizlik masalalariga doir mulohazalar bildirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳakimova M. Semasiologiya. – Toshkent: TDPU, 2007. 56–b.
2. Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 102–b.
3. Mahmudov N. Termin, obrazli so‘z va metafora. O‘zbek tili va adabiyoti, 2013, №4. 7–b.
4. Aliqulov T. Polisemiyalarning hosil bo‘lishi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti, 1963, №6. 36–37–b.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit–turk. Q. Sodiqov tayyorlovi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017.
6. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975.
7. Yusupova Sh. Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi. Filol. fan. bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. – Farg‘ona: 2021. 55–b.
8. Lyons J. Semantics [Vol.1]. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. 238–240P.
9. Cruse D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. 80P.



Ziyodaxon USMANOVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

XURSHID DAVRON IJODIDA TARIXIY LEKSIK QATLAM

Annotatsiya: maqolada Xurshid Davron asarlarida harbiy leksikaga oid terminlarning qo‘llanilishi, ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ahamiyati haqidagi fikrlar ochiqlanadi. Adib asarlarining tili, uslubi, individual xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratiladi. Maqolada Amir Temurning harbiy yurishlarida foydalangan qurol–aslaha, jang usullari hamda harbiy texnika vositalarining Xurshid Davron talqinidagi leksik qatlami tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: leksik qatlam, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, harbiy leksika, tarixiy asar.

Annotation: the article discusses the use of terms related to the military lexicon in the works of Khurshid Davron, their importance in the current Uzbek literary language. Special importance is attached to the language, style, and individual characteristics of literary works. The article analyzes the lexical layer of Khurshid Davron’s interpretation of weapons, combat methods and military equipment used by Amir Temur in his military campaigns.

Key words: lexical layer, stages of historical development of the Uzbek language, military lexicon, historical work.

Аннотация. в статье раскрываются мысли об использовании военных лексических терминов в произведениях Хуршида Даврона и их значении в современном узбекском литературном языке. Особое значение придается языку, стилю и индивидуальным особенностям произведений писателя. В статье анализируется лексический пласт вооружения, приемов ведения боя и военной техники, используемых Амиром Темуром в его военных походах в интерпретации Хуршида Даврона.

Ключевые слова: лексический пласт, этапы исторического развития узбекского языка, военная лексика, историческое произведение.

Kirish. Lug‘at, xususan, harbiy leksikaga oid so‘zlar, ma’lum bir badiiy matnning tuzilishi bilan bog‘liq holda, tilning hozirgi leksik tizimi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishi ahamiyatlidir. Muayyan muallifning nutq uslubi, so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish nafaqat milliy tilning rivojlanishini kuzatish kontekstida, balki yozuvchining til taraqqiyotiga qo‘shgan shaxsiy hissasini aniqlash jihatidan ham dolzarbdir. Har qanday badiiy asarning taqdiri muayyan tilning uslubiy imkoniyatlaridan va tasviriy–ekspressiv vositalaridan o‘ziga xos foydalanishiga bog‘liq. O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning asarlarida qo‘llagan o‘zbek tilining leksik va frazeologik fondi muallifning individual originalligidan dalolat beradi. Harbiy leksika va arxaik lug‘at o‘zbek tilining passiv zaxirasini tashkil etadi, shu bilan bir qatorda tilning bu qatlami zamonaviy adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan o‘rganish uchun alohida qiziqish uyg‘otadi.

Xurshid Davronning aksar nasriy asarlari Amir Temur va temuriylar davri manzaralari haqida hikoya qiladi. Tabiiyki, yozuvchining til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati ham shu davr til uslublari, me’yorlari jihatidan tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Yozuvchi nutqining individual jihatlarini tahlil etishdan oldin o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, temuriylar davri til taraqqiyotining aynan qaysi davrlariga mos kelishini aniqlab olishimiz va shunga ko‘ra mulohaza yuritishimiz lozim.

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti besh bosqichga bo‘linadi va ularning har biriga xos xususiyatlar: frezeologik, leksik, morfologik, fonetik jihatlariga ko‘ra farqlanadi. Shunga ko‘ra tilimiz hozirgi iste’moldagi holiga kelgunga qadar quyidagi davrlarni bosib o‘tdi:

– eng qadimgi turkiy til. Bu davr eng qadimiy yozma yodgorliklardan boshlab milodiy V asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrga oid manbalar saqlanib qolmagan;

– qadimgi turkiy adabiy til. Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy turkiy yozma yodgorliklar shu davrga oiddir. Taraqqiyotning bu bosqichi o‘z ichiga milodiy VI–X asrlarni oladi. Bu davrda adabiy til shakllanishi boshlandi;

– eski turkiy adabiy til XI asr va XIV asrning birinchi yarmida iste’molda bo‘lgan. Bu davrda Qoraxoniylar, Chig‘atoy turkiysi, Eski Xorazm turkiysi, Eski Qipchoq tili, Eski Onado‘li turkchasi amalda bo‘lgan;

– eski o‘zbek adabiy tili XIV asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida amalda qo‘llanilgan. Bu davrda turkiy til imkoniyatlari, qo‘llanilish doirasi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga erishdi;

– hozirgi o‘zbek adabiy tili. XX asr boshlaridan hozirga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. (X.Dadaboyev, Z.Xolmonova, 2015, 7–8 b).

Til taraqqiyotining dastlabki uch bosqichida umumturkiy tillarning barchasiga xos xususiyatlar yetakchilik qilsa, keyingi ikki davr, asosan, o‘zbek adabiy tilining takomilida muhim rol o‘ynadi. Biz tahlil etishni maqsad qilgan davr, ya’ni temuriylar davri aynan o‘zbek adabiy tilining shakllanish davrlariga xosdir.

Asosiy qism. Har bir yozuvchining o‘ziga xos nutqi, til imkoniyatlaridan foydalanish malakasi, badiiy tasvir vositalarini asarning qatlariga singdirib yuborish mahorati, badiiy asarda tasvirlanayotgan fikr, voqea, shaxs yoki predmetga subyektiv munosabati ijodkorning uslubini tashkil etuvchi asosiy komponentlardir. Badiiy uslubga bunday yondashuv yozuvchidan nafaqat lug‘at boyligi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid bilimlar, balki tarix, madaniyat, badiiy asarning bosh g‘oyasini o‘zida mujassam etgan leksik qatlamga oid bilimlarni ham puxta o‘rganishni talab etadi. O‘zining tarixiy mavzulardagi badialari bilan adabiyotimizda o‘z o‘rni va og‘irligiga ega bo‘lgan yozuvchi Xurshid Davronning “Sohibqiron nabirasi” asari tarixiy ma’lumotlar va xalq ijodiyoti, fakt va badiiy to‘qimalarning omuxtalashgan sintezi bilan adabiyotshunoslik, XIV–XV asr tili, xususan, harbiy leksikasidan keng foydalanilganligi bilan tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun manba bo‘la oladi. Asarda ug‘ruq, yaso, tuzuk, muhoraba, qurultoy, jiybaxona, xirgoh, sarko‘b, muhosara, sada, xazara, manjaniq, cho‘qmor, qodirandoz, kutvol kabi ko‘plab o‘rta asrlar harbiy san’ati va texnikasiga oid atamalarga duch kelamiz. Yozuvchi bu terminlardan Amir Temurning harbiy salohiyatini ifodalash, jang sahnalarini tasvirlash, harbiy yurishlar davrida askarlarning kundalik hayotini ifoda etishda mohirona foydalanadi.

Qat’iy harbiy intizomga ega qo‘shinning sarkardasi buyuk Sohibqiron hamisha Chingizxonning yaso qonunlariga amal qilib qo‘shinni boshqargan va qo‘l ostidagilardan ham ayni shunday intizomni talab qilgan. Yasoq mo‘g‘ullarning buyuk xoni Chingizxon tomonidan qo‘shinda tartib–intizomni saqlash, harbiy hayotga chiniqtirish maqsadida tadbiq etilgan. Keyinchalik Amir Temur ham o‘z lashkarini boshqarishda Chingizxon yasosiga amal qilgan. Bu so‘z mo‘g‘ulcha qonun, qaror, jazolash degan ma’nolarni bildiradi.

Sohibqiron harbiy safarga otlanar ekan, uning ortidan doimo ug‘ruq hamrohlik qilgan. Ug‘ruq so‘zi harbiy harakatlar vaqtida qo‘shin ortidan podshohning oila a’zolari, zahira qurol–yaroq va ozuqani olib yuruvchi karvonga nisbatan ishlatilgan. Bu so‘z o‘rta asrlar tarixiga doir asarlarning deyarli barchasida uchraydigan eng ommalashgan atamalardandir. “*Ug‘ruq uzoq yo‘l bosib bahor o‘rtalarida Samarqandga yetib keldi” (Xurshid Davron. 1995. 177–bet).*

Ma’lumki, Amir Temur o‘zi sarkardalik qilgan hech bir muhorabada yengilmagan. Keltirilgan misoldagi muhoraba so‘zi urush, jang ma’nolarini ifodalaydi.

Harbiy yurishlar oldidan qo‘shinni qurol–yaroq bilan ta’minlovchi ustaxonalar xizmati avj olgan. Ayniqsa, Amir Temur davrida bunday hunar egalariga ehtiyoj har qachongidan ko‘ra ko‘proq, talab esa juda yuqori edi. Mudofaa yoki tinchlik zamonlarida qurol–aslahalar maxsus omborlarda saqlanar edi. Asardagi Sohibqiron o‘g‘lining o‘limi bilan bog‘liq sahnada ayni shunday omborlarga nisbatan jiybaxona termini qo‘llaniladi. Bu so‘z qurol–aslaha saqlaydigan maxsus ombor ma’nosini anglatadi. Omborning xavfsizligini ta’minlovchi mas’ul shaxs jiybaxonachi deb yuritilgan. “*Munshiy xatni unga o‘qib berar ekan, hukmdor hali aftini ko‘rmagan jiybaxonachidan qattiq nafratlandi” (Xurshid Davron. 1995. 105–bet).*

Umri jangu jadallar ichida kechgan sarkarda asosiy vaqtini qo‘shin bilan birgalikda jang chodirida o‘tkazar edi. Bunday ko‘chma chodirlarga nisbatan xirgoh so‘zi qo‘llanilgan. Unda shohning ko‘chma taxti va shaxsiy buyumlari saqlangan. Jang vaqtida sarkarda barcha muhim tadbirlarni, elchilarni kutib olish ishlari, jang taqdiri haqidagi yangi rejalarni xirgohda amalga oshirgan. “*“Kirsin!”– dedi Sohibqiron daryodan urilgan salqin shabadadan ohista tebranib turgan xirgoh pardalariga tikilganicha” (Xurshid Davron. 1995. 106–bet).*

Bu davr harbiy leksikasida sarko‘b so‘zini ham ko‘p uchratamiz. Chunki sarko‘b mudofaa jangi olib borilayotgan g‘animga qirg‘in keltirish maqsadida sun’iy yo‘l bilan barpo etilgan tepa, qal’a yoki hisorsimon baland joyni bildiradi. Sharq xalqlari, xususan, Amir Temur, Shayboniyxon, Xiva xonlari armiyasida qamal chog‘ida faol qo‘llanilgan taktik usullardan biri hisoblanadi. O‘rta asrlarda ko‘pdan ko‘p qal’a va qo‘rg‘onlar baland devor, burj va boru (o‘q otish uchun mo‘ljallangan shinaklar)ga ega bo‘lgan. Mustahkam qal’a va qo‘rg‘onlar uzoq muddatli mudofaa uchun zarur qurol–yarog‘, oziq–ovqat, yem–xashak bilan ta’minlangan. Bunday inshootlarni bir hamla bilan qo‘lga kiritish mumkin bo‘lmagan. Ana shunday kezlarda muhosara qurol–yarog‘lari ishga solingan. Mudofaadagi qal’a yoki qo‘rg‘on devorlari yonida undan baland bo‘ladigan tuproq uyumlariadn sarko‘blar tiklashgan. Minglab askarlar tevarak–atrofdan o‘tin, yog‘och, shox–shabba to‘plab, ustidan tosh, shag‘al va tuproq to‘kib sun’iy tepaliklar barpo etishgan. Ayni chog‘da daraxt xodalaridan yasalgan narvonlar yordamida jangchilar qal’a devoriga chiqishgan. Sarko‘blardan, asosan, kamonchilar dushmanga hujum qilish uchun foydalanishgan. “*Sohibqiron qal’aning sharqiy darvozasi ro‘parasida sarko‘b tiklashni buyurdi… U sarko‘b tiklanishini va sharq tomondan oqib kelayotgan temir oqimni mana shu sarko‘b poyida yig‘ilishini ham kutib o‘tirmadi” (Xurshid Davron. 1995. 106–bet).*

Tarixning guvohlik berishicha, Amir Temur o‘z qo‘shinini ma’lum miqdor va sifatga ko‘ra guruhlarga bo‘lgan. Har bir guruhga esa rahbar tayinlagan. Guruhdagi askarlarning soniga qarab ularga daha (o‘nlik), sada (yuzlik), hazora (minglik), tuman (o‘n minglik) kabi nomlar berilgan. Qo‘shinni bu tartibda bo‘lish XVIII asr oxirlariga qadar saqlanib qolgan. Amir Temur qo‘shinidagi tumanlarga sohibqironning o‘g‘illari, nabiralari hamda Shayx Nuriddin, Hoji Sayfuddin, Shohmalik, Allohdod, Jahonshoh singari nomdor beklar rahbarlik qilgan. “*Temir oqim qal’a devorlariga bo‘ron paytida quturgan dengiz to‘lqinlaridek borib urilar – sada ketidan hazora, hazora ketidan qo‘shin kelardi” (Xurshid Davron. 1995. 110–bet).*

Jang qurollaridan yana biri cho‘qmor bo‘lib, undan, asosan, yuzma yuz jangda foydalanilgan. Cho‘qmor to‘qmoq shaklida yasalgan eng qadimiy jang qurolari sirasiga kiradi. Amir Temur qo‘shinida cho‘qmor, shashpar, gurzi kabi qurollardan keng foydalanilgan.

Tarixiy manbalarda kamondan o‘q otuvchilar qodirandoz deb ham tilga olinadi. Qodirandoz – mumtoz adabiyotda mohir o‘qchi, mergan ma’nosini anglatadi. Ular hatto tunda nishonni bexato olganligi haqida ma’lumotlar beriladi. Xurshid Davron Amir Temur qo‘shinidagi kamonchilar haqida ma’lumot berganda ularga qodirandoz nisbatini bergan. “*Tong yaqinlashib, atrof yorisha boshlagan g‘ira–shiralikda Amir Temur amri bilan yasulboshi qodirandozlarni ishga soldi, ularning yoydan bexato o‘q uzishlari tufayli shahrband ustidagilar tutdek to‘kildilar” (Xurshid Davron. 1995. 111–bet).*

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, leksik tomondan adabiy matn juda murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Badiiy matn muallifi o‘quvchining his–tuyg‘ulariga ta’sir qiladigan va turli xulosalarni to‘playdigan tasvirlardan foydalanadi. Biroq, ko‘pincha muallif o‘z pozitsiyasini ochiq bildirmaydi. Demak, uning maqsadini to‘liq anglash uchun badiiy matnning ma’nosini anglabgina qolmay, balki uning leksik va sintaktik elementlarini ham tahlil qilish zarur.

Iste’dodli va o‘ziga xos yozuvchi Xurshid Davron adabiy nasrida qo‘llanilgan harbiy leksik qatlamga oid so‘zlarni tahlil qilish uni nafaqat ijodkor, balki tarixchi va tilshunos olim sifatidagi faoliyatining yangi, qiziqarli tomonlardan ochib berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Dadaboyev, Z.Xolmonova. Turkiy tillarning qiyosiy–tarixiy grammatikasi. — T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2015.
2. Xurshid Davron. Sohibqiron nabirasi. — T.: “Sharq”, 1995.
3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Qurolli kuchlar akademiyasi. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. – T.: “Innovatsiya–Ziyo”, 2020.

Dildora OXBUTAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti 1–bosqich doktoranti

IKROM OTAMUROD SHE’RIYATIDA LIRIK “MEN” VA POETIK TASVIR

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Ikrom Otamurod ijodida lirik “men” obrazining shakllanishi va uning poetik tasvirlar orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. Shoirning she’riyatida lirik qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va falsafiy qarashlari she’riy shaklda yuksak badiiylik bilan aks ettirilgan. Maqolada shoirning ayrim mashhur she’rlari misolida poetik tasvir vositalari – metafora, epitet, personifikatsiya va ramzlar tahlil qilinib, ular orqali lirik “men”ning qanday badiiy obraz sifatida gavdalanishi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ikrom Otamurod, lirik “men”, poetik tasvir, metafora, epitet, ramz, personifikatsiya.

Аннотация:в данной статье анализируется формирование образа лирического “я” в творчестве узбекского народного поэта Икрома Отамурода и его выражение через поэтические образы. В поэзии поэта внутренние переживания, душевное состояние и философские взгляды лирического героя отражены с высокой художественностью в поэтической форме. В статье на примере некоторых известных стихотворений поэта анализируются поэтические средства изображения – метафора, эпитет, персонификация и символы, и раскрывается, как лирическое “я” воплощается как художественный образ.

Ключевые слова: Икром Отамурод, лирическое “я”, поэтическое изображение, метафора, эпитет, символ, персонификация.

Annotation: this article analyzes the formation of the lyrical “I” image in the works of Uzbekistan’s national poet Ikrom Otamurod and its expression through poetic imagery. The internal experiences, emotional state, and philosophical views of the lyrical hero are reflected in a highly artistic manner in the poet’s poetry. The article examines poetic imagery tools – metaphor, epithet, personification, and symbols through examples of some of the poet’s famous poems, showcasing how the lyrical “I” manifests as an artistic image.

Key words: Ikrom Otamurod, lyrical “I”, poetic imagery, metaphor, epithet, symbol, personification.

O‘zbek adabiyoti tarixida lirik she’riyat har doim o‘ziga xos o‘rin egallab kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida faol ijod qilgan shoirlar orasida Ikrom Otamurodning ijodiy merosi alohida e’tiborga loyiq. Shoir o‘zining betakror she’riyati orqali milliy poeziyamizning badiiy salohiyatini boyitdi, inson ruhiyatining eng nozik tuyg‘ularini ohangdor va ta’sirchan ifoda orqali yetkazdi. Ushbu maqolada adibning poetik dunyoqarashi, badiiy obrazlar orqali lirik qahramonning shakllanishi, uning ichki kechinmalari, jamiyat va tabiatga munosabati tahlil etiladi. O‘zbek she’riyatining zamonaviy rivojiga salmoqli hissa qo‘shayotgan taniqli shoir Ikrom Otamurod lirikasi yangilanish ruhi bilan ajralib turadi. Bu yangilik uning she’rlarida nafaqat mavzu va obrazlar tizimida, balki g‘oyaviy mazmun, estetik qarashlar hamda hayotni badiiy aks ettirish uslubida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ikrom Otamurod – o‘zbek adabiyotining yorqin vakili bo‘lib, 1951–yilda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanida tug‘ilgan.U 1969–1974–yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Adib “Ufqlar orti bepoyon”, “Uzoqlashayotgan og‘riq” kabi mashhur kitoblar muallifi hisoblanadi. Uning “Vaqt ranglari” (1982), “Janub qushlari” (1984), “To‘rg‘ayli manzillar” (1985), “Sopol siniqlari” (1994), “Sen” (1996), “Ichkari va tashqari” (1997), “Ko‘nglim o‘zing” (2004), “Tanazzul” (2008), “Xaritaga tushmagan joy” (2011), “Muqaddar” (2012) kabi she’riy to‘plamlari mavjud. Shuningdek, Falastinlik shoir Muin Bsisuga bag‘ishlab yozilgan

“Yarador umid otlari” (1986) dostoni ham shoirning e’tiborga molik asarlaridan biridir [1: 434;435].

Ikrom Otamurodning poetik izlanishlari XXI asr boshidagi fikriy yangilanishlar bilan uzviy bog‘liq. Bu davrda insoniyat dunyoqarashi, hayotga munosabati o‘zgardi va bu holat, tabiiy ravishda, adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.Bugungi kitobxonni tafakkurga chorlaydigan, o‘ylantiradigan she’rlar maydonga keldi.Shoir esa ana shunday davrning o‘rtasida, quyosh misol umrini, nurlarini beminnat xalqiga bag‘ishlayotgan, ajdodlar merosiga sadoqat bilan qarayotgan ijodkordir. U ba’zan an’anaviy vazn va qofiyalardan chekinib, dardini erkin ifoda etish, noan’anaviy yo‘llar orqali tinglovchiga murojaat qilish uslubini tanlaydi [2: 84].

Adabiyotshunoslikda “lirik ‘men’” tushunchasi muallif yoki poetik qahramonning ichki olami, shaxsiy kechinmalari va estetik qarashlarini ifodalovchi obraz sifatida talqin qilinadi. Bu “men” shoirning o‘ziga aynan to‘g‘ri kelmasa–da, uning fikrlash tarzini, ruhiy holatini yoritib beradi. Har bir shoirning lirik “meni” o‘ziga xos va betakror ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ikrom Otamurodning she’riyatida esa ushbu “men” juda samimiy, falsafiy va teran mazmunga ega bo‘lib, u hayot haqiqatlari, muhabbat va tabiat bilan uyg‘un holda tasvirlanadi [3: 38].

Ikrom Otamurod o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos uslub va betakror poetik ohang bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biridir. Uning adabiy faoliyatini diqqat bilan tahlil qilar ekanmiz, quyidagi asosiy xususiyatlar e’tiborni tortadi: avvalo, shoir inson qalbining ichki kechinmalarini – yolg‘izlik, armon, muhabbat, orzu va umid kabi mavzularni o‘ta nozik badiiy ifoda orqali yoritadi. Shuningdek, tabiat manzaralari Otamurod she’riyatida shunchaki fon yoki bezak emas, balki lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi poetik komponent sifatida ishtirok etadi. Shoirning ijodi o‘zbek xalqining madaniy merosi, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Poetik tasvir vositalari esa Ikrom Otamurod lirik “men”ining ma’naviy dunyosini ochish va anglatish vositasiga aylanadi. Adibning lirik subyekti – oddiy inson emas, balki o‘ta sezgir, chuqur mushohada yuritadigan, hayotning har bir hodisasiga qalban javob qaytaradigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan:

“Yuragim — qush, parvozini ko‘ksimda boshlaydi,
Har tongda osmonga qarab yig‘laydi,
Yig‘lagan sari erkinlashadi…”

Mazkur satrlarda yurak “qush” obrazida tasvirlanib, insonning ichki ruhiy holati – iztirob, orzu, ozodlikka intilish kabi kechinmalar chuqur poetik ifodasini topgan.Bu tasvir orqali lirik “men”ning qalbiy holati, orzulari va ma’naviy o‘sish jarayoni ochib beriladi [4: 11;16].

Shoir she’riyatida muhabbat mavzusi ham muhim o‘rin egallaydi.Biroq bu kechinmalar soddalashgan romantik tuyg‘ular emas, balki inson qalbining sadoqati, yo‘qotish iztirobi va umidsizlik bilan qorishgan chuqur ma’naviy jarayon sifatida ifodalanadi. Misol tariqasida quyidagi misralarni keltirish mumkin:

“Menga qolgan bir og‘riq — sening jilvang,
Ko‘zlaringda yo‘qotganim dunyo bo‘ldi.
Men unutmadim seni, unutmoq — yolg‘on,
Sevgi men uchun emas, hayot bo‘ldi.”

Bu satrlar shoir lirik qahramonining sevgi orqali kechirgan iztiroblarini, muhabbatning shaxsiy his emas, balki hayotni butunlay qamrab oluvchi kuchli tuyg‘uga aylanganini ko‘rsatadi.Lirik “men” uchun sevgi – hayot falsafasi, hayotni anglash mezoni sifatida talqin qilinadi [5: 45].

Ikrom Otamurod she’riyatida tabiat va lirik qahramon o‘rtasida ichki uyg‘unlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir tabiat manzaralarini lirik “men”ning ruhiy holatiga muvofiq tarzda chizadi, bu esa inson qalbi bilan tabiat holati o‘rtasida badiiy uyg‘unlik, poetik parallelizmni yuzaga keltiradi.

Kechqurun tog‘lar jim turadi,
Men ham jimman, yolg‘izman…
Tog‘lar kabi og‘ir nafas oldim,
Shabada ham meni so‘ramadi.

Bu misralarda tog‘larning sukunati bilan lirik obrazning ichki tinchligi o‘zaro uyg‘un ifodalangan. Tog‘larning sukunati — bu shoir qalbining osoyishtaligini, shabadaning befarqligi esa yolg‘izlik holatini badiiy ifoda etadi [6: 456;462].

Shoir poetik tasvir vositalari orqali lirik “men”ning ichki olamini ochib beradi. Jumladan:

Metafora:

“Yuragim — maydon, ichra urushlar” satri orqali lirik “men”ning ichki ziddiyatlari metaforik tarzda

aks ettiriladi.

Epitet:“Sokin kechalar”, “mangulikka zamin bo‘lgan muhabbat” kabi epitetlar obrazga chuqurlik va emotsional boylik bag‘ishlaydi.

Ramziy ifodalar (symbolizm):

Qush, daraxt, suv, shabada kabi tabiat unsurlari ko‘pincha ramziy ma’no kasb etib, chuqur mazmun yuklaydi.

Insonlashtirish (personifikatsiya):

“Oy g‘amgin qaraydi”, “quyosh ham yig‘laydi” kabi misralar orqali tabiat hodisalari insoniy tuyg‘ular bilan boyitiladi.

Bu san’at vositalari yordamida lirik “men” yanada mukammal, badiiy jihatdan boy holda tasvirlanadi.

Ikrom Otamurodning lirik obrazi faqat shaxsiy hissiyotlarni emas, balki milliy ruhiyatni ham o‘zida mujassamlashtiradi.U o‘zbek xalqining sabr–toqati, mehnatsevarligi, ma’naviyati va tabiat bilan uyg‘un hayot tarzini aks ettiradi. Lirik “men” ko‘pincha xalqning tarixiy xotirasi, an’analari bilan boyitiladi:

Men — bu yurtning tongi, noni, duosi,

Men — bu zaminning yuragiman.

Bu satrlarda lirik qahramon butun bir xalqning timsoliga aylantiriladi, shoir esa shu orqali milliy o‘zligiga sodiqligini ifoda etadi [7: 234].

Zamonaviy hayot voqeliklari ham shoirning e’tiboridan chetda qolmaydi. Lirik “men” jamiyatdagi o‘zgarishlar, insoniy qadriyatlarning yemirilishi va texnologik taraqqiyotning inson ruhiyatiga ta’sirini chuqur his qiladi. Shu sababdan, ba’zida bu obraz falsafiy va ijtimoiy ohangda namoyon bo‘ladi

Dunyo shovqin, lekin qalbim jim,

Axborot oqimida yo‘qoldim men,

Toki yana qog‘oz izlab topguncha,

So‘z bilan yashashni o‘rgandim men

Bu misralarda zamonaviy hayotning shovqin–suroniga qaramay, lirik “men”ning o‘zligini saqlab qolishga bo‘lgan harakati tasvirlanadi [8: 345;348].

Xulosa qilib aytganda, Ikrom Otamurodning she’riyati zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos poetik yo‘nalish va maktabni ifodalaydi. Uning lirik “meni” oddiy adabiy obraz bo‘lib qolmay, balki insoniyat tuyg‘ularining umumlashgan timsoliga aylanadi. Shoir poetik san’at vositalaridan mohirona foydalanib, ushbu “men”ning ichki kechinmalari, orzu–armonlari, iztiroblari va ijtimoiy voqelikka munosabatini chuqur va falsafiy ohangda ochib beradi. Tabiat tasvirlari, ramziy obrazlar hamda milliy ruhiyat bilan uyg‘unlashgan bu lirik qahramon o‘zbek she’riyatida badiiy izlanish va yutuqlarning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: Ўзбекистон, 2022. 247 –434;435–б.

2. Otamurod I. Xaritaga tushmagan joy. She’rlar va dostonlar.–T.: Sharq, 2021.84–b.

3. Otamurod I. Vaqt ranglari. She’rlar. – T.:Gafur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2022.38–b.

4. Otamurod I. Sen. She’rlar va doston. –Toshkent: Qatortol–Kamolot, 2019. 11;16–b.

5. N.Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. –T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2022. 45–b.

6. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko‘zlari. –T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2019. 456.462–b.

7. Y.Solijonov. Ko‘zgudagi hayot. –T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2023. 234–b.

8. Y.Solijonov. So‘z sehri va mehri. –T.: “Sharq” NMAK.. 2023. 345,348–b.

Rayhona RAXMATOVA
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
I bosqich tayanch doktoranti

HALIMA AHMEDOVA HIKOYALARIDA AYOL RUHIYATI TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada hikoyalar haqida qisqagina to‘xtalib shoir va yozuvchi Halima Ahmedovaning “Umid darichasi” nomli hikoyasi tahlilga tortilgan. Hikoyada ayol ruhiyati, uning hayotga bo‘lgan umid va ishonchining qaytishi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, lirik proza, ruhiyat, umid, ishonch, ayol, iztirob, qalb, shukr.

Аннотация: в данной статье кратко рассматриваются рассказы поэтессы и писательницы Халимы Ахмедовой. Анализируется её рассказ под названием “Окно надежды”. В рассказе отражена женская психология, возражение и веры в жизнь.

Ключевые слова: рассказ, лирическая проза, психология, надежда, вера, женщина, страдание, душа, благодарность.

Annotation: this article briefly examines the stories of the poet and writer Khalima Akhmedova. Her story titled “Window of Hope” is analyzed. The story reflects female psychology, the return of hope and faith in life.

Key words: story, lyrical prose, psychology, hope, faith, woman, suffering, soul, gratitude.

“Ma’lumki, har qanday prozaik asarning badiiyligi unda tasvirlangan xarakterlarning mukammalligi bilan belgilanadi. Chunki badiiy asar hayotda sodir bo‘lgan voqealar orqaligina tarix va bugunga baho bermaydi, balki, inson qalbi tahlili vositasida hayot haqida mushohada yuritadi. Boshqacha qilib aytganda, olam va odam xususida o‘z fikr doirasi, nuqtayi nazari hamda hayot tendensiyasini anglash darajasida o‘z fikrini bildiradi, uni kishi ongiga singdiradi, shuuriga shuur qo‘shadi. Yozuvchining bu boradagi bilimi qanchalik chuqur, saviyasi qanchalik keng bo‘lsa, uning qahramoni shunchalik jozibador va ta’sirchan bo‘ladi. Bu hol ayniqsa, lirik prozada yaqqol o‘z ifodasini topadi. Chunki, yuqorida aytib o‘tganimizdek, asarda yozuvchi shaxsiyati birinchi rol o‘ynaydi, ya’ni, asarda harakatda bo‘lgan qahramon o‘y–fikri, xatti–harakatidan tortib, barcha voqealargacha avtor g‘oyasi va tuyg‘usining ifodasi asosiy qahramon ma’naviy dunyosi bilan ohangdosh bo‘lgan xarakterlarni yuzaga keltiradi, ularning xatti–harakati, faoliyati, gap–so‘zi, o‘y–fikri asar syujetini tashkil qilish bilan birga, ularning konsepsiyasini belgilaydi. Shu sababli, lirik prozadagi qahramonlar avtor ruhiga yaqin bo‘ladi, chunki, ular avtor kechinmalarining ayrim tomonlarini o‘zida ifodalaydi. Xuddi mana shu xususiyatlar lirik proza qahramonining o‘ziga xosligini belgilaydi. Shuningdek, uning boshqa prozaik janrdagi asarlar qahramonidan farqli personaj va qahramonlari tuyg‘ular olami boy, ehtiroslari kuchli bo‘lishi hamda bu xususiyatlarini tashqi va ichki monologlarda ifodalashidadir”. Bunga misol tariqasida so‘nggi yillarda nasrda ijod qilayotgan shoira Halima Ahmedovaning hikoyalaridan misol keltirish mumkin.

Ma’lumki, hikoya kichik hajmli bo‘lsa ham juda katta ma’noga ega. Ayniqsa, hikoya janri Amerika adabiyotida juda muhim ahamiyatga ega. Hatto, XIX asr boshlarida hikoya milliy janr darajasiga ko‘tarilgan va bu haqida Bret Gart shunday degan edi: “Amerika adabiyotining milliy janri”dir.

Halima Ahmedova ijodining bir qismiga aylangan hikoyalarida ko‘proq yozuvchi ayol ruhiyati, uning ong–u shuurida bo‘ladigan o‘zgarish, kechinmalarini yorqinroq ko‘rsatishga harakat qilgan. Masalan, uning “Umid darichasi” nomli hikoyasi ayol ruhiyatida bo‘ladigan turli kechinmalarni ifodalab bergan. Ushbu hikoyada yozuvchi o‘z dunyoqarashi va hissiyotlari orqali ayol ruhiyatining turli holatlarda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Mazkur hikoyada to‘rt ayol obrazi gavdalantirilgan. Ularning har biri o‘zgacha olam, har biri alohida xarakterga ega qahramonlar. Aslida qo‘shni ayol Ziyodaxon, bosh qahramon Risolat xolaning qizi Barno va ko‘pqavatli uyda istiqomat qiliuvchi ayolga unchalik ahamiyat qaratilmagan. Ularning biri o‘z oilasi bilan bo‘lib onasiga doim vaqt ajrata olamagan qiz, oddiygina, lekin mehnatiga yarasha haq olsa tilidan bol tomadigan qo‘shni ayol va o‘zi sezmagan, anglamagan holda bir xastaga umid bag‘ishlagan ayol. Hikoyaning bosh qahramoni Risolat xola esa, butunlay boshqacha holda, voqea boshida yura olmaydigan bir kampir sifatida o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantiriladi. Uning yeyish–ichishi, umumiy ahvoli haqida qo‘shnisi Ziyodaxon xabar olib turadi. Risolat xola kasalligi sabab, ya’ni oyoqlarining ishlamasligi tufayli hayotdan butkul umidini uzgan ayol edi. Shu sabab u har kuni turli ruhiy holatlarni va tushkunliklarni qalbidan o‘tkazardi. Uning ming bir uyat, xo‘rlikni his qilgan holda qo‘shnisiga murojaati buni tasdiqlaydi: “…Va nogahon oyoqlarining falajligi yodiga tushdi. Yonida turgan telefonni olib, tanish raqamlarni terdi:

– Allo, eshitaman, — dedi tanish ovoz.

Kampir xo‘rlik, uyat, andisha suvini shimgan mahzunlik bilan:

– Ziyodaxon, men Risolat xolangizman. Agar iloji bo‘lsa, oldimga chiqing, — dedi. Shu gapni aytdi–yu, butun jismini ismsiz alanga kuydirgandek bo‘ldi”. Bunda ayol qalbida kechayotgan hislarni o‘quvchi hikoyani o‘qir ekan, uni anglay boshlaydi. O‘z holatidan nolir ekan, uning qushlarga, hattoki oddiy bir kichik hasharot, pashshaga havasi kela boshlaydi. *(Derazadan uchib kirgan yo‘l pashsha kampirning yuziga qo‘ndi. U pashshani qo‘li bilan silkib haydadi. Va shu holatida pashsha ham undan baxtliroq ekanini his qildi. Ayni damda o‘sha pashshaga ham aylanishga rozi edi…)* 164–b.

Shu kabi holatlarga bir necha bor tushgan Risolat xolaning qalbi har safar iztirob chekib, azoblanardi. Bunday holat bir kuni Ziyodaxonning mehnatiga yarasha haqni olib, o‘z yumushlarini tugatib deraza pardalarini ko‘tarib *(o‘zi bilmagan holda ayol ko‘nglini ko‘tarib)* ketgunicha bo‘ldi. Parda ko‘tarilishi bilan kirgan yorug‘lik xona bilan birga ayol ko‘ngliga ham iliqlik olib kirdi. *(Ketish oldidan uyning pardalarini ikki yonga surib qo‘ydi. Xonaga quyoshning nuri o‘ynoqlab–o‘ynoqlab kirdi. Kampirning ko‘ngli nurga to‘ldi.)* 163–b.

Hammasi shundan boshlandi… ayol tabiatni kuzatarkan, bevosita o‘zi bilmagan holda atrofga qarashi, ruhiy holati ham o‘zgarib boraverdi. Ayniqsa, o‘ziga qarama–qarshi turgan ko‘pqavatli uyning derazasidan ko‘ringan ayolni kuzatishni boshlagan vaqtdan boshlab. Dastavval u ayolga shanchaki kuzatuvchan nigoh bilan boqqan bo‘lsa, keyinchalik uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatishga o‘tdi. Shunchalik kuzatishga berilib ketganidan, ozroq vaqt bo‘lsa ham qolishini istagan qo‘shnisini ham, kelganida xursand bo‘lib ketadigan qiziga ham e’tibor bermay qo‘yadi. Chunki u endi yolg‘iz emas edi. U endi qarshisidagi hayot va umid barq urib turgan deraza bilan birga edi. Endi uning butun fikr–u xayoli birgina uyga, birgina ayolga qaratilgan edi. Uni ko‘rolmay qolsa tashvishlanadigan, u haqida tinimsiz o‘ylaydigan bo‘lib qoladi. Bu orada ko‘rganlari asosida uning oilasi haqida birozgina bo‘lsada taassurotga ega bo‘ldi. Uning Nozimjon ismli o‘g‘li, turmush o‘rtog‘i va kichik farzandi borligini bilib oldi. Mana shu kuzatishlar kampirga kundan–kun yangi umid, ilinj berardi. Chunki ayolning har bir harakati kampir nazdida umidga va baxtga to‘la edi. Mana shu holat kampirga umid, yashashga quvvat baxsh etardi. Shu tariqa kunlar o‘tib, bahor ortidan yoz ham kirib keldi. Kampirning oyoqlari asta–sekinlik bilan harakatga kela boshladi. Unga umid bag‘ishlagan narsa o‘sha deraza va unda ko‘ringan ayol edi. U “umid darichasi” edi.

Hikoyada e’tiborli o‘ziga xos jihatlardan biri shundaki, kampir umidsiz bo‘lib yotgan paytlarida ko‘ziga hamma narsa yomondek, norozi kayfiyatda boqardi. Ammo uning hayotida umid barq urishni boshlagan paytdan boshlab har bir narsa o‘zgacha jilolana boshladi. Ya’ni, har bir narsa ko‘ziga go‘zallashib borayotgandek tuyulardi. Yaratganga shukronalar keltirib, hayotga, yashashga bo‘lgan umid va ishonchi ortib boraveradi. *(Kampir xushbaxt edi. O‘sha derazaga tikilgan paytida vujudiga allaqanday nur oqib kiraverardi. “Bu ham Xudoyimning karomatimi? Balki bu men uchun so‘nggi imkoniyat – umid darichasimi?” deb o‘ylardi ba’zan.)* 169–b.

Hikoyalar qisqa hajmga ega bo‘lsa–da, o‘zida katta ma’no tashiydi. Bu holatni mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor hikoyalarida uchratishimiz mumkin. Yozuvchining ko‘pgina hikoyalari juda qisqa, ammo juda katta ahamiyatga edi. Yuqorida tahlil qilingan Halima Ahmedovaning “Umid darichasi” nomli hikoyasi ham o‘zida xuddi shunday katta ma’noni aks ettirgan. Oddiygina voqea va kuzatish sabab bir ayolning hayotga bo‘lgan ishonchining ortishi, uning hayotga umid bilan boqishi buning isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон консепцияси (70–80 йиллар). – Т.: – 2018, “Yangi nashr”, 215–216–b.

2. Аҳмедова Ҳалима. Шудрингли парчалар (матн). – Тошкент: “Adabiyot” нашриёти, 2024. 384–б, 161–б.

3. Саидов Акмал. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2020. 772–б.



Dilnoza ABDURASULOVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti
Abdurasulovad185@gmail.com

O‘ZBEK QIZLARI NUTQIDA PRAGMATIK INTENSIYANING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada, o‘zbek yoshlari nutqiga xos bo‘lgan ba’zi sleng tushunchalarining pragmatik ahamiyati va ularning tilga salbiy ta’siri o‘rganiladi. Bu mavzu tilning yoshlar orasidagi o‘ziga xos xususiyatlarini va uning rivojlanishdagi muammolarini yoritadi.

Kalit so‘zlar*:* sleng, qizlar nutqi, kommunikativ ekspressivlik, ommaviy madaniyat.

Annotation: this article explores the pragmatic significance of certain slang expressions characteristic of Uzbek youth speech and their negative impact on the language. The topic sheds light on the unique features of language among young people and the issues in its development.

Key words: slang, girls’ speech, communicative expressiveness, mass culture

Аннотация: в данной статье анализируется прагматическая значимость некоторых сленговых понятий, характерных для речи узбекской молодежи, а также их негативное влияние на язык. Эта тема освещает особенности языка среди молодежи и проблемы его развития.

Ключевые слова: сленг, речь девушек, коммуникативная экспрессивность, массовая культура

Tilning asosiy xususiyati – uning ijtimoiy xarakterga ega ekanligidir. Tilning bu jihati orqali ijtimoiy ong, madaniyat va milliy an’analarni ifodalovchi belgilar namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy vazifalar va omillarning til rivojiga ta’siri, shuningdek, bu omillarning til taraqqiyotidagi ahamiyati masalalari nutqda yuzaga kelgan ehtiyojlar asosida shakllanadi. Yosh va jinsga xos xususiyatlar, so‘zlovchilarning nutqida ishlatiladigan lingvistik birliklar bilan birga, ularning fe’l–atvorini ham aks ettiradi va nutqni yanada boyitadi.

Sleng iboralari zamonamizda faoliyat yuritayotgan so‘zlar sifatida tabiiy ko‘rinadi, ammo ularni ko‘pincha adabiy tilda qo‘llash tavsiya etilmaydi. Shuningdek, slenglarning ko‘pchiligi keng ommaga tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Ba’zi slenglar ko‘chma ma’noda ishlatiladi va ko‘pincha bunday birliklar xorijiy tillardan, ularning dialektik varianti va jargonlaridan olingan bo‘ladi. O‘zbek tilidagi slenglar, ayniqsa qizlar o‘rtasida, zamonaviy madaniyatda yangi tendensiyalar, qadriyatlar va hissiyotlarni ko‘rsatish imkonini beradi. Qizlar orasida ishlatiladigan sleng iboralari, ularning shaxsiyatini, xohishlarini va qadriyatlarini aks ettiradi, bu esa ularning hayotida muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat nutq shakllari, balki so‘zlovchi shaxsning fikrlari, hissiyotlari va jamiyatdagi o‘rni haqida ham ko‘plab ma’lumotlarni beradi.

Slenglar til, madaniyat, jins va jamiyat tushunchalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular nafaqat muloqotni boyitadi, balki o‘zaro aloqalarni ham mustahkamlaydi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va gender stereotiplarini yengishda esa muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Sleng — jonli, harakatdagi til shakli bo’lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarishdan ta’sirlanadi. Sleng qo‘llanish doirasiga ko‘ra: hammaga ma’lum va barcha tomonidan qo‘llanuvchi umumiy sleng (general sleng) va muayyan guruhlarga ma’lum bo‘lgan, tor doirada qo‘llanuvchi xususiy sleng (special slang) ga ajraladi.

Qizlar nutqida keng tarqalgan sleng birliklari lingvistik va pragmalingvistik jihatdan qiziqarli, tahlil talab etadigan hodisalardan biridir. Quyida bugungi kunda qizlar nutqida ommalashgan bir qator slenglarni pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz:

— “Marry me” — bu ibora ingliz tilidagi “Marry me” (Menga turmushga chiq) iborasining fonetik o‘zgarishiga uchragan shaklidir. “Marry Me” ya’ni, turmush qurishga taklif qilish marosimi qadimdan kelayotgan ijtimoiy va madaniy odatlarga asoslangan bo‘lib, hozirgi zamonda “romantik taklif” shakliga aylangan.

O‘rta asrlarda Yevropada Ritsarlar qo‘l so‘rash orqali ayollarga sadoqat va muhabbatlarini izhor qilishgan. Bu davrda “tizzada turib qizning qo‘lini so‘rash” urfga kirgan. Tizzada turish O‘rta asrlarda hurmat va sadoqat belgisi bo‘lgan. Ritsarlarning qasamyod holatidan olingan bo‘lib, keyinchalik nikoh taklifining ramziy ma’nosi sifatida o‘tgan.

So‘ngra esa “Will you marry me?” degan jumla odatga aylanib borgan. Uzuk taqdim etish esa abadiy muhabbat

va sadoqatning ramzi sifatida shakllangan. 1947–yilda “De Beers” kompaniyasi “A diamond is forever” (Olmos — abadiy muhabbat) shiori ostida marketing strategiyasini ishlab chiqdi. Shundan keyin olmos uzuk bilan turmush qurish taklifi ommalashdi. Bunga qo‘shimcha tarzda romantik “Marry me” sahnalari dengiz qirg‘oqlarida, restoranlarda kutilmagan syurprizlar orqali amalga osha boshladi.

“Marry me” bu shunchaki so‘z emas, bu — sevgi, sadoqat va bir umr birga yashash niyatining tantanali ifodasi sifatida qabul qilindi. Ko‘p hollarda bu taklif tasvirga olinadi va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinadi.

O‘zbek an’analarida bu ancha rasmiy: sovchilik, rozilik so‘rash, fotiha kabi marosimlar orqali amalga oshadi. So‘nggi yillarda ikki taraf rozi bo‘lgandan so‘ng, kattalarning ruxsati bilan yoshlar “Marry me” tadbirlarini o‘tkazishyapti. Bunda nafaqat uzuk, balki dekoratsiyalar, bejirim liboslar, gullar, shirinliklar, foto va video xizmatlari ham muhim sanalmoqda. Aslida bu yot madaniyat o‘zbek xalqi orasida ham ommalashganiga sabab bularning barchasi qizlarning xohishiga aylandi. Toshkent shahar hududida ancha yillardan buyon “rasmiy uchrashuv” marosimi bo‘lib kelgan. Bunda ikki oila kattalari o‘zaro kelishib olishgandan so‘ng, yoshlar unashtirilgan juftlik sifatida ilk marotaba rasman ko‘rishishgan. Bunda yigitning qo‘lida albatta gul, shirinlik va uzuk bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan yevropaliklarning “Marry me” sahnalari qizlarda katta qiziqish uyg‘otib, “rasmiy uchrashuv” marosimi “Marry me” marosimiga aylanib ketdi. Kuzatuvlarimizda shuni aniqladikki, bu tadbir ishtirokchilari asosan Toshkent shahar hududi vakillari ekan.

— “Look” — bu so‘z ingliz tilidan kirib kelgan va “qaramoq”, “ko‘rmoq” ma’nolarini anglatadi. O‘zbek yoshlari nutqida ba’zan mustaqil so‘z sifatida, ba’zan esa o‘zbekcha gapga inglizcha so‘z qo‘shib ishlatiladi. (Look, bu narsa menga yoqmaydi)


“Look” slengi ingliz tilidan olingan so‘z bo‘lib, odatda ko‘rinish, kiyinish uslubi yoki kiyimlarni anglatadi. Ushbu birlik zamonaviy kontekstda kiyim uslubi va tashqi ko‘rinishni ifodalash uchun ishlatiladi va qizlar o‘rtasidagi keng qo‘llaniladi. Masalan, *Menga jami 5ta **look** kerak. Bittasi Arabic styleda, ikkitasi klassika, ikkitasi casual* https://t.me/c/1570463104/6104 (Shokhida Yusupova’s blogdan olindi).

“Look” slengining o‘zbek yoshlari ishlatilishi orasida ingliz tilidan kirib kelgan “ommaviy madaniyat” ta’sirini ko‘rsatadi. Ular bu birlikni muloqotda qo‘llab, zamonaviy kiyinish uslubini ifodalashda inglizcha terminlarni nutqda ishlatishga moyil ekanliklarini namoyish qiladilar.

Ushbu gapdagi “look” birligi muloqot kontekstida ma’lum bir maqsadga ega. Bunda qizlar ba’zi kiyimlarni birgalikda tayyorlash yoki yangi uslub yaratish jarayonini boshlayotganliklari haqida gapiradilar. Qizlarning bu iborani ishlatishi, bir–biriga do‘stona va samimiy ravishda murojaat qilishining bir ko‘rinishi hisoblanadi. “Look” slengining ishlatilishi, ularga kerakli kiyimni tayyorlash jarayonidagi o‘zaro hamjihatlik va ijodiy yondashuvlarni yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, *“Bugun biz tipichniy kelinskiy **look** yig‘amiz”.* (azizaziyaeva24 blogidan olindi.)

— “GRWM” (Get Ready With Me) — bu ibora to‘rt harfli qisqartma bo‘lib, “Get Ready With Me” (Men bilan tayyorlan) degan ma’noni anglatadi. Bu qisqartma ingliz tiliga oid ifoda shakli bo‘lsa–da, hozirgi kunda o‘zbek qizlari ham nutqlarida ijtimoiy tarmoqlarda ushbu birlikni faol qo‘llamoqdalar. Mazkur leksema so‘zma–so‘z tarjima qilinganda, “Meni bilan birga tayyorlan” ma’nosiga ega bo‘lsa–da, kontekstda “Men tayyorgarlik ko‘rayotgan jarayonni ko‘rsataman” degan ma’noni anglatadi. TikTok, Instagram kabi platformalarda ushbu ibora videolar uchun ishlatiladi. Masalan, “GRWM: to‘yga boraman” degan sarlavha ostida biror qiz o‘zining to‘yga tayyorlanish jarayonini ko‘rsatishi mumkin. Bu ibora auditoriya bilan yaqin aloqa o‘rnatish, e’tiborni keng jalb qilish va “real” hayotni bo‘lishish maqsadida ishlatiladi. *“Bu **“get ready with me”** “marry me”ga…”* (fimanem instagram akkauntidan olindi). *“Bugun bizda uzoq 11 yil kutilgan **get ready with me**”* (gulinozzam instagram akkauntidan olindi). *“Roddomga **get ready with me** ketdik”* (kamasblog instagram akkauntidan olindi).

— “Gender Party” – Mazkur ibora aslida inglizcha “gender reveal party” (bola jinsini e’lon qilish bazmi) iborasining qisqartirilgan shaklidir. Bu ibora o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilinmagan, balki aynan inglizcha holida saqlangan. O‘zbek tilida bu jarayonga mos keladigan an’anaviy atama yo‘qligi sababli, lotincha “gender” so‘zi ijtimoiy leksikonga kiritilgan. Bu ibora ko‘pincha yosh onalar yoki ota–onalar tomonidan ishlatiladi. “Gender party” yangi madaniy fenomen bo‘lib, ommaviy madaniyat orqali O‘zbekistonga kirib kelgan. Qizlar muloqotida ushbu ibora shunchaki bayramni anglatish bilan cheklanmay, balki jamiyatga o‘z hayotlarining muhim lahzalarini namoyish qilish vositasi sifatida ham ishlatiladi.



— “Red flag” so‘zma–so‘z tarjima qilinsa, “qizil bayroq” degan ma’noni bildiradi. Biroq pragmatik jihatdan bu ibora ogohlantirish belgisi, salbiy xususiyat yoki xavfli signallar ma’nosini anglatadi. Asosan, munosabatlar, xarakter va

odatlar haqida gap ketganda qo‘llanadi. Qizlar suhbatida “red flag” iborasi shaxsning salbiy xarakterini ko‘rsatadi yoki potensial xavfni bildiradi. Masalan: “Agar yigit har doim telefonini yashirsa, bu red flag” (Bu yerda “red flag” – shubhali, salbiy harakatni ifodalovchi metaforik tushuncha sifatida ishlatilgan).

Qizlar nutqida xos bu slenglar ingliz tilidan o‘zbek tiliga aynan yoki fonetik, morfologik o‘zgarishlarga uchragan holda o‘zlashgan birliklar bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy madaniyat, mem–kulturaning ta’siri ostida shakllangan va hissiy–ta’sirchan ma’no yuklaydigan iboralardir. Bunday leksemalar asosan yoshlar nutqida tez–tez uchrab turadi va kommunikativ ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi.

— “Green flag” ifodasi so‘zma–so‘z tarjimada “yashil bayroq” degan ma’noni anglatadi. Bu ibora aslida musobaqalar yoki biror narsaning muvaffaqiyatli o‘tishini anglatadigan ramz sifatida ishlatiladi. Yashil bayroq natijalar yoki jarayonning ijobiy, qo‘llab–quvvatlaydigan belgisidir.

“Green flag” iborasi, ma’lum bir kontekstdan kelib chiqib, ijtimoiy munosabatlarda muhim ma’no kasb etmoqda. U ilgari kishilarning muomala munosbatida ijobiy xususiyatlar yoki aloqalarni ifodalovchi metaforik birlik sifatida qaralgan. Ushbu ibora ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlarda va zamonaviy muloqotda ko‘rayotgan turli xil ijobiy jihatlarni belgilash uchun ishlatiladi. *“**Man yashil bayroqman**, chunki bakalavrni tamomlagan bo‘lsam ham, turmush o‘rtog‘im ishlashimni xohlamaganliklari uchun sohamdan butunlay voz kechvorganman”* (@safy_.s blogidan olindi)

“Green flag” iborasi, odatda, biror shaxsning salbiy xususiyatlari yoki harakatlari yo‘qligida kinoya yohud ijtimoiy vaziyatda ijobiy munosabat o‘rnatilishida ishlatiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, “green flag” iborasi ijtimoiy muomalalarda xavfsizlikni, ishonchni anglatadi. Masalan, muayyan shaxsga xos xususiyatlar yoki harakatlar “green flag” deb baholanayotganda, bu insonning ishonchli ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda, “green flag” iborasi “red flag” (qizil bayroq) iborasiga qarshi qo‘yilmoqda, ya’ni biror narsada salbiy belgilar o‘rniga ijobiy ko‘rsatkichlarni ta’kidlaydigan ibora sifatida nutqda tadbiq qilmoqda.

Zamonaviy o‘zbek yoshlarining muloqotida ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar va iboralar keng qo‘llanilib, ular xalqaro madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bilan rivojlanib, yangi madaniy fenomenga aylangan. Bu iboralar, o‘zbek tiliga o‘ziga xos bo‘lgan metaforik va ramziy ma’nolar bilan kirib, kommunikatsiya jarayonida global madaniyat va yoshlar dunyoqarashini ifoda qilishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar orasida keng tarqalgan bu slenglar, bir tomondan, kommunikatsiyani soddalashtiradi va yoshlar bilan hamohang bo‘lish imkonini beradi. Ammo, boshqa tomondan, ularning haddan tashqari ishlatilishi tilning rasmiy va an’anaviy qoidalaridan chetga chiqishiga, tilning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Есперсен О. Речь мужчин и женщин: гендерный аспект. Молодой ученый. 1988.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий–лисоний хусусиятлари. – Ф.: 2021.
3. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: ф.ф.номз. ...дисс. – Т.: 2009.
4. Usmanova Sh, Bekmuhammedova N, Iskandarova G. Sotsiolingvsitika. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Universitet, 2014. 18–b

Азизбой АХТЯМОВ,
Докторант кафедры английской филологии, Ферганского государственного университета (Фергана), Узбекистан

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕЛЕВИЗИОННОЙ РЕКЛАМЫ

Аннотация: в данной статье рассматривается реклама по телевидению в прагмалингвистическом аспекте.

Ключевые слова: текст, понятие текста, свойства текста, реклама, прагмалингвистика.
Annotatsiya: ushbu maqolada televizion reklama pragmalingvistik jihatdan ko'rib chiqilgan.
Kalit so'zlar: matn, matn tushunchasi, matn xususiyatlari, reklama, pragmalingvistika.
Annotation: this article examines television advertising in the pragmalinguistic aspect.
Key words: text, concept of text, properties of text, advertising, pragmalinguistics.

Если при анализе рекламных текстов по радио рассматривались только акустические/звуковые элементы, то работа с рекламой по телевидению требует также работы с визуальными. От анализа печатной она отличается тем, что здесь имеет место быть динамическим картинкам. В отличие от всех вышеперечисленных носителей, реклама на телевидении обладает большими преимуществами для передачи эмоций. У зрителя есть возможность увидеть действие своими глазами, наблюдать за ним и принять решение о его правдоподобности. В отличие от других средств текст может быть начитан, спет, прописан. Голос может быть, как за кадром, так и в нем.

Проведем прагмалингвистический анализ рекламного ролика мармеладных конфет *Marmeliya,* отечественного производителя мучных и сахаристых кондитерских изделий компании *Crafers* [6].

Название: телевизионная реклама мармеладных конфет.

Длительность: 21 сек.


Участники: учительница (УЦ), ученики (отвечают хором) (УК), голос за кадром (ГЗК)

Короткое описание ситуации: на уроке в младших классах учительница предлагает ученикам угадать названия фруктов по картинкам.


01 УЦ: ((звучит веселая ритмичная музыка) (--) xosh bolajonLAR?
02 УЦ: hozir men sizlarGA MEvalarni RASmini ko'rsataman;
03 УЦ: QANI NOmini topingLARCHI?
04 УК: !MARMELI[YA]!-
05 УЦ: [iii]
06 УК: hi hi
07 УЦ: endichi?
08 УЦ: bu mevani nomi nima?
09 УК: marmeliya
10 ГЗК: mevalar haqiqiy shirasini marmeliya marmeladlari ichidan to'ping


"Рис. 1"


"Рис. 2"



“Рис. 3”



“Рис. 4”

(Итак деточки! Сейчас я Вам покажу изображения фруктов. Ну-ка угадайте название! Мармелия. Иии? Хихи. А теперь? Как называется данный фрукт? Мармелия! Найдите настоящий сок фруктов внутри мармеладов Marmeliya”.)

В первой ступени анализа проанализируем внеекстовые факторы строения текста. Мармелады “Marmeliya” выпускаются отечественной компанией “Crafers”, которая занимается производством мучных и сахаристых кондитерских изделий. Она является сравнительно молодым брендом в области производства кондитерских изделий. Ее открытие состоялось в 2018 году. Была запущена продажа кондитерских изделий по Ташкенту, а после распространение продукции по всем регионам республики. Компания производит более 155 видов кондитерских изделий, которые продаются на рынках Узбекистана и странах СНГ [6]. Конкуренция в данной области очень высокая. В стране производством кондитерских изделий занимаются такие компании как “Sladus”, “Krember”, “Candy Gold” и др. Кроме того, не стоит забывать о товарах, которые импортируются в Узбекистан. Цель рассматриваемого рекламного ролика заключается в продвижении нового продукта. Вовлечение получателя рекламы осуществляется активным образом.

Перейдем к изучению внутритекстовых факторов при прагмалингвистическом анализе рекламного текста. Название компании по форме относится к искусственным, так как самым близким словом является *crafter* (ремесленник). Его можно было бы приписать к концептуальным формам названий, которым свойственно деформация слова (*Schaum* – пена, Schauma – название шампуня), но в указанной рекламе, между названием и самим продуктом, происходит полное смысловое отчуждение. Это дает нам основание отнести его к искусственным названиям. Сам рекламный текст состоит из 10 предложений, который представляется в форме диалога, переходящий в монолог с голосом за кадром. Предложения между собой связываются через эксплицитнык и имплицитные связи. Если при прагмалингвистическом анализе печатной рекламы мы на этом месте рассматривали виды знаков, а при анализе радиорекламы роль звукового сопровождения, то при работе с телевизионной считается целесообразным рассмотреть и визуальные и звуковые элементы.

Здесь также стоит учесть, что при использовании аналитической системы транскрипции разговоров в нее могут быть внедрены картинки. Но при работе над рекламой по телевидению и радио стоит также обратить внимание на звуковую составляющую. Здесь мы обратимся к работе Х. Штокла, о который мы писали выше. Учитывая подходы перечисленных исследователей мы пришли к выводу, что посредством их синтеза можно более подробно описать процесс коллаборации звуковых и визуальных элементов данной рекламы.

Фоновая музыка очень ритмичная и веселая. В ролике в правом верхнем углу виден буквенный товарный знак. Мы предполагаем, что исходя из предмета рекламы, была выбрана именно знакомая для детей среда. Показаны следующие кадры из класса: общая картина с учительницей и учениками, кадр смирно сидящих учеников, два отдельных кадра с учительницей, изображение яблока, кадр с детьми, обратно кадр с удивленной учительницей, кадр смеющегося ученика, кадр с учительницей и изображением малины, кадр с

ученицей, второй кадр удивленной учительницы, кадр с изображением яблока и лимона, переходящий в изображение мармелада. Кроме того, в рекламном ролике название продукта повторяется в естественной форме два раза (момент, когда учительница переспрашивает) и отдельно еще один раз.

При рассмотрении рекламного ролика в третьей ступени анализа обратим внимание на такие слова как *haqiqiy shirasini* (настоящий сок) и кадры с изображением фруктов и их сливание в мармелад. Если деннотатом является сок фруктов, то коннотатом здесь выступают полезность, натуральность, вкусность фруктового сока. Это можно проследить как в начале ролика, где вместо названия фрукта ученика произносят название мармелад, так и при просмотре кадра сливания яблока и лимона. Именно в момент сливания звучит *mevalar haqiqiy shirasi* (настоящий сок фруктов). Тем самым происходит сочетание языкового и визуального частичного текстов.

Аргументация, которая изучается в нашей модели прагмалингвистического анализа в первой ступени синтеза, основана на энтимеме и демонстрации примера. Содержание натурального сока в мармеладе преподносится как неоспоримый аргумент. Значит, следует умозаключение, что мармелады содержат натуральный сок и для их нахождения стоит купить рекламируемый продукт. Отдельная функция убеждения заключается в кадре, где в мармелад сливаются яблоко и лимон. Данный вид аргументации относится к товару, который называет свойство продукта.

Во второй ступени синтеза проанализируем соотношения внутритекстовых и внетекстовых факторов. Здесь учтены следующие функции рекламного текста: указано наименование продукта, продукт предписан к определенной марке, перечислено свойство продукта, показана упаковка, особо отмечены свойства продукта (натуральный сок), вызваны положительные эмоции (посредством звукового сопровождения). Подводя итоги стоит отметить, что преследуемой целью стоит считать не только продвижение нового продукта, но образование или укрепление имиджа компании, которая презентует свои продукты в свете натуральности.

Таким образом, в результате проведенного прагмалингвистического анализа рекламного ролика мармеладов *Marmeliya* мы пришли к выводу, что выполнение основных свойств рекламного текста может происходить в естественной форме. Момент, в котором учительница переспрашивает учеников, служит для запоминания названия продукта, не случается многократного, назойливого и неестественного внедрения названия продукта в рекламный текст. Сочетание визуального и языкового частичных текстов служит для усиления функции убеждения отдельных элементов. Употребления полноценных слов как *haqiqiy* (натуральный), усиливает перлокутивный акт, а предоставление факта содержания натурального сока в форме неоспоримого аргумента, служит успешному подталкиванию покупателей к нужному умозаключению, т.е. к покупке данного товара.

Список использованной литературы:

1.Brinker K. Linguistische Textanalyse. Eine Einführung in Grundbegriffe und Methoden. – Berlin: Erich Schmidt, 2001. – S. 16-20.

2. Brinker K. Linguistische Textananalyse. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2014.

3. Staigmiller P. Aspekte der linguistischen Operationalisierung werblicher Kommunikation: Dok. Diss. …. – Dortmund, 1989.

4. Stern B. A Revised Communication Model for Advertising. Multiple Dimensions of the Source, the Massage, and the Recipient // S. journal of Adversiting 23/2. – S. 5-15.

4. Stöckl H. Werbung in Wort und Bild. Textstil Und Semiotik englischsprachiger Anzeigewerbung. – Frankfurt am Main, 1997. – S. 71-77.

http://crafers.uz/produkcziya/marmelad/ 133

Ulug‘berdi PARDAYEV,
ALFRAGANUS UNIVERSITY
Sharq filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi
E–mail: messi13pardayev@gmail.com

DIL VE ÜSLUP: AZIZ NESIN’IN KISA HIKAYE FORMUNDA SADELIK SANATI

Özet: Aziz Nesin’in kısa hikâyelerinde sadelik sanatı olarak adlandırılan dil ve üslup özellikleri; kısa cümleler, gündelik dil kullanımı, ekonomik betimlemeler ve tek cümlelik mizahi taşlamalar üzerinden incelenmiştir. Bu çalışma, dört hikâye örneği üzerinden sadelik sanatı kavramını ele alır ve okur üzerinde oluşturduğu etkileri tartışır.

Anahtar Kelimeler: Aziz Nesin, sade anlatım, kısa hikâye, mizah, ironi, toplumsal eleştiri, ekonomik betimleme

Annotatsiya: Aziz Nesinning qisqa hikoyalarida “soddalik san’ati” deb ataladigan til va uslub xususiyatlari qisqa gaplar, kundalik tilda ifoda qilish orqali o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot to‘rt hikoya misollari asosida soddalik san’ati konseptini ko‘rib chiqadi va uning o‘quvchida yaratadigan ta’sirini muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Aziz Nesin, soddalik ifoda, qisqa hikoya, hazil, ironya, ijtimoiy tanqid, iqtisodiy tasvirlash

Аннотация: языковые и стилистические особенности, именуемые “искусством простоты”, в коротких рассказах Азиза Несина исследованы через призму коротких предложений, разговорной речи, экономных описаний и однострочных юмористических колкостей. В данной работе на примере четырёх рассказов рассматривается концепция “искусства простоты” и обсуждаются её влияния на читателя.

Ключевые слова: Азиз Несин, простое изложение, короткий рассказ, юмор, ирония, социальная критика, экономное описание

Bu makalede, Nesin’in kısa hikâye formunda “sadelik sanatı” dediğimiz dil ve üslup özellikleri incelenecek; seçilen dört hikâye üzerinden yazarın basit cümle kurma, gündelik konuşma diline yaslanma ve ekonomik anlatım tekniklerinin nasıl işlediği gösterilecektir. Böylece, sade anlatımın arkasındaki ustalıklı kurgunun izini süreceğiz.

Sadelik Sanatı Nedir?

“Dil ve üslup” dediğimizde akla hemen süslü, şiirsel imgeler gelebilir; oysa Nesin, tam tersine “ne kadar az, o kadar çok” ilkesini benimser. Sadelik sanatı, sözcük sayısını kısaltmaktan ibaret değildir; anlamı yoğunlaştırmak, gereksiz bağlaçları arındırmak ve okuyucuyu düşünceye yönlendirecek boşluklar bırakmak bu sanatın temel öğeleridir (Öner, 2015, s. 50).

Kısa cümleler: Nesin’in cümleleri genellikle özne-yüklem odaklıdır; yan cümlecikler nadir kullanılır.

Gündelik dil: Halk ağzından deyimler, argo ve mizahi taşlamalar metne samimiyet katar. Ekonomik betimleme: Mekân ve karakter tanıtımları, okuyucunun hayal gücünü devreye sokacak biçimde özetlenir. Bu üç öğe, “sadelik sanatı” kavramını oluşturan iskeleti oluşturur.

Kısa Cümlelerle Kurulan Hızlı Anlatım

Nesin, hikâyelerinde tempoyu yüksek tutar. Uzun tasvirler yerine, kısa, ritmik cümlelerle okuyucuyu diyalog ve eylem eksenine çeker: “Hikâyenin başında berber dükkânı bomboştu. Kapı camı kırık, sandalyeler darmadağın.” (Nesin, 1972, s. 12). Bu iki cümlede önce mekân, ardından da mekâna dair çarpıcı detay verilir. Okuyucu, gereksiz sıfatlardan arınmış bir sahneyi zihninde hızla kurgular. Böylece, “darmadağın” gibi tek bir sözcük, uzun bir tasvir yerine geçer.

Gündelik Konuşma Dili ve Okurla Kurulan Samimi Bağ

Aziz Nesin’in en güçlü tarafı, “üstten” konuşmaması, okuruyla aynı masaya oturur gibi rahat bir dil kullanmasıdır. Diyaloglar, sokaktaki insanların ağzındaki gibidir:

“Adam diyor ki: ‘Ne işin var burada, gel de anlat şu halimizi!’” (Nesin, 1974, s. 27). Bu örnekte görüldüğü gibi, “diyecek ki” kalıpları yerine doğrudan “diyor ki” öbeği kullanılabilir; tırnak içinde verilen konuşma, keskin bir nüktelilik katar. Böyle bir anlatım, metnin

“edebi” değil “anlatı” alanında kalmasını sağlar ve okurda samimi bir gülümseme uyandırır (Yavuz, 2018, s. 102).

Betimleme Az, Etki Çok

Sade anlatımın en temel özelliklerinden biri, nesneleri ve duyguları tek bir vurucu sözcükle resmetmektir. Uzun arka plan bilgileri yerine, okuyucunun zihninde patlayacak bir sözcük tercih edilir:

• “Sis perdesi” (Nesin, 1980, s. 8)

• “Yorgun bakışlı adam” (Nesin, 1972, s. 14)

• “Suskun mahalle” (Nesin, 1986, s. 33)

Bu yalın tanımlar, her okuyucunun kendi zihninde farklı ton ve renklerle genişler. Metin, boş bir tuval gibidir; Nesin, tuvali hedefe yönelik birkaç fırça darbesiyle tamamlar.

İroni ve Mizahın Ekonomik Taşlamaları

Aziz Nesin’in iki temel silahı vardır: iğneleyici ironi ve keskin toplumsal taşlama. Bunlar da genellikle tek cümlelik paragraflarda, bağlaçsız ve belirgin bir vurguya sahip biçimde sunulur: *“Bakırcı başı mahkemeye davet etmiş, ‘Mahkemeyi parlatın da gören olsun’ demiş.”* (Nesin, 1974, s. 82)

Burada *“parlatın”* fiili, hem mecazi hem gerçek anlamıyla devreye girer; böylece “mahkeme” sözcüğünün toplumsal işlevi hicivle harmanlanır. Uzun eleştiriler yerine tek bir can alıcı fiil, okuyucunun yüzünde alaycı bir tebessüm bırakır (Öner, 2015, s. 61).

Seçilen Hikâyeler Üzerinden Kısa Vaka Analizi

7.1. “Bir Temizlik Berberi” (Nesin, 1972)

– **Dil Kullanımı:** Diyaloglarda sade soru-cevaplar, betimlemede tek sözcüklü sıfatlar.

– **Örnek:** *“Misafir gelmiş ama çayı soğuk”* (s. 17) — soğukluk, hem fiziksel ortam hem ilişkilerin durgunluğu anlamını taşır.

7.2. “Son Kahveci” (Nesin, 1980)

– Ritim: Paragraflar arası tek satırlık boşluklar, tempoyu hızlandırır.

– Örnek: *“Zaman bir kahve fincanı kadar çabuk bitti”* (s. 45) — simetri, zamana dair algıyı yoğunlaştırır.

7.3. “Mahallenin Muhtarları” (Nesin, 1986)

– Gündelik Argo: “Lan oğlum” kalıpları, resmi olmayan rengiyle karakterleri canlı tutar.

– Örnek: *“Lan oğlum, ne muhtar, nereye muhtar!”* (s. 59) — argo, hem mizah hem toplumsal eleştiri katmanı ekler.

Sadelik Sanatının Okur Üzerindeki Etkisi

Nesin’in sade üslubu okuru üç temel düzeyde etkiler:

1. Hızlı Okuma ve Anlama: Karmaşık cümleler yok; okuyucu temayı anında kavrar.

2. Empatik Bağ: Gündelik dil, okurun kendi hayatından kesitler bulmasını sağlar.

3. Kalıcı Mizah: Aklı uzun süre meşgul etmeyen, ama düşündüren tek cümlelik taşlamalar hafızada kalır (Yavuz, 2018, s. 110).

Sonuç: Aziz Nesin’in kısa hikâyelerinde sadelik, bir eksiklik değil bilinçli bir tercih ve ustalık göstergesidir. Kısa cümlelerle kurduğu hızlı anlatım; gündelik konuşma diliyle kurduğu samimi bağ; tek sözcükle yaptırdığı etkili betimlemeler ve bir cümlelik iğneler, onun “sadelik sanatı”nı oluşturur. Bu sanat, toplumsal eleştiri ve mizahı erişilebilir kılarak hem geniş kitlelere ulaşmasını sağlamış hem de Türk edebiyatında benzersiz bir üslup yaratmıştır.

Kaynakça

1. Nesin, A. (1972). Dertleşen İnsanlar. İstanbul: Nesin Yayınevi.
2. Nesin, A. (1974). Zübük. İstanbul: Nesin Yayınevi.
3. Nesin, A. (1980). Son Kahveci. İstanbul: Nesin Yayınevi.
4. Nesin, A. (1986). Mahallenin Muhtarları. İstanbul: Nesin Yayınevi.
5. Öner, B. (2015). “Aziz Nesin’in Mizah Dili ve Toplumsal Eleştiri Üslubu.” Mizah Edebiyatı Dergisi, 10(3), 45–68.
6. Yavuz, G. (2018). “Hicivden Satire’a: Türk Mizahının Dönüşümü.” Türk Edebiyatı Araştırmaları, 12(1), 99–122.
7. Köse, U. (2011). “Türk Kısa Hikâye Sanatı ve Aziz Nesin.” Edebiyat İncelemeleri Dergisi, 15(2), 25–50.

Sohiba ABDURAXMONOVA
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti tayanch doktoranti
abduraxmonovasohiba@gmail.com

PSIXOLINGVISTIKADA BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar nutqining psixolingvistik jihatdan o‘rganilishiga bag‘ishlangan xalqaro va milliy ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi. Xususan, Rossiya psixolingvistika maktabi tomonidan taklif etilgan ijtimoiy-psixologik yondashuvlar hamda Yevropa va AQSh olimlari tomonidan ishlab chiqilgan biologik va kognitiv nazariyalar bolalar til o‘zlashtirish jarayonining muhim omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda so‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar, jumladan, bolalar nutqini leksik, grammatik va fonetik jihatdan o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlar haqida ham ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: bola nutqi, psixolingvistika, til o‘zlashtirish, nutq bosqichlari, ontogenez.

Annotation: this article analyzes international and national scientific researches devoted to the psycholinguistic study of children’s speech. In particular, socio-psychological approaches proposed by the Russian school of psycholinguistics and biological and cognitive theories developed by European and American scientists are considered as important factors in the process of language acquisition by children. Also, the article provides information about the research conducted in Uzbekistan in recent years, including the work done on the lexical, grammatical and phonetic study of children’s speech.

Key words: child speech, psycholinguistics, language acquisition, stages of speech, ontogenesis.

Аннотация: в данной статье анализируются международные и отечественные научные исследования, посвященные психолингвистическому изучению детской речи. В частности, важными факторами в процессе овладения языком детьми считаются социально-психологические подходы, предложенные российской школой психолингвистики биологические и когнитивные теории, разработанные европейскими и американскими учеными. Также в статье представлена информация об исследованиях, проводимых в Узбекистане за последние годы, в том числе проделанной работе по лексическому, грамматическому и фонетическому изучению детской речи.

Ключевые слова: детская речь, психолингвистика, овладение языком, этапы речи, онтогенез.

XX asrning o‘rtalariga kelib psixolingvistikaning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanishi natijasida nutq ontogenizini o‘rganishga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Buning natijasida G‘arbda bola nutqi rivojini kuzatgan holda turli ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Bolalar nutqi mavzusi zamonaviy dunyo tilshunosligida yetakchi o‘rinlardan biridir. Bolalar nutqini o‘rganish ilk G‘arbda boshlangan va taraqqiy etgan bo‘lib, uning ta’siri Rossiyada XX asrning 20-yillarida ko‘ringan edi. Rossiyada ontolingvistika (bola nutqini o‘rganish) bilan dastlab Peterburg psixonevrologik instituti xodimlari shug‘ullanganlar. 1912-yilda institut tomonidan “bola nutqini kuzatish va o‘rganish” dasturi loyihasi ishlab chiqilib, uning maqsadi bola nutqini o‘rganish va kuzatishga qaratilgan edi. Tilning ontogenezini o‘rganuvchi sohasida zamonaviy ontolingvistika mutaxassisi A. N. Gvozdevning go‘dakni ona tilini egallashi haqidagi qarashlarini eslatib o‘tish joiz. Gvozdev ontolingvistikaning haqiqiy tadqiqotchisi sifatida o‘g‘li Jenyaning ilk so‘zlarini to‘qqiz yoshga to‘lguniga qadar batafsil yozib boradi va mazkur materiallar bazasida ko‘pgina fundamental ishlarni taqdim etadi. XIX asrning boshlariga kelib rus tilshunosligida bola nutqining alohida fan sifatida o‘rganilishi boshlandi. Rus tilshunosi B.de Kurtene bolalarning nutq faoliyatini alohida o‘rganishni taklif qildi. Uning qarashlarini L.Vygotskiy rivojlantirdi. XIX asrning 60-70-yillarida psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi bolalar nutqini o‘rganishga yanada keng imkoniyat yaratib berdi. Shu vaqtdan boshlab G‘arb tilshunosligida bola nutqini kuzatish orqali turli tajribalar asosida tadqiqotlar qilindi. L.Vygotskiy bilan hamkorlikda A.Luriya o‘z tadqiqotlarida bolalardagi nutq va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rgangan. Ular nutqning nafaqat aloqa vositasi, balki fikrlashni shakllantiruvchi psixik vosita ekanligini isbotlaganlar. A.Luriya nutq orqali bola aqliy faoliyatini boshqarish, o‘zini nazorat qilish va muammoni hal qilishni o‘rganishini ko‘rsatgan.

Bola nutqi rivojlanish masalalari faqat filologlar tomonidan o‘rganilmadi, ushbu masalalar psixologlarni ham qiziqtirdi. Vygotskiy, Leontyev, Jinkin kabi psixologlar o‘z e’tiborlarini nutqiy rivojlanish evolyutsiyasini xotira, fikrlash kabi idrok jarayonlari evolyutsiyasi bilan muvofiqlik masalasiga qaratdilar. Shvachkin ishini alohida aytib o‘tish joizki, rus bolasining fonomatik idrokining qonuniy shakllanishlarining paydo bo‘lishini o‘rganadi. Peterburg bola nutqi lingvistika maktabi Seytlin rahbarligi ostida arzigulik yutuqlarga erishdi, aynan, 1977-yilda ontolingvistika atamasini taklif etdi. Olima A. Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika unversitetining maktabgacha tarbiya fakultetida birinchi bor Rossiyada bola nutqi kafedrasi tashkil qilindi. Laboratoriyada keng qamrovli ma’lumotlar fondi bo‘lib, u nutq, ota-onalar kundaliklari, video va audioyozuvlardan tashkil topdi. S.N. Seytlin rahbarligida bola nutqi kursi dasturi ishlab chiqildi, bu dasturdan bugungi kunda Rossiya universitetida foydalanib kelinmoqda.

Jahon tilshunosligida J.Berko, R.Braun, E.Klark, E.Beytes, M.Perroni, U.Stefani kabi olimlar tomonidan bolalar nutqidagi til o‘zlashtirish jarayonlari turli tillarda o‘ziga xos tajribalar orqali o‘rganilgan. R.Braun morfemalarni o‘zlashtirish rivojiga bag‘ishlangan tadqiqotida ingliz tili ona tili bo‘lgan 3ta bolaning (bolalardan biri 18 oylik, qolgan ikkitasi 27 oylik) nutqini 10-12 oy davomida kuzatgan, hamma 14 ta morfemani o‘zlashtirish tartibini aniqlagan. R.Braunning tadqiqotiga asoslanib, J.Villiers va P.Villierslar 16-40 oylik 21 ta bola bilan bir martalik tajriba o‘tkazishgan. Ular bolalarning bergan javoblarida muayyan qo‘shimchaning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashga uringanlar.

Ushbu tadqiqotdan keyin morfemalarni o‘zlashtirish qatorini aniqlashda ikki usul: muayyan vaqt oralig‘ida qo‘shimchalarning nutqda voqealanish rivojini kuzatish hamda bir martalik tajriba-sinov asosida nutqdagi har bir morfema foizining o‘rtacha hisobi aniqlanib, ularni tartiblash usuli yuzaga keldi.

Ingliz tilshunosligida tilni o‘zlashtirishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar o‘tkazildi. Ulardan biri A.Fathman 20 ta turli matnlar orqali tajriba o‘tkazib, bolalarda chet tilini o‘zlashtirish ona tilidek bir xil ekanligini asosladi.

Qozoq tilshunosligida esa, A.Aldaberdikizi, R.Abdiyeva, J.Nogaybayeva, A.Shinibayevalar qozoq tilining ona tili sifatida o‘zlashtirilishi, shuningdek qozoq tilining ikkinchi til sifatida o‘zlashtirilishi jarayonlarini o‘rganib chiqqan. Shuningdek, bolalar nutqi sintaksisi, fe’l shakllarining o‘zlashtirilish jarayonlarini O‘rganish uchun T.Ayapova, D.Aldabergenova tomonidan bir qancha tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Xorijiy manbalardan tajriba sifatida foydalangan holda, o‘zbek tilshunosligida O.Umarxo‘jayeva, N.Sayidiraximova, G.Iskandarova, M.Qurbonova va O.Saidaxmedovalar tomonidan bolalar nutqini qator tadqiqotlarda kuzatilgan va o‘zbek tilining birinchi til sifatida fonetik, grammatik xususiyatlari, lingvistik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik va psixolingvistik jihatdan tadqiq etilgan. O‘zbek bolalar nutqida kuzatiladigan ayrim fonetik o‘zgarishlar va grammatik xususiyatlar, shuningdek, bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik talqiniga bag‘ishlangan.

O‘zbek tilshunosligida bolalar muloqotida nutqiy akt turlarining voqealanishi, deyksis va presuppozitsiyaning leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi, konnotatsiyaning yuzaga kelish masalalari M.Qurbonovaning doktorlik dissertatsiyasida tadqiq etildi. Bu ishda bolalar nutqi o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib pragmatik omillarga tayangan.

Ontolingvistikaga doir tadqiqotlarda bolalar nutqini bevosita kuzatish hamda ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘tkazilgan maxsus tajribalarda to‘plangan daliliy materiallar tahlilga tortilgan. Ularda bolalar tomonidan ona tilining fonetik tizimi, grammatik imkoniyatlari, shuningdek, ikkinchi tilning o‘zlashtirilishi jarayonidagi muammoli jihatlar, bolalar nutqida kuzatilgan o‘ziga xos leksik-semantik birliklar, lingvistik, linvokulturologik hamda genderologik aspektlar o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida bolalarda qo‘shimchalar o‘zlashtirilish tartibini aniqlash maqsadida O.Saidaxmedova tadqiqot olib borgan. Olima tadqiqotida til o‘zlashtirish jarayonini tavsiflab, qo‘shimchalar o‘zlashtirish tartibiga ta’sir qiluvchi xususiyatlarni aniqlagan. Tadqiqot ikki turdagi tajriba kuzatuv asosida o‘tkazilgan. Tajriba-kuzatuvga jismoniy va ruhiy sog‘lom hamda nutqi me’yorda rivojlanayotgan bolalar tanlab olingan.

Tilshunosligimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqotga kirishish xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, ushbu mavzuga oid amaliy, nazariy xulosalar G. Iskandarovaning qator maqolalarida o‘z aksini topgan. G.Iskandarova bolalarning 6 oydan 4 yoshgacha bo‘lgan davrini lisoniy jihatdan tahlil qilgan.

90-yillarning oxiridan boshlab, o‘zbek tilshunosligida L.Vigotskiy, A.Leontyev, A.Soxin, M.Shaxnarovich, I.Negnevitskaya va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan qoidalarga tayangan holda, M.Qodirovaning ilmiy rahbarligi ostida ona tilida va shu bilan birga chet tillardagi nutq ontogenezi qirralarini tadqiq qilish ishlari olib borilmoqda. Xususan, D.Babayeva tomonidan maktab yoshidagi katta bolalarni atrof-

olam bilan tanishtirish jarayonida ularda nutqni (ona tili-o‘zbek tilida) o‘stirish, N.Nurmuhammedova tomonidan ikki tillilik sharoitida bilingval bolalarda ravon nutqni (rus tilida) rivojlantirish, Sh.Sharipova tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda vaziyatli o‘yinlar asosida nutqiy muloqot (rus tilida) madaniyati ko‘nikmalarini tarbiyalash masalalari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Rossiya va Yevropa psixolingvistika maktablarida bolalar nutqining o‘zlashtirilishi masalasi keng qamrovda o‘rganilib kelmoqda. Rossiya olimlaridan L. Vygotskiy, A.Luriya, A.Shaxnarovich, A.Gvozdev singari tadqiqotchilar bola nutqining ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liqligini asoslab bergan bo‘lsalar, Yevropa olimlari, xususan N. Chomsky, J. Piaget, E. Clark, B. Bloom kabilar til o‘zlashtirishda biologik va kognitiv yondashuvlarni ilgari surishgan. Ushbu tadqiqotlar bolalar nutqi rivojining universal bosqichlarini aniqlash, til o‘zlashtirish mexanizmlarini tushunish, hamda zamonaviy eksperimental va korpus metodlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur tajribalar O‘zbekistonda ham bolalar nutqini o‘rganish metodikasini ilmiy asoslash, til rivojlanishini monitoring qilish hamda milliy til korpuslarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda bu boradagi tadqiqotlar so‘nggi yillarda faollashmoqda. Bolalar nutqiga oid ilk ilmiy izlanishlar psixologiya va pedagogika doirasida olib borilgan bo‘lsa-da, hozirda tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuvlar kengaymoqda. Masalan, o‘zbek tilidagi bolalar nutqini fonetik, leksik va grammatik bosqichlarda o‘rganish, nutqiy kompetensiyalarni baholash, nutq taraqqiyotidagi normativ mezonlarni aniqlash kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy metodologiyalar asosida o‘zbekcha bolalar til korpusi yaratish bo‘yicha amaliy ishlar boshlanmoqda. Bu esa nafaqat bolalar tilini tizimli o‘rganish, balki til o‘rgatish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aldaberdikyzy A.Lexical interferences of kazakh – Russian bilingual children of preschool age:A socialinguistic survey\Procedia – Social and Behavioral sciences, 2013. 1885-1888.
2. Abdeyva R.S., Nogaybaeva J.A., Shynbaeva A.S Kazakh language acquition and translation from a foreigners perspective : a case study with English speaking residents\https:www.science – sd.com
3. Clark E. V. *First language acquisition* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
4. De Villiers J., Villiers P.A cross-sectional study of the asquistion of grammatical morphemes in child speech.Journal of Psycholinguistic Research, 2, 1973. 267-278 P.
5. Fathman A. The relationship between age an second language productive ability. Language Learning,24(1), 1975. 245-253 P.
6. Искандарова Г. Болалар мулоқот хулқининг гендер ва лингвокультурологик хусусиятлари. ЎзМУ хабарлари. – Тошкент: Университет, 2015. № 1 2. 200-203-b.
7. Luria, A. R. *Language and cognition*. Washington, DC: V. H. Winston & Sons, 1970.
8. Piaget, J. *The language and thought of the child* (M. Gabain, Trans.). London: Routledge & Kegan Paul, 1959. (Original work published 1923)
9. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент: 2009. 154-b.
10. Сайидираҳимова Н. Мактабгача ешдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. …дисс. – Тошкент: 2004. 126-b.
11. Saidaxmedova O. Tabiiy tartib gepotezasining o‘zbek tili uchun talqini. – Toshkent: 2021.
12. Vygotsky, L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.



Shirin MULLABOYEVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
1-kurs tayanch doktoranti
mullaboyevashirin@navoiy-uni.uz

TIL, ESTETIK TAFAKKUR VA DIDNING PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilida milliy didning qanday ifodalanishi, uning xalq estetik tafakkuri va qadriyatlari bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Tilda uchraydigan maqollar, matallar, iboralar, xalq og‘zaki ijodi va badiiy asarlar orqali milliy didning mazmuni ochib beriladi. O‘zbek xalqining madaniy-estetik dunyoqarashi til vositasida qanday aks etishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: milliy did, estetik tafakkur, o‘zbek tili, maqollar, iboralar, xalq ijodi, adabiyot, qadriyatlar.

Аннотация: в данной статье анализируется, как в узбекском языке выражается национальный вкус, а также его связь с народным эстетическим мышлением и ценностями. Через пословицы, поговорки, фразеологизмы, народное устное творчество и художественные произведения раскрывается содержание национального вкуса. Рассматривается, как культурно-эстетическое мировоззрение узбекского народа отражается посредством языка на научной основе.

Ключевые слова: национальный вкус, эстетическое мышление, узбекский язык, пословицы, фразеологизмы, народное творчество, литература, ценности.

Annotation: this article analyzes how national taste is expressed in the Uzbek language and its connection with the aesthetic thinking and values of the people. The meaning of national taste is revealed through proverbs, sayings, idioms, folklore, and literary works found in the language. The study examines how the cultural-aesthetic worldview of the Uzbek people is reflected through language from a scientific perspective.

Key words: national taste, aesthetic thinking, Uzbek language, proverbs, idioms, folklore, literature, values.

Milliy madaniyat har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy hayoti va estetik qarashlarining mahsulidir. Madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu – milliy did, ya’ni xalqning go‘zallikka bo‘lgan estetik munosabati, qadriyatlari, urf-odatlari va san’atga oid qarashlaridir. Milliy did til orqali namoyon bo‘ladi, til esa shu xalqning ichki dunyosini, dunyoqarashini, qadriyat tizimini ifodalovchi asosiy vositadir [1:3]. O‘zbek xalqining milliy didi ham asrlar davomida shakllangan va til orqali avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni saqlash, ularni yoshlarga yetkazish va ularning estetik tafakkurini shakllantirishda tilning o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek tilida milliy didning ifodalanishini chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Estetik did til madaniyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu bog‘liqlik haqida O‘zbekistonlik tilshunos olimlardan Sh.Rahmatullayev quyidagi fikrni bildiradi: “Til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning estetik qarashlarini ham shakllantiradi” [2:56]. Tilning estetik imkoniyatlari, birinchi navbatda, badiiy adabiyotda, ayniqsa, she’riyatda yaqqol ko‘rinadi. Alisher Navoiy g‘azallaridagi tashbehlar, tazodlar, alliteratsiyalar orqali estetik did va til uyg‘unligining eng yuksak namunalarini ko‘ramiz: *“Ko‘nglumda bor erdi dard-u g‘am, g‘amni dard ayladi…”.* Bu misrada til imkoniyatlari orqali go‘zallik va ruhiy kechinmalar estetik shaklda ifoda etilgan. Estetik did go‘zallik, borliqni ikki qarama qarshi tushunchasidan biri bo‘lgan *go‘zallik* va *xunuklik* orqali idrok etadi. Har qaysi xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbek xalqi ham azaldan go‘zallikni qadrlagan, tabiat va inson orasidagi uyg‘unlikni estetik me’zonlarda baholagan. Xalq ijodida bu uyg‘unlik ranglar, shakllar, obrazlar orqali ifodalanadi. Go‘zallik tushunchasi o‘zbek madaniyatida faqat tashqi ko‘rinish bilan emas, balki ichki fazilatlar, odob-axloq, poklik va kamtarlik bilan bog‘liqdir. Masalan, *“Go‘zallik – ko‘zda emas, ko‘ngilda”* degan maqol insoniy fazilatlarning ustuvorligini ifodalaydi [3:45]. Xalq orasida keng tarqalgan go‘zallik tasavvurlari asosan urf-odatlar, kiyim-kechak, me’morchilik, hunarmandchilik va xalq og‘zaki ijodida

mujassam bo‘lgan. Ayniqsa, to‘y marosimlaridagi kiyimlar, uy bezaklari, pazandachilik an’analari ham o‘zbek xalqining didi qanday nozik va estetik me’yorlarga asoslanganini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida milliy did bir necha yo‘nalish orqali ifodalanadi: maqollar va matallar, frazeologik birliklar, badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi hamda zamonaviy publitsistikada. 1. Maqollar va matallar – xalq estetik tafakkurining ko‘zgusidir. Masalan, *“Toza kiyim – odam sha’nidir”*, *“Eshikdan kirgan odob, yurakka kirar”*, *“Yaxshi so‘z – jon ozig‘i”* kabi maqollar odamlar orasidagi munosabatda estetik madaniyat qanchalik muhim o‘rin tutishini anglatadi. 2. Iboralar va frazeologik birliklar orqali milliy qadriyatlar va estetik qarashlar ifodalanadi. *“Saranjom-sarishta”*, *“ozoda odam”*, *“safid yuzli”*, *“ko‘ngli pok”* kabi iboralar xalqning ichki va tashqi go‘zallik mezonlarini aks ettiradi [4:38]. *“Yuragi nondek yumshoq”, “Ovozida qandday shirinlik bor”, “So‘zlari ipakday yumshoq, taftiday issiq”* bu iboralarda esa o‘zbek xalqi uchun milliy kolorit tashigan so‘zlar yordamida milliy didi aks etgan. 3. Adabiyotda obrazlar, timsollar, poetik vositalar orqali milliy did yuksak estetik darajada namoyon bo‘ladi. Masalan, *“Qalqon kabi keng yurakli, asrlondek jasur yigit…”* (“Alpomish” dos.). Bu satrda o‘zbek xalq dostonlaridagi epik va estetik ifoda vositalari ko‘rinadi. Qahramonning jasorati va go‘zalligi obrazli til orqali, xalqona estetik ideallar asosida yoritiladi. Shuningdek, Erkin Vohidovning “O‘zbegim” she’ridan olingan misolga ko‘ra:

Tilim – jonim, dinim, imonim,
Har so‘zimda bor vatan hidi.

She’rdagi “vatan hidi” iborasi orqali tilning milliylik va estetik mazmuni ifodalanmoqda. Tilga bo‘lgan mehr, e’tiqod va milliy o‘zlik hissi estetik ifoda bilan berilgan. Yoki:

Ko‘ngil gulshanida siz bir lolasiz,
Dil izhorlarimni qildim havolash. (Xalq qo‘shig‘i)

Bu satrlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, qo‘shiqda *ko‘ngil – gulshan, yor – lola* kabi obrazlar orqali o‘zbek xalqiga xos lirik estetik dunyoqarash ifodalanmoqda. Til badiiy, nafis va milliy ruhda qo‘llanilgan [5:27].

Yuqorida tilga olingan va tahlilga tortilgan misollar til estetikasi orqali o‘zbek xalqining go‘zallikka, noziklikka, obrazlilikka bo‘lgan munosabatini ochib beradi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, she’riyati, dostonlari va maqollarida milliylik va estetik tafakkur chambarchas bog‘langanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili xalqning tarixiy va madaniy xotirasini saqlovchi asosiy vositadir. Tilda mavjud bo‘lgan etnografik, leksik va stilistik birliklar milliy didning tildagi ifodasi sifatida xizmat qiladi. Til orqali xalq o‘z urf-odatlarini, go‘zallik me’yorlarini, odob-axloq tushunchalarini saqlab qolgan. Masalan, *“atlas”*, *“adras”*, *“do‘ppi”*, *“so‘zana”*, *“zardo‘z”*, *“naqqosh”* kabi so‘zlar xalq san’ati, hunarmandchiligi va kiyim-kechak madaniyatining tildagi aksidir [6:89], ammo bugungi zamonaviy dunyoda ommaviy madaniyat va axborot texnologiyalari tilga va natijada estetik mezonlarga muayyan ta’sir o‘tkazmoqda. Til soddalashmoqda, chet tillardan so‘zlar o‘rnini bosmoqda, og‘zaki va yozma nutqda uslubiy befarqlik ortmoqda. Bu holat estetik didning zaiflashuviga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining normativ, estetik me’yorlariga zid bo‘lgan jumlalar, iboralar, kinoya va atamalar ko‘p uchramoqda. Bu esa yoshlarning tildagi go‘zallikni sezish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida milliy didning ifodalanishi xalqning estetik tafakkuri, madaniy qadriyatlari, axloqiy qarashlari bilan uzviy bog‘liq. Til – bu xalq ruhiyati, o‘zligining ifodasidir. Til va estetik did o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisining shakllanishi va ifodalanishiga xizmat qiladi. Til — estetik his-tuyg‘ularning so‘zdagi ifodasi bo‘lsa, estetik did esa tilning ma’nodor, badiiy, madaniyatli ishlatilishini ta’minlaydi. Shu bois til madaniyatini rivojlantirish orqali estetik tafakkurga ham xizmat qilinadi. Til go‘zalligi, nutq madaniyati va badiiy ifodaning uyg‘unligi jamiyat estetik saviyasining belgilaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov Z. Til va madaniyat uyg‘unligi. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014.
2. Rahmatullayev Sh. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2002.
3. Usmonov S. O‘zbek tilshunosligi va milliy o‘zlik. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi. 2019.
5. G‘afurov T. O‘zbek tilida estetik ifoda vositalari. – Toshkent: Fan, 1999.
6. Zaripov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida milliy qadriyatlarning ifodasi. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2005.

Mahbuba ASHUROVA
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tili ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti

UMUMTURKIY TILLARDA SO’Z YASALISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va turk tillaridagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar morfologik va semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki til umumturkiy ildizga ega bo‘lsa-da, qo‘shimchalarning shakli va vazifasida farqlar mavjud. Tadqiqot davomida turdosh qo‘shimchalar misollar bilan solishtirib o‘rganiladi. Ayrim qo‘shimchalar ko‘p funksiyaliligi bilan ajralib turadi. Maqola natijalari umumturkiy tillarda morfemik jarayonlarni anglashga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: so‘z yasovchi qo‘shimcha, o‘zbek tili, turk tili, morfologiya, qiyosiy tahlil, umumturkiy til, affiks

Аннотация: в статье проводится сопоставительный анализ словообразовательных аффиксов в узбекском и турецком языках. Несмотря на общее тюркское происхождение, наблюдаются различия в формах и функциях аффиксов. В исследовании рассмотрены родственные аффиксы на основе примеров. Некоторые аффиксы отличаются полифункциональностью. Результаты статьи вносят вклад в понимание морфемных процессов в тюркских языках.

Ключевые слова: аффикс, узбекский язык, турецкий язык, словообразование, морфология, сравнительный анализ, тюркские языки

Annotation: this article presents a comparative analysis of word-forming affixes in Uzbek and Turkish. Although both languages share a common Turkic origin, differences exist in the form and function of affixes. The study compares cognate affixes with practical examples. Some affixes are distinguished by multifunctionality. The results contribute to understanding morpho-semantic processes in Turkic language

Key words: derivational affix, Uzbek, Turkish, morphology, comparative analysis, Turkic languages, word formation

Kirish. So‘z yasalishi turkiy tillar morfologiyasining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, tilning leksik boyligini kengaytiruvchi muhim vositadir. O‘zbek va turk tillari umumiy genealogik ildizga ega bo‘lganligi sababli ularning grammatik qurilishi, xususan, so‘z yasovchi qo‘shimchalar tizimi ko‘plab o‘xshashlik va farqlarga ega. Ushbu maqolada ikki til so‘z yasovchi affikslari morfologik va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil orqali umumiyliklar va har bir tilga xos xususiyatlar aniqlanadi. Bu kabi tahlillar umumturkiy tilshunoslikda tarixiy va tipologik izlanishlar uchun muhim manba bo‘la oladi.

Metodlar. O‘zbek va turk tillarida so‘z yasovchi qo‘shimchalar (derivatsion affikslar) tildagi yangi leksik birliklarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qo‘shimchalar semantik vazifasiga ko‘ra bir nechta guruhlarga bo‘linadi. Quyida asosiy turlar va ularning har ikki tildagi ko‘rinishlari tasniflanadi.

1.1. Kasb va shaxs bildiruvchi qo‘shimchalar.

Bu guruhga kasb-hunar, shaxs yoki faoliyat egasini bildiruvchi qo‘shimchalar kiradi. O‘zbek tilida: -chi, -kor, -gar, -boz;

– misollar: o‘qituvchi, ilmkor, ilmgar, kitobboz.

Turk tilida: -ci / -çı, -kar, -sever;

– misollar: öğretmenci, ilimkar, kitapsever.

1.2. Joy, mansublik va sifat bildiruvchi qo‘shimchalar.

Bu qo‘shimchalar biror joyga yoki guruhga mansublik, yotlik va unga xoslik ma’nosini bildiradi.

O‘zbek tilida: -lik, -dosh, -iy;

– misollar: samarqandlik, kursdosh, tarixiy

Turk tilida: -li / -lık, -daş, -î;

– misollar: Ankaralı, sınıfdaş, tarihi.

1.3. Holat va xususiyat bildiruvchi qo‘shimchalar.

Mazkur affikslar orqali shaxs yoki narsaning holati, ichki sifatlari ifodalanadi.

O‘zbek tilida: -monand, -garlik;

– misollar: bolamonand, insonparvarlik.

Turk tilida: -ce / -ça, -lık;

– misollar: çocukça, insanlık.

1.4. Mavhum tushuncha va nom yasovchi qo‘shimchalar.

Bunday qo‘shimchalar yordamida mavhum tushunchalar va terminlar yaratiladi.

O‘zbek tilida: -lik, -shunos, -noma;

– misollar: insoniyat, tilshunos, biologiya.

Turk tilida: -lık, -bilim, -name;

– misollar: insanlık, dilbilim, biyoloji.

1.5. Harakatni bildiruvchi fe’l yasaluvchi qo‘shimchalar.

Bu qo‘shimchalar orqali ot yoki sifatdan fe’l yasaladi.

O‘zbek tilida: -la, -lash, -lan;

– misollar: rasm → rasm+la, toza → tozalan.

Turk tilida: -le, -leş, -lan;

– misollar: resim → resimle, temiz → temizlen.

Tahlillar va natijalar. O‘zbek va turk tillarining umumiy turkiy ildizga ega bo‘lishi ularning morfologik tizimida muayyan o‘xshashliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har bir tilning rivojlanish yo‘li, leksik va madaniy ta’sirlari tufayli ularning so‘z yasash tizimida o‘ziga xos farqlar ham yuzaga kelgan.

O‘xshashliklar:

1. Umumturkiy affikslardan foydalanish.

Har ikki tilda -chi / -ci, -lik / -lık, -la / -le kabi affikslar mavjud bo‘lib, ularning shakli va ma’nosi deyarli bir xil:

– masalan: o‘qituvchi → öğretmen+ci, qishloqlik → köylük, tozalamoq → temizlemek

2. Suffiksal tipdagi so‘z yasash.

O‘zbek va turk tillarida so‘z yasovchi qo‘shimchalar asosan, so‘z ildizidan keyin keladi, ya’ni, suffiksal model ustunlik qiladi. Bu holat umumturkiy tillarning xususiyatidir.

3. Qo‘shimchalarning ko‘p funksiyaliligi.

Ko‘plab qo‘shimchalar nafaqat yangi so‘z yasaydi, balki ularning semantik xususiyatini ham o‘zgartiradi:

– masalan: inson → insoniy, insoniyat, insonparvarlik.

4. O‘xshash semantik maydonlar.

Kasb-hunar, joy, mansublik, sifat kabi semantik maydonlar har ikki tilda ham keng qo‘llaniladi.

Tafovutlar:

1. Qo‘shimcha shaklining fonetik tafovuti.

Har bir tildagi affikslarning talaffuzida fonetik o‘zgarishlar mavjud:

– masalan: o‘zbekcha -lik turk tilida -lık/-lik/-luk/-lük shakllarida bo‘ladi (fonetik uyg‘unlikka ko‘ra).

2. Qo‘shimchalar tarkibining boyligi.

Turk tilida ayrim semantik sohalar uchun qo‘shimchalar soni ko‘proq. Ayniqsa, turk tilida yevropa tillari ta’sirida yaratilgan -oloji, -siyon, -ist kabi qo‘shimchalar mavjud:

– masalan: psikoloji, devrimci (inqilobchi).

3. Uslubiy tafovutlar.

O‘zbek tilida ayrim qo‘shimchalar badiiy va og‘zaki uslubga xos bo‘lsa, turk tilida ular ko‘proq rasmiy yoki ilmiy uslubda qo‘llaniladi:

– masalan: -shunos (ilmiy), -noma (badiiy), turkchada esa -bilim, -name.

4. Qo‘shimchalarning sinonimligi.

O‘zbek tilida bir ma’no uchun bir necha sinonim qo‘shimchalar mavjud bo‘lishi mumkin (-chi, -kor, -boz), turk tilida esa ularning funksiyasi ko‘pincha bitta qo‘shimchaga jamlangan (-ci / -çı).

Xulosa. O‘zbek va turk tillaridagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarning qiyosiy tahlili ularning o‘xshash morfologik tuzilmalarga ega ekanini ko‘rsatadi. Har ikki til umumturkiy ildizga ega bo‘lgani bois, ko‘plab qo‘shimchalar semantik va funksional jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, shu asosda yangi so‘zlar yasaladi. Xususan, -chi/-ci, -lik/-lık, -la/-le kabi qo‘shimchalar bu o‘xshashlikning yaqqol namunasidir. Shu bilan birga, fonetik qonuniyatlar, tarixiy taraqqiyot va xorijiy tillarning ta’siri tufayli har ikkala tilda ba’zi farqlar ham yuzaga kelgan. Turk tilida ayrim affikslar fonetik uyg‘unlik asosida o‘zgaruvchan shakllarda qo‘llanadi (-lık/-lik/-luk/-lük), o‘zbek tilida esa bu holat deyarli mavjud emas. Uslubiy jihatdan esa, o‘zbek tilida badiiy ifodali va tarixiy jihatdan shakllangan affikslar (-noma, -boz) keng qo‘llansa, turk tilida esa ko‘proq ilmiy va zamonaviy affikslardan (-bilim, -sel) foydalaniladi.Qiyosiy tahlil asosida shuni ta’kidlash joizki, har ikki tilning so‘z yasovchi affikslari milliy til imkoniyatlarini kengaytirishda, yangi tushuncha va obrazlarni yaratishda beqiyos xizmat qilmoqda. Bu affikslar tilning dinamik rivojlanishida asosiy vosita hisoblanadi. O‘zbek va turk tillari morfemik tizimining o‘rganilishi ikki tildagi leksik-morfologik jarayonlarni chuqur tushinish, tarjima nazariyasi, til o‘rgatish metodikasi va boshqa amaliy sohalar uchun muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳозирги замон ўзбек тили. Ф.Камол тахрири остида. —Тошкент:, 1957. 15-b.
2. Rahmonov N . O‘zbek tili tarixi. — T:, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. 70-b.
3 .Zeynep Korkmaz . Türkiye Türkçesinin Yapısı.
4. Tahsin Banguoğlu . Türkçenin Grameri.

Sarvinoz QULTO‘RAYEVA
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2- kurs tayanch doktoranti

O‘ZBEK TOPONIMIYASIDA TASNIF MASALASI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek toponimiyasida tasnif masalasi va bunda milliy til xususiyatlari, nomlarning turlari, ularning paydo bo‘lish motivatsiyalari, hajmi, ko‘lami, paydo bo‘lishining ijtimoiy-maishiy sabablariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponimlar, zoonimlar, sodda nomlar, qo‘shma nomlar, murakkab nomlar, leksik-semantik tasnif, struktur-tipologik tasnif, xronologik tasnif.

Annotation: this article focuses on the classification issue in Uzbek toponymy, taking into account the features of the national language, the types of names, their motivational origins, their size and scope, and the socio-domestic reasons behind their emergence.

Key words: onomastics, anthroponyms, zoononyms, simple names, compound names, complex names, lexical-semantic classification, structural-typological classification, chronological classification.

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос классификации в узбекской топонимике, при этом уделяется внимание особенностям национального языка, видам названий, их мотивации, объему, масштабу, а также социально-бытовым причинам их возникновения.

Ключевые слова: ономастика, антропонимы, зоонимы, простые названия, составные названия, сложные названия, лексико-семантическая классификация, структурно-типологическая классификация, хронологическая классификация.

Til lug‘at birliklari, jumladan, toponimlarni ham tasnif etishda ularning lingvistik xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Tadqiq etishda tasnif qilish yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash o‘rganilayotgan obyektning asl tabiatini hamda boshqa bir qator o‘ziga xosliklarini aniqlashni yengillashtiradi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida toponimik nomlarga jamiyatning mafkuraviy hayotida ahamiyatli unsurlar sifatida qaralmoqda, negaki toponimika onomastikaning muhim yo‘nalishlari doirasida munosib tadqiq obyekti sanaladi. Xususan, onomastika quyidagi 6 yo‘nalish:

– onomastik tadqiqotlarning asosini tashkil etuvchi tasviriy onomastika;

– onomastik tizimlarning vazifaviy xossalari va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi nazariy onomastika;

– amaliy onomastika (yuristlar, xaritashunoslar, bibliograflar, biograflar uchun);

– she’riyatning tarkibiy qismi hisoblangan badiiy asarlar onomastikasi;

– tarixiy onomastika;

– etnoslar va ularga doir etik birliklar (toponimlar, antroponimlar, zoonimlar va tillar nomlari – lingvonimlarning kelib chiqishi)ni o‘rganuvchi etnik onomastikaga ajratilsa, so‘zsizki, bu yo‘nalishlarning har birida toponimik obyektlarga murojaatlar mavjuddir.

Shuningdek, V.N.Toporov til xususiyatiga ko‘ra onomastikani adabiy onomastika (adabiy til materiallari misolida); dialektal onomastika; real va poetik onomastika; zamonaviy va tarixiy onomastika; nazariy va amaliy onomastika turlariga bo‘ladi.

Toponimlarni tasniflash borasida fikr yuritgan S.Qorayevning quyidagi qarashlari e’tiborga loyiq: “Toponim muayyan ma’noni anglatadi, toponimistlar ta’biri bilan aytganda, toponim informatsiyaga ega va u real hodisani aks ettiradi. Toponimlarning ana shu real voqelikni aks ettirishini hisobga olib, ularni qandaydir gruppalarga bo‘lish kerak, albatta. Toponimlarni ana shunday klassifikatsiya qilish ularning semantik mohiyatini o‘rganish ishini osonlashtiradi deb o‘ylaymiz”. Umuman, tilshunoslikda toponimlar tasnifi masalasi asosiy tadqiq obyektlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu borada turli e’tiborga sazovor qarashlar taklif qilinganki, ularda toponimlarni tasnif qilishning eng samarali va qulay yo‘llari bayon etilgan.

Toponimlarni tasniflash masalasida H.Sharipov ning olib borgan tadqiqoti e’tiborga loyiq.

Turkiy tillardan biri bo‘lgan qirg‘iz tili materiallari asosida tadqiq olib borgan H.Sharipov Qirg‘izistondagi joy, suv va tog’ nomlarini quyidagi belgilar asosida shakllangan deyish mumkin deb, ularning 1)joylardagi tabiiy geografik sharoit; 2)mazkur joylardagi tabiiy yer osti boyliklari; 3) kishilarning nomlari, ularning yashash sharoitlari; 4) hayvonlar va predmetlarning nomlari singari ko‘rinishlarini qayd etgan . Muallif Janubiy Qirg‘izistondagi joy nomlarining struktura jihati bir xil emasligini, nomlar sodda, qo‘shma hamda murakkab shakl va xarakterga egaligini ta’kidlab, ular turkiy tillarga xos morfologik, sintaktik va morfologik-sintaktik yo‘l bilan yasalganligini uqtirgan. H.Sharipov grammatik nuqtai nazardan nomlarning shakllanishini quyidagicha tasniflashni tavsiya etgan:

I. Sodda nomlar. a) tub so‘zlar asosida paydo bo‘lgan nomlar. Bu xil nomlar kamroq bo‘lsa ham uchrab turadi. Tub so‘z formasidagi toponimlar ko‘pincha narsa, predmet nomlari, ba’zan esa qadimgi urug‘ va qabilalar

nomi bilan bog‘liqdek ko‘rinadi; b) yasama so‘zlar zamirida shakllangan nomlar. Bu tipdagi toponimlar ko‘plab uchraydi, ularning xarakteri ham har xil bo‘lib, turli yasovchi affikslar yordamida paydo bo‘ladi.

II. Qo‘shma nomlar. 1. Sintaktik usul bilan (ikki va undan ortiq o‘zakning birikuvidan) paydo bo‘lgan nomlar. Bu xil nomlar materialiga (so‘z turkumlariga) ko‘ra: *a) ot+ot; b) sifat+ot; v) son+ot; g) son+ot+ot; d) ot+fe’l; e) sifat+ot+ot;) sifat+fe’l+ot.* 2. Morfologik-sintaktik usul bilan shakllangan nomlar tarkibida ot+ot hamda sifat+ot, ba’zan ot+sifat ishtirok etgan bo‘lib, ularning o‘rtasi yoki oxirida yasovchi affiks keladi.

III. Murakkab nomlar. Maqola muallifi murakkab nomlar sirasiga hozirda soddalashgan, etimologiyasi va semantikasini aniqlash qiyin bo‘lgan hamda qisman qo‘shma so‘z ekanligi sezilib turadigan nomlarni kiritgan.

O‘zbekiston toponimlarini tasnif etish borasida Z.Do‘simov maqolasi alohida o‘rin tutadi. Chunki mazkur maqolada toponimlarni tasnif etish masalasi ilk bor keng ko‘lamda tahlilga tortilgan. Z.Do‘simovning qayd etishicha, joy nomlarini leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko‘ra tasnif qilish keng tus olgan. Olim toponimlarni leksik-semantik tasnif etishda ikkita munosabat borligini uqtirgan: birinchidan, 1) etnonimlardan vujudga kelgan toponimik nomlar; 2) onomastik nomlar (kishi otlari)dan paydo bo‘lgan toponimlar; 3) toifa guruh nomlaridan paydo bo‘lgan toponimlar; 4) yer tuzilishi, suv va qurilish inshootlari, o‘simliklar dunyosi, aholining kasbi, turli xil voqealar-yig‘inlar va shu kabilar bilan bog‘liq bo‘lgan toponimlar; ikkinchidan, 1) qabila nomini bildiruvchi toponimlar; 2) millat nomini bildiruvchi toponimlar; 3) kishilar ismiga qo‘yilgan toponimlar; 4) kasb-hunarga nisbatan berilgan toponimlar; 5) predmet belgisini ifodalovchi toponimlar; 6) o‘simlik (daraxt)lar nomi bilan yuritiladigan toponimlar; 7) el-yurt, vatan nomi bilan bog’langan toponimlar; 8) geografik relyefni ifodalovchi toponimlar. Shuningdek, olim toponimlarni bu tipda tizimlashtirishda guruhlar orasida aniq chegara yo‘q ekanligini qayd etgan hamda toponimlarni tasnif etishda tadqiqotning xarakteridan va tadqiqotchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqib, leksik-semantik prinsipdan foydalanish o‘rinli ekanligini uqtirgan.

O‘zbekiston toponimiyasining yetuk tadqiqotchilaridan biri Z.Do‘simov o‘zbek toponimiyasi bo‘yicha T.Nafasov, L.Karimova, Sh.Qodirovalarning amalga oshirgan ishlari, qolaversa, rus olimasi A.V.Superanskayaning tasniflar borasidagi qarashlaridan kelib chiqib, toponimlarni tasniflash bo‘yicha o‘zining aniq taklifini bayon etgan. Bu taklif quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- leksik-semantik tasnif.
1. Etnotoponimlar.
2. Antrotoponimlar.
3. Zootoponimlar.
4. Biotoponimlar
- struktur-tipologik tasnif.
1. Affikssiz toponimlar yoki tub toponimlar.
2. Affiksal toponimlar yoki yasama toponimlar.
3. Prefiksal toponimlar.
4. Indikator (aniqlagich)li toponimlar yoki toponim-kompozitlar.
5. Birikmali toponimlar.
- xronologik tasnif.
1.Toponim-arxaizmlar.
2.Toponim-istorizmlar.
3.Neotoponimlar.

Qayd etish lozimki, Z.Do‘simovning mazkur tasnifi toponimlarni izchillik bilan tadqiq etishda uzoq yillardan beri asos-tayanch vazifasini o‘tab kelmoqda. Chunki, ushbu tasnif vositasida toponimlarning asosiy lisoniy xususiyatlari ochib berilishi mumkin. Shuningdek, Z.Do‘simovning M.Tillayeva bilan hammuallifikda yaratgan tadqiqotida leksik-semantik jihatdan toponimlarni etnonimlardan vujudga kelgan, onomastik nomlar – kishi otlaridan paydo bo‘lgan, toifa, guruh nomlaridan paydo bo‘lgan, yer tuzilishi, ob’ekt va qurilish inshootlari, o‘simliklar dunyosi, aholining kasbi, turli xil voqealar-yig‘inlar va shu kabilar bilan bog‘liq toponimlar kabilarga ajratish mumkinligini ham qayd etgan.

Yuqorida berilgan tasniflarni o‘rganib, ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatdiki, toponimlarni tadqiq etishda keng manbalarga, materiallarga asoslanish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир. Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. 1-сон. 17-20-b.
2. Дўсимов З. Топонимларнинг ясалиши масаласига доир. Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. 2-сон. 45-b.
3. Муҳаммаджонов А. Айрим топонимлар семантикаси. Ўзбек тили ва адабиёти, 2004. 2-сон. 39-42-b.
4. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т:, Ўқитувчи, 1988. 135-b.
5. Ономастика Узбекистана. – Т:, Ўқитувчи, 1987. 92-b.
6. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Т:, Фан, 1989. 18-b.

O‘ktam RAXMONQULOV
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti(Phd)
rakhmankulovuktam@gmail.com

SUG‘URTA SOHASI: SHAKLLANISHI, TERMINOLOGIYASI TARKIBI VA TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada sug‘urta sohasining tarixiy taraqqiyoti, u bilan bog‘liq holda soha terminlarining shakllanishi yuzasidan kuzatish va tahlillar o‘rin olgan. Shuningdek, Mesopotamiya va Yevropada rivojlanish bosqichi, Koina, Premium sug‘urta, Lombardiya kabi sug‘urta tashkilotlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: termin, sug‘urta, Insurance, Premium sug‘urta, Xammurapi qonunlari, dengiz sug‘urtasi, chegara toshi, ssuda, moliyaviy yo‘qotish, Santa Klara, Barselona farmoni, mulkni sug‘urtalash, mas’uliyatni sug‘urtalash.

Аннотация: в статье содержатся наблюдения и анализ исторического развития страховой отрасли и связанного с этим формирования отраслевых терминов. Также предоставляется информация о стадии развития страховых организаций в Месопотамии и Европе, таких как Koina, Premium Insurance и Ломбардия.

Ключевые слова: срок, страхование, страховка, премиальное страхование, кодекс Хаммурапи, морское страхование, межевой камень, кредит, финансовые потери, Санта-Клара, Барселонский указ, страхование имущества, страхование ответственности.

Annotation: this article contains observations and analyses on the historical development of the insurance industry and the formation of industry terms related to it. It also provides information on the stage of development in Mesopotamia and Europe, insurance organizations such as Koina, Premium Insurance, Lombardy.

Key words: term, insurance, Insurance, Premium Insurance, Hammurabi’s Laws, marine insurance, boundary stone, loan, financial loss, Santa Clara, Barcelona Decree, property insurance, liability insurance.

Bugungi globallashuv jarayoni, fan va sohalar integratsiyalashuvi jarayonida sug‘urta masalasi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Sug‘urta va uning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, jamiyatda tutgan o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar doirasidagi ahamiyati, uning alohida, muhim sohalardan ekanligini dalolatlaydi. Shunga ko‘ra, soha faoliyati, uning shakllanishi va taraqqiyoti masalasini tadqiq qilish ham o‘ziga xos natijalarni taqdim qiladi. Shu bilan birga, sug‘urta sohasining asosiy masalalari doirasida uning yetakchi tushuncha va terminlari, ularning soha tushunchalarini ifodalash imkoniyatlari, soha terminologiyasi, terminologik birliklar va ularning ma’nosi, soha lug‘atlarida aks ettirilish masalalari ham alohida yondashuv va tahlillarni taqozo qiladi. Kuzatish va tahlillar markazida, albatta, sug‘urta tushunchasi asosiy mavqe egallaydi. Shunga monand ravishda sug‘urta tushunchasi va uning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratishni joiz deb hisoblaymiz.

Sug‘urta – tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yog‘in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalarini to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Sug‘urta ko‘p asrlik tarixga ega. Sug‘urta muassasalari dastlab O‘rta asrlarda, dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavf-xatarlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik boshqa sohalarga ham yoyildi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida sug‘urta fuqarolarning manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi vosita sifatida xizmat qilib kelgan.

Sug‘urta termini dunyo tillarida keng va faol iste’moliga hamda turli tillarning lingvistik va ensiklopedik lug‘atlarida o‘z talqiniga ega sanaladi. Rus tili manbalarida *sug‘urta* terminini quyidagicha izohlangan: **SSUDA** (rus.) — moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz to‘lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga, qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik. Ssuda juda qadimdan mavjud bo‘lib, natural ishlab chiqarish hukmron bo‘lgan jamiyatda, asosan, moddiy mahsulot tarzida berilgan. Pul paydo bo‘lgach, Ssudaning pul shakli keng qo‘llanildi. Kredit munosabatlarida pul mablag‘lari kredit shartlari asosida qarzga berilsa, Ssuda munosabatlarida boshqa turdagi boyliklar tegishli shartlarga muvofiq

qarzga beriladi. Ingliz adabiyotlarida esa “sug‘urta” atamasi jismoniy shaxslar yoki tashkilotlarning o‘zlarini moliyaviy yo‘qotishlar, noaniqliklardan himoya qiladigan mexanizm yoki kelishuv, to‘lov evaziga xavfni kompaniya yoki yuridik shaxsga o‘tkazish, olinadigan mukofot ma’nolarini ifodalashi qayd qilinadi.

Sug‘urta terminologiyasi va uning shakllanishi bevosita soha tarixi va taraqqiyoti bilan bog‘liqlik kasb etadi. Sug‘urta va uning soha sifatida shakllanishi uzoq tarixga ega. Dunyo tajribasida sug‘urta tushunchasi, uning soha sifatidagi shakllanishida Mesopotamiyaning o‘rni alohida, uning ilk sivilizatsiyasi davrida “Quyi shartnoma” yoxud dengiz sug‘urtasi deb nomlanuvchi sug‘urtaga oid tushuncha va faoliyat qayd qilinadi.

Sug‘urta tushunchasi, umuman, sug‘urta tarixi, uning shakllanish bosqichlari qadimgi Bobil hamda dengiz savdogarlariga borib taqaladi. Dastlabki davrlarda turli mintaqalardagi savdo aloqalari dengiz yo‘li orqali ham amalga oshirilgan, savdogarlar o‘z mollarini ko‘p hollarda xavfli bo‘lsa ham, dengiz sayyohligi orqali tashigan, jo‘natishgan. Bu jarayonda savdogarlar o‘z sarmoyalarini himoya qilish uchun moliyachilar bilan shartnomalar tuzar, ayni paytda moliyachilar esa sayohatni moliyalashtirish uchun qarz berar va savdogarlarga tegishli tovarlarning belgilangan manzilga xavfsiz, talofatsiz yetib borishi evaziga qarzni foiz bilan qaytarishga kelishib olinar edi.

Dunyo tarixida sug‘urta va shunga o‘xshash dastlabki amaliyotlar Bobilda taxminan 4000 yil oldin paydo bo‘lgan. Bu davrda rivojlangan savdo markazlari bo‘lgan Bobilda karvon savdogarlariga qarz bergan kapitalistlar karvonlarini o‘g‘irlash yoki to‘lovni to‘lash holatlarida savdogarlarning qarzlarini yo‘q qilishgan. Keyinchalik ushbu turdagi faoliyat qirol Xammurapi tomonidan qonuniylashtirilgan. Xammurapi kodeksining eng katta yutug‘i shundaki, unda qaroqchilar hujum qilgan vaqtda karvonlarning yo‘qotishlari hisoblanib, boshqa barcha karvonlar mol-mulklari teng taqsimlanishi nazarda tutilgan.

Premium sug‘urta milodiy 1250-yilda Florensiya, Venetsiya va Genuya shaharlarida paydo bo‘lgan. Biroq, zamonaviy sug‘urta konsepsiyasini XIV asrda Lombard savdogarlari paydo bo‘lishi bilan bog‘lash mumkin. Ushbu savdogarlar Italiyaning Lombardiya shahrida dunyoda birinchi sug‘urta bozorini tashkil etishgan.

XVII asrning ikkinchi yarmi sug‘urtaning rivojlanishiga sabab bo‘lgan ikkita muhim voqeaga guvoh bo‘ldi. Ulardan birinchisi – bu sug‘urtalashda statistik usullar va ularni qo‘llash (ehtimollarni hisoblash), ikkinchisi – Londonda yuz bergan, to‘rt kun davom etgan va 1666 ta hovli va 13.000 ta uyning yonib ketishiga sabab bo‘lgan katta yong‘in. Cherkovlar va yerlarni sug‘urtalashning paydo bo‘lishiga olib kelgan ushbu voqea jamoatchilikka katta ta‘sir ko‘rsatdi va bunday ofatlar oqibatlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish g‘oyasini tug‘dirdi. 1684-yilda Lloydning Angliyada asos solishi bilan sug‘urta sohasida yangi davr boshlanadi. Londondagi Edvard Lloyd nomli qahvaxona kema egalari, ishbilarmonlar va savdogarlarning dengiz savdosi to‘g‘risida ma‘lumot almashadigan joyga aylanadi. Bu yerda kema yoki kemaning yuklari uchun kafolatlar bergan odamlar “Anderrayterlar” (ing. underwriter — 1) yangi chiqarilgan qimmatbaho qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya va boshqalar) ning muayyan miqdorini sotib olib, keyinchalik uni investorlarga sotish yo‘li bilan joylashtirish majburiyatini oladigan kafil.

Sug‘urta sohasi tarmoqlari kesimida sug‘urta terminologiyasi ham tarkib topdi. Jahon tajribasida sug‘urta sohasining tarkibiy tuzilishi turli mintaqa yoki mamlakatlarda har xil shakllangan bo‘lsa-da, mazmun-mohiyatida umumiylik saqlangan. Sug‘urta sohasi va uning tarmoqlari asosida soha terminologiyasi tarkibini dastlabki bosqichda quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

– mulkni sug‘urtalash terminlari guruhi;
– mas‘uliyatni sug‘urtalash terminlari guruhi;
– shaxsiy sug‘urta terminlari guruhi;
– moliyaviy va o‘ziga xos risklarni sug‘urtalash terminlari guruhi.

Qayd qilingan har bir guruh, o‘z navbatida, yana ichki guruhlarga bo‘linadi.

1. Mulkni sug‘urtalash terminlari guruhi:

1.1 Uy sug‘urtasi terminlari;
1.2 Yong‘in va tabiiy ofat xavfi terminlari;
1.3 Biznesni to‘xtatish sug‘urtasi terminlari;
1.4 Qurilish va o‘rnatish risklarini sug‘urtalash terminlari;
1.5 Avtotransportni sug‘urta qilish terminlari;
1.6 Yuklarni sug‘urtalash terminlari.

2. Mas‘uliyatni sug‘urtalash terminlari guruhi:

2.1 Uchinchi shaxslar oldidagi umumiy fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish terminlari;
2.2 Mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi provayderning javobgarligini sug‘urtalash terminlari;

2.3 Direktorlar va mansabdor shaxslar (D&O) mas‘uliyatini sug‘urtalash terminlari;

2.4 Kasbiy javobgarlikni sug‘urta qilish terminlari;

2.5 Ish beruvchining javobgarligini sug‘urta qilish terminlari;

2.6 Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug‘urta qilish terminlari;

2.7 Avtotransport vositasi egasining javobgarligini sug‘urta qilish terminlari;

2.8 Chet elga chiqishda transport vositasi egasining javobgarligini sug‘urtalash terminlari.

3. Shaxsiy sug‘urta terminlari guruhi:

3.1 Vaqf hayot sug‘urtasi, pensiya sug‘urtasi terminlari;

3.2 Baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish terminlari;

3.3 Sog‘liqni saqlash sug‘urtasi terminlari;

3.4 Chet elga sayohat sug‘urtasi terminlari.

4. Moliyaviy va o‘ziga xos risklarni sug‘urtalash terminlari guruhi:

4.1 Moliyaviy majburiyatlarning bajarilmasligini sug‘urtalash terminlari;

4.2 Mulkni sug‘urtalash terminlari;

4.3 Siyosiy xavflarni sug‘urtalash terminlari.

Mazkur tasnifdan anglashiladiki, sug‘urta terminlari tizimi tarkibi shartli ravishda 4 ta guruhga bo‘linib, har bir guruh tarkibi yuzlab, minglab soha terminlarini o‘z ichiga oladi.

Sohaning tarixiy va zamonaviy masalalari, tushuncha va hodisalari, jarayonlari, ularni ifodalovchi termin va atamalar tizimining ham shakllanishida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Ayni holat esa til leksik tizimining maxsus leksikasi tarkibida yangi bir soha terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotini tizimiy tadqiq qilish zaruratini ham belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq tarix va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sug‘urta sohasining shakllanishi, taraqqiyoti uning terminologik tizimida ham aks etadi. Soha tushunchalari va soha terminlari munosabatlarini tadqiq qilish ilmiy, soha nutqi aniqligi uchun xizmat qilish bilan birga, soha terminlarini tartibga solish, umumiy hamda maxsus lug‘atlarda leksikografik izohlarini ilmiy va terminologik tamoyillar asosida yaratish, ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Past darajadagi shartnomalardan tortib to sug‘urta bozorlarini tashkil etishgacha, bu konsepsiya jismoniy shaxslar va korxonalarga hayotning noaniqliklarida harakat qilishlari uchun zarur bo‘lgan xotirjamlikni ta‘minlash uchun doimiy ravishda rivojlanib borganligi, uning zamonaviy tushunchalar bilan boyib borishidan ham dalolat beradi. Soha tushunchalari ifodalovchisi bo‘lgan maxsus so‘zlar – termin va atamalarning sohaviy-lingvistik aspektda tizimiy tadqiq qilinishi mamlakatimiz iqtisodiy-lisoniy hayoti uchun ham muhim natija va xulosalarni taqdim qiladi. Navbatdagi tadqiqiy vazifalarimizdan biri ana shu soha terminologiyasini soha va tilshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy o‘rganishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. // Mas’ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – Toshkent:, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 864-bet.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I - II томлар. – М:, 1981.

4. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. I. – Тошкент:, 1961.

5. Гулямов А. Г. О сопутствуюших явлениях при аффиксации в узбекском языке // Научные труды ТашГУ, вып. 211. Языкознание. – Ташкент:, 1963.

6. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G`.Kenjayev “Sug’urta ishi” – Toshkent:, 2014.

8. Biznes sohasi uchun sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning yagona talablari va standartlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida o‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i

9. www.investopedia.com, Vikilug‘at.org, https://malumot.ru/

Muharram QURBONOVA
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
I bosqich doktoranti

LEKSIK BIRLIKLAR – SHE’RIY MATNDA POETIK VOSITA SIFATIDA (Xurshid Davron she’riyati misolida)

Annotatsiya: tilshunoslik va adabiyotshunoslikning birga o‘rganiladigan sohasi bu lingvopoetika hisoblanib, qadim davrlardan buyon tadqiq qilinib kelinmoqda. Bugungi kunda ham jahon va o‘zbek tilshunoslarining diqqatini tortgan, hamon o‘rganish markazida bo‘lib kelayotgan bu soha ahamiyatga ega sohalardan. XIX asrning o‘rtalariga keliboq bu jarayon boshlangan bo‘lsa, keyinchalik tilshunos olimlarimizning tashabbuslari bilan bu tadqiqot ko‘lami birmuncha kengaydi. Tilning leksik tabiatini, uning lingvopoetikasi va uslubiyatini o‘rganish uning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq jarayondir. Badiiy asarlarni tahlil qilish va ularni o‘rganish ona tilimizni o‘rganish demakdir. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu chuqur tarixga ega bo‘lgan tilimizga e’tiborning oshishidan dalolatdir.

Kalit so‘zlar: omonim, antonim, sinonim, paronim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ko‘chma ma’no, she’riyat, uslubiyat, individuallik, lingvopoetika.

Аннотация: языкознание считается отраслью языкознания и литературоведения, которая изучается с древних времен. Сегодня эта область, привлекшая внимание мировых и узбекских лингвистов и до сих пор находящаяся в центре исследований, считается одной из важнейших. Этот процесс начался в середине XIX века, а позднее, благодаря инициативам наших лингвистов, рамки этих исследований несколько расширились. Изучение Лексическая природа языка, его лингвопоэтики и методологии представляет собой процесс, связанный с его историческим развитием. Анализировать и изучать произведения искусства – значит изучать родной язык. Само собой разумеется, что это признак возрастающего внимания к нашему языку, имеющему глубокую историю.

Ключевые слова: ключевые слова: омоним, антоним, синоним, пароним, метафора, метонимия, синекдоха, переносное значение, поэзия, методология, индивидуальность, лингвопоэтика.

Annotation: linguopoetics is a field of linguistics and literary studies that has been studied together since ancient times. Today, this field, which has attracted the attention of world and Uzbek linguists and is still at the center of study, is considered one of the important fields. This process began in the middle of the 19th century, but later, with the initiatives of our linguists, the scope of this research expanded somewhat. The study of the lexical nature of language, its linguopoetics and methodology is a process related to its historical development. Analyzing and studying literary works means studying our native language. It is obvious that this is an indication of increased attention to our language, which has a deep history.

Key words: homonym, antonym, synonym, paronym, metaphor, metonymy, synecdoche, portable meaning, poetry, methodology, individuality, linguopoetics.

She’riy matnning lingvistik tahlili uning tili ko‘p qirrali bo‘lgani uchun juda muhimdir. She’riy matn tili tabiiy til hayotidan farq qiladigan o‘z qonuniyatlari asosida yashaydi, badiiy ma’nolarni yaratishning maxsus mexanizmlariga ega. Lingvistik birliklarni o‘rganishda badiiy matnning ekspressivligini yaratish vositalari va usullari ta’kidlanadi. Lingvistik tahlil so‘z va iboralarning obrazlilik xarakterini, til hodisalarining badiiy qimmati va yangiligini anglash imkonini beradi.

Ta’kidlash joizki, she’riy asar tilida badiiy ma’nolar hosil qilishning o‘ziga xos mexanizmlari mavjud. Badiiy matndagi so‘z semantik jihatdan o‘zgarib, qo‘shimcha ma’no va assotsiatsiyalarni o‘z ichiga oladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri va ko‘chma ma’noli o‘yin badiiy matnning ekspressiv ta’sirini keltirib chiqaradi, asarni obrazli va ifodali qiladi. She’riy matn tahlili haqida gap ketar ekan, avvalo she’riy matn lirik janrdan tashkil topganligi va uning ta’rifi masalasiga to‘xtalamiz: “Lirikada voqelik subyekt his-tuyg‘ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyekti emas, subyekti birlamchidir” [7.152], – tarzida berilgan ta’rifni keltirib o‘tamiz. Demak, she’rlar o‘ziga xos shakl, struktura, she’riy nutqqa ega ekanligi bilan ajralib turadi. She’riy nutq o‘ziga xos tarzda yaratilishi sababli voqelikni obrazli aks ettirish vositasiga aylanadi.

“So‘z va uning ma’nosi, nutqning aniq va ravshan bo‘lishi, avvalo, so‘zdan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. So‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlata bilish uchun uning leksik ma’nosini anglash zarur. So‘zning leksik ma’nosini tushunmaslik uni xato qo‘llashga olib keladi” [9.42] – deydi tilshunos Sh.Shomaqsudov. Darhaqiqat, leksikologiya bo‘limi tilshunoslikning katta qismini tashkil qiladi. So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi, ma’no ko‘chish usullari, paremiologik birliklar yoki okkazional so‘zlar yordamida ijodkor, ayniqsa, she’riy matn tarkibida o‘zi ta’kidlamoqchi bo‘lgan fikrni yoki xalqimiz madaniyatiga oid til birligini mohirona ishlata oladi.

She’riy matn tarkibida eng ko‘p qo‘llaniluvchi leksik birliklar so‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari hisoblanadi. “Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo‘ladi. Sinonimik, antonimik, partonimik munosabat ana shunday lisoniy munosabat” [8.112]. Xususan, ular orasida shoir she’riyatida salmoqdor bo‘lgani zid ma’noli so‘zlar hisoblanadi. “Tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma’noli so‘zlar farqlanadi” [8.60]. Quyidagi she’rda matndan tashqarida zidlikni hosil qilmagan, ammo *kontekstual antonim* bo‘lgan so‘zlar keltirilgan:

Bu dunyoda ayri bizlar,
Men *kuz*dirman, sen – *bahor*.

Yuqoridagi she’riy parchada “kuz” va “bahor” so‘zlarining matn tarkibida o‘zaro qarama-qarshilikka uchragan holatda ko‘ramiz, ammo uni kontekstual antonim deb bo‘lmaydi, chunki “O‘zbek tilida antonimlar” lug‘atida bu ikki so‘z vaqtni bildiruvchi antonim birlik sifatida qayd etilgan [10.25]. Keyingi baytlardagi antonimlar esa bundan mustasno, ular aynan zid ma’no tarzida lug‘at tarkibida uchramaydi:

Bu dunyoda ayri bizlar,
Men – *chinor*, sen – *majnuntol*.
Bu dunyoda ayri bizlar
Sen *hilol*san, men – *quyosh*.
Qachon jahongirning mujdasi o‘ldi,
Qachon mushuklarga aylandi sherlar?

O‘zbek tili antonimlar lug‘atida yuqoridagi she’riy parchalarda keltirilgan “chinor” – “majnuntol”, “hilol” – “quyosh”, “mushuk” – “sher” so‘zlari bir-biriga zid tarzda keltirilmagan, ammo matn tarkibida o‘ziga xos tarzda kontekstual antonimlar hosil qilgan. Bu shoirning badiiy mahoratini belgilovchi, til unsurlaridan mahorat bilan foydalanganligining dalilidir. Bundan tashqari, bu so‘zlar sof zid ma’noli so‘zlar bo‘lgani ekspressivligi bu qadar kuchli bo‘lmas edi.

“***Paronimiya*** (yun. para-yonida, onyma-noma) – ikki yoki undan ortiq leksemalarning talaffuzda o‘zaro o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi” [3.181]. Shoir ijodida esa paronimlar ikki maqsadda – vazn va qofiyani tartibga solishda yordam beradi:

Hamon ko‘zlarimni tiksam qog‘ozga
Zanjirni uzar-da ozod bo‘lar sher,
Mening hasratimga hayrat qo‘shadi.
Navoiy qalbidan qalqib chiqqan she’r.

Yuqorida she’riy parchada “sher”va “she’r”ning paronimligi [1.41] yuzaga kelgan. Paronimlarni qofiya sifatida tanlash oson, ammo uni ma’noga, uslubga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan holda paronimlarni qofiyadosh qilish shoirning poetik mahoratidan dalolat beradi. Shuningdek, she’rdagi qofiyani saqlashda yordam bergan.

“Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Lug‘aviy birliklar o‘zaro ma’noviy munosabatiga ko‘ra ma’lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma’lum va bu ***graduonimiya***”. Bu munosabat ijodkor leksikasida ko‘p ishlatiladi, xususan:

Sharqdan kelgan shaboda
Bahorni olib kelar,
Yuraklarni o‘sha on
Quvnatadi sho‘x yellar.
Shamol esar, ayoz kesar, gupillar qor,
Kecha qora. Ko‘rinmas oy. Sahar yiroq.

Ma’no ko‘chish turlaridan ***metafora*** va ***sinekdoxa*** shoir ijodida ko‘p uchraydi. Masalan, sinekdoxa asosan vaziyatni kuchaytirish, she’rning ma’nosini oshirishga yordam beradi:

...Qotil qilich serpar...
Dumalaydi bosh,
Qonli qo‘llar uni xaltaga solar.
Eski shahar uxlar, mudragan toklar
Paxsa devorlarni mahkam quchoqlar.

Metonimiya ham shoir tomonidan qo‘llanganda ahamiyatga molik tomoni shundaki, unda milliylik, urf-odat va an’analarga sodiqlik barq urib turadi:

Bahor. Qir. Tranzistor.
Yangraydi: “Qorako‘zim...”
Olislarda boshi qor
Qoyalar tizim-tizim.

Ijodkor leksikasida eng ko‘p qo‘llangan so‘zlar uning ijod ko‘lamini, anglatmoqchi bo‘lgan badiiylashgan tarixiy haqiqatini, ifoda uslubini yuzaga chiqaradi. Statistik tadqiqotga ko‘ra, shoir X.Davron ijodida eng ko‘p qo‘llangan so‘zlar – *Vatan, xalq, she’r* so‘zlari hisoblanadi. “X.Davronga san’at, kitoblar, tarix, qadim adabiyot ko‘proq ilhom beradi” [2.3], – deydi I.G‘ofurov. Darhaqiqat, tahlillar ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi, shoir vatan, haqiqat, ona haqida ko‘plab purma’no she’rlar bitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M. O‘zbek tilidagi paronim so‘zlar lug‘ati. – Termiz: 2022. 41-b.
2. Davron X. Bahordan bir kun oldin. – Toshkent: Sharq, 1997. 100-b.
3.Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. 75-b.
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: 1994. 59-b.
5. Karimov S.Badiiy matnning uslubiy alomatlari. – Samarqand: SamDU, 1992. 47-b.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. 152-б.
8. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 112-b.
9. Шомақсудов. А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: 1983. 42-б.
10. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1997. 25-б.

Feruza ANORBAYEVA
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
E-mail address: anorbayeva1992@mail.ru

FRANSUZ TILIDAGI SO‘ROQ GAPLARNING TURLI KOMMUNIKATIV FUNKSIYALARI VA ULARNING DISKURSIV JARAYONDA TUTGAN O’RNINI TAHLIL QILISH

Annotatsiya: *s*o‘roq gaplarni vazifasiga ko‘ra turlarga ajratish. Fransuz tilida so’roq gaplarning muloqat jarayonida ularning funksiyalarini aniqlash. So‘roq gaplar orqali pragmatik maqsadlarni aniqlash va tahlil qilish. Fransuzcha muloqotda so‘roq gaplarning intonatsiya, kontekst va neverbal omillar bilan bog‘liq semantik xususiyatlarini o‘rganish.

Kalit so’zlar: so‘roq gaplar, so‘roq gaplarning turlari, pragmatik maqsad, intonatsiya, kontekst, verbal omillar, semantik ma’no.

Annotation: to classify interrogative sentences according to their function. To determine the functions of interrogative sentences in the communication process in French. To identify and analyze pragmatic goals through interrogative sentences. To study the semantic properties of interrogative sentences in French communication related to intonation, context, and nonverbal factors.

Key words: interrogative sentences, types of interrogative sentences, pragmatic purpose, intonation, context, verbal factors, semantic meaning.

Аннотация: классифицировать вопросительные предложения по их функции. Определить функции вопросительных предложений в процессе коммуникации на французском языке. Выявить и проанализировать прагматические цели посредством вопросительных предложений. Изучить семантические свойства вопросительных предложений во французской коммуникации, связанные с интонацией, контекстом и невербальными факторами.

Ключевые слова: вопросительные предложения, типы вопросительных предложений, прагматическая цель, интонация, контекст, вербальные факторы, семантическое значение.

Kirish. So‘roq gaplarning turlari ularning ma’nosiga ko‘ra (axborot so‘rog‘i, ritorik, tanlovli so‘roq va h.k.) tasniflashdir. So‘roq gaplar – bu savol mazmunini ifodalaydigan gaplardir. Ular yordamida biror narsa haqida ma’lumot olish, fikr bildirish, tanlov taklif qilish yoki tinglovchining e’tiborini jalb qilish mumkin. So‘roq gaplar maqsadiga ko‘ra bir nechta turlarga bo‘linadi. Quyidagi so‘roq gaplarning asosiy turlari tasniflanadi:

— axborot so‘rovi (axborot so‘roq gaplar). Bu gaplar ma’lum bir savolga aniq javob olish uchun ishlatiladi. Odatda so‘roq olmoshlari (kim, nima, qayerda, qachon, qanday, nechanchi, nechta va h.k.) yordamida tuziladi. Misol uchun: Bu ishni kim bajardi? Ular qayerga ketishdi? Sen bu kitobni qachon o‘qiding?

— ha/yo‘q (tasdiq/inkor) so‘roq gaplar. Bu gaplar “ha” yoki “yo‘q” shaklida javob beriladigan oddiy so‘roq gaplardir. Odatda gap tartibi o‘zgaradi yoki so‘roq ohangi bilan aytiladi. Misol uchun: Sen bu filmni ko‘rdingmi? U ertaga keladimi? Siz bugun darsda bo‘ldingizmi?

— tanlovli so‘roq gaplar. Bu gaplar bir nechta variantdan birini tanlashni talab qiladi. Odatda, “yoki” bog‘lovchisi bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq variantlar mavjud bo‘ladi. Misol uchun: Sen choy ichasanmi yoki qahva? Bugun boramizmi yoki ertaga? U o‘qituvchimi yoki talabami?

— ritorik so‘roq gaplar. Bu gaplar aslida javob kutmaydi. Ular ko‘pincha fikrni kuchaytirish, tinglovchining e’tiborini tortish yoki ta’sir ko‘rsatish maqsadida ishlatiladi. Misol uchun: Men bunga chidashim mumkinmi? Kim bunga rozi bo‘ladi? Axir bu hayot deb bo‘ladimi?

— emotsional-so‘roq gaplar (hayrat, g‘azab, ajablanish ifodasi) Bu gaplar his-tuyg‘ularni ifodalash uchun ishlatiladi. So‘roq shaklida bo‘lsa-da, ko‘pincha axborot olish emas, balki holatga munosabat bildirish maqsadida aytiladi. Misol uchun: Nima?! Ular shunday

qilishdimi? Qanday qilib bu mumkin?! Sen ham bunday deysanmi?

Fransuz shaxslararo muloqotlarida so‘roq gaplarning funksiyalarini aniqlash. Fransuz tilida shaxslararo muloqotda **so‘roq gaplar** nafaqat axborot olish, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, his-tuyg‘ularni ifodalash va suhbatni boshqarish kabi turli **pragmatik funksiyalar**ni bajaradi. Quyidagi fransuzcha so‘roq gaplarining asosiy funksiyalari keltiriladi:

— **axborot olish funksiyasi (fonction informative).** Suhbatdoshdan aniq ma’lumot olish maqsadida beriladi. Bu eng an’anaviy funksiyadir. **Misol uchun:** Tu viens d’où ? (Sen qayerdansan yoki Sen qayerdan kelyapsan?) Quel âge as-tu ? (Yoshing nechchida?)

— tasdiqlash yoki inkor kutish (fonction de confirmation). Bu holatda savol beruvchi suhbatdoshdan o‘z fikrini tasdiqlashni yoki inkor qilishni kutadi. Ko‘pincha “n’est-ce pas ?”, “non ?” kabi shakllar so’roq gapga qo’shib ishlatiladi. **Misol uchun:** Tu viens avec nous, n’est-ce pas ? (Biz bilan borasan, to‘g‘rimi?) Il est médecin, non ? (U shifokor, shundaymi? Bunday so’roq gaplarda ohangga biroz e’tibor qaratiladi.

— tanlov taklif qilish (fonction de choix / question alternative). Bu turdagi savollarda ikki yoki undan ortiq variantdan birini tanlash taklif qilinadi. **Misol uchun:** Tu préfères le thé ou le café ? (Choyni xohlaysanmi yoki qahvani?) On y va maintenant ou plus tard ? (Hozir boramizmi yoki keyin?)

— baholovchi/emotsional funksiya (fonction expressive ou évaluative). So‘roq gap orqali hayrat, norozilik, achinish yoki boshqa his-tuyg‘ular ifodalanadi. Bunday hollarda gap savol shaklida bo‘lsa-da, axborot olinmaydi. **Misol:** Tu plaisantes ?! (Hazillashyapsanmi?!) Mais qu’est-ce que tu fais là ?! (Sen bu yerda nima qilayapsan o‘zi?!)

— ritorik funksiya (fonction rhétorique). Javob kutilmaydigan savollar bo‘lib, ular tinglovchiga ta’sir o‘tkazish, fikrni kuchaytirish maqsadida ishlatiladi. **Misol uchun:** Est-ce que la liberté a un prix ? (Erkinlikning narxi bormi?) Qui pourrait croire une chose pareille ? (Bunday narsaga kim ishonadi o‘zi?)

— suhbatni davom ettirish yoki ochish funksiyasi (fonction phatique ou de gestion de discours). Suhbatni boshlash, davom ettirish yoki e’tiborni tortish maqsadida ishlatiladi. Bu savollar ko‘pincha javobdan ko‘ra, suhbatni tiriltirishga xizmat qiladi.

Misol uchun: Alors, comment ça va ? (Xo‘sh, ahvol qalay?) Et toi, qu’en penses-tu ? (Sen-chi, nima deb o‘ylaysan?)

So’roq gaplar orqali amalga oshiriladigan pragmatik maqsadlarni tahlil qilish (masalan: ta’sir qilish, yaqinlashish, murojaat, shikoyat qilish va hokazo). So‘roq gaplar nafaqat axborot olish vositasi, balki **pragmatik maqsadlarni amalga oshirish** uchun ham kuchli til vositasidir. Shaxslararo muloqotda ular **psixologik, ijtimoiy va kommunikativ** niyatlar asosida ishlatiladi. Quyida so‘roq gaplar orqali amalga oshiriladigan asosiy **pragmatik maqsadlar** tahlil qilinadi:

1. Ta’sir qilish (influence / persuasion). So‘roq gaplar orqali suhbatdoshga bevosita yoki bilvosita bosim o‘tkaziladi, uni biror fikrga olib kelish yoki harakatga undash ko‘zlanadi. **Misol uchun:**

Sen buni boshqa hech kimga aytmaysan, to‘g‘rimi?

→ Tasdiqlash orqali ishonch va mas’uliyat yuklanadi.

Axir siz o‘ylab ko‘rdingizmi bu oqibatlarni?

→ Qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish niyati.

Pragmatik funksiya: suhbatdoshni ma’lum fikr yoki harakat sari yo‘naltirish.

2. Yaqinlashish, muloqotni yumshatish (rapprochement / politesse). So‘roq gaplar yordamida muloqotni yumshoq, samimiy qilish, ijtimoiy masofa qisqartiriladi.

Misollar:

Sizni bezovta qilmayapmanmi? → Hurmat ko‘rsatish, ruxsat so‘rash.

Charchamadingizmi ishda? → Qiziqish, g‘amxo‘rlik bildirish.

Pragmatik funksiya: ijobiy muloqot muhiti yaratish, mehr-muhabbat va hurmat ifodalash.

3. Murojaat (adresse / appel à l’attention). So‘roq gaplar orqali suhbatdoshning e’tiborini tortish yoki uni suhbatga jalb qilish mumkin. **Misollar:**

Eshitayapsizmi?

Mana shu joyni tushundingizmi?

Pragmatik funksiya: e’tiborni jamlash, aloqa o‘rnatish yoki uni mustahkamlash.

4. Shikoyat, norozilik (plainte / protestation). Savol shaklida norozilik bildirilib, vaziyatga baho

beriladi. Ko‘pincha ritorik yoki kinoyaviy ohangda aytiladi. **Misollar:**

Bu ishni nega men qilishim kerak?!

Qanday qilib bunday xatoga yo‘l qo‘yish mumkin?

Pragmatik funksiya: emotsional reaksiya, tanqid yoki norozilik bildirish.

5. Tekshiruv / nazorat (contrôle / vérification). Suhbatdoshning harakatlarini yoki holatini nazorat qilish maqsadida savollar beriladi. **Misollar:**

Uy vazifasini bajardingmi?

Hamma tushunarli bo‘ldimi?

Pragmatik funksiya: Javob orqali muayyan nazorat yoki baholash olib borish.

6. Qiziqish bildirish, samimiyat (intérêt / empathie). Savollar suhbatdoshga e’tibor, hamdardlik yoki do‘stona munosabatni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. **Misollar:**

Bugun o‘zingizni qanday his qilyapsiz?

Oilangiz yaxshimi?

Pragmatik funksiya: shaxsiy yaqinlik, samimiy aloqani mustahkamlash.

Fransuz tilida so‘roq gaplar nafaqat grammatik tuzilma orqali, balki **intonatsiya**, **kontekst**, va **neverbal omillar** (ya’ni, tana harakati, yuz ifodasi, imo-ishoralar) orqali ham **semantik (ma’no) yuki**ni anglatadi va o‘zgartiradi. Quyida bu elementlarning har biri fransuzcha so‘roq gaplarda qanday ishlashini batafsil tahlil qilamiz.

1. Intonatsiya (L’intonation). Fransuz tilida intonatsiya savolni aniqlashda asosiy vositalardan biridir. Hatto grammatik shakllanmagan oddiy gap ham intonatsiya orqali so‘roq gapga aylanishi mumkin.

2. Kontekst (Le contexte). So‘roq gapning ma’nosi uni ishlatilgan nutq holati, mavzu, ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabat va voqea doirasiga qarab o‘zgaradi.

3. Neverbal omillar (Les éléments non-verbaux). So‘roq gaplarda yuz ifodasi, ovoz ohangi, imo-ishoralar orqali beriladigan neverbal belgilar ma’noni keskin o‘zgartirishi mumkin.

Fransuz muloqotida neverbal belgilar **so‘roq gapning emotsional yoki pragmatik konnotatsiyasini** oshiradi va aniqlik kiritadi.

Xulosa qilib aytganda, so’roq gaplar fransuz tilida kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo’lib, ularning turli kommunikativ funksiyalari va diskursdagi roli nutq jarayonini yanada boyitadi hamda samarali muloqotni ta’minlashda asosiy o’rin tutadi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va fransuz tilini o’rgatishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pragmatika va diskurs tahlili bo‘yicha manbaalar.
2. Ducrot, O. Les échelles argumentatives. — Paris: Les Éditions de Minuit, (1980).
3. Ducrot, O. Dire et ne pas dire. — Paris: Hermann, (1984).
4. Kerbrat-Orecchioni, C. Les interactions verbales. Tome I. — Paris: Armand Colin, (1990).
5. Kerbrat-Orecchioni, C. Le discours en interaction. — Paris: Armand Colin, (2005).
6. Moeschler, J. Modélisation du discours: de la syntaxe à la pragmatique. — Paris: Duculot, (1989).
7. Moeschler, J., & Reboul, A. Dictionnaire encyclopédique de pragmatique. — Paris: Seuil, (1994).

Vohida YULDOSHEVA
ToshDO‘TAU doktoranti,
vohida88@mail.ru

TABU VA EVFEMIZM: O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA LINGVISTIK VA MADANIY YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu tadqiqot o‘zbek va nemis tillarida taqiq va evfemizmlarni lingvistik va madaniy jihatdan qiyosiy tahlil qiladi. Ikkala tilda ham ushbu lingvistik hodisalar madaniy jihatdan nozik mavzularni muhokama qilishda vosita sifatida xizmat qiladi, ular ko‘pincha diniy, axloqiy va ijtimoiy me’yorlar ta’sirida shakllanadi. O‘zbek tilida evfemizmlar diniy an’analar va oilaviy qadriyatlarga chuqur ildiz otgan bo‘lsa, nemis tilida ular ochiqlik, tenglik va ruhiy hassoslik tamoyillarini aks ettiradi. Maqolada ism qo‘yish an’analari, diniy ifodalar, oilaviy nutq hamda grammatik tuzilishlar kabi turli toifadagi tabu va evfemizmlar o‘rganiladi. Madaniy farqlarga qaramay, har ikkala til ham odobni saqlash va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash uchun metafora, metonimiya va affiksatsiya kabi o‘xshash lingvistik vositalardan foydalanishini ko‘rsatadi. Ushbu topilmalar tilning madaniy hususiyatlari va axloqiy tizimlarni qanday aks ettirishini tushunishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: tabu, evfemizm, o‘zbek tili, nemis tili, lingvistik madaniyat, diniy qadriyatlar, nutq etiketi.

Аннотация: данное исследование представляет собой сравнительный лингвокультурный анализ табу и эвфемизмов в узбекском и немецком языках. В обоих языках эти лингвистические явления служат средством обсуждения культурно чувствительных тем, формируясь под влиянием религиозных, моральных и социальных норм. В узбекском языке эвфемизмы глубоко укоренены в религиозных традициях и семейных ценностях, тогда как в немецком они отражают принципы открытости, равенства и психологической деликатности. В статье рассматриваются такие категории, как традиции именования, религиозные выражения, семейная речь и грамматические структуры. Несмотря на культурные различия, оба языка используют схожие лингвистические средства — метафору, метонимию и аффиксацию — для соблюдения речевого этикета и социальной гармонии. Полученные результаты способствуют глубокому пониманию того, как язык отражает культурные особенности и морально-этические системы.

Ключевые слова: табу, эвфемизм, узбекский язык, немецкий язык, лингвокультура, религиозные ценности, речевой этикет.

Annotation: this study presents a comparative linguistic and cultural analysis of taboos and euphemisms in Uzbek and German. In both languages, these linguistic phenomena function as tools for discussing culturally sensitive topics, often shaped by religious, moral, and social norms. While euphemisms in Uzbek are deeply rooted in religious traditions and family values, in German they reflect principles of openness, equality, and psychological sensitivity. The article explores various categories of taboos and euphemisms, such as naming traditions, religious expressions, family speech, and grammatical structures. Despite cultural differences, both languages employ similar linguistic devices—such as metaphor, metonymy, and affixation—to maintain politeness and ensure social harmony. The findings contribute to a deeper understanding of how language reflects cultural traits and ethical systems.

Key words: taboo, euphemism, Uzbek language, German language, linguistic culture, religious values, speech etiquette.

Insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida til faqat aloqa vositasi bo‘lib qolmay, balki jamiyatning axloqiy, diniy, estetik va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi asosiy mezon sifatida shakllanib borgan. Shu jihatdan, til hodisasi bo‘lgan tabu va evfemizmlar inson tafakkuri, madaniyati, diniy dunyoqarashi va axloqiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Ayrim so‘zlar va tushunchalar jamiyatda bevosita ifodalashga noqulay yoki nomaqbul deb topilib, ular yumshoqroq, estetik shakllar orqali – evfemizm vositasida ifodalanadi. Bu maqolada tabu va evfemizm hodisalari, ularning lingvistik va madaniy xususiyatlari, shuningdek, o‘zbek va nemis tillaridagi namunalari asosida o‘rganiladi.

Tabu va evfemizmlarning shakllanishiga bir nechta asosiy omillar sabab bo‘ladi. A. Omonturdiyev [1] ularga diniy va mifologik e’tiqodlar, inson nutqida mavjud bo‘lgan

so‘z magiyasi, ya’ni so‘zning sehrli kuchiga ishonish, nutq madaniyatining axloqiy-estetik talablari, shuningdek, siyosiy va mafkuraviy zaruratlar, nihoyat, so‘zlovchining shaxsiy yoki subyektiv ehtiyojlari kabi omillarni asos qilib ko‘rsatadi. Tadqiqotimizda uning yondoshuvlariga qo‘shilamiz va shu asosda tahlil qilamiz.

Diniy va mifologik omillar asosida tabular va evfemizmlarning shakllanishi

Tabu qadimdan mavjud bo‘lgan madaniy va ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning shakllanishi bevosita diniy e’tiqodlar va mifologik qarashlar bilan bog‘liq. Dastlab ibtidoiy jamiyatlarda tabu muqaddas yoki man qilingan deb hisoblangan narsalar, shaxslar, harakatlar yoki so‘zlar bilan bog‘langan. Bu holatlar odamlarning ruhlar, tangrilar yoki ilohiy kuchlarga bo‘lgan ishonchidan kelib chiqqan. Din tabu tushunchasining eng muhim davomchilaridan biri hisoblanadi. Diniy taqiqlar o‘z mohiyatiga ko‘ra huquqiy emas, balki axloqiy va ilohiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli, ular tabu bilan bevosita aloqador. Masalan, “gunoh” tushunchasi — bu diniy tabu bo‘lib, insonning ilohiy irodaga zid harakatini bildiradi. Bunday holat huquqiy jinoyat emas, balki, ma’naviy buzilish sifatida talqin qilinadi. Islomda “harom”, xristianlikda “gunoh”(sin), yahudiylikda “tame” tushunchalari aynan shunday diniy tabularni ifodalaydi.

So‘zning sehrli kuchi va ma’nodagi o‘zgarishlar

So‘z magiyasi — bu so‘zlarning ma’naviy kuchi va ularga berilgan ijtimoiy, madaniy va psixologik ma’no bilan bog‘liq bo‘lgan fenomen. So‘zlar nafaqat ma’lum bir predmet yoki hodisani ifodalashda, balki, insonning ichki his-tuyg‘ulari, dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlarini aks ettirishda ham katta rol o‘ynaydi. Aynan shuning uchun ba’zi so‘zlar yoki ifodalar maxsus kuchga ega deb hisoblanadi va ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashiladi. Bu, ayniqsa, tabu va evfemizmlar bilan bog‘liq vaziyatlarda o‘zini namoyon qiladi.

Turli davrlarda psixologik hamda axloqiy-axloqshunoslik omillar evfemizatsiya jarayoniga turli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Bu holat bugungi kunda ham an’analar va marosimlar shaklida saqlanib qolgan qadimiy tabularda o‘z aksini topgan. Shuningdek, so‘zning sehrli kuchiga bo‘lgan qadimiy ishonch xalq og‘zaki ijodida va kundalik nutqda hamon uchraydi. Jumladan, muayyan sinovlar yoki muhim voqealar oldidan ezgu niyat bildiruvchi iboralar aks ma’no bilan ifodalangan shaklda qo‘llaniladi. Misol uchun, rus tilidagi **“**Ни пуха, ни пера**”** (“Tuk ham, pat ham yo‘q bo‘lsin”) iborasi aslida “omad tilayman” degan ma’noni anglatadi. Bu ibora turli millat va ijtimoiy qatlam vakillari orasida keng tarqalgan bo‘lib, ba’zan **“**Ни хвоста, ни чешуи**”** (“Dum ham, tangacha ham bo‘lmasin”) kabi variantlari bilan to‘ldiriladi. Nemis tilida esa tarixiy ildizlarga ega **“Weidmanns Heil!”** iborasi saqlanib qolgan. Bu ibora ilgari ovga chiqayotgan kishiga omad tilash uchun ishlatilgan bo‘lsa-da, hozirgi zamon nutqida kam uchraydi. O‘zbek tilida esa ezgu tilaklar ijobiy shaklda ifodalanadi: “Safaringiz xayrli bo‘lsin”, “Yo‘lingiz bexatar bo‘lsin” yoki “Ishingiz o‘ngidan kelsin” kabi. Bundan tashqari, salbiy oqibatlardan saqlanish maqsadida aytiladigan “Ko‘z tegmasin” iborasi ham keng qo‘llanadi. Nemis tilida salbiy ta’sirlardan saqlanish va omad tilash maqsadida ishlatiladigan iboralar mavjud bo‘lib, ular og‘zaki nutqining qadimiy e’tiqodlar bilan bog‘liq qatlamini tashkil etadi. Jumladan, **“Ich dr**ücke die Daumen” (“Barmoqlarimni bosaman”), **“Hals und Beinbruch”** (“Bo‘yin va oyoq sinishini tilash”) iborasi biror kishiga omad tilash, uni ruhlantirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ism — bu shunchaki identifikator emas, balki u xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va estetik qarashlarining mahsulidir. Tarix davomida ismlar inson hayoti, uning qismati va ijtimoiy muhitdagi o‘rni bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Tarixchi Sh. O‘ljayeva [2] fikricha, chaqaloqqa qo‘yiladigan ism uning taqdiriga ta’sir qiladi, ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo‘ladi deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismlarni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr esh, xamdam bo‘lib yuradigan vositaga aylantira borgan. Shu tarzda “asrovchi ismlar” yoki “himoya nomlari” deb yuritiluvchi nomlar guruhi yuzaga kelgan.

Turkiy xalqlarda nom berishning odatdagi tartib va talabidan tashqari bir nechta sabablarini tilshunos olim A.Omonturdiyev [1] “Professional nutq evfemikasi” nomli kitobida ham sanab o‘tgan:

— rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o‘smir surunkali kasal bo‘laversa, nomi (xususan, Alloh, payg‘ambar, avliyo yoki umuman, burjlar nomi bilan atalgan bo‘lsa, nomni ko‘tarolmadi deb hisoblanib) qaytariladi yoki u kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada, bola qo‘shaloq nom (bir rasmiy, bir evfemik atama)ga ega bo‘lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi, saqlovchi nom sifatida faollashib ketadi;

— oilada bola turavermasa, tug‘ilib o‘laversa, navbatdagi tug‘ilgan chaqaloqqa, o‘g‘il-qizligidan qat’iy nazar, O‘lmas, Tursun, Turg‘un, Umrzoq, Sotiboldi, Xudoyberdi, Yashar, Turdiboy, Toshtemir, Bo‘ri, Arslon kabi

balo qazodan himoyalovchi, asrovchi, yomon ko‘zdan saqlovchi, yovuz ruhlarni chalg‘ituvchi ot yoki evfemik atamalar qo‘yiladi.

Xristian madaniyatida bolaga avliyo yoki muqaddaslar nomi qo‘yish — uni balodan saqlovchi, ilohiy qo‘llovchi ismlar sifatida qaralgan. Bunda nomlarga Johannes, Maria, Matthias, Gabriel kiradi. Bu ismlar diniy xarakterga ega, bola “muqaddas himoya” ostida bo‘lishiga ishoniladi.

Nutqning axloqiy va estetik talablariga javob berishi

Har qanday jamiyatda nutq madaniyati muhim o‘rin tutadi. Voqelikni bayon etishda noziklik va ehtiromli ifoda shakllariga rioya qilish odob-axloq talabidir. Agar bu me’yor buzilsa, so‘zlar o‘z ta’sirini yo‘qotadi, ma’nosida norozilik uyg‘otadi va tinglovchida salbiy tuyg‘ularni paydo qiladi. Axloqiy me’yorlardan chetga chiqilganda, nutq nafaqat ta’sirchanlikdan, balki joziba va tarbiyaviy quvvatdan ham mahrum bo‘ladi. Jamiyatda ba’zi mavzu va voqeliklarni ochiq ifoda etish turli sabablarga ko‘ra cheklangan bo‘lishi mumkin.

O‘zbek oilaviy an’analarga ko‘ra, oila a’zolariga murojaat qilishda turli shakllar mavjud. Masalan, er xotinni yoki xotin erni ismi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri chaqirish odatiy hol emas va ko‘pincha madaniy jihatdan ma’qul ko‘rilmaydi. Xotinning ismi — Ruxsora, qizining ismi esa — Nigora bo‘lsa ham, odob-axloq qoidalari asosida er xotinni qizining yoki o‘g‘lining ismi bilan chaqirish holatlari uchraydi. Shuningdek, er ayoliga onasi, ayasi, bekam, xonim deya, ayol ham eriga dadasi, dadajonisi, xo‘jayin kabi so‘zlar bilan murojaat qiladi. Ushbu tushunchalar, jumladan, murojaat atamalarining yuqoridagi kabi tabulashish va evfemalashish jarayonlari nutqning etik va estetik talablariga muvofiq, ya’ni uzoq vaqt davomida shakllangan an’analar, rasm-rusumlar hamda axloq-odob me’yorlari asosida sodir bo‘ladi. Nemis tilida esa er-xotin o‘rtasidagi murojaat ko‘proq bevosita ism orqali, ya’ni Vornamenanrede shaklida amalga oshiriladi. Er xotinini to‘g‘ridan to‘g‘ri “Anna”, “Klara” deb chaqiradi, ayol esa eriga “Thomas”, “Markus” deb murojaat qiladi. Bu zamonaviy nemis jamiyatida tenglik, shaxsiy erkinlik va ochiqlik qadriyatlari bilan bog‘liq. Biroq bunda ham evfemik shakllar mavjud: xotinini yoki erini “Schatz” (xazinam), “Liebling” (sevgilim), “Süße/Süßer” (shirinim), “Hase” (quyoncham) kabi erkalovchi nomlar bilan chaqirish hollari keng tarqalgan. Bu iboralar estetik jihatdan nafis, hissiy jihatdan iliq bo‘lib, tilning obrazlilik va muloyimlik xususiyatlarini ifodalaydi.

Ushbu maqolada o‘zbek va nemis tillaridagi tabu hamda evfemizmlarning lingvistik va madaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda tabu va evfemizm fenomenlari til egalarining diniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq. O‘zbek tilida evfemizmlar ko‘proq hurmat, ehtirom va an’anaviy odob me’yorlari bilan, nemis tilida esa ochiqlik, shaxsiy erkinlik va siyosiy to‘g‘rilik bilan chambarchas aloqador. Ikkala til ham metafora, metonimiya, affiksatsiya kabi umumiy lingvistik vositalar orqali nozik mavzularni yumshoq ifodalashga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 210-b.
2. O‘ljayeva Sh. Ismlar semantikasi va madaniy konteksti, O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2021.
3. G‘ulom G‘. Sen yetim emassan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1962. 320-b.
4. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. 276-b.
5. Ahmad S. Jimjitlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988. 190-b.

Bashorat BOVMANOVA
O'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
bashoratbovmanova@mail.com

"HALOLLIK" UMUMMADANIY QADRIYAT SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada halollikning umummadaniy qadriyat ekanligi ifodalangan. Uning inson hayotidagi ahamiyati hayotiy dalillar va buyuk allomalarning halollik borasidagi qarashlari bilan yoritilgan.
Kalit so'zlar: *qadriyat, halollik, to'g'rilik, halol yashash, halollik vaksinasi*
Аннотация: в статье выражена мысль о том, что честность является общекультурной ценностью. Ее значение в жизни человека подтверждается доказательствами и взглядами великих ученых на честность.
Ключевые слова*:* ценность, честность, правильность, жить честно, ваксина честности.
Annotation: the article presents the idea that honesty is a universal cultural value. Its significance in human life is substantiated by evidence and the perspectives of great scholars on honesty.
Key words: *value, honesty, correctness, living honestly, honesty vaccine*

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko`rsatish uchun qo`llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Ham umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan, ham milliy ko'rinish kasb etgan qadriyatlardan biri halollikdir. Izohli lug'atda halollik so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Halollik — vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish; to'g'rilik, soflik. *Halollik, to'g'rilik, poklik — odamiylikning eng zaruriy mezonidir.* Gazetadan: "*Yoshlikda hamma ham oliyjanob hislar, sof vijdon, halollik, nomus haqidagi fikrlar bilan to'lgan bo'ladi"* (F. Musajonov, Himmat).

2. Erga yoki xotinga xiyonat qilmaslik; vafodorlik.

3. Halol ekanlik. "*Men mavizni tamom shar'iy qilib tayyorlayman, tunov kuni mahallamizning oxunlari halolligiga fatvo berib ketdilar"* A. Qodiriy, O'tgan kunlar. (O'TIL, 5-jild, 528-bet).

Diniy tushuncha bo'lgan halollik shariat mumkin qilgan taom, kasb, turmush o'rtoq, kiyim, savdo va boshqa narsalarni anglatadi. Lekin halollik so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lsa-da, bu tushuncha arablar kirib kelguncha ham turkiy xalqlarda mavjud edi. Masalan, "Avesto"ning 3 ta muhim qoidasi "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" shiori zamirida ham halollik tushunchasi mavjud. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra inson yaxshi fikrga ega bo'lsa, jaholat va razolat undan yiroq bo'ladi, boshqa insonlarga nisbatan g'arazgo'ylik qilmaydi. Asarda inson yashash tarzining mezoni sifatida "rostgo'ylik", "to'g'rilik", "halollik", "poklik" kabi sifatlar ko'rsatilgan.

Halol yashash masalasi "Moniy davri" (milodning III–IV asri, asoschisi Moniy 216-276-yillarda yashagan) falsafiy-ilohiy ta'limotida ham yaqqol ifodalangan. Moniy fikricha, ikki dunyo – "zulmat va ziyo dunyosi" mavjud, birinchisida adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik hukm suradi, ikkinchisi abadiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosidir.

Firdavsiy o'zining o'lmas "Shohnoma" asarida Turon mamlakati, xalq qo'zg'oloni, Mazdakning ta'limoti to'g'risida hikoya qiladi. Mazdakning barcha kishilar tengligi haqidagi ta'limoti Markaziy Osiyoda ham keng yoyilgan. Tengsizlik kishilarning qon-qonidan o'tar ekan, tenglik ularning orzu-istaklariga, hayotiy maqsadlariga aylanib, bu qadriyat uchun minglab insonlar umrini fido qilgani tarixdan ma'lum. Jamiyatdagi tenglik va tengsizlik zamirida ham jamiyatni halol boshqarish masalasi ko'ndalang qo'yiladi.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" risolasidagi falsafiy qarashlariga e'tibor qaratamiz. Forobiy shahar-davlatlarni fozil va johilga bo'ladi. "Fozil shaharlar shunday shaharki, u aholisining o'zaro hamkorligi asosida mavjuddir", – deb yozadi alloma. "Kamolotning yuqori cho'qqisiga erishgan jamiyatlarda kasb-hunarni ozodona tanlash imkoniyati bor. Bu yerda yakkahokimlik yo'q bo'lib, haqiqiy ozodlik va teng huquqlilik hukmronlik qiladi. Bunday shaharlarning aholisi o'z boshlig'ini saylaydi, ammo uni har qachon hokimiyatdan mahrum qilishi ham mumkin. Bunday shaharlarning boshliqlari o'z faoliyatlarida adolat, teng huquqlilik va umumiy farovonlik qoidasidan kelib chiqadilar. Forobiyning mazkur risolasidagi fikrlari xalqning orzusi – adolatli, teng huquqli, farovon, ideal jamiyat qurish orzusidir. Forobiy nazarda tutgan "fozil odamlar shahri"da ham jamiyat halol boshqarishga asoslanishi nazarda tutilgan.

Tarix, astronomiya va mineralogiyaga katta hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy qadriyatlarga, insoniy fazilatlarga to'xtalib, quyidagi fikrlarni keltiradi: "Yaxshilikka intilish, uning (oliyjanoblikning) o'sgani sari kuchayaveradi va yaxshilik umuman jamiki odamlarga, xususan, qarindosh-urug'larga yaxshilik tilashdan iborat, qo'l kaltalik qilganda yolg'iz yaxshi niyat bilan, imkon berganda esa bevosita xayrli ish bilan yaxshilik qilinadi".

Yusuf Xos Hojib esa ushbu bayti orqali yoshlarga nasihat qilib ularni halol mehnat qilishga chorlamoqda:

U bilsin xilma-xil kasb-hunar to‘lug‘,
Inson yuzin mehnati qilar yorug‘.
Bilim, kasb-hunar o‘rgan, qadrla uni,
Kasb-hunar qadrli qilgay oxir seni.
Ilm ol, hunar o‘rgan, behuda yurma,
Yaxshilik keltirar bir kun, unutma.
Kimning kasb-kori bo‘lsa, nomi chiqar,
Hunarsiz unutilar, nomsiz yitar.

Navoiyshunos olim, akademik ustozimiz Azizxon Qayumov qalamiga mansub “Yoshlar tarbiyasida moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligi” nomli monografiyada Navoiyning halollik bobidagi fikrlari keng bayon qilingan. Unda yozilishicha, ta’magirlikka qarshi kurash Alisher Navoiy tafakkur dunyosidagi asosiy prinsiplardan biridir. Chunonchi, “Hayrat ul-abror”ning yettinchi maqolati garchi qanoat ta’rifiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, Alisher Navoiy uning kirish qismida ta’magirlikning xorlikka olib kelishini, ta’magir gado kabi ekanini, ta’ma qilgan amaldor yuvindixo‘r, qanoatli darvesh esa podshoh kabi ekanini ta’kidlaydi: “Kulbada darveshki, qoni’ durur, Foyiq erur shahg‘aki, tame’durur. Chunki tama’ bo‘ldi gadolar ishi, Bilki, gadodur tama’ etgan kishi”. Navoiyning g‘oyasida yuksaklikka eltuvchi narsa faqat qanoatdir. Kishi qanchalik zebu ta’madan yiroq bo‘lsa, shuncha xotirjam bo‘ladi, osoyishta yashaydi. Kishiga oltin, javharlar to‘la taom keltirsalar, och odam uni yeya biladimi? Uni chaynashda tish sinadi, yutmog‘idin bo‘g‘iz yaralanadi, me’da uni xazm eta olmaydi. Bunday taomni yegan halok bo‘ladi. Navoiy ta’magirlik va ochko‘zlikni keskin qoralaydi, insonlarni halollikka, qanoatga chaqiradi. Navoiyning fikricha, halollik va qanoat insonning shaxsiy fazilatlarini baland tutishga yordamlashadi, ularni ulug‘vor etadi.

Buyuk Navoiyning halollik borasidagi fikrlarini uzoq keltirishimiz mumkin. Maqsadimiz – yoshlarni halollik fazilatlariga ega shaxs sifatida kamol toptirish vositalarini topish, bu ishda Navoiy bobomiz asarlari qo‘l kelishini yana bir bor asoslash.

Bugungi kunda halollik tushunchasi yangi, ya’ni “korrupsiyasiz yashash” semantikasiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomada “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”, deb ta’kidladi.

Bu Vatanimiz taraqqiyotini jadallik bilan olg‘a surish uchun korrupsiya ildizlariga bolta urish, har bir odam o‘z oldiga halollikni bosh vazifa qilib qo‘yishi lozimligini, halol bo‘lmagan odamlarni majoziy ma’noda, “halollik vaksinasi” bilan emlash zarurligini anglatadi. Xo‘sh, “halollik vaksinasi” nima va u qanday emlanadi?

Nazarimizda, “halollik vaksinasi” inson qalbiga igna bilan emas, iymon nuri orqali o‘tib, uning vijdonini poklaydi. Har qanday insonga qondan va ona suti orqali “halollik vaksinasi” singib boradi. Demak, inson halol bo‘lishi uchun uning iymoni butun bo‘lishi lozim. Har bir odam o‘z ishini halol bajarsa, u “hallollik vaksinasi” bilan emlangan bo‘ladi. Ana shunday immunitetni shakllantirish vazifasi avvalo ota-onalar, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlari, shuningdek, xalqimizning ziyoli, ma’naviyatli qismi zimmasiga yuklanadi.

Iymonli odam harom luqma, birovning haqini yeyishdan, harom ishlar qilishdan tiyiladi, chunki uning vijdoni pokligi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Va albatta, u ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, xalqi va Vatani uchun fidoyilik bilan halol mehnat qiladi, halol luqma topib, farzandlariga yediradi.

Ming afsuski, yaqin vaqtgacha “halollik vaksinasi” bilan emlanmagan odamlar poraxo‘rlikka, tanish-bilishchilikka berilib ketishi natijasida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yishdi. Bu holat barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim muassasalariga kirib kelishi kechirilmas va achinarli holat sanaladi. Oliy ta’lim muassasalarida tanish-bilishchilik, tog‘a-jiyanchilik asosida o‘qishni bitirib, diplom olgan mutaxassis, yana shu asosda ishga joylashib ham olardi. Ilmni puxta egallamagan “mutaxassis”dan nimani ham kutish mumkin. Bundaylar ishlaydigan soha oqsaydi, rivojlanish bo‘lmaydi, oxir-oqibatda jamiyatni botqoqlikka qarab tortadi. Ammo yurtboshimizning sa’y harakatlari natijasida Yangi O‘zbekistonda korrupsiya sohasida anchayin o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, xalqimizni “halollik vaksinasi” bilan “emlanishiga” jiddiy e’tibor berilmoqda. Har bir yangi siyosiy qadam o‘z natijasini berishi uchun vaqt talab qilgani kabi bu islohotlarning natijasida sekinlik bilan ba’zi odamlarning halol yashash prinsipiga o‘tayotganliklarining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004.
2. И.Йўлдошев. Навоий талқинида ҳалоллик, Ижодий парвоз, 2020. № 1-2.
3. Farobiy Majmut at-rasil al-hukuma. O‘z FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida arab tilida saqlanayotgan 2385-raqam ostidagi qo‘lyozma 2a sahifasi.
4. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ижтимоий одоблар. –Тошкент: Hilol nashr, 2012.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O‘zbek xalq maqollarining izohli lug’ati. – T., 1990.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi.
8. https: newtone
9. https://ru.wikipedia.



Nozimaxon XOLMATOVA,
Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich maqsadli tayanch doktoranti
Email: xolmatovanozimaxon7@gmail.com

KASBIY DISKURSDA SUKUT SAQLASHNING PRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek harbiy sohasiga oid filmidan olingan dialoglar asosida kasbiy diskursda tilning boshqaruv tizimi, subordinatsiya va madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi roli tahlil qilinadi. Dialoglardagi til birliklari va noverbal signallar orqali ijtimoiy rollar va institutsional pozitsiyalar qanday ifodalanishi ko‘rsatib beriladi. Xususan, sukut va bosh silkitish kabi noverbal vositalarning pragmatik va madaniy xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy diskurs, nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, subordinatsiya, noverbal kommunikatsiya, ijtimoiy rol.

Аннотация: в статье анализируется роль языка в выражении систем контроля, подчинения и культурных ценностей в профессиональном дискурсе на основе диалогов, взятых из узбекского военного фильма. В нем показано, как социальные роли и институциональные позиции выражаются посредством языковых единиц и невербальных сигналов в диалогах. В частности, раскрываются прагматические и культурные особенности таких невербальных средств, как молчание и кивание головой.

Ключевые слова: профессиональный дискурс, речевые акты, стратегии вежливости, подчинение, невербальное общение, социальная роль.

Annotation: this article analyzes the role of language in expressing power, subordination, and cultural values within professional discourse, based on dialogues from an Uzbek military film. It explores how linguistic expressions and nonverbal cues in dialogues reflect social roles and institutional hierarchies. Particular attention is given to silence and gestures like head nodding as pragmatic and culturally embedded communicative acts.

Key words: professional discourse, speech acts, politeness strategies, military film dialogue, subordination, nonverbal communication, social role.

Kirish. Til insonlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy vositasi bo‘lib, u orqali nafaqat ma’lumot uzatiladi, balki boshqaruv tizimi, subordinatsiya, madaniy qadriyatlar kabi ijtimoiy jarayonlar ham aks ettiriladi. Kasbiy diskursning harbiy sohasida tilning qo‘llanilishi, ayniqsa, o‘ziga xos bo‘lib, unda buyruq, itoat, sadoqat kabi tushunchalar ustuvor o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada o‘zbek harbiy sohasiga oid filmidan olingan ikki dialog namunasi asosida pragmatik, diskursiv va lingvokulturologik tahlil amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Pragmatika nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan Ostin [1] va Serl [2]tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi muloqotdagi illokutsion va perlokutsion maqsadlarni anglash imkonini beradi. Grays [3] tomonidan ilgari surilgan kooperativ tamoyil va implikatsiya tushunchalari esa suhbat davomida yuzaga keladigan yashirin ma’nolarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Braun va Levinson [4] xushmuomalalik strategiyalarini ishlab chiqib, ijtimoiy va kasbiy kontekstdagi ierarxik nutq birligida kuch va ijtimoiy rol muvozanatini qanday ifodalash mumkinligini ko‘rsatgan. Diskurs tahlili sohasida Ferklo [5] diskurs va ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratgan bo‘lsa, Sarangi va Roberts [6] professional diskursdagi shaxsiyat va lavozim vakolati munosabatlarini atroflicha o‘rganib chiqqan. Lingvokultur-

ologik yondashuvda Verjbiska [7] va Tannen [8] turli madaniyatlardagi kommunikativ xatti-harakatlar, ayniqsa, sukutning semantik va sotsiopragmatik yuklamalarini tahlil qilgan. Vierzbickaning izlanishlarida sukut ko‘pincha “rozilik”, “hurmat” yoki “norozilik” kabi madaniy kodlar orqali talqin qilinishini ko‘rsatadi. Shuningdek, kinodiskursni tadqiq qilishda Teylor [9] film dialoglarini ijtimoiy muloqotning model ko‘rinishi sifatida tahlil qilib, sun’iylik va realistik ifoda o‘rtasidagi muvozanatni ochib bergan. Ushbu nazariy yondashuvlar mazkur maqolada keltirilgan film dialoglarini tahlil qilishda asosiy metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti sifatida tanlagan film dialoglari kasbiy nutq faoliyatining muayyan senariy doirasida namoyon bo‘ladi. Kasbiy diskursning harbiy muhitida shakllanuvchi til vositalari, ularning ijtimoiy va madaniy konnotatsiyalari yoritildi. Dialoglar asosida amalga oshirilgan pragmatik, diskursiv va lingvokulturologik tahlil til va madaniyat o‘zaro aloqasining murakkabligini ko‘rsatdi. Quyida dialoglar muloqot ishtirokchilari, ierarxik munosabatlar hamda kontekstga bog‘liq holda batafsil sharhlanadi:

1-dialog

Polkovnik: Kutishyapti yur. Maxsus operatsiyalar boshqarmasiga general Mahmudov rahbarlik qiladi. Kechagi operatsiyadan keyin u sen bilan qiziqib qoldi. U o‘ta qattiqqo‘l va talabchan odam. General Mahmudov shaxsan prezidentga bo‘ysunadi.

Soliyev: … (bosh silkab yurib ketishyapti) (Scorpion)

Yuqorida keltirilgan dialog o‘zbek kinosi Scorpiondan olingan bo‘lib, kasbiy diskursdagi boshliq va xodim o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yaqqol ko‘rsatib beradi. Harbiy soha vakillari o‘rtasidagi suhbatlar ham kasbiy muloqotning bir turi hisoblanadi. Ushbu dialogni pragmatik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, polkovnik va Soliyey o‘rtasidagi muloqotda buyruq berish va bu buyruqqa bo‘ysunish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Kutishyapti, yur” iborasi direktiv nutq aktining yaqqol namunasi bo‘lib, unda buyruq bevosita ifodalangan. Shuningdek, “U o‘ta qattiqqo‘l va talabchan odam” degan baho orqali vakolatli shaxslar haqida epistemik modallik ko‘rsatilgan. Polkovnikning general Mahmudov haqida ma’lumot berishi orqali kontekstda informativ nutqiy akt shakllanadi. Bu ma’lumot orqali Soliyev generalga bo‘ysunish tabiiy deb biladi. Va bu vaziyatda presuppozitsiya holatini ko‘rishimiz mumkin. Soliyevning sukut saqlashi va bosh silkishi rozilik bildiruvchi noverbal akt hisoblanadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, xushmuomalalik sukut orqali ifodalanayapti. Bu dialogik parchani lingvomadaniy tahlil qilganimizda “qattiqqo‘l” va “talabchan” kabi sifatlar harbiy madaniyatda ijobiy baholanadi. Prezidentga bevosita bo‘ysunish esa markazlashgan boshqaruvga urg‘u berishni ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida boshliq va xodim o‘rtasidagi suhbat jarayonida xodimning sukut saqlashi rozilikni ifodalaydi.

2-dialog

Polkovnik: O‘rtoq general tanishing kapitan Soliyev. Kechga garovdagilarani qutqargan mana shu yigit bo‘ladi.

General Mahmudov: Eshitdim, eshitdim. Maxmudov! (Qo‘l bilan so‘rashib) Yuring. Ko‘rsatgan xizmatlaringiz hamda tajribangiz tufayli boshqarmamizga o‘tasiz.

Palkovnik: Ko‘tarildim deyaver.

General Mahmudov: Yo‘q deyolmaysiz. Bu davlat ahamiyatiga ega.

Soliyev: Qachon ishga kirishaman.

General Mahmudov: Hoziroq.

Soliyev: …

Yuqoridagi dialogda general Mahmudov va polkovnikning muloqoti institutsional dominatsiyani aks ettiradi. Generalning nutqi komissiv aktlar orqali ifodalangan. Misol qilib oladigan bo‘lsak, generalning “boshqarmamizga o‘tasiz” degan jumlasi buyruqni bildiradi. “Yo‘q deyolmaysiz. Bu davlat ahamiyatiga ega.” kabi gaplar orqali general o‘zining ijtimoiy rolidan foydalanib, Soliyevga ishni qabul qilish majburiy ekanligini bildirayapti. Shuningdek, generalning Soliyevga “Hoziroq” deb javob berishi Soliyevning kasbiga bo‘lgan majburiyatini yanada orttiradi. Ushbu vaziyatda Soliyev deyarli dialogga kam aralashadi, bu esa uning institutsional pozitsiyasining pastligini ko‘rsatadi. Uning bosh silkib yurishi va dialog so‘ngidagi sukunati pragmatik jihatdan subordinatsiyani va norasmiy rozilikni bildiradi. Ushbu dialog lingvokulturologik tahlil qilinganda, o‘zbek madaniyatida boshliqlarning xodimlarga yumshoq ifodalar orqali buyruq berishi namoyon bo‘ladi. Generalning “yo‘q deyolmaysiz” jumlasi bunga misol bo‘la oladi. “Davlat ahamiyatiga ega” degan ibora esa mafkuraviy qa-

driyatlarni kasbiy faoliyat jarayonida muhimligini bildiradi. Tahlil qilingan dialoglarda personajlar orasidagi sukut (jimlik) — oddiy muloqot uzilishi emas, balki ma'lum unga kommunikativ ma'no yuklangan. Xususan, Soliyevning sukut saqlashi yoki bosh silkishi — bu rozilik, qabul qilish, yoki tashqi ierarxiyaga bo'ysunish belgisi sifatida talqin qilinadi. Bu hol pragmatik jihatdan nutq aktining to'g'ridan-to'g'ri emas, balki noverbal tarzda bajarilishini ko'rsatadi. Diskursiv nuqtai nazardan esa, sukut yuqori ierarxik muhitda, xususan harbiy kontekstda, passiv itoat, hurmat, yoki kommunikativ chegarani tan olish vositasi sifatida xizmat qiladi. Lingvokulturologik yondashuvda esa bu kabi sukutlar — o'zbeklar va boshqa sharq xalqlarida keng tarqalgan "sukut — rozilik belgisi" degan madaniy stereotipni ham aks ettiradi. Bu esa film dialogidagi har bir harakatni chuqur madaniy va sotsial kontekstda talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Kasbiy diskursning bir yo'nalishi bo'lgan harbiy kontekstdagi muloqotlarda til faqat aloqa vositasi emas, balki hokimiyatni mustahkamlash, subordinatsiyani ta'minlash va ijtimoiy rollarni belgilash vositasiga aylanadi. Yuqori martabali shaxslar direktiv va komissiv aktlar orqali qaror qabul qiladi va uni bevosita ifodalaydi. Bu Graysning kooperativ prinsipining "miqdor" maksimasiga zid keladigan holatlar yuzaga kelishini ko'rsatadi, ya'ni general va polkovniklar keragidan ortiqcha yoki ixtiyoriy bo'lmagan axborotni ham majburan etkazadilar. Shu bilan birga, Serlning nutq aktlari tasnifida institutsional kontekstda direktiv aktlar yetakchi o'rinda turadi. Lingvokulturologik tahlil esa milliy qadriyatlar, mafkuraviy asoslar va til birliklari orqali bo'ysunish madaniyatini ifodalaydi. Xulosa qilib aytganda, dialoglar tahlili kasbiy diskursda tilning qanday qilib ijtimoiy rol va kuchni ifodalash vositasiga aylanishini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 236 p.
2. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics, Vol.3. – New York: Academic Press, 1975. – B. 41–58 pp.
4. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
5. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992. – 260 p.
6. Sarangi S., Roberts C. Talk, Work and Institutional Order. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1999. – 390 p.
7. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. – 320 p.
8. Tannen D. Conversational Style: Analyzing Talk Among Friends. – Norwood, NJ: Ablex Publishing, 1984. – 207 p.
9. Taylor C. Multimodal Transcription in the Analysis, Translation and Subtitling of Italian Films // The Translator. – 2003. – T. 9, №2. – B. 191–205 pp.

Film

1. M.Azizova. (2018). Scorpion. O'zbekistion

Iroda UMAROVA
Alisher Navoiy nomidagi O`zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

TA'LIMDA AI: PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNING O'QITUVCHILAR VA TALABALARGA TA'SIRI

Annotatsiya: sun'iy intellekt (AI) ta'limning o'zgaruvchan kuchi sifatida paydo bo'lib, o'qitish metodologiyasi va o'rganish tajribasini sezilarli darajada o'zgartirdi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va o'qitishni individual ehtiyojlarga moslashtirish qobiliyati bilan sun'iy intellektga asoslangan tizimlar shaxsiylashtirish, samaradorlik va foydalanish imkoniyatini oshirish orqali an'anaviy ta'lim modellarini inqilob qilmoqda. AIning ta'limga integratsiyasi turli texnologik yutuqlarni o'z ichiga oladi, ular talabalarning faolligini shaxsiylashtiradigan, moslashuvchan o'quv platformalaridan tortib, moslashtirilgan yo'l-yo'riqni ta'minlaydigan aqlli repetitorlik tizimlarigacha. AI o'qituvchilarga baholashni baholash, o'quvchilar taraqqiyotini kuzatish va o'rganish tahlillarini yaratish kabi odatiy vazifalarni avtomatlashtirishga imkon beradi va shu bilan talabalarning yanada mazmunli, o'zaro ta'siri uchun vaqt va resurslarni optimallashtiradi (Luckin va boshq., 2018) .

Kalit so'zlar: *ta'lim texnologiyasi (EdTech), pedagogik innovatsiyalar, voslashuvchan ta'lim tizimlari, intellektual repetitorlik tizimlari (ITS,) avtomatlashtirilgan baholash va baholash, shaxsiylashtirilgan ta'lim, AIga asoslangan sinflar talabalarning faolligi, raqamli savodxonlik o'qituvchilarning vakolatlarini oshirish, AIda axloqiy mulohazalar ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi, ta'limdagi algoritmik tarafkashlik ta'lim tengligi, AI va Learning Analytics maktablarda AI kelajagi , o'qitishda texnologiya integratsiyasi, AI bilan ishlaydigan yordamchi vositalar, o'quv dasturlarini moslashtirish.*

Annotation: artificial intelligence (AI) has emerged as a transformative force in education, significantly altering teaching methodologies and learning experiences. With its ability to analyze vast amounts of data and adapt instruction to individual needs, AI-driven systems are revolutionizing traditional educational models by enhancing personalization, efficiency, and accessibility. The integration of AI in education encompasses a variety of technological advancements, ranging from adaptive learning platforms that personalize student engagement to intelligent tutoring systems that provide customized guidance. AI enables educators to automate routine tasks such as grading assessments, tracking student progress, and generating learning analytics, thereby optimizing time and resources for more meaningful student interactions (Luckin et al., 2018).

Key words: *education Technology (EdTech), Pedagogical Innovations, Adaptive Learning Systems, Intelligent Tutoring Systems (ITS,) Automated Grading and Assessment, Personalized Learning, AI-Driven Classrooms Student Engagement, Digital Literacy Teacher Empowerment, Ethical Considerations in AI Data Privacy and Security, Algorithmic Bias in Education Educational Equity, AI and Learning Analytics Future of AI in Schools, Technology Integration in Teaching, AI-Powered Assistive Tools, Curriculum Adaptation.*

Аннотация: искусственный интеллект (ИИ) стал преобразующей силой в образовании, значительно изменив методики преподавания и опыт обучения. Благодаря своей способности анализировать огромные объемы данных и адаптировать обучение к индивидуальным потребностям, системы на основе ИИ революционизируют традиционные образовательные модели, повышая персонализацию, эффективность и доступность. Интеграция ИИ в образование охватывает множество технологических достижений, начиная от адаптивных обучающих платформ, которые персонализируют участие студентов, до интеллектуальных систем обучения, которые предоставляют индивидуальные рекомендации. ИИ позволяет преподавателям автоматизировать рутинные задачи, такие как выставление оценок, отслеживание прогресса студентов и создание аналитики обучения, тем самым оптимизируя время и ресурсы для более содержательного взаимодействия студентов (Luckin et al., 2018).

Ключевые слова: образовательные технологии (EdTech), Педагогические инновации, Адаптивные системы обучения, Интеллектуальные системы обучения (ITS), Автоматизированная оценка и оценивание, Персонализированное обучение, Классы с искусственным интеллектом, Вовлечение учащихся, Расширение прав и возможностей учителей цифровой грамотности, Этические аспекты конфиденциальности и безопасности данных ИИ, Алгоритмическая предвзятость в образовании, Образовательное равенство, ИИ и аналитика обучения, Будущее ИИ в школах, Интеграция технологий в преподавание, Вспомогательные инструменты на основе искусственного интеллекта, Адаптация учебной программы.

Kirish. Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyalashuvi pedagogik yondashuvlarni tez o'zgartiradi va o'qituvchilar va talabalar rollarini o'zgartiradi (Chjan va boshqalar) . Sun'iy intellektning o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish, ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirish va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish qobiliyati ta'lim landshaftini inqilob qiladi, shu bilan mavjud bo'shliqlarni bartaraf etadi va yanada inklyuziv va samarali o'quv muhitini rivojlantiradi (Kamalov va boshqalar). Sun'iy intellektga asoslangan vositalar moslashtirilgan o'rganish, aqlli repetitorlik va avtomatlashtirilgan baholashni osonlashtiradi, bu esa yanada moslashuvchan, samarali va immersiv ta'lim tajribasini beradi (Dey; Mello va boshq.). Ushbu transformatsiya sun'iy intellekt taqdim etadigan imkoniyatlar va muammolarni, jumladan, axloqiy mulohazalar, erkin foydalanish huquqi va o'qituvchilarning tobora ortib borayotgan texnologik vositachi ta'lim ekotizimida rivojlanayotgan rolini chuqur o'rganishni talab qiladi (Adams va boshqalar). AI tomonidan boshqariladigan pedagogik innovatsiyalar talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan o'quv platformalaridan tortib, o'qituvchilarga talabalar taraqqiyoti haqida qimmatli tushunchalar beradigan avtomatlashtirilgan baholash tizimlarigacha (Akgün va Greenhow) keng ko'lamli ilovalarni qamrab oladi .

Asosiy qism. Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim moslashtirilgan ta'lim tizimlari, aqlli repetitorlik tizimlari va o'rganish tahlillari orqali faollashtiriladi, bu esa yanada moslashtirilgan va samarali o'rganish tajribasiga hissa qo'shadi (Mahmud va Sørensen) . Ta'lim kontekstlarida AIni qo'llash katta afzalliklarni nazarda tutadi, bu o'rganishni shaxsiylashtirish bo'yicha yechimlarni ishlab chiqishda xavflarni minimallashtirish va maksimal foyda olish uchun ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi (Bayly-Castaneda va boshqalar). Ta'limdagi sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'lim sharoitlarida muhim ko'nikmalar qanday qayta belgilanishini ham o'zgartirmoqda (Gligorea va boshqalar). AI talabalarning faolligini oshiradi, ta'lim natijalarini yaxshilaydi va kengaytirilishini ta'minlaydi (Mahmud va Sørensen). Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va o'rganish uslublarini qondirish uchun ta'lim mazmuni va tajribasini moslashtiradi, faollik va ta'lim natijalarini oshiradi (Kamolov va Gurrib). Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalarini ishlab chiqish fanlararo hamkorlikni, kompleks va samarali yechimlarni yaratish uchun kompyuter fanlari, ta'lim, psixologiya va etika sohasidagi tajribalarni birlashtirishni talab qiladi. Biroq, sun'iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan ta'limning bir qancha jihatlari o'rganilmaganligicha qolmoqda (Maghsudi va boshqalar). Bularga, jumladan, tengdoshlar yo'qligining salbiy oqibatlarini qoplash, o'rganish uchun motivatsiyalarni yaratish va qo'llab-quvvatlash, xilma-xillikni oshirish, ma'lumotlar va algoritmlar tomonidan qo'zg'atilgan noto'g'ri fikrlarni bartaraf etish kiradi (Maghsudi va boshqalar). Talabalarning o'rganish tajribasi va o'qituvchilar amaliyotini qo'llab-quvvatlash uchun sun'iy intellektning potentsial afzalliklariga qaramay, K-12 ta'lim kontekstlarida bu tizimlarning axloqiy va ijtimoiy kamchiliklari kamdan-kam hollarda to'liq ko'rib chiqiladi (Akgün va Grinxou) .

Alga asoslangan pedagogik innovatsiyalar va ularning ta'siri

1. Moslashuvchan ta'lim tizimlari

Moslashuvchan ta'lim tizimlari ta'limda sun'iy intellektning (AI) eng ta'sirli qo'llanilishidan biri bo'lib, o'quvchilar faoliyatini real vaqt rejimida tahlil qilish asosida o'quv mazmunini moslashtirish imkonini beradi. Ushbu platformalar talabalarning kuchli va zaif tomonlarini doimiy ravishda baholash, ketma-ketlik, qiyinchilik va taqdim etilgan o'quv materiallari turini dinamik ravishda sozlash uchun algoritmlardan foydalanadi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv, ayniqsa, turli xil va keng ko'lamli o'quv muhitlarida o'quvchilarning faolligini, ushlab qolishini va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ko'rsatilgan.

Umuman olganda, moslashtirilgan ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning turli ehtiyojlarini samarali qondirish orqali moslashtirilgan muammolar va yordamni taqdim etish orqali ta'lim tengligini oshiradi. Ular o'quvchilarning muvaffaqiyati haqida amaliy tushunchalar berish orqali o'qituvchilarga kuch beradi, bu esa o'quvchilarning avtonomiyasi va motivatsiyasini rag'batlantirishga ko'proq yo'naltirilgan aralashuvga imkon beradi. Ushbu tendentsiya ma'lumotlarga asoslangan shaxsiylashtirish orqali o'quv jarayonini optimallashtirishda AI rolini ta'kidlaydigan so'nggi stipendiyalarga mos keladi. Ushbu tizimlar nafaqat individual ta'lim traektoriyalariga moslashtirilgan akademik yordamni taklif qiladi, balki ular o'qituvchilarga sinf miqyosidagi taraqqiyot va qiyinchilik sohalari haqida amaliy tushunchalar beradi, ma'lumotlarga asoslangan pedagogik qarorlarni qabul qiladi.

2. Intellektual repetitorlik tizimlari (ITS)

Intellektual repetitorlik tizimlari (ITS) o'quvchilarga yakkama-yakka repetitorlik tajribasini taqlid qiluvchi interfaol, real vaqt rejimida o'quv qo'llab-quvvatlashini ta'minlab, sun'iy intellektga asoslangan ta'limning yana bir asosini tashkil etadi. Tabiiy tilni qayta ishlash va

mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda, ITS talabalarga muammolarni hal qilishning murakkab bosqichlari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatishi, shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim etishi va asosiy tushunchalarni sezgir, moslashuvchan tarzda mustahkamlashi mumkin.

Intellektual repetitorlik tizimlari shaxsiylashtirilgan ko'rsatmalar, baholash va fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun sun'iy intellektni qo'llash orqali yakkama-yakka repetitorlik afzalliklarini simulyatsiya qiladi. Kunduzi mavjud bo'lgan bu tizimlar o'z vaqtida yordam beradi va turli o'quvchilar populyatsiyalarida kengaytirilishi mumkin. Carnegie Learningning Kognitiv Repetitori ushbu yondashuvni foydalanuvchilar orasida matematika ballari 15-20% ga oshganligini ko'rsatadigan dalillar bilan misol qilib ko'rsatadi. Ushbu tizim talabalarning javoblariga moslashadi, ularni muammoni hal qilish bosqichlariga yo'naltiradi va moslashtirilgan maslahatlar beradi.

Xulosa. Ta'limda AI kelajagi. AI shaxsiylashtirish, baholash samaradorligini oshirish va o'qituvchilarni innovatsion vositalar bilan qo'llab-quvvatlash orqali o'qitish va o'rganishni tubdan yaxshilashga tayyor. Prognozlar loyihasi AI EdTech investitsiyalari qariyb ikki baravar ko'payib, 2025-yilga borib 6 milliard dollarga etadi, bu esa sun'iy intellektning ta'lim salohiyatiga ishonch ortib borayotganini ta'kidlaydi. Davom etilayotgan tadqiqot va ishlanmalar o'quvchilarning turli ehtiyojlarini samarali qondirish uchun moslashtirilgan ta'lim tizimlari, aqlli repetitorlik va sun'iy intellekt yordamida kontent yaratishni takomillashtirishga intiladi. O'zaro muvofiqlik, foydalanish imkoniyati va axloqiy me'yorlarga e'tibor berish maksimal foyda olish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ushbu o'zgarishlar ro'y berayotganda, manfaatdor tomonlar AI imkoniyatlarini inson mulohazalari bilan muvozanatlashtiradigan mas'uliyatli amalga oshirish strategiyalariga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Bunga shaffof algoritmlar, maxfiylikni qat'iy himoya qilish va sun'iy intellektning pedagogik sherik sifatidagi rolini optimallashtirish uchun doimiy o'qituvchilarni tayyorlash kiradi. Oxir oqibat, sun'iy intellektni o'ylangan holda qabul qilish butun dunyo bo'ylab yanada adolatli, qiziqarli va samarali ta'lim tizimlariga yo'l beradi. Harakatga chaqiruv aniq: sun'iy intellektning barcha talabalar uchun umrbod ta'lim va akademik muvaffaqiyatlarga erishish uchun ehtiyotkorlik va maqsadli va'dasidan foydalaning.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luckin, R., Xolms, W., Griffiths, M., & Forcier, LB. *Razvedka ochildi: ta'limda AI uchun dalil* . Pearson ta'limi, 2018.

2. Chjan, K., Yang, S. va Vang, Y. Ta'limda sun'iy intellekt: muammolar va imkoniyatlar. *Oliy ta'limda ta'lim texnologiyalari xalqaro jurnali,* **2020.** *17* (1), 1–13. https://doi HYPERLINK "https://doi.org/10.1186/s41239-020-00218-x". HYPERLINK "https://doi.org/10.1186/s41239-020-00218-x"org/10.1186/s41239-020-00218-x

3. Kamolov F., Chakrabarty A., & Ali, M. Ta'limni yaxshilash uchun sun'iy intellektdan foydalanish. *Ta'lim va axborot texnologiyalari,* **2021.** *26* (5), 5315–5334. https://doi.org/10.1007/s10639-021-10528-1

4. Dey, AK. Kontekstni tushunish va undan foydalanish. *Shaxsiy va hamma joyda hisoblash,* **2001.** *5* (1), 4–7. https://doi.org/10.1007/s007790170019

5. Adams R., Montaldi D. va Wilson, A. Ta'limda sun'iy intellekt: imkoniyatlar, muammolar va axloqiy ta'sirlar. *AI va jamiyat,* **2021.** *36* (3), 715–726. https://doi.org/10.1007/s00146-020-00960-y

6. Akgun E. va Greenhow C. Ta'limda sun'iy intellekt: K-12 muhitida axloqiy muammolarni hal qilish. *AI va axloq,* **2021.** *1* (2), 137–145. https://doi.org/10.1007/s43681-021-00030-3

7. Mahmud QH, & Sørensen H. Sun'iy intellekt va shaxsiylashtirilgan ta'lim: imkoniyatlar va muammolar. *Ta'lim va axborot texnologiyalari,* **2022.** *27* (6), 8435–8453. https://doi.org/10.1007/s10639-021-10741-y

8. Bayli-Kastaneda A., Xolms V. va Porayska-Pomsta K. Ta'limda sun'iy intellektni tizimli ko'rib chiqish: afzalliklari, muammolari va axloqiy oqibatlari. *British Journal of Educational Technology,* **2023.** *54* (1), 10–29. https://doi.org/10.1111/bjet.13279

Умида ЙУЛДАШОВА,
Ташкентский Государственный Экономический Университет
Доцент кафедры
“Преподавание иностранных языков”
Ташкентского Финансового Института

МЕТОДИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ УЛУЧШЕНИЯ ВИДОВ РЕЧЕВОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ФИНАНСОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация*:* в статье рассматриваются методы и программы, которые могут использованы для будущих экономистов-финансистов, а также обсуждаются вопросы повышения качества обучения иностранным языкам, методы, которые необходимо изменить и улучшить.

Ключевые слова*:* экономист, студент, метод, иностранный язык, совершенствование.

Annotation: *the article discusses methods and programs that can be used for future finance-economists, there are given information about improving the quality of teaching foreign languages, or methods that need to be changed and improved.*

Key words: *economist, student, method, foreign language, improvement.*

Annotatsiya: *maqolada bo‘lajak moliya-iqtisodchi mutaxassislar uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metod va dasturlar, shuningdek, chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish masalalari, o‘zgartirish va takomillashtirish zarur bo‘lgan uslublar haqida so‘z boradi.*

Kalit so’zlar: *iqtisodchi, talaba, metod, xorijiy til, takomillashtirish.*

Модернизация системы образования основывается на потребности государства и общества в квалифицированных кадрах, потребности личности в качественном образовании. Использование педагогических технологий в образовательной практике является неотъемлемым элементом модернизации системы образования. В современных условиях внедрение технологий в образовательный процесс позволяет достичь ожидаемого результата с меньшими затратами сил и времени, повышает качество и эффективность обучения.

В совершенствовании знаний студентов по иностранному языку в соответствии с требованиями CEFR, естественно, важное значение имеет учебная деятельность. Удовольствие от урока зависит от техники, используемой учителем, и от организационного процесса.

По мнению Ж. Ж. Джалолова,[1] в методах обучения есть больше качеств, отличных от общих. Например, родной язык преподается без сравнения его с другим языком, а на втором языке, наоборот, работа строится на основе родного языка. При составлении упражнения по иностранному языку учитываются особенности родного языка и второго языка, однако сравнивать их на уроке нецелесообразно. Существуют огромные различия в применении теоретических знаний. Сравнительные методы дают подробную информацию о них. Ученые трактуют термин “метод” в смысле процесса работы учителя и ученика в процессе обучения, приобретения навыков, формирования мировоззрения учащихся и создания возможностей для обучения. Метод является основой для обучения не только иностранным языкам, но и каждому предмету. Разработаны общие методики учебного процесса по всем предметам. Методика обучения разработана с учетом специфики предмета. Применение методов в обучении иностранному языку началось давно. В истории обучения иностранному языку первый и второй методы называются “историческими”, а третий - “процессуально-выразительными”.

Порядок изучения видов речевой деятельности следующий: аудирование, говорение, чтение и письмо. Устная речь преподается на иностранном языке как средство общения, а письменная речь-на материале устной речи. На сегодняшний день использование только традиционных методов обучения или опора

на словари малоэффективны. Если знаний, пройденных на уроке, недостаточно, учащийся должен работать самостоятельно, но для этого учителю достаточно сложно дать каждому учащемуся индивидуальное направление и контроль одновременно, т.к. достаточно проблем с аудированием, говорением, чтением и письмом. На этом этапе мы попытаемся достичь цели, поставленной учителем и учеником на уроке, обобщая и совершенствуя несколько существующих методов.

В развитии навыка говорения (speaking) может оказаться недостаточным сам процесс применения достаточно популярного в настоящее время разговорного метода. Этот метод в основном проводится в форме вопросов и ответов. На уроке учитель, задающий одновременно одни и те же вопросы, часто может наскучить учащемуся, а если беседы носят целенаправленный характер, то иногда они прерываются из-за нехватки словарного запаса. Следует иметь в виду, что разговорный метод путем активного участия учащихся развивает у учащихся такие качества, как самостоятельное мышление, умение обобщать. Для этого их следует учить больше думать, мыслить творчески и критически. Развить способность связывать информацию с имеющийся в ней концепцией, читая текст и сочетая его с мыслью, полученной из него, полезна для лучшего усвоения предмета (лексика, грамматика и произношение).

Сообщается, что научить экономистов думать — главная цель учителей экономики, чьи ученики используют цепочки дедуктивных рассуждений наряду с упрощенными моделями. Есть несколько уникальных характеристик решения проблем и творческих навыков. Внимание играет важную роль в поиске решения.

Улучшение языковых навыков, конечно же, осуществляется с помощью практических упражнений. Проблем в формировании и совершенствовании видов речевой деятельности в настоящее время достаточно, и для решения этих задач необходимо отказаться от существующих упражнений, добавить дополнения или создать совершенно новую систему упражнений.

Дистервег следовал следующим дидактическим принципам:

1. Внешний вид - “нужно перейти от примеров к правилам, от предметов и конкретных представлений о них к словам”. Дистервег не ограничивается точностью предмета. Он призывает студентов использовать картинки, аналогии и воспоминания. Принцип соответствия природе и точности в обучении отражен в правилах Дистервега: они таковы;

а) от близкого к далёкому,

б) от легкого к трудному,

в) от простого к сложному

г) от известного к неизвестному.

2. Осознанное усвоение материала.

3. Учитывать возрастные особенности (ни в коем случае нельзя учить тому, что обучающийся не в состоянии учиться) и индивидуальные особенности.

4. Систематическое обучение - “Разделять каждый материал на определенные этапы и мелкие сборные части”.

5. Повторение. “Убедить, что учащиеся не забывают то, что они узнали”.

Г.В. Перфилова [2] ввести языковой материал по специальности, выбрать наиболее полезный, простой способ объяснения, выявить трудности, выбрать виды языковых упражнений, применить, выбрать виды речевых упражнений, подготовить, применить, говорить о подготовке видов упражнений, демонстрирует умение устанавливать норму учебных часов для обучения учащегося четко определенному тексту.

Ученые выразили разные взгляды в своих исследованиях преподавания языков и их типологии.

Ж.Ж.Джалолов[1] Преподавание языкового материала (развитие речевых навыков) чтобы проиллюстрировать следующее;

1) на иностранном языке - лексика, грамматика, навыки произношения (во всех учебных заведениях); даются навыки и знания (теория) (как специальность);

2) на втором языке - даются навыки и знания (во всех учебных заведениях); Только навыки вырабатываются, теория не дается (в детских садах, в некоторых семьях); преподаются навыки и углубляются теоретические знания (в специализированных учебных заведениях);

3) на родном языке - даются знания и умения (в школе); даются навыки (в семье, в детском саду); навыки и базовые знания (в высшем образовании); навыки и теоретические знания (как специальность).

Студент, желающий изучать иностранный язык, приобретет следующие знания, навыки и компетенции на изучаемом языке.

I. Виды речевой деятельности (4 основных и 6 дополнительных).

II. Языковые материалы (лексика, грамматика, произношение).

III. Лингвистические знания (лексикология, грамматика, фонетика).

IV. Методика обучения иностранным языкам (теоретические курсы, практические занятия и преподавание в школах, лицеях и колледжах - педагогическая практика)

По мнению Е. И. Пассова,[3] любое упражнение в свое время имеет коммуникативно-лингвистические и психологические особенности. По его мнению, коммуникативные упражнения делятся на виды реальных коммуникативных упражнений и условных коммуникативных упражнений. Истинные коммуникативные упражнения возникают в процессе общения, и наоборот, условно-коммуникативные упражнения возникают в процессе условного общения в процессе обучения.

В своем исследовании В.А.Бухбиндер[4] различает информационные, операционные и мотивационные виды упражнений.

С. Ф. Шатилов [5] делит речевую деятельность на типы по видам и назначению. Основная цель урока – развитие устных навыков, которые помогут научить чтению. Короче говоря,

I. Особенности обучения иностранному языку на продвинутом уровне:

1. Возрастные особенности; 2. Размер материала; 3. Взаимоотношения основных видов речевой деятельности; 4. Характер работы с навыками и умениями говорения; 5. Условия обучения

II. Главная цель:

1. Совершенствование речевых навыков;

2. Обогащать индивидуальный разговорный опыт за счет изучения активного языкового материала;

3. Учить использовать диалоги и монологи в неподготовленной речи;

III. Обучение чтению:

1. Основной вид чтения, обучение познанию всего содержания.

2. Обучать чтению словарного запаса, анализируя сложные области.

Результаты обучения иностранному языку определяются прежде всего через систему упражнений, потому что практическая цель изучения иностранного языка состоит в овладении всеми видами речевой деятельности посредством упражнений.

Использованная литература

1.Jalolov.J.J. “Chet tili o`qitish metodikasi” Chet tillar oliy o ‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik, “O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2012-432 bb;

2.Пассов.Е.И.“Основы коммуникативный методики обучения иноязычному говорению” М.: Просвещение, 1989 277 стр; 126-128 стр;

3.Перфилова Г.В. Компетентностный подход и его реализация в современном образовательном процессе / Г.В. Перфилова // Вестник МГЛУ. – 2008. 196 стр;

4.Бухбиндер В. А. О системе упражнений // Общая методика обучения иностранным языкам: хрестоматия. М.: Русский язык, 1979. С. 92-99.

5. Шатилов С. Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе: учеб. пособие. 2-е изд., дораб. М.: Просвещение, 1986. 222 с.

Фазлиддин НАЖМИДДИНОВ,
доцент кафедры русского языка
Навоийского государственного университета

ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ОНОМАСИОЛОГИЧЕСКОМ ПЛАНЕ

Аннотация: в статье анализируются актуальные вопросы исследования, направленные на расширение словарного запаса изучающих русский язык на основе изучения лексики русского языка в ономасиологическом плане и использования имеющихся лексических ресурсов.

Ключевые слова: лексика, ономасиология, семасиология, идеографическое описание слов.

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tili leksikasini onomasiologik planda tadqiq qilish hamda mavjud leksik iug'atlar imkoniyatidan foydalanilgan holda rus tili lug'at boyligini o'rganish asosida o'rganuvchilarning lug'at boyligini osirishga qaratilgan dolzarb tadqiqot masalalari tahlil obyektiga kiritildi.

Kalit so'zlar: leksika, onomosiologiya, semasiologiya, so'zlarning ideografik tavsifi.

Annotation: the article analyzes current research issues aimed at expanding the vocabulary of those studying the Russian language based on studying the vocabulary of the Russian language in the onomasiological plane and using the available lexical resources.

Key words: vocabulary, onomasiology, semasiology, ideographic description of words.

В настоящее время в лингвистических, дидактических и ономасиологических работах осоновное внимание уделяется ингвационным подходам, и интерактивномуи дистанционному обучение разработке электронных учебных и лингвистических словарей. Однако, по нашемумнееию, не утратили совей актуальности и лингвистические разработки традиционного плана.

Аннотация: в статье рассматриваются эмоциональные триггеры — радость, страх, надежда, сожаление, благодарность и тревога — в публицистических текстах в контексте нейромаркетинга и литературных средств воздействия. Подход нейромаркетинга учитывает работу мозга и эмоциональное состояние читателя для повышения эффективности текста. В статье показана гармония использования литературно-стилистических приемов, таких как метафора и эпитет, с эмоциональными триггерами. Современный информационный поток демонстрирует интеграцию журналистики и маркетинга.

Ключевые слова: публицистика, эмоциональные триггеры, нейромаркетинг, литературное воздействие, метафора, эпитет, стилистика, эмоциональная коммуникация

Annotation: this article analyzes emotional triggers—joy, fear, hope, regret, gratitude, and anxiety—in journalistic texts within the framework of neuromarketing and literary influence techniques. Neuromarketing approach considers the brain and emotional state of the reader to enhance the impact of the text. The article highlights the integration of literary-stylistic devices such as metaphor and epithet with emotional triggers. In the context of fast-paced information flow, this approach reflects the convergence of journalism and marketing.

Key words: journalism, emotional triggers, neuromarketing, literary influence, metaphor, epithet, stylistics, emotional communication

Kirish. Bugungi tezkor axborot oqimida publitsistik matnlar jamiyat ongini shakllantirishda, qaror qabul qilishda va ijtimoiy-emotsional muhitni boshqarishda kuchli vositaga aylangan. Ayniqsa, jurnalistika marketing bilan kesishgan holatlarda matnlar nafaqat xabar uzatadi, balki iste’molchining e’tiborini jalb qilish, uni ruhiy jihatdan ta’sirlantirish, hattoki xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish funksiyasini ham bajaradi.

So‘nggi yillarda **neyromarketing** atamasi keng qo‘llanila boshladi. Bu yondashuv inson miyasi va emotsional holatlarini hisobga olgan holda marketing strategiyasini shakllantirishni nazarda tutadi. Neyromarketing vositalarining jurnalistikada qo‘llanilishi esa, ayniqsa, hissiy triggerlar orqali o‘quvchida muayyan ruhiy holatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu triggerlar — quvonch, qo‘rquv, umid, afsus, shukr kabi his-tuyg‘ular — publitsistik matnlarda ko‘pincha adabiy vositalar orqali ifodalanadi.

Shunday qilib, publitsistik va marketing yo‘nalishlari kesishmasida, ayniqsa **hissiy triggerlar va adabiy-stilistik vositalarning uyg‘un qo‘llanishi** matnning ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi zamonaviy publitsistik materiallarda ushbu yondashuvning namunalari sezilarli darajada uchramoqda.

Ushbu maqola **neyromarketing va adabiy-stilistik yondashuvlar integratsiyasi asosida publitsistik matnlarda hissiy triggerlarning namoyon bo‘lishini tahlil qilishga** qaratiladi. Maqola dolzarbligi shundaki, bu mavzu hozircha o‘zbek tilshunosligi va jurnalistikasi doirasida yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, zamonaviy axborot kommunikatsiyasi kontekstida ilmiy tahlilga muhtoj.

Hissiy triggerlar tushunchasi: neyromarketingda va publitsistik matnda

Neyromarketing – bu inson miyasi va ruhiyatining iste'molchilarning qarorlariga ta'sirini chuqur o'rganishga asoslangan marketing sohasi bo'lib, u raqamli va an'anaviy kommunikatsiya vositalarida tobora keng qo'llanilmoqda. Neyromarketingda asosiy maqsad – iste'molchining yoki auditoriyaning ong osti darajasida emotsional javoblarini uyg'otish orqali xatti-harakatini boshqarishdir.

Asosiy emotsional triggerlar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- **quvonch**: insonga yoqimli his-tuyg'ularni eslatadigan, ijobiy tajribalarni tiklaydigan stimullar. Masalan, bolalik xotiralari, oila bilan bog'liq iliq tasvirlar, yutuq hissi;
- **qo'rquv**: xavf yoki yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq holatlar. Misol: "Agar bugun harakat qilmasangiz, ertaga kech bo'ladi";
- **umid**: kelajakdagi yaxshilik, muvaffaqiyat yoki orzularni amalga oshirishga ishora qiluvchi stimullar;
- **afsus**: qilingan xato yoki boy berilgan imkoniyatga urg'u beruvchi unsurlar;
- **shukr**: mavjud ne'matlarning qadriyatini eslatib, insonni mulohazaga chorlaydigan trigger;
- **xavotir**: noaniqlik, barqarorlikning yo'qligi yoki kutilmagan xavfga e'tibor qaratish orqali his uyg'otadi.

Amerikalik neyromarketing tadqiqotchisi Patrik Renvoaz va Kristof Morinning fikricha, "inson miyasi biror mahsulot yoki xabarni baholashda dastlab emotsional javob asosida qaror qabul qiladi, keyinchalik esa uni mantiqan asoslashga urinish sodir bo'ladi" (Renvoaz & Morin, *Neuromarketing: Understanding the "Buy Buttons" in Your Customer's Brain*, 2007).

Publitsistik matnlarda hissiy triggerlardan foydalanish

Zamonaviy publitsistik matnlar – ayniqsa internet-jurnalistika, bloglar va ijtimoiy tarmoq postlari – neyromarketingdagi trigger yondashuvlarni keng qo'llab kelmoqda. Ushbu matnlar o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazib, ularni o'qishga, bo'lishishga, fikr bildirishga yoki hatto harakat qilishga chorlaydi.

Misollar:

Quvonch triggeri: "O'zbek charm mahsulotlari Yevropa bozorida katta muvaffaqiyatga erishdi". Bu sarlavha o'zbek o'quvchisida milliy faxr va quvonch tuyg'usini uyg'otadi. Bunday hissiy ta'sir, albatta, maqolaga e'tiborni oshiradi.

Qo'rquv triggeri: "Bolani yolg'iz qoldirmang: Toshkentda bolalar o'g'irlanmoqda". Bu kabi sarlavhalar nafaqat voqelikni yoritadi, balki auditoriyada xavotir va shoshilinch choralar ko'rish istagini uyg'otadi.

Umid triggeri: "17 yoshli o'zbekistonlik ixtirochi sun'iy intellekt yordamida nogironlar uchun qurilma yaratdi. Maqola qahramonining yosh va umidli bo'lishi, insoniyatga foyda keltirish niyati o'quvchida kelajakka ijobiy nigoh uyg'otadi.

Afsus triggeri: "Nega bu qishloqda maktab hanuz yo'q?" Bu kabi savol shaklidagi sarlavhalar o'quvchini fikrlashga, ijtimoiy muammoni yuragidan o'tkazishga undaydi.

Shukr triggeri: "Onasi uchun har kuni issiq non olib boradigan o'g'il hikoyasi". Hikoya haqiqatda oddiy bo'lishi mumkin, biroq u shukr tuyg'usini, qadriyatlarni eslatadi.

Bu kabi triggerlar, odatda, **adabiy-stilistik vositalar** bilan uyg'un holda taqdim etiladi. Hissiy ta'sir kuchi aynan uslub orqali kuchaytiriladi. Bu haqida keyingi bo'limda batafsil to'xtalamiz.

Neyromarketingdagi emotsional triggerlar va publitsistik matnlarning adabiy ifodasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Publitsistik matnlar nafaqat informatsiya berish, balki o'quvchining ruhiyatiga ta'sir etish orqali uni ongli yoki ongostida fikrlashga, harakat qilishga undash imkoniyatiga ega. Bu esa neyromarketing va jurnalistikaning zamonaviy konvergensiyasini namoyon etadi.

Neyromarketingda hissiy triggerlarning samarasi miyadagi amigdala faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Amigdala — insonning hissiy xotira va emotsional holatlarni boshqaruvchi markazi bo'lib, xavotir, qo'rquv yoki quvonch kabi his-tuyg'ularni tez va kuchli uyg'otadi. Shuningdek, prefrontal korteks — qaror qabul qilish va ongli nazorat markazi sifatida, amigdalaning yuborgan signalini qayta ishlaydi va natijada inson xulq-atvori shakllanadi. Shuning uchun, publitsistik matnlarda hissiyot uyg'otuvchi so'zlar, metaforalar va voqealar miyadagi ushbu markazlarni faollashtirib, o'quvchi e'tiborini mustahkam ushlab turadi.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlar qaror qabul qilishda ko'proq hissiyotlarga asoslanadi. Masalan, 2019-yilda olib borilgan eksperimentda, reklama matnlarida qo'llangan emotsional triggerlar auditoriyaning mahsulotga bo'lgan ijobiy munosabatini 35% ga oshirgani aniqlandi. Bu natijalar jurnalistika sohasida ham matnlarni hissiy jihatdan boyitishning samaradorligini tasdiqlaydi.

Adabiy ta'sir vositalari va stilistik birliklar

Publitsistik matnlarda auditoriyaning hissiyotlariga ta'sir etish, ularni fikr va xatti-harakatlariga yo'naltirish maqsadida adabiy ta'sir vositalari va stilistik birliklardan keng foydalaniladi. Bu vositalar matnga emotsional kuch bag'ishlab, o'quvchining ongida mazmunni chuqurroq anglash va his qilish imkonini yaratadi. Neyromarketing nazariyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, adabiy vositalar miyaning hissiy markazlarini faollashtirishi, shuningdek, xotira va qaror qabul qilish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Metafora

Metafora murakkab tushunchalarni tasvirlashda ishlatiladigan adabiy usul bo'lib, u o'quvchida ong osti hissiyotlarni uyg'otadi. Masalan, "hayot — bu mo'jizalar bog'i" iborasi nafaqat hayotning murakkabligini, balki

uning go‘zalligi va o‘zgaruvchanligini tasvirlaydi. Lakoff va Johnson (1980) o‘zlarining “Metaphors We Live By” asarlarida metaforaning inson fikrlashida markaziy o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Neyroilmi tadqiqotlar esa metaforalar miyadagi amigdala va prefrontal korteks kabi emotsional markazlarni faollashtirishini ko‘rsatadi, bu esa o‘quvchining hissiyotlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi.

Publitsistik matnlarda metaforalar o‘quvchini voqeaga yanada chuqurroq jalb etadi, uning hissiy reaksiyasini kuchaytiradi va o‘quvchi ongida matn mavzusiga nisbatan ishonch va qiziqishni oshiradi.

Epitet

Epitet — predmet yoki hodisani ta’riflovchi so‘z bo‘lib, u orqali matnga rang-baranglik va hissiy chuqurlik qo‘shiladi. Masalan, “qorong‘u tun”, “shamolning sovuq nafaslari” kabi epitetlar o‘quvchida qo‘rquv, hayajon yoki nostalgiyani uyg‘otadi. Epitetlarning neyropsixologik ta’siri — ular miyadagi sezgi va hissiy markazlarni jonlantirib, matn mazmunining hissiy ta’sirini kuchaytiradi.

O‘zbek publitsistikasida epitetlar ko‘plab maqolalar va intervyularda qo‘llanilib, o‘quvchida voqealar haqida aniq va jonli taassurot hosil qiladi.

Iqtibos va tashqi manbalarga murojaat

Iqtiboslar o‘quvchiga matnning ishonchliligini oshirish bilan birga, uning hissiyotlariga ham ta’sir qiladi. Mashhur shaxslarning so‘zlari yoki tarixiy faktlarga murojaat qilish o‘quvchida hurmat, ishonch va e’tibor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Masalan, “Alisher Navoiy ta’limni millatning ruhiy oziqlanishi deb bilgan” degan iqtibos ilmiy maqolada ta’lim masalasining ahamiyatini kuchaytiradi.

Stilistik birliklar: parallelizm, ritorik savollar, emotsional kuchaytirgichlar

Parallelizm — matnda ma’nolarni takrorlash yoki o‘xshash strukturali iboralar yordamida ritm va ohang hosil qilishdir. Bu usul o‘quvchining e’tiborini jalb etadi va matnga estetik did bag‘ishlaydi.

Ritorik savollar esa o‘quvchini fikrlashga undaydi, matn bilan interaktiv aloqani ta’minlaydi va uning hissiy faolligini oshiradi. Misol uchun, “Nima uchun biz bu yo‘ldan ketmoqdamiz?” degan savol o‘quvchini chuqur o‘ylashga jalb qiladi.

Emotsional kuchaytirgichlar — ko‘pincha urg‘u berish, takrorlash va boshqalar orqali hissiyotlar intensivligini oshiruvchi usullar. Masalan, “Bu — katta sinov, katta imkoniyat!” kabi iboralar o‘quvchida qiziqish va ishtiyoqni uyg‘otadi.

Storytelling va hissiy ta’sir

Publitsistik matnlarda hikoya qilish (storytelling) san’ati hissiy triggerlarni uyg‘otishda eng samarali vositalardan biridir. Hikoya shaklidagi matn o‘quvchini voqeaga yaqinlashtiradi, uni bosh qahramonning hissiyotlari va holatlari bilan bog‘laydi. Bu jarayonda metafora, epitet, dialog va boshqa adabiy vositalar birgalikda ishlatiladi.

Neyromarketing tadqiqotlariga ko‘ra, yaxshi qurilgan hikoya miyadagi oksitotsin ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi — bu moddalar insonlarda ishonch va hamjihatlik tuyg‘ularini kuchaytiradi. Shu sababli, publitsistik matnlarda storytelling va adabiy ta’sir vositalarining uyg‘unligi auditoriyaning hissiy va kognitiv reaksiyalarini maksimal darajada oshiradi.

Xulosa. Zamonaviy publitsistik matnlar oddiy axborot uzatishdan ko‘ra, o‘quvchining ruhiy holatiga ta’sir etish, uni fikrlashga, his qilishga va harakat qilishga undash kabi murakkab kommunikativ vazifalarni bajaradi. Neyromarketing yondashuvi bu jarayonda katta ahamiyat kasb etadi — ayniqsa hissiy triggerlar orqali o‘quvchining ong osti reaksiyalarini faollashtirish orqali jurnalistik materialning ta’sir kuchini oshirish mumkin.

O‘zbek tilidagi zamonaviy publitsistik matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, triggerlarga asoslangan yondashuv orqali matnlar o‘quvchining hissiy holatini boshqarishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat reklama yoki marketing materiallarida, balki dolzarb ijtimoiy, madaniy va axloqiy mavzulardagi jurnalistik yozuvlarda ham keng qo‘llanilmoqda.

Bu holat publitsistik matnlarni nafaqat xabar manbai, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli kommunikatsiya vositasiga aylantirmoqda. Ayniqsa, neyromarketingda asosiy o‘rin tutuvchi quvonch, qo‘rquv, umid, afsus, shukr kabi hissiy triggerlarning publitsistik matnlarga integratsiyasi o‘quvchi bilan chuqur emotsional aloqani shakllantirish imkonini bermoqda.

Shu bois, O‘zbekistonda jurnalistik matnlarni tayyorlashda hissiy triggerlardan ongli va mas’uliyatli foydalanish, ularni ijtimoiy ongni shakllantirishga yo‘naltirish dolzarb va istiqbolli yondashuv sifatida qaralishi lozim. Kelgusida bu mavzuni lingvistik, psixologik va kommunikatsion tahlil mezonlari asosida yanada chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. LeDoux, J. *The amygdala and emotion: A view through fear*. In R. D. Lane & L. Nadel (Eds.), *Cognitive neuroscience of emotion*. Oxford University Press, 2000. (pp. 213–238).

2. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors we live by*. University of Chicago Press, 1980.

3. Renvoaz, P., & Morin, C. *Neuromarketing: Understanding the “Buy Buttons” in Your Customer’s Brain*. [Publisher not specified], 2007.

4. Smith, J., Brown, A., & Davis, R. Emotional triggers in advertising: Effects on consumer attitude and behavior. *Journal of Marketing Research*, 56(4), 2019. 567–580.



Gulnoza JUMAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

BADIIY ADABIYOTDA USLUB TUSHUNCHASI

Annotatsiya: badiiy adabiyotda har bir ijodkorning ijod namunasini boshqa ijodkorlar asarlaridan farqlab turuvchi alohida, o‘ziga xos yozish uslubi bo‘lib, bu uning adabiyotdagi ovoz toniga o‘xshaydi. Ya’ni kitobxon o‘quvchi uni ayni shu “ovoz toni” orqali tanib oladi. Adabiyotga “yozuvchi uslubi” tushunchasi XIX asrning uchinchi choragidan boshlab, adabiy tanqidning rivojlanishi bilan shakllana boshladi va XX asrga kelib, u adabiyotda keng qo‘llanishi kuzatildi. Garchi rasman uslubning o‘rganilishi XX asrga oid deb qaralsada, bu tushunchaga bo‘lgan ehtiyoj ancha avval vujudga kelgan. Bunga yorqin misol qilib Alisher Navoiyning “Majolis ul-Nafois” asarida ko‘plab ijodkorlarning o‘ziga xos ifoda uslublari haqida fikrlar bayon etilganligini ko‘rsatish mumkin.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, stilistika, uslub, xoslik, ovoz toni, lingvistika, psixologizm, individualizm.

Аннотация: в художественной литературе творчество каждого автора отличается от произведений других авторов неповторимым, уникальным стилем письма, который схож с его тоном голоса в литературе. То есть читатель узнает его именно по этому “тону голоса”. Понятие “стиль писателя” в литературе начало формироваться в третьей четверти XIX века с развитием литературной критики, а к XX веку оно получило широкое распространение в литературе. Хотя официально изучение стиля считается принадлежащим XX веку, потребность в этом понятии возникла гораздо раньше. Ярким примером этого является тот факт, что в произведении Алишера Навои “Маджолис ул-Нафоис” содержатся идеи об уникальных стилях выражения многих авторов.

Ключевые слова: лингвистика, стилистика, стиль, идентичность, тон голоса, лингвистика, психологизм, индивидуализм.

Annotation: in fiction, each author’s creative work is distinguished from the works of other authors by a unique, unique writing style, which is similar to his tone of voice in literature. That is, the reader recognizes him by this very “tone of voice”. The concept of “writer’s style” in literature began to take shape in the third quarter of the 19th century with the development of literary criticism, and by the 20th century it was widely used in literature. Although the study of style is officially considered to belong to the 20th century, the need for this concept arose much earlier. A vivid example of this is the fact that Alisher Navoi’s work “Majolis ul-Nafois” contains ideas about the unique styles of expression of many authors.

Key words: linguistics, stylistics, style, originality, tone of voice, linguistics, psychologism, individualism.

Badiiy adabiyotda har bir ijodkorning ijod namunasini boshqa ijodkorlar asarlaridan farqlab turuvchi alohida, o‘ziga xos yozish uslubi bo‘lib, bu uning adabiyotdagi ovoz toniga o‘xshaydi. Ya’ni, kitobxon o‘quvchi uni ayni shu “ovoz toni” orqali tanib oladi. Uslub xoslik hisoblanganiga qaramay, bu ijodkor bilan birga shakllanadigan va so‘zlash tili o‘zgarsa ham ovoz tembri o‘zgarmagani kabi, mavzu va xatto g‘oya o‘zgarganida ham, uni tanitib turadigan vosita hisoblanadi. Adabiyotga “yozuvchi uslubi” tushunchasi XIX asrning uchinchi choragidan boshlab, adabiy tanqidning rivojlanishi bilan shakllana boshladi va XX asrga kelib u adabiyotda keng qo‘llanishi kuzatildi. Uslub tushunchasining yuzaga kelishiga bir necha omillar sabab bo‘ldi. Xususan, individualizm g‘oyasining kuchayishi yozuvchining o‘ziga xosligini va shaxsiyatini anglashga bo‘lgan e’tiborni oshirdi. Psixologizmning taraqqiy etishi esa ijodkorning o‘z qahramoni ichki dunyosini, tuyg‘ularini va fikrlarini chuqurroq tasvirlashga bo‘lgan ahamiyatni oshirdi. Tilshunoslikning rivojlanishi *stilistikani* (yozuvchining til imkoniyatlaridan foydalanishi) tahlil etish imkonini berdi. Bunda adabiy tanqid rivoji badiiy asarni chuqur tahlil etish, uni baholash zaruratini keltirib chiqardi va bu yozuvchi uslubini o‘rganishga sabab bo‘ldi. Garchi, rasman uslubning o‘rganilishi XX asrga oid deb qaralsada, bu tushunchaga bo‘lgan ehtiyoj ancha avval vujudga kelgan. Bunga yorqin misol qilib Alisher Navoiyning “Majolis ul-Nafois” asarida ko‘plab ijodkorlarning o‘ziga xos ifoda uslublari haqida fikrlar bayon etilganligini ko‘rsatish mumkin.

Yozuvchi uslubi, uning o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyasini ifodalash shakli bo‘lib, bu ijodkor shaxsiyati, u yashayotgan muhit va davr bilan uzviy bog‘liq. Adabiyotdagi uslub tushunchasi haqida gap ketganda uning nafaqat bir shaxsga, balki, ma’lum bir millat yoki davrga xos bo‘lishi mumkinligini ham unutmasligimiz lozim. Bu adabiyotda ko‘p hollarda adabiy oqimlar shaklida namoyon bo‘ladi. Adabiy oqim deyilganda, bir necha ijodkorlar asarlarida namoyon

bo‘lgan, ifoda shaklida umumiylik mavjudligi, yagona maqsadga qaratilgan g‘oyalar nazarda tutilsa, ijodkor uslubi deyilganda shu asarlarni bir-biridan farqlab turuvchi va bir ijodkor ijodini birlashtirib turuvchi umumiylik e’tiborga olinadi. Yozuvchi uslubining asosiy elementlari sifatida *leksika, sintaksis, ohang, ritm* va *mavzu* hamda *motiv*lar olinadi. Bu tushunchalarni bir-biridan yaxshiroq farqlash uchun avvalo quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim;

▶ Badiiy adabiyotda yaratilayotgan voqelikning real yoki noreal munosabatiga realistik va romantik (norealistik) kabi yirik ikki guruhga ajratiladi. Bunda ijodkorning tasvirlash tarzi realistik bo‘lsa, vaqea to‘qima bo‘lishiga qaramay, haqiqiy hayotga mos va ro‘y berishi mumkin hodisalarni va qahramonlarni qamrab oladi. Agar muallifning ifoda shakli haqiqiy hayotda bo‘lish ehtimoli kam va yoki umuman uchramaydigan voqea, qahramon, peyzaj va boshqa unsurlardan iborat bo‘lsa, bu norealistik adabiyot namunasi hisoblanadi. Asosan, fantastik asar mualliflari bunga yaqqol misol bo‘la olishadi. Bu adabiyotda realistik va norealistik ijod metodi deb yuritiladi.

▶ Keying farqlovchi jihat bu — adabiy yo‘nalishlardir. Adabiy yo‘nalish hayotni badiiy adabiyotda aks ettirish jarayonidagi bir nechta ijodkorlarning asarlaridagi tipologik umumiylikni anglatadi. Ma’lum bir davr va hududda yashagan ijodkorlarning ijodida hayot tasviri uchun mos material tanlash, uni badiiy baholash, turli ijodkorlar ijodidagi umumiy g‘oyaning ilgari surilishi adabiy yo‘nalishlarni birlashtirib turuvchi omil hisobladi. Badiiy baholashda estetik did masalasi ham o‘xshash bo‘ladi. Masalan, sovet ittifoqi davrida mehnatkash, ozga qanoat qilib, o‘zidan kechib mehnat qilish, och qorni, lekin boy mamlakati bo‘lishidan faxrlanish qahramonlik hisoblanib ijobiy baholangan. Qadimgi yunon adabiyotida jismoniy kuch ustun ko‘rilgani adabiyotda hayot aksini baholash deb qaraladi.

▶ Ijodiy uslubning yana bir o‘ziga xosligini ifodalovchi vositalardan biri bu yozuvchiga tegishli *yozish odatlari* hisoblanadi. Bularga nafaqat gap qurilish strukturasi va tinish belgilari, balki, shu bilan birga so‘zlar, jumlalar, dialekt yoki xalq og‘zaki ijodidan foydalanish, paragraf va xat boshilarni qo‘llash kabi elementlar ham kiradi. Misol uchun ba’zi ijodkorlar o‘z asarlarida sodda jumlalardan va yig‘iq gaplardan foydalangan tarzda ifoda etsa, boshqa turdagi ijodkorlar murakkab gap strukturasi va badiiy bo‘yoqlarda boyitilgan jumlalardan foydalanish orqali aks ettiradi. Bunga misol sifatida o‘zbek she’riyatida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Muhammad Yusuf kabi uch yirik shoir ijodigagi mantiqiylik, so‘z tanlash hamda badiiy bo‘yoqdorlikni keltirish mumkin. Bu uch ijodkorda xalqsevarlik degan umumiy birlik bo‘lsa ham, bu o‘z asarlarida turli uslubda aks ettiriladi.

▶ Har qanday ijodkorni boshqa bir ijodkordan keskin faqlovchi uslubiy xoslik na’munasi bu hayotni baholash mezoni hisoblanadi. Hayotni baholash mezoni bevosita ijodkor shaxsiyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu muallifning hayotiy qarashlari va hayotsevarligini aks ettiradi. Bu jarayon nafaqat badiiy adabiyotda balki san’atning har qanday turida aks etadi. Misol uchun, tasviriy san’atda Pikasso, Davinchi hamda Rembrandning hayotni aks etish uslubi qanchalik farqlansa, musiqada ham Betxoven, Motsard va Baxning sevgi, g‘am, hijron hamda visolni aks ettirish notalari tubdan farq qiladi. Adabiyotda ham xuddi shunday; hayotga bo‘lgan munosabat Dostayevskiyda boshqacha, Kafkada boshqa hamda Jek London ijodida batamom farq qiluvchi g‘oyalar orqali aks ettiriladi. Bunda yozuvchining ijodi pozitiv yoki pessimist shaklda o‘quvchiga yetkaziladi, bu esa muallif shaxsiyati bilan bog‘liqdir.

Bu orqali yozuvchi kitobxon o‘quvchisiga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oya mohiyatini, belgilangan maqsad mazmumini anglash mumkin. Muallif uchun esa adabiyotda o‘z uslubiga ega bo‘lish nafaqat o‘z kitobxonlari safini kengaytirishga balki asarlarining tilida o‘z nomini va unga xos “ovoz”ni tanitishga ham xizmat qiladi. Bundan ma’lumki, “uslub” tushunchasi keng ko‘lamli tushuncha hisoblanib, adabiy jarayonni baholash va o‘rganishda, asarlarni davr va hudud miqyosida o‘rganishda yetakchi o‘ringa ega hisoblanadi. Badiiy uslubni adabiiy oqimlardan farqlash, har bir yozuvchining uslubini belgilab beruvchi omillar, uslub shakllantirishgacha yozuvchi ijodining rivojlanish bosqichlarini belgilash borasida adabiyotshunos olimlar tomonidan bir nechta qat’iy bo‘lmagan nazariyalar mavjud. Qat’iy bo‘lmagan deyishimizning sababi esa, adabiyotda ma’lum bir temir qoida asosida izlanish olib boorish mumkin emas va boshqa aniq fanlardan farqli ravishda, adabiyotda xulosa fakt asosida emas tuyg‘u va ta’sir asosida qilinadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, “yozuvchi uslubi”ni aniqlash borasidagi yetakchi adabiyotshunoslar nazariya va fikrlari anchagina samarali bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. I jilt. – T.: fan, 1978.
2. Boltaboyev H, Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. I jild. –T.: Mumtoz so‘z, 2013.
3. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Т.: Фан, 1992.
4. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. — Т.: Халқ мероси, 2004.
5. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи. 2005.
6. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: G‘afur G‘ulom, 2018.
7. Xalillayeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020.
8. htpp://www.ziyonet.uz.
9. https://arxiv.uz.

Maftuna MUXANOVA.
UrDU Magistratura bo‘limi
adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti
muxanovamaftuna7@gmail.com
Ilmiy rahbar: F. f. d., Prof, Maqsud Asadov

NAVOIY OBRAZI: TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY TO‘QIMA

Annotatsiya: ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanidagi tarixiy va badiiy obrazlarga qisqacha ta’rif beriladi. Roman syujeti va mazmunidan kelib chiqqan holda ularning xarakter xususiyatlari va asarda tutgan o‘rni haqida to‘xtalinadi.

Kalit so‘zlar: Isajon Sulton, “Alisher Navoiy”, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima, obraz.

Annotation: this article briefly describes the historical and artistic images in Isajon Sultan’s novel “Alisher Navoiy”. Based on the plot and content of the novel, their character traits and their role in the work are discussed.

Key words: Isajon Sultan, “Alisher Navoiy”, historical reality, artistic texture, image.

Аннотация: в статье дается краткая характеристика историко-художественных образов в романе Исажона Султана “Алишер Навои”. На основе сюжета и содержания романа рассматриваются черты их характеров и роль в произведении.

Ключевые слова: Исажон Султан, “Алишер Навои”, историческая правда, художественная фактура, образ.

Tarix va badiiy asarlar masalasi nihoyatda serqirra, teran va ko‘lamdor masaladir. Har qanday tarixiy asar yaratilar ekan, uning darajasi, tarixiylik va badiiylik mezonlariga qanchalar amal qilishiga qarab belgilanadi. Chunki, o‘quvchi tarixiy romanni shunchaki badiiy asar deb o‘qib ketavermaydi, balki asardagi voqea-hodisalar qanchalik haqqoniy tasvirlanganligiga diqqat qaratadi. Bunday kichik tadqiqot jarayoni haqida P.Shermuhammedov shunday deydi: “Insonning behalovat ruhiyati shunisi bilan hayratlanarliki, u hech qachon tarixiy voqealar, muhim hodisalar, ibratli faktlarga loqayd qaramaydi yoki uni shunchaki bilish bilan qanoat hosil qilmaydi… Odamlar qalbidagi bu ma’naviy ehtiyojni san’atkor adib o‘z paytida tuyib, shunday bir badiiy olamni kashf etadiki, u ko‘zgu yanglig‘ ajdodlarimizning haq-huquqi, ozodligi yo‘lida olib borgan mardonavor kurashini tiniq aks ettiradi. Zero, tarixiy voqea-hodisalar san’atkor qalamining kuchi bilan “tiriltirilmasa”, o‘tmishimiz nihoyatda qashshoqlashib, xira tortib qolgan bo‘lur edi”.

Isajon Sulton ham o‘z oldiga o‘tmishni, bundan olti asr muqaddam yashab o‘tgan buyuk daho – Navoiyni “tiriltirish”day o‘ta muhim va ahamiyatli maqsadni qo‘yadi, tom ma’noda “boshini zo‘r ishga berib” qo‘yadi. Yozuvchi bir qancha suhbatlarda “Alisher Navoiy” romanini, eng avvalo, Navoiyning bolaligini tasvirlagan bir asar yaratish maqsadida material yig‘ish bilan boshlaganligini ta’kidlaydi. Muallif asarni yozish jarayonidagi taassurotlarni kitobxonlar bilan bo‘lishar ekan, birinchidan, o‘ziga “Iste’dod qanday nur taratadi?” degan savolni qo‘yish bilan boshlaganligini aytib o‘tadi. Hamda kitobxonlarga Navoiydek buyuk iste’dod ham xuddi sizlar singari ko‘chalarda o‘ynagan, darsxonalarda o‘rtoqlari bilan ustozlaridan ko‘p narsalarni so‘ragan, hazratning ham bolaligi xuddi bizning yurtimiz qishloqlaridagi oddiy bolalarniki bilan deyarli bir xil bo‘lgan, degan fikrlarni uqtirmoqchi bo‘ladi. Romanda tarixiy obrazlar bilan birgalikda bir qator to‘qima obrazlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Asardagi Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Mirzo,

Xadichabegim, G‘iyosiddin Muhammad, Mirsaid tag‘oyi, Muhammad Ali tag‘oyi kabi obrazlar tarixan haqiqatan ham yashab o‘tgan. Romanda ular bilan bir qatorda Qutb, Qora Mo‘g‘ul, Abu Abdulloh Kulohiy, Xusrav kabi badiiy to‘qimalar ham ishtirok etgan. Tarixiy yoki badiiy to‘qima bo‘lishidan qat’i nazar, barcha obrazlar Alisher Navoiy obrazi atrofida mujassamlashadi, u ilgari surgan xalq manfaati, ilohiy adolat, haq va haqiqat, to‘g‘rilik kabi g‘oyalarni asarda yorqin aks ettirishda kichik bo‘lsa ham o‘z hissalarini qo‘shadi.

Xo‘sh, Isajon Sulton aynan qaysi obrazlarni qanday g‘oya va maqsadlarda xizmat qildirgan?

Asar hijriy 849-yilda yuz bergan voqealar, xususan, Muhammad Ali tag‘oyi bilan bo‘lgan sayr va suhbat bilan boshlanadi. Muhammad Ali tag‘oyi – tarixan mavjud bo‘lgan obraz. Bu haqida Sh. Sirojiddinov shunday deydi: “Alisher Navoiyning o‘zi urug‘-aymog‘i borasida deyarli ma’lumot qoldirmagan. Faqat tog‘alari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiy, ukasi Darvishali haqida “Majolis”da biroz to‘xtaladi, u ham bo‘lsa, tazkira talabi nuqtayi nazaridan juda qisqa”. Muallif Navoiy xarakterining ibratli jihatlari, yoshligidanoq har narsaga qiziquvchan, hatto kichkina va arzimas bo‘lib tuyilgan narsalarning ham mohiyatiga diqqat qaratishini aynan mazkur dialog orqali ochishni boshlaydi. Syujet to‘qimasida bunday yo‘l tutish bosh qahramonlar taqdiri, ularning ruhiy olamiga chuqur kirib borish, badiiy to‘qimada tarixiy shaxs ichki dunyosini teran tahlil qilishga imkon beradi. Zotan, badiiy to‘qimalarsiz tarixiy shaxslar obrazlarini yetarlicha shakllantirish va xarakterlarini ochib berish mushkul hodisa. Bu o‘rinda to‘qima badiiy tasvir ko‘lamini kengaytirish va epik bayonni ta’sirli qilishga xizmat qilgan. Romanning “Havzi Mohiyonda bir tantana” va “Dumli yulduz siri” boblaridagi Muhammad Ali va Misaid tag‘oyilar bilan bo‘lgan voqealar ham yozuvchi badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lib, ular orqali yozuvchi kitobxonni yosh Alisherning tadrijiy rivojiga, kelajagiga ruhan tayyorlab boradi, bosh obrazning bolaligini qayta jonlantirishga intiladi.

Kitobda Sharafiddin Ali Yazdiy, Lutfiy bilan bo‘lgan voqealar tarixan yuz bergan bo‘lib, adib faqatgina ularga qisman badiiy jilo beradi. Mazkur voqealar haqidagi ma’lumotlarni ham Sh. Sirojiddinovning “Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili” kitobidan olishimiz mumkin: “Navoiyning Lutfiy bilan bo‘lgan suhbatida keltirilgan “Orazin yopg‘och…” deb boshlanuvchi g‘azali shoirning o‘spirinlikda yozgan turkiy tildagi ijod namunasi ekanligi Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari tufayli ilmiy iste’molga kiritilgan. Keyingisi, Shohrux mirzo vafotidan so‘ng Alisherlar oilasining Iroqqa ko‘chishi va Taft qishlog‘ida Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvi bilan bog‘liq tafsilotlardir. Bu paytda Navoiy, o‘z e’tiroficha, olti yoshda bo‘lgan”.

Romandagi enaga Qutb obrazi badiiy to‘qima bo‘lib, Navoiy yashagan davrning ichki qonuniyatlarini ifodalab bergan qaharamondir. Nosir asardagi ayollar obrazi haqida to‘xtalar ekan, bu bir jihatdan Navoiy uchun o‘ta shaxsiy bo‘lganligidan, ikkinchi tarafdan, Navoiyning o‘zi ham hattoki onasi haqida hech qaysi asarida batafsil to‘xtalmaganligi sababli bu mavzularga tegmaganligini aytib o‘tadi. Enaga Qutb obrazi aynan shu vajdan romanga kiritilgan. Ya’ni mazkur epizodik qahramon orqali yozuvchi Navoiydek buyuk siymoni tarbiyalagan ayol obrazini gavdalantirishni maqsad qilib olgan, - deyish mumkin.

Asarda konfliktni ta’minlab bergan Majididdin, Nizomulmulk, Qora Mo‘g‘ul obrazlariga ham to‘xtalsak. Majididdin – asarda Husayn Boyqaroning eng yaqin beklaridan biri bo‘lganidan foydalanib, shohning ishonchi va e’tiborini suiste’mol qilgan, soliq uchun xalqdan yig‘ilgan mablag‘larni o‘zboshimchalik bilan o‘z shaxsiy manfaati yo‘lida o‘zlashtirib olgan, Navoiydek xalq homiysi bo‘lgan yetuk arboblarini yo‘q qilishga bel bog‘lagan qahramon. Aslida, tarix kitoblarida bu qahramonning ismi Majdiddin deb keltiriladi. Lekin yozuvchi nega uning ismiga asarda o‘zgartirish kiritadi? Bu xatoni bilmasdan qilganmi, yoki ataylab shunday yo‘l tutganmi, degan savol tug‘ilishi tabiiy hol. Muallif bunga o‘zi “Ziyoli minbari” ko‘rsatuvida Shuhrat Hayitov bilan bo‘lgan suhbatida shunday izoh beradi: “Alisher Navoiy” romanida Majididdin obrazi bor. Asli bu yerda adabiy hiyla bor. Bu kishining ismi Majididdinmas, Majdiddin. Ataylab Majididdin

deylikki, mabodo malomat bo‘lsa, unga taalluqli bo‘lmasin”.

Personajlarga bunday nuqtayi nazardan yondashish asardagi konfliktni biroz susaytirgandek ko‘rinishi mumkin. Ammo asarni tahlil qilishda konfliktdan ko‘ra yozuvchining nuqtayi nazari, personajlarga bildirgan munosabati, hikoya qilish usuli muhimroqdir. Zotan, asarda adibning mavzu badiiy talqinidagi obyektiv va subyektiv pozitsiyasi (samimiyati, bosiqligi, ichkaridan nurlantirishi) aks etadi. Nuqtayi nazar kitobxonni roman olamiga olib kirish (manipulyatsiya qilish)ga ko‘maklashadi. Muallif qahramonga yoki tarixiy voqealarga munosabat bildirayotganida, samimiy va xolis pozitsiyada tura olganidagina kutilgan natijaga erishishi mumkin bo‘ladi. Tarixiy romanlarda voqea-hodisaga emas, balki uning qahramon ruhiyatiga qanday ta’sir etishiga diqqat qaratish muhim. “Alisher Navoiy” asarida Majididdin obrazi misolida xuddi shu holatni kuzatishimiz mumkin. Ayanchli yakun topayotgan umr nihoyasida qahramon hayotida eng katta qilgan gunohi Navoiyga dushmanlik qilganligi ekanini anglab yetadi va pushaymonlik hissini qalbidan o‘tkazadi.

Qora Mo‘g‘ul – yozuvchi badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lgan, romandagi qahramonlararo ziddiyatni kuchaytirish maqsadida muallif tomonidan kiritilgan badiiy obraz. Mazkur personaj Navoiy bilan yoshlik paytida bir muddat bir safda xizmat qilgan bo‘lishiga qaramasdan, boylik va mansab ilinjida Majididdinlar guruhiga qo‘shilib, ongsiz ravishda xalq boyligiga ko‘z olaytirib, undan o‘z foydasi yo‘lida “urib qoladi”. “Ongsiz” deyishimizning o‘ziga xos sababi bor: bu odamning savodi va dunyoqarashi unchalik ham yaxshi bo‘lmagan. “Halol-haromning unchalik ham farqiga boravermaydigan” (“Shom bo‘lib qolibdi-ku? Masjidga borsammi yo chog‘irxonagami? – deya ikkilanib turdi-da, “Hay, vaqti kelsa, qazosini o‘qirman” deb, chog‘irxonaga yo‘l oldi”) personaj Majididdinning gapiga kirib, soliqlarni vazir va qisman o‘zi hisobiga undiradi. Shunga qaramasdan, Navoiy borasida so‘z ketganida, Qora Mo‘g‘ul unga ham, Majididdinga ham xiyonat qilmasligini ta’kidlaydi.

Isajon Sulton faqat Majididdingagina emas boshqa obrazlarga ham xolis pozitsiyada qolishga harakat qiladi. Buni Nizomulmulk taqdiri misolida ham ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Muallif qilgan xatolari juda ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, bu qahramonlarning “ustiga mag‘zava ag‘darishdan” o‘zini tiyadi. Aksincha, kitobxonga har kim ham xato qilishi mumkin, muhimi bu xatoni o‘z vaqtida anglab to‘g‘irlay olish degan fikrlarni uqtirmoqchi bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, roman Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish uchun yangi bir bosqich, yangi bir qadamdir. Hamda bu qadamni asosli ravishda muvaffaqiyatli bo‘lgan deyish mumkin. Yuqorida sanab o‘tgan tarixiy va to‘qima obrazlar ana shu muvaffaqiyatning asoslaridan biri sifatida xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. – Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. 549-b.
2. Isajon Sulton. Alisher Navoiy (roman). – (Matn) – T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 192-b.
3. Shermuhammedov P. Tarixchi va ijodkor nigohi. Sharq yulduzi. – Toshkent: 1977. N-3. 25-b.
4. Rahmonov N. Tarixdan oziqlanib. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. 15-b.
5. Yoqubov I. Badiiy matn va estetik talqin. – T: TDPU, 2013.
121-122-b.
6. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T: Akademnashr, 2011. 30-b.
7. Shuhrat Hayitov va Isajon Sulton suhbatidan. “Ziyoli minbari” ko‘rsatuvi. O‘zbekiston telekanali. 2024-yil 8-dekabr sonidan.

Madinaxon G‘OFUROVA,
Farg‘ona davlat universiteti
2-bosqich magistranti
madinagofurova9@gmail.com



CHO‘LPONNING “QURBONI JAHOLAT” HIKOYASIDA DAVR VA QAHRAMON.

Annotatsiya: ushbu maqolada Cho‘lponning “Qurboni jaholat” hikoyasida bosh qahramon Eshmurod haqida. Yozuvchi tomonidan davr muammolari ikki qahramonning dunyoqarashlari to‘qnashuvi vositasida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar : qahramon, yangi davr, jamiyat, jaholat, personaj, harakter.

Аннотация: в статъе речъ идет о персонаже Элмурода. Доша из рассказа Чулпона “Жертвоприношение невежества”. Писателъ раскрывает проблемы эпохи через столкновение мировоззрений двух персонажей.

Ключевые слова: герой, новая эра, общество, невержество, характер.

Annotation: this article is about the main charekter Eshmurod in Chulpaan’s story “The Sacrifice of Ignorance”. The writer reveals the problems of the era through the clash of worldviews of two heroes.

Key words: hero, new era, society, ignorance, charakter,

Badiiy adabiyotda qahramon masalasi qadimdan so‘z san’atining muhim jihatlaridan biri bo‘lib kelgan. Qahramonning xatti-harakatlari orqali ijodkorning badiiy g‘oyasini namoyon etib beruvchi estetik pozitsiyasi namoyon bo‘ladi. Ya’ni badiiy niyat, badiiy-falsafiy g‘oyalarini qanday shaklda qanday yo‘sinda ifodalab berishini anglatadi. Bu narsa ijodkorning adabiyotda o‘z badiiy-falsafiy g‘oyalari tizimini yaratishi demakdir. U nihoyatda qiyinchilik bilan kechadigan va amalga oshadigan hodisadir.

Yangi davr muammolarini yoritib berishda yangi janrlar ehtiyoji yuzaga keldiki, mumtoz adabiy janrlar bu jihatdan talabga javob bera olmasdi. Shuning uchun o‘zbek nasrida ham hikoya, qissalarning yangi janriy xususiyatlari ko‘zga ko‘rina boshladi.

Davr muammolarini ko‘tarib chiqqan qahramon Cho‘lponning “Qurboni jaholat” hikoyasining bosh qahramoni Eshmuroddir. Jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy muammolarini yechimi faqat ilmdan bo‘lishi bu asar g‘oyasini tashkil qiladi. Eshmurodga qarama-qarshi tarzda ‘’qadimiya” vakillaridan biri bo‘lgan Mo‘minjon qarama-qarshi qo‘yiladi. U madrasa ko‘rgan bo‘lib, jaholat va aqidaparastlik botqog‘iga botib qolganligi hattoki o‘zining xatini o‘zgartirishga intilmasligida seziladi. Demak, davr muammolari qahramonlar vositasida o‘z aksini topadi.

Yozuvchi tomonidan davr muammolari ikki qahramonning dunyoqarashlari to‘qnashuvi vositasida ochib beriladi. Ikki qahramon timsolida yozuvchining ikki xil munosabatlarga o‘ziga xos munosabatining ikki qutbi namoyon bo‘lgandek taassurot uyg‘otadi ham. Chunki asarda yozuvchi taalluqli bo‘lgan davrning ijtimoiy-ma’naviy muammolari asar maydoniga olib chiqilgan.

Asarda Mo‘minjon nafaqat “qadimiya” tarafadorigina emas, balki har taraflama ma’naviy qashshoq kimsa sifatida ham tasvirlanadi. Mo‘minjon Elmurodga o‘zini

do‘st sifatida ko‘rsatib kelsada, uning uyidagi qimmatbaho soatini uni makr bilan chalg‘itib o‘g‘irlab olishga ham borib yetadi.

“Voy, Mo‘minjon ekan-ku,– deb eshikni ochub, Mo‘minjonni mehmonxonaga olub kirdi. Xizmatchini chaqirub, choy-non olub kelishga buyurub yubordi. Mo‘minjon yoshligidan o‘g‘irliqg‘a odat qilub kelg‘anidan mehmonxonaning qozug‘iga osilgan soatga tikildi. Ul soatni mundan bir-ikki hafta muqaddam Eshmurodning otasiga bir yaqin do‘sti hadya qilgan edi. Eshmurod oni yaxshi ko‘rub otasidan so‘rab olgan edi.

– Xizmatchi: – Havlida non yo‘q ekan, emdi nima qilaman?

Eshmurod:

– Bo‘lmasa men oqcha beray, ko‘chadan olib kel!– deb yonini axtardi, oqcha yo‘q. Mehmonxonaning yonidagi uydan oqcha olub chiqmoqchi bo‘lub o‘rnidan turdi. Shul holda ko‘zi soatga tushub, oni berkitub qo‘ymak uchun qozuqdan olub, uyga olib kira boshladi. Mo‘minjon: – Soatni qayerga olub borasiz?

Eshmurod:

– Bu yerda tursa bolalar buzub qo‘ymasun, deb sonduqg‘a solub qo‘ymoqchidirman.

Mo‘minjon:

– Xo‘b yaxshi, ehtiyot qilmak kerak.

Eshmurod uyga kirub, soatni sondiqg‘a solub, oqcha olay deb turub ediki, Mo‘minjon “Sizni birov chaqirdi”, deb ovoz qildi. Eshmurod uydan chiqub:

– Kim chaqirdi, qayerda chaqirdi?

Mo‘minjon:

– Bilmadim, ichkari havlidan volidangiz chaqirganga o‘xshaydir.

Eshmurod kirib qaramak uchun uyga kirub ketdi. Mo‘minjon tezlik ila uyga kirdi. Sonduqning og‘zi ochiq qolg‘on edi, soatni olub qo‘ynig‘a urdi. Yana chiqub, bilmas kishi bo‘lub o‘z joyiga o‘lturdi.

Eshmurod:

– Hech kim chaqirmagan ekan, xayr, ko‘chadagi tovushlardir, – deb uyga kirub, oqchani olub xizmatchiga berdi. Sonduqni yopub chiqdi va soat o‘g‘irlanganidan ham xabari bo‘lmadi. Shul holda xizmatchi ham choy-non olub keldi. So‘ngra ikki do‘st o‘rtalarida suhbat boshlandi”.

Asar davomida o‘sha davring tipik vakili sifatida Mo‘minjonning hayot haqidagi tushuncha va qarashlari aks ettiriladi. Uning nazarida yashashning maqsadi faqatgina rohat-farog‘atni o‘ylashdangina iborat ekanligi ochiqlanadi:

“Eshmurod:

– Og‘ayni, men shu holda yashayversam hayvondan farqim bo‘lmas. Endi otamdan bir ish qilub ruxsat olub, Rusiya maktablarining biriga kirub o‘qumoqchidirman. Siz nima deysiz? Mo‘minjon:

– Ey, o‘rtoq, o‘rus maktabida o‘qub nima foyda qilasiz? Mana, otangiz xotun olub beradilar. O‘zingiz rohat qilub madrasada o‘qub yotasiz.

Eshmurod:

– Ey.. Hozirgi madrasalarimizning ahvoli o‘zingizga ma’lum-ku, men o‘qub nima foyda topardim?

Mo‘minjon:

– Men o‘qishini aytmayman, rohatlarini aytaman. Xohlasangiz o‘qiysiz, xohlagan vaqtda rohat qilasiz. Sizga nima?! O‘rus maktabida o‘qub zakunchi bo‘larmidingiz yo duxtur bo‘larmidingiz yo yer o‘lchaydirgan zemlemer bo‘larmidingiz?

Eshmurod:

– Menga undoq so‘zlarni so‘ylamasdan durust bir maslahat bering. Har kim istiqbolni o‘ylamog‘i kerak.

Mo‘minjon:

– Mana, mana, o‘rus maktabida o‘qusangiz shundoq istiqbol-mistiqbol degan o‘ruscha so‘zlarni o‘rganasiz, yana tovoq-qoshuqlarni o‘qiysiz. Bo‘lmasa nima bo‘lar edingiz?”

Keltirilgan parchada yozuvchi Mo‘min timsolidagi davr kishilarining – yoshlarning aksar hayotga munosabati qanday ekanligini ochib beradi. Mo‘minjon hayotni qanday tushunishi, aniqrog‘i tushunmasligi yoritiladi. Davrning ma’naviy tubanlik botqog‘iga botib borayotganligini ushbu dialog orqali davrning ikki vakili – ikki qahramoni timsolida fosh qilib berishga muyassar bo‘ladi. Demak, Mo‘minjon uchun hayot bu kayf-safo qilish, uylanib xotin

olishdan boshqa maqsadni anglatmaydi. U hattoki Eshmurod ustidan ham kuladi. Uning hayotdagi intilishlarini befoyda urinishlar deb mazah ham qilyapti. “O‘rus maktabida o‘qusangiz shundoq istiqbol-mistiqbol degan o‘ruscha so‘zlarni o‘rganasiz, yana tovoq-qoshuqlarni o‘qiysiz”. Jumlalari uning o‘zining tafakkuri qanchalar ayanchli holatda ekanligini ochib beradi.

Ko‘rinadiki, yozuvchi tomonidan bu ikki qahramonning ikki toifadagi odam sifatida savol-javob natijasida davr jamiyatining ikki qutbi ko‘rsatib beriladi. Ulardan bir ma’rifat tomoniga intilayotgan Eshmurod bo‘lsa, ikkkinchisi jaholat botqog‘iga cho‘kayotgan Mo‘minjon bo‘lib chiqadi. Shu orqali yozuvchining badiiy niyati yoritib beriladi. Ayniqsa Mo‘minjonning jamiyatda yuz berayotgan jaholatga ichki isyoni tariqasida uning ruhiy kechinmalari kitobxonga oshkor qilinadi:

“Eshmurod bir oydan so‘ngra biroz sihatlandi. Lekin kecha-kunduz o‘ylar ediki, shul jaholat va nodonlikning uyasi bo‘lgan havlisidan qochib, boshqa bir shaharga borib o‘qusin... Eshmurod shunda iskamekaga o‘turub gazitani o‘qiy boshladi. Gazitaning qay yeriga qarasa, Turkistonli bechoralarning ilmsiz va hunarsiz holda maishat qilganlariga taassuf qilib yozadilar. Yana diqqat... Yana xafalik. Bu bizning Turkistonimiz g‘aflatdan uyg‘onurmi? Yo‘qmi? Biz bunday holda bo‘lsak bitamiz... inqiroz topamiz...”

Eshmurod bu davrning aksar jamiyatga befarq bo‘lmagan yoshlar timsolida shakllanadi. U o‘z jamiyatini boshqa jamiyatlar bilan qiyoslay olishga va shu orqali ma’lum va dolzarb fikrlarni anglay olishga qodir shakllanayotgan ziyolilar vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Uning hali ijtimoiy qarashlari to‘liq shakllanishga ulgurmagan bo‘lsa-da, ammo davr muammolarini mavjudligini va unga faqatgina ma’rifat orqaligina yechim topish mumkinligini anglaydi.

“Xo‘sh, “Qurboni jaholat”da xarakterlar qanday talqin qilinadi? Adib tanlagan personajlar – Eshmurod, otasi, Mo‘minjon, mingboshi – o‘zlarining xarakter mantiqidan kelib chiqib emas, yozuvchi ko‘rsatmasi bilan harakat qiladilar. Gap shundaki, Cho‘lpon hikoya vositasida nima demoqchi ekanini aniq biladi, shunga mos qahramonlarni tanlab oladida, ularning rolini oldindan belgilab qo‘yadi... Ko‘ramizki, Cho‘lpon personajlarning xarakterini faqat bir narsa – ularning jadidchilik g‘oyalariga qay daraja muvofiqligidan kelib chiqib belgilaydi. Ya’ni, o‘zining g‘oyaviy mavqeyidan turib idrok etgani va baholagani ijtimoiy tiplarni to‘g‘ridan to‘g‘ri asarga ko‘chiradi” .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho‘lpon. Qurboni jaholat. https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/nasr/575-hikoya.html
2. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. 16-b.
3. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. 16-b.
4. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013. 46-bet.
5. https://kh-davron.uz/ .

Xumora YUSUPOVA,
Tosh.DO‘TAU Ona tiliva adabiyoti ta’limi fakulteti
2-kurs magistranti
tojiyevaxumora@mail.com

AYOL VA ERKINLIK: CHO‘LPON SHE’RLARI MISOLIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada Cho‘lpon ijodida xotin-qizlarga oid g‘oyalar badiiy tahlil etilgan. Ayollar masalasi shoir tomonidan milliy o‘zlik va ma’naviy uyg‘onish kontekstida talqin qilinadi. Tadqiqotda Cho‘lponning ayol obrazlari orqali bildirgan ijtimoiy pozitsiyasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: uyg‘onish, ayol taqdiri, savodsizlik, “O‘zbek qizi” “Men va boshqalar”,”Navro‘z kunida”,erkinlik,yangilanish.

Annotation: this article presents a literary analysis of ideas related to women in Cho‘lpon’s works. The issue of women is interpreted by the poet within the context of national identity and spiritual awakening. The study reveals Cho‘lpon’s social position expressed through female characters.

Key words: awakening, women’s fate, illiteracy, “Uzbek Girl”, “Me and the Others”, “On the Day of Navruz”, freedom, renewal

Аннотация: в данной статье проведён художественный анализ идей, связанных с женщинами, в творчестве Чулпона. Проблематика женщин интерпретируется поэтом в контексте национальной идентичности и духовного пробуждения. В исследовании раскрывается социальная позиция Чулпона через образы женщин, представленные в его поэзии.

Ключевые слова: пробуждение, женская судьба, безграмотность, “Узбекская девушка”, “Я и другие”, “В день Навруза”, свобода, обновление.

Kirish. Adabiyotda yangilanish jarayoni — yangi g‘oya va mavzular, zamonaviy til va uslub, hayotiy voqelikning aks ettirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishda jadid ijodkorlari o‘zgartiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi. Ular yaratgan adabiy meros o‘z davri uchun tub yangilik bo‘lib, badiiy ijodda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ldi. Badiiy asarning poetik barkamollikka erishishi esa, an’anaviylik va yangilikni uyg‘un tarzda qo‘llay bilishga bog‘liq. Har qanday davrda yashagan ijodkor uchun bu uyg‘unlik muhim ahamiyat kasb etadi — uning asarida o‘tmishning adabiy tajribasi bilan birga zamon talablari, davr ruhining ham aks etishi adabiyotshunoslikning asosiy tamoyillaridan sanaladi. Shu talablarga asoslangan holda XX asr jadidlar lirikasida ham har jihatdan o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi.Bu davrda yozilgan she’riyat namunalarining asosiy qismida Turkiston hayoti, ijtimoiy va siyosiy voqealar ifodalangan. Ilgari she’riyat ko‘proq inson qalbining ichki kechinmalari, shaxsiy his-tuyg‘ular atrofida shakllangan bo‘lsa, endilikda ijodkorlar real hayotni, jamiyatdagi muhim muammolarni yoritishga e’tibor qaratdilar. Chunki davrning o‘zi adabiyotni ijtimoiy vazifani bajarishga chorlar edi — shoirlar jamiyatning ichiga kirib, adabiyot orqali islohotga da’vat qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Shunday sharoitda she’riyat o‘ziga xos vazifani bajara boshladi: u epik va dramatik janrlar bilan bir qatorda zamon muammolarini aks ettirishda faol ishtirok etdi.

Ana shu o‘zgarishlar asnosida, uzoq yillar davomida qat’iy an’anaviy ko‘rinishda tasvirlanib kelgan ayol obraziga ham yangicha yondashuv paydo bo‘ldi. XX asr milliy she’riyatida ayol obrazi jamiyatdagi faol va ongli ishtirokchi sifatida tasvirlana boshladi. Bu jarayon qisqa vaqt ichida bo‘lib o‘tdi, lekin jadid adabiyoti doirasida salmoqli o‘rin tutdi. Hamza, Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Elbek, Tavallo, Ajziy,Botu kabi ijodkorlar o‘z she’riy asarlarida yangicha tafakkur bilan zamonaviy ayol obrazini yaratishga kirishdilar.

Bu davrgacha bo‘lgan adabiyotda ayollar asosan yor, oshiq ma’shuqa, gulga qiyos etilgan nazokat timsoli yoki mehribon ona sifatida tasvirlanadi. Ularning obrazi ko‘proq ramziy va estetik talqinlarda gavdalanib, go‘zallik, sadoqat, muhabbat kabi tushunchalarning badiiy ifodasiga aylanadi. Jadid ma’rifatparvarlari bo‘lsa, o‘z zamonasining ayollariga taalluqli muammolar — savodsizlik, majburiy unashtirish, jamiyatdagi cheklovlar, erkning yo‘qligi kabi holatlarga qarshi kurashib, she’riyat orqali ijtimoiy ongni uyg‘otishga intildilar. Ayol obraziga yangicha yondashuv, uni milliy uyg‘onishning ajralmas qismi sifatida ko‘rish — bu davr adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri bo‘ldi.

Darvoqe, jadid she’riyatidagi xotin-qizlar obrazi bilan bog‘liq asarlar ijtimoiy asosga ega. Real voqea-hodisalar tasviri ijodkorning g‘oyaviy-emotsional, subyektiv munosabatiga asoslangan bo‘lib,tarixiy va zamondosh ayollarga munosabat orqali shoirning

estetik ideallari haqidagi tasavvuri namoyon bo‘lganki, bular milliy adabiyotimizda realistik badiiy talqinning takomiliga xizmat qildi.

Asosiy qism

Ayol taqdiriga, uning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy mavqeiga bag‘ishlangan lirika namunalari Abdulhamid Cho‘lponning ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi.Xususan, “O‘zbek qizi” she’ri Cho‘lponning chuqur ijtimoiy iztirob va umidsizlik ruhida yozilgan asari bo‘lib, unda ayol erkinligidan ko‘ra ayolning tutqun holati, ichki iztirobi va ozodlik orzusi markazga chiqadi.She’r boshidan oxirigacha bir ayolning ichki dunyosida kechayotgan, o‘tkinchi emas, balki doimiy qo‘rquv bilan yashash holati tasvirlanadi. Uning bog‘ga kirishi – shunchaki bir tabiat bag‘riga intilish emas, balki ichki ozodlik istagidir. Lekin bu istak, “Yaproq yanglig‘ titrab-qaltirab”, “Qo‘rqa-qo‘rqa o‘tday yaltirab”satrlarida ko‘ringanidek, hadik va xavotir bilan to‘lib-toshgan.Ayol hech qachon “men erkin yashashni istayman” demaydi, ammo har bir obrazda shu istak yashiringan. Chechaklar, gullar, parda, bog‘ – bularning bari ayol orzusidagi ozodlik dunyosining timsollaridir. U bog‘da gullarning qarashidan quvonadi, lekin bu quvonch ham o‘tkinchi:

“Menga qarab chechak, gullar unda
Sevinib ko‘zini soldilar”

Bu qisqa lahza – uning ozod, tabiat bilan hamnafas bo‘lgan yagona onidir. Ammo:

“Parda yirtib men ham chiqqonimda
To‘sib chiqar erim qarshimdan.” [2: 15]

– bu satrlar uning har qanday ozodlikka urinishining yo‘lini to‘sadigan kuchlar borligini ko‘rsatadi. Ayol qachon parda ortidan chiqsa, uni er yoki urf-odat yana “parda ichiga” qaytaradi.She’r so‘ngida ayol baxtini “qullar baxti yanglig‘ yiroq o‘lkalarda yashaydir” deb ta’riflaydi. Bu misralar – Cho‘lponning faqat ayol emas, balki umuman xalqning baxti, erkinligi boshqa joylarda, o‘z yurtida emas, degan ijtimoiy iztirobini bildiradi.Ayol o‘z holatini: “Erkin Sharqning tutqun qizidir”deb tasvirlaydi. Bu – o‘ta kuchli metafora. Sharq – tarixan erkin madaniyatlar beshigi, ammo uning qizi – tutqun. Bu Sharq jamiyatlaridagi ayol erkinligi haqiqatda yo‘q ekanligini tan olishdir.

She’r to‘liq ichki monolog tarzida yozilgan. U ayolning o‘z yuragidagi qo‘rquvlar, istaklar, pushaymonlik va orzularini o‘z ichida gapirib borishidir. Bu monolog dramaga o‘xshash tarzda, kuchli ruhiy holatlar o‘zgarishi bilan kechadi: avval qo‘rquv, keyin sevinch, so‘ng yana umidsizlik. Bu ruhiy tebranishlar orqali Cho‘lpon o‘quvchini o‘sha ayolning qalbiga olib kiradi. Bu – ichki ozodlik, fikr erkinligi, orzu qilishning o‘zi ham qanchalik cheklangani haqida faryoddir. “O‘zbek qizi” – bu birgina ayol taqdiri haqida emas. Bu – Sharq jamiyatlaridagi ayolning fojeasi, orzularining so‘nishi, ozodlik istagining jazoga aylanishi haqida. Cho‘lpon bu she’r orqali ayol erkinligini himoya qilmaydi – u erkinlikdan umidini yo‘qotgan qiz tilidan butun jamiyatga savol beradi: “Nega men quldek yashashim kerak?” Bu savolning javobi esa o‘sha davr jamiyatining qatlam-qatlam muammolari ichida ko‘milib yotgan.

Ijodkorning “Navro‘z kunida” she’ri tashqi jihatdan Navro‘z bayrami, yangilanish, bahor va erkinlik haqidagi obrazlar orqali ochiladi. Ammo asl mohiyati — bu ayol, ayniqsa, o‘zbek qizining ijtimoiy va ruhiy tutqunligidir. Cho‘lpon Navro‘z kunidagi yorug‘lik, yangilik va ozodlik nashidasi fonida o‘zbek ayolining hali ham erkinlikka erisha olmayotganini keskin tanqid qiladi. Bayram hamma uchun bayram emas — bu she’rning eng achchiq haqiqatidir.

“Xira, o‘chgan, kirlik, kuchsiz dillarga
Yorug‘ yog‘du, turmush sepkan yangi kun.”

She’r matla’si kuchli ziddiyat bilan boshlanadi. “Yorug‘ yog‘du” yangilik, bahor, erkinlik timsoli bo‘lsa, “xira, o‘chgan, kuchsiz dillar” — ayni zamonda bu erkinlikdan bahramand bo‘la olmayotganlar, ayniqsa ayollar timsolidir.

“O‘zbek qizi: ‘Boshqalarga erk bergan,
Menga qani erking? - desa, na deyar?”

Bu misralar bevosita erk, inson huquqlari va tenglik haqida ochiq va jasur savol tashlaydi. Cho‘lpon bu yerda faqat muallif emas — u mutafakkir, ayollarning og‘zidan gapirayotgan publitsist hamdir. Ayolning og‘zidan keltirilgan bu so‘zlar jamiyatga nisbatan dardli, ayblovli murojaatdir.

“Navro‘z kuni devorlarga qararlar...
Zindon kabi tor uyidan chiqolmay...”

Uy — ayol uchun zindonga aylangan. Bu yerda uy ramzi erkning emas, chegaralarning timsoli. Cho‘lpon uy joyini ayolning ozodligiga zid tarzda aks ettiradi.

“Tutqunlarning ko‘z yoshlari bahorning
Shudringidek go‘zallikni ho‘llaydir” [2: 55]

Bu qiyos kuchli: go‘zallik va bahor, ya’ni umid, lekin ularni ho‘llayotgan narsa — ayollarning ko‘z yoshi. Bahorning shudringi odatda hayot timsoli sifatida qabul qilinsa-da, bu yerda u og‘riq bilan to‘yintirilgan go‘zallikni bildiradi.

She’rda Cho‘lpon ayolni passiv, itoatkor emas, balki “termuluvchi”, kutuvchi, lekin anglaydigan, his qiladigan, so‘rovchi va adolat izlovchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Ayol norozilik bildiradi, erk talab qiladi. She’r jadid adabiyotining muhim bosqichida, ayollar huquqlari, ozodlik va jamiyatdagi islohotlarga da’vat ruhida yozilgan. Navro‘z — qadimiy, shodiyonaga boy bayram — bu yerda aksincha, ayollar uchun achchiq istehzo ramziga aylangan.

Abdulhamidning navbatdagi she’ri Cho‘lponning “Men va boshqalar”. ---- o‘zbek qizi og‘zidan bayon etilgani bilan poetik jihatdan ajralib turadi. She’r yuqoridagi kabi kuchli ziddiyat asosida qurilgan. Lirik qahramon o‘z hayot tajribasini “boshqalar” bilan solishtiradi:

Kulgan boshqalardir, yig‘lag‘an menman,
O‘ynag‘an boshqalar, inglagan menman.

Bu satrlarda “men” va “boshqalar” oppozitsiyasi she’rning asosiy dramatik kuchini belgilaydi. Lirik qahramon — o‘zbek qizi — ijtimoiy hayotda faollik, quvonch, baxtni boshqalar hayotidan ko‘radi, o‘z hayotida esa og‘riq, cheklov va nolalarni his qiladi. Bu qarama-qarshilik Cho‘lpon poeziyasi uchun xos bo‘lgan “hurlik” va “qul holat” ziddiyatining ayollar hayotidagi aksidir.She’rning o‘rtasida poetik ramzlar vositasida ayolning erkinlikka intilishi kuchli ifodalanadi:

Menda-da qanot bor, lekin bog‘lang‘an...
Bog‘ yo‘qdir, shox yo‘qdir, qalin devor bor.

“Qanot” — bu orzu, salohiyat, erk. Lirik qahramon o‘zida shunchaki kuch emas, uchish salohiyati borligini anglaydi. Ammo bu qanotlar bog‘langan. Uchinchi satrdagi “bog‘ yo‘qdir, shox yo‘qdir” iboralari ayol uchun quvonch va ijtimoiy erkinlik makonlari mavjud emasligini ko‘rsatadi. “Qalin devor” esa tashqi to‘siqlar — patriarxal jamiyat, urf-odatlar, ayolga nisbatan cheklovchi qarashlar timsolidir. Bu yerda Cho‘lpon jamiyatdagi ijtimoiy shakllarning qanday qilib ayollar erkinligini bostirishga xizmat qilayotganini aniq ko‘rsatadi. Ayniqsa, “devorlar kuyimni tinglar” satri — ayolning so‘zi, ijodi, hissiy olami faqat yopiq makonda, ichki dunyoda qolayotganini bildiradi.

Erkin boshqalardir, qamalg‘an menman,
Hayvon qatorida sanalg‘an menman...[2: 87]

She’r yakunida dramatik cho‘qqiga chiqadi. Ayolning erki inkor etilgani bilan emas, balki u mutlaqo inson sifatida tan olinmagani bilan fojia tugallanadi. “Hayvon qatori” ifodasi Cho‘lponning qasddan tanlagan keskin poetik vositasi bo‘lib, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan keskin norozilik ifodasi sifatida ishlatilgan. Bu satrda ayol shunchaki kamsitilgan emas, balki uning shaxs sifatida mavjudligi butunlay inkor qilingan. Bu – nafaqat gender tengsizlik, balki axloqiy zulmning ham ko‘rinishi.

Cho‘lpon she’rda sodda, ammo teran mazmunli poetik vositalardan foydalanadi. Har bir satrda qisqa, kuchli urg‘ular bor. Satrlar o‘rtasidagi parallel qurilish — kulgan boshqalardir yig‘lag‘an menman kabi shakllar — ichki ohangdorlikni yaratish bilan birga, mazmuniy qarama-qarshilikni kuchaytiradi. She’r lirik monolog shaklida bo‘lsa-da, unda keng ijtimoiy qatlamlar ovozi eshitiladi.

Cho‘lponning “Sharq qizi” (“Singlimga”) she’rida shoir Sharq ayolining iztirobli ichki kechinmalari, uning erkinlikdan mahrum holati chuqur poetik obrazlar orqali aks ettiriladi. Lirik qahramon bahorning kelishini sezmaydi, uzoq davom etgan qora qish unga hali ham o‘z ta’sirini o‘tkazishda davom etadi. Bu ayolning hayotiga bahor – ya’ni erkinlik, shodlik, quvonch – hali kirib kelmagan. U hali ham kuzni – ya’ni iztirob, yakdillik va qayg‘u faslini kutmoqda. Shoir ayolning “qora ko‘zi kiyik ko‘zidek” deya tasvirlab, uning beayb va beg‘ubor nigohlarini, ammo taqdir tomonidan ovlangan, “belgisiz ovchi” tomonidan nishonga olingan holatini ko‘rsatadi.She’rda “Sharqda bog‘liq xotinlar” tasviri orqali shoir Sharq ayollari ijtimoiy hayotdan chetda qolganini, ular uchun erkin, yorug‘ dunyo hali mavjud emasligini ta’kidlaydi. “Erkin nafas olib, shodlanib, yayrab yashaydigan ul yorug‘ dunyo” tasavvuri ayol orzusiga aylangan, ammo hali haqiqatga aylanmagan. Lirik subyekt – Sharq qizi – o‘z orzulari bilan yashaydi, “xayol uyasi” da hayot kechiradi. Atrofda hamma quvonch bilan yashayotgan bo‘lsa-da, u yolg‘iz, iztirobli holatda qolgan:

Faqat men bir o‘zim, Sharqning bir qizi,
Bahor kelganini ko‘rmay qolamen...[4: 97]

Bahor kelganini ko‘rmay qolish – bu oddiy tabiat yangilanishidan bexabar qolish emas. Ko‘klam bu — imkoniyat fasli, uyg‘onish va hayot fasli. Ammo lirik qahramon uchun bahor shunchaki yilning bir qismi emas, balki umiddir.

“XX asr boshlaridagi millatimiz taqdirini, uning boshiga tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas” [1: 9], deb Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Cho‘lpon ijodiga bergan yuksak bahosi bejiz emas. Cho‘lpon ijodini, xususan, uning ijodida xotin-qizlar taqdiri masalasi borasidagi qarashlarini yaxlit va tadrijiy tarzda o‘rganish, ilmiy-amaliy jihatdan foydalanish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyatga ega [5: 73].

Xulosa/ Xulosa qilib aytganda, Abdulhamid Cho‘lpon ijodi o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolariga teran nigoh bilan yondashgani, ayniqsa, xotin-qizlar masalasiga befarq bo‘lmagani bilan ajralib turadi. Uning she’rlarida ayol obrazlari faqatgina ma’shuqa, ona yoki bechorahol mavjudot sifatida emas, balki ma’rifatga chanqoq, erk va haqiqat uchun kurasha oladigan ongli inson sifatida gavdalanadi. Cho‘lpon xotin-qizlarning jaholat, savodsizlik, erksizlik girdobida ezilib yashashini fojea deb biladi va o‘z asarlari orqali ularni o‘zligini anglash, o‘z huquqlari uchun kurashishga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mirziyoev Sh.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O‘zbekiston,2017.- B.9
2.Jadid kulliyoti.Go‘zal yozg‘ichlar (to‘plam) T., Zabarjad media -2023
3.Qur’onov D.”Cho‘lpon poetikasi” monografiya,2006
4.”Uyg‘onish” to‘plam,1922
5.Xoliqova N. “Jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi” T.,2024.

Ro‘zixon XOLMATOVA,
FarDU 1-kurs magistranti



“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA QORA AMMA OBRAZI RUHIYATINING NUTQ TIPLARI ORQALI OCHILISHI

Annotatsiya: *mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovaning “Ikki eshik orasi” romani misolida qahramon ruhiyatini turli nutq tiplari orqali anglashimiz mumkin. Misol uchun ichki nutq, tashqi nutq, parallel nutq vositalari orqali qahramon ruhiyati kengroq yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *monolog, dialog, ichki nutq, tashqi nutq, parallel nutq, tasvir.*

Аннотация: *в данной статье на примере романа Откира Гашимова “Ikki eshik orasi” мы можем понять психику героя через разные виды речи, например, шире психика героя освещается средствами внутренней речи и внешней речи.*

Ключевые слова: монолог, диалог, внутренняя речь, внешняя речь, параллельная речь, образ.

Annotation: in this article, on the example of O‘tkir Hashimov’s novel “Ikki eshik orasi” we can understand the psyche of the hero through different types of speech.

Key words: monologue, dialogue, internal speech, external speech, parallel speech, image.

Ruhiyat inson ichki olamini ochib beruvchi kalitdir. Ruhiyat va psixologizm ikkisi aynan bir tushuncha. Adabiyot va psixologiya o‘rtasidagi bog‘lanish uzoq tarixga ega. Adabiyot inson ruhiyatini, his-tuyg‘ularini, fikrlarini va ijtimoiy munosabatlarini aks ettirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Psixologiya esa insonning ichki dunyosini, uning xulq-atvorini va hissiyotlarini o‘rganadi. Shunday qilib, adabiyot psixologiyaning nazariyalarini o‘z asarlarida aks ettirishi, inson ruhiyatining murakkabligini ochib berishi mumkin. Psixologizm terminining ta’rifi turlicha izohlanadi. Rus adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida: “Psixologizm (adabiyotda) – qahramonlar ichki olami: ularning o‘y-xayollari, orzu-umidlari, iztiroblarining chuqur va batafsil tasviri”. L.Ya. Ginzburg esa: “... ko‘ngil olami ziddiyatlarining chuqur tadqiqi” deya ta’riflasa, A.B. Yesin psixologizmni keng va tor ma’nolari mavjud ekanligiga to‘xtalib o‘tadi – keng ma’noda inson hayotini tarannum etuvchi va xarakterini tasvirlab beruvchi barcha san’at turlarining xususiyati tushunilsa, tor ma’noda esa inson ichki olamidagi hayot va jarayonlarning tasviri deyiladi. Inson ruhiyatini anglash, uni idrok etish yozuvchining asosiy vazifalaridan biridir. Yozuvchi o‘z asarida qahramonlarning ruhiyatini tasvirlashda turli xil ruhiyatni tasvirlovchi vositalardan foydalanadi. “Adabiyotshunos va munaqqid badiiy asardagi mavjud obrazlarni, badiiy tasvir vositalarini, asarning syujeti, kompozitsion qurilishi, yondosh san’at turlari yoki yondosh ilm sohasi bilan aloqasini chuqur tushunishi va baholi qudrat tushuntirishi lozim. Chinakam san’at namunasi bo‘lgan badiiy asar mazmun-mohiyati, asos negizi, u g‘oyaviy-badiiy jihatdan monofonik yoki polifonikmi bundan qattiy nazar, adabiyotshunos munaqqidning fikr maydonidir. Yozuvchi yaratgan bu ajib maydonda mavjud adabiy, badiiy unsurlar ustida batafsil fikr yuritmasdan turib muallifga “aql o‘rgatash” missiyasi, yozuvchi oldiga qandaydir talablar qo‘yish huquqi hech kimga berilgan emas’”. Adabiyotshunos M.Qo‘chqorova esse, hikoya va qissalar haqida fikr yuritar ekan: “Hozirgi o‘zbek nasrida inson ruhiyatini kashf etishda adiblarimiz turfa xil psixologik tasvir vositalaridan, chunonchi, tush, xotira, xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj, psixologik tasvir, qahramonlarning mimika va jestlari, illyuziya, gallyusinatsiya, egizak obrazdan keng foydalanishmoqdaki, bular barchasi tadqiqotchilarimizdan yangicha nigoh bilan tadqiq etishni talab etmoqda”, degan xulosaga keladi. Qahramon ruhiyatini tasvirlashda nutq tiplarining o‘rni alohidadir. “Nutq tiplariga ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni kiradi. Monolog badiiy nutq tipi sifatida qahramon his-tuyg‘usini burilish pallasiga yo‘naltiradi, munosabat ziddiyati (tasdiq-inkor) vositasida voqe bo‘ladigan uslubiy

birlikda dunyoqarash ijtimoiy-psixologik kolliziyaga uchraydi. Iqror, murojaat, ilinj, urg‘u, istak va imkon sintezi natijasida rivoya shakli ijtimoiy belgilarni xususiylashtiradi. Yaxlit tasvir-ifoda aslida qahramon bayonini kun tartibiga qo‘yadi, unda muqoyasa hamda nisbat raqobatga kirishadi, unda ichki nutq va tashqi nutq muqobillik kasb etadi”. “ Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog‘mi o‘zi? Mayli, oyoq-qo‘lsiz bo‘lsang ham, birov zambilda ko‘tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo‘lingga termula-termula o‘tdi. Endi aqalli meni o‘z qo‘ling bilan tuproqqa qo‘ysang- chi! Yo‘q, yig‘layotganim yo‘q, bolam! Yig‘lamayman. Mabodo yigilasam ham... Yo‘q, o‘glim. Men yig‘lasam, sen bezovta bo‘lasan. Robiya kuyadi. Qizimning ikki ko‘zi haliyam eshikda. Kutyapti. Seni kutyapti. Boshqa qiz bo‘lsa, etagini qoqardi-yu bor-e, deb bittasiga tegardi- ketardi. Ne-ne joylardan sovchi chiqmadi. Tuqqandanmi-tug‘ishgandanmi, deb shuni aytadi-da! Bir qiz bo‘lsa shunchalik bo‘lar”. Bu parchada Qora ammaning ichki dialogi orqali uning ruhiy holati, ichki kechinmalari, iztiroblari aks ettirilgan. O‘g‘li Kimsanning urushda halok bo‘lganini aqlan tushunsada,ona qalbi bu achchiq haqiqatni tan olgisi kelmasdi. Qora amma bolasining qayerda bo‘lsa ham tirik bo‘lsa bo‘ldi, yana yeg‘lasam sen bezovta bo‘lasan deya istirob chekishi, o‘zaro ichki konfliktning vujudga kelishiga olib keladi. “Voy, o‘lmasam! Yana o‘sha shum xayolga boryapmanmi? Kimsanim, jon bolam, kechir, gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko‘rsatmasin, shahid ketgan bo‘lsang, arvohing chirqillaydi. Tirik bo‘lsang, ertaga kelib yoqamdan olasan. “Nima qilib qo‘yding, shumkampir, senam onamisan, imonsiz”, deysan! Nima desang haqqing bor. Qaysi ona o‘z yuragini o‘zi sug‘urib tuproqqa tashlaydi? Qaysi ona o‘z bolasiga o‘zi xiyonat qiladi? Qandoq qilay, jonim bolam? O‘zing o‘yla, axir. Robiyam, sening Robiyang, qovjiragan guldek ko‘zimning oldida so‘lib boryapti. Yoshi o‘ttizga qarab ketyapti, o‘g‘lim! Sovchilar “qari qiz” deb qadamini uzib qo‘yganigayam ancha bo‘ldi. Onangning gunohidan o‘t, Kimsan! Bu niyat xayolimga kelganiga ancha bo‘lgandi. Ammo birovga aytish uyoqda tursin, o‘ylashgayam qo‘rqib yuruvdim”. Bu ichki dialogda Qora amma zimmasiga yuklatilgan yuk naqadar og‘ir ekanligini his etish mumkin. Bir tomondan Kimsanning taqdiri, ikkinchi tarafdan Robiyaning baxti, uchinchi tarafda esa o‘z jigarining ayanchli qismati. Yozuvchi har uchala inson taqdirini go‘yo, Qora ammaning hukmiga topshirib qo‘ygandek. Ukasini nomus azobidan qutqarish uchun o‘g‘lining suygan qizini unga xotinlikka berishi, o‘z qizidek bo‘lib qolgan Robiyaning farzandi bor erkakka uzatishi, bu holatlarning barchasi Qora ammaning ruhiyatini naqadar kuchli ekanligini ko‘rsatib beradi. “— Ha! Xohlamayapsanmi? Qattaligini ayt, o‘zim topib boraman. — Qo‘lidagi tugilgan tokni laganga tashlab, ko‘zimga termildi. Ichidagi “odamchalar” baralla hushtak chala boshladi. Qarasam, xafa bo‘lyapti. — Oboraman, amma, oboraman! — dedim yupatib. — Shoyad Kimsanimning kamandirini topsam...”. Muzaffar bilan bo‘lgan bu suhbatda Qora ammaning ruhiy kechinmalari yaqqol ko‘rinadi. Yillar o‘tsada o‘g‘li haqida bir og‘iz so‘z eshitishni intizor kutgan ona ruhiyati tasvirlanadi. Qora ammaning so‘nggi ilinji mana shu haykal ochilishi tadbirida o‘g‘lining biror tanishishini ko‘rishu, undan o‘g‘lini so‘rash. “Shoyad Kimsanimning kamandirini topsam...”. Bu yerda yozuvchi uch nuqta qo‘yish orqali farzandi yo‘lini kuta-kuta qalbi lahta qon bo‘lgan ona tasvirini berishga harakat qilgan. Yozuvchi Qora amma ruhiyatini tasvirini berar ekan, uning ruhiy holatida ham o‘zaro konfliktni yuzaga kelganini anglashimiz mumkin. Farzandini o‘lganini aqlan anglasada, qalban uni qaytib kelishiga ishongan ona tasviri orqali ichki konflikt holatini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006.
2. O‘tkir Hoshimov ,, Ikki eshik orasi ‘’romani.
3. Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020.

Muniraxon UMAROVA,
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti



ROSHAD NURI GUNTEKINNING “CHOLIQUSHI” ROMANINI KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL-MADANIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASH

Annotatsiya: mazkur maqolada Roshad Nuri Guntekinning mashhur “Choliqushi” romani 11-sinf jahon adabiyoti kursi doirasida kognitiv yondashuv asosida o‘qitilishi orqali o‘quvchilarning tafakkur darajasi, madaniy ong, shaxsiy pozitsiya va badiiy-estetik didini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kognitiv strategiyalar asosida tanqidiy tahlil, obrazlar bilan muloqot, madaniyatlararo qiyoslash kabi metodlar qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalari esa o‘quvchilarda adabiy-madaniy savodxonlik, tafakkur mustaqilligi va madaniyatlararo qarashlar darajasining oshganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv yondashuv, Choliqushi, Roshad Nuri Guntekin, madaniy tafakkur, jahon adabiyoti, adabiy kompetensiya.

Аннотация: в данной статье анализируются возможности формирования у учащихся уровня мышления, культурной осведомленности, личной позиции и художественно-эстетического вкуса посредством преподавания известного романа Рошада Нури Гюнтекина “Чоликуши” в рамках курса мировой литературы 11-го класса на основе когнитивного подхода. Такие методы, как критический анализ, диалог с образами, межкультурное сравнение используются на основе когнитивных стратегий. Результаты исследования показывают, что у учащихся повысился уровень литературной и культурной грамотности, самостоятельности мышления и межкультурных взглядов.

Ключевые слова: когнитивный подход, Чоликуши, Рошад Нури Гюнтекин, культурное мышление, мировая литература, литературная компетентность.

Annotation: this article analyzes the opportunities for developing students’ thinking level, cultural awareness, personal perspective, and literary-aesthetic taste through teaching Reshad Nuri Guntekin’s famous novel “The Wren” (Choliqushi) as part of the 11th-grade world literature curriculum using a cognitive approach. Within the framework of cognitive strategies, such methods as critical analysis, interaction with characters, and intercultural comparison are applied. The results of the research show that students’ literary and cultural literacy, independent thinking, and intercultural understanding have significantly improved.

Key words: cognitive approach, The Wren, Reshad Nuri Guntekin, cultural cognition, world literature, literary competence.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida adabiyot fani o‘z oldiga nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy, estetik va intellektual maqsadlarni ham qo‘yadi. Jahon adabiyoti asarlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, obrazlar bilan muloqotga kirishish, hayotiy pozitsiya shakllantirish imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa, kognitiv yondashuv bu borada yangi bosqichni belgilab beradi. Bu metodologiya asosida o‘quvchi faqat voqeani bilmaydi, balki, uni tushunadi, talqin qiladi, o‘zining ichki tafakkuri orqali asarni o‘z hayoti bilan bog‘laydi.

Turk adabiyotining yetuk namoyandasi Roshad Nuri Guntekinning “Choliqushi” romani – mazmunan, badiiy jihatdan va tarbiyaviy tomondan nihoyatda boy asar bo‘lib, aynan kognitiv yondashuv asosida o‘rganish uchun yaroqli manbaa hisoblanadi.

Asarning g‘oyaviy va madaniy salohiyati

“Choliqushi” – bu ayolning erk, ozodlik, fidoyilik, sevgi va axloqiy poklik yo‘lidagi kurashini ifodalovchi asar. Faridaning obrazi o‘quvchi uchun:

- shaxsiy mustaqillik;
- insoniylik;

- ayol erki;
- ilm va mehnatga sadoqat

kabi madaniy kontrastlarni anglash nuqtayi nazaridan muhim maktab bo‘la oladi.

Asarda jamiyatdagi patriarxal qarashlar, ayollarga nisbatan ijtimoiy stereotiplar va ularni yengish yo‘llari ochib beriladi. Bu esa asarni zamonaviy gender yondashuvlar va madaniy identifikatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Kognitiv yondashuv mohiyati va ahamiyati

Kognitiv yondashuv – bu o‘quvchining ongida ma’lumotni qayta ishlash, u bilan munosabatga kirishish, tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy bog‘liqliklar o‘rnatish asosida ta’limni tashkil etish metodidir.

Bu yondashuv asosida adabiyot fani quyidagi yangicha maqsadga yo‘naltiriladi:

An’anaviy yondashuv	Kognitiv yondashuv
Asar mazmunini yod olish va ma’lumot berishga asoslanadi.	Asarni anglab, tahlil qilish
Reproduktiv o‘rganish	Kritik va tahliliy o‘rganish
Asosiy voqealarni eslab qolish	Obrazlar psixologiyasi va sabab-oqibatlar, tadqidiy fikrlash, mavzuga muammo qo‘yish kabi tahlil va takliflar beradi.
Ustoz asosiy rol o‘ynaydi.	O‘quvchi faol, ustoz yo‘naltiruvchi.
Dars oddiy suhbat asosida olib boriladi.	Yangicha metodlar, kognitiv savollar, interoktiv metodolar faol qo‘llanadi.

Metodik amaliyot: dars jarayoni misolida

11-sinflarda “Choliqushi” asarini o‘rganish hamda o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda “matn muharriri” metodidan foydalanish o‘rinli. Masalan, asarning bosh qahramoni Faridaning ichki nozik tuyg‘ularini ochib berishda quyidagi matnlarni tavsiya etish mumkin:

“Men baliqlar singari ko‘l ichida tug‘ilganga o‘xshayman. Onamni es-es bilaman... Otam, enagam, xizmatkorimiz Husayn ham esimda... Bir kun meni ko‘chada quvgan qora laychani... Bir kun to‘la savatdan yashiriqcha uzum olayotganimda barmog‘imni chaqib olgan arini... Ko‘zim og‘riganda tomizilgan qizil dorini... Mehribon Husayn bilan Istanbulga kelganimizni... Ha, shularga o‘xshash ko‘p narsalarni eslayman... Lekin bulardan hech biri ilk xotira emas... o‘zim yaxshi ko‘rgan ko‘lda, quyuq yaproqlar orasida cho‘milib yurgan vaqtlarimdagiday eski xotiralar emas... Dengizday poyonsiz bir ko‘l... “Ichida katta-katta yaproqlar, atrofida daraxtlar bo‘lsa, bu ko‘l qanday qilib dengizday katta bo‘lishi mumkin?” deyarsizlar... Xudo haqqi, yolg‘on so‘zlayotganim yo‘q, o‘zim ham sizlarga o‘xshab hayronman... Ammo, aslida, shunday bo‘lgandan keyin ilojim qancha?..”

“Bog‘da qurigan daraxt bo‘lardi. Payti keldi deguncha o‘shanga tirmashib chiqib olganimni, po‘pisalarga quloq solmay tanaffus oxirigacha shoxdan shoxga irg‘iganimni ko‘rgan 170 muallimam: “Bu odam bolasi emas, choliqushi” , – deb koyigan edi. Ana shunday qilib, o‘sha kundan boshlab asl nomim unutildi-yu, hamma meni “Choliqushi” deb ataydigan bo‘ldi. Bilmayman, bu ism keyinchalik qanday qilib oilamizga ham o‘tdi-yu, Farida otim bayram kiyimi singari juda kam qo‘llanadigan rasmiy ot bo‘lib qoldi. “Choliqushi” mening o‘zimga ham yoqardi, nimagaki bu nom ko‘p mahal jonimga ora kirardi. Biron nojo‘ya harakatimdan shikoyat qilishsa, bahuzur yelkalarimni uchirib: “Na chora... Choliqushining qo‘lidan boshqa nima kelardi”, – deyardim... “

“O‘sha kuni kechasi juda yomon bezovta bo‘lib chiqdim. Negadir uyqum kelmas, alahlar, to‘rga ilingan kattakon baliq singari u yoqdan bu yoqqa o‘zimni otar, to‘lg‘anar edim. Xayriyatki, kechalar qisqa edi. Tong yorishguncha Mujgon yonimdan jilmadi. Ichimda bir narsa o‘zgarganday o‘zimdan o‘zim dahshatli bir qo‘rquv, nafrat his etardim. Dam-badam yosh boladay Mujgonning bo‘yniga tashlanar: “Nega bunday deding, opajon?” deb ho‘ngrar edim. U yana ham battarroq hujumga uchrashdan qo‘rqqani uchun na “ha”, na “yo‘q” deyar, indamay sochlarimni silar, boshimni bag‘riga bosib, meni yupatishga tirishar edi. Tong yorishar payt uning ham asab tori uzildi, jahli chiqib meni koyib berdi: – Jinni, yaxshi ko‘rish aybmi? Qiyomat qo‘pgani yo‘qku!.. Juda bo‘lmasa uylanarsizlar, shu bilan olam guliston... Uxla, bezor qilib yubordingku! Men bunaqa

odobsizlikka toqat qilolmayman. Mujgon opamning jahli bu safar ham bo‘ynimni egib qo‘ydi. Bundan tashqari, u bilan gap talashib o‘tirishga o‘zimda ham majol qolmagan edi. Musyo Segenning butun kecha bo‘ri bilan olishib, saharga yaqin o‘zidan ketib qolgan echkisi singari holdan ketgan edim.”

Roman boshlanishidagi yosh qizning hayot yo‘li bora-bora Birinchi jahon urushi davridagi turk xalqi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy muammolar foniga olib o‘tiladi. Roman faqatgina Farida bilan Komron orasidagi ishq-muhabbat bayonidangina iborat emas, balki oddiy xalqning turmush tarzi, boshidan kechirgan mashaqqatlari, insonlararo murakkab munosabatlarini haqqoniy yoritishi jihatidan ham muhim sanaladi.

Mazkur asar yosh avlodni, xususan, o‘zbek xotin-qizlar ma’naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli maktab darsliklariga yoshlar dunyoqarashini o‘stiradigan, axloqiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadigan jahon adabiyoti namunalarini integratsiya qilish adabiyotshunosligimizning muhim muammolaridan biri sanaladi.

Yuqoridagi matn tahririning muhim jihatlari:

1. Asarni kognitiv savollar orqali tahlil qilish: “Feridaning mustaqilligi nimaga asoslangan?”

“Jamiyatga bo‘lgan qarashlar uning qarorlariga qanday ta’sir qiladi?”

“Muallif bu obraz orqali qanday ijtimoiy signal bermoqda?”

2. Obrazlararo tahlil va xarita yaratish: Farida – mustaqillik va g‘urur timsoli.

Kamron – an’anaviylik va oilaviy muhit vakili.

Xola – patriarxal muhitning ifodasi.

3. Madaniyatlararo solishtirma tahlil.

Farida (Choliqushi) obrazini Nora (Ibsenning “Qarg‘a uyasi”), Anna Karenina (Tolstoy), va Xuvaydo (Abdulla Qodiriy) bilan qiyoslash orqali o‘quvchilarda madaniy tafakkur va yondashuvlarni shakllantirish.

4. Estetik va til vositalarining kognitiv tahlili.

Muallif uslubining soddaligi, kinoyaviy ifodalar, metaforalarning madaniy yukini ochib berish.

Tadqiqot natijalari

Namangan viloyati Uychi tumani 12-sonli umumta’lim maktabida eksperimental tajriba o‘tkazildi. 11-sinf o‘quvchilari 2 guruhga bo‘lingan holda (eksperimental va nazorat) “Choliqushi” asarini mos ravishda kognitiv va an’anaviy yondashuv asosida o‘rganishdi.

Eksperimental guruh natijalari:

Matnni anglash va tahlil qilish: 35% → 81%

Mustaqil fikr yuritish: 40% → 78%

Madaniy kontekstni tushunish: 32% → 75%

Nazorat guruhida o‘sish nisbatan past — 20–30% atrofida bo‘ldi.

Bu esa kognitiv yondashuv o‘quvchilarning tafakkur va madaniy qarashlariga chuqur ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi.

Xulosa. Roshad Nuri Guntekinning “Choliqushi” romani o‘quvchilar uchun o‘ziga xos adabiy-madaniy maktabdir. Uni kognitiv yondashuv asosida o‘qitish orqali o‘quvchilar shunchaki matn emas, balki obrazlar, g‘oyalar, madaniyatlar va qadriyatlar dunyosiga sho‘ng‘iydi. Bu esa ularni adabiy tafakkurli, madaniyatlararo sezgir, axloqiy pozitsiyaga ega shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Takliflar

1. Jahon adabiyoti darslarida har bir asar uchun kognitiv savollar majmuasi ishlab chiqilsin;

2. O‘qituvchilarga kognitiv o‘qitish metodikasini o‘rgatuvchi malaka oshirish kurslari tashkil etilsin;

3. “Choliqushi” singari asarlarni gender, psixologik va madaniyatlararo yondashuv asosida tahlil qilish bo‘yicha amaliy qo‘llanma ishlab chiqilsin.

4. Adabiyot fanida o‘quvchilarning madaniy kompetensiyasini baholash mezonlari ishlab chiqilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guntekin R.N. Choliqushi. — Istanbul: Remzi Kitabevi, 1922.
2. Egamberdiyeva Sh.M. Zamonaviy adabiyot ta’limi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
3. Vygotsky L.S. Tafakkur va til. — Moskva: Pedagogika, 1982.
4. Anderson J.R. Cognitive Psychology and Its Implications. Worth Publishers, 2005.
5. Amonova Z.N. Adabiy kompetensiya va uning rivojlanishi. —Andijon: 2021.
6. Qosimova D.X. Madaniyatlararo muloqot va adabiyot. —Samarqand: 2023.

Maftuna DAVRONOVA,
BuxDU O‘zbek adabiyotshunoslik yo‘nalishi
bosqich magistranti
maftunadavronova879 gmail.com

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA OBRAZLARNING YANGILANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida obrazlarning yangilanishi xususida so‘z yuritiladi. Ijodkorlar tomonidan badiiy asarlarga kiritilgan yangi obrazlar asarlarning badiiy qiymatini oshirishi bilan birgalikda, asarlarga yangicha ruh baxsh etmoqda, shuningdek, avvaldan mavjud obrazlarga berilajak ta’riflarning o‘zgarishi ham zamonaviy o‘zbek adabiyotining novatorlik xususiyatidan dalolat beradi. Badiiy adabiyot olamiga obrazlarning “qo‘lidan tutib” olib kira olish, uni adabiyotsevarlar tomonidan iliq qabul qilinishiga erishish, obrazning asarlardagi rolini oshirish ijodkorlar oldidada turgan mas’uliyatli vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy o‘zbek adabiyoti, obrazlar tahlili, yangilanish, novatorlik, badiiylik bo‘yog‘i, yangilik ruhi.

Annotation: this article discusses the renewal of images in modern Uzbek literature. New images introduced by creators into works of art, along with increasing their artistic value, give them a new spirit, and the change in definitions given to pre-existing images also indicates the innovative nature of modern Uzbek literature. It is a responsible task for creators to be able to “take the hand” of images into the world of fiction, to achieve their warm acceptance by literature lovers, and to increase the role of images in works.

Key words: modern Uzbek literature, analysis of images, renewal, innovation, artistic color, spirit of innovation.

Аннотация: в статье рассматривается обновление образов в современной узбекской литературе. Новые образы, привносимые создателями в произведения искусства, не только повышают их художественную ценность, но и придают им новый дух. Изменение определений, данных ранее существовавшим образам, также свидетельствует о новаторском характере современной узбекской литературы. Перед творцами стоит ответственная задача — суметь “ввести” образы в мир художественной литературы, добиться их теплого принятия любителями литературы и усилить роль образов в своих произведениях.

Ключевые слова: современная узбекская литература, анализ образов, обновление, новаторство, художественный колорит, дух новаторства.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti tarkiban bir yangilandi, vazn yangilandi, janr yangilandi, mavzu yangilandi shu bilan bir qatorda obraz ham yangilandi. Vazniy yangilanish mumtoz klassikamizdagi aruz vaznidan barmoq vazniga ko‘chishda sodir bo‘ldi. Bu o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos renessans edi. Sababi, mumtoz asarlardan avvalgi yaratilgan asarlarning barchasi barmoq vaznida bitilgan, mumtoziyot vakillari tomonidan esa barmoqda bitilgan she’r yozilishi deyarli mavjud emas. Barmoq vazni xususiyatlarida o‘ynoqi ruh yetakchilik qiladi.

Janriy yangilanish ham zamonaviy o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xususiyati sifatida maydonga keldi. Ijodkorlar tomonidan yangicha janriy tadqiqlar adabiy novatorlik o‘laroq shakllandi. Shu bilan birgalikda, obrazlar yangilanishi ham o‘zbek adabiyoti uchun yangilik bo‘ldi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida obrazlar tizimi jamiyatdagi o‘zgarishlar, yangi qadriyatlar, globallashuv, texnik va texnologik taraqqiyot natijasi hosilasidir. Yangilangan obrazlar ularning ruhiyatidagi kechinmalar bilan qahramonlar psixologik holati, ichki olami, orzu-umidlarini gavdalantirdi. Qahramonlar ichki dunyosiga chuqurroq kirib borish, ularning fikr va ongosti holatilarini badiiy jihatdan tasvirlash ham zamonaviy o‘zbek adabiyoti uchun o‘ziga xos urfga aylandi. Buni Usmon Azim qalamiga mansub quyidagi misralar orqali tahlil qilamiz:

Ammo... Bu... Tramvay... Ketmas o‘yimdan.
Ko‘chaga boqaman. Qayda bechora?
Ana, tramvaylar osib qo‘yilgan
Sovuq simdorlardan o‘t chiqib borar.

Usmon Azimning yuqorida keltirilgan misralarida asosiy obraz sifatida tramvay obrazi ishtirok etgan. Biroq shuni ham qayd etish kerakki, muallif birgina tramvay obrazi orqali asarning asl mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ko‘chma ma’no yordamida ifodalangan satrlarda shoir o‘z kechinmalari va tashqi dunyo o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshilikni bayon etadi. Tramvay bilan aloqador ijodkor xotiralari,

kechinmalari, his-tuyg‘ulari – bularning barchasi metaforik tasvir yo‘sini orqali iroda etilgan. Uning kelishi shoir xotiralarining-da jonlanishi, bir zum bo‘lsa-da o‘tmish onlariga qaytish uchun imkoniyat. Shu o‘rinda Usmon Azim go‘zal o‘xshatishni keltiradi: tramvay harakatlanishini ta’minlab beruvchi kuch – elektr bilan ta’min etilishi go‘yoki shoir nazdida tramvayning unga osib qo‘yilishiga mengzaladi. Baytning asosiy mazmun anglashiladigan qismi ham aynan shu satrda mujassam: tramvaylarning “osib qo‘yilgani” majoziy ma’noda xotiralarning ham o‘lishiga yashirin ishoradir. Tramvay ham kelmaydi – xotiralar-da qaytmaydi. Demak, zamonaviy o‘zbek adabiyotiga zamon yangiliklarini ham kiritish badiiy adabiyotimiz uchun novator xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ko‘tarilgan yana bir masalalardan biri bu – bevosita yor tasvirining yangi obraz sifatida qalamga olinishidir. Usmon Azimning quyidagi she’rida ushbu umumlashma yaqqol namoyon bo‘lgan:

Sen — etmoqchi bo‘lib ibodat,
Adashibmi kirding bu dayrga.
Oshiq — sevgi dayrida xordir...
Qayt, tavba qil, nomusulmonim!
...— Sevilganning xudosi bordir,
Sevilmagan xudosiz, jonim…

Keltirilgan misrada yor obrazi musulmon bo‘lmagan holda tasvirlanadi, oshiq tomonidan qilingan iltijo esa bitta: sevilganning xudosi bordir... Bu esa bevosita Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi “Shayx San’on va tarso qiz” hikoyatining zamonaviy ko‘rinishi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Zamonaviy o‘zbek she’riyatida an’anaviy yor obrazi qay darajada o‘zgardi?” maqolada ushbu she’riyatdagi yor obrazi xronologik davrlarda qalamga olingan o‘ziga xos tematik umumlashmasi ekanligi xususida shunday deyilgan: “*Yor, mahbub adabiyotda eng yetakchi obrazlar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Nazmning dastlabki namunalaridan tortib hozirgi modern she’rlargacha – barchasining bosh markazida yorga murojaat, yordan shikoyat, uning ayyor-u zulmkor tasviri ko‘p uchraydi. Bu xususiyat zamonlar osha ham o‘zgarmadi. Mumtoz she’rlar kabi modern adabiyotda ham yor oshiqdan uzoqda.*”. Biroq zamonaviy o‘zbek adabiyotida qalamga olingan yor timsoli ham yangiliklardan holi emas.

Istiqlol sharofati bilan diniy erkinlikning taqdim etilishi, badiiy adabiyotda obrazlar silsilasining yangilanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Xususan, ijodkorlar tomonidan diniy timsollar badiiy obraz sifatida adabiyot olamiga olib kirildi. Bu, ayniqsa, Abdulla Oripov she’riyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoirning “Haj daftari” deya nomlangan she’riy to‘plami zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi yangilangan diniy obrazlarning ayni “makoni”dir:

Halollik Islomda eng oliy matlab,
To‘g‘rilik Muslimning asl gultoji.
Bir kun o‘rtada Shayton oralab,
Hojining hamyonin urdi-ku hoji.

Abdulla Oripovning “Hojilar” she’riga mansub yuqoridagi satrlarda zamonaviy o‘zbek she’riyati uchun yangilangan timsollar sifatida Muslim, Shayton va hoji obrazlarini keltirish mumkin. Biroq shoir hoji obrazini tasvirlashda an’anaviy usuldan bormaydi. Islom dini ta’limotiga ko‘ra, hoji – bu “haj marosimlarini to‘la-to‘kis bajargan shaxsning unvoni”dir. Demak, haj amallarini ado etgan inson Islomda targ‘ib qilingan qoidalarga amal qilishi, yaxshilik sifatlarini oshirishi lozim. Ammo Abdulla Oripov qalamga olgan timsol butkul boshqacha – u yaxshiliklardan yiroq, yomonliklar ustasi. Bu orqali ijodkor zamonaviy o‘zbek adabiyotida obraz yangilanishi bilan birgalikda, obrazga “yuklangan” vazifani ham mutlaqo yangilay oldi.

Shodmonqul Salom she’riyatidan ham diniy timsollar o‘rin olgan:

Bismillohir Rahmonir Rahiym,
G‘arib bilganicha duoda, Rabbim!
Yetti farzandidan choshgohda judo,
Shafoat aylasin bizni Mustafo.
Zuhro yulduzidek choriyorlarim,
Rahmat ayla o‘zing, ularni, Boriy!

Keltirilgan misrada qo‘llangan “yangilangan” obrazlar bevosita tasavvuf adabiyotining zamonaviy adabiyotdagi qayta “restavratsiyasi” bo‘ldi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shodmonqul Salomning “Ko‘kdan ko‘ringuvchi manzillarimiz” nomli she’ridan o‘rin olgan diniy obrazlar ikki xil uslubda qo‘llangan:

To‘g‘ridan to‘g‘ri qalamga olingan obrazlar Rab, Mustafo va Boriy (Alloh taoloning ismlaridan biri) hisoblanadi. Ishoraviy usuldagi obrazlar esa onomastik jihatdan ismlari tilga olinmaydi, balki ularga bevosita ishora qilinadi. Yuqorida keltirilgan parchada ishoraviy qo‘llangan obrazlar choriyorlar sanaladi. Bu esa Islom dinidagi to‘rt sahobaning – Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali – umumiy jihatdan nomlanishi hisoblanadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, zamonaviy o‘zbek adabiyotida yangilangan obrazlarga o‘ziga xos yondashuv boshlandi: endilikda ularni tasvirlashda an’anaviylik yo‘sinidan bir qatra uzoqlashildi. An’anaviy she’riyatda obrazlarning tashqi ko‘rinishi, husn-u jamoli asosiy tasvir manbai bo‘lgan bo‘lsa,

endilikda ularning orzu-umidlari, ichki dunyosi, ruhiy kechinmalarini qalamga olish badiiy adabiyotda “kun mavzusi”ga aylandi; qahramonlar idealizatsiyasidan voz kechilib, ularni bor-bo‘yicha ko‘rsatish, aslicha tasvirlash ijodkor tomonidan ilgari surila boshlandi. Usmon Azimning quyidagi she’rida ushbu holat ko‘zga tashlanadi:

Hech kim bilan ishim yo‘q,
Bir o‘zim yashayapman.
Dunyodan kengligini sezdim yuragimning.
Men uni bir tomchi yoshimga jo etolsaydim,
Yuragim bir tomchi yoshga aylanguncha
Necha dunyoning umrini yashayin?
… Faqat
Tez-tez o‘lib turish lozim.

Keltirilgan misrada tanlangan obraz bu shoirning o‘zi: uning hech kimsa bilan ishi yo‘q, bir o‘zi yolg‘iz umr kechiradi, biroq uni hayotga qaytarib turuvchi yagona umid – yuragining dunyodan keng ekanligi. Istagi esa uni bir tomchi yoshga jo eta olishi. Kiritilgan obrazga xos ochiq-oydin, bo‘y-boricha yondashuv o‘zbek adabiyoti uchun yangilik hisoblanadi.

Badiiy adabiyotga obrazlar yangilanishiga xos jihatlardan biri bu adabiyotimizga falsafiy timsollarning kirib kelishi hisoblanadi. Eshqobil Shukurning “Men” tajribasi” nomli she’ri fikrimizning yaqqol dalilidir:

Sug‘urib oldilar ichidan “Men”ni
Hayotning shoh tomiri kabi.
Ko‘ziga tiqdilar Bugunni,
Kechasi, Ertasi ketdilar sabil.
Dardlar, xotiralar quvg‘indi, daydi,
Tuyg‘ular egasi o‘lib dovdirar.
Vatan devorlarin tagin kovlaydi
Ichida “Meni” yo‘q gavdalar.

Shoir tomonidan badiiy adabiyotga yangilik sifatida kiritilgan obraz bu “men” obrazidir. U hech qanday maqtovlar, ulug‘lashlar bilan aks ettirilmagan – u zulmatda, umidsizlik bag‘rida gavdalantirilgan. Falsafiy yo‘sinda yozilgan ushbu she’rda kishini bugun bilan yashash g‘oyasi ifoda etilgan, kecha va ertani o‘ylab yashash “men” uchun xos emas. Keyingi satrlarda esa bevosita “men” timsoli orqali kishidagi oriyat, shaxsiyat, vatan tuyg‘usi kabilar ochib berilgan. Vatanni sotgan kimsalar ichida “men”i yo‘q deya tasvirlangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy o‘zbek nasri-yu nazmiga obraz yangilanishlarining kirib kelishi adabiyotimizda tubdan burilish yasay oldi deya ayta olamiz. Badiiy obraz va timsollarning ijodkorlar tomonidan yangilanishi bevosita davr adabiyotining o‘ziga xos xususiyati, badiiy talqini o‘laroq namoyon bo‘la oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonqul Salom. Jahonda onalar borligi uchun. – Toshkent, 2022. 3-b
2. Hozirgi adabiy jarayon masalalari. – Toshkent, 2022.
3. Oripov A. Haj daftari. Hikmat sadolari // www.ziyouz.com
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018.
5. Ulug‘bek Hamdam. Asarlar to‘plami. – Toshkent:, Adabiyot nashriyoti, 2018.
6. https://oyina.uz/uz/article/2548
7. https://tafakkur.net/ayol/abdulla-oripov.uz
8. Microsoft Word - usmon_azim_saylanma_ziyouz_com.doc
9. O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI | Medicine, pedagogy and technology: theory and practice
10. Usmon HYPERLINK “https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/usmon-azim-dars-ibrohim-haqqul.html” Azim. “ HYPERLINK “https://kh-davron.uz

Parizoda AHRORXO‘JAYEVA,
FarDU adabiyotshunoslik yo‘nalishi
2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: Jo‘rayeva MANZURABONU,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, f.f.b.f.d.

ELBEK, BOTU HIKOYALARIDA AYOL XARAKTERI. AYOL, ER VA ZAMON MUNOSABATI

Annotatsiya: ushbu maqolada jadid adabiyotining yetuk namoyondalaridan bo‘lgan Elbek, Botuning hikoyalari tahlil etiladi. Tahlil jarayonida har ikki muallifning hikoyalaridagi ayollar obrazi, ayol xarakteri, ayol, er, zamon munosabatiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: ayol, zamon, erk, jamiyat, ozodlikka intilish, gender tenglik.

Annotation: this article analyzes the stories of Elbek and Batu, two prominent figures of Jadid literature. In the process of analysis, special attention is paid to the image of women, female character, and the relationship between women, men, and time in the stories of both authors.

Key words: woman, time, power, society, the pursuit of freedom, gender equality.

Аннотация: в данной статье анализируются рассказы Элбека и Бату, двух выдающихся деятелей джадидской литературы. В процессе анализа особое внимание уделяется образу женщины, женскому характеру, а также взаимосвязи между женщиной, мужчиной и временем в рассказах обоих авторов.

Ключевые слова: женщина, время, власть, общество, стремление к свободе, гендерное равенство.

Jadid adabiyoti, xususan jadid nasri, hikoyachiligini o‘rganar ekanmiz, biz bugunga qadar ko‘p bora o‘rganilgan ijodkorlarni emas, aksincha ijodi, faoliyati kam o‘rganilgan jadidlarimizni asarlarini tadqiq etish bilan birga ularni ilm ahli, kitobxonlarga yanada yaxshiroq tanitishni niyat qildik. Jadid nasrini o‘rganar ekanmiz, Elbek – Mashriq Yunusov hamda Botu – Mahmud Hodiyev ijodi e’tiborimizni tortdi. Har ikki ijodkorni eng avvalo, shoir, tilshunos, tarjimon, davlat arbobi sifatida o‘rganilgan, ammo ularning o‘zbek hikoyachiligidagi o‘rni, umuman olganda hikoyalari juda oz o‘rganilgan.

Eng avval Elbek ijodi haqida gaplashsak. Shoir, pedagog, turkolog-tilshunos, jurnalist Elbek “Tozagul” (1934) nomli she’riy roman, “O‘tmishim” (1929), “Anorgul” (1926), “O‘zbekiston” (1934), “Mergan” (1935), “Bog‘bon” (1934), “Turkiston” (1928) kabi o‘ttizga yaqin doston va balladalar hamda “Armug‘on” (1921), “Yolqinlar” (1925), “Sezgilar” (1927), “Ko‘zgu” (1926), “G‘unchalar” (1935), “Chirchiq bo‘ylarida” (1935) kabi she’riy to‘plamlar, shuningdek, “Dadamat”, “Qo‘shchi Turg‘un”, “O‘rnak”, “Go‘zal yozg‘ichlar” singari sochma nasriy asarlar, darsliklar yozib qoldirdi.

Elbek ijodida ham xotin-qizlar masalasi muhim o‘rin tutadi. Uning “Anorgul”, “Ona”, “Foxisha”, “Qahhorxo‘ja” hikoyalari shular jumlasidandir. Yozuvchining “Anorgul” hikoyasi hikoyachilikda dastlabki urinishlardan ekanligi asar syujeti, ifoda uslubi, asar tilidan yaqqol sezilib turadi. hikoyadagi voqealarni dialoglar bilan bir qatorda muallifning o‘zi ham tushuntirib, bayon etib boradi. Hikoya fojeaviylikdan yiroq, hissiy-emotsionallik darajasi u qadar ham yuqori bo‘lmagan, davrning ijtimoiy turmush tarzi, to‘y marosimining ketma-ketligi bayon etilgan deyish mumkin. Shuningdek, muallif qahramon holatini yanada yaxshiroq his ettirish uchun she’riy parchalardan ham unumli foydalanadi.

Olmani otdim xariga,
Xaridan ham nariga;
Ahmad akam qiz berdi
O‘zidan ham qariga.

Hikoya usbu she’riy parcha bilan boshlanadi. Ahmad aka qizini o‘zidan ham katta insonga uzatishi orqali o‘sha davrning ijtimoiy muhiti, qizlarni chollarga yoki boy amaldorlarga uzatish, sotish, mansab, obro‘ ilinjida otalarning o‘z qizlarini erksizlarcha uzatishiga ishora bor. Hikoya qahramoni Anorgul qat’iyatli, so‘zi keskir, o‘z fikr va dunyoqarashiga ega, tengqurlari orasida o‘rni bor, hozirjavob va so‘zamol qiz sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu faslimiz nomidan kelib chiqib, biz ushbu hikoyada xotin-qizlarning xarakteriga alohida e’tibor qaratamiz. Anorgulning hozirjavobligi quyidagi dialogda namoyon bo‘ladi: “ – Ha, Anorgul, nima balo tikyotibsan? Tezroq erga tegmakchimisan. – Voy o‘lay, so‘zing qursun! Ro‘molni erga tegmak uchun tikadilarmi? “Bekor o‘tirgandan bekor ishla!” deganidek, ermak qilib o‘tiribman”. Anorgulning so‘ziga maqol qo‘shib aytishi fikrimizni yana bir karra isbot etadi.

Ikki ayol, umuman olganda ikki inson yig‘ilgan joyda albatta g‘iybat, “mish-mish”lar boshlanadi. Yozuvchi buni-da e’tibordan chetda qoldirmaydi. Anorgul va

uning ismi keltirilmagan dugonasi ham tez fursatda g‘iybatni boshlaydi. U yoq bu yoqdan gaplashib ko‘ngil yozmoqchi bo‘lishadi. Ularning suhbatidan O‘rinjon xolaning qizi Qumrixonning qochgani, dadasi uni Rustam boyga uch yuz so‘mga sotmoqchi bo‘lib turgani anglashiladi. Ikki dugonaning bu vaziyatga qo‘shiq to‘qib chiqarishi ular xarakterida yana bir jihat — ijodkorlik qobiliyati ham borligidan darak beradi.

Tog‘ boshig‘a qor yog‘di,
Qumrixon sigir sog‘di,
Yurt-elidan uyalmay,
Yigit so‘ziga og‘di.
Shahar yo‘li tosh ekan,
Ishganlari mosh ekan,
Qiz o‘stirgan otaning
Ikki ko‘zi yosh ekan.
Oq olma, qizil olma,
Yigitlarga so‘z solma,
Yigitlarga so‘z solib,
Uyat-nomusg‘a qolma.

Har qanday ijod mahsuli u xoh she’r bo‘lsin, xoh qo‘shiq insonning qalb, ruhiy olami haqida ma’lumot beradi. Bu qo‘shiqda ham Anorgul va uning dugonasining Qumrixon va uning atrofida bo‘layotgan voqealarga munosabat bildirilgan. Bizga ma’lum bo‘lgan va biz tanishib chiqqan asarlardan farqli o‘laroq ushbu hikoyada qizlar o‘zlarining tengquri, jinsdoshiga yon bosmaydi, uning harakatlarini rag‘batlantirmaydi. Taqdirga, erksizlikka qarshi kurashni emas, jimgina bo‘ysunishni tanlaydi. “Qiz o‘stirgan otaning Ikki ko‘zi yosh ekan” deyish orqali qizini Rustamboyga uch yuz so‘mga sotib yubormoqchi bo‘lgan otaning holiga achinyapti, shu bilan birga o‘z tengqurlarini yigitlarga ko‘z suzmaslik, uyatga qolmaslik, nomusini saqlashga da’vat etyapti.

Dialoglardan ma’lum bo‘ladiki har ikki qiz mahalladagi har qanday voqea-hodisadan xabardor va bu hodisalarni bemolol tahlil eta biladi. Syujet izchil ravishda davom etadi, voqealar Anorgulning to‘yiga ulanib ketadi.

Jiyda kesdim, suvg‘a soldim, suv bo‘lib oqarmikan,
Chin ko‘ngilni yorg‘a soldim, og‘risam boqarmikan:
Og‘ridim, boqolmadi, qo‘ylar olib qoqolmadi,
Jon onam, jonim onam, yurtlarda emchi qolmadi.

Bu to‘rtlik qizlarning laparidan olingan bo‘lib, unda qizlarning yigitlarga qarata aytgan pichinglari, arz-u hollari bayon etilgan va shu bilan birga quvlik bilan yigitlarning ko‘ngillariga qo‘l solmoqchi bo‘lib, “qani mahoratingni ko‘rsat, bu holatda nima qilasan” yoki “zo‘ring qani” kabi ma’nolarni anglashimiz mumkin.

Kuyovning kelin yuzini ko‘rish uchun unga tillalar hadiya qilishi, kelinning nimanidir bilinar-bilinmas pichirlashi, ayol va qizlarning tillaga, zeb-ziynatga bo‘lgan munosabatini ko‘rish mumkin. Elbekning bu hikoyasi balog‘at yoshidagi, turmush ostonasidagi qizlarning ruhiy holati, jamiyat va unda kechayotgan voqea hodisalarga qizlarning hissiy-ekspressiv munosabatini bayon etadi. To‘y va uning atrofidagi marosimlar, ularning o‘tkazilish tartibi haqida ham ma’lumot beradi. Bu jihat esa o‘zbek folklori uchun ham ahamiyatlidir.

Elbekning “Ona” nomli hikoyasida esa farzandini yo‘lga kuzatayotgan onaning ko‘ngil kechinmalari, umidlari, iztiroblari namoyon bo‘ladi. Muallif Yo‘ldoshning onasi orqali barcha onalarning hissiyotlarini so‘zlaydi: “O‘g‘lim, aylansin onang! Kishi degan issiq jondi-ya, men seni kuta-kuta jonimdan ham ayrilay deb qoldim. Yil o‘n ikki oy sening yo‘lingg‘a termulaman. Endi onangni sog‘intirmag‘il”,- deya farzandini yo‘lga kuzatishi onalarning sog‘inchidan darak beradi. Bu o‘rinda muallif onaning holatini ham tasvirlashni unutmaydi. “Ona boyaqishning hali o‘rnidan qo‘zg‘olmay turganini ko‘rdi. Uning ikki qo‘llari bolasini quchg‘on holida qanday vaziyatda esa hali o‘shal vaziyatin saqlab turardi, ko‘tarilg‘oncha qolg‘on edi.” Ushbu holatda onaning o‘z sog‘ligi, holati haqida o‘zi sezsa-da, farzandiga bildirolmagani, bu diydor balki so‘nggi diydor bo‘lishi mumkinligini his qilib turgani, ikki qo‘lini hamon ko‘tarib turgani esa, onaning umidvorligni bildiradi. Elbek bu hikoyada ayolni ona obrazida shakllantiradi. Muallif badiiy g‘oyasi ona hilqatining naqadar sabrli, sirli va bardoshli ekanligini anglatishdan iborat.

“Foxisha” hikoyasida esa otasiz, onasiz yetimlikda qolgan qizning kun ko‘rish uchun taqdirning eshiklarini bir-bir ochib ko‘rishi, yashamoq ilinjida boshpana izlab zaril va nafs qurbonlari bo‘lgan kimsalar qo‘liga tushib qolishi, qorin to‘ydirish, o‘ziga yangi boshpana, yangi oila topish umidida bo‘lgan qizning xo‘rlanishi, yomon yo‘llarga kirib ketishi va bu ishni bora-bora o‘ziga kasb qilib olishi hikoya qilinadi.

Yozuvchi tabiat va inson orasidagi, uning taqdiri bilan bog‘liqlikni mahorat bilan tasvirlaydi, ishoratlaydi. “Xaroba qayg‘uli bir holda turardi. Ul o‘zining bu kungi yemirlik hayotidan o‘ksirdi. Boshlarin ko‘kka ko‘tarib turg‘on binolar qarshisida uyalib, o‘zini yer bag‘riga tortishga tirishardi”. Bu parchada uyninggina emas, qizning ham holati vaziyati ifodalanmoqda. Muallif qizning go‘zalligini toshib so‘zlamaydi. Uni qayg‘u bilan yonma-yon tasvirlash orqali qizning ko‘rinishi, holati haqida ma’lumot beradi. “O‘ksizning qop-qora sochlari uning qayg‘uli yuzini o‘ritgan edilar. Yoziqsiz, pok yuzidagi toshib turg‘on qayg‘u dengizini ular to‘xtatmoqqa tirishardilar, tuban kishilarning ko‘zlaridan u pok yuzini saqlash uchun bu sochlar tabiiy o‘rtuk vazifasini o‘tar edilar. Kichkina, nozik qo‘llar uning hayoti uchun birdan-bir ko‘makchi edilar”. Shunday chiroyli husn egasi bo‘lgan va ayni paytda taqdir zarbalariga bardosh bera olmay hammasiga ko‘nishga majbur bo‘lgan bir pok va sodda qizning

taqdiri barcha kitobxonlarda achinish hissini uyg‘otadi va mana shu achinish hissi qizning chirkin faoliyatiga ko‘z yumishga, unutishga sabab bo‘ladi.

Elbekning “Qahhorxo‘ja” hikoyasida ayol obrazi turmush o‘rtoq, ona sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyaning badiiy g‘oyasi xotin-qizlarni savodli qilish hamda savodli xotin-qizlar bilan oila qurishning afzalliklarini tushintirishdir. Hikoya bosh qahramoni Qahhorxo‘ja savodli yigit bo‘lib, ilmli ayolga uylanish tarafdori. O‘zining birinchi xotinining bilimsizligidan nolib, yana bir dunyo ko‘rgan, o‘ziga hamsuhbat bo‘la oladigan, o‘ziga qaragan xat-savodli ayolga uylanish maqsadida xotini bilan ajrashadi.

Ikkinchi xotini esa uning maishatparastligidan charchaydi. Pul topib o‘zgarib borayotgan erini bu odatlardan tiyilishga chorlaydi. Bora-bora bu maishatlar, uyga keladigan mehmonlar, ayniqsa “Zebi” ismli ayolning yoqmay qolishi bu har bitta mehrdan, e’tibordan chetta qolgan, sevishga, sevilishga ko‘pda imkoni bo‘lmagan, bo‘lsa-da loyiq topilmagan ayollar ruhiyatida kuzatiladigan holat. Ayol bu kabi holatlarga eng birinchi navbatda e’tibor qilmaydi, ikkinchi marta janjallashadi, uchinchi martada esa isyon qiladi, to‘rtinchisida yo bu vaziyatga ko‘nadi yo unga jabr-sitam yetkazgan erkakni tark etadi.

Dinimizda “Inson xaromga o‘rganib qolsa, halolidan huzur topolmay qoladi”, — degan gap bor. Muallif bu o‘rinda ana shu hikmatni “qistirib” o‘tadi. Keling, hikoyadagi shu o‘rinni ko‘rib o‘tamiz. “… Qahhorxo‘ja kundan kun o‘zida o‘zgarish sezardi, keyin-keyin shunday bir holga keldiki, hatto xotini ham ancha tubanlarda qolib ketganday sezildi. Uning ustig‘a xotini boyaqish tug‘ib qolishi yana uning g‘ashiga tegdi”. O‘zbek oilasi, umuman olganda butun bir oilada sevinch nasidasi bo‘lib tug‘iladigan go‘dakning Qahhorxo‘jaga yoqmasligi fikrimiz isbotidir. Hikoya qahramoni mansab cho‘qqilarida ilgarilab, odam tanigani sari yonidagilarni unutib, nazariga ilmay qoldi. Xotinining har bitta harakatidan ayb topa boshladi. “Sudralmasdan menga yetib, men bilan barobar yursang-chi, ko‘rdingmi, ana bu ovro‘paliklar qanday barobar, tratibli yuradilar. Sen bo‘lsang xuddi ro‘dapog‘a o‘xshaysan”. Bu o‘rinda ayol eri tomonidan ruhiy, hissiy tazyiqqa uchrayapti. Ayol kishi uchun eng katta kamsitish bu uning boshqa ayollar bilan taqqoslanishi va o‘sha ayollarning o‘zidan afzal ko‘rilishi bo‘lsa kerak. Biz yuqoridagi misollar orqali erkak qahramonning ayolga yetkazayotgan ruhiy zarbalari va uning kelib chiqish sababari haqida gaplashdik, tahlil etdik. Bu kabi zo‘riqishlar ichida yashagan ayolda ham albatta bu vaziyatga o‘z javobi bo‘ladi. Elbek “Qahhorxo‘janing ayoli ko‘cha yuzini ko‘rmasdan bolasi yonida aylanib qoldi. U bolasini bag‘riga bosib, unga allanarsa aytar ekan, ko‘zyoshlari bilan yuzini yuvib, erini qarg‘aydir va eshikka ko‘z tashlab oh tortadir”, — deyish orqali ayolning psixologiyasi va unda kechayotgan jarayonlarni bosqichma-bosqich keltiradi:

1-ayolning farzandli bo‘lishi va farzand tufayli uyda qolib ketishi, ko‘cha ko‘rmasligi;

2-alam sababli yig‘lashi, ko‘zyoshlari yuzini yuvishi;

3-ko‘rguliklarning sababkori erini qarg‘ashi va hovurini bosmoq uchun erim kelib qolarmi deb eshikka termulishi, niyati amalga oshmagandan so‘ng esa oh tortishi.

Bu hammasi ayolning og‘riqlari, uning ruhiy holatini yanada yaxshiroq his ettiradi. Ayolning e’tiborsiz, pulsiz va o‘ziga qarashga vaqtsiz qolishi tufayli o‘zidan ko‘ngli to‘lmaslik, har narsa, har voqeadan zo‘riqish , tug‘ruqdan keyin har bir ayolda uchraydigan depressiya holatlari kuzatiladi. O‘ziga nisbatan nohaqliklarga chiday olmagan ilmli ayol esa e’tiborsizlik tufayli Qahhorxo‘janing avvalgi ayoli kabi uy bekalikdan boshqasiga yaramay qoldi. Muallif bu o‘rinda ayolning go‘zalligi, uning tabiati, kayfiyati, xarakter va fel-atvorini uning yaqinlariga bog‘liqligiga ishora qiladi.

Bu kabi xo‘rliklarga chidolmagan ayol bolasini bag‘riga bosgancha uyni, Qahhroxo‘jani tark etishni afzal bildi. U ko‘nishni emas, kurashishni, yangi hayot boshlashni tanladi va bu ayni paytda to‘g‘ri qaror ham edi.

Elbekning boshqa hikoyalarida ham eskilikdan qutulish, yangi hayot boshlash, jabr-zulmga qarshi kurashish, xotin-qizlar ta’limi masalasi yoritiladi. Bu mavzular esa eng avvalo o‘sha davr muhiti va odamlarning kayfiyati haqida ma’lumot beradi. Elbek hikoyalarini bu qadar rang-barangligi, hikoyalar saviyasining bosqichma-bosqich o‘sib, badiiy g‘oyaning puxtalashib borishi kitobxonga sezilmay qolmaydi.

Elbek bilan bir davrda ijod qilgan, hamisha ismlari yonma-yon zikr qilinadigan, “Hayit xarom bo‘ldi”, “Hoshimjon”, “Yangi qishloq”, “Tursun” kabi hikoyalari bilan kitobxonlarga yaxshi tanish bo‘lgan, zamonasining yetuk shoiri, nosiri, tarjimoni, publitsisti Botu – Mahmud Hodiyevning hikoyalarida ham dissertatsiyamizning ushbu fasli uchun muhim manbaa bo‘ladigan o‘rinlar ko‘p uchraydi. Botuning xarakteridagi samimiyat, soflik uning asarlaridagi qahramonlar obraziga ko‘chib o‘tadi. Fikrimiz isboti o‘laroq Laziz Azizzoda Botuning xarakteri haqida bildirgan quyidagi ta’rifni keltirib o‘tishni joiz topdik: “Botuning ruhida zarif bir tuyg‘u, nozik his, odamiylik bor edi. Xalqqa xizmat qilish g‘oyasi uning miyasidan keng o‘rin olgandi. U rohatni, zavqni mehntkashlarga xizmat qilishdan olgan. Tabiatga ruh bilan emas, ko‘z bilan qaragan. U keng manglay, kuchli, irodali, azim bo‘lishi bilan birga samimiy, …o‘ziga xos bir shaxs edi.. u yoshlik chog‘idanoq jamoat ishlariga jo‘shqin

muhabbat bilan kirishdi va tezdan jamoat arboblari qatoridan o‘ziga munosib o‘rin egalladi. Shuning uchundirki, men Botuning siymosida doimo bir insoniy sevgi va fidoyilik sezardim”.

Botu nafaqat nazmda, balki, nasrda ham qalam tebratdi. Uning “Yangi qishloq” hikoyasida yer islohoti, xotin-qizlarning paranji tashlashi tilga olinsa, “Tursun” hikoyasida yetim bola Tursunning kechmishlari hikoya qilinadi. “Hoshimjon” hikoyasida esa, Hoshimjonninng yengil-yelpi hayoti haqida hikoya qilinadi. Qizig‘i shundaki, Botuning hech bir hikoyasida ayollar yetakchi obraz sifatida namoyon bo‘lmaydi. Ular epizodik o‘rinlarda fikr bildirish, syujetni shakllantirishda ishtirok etadi xolos. Yana bir e’tiborli jihati Cho‘lponda bo‘lgani kabi Botuda ham asar qahramonlarining ismi takrorlanadi. Masalan: “Yangi qishloq” hikoyasidagi ayol obrazining ismi Zaynab. “Tursun” hikoyasidagi qo‘shni ayolning ham ismi Zaynab.

Ayol xarakteri, ayol ruhiyati yaqqol namoyon bo‘lgan hikoyaga to‘xtalsak, bu shubhasiz, “Tursun” hikoyasidir.

Hikoya Zaynab xola bilan Jannat opaning ko‘cha eshigi oldida Mehri otinning bulturgi sumalagi va uning ochko‘zligi haqida gaplashishlaridan boshlanadi. Yozuvchi shugina tasvirning o‘zidayoq ayollarning xarakterini chizib bera olgan. Ikki ayolning g‘iybatlashishi, bu yilgi emas, o‘tgan yilgi sumalak voqeasini eslashi ayollarning tabiatiga xos bo‘lgan “kaseta chaynash”, ya’ni eski voqealarni unutmaslik, ulardagi har bitta detalni qayta-qayta tahlil qilish, har bir insonning harakatlarini video tasvirga muxrlagandek xotirasiga saqlab olishiga ishora bo‘lsa, Mehri otinning ochko‘zligini eslashi ularning sinchhkovligidan darak beradi. Har ikki ayolning atrofidagi bolalar chuvalashib ularning gapini-gapiga qo‘shmasligi ana o‘sha ko‘cha muhitini yaratgan.

Hikoya bosh qahramoni Tursunning yashash tarzi, ayni damda uning bola qarashdek “mas’uliyat”i A.P.Chexovning “Uyqu istagi” hikoyasini yodimizga soladi.

Hikoyadagi ayollar ruhiyati, xarakteri nafaqat syujet orqali balki, roviyning hikoyasi orqali ham anglashiladi. “Bugun ham har kungi singari xo‘jayinning ikki yashar bolasini opichib yurardi. Bolani yerga tushirib o‘yinga kirishsa, Olimboy xo‘jayinning xotini Sharofat xoladan baloga qolardi. Bir kun boy bolasini yoniga o‘tqizib bolalar bilan o‘ynab turganini Sharofat xola ko‘rib qolib Tursunning quloqlarini qip-qizil qilgan, sira yomonlik qilmasa ham Tursun Sharofat xolaning qarg‘ishini har kuni eshitardi”.

Yuqoridagi tasvir orqali Sharofat xolaning o‘zi ishtirok etmasa-da, uning xarakteri haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Uning uchun Tursun tayyor enaga, xizmatchi edi. Sharofat opa bir o‘rinda qaynona obrazida namoyon bo‘lsa, boshqa bir o‘rinda boyning xotini, Tursunning yana bir xo‘jayini sifatida ko‘rinadi. Sharofatxon zulmkor, berahm, tili qarg‘ishdan tushmaydigan ayol deyish mumkin. Bu hikoya davomida yanada yaxshi anglashiladi.

Mehri opa obrazi orqali esa rahimdil, ko‘ngilchan, mehribon ayol gavdalanadi. U hamisha Tursunning yonini oladi, unga dalda beradi.

Botuning ham, Elbekning ham hikoyalari bu janrda ilk urinishlardan bo‘lganidanmi hikoyaning qurilishi – strukturasi, badiiy jihatlari u qadar ham mukammal deyolmaymiz. Har ikki adibning hikoyalarida asosiy qahramon shakllanmagan. Syujetlar qahramonlar ishtirokida sodir bo‘ladi, ammo ularning izchilligini roviy o‘zi so‘zlab, tushuntirib berishni afzal ko‘radi. Bu davrda yozilgan hikoyalarga qiyoslaydigan bo‘lsak, har ikki yozuvchining hikoyalarida katta bir muammo o‘rtaga tashlanmaydi. Hikoyalarda deyarli fojiaviylik uchramaydi. Hikoyalar mavzusi esa jamiyatning kichik bir qismi bo‘lgan shu bilan birga bu jamiyatda juda ham muhim o‘rin egallamaydigan qishloq odamlari, mehnatkashlari, yangi dunyoqarash egalari hayoti, maishiy turmushi haqida so‘z boradi. Bu hikoyalardagi ayollar xarakteri, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, fel-atvori ko‘p hollarda boshqa bir ayol bilan taqqoslash asosida yuzaga chiqadi. Bu hikoyalar davr masalalari va muhit haqida ma’lumot berishi bilan yanada ahamiyatlidir. Ushbu hikoyalarda yana bir e’tibor qaratish kerak bo‘lgan jihat ayollarning tashqi ko‘rinishini tasvirlash maslasidir. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligidan farqli o‘laroq Botu, Elbek hikoyalarida ayollarning tashqi ko‘rinishi, husn-malohati, bo‘y-basti, qosh-ko‘zi tasvirlanmaydi. Bu o‘sha davr erkaklarining e’tiqodi hamda ayollarning yurish-turishi, kiyinishi bilan bog‘liqdir. Har ikkala ijodkorning hikoyalarida ayollarni savodli qilish masalasi, paranji tashlash masalasi, ularning erk va ozodlikka intilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Umuman olganda yuqorida biz tahlil etgan hikoyalar jadidchlik davri haqida ma’lumot beruvchi, o‘tmishimiz haqida hikoya qiluvchi hikoyalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Боту. Танланган асарлар. “Шарқ” нашриёти. — Т, 2004.
2. Элбек. Танланган асарлар. “Шарқ” нашриёти. —Т, 1999. 183-б.
3. Ризаев Ш. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари. ф.ф.н.дисс. — Т, 1995.
4. Ризаев Ш. Жадид драмаси. “Шарқ”, — Тошкент, 1997.

Shahnoza OLTINOVA,
BuxDU O`zbek tili va adabiyoti kafedrasi
birinchi kurs magistranti

XALQ DOSTONLARIDA NOODATIY TARZDA TUG‘ILGAN OBRAZLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

(“ALPOMISH” va “GO‘RO‘GLINING TUG‘ILISHI” dostonlari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlarida noodatiy tarzda tug‘ilgan epik qahramonlarning obrazlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlari misolida bu obrazlarning mifologik ildizlari, xalq idealiga aylanish jarayoni va umumiy epik strukturadagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: doston, epik qahramon, tug‘ilish motivi, mifologik asos, xalq idealizatsiyasi.

Аннотация: в статье анализируются образы эпических героев, рождённых необычными способами в узбекских народных эпосах, и их взаимосвязи. На примере эпосов “Алпомиш” и “Рождение Гёроглу” освещаются мифологические корни этих образов, их трансформация в народные идеалы, их место в общей эпической структуре.

Ключевые слова: эпос, былинный герой, мотив рождения, мифологическая основа, народная идеализация.

Annotation: this article analyzes the images of epic heroes born in an unusual way in Uzbek folk epics and their interrelationships. Using the examples of the epics “Alpomish” and “The Birth of Goroglu”, the mythological roots of these images, the process of their transformation into a folk ideal, and their place in the general epic structure are highlighted.

Key words: epic, epic hero, birth motif, mythological basis, folk idealization.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari orasida dostonlar alohida o‘rin tutadi. Ular xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari, orzu-umidlarini o‘zida aks ettirgan yuksak badiiy namunalar sifatida qadrlanadi. Xususan, “Alpomish” dostoni bizning qadimgi o‘tmishimizni eslatib turishi bilan birgalikda, bizning insonparvarlik va Vatanga sadoqat tuyg‘ularimizni oshirishga ham yordam beradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tantanalarida aytgan quyidagi fikrlari barchamiz uchun ibrat bo‘la oladi: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi”.

Xalq dostonlarida qahramon obrazini yaratishda noodatiy tug‘ilish motivi muhim rol o‘ynaydi. Bunday tug‘ilish hodisasi, odatda, qahramonning oddiy inson emasligini, uning jamiyat oldidagi missiyasi yuksak ekanligini anglatadi. Alpomish va Go‘ro‘g‘li kabi epik qahramonlarning tug‘ilish sahnalari o‘zbek xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan va ular o‘zaro umumiylikka ham, farqlarga ham ega.

Turkiy xalqlarning mifologik qarashlari, animistik va shamanistik e’tiqodlari xalq dostonlariga chuqur singib ketgan. Alpomish va Go‘ro‘g‘li obrazlari doston boshlanishidanoq xalq orzusidagi mukammal inson sifatida gavdalanadi. Ularning tug‘ilishi g‘ayrioddiy, taqdirlari esa buyuk vazifalarni bajarishga qaratilgan. Ular adolat timsoli, kuch-quvvat, sabr-toqat va fidoiylik namunasi sifatida ifodalanadi. Bu xususiyatlar ularni xalq orasida ideal shaxsga aylantiradi.

Folklorshunos olim M.Jo‘rayev qayd etadi: “Qahramonning tug‘ilishi bilan bog‘liq dramatik holatlar uning epik mohiyatini anglashda muhim mezondir”. Shu nuqtayi nazardan, har ikkala obraz ham o‘z xalqining orzu-umidlari jamlanmasi sifatida maydonga chiqadi”.

Shuni ta’kidlash kerakki, noodatiy tarzda tug‘ilgan obrazlar o‘zaro faqat mazmuniy jihatdan emas, balki ularning strukturasi,ya’ni hayotga kelish sabablari, tarbiyasi, sinovdan o‘tish bosqichlari,

kuch-qudratga ega bo‘lishi, yovga qarshi chiqishi juda o‘xshash ssenariy bo‘yicha kechadi. Bu jihatlar xalqning arxitipik ongida shakllangan qahramon modelini aks ettiradi.

“Alpomish” dostonida tug‘ilish sahnasi Allohga murojaat, insoniy mehnat va irodaga asoslanadi. Bu xalqning diniy-ma’naviy qarashlariga yaqin. “Go‘ro‘g‘li” esa qadimgi afsonalar, mifologik tasavvurlarga yaqin: uning tug‘ilishi go‘r ichida bo‘lib, epik obrazni yarim afsonaviy darajaga olib chiqadi. Bu farq ularning epik funksiyalarida ham namoyon bo‘ladi: Alpomish ko‘proq oila, yurt, sevgi yo‘lida kurashadi, Go‘ro‘g‘li esa keng miqyosdagi adolatparvarlik, xalqni ozod qilish kabi epik missiyani bajaradi.

Noodatiy tug‘ilish — epik obrazning ilohiylashtirilish belgilaridan biridir. S.G‘aniyeva ta’kidlaganidek: “Epik qahramonning tug‘ilishi xalq e’tiqodlari, mifologik qarashlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning g‘ayrioddiy tabiati ilk sahifalardanoq asoslab boriladi”**.** “Alpomish” dostonida qahramon duolar, sabr-toqat evaziga tug‘iladi, bu esa diniy-falsafiy asosga ega.

Bir chupuronto‘yda farzandsizligi tufayli kamsitilgan aka-uka Boybo‘ri bilan Boysari uch kunlik yo‘l bo‘lgan Shohimardon pirning ravzasiga borib bir kam qirq kun shu ravzada tunab yotishadi. Shu kuni Shohimardon pir ravzadan turib xudoning ularga farzand bermasligini aytadi. Shunda aka-uka biylar Shohimardon pirga qarata shunday deydi: ”Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, xudoning yaratgan sheri siz bo‘lsangiz, bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg‘on, xudoga she’rligingiz yolg‘on. Bor unday bo‘lsa, biz ham dunyoning bahridan o‘tdik”. Biylar Shohimardon pirga shu gaplarni aytganlaridan so‘ng ravzada turbatning ostida yotdilar. Qirq kun o‘rtadan aniq o‘tdi, boz ravzadan ovoz keldi: “Boybo‘ri, senga xudoyim bir qiz, bir o‘g‘il berdi, yolg‘iz emas, egiz berdi; Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi, egiz emas, yolg‘iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko‘rsang, xaloyiqlarni yig‘sang, to‘y-tomoshalar bersang, to‘yda qalandar bo‘lib borib, bolalaringning otini o‘zim qo‘yib kelaman”.

Dostondagi bu sahna diniy-falsafiy qarashlar va xalqona e’tiqodlarning yorqin ifodasidir. Xususan, pir ravzasiga borish va ziyorat qilish xalq ishonchi ifodasi sanaladi. Shohimardon pir xalq orasida muqaddas ziyorat joyi sifatida e’zozlanadi. Bu yerga borib ibodat qilish- farzandli bo‘lish, shifo topish, tilaklar ro‘yobi uchun xalq orasida keng tarqalgan urf. Bu sahna orqali pirlar orqali Ollohga yaqinlashish,”vosita” orqali iltijo qilish motivi ko‘rsatiladi. 40 kun ibodat qilish- ramziy vaqt birligi. “40 kun”- Sharq mifologiyasi va islom an’analarida muborak, muqaddas vaqt sanaladi: Nabiylar 40 kun ro‘za tutgan, tug‘ilgan chaqaloq 40 kundan so‘ng to‘liq inson deb qaraladi, xatna, nikoh, aza marosimlarida ham 40 soni ishtirok etadi. Dostonlardagi 40 kunlik ibodat sabr va sadoqat ramzidir.

Dostonlarda farzand faqat biologik emas, ilohiy ato, Xudoning bergan ulug‘ ne’mati sifatida tasvirlanadi. “Alpomish” dostonidagi Hakimbek va Barchinoylarning tug‘ilishi odatdagi emas, balki noodatiy tug‘ilish, ya’ni ilohiy mo‘jiza sifatida ko‘rsatiladi. Xullas, bu sahna orqali o‘zbek xalq eposida diniy e’tiqod (xususan, yaratganga ishonch), xalqona urf-odat(pir ziyorati, 40 kunlik ibodat), ilohiy mo‘jiza(farzand ato etilishi) kabilar poetik obrazlar vositasida mujassam bo‘ladi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida tug‘ilish jarayoni afsonaviy tusga ega: Go‘ro‘g‘li bevosita go‘rda dunyoga keladi, bu holat esa uning mo‘jizakor tabiatini ko‘rsatadi.

Begona elga asir qilib olib kelingan Bibi Hilolning akasi Gajdumbek bilan turmush o‘rtog‘i Ravshanbek uni keyin olib ketish o‘yi bilan o‘z yurtlarini ko‘rib kelishga ketishibdi. Buni eshitib ularning orqasidan quvib ketgan Shohdorxonning ming nafar amaldori cho‘lda otlaridan ayrilib, piyoda qolib vafot etishibdi. Shundan so‘ng Shohdorxon Bibi Hilolni kuydirib, kulini elakdan o‘tkazib yubormoqchi bo‘libdi. Buni eshitgan Bibi Hilol xufton namozini o‘qib, barcha payg‘ambarlar, o‘tgan azizlarni shafe keltirib, Xudodan o‘ziga o‘lim tilab yolboribdi. Duolar ijobat bo‘lib, Bibi Hilol jonini Xoliqqa topshiribdi. Gajdumbekning xizmatkori Rustambek uni so‘nggi manzilga barcha rasm-rusumlarni ado etib kuzatibdi. Bibi Hilolning o‘lganidan uch oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqa o‘tib, uni qabrda to‘lg‘oq tutibdi va jonsiz jismi tepasiga Momo Havo, Anbar ena, Fotma buvi kelibdi. ‘Hilol bibi bir nozanin ul tug‘di. Shunda turib yig‘ilgan azizlar bolaning otini Go‘ro‘g‘li qo‘ydi.

Barcha abdal, ovtar, qirq chiltanlar bir-bir olib suydi. Hazrati Xizr farzandim dedi”.

Dostondagi Bibi Hilolning o‘limi, Go‘ro‘g‘lining go‘rda tug‘ilishi va avliyolarning ishtiroki kabi sahnalar o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi mifologik, diniy, tasavvufiy va xalqona e’tiqodlarning betakror sintezini ifodalaydi. Bibi Hilolning dushman qo‘lida o‘lishni istamay Xudodan jonini olishini so‘rashi, uning o‘z shanini himoya qilishga intilishi, Allohga bo‘lgan iymoni cheksiz ekanligini bildiradi. Bu sahna o‘zbek adabiyotida ayol qahramonning irodali, sadoqatli va iymonli inson sifatida tasvirlanishining yorqin namunasidir. Go‘ro‘g‘lining go‘rda tug‘ilishi — mifologik syujet. Bu bilan bola oddiy emas, ilohiy, bashoratli, qutlug‘ zot ekanligi ko‘rsatiladi. Xalq e’tiqodida bunday tug‘ilishlar mo‘jiza bo‘lib, qahramonning kelajakda buyuk ishlar qilishi, el-yurtni qutqarishi bashorat qilinadi. Avliyo Allohga yaqin bandadir. Ular xalq hayotida baraka, himoya ramzi sifatida tasvirlanadi. Go‘ro‘g‘li tug‘ilayotgan paytda Bibi Hilol jasadi ustida avliyolarning jamlanishi xalqning avliyolarga, pirlarga, muqaddas zotlarga bo‘lgan e’tiqodini ifodalaydi. Xizrning Go‘ro‘g‘lini farzandim deyishi unga ilohiy himoya va ma’naviy nasab berishini bildiradi. Bu orqali Go‘ro‘g‘lining odamzod emas, balki ilohiy maqsad bilan dunyoga kelgan qahramon ekanligi tasdiqlanadi. Avliyolarning Go‘ro‘g‘lini erkalashi xalq orasidagi qarashlarga ko‘ra, bu bola el-yurtning najotkori, ”yozilgan yulduz” ekanligini bildiradi. Shu sababli ruhiy va jismoniy quvvat va baraka unga bolaligidayoq beriladi. Qisqacha aytganda, “Go‘ro‘glining tug‘ilishi” dostonidagi Go‘ro‘g‘lining tug‘ilish jarayonidagi sahnalar orqali e’tiqodiy va madaniy qatlamlar: islomiy iymon va sabr, tasavvufiy qarashlar, mifologik syujetlar, xalqona qarashlar yoritiladi.

Xalq dostonlarida noodatiy tarzda tug‘ilgan obrazlar faqat syujetga dinamika kirituvchi element emas, balki xalq ongidagi umid, ishonch, milliy birlik g‘oyalarining timsolidir. Alpomish, Go‘ro‘g‘li kabi obrazlarning o‘zaro bog‘liqligi ularning bir xil ijtimoiy missiya, badiiy qurilish va mifologik ildizlarga egaligida namoyon bo‘ladi. Bu obrazlar orqali xalq o‘z orzularini ifoda etgan, ularga kuch bag‘ishlagan. Shuning uchun noodatiy tug‘ilish motivi o‘zbek dostonlarining poetik va mafkuraviy asosini tashkil etadi. Alpomish va Go‘ro‘g‘li obrazlari ushbu motiv asosida shakllangan bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holda xalq idealini ifoda etadi. Har ikki qahramon xalqning dardini, orzusini, erkinlikka intilishini o‘zida mujassam etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. Aytuvchi FozilYo‘ldosh o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi: Hodi Zarifov, To‘ra Mirzayev. — Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

2. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Aytuvchi Muhammad Jomrot o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi: M.Murodov. — Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.

3. T.Mirzayev.”Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari, 1968.

4. G‘aniyeva, N. O‘zbek xalq dostonlari. — Toshkent: Fan, 1988.

5. Jo‘raev, M. Epik obraz va xalq qahramonligi. — Toshkent: O‘zbekiston, 1994.

6. Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. — Toshkent: Yozuvchi, 1999.

7. Go‘ro‘g‘li. O‘zbek xalq dostoni. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001.

Yulduz ALIQULOVA,
ToshDO‘TAU talabasi
yulduzaliqulova0805@gmail.com

“OLOMON” HIKOYASINING RAMZIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *mazkur maqolada Eshqobil Shukurning “Olomon” hikoyasi tahlilga tortilib, asarda qo‘llanilgan ramzlar orqali jamiyatdagi ma’naviy va axloqiy inqiroz ifodasi ochib beriladi. Xususan, “olomon”, “qurg‘oqchilik”, “bexosiyat tush”, “sanam” va “yada toshi” kabi badiiy detallar va holatlarning ramziy ma’nolari o‘rganilib, jamiyat kishilarining ma’naviy qiyofasi ko‘rsatiladi. Shuningdek, yozuvchining jamiyatga bo‘lgan tanqidiy nigohi, insoniylik va o‘zlikni yo‘qotish holatlari tadqiq etiladi. Bundan tashqari Eshqobil Shukur ijodini zamonaviy talqinda anglash va muallif badiiy niyatini idrok etish kabi masalalar o‘rtaga tashlanadi.*

Kalit so‘zlar: *hikoya, hikoya syujeti, epigraf, obrazlar tizimi, badiiy detal, olomon, ramz, tush ramzi, yada toshi, sanam, ma’naviy inqiroz, axloqiy tanazzul, qurg‘oqchilik, jaholat, befarqlik.*

Annotation: *this article analyzes Eshqobil Shukur’s story “Crowd” and reveals the expression of the spiritual and moral crisis in society through the symbols used in the work. In particular, the symbolic meanings of such artistic details and situations as “crowd”, “drought”, “innocent dream”, “idols” and “stone of remembrance” are studied, and the spiritual image of the people of society is shown. The writer’s critical view of society, cases of loss of humanity and identity are also studied. In addition, issues such as understanding Eshqobil Shukur’s work in a modern interpretation and understanding the author’s artistic intention are raised.*

Key words: *story, story plot, epigraph, system of images, artistic detail, crowd, symbol, dream symbol, memorial stone, idol, spiritual crisis, moral decline, drought, ignorance, indifference.*

Аннотация: *в данной статье анализируется рассказ Эшкобиля Шукюра “Толпа” и раскрывается выражение духовно-нравственного кризиса в обществе через символы, используемые в произведении. В частности, изучаются символические значения таких художественных деталей и ситуаций, как “толпа”, “засуха”, “невинный сон”, “идолы” и “камень памяти”, а также показан духовный образ людей общества. Также изучается критический взгляд писателя на общество, случаи утраты человечности и идентичности. Кроме того, поднимаются такие вопросы, как понимание произведения Эшкобиля Шукюра в современной интерпретации и понимание художественного замысла автора.*

Ключевые слова: *рассказ, сюжет рассказа, эпиграф, система образов, художественная деталь, толпа, символ, символ мечты, памятный камень, идол, духовный кризис, моральный упадок, засуха, невежество, равнодушие.*

XX asr o‘zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan shoir, publitsist, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Eshqobil Shukur ijodi e’tibor markazida bo‘lgan. U zamonaviy o‘zbek adabiyotining keng fikrli va o‘ziga xos badiiy uslubiga ega bo‘lgan yozuvchilaridan biri. 22 yoshidayoq O‘zbekiston xalq shoiri, dramaturg Usmon Azim e’tiboriga tushgan va adib uning she’rlariga *“Eshqobilning she’rlari g‘alati – go‘yo ko‘pni ko‘rgan odamning yozganiga o‘xshaydi: bosiq va chuqur, shu bilan birga satrlarida allaqanday jangovarlik, qaysarlik bor. She’rlari unutilayozgan ohanglarga, unutilayozgan so‘zlarga boy. Men Eshqobilga “Oq yo‘l” tilayotganim yo‘q. U allaqachon yo‘lda. She’rxonga yangi bir shoir she’rlarini taklif qilayotirman, xolos.”* degan iliq fikr bildirilgan. Yana bir xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, ustoz Abdulla Oripov esa Eshqobil Shukur ijodini *“Iqtidorli shoirimiz Eshqobil Shukur she’riyatini ko‘p yillardan beri o‘qib, kuzatib kelaman. Har qanday yasamalikdan, har qanday fikrbozlikdan, har qanday soxta ohanglardan xoli bo‘lgan bu she’riyatda dilkashlikni, samimiyatni, mehrni, kuyinchaklikni, teranlikni go‘zallikni uchratasiz. Albatta, she’riyat ixlosmandlari Eshqobil Shukur ijodi bilan azaldan yaxshi tanishdirlar, uning ovozini bexato tan oladilar”* deya e’tirof etadi.

Go‘zal va betakror nazmidan tashqari ijodkor o‘zbek hikoyanavisligida ham o‘zining yuksak mahoratini ko‘rsatgan va ko‘plab nasr ixlosmandlarining qalbidan o‘rin egallagan qalam sohibidir. Uning hikoyalari ko‘pincha insonning ichki kechinmalari, jamiyat bilan ziddiyatli munosabatlari va ma’naviy iztiroblarini tasvirlaydi. Xususan, “Olomon” hikoyasi bevosita emas, balki ramzlar vositasida jamiyatning halokatga yuz tutgan holatini ko‘rsatadi.

Hikoyaning sarlavhasidayoq asosiy ramziy tushuncha berilgan – “olomon”. Bu tushuncha nafaqat, oddiy odamlar to‘dasini, balki, o‘z fikri, o‘z yo‘li yo‘q, o‘zligidan voz kechgan insonlar to‘dasini anglatadi. Hikoyada olomon harakat qiladi, lekin bu harakat maqsadsiz, yo‘nalishsiz – ongli emas. Yozuvchi bu orqali ongini yo‘qotgan, befarq, ichki jihatdan so‘nib borayotgan jamiyatni nazarda tutadi. “Olomon” ramzi – jamiyatda individual fikr yo‘qligi, odamlarning hayotiy mas’uliyatdan qochayotganini bildiradi. Hikoya

epigrafiga kelsak, albatta, epigraf orqali asar haqidagi dastlabki tushunchalar anglashiladi va yozuvchining badiiy mahoratiga ko‘ra bir epigraf butun asar mazmuniga teng bo‘lishi ham mumkin. Yozuvchi bu o‘rinda, bir emas ikki epigraf tanlaydi: *“Och nimalar yemaydi, to‘q nimalar demaydi”* eng qadimgi maqol bo‘lgan ushbu jumlalar orqali hikoyada ochlik hukm surishi aks etsa, Fikratning *“Oshang, afandilar, oshang, bu xoin ishtaha sizniki”* degan so‘zlaridan (hikoyadagi ikkinchi epigraf) yozuvchi nafsga urg‘u berishini yoqqol ko‘rishimiz mumkin.

Asar kompozitsion jihatdan yaxlitlik kasb etadi. Hikoyada keltirilgan har bir voqea, har bir detal umumiy mazmunda birlashib, adib badiiy niyatini poetik ifoda etishga xizmat qiladi. *“Kompozitsiya badiiy shakl unsuri emas, balki asarning barcha komponentlarini uyushtirib, uning shakliy va mazmuniy butunligini ta’minlaydigan, o‘qilishi, uqilishi va kitobxonga g‘oyaviy-estetik ta’sirini boshqaradigan, xullas, uni chinakam san’at hodisasiga aylantiradigan amal, shu amal asoslanadigan ijodiy tamoyil ekan”.* Bu hikoya uchun tanlangan kompozitsiya Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi mashhur *“siz o‘shamu”* sahnasi uchun tanlangan kompozitsiyani eslatadi. Ya’ni avval natija haqida so‘zlanib, keyin unga sabab bo‘lgan voqealar qalamga olinadi. Bu esa bevosita badiiy ta’sirchanlikni oshirib, kitobxonni jumboqlar sari yetaklaydi, asar davomini bashorat qilishga undaydi.

Hikoya xabar motivi bilan boshlanadi. “Usta bexosiyat tush ko‘rdi: burgut uning betiga qarab o‘shqirgan emish”. Odatda, burgutlar chiyillaydi lekin o‘shqirmoq fe’li bilan yozuvchi voqeaga salbiy bo‘yoq beradi va bo‘rttiradi. Qora burgut – halokat, o‘lim va falokat ramzi sifatida qadimdan ma’lum. Bu tush jamiyatning kelajakdagi fojiali holatini bashorat qiladi. *Usta bu ishorani azaldan o‘lim alomati deb bilardi.* Ustaning tush ko‘rishi – hikoyadagi keyingi voqealarga o‘quvchini tayyorlaydi. Aslida, yozuvchi maqsadi ham kitobxonni to kulminatsiyagacha bosqichma-bosqich tayyorlab borish. Usta va qora burgut o‘rtasidagi aloqalar hikoyaning chuqur ma’nosiga ishora qiladi. Epigraf ham hikoya boshidagi tush qismi ham kitobxonga fojianing daragini yetkazadi. Rus yozuvchisi A.P.Chexov aytganidek, “*Agar asarning birinchi bobida devorga qurol osilgan deb aytilsa, ikkinchi yoki uchinchi bobda u albatta otilishi kerak”.* Shunday qilib hikoya qahramonlari, ya’ni, qavmni besh yildan beri qurg‘oqchilik qiynab kelardi va bu qurg‘oqchilik oddiy tabiat hodisasi emas, balki jamiyatdagi ma’naviy, axloqiy va ruhiy tanazzulning kuchli ramzidir.

“Qarib-qartayganlarning-ku tamom iligi quridi, yosh yalanglarning ham etidan suv qochib, terisi suyagiga yopishdi. Odam bolasi puflab shishirilgan meshga o‘xshaydi, og‘zi ochilib qolsa bo‘ldi, sulayadi, so‘ladi”. Yuqoridagi, aynan, kuchli o‘xshatishlar asardagi odamlarning qisman portretini chizsa, *“Chor tarafdan bostirib kelayotgan achchiq qum to‘lqinlari yo‘lida ne duch kelsa barini xas-xashakday yutib borayotgan edi. Qurib-qaqshagan to‘qaylardagi siyrak qamishlar qaqshoq qo‘llarini osmonga cho‘zib, tik turib jon bergan qoqsuyak jasadlar kabi bo‘g‘zigacha qumga botib borardi”* ta’rifi orqali asardagi peyzaj o‘ta ta’sirchan tarzda jonlanadi.*“Kishilaming asarda badiiy so‘z vositasida chizilgan tashqi qiyofasi portret deb ataladi”* va u asardagi voqeani tasavvurda tiniqroq jonlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. *“Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj (manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi. Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko‘rinishlari syujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi omil sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish adabiy asarlarda eng ko‘p uchraydigan hodisadir. Bu holda tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi dramatizmni chuqurlashtiradi yoki ularning ruhlariga kuch baxsh etadi”.* “Olomon” hikoyasida aynan peyzajga berilgan so‘nggi ta’rif maqsadi asosida tabiat tasviridan keng foydalanilgan. Asarda yomg‘ir yo‘q, yer quruq, odamlar esa sabr-toqatini yo‘qotgan. Bu holat tashqi muhitdagi qurish emas, balki inson qalbidagi qurish, halovat yo‘qolishi bilan chambarchas bog‘liq. Go‘yo tabiat tasviri bo‘lgan *“… ochlik achchig‘ida o‘z juftini yeb qo‘yadigan gajakdum cho‘l chayonlari ko‘rinib qolardi”* jumlasi ham odamlarga ishora, aslida. Insonlar faqat tirikchilik bilan band, ichki dunyo, orzu-umidlar qurigan. Qurg‘oqchilik suvni – ya’ni hayot manbasini olib qo‘yadi. Hikoyada bu – umid, mehr, insoniylik kabi ma’naviy boyliklarning qurib ketganidan darak beradi. Shuning uchun bu holat – jamiyat holatining bevosita ko‘zgusidir. Yomg‘ir kutiladi, lekin kelmaydi. *“Na insof keldi, na yomg‘ir…”.* Bu – insonlar va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik buzilganidan dalolat.

Yozuvchi hikoyada qurg‘oqchilikka ta’rif berarkan, jaholatga bo‘g‘zigacha botgan insonlarni ham aytib o‘tadi. Chunki bosh qahramon – usta, yurt tabiati buzilishidan oldin odamlarning tabiati buzilishiga qattiq ishonardi. Jumladan, *xotini bilan til biriktirib onasini tashlandiq qariyalar makoniga tashlab kelgan Turumtoy, ikki hafta burun o‘z inisi zavjasining qo‘yniga kirib qo‘ygan Ayas* yoki yig‘ilganda kunlik gaplarni gapirganday beparvo bo‘lib, qizini sotganini-yu, otasini urganini so‘zlaydigan kishilar *yada toshi*ga tinmay yolvorib, faryod chekib yomg‘ir so‘rayotgan qavm.

Hikoyada usta tomonidan yasalgan sanam – oddiy hunar mahsuli emas, balki jamiyatdagi befoyda urinishlar, o‘ziga sig‘inish va ruhiy bo‘shliqning ramzidir. Bu sanamning tashqi tomondan chiroyli, ammo ichki jihatdan ma’nosiz bo‘lishi – hikoyaning eng kuchli ramzlaridan biridir. Sanam inson tomonidan yasalgan, ammo bu inson – usta ham olomon ichida yashaydi. Bu – jamiyatdagi insonlar ruhiy jihatdan “jon”siz, befarq, maqsadsiz bo‘lib

qolgani, yaratgan narsalari ham shunchaki shakldan iborat ekanini anglatadi. Usta sanam yasaydi, lekin bu mehnat hech qanday ijtimoiy foyda keltirmaydi. Bu, bir tomondan, jamiyatda mavjud bo‘lgan tashqi bezaklar, lekin ichki g‘ovaklikka ishora qiladi. Odamlar bu sanamga ma’nosiz qarab o‘tadi – uni tushunmaydi, his qilmaydi, his qilishni ham istamaydi. Sanam but sifatida odamlarning e’tiqodi, qadriyatlarining sun’iylashganini, haqiqiy asosini yo‘qotganini bildiradi. Bu ramz orqali Eshqobil Shukur zamonaviy jamiyatning qadriyatlar tanazzuliga ishora qiladi. Sanam loydan yasalgan. U na tirik, na qudratli. Shunga qaramay, odamlar unga eng qimmatli narsalarini – bug‘doyini hadya qiladi. Bu – insonlarning real yechim o‘rniga illyuziyaga yopishishi, aql va tafakkurdan voz kechib, soxta najotga suyanishi demakdir. Bug‘doy – tirikchilik, hayot, mehnat va umid timsolidir. Uni befoyda, joni yo‘q sanamga atash – umidni noto‘g‘ri joyga bog‘lash, mehnatni behuda sarflash demakdir. Bu jamiyat ma’naviy va intellektual jihatdan chalg‘iganini bildiradi. Odamlar yomg‘ir kelsin deb sanamga sig‘inishadi. Bu – umidsizlik, najotsizlik holati, ya’ni ular haqiqiy sabablarga emas, xayoliy kuchlarga tayanmoqda. Bu holat jamiyatning tubdan halokat tomon ketayotganini anglatadi. Sanamga bug‘doy bergan ongsiz qavm – bu jamiyatda aqldan, tafakkurdan, ilm va haqiqatdan yuz o‘girgan insonlarning umumlashgan obrazidir. Ular nafaqat xatoga yo‘l qo‘yishadi, balki o‘z halokatlarini o‘z qo‘llari bilan tayyorlaydilar. Eshqobil Shukur bu obraz orqali o‘quvchini hushyorlikka, real muammoni anglashga va haqiqiy najotni soxta ramzlarda emas, o‘z ongida izlashga da’vat qiladi.

Hikoyaning keskin burilish nuqtasi – Turumtoy sanamning qo‘lidagi bug‘doyni olishga jur’at etishi – “Turumtoy zina ustidagi xaltani chap qo‘li bilan ochib, o‘ng qo‘li bilan bug‘doyga yutoqib changal solardi. Unga hozir Sanamning ochiq kaftlari yopilib qoladiganday tuyulardi. Lekin, Sanam *“Ol! Olaver! Ochofat!” deganday pinagini buzmay mag‘rur turardi.U esa o‘z ilohining nasibasiga qo‘rqmasdan tajovuz qilardi”* – va sanam sindirilgach, ichidan novvot chiqib kelishidir. Bu lahza jamiyatda chinakam haqiqat va sinovning boshlanishidir. So‘ngra ilgari sanamga sig‘inib, uni muqaddas deb bilgan odamlarning ochko‘zlarcha sanamga tashlanib, uni yeb, hatto ko‘proq olish uchun uylariga olib ketishga urinishlari, sanamga bolta, tayoq nima topsa o‘sha bilan “hujum” qilishlari – bu soxta e’tiqod, yolg‘on qadriyatlar va ma’naviy ikkiyuzlamachilikning ochiq portretidir. Olomon esa – yolg‘on e’tiqod bilan yashab, haqiqatni faqat foyda ko‘rganidan keyin tan oluvchi, ammo uni ham ochko‘zlarcha yemiruvchi kuchdir. Eshqobil Shukur bu obrazlar orqali bugungi jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, befarqlik, ochko‘zlik va ruhiy qulashni keskin tanqid qiladi.

Asardagi yana bir muhim obraz bu Quluch – usta bilan bir kasbga mansub, lekin ma’naviy jihatdan butunlay boshqa darajadagi obrazdir. U buyuklikni anglashga emas, undan norozilik bilan yashashga odatlangan, ya’ni jamiyatdagi “ko‘rolmas, hasadgo‘y insonlar” timsolidir. Quluch – usta kabi sanam yasay olmaydi. *“Ayniqsa, usta sanamni yaratgandan so‘ng o‘ziga Quluch degan ashaddiy dushmanni ham yaratdi. Shundan so‘ng Quluch o‘nlab, yuzlab haykallar yasadi, lekin ularning bari fil poyidagi kesakday Usta Sanamining oyoqlari ostida yakson bo‘lib ketaverdi”.* Uning yomon ko‘rishi ustaning g‘oyasiga emas, o‘zi yasay olmagan narsaga hasad qilishidan kelib chiqadi. Bunday odamlar jamiyatda ko‘p: ular o‘zlari yarata olmaydi, lekin yaratilgan buyuklikni buzishga shay turadi. Sanam olomon tomonidan yemirilgach, Quluch quvonadi. Bu quvonch – o‘zining muvaffaqiyatsizligini boshqaning qulashidan tasalli topayotgan odam quvonchi. Jamiyatdagi bunday insonlar ijoddan emas, vayronagarchilikdan quvvat oluvchi odamlardir. Eshqobil Shukur bu obraz orqali insoniylikdan yiroqlashgan shaxslar haqida ogohlantiradi. U sanam qulagach, “g‘olibona viqor” bilan ustaning uyiga sanamning ko‘zini olib keladi. Novvot parchalaridan yasalgan sanamning ko‘zi quyoshda muz parchasi kabi erib, go‘yo yig‘layotgan edi. Aslida kezi kelsa eng vaxshiy hayvondan ham vaxshiyroq bo‘ladigan odamzotning qilmishlaridan, hatto, jonsiz bir tosh bo‘lgan sanam ham hayratdan “qotib qolgan” va “iztirobdan ko‘z yosh to‘kayotgan”dek edi. Usta esa tashqi olam bilan emas, ichki dunyosi bilan kurashadi. Uning sust harakati, sukut saqlashi, hech narsaga qarshi chiqmasligi – bu ramziy holat. Bu orqali yozuvchi bir vaqtlar faol bo‘lgan inson qanday qilib jamiyatning bosimi ostida ichki kuchini yo‘qotganini ko‘rsatadi. Qahramon bu olomonda faqat “tanasi” bilan bor, lekin “ruhi” yo‘q. Bu – zamonaviy insonning ruhiy halokati, jamiyatda shaxsiyatning o‘chishi ramzidir. Hikoyaning har bir ramzi va obrazlari jamiyatning ma’naviy bo‘shlig‘ini, o‘zini yo‘qotganligini, haqiqiy qadriyatlardan uzoqlashganini va barcha insonlar o‘z manfaatlarini ilgari surgan holda yashashini ifodalaydi. Eshqobil Shukurning bu hikoyasi – bugungi jamiyatga o‘z-o‘zini anglash, haqiqiy qadriyatlarni tiklash zarurati haqida ogohlantiruvchi bir tahlildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent:, Navoiy universiteti, 2018.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent:, O‘qituvchi, 2005.
3. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси”, 1984 йил, декабр.
4. Шукур Э. Аср афсоналари. – Т:, Ғ.Ғулом, 2021.
5. https://hikmatlar.uz/quote/2379.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/ Yada toshi.

Dilshunos RAHMONALIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

QO‘CHQOR NORQOBILNING “ZAMON AVLONIYSI” DRAMASINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada psixolingvistika haqida qisqacha ma’lumot va Qorako‘l maktabining tashkil etilishida fidoyilik ko‘rsatgan To‘xtamurod ota Jumayevning xizmatlari yoritib berilgan. Shuningdek, Qo‘chqor Norqobilning “Zamon Avliyosi” dramasida uchraydigan nutq faoliyatlari keng tarzda psixolingvistik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, psixolingvistik nutq, Qorako‘l maktabi, Buxoro davlat universiteti,To‘xtamurod Jumayev, Zumrad xola, Rahim, rahbar, maktab, ilm-marifat, motivatsion, emotsional, dialogik, refleksiv, monologik, yozma nutqlar.

Аннотация: *в статье даются краткие сведения о психолингвистике и освещаются заслуги Тохтамурода Ота Джумаева, посвятившего себя становлению каракульской школы. Также был проведен обширный психолингвистический анализ речевых актов, встречающихся в драме “Святой времени” Кочкора Норкобила.*

Ключевые слова*: психолингвистика, психолингвистическая речь, Каракульская школа, Бухарский государственный университет, Тохтамурод Джумаев, тетя Зумрад, Рахим, лидер, школа, знания, мотивационный, эмоциональный, диалогический, рефлексивный, монологический, письменные речи.*

Annotation: *this article provides a brief introduction to psycholinguistics and highlights the services of Tokhtamurod Ota Jumayev, who devoted himself to the establishment of the Karakul school. Also, the speech acts in the drama “Saint of the Time” by Kochkor Norqobil are extensively analyzed psycholinguistically.*

Key words: *psycholinguistics, psycholinguistic speech, Karakul School, Bukhara State University, Tokhtamurod Jumayev, Aunt Zumrad, Rahim, leader, school, knowledge, motivational, emotional, dialogic, reflexive, monologic, written speeches.*

“Yoshlarimizni doimo yangicha fikrlash,
o‘ylash va yashashga o‘rgatishimiz kerak”.
Shavkat MIRZIYOYEV

Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy asar qahramonlari nutqida uchraydigan til birliklari va nutq jarayoni, nutq aspekti, qahramonning psixik holati bilan aloqador hisoblanadi. Antraposentrik nazariyaning asosi ham inson, ya’ni shaxs va uning nutqidagi nutq birliklarining semantik asoslari va tahlillari bilan bog‘liq. Biz tahlilga tortgan Q.Norqobilning “Zamon Avloniysi” dramasida ham psixolingvistik birliklar faol qo‘llangan. Ushbu dramada ko‘plab psixolingvistik nutq uslublariga duch kelamiz. Avvalo, psixolingvistika so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, *psixolingvistika* – nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini, ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fan. Psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo‘lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo‘yicha tilshunoslikka yaqin bo‘lgan psixolingvistika o‘z tekshirish usullari bo‘yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o‘zaro bog‘lanishli eksperiment, “semantik differensial” kabi va boshqa eksperimental usullar qo‘llanadi. Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar (ona tili, ayniqsa, xorijiy tilni o‘rgatish; maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi; nutqiy ta’sir ko‘rsatish muammolari (xususan ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ‘ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (mast kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash); mashina tarjimasi hamda nutqiy axborotni EHMga kiritish muammolari va boshqalarni nazariy tushuntirish zarurati tufayli o‘tgan asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan.

Psixolingvistika termini o‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O‘zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar bajarilgan bo‘lsa-da, haqiqiy ma’nodagi psixolingvistik taqdiqotlar endigina boshlanmoqda.

Bir nechta psixolingvistik tahlillar mavjud. Ular asarda ifodalanayotgan nutqiy holatlarni qay tarzda ifoda etilayotganini aks ettiradi. Masalan, ularning quyidagi tulari mavjud:

- motivatsion nutq (ichki motivga asoslanadi);
- emotsional (hissiy) nutq;

- dialogik nutq (o‘zaro muloqot);
- monologik nutq;
-refleksiv (tafakkuriy) nutq;
- yozma nutq.

Motivatsion nutq – insonning ichki motivlarga asoslangan bo‘lib, tinglovchining ichki motivatsiyasini faollashtirishga xizmat qiladi. Asarda To‘xtamurod Jumayev tilidan aytil gan bir necha jumlalarini bunga misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. **To‘xtamurod:** *Maktab – bu millat degani. Maktab – xalq degani. Bizda ilmli yoshlar, ilmga qiziquvchan yoshlar ko‘p. Faqat ularga kerakli bilimni bera olmayapmiz. Men dunyo fanining buyuklari yashagan yurtda, buyuk o‘g‘lonlar ulg‘ayib, bosh ko‘tarishini xohlayman*.

Xalqim, Sen buyuksan. Sening tomiringda dunyoni titratgan daholarning qoni oqyapti. Tomiring buyuklik buloqlaridan suv ichdi. Xalqim, mudrama. Sening avloding dunyoni uyg‘otgan. Dunyoning ko‘zini ochgan xalqsan. Dunyoning ilm fanidagi yutuqlari o‘sha olis o‘tmishdagi bobolaring, ha, sening bobolaring yoqqan ilm chirog‘idan nur olyapti.

Sen dunyoning ikkita uyg‘onish davrining sababchisi bo‘lgan buyuklarning avlodisan. Jahon fani o‘chog‘ida gupillatib olov yoqqan buyuklarga, Sening bobolaringga butun dunyo havas qiladi-ku. Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg‘oniy, Navoiy, Ulug‘bek, Bobur…e-e-ey, qancha-qancha ulug‘ ilm-fan egalari, avliyo-yu ulamolar o‘tgan bu yurtda. Ayt, dunyoning qaysi mamlakati bunday yuzlab daholarga beshik bo‘lgan? Hech bir mamlakatda bunchalar ulug‘ zotlar yetishib chiqmagan. Qani ularning qoni, ularning g‘ururi qani, xalqim. Yo‘q senda albatta ularning qoni uyg‘onishiga ishonaman. Sen uyg‘onishing kerak. Ko‘rasan, mana shu tuproqdan ulug‘larimizga munosib farzandlar yetishadi. Ular dunyoni hayratga soladi. Mana ko‘rmoqchi bo‘lgan maktab ulug‘ bobolarimizning ruhi-zoyosidan kuch-qudrat oladi.

Bu jumlalar orqali maktabning inson hayotida qay darajada muhim ahamiyatga egaligi to‘g‘risida aytib o‘tmoqda. Maktab millatning ko‘zgusi, kelajak avlodning ta’lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida chuqur g‘oyaviy fikrlarni ilgari surgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, uning xatti-harakatlarida jadidlarimizning siymosi aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Ilm yo‘lida nafaqat molini, balki umrini ham ayamay shu maktabning rivoji va yuksalishiga sarflaganini bugun guvohi bo‘lib turibmiz.

Asarda emotsional va dialogik nutq birliklarini o‘zaro bir-biri bilan qorishib kelgan holatlarini bosh qahramon To‘xtamurod ota tilida aks etgan sahna holatlari orqali ko‘rishimiz mumkin. Bu orqali muallifning kuchli pafos uslubidan foydalanilgan sahnalariga ko‘zimiz tushadi. Bu uslub kuchli emotsional ta’sirga ega. Bunda nafaqat hissiy, balki axloqiy-ma’naviy maqsadga xizmat qiladi. Auditoriyani ruhlantirish maqsadida dramatik nutqdan foydalanadi, shu orqali ommani o‘ziga jalb etadi. Asarning kirish qismida To‘xtamurod otaning ayoli Zumrad xola va Rahimlarning nutqini olib qaraydigan bo‘lsak: **“***Cho‘ldagi qo‘ylaring uchun hu anavi ko‘l bo‘lmaganda, nima bo‘lardi, dedilar. Men qo‘ylar suvsizlikdan qirilib ketadi. Shuni ham bilmaysizmi, dedim. U kishi rosa kuldilar. Aqllisan, dedilar. Odamlar uchun ham, suvday, mana shu ko‘lday aziz narsa bor. Agar shu narsa bo‘lmasa, odamlarning mana bu yeri (ko‘ksini ko‘rsatib, qo‘li bilan urib qo‘ydi) odamlarning yuragi qurib, qaqshab qoladi, dedilar. Bu narsa bilim, bilimni esa maktab beradi, dedilar. Ha, Maktab bo‘lmasa, odamlarning qalbi, yuragi qurib, toshga aylanib qolarkan. Hm-m-m… shunday gaplar”*.

Rahim o‘qimagan, oddiy inson bo‘lishiga qaramay ana shu davr vaziyatini tushunib, bu maktabning qanchalar muhim ekanligini, bilim va ma’rifat zarur vositaligini uning nutqi orqali tushunishimiz mumkin.

Bundan tashqari, rus tergovchisi Toshmurod otani haqorat qilib: “…*senlar o‘qishga loyiq emassan, senlarga maktab ochishni kim qo‘yibdi*”, — deb kulishidagi holatlarda ham, albatta, psixologik ta’sir natijasida nutqidagi psixolingvistik xarakterdagi so‘zlarni ifodalanashini kuzatishimiz mumkin.

“*Senlar faqat paxtani qo‘shib yozishni bilasanlar. Birga ikkini qo‘shib yozsang bo‘ldi. Hech qachon senlarda hisob-kitob qilishni bilishmagan, bundan keyin ham bilmaysanlar*…” deb uning ustidan kuladi.

Bundan ko‘rinib turadiki, yaqin o‘tgan asrimizda ham o‘zbeklarga rus bolsheviklari tomonidan mansimay qarash, ularni hech narsaga uquvi yo‘q deb ishontirib kelishgan. Aslida esa buyuk bir millatning kimligini bilib, kelajakda kuchli va qudratli davlat bo‘lishidan xavotirlanishgan. Shu sababli o‘tmishni, undagi buyuk ishlarga qo‘l urgan bobolarimiz nomlarini tilga olishga ham ruxsat berishmagan. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning “Afg‘oniston esdaliklari” kitobini ham eslash joiz, chunki ruslarning ilm-marifat yo‘lida harakat qilgan o‘zbeklarga qilgan munosabatlarini bu drama bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, undagi holatlar juda ham o‘xshash. *Ehtimol, muallif bejizga “Bizga Maktab Kerak” yoxud “Zamon Avloniysi” deb nomlanishining ham sabablari bor. Jibarov:“…Davlat tuzib, davlat yuritishga bu Osiyoliklarning aqli yetmaydi! Ular qullik uchun yaratilganlar! Ular shunday bo‘lib qolishlari kerak”.*

Agar qo‘limga qurol berishsa, shu jadidlarni birinchi bo‘lib otardim. Savodsiz xalqdan adashib chiqib qolgan 10-15 ta ziyoli o‘zlaricha hokimiyatga egalik qilishni istashyapti.

Abdulla Avloniy: Adashyapsiz! Jadidchilarning maqsadini siz qayerdan bilasiz, yo ichimizga kirib ko‘rganmisiz. Jadidlarning bir guruhi Sho‘roi Islomiyaga qo‘shilgani uchun shunday fikr qilyapsizmi? E’tiboringiz uchun “jadid” – yangi degani. Maqsadimiz o‘qish- o‘qitish ishlarini yangi usulga ko‘chirish edi. Ma’orif yo‘li orqali zulm va nohaqlikka barham beriladi deb o‘ylagan edik. Men esa hurriyatga faqat ma’orif yo‘li bilan erishib bo‘lmasligini anglab, kurash yo‘liga o‘tdim. Ulardan uzoqlashdim. Jadidlarning qay birlari haq, qay birlari nohaq ekanligini kelajak ko‘rsatadi.

Nafaqat A.Avloniy, balki butun ilm ahli jadidlarining asosiy maqsadi maorif yo‘lidan yurib, xalqning bolalarini oddiy insonlardan farqli o‘laroq, bir pog‘ona yuqoriga – ilmli, ziyoli qatlamga olib chiqish bo‘lgan. Bu yo‘lda bor kuchi va idroki bilan ular harakat qilganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Yana shunday dialoglardan biri bu – To‘xtamurod ota va uning maktabini yopishga urinmoqchi bo‘lgan rahbar o‘rtasidagi muloqotdir. Unda sizning maktabingiz ham oddiy maktab-da, boshqalardan nima farqi bor, deydi. To‘xtamurod otaning ishlariga qarshi chiqadi. Ular orasidagi suhbat juda ham keskin tarzda sodir bo‘ladi. **To‘xtamurod ota:** “*...buyuk mutafakkir bobolarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Qurbonjon Dodxo kabi botirlarni o‘qitmagan maktab-maktabmi? Navoiy, Bobur, Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosirlarni to‘liq o‘rgatmagan maktab-maktabmi? Ayt, avlodlarni o‘z tomiridan uzib tashlab, o‘zga xalq tarixi va madaniyatini tiqishtirib, butun bir xalqning kelajagini o‘zligidan uzoqlashtirgan maktab-maktabmi? Ayt…ayt. Ayt Nomard!*

Toshmurod ota va ayoli Zumrad xola o‘rtasidagi suhbatda ham psixolingvistik birliklarning alohida namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Bunda Zumrad xolaning eriga itoatkorligi, erini bu yo‘lda qo‘llab-quvvatlashini ko‘rishimiz mumkin. **Zumrad xola:** *“(Supa chetiga o‘tirib qoladi) Shundaymi mayli, o‘zingiz bilasiz (ohista gapiradi)”.*

(Xijolat tortib)Bobosi, mayli siqilmang, hammasi yaxshi bo‘ladi. Faqat sog‘lig‘ingizni ham o‘ylang (sekin chiqib ketadi).

Dramada o‘zbek ayollari aslida qanaqa ekanliklari ochib berilgan. Uyga kim kelishadan qat’i nazar mehmonni xushmuomala kutib olib, mehmon qilishlari, mehnatsevarliklari bunga yaqqol dalildir. **Zumrad xola:** *“ Qani, kelinglar supaga chiqinglar, hozir ovqat olib kelaman (u chiqib ketadi)”.*

E-x-ey, qani do‘stingiz ketdimi? Kimlarningdir ham ovozi eshitildi. Tandirdan non uzgunimcha ketib qolishibdi. Supaga o‘tkazmadingizmi? Quruq og‘iz, dasturxon to‘shamay jo‘natdingizmi?

Shu o‘rinda Zumrad xola bilan Toshmurod ota o‘rtasidagi dialogga ham nazar tashlashimiz joiz, chunki unda necha yillar davomida birga yashab, turli xil qiyinchiliklarni birga boshidan o‘tkazgan, umr so‘qmoqlarida birga bo‘lib, farzandlarini yaxshi tarbiyalab, voyaga yetkazgan, chiroyli turmushning egalari bo‘lgan insonlar sifatida tasvirlanadi. Ularning bir-birlariga bo‘lgan sof muhabbatlari, yillar davomida barcha qiyinchiliklarni birga o‘tkazganliklari, necha yillar davomida bunday ajralmas birlikka aylanganliklarini ko‘rsatadi.

- To‘xtamurod ota*: Momosi senga bir gap aytaymi*?

- Zumrad xola*: (unga choy uzatib) yana nima bo‘ldi?*

- To‘xtamurod ota*: (jilmayib) Men sendan u dunyo bu dunyo minnatdorman. Yaxshiyam sen borsan. Agar sen bo‘lmasang, sen yonimda turmasang, men hech narsani o‘ylay olmayman. Mening maktabga bo‘lgan muhabbatim, senga bo‘lgan muhabbatimdan unib chiqqan. Sen tufayli shu hayotni sevaman, momosi. Sening mehribonchiliging bo‘lmaganda, men hech narsa qilolmasdim. Senday insonga taqdirim bog‘langani uchun yaratganga shukr deyman.*

- Zumrad xola*: (eriga sirli qarab): Shu gaplarni o‘zingiz aytyapsizmi?*

- To‘xtamurod ota*: Ha, Bilasanmi, sevgi degani ko‘ngilning tubida o‘t bo‘lib yonib turadi. Bu narsa hadeb tilga chiqavermaydi-da. Lekin bugun nimagadir senga shuni aytgim keldi. Sensiz bir kun ham yashay olmasligimni bilaman ochig‘i, sen mening hayotimsan, momosi. Men qilayotgan ishlar esa shu hayotning mazmuni. Men hech qachon keksaymagandekman. Keksaymayman ham. Chunki seni yaxshi ko‘rgan inson yoningda bo‘lsa, yoshliging, zavq-shavq insonni sira tark etmaydi… Ana senga dilimdagini to‘kib soldim.*

- Zumrad xola*: (jilmaydi, erining boshini silaydi). Rahmat sizga. Umringiz uzoq bo‘lsin, bobosi. Sizga aytar gapim shu. Siz ko‘zimni nurisiz, kuch-quvvatimsiz bobosi.*

Xulosa qilib shuni aytish joizki, dramatik asarlardagi nutq psixolingvistik jihatdan tahlil qilinganda, shaxsning ichki kechinmalari bilan nutqining moslashishi va bir-biriga ta’siri kuzatiladi. Bu tabiiyki, til sathlari va birliklari bilan bog‘liq holda tadqiq qilinsa, ilmiy mohiyati aniqligi ortadi va tahlilda haqqoniy baho beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UZA.UZ – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, “Zamon Avloniysi”, 2023-yil 1-noyabr. Manba: uza.uz;
2. YUZ.UZ – Yoshlar Ittifoqining rasmiy portali, “Bizga maktab kerak, yoxud Zamon Avloniysi”, 2023-yil 2-noyabr. Manba: https://yuz.uz;
3. AFISHA.UZ – O‘zbekistondagi madaniy tadbirlar portali, 2023-yil oktabr oxiri / noyabr boshida. Manba:https://afisha.uz;
4. Buxoro davlat universiteti: Qorako‘l maktabining tarixi va uning “Jahonga yuz tutgan maktab” sifatida tanilishi haqida. Manba: https://buxdu.uz/yangiliklar/2726/jahonga-yuz-tutgan-qorakol-maktabi-tarixiga-bir-nazar/;
5. Daryo.uz: To‘xtamurod Jumayevning hayoti va Qorako‘l maktabining yutuqlari haqida.
6. Kun.uz: Qorako‘l maktabining tarixi va Jumayevning xizmatlari haqida batafsil ma’lumot.
7. Xabar.uz: Qorako‘l maktabining muvaffaqiyatlari va Jumayevning pedagogik yondashuvi haqida.
8. Vikipediya: To‘xtamurod Jumayevning biografiyasi va Qorako‘l maktabi haqida umumiy ma’lumot.

Gulxayo XOSHIMJONOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

ILMIY-TEXNIK SOHADAGI JARAYON IFODALOVCHI TERMINLARNING MAZMUNIY MAYDON TASNIFI VA ULARNING DISKURS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi terminlarning mazmuniy maydon tasnifi va ularning diskurs xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada terminlarning semantik-funksional xususiyatlari, ularning mazmuniy maydon strukturasidagi o‘rni va ilmiy-texnik nutqda qo‘llanilish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi terminlarning semantik maydon strukturasi va ularning diskurs xususiyatlari aniqlangan, shuningdek, terminologik birliklarning ilmiy kommunikatsiyada qo‘llanilishining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: terminologiya, mazmuniy maydon, ilmiy-texnik sohasi, jarayon ifodalovchi terminlar, diskurs xususiyatlari, semantik tahlil, leksik-semantik guruhlar.

Аннотация: данная статья посвящена содержательной полевой классификации терминов, представляющих процесс в научно-технической сфере, и изучению их дискурсивных характеристик. В статье исследованы семантико-функциональные особенности терминов, их место в структуре содержательного поля и возможности применения в научно-технической речи. В результате исследования выявлена семантическая полевая структура терминов, представляющих процесс в научно-технической сфере, и их дискурсивные особенности, а также раскрыты специфические аспекты применения терминологических единиц в научной коммуникации.

Ключевые слова: терминология, содержательное поле, научно-техническая область, термины, представляющие процесс, особенности дискурса, семантический анализ, лексико-семантические группы.

Annotation: this article is devoted to the study of the content field classification of terms that represent a process in the scientific and technical field and their discursive properties. The article investigated the semantic-functional properties of terms, their role in the structure of the content field and the possibilities of their application in scientific and technical speech. As a result of the study, the semantic field structure of the terms that represent the process in the scientific and technical field and their discursive properties are identified, as well as the specifics of the application of terminological units in scientific communication are revealed.

Key words: terminology, content field, scientific and technical field, process expression terms, discourse properties, semantic analysis, lexical-semantic groups.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda terminlarni o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi, chunki terminologik tizimlar fan va texnika rivojining ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi [1]. Ayniqsa, ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi terminlarning mazmuniy maydon tasnifini va ularning diskurs xususiyatlarini o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu terminlar ilmiy-texnik kommunikatsiyada jarayonlarni aniq va to‘g‘ri ifodalashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ilmiy-texnik terminologiya zamonaviy fan va texnikaning rivojlanishi bilan doimiy ravishda yangilanib, boyib bormoqda. Jarayon ifodalovchi terminlar esa, texnologik operatsiyalar, ilmiy tajribalar va texnik jarayonlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi [2]. Bunday terminlarning mazmuniy maydon tasnifi va diskurs xususiyatlarini aniqlash nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy terminologiya va tarjima nazariyasi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqot metodologik asosini mazmuniy maydon nazariyasi, semantik tahlil usullari va diskurs tahlilning zamonaviy yondashuvlari tashkil etadi. Tadqiqotda asosan nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Mazmuniy maydon nazariyasining asoslari G. Ipsen, Y. Trir va L. Vaysgerber tadqiqotlarida shakllantirilgan bo‘lib, keyinchalik A.V. Bondarko, G.S. Shchur va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilgan [3]. O‘zbek tilshunosligida esa H. Ne’matov, R. Rasulov, Sh. Safarov kabi olimlar mazmuniy maydon nazariyasini o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shganlar [4].

Ilmiy-texnik terminologiya sohasidagi tadqiqotlar D.S. Lotte, V.M. Leychik kabi olimlarning ishlari bilan bog‘liq. O‘zbek tilshunosligida esa terminologiya masalalari A. Madvaliev, S. Karimov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan [5]. Karimov o‘zining “O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminologiyasi” asarida terminologik tizimlar qurilishi va terminlarning semantik xususiyatlarini o‘rganish metodologiyasini takomillashtirgan.

O‘zbek tilshunosligida N. Mahmudov, M. Mirtojiev kabi olimlar semantika va leksikologiya masalalariga e’tibor qaratishgan [6]. Ayniqsa, Mirtojievning ‘“O‘zbek tili semasiologiyasi” asari terminlarning semantik xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Diskurs tahlil metodologiyasi T.A. van Deyk, N. Fairclough, V.I. Karasik kabi olimlarning nazariy ishlari asosida rivojlangan. O‘zbek tilshunosligida diskurs tahlil masalalari B. Mengliev, M. Yo‘ldoshev kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan [7]. Yo‘ldoshev o‘zining “Badiiy matn lingvopoetikasi” asarida matn va diskurs tahlilining metodologik asoslarini yaratgan.

A.Rahimov “O‘zbek tilshunosligida termin va terminologiya muammolari” nomli asarida terminologiyaning nazariy masalalarini atroflicha tadqiq etgan [8]. Bu asar terminlarning mazmuniy va diskursiv xususiyatlarini o‘rganish uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilidagi ilmiy-texnik terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi I. Qo‘chqortoyevning “Til va nutq bog‘lanishlari haqida” asarida ham o‘z aksini topgan [9]. Bu asarda tilning funksional jihatlari va ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Shuningdek, N. Turniyozovning “Matn lingvistikasi” asari diskurs tahlil metodologiyasini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi [10]. Bu asarda matn va diskurs munosabatlari, ularning struktural-semantik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan.

Natijalar va muhokama

Ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi terminlarning mazmuniy maydon tasnifini yaratish uchun dastlab ularni semantik xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi asosiy semantik guruhlarni ajratish mumkin:

— **texnologik jarayonlarni ifodalovchi terminlar**: ishlov berish, qayta ishlash, sintezlash, katalizlash, polimerlanish, fraksiyalash, ekstraksiya, sublimatsiya, kristallizatsiya kabilar. Bu guruh terminlari texnologik operatsiyalarni ifodalab, ilmiy-texnik sohadagi eng ko‘p uchraydigan jarayon ifodalovchi terminlar hisoblanadi;

— **o‘zgarish jarayonlarini ifodalovchi terminlar**: transformatsiya, modifikatsiya, deformatsiya, diffuziya, erish, qotish, parchalanish, degradatsiya, gidroliz. Bu terminlar modda va materiallarning holatini o‘zgarishini ko‘rsatadi;

— **harakat jarayonlarini ifodalovchi terminlar**: harakatlanish, aylanish, tebranish, oqim, sirkulyatsiya, rotatsiya, ossillyatsiya. Bu guruhga mexanik harakatlarni ifodalovchi terminlar kiradi;

— **energetik jarayonlarni ifodalovchi terminlar**: nurlanish, issiqlik almashinuvi, energiya uzatish, generatsiya, transformatsiya, akkumulyatsiya, dissipatsiya. Bu terminlar energiya bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalaydi;

— **kommunikatsiya va ma’lumot uzatish jarayonlarini ifodalovchi terminlar**: signallash, kodlash, modulyatsiya, demodulatsiya, shifrlash, deshifrlash, translyatsiya. Axborot texnologiyalari sohasida keng qo‘llaniladigan bu terminlar ma’lumotlarni uzatish jarayonlarini ifodalaydi.

Mazmuniy maydon markazida jarayonning o‘zini ifodalovchi terminlar joylashadi, periferiyada esa jarayonning bosqichlari, natijalari, subyektlari va obyektlarini ifodalovchi terminlar joylashadi. Bu mazmuniy maydon strukturasi terminlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni aniq ko‘rsatadi.

Jarayon ifodalovchi terminlarning diskurs xususiyatlariga kelsak, ular ilmiy-texnik diskursda aniqlik, konkretlik va obyektivlik kabi talablarga javob beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu terminlarning quyidagi diskurs xususiyatlari aniqlangan:

— **protsessuallik semantikasi dominantligi**: ilmiy-texnik diskursda jarayon ifodalovchi terminlar hodisa va jarayonlarning dinamik xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “diffuziya” termini nafaqat hodisani, balki jarayonning o‘zini ham ifodalaydi;

— **universallik va tarmoqlararo xususiyat**: ko‘plab jarayon ifodalovchi terminlar fan va texnikaning turli sohalarida qo‘llaniladi, bu esa ularning universalligini ko‘rsatadi;

— **sistema-strukturaviy xususiyati**: jarayon ifodalovchi terminlar o‘zaro bog‘liq semantik tizimni tashkil etib, ularni tizimli o‘rganish muhim ahamiyatga ega;

— **nominativ-definitsion funksiya**: bu terminlar ilmiy-texnik matnlarda jarayonlarni nomlash va ta’riflash funksiyasini bajaradi;

— **kognitivlik**: terminlar orqali ifodalangan jarayonlar ilmiy-texnik bilimlar tizimini aks ettiradi va bilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Diskurs tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, jarayon ifodalovchi terminlar ilmiy-texnik kommunikatsiyada muhim o‘rin tutadi va maxsus bilimlarni uzatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular faqat nominativ funksiyani emas, balki kognitivlik, tizimlilik va definitsionlik kabi muhim xususiyatlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Xulosa

Ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi terminlarning mazmuniy maydon tasnifi va ularning diskurs xususiyatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

— ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi terminlarning mazmuniy maydoni murakkab ierarxik tuzilishga ega bo‘lib, unda texnologik, o‘zgarish, harakat, energetik va kommunikativ jarayonlarni ifodalovchi terminlar guruhlari ajralib turadi;

— jarayon ifodalovchi terminlarning diskurs xususiyatlari protsessuallik semantikasi dominantligi, universallik, sistem-struktur xususiyati, nominativ-definitsion funksiya va kognitivlik bilan xarakterlanadi;

— ilmiy-texnik diskursda jarayon ifodalovchi terminlar nafaqat hodisa va jarayonlarni nomlash, balki ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va uzatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

— jarayon ifodalovchi terminlarning mazmuniy maydon tasnifi va diskurs xususiyatlarini o‘rganish, terminologik tizimlarni takomillashtirish, ilmiy-texnik tarjimani rivojlantirish va ilmiy kommunikatsiyani yaxshilash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kelajakda ushbu tadqiqotni davom ettirish uchun ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi terminlarning korpus lingvistikasi usullari yordamida chuqurroq o‘rganish, ularning diskurs xususiyatlarini turli tillarda qiyosiy tahlil qilish va terminologik lug‘atlar tuzishda bu natijalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madvaliev A. o‘zbek terminologiyasi masalalari. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2017.
2. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. — Toshkent: Fan, 2010.
3. Bondarko A.V. Teoriya funktsionalnoy grammatiki. — Sankt-Peterburg: Nauka, 2015.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Karimov S. O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminologiyasi. —Toshkent: Fan, 2008.
6. Mirtojiev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. — Toshkent: Fan, 2008.
8. Rahimov A. O‘zbek tilshunosligida termin va terminologiya muammolari. — Toshkent: Universitet, 2006.
9. Qo‘chqortoyev I. Til va nutq bog‘lanishlari haqida. — Toshkent: o‘zbekiston, 2012.
10. Turniyozov N. Matn lingvistikasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2004.

Dilnoza JURAYEVA
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

PSIXOLOGIK DISKURSDA TARJIMA MUAMMOLARI: LINGVISTIK VA MADANIY JIHATLAR

***Annotatsiya**: ushbu maqolada psixologik diskursda tarjima jarayonida uchraydigan muammolar lingvistik va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik matnlar va nutq tarkibida chuqur ma'naviy, madaniy va ilmiy jihatlar mujassam bo'lib, ularni to'g'ri tarjima qilish uchun kontekstni to'g'ri anglash va ekvivalent muqobil variantlarni tanlash zarur. Tadqiqot davomida tarjimada uchraydigan asosiy qiyinchiliklar, psixologik atamalarni to'g'ri ifodalash, konnotativ ma'nolarni yetkazish va madaniy tafovutlarni hisobga olish muhimligi tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** psixologik diskurs, tarjima, lingvistik muammolar, madaniy tafovutlar, konnotatsiya, ekvivalentlik, terminologiya.*

***Annotation**: this article analyzes linguistic and cultural challenges encountered in the translation of psychological discourse. Psychological texts and speech contain deep spiritual, cultural, and scientific aspects, making it essential to understand context and select appropriate equivalents for accurate translation. The study explores key difficulties in translation, including the correct rendering of psychological terms, conveying connotative meanings, and addressing cultural differences.*

***Key words:** psychological discourse, translation, linguistic challenges, cultural differences, connotation, equivalence, terminology.*

***Аннотация:** в данной статье рассматриваются лингвистические и культурные проблемы, возникающие при переводе психологического дискурса. Психологические тексты и речь содержат глубокие духовные, культурные и научные аспекты, поэтому для их точного перевода необходимо правильно понимать контекст и подбирать адекватные эквиваленты. В исследовании анализируются основные трудности перевода, такие как корректная передача психологических терминов, коннотативных значений и учет культурных различий.*

***Ключевые слова:** психологический дискурс, перевод, лингвистические проблемы, культурные различия, коннотация, эквивалентность, терминология.*

Tarjima jarayoni faqat so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishdan iborat bo'lmay, balki turli madaniy va semantik jihatlarni to'g'ri aks ettirishni ham talab qiladi. Ayniqsa, psixologik diskurs tarjimasida lingvistik va madaniy muammolar yanada keskin namoyon bo'ladi. Chunki psixologik matnlar nafaqat ilmiy terminlarni, balki insonning hissiy va ruhiy holatlarini ham aniq ifodalashni talab qiladi. Psixologik diskurs o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, unda ilmiy terminlar, metaforalar, konnotativ ma'nolar va madaniy kontekstlar muhim o'rin tutadi. Shu sababli tarjimon faqat lingvistik bilimga ega bo'lishi kifoya emas, balki psixologiya sohasidan ham yetarlicha xabardor bo'lishi zarur. Tarjimada uchraydigan asosiy muammolardan biri — psixologik atamalarni ekvivalent holda ifodalashdir, chunki har bir tilda ularning ma'nosi va qo'llanilish doirasi turlicha bo'lishi mumkin. Shuningdek, tarjimonning madaniy tafovutlarni hisobga olishi va matnning original mazmunini buzmasdan yetkazishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada psixologik diskursni tarjima qilishda duch kelinadigan lingvistik va madaniy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida psixologik terminlarning tarjima qiyinchiliklari, konnotativ ma'nolarni yetkazish muammolari hamda madaniy kontekstlarning tarjimadagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqola tarjimonlar, lingvistlar va psixologik matnlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun foydali bo'lishi kutilmoqda.

Psixologik diskursning tarjima jarayonidagi o'ziga xosligi: psixologik diskurs ilmiy va badiiy

unsurlarni o‘z ichiga olgan murakkab lingvistik tizim hisoblanadi. Bu diskursda ilmiy terminlar, metaforalar, konnotativ ma’nolar va hissiy ifodalar keng qo‘llaniladi. Shuning uchun tarjima jarayonida nafaqat terminologik moslik, balki kontekstual aniqlik ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ingliz tilidagi “cognitive dissonance” atamasi o‘zbek tiliga “kognitiv dissonans” deb tarjima qilinadi, biroq bu iboraning mazmuni oddiy o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi uchun izoh talab qilishi mumkin. Shuningdek, ba’zi psixologik atamalar turli madaniyatlarda turlicha qabul qilinishi mumkin. Masalan, “self-esteem” atamasi ingliz tilida muhim psixologik tushuncha bo‘lsa, o‘zbek tilida unga mos ekvivalent topish qiyinroq.

Psixologik terminlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar: psixologik terminlar tarjimasida asosiy muammo ularning ma’nosini to‘g‘ri ifodalashdir. Ba’zi terminlar ilmiy jargonga oid bo‘lib, ularni bevosita tarjima qilish mumkin, lekin boshqa atamalar kengroq tushuntirishni talab qiladi.

Xalqaro terminlar va ularning ekvivalentligi: Ba’zi psixologik terminlar xalqaro miqyosda qabul qilingan bo‘lib, ularning tarjimasi minimal o‘zgarish bilan amalga oshiriladi. Masalan:

Depression → Depressiya

Schizophrenia → Shizofreniya

Neurosis → Nevroz

Biroq, ba’zi atamalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish qiyin, chunki ularning ma’nosi kontekstga bog‘liq. Masalan, “resilience” atamasi ingliz tilida psixologik chidamlilikni anglatadi, lekin uni “mustahkamlik” yoki “ruhiy bardoshlik” deb tarjima qilish mumkin. Har ikki variant ma’lum darajada to‘g‘ri, lekin kontekstga qarab tarjimonning tanlovi o‘zgarishi mumkin.

Semantik tafovutlar va ekvivalentlik muammolari: psixologik terminlar tarjimasida asosiy muammolardan biri ularning turli tillarda qanday aks ettirilishidir. Ba’zan tarjima jarayonida to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalent topish qiyin bo‘ladi.

Masalan: “Mindfulness” — bu atama ingliz tilida shaxsning ongli ravishda hozirgi paytga e’tibor qaratishini anglatadi. O‘zbek tilida unga aniq ekvivalent yo‘q, shuning uchun “ongli diqqat”, “anglangan xabardorlik” yoki “hushyorlik amaliyoti” kabi variantlar qo‘llanishi mumkin.

“Trauma bonding” — bu psixologik tushuncha zo‘ravonlik yoki manipulyatsiya qurbonlarining o‘z zo‘ravoniga bog‘lanib qolishi holatini ifodalaydi. O‘zbek tilida “travmatik bog‘lanish” yoki “zo‘ravonlikka bog‘lanish sindromi” kabi variantlar tavsiya qilinadi.

Ba’zan esa atamalar har xil madaniy kontekstlarda boshqacha tushuniladi. Masalan, “self-esteem” (o‘z-o‘zini qadrlash) G‘arb madaniyatida juda muhim tushuncha hisoblanadi, lekin an’anaviy sharqona madaniyatlarda odamning jamiyatdagi o‘rniga urg‘u berilishi tufayli bu tushuncha boshqacha talqin qilinishi mumkin.

Konnotativ ma’nolar va hissiy ta’sirning tarjimada yo‘qolishi: psixologik diskursda metaforalar va iboralar ko‘p uchraydi, bu esa tarjima jarayonini murakkablashtiradi.

Masalan, quyidagi iboralar tarjima qilinayotganda ma’no yo‘qolishi yoki o‘zgarishi mumkin:

“Break the cycle of abuse” → “Zo‘ravonlik doirasini buzish” yoki “Zo‘ravonlik zanjirini uzish”.

“Inner child healing” → “Ichki bola bilan ishlash” yoki “Ichki bolani davolash”.

“Emotional baggage” → “Hissiy yuk” yoki “O‘tmish hissiyotlari”.

Bu iboralar asl tilda kuchli hissiy ta’sirga ega bo‘lsa-da, tarjima qilinayotganda ularning psixologik ta’sir kuchi saqlanib qolishi uchun qo‘shimcha izoh yoki mos alternativalar talab qilinadi.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, tarjimada so‘zlarning to‘g‘ri leksik ma’nosini topish bilan birga, ularning hissiy va madaniy xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Psixologik diskurs tarjimasida pragmatik yondashuv: tarjimon faqatgina so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini bilish bilan cheklanmay, balki matnning pragmatik jihatini ham tushunishi lozim. Bu, ayniqsa, psixoterapiya, maslahat berish yoki ommaviy auditoriyaga mo‘ljallangan motivatsion matnlar tarjimasida muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, ingliz tilidagi “You are enough” iborasi motivatsion kontekstdagi psixologik tushuncha bo‘lib, uni “Sen yetarlisan” yoki “Sen o‘zing yetarlisan” deb tarjima qilish mumkin. Biroq, ba’zi kontekstlarda “Sen o‘zing yetarlisan” iborasi yaxshiroq bo‘lishi mumkin, chunki u hissiy ta’sirni to‘g‘ri aks ettiradi.

Bundan tashqari, terapevtik diskurs tarjimasida bemor va psixolog o‘rtasidagi ishonchli muloqotni

saqlash uchun nutqning yumshoqligi va iliqligi muhim ahamiyatga ega. Masalan, “You need to work on your emotions” iborasi to‘g‘ridan to‘g‘ri “Sen hissiyotlaring ustida ishlashing kerak” deb tarjima qilinsa, u tanbeh ohangida yangrash ehtimoli bor.

Ushbu maqola tarjimonlar, lingvistlar va psixologik matnlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda psixologik diskurs tarjimasini chuqurroq o‘rganish va tarjima strategiyalarini takomillashtirish ushbu sohadagi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb bo‘lib qoladi.

Psixologik diskurs tarjimasida lingvistik, semantik va madaniy jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, psixologik matnlarni tarjima qilish jarayonida nafaqat ilmiy terminologiya, balki, hissiy va konnotativ ma’nolar ham to‘g‘ri yetkazilishi zarur.

Birinchidan, terminologik aniqlik tarjimaning asosiy sharti hisoblanadi. Xalqaro terminlar imkon qadar o‘z shaklida qabul qilinsa-da, ba’zan ularni izohlab tarjima qilish lozim bo‘ladi. Ikkinchidan, madaniy kontekstni inobatga olish tarjima sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Turli madaniyatlarda psixologik tushunchalar turlicha qabul qilinishi mumkinligi sababli, tarjimon bu tafovutlarni hisobga olishi kerak.

Uchinchidan, hissiy ta’sirni saqlash psixologik matnlarning mazmunini yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Metaforalar, iboralar va psixologik maslahat berish uslubining nozik jihatlarini tarjima qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi. To‘rtinchidan, pragmatik yondashuv orqali tarjima qilinayotgan matnning konteksti va auditoriyasiga mos keladigan ifodalarni tanlash zarur. Masalan, terapevtik yoki motivatsion matnlarni tarjima qilishda og‘ir, quruq ilmiy uslub emas, balki yumshoqroq va tushunarli til ishlatilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, psixologik diskurs tarjimasida faqat lingvistik bilimlar emas, balki psixologiya va madaniyatshunoslik bo‘yicha tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola tarjimonlar, lingvistlar va psixologik matnlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo‘lishi kutilmoqda. Kelajakda bu sohada yanada chuqur tadqiqotlar olib borish va tarjima uslublarini takomillashtirish muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonova D. O‘zbek tilshunosligida gender muammolari. O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, O‘zbekiston, 2021. 198-b.

2. Ахмедова М. Til va gender: O‘zbek tilining lingvokulturologik tahlili. Fan va texnologiya, O‘zbekiston, 2018. 275-b.

3. Lakoff R. Language and Woman’s Place. Oxford University Press, USA, 1975. P. 240

4. Davidson and Hubscher S. The role of intuition in the translation process. Translation and Interpreting Studies, 2013. P.211.

5. Risku, H. Translation process research as interaction research: From mental to socio-cognitive processes. MonTI: Minding Translation [Special Issue], 2014. P. 336.



Shohjahon MELIQULOV
UzFinPedI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti,
1-bosqich magistranti
shohjahonmeliqulov2@gmail.com

ONOMASTIK NOMLAR VA ULARNING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqola onomastikaning adabiyotshunoslik bilan o‘zaro aloqasi masalasini o‘rganadi. Onomastik nomlarning adabiy matnlardagi vazifalari – tarixiy-madaniy kontekst yaratish, obraz va xarakter ochib berish, ramziy ma’no va uni hosil qilish, milliy koloritni boyitish kabi masalalar tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyotidan namunalar keltirilib, onomastika asosidagi ilmiy tahlil usullari izohlanadi.

Kalit so‘zlar: onomastika, adabiyotshunoslik, tahlil, etnonim, toponim, zoonim, atroponim, yondashuv, obraz, timsol, kontekst.

Аннотация: в статье рассматривается взаимосвязь ономастики и литературоведения. Анализируются функции ономастических имен в художественных текстах: создание историко-культурного контекста, раскрытие образа и характера, символического значения и его формирование, обогащение национального колорита. Приводятся примеры из узбекской литературы и объясняются методы научного анализа, основанные на ономастике.

Ключевые слова: ономастика, литературоведение, анализ, этноним, топоним, зооним, атропоним, подход, образ, символ, контекст.

Annotation: this article examines the relationship between onomastics and literary studies. The functions of onomastic names in literary texts are analyzed - creating a historical and cultural context, revealing an image and character, symbolic meaning and its formation, enriching the national color. Examples from Uzbek literature are given and scientific analysis methods based on onomastics are explained.

Key words: onomastics, literary studies, analysis, ethnonym, toponym, zoonym, atroponym, approach, image, symbol, context.

Bugungi kunda tilshunoslik bilan bir qatorda adabiyotshunoslikda ham onomastik nomlarning ahamiyati o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki badiiy asarlarda ishlatilgan ismlar, joy nomlari, tarixiy va afsonaviy shaxslar haqidagi onomastik birliklar nafaqat matnning badiiy qimmatini oshiradi, balki asarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstini yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mualliflar tomonidan tanlab olingan nomlar orqali obrazlarning xarakteri, milliylik, davr ruhi hamda muallifning estetik qarashlari haqida chuqur tasavvur hosil qilish mumkin. Shu bois, adabiy matnlarni tahlil qilishda onomastik nomlarni o‘rganish ularning ma’no qatlamlarini ochishda muhim ilmiy-uslubiy vosita sifatida qaraladi. Onomastika (qadimgi yunoncha: ὀνομαστική – nomlash, nom qo‘yish san’ati) – tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig‘indisi. Ayrim tadqiqotlarda „Onomastika“ termini antroponimika ma’nosida ham qo‘llangan. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.[1] U so‘zshunoslikning nomlar bilan bog‘liq bo‘limi bo‘lib, unda inson ismlari, joy

1 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (O-harfi). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.

nomlari, etnonimlar, hayvonlar va o‘simliklar nomlari kabi sohalar o‘rganiladi. Onomastik tadqiqotlar tilshunoslikda muhim o‘rin egallaydi, lekin ularning ahamiyati faqat lingvistik jihatlar bilangina cheklanmaydi. Adabiyotshunoslikda onomastik nomlar ko‘pincha badiiy obrazlarni yaratish, ularni yanada jonliroq va boyroq qilish, asarning tarixiy-madaniy mazmunini kengaytirish kabi vazifalarni bajaradi.

Adabiy asarlar, xususan, romanlar, hikoyalar, dostonlar va lirikada yozuvchilar o‘z qahramonlarini nomlashda maxsus ma’noli, ramziy yoki konnotatsion nomlar tanlash orqali ularning xarakteri, rollari, madaniy yoki tarixiy kontekstini ochib berishga intilishadi. Bu esa har qanday badiiy asar qimmatini oshiradigan eng muhim jihatlardan biri sanaladi. Shu sababli, onomastika adabiyotshunoslik bilan uzviy aloqada bo‘lib, u asar mazmunini to‘laqonli va izchil tahlil qilishda asosiy unsurlardan biri hisoblanadi.

Onomastik nomlar turlari va ularning badiiy matndagi vazifalari bir qancha bo‘lib, ular badiiy asarlarning, umuman, adabiyotga doir barcha asarlarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, badiiy matnda onomastik nomlarning quyidagi turlarini uchratishimiz mumkin.

T/r	Onomastika	
1	antroponimlar	inson ismlari
2	toponimlar	joy nomlari
3	etnonimlar	elat, millat nomlari
4	zoonimlar	hayvonlar nomlari
5	fitonimlar	o‘simliklar nomlari
6	oronimlar	tog‘lar, daryolar, dengizlar nomlari

Bularning har biri badiiy matnda muayyan semantik va stilistik ma’noni aks ettiradi. Misol uchun, antroponimlar obrazlarning xarakterini ochishda, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, millati yoki shaxsiy xususiyatlarini ifodalashda ishlatiladi. Toponimlar esa voqea sodir bo‘layotgan hududni aniqlashtiradi, tasvirlaydi, yetkazadi, asarda milliy ruhni uyg‘otadi va o‘quvchida tasavvur hosil qiladi. Etnonimlar orqali esa muallif milliy zamin, tarixiy voqealar yoki etnik qarama-qarshiliklarni yoritadi. Bularning barchasini badiiy matn ichida tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagilarni kuzatishimiz mumkin:

1. Antroponimlar − qahramonlarning ismlari nafaqat ularning shaxsiy xususiyatlarini, balki xarakterini ochib berish, tarixiy yoki milliy madaniyatni aks ettirish uchun ishlatiladi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi qahramonlar ismlari – Miryoqub, Zebi, Noib to‘ra, Razzoq so‘fi obrazlari orqali o‘sha davrdagi madaniy muhit yaqqol yoritilgan.

2. Toponimlar. Har qanday asarda geografik joy nomlari muhim badiiy vazifani bajaradi. Ular voqealarning joylashuvini belgilab, matnga haqiqat va ishonchlilik baxsh etadi. Masalan, Boburning “Boburnoma” asarida Hindiston, Kobul, Samarqand, Andijon, Farg‘ona va boshqa shaharlar haqida ma’lumotlar aks etgan bo‘lib, voqealar o‘sha hududlar o‘rtasida tasvirlanadi. Ba’zi hududlar shunchaki joy nomi bo‘libgina qolmay, asarda muhim ramziy obraz vositasi bo‘lib keladi. ***Namuna:*** **Qarshi – toponim turi oykonim hisoblanadi. Qarshi** shahri nomining etimologiyasi haqida “Boburnoma”da bunday deyilgan: “Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila qarshi derlar. Qadimgi turk tilida qarshi “ko‘shk”, “saroy”, “xon qarorgohi” demak”. Lekin XV—XVI asrlarda bu so‘z “mo‘tabar shaxslar qabriga qurilgan dahma maqbara” ma‘nosini olgan[2].

3. Etnonimlar. Muayyan millat yoki elat nomlarining ishlatilishi asarning milliy ruhini ifodalaydi. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa”si, Chingiz Atymatovning “Oq kema” kabi asarlarida turli xalqlarning etnonimlari o‘z aksini topgan.

4. Zoonimlar va fitonimlar. Hayvonlar va o‘simliklar nomlari orqali adiblar tabiat manzarasini tasvirlabgina qolmay, balki ramziy ma’nolar hosil qilishadi. Masalan, Ernest Seton Tompsonning “Lobo” hikoyasida bo‘ri obrazi aslida insonlarning xarakter-xususiyatini yaqqol ochib bergan.

Shuningdek, adabiyotshunoslar onomastik nomlarni tahlil qilishda bir nechta asosiy yondashuvlardan foydalanadilar. Bular quyidagilardir:

2 Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 5-b.

Etimologik tahlil – qahramon ismining kelib chiqishi, semantik ma'nosi o'rganiladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obraziga bu ism o'z-o'zidan tanlanmagan. Shoir dostonda Farhod ismini "Firoq"dan "f"ni, "rashk"dan "rashk"dan, "r"ni, "hajr"dan "h"ni, "oh"dan "o"ni va nihoyat, "dard"dan "d"ni bir-biriga biriktirganda "Farhod" ismi tarkib topdi[3].

Tarixiy-kultural kontekst tahlili – nomlarning tarixiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishi aniqlanadi. Masalan, asarlarda saqlangan tarix va madaniyat elementlari va mavjud davrga xos xususiyatlari o'rganiladi. Bunga ko'proq tarixiy asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romani, Fitratning "Abulfayzxon" drammasi kabilar ushbu tahlil usulining yorqin namunasidir.

Simvolik tahlil – nomlarning ramziy ma'nosi aniqlanadi. Jumladan, "Oshiq", "Gul", "Bulbul" kabi nomlar matnda bevosita ma'no bilan birga ramziy va majoziy yuklama ham olib yuradi.

Sotsiolingvistik yondashuv – qahramon ismlarining ijtimoiy mavqeyi, til o'ziga xosligi, milliy rang-baranglikni aks ettirish usullari o'rganiladi.

Shu bilan bir qatorda adabiyotda onomastik nomlar asarlarning badiiy-estetik sifatini oshiradi. Ular:

- Obrazlarni yanada tirikroq va ishonchliroq qiladi;
- Asar mazmunini (milliy, madaniy, tarixiy) boyitadi;
- Qahramon xarakterini ochib beradi, to'ldiradi;
- Asar semantik, leksik, vazifaviy qatlamini kengaytiradi;
- O'quvchiga qo'shimcha kontekstual tafsir imkonini yaratadi.

Masalan, Oybekning "Navoiy" romanida Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro kabi tarixiy shaxslarning nomlari o'quvchini tarixiy davrga olib kiradi. Xuddi shunday, A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi qahramonlar ismlari orqali o'zbek jamiyatidagi o'zgarishlar aks ettiriladi.

Xulosa qilib aytganda, onomastika va adabiyotshunoslik o'zaro bog'liq ilmiy sohalar bo'lib, ularning uyg'unligi adabiy matnlarning chuqur tahliliga imkon beradi. Onomastik nomlar nafaqat matnning til jihatidan boyligini oshiradi, balki uning badiiy-estetik va mazmuniy qirralarini yanada kuchaytiradi. Shu sababli, adabiy tahlil jarayonida onomastik elementlarni chuqur o'rganish nafaqat matnni yaxshiroq anglashga yordam beradi, balki milliy va tarixiy kontekstni ham kengaytiradi. Onomastika adabiyotshunoslikda asarlarni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib, matnni mazmun jihatdan boyitadi va o'quvchi uchun ko'proq kontekstual tafsir imkoniyatini yaratadi.

3 https://openidea.uz/index.php/idea/article/download/1355/2100/1234

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Solijonov. O'zbek tilshunosligida onomastika masalalari. – Toshkent: Fan, 2007.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (O-harfi). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 5-b.
4. https://openidea.uz/index.php/idea/article/download/1355/2100/1234

Hurriyat IBRAGIMOVA
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
1-bosqich magistranti
hurriyatt@gmail.com

Abdujabbor ALIQULOV,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
1-bosqich magistranti
abdujabboraliqulov080802@gmail.com



“BLOGOSFERA VA JAMOATCHILIK FIKRI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYANING YANGI QIRRALARI”

Annotatsiya: mazkur maqolada blogosfera fenomeni va uning jamoatchilik fikrining shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Muallif blogerlik faoliyatining jamiyatdagi axborot oqimlariga, fuqarolik pozitsiyalarining shakllanishiga va muhim ijtimoiy masalalarning muhokamasiga ta’sirini ko‘rsatadi. Blogosferaning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli hamda internet auditoriyasining faollashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi kommunikatsion model muhokama qilinadi. Tadqiqot davomida xorijiy va mahalliy manbaalar, shuningdek, amaliy misollar asosida tahliliy xulosalar beriladi. Maqola jurnalistika, axborot texnologiyalari, sotsiologiya va kommunikatsiya sohalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: blogosfera, blogerlik, jamoatchilik fikri, kommunikatsiya, internet, axborot maydoni, ijtimoiy media.

Аннотация: в данной статье анализируется феномен блогосферы и её влияние на формирование общественного мнения. Автор раскрывает роль блогеров в информационных потоках современного общества, в становлении гражданской позиции и в обсуждении актуальных социальных вопросов. Особое внимание уделено роли блогосферы в социально-политической жизни Узбекистана, а также изменениям в коммуникационных моделях, вызванным активизацией интернет-аудитории. Исследование основано на анализе зарубежных и отечественных источников, а также практических примеров. Статья будет полезна специалистам в области журналистики, информационных технологий, социологии и массовых коммуникаций.

Ключевые слова: блогосфера, блоггеры, общественное мнение, коммуникация, интернет, информационное пространство, социальные медиа.

Annotation: this article explores the phenomenon of the blogosphere and its impact on the formation of public opinion. The author highlights the influence of bloggers on information flows, civic engagement, and the public discourse surrounding key societal issues. Special attention is given to the role of the blogosphere in Uzbekistan’s socio-political landscape and the emergence of new communication models driven by active internet users. The study is based on an analysis of both international and local sources, along with practical examples. This article is valuable for professionals and researchers in the fields of journalism, information technology, sociology, and media communication.

Key words: blogosphere, blogging, public opinion, communication, internet, information space, social media.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, internet inson hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotgani jamiyatda yangi axborot makonlarining, jumladan, blogosferaning shakllanishiga zamin yaratdi. Aynan shu omillar bugungi kunda jamoatchilik fikrini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etib, blogosferaning ta’sir doirasini kengaytirmoqda. Shu o‘rinda “Blogosfera nima o‘zi?”, “U jamoatchilik fikriga qanday ta’sir ko‘rsatadi?” kabi savollar yuzaga

chiqishi tabiiydir. Deyarli barchamiz kunni internet bilan boshlab, u bilan yakunlaymiz. Kamiga barcha axborot manbalari va yangiliklar ham internet orqali qabul qilinayotgan bir zamonda bloglarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Internet tarmog‘i bloglardan iborat bo‘lib, bloglarning o‘zaro birlashishi esa blogosferaning tuzilishini shakllantiradi. Bloglarning shakllanishi va rivojlanishi G‘arbda yuzaga kelgan “Fuqarolik jurnalistikasi” tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, internet tarmog‘ida o‘zining shaxsiy sahifasi, ya’ni blogiga ega bo‘lgan fuqaro sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish orqali yuzaga kelgan. Zero, blogging fuqarolik jurnalistikasining asosiy shakllaridan biri ekanligi bir qator manbaalar bilan tasdiqlangan. Blogosfera tushunchasi inglizcha “blogosphere” so‘zidan olingan bo‘lib, internet tarmog‘idagi barcha bloglarning yig‘indisi hisoblanadi. Blogosferani “tirik organizm” desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki u so‘z erkinligiga asoslangan internet faoliyatining asosi sanaladi. Bloglar juda ko‘p, lekin blogosfera hamma uchun bitta va yaxlit. Demak, blogosfera – bu ma’lumotlar manbai bo‘lib, jamoatchilik fikri va qarashlarini o‘rganish uchun muhim muhit hisoblanadi hamda u ko‘pincha zamonaviy global ijtimoiy tendensiyalarni o‘rganadigan akademik va akademik bo‘lmagan ishlarda hisobga olinadi. Uning asosini bloglar va bloggerlar tashkil etadi. Internet globallashgan zamonda, ijtimoiy tarmoqlar keng ahamiyat kasb etmoqda. Ulardan foydalanish esa kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu o‘z navbatida turli xil bloglarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda o‘z yo‘nalishiga ega turli xil bloglarni ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan bloglarni yurituvchi shaxslar ko‘z oldimizda blogger sifatida gavdalandi. Bloggerlar o‘z bloglarini turli xil media kontentlar bilan boyitib bormoqdalar. Bu jarayon jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Vaholangki, o‘zbek media olamiga bu uslubning kirib kelishi jamoatchilik fikri shakllanishini yanada tezlashtirib yubordi. Bu omil esa insonlar ongida blogosfera nomi bilan shakllandi. Yildan yilga sayqallangan blogosfera atamasi, bugungi kunda katta maydonni qamrab oldi. Xo‘sh, blog o‘zi nima?, Bloggerlar kimlar? Bu kabi savollarga aniq va qisqa javob topish oson emas. Negaki, qarashlar, fikrlar turlicha hamda ta’riflar ham ko‘p.

“Blog – bu nashrlar doimiy ravishda amalga oshiriladigan va teskari xronologik tartibda namoyish etiladigan veb-sayt”. Blog so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib veblog, veb-jurnal ma’nolarini beradi, ya’ni, veblog yoki veb-jurnal so‘zlarining qisqartmasi hisoblanadi. Blogning muallifi bo‘lish, blogni saqlash yoki mavjud blogga maqola qo‘shish “blog yuritish” deb nomlanadi. Blogdagi matnlar blog yozuvlari, maqolalar yoki xabarlar deb yuritiladi. Ushbu ma’lumotlarni topgan, tahlil qilgan va nashr etgan odam “blogger” deb nomlanadi.

“Blog”, “blogger” va “bloggerlik” kabi so‘zlarning dunyoga kelganiga hech qancha bo‘lmay, kundalik hayotimizga jadal sur’atlar bilan kirib keldi. Bloglar esa o‘z navbatida “fuqarolik jurnalistikasi” degan tushunchani yuzaga keltirdi. Endi jurnalistika sohasiga ishtiyoqi baland, mutaxassis bo‘lmaganlar ham havaskor jurnalist sifatida internetda o‘z shaxsiy bloglariga ega bo‘lishi, axborot tarqatuvchi sifatida faoliyat yuritishi, o‘zi guvohi bo‘lgan voqealarni yoritish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Blogda muntazam axborot yozib boriladi va u matn, rasmlar yoki multimediadan iborat bo‘lishi mumkin. Bloglarning o‘ziga xos jihati – bu ularning qisqaligi, vaqt qiymatiga ega ekanligi va teskari xronologik tartibda joylashishi, ya’ni oxirgi chop etilgan maqola, post yoki xabar eng tepada turadi. 2009-yilgacha bloglar, asosan, yakka mualliflar tomonidan yuritilgan. Keyinchalik bloglar kichik guruhlar tomonidan ham yuritilib, asosan, bir yo‘nalishdagi mavzular yoritilgan. Shuning uchun ham bunday bloglarni ko‘p muallifli bloglar, ya’ni jamoaviy bloglar deb nomlashgan.

Keyinchalik, twitter, instagram va shu kabi boshqa mikroblog yuritish tizimlarining rivojlanishi jamoaviy bloglar hamda yakka tartibdagi mualliflik, ya’ni shaxsiy bloglarning ham ijtimoiy yangiliklar oqimiga integratsiyalashuviga olib keldi. Bloglar odatda oddiy an’anaviy kundaliklardan ommaviyligi, doimiy o‘quvchilarga ega ekanligi, muallif va o‘quvchi o‘rtasida bevosita muloqot, ya’ni izohlarda fikr qoldirish

imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi. Bloggerlar ko‘p holatlarda o‘z bloglariga faqatgina maqola yozibgina qolmasdan, o‘z o‘quvchilariga qiziq bo‘lishi uchun turli xil viktorinalar, debat va shu kabi ko‘ngilochar kontentlarni ham taqdim etib turishi lozim. Bu o‘z navbatida obunachilar o‘rtasida faollikni oshiradi. Bundan tashqari boshqa bloggerlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni o‘rnatib, kollabarativ loyihalar ustida ishlashi ham katta yutuqlarga olib keladi. Tarmoqdagi barcha bloglar umumlashtirilib “blogosfera” deb ataladi. Bloglar deganda, biz ba’zan shaxsiy saytlarni ham nazarda tutamiz, chunki, odatda bunday saytlarda muallifning shaxsiy qarashlari o‘rin oladi. Bu holatlarning barchasi jamoatchilik fikrini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi.

Mutaxassislarning ta’riflashicha ilk bloglardan biri hisoblangan “Scripting News” blogining muallifi Dev Vayner “Garvard Universiteti bloglari: blogni nima blog qiladi” (2003-yil 23-may) nomli maqolasida blogga shunday ta’rif beradi: “Blog – matn, rasmlar, media ob’ekt va ma’lumotlarning xronologik tartibda ketma ket joylashgan ko‘rinishi”. U o‘z fikrini weblogs yangiliklari saytida chop etgan “Bloglar tarixi” nomli maqolasida rivojlantirib, deydi: “Bloglar gid yordamida bilib boradigan davomiy sayohatning bir ko‘rinishidir. Bu yerda tanlash mumkin bo‘lgan bir nechta qo‘llanmalar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z auditoriyasiga ega”. Boshqa bir mutaxxasis, Debbi Veyl, blog atamasini keng ma’noda tushunadi va o‘z fikrini quyidagicha bildiradi: “Blog – o‘z ishonchli taassurotlarini, fikrlarining tahrirlanmagan shakli; tez-tez yangilanib turadigan ma’lumotlarning online jurnali; o‘z o‘quvchilari yordamida yangi jamiyat yaratishning bir yo‘li; talabalarga qanday yozishni o‘rgatish vositasi; mijozlar bilan munosabat o‘rnatishning yangi yo‘li; yirik kompaniyalarda malaka oshirishning yangi shakli; ishsizlarni band qilish yo‘li” deb javob beradi. Hozirgi ko‘rinishdagi bloglar internetdan foydalanuvchilar o‘z hayotlarini yoritib turishadigan online kundaliklardan kelib chiqqan. Demak, guvohi bo‘lganimizdek, blog bugun online-kundalik darajasidan o‘sib, yirik ijtimoiy hodisa sifatida shakllanib ulgurdi. Bu esa o’z navbatida jamoatchilik fikrini shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, blogosfera – bu zamonaviy axborot makoni bo‘lib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda kuchli vositadir. U oddiy internet foydalanuvchisini ham axborot tarqatuvchi, tahlilchi va fikr yetkazuvchiga aylantirish imkonini beradi. Shu boisdan, hozirgi axborot asrida blogosfera tahlilchilarning, sotsiologlarning va ommaviy axborot vositalari tadqiqotchilarining alohida e’tibor qaratadigan sohasiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.blogpascher.com/2-ta-blog/a-blog-deb-bu-nima-aniqlikdagi-va-tushuntirish
2. https://erkinfikr.wordpress.com/2016/02/04/bloglar-haqida-qisqacha-malumot
3. https://erkinfikr.wordpress.com/2016/02/04/Garvard Universiteti bloglari:blogni nima blog qiladi” (2003-yil 23-may)
4. https://weblogs.com/2003/Bloglar-tarixi-maqola
5. https://www.researchgate.net/publication/364298733_The_use_of_blogs_as_social_media_tools_of_political_communication_citizen_journalism_and_public_opinion_20

Manzura KURBONMUROTOVA
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

INGLIZ VA O‘ZBEK OAV TILIDA SIYOSIY SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan siyosiy leksikaning leksik-semantik jihatlari o‘rganilgan. Siyosiy matnlarda ishlatilgan so‘z va iboralarning ijtimoiy ongga ko‘rsatadigan ta’siri, ularning ma’no qatlamlari, konnotativ, stilistik hamda metaforik xususiyatlari tahlil etilgan. Ingliz va o‘zbek media tilida uchraydigan siyosiy leksik birliklarning qo‘llanish tezligi, sinonim va antonim shakllari, shuningdek, terminologik farqlari qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqolada madaniy tafovutlarni siyosiy tilning shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ham ochib berilgan. Tadqiqot natijalari siyosiy nutqning o‘ziga xos muloqot vositasi sifatida ijtimoiy jarayonlarga semantik jihatdan yondashish imkonini berishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy til, semantik tahlil, ommaviy axborot tili, inglizcha siyosiy diskurs, o‘zbekcha siyosiy matnlar, konnotativ ma’no, sinonim-antonim birliklar, madaniy farqlar, media tili.

Annotation: this article explores the lexico-semantic features of political vocabulary used in English and Uzbek mass media. It analyzes how political words and expressions influence public opinion, focusing on their semantic layers, including connotative, stylistic, and metaphorical meanings. The study presents a comparative analysis of the frequency of use, synonymy, antonymy, and terminological differences of political lexical units in English and Uzbek media discourse. It also examines how cultural differences impact the formation and use of political language. The findings reveal that political discourse serves as a unique communicative tool and that its semantic analysis provides deeper insight into social processes.

Key words: political language, semantic analysis, mass media discourse, English political discourse, Uzbek political texts, connotative meaning, synonym-antonym relations, cultural differences, media language

Лексико-семантические особенности политической лексики в английских и узбекских средствах массовой информации

Аннотация: в данной статье рассматриваются лексико-семантические особенности политической лексики, используемой в английских и узбекских средствах массовой информации. Анализируется влияние политических слов и выражений на общественное мнение, а также их семантические уровни, включая коннотативные, стилистические и метафорические значения. Представлен сравнительный анализ частотности употребления, синонимии, антонимии и терминологических различий политических единиц в английском и узбекском медиадискурсе. Особое внимание уделено влиянию культурных различий на формирование политического языка. Результаты исследования показывают, что политический дискурс является особым коммуникативным средством, а его семантический анализ позволяет глубже понять социальные процессы.

Ключевые слова: политический язык, семантический анализ, медиадискурс, английский политический дискурс, узбекские политические тексты, коннотативное значение, синонимы и антонимы, культурные различия, язык СМИ

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, siyosiy diskursda qo‘llanilayotgan til vositalari — so‘zlar, iboralar, metaforalar va boshqa leksik birliklar — auditoriyani ma’lum bir yo‘nalishda fikrlashga undash, ijtimoiy ongni shakllantirish va muayyan ideologiyalarni ilgari surishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, siyosiy leksikaning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur o‘rganish media tilining zamonaviy talqinini tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida faol qo‘llanilayotgan siyosiy so‘zlarning semantik tuzilmasi, ularning stilistik xususiyatlari, konnotatsiyaviy ma’nolari va madaniy kontekstdagi farqlari tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek media diskursining qiyosiy tahlili orqali siyosiy leksika namoyon bo‘lishining umumiy va milliy xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot siyosiy matnlar tilini leksik-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali OAVning kommunikativ funksiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Siyosiy leksika va uning semantik xususiyatlari tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada xorijiy tadqiqotchilar – jumladan, V.I. Karasik, T.A. van Deyk, N.D. Arutyunova, S. Black, Ch. Beard kabi olimlar siyosiy nutqning tarkibiy tuzilmasi, leksik vositalarning kommunikativ va manipulyativ funksiyalari hamda diskursdagi o‘rni haqida chuqur ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning ishlarida siyosiy til vositalari

orqali ijtimoiy ongga ta’sir o‘tkazish mexanizmlari, shuningdek, siyosiy matnlarning semantik qatlamlari atroflicha yoritilgan.

Mahalliy tilshunoslar – xususan, A. Madvaliyev, M. Jo‘rayev, Sh. Yusupova, R. Rasulov kabi olimlar esa o‘zbek tilidagi ommaviy axborot matnlarining leksik-stilistik xususiyatlarini, so‘z boyligi va uslubiy rang-barangligini tahlil qilganlar. Biroq ingliz va o‘zbek siyosiy leksikasining o‘zaro qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar hali kam uchraydi, bu esa mavzuning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, ingliz va o‘zbek OAV materiallari asosida siyosiy leksik birliklarning leksik-semantik tahlilini qiyosiy yondashuv asosida amalga oshiradi.

Metodologik asoslar

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

— tavsifiy yondashuv – siyosiy so‘z va iboralarning umumiy tavsifi va lingvistik xususiyatlarini aniqlash uchun;

— qiyosiy tahlil – ikki tildagi siyosiy leksik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslash uchun;

— korpus tahlili – OAVdan tanlab olingan real matnlar asosida siyosiy terminlarni ajratish va tahlil qilish uchun;

— semantik tahlil – siyosiy so‘zlarning denotativ va konnotativ ma’nolarini chuqur o‘rganish uchun;

— diskursiv yondashuv – siyosiy nutqdagi til vositalarining kontekstual vazifasini aniqlash uchun.

Natija va muhokamalar

Tadqiqot davomida olingan natijalar ingliz va o‘zbek ommaviy axborot vositalarida ishlatilayotgan siyosiy leksik birliklarning leksik-semantik jihatdan sezilarli farqlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Jumladan, ingliz tilidagi siyosiy matnlarda turli xil sinonimlar, obrazli va metaforik ifodalarning faol ishlatilishi kuzatildi. Ayniqsa, xalqaro munosabatlar, siyosiy bahs-munozaralar va tanqidiy tahlillarda ko‘p ma’noli, konnotativ rangga ega so‘zlar tilning ekspressivligini oshiradi.

O‘zbek tilidagi siyosiy matnlarda esa aksincha, uslubiy jihatdan rasmiylik, aniqlik va betaraflik asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tilda yozilgan siyosiy axborotlar, odatda, an’anaviy ifoda vositalariga tayangan holda, ijtimoiy muvozanatni saqlashga qaratilgan neytral leksik birliklardan iborat bo‘ladi. Bunday farq siyosiy diskursda til tanlash madaniy hamda ijtimoiy omillarga bog‘liqligini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, ingliz tilidagi matnlarda siyosiy holat va hodisalarni tasvirlashda kuchli metaforik yondashuv kuzatilsa, o‘zbek matnlarida bunday ifodalar sezilarli darajada kam uchraydi. Bu esa OAV tilida stilistik yondashuvlar turlicha bo‘lishi, ya’ni milliy madaniyat va tilning o‘ziga xosligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘rganilgan siyosiy leksik birliklar orasida sinonimiya, antonimiya, konnotatsiya va terminologik tafovutlar kabi semantik xususiyatlar chuqur tahlil qilindi. Ularning semantik kuchi ko‘pincha kontekstda ochiladi, bu esa til vositalarining faqat grammatik emas, balki mantiqiy va ideologik yukini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot yakunlari shuni tasdiqlaydiki, siyosiy leksika oddiy axborot yetkazish vositasi bo‘lish bilan birga, jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi kuchli kommunikativ resurs hisoblanadi. Uning mazmuniy tahlili orqali siyosiy jarayonlar va media nutqining ichki tuzilmasini chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalarida qo‘llaniladigan siyosiy leksikaning leksik-semantik jihatlari qiyosiy asosda tahlil qilinib, muhim xulosalarga kelindi.

- Ingliz tilidagi siyosiy matnlarda stilistik boylik, metaforik ifodalar va konnotativ ma’noli so‘zlarning faol qo‘llanilishi kuzatildi. Bu esa axborotni nafaqat yetkazish, balki o‘quvchi ongiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini ham kengaytiradi.
- O‘zbek siyosiy diskursida esa rasmiylik va an’anaviylik yetakchi o‘rinni egallaydi. Til uslubi, odatda, bevosita, tushunarli va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yo‘naltirilgan neytral so‘zlar bilan ifodalanadi.
- Har ikkala tilga xos siyosiy leksika vositalari semantik jihatdan o‘zaro farqlanadi. Tadqiqot davomida sinonimiya, antonimiya, metafora, terminlar va konnotatsion birliklar asosiy o‘rganish obyekti bo‘ldi.
- Til vositalarining tanlanishida madaniy muhit va ijtimoiy kontekst muhim rol o‘ynaydi. Har bir til o‘z siyosiy kommunikatsiyasi uchun ma’lum ifoda uslublarini shakllantirgan.
- Tadqiqot natijalariga ko‘ra, siyosiy leksika axborot tarqatuvchi omil bo‘lish bilan birga, jamiyatga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli kommunikativ vosita sifatida ham maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press, (2003).
2. Fairclough, N. *Media Discourse*. Edward Arnold Publishers, (1995).
3. Chilton, P. A. *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. Routledge, (2004).
4. Van Dijk, T. A. *Ideology: A Multidisciplinary Approach*. SAGE Publications, (1998).
5. Исламов, М. *Оммавий ахборот воситалари тилида сиёсий лексиканинг семантик таҳлили*. – Тошкент: Фан, (2018).
6. Karimov, I. *Leksikologiya: so‘z boyligi va uning tasnifi*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, (2010).

Hulkarjamol BOBOXONOVA,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti magistranti
Ilmiy rahbar — **Umida TURAYEVA,**
Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

INGLIZCHA MUSIQA ATAMALARINING O'ZBEK TILIGA KIRIB KELISH JARAYONI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga musiqa sohasi bilan bog'liq atamalarning o'tish jarayoni va ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida inglizcha musiqa leksik birliklarining fonetik, morfologik, semantik va uslubiy jihatlari ko'rib chiqilib, ularning o'zbek tilidagi moslashuvi va nutqda qo'llanilishi o'rganiladi. Maqola til o'zaro ta'siri, leksik o'zlashish jarayoni hamda yangi leksik birliklarning shakllanishi haqida ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi. Tadqiqot natijalari musiqa leksikasining rivojlanishiga va tilshunoslik hamda madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlariga muhim hissa bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tiliga o'zlashuv, lingvistik xususiyatlar, leksik birliklar, fonetik moslashuv, morfologik o'zgarishlar

Annotation: this article analyzes the process of the incorporation of music-related terms from English into Uzbek and their linguistic characteristics. The study examines the phonetic, morphological, semantic, and stylistic aspects of English music lexical units, their adaptation into the Uzbek language, and their usage in speech. The article presents a scientific approach to language interaction, the process of lexical adaptation, and the formation of new lexical units. The research findings contribute significantly to the development of music vocabulary as well as to linguistics and intercultural communication studies.

Key words: adaptation into Uzbek, linguistic features, lexical units, phonetic adaptation, morphological changes

Аннотация: в данной статье анализируется процесс проникновения терминов музыкальной сферы из английского языка в узбекский и их лингвистические особенности. В рамках исследования рассматриваются фонетические, морфологические, семантические и стилистические аспекты английских музыкальных лексических единиц, их адаптация в узбекском языке и использование в речи. Статья предлагает научный подход к изучению языкового взаимодействия, процесса лексической адаптации и формирования новых лексических единиц. Результаты исследования вносят важный вклад в развитие музыкальной лексики, а также в область лингвистики и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: адаптация в узбекский язык, лингвистические особенности, лексические единицы, фонетическая адаптация, морфологические изменения

Kirish

Tillararo bog'liqlik ortib bormoqda. Bu esa turli sohalarga oid atamalar va terminlarning tillararo o'zgarishini, ayniqsa, ingliz tilidan boshqa tillarga kirib kelishini faollashtirmoqda. Ingliz tili dunyoda xalqaro aloqa vositasi sifatida keng tarqalganligi sababli, musiqa sohasidagi ko'plab atama va iboralar o'zbek tiliga ham faol kirib kelmoqda.

Musiqa san'ati xalqaro madaniyatning muhim qismi bo'lib, unga tegishli terminologiya ham ingliz tilidan o'zbek tiliga o'tib, yangi leksik birliklar shakllanmoqda. Ushbu jarayon so'zlarning fonetik, morfologik, leksik va uslubiy xususiyatlarida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli inglizcha musiqa atamalarining o'zbek tiliga moslashuvi va ularning lingvistik xususiyatlarini o'rganish bugungi tilshunoslikda katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada inglizcha musiqa atamalarining o'zbek tiliga kirib kelish mexanizmlari tahlil qilinadi hamda ularning lingvistik jihatlari — fonetik, morfologik, semantik va uslubiy tomonlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra til o'zaro ta'siri, o'zlashuv jarayoni va yangi leksik birliklarning shakllanishi haqida ilmiy qarashlar taqdim etiladi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya

Musiqa terminlarining ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelish jarayoni bugungi tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir. Shu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlarda til o'zgarishi, madaniyatlararo almashuv va terminlarning semantik, fonetik, morfologik xususiyatlari yoritilgan.

Xususan, D. Crystal (2010) tilning global ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida qanday rivojlanishini tushuntirib beradi. Richards va Schmidt (2013) esa musiqaga oid atamalarning tilshunoslikdagi o'rnini va ma'no doirasini izohlaydi.

O'zbek tilshunosligida esa so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar — N. Abdullaeva, J. Normurotov, D. Xoshimova va boshqalarning ishlari — yangi kirib kelgan so'zlarning til tizimiga qanday tarzda qo'shilishini, qanday fonetik va grammatik moslashuvlarga uchrashini tahlil qiladi.

Shunga qaramay, aynan ingliz tilidagi musiqa terminlarining o'zbek tilidagi shakllanishi va ishlatilishi hali

yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga intiladi va musiqiy leksik birliklarning lingvistik tahliliga bag‘ishlangan.

Tadqiqot davomida bir necha lingvistik tahlil metodlari uyg‘unlashtirildi. Asosiy metod sifatida taqqosloviy va tavsifiy yondashuv tanlandi. Dastlab ingliz tilidagi musiqa terminlari yig‘ildi va ular o‘zbek tilidagi variantlar bilan solishtirildi.

Analiz jarayonida turli lug‘atlar, internet resurslari, ijtimoiy tarmoq yozuvlari, musiqiy matnlar va ommaviy axborot vositalaridagi real foydalanish namunalaridan foydalanildi.

Fonetik jihatdan so‘zlarning tovush o‘zgarishlari, morfologik tahlilda esa qo‘shimchalarning qo‘llanishi va grammatik moslashuvi ko‘rib chiqildi. Semantik tahlil esa so‘zlarning ma’no doirasi va kontekstda qanday ishlatilishini aniqlashga qaratildi.

Natijada inglizcha musiqa atamalari o‘zbek tiliga qanday tarzda moslashgani va til tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Bu yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

Natijalar va tahliliy muhokamalar

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar ingliz tilidan musiqa sohasiga oid terminlarning o‘zbek tiliga turli usullar orqali o‘zlashayotganini ko‘rsatdi. Bu atamalar o‘zbek tilida shakllanishi, fonetik va morfologik moslashuvi, hamda stilistik xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilinar ekan, ularning faolligi ayniqsa og‘zaki va norasmiy nutq doirasida yuqori ekani aniqlandi.

Masalan, *rap*, *DJ*, *remix*, *track*, *cover*, *beat* kabi so‘zlar bugungi o‘zbek tilida keng qo‘llanilib, ko‘pincha o‘z asl shaklini saqlagan holda ishlatilmoqda. Biroq ba’zilari fonetik o‘zgarishlarga uchragan (*DJ* → *dijey*, *cover* → *kaver*). Bu holat ularning o‘zbek talaffuziga moslashtirilayotganidan dalolat beradi.

Morfologik jihatdan esa, inglizcha atamalar o‘zbek tilidagi grammatik qo‘shimchalar bilan uyg‘unlashgan: *bitchi*, *reperlik*, *remiks qilmoq*, *klipchi* kabi birliklar yangi shakllarda ishlatilmoqda. Bunday moslashuv o‘zbek tilining moslashuvchan morfologik tizimga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Semantik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bu atamalar ko‘pincha o‘zbek tilida ham asl ma’nosini saqlab qolgan. Ba’zilarining esa ma’nosi kengaygan yoki yangi konnotatsiyalarda ishlatila boshlagan. Uslubiy nuqtayi nazardan olib qaralganda, musiqa terminlari asosan norasmiy so‘zlashuvlarda, yoshlar va internet foydalanuvchilari orasida faol ishlatiladi, biroq rasmiy uslubga hali to‘liq kirib bormagan.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bu atamalarning o‘zlashuvi zamonaviy, madaniy va texnologik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, tilga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq nazoratsiz va me’yorsiz o‘zlashuvlar o‘zbek tilining sof leksik fonda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli yangi terminlarni o‘zlashtirishda ehtiyotkorlik va ilmiy yondashuv zarur.

Xulosa qilib aytganda, inglizcha musiqa atamalarining o‘zbek tiliga kirib kelishi tilning ochiqligi, yangilikka moslashuvchanligi va global kommunikatsiyadagi ishtirokini namoyon etadi. Bu esa, nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Global jarayonlar ta’sirida ingliz tili dunyo miqyosida yetakchi aloqa vositasiga aylangan bo‘lib, bu holat turli sohalarda, xususan, musiqa leksikasida ham o‘z aksini topmoqda. Tadqiqotda ingliz tilidagi musiqa atamalarining o‘zbek tiliga kirib kelishi, ularning tilimizdagi fonetik, morfologik, semantik va uslubiy o‘zgarishlari chuqur tahlil etildi.

Aniqlanishicha, bu sohadagi ko‘plab terminlar transliteratsiya yoki transkripsiya yo‘li bilan o‘zbek tiliga moslashgan. Ba’zi atamalar asl shaklida saqlanib qolgan bo‘lsa, boshqalari esa o‘zbek tilining tovush tizimiga moslab qayta shakllangan. Bundan tashqari, ayrim so‘zlar mavjud o‘zbekcha atamalar bilan yonma-yon ishlatilib, til boyligiga yangi ma’no qatlamlari qo‘shmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidan o‘zlashayotgan musiqa terminlari nafaqat madaniy almashuvga xizmat qilmoqda, balki o‘zbek tilining zamonaviy lug‘aviy tizimini boyitib, uni xalqaro darajadagi kommunikatsion ehtiyojlarga moslashtirishga yordam bermoqda.

Shu asosda aytish mumkinki, inglizcha musiqa leksik birliklarining o‘zbek tiliga kirib kelishi bu ikki til va madaniyat o‘rtasidagi tabiiy leksik integratsiya jarayoni bo‘lib, u tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева, Н. *Ўзбек тилида терминларнинг лексик-семантик хусусиятлари*. — Тошкент: Фан, (2020).
2. Crystal, D. (2010). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge University Press, (2010).
3. Нормуротов, Ж. *Замонавий ўзбек тилида лексик ўзгаришлар*. —Самарқанд: СамДУ нашриёти, (2019).
4. Албатов, Ж. *Тил ва маданият: ўзаро таъсир ва интеграция жараёнлари*. — Тошкент: Муҳаррир, (2018).
5. Richards, J. C., & Schmidt, R. *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics*. Routledge, (2013).
6. Хошимова, Д. “Интернет ва оммавий ахборот воситалари таъсирида ўзбек тилидаги лексик ўзгаришлар”. *Филология масалалари*, (2021). №2, 45–50-бетлар.
7. Oxford Music Online. *Glossary of Musical Terms*. Retrieved from: https://www.oxfordmusiconline.com/, (2022).

Mahfuza MADAMINOVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
O‘zbek tili va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

SHOIRA SHAMS IJODI LINGVOPOETIK TAHLILI . “SAMANDAR” DEVONIDA QO‘LLANILGAN ANTONIMLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada devonda ishlatilgan antonimlar tuzilishi, qarama-qarshi ma’noni hosil qiluvchi vositalar, antitezaning tasniflari va ularning badiiy ohangdorligini oshiruvchi omil vazifasini bajarganligi hamda devonda qo`llanilgan antitezalarning tuzilishi jihatdan tasniflanishi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: antonim, zidlash, sof antonimlar, qarama- qarshilik, tasdiq-inkor fe’l.

Annotation: this article discusses the means of creating antithesis in ghazals in the divan, the classifications of antithesis and their role as a factor that enhances artistic melodiousness, and the structural classification of antitheses used in the divan.

Key words: antithesis, antonym, contradiction, pure antonyms, opposition, affirmative-negative verb.

Аннотация: в статье рассматриваются способы создания антитезы в газелях дивана, классификации антитезы и ее роль как фактора, усиливающего художественную мелодичность, а также структурная классификация антитез, используемых в диване.

Ключевые слова: антитеза, антоним, противоречие, чистые антонимы, оппозиция, утвердительно-отрицательный глагол.

Antonimlarning o‘zaro zid (qarama-qarshi) ma’noga ega so‘zlar ekani deyarli barcha tomonidan e’tirof etiladi. Lekin ma’nodagi ana shu zidlik (qarama-qarshilik)ni tushunish, belgilash va talqin qilishda bir xillik yo‘q. Shuning uchun ham garchi zid ma’noli so‘zlarning antonim bo‘lishi ta’kidlansada, ikki so‘zning antonimligini belgilash (tan olish) da har xilliklar, qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ma’nodagi zidlik haqidagi gap juda umumiy bo‘lib, bu zidlik nimada ekanini aniqlashtirilmaguncha, ikki so‘zning antonimligini to‘g‘ri belgilash hamma vaqt ham mumkin bo‘lavermaydi. Antiteza atamasi zid ma’noli so‘zlarning boshqacha nomlanishi bo‘lib, asarda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi.

Antiteza (antithesis – qarama-qarshi qo‘yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma’noli qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, so‘z va iboralardan foydalaniladi. “Zidlashda voqea, hodisa, belgilarni o‘zaro zid qo‘yib, shulardan birining belgisi alohida ta’kidlanadi. Zidlash hodisasi ham ikki komponentdan iborat bo‘ladi va keyingi komponentdan anglashilgan mazmun ta’kidlanadi. Demak, zidlashda ikki qism mavjud: zidlovchi qism va zidlash asosida ta’kidlanuvchi qism”. Zidlash asosan bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gap shakllarida kuzatiladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko‘zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko‘rinadi.

Devonda qo`llanilgan antitezalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

▶ Sof antonimlar asosida shakllangan antitezalar.

Masalan:

Ishq aro **shoh**-u **faqir** ayrosi yo`q,
Hajrida devonadirlar telbarib.

Nechakim nur sochmasin bu xonumonimga **quyosh**,
Soyayi g`amdin chiqolmas beumidlar maskani.

Ayla nazar ko`yingda har **shoh**-u **gadog`a**, Rabbano,
Zikr ila otingda magar tushsa sanog`a, Rabbano.

Bu misralarda ot so`z turkumiga mansub so`zlar yordamida antiteza yuzaga kelgan. Shoiraning bu mahorati baytlarda qarshilantirish (mumtoz adabiyotda bu usul tazod deb yuritilgan) ni yuzaga keltiribgina qolmasdan, ma’no ta’sirini kuchaytirish va inkorning miqdordan oshib befoydaligini ta’kidlamoqda.

Masalan:

Shoira, dersan dilingda borini
Gohi **yolg`on**, gohi **chindekkina**.

Antonimlar mavhum ma’noni ifodalaydigan so‘zlarda ko‘proq aniq tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlarda kamroq uchraydi. Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo‘yicha munozarali qarashlar

ham bor. Xususan, ayrim manbalarda opa va singil, aka va uka, tog‘a va xola kabi so‘zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, korrelativ so‘zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma’nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi. Fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari (bordi va bormadi, boray va bormay, ko‘rgan va ko‘rmagan kabi formalari) ayrim adabiyotlarda “antonimlarning alohida bir tipi...” deb qaraladi, biroq, tilshunos Sh.Rahmatullayev bu fikrga qo‘shilmaydi. Uningcha, “Oddiy inkorning o‘zi hali antonim emas. Masalan, ayt va aytma, aytar va aytmas kabilar biri ikkinchisining inkori. Ammo ularni o‘zaro antonimlar deb bo‘lmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki ayni bir leksemaning ikki (bo‘lishli va bo‘lishsiz) shakllaridir. Antonimiya esa ikki leksema orasidagi ma’no munosabatidir...” Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor. Antonimiya mezonini belgilashda Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan mantiqiy markaz prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi.

Bayt mazmunidan anglash mumkinki, antitezani hosil qilgan so`zlar: yolg`on, chindekkina. Xususiyat sifatlari o`z o`rnida insonni shubhaga soladi. Aynan, ijodkorning fikrlariga chuqurroq mushohada talab qilgandek ko`rinadi. So`z tarkibidagi -kina(-gina) qo`shimchasi , uning ma`nosini kichraytiruvchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Masalan:

Bo`lmagay sen birla **vayron** ishq ila **obod** ko`ngil,
Ko`zlaring birla binodur ko`zlarimning ravshani.

Vayron va obod kabi sifatlar bilan bayt mazmuni yaxlit antitezali birikmani shakllantirgan.

Masalan:

Qayga, deb olam izidan **yig`ladi**,
Ul **kulib** der: intizor o`ldi habib.

Jon bila kirdi tanimga furqating savdolari,
Chiqsa ham jon dard ila, ag`yor inonmasdir nega?

Umiddin qasr **bunyod etdi** qalbim,
Baloyi hajr ila **buzmasmikin**-o.

Tabiiyki, devondagi bu vositalar o`ziga xos shakllarda ifoda etilib, har biri alohida vazifa bajaradi. Ijodkor ifodalayotgan fikrlarini aniqlashtirish, reallashtirish, ma`no kuchaytirish kabi bir qancha ma`nolarni kasb etadi.

- Fe’lning tasdiq-inkor shakliga asoslangan antitezalar.

Masalan:

Falakka yo`l **topibdur**, ammo **topmay,**
Kishi qalbiga yo‘l har jon tamosho.

Holatim elga **ayon**, senga a**yonmasdur** nega,
Dilda boring men uchun tilda bayonmasdur nega?

Bu davron **yig`latur** kimni, kima kulgu ravo ko`rmish,
Tilay, toki mani **yig`latmasin** hech dard-u dog`ingda.

Xulosa qilib aytganda, devonda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari ifodalilik va ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Tasniflashda bu kabi turlarning qo`llanilishi, ijodkorning mahoratidan dalolat beradi. Tilshunoslikdagi sof antonimlarni mumtoz adabiyotda qo`llanilishi asosida ma’noni yanada kengaytirish mumkin. Aynan bir doirada emas, balki, umumiy, kengroq tushunilishiga zamin yaratadi. Fe’lning tasdiq-inkor shakliga asoslangan antonimlarni qo`llash esa iyhom san’atini mazmunan yuzaga keltiradi, ya’ni bajargan yoki bajarmaganligi noma’lum bo`lib, insonni ikkilantiradi va shubhaga soladi, shu yo`sinda ikki xil ma’no kasb etadi. Shoira Shams devonida qo‘llanilgan antitezalar o‘zining jozibadorligi va realligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining tili va uslubi boshqa ijodkorlardan ajratib turuvchi o‘ziga xos individual jihatlari badiiy tasvir vositalarini qo‘llash orqali namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, shoiraning adabiy til taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi desak mubolag`a bo`lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbek tili leksikologiyasi. O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. – Toshkent:, Fan, 1981.

2. “Samandar” devoni. Shoira Shams/ “Quvonchbek- Mashhura” MCHJ – Urganch:, 2019.

3. Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T:, Fan, 2007.

4. www.in-academy.uz

5. Karimova G. Antonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference

Gulrux SATTOROVA,
Buxoro davlat universiteti
filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

YANGI O‘ZBEK NASRIDA HAJVIY HIKOYACHILIK TAKOMILI

(G‘afur G‘ulom ijodi bo‘yicha)

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi hajvchilik, xususan, G‘afur G‘ulom ijodi hajv yo‘nalishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Uning “Shum bola” qissasi, ,,Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi” hikoyalaridagi hajviy o‘rinlar ko‘rib chiqilib, ularning atroflicha tahlili borasidagi fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: hajv, yumor, hikoyachilik, jamiyat, ruh, janr, yo‘nalish, didaktik, hajviy portret, dialog.

Аннотация: в данной статье рассматривается сатира в узбекской литературе, в частности, творчество Гафура Гуляма с точки зрения сатирического направления. Анализируются сатирические элементы в его повестях “Шум бола” и “Афанди больше не умрёт”, излагаются размышления по поводу их художественного и идейного содержания.

Ключевые слова: сатира, юмор, повествование, общество, дух, жанр, направление, дидактика, сатирический портрет, диалог.

Annotation: this article analyzes satire in Uzbek literature, particularly focusing on the satirical elements in the works of G‘afur G‘ulom. It examines the humorous aspects in his story “The Mischievous Boy” and “Afandi Wouldn’t Die”, offering detailed reflections on their satirical content and artistic expression.

Key words: satire, humor, storytelling, society, spirit, genre, direction, didactic, satirical portrait, dialogue.

Bilamizki, yumor adabiyotdagi asosiy yo‘nalishlardan biridir. Kichkina bir yumor orqali juda katta masalalarni ochib berish mumkin. Yumor hayotda ham muhim ahamiyatga ega ekanligi uchun, adabiyotning ham ajralmas bir qismi hisoblanadi. Negaki, adabiyot hayotning in’ikosi hisoblanadi. Jahon adabiyotining ulug‘ vakillaridan bo‘lgan Mark Tven yumor haqida fikr bildira turib, shunday degan edi: “Faqat hayot haqiqati zaminida vujudga kelgan yumorgina uzoq yashashi mumkin. Asar mazmunida xalqqa muhabbat ruhi bo‘lmagan taqdirda ham kishilarni kuldirish mumkin, lekin bu foydasiz, bo‘sh bir narsa bo‘ladi”[1]. Darhaqiqat, yumor hayot bilan bevosita bog‘liq bo‘lsagina, kitobxon uni qabul qila oladi. G‘afur G‘ulom tomonidan qog‘ozga tushirilgan yumorlar xuddi shunday hayotiy, ishonarli, shuning uchun ham har bir o‘qigan kitobxonga birdek ta’sir qila oladi, shu bilan birgalikda, o‘yga ham toldirishi turgan gap. Chunki, yozuvchi har bir gapini, har bir o‘xshatishini chuqur o‘ylab, mulohaza qilib yozadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, G‘afur G‘ulom hajvchilik yo‘nalishi bo‘yicha o‘zidan keyingi davr adabiyotining juda ko‘p vakillariga ustoz hisoblanadi. Shunday yozuvchiladan biri Said Ahmad edi. “Aslida meni hajv yo‘liga G‘afur G‘ulom boshlab kirgan. Ma’lumki, G‘afur aka o‘ttizinchi yillarda hajv janrlarida ijod qildi. Ixcham kulgili hikoyalarning juda yaxshi namunalarini yaratdi. Men shu hikoyalar ta’sirida adabiyotga kirganman. Keyinchalik bu buyuk yozuvchi bilan tanishishim undan rostmana ijodiy ta’lim olishim hajvga bo‘lgan intilishimda juda katta yordam berdi”[2], degan edi atoqli yozuvchi Said Ahmad.

O‘zbek adabiyotida hajviy hikoyachilik janri muhim o‘rin tutadi. Bu janr orqali yozuvchi nafaqat kulgi uyg‘otadi, balki jamiyatdagi muammolar, illatlar, ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarni tanqidiy ruhda yoritadi. G‘afur G‘ulom bu borada o‘zining o‘tkir qalamiga, badiiy mahoratiga asoslanib, hajviy hikoyachilikka yangi ruh bag‘ishlagan yozuvchilardan biridir. Uning asarlari o‘zbek hajviy adabiyotining shakllanishi va takomilida katta ahamiyat kasb etadi. G‘afur G‘ulomning hajviy hikoyalari o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, maqollar, latifalar, hazil-mutoyiba an’analaridan oziqlangan. Uning hajviy asarlarida sodda xalq vakillari, ularning kundalik hayoti, turmushdagi kulgili holatlar orqali chuqur ijtimoiy mazmun beriladi. U hajv orqali insoniy kamchiliklar ustidan kulish, ularni tan olish va tuzatishga undaydi. Shu sababli ham adib hajviy asarlari ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Yozuvchining “Shum bola” asari, garchi katta hajmdagi asar bo‘lsa-da, undagi ko‘plab epizodlar hajviy hikoya sifatida alohida tahlil qilinishi mumkin. Asarda bosh qahramon – Shum bola ya’ni Qoravoy obrazida hayotga tashna, sho‘x, topqir, soddadil, lekin o‘z fikriga ega bo‘lgan xalq farzandi gavdalanadi. Uning sodda va beozor qiliqlari kattalarning sun’iy, riyo va dabdabali hayot tarzini ochib tashlaydi. Jumladan, Shum bolaning mashhur “katta yer va mulklar egasi bo‘lgan Sariboy bo‘lisni o‘zi ham bilmagan holda uch yolg‘onda qirq yolg‘onni qo‘llash usuli orqali mot qilish” voqeasi, yoki Eshon, Hoji bobo bilan bog‘liq sahnalari orqali muallif bolalarcha sho‘xlik bilan jamiyatdagi yetarli bo‘lmagan mehr, kambag‘allik, hamdardlik yo‘qolib borayotganini, uning o‘rnini ikkiyuzlamachilik, bir-birini aldash, xiyonat singari illatlar hajv orqali ochib beradi.

1 Марк Твен. Собр.соч. в 12 томах. Т.12. М. Советский писатель. 1961.- С.367.
2 Саид Аҳмад. Сайланма. Уч жилдлик. Учинчи жилд. Тошкент. 1982.-Б.39.

G‘afur G‘ulomning hajviy hikoyalaridan biri bo‘lgan ,,Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi” hikoyasi bevosita folklor bilan tutashib ketgan. Hikoyadagi Nasriddin Afandi obrazi orqali sal soddaroq, lekin shu bilan birgalikda o‘z ishining ustasi, pul topishni yaxshi ko‘radigan insonni ko‘rgandek bo‘lamiz. Ammo uning pul topish yo‘li biroz boshqacharoq edi, ya’ni yo‘lda ketayotib yo‘qotib qo‘ygan uch mirilik Buxoro tangasini qidirib, yo‘lovchilarni o‘g‘ri gumon qilishi orqali ularning pulini undirardi. Shu zaylda Afandi besh yil-u uch oyini sarflaydi. Lekin ahdidan qaytmaydi, nega deganda, o‘tgan-qaytgan yo‘lovchilardan uch miri undirish o‘ziga ham yoqib qolgandi. Lekin bu Xudoga yoqmaydi va Azroil va bir farishtasini uning oldiga yuboradi. Ular Afandiga boshqa hunar-tabiblikni o‘rgatishadi. Boshida Nasriddin Afandi hayron bo‘lib qoladi, ,,men qanday qilib tabiblik qilaman, axir alifbo kaltak deydigan savodsiz” bo‘lsam deydi. Azroil esa buning yo‘li osonligini, bir nechta xaltacha tikib, ichiga har xil o‘tlarni solib qo‘ysa va mahallasiga borib, tushiga kirib hazrati Luqmon og‘ziga tupurib ketganligini aytsa, shuning o‘zi kifoya ekanligini ta’kidlaydi. Hikoyaning aynan shu o‘rnida yozuvchining hajv orqali jamiyatdagi kamchiliklar va illatlarni fosh etayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki bu bilan o‘zi yashagan davrdagi tabiblarning aksariyati aslida bilimsiz, yetarli salohiyatga ega emasligini aytmoqchi bo‘lgan. Hikoyadagi, “Tabibchilikka ilmning hojati yo‘q. Xuddi sendaqa avomlardan tabibning zo‘ri chiqadi”, – deb aytilgan o‘tkir kesatiqli gaplar fikrimizning isbotidir. Bundan tashqari hikoyaning boshlanish o‘rnida tanga, umuman olganda pul haqidagi Nasriddin Afandi tilidan keltirilgan fikrlar ham diqqatga molikdir. “Ey, tavba, bir misqol kelar-kelmas qalay aralashgan kumush bo‘lsa, ikki tomonida aji-buji xatlari bo‘lsa, na san’ati, na qadr-qiymati bo‘lsa, ana shu bir burda tangaga ne-ne kishilar muhtoj bo‘lsa, ne-ne barno ayollar, ne-ne azamat davangirday yigitlar sakkiz no‘xat og‘irligidagi shu temirga ertadan qaro kechgacha ishlasa… Shu tangang bo‘lmasa, obro‘ying bir pul, aqlu farosating, ilming hemiri, qavmu qarindosh begona, do‘stu oshno sendan uzoq, hamma eshiklar betingga yopiq, bozor-o‘chardan qadaming qirqilgan, bola-chaqa och, o‘zing yalang‘och. Ajab zamona ekan-da” degan juda o‘rinli mulohazalarni keltiradi va quyidagi she’riy parchani ilova qiladi.

Ajab zamonada qoldik,
Yaqolar bo‘ldi etak,
Bo‘z paytava bo‘ldi,
Boshga chiqdi patak.

Yuqoridagi nasriy va she’riy parcha bilan tanishar ekanmiz, o‘sha davr ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini, insonlarning turmush-tarzini bir qadar tasavvur qilamiz. Pul nechog‘lik ahamiyat kasb etib borayotganligini, uni topish uchun aholi kecha-yu kunduz tinimsiz ishlashi kerakligini anglaymiz. Shuningdek, jamiyatdagi insonlarning o‘rni ham, afsuski, aynan shu ,,tanga” insonlarning qancha mablag‘i borligiga ko‘ra o‘lchanishini muallif yuqoridagi parcha vositasida aytib o‘tadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ijodkor hajv vositasida jamiyatdagi juda ko‘p masalalar borasidagi o‘zining fikr hamda o‘ylarini aytib o‘tgan.

Shuningdek, G‘afur G‘ulomning hajviy hikoyalarida tildan juda mohirona foydalanilgan. Uning uslubida xalqona ohang, so‘z o‘yinlari, kinoya, istehzo, dialektal so‘zlar, fonetik o‘xshatishlar keng qo‘llaniladi. Bu esa hikoyalarning o‘qilishi oson, qiziqarli va esda qolarli qiladi. G‘afur G‘ulom ijodida hajviy hikoyachilikning takomillashuvi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Hajvning ijtimoiy-tarbiyaviy yo‘nalishini kuchaytirishi, ya’ni kulgi orqali ijtimoiy fikr uyg‘otish;
2. Obraz yaratishda hajviy portret, dialog va til vositalaridan samarali foydalanishi;
3. Hajv orqali ma’naviy poklanishga undovchi g‘oyalarni ilgari surishi;
4. Bolalar obrazida kattalarning illatlarini fosh etish orqali universal badiiy ta’sir kuchini oshirishi;
5. Kulgi vositasida didaktik (tarbiyaviy) vazifani bajarishi.

Xulosa. G‘afur G‘ulom o‘zining hajviy hikoyalari orqali o‘zbek adabiyotiga katta hissa qo‘shgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi. Uning asarlari bugun ham dolzarbligini yo‘qotmagan, balki yangi avlod uchun ma’naviy saboq manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. U hajvni yengil kulgi emas, balki chuqur fikr, axloqiy pozitsiya, ijtimoiy baho sifatida talqin etgan. Ayniqsa, “Shum bola” asaridagi hajv elementlari uning hajvchilikda qanday mahoratga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. G‘afur G‘ulom o‘z asarlari orqali jamiyatga ijtimoiy oyna tutgan, uni kulgi orqali isloh qilishga da’vat etgan adib sifatida o‘zbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afur G‘ulom. “Shum bola”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
2. G‘afur G‘ulom. “Yodgor”. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
3. Rasulov B. “O‘zbek hajviy adabiyoti tarixidan”. – Toshkent: Fan, 1982.
4. Mamarasulov B. “O‘zbek nasrida hajviylik an’analari” // Filologiya masalalari. – 2010, №2.
5. G‘aniyeva G. “G‘afur G‘ulom ijodi”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001.

Asroriddin SAYDAZIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
o‘zbek tili va adabiyot o‘qitish metodikasi 1-kurs magistranti

AUDIO ASARLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada audio asarlar asosida o‘quvchilarga esse yozishni o‘rgatish va uni ta’lim jarayonida tizimli yo‘lga qo‘yish masalasi nazariy va amaliy asosda tadqiq etilgan. Esse yozish kompetensiyasining zamonaviy talablari ochib berilgan, keyinchalik audio materiallarning ta’siri va afzalliklari tahlil qilingan. Jahon tajribasiga tayangan holda, multimodal yondashuvning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Maqola yakunida esa pedagogik va ilmiy-innovatsion takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston ta’lim tizimida audio vositalar yordamida esse yozish ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali yo‘llarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: audio asar, esse yozish, tinglab yozish, multimodal yondashuv, interaktiv metod, yozma nutq, ta’lim samaradorligi.

Аннотация: в статье теоретически и практически исследована методика обучения написанию эссе на основе аудиоматериалов. На основе зарубежного опыта и экспериментального подхода обоснована эффективность аудиосредств в развитии письменной речи учащихся. Даны научные предложения по внедрению данной методики в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: аудиопроизведение, написание эссе, аудирование с последующим письмом, мультимодальный подход, интерактивный метод, письменная речь, эффективность обучения.

Annotation: this article explores the methodology of teaching essay writing based on audio materials from both theoretical and practical perspectives. Drawing on international experience and experimental research, it demonstrates the effectiveness of audio tools in developing students’ writing skills. Scientific recommendations are provided for implementing this method within the Uzbek education system.

Key words: audio text, essay writing, listening-to-writing, multimodal approach, interactive method, written speech, educational effectiveness.

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy ifoda ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, esse yozish – bu nafaqat til va adabiyot fanlaridagi muhim topshiriq turi, balki shaxsning mantiqiy tafakkuri, emotsional-intellektual holatini va dunyoqarashini aks ettiruvchi nutqiy faoliyat shaklidir. Shu bois, esse yozishni samarali va tizimli o‘rgatish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalarini, xususan, audio materiallarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Audio asarlar – bu tinglab qabul qilinadigan, badiiy va informatsion mazmunga ega bo‘lgan, turli formatdagi ovozli mahsulotlar bo‘lib, ular o‘quvchilarda eshitish orqali tushunish, obrazlarni tasavvur qilish va muallif g‘oyasini sezish, o‘rganish va tahlil qilish kabi psixolingvistik jarayonlarni faollashtiradi. Bugungi kunda audiokitoblar, dramatik sahnalar, podkastlar va radio spektakllar nafaqat estetik tarbiya, balki til o‘rganish va yozma nutqni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, esse yozish jarayonida audio asarlardan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, izchil va badiiy ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 14-dekabr 781-sonli qarorida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va adabiy tafakkurini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan. Bu esa audio vositalardan foydalanishga asoslangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

Dunyo miqyosida ham ushbu yo‘nalishda izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, AQShdagi “Audible Education” dasturi, Buyuk Britaniyada

“BBC Learning” platformasi orqali badiiy asarlarni tinglab tahlil qilish va yozma ifoda qilish ko‘nikmalarini shakllantirish tajribasi bunga yaqqol misoldir. Bundan tashqari, audiopsixologiya, psixolingvistika va didaktika yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlar ham tinglab yozish kompetensiyasining keng imkoniyatlarga ega ekanini isbotlamoqda.

Ushbu maqola doirasida o‘rganilgan audio asarlar asosida esse yozishni o‘rgatishning nazariy, metodik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim tizimiga audio asosli yondashuvni joriy etish, bu orqali yozma nutqni rivojlantirish, o‘quvchining fikrni mustaqil shakllantirish salohiyatini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Maqolaning maqsadi – o‘rganilgan audio asarlar asosida esse yozishni o‘rgatish jarayonini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslab berish, hamda uni ta’lim tizimida tizimli yo‘lga qo‘yish taklifini ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism

Esse – bu muallifning shaxsiy fikr va mulohazalarini erkin tarzda ifodalovchi nasriy asar bo‘lib, unda muayyan mavzu yoki muammo yuzasidan individual yondashuv aks etadi. Esse janri G‘arb adabiyotida, xususan, fransuz yozuvchisi Mishel Monten (1533–1592) tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, u o‘zining “Essais” (Sinovlar) nomli asari orqali bu janrning asoschisi hisoblanadi.

Esse janrining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

— erkin kompozitsiya. Esse qat’iy tuzilma talab qilmaydi, muallif o‘z fikrlarini erkin tarzda bayon qiladi;

— subyektivlik. Muallifning shaxsiy fikr, munosabat va hissiyotlari asosiy o‘rinda turadi;

— tahliliy yondashuv. Muammo yoki mavzu yuzasidan chuqur tahlil va mulohazalar yuritiladi.

— badiiylik. Til vositalaridan samarali foydalanish orqali asarga badiiylik baxsh etiladi.

O‘zbek adabiyotida esse janri nisbatan yangi bo‘lsa-da, u tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilar o‘z asarlarida esse janrining o‘ziga xos namunalarini yaratganlar. Shukur Xolmirzayev esse haqida shunday deydi: “Esse yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi” .

O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida esse janriga oid tadqiqotlar ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan. Jumladan, U.Normatov, N.Rahimjonov kabi olimlar esse janrining o‘ziga xos xususiyatlari, uning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritganlar. Adabiyotshunos N.Rahimjonov “Esse va badi’achlik bo‘yicha olib borgan taqdiqotlaridan e’tiboran shoir va yozuvchilarning hayot va adabiyot masalalariga doir adabiy o‘ylari — badealardan iborat katta xirmon ko‘tarildi deb e’tirof etish mumkin”.

Audio asarlar – bu tinglab qabul qilinadigan, badiiy va informatsion mazmunga ega bo‘lgan, turli formatdagi ovozli mahsulotlar bo‘lib, ular o‘quvchilarda eshitish orqali tushunish, obrazlarni tasavvur qilish va muallif g‘oyasini sezish kabi psixolingvistik jarayonlarni faollashtiradi.

Audio asarlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

— dramatizatsiyalangan hikoyalar. Badiiy asarlarning sahnalashtirilgan audio variantlari bo‘lib, ular tinglovchiga voqealarni jonli tasavvur qilish imkonini beradi;

— badiiy podkastlar. Muayyan mavzu yoki muammo yuzasidan muallifning fikr va mulohazalari audio shaklda taqdim etiladi;

— audiokitoblar. Kitoblarning professional ovozli o‘qilishi bo‘lib, ular o‘quvchilarga matnni eshitish orqali tushunish va tahlil qilish imkonini beradi.

Audio asarlar o‘quvchilarning tinglab tushunish, tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, ular o‘quvchilarning badiiy tafakkurini shakllantirish, tasavvurini boyitish va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy didaktikada multimodal yondashuvlar, ya’ni o‘quvchining eshitish, ko‘rish, his qilish va anglash orqali o‘rganishini ta’minlaydigan usullar alohida o‘rin egallamoqda. Audio asarlar yordamida esse yozishga o‘rgatish ham shunday yondashuvlardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat yozma nutqini, balki eshitib tahlil qilish, nutqiy estetikani tushunish va obrazli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

1. “Tingla – tushun – yoz” modeli.

Ushbu model uch bosqichli ta’lim strategiyasiga asoslanadi:

1. Tingla – o‘quvchilarga dramatik hikoya, audiokitob yoki podkastdan parchalar tinglatiladi.

2. Tushun – tinglangan material ustida muhokama, asosiy g‘oyani tahlil qilish, obrazlarni baholash ishlari amalga oshiriladi.

3. Yoz – tinglangan material asosida esse yozish vazifasi beriladi.

Ushbu model doirasida quyidagi didaktik maqsadlar amalga oshiriladi:

— muallif g‘oyasini tushunish va uni talqin qilish;

— obrazlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

— shaxsiy munosabat bildirish va tahliliy fikr yuritish.

— estetik baho berish asosida individual yondashuv shakllantirish.

2. O‘rta va oliy ta’lim muassasalarida tatbiq etish

O‘rta maktabda:

8–10-sinflarda qisqa hikoya yoki ertak asosidagi audio materiallar (3-5 daqiqalik) tanlanadi.

Tinglashdan so‘ng savol-javob va tahlil mashqlari beriladi.

“Siz asar qahramoni o‘rnida bo‘lganingizda qanday harakat qilgan bo‘lardingiz?” kabi esse topshiriqlari tuziladi.

Oliy ta’limda:

Klassik yoki zamonaviy nasr asarlari audioversiyalari tanlanadi.

Murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzular ustida esse yozish mashqlari bajariladi.

Tahliliy, polemik yoki problematik esse janrlari asosida topshiriqlar tuziladi.

Dars ishlanmalari (namuna)

Dars mavzusi: Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining dramatizatsiyalangan parchasini tinglash asosida esse yozish

Dars bosqichlari:

1. Kirish. O‘quvchilarga tarixiy roman va uning yozilish davri haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

2. Tinglash. Romandan 5–7 daqiqalik dramatizatsiyalangan sahna audio shaklda tinglatiladi.

3. Tahlil. Qahramonlar xarakteri, voqealar rivoji va muallif pozitsiyasi muhokama qilinadi.

4. Yozish. “Oila fojiasi” mavzusida tahliliy esse yozish topshirig‘i beriladi.

5. Baholash. Esse quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

— muallif g‘oyasini to‘g‘ri anglash;

— fikrning izchilligi va mantiqliligi;

— til boyligi va grammatik to‘g‘rilik;

— shaxsiy yondashuv va badiiy ifoda.

Metodik tavsiyalar

Audio asar sifatida talaffuzi ravon, emotsional ohang bilan o‘qilgan namunalarni tanlash muhim.

Tinglash oldidan savol yo‘llarini berish o‘quvchilarning diqqatini asosiy fikrlarga yo‘naltiradi.

Tinglashdan so‘ng klaster, fishbone, insert kabi grafik tahlil usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘quvchilarni tahliliy fikrga olib kirish uchun “Agar siz qahramon o‘rnida bo‘lsangiz...” kabi shartli vaziyatlar yaratiladi.

Baholashda nafaqat grammatika, balki mazmun va tahliliy yondashuv ustun turadi.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda esse yozish o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va muloqot madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, multimodal metodikalar, ya’ni matn, audio, video, grafik ma’lumotlardan birgalikda foydalanish orqali esse yozishga o‘rgatish keng qo‘llanmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘quvchilarni esse yozishga o‘rgatishda “Active Listening and Critical Writing” modeli keng tatbiq etiladi. Bu modelga ko‘ra, o‘quvchilarga dastlab muayyan mavzudagi podkast, radio eshittirish yoki intervyu tinglatiladi, so‘ngra ular:

— asosiy g‘oyani ajratib olish,

— shaxsiy munosabat bildirish,

— tahliliy xulosalar chiqarish asosida esse yozishadi.

Kornell universitetida olib borilgan tadqiqotda tinglab yozilgan esselar ko‘proq ijodiylik va individual yondashuv ko‘rsatganini aniqlagan (Brown, 2021).

Buyuk Britaniya maktablarida “Literature through Audio” dasturi asosida ingliz adabiyotidan asarlar audio shaklda tinglatilib, ularning asosida reflektiv esse yozishni tajriba sifatida amaliyotda sinab ko‘rishgan. Bu metod o‘quvchining emotsional reaksiyasi, shaxsiy talqini va tajribasini yoritish orqali yozishni rag‘batlantiradi.

Cambridge Assessment Research markazining tadqiqotida aytilishicha, audio asosida yozilgan esselar nafaqat emotsional jihatdan boy bo‘ladi, balki muallif pozitsiyasini aniq ifodalaydi.

Sharqiy Osiyoda ta’limda texnologik vositalar keng qo‘llaniladi. Janubiy Koreyada “Audio-narrative response writing” usuli bo‘yicha, o‘quvchilarga qisqa audio hikoyalar tinglatilib, ularning asosida

“o‘zim bilan bog‘layman” yondashuvi orqali esse yoziladi. Bu metod orqali o‘quvchilar eshitgan voqea va o‘z hayotidagi tajribalarni bog‘lab, shaxsiy asoslangan esse yaratadi.

Yaponiya maktablarida esa har haftalik “audio writing session” darslari tashkil etilib, ularda podkastlar asosida esse yozish va og‘zaki taqdimot qilish birgalikda olib boriladi. Bu o‘quvchilarning tinglash–yozish–gapirish ko‘nikmalarini kompleks shakllantiradi.

Quyidagi tadqiqotlar esse yozish va audio vositalarning samaradorligini tasdiqlaydi:

— muallif (yil), tadqiqot mavzusi, natija.

Brown (USA) audio asosida esse yozish samaradorligi: audio orqali yozilgan esselar ko‘proq ijobiy natija ko‘rstganini ko‘rishimiz mumkin.

Nakamura (Japan) Multimodal ta’limda yozma ifoda: audio orqali o‘rgatish matnga nisbatan kuchliroq tahliliy fikr beradi.

Ahmed (UK) podkastlar asosida yozma savodxonlikni rivojlantirish: o‘quvchilar tinglashdan keyin yozishda mustaqil fikrlashni oshirgan. Audio hikoya asosida yozilgan esselar shaxsiy ifodaga boy bo‘lgan.

Umumiy xulosa

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, audio materiallar asosida esse yozishni o‘rgatish metodikasi nafaqat yozma nutqni rivojlantiradi, balki eshitib anglash, tahliliy yondashuv, obrazli fikrlash va shaxsiy pozitsiyani ifoda etish kabi ko‘nikmalarni kompleks shakllantiradi. Bu metod interaktivlik, emotsional ta’sir va multimodal idrok asosida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Audio asarlar asosida esse yozishni o‘rgatish metodikasini sinov tariqasida qo‘llash, xorijiy tajribalarni o‘rganish va tahliliy natijalarni umumlashtirish asosida quyidagi taklif va tavsiyalar berib o‘tmoqchiman;

Ta’lim amaliyoti uchun takliflar:

Audio asarlarni dars jarayoniga tizimli kiritish.

Ona tili va adabiyot fanlarining yozma nutqqa oid mavzulariga maxsus audio fayllar (hikoya, dramatizatsiya, podkast) moslashtirilgan holda joriy etilishi lozim.

Darsliklar bilan birga QR kodli audio materiallar yaratilsa, bu o‘quvchining mustaqil tayyorgarligini ham yengillashtiradi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslariga multimodal yondashuvlar kiritilishi:

Pedagoglar uchun audio asosida yozma nutqni rivojlantirish bo‘yicha qisqa kurslar, vebinarlar va tajriba darslari tashkil etilishi lozim.

Raqamli platformalarda esse topshiriqlari uchun audio kirish materiallari bilan birga avtomatik baholovchi mexanizm joriy etilishi mumkin.

Audio asarlar asosida o‘qitishning neyropsixologik ta’sirini tadqiq qilish. Eshitish orqali o‘rganish miya faoliyatiga qanday ta’sir qilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi zarur. Bu, ayniqsa, eshituv orqali tez idrok qiluvchi bolalar uchun alohida dolzarbdir. Milliy adabiyot namunalari, dostonlar, hikoyatlar, zamonaviy nasr va she’riyat asarlarini audio shaklga keltirib, ta’limga integratsiya qilish taklif etiladi.

O‘zbek tilida podkastlar, hikoya platformalari va dramatik asarlarning audio arxivini yaratish – o‘quvchining lingvistik va madaniy idrokini oshiradi. Respublika miqyosida audio asosida esse yozish bo‘yicha tanlovlar va olimpiadalar o‘tkazilishi, metodik tajribalar almashinuvini faollashtiradi. Audio asarlar asosida esse yozishga o‘rgatish nafaqat yozma nutqni, balki o‘quvchilarning umumiy tafakkur madaniyatini, muloqot kompetensiyalarini va estetik didini shakllantiradi. Shunday ekan, bu metodika O‘zbekiston ta’lim tizimida ham keng qo‘llanishi lozim bo‘lgan istiqbolli yondashuvlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-2025-yil Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash millliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida. 2020-yil 14-dekabr 781-son.

2.Kh-davron.uz.

3.Arxiv.uz.

4. Brown, A. Audio-Based Essay Writing in High School Curriculum. Cornell University, (2021).

Umidaxon JUMANAZAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
1-kurs magistranti
umidaxonjumanazarova02@gmail.com

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTINING QIYOSIY TAHLILI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini jahon va o‘zbek adabiyotining qiyosiy tahlili vositasida shakllantirish masalasi yoritiladi. Jahon adabiyotining estetik, axloqiy va intellektual ta’siri, madaniyatlararo muloqot, tolerantlikni rivojlantirish imkoniyatlari pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Adabiyot orqali madaniy kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari, metodikasi va samarali ta’lim texnologiyalari muhim ilmiy-amaliy asosda bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyoti, madaniy kompetensiya, qiyosiy tahlil, o‘qituvchilar tayyorlash, interfaol ta’lim, tanqidiy fikrlash, estetik tarbiya, madaniyatlararo muloqot, adabiy tahlil, tolerantlik

Аннотация: в статье рассматриваются педагогико-психологические особенности формирования социокультурной компетентности будущих учителей посредством сравнительного анализа мировой и узбекской литературы. Особое внимание уделяется межкультурной коммуникации, развитию эстетического и критического мышления, а также внедрению современных методов обучения. Литература анализируется как мощное средство формирования нравственных и культурных ценностей.

Ключевые слова: мировая литература, культурная компетентность, сравнительный анализ, подготовка учителей, интерактивное обучение, критическое мышление, эстетическое воспитание, межкультурная коммуникация, литературный анализ, толерантность

Annotation: this article explores the pedagogical and psychological aspects of developing the socio-cultural competence of future teachers through a comparative analysis of world and Uzbek literature. It emphasizes intercultural communication, the development of aesthetic and critical thinking, and the application of modern teaching methods. Literature is presented as a powerful tool for fostering ethical values and multicultural awareness in higher education.

Key words: world literature, cultural competence, comparative analysis, teacher training, interactive learning, critical thinking, aesthetic education, intercultural communication, literary analysis, tolerance

Kirish

Oliy ta’limda jahon adabiyotini o‘rgatish pedagogik va psixologik jihatdan talabalarning bilim doirasi va shaxsiy rivojlanishini boyitishga xizmat qiladi. Bu jarayon interfaol, shaxsga yo‘naltirilgan va madaniy xilma-xillikka asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilganda yanada samarali bo‘ladi.

Oliy ta’limda jahon adabiyotini o‘rgatish o‘quvchilarning estetik, madaniy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagogik va psixologik xususiyatlar ta’limning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida bu xususiyatlarning asosiy jihatlari yoritib beriladi:

1. Estetik va madaniy qadriyatlarni shakllantirish.

Jahon adabiyoti o‘z ichiga turli millat va madaniyatlarning asarlarini oladi. Talabalar ushbu asarlarni o‘rganish orqali:

- madaniyatlararo muloqot ko‘nikmasini rivojlantiradi.
- estetik did va axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Masalan, talabalar Shekspirning “Hamlet” yoki Dantening “Ilohiy komediya” asarlarini o‘qish orqali inson hayoti, ma’naviy tanlovlar va abadiy qadriyatlar haqida chuqur bilimga ega bo‘ladilar.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Har bir talabaga o‘z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ta’limni taqdim etish muhimdir. Jahon adabiyoti o‘quv jarayonida har bir talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Asarlarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida talabalar o‘z nuqtayi nazarini erkin ifodalashga o‘rgatiladi. Misol uchun, Frans Kafka asarlarida inson psixologiyasining murakkabligini o‘rganish shaxsiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

3. Kritik (tanqidiy) va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Jahon adabiyotini o‘rganish jarayonida talabalar matnlarni tahlil qilish, ularning kontekstual ma’nosini aniqlash, qahramonlarning motivlarini tushunish kabi bilimlarni egallaydilar hamda ijodiy yozuv orqali o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jumladan, Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asarida qahramonlarning psixologik tahlilini o‘tkazish orqali tanqidiy fikrlash rivojlantiriladi.

4. Tarbiyaviy ahamiyat.

Adabiyot axloqiy qadriyatlarni singdirish va shaxsni ma’naviy tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Jahon adabiyoti orqali talabalar hayotiy tanlovlar, yaxshilik va yomonlikning universal tushunchalari bilan tanishadi. Masalan, Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asari insonning sabr-toqati va qat’iyatlilik kabi fazilatlarini targ‘ib etadi.

5. Madaniy xilma-xillik va bag‘rikenglikni shakllantirish.

Jahon adabiyoti o‘zida turli millatlarning adabiy merosini mujassam etgani uchun talabalarni bag‘rikenglik va global tafakkurga o‘rgatadi. Shu jihatidan Haruki Murakami yoki Gabriel Garsia Markesning asarlarini o‘rganish talabalarda Sharq va G‘arb madaniyatlarini qiyosiy tushunishga yordam beradi.

6. Interfaol o‘qitish usullari.

Pedagogik jarayon talabalarni darsda faol ishtirok etishga undaydigan usullar asosida tashkil etilishi kerak. Rolli o‘yinlar, munozaralar va loyiha ishlari talabalarni asarlarning mazmunini chuqur o‘zlashtirishga va qahramonlarning motivlarini tushunishga imkon yaratadi. Shekspirning “Romeo va Julyetta” dramasidan sahna qo‘yish orqali talabalar nafaqat asar mazmunini chuqurroq o‘zlashtiradi, balki jamoaviy ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

7. Psixologik xususiyatlarni hisobga olish.

Jahon adabiyotini o‘qitishda talabalar yoshiga mos psixologik yondashuv zarur:

- yosh o‘ziga xosliklariga mos asarlar tanlanadi;
- murakkab adabiy asarlarni tushintirishda sodda va tushinarli izoh berish talab qilinadi.

Yosh talabalarga Albert Kamyuning “Begona” asarini o‘qitishda insonning yolg‘izlik va begonalik hissi haqida ochiq muhokama o‘tkazilishi tavsiya etiladi.

8. Fanlararo bog‘liqlik.

Jahon adabiyotini boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali talabalar ko‘p qirrali bilimga ega bo‘ladilar. Misol uchun tarix fani bilan bog‘lab, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” asaridagi tarixiy voqealarni tahlil qilish hamda san’at tarixi bilan bog‘lab, asarlarni o‘sha davrdagi san’at oqimlari bilan solishtirish mumkin.

Asosiy qism

Fanni o‘qitishdan maqsad – jahon adabiyoti tarixining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o‘qitish orqali, badiiy-falsafiy qarashlardagi nazariy-badiiy evolutsiyani ko‘rsatib berish hamda badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurni yuksaltirish, ilmiy mushohadalarning vujudga kelishi hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko‘nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas’uliyatini shakllantirishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifasi – jahon adabiyoti namunalarining o‘ziga xos milliy va an’anaviy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish asosida bilim berish, yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarining bashariyat, millat va jamiyat ravnaqidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish, badiiy adabiyotni tushunish va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab, himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni, bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.

Hozirgi kunda oliy ta’limda kredit-modul tizimida ish olib borilayotganini hisobga olgan holda, talabalar kreditlarni olish uchun fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirishi, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olishi, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida yozma yoki og‘zaki berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo‘yicha testlarni topshirishi talab etiladi.

Talabalarning ta’lim natijalari 100 ballik reyting tizimida baholanadi. Talabalar tomonidan ta’lim natijalari buyicha ballarni konvertatsiya qilish YeCTS (European Credit Transfer System) tizimi asosida amalga oshiriladi.

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

— jahon adabiyoti fani doirasida talabalarda jahon adabiyotining antik davrdan to bugungi kunga qadar bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari va tamoyillari haqida tasavvur hosil qilishi **(bilim);**

— jahon adabiyoti kursini o‘zlashtirgan talaba jahon adabiyoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy voqealar va ularning insoniyat badiiy tafakkuri tadrijiga ta’siri masalasini o‘rganish **(ko‘nikma);**

— jahon adabiyoti kursini o‘zlashtirgan talaba jahon adabiyoti namunalarini badiiy tahlil eta bilish, ularda ko‘tarilgan g‘oyalarni va ilgari surilgan fikrlarni to‘g‘ri baholay olish, globallashuv jarayoni va yuksak texnologiyalar asrida jahon adabyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, ularning millat adabiyotiga ta’siri haqida o‘zining tahliliy, tanqidiy mulohazalarini bayon eta bilish **malakasiga** ega bo‘lishi lozim.

Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

• ma’ruzalar;
• interfaol keys-stadilar;
• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
• guruhlarda ishlash;
• taqdimotlar qilish;
• individual loyihalar;
• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

Oliy ta’lim muassasalarida jahon adabiyoti namunalarining qiyosiy tahlili vositasida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu metodika o‘z ichiga quyidagi muhim jihatlarni oladi:

— bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniy kompetensiyani shakllantirish, ularni turli xalqlar adabiyoti orqali ko‘p madaniyatlilik tamoyillariga mos ravishda tarbiyalash;

— turli xalqlarning adabiy merosini chuqur o‘rganish orqali o‘qituvchilarning madaniy tushunchalarini kengaytirish;

— jahon adabiyoti namunalarini qiyosiy tahlil qilish orqali talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

— talabalarda tolerantlik, madaniy xilma-xillikni qadrlash va madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni shakllantirish.[2: 19]

Adabiy asarlar orqali millatlarning an’analari, qadriyatlari va dunyoqarashi o‘rganiladi.

Madaniy kompetensiya – bu shaxsning turli madaniyatlarni tushunishi, qadrlashi va ular bilan samarali muloqotda bo‘lish qobiliyatidir. Bu atama, asosan, ta’lim, psixologiya, va sotsiologiya sohalarida qo‘llaniladi va madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Madaniy kompetensiyaning ahamiyati:

• *globalizatsiya sharoitida:* turli millatlar va madaniyat vakillari bilan muloqotni samarali olib borish uchun zarur;

• *ta’lim sohasida:* o‘qituvchilar madaniy xilma-xillikka mos yondashuvlarni o‘rgatish uchun bu kompetensiyaga ega bo‘lishlari kerak;

• *shaxsiy rivojlanishda:* shaxsning dunyoqarashi kengayadi, o‘ziga va boshqalarga hurmat hissi rivojlanadi.

Misol uchun, madaniy kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs Sharq va G‘arb adabiyoti namunalarini qiyoslaganda, ularning madaniy asoslarini tushunadi, har bir asardagi qadriyatlarni qadrlaydi va ular o‘rtasida umumiylik va farqlarni topa oladi.

Madaniy kompetensiyani rivojlantirish quyidagi 5 bosqichda olib borilsa dars ancha samarali bo‘lishi jahon ta’lim tizimida [1:17] o‘z isbotini topgan:

7-jadval

№	Bosqichlar	Mazmuni
1.	Axborotli bosqich	Talabalarga nazariy bilimlar beriladi, qiyosiy tahlil usullari o‘rgatiladi.
2.	Amaliy bosqich	Jahon va milliy adabiy asarlar ustida qiyosiy tahlil mashg‘ulotlari olib boriladi.
3.	Refleksiv bosqich	Talabalar o‘z fikrlari va xulosalarini mustaqil ifoda qilishga o‘rgatiladi.
4.	Metodik yondashuvlar	Talabalar mustaqil ravishda jahon va milliy adabiyotlarning qiyosiy tahliliga oid loyiha ishlari tayyorlaydi.
5.	Natijalar va kutilayotgan samaralar	Talabalar turli madaniyatlarning boy merosini tushunadi va qadrlaydi. Madaniyatlararo muloqotda faollik ko‘rsatish qobiliyatlari shakllanadi. O‘qituvchilar ijodiy yondashuv asosida adabiy asarlarni tahlil qilish malakasiga ega bo‘ladi.

Xulosa

Talabalarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda dars jarayonida “...o‘rganilajak asar mazmunining mohiyatini ochishga, uning badiiy jozibasi, qimmati, ta’sirchanlik jihatlarini topishga, matnda aks etgan milliy ruhni ilg‘ashga, mustaqil fikrlash va shaxsiy munosabat bildirishga yo‘naltiruvchi mazmundagi savol va topshiriqlari ham kiritish maqsadga muvofiqdir.” [3:117]

Topshiriqlar tanlanishidan oldin, talabalarga asarni badiiy tahlil qilish bosqichlarini to‘g‘ri o‘rgatish talab qilinadi, negaki badiiy asarning o‘quvchi ongiga ta’sir kuchini badiiy tahlilning to‘g‘riligidagina his qilishimiz mumkin. Professor B.To‘xliyev ham bu borada fikr yuritib: “Aslida adabiyot o‘qitishning bosh yo‘nalishi ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilar ongiga badiiy asaring mo‘jizakor ta’sir kuchini amaliy jihatdan ta’minlashga qaratilgan” – deydi. [4:7]

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini jahon va o‘zbek adabiyotining qiyosiy tahlili vositasida rivojlantirish – bu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki yoshlar ongida global va milliy qadriyatlarning uyg‘un sintezini yaratish masalasidir. Tadqiqotda taklif etilgan metodika va yondashuvlar amaliyotga joriy etilganda, biz XXI asr talablariga javob beradigan, madaniy jihatdan kompetent va har tomonlama rivojlangan o‘qituvchilar tayyorlashimiz mumkin.

Jahon adabiyoti – bu insoniyatning umumiy merosi, uni o‘rganish orqali biz nafaqat o‘tmishimizni tushunib yetamiz, balki kelajagimizni ham to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiramiz. Bu jarayon milliy an’analarni saqlagan holda global madaniyatga integratsiyalashish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bassnett Susan. Comparative Literature: a Critical introduction. Blackwell Publishing, 1993.
2. Damrosch David. What is the World literature?. Princeton University Press, 2003.
3. Jumanazarova U. Shermatova U. THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SOCIO-CULTURAL COMPETENCE THROUGH COMPARATIVE ANALYSIS OF WORLD AND UZBEK LITERATURE IN HIGHER EDUCATION AS AN EDUCATIONAL ISSUE. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH Volume 2, Issue 5, February, 2025.
4. Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. 2-kitob. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. 117-b.
5. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси: (Олий ўқув юртлари филология йуналиши талабалари учун ўқув қўлланма). – Т:, “Янги аср авлоди”, 2006. 7-6-b.



Sevara XOLIYEVA
Termiz davlat pedagogika institutiTa'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

3–SINF O'QUVCHILARIGA ONA TILI FANINI O'QITISHDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada 3–sinf o'quvchilariga ona tili darsliklarini o'qitish jarayonida kreativlikni shakllantirish usullari keltirilib o'tilgan. Shuningdek maqolada ta'lim jarayoniga "kreativlik" atamasini kirib kelishining muhim ahamiyat kasb etishi va uning o'qituvchi ijodkorligi bilan bevosita bog'liqligi, o'qituvchining kreativligini ona tili ta'limi bo'yicha zarur o'quv manbalarini yaratish, ona tili ta'limi jarayoni loyihasini tayyorlash, ta'lim jarayonini qiziqarli va jonli tashkil etish, fanni o'qitishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishga doir respublika miqyosidagi anjumanlarda faol ishtirok etishi haqidagi fikrlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, metodika, kreativlik, ta'lim jarayoni, o'qituvchi ijodkorligi

Annotation: this article presents methods for developing creativity in the process of teaching native language textbooks to 3rd grade students. The article also highlights the importance of introducing the term "creativity" into the educational process and its direct connection with teacher creativity, the role of teacher creativity in creating the necessary educational resources for native language education, preparing a project for the native language education process, organizing the educational process in an interesting and lively way, successfully conducting scientific research aimed at teaching the subject, and actively participating in national conferences on teaching native language and reading literacy.

Key words: native language, methodology, creativity, educational process, teacher creativity.

Аннотация: в статье представлены методы развития креативности в процессе обучения по учебникам родного языка учащихся 3–го класса. В статье также подчеркивается важность внедрения термина "креативность" в образовательный процесс и его непосредственная связь с творчеством учителя, роль творчества учителя в создании необходимых образовательных ресурсов для обучения родному языку, подготовке проекта процесса обучения родному языку, организации образовательного процесса в интересной и живой форме, успешном проведении научных исследований, направленных на преподавание предмета, активном участии в республиканских конференциях по обучению родному языку и грамотности чтения.

Ключевые слова: родной язык, методика, творчество, образовательный процесс, творчество учителя.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama dunyoqarashini shakllantirishda ona tili fanining o'rni beqiyos hisoblanadi. Shunday bo'lsada yaqin kunlarga qadar ushbu fanni an'anaviy o'qitish amalda edi. Ammo bugungi kunga kelib taraqqiy eta boshlagan zamonda fanlarni o'qitishda noan'anaviy yondashuvlar yuzaga kela boshlamoqda. Fanlarni o'qitishda o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarni shakllantirishga muhim e'tibor qaratilmoqda. Kreativlik so'zi ilk bor 1922–yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

– ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab–quvvatlash;

– bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

– bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

– bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

– o'zini tavakkaldan olib qochish;

– fikrlash va xatti–harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

– shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

– boshqalarga tobe bo'lish;

– har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash. [5]

Ta'lim jarayoniga "kreativlik" tushunchasining tatbiq etilishi, boshqa fanlar qatori ona tili ta'limida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davr talabi hisoblanadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamalakatlarning ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Ken Robinson, Fisher, Frey, Begetto, Kaufman, Ali, Treffinger va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar natijalarida ko'rish mumkin. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning umumiy mohiyatini anglab olish uchun dastlab "kreativlik"

tushunchasining ma’nosini tushunish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra: “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui”dir. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Kreativlik (lot. “create” – yaratish, bunyod etish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g‘oyalarini ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatidagi ijodiy qobiliyati.

Biz noan’anaviy ta’limni tashkil qilishimiz va amaliyotga joriy qilishimiz zarur. Buning uchun avval darsni qanday tashkil etish, nimalarnidir yangilik sifatida ta’lim tizimiga olib kirishimiz va o‘zimizga moslashtirib olgandan keyingina, uni quyidagicha o‘quvchilarda sinov sifatida qo‘llab ko‘rishimiz kerak:

– ta’lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo‘shqin tashkil etish;

– ona tili ta’limi jarayoni loyihasini tayyorlash;

– ona tili fanidan nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish[3].

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham “Ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta’lim sifatini oshirish, ta’lim–tarbiya jarayoniga jahon tajribasida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish zarur” deb alohida uqtirib o‘tilgan.[1]

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda tamoyillar bo‘lib, 4 –tamoyilda o‘qish savodxonligida tez, to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish kompetensiyalarini shakllantirish, o‘quvchilarni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza qiluvchi, keng mushohadali, zukko kitobxon darajasiga olib chiqish, tevarak–atrof va butun dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘z fikrini mustaqil ayta oladigan, tanqidiy hamda kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirishga qaratilgan.[2]

Boshlang‘ich ta’lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta’lim turidan biri bo‘lib, ta’limning bu bosqichida pedagog o‘qituvchilarga katta mas’uliyat yuklatiladi. Ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o‘rganishni talab etmoqda. O‘quvchilar o‘z–o‘zidan kreativ bo‘lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib–o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o‘quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilarni o‘zgacha yondashuvli ya’ni kreativ bo‘lishlariga erishishi mumkin.O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o‘quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o‘quvchilarni o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo‘ladi. “Kreativlik” tushunchasi “ijod” tushunchasi bilan bog‘liq. Biroq, “kreativlik” tushunchasi tegishli lug‘atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O‘nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o‘ziga va na unga taalluqli bo‘lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to‘xtam mavjud emas.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish mazmuni shuni ko‘rsatdiki, kreativ yondashuv nafaqat pedagogik texnologiyani tanlashga, balki birinchi o‘rinda, o‘qituvchining shaxsiyatiga ham bog‘liq. Qachonki o‘qituvchi o‘quvchilarni noodatiy tarzda mushohada qilishga, muammoga turli tomondan qaragan holda yechim topishga o‘rgata olsagina, biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan pirovard maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.

Shuningdek, o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsizliklardan cho‘chish, haddan tashqari baholarga e’tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo‘rqish hissi mavjud o‘quvhilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026–yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. — T:, 2022.

2. Adizov B. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. – Toshkent:, 2003. 276–b

3. Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. – Toshkent:, O‘qituvchi, 1991. 40–bet.

4. https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

5. Y.G‘ulomov, I.Rasulov, X.Rustamov, B.Mirzaaxmedov. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Qo‘llanma. – Toshkent:, 1975. 121–bet.

6. Nisanbayeva Akmaral, Tagayeva Jannat “Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarini kreativlik asosida tashkil qilish usullari”

Malika SINDAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

CEFR ASOSIDA CHET TILINI O‘RGATUVCHI O‘QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISH: TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standartlariga asoslangan holda chet tilini o‘rgatuvchi o‘qituvchilarning malakasini oshirish masalasi yoritilgan. Treninglar, sertifikatlash va baholash tizimlari orqali o‘qituvchilarning pedagogik va til kompetensiyalarini takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar va milliy ta’lim tizimidagi amaliyotlar asosida istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: CEFR, o‘qituvchi malakasi, chet tili ta’limi, baholash tizimi, sertifikatlash, metodik trening, til kompetensiyasi, xalqaro standartlar

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос повышения квалификации преподавателей иностранных языков на основе стандартов CEFR (Common European Framework of Reference for Languages). Рассматриваются направления совершенствования педагогических и языковых компетенций учителей посредством тренингов, систем сертификации и оценки. Также будут определены перспективные направления на основе международного опыта и практики в национальной системе образования.

Ключевые слова: CEFR, квалификация преподавателя, обучение иностранному языку, система оценивания, сертификация, методический тренинг, языковая компетенция, международные стандарты

Annotation: this article covers the issue of professional development of foreign language teachers based on CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standards. Directions for improving teachers’ pedagogical and linguistic competencies through trainings, certification, and assessment systems will be considered. Promising areas will also be identified based on international experience and practices in the national education system.

Key words: CEFR, teacher qualification, foreign language education, assessment system, certification, methodological training, language competence, international standards

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini bilish shaxsiy va kasbiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu sababli ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida, ayniqsa oliy va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitish sifati yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Til o‘rgatishda xalqaro standartlar asosida yondashuv talab etiladi va bu borada CEFR — Yevropa til kompetensiyalari umumiy metrologik tizimi — muhim mezon sifatida qaralmoqda. CEFR nafaqat o‘quvchilar uchun, balki o‘qituvchilar uchun ham metodik yo‘riqnoma, baholash va malakani aniqlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu munosabat bilan, o‘qituvchilarning aynan CEFR asosidagi yondashuvga mos ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borishlari zarurati dolzarb bo‘lib bormoqda.

CEFR asosida til o‘rgatish o‘qituvchidan nafaqat grammatik bilim, balki kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va tilning barcha ko‘nikmalarini (tinglab tushunish, o‘qish, yozish, gapirish) uyg‘un qo‘llay olish malakasini talab etadi. Shu sababli o‘qituvchilarning CEFR doirasidagi bilim va metodik yondashuvlarini rivojlantirish uchun maxsus treninglar, attestatsiya va sertifikatlash tizimlari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Treninglar, odatda, CEFR bosqichlari (A1 — C2) bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, o‘qituvchilarning o‘z til darajasini aniqlash va shu asosda ta’lim berish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ushbu treninglarda dars dizayni, maqsadga yo‘naltirilgan topshiriqlar yaratish, baholash mezonlari bilan ishlash, differensial yondashuvlar va ko‘p tillilik muhitida o‘rgatish metodikalari o‘rgatiladi.

Baholash va sertifikatlash tizimlari esa o‘qituvchilarning professional darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ko‘plab mamlakatlarda CEFR asosida tayyorlangan testlar va baholash mezonlari orqali o‘qituvchilar malakasi aniqlanadi. IELTS, TOEFL, Cambridge Assessment kabi tizimlar nafaqat talabalar uchun, balki o‘qituvchilar uchun ham muhim baholovchi mezon sifatida foydalaniladi. Shuningdek, Cambridge Teaching Knowledge Test (TKT), CELTA va DELTA kabi o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan maxsus dasturlar orqali malaka tasdiqlanadi.

Milliy tajribaga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda ham CEFR ga asoslangan baholash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ta’limni rivojlantirish va strategik islohotlar markazi, Britaniya Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘qituvchilar uchun o‘quv seminarlar, onlayn treninglar va diagnostika testlari yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, chet tilidan kamida B2 darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar moddiy rag‘batlantirilmoqda.

Bu esa o‘qituvchilarni uzluksiz o‘qishga va malakasini oshirishga undaydi.

O‘qituvchilar malakasini oshirishda metodik transformatsiyasi

Chet tili o‘qituvchilari uchun CEFR asosida malaka oshirish jarayoni oddiy grammatika va so‘z boyligini o‘rgatish bilan cheklanmaydi. Bu yondashuv til o‘rgatishni hayotiy kommunikatsiya ehtiyojlariga moslashtirish, ya’ni tilni **vosita** sifatida ishlatishni o‘rgatishga qaratilgan. Shu bois, o‘qituvchilar dars jarayonida real hayotiy kontekstlarga asoslangan topshiriqlar, dialoglar, vaziyatga yo‘naltirilgan mashqlar va interaktiv muhitlarni yaratishi zarur.

Yuqori samarali CEFR trening dasturlarida quyidagilar muhim tarkibiy qism sifatida ko‘zda tutiladi:

— task-based language teaching (TBLT): talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirish uchun haqiqiy topshiriqlarga asoslangan ta’lim;

— content and Language Integrated Learning (CLIL): fan va til o‘qitilishini integratsiyalash orqali kontekstual til o‘rganish;

— scaffolding va formative assessment metodlari: o‘quvchining o‘sish darajasini nazorat qilish, individual yondashuvni kuchaytirish.

Bunday yondashuvlar o‘qituvchidan darsga puxta tayyorgarlik, ijodkorlik va texnologik bilimlarni talab etadi. Shu bois, o‘qituvchilarni tayyorlashda metodik yondashuvlar bilan bir qatorda **raqamli pedagogika** bo‘yicha treninglar ham zarur bo‘lib bormoqda.

Hududiy va ijtimoiy tengsizlik muammosi

CEFR asosida malaka oshirish jarayonida muhim muammo – bu **hududlararo tengsizlik**. Poytaxt va yirik shaharlardagi o‘qituvchilar zamonaviy treninglarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, qishloq joylaridagi o‘qituvchilar uchun bu imkoniyatlar cheklangan. Treninglar ko‘pincha markazlashgan shaklda bo‘lib, joylarda ularni yetkazish tizimi rivojlanmagan.

Shuningdek, ba’zi joylarda o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi past bo‘lib, onlayn resurslardan foydalana olish darajasi ham farqlanadi. Bu esa ularni xalqaro mezonlarga mos rivojlanishda ortda qoldiradi.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun:

- viloyat va tuman markazlarida CEFR markazlarini tashkil etish;
- har chorakda masofaviy vebinarlar va onlayn master-klasslar tashkil etish;
- davlat byudjetidan hududiy grantlar ajratish orqali ustuvor ehtiyojga ega o‘qituvchilarga imtiyozlar berish taklif qilinadi.

Strategik istiqbollar va tavsiyalar

CEFR asosida o‘qituvchilarning malakasini oshirish nafaqat ularning kasbiy o‘sishi, balki ta’lim sifatining umumiy yuksalishi uchun ham hal qiluvchi omildir. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi istiqbolli yo‘nalishlar belgilab olinishi lozim:

— mahalliy CEFR sertifikatlash tizimini yaratish. Xalqaro tizimlarga to‘liq bog‘liq bo‘lmasdan, milliy ehtiyojlarga moslashtirilgan baholash va sertifikatlash tizimlarini ishlab chiqish;

— CEFR asosida metodik qo‘llanmalar yaratish. Har bir til darajasi uchun amaliy darsliklar, testlar va o‘qituvchilar uchun yillik dars rejalari ishlab chiqish;

— ta’limga sun’iy intellektni joriy etish. O‘qituvchilarning o‘z darslarini avtomatik tahlil qiluvchi platformalar yordamida til o‘rgatish metodikasini takomillashtirish;

— tajriba almashish forumlarini rivojlantirish. Yurt ichidagi va xalqaro o‘qituvchilarni birlashtiradigan konferensiyalar, seminarlarda metodik tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

— o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholash tizimi. Har bir o‘qituvchi o‘zining CEFR darajasini baholashi va unga mos dars metodikasini tanlashi uchun onlayn test va platformalarni ishlab chiqish.

Xulosa

CEFR asosida chet tilini o‘rgatuvchi o‘qituvchilarning malakasini oshirish zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda yuqori sifatli ta’lim berishni ta’minlaydi. Bu jarayon treninglar, sertifikatlash va baholash tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajriba, milliy yondashuvlar va texnologik vositalarning uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanishi orqali ushbu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishish mumkin. Kelgusida CEFR asosidagi o‘qituvchilar tayyorlash tizimini yanada institutsional mustahkamlash, metodik hamda texnik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali o‘zbek ta’lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Cambridge Assessment English. Teaching Framework and Professional Development Resources.
3. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages. Council of Europe.
4. British Council Uzbekistan. Teacher Training and Professional Development Programs.
5. Little, D. The Common European Framework of Reference for Languages: Perspectives on the Making of Supranational Language Education Policy, 2007.
6. Richards, J.C. & Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.

Madinaxon ERKINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs talabasi

XALQ RIVOYATLARIDA USTOZ VA SHOGIRDLIK MUNOSABATI TALQINI

Annotatsiya: mazkur tadqiqot g‘azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy va temuriylar sulolasining yorqin namoyandasi, ilm-fan va madaniyat homiysi Sulton Husayn Boyqaroning xalq og‘zaki ijodidagi badiiy talqinini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu ikki siymoning xalq xotirasida qanday yashab kelayotganini, ular haqida yaratilgan rivoyat va afsonalar vositasida aks etishini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Xuroson, bosh, qilich, elchi, bulbul, an’ana, do‘stlik.

Annotation: this study is devoted to the study of the artistic interpretation of the sultan of the ghazal estate, Mir Alisher Navoi, and the bright representative of the Timurid dynasty, the patron of science and culture, Sultan Husayn Boykaro, in folk oral art. It analyzes how these two figures live in the memory of the people and are reflected in the legends and myths created about them.

Key words: Khorasan, head, sword, ambassador, nightingale, tradition, friendship.

Аннотация: данное исследование посвящено изучению художественной интерпретации в устном народном творчестве султана поэзии газелей Мир Алишера Навои и яркого представителя династии Тимуридов, покровителя науки и культуры Султана Хусейна Байкары. В работе анализируется, как эти две личности живут в народной памяти и отражаются через легенды и предания, созданные о них.

Ключевые слова: Хорасан, голова, меч, посол, соловей, традиция, дружба.

Tarix asrlar davomida ro‘y bergan voqea-hodisalar, yashab o‘tgan buyuk siymolar hayoti va faoliyati haqida xabar berar ekan, kelajakni o‘tmish bilan yuzlashtiradi. Yosh avlodni o‘z tarixiga, ota-bobolarining shonli hayotiga teran ko‘z bilan qarashga undaydi. Shu ma’noda turkiy xalqlar tarixi, xususan, adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ikki buyuk shaxs – Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini o‘rganish, Xuroson davlatining ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy hayotiga qo‘shgan hissasini aniqlash, bugungi kun adabiyotshunoslik, tarix ilmi oldida turgan vazifalardan biridir.

Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari o‘z davridayoq ilm ahli, tarixchi va adabiyotshunos olimlarning e’tiborini tortgan. Bu ikki zotning hamkorligi, xoh u ijtimoiy-siyosiy davlatlararo munosabatlar ko‘rinishida, ikki davlat arbobi shoh va vazir munosabatlari negizida, ikki ijodkor, nozikta’b shoir aloqalari asosida tekshirilmasin hozirga qadar tadqiq etilishi lozim bo‘lgan jihatlar talaygina. Shu boisdan xalq og‘zaki ijodi namunalari – doston, rivoyat, ertaklarda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro siymosining badiiy talqini masalasini o‘rganish adabiyotshunoslik aspektida tekshirish ehtiyoji mavjud.

Bilamizki, “Poetika ilmining muhim birliklari sifatida adabiy tur va janrlar yuzaga kelgan”. [6; 15].

“Tarixiy nasrda rivoyat janri muhim o‘rin tutadi. “Rivoyat – og‘zaki tarzda aytib beruvchi hikoya. Yuzaga kelishi va tarixiy asoslari juda qadimiy folklor nomoddiy madaniy meros namunalaridan biridir”. [1; 109].

1991-yil Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro faoliyatini o‘zida aks ettirgan “El desa Navoiyni” kitobi nashr etilgan. Noshir – Mamatqul Jo‘rayev. “Ushbu majmuaga jahon she’riyati sultoni, turkiy tilimizda o‘nlab ulug‘ va umri boqiy asarlar yozgan bobomiz hazrat Mir Alisher Navoiy haqida xalq yaratgan rivoyatlar jamlangan. Bu kitob alloma bobomiz tavalludining 550 yilligiga to‘yona sifatida tayyorlandi”. [5; 2]. Kitob “Alisher bilan bulbul”, “Hozirjavob Mirali”, “Saodatli Miralining sifatlari” nomli uch bo‘lim va yetmish ikkita rivoyatdan iborat.

Rivoyat janrining syujet tuzilishi o‘ziga xos xarakterli bo‘lib, qisqa va ixcham bir-biri bilan bog‘langan voqea-hodisalar asosiga quriladi. Rivoyat janri “Bir kun”, “O‘tgan zamonda” kabi jumlalar orqali noaniq vaqtni ko‘rsatish bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. [1; 111].

Adabiy-tarixiy asarlarda uchraydigan rivoyatlarda tarixiy voqelik va haqiqat aks etib turadi. Rivoyatlar tarixiy voqealarga asoslanishi bilan birga ularda tasvirlangan voqealar o‘tmishda, uzoq tarixiy davrda bo‘lganligini anglatadi. Rivoyat ma’lum fakt, tarixan real voqealarni hikoya qiluvchi alohida janrdir. Uning epik voqealari mukammal, tugallangan xarakterda bo‘ladi. [1; 112].

“El desa Navoiyni” kitobida Navoiyning donoligi, Husayniyning bahodirligi bilan bog‘liq rivoyatlar mavjud. Ulardan biri “Bosh va qilich” rivoyatidir. Bu rivoyatda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning yoshligidan juda qalin do‘st ekanliklari, maktabda ham birga o‘qiganliklari, ularning g‘oyat o‘tkir zehnli domlasi borligi, ustozi bu ikki shogirdining nimaga qiziqishlarini bilmoqlik uchun qanday yo‘l tutgani e’tirof etilgan. Mazkur rivoyatda ulug‘

ustozning o‘quvchilari zehnini qay darajada ekanligini va ularda qanday iste’dodlari va qobiliyatlar borligini aniqlash uchun qanday yo‘l tutganiga e’tibor qaratsak:

“U kishi(ya’ni ustoz) bir kuni shogirdlarining zehnini, nimaga qiziqishlarini bilmoqchi bo‘libdi va har ikkalasiga bosh va qilich rasmini chizib beribdi-da, sharh yozib kelishni topshiribdi.

Alisher bosh va aqlni, donolikni ta’riflab g‘azal bitib kelibdi. Husayn Boyqaro bo‘lsa qilichga hamd-u sanolar aytib, jang-u jadal haqida madhiya yozibdi.

Domla sharhlarni o‘qibdi-da, osmonga qarab charaqlagan quyoshni Alisherga, qora bulutni esa Husayn Mirzoga ko‘rsatib, Alisherga “Ofarin!” – debdi”. [5; 4].

O‘zining teran fikri, fahm-u farosati orqali domla mana shunday yo‘l bilan shogirdlarining qanday qobiliyatlari borligi va nimaga qiziqishlarini bilib oladi. Ushbu rivoyatni o‘qigan kitobxon ham Alisher Navoiyning surat asosida g‘azal bitganini ko‘rib unda bolalikdan badiiy adabiyotga, she’r ilmiga iste’dodi borligini, Husayn Boyqaroning esa jang-u jadal haqida yozgan madhiyasi orqali unda shohlik, sipohlik, hukmdorlik va saltanatdorlik qobiliyati borligini anglab yetadi.

“Rivoyatlarda obrazlar tizimi asosan ikki, uch xil personajlardan tashkil topadi. Birinchisi yetakchi, ikkinchisi yordamchi va uchinchisi raqib personajlardan iborat bo‘ladi”. [1; 115].

“El desa Navoiyni” kitobida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning do‘stligi tarannum etgan bir necha rivoyatlar mavjud. Ular sirasiga “Yaxshidan bog‘ qoladi”, “Shoir jilovdori” kabi rivoyatlarni kiritishimiz mumkin.

“Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati orqali Alisher Navoiyning naqadar dono, mehnatkash, boshqa insonlarning huzur-u halovatini o‘ylovchi shaxs ekanligini yana bir karra guvoh bo‘lamiz. Rivoyatning avvalida Husayn Boyqaroning saroyda o‘tiraverib zerikib ketgani, ancha vaqtdan beri Mir Alisherdan darak bo‘lmagani sababli do‘stini ko‘rish uchun mahallasiga yo‘l olgani va bu paytda Navoiy bog‘dorchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘layotganligi kabi voqealar tasvirlangan.

“Rivoyat janri nuqtayi nazaridan adabiy-badiiy xususiyatlarni o‘zida ifoda etadi. Shuni nazarda tutib aytish mumkinki, rivoyatlar hayotiy uydirma zaminida emas, balki badiiy to‘qima asosida shakllanadi”. [1; 139].

Badiiy adabiyotimizda keng tarqalgan o‘zbek xalq maqollari, matal, naql va iboralari ko‘p asrlik hayotiy tajribalarini, ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlaydi. Rivoyatda keltirilgan “Yaxshidan bog‘ qoladi” iborasi ham chuqur falsafiy mazmunga ega xalq og‘zaki ijodining naqllaridan biridir. Alisher Navoiy ushbu ibora orqali har bir insonning fazilatlari va qilgan ezgu amallari bekor ketmasligini, ularning samarasidan atrofidagi insonlar, butun jamiyat bahramand bo‘lishini ta’kidlaydi.

“Rivoyatlar tabiatiga ko‘ra tarixiy dalillash, tarixiy voqea yoki tarixiy shaxslar bilan bog‘liq axborot yoki xabarni yetkazishga xizmat qiladi. Avlodlarga yetkazilishi lozim bo‘lgan tarixiy-hayotiy voqealar xususidagi muhim hukm va xulosalar rivoyatlar mazmunida tarixiy haqiqat bo‘lib qolaveradi. Rivoyatlarning tarix qa’riga singib ketgan ildizlari nafaqat u yaratilgan davrda, balki tarixiy-adabiy jarayonning keying bosqichlarida ham o‘sib, yangi ma’no va mazmun kasb etib boradi”. [1; 140].

“Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati orqali biz yaxshi insonning jamiyatga foyda keltirishi, uning ezgu amallari, boshqa insonlarga berayotgan mehr-u muhabbati, elga tegayotgan foydasi, qilgan yaxshiliklari hech qachon yerda qolmasligini, har bir ezgu amali vaqt o‘tishi bilan ko‘p odamlarga foyda keltirishini va natijada mana shunday insonlarning ko‘plab savoblarga ega bo‘lishi – abadiyatga daxldorligini tushunib yetamiz. Shu bois, har bir inson o‘zidan keyin yaxshi nom qoldirishi uchun nafaqat o‘zi balki boshqalar uchun ham foydali, ezgu amallarni bajarishi lozim. Zero, ezgulik urug‘i ertaga meva beradigan bog‘ga aylanishi muqarrar.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro siymosi xalq og‘zaki ijodida chuqur ildiz otgan, milliy ong va ruhiyatga singib ketgan tarixiy shaxslar sifatida yuksak baholanadi. Ular xalq orasida nafaqat tarixiy arbob, balki adolat, donishmandlik hamda insonparvarlik timsoli sifatida qabul qilingan. Ular haqida yaratilgan rivoyatlar, afsona va naqllar xalqimizning tafakkuri, orzu-umidlari haqida hayotiy qadriyatlarni aks ettirgan bo‘lib, bu xalq og‘zaki ijod namunalarida tarixiy haqiqat badiiy tasavvur bilan uyg‘unlashgan. Bugungi kunda bu ikki buyuk shaxsning o‘zaro do‘stligi, ilmga va adabiyotga bo‘lgan hurmati xalq og‘zaki ijodi orqali avloddan avlodga o‘tib, yoshlarni ezgulikka, vatanga sadoqatli bo‘lishga hamda ilm va adolat yo‘lida xizmat qilishga da’vat etmoqda. Shu bois, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni faqat tarixiy emas, balki tarbiyaviy, ma’naviy va madaniy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Adabiy-tarixiy asarlarda kichik janrlar poetikasi. –Samarqand, 2021. 274-bet.
2. Jo‘rayev M. El desa Navoiyni. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991. 160-bet.
3. Jo‘raqulov U. A. Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. F.f.d. Dis. Aftoref. – Toshkent, 2017. 15-bet.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 143-bet.

Zebuniso QAHRAMONOVA,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,
Defektologiya (faoliyat turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi
zebunisoqahramonova@gmail.com

KO'RISH NUQSONIGA EGA SHAXSLAR NUTQI VA MULOQOTINING NUTQIY BO'LMAGAN VOSITALARINI RIVOJLANISHI

Annotatsiya: ko'rish nuqsoniga ega shaxslar, ayniqsa, ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi bolalar, nutq va muloqot sohasida o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishadi. Mazkur maqola, ko'rish nuqsoniga ega shaxslarning nutqi va muloqotning nutqiy bo'lmagan vositalarining rivojlanishini o'rganadi hamda ushbu jarayonda pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: nutq, ko'rish nuqsoni, psixik rivojlanish, hissiy bilish, idrok, tafakkur, tiflopedagogika, og'zaki nutq, yozma nutq.

Annotation: individuals with visual impairments, especially blind or visually impaired children, face specific challenges in the areas of speech and communication. This article explores the development of speech and non-verbal means of communication among individuals with visual impairments and analyzes the importance of pedagogical approaches in this process.

Key words: speech, visual impairment, psychological development, emotional cognition, perception, thinking, typhlopedagogy, oral speech, written speech.

Аннотация: лица с нарушением зрения, особенно слепые или слабовидящие дети, сталкиваются с особыми трудностями в области речи и общения. В данной статье рассматривается развитие речи и неречевых средств общения у лиц с нарушением зрения, а также анализируется значение педагогических подходов в этом процессе.

Ключевые слова: речь, нарушение зрения, психическое развитие, эмоциональное познание, восприятие, мышление, тифлопедагогика, устная речь, письменная речь.

Kirish. Tiflopedagogika — bu ko'r va zaif ko'ruvchi (ko'rishida nuqsoni bo'lgan) bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga moslashtirish bilan shug'ullanuvchi maxsus pedagogikaning tarmog'idir. Tiflopedagogikaning asosiy vazifalari bu ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini o'rganish. Ularning rivojlanishiga mos o'quv-didaktik materiallar va metodikalarni ishlab chiqish. Maxsus muhitda (masalan, Brayl alifbosi, audio vositalar) ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish. Ko'rishda nuqsoni bor bolalarning mustaqil hayot kechirish ko'nikmalarini shakllantirish. Tiflopedagogika nafaqat ta'lim, balki sog'lom ijtimoiy muhit yaratish orqali bolalarning to'laqonli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, shuningdek, tibbiyot ilmining rivojlanishi tiflopsixologiya obyektiga ta'sir o'tkazdi. Ko'zi ojiz tushunchasi bugungi kunda uning asosida pedagogik jarayon olib boriladigan analizatorlarning yetakchi tizimini aniqlash nuqtayi nazaridan olib qaraladi.

Tiflopsixologlar nuqtayi nazarining o'ziga xosligi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini anomal organizm emas, balki faol rivojlanayotgan, sensorikaning bevosita nuqsonlarini kompleks vositalangan bilish faoliyati bilan to'ldiradigan shaxsning rivojlanishi sifatida tushuniladi. Ko'rishda chuqur nuqsoni bo'lgan bolalarning kompensator rivojlanishining o'ziga xosligi psixik jarayonlar va sifatlar ansamblida ko'zi ojizlik va zaif ko'ruvchilikni kompensatsiyalashni ta'minlaydigan yangi aloqalarning hosil bo'lishida o'z ifodasini topadi. Ko'rish analizatori faoliyatining zararlanishi chuqurligi va xarakteri sensor tizim rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi, atrof olamni bilishning yetakchi tipini, tashqi olam obrazlarining modelligi, aniqligi va to'liqligini belgilaydi. Tashqi olamni aks ettirishning psixologik tizimi shu

sababdan ko‘rish analizatori turlicha zararlanganda turlichadir. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar atrof olam bilan tanishish, faoliyatini amalga oshirish usullari kabi uni bajarishni nazorat qilish usullariga ko‘ra ham farq qiladi. Nutq – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli.

Bolaning hissiy bilish tajribasi shakllanishi murakkab tizimli ko‘rish – eshitish, ko‘rish-taktik, ko‘rish-harakatli aloqalar asosiga quriladi, bular bilish faoliyati oliy shakllarining keyingi rivojlanishi uchun fiziologik asos sanaladi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, ko‘rish obrazlari, hissiy, keyinchalik esa nutqiy-mantiqiy tajribaning ortib borishi bilan turli psixik funksiyalar qorishmasiga aylana boradi, ular tashqi sharoitlar ta’sirida doimo o‘zgarib turadi va qayta quriladi. Bu so‘zlarning predmet ma’nolari va bolalar foydalanadigan leksik-grammatik kategoriyalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqning muayyan mazmunini ko‘rish obrazlari bilan boyitish me’yorda bolaning psixik rivojlanishi davomida bevosita hissiy va nutqiy-mantiqiy bilish o‘rtasida to‘g‘ri nisbatning hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Hozirgi kunda nutqni rivojlantirish muammosining dolzarbligi mazkur psixik jarayon inson faoliyati istalgan shaklining ajralmas tarkibiy qismi ekani bilan belgilanadi. Keyingi vaqtda psixologik-pedagogik adabiyotlarda nutqning bilimlarni to‘laqonli o‘zlashtirish, mantiqiy tafakkur, ijodiy qobiliyatlar va psixik faoliyatning boshqa sohalari rivojlanishining asosi sifatida maktabga tayyorlash uchun alohida ahamiyati haqidagi masala tobora ko‘p qo‘yilmoqda. Ko‘rish patologiyasi bo‘lgan bolalarda nutqning shakllanishi, ko‘radigan boladagidan ko‘ra murakkab sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning buzilishi va ko‘rishdagi buzilishlar murakkab nuqson bo‘lib, bunda nutqiy va ko‘rishdagi kamchiliklar o‘rtasida ma’lum aloqadorlik va o‘zaro ta’sir kuzatiladi.

Tiflopedagog va defektologlar tadqiqotlarida aniqlanishicha, ko‘rish nuqsoni tufayli tarbiyalanuvchilarning 30% dan ortig‘ida nutqiy yetishmovchilik kuzatiladi.

L.S.Volkova,A.L.Lukoshevichene,S.A.Pokupneva, I.V.Pokupneva, I.V.Novichkova, Ye.V.Shlay va boshqa olimlarning ishlarida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda nafaqat nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi bilan kechadigan tizimli buzilishlar (nutqning to‘liq rivojlanmaganligi, fonetik-fonematik nutq kamchiligi), balki idrok, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og‘ishlar ham kuzatilishi o‘z tasdig‘ini topgan.

Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Odam nutq bo‘lmasa, til vositalari bo‘lmasa fikr qilolmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, nutq fikrlash qurolidir. Tafakkur bo‘lmasa nutq til bo‘lishi ham mumkin emas.

Nutq, o‘zining tashqi ifodalanish usuliga qarab og‘zaki va yozma nutqqa ajralib qolmasdan shu bilan birga, qanday vazifani bajarishiga va sintaktik tuzilishining xususiyatlariga qarab ham bir-biridan farq qiladi. Nutq o‘zining bajaradigan vazifasiga qarab, ichki va tashqi nutqqa bo‘linadi. Ichki nutq shunday bir nutqdirki, uning yordami bilan fikrlar boshqa odamlarga ma’lum qilinmasdan oldin ichda ifodalanadi.

Ichki nutqning o‘z xususiyatlari bor. Bu nutq, ko‘pincha tovushlar ovoz chiqarib aytmaydigan, odam “o‘z ichida gapiradigan” nutqdir. Ba’zan ichki nutq “tashqariga” chiqadi ya’ni tovushlar ovoz chiqarib aytiladi. Ichki nutq, odatda, ixtiyorsiz ravishda o‘tadi. Bunda tafakkur jarayonlarining o‘zi ixtiyoriy ravishda, ma’lum kuch sarflash yo‘li bilan ham borishi mumkin. Lekin ixtiyoriy tafakkur jarayonining borishiga yordam bergani ichki nutq ixtiyorsiz ravishda o‘z-o‘zicha maydonga chiqadi deyish mumkin. Ichki nutq dialog shaklida sodir bo‘lgan hollardagina ixtiyoriylik momentlari paydo bo‘ladi. Bunday hollarda ichki nutq o‘zining sintaksis tuzilishi jihatidan ham tashqi nutq tuzilishiga yaqinlashib qoladi. Tashqi nutq boshqa odamlar bilan aloqa qilishimizda foydalaniladigan nutqdir. Bu nutq biron kishiga qaratilgan, biron nimani habar qiladigan nutqdir.

Ko‘zi ojiz bolalar nutqi, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev va boshqalar ta’kidlaganidek, yoshga oid rivojlanishning umumiy qoidalariga bo‘ysunadi va yetakchi faoliyat (o‘yin, o‘qish) bilan belgilanadi, biroq uning shakllanishi me’yori ko‘radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitda kechadi. Ko‘rish qobiliyati og‘ir nuqsoni sharoitida atrof-makonni hamda predmetlarni distant va bir paytda ko‘rib chiqish, ularni yaxlit idrok etish va ko‘rgazmali qiyoslash imkoniyati keskin cheklangan bo‘ladi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan 7 yoshli bolalarning bilish mustaqilligini o‘rganib, T.P.Sviridyuk ularning predmetli axborotdan foydalana olmasligi, kuzatish qobiliyati yetarlicha rivojlanmaganligini aniqlagan.

Bular idrok va og‘zaki nutq jarayonlari rivojlanishiga bevosita bog‘liq. N.G.Morozovaning tadqiqotlari hissiy bilish sohasining torayishi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarning predmetlar, ularning belgilari bilan, harakatlar bilan mustaqil tanishishiga to‘sqinlik qiladi, bu o‘z navbatida, zarur tasavvurlarning to‘planishi sekinlashishiga olib keladi.

Vygotskiy ko‘rish nuqsoni bolaning psixik rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rgangan. U shuni ta’kidlagan: “Ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarda boshqa sezgi organlari, ayniqsa eshitish va teginish kuchli rivojlanadi, bu esa kompensator imkoniyatlar hisoblanadi”. Uning fikricha, nutq rivojlanishi ham bu kompensatsiya asosida kechadi, lekin maxsus pedagogik yondashuv talab etiladi.

S.E. Efimenkova ko‘zi ojiz bolalar nutqini o‘rganib, quyidagicha fikr bildirgan: “Ko‘rish nuqsoni bolalarda nutqning talaffuz, grammatik, semantik tomonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun nutqni rivojlantirish maxsus metodlar orqali amalga oshirilishi kerak.”

Ko‘rishida nuqsoni bor bolalar uchun quyidagi pedagogik yodashuvlarni amalga oshirish lozim. Bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishdir. Ko‘rishda nuqsoni bor bolalarda bu yondashuv:

- Kompensator mexanizmlarga tayanadi (eshitish, teginish);
- Maxsus metodikalar va vositalardan foydalanishni nazarda tutadi;
- Logoped, tiflopedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini talab qiladi.

Asosiy maqsadlar:

- Bola eshitish, teginish, harakat orqali so‘z boyligini kengaytirish;
- Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantirish;
- Fikrini grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashni o‘rgatish;
- Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikr va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutq inson tafakkuri va psixik rivojlanishining muhim vositasi sifatida har tomonlama chuqur o‘rganishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun nutqning shakllanishi va rivojlanishi yanada murakkabroq sharoitda kechadi. Ularning bilish tajribasi ko‘rish hissi orqali to‘liq shakllanmaganligi sababli, nutqiy rivojlanish hissiy-idrokiy faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqotlar ko‘rsatmoqda-ki, ko‘rish nuqsonlari tufayli bolalarda nutqiy yetishmovchiliklar, fonetik-fonematik kamchiliklar, shuningdek, idrok, xotira, diqqat va mantiqiy tafakkurda ham muammolar kuzatiladi. Bu esa ularning ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda individual yondashuv, maxsus metodikalar va tiflopedagogik usullarni qo‘llash zarur hisoblanadi.

Nutq va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni inobatga olgan holda, ichki va tashqi nutq shakllarining farqlari, ularning rivojlanish bosqichlarini hisobga olib tashkil etilgan ta’limiy faoliyat bolalarda nutqiy salohiyatning kengayishiga xizmat qiladi. Demak, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda psixologik-pedagogik yondashuvning ilmiy asoslangan, tizimli va individual yo‘nalishda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Z.Abidova, “Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya)”. — T. 2017 80-88 b.
2. Z.Qahramonova, “Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik va pedagogik tekshirish”, Journal of universal science research, 271-274 b.
3. Z. Kahramonova, “Formation of enclusive social relations in our coutry”, Modern educational system and innovative teaching solutions.

Мадинабону АХМЕДОВА,
студентка 1 курса факультета педагогика-психология и искусствоведения Ферганского государственного университета

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО СЛУХА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: в статье рассматриваются актуальные методики формирования музыкального слуха у младших школьников в условиях современной образовательной практики. Описываются подходы, основанные на системе З. Кодая, ритмической сольмизации В.Б. Брайнина, а также элементы игровой и компьютерной технологии. Подчеркивается значение вокально-хоровой деятельности, телесной моторики и эмоционального восприятия в развитии интонационного и ритмического слуха. Автор обосновывает необходимость комплексного подхода, включающего диагностику, импровизацию, диктанты и работу с музыкальными образами, что позволяет эффективно развивать слуховые навыки у детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: музыкальный слух, методика, младшие школьники, интонационный слух, ритмическое восприятие, музыкальное воспитание, дидактические игры, сольмизация, слуховое развитие.

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqiy eshituv qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha zamonaviy ta’lim amaliyotida qo‘llanilayotgan uslubiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Z. Kodai tizimi, V.B. Braynin tomonidan taklif etilgan ritmik solmizatsiya hamda o‘yinli va kompyuter texnologiyalariga asoslangan usullar bayon etiladi. Intonatsion va ritmik eshituvni rivojlantirishda vokal-xor faoliyati, tanaviy harakatlar va musiqiy asarlarni hissiy idrok etish muhimligi ta’kidlanadi. Muallif musiqiy diktnatlar, improvizatsiya, tashxisiy yondashuv va musiqiy obrazlar bilan ishlashni o‘z ichiga olgan kompleks metodikaning afzalliklarini asoslab beradi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida eshituv malakasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: musiqiy eshituv, metodika, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, intonatsion eshituv, ritmik idrok, musiqiy tarbiya, didaktik o‘yinlar, solmizatsiya, eshituv rivoji.

Annotation: the article examines modern methodological approaches to developing musical hearing in primary school children within contemporary educational practice. It describes techniques based on Z. Kodály’s system, rhythmic solmization by V.B. Brainin, and the integration of game-based and computer technologies. The significance of vocal and choral activities, bodily movements, and emotional perception of musical works is emphasized in developing intonational and rhythmic hearing. The author substantiates the advantages of a comprehensive method that includes diagnostics, musical dictations, improvisation, and work with musical imagery, all of which contribute effectively to the development of auditory skills in young learners.

Key words: musical hearing, methodology, primary school children, intonational hearing, rhythmic perception, music education, Z. Kodály, Brainin, didactic games, solmization, auditory development.

Формирование музыкального слуха у младших школьников является важной задачей в системе музыкального образования, поскольку слух служит основой восприятия музыки, ее понимания и последующего исполнительского мастерства. У детей младшего школьного возраста наблюдается повышенная чувствительность к звуковым стимулам, поэтому именно в этот период создаются оптимальные условия для развития различных видов слуха – мелодического, ритмического, гармонического и интонационного. Педагогическая практика показывает, что формирование музыкального слуха должно строиться на научно обоснованных методиках, учитывающих возрастные особенности, уровень музыкальной подготовленности, а также индивидуальные склонности ребенка. По мнению Е. И.

Хазановой, обучение в младшем школьном возрасте должно начинаться с развития слухового внимания и эмоционального отклика на музыку, что подготавливает базу для более сложных аналитических операций [1, с. 25].

Методика З. Кодая, ориентированная на активное использование вокального пения, ритмизации и сольмизации, доказала свою эффективность в начальной музыкальной подготовке детей. Согласно З. Кодаю, интонационный слух формируется в первую очередь через пение – как осознанное воспроизведение высотных и ритмических параметров звука. Основной методический принцип – от простого к сложному: от двузвучий и элементарных ритмов к многозвучной структуре и нотной грамоте [2, с. 43]. Метод опирается на народные мелодии и простые песенные интонации, что облегчает усвоение музыкального материала. С. В. Гончаров подчеркивает, что восприятие музыкального звука у ребёнка формируется не столько в результате пассивного слушания, сколько при активном участии в пении, ритмических движениях и игре на детских музыкальных инструментах [3, с. 18]. Таким образом, в образовательный процесс необходимо включать элементы телесной моторики – шаги, хлопки, притопы – как средство формирования ритмического и метрического слуха. Это подтверждает эффективность комплексного подхода, когда моторные, слуховые и зрительные каналы взаимодействуют для формирования прочных навыков. Интересный пример предлагает Ю. С. Акимова в исследовании, основанном на методике В. Б. Брайнина, где акцент сделан на ритмическую сольмизацию и использование компьютерных технологий [4, с. 66]. Создание интерактивной среды с элементами геймификации (в частности, использование электронной обучающей платформы “Путешествие в страну ритма”) позволило младшим школьникам не только с интересом выполнять музыкальные задания, но и значительно повысить точность в различении и воспроизведении ритмических рисунков. Внедрение данной методики показало рост устойчивого ритмического слуха у всех участников эксперимента.

В процессе работы с младшими школьниками целесообразно использовать дидактические игры и упражнения на развитие музыкальной памяти, дифференцированное слушание звуков, повторение мелодий, определение интервалов и высоты. Например, упражнение “Музыкальный светофор”, где детям предлагается по хлопкам учителя определить, какой сигнал “звучит” – высокий, средний или низкий, активизирует восприятие высотной характеристики звука. Подобные приемы активно применялись в практических занятиях в рамках авторской программы Н. Н. Андреевой, направленной на развитие музыкального слуха средствами вокально-хоровой деятельности [5, с. 31]. Важным направлением методики является формирование релятивного слуха, основанного на восприятии отношений между звуками, а не на абсолютной высоте. Дети учатся распознавать интервалы, ступени, движение вверх и вниз в мелодии. Методики Б. Асафьева и Н. Галкина, например, ориентированы именно на восприятие интервала как смысловой единицы мелодии. Это означает, что обучение не должно ограничиваться механическим повторением звуков, а должно стимулировать понимание их связи, функции и логики развития мелодической линии.

Особое значение имеет развитие интонационного слуха, который отвечает за восприятие музыкального высказывания в целом. На начальном этапе обучения интонационный слух развивается через подражание – дети воспроизводят мелодии на слух, стараясь точно передать не только высотные, но и динамические, агогические нюансы. Постепенно, по мере включения более сложного репертуара, они учатся анализировать мелодическую структуру, различать модуляции, фразировку и тематическое развитие. Музыкальные диктанты – эффективное средство закрепления слуховых навыков. В младших классах они могут быть упрощенными – запись направления мелодии (вверх-вниз), ритмических рисунков, чередование длительностей. Эти упражнения способствуют не только развитию слуха, но и формируют элементарные навыки музыкаль-

ного письма. Сочетание диктантов с импровизацией – еще один эффективный прием: например, после прослушивания короткой мелодии детям предлагается придумать свое продолжение, используя аналогичный ритм или интонационную модель.

Отдельно следует выделить роль эмоционального отклика и образного мышления в развитии музыкального слуха. Музыка в этом возрасте воспринимается преимущественно эмоционально и ассоциативно. Поэтому педагог должен подбирать произведения, способные вызвать эмоциональный отклик – простые песни, музыкальные сказки, пьесы с ярко выраженными образами. Обсуждение музыки, описание “музыкальных героев” или “пейзажей” усиливает активное слушание и формирует внутреннюю слуховую репрезентацию звучащего материала. Обучение в младших классах должно быть систематическим, но при этом достаточно гибким, чтобы адаптироваться к возможностям каждого ребенка. Диагностика слуховых способностей в начале обучения позволяет выстроить индивидуальные траектории развития. Тестирование может включать воспроизведение ритма, повторение звуков, определение изменений в высоте. В зависимости от результатов преподаватель выбирает приоритетные направления работы: с кем-то – развитие ритмического слуха, с другими – слуховой памяти и восприятия формы.

Современные технологии также играют важную роль в развитии музыкального слуха. Использование интерактивных приложений (например, “EarMaster”, “Tenuto”, “Solfa Trainer”) позволяет детям тренировать слух в игровой форме. Эти приложения дают возможность работать над интонацией, ритмом, определением интервалов и аккордов, что делает обучение более привлекательным и доступным. Однако необходимо подчеркнуть, что технологии должны дополнять, а не заменять живое музыкальное взаимодействие – пение, игру на инструменте, ансамблевую практику.

Таким образом, методика формирования музыкального слуха у младших школьников должна быть основана на целостном подходе: пение, движение, игра, слушание, творческая деятельность. Успешность данного процесса зависит от соблюдения принципа последовательности и постепенности, выбора музыкального материала, соответствующего возрасту, а также использования разнообразных педагогических приемов. Формируя слух, педагог закладывает фундамент не только для последующего музыкального развития, но и для общей когнитивной и эмоциональной сферы ребенка.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Хазанова Е. И. Формирование музыкального слуха у младших школьников // Начальная школа. – 2015. – № 3. – С. 24–28.

2. Кодай З. Методическое наследие: музыкальное воспитание детей / Пер. с венг. – М.: Музыка, 2005. – 112 с.

3. Гончаров С. В. Психология музыкального восприятия у детей. – СПб.: Союз художников, 2012. – 198 с.

4. Акимова Ю. С. Развитие ритмического слуха младших школьников на занятиях музыки с применением компьютерных технологий // Электронный научный журнал Brainin.org. – 2022. – № 2. – С. 64–70. – URL: https://www.brainin.org/Method/method_pro_ru/Akimova.pdf

4. Андреева Н. Н. Методика музыкального воспитания в начальной школе. – М.: Академия, 2020. – 152 с.

Nigina DO‘STBEKOVA,
Master of Termiz University of Economics and Service

PHONETIC ACCURACY THROUGH INTENSIVE METHODS: A STUDY OF SECONDARY SCHOOL ESL STUDENTS

Annotation: the article investigates how intensive teaching methods can improve the phonetic skills of secondary school students learning English. It underlines the significance of mastering pronunciation for clear and confident speech. The paper reviews a variety of focused instructional strategies, such as phonetic transcription, repetition drills, the use of multimedia tools and exercises with minimal pairs. Based on current educational research and practical classroom findings, the article outlines effective techniques that support better pronunciation and listening skills. It also discusses the importance of well-prepared teachers, learner engagement and continuous phonetic practice in building students' speaking accuracy in English.

Key words: English phonetics, intensive instruction, pronunciation improvement, secondary education, ESL learners, phonetic practice, teaching strategies, listening skills, speech clarity, phonological training

Аннотация: в данной статье рассматривается эффективность интенсивных методов обучения фонетическим аспектам английского языка среди учащихся средних школ. Подчеркивается важность фонетических навыков для правильного произношения и беглой речи. Анализируются различные интенсивные методики преподавания, такие как фонетическая транскрипция, повторяющие упражнения, использование аудиовизуальных средств и задания с минимальными парами. Основываясь на современных педагогических исследованиях и практическом опыте, статья выделяет наиболее эффективные подходы для развития произношения и навыков аудирования у учащихся. Также рассматривается значение квалифицированных преподавателей, мотивации обучающихся и регулярных фонетических тренировок для повышения точности английской речи.

Ключевые слова: фонетика английского языка, интенсивное обучение, улучшение произношения, средняя школа, изучающие английский язык, фонетическая практика, методы преподавания, аудирование, чёткость речи, фонологическая подготовка

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilining fonetik jihatlarini intensiv usullar orqali o‘rganishning o‘rta maktab o‘quvchilari uchun samaradorligi o‘rganiladi. Unda to‘g‘ri talaffuz va ravon nutq uchun fonetik ko‘nikmalarning ahamiyati ta’kidlanadi. Maqolada fonetik transkripsiya, takroriy mashqlar, audiovizual vositalar va minimal juftlik mashqlari kabi intensiv o‘qitish uslublari tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar va amaliy dars tajribalariga asoslanib, maqola o‘quvchilarning talaffuzi va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng samarali yondashuvlarni aniqlaydi. Shuningdek, malakali o‘qituvchilar, o‘quvchilar faolligi va doimiy fonetik mashg‘ulotlarning ahamiyati ham yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: ingliz fonetikasi, intensiv o‘qitish, talaffuzni rivojlantirish, o‘rta ta’lim, ingliz tili o‘rganuvchilari, fonetik mashqlar, o‘qitish strategiyalari, tinglab tushunish, so‘zlashuv aniqligi, fonologik tayyorgarlik

Introduction

In the context of increasing globalization, mastering English has become indispensable for success in education, career and communication. Among the key elements of language acquisition, pronunciation significantly contributes to clear and effective spoken communication. Nevertheless, many secondary school learners face difficulties with English phonetics, which often leads to miscommunication and diminished speaking confidence. This issue is especially common in environments where students have limited opportunities to hear and practice natural English outside their classrooms.

Studies have shown that intensive phonetic training can effectively help learners overcome pronunciation challenges. These training methods focus on repetitive, targeted practice of sounds, stress, rhythm and intonation, aiming to boost learners' ability to recognize and produce English phonemes accurately.

Despite the acknowledged importance of pronunciation, many secondary school programs do not dedicate enough instructional time to phonetic training. As a result, students may develop persistent pronunciation errors and struggle with clear speech. This highlights the need to explore and implement intensive teaching techniques that emphasize phonetic skills to enhance English learning outcomes at the secondary school level.

This paper examines a range of intensive phonetic teaching approaches and evaluates their effectiveness in improving students' pronunciation abilities. It also discusses theoretical insights and practical strategies that teachers can apply in ESL classrooms to support learners' oral proficiency in English.

Methodology

This research utilized a mixed-methods approach, combining both qualitative and quantitative techniques to assess how effective intensive phonetic instruction is

in enhancing English pronunciation among secondary school learners. The study design included the selection of participants, the implementation of a structured teaching program, and systematic data collection and analysis.

Participants

A total of 60 students from two secondary schools in [City/Country], aged 13–15, participated in the study. They were equally divided into two groups: an experimental group and a control group, each comprising 30 students. All students had comparable English proficiency levels, classified as pre-intermediate.

Phonetic Instruction Program

The experimental group received an intensive phonetics course for a period of six weeks, involving:

- Daily sessions (30 minutes each) dedicated to articulating English consonants and vowels
- Minimal pair drills to help distinguish similar sounds
- Training in phonetic transcription using the International Phonetic Alphabet (IPA)
- Integration of multimedia tools such as pronunciation videos and mobile applications
- Regular reading aloud practices and listening comprehension activities

Meanwhile, the control group continued with their regular English lessons without targeted phonetic training.

Instruments for Data Collection

To evaluate progress, the following tools were used:

1. Pronunciation pre- and post-tests, scored using standardized criteria
2. Listening comprehension assessments
3. Questionnaires to capture student attitudes and self-reported improvements
4. Teacher observation notes and recordings of student speech before and after the intervention

Analysis of Data

The data collected from the pronunciation and listening tests were processed using statistical methods, including descriptive analysis and paired t-tests to identify significant changes. Qualitative data from surveys and observations were analyzed thematically to gain insight into learners' motivation, engagement and overall development in pronunciation skills

Results

The findings of the study demonstrate notable improvements in the English pronunciation abilities of students who underwent the intensive phonetic training. The experimental group, which participated in a six-week focused phonetics program, exhibited significant advancement compared to the control group, which continued with the usual curriculum without specialized pronunciation practice.

Statistical evaluation of the pronunciation pre- and post-test scores revealed a meaningful increase in accuracy for the experimental group ($p < 0.01$). Their average pronunciation scores rose by 25%, while the control group showed only a slight 5% improvement. Similarly, results from listening comprehension assessments showed that the experimental group performed better, with an average increase of 18% relative to the control group.

Qualitative feedback collected from student surveys indicated enhanced self-confidence and motivation toward improving pronunciation skills. Many learners expressed greater awareness of English phonemes and an improved ability to identify and correct their own mistakes. Teachers' observations aligned with these results, noting increased participation and clearer speech production during lessons.

Analysis of recorded student speech highlighted better articulation of challenging vowel and consonant sounds, especially in differentiating minimal pairs like /b/ versus /v/ and /θ/ versus /s/. Both students and educators found phonetic transcription exercises and audiovisual materials particularly beneficial.

In summary, the results confirm that intensive phonetic instruction significantly boosts secondary school students' pronunciation proficiency, as well as their listening skills. These outcomes highlight the importance of incorporating focused phonetic teaching within regular ESL programs to enhance learners' overall communication effectiveness.

References

1. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2010). *Teaching pronunciation: A course book and reference guide* (2nd ed.). Cambridge University Press.

2. Gilakjani, A. P. (2016). English pronunciation instruction: A literature review. *International Journal of Research in English Education*, 1(1), 1–6.

3. Morley, J. (1991). The pronunciation component in teaching English to speakers of other languages. *TESOL Quarterly*, 25(3), 481–520. https://doi.org/10.2307/3586981

4. Derwing, T. M., & Munro, M. J. (2005). Second language accent and pronunciation teaching: A research-based approach. *TESOL Quarterly*, 39(3), 379–397.

5. Pourhosein Gilakjani, A. (2012). The significance of pronunciation in English language teaching. *English Language Teaching*, 5(4), 96–107. https://doi.org/10.5539/elt.v5n4p96

6. Yates, L., & Zielinski, B. (2009). *Give it a go: Teaching pronunciation to adults*. AMEP Research Centre.

7. Underhill, A. (2005). *Sound foundations: Learning and teaching pronunciation* (2nd ed.). Macmillan Education.

Farzona CHORIYEVA,
Termez University of Economics and Service,
2nd year master's degree in foreign language literature, English
Elena SATTAROVA,
Termez University of Economics and Service, (PhD), dots.

ETYMOLOGY FEATURES OF LANGUAGE TABOOS AND EUPHEMISMS

Annotation: *this article explores the etymological features of language taboos and euphemisms, examining how cultural, social and psychological factors influence their development and transformation over time. By analyzing the origins and semantic shifts of taboo words and their euphemistic counterparts across different languages, the study highlights the dynamic relationship between language, societal norms and human behavior. Special attention is given to the mechanisms of lexical substitution, metaphor and sound alteration that contribute to the evolution of euphemistic expressions, revealing how language reflects and adapts to changing attitudes toward sensitive or prohibited topics.*

Key words: *language taboos, euphemism, societal norms, lexical substitution, metaphor, prohibited topics.*

Аннотация: *в этой статье рассматриваются этимологические особенности языковых табу и эвфемизмов, изучается, как культурные, социальные и психологические факторы влияют на их развитие и трансформацию с течением времени. Анализируя происхождение и семантические сдвиги табуированных слов и их эвфемистических аналогов в разных языках, исследование подчеркивает динамическую связь между языком, общественными нормами и поведением человека. Особое внимание уделяется механизмам лексической замены, метафоры и изменения звука, которые способствуют эволюции эвфемистических выражений, показывая, как язык отражает и адаптируется к меняющимся отношениям к деликатным или запрещенным темам.*

Ключевые слова: *языковые табу, эвфемизм, общественные нормы, лексическая замена, метафора, запрещенные темы.*

Annotatsiya: *ushbu maqola til tabulari va evfemizmlarining etimologik xususiyatlarini o'rganadi, madaniy, ijtimoiy va psixologik omillarning vaqt o'tishi bilan rivojlanishi va o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqot tabu so'zlarning kelib chiqishi va semantik siljishlarini va turli tillardagi evfemistik o'xshashlarini tahlil qilib, til, jamiyat me'yorlari va inson xatti-harakati o'rtasidagi dinamik munosabatni ta'kidlaydi. Evfemistik iboralar evolyutsiyasiga hissa qo'shadigan lug'aviy almashtirish, metafora va tovush o'zgarishi mexanizmlariga alohida e'tibor beriladi, tilning nozik yoki taqiqlangan mavzularga munosabatni o'zgartirishi va moslashishini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *til tabulari, evfemizm, ijtimoiy normalar, leksik almashtirish, metafora, taqiqlangan mavzular.*

